



Ravshan Rajabov

JAHON TARIXI

Qadimgi Sharq,
Yunoniston,
Rim

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi tomonidan 5110600 Tarix o'qitish metodikasi ta'lim
yo'nalishi talabalari (o'quvchilari) uchun darslik
sifatida tavsiya etilgan




YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2015

UO‘K: 94(100) (075)

KBK: 63.3 (0)

R-17

Rajabov, Ravshan

Jahon tarixi: I qism. Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim / Ravshan Rajabov.
– Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 604 b.

ISBN 978-9943-27-624-6

O‘quv darsligi Jahon tarixi fanining yangi dasturi asosida yozilgan. U uch bo‘limdan iborat: Sharq, Yunoniston va Rim. Darslikda qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim tarixiga oid asosiy voqea-hodisalar, sharq va g‘arbda ilk davlat va jamiyatning paydo bo‘lishidan to ularning gullab-yashnashi va so‘nash davri – milodiy V asrgacha yoritilgan.

Qadimgi sivilizatsiyaning iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmalari, siyosiy davlat tashkilotlari, madaniyatlarining asosiy sohalari tahlil qilinadi.

Darslik oliy o‘quv yurtlari tarix fakultetlari talaba va oqituvchilari, maktab, litsey va kollej o‘quvchilariga hamda jahon tarixi va madaniyatini o‘rganuvchilarga mo‘ljallangan.

UO‘K: 94(100) (075)

KBK: 63.3 (0)

Mas’ul muharrir:

G‘. TEMIROV,
tarix fanlari doktori

Taqrizchilar:

X. RAUPOV,
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Z.U. HAYITOV,
tarix fanlari nomzodi, dotsent
R. N. TOLIBOV,
tarix fanlari nomzodi, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2015-yil 2-fevraldagi 32-sonli buyrug‘iga asosan ushbu darslikni nashr etishga ruxsat berilgan

ISBN 978-9943-27-624-6

© Ravshan Rajabov, «Jahon tarixi». «Yangi asr avlodi», 2015.

BIRINCHI QISM

I BOB

QADIMGI SHARQ

KIRISH

1. Qadimgi Sharq aholisi. 2. Qadimgi Sharq jamiyati va davlatchiligi. 3. Qadimgi Sharqda yer egaligi. 4. Qulchilik. 5. Qadimgi Sharq jamoasi.

«Qadimgi Sharq» geografik tushunchasi shimoliy-gʻarbiy Afrikadan Tinch okeanigacha va buyuk choʻllardan Hind okeani va Sahroyi Kabirgacha boʻlgan ulkan hududni qamrab oladi. Qadimgi Sharq deb shartli ataladigan bepoyon geografik hudud gʻarbdan sharqqa qadimgi Karfagen joylashgan hozirgi Tunis-dan Xitoy, Yaponiya va Indoneziyagacha, janubdan shimolga hozirgi Efiopiyadan Kavkaz togʻlari va Orol dengizining janubiy qirgʻoqlarigacha choʻzilib ketgan. Bu yerda qadimda mavjud boʻlgan koʻp sonli sharq davlatlari tarixda muhim rol oʻynaydi: Qadimgi Misr podsholigi, Bobil, Xetlar, Osuriya, Finikiya, Suriya, Falastindagi, Frigiya, Lidiya, Eron togʻ tizmasidagi davlatlar, jumladan, Yaqin Sharq hududlarini oʻz tarkibiga kiritgan qudratli fors Ahmoniylar davlati, Hindiston, Xitoy, Koreya va Janubiy-Sharqiy Osiyo hududlaridir.

Insoniyat tarixi ibtidoiy jamoadan sivilizatsiyaga oʻtishi shaharlarning paydo boʻlishi, ularning hokimiyat va diniy markaz sifatida shakllanishi, ibodatxona va saroylar qurilishi, yozuvning va shuningdek, jamiyatda turli sinflar va davlatchilikning vujudga kelishi bilan boshlanadi. Qadimgi sivilizatsiyalar davri qadimgi dunyo tarixi fani tomonidan oʻrganiladi. Tabiiyki, sivilizatsiyalar tarixi qadimgi sharqda miloddan avvalgi IV ming yilliklardan urugʻ-jamoa munosabatlaridan davlat va jamiyatga oʻtish natijasida turli ijtimoiy qatlamlarning paydo boʻlishi bilan boshlanadi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi geografik hududlarda turli davrlarda tugallandi. Yevropa tarix fani anʼanasiga koʻra Old Osiyoda Qadimgi Sharq tarixi Makedoniyalik Aleksandrning yurishlari (mil.avv. IV asr) bilan tugallandi. Janubiy-Sharqiy

Osiyo mamlakatlari uchun milodiy I ming yillikning II yarmigacha davom etdi.

Qadimgi sharq hududi subtropik iqlimli, juda issiq va quruq yozi, yumshoq qishi bilan ko'zga tashlanadi. Qadimgi Sharq xalqlarining sivilizatsiyalari asosan buyuk daryolar: Nil, Dajla va Frot, Hind, Gang, Xuanxe, Yanszi, Amudaryo kabi havzalarning unumdor vodiylarida sun'iy sug'orishga asoslangan xo'jalik hayotining samarali rivojlanishi bilan ajralib turadi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi jahon xalqlari taraqqiyotining keyingi rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Qadimgi Sharqda ilk sivilizatsiyalar katta daryo havzalarida dehqonchilik rivojlanishi natijasida paydo bo'ldi. Qadimgi sivilizatsiyaning ijodkorlari bo'lgan turli tilda so'zlashgan va bir-biriga o'xshamagan xalqlar ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Ularning har birini o'z turmush tarzi, o'z axloqi, urf-odat, an'analari, dunyo, jamiyat va tabiat to'g'risidagi o'z qarashlari mavjud edi. Katta daryolar vodiylarida vujudga kelgan (Misr, Ikki daryo oralig'i, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy hududlari) davlatlar insoniyat sivilizatsiyasining asosiy o'choqlari bo'ldi. Bu hududlarda shahar-davlatlar shakllanib, rivojlangan o'choqlari ko'paydi. Tog'li mamlakatlar (Kichik Osiyo, Suriya, Falastin) uchun geografik, iqlim sharoitlari jamiyat va davlat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Qadimgi sharqning buyuk sivilizatsiyalari bir necha ming yillar davomida shakllanib, insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga xos ulug'vor madaniyatni yaratdi. Qadimgi sivilizatsiyalar insoniyatning kelajak madaniy-ma'naviy-siyosiy taraqqiyotining asoslarini yaratdi. Umuminsoniy qadriyatlarning huquqiy, madaniy-ma'naviy g'oyalarining asoslari ana shu sivilizatsiyalar bag'rida yotadi.

Buyuk cho'llar deb atalgan Shimoliy Xitoydan Shimoliy Qora dengiz bo'yigacha cho'zilib ketgan bepoyon cho'l-dasht hududida mil.avv. II-I ming yilliklarda buyuk sak-skif sivilizatsiyasi shakllandi. Sak-skif sivilizatsiyasi ko'chmanchi o'troq va yarim o'troq xo'jalikka asoslangan jamiyat bo'lib, ular noyob madaniyat yaratdilar. Bu madaniyat insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas tarkibiy qismi bo'ldi. Sak-skif sivilizatsiyasi qadimda mavjud bo'lgan boshqa davlat va jamiyatlar bilan yonma-yon yashadi va ularning taraqqiyotiga hayotbaxsh ta'sir qildi.

Qadimgi Sharq xalqlarining tarixini miloddan avvalgi IV ming yillikning ikkinchi yarmida Nil va Frot vodiylarida ilk davlatlar va jamiyatlar paydo bo'lishidan boshlab o'rganish qabul qilin-

gan. Qadimgi sharq sivilizatsiyasining taraqqiyoti milodiy III asrgacha davom etdi. Ilk davrdan boshlab turli hududlarda iqlim,-geografik hududiy joylashuv tufayli Insoniyat tarixiy taraqqiyoti notekis bordi. Su sababli turli hududlarga ishlab-chiqarish, yer egaligining yangi feodal bosqichga o'tishi turli davrlarda yuz berdi. Lekin jamoa munosabatlari ma'lum darajada sharq mamlakatlarida saqlanib qoldi. Aleksandr yurishlari bilan Ellin davlatlari vujudga keldi. O'rta Osiyo, Hindiston va Uzoq Sharq mamlakatlari tarixida antik davr milodiy III-V asrlargacha, qaysiki, bu hududlarda antik ishlab chiqarish munosabatlari yemirilgan vaqtgacha o'rnatiladi.

1. Qadimgi Sharq aholisi. Qadimgi Sharq aholisi turli irq va irqiy guruhlariga: yevroosiyo, yevropoid, ekvatorial yoki negroavstroid xalqlar, osiyo-amerika yoki mongoloid irqi (Uzoq Sharqda), negroid irqi (Napate va Meroye – hozirgi Sudan), Janubiy Hindiston kabilarga bo'lingan. Irq etnologiyasi ko'p sonli xalqlar, qabila va etnik guruhlariga bo'linadi. U ba'zi hududlarga, turli irqiy guruh va guruhchalarga bo'lingan. Qadimgi Sharqda sekin-asta barqaror yirik til oilalari paydo bo'ldi. Old Osiyoda ko'p sonli somiy-homiy yoki afro-osiyo til oilasi somiy shoxchasiga Misr yoki homiy, berber-liviya, kushit tillarida so'zlashadigan turli xalq va qabilalar yashar edi. Somiy tillarida so'zlashuvchi xalqlarga akkadlar, amoriylar, oromiylar, osuriylar, xanaanlar, yahudiy, arab va boshqalar kirgan. Somiy tilli xalqlar asosan Mesopotamiya cho'llari va Arabiston yarim-orolida yashar edilar. Misr yoki homiy shaxobchasiga qadimgi Misr aholisi, berber-liviya tillarida Nil vodiysining g'arbidagi qabilalar, kushit tillarida Nil daryosining yuqori oqimidagi xalqlar so'zlashar edilar. Qadimgi misr tili qo'shni liviya va sudan xalqlari tillariga o'xshash edi. Xett-luviya va hind-eronlar hind-yevropa tillari oilasining shaxobchalaridan biri edi. Xett-luviya tillarida xettlar, luviyaliklar, koreyslar va Kichik Osiyoning boshqa kichik qabilalari so'zlashar edi. Mesopotamiyadagi shumerlar qaysi til oilasiga mansubligi hozirgacha ma'lum emas. Shumer xalqi va yozuvi to'g'risida ingliz olimi Roulingson ilk bor o'z tadqiqotlarida to'xtaldi. Olim Oppert 1869-yil Fransiya arxeologiya jamiyatida Mesopotamiya janubida yashagan xalqni shumerlar deb nomlashni taklif qildi. Oppert shumer tili turk, fin va mojar (benger) tillariga qarindoshligini asosladi. Shumerdan shimolda Mesopotamiyada somiy tilli etnoslar yashagan. Shumerlarning eng yaqin qo'shnilari bo'lgan elamiylar ulardan janubi-sharqda

Dajla va Fors qo'ltig'ining quyi qismida yashab, alohida tilda so'zlashdilar. Yuqori Mesopotamiya va Kavkaz ortida qadimdan xurrit tilli xalqlar yashadi.

Hind-eron shaxobchasida midiyaliklar, forslar, parfiyaliklar, baqtriyaliklar, saklar va qadimgi Hindiston oriyolari so'zlashar edilar. Kichik Osiyoning ba'zi xalqlari hind-yevropa tillar oilasining frako-frigiya guruhi tillarida so'zlashar edi. Xurrit tillar oilasi alohida turar edi. Bu oilani xurriylar, urart va protoxettlar tashkil qilgan. Qadimgi Hindiston aholisi dravid oilasiga mansub bo'lib, ular dravid, gujarat, assam, singal va tamil kabi qadimiy xalqlardan iborat edi. Qadimgi Xitoy qabilalari sino-tibet yoki tibet-xitoy tillar oilasiga kirgan. Shu bilan birga ba'zi tillar, misol uchun, shumerlar, Zagros tog'larida yashagan lulubeylar biror-bir til oilasiga kirmay alohida turadilar.

Qadimgi Sharqning ko'p sonli etnik guruhlarining muntazam ravishda harbiy-siyosiy, savdo va madaniy aloqalari turli etnik guruhlarining aralashib ketishiga va yanada murakkab etnik birliklarning paydo bo'lishiga olib keldi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasini yaratishda turli xalqlar, etnik guruhlar turli davrlarda faol ishtirok etdilar.

Kichik Osiyo va Shimoliy Suriya hududlarida eramizdan avvalgi II ming yillikda nesiylar deb atalgan qabilalar mavjud bo'lgan (Nesiy degan nom Galis daryosining janubida joylashgan Nesiy yoki Nesha degan mamlakat va shaharning nomidan olingan). Nesiylar protoxett qabilalaridan til jihatdan farq qilganlar. Chex olimi B.Grozniiy o'zining tadqiqotlarida ko'rsatishicha, nesiylar tili hind-yevropa guruhidagi xalqlar tillariga juda yaqin bo'lgan.

Til jihatidan bo'lgan shu yaqinlikka asoslanib, tarixchilarning Xett davlati Yevropadan Kichik Osiyoga migratsiya qilgan qabilalar tomonidan tuzilganligi kabi farazlari mavjud. Xett tili va etnosi turli tillarda: protoxett, palay, luviya va nesiy tillarida so'zlashgan va bir-biri bilan aralashib ketgan qabilalar guruhlarini tomonidan bir necha asrlar davomida shakllangani tarixiy tadqiqotlar natijasida ilmiy asoslab berilgan.

O'rta Osiyo antropogenez jarayoni sodir bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Bu hududda yashagan xalqlarda mongoloid belgilar ustivor bo'ladi. Ular arxeologik, etnografik, lingvistik manbalarda hamda antik yozuvchilar asarlarida e'tirof etilgan sak-massagetlar, usun, so'g'd, xorazm, baqtr, farg'onlar (farg'onaliklar) edi. Strabon xorazmiylarni sak-massagetlar

turkumiga kiritib, ularni so'g'd va baqtrlar turmush tarzi va xulq-atvorida farq yo'q deb ta'kidlaydi.

XX asrning so'nggi choragidagi tadqiqotchilar xulosasiga ko'ra, jez davrida O'rta Osiyoning janubiy hududlarida baland bo'yli, boshi cho'zinchoq, yuzi tor irq (yevropoid) vakillari yashagan. Shimoliy dasht-cho'l hududlarida boshi dumaloq, yuzi kengroq va uncha cho'ziq bo'lmagan etnoslar mavjud bo'lgan. Janubdagi etnoslar O'rtayer dengizi irqiga mansub deyiladi. Ular Old Osiyo, Hindistongacha bo'lgan hududlarda tarqaladi. Shimoliy xalqlarga xos xususiyarlarga ega odamlar Sibir, Oltoy, O'rta Osiyo, Ural, Volga hududlarini qamrab oladi.

Jez davrida janubiy Sibir, Oltoy, Qozog'iston, Ural hududlarida turkiy tilli o'troq, yarim o'troq va ko'chmanchi chorvador saklar yashagan. Jez davrida O'rta Osiyodagi janubiy va shimoliy etnoslarning assimillatsiyasi natijasida hududda jez davri va undan keyingi davrlarda yashagan O'rta Osiyoning qadimgi etnoslari (sak-massagetlar, xorazmliklar, farg'onaliklar, baqtrlar, so'g'dlar, parfiyaliklar shakllandi. Sak-massagetlar, xorazmliklar, farg'onaliklar, baqtrlarning ajdodlari janubiy va shimoliy antropologik qiyofadagi odamlar bo'lgan.

2. Qadimgi Sharq jamiyati va davlatchiligi. Qadimgi Sharq mamlakatlarida asta-sekin uch qatlam: qullar va ularga yaqin qaram kishilar, mayda ishlab chiqaruvchilar va tarkibida yirik yer egalari, saroy amaldorlari, harbiy boshliqlar, urug' zoda-gonlarini birlashtirgan hukmron tabaqa shakllangan. Mayda ishlab chiqaruvchilar erkin va qaram yer egalari, turli mulkiy darajadagi hunarmandlardan iborat edi. Har bir ijtimoiy tabaqa yaxlit va bir xil bo'lmay, huquqiy ahvoli, turmush tarzi, boyligi miqdori bo'yicha bir-biridan farq qiladigan bir necha qatlamdan iborat bo'lgan. Qadimgi Sharqning turli hududlaridagi tabiiy sharoit o'zining alohida xususiyatlari va umumiy tomonlariga ega: asosan subtropik iqlim va yozda juda issiq, qishda yumshoq iqlimli hudud. Qadimgi Sharq xalqlarining tarixiy taqdirida buyuk daryolar: Nil (6700 km), Frot (2700 km), Dajla (1900 km), Hind (3180 km), Gang (2700 km), Xuanxe (4850 km) muhim o'rin tutadi. Bu daryolar dunyoda eng yirik daryolar bo'lib, yaxshi sug'oriladigan, hosildor keng vodiylarni tashkil qiladi. Bu hududlarda xo'jalik faoliyatini sun'iy sug'orish inshootlari barpo qilib, ko'pdan-ko'p kanallar tizimini Nil, Frot vodiylarida, Amudaryo, Zarafshon, Sirdaryo havzalarida, Gang, Xuanxe va Mekong daryolarida to'g'onlarni qurish orqali

suv toshqinlarini jilovlash mumkin edi. Bu hududlarda yashaydigan kishilar mahsuldor dehqonchilik qilish uchun juda katta kuch sarf qilishga majbur edilar. Daryolarda baliqlar juda ko'p bo'lib, odamlarga asosiy ovqat bo'lar edi. Frot, Dajla, Nil va Mekong daryolari vodiylarida ekinlar asosan yovvoyi holda o'sgan. Daryo vodiylarida arpa, sholi, bug'doy, tariq va boshqa donli ekinlar madaniylashtirildi. Boy hayvonot dunyosi ko'pchilik hayvonlarni yashnab ketishi uchun shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga, allyuvial tuproqli vodiylarda tosh, qurilish uchun daraxt, metallar (mis, oltin, qalay, kumush) kabi uyg'un xo'jalik hayoti uchun zarur bo'lgan xomashyo taqchil edi. Bu xomashyolar tog'li hududlar, sahro-cho'llarda mavjud edi. Shu sababli, eramizdan avvalgi IV ming yillikda allyuvial vodiylar (Nil, Dajla va Frot) aholisi tog'li va sahro rayonidagi (Sinay, Nubiya, Arman, Tavr tog'lari) aholi bilan xomashyo almashinuvi jarayoni boshlandi. Ishlab-chiqarish munosabatlari savdoning past darajasi bilan tafsiflanadi. Turli hudud va etnoslar o'rtasidagi ayirboshlash ko'p hollarda talonchilik urushlariga aylanib ketgan. Boy xomashyo manbalari mavjud hududlarni o'z tarkibiga kiritgan katta-katta, harbiy jihatdan kuchli davlatlar paydo bo'lishiga olib keldi.

Buyuk daryolar vodiylarida odam yashashi uchun qulay shart-sharoitlarning vujudga kelishi ishlab chiqarish kuchlarining paydo bo'lishiga imkon yaratib, ilk mudofaa inshootlari va shaharlar shakllanishiga olib keldi. O'sha davr uchun shahar yangi voqelik edi. Shahar odamlar g'uj bo'lib yashaydigan, turli xil kasb-hunarlar mavjud bo'lgan hamda madaniy o'choq bo'ldi. U boshqaruv va diniy e'tiqod markazi bo'lib qoldi. Shaharlarda hunarmandchilik ishlab-chiqarishi shakllandi. Shahar savdo-hunarmandchilik markazi vazifasini bajardi. Ishlab chiqaruvchi xo'jalikning vujudga kelishi, sug'orma dehqonchilik, chorvachilikning rivojlanishi, metallarning o'zlashtirilishi va shaharlarning paydo bo'lishi qadimgi Sharqda ilk sivilizatsiyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu jarayon ijtimoiy qatlamlarning paydo bo'lishi va ular o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashuvini yuzaga keltirdi. Mulkiy tabaqalanish kuchayib ketdi. Yangi ijtimoiy qatlam – qulchilik vujudga keldi. Aholining asosiy qismi o'troq turmush kechirib, dehqonlar jamoasi, hunarmandlar aholining ko'pchiligini tashkil etgan. Qadimgi Sharqda hukmron sinfning o'ziga xos xususiyati uning davlat apparati bilan yaqin aloqasi edi. Ijtimoiy tabaqalanish

ziddiyatli bo'lib, doimiy ravishda jamiyatda norozilikni, turli g'alayonlarni vujudga keltirar edi. Qadimgi Sharq mamlakatlari taraqqiyotini o'sha davr yunon shahar-davlatlari va qadimgi Rim bilan qiyoslaganda, qadimgi Sharq jamiyati taraqqiyotidagi barqarorlik, asrlar davomida urf-odat, an'analar asosida jamiyatda o'ziga xos turmush-tarzini ko'rish mumkin. Bu qadimgi Sharq iqtisodiyotida natural xo'jalikning hukmronligi, hunarmandchilikning buyurtma asosida rivojlanishi, tovar xo'jaligining zaifligini, texnika va texnologiyaning sekin takomillashganini, mehnat taqsimotining past darajadiligini ko'rish mumkin.

Qadimgi Sharq davlati hukmdori va uning boshqaruv apparati sun'iy sug'orish tizimini barpo qilish tashkilotchilari bo'ldilar. Iqtisodiyotning asosi bo'lgan dehqonchilik suniy sug'orishga asoslangani, katta hajmdagi sug'orish inshootlarini qurish va uni ta'mirlash, ishchi holatida saqlab turishga, faqat davlat hokimiyatigina qodir edi. Bu davlat hokimiyatini, ya'ni mutlaq hukmdor hokimiyatini kuchayishiga olib keldi. Natijada davlat hokimiyati mamlakat yer jamg'armasining oliy egasi bo'lib qoldi. Davlat asosan yerning oliy egasi sifatida yerga egalik va nazorat qilish, ma'lum miqdorda soliq olish bilan cheklangan. Lekin davlat hokimiyati katta moddiy resurslarga ega bo'ldi.

Qadimgi Sharq jamiyatlari uzoq davom etgan notekis tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdilar. Ba'zi Qadimgi Sharq mamlakatlari yuksak ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasiga erishdilar (Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Finikiya, Kichik Osiyo, Qadimgi Hindiston va Xitoy, Eron hamda O'rta Osiyo). Bu hududlarda yuksak rivojlangan madaniy, iqtisodiy va siyosiy markazlar shakllandi va qo'shni mamlakatlarga o'z ta'sirini o'tkazdi. Buyuk cho'llarda ko'chmanchi chorvachilikka asoslangan xo'jalik asosida o'ziga xos sivilizatsiya shakllandi. Mil.avv. IV–III ming yilliklarda Qadimgi Sharqning turli sivilizatsiya markazlari (Misr, Mesopotamiya, Hindiston) nisbatan yopiq rivojlandi. Mil.avv. II ming yillikning o'rtalaridan Yaqin Sharqning turli hududlaridagi yuksak taraqqiyot natijasida hududlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Mil.avv. I ming yillikda esa bu aloqalar yanada kuchaydi va madaniyatlarning o'zaro ta'siri natijasida Sharqning turli mamlakatlari madaniyatlari boyidi. Shu tarzda, Qadimgi Sharq dunyosining yaxlitligi amalga oshdi.

Qadimgi sharq jamiyatlari bir-biriga o'xshash va olaquroq turli ijtimoiy qatlam va guruhlardan iborat edi. Qadimgi sharq

jamiyatini jamoachi dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, savdogarlar, qullar, harbiylar, oqsuyak zodagonlar, kohinlar, amaldorlar va saroy a'yonlari tashkil etgan.

Ayrim jamiyatlarda ijtimoiy tabaqalarning mavqei, o'rne qat'iy belgilangan bo'lib, bunday jamiyatlar asrlar davomida belgilangan qoida-an'analar asosida yashadilar (Hindiston). Har bir ijtimoiy qatlamning jamiyatda o'z o'rne bor edi. Bu jamiyat kasb-hunar bo'yicha jamoachi dehqonlar, chorvador, hunarmandlar, savdogarlar, diniy e'tiqod xizmatchilari jamiyati bo'ldi. Bu jamiyatlarda jamoaning birdamligi, o'z-o'zini boshqarish, ma'lum bir an'ana, urf-odat asosida yashash tarzi ustuvor edi. Qadimgi sharq tarixini o'rganish jarayonida jamiyatlarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, chuqur ziddiyatlarni ko'rish mumkin.

Qadimgi sharq jamiyati turli ijtimoiy qatlamlardan tashkil topgan. Hukmdor, uning oilasi, qarindosh-urug'lari, saroy a'yonlari, aslzoda boylar, oliy amaldorlar, harbiy sarkardalar, boy savdogarlar, kohinlar oliy tabaqani tashkil etgan. O'rta va mayda yer egalari, mayda hunarmand savdogarlar, harbiylar, kichik kohinlar hamda jamoachi dehqonlar quyi qatlamni tashkil etgan. Jamiyatning eng quyi pog'onasida qaram kishilar va qullar turgan. XX asr boshlarida topilgan qadimgi Bobil podshosi Xammurapining qonunlar to'plamida va yana Xett qonunlarida aholi, birinchi navbatda, erkin odamlarga va qullarga bo'linadi.

Xo'jalik natural bo'lgani uchun aholining aksariyat ko'pchiligi qishloqlarda jamoa bo'lib yashaganlar, shahar aholisining katta qismi ham yerga bog'lanib qolgandi. Ular ham ko'p hollarda o'zlarini zaruriy oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun shahar atrofida dehqonchilik bilan shug'ullanganlar.

Qadimgi sharqda ishlab chiqarish usulining o'ziga xos xususiyati yerga jamoaning egaligidir. Xuddi shu xususiyat sharqshunos olimlarning Yevropadan farq qilgan holda Osiyo ishlab chiqarish usuli tushunchasini shakllantirishlariga asos bo'ldi. Shubhasiz, Osiyo ishlab chiqarish usuli haqidagi masala murakkab va munozaralidir. Bu mavzudagi munozara hali-hanuz davom etmoqda. Lekin Osiyocho ishlab chiqarish usuliga asoslangan o'ziga xos jamiyat (ba'zan uni hatto mahalliy emas, balki universal jamiyat deb e'tirof qiladilar) bo'lmaganligi borgan sari ko'proq ma'lum bo'lib qolmoqda.

Qadimgi Sharq davlatchiligi harbiy demokratik an'alarini asta-sekin tugatgan holda uzoq davom etgan jarayonda shakl-

landi. Harbiy boshliq bo'lgan qabila yo'l boshchisining hokimiyati asta-sekin u yoki bu shakldagi mutlaq hokimiyatga aylandi. Qadimgi Sharq podshosi mutlaq hokimiyatining o'ziga xos xususiyati davlat boshlig'i – hukmdorning alohida mavqei edi. Podsho sud, ijroiya va qonunchilik hokimiyatini o'z qo'lida to'plagan bo'lib, shu bilan birga, u eng oliy odam, xudolarning noibi, ularning avlodi yoki xudolardan biri hisoblangan. Mutlaq hokimiyat turli mamlakatlarda turli darajada shakllandi. Uning to'liq ko'rinishini Qadimgi Misrda, Eron va Xitoyda, cheklangan ko'rinishini esa Xett davlati misolida ko'rish mumkin. Iqtisodiyotning asosi sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik edi. Suniy sug'orishga asoslangan dehqonchilik xo'jaligini yo'lga qo'yish uchun ko'p sonli jamoalarni birlashtirish va sug'orish inshootlari qurish va ta'mirlash zarurati Qadimgi Sharqda davlat hokimiyatining roli o'sishiga yordam berdi va hukmdorning cheklanmagan hokimiyatining paydo bo'lishiga olib keldi. Davlat hokimiyatining xo'jalik hayotiga faol aralashuvi ko'p sonli ma'muriy boshqaruv apparatini vujudga keltirdi. Qadimgi Sharqda o'ziga xos oligarxik respublikalarni Hindiston va Finikiya shahar-davlatlari misolida ko'rish mumkin.

Finikiya, Kichik Osiyo shahar davlatlarida hokim saylab qo'yilgan, davlat hokimiyatining ichki va tashqi siyosatini belgilashda, davlat boshqaruvida boy hunarmand-savdogarlar, katta yer egalari yetakchi o'rinni egallaganlar.

Qadimgi sharq jamiyatlarida qonunchilik shakllanishi davlat, jamiyat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda ustuvor ahamiyat kasb etganini ko'rish mumkin. Insoniyatning tarixiy taraqqiyotida ilk bor yaratilgan Shulga qonunlari, Xammurapi, Xett, O'rta Osuriya hamda Ashoki qonunlarida jamiyat hayotida qonunning ustuvorligi, inson huquqlari va majburiyatlari o'z aksini topgan.

3. Qadimgi Sharqda yer egaligi. Qadimgi Sharqda davlat hokimiyati shakllanishi jarayonida jamoa yer egaligidan tashqari, davlat yerlari, ibodatxonalarga qarashli yerlar va xususiy yerlar mavjud bo'lgan. O'z yeriga ega bo'lgan oddiy jamoachi davlatga soliqlarni to'lashi va ko'p sonli majburiyatlarni o'tashi lozim edi. Sug'orma dehqonchilik juda katta kuch, mehnat talab qilar edi. Oddiy jamoachi yilning ma'lum kunlarida, ma'lum muddat sug'orish tarmoqlarining ta'miri va yangi kanallar qurilishida mehnat qilishi majburiy edi. Yaylov, o'tloq, daryo va o'rmonlar jamoa mulki hisoblangan. Ko'p hollarda bunday

yerlar davlat hokimiyati tomonidan tasarruf qilingan. Davlat hokimiyati tomonidan bu yerlar jamoa yoki xususiy kishilarga foydalanishga berilgan. Shu bilan birga, bir qism yer podsho va koinlar ixtiyorida bo'lgan. Bu yerlarda podsho va ibodatxona xo'jaliklari tashkil qilinib, qullar va qaram kishilar ishlaganlar. Davlat va ibodatxona yerlari ijaraga berilgan. Qadimgi Sharq hukmdori mamlakatda ishlab chiqariladigan qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlari hamda soliq yig'implariga ega bo'lgan, shu tariqa davlat hokimiyati katta moddiy boyliklarni o'z qo'lida to'plagan.

Amalda esa yerlarning katta qismi ko'p sonli qishloq jamoalarining merosiy yeri edi. Bir qism yer saroy a'yonlari, zodagonlar, amaldor va harbiylarga berilgan edi. Yerdan foydalanadigan barcha toifalar davlatga yer solig'i to'lab, turli majburiyatlarni o'taganlar. Barcha to'lov-majburiyatlar o'talgandan so'ng, yer egalari yerni to'la tasarruf qilishlari va sotish huquqiga ega bo'lganlar.

4. Qulchilik. Sharqda qulchilik munosabatlari Yevropadagiga qaraganda oldinroq vujudga kelgani sababli, qadimgi Sharqda qulchilik o'ziga xos patriarxal xonaki shakl kasb etgan. Qadimgi dunyoda qulchilik doimo turli manbalardan to'ldirib borilgan. Qullar qatlami urushlarda asir tushganlar, qarzi yoki jinoyati uchun qul qilinganlar, ajnabiy qul, sotib olingan qullar, oilaning kichik a'zosidan qul qilinganlardan tashkil topgan.

Xufiya (yashirincha) qullikning eng qadimgi shakli patriarxal oila bo'lgan. Patriarxal oilada ota yer-mulkning egasi hisoblangan va oilaning barcha a'zolari oila boshlig'iga itoat qilishga majbur bo'lganlar. Ota oilaning barcha a'zolariga nisbatan tug'ma quldor huquqiga ega bo'lgan. Ota o'z farzandini 3 marta qullikka berish huquqiga ega bo'lgan (Bobil).

Qadimgi Sharq quldorlik munosabatlari qadimgi Yunon va Rim klassik qulchiligi darajasiga chiqa olmadi. Qullar sonining kamligi, ularning ishlab chiqarish jarayonida zaif ishtiroki, mehnat unumdorligining past darajasi Qadimgi Sharq qulchiligining asosiy xususiyati edi. Qullar sharq jamiyatlarining xo'jalik hayotida sezilarli o'ringa ega bo'lmaganlar, yordamchi ishlarda band bo'lganlar (uy qorovuli, cho'pon, otboqar, cho'ri va h.k). Ko'p hollarda qullar oilaning a'zosi hisoblanganlar. Lekin ayrim jamiyatlarda mil.avv. I ming yillikda ularning soni jamiyat taraqqiyotining yuksak rivojlanishi bilan birga o'sib borgan (Yangi Bobil). Qullar qarzi uchun qul qilinganlar,

jinoyatchilarning qulga aylantirilishi, sotib olingan qullar, tabiiy ko'payish hamda urushda asir olinganlar hisobiga ko'payib borgan. Ayrim hollarda ba'zi mamlakatlarda (Misr, Bobil, Osuriya) qullar podsho, ibodatxonalar yerlarida, zodagonlar xo'jalik yerlarida ham mehnat qilganlar. Qulning huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarida o'z aksini topgan (Bobil, Osuriya).

5. Qadimgi Sharq jamoasi. Qadimgi Sharq jamiyati tuzilishini o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, bu asosiy ijtimoiy va hududiy birlik – jamoaning mavjudligidir. Har qanday qadimgi Sharq davlati bir necha shaharni hisobga olmaganda, o'z tashkilotiga ega bo'lgan ko'pgina qishloq jamoalaridan iborat bo'lgan. Qon-qarindosh urug' jamoasi, qo'shni jamoa – bu ma'lum bir hududda yashab, boshqa jamoalar va davlatga nisbatan huquq va majburiyat bilan bog'langan yopiq tashkilot edi. Jamoa tashkiloti davlat hokimiyati va jamoa a'zosi o'rtasida vositachi, sud ishlarini olib boruvchi, turli soliq to'lovlarini amalga oshirishda kafolatchi, qishloq jamoasini hashar va boshqa ishlarga safarbar qilish tashkilotchisi bo'lgan. Katta daryolar havzasida joylashgan ilk sivilizatsiyalar iqtisodiyotining asosi sug'orma dehqonchilik edi. Aholining deyarli 90-95 foizi dehqonchilik bilan shug'ullanar va jamoa bo'lib yashar edi. Qishloq jamoasi bir yoki bir necha urug'dan tashkil topgan. Keyinchalik esa qishloq jamoasi turli urug'larga mansub oilalardan tashkil topgan qo'shni jamoaga aylangan. Jamoaning asosi bo'lgan katta patriarxal oilada uch avlod yashagan (bobo-buvi, ota-ona, ularning uylangan o'g'illarining oilalari). Oila boshlig'i ota jamoa oldida o'z oila a'zolari uchun mas'ul bo'lgan. Patriarxal oilada urf-odat, an'analarga rioya qilib yashash ustuvor ahamiyatga ega edi. Oila boshlig'i bo'lgan ota vafotidan keyin oila parchalanib ketmagan, balki katta o'g'il oila boshlig'i o'rnini egallagan. Oila boshlig'i ota oila mulkiga mas'ul bo'lib, uning kichik a'zolari oila boshlig'i roziligisiz mulkiy oldi-sotdi ishlarini amalga oshira olmaganlar. Qadimgi Bobilda ota o'z xotini, o'g'lini o'zi olgan qarzning to'lovi uchun ma'lum muddatga qullikka berish huquqiga ega bo'lgan. Lekin ota o'z o'g'lini uch martagacha qullikka sotish huquqiga ega edi. O'z mulkiga ega bo'lmagan yersiz qaram kishilar davlat va ibodatxonalarda majburan ishlab, evaziga oziq-ovqat olganlar. Ular rasman erkin bo'lsalar-da, oilali bo'lib, qullarga yaqin qaram ahvolda yashaganlar (Misr).

Jamoa ichida mulkiy tabaqalanish kuchli bo'lib, jamoada mulkdor va kambag'al jamoachilar, yersiz oddiy jamoachilar

ko'p bo'lgan. Shunga qaramasdan, jamoada yashash va ishlab chiqarishning jamoachilik shakli saqlanib qoldi. Ko'p xotin olish odati ayollarning ijtimoiy ahvolini og'irlashtirgan. Jamoa mulkchiligi, jamoa birdamligi xususiy mulkchilikning rivojlanishiga to'siq edi. Jamoa tashkilotining turg'unligi ishlab chiqarish va hayot kechirishning jamoachilik shakli saqlanib qolishi, qadimgi Sharq iqtisodiyoti, ijtimoiy tuzilishi, davlat hokimiyati shakllarini belgilab berdi. Davlat hokimiyati jamoa mustahkam bo'lishidan manfaatdor bo'lgan. Chunki davlat hokimiyati aholini turli to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishi, turli majburiyatlarni o'tashida jamoa tashkilotining kafolatchi rolida chiqishidan unumli foydalangan. Bundan tashqari qishloq jamoasining asriy urf-odat, an'ana va qadriyatlarga tayanib yashashi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashiga xizmat qilgan. Bu davlat hokimiyati uchun mamlakatda barqarorlikni saqlashda ham muhim omil bo'lgan.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: 1998-yil.
2. История Древнего Востока. /Под редакции В.И.Кузищина. – М.: 2002.
3. История Древнего Востока: тексты и документы / Под ред. В.И.Кузищина. – М.: 2002.

Asosiy sanalar

| | |
|--------------------------------------|---|
| Mil.avv. IV ming yillikning II yarmi | Ilk davlatlarning paydo bo'lishi. |
| Mil.avv. II ming yillik o'rtalari | Yaqin Sharqning turli hududlari o'rtasida aloqalarning o'rnatilishi. |
| Mil.avv. I ming yillik | Qadimgi Sharq dunyosi yaxlitligining vujudga kelishi. |
| Mil.avv. II ming yillik | Oriy qabilalarining tarqalishi. |
| Mil.avv. IV asrning 30-20-yillari | Qadimgi Sharq tarixining so'ngi davrining Aleksandr yurishlari bilan tugashi. |
| Milodiy III–V asrlar | O'rta Osiyo, Hindiston va Uzoq Sharq mamlakatlari tarixida antik davr. |

QADIMGI MISR TARIXINI O'RGANISH QADIMGI MISRDA DAVLAT VA JAMIYATNING PAYDO BO'LISHI

1. Qadimgi Misr tarixining asosiy manbalari. 2. Misr-shunoslik fanining rivojlanishi. 3. Qadimgi Misr tarixini davrlashtirish. 4. Mamlakat va aholi. 5. Ilk Misr jamiyati va davlati.

1. Qadimgi Misr tarixining asosiy manbalari. Qadimgi Misr tarixini o'rganish uchun qadimgi Misrning zamonamizgacha saqlanib kelgan ko'pgina yozma yodgorliklari katta ahamiyatga egadir. Yozma manbalardagi ma'lumotlar moddiy madaniyat yodgorliklarini ko'p jihatdan to'ldiradi. Bu ma'lumotlar qadimgi zamondagi misrliklar hayotini, texnika, san'at va diniy e'tiqodning rivojlanishini oydinlashtirib beradi. Antik dunyo mualliflarining qadimgi Misr haqida yozgan yoki eslab o'tgan asarlaridan Misr tarixiga oid ko'p ma'lumotlarni olish mumkin. Garchi yunon va rim yozuvchilari qadimgi Misr tarixi va madaniyati haqida ba'zan bir qator qimmatli ma'lumotlar qoldirgan bo'lsalar ham, lekin ularning ma'lumotlari tanqidiy ravishda jiddiy o'rganishni talab qiladi.

Qadimgi Misr tarixi turli xil manbalar orqali o'rganiladi. Bu manbalarni asosan yetti turga bo'lish mumkin:

1) Yozma manbalar, tarixiy asarlar, badiiy-adabiy, ilmiy, diniy matnlar, hujjat va yo'riqnomalar.

2) Moddiy madaniyat yodgorliklari: shahar, qal'a, ibodatxona, piramida, sag'ana, uylar, sopol idishlar, haykallar va h. k.

3) Xalq og'zaki ijodiyoti: qo'shiq, ertak, maqollar, afsona, axloqiy-etnik asarlar.

4) Etnografiya, etnologiya ma'lumotlari.

5) Antropologiya ma'lumotlari: mo'miyo, skelet, freska, relyeflarda odamlarning jismoniy tuzilishini o'rganish mumkin bo'lgan tasvirlar.

6) Geografik muhit va landshaft, kanallar, yo'llar.

7) Lingvistika ma'lumotlari.

Yozma manbalar: qadimgi Misr tarixiga oid xilma-xil yozma manbalar mavjud. Palermo toshi yozuvlarida V sulolagacha

boʻlgan firʼavnlarning roʻyxati sanab oʻtilgan va yirik harbiy yurishlar hamda Nil toshqinlari toʻgʻrisida maʼlumot beradi. Aton va Ra ibodatxonalari (Fivadagi Karnak ibodatxonasi) devorlarida yozilgan «Tutmos III annallari» (XVII sulola) qimmatli yozma manbalardan biri hisoblanadi.

Kohin Manefon podsho Plolemey II Filadelf (mil. avv. 283–246 yillar) buyrugʻi bilan qadimgi Misr tarixini yunonlar uchun yozadi. Uning asarida Misr tarixi eng qadimgi davrdan boshlab bayon qilingan. Manefon 30 sulola roʻyxatini tuzib, ularni uch dekada va 10 sulolaga boʻldi. Bu yangi davrda tadqiqotchilarni Misr tarixining eng muhim davrlarini aniqlashlari uchun, jumladan, qadimgi Misr tarixini qadimgi, oʻrta, yangi va soʻnggi podsholik davrlariga boʻlish imkoniyatini berdi. Misr arxivlari huquqiy, ish yuritish hujjatlaridan tashkil topgan. Eng qadimgi arxiv podsho Neferikara ibodatxonasidan (V sulolasi, mil.avv. XXV–XXIV asr) topilgan. Eng boy arxivlardan biri Yangi podsholik davrida Amenxotep qurgan yangi poytaxt Axetatton shahri (El-Amarna)ni qazishda topilgan boʻlib, bu arxivda 350 hujjat mavjud.

Qadimgi Misrdan boy adabiy meros yetib kelgan. Misr adabiyoti nasihatnoma va bashoratlari namunalari: «Axtoy nasihatnomasi», «Amenemope nasihatnomasi», «Ipuser soʻzlari». Badiiy adabiyot namunalari: «Chechan dehqon toʻgʻrisidagi qissa», «Sinuxet hikoyalari» va hokazolarni aytish mumkin. Ertaklar: «Ikki aka-uka toʻgʻrisida», «Toʻgʻri va egri» haqida, «Kemada halokatga uchraganlar» ertagi, «Unu Amonning Biblga sayohati» (mil.avv. XI asr) kabilar. Diniy ruhdagi asarlar: V–VIII sulola firʼavnlari piramidalari ichki devorlarida iyerogliflar bilan tasvirlangan yodgorliklar boʻlib (mil.avv. XXIV–XXII asrlar), ular «Piramida matnlari» deb ataladi.

Diniy yozuvlar. Oʻrta podsholik davrida zodagonlarning yogʻoch sagʻanalarida bitilgan «Sogʻona matnlari», qadimgi Misr bosh diniy kitobi hisoblangan «Oʻliklar kitobi», Memfis ilohiyotshunoslik matnlaridan iborat.

Tibbiyot, matematika papiruslari. Ebers katta papirusi va Edvin Smit papiruslari qadimgi Misrda ilmiy bilimlar rivojlangani toʻgʻrisida maʼlumot beradi. Ebers papirusida davolashning sehrgarlik yoʻllari va amaliy davolash boʻyicha tavsiyalar 20 metr uzunlikdagi papirus oʻramiga batafsil yozilgan. XVIII sulola davriga oid jarohatlarni, jumladan, suyaklarning jarohatlanishi, bosh

suyakni, burunni ichki bo'shliq qismlarini davolashga bag'ishlangan E.Smit papirusi bizgacha yetib kelgan.

Arxeologik yodgorliklar. Bular: me'moriy ansambllar, piramida, mastaba (hokim, zodagonlarning sag'analari), shahar va ibodatxona, qal'a, dengiz porti va maqbaralardan iborat. Ayniqsa, Qadimgi podsholikning III-IV sulolalari davrida qurilgan piramidalar noyob tarixiy-madaniy yodgorlik hisoblanadi. Eng qadimgi qabr – sarkofaglar qatoriga Yuqori Misr podshosining Enxab (Nexen) shahridagi qabr –sarkofagini kiritish mumkin.

Arxeologik qazishmalar. Mil.avv. IV ming yillik boshlariga oid Yuqori Misrning poytaxti deb taxmin qilingan Enxab shahri dunyo tarixida barpo etilgan eng qadimgi shahar hisoblanadi. Misrda qadimgi Fayum vodiysidagi Illaxun shahri qoldig'i, El-Amarnadagi Axetaton shahri, Tanais kabi shaharlar qoldig'i arxeolog-tarixchi olimlar tomonidan qazib ochilib, tadqiq etilgan.

Piramidalardan misdan yasalgan pichoqlar, arra, bolta, keskich, bigiz kabi mehnat qurollari topilgan. Misrda mavjud bo'lgan, bizgacha saqlanib kelgan piramidalar, mastaba va boshqa sag'analar qadimgi davridayoq o'g'ri-qaroqchilar tomonidan talangan. Faqatgina bitta piramida bizgacha talanmay yetib kelgan. Ingliz arxeologi Karter 1922-yilda topgan va tekshirgan fir'avn Tutanxamon piramidasidan topilgan buyumlar oltin va qimmatbaho toshlar, temir metali hamda 19 yoshda vafot etgan Tutanxamonning mo'miyolangan jasi ilmiy-tarixiy nuqtayi nazardan o'ta qimmatli hisoblanadi.

Fransuz olimi L.Amelino 1896-yil O'rta Misrdagi qadimgi Abidos shahri yaqinidan ilk sulolaning ikki podshosi sag'anasini, keyinroq J. De Morgan Abidosdan janubda katta sag'anani topdi. Ingliz arxeologi V.Flinders Pitri ham Abidosdan podsho sag'analarini ochdi. XIX asrning oxirida topilgan toshdagi yozuvlar I-V sulolalar hukmdorlari va shu davrdagi muhim voqealar to'g'risida ma'lumot beradi. Bu tosh Palermo shahri muzeyida saqlanayotgani uchun shunday ataladi. Olimlar bu yodgorlikda podsholar ro'yxati hamda muhim voqealar bayon qilingani uchun uni haqiqiy yilnoma deb e'tirof etadilar. Yangi podsholik fir'avnlarning mo'miyolari «ombori» hisoblangan Dayr-al-Bahrdagi umumiy qabrdan topilgan ko'pgina buyum-ashyolar diqqatga sazovordir. Bu daliliy ashyolar qadimgi Misr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Nemis olimi R. Lepsius (1810–1884-yillar) Misr tarixini sinchiklab o'rgandi. U misr qadimiyatlarini qat'iy ilmiy uslublariga asoslanib o'rgandi. Memfis yaqinida olim yarim yil davomida Qadimgi podsholikning 67 piramidasi, 130 ga yaqin zodagonlarning sag'analarini tadqiq qildi. Lepsius birinchi bo'lib, Misr tarixi xronologiyasi va davrlashtirishni ilmiy asoslarini yo'lga qo'ydi. Misr tarixini uch davr – qadimgi, o'rta va yangi podsholiklarga bo'ldi. Xronologik tartibda podsholar, malikalar va podsho bolalarining mingga yaqin ismlari, unvonlari ro'yxatini tuzdi. Lepsius to'plagan kolleksiya u direktor bo'lgan Berlin muzeyida joylashtirildi.

Fransuz arxeologi Mariett (1821–1881-yillar) qadimgi Misr tarixini o'rganishda alohida iz qoldirdi. Mariett mustaqil bilim olgan arxeolog, tashabbuskor va g'ayratli olim edi. Luvr muzeyi uni qo'lyozmalar olish uchun Misrga jo'natdi. Lekin Misr osori-atiqalaridan lol qolgan Mariett bu yerda arxeologik qazishma ishlarini boshladi. U birinchi yildayoq (1851-yil) muqaddas ho'kizlar – apis dafn qilingan joy – Serapeyni ochdi, ziyoratgohga olib boradigan sfinkslar xiyobonida muqaddas ho'kizlar – apislarni 64 sag'anasini, qadimda xudojo'ylar qilgan ko'p xayr-ehson buyumlarni topdi.

U G'azoda Lepsius boshlagan katta sfinksni qazishni tugatdi, uning oyog'i ostida silliqlangan qizil granit va shaffof alebastrdan bunyod qilingan ibodatxonani ochdi. Mariett ibodatxonada Xeopsning o'g'li Xefrenning 7 haykalini qazib ochdi. G'azodagi Nekropolda Mariett Qadimgi podsholikning zodagon a'yonlarining 300 sag'anasini, juda ko'p buyum va yozuvlar bilan kashf qildi. Osirisga e'tiqod qilish markazi Abidosda olim 15 mingga yaqin yozuvni topdi. Mariett o'zining 30 yillik mahsuldor faoliyati davomida 37 joyda qazishma ishlarini olib bordi. U boshda papiruslarga e'tibor bermagani uchun ularning ko'pchiligi fan uchun abadiy yo'qotildi. Mariett misr osori-atiqalarini saqlab qolish uchun juda katta ishni amalga oshirdi. Mariettgacha qadimiy tosh inshootlar qurilishga olib ketilar, marmar haykallar ohak uchun kuydirilar edi, saqlanib qolgani Yevropaga tashilar edi. Nafaqat haykallar va sag'analar, butun bir yaxlit obelisklar (minorasimon yodgorlik) Yevropaga tashib ketilar edi. Mariett bu o'g'riliklarga chek qo'ydi. U 1859-yil Qohira osori-atiqalar muzeyini tashkil qildi. Shu vaqtdan barcha topilmalar muzeyga topshirila boshlandi. Mariett har qanday topilma qaysi mamlakatda to-

pilgan bo'lsa, shu mamlakatda qolishi kerak deb hisobladi. U Misrdan biror-bir tarixiy madaniy yodgorlikni chiqarmadi. Bir kun Napoleon III ning rafiqasi Yevgeniya Misr xadiviga Qohira muzeyidan bir necha eksponatni Luvr muzeyiga berishni so'radi. Xadiv u iltimosni rad qilishga botinmay, muzeyda hokimiyat unga emas, Mariettga tegishli ekaniga ishora qildi. Malika o'z g'ururini bir chetga qo'yib, Mariettga murojaat qildi, lekin Mariett rad javobini berdi.

Mariettning tadqiqotlarini uning shogirdi Gaston Maspero (1846–1916-yillar) davom ettirdi. Maspero XVIII va XIX sulola fir'avnlarini mo'miyolarini topdi. Dayr al Baxr g'oridagi chuqur quduqda 30 fir'avnning mo'miyolangan jasadlari va dafn buyumlari qo'yilgan edi. O'z vaqtida Misr koinlari mo'miyolarni o'g'rilardan saqlab qolish uchun bu yerga tashib kelib yashirganlar. Bu joydan eng mashhur fir'avnlar: Tutmos II, Tutmos III, Setu, Ramzes II va Ramzes III larning mo'miyolari topildi. Maspero qazishmalarni yuqori ilmiy darajada tizimli olib bordi. Uning tashabbusi bilan Qohira muzeyining yangi binosi va boshqa mahalliy muzeylar qurildi. Olim Misr tarixi va madaniyatining turli masalalari bo'yicha ko'p ilmiy asarlar chop etdi. Ularning ichida eng asosiysi «Klassik sharq xalqlarining qadimgi tarixi» asari.

Misr falloxlari (dehqonlari) 1887-yilda Tel el Amarna qishlog'ida mixxat yozuvlar saqlangan yog'och qutilarni topdilar. Tel el Amarna o'rnida mil.avv. XIV asrda islohotchi fir'avn Exnaton (Amenxotep IV) ning poytaxti Axetaton bo'lgan. Topilgan mixxat yozuvlar fir'avn Exnatonning davlat arxivining bir qismi edi. Ko'pgina hujjatlar Misr nomlari noiblari va qo'shni mamlakatlar hokimlarining Misr fir'avniga yozgan xat-xabarlari edi. Xatlarning mazmunini fir'avndan yolvorib yordam so'rash, viloyat zodagonlarining chaqimchilik xatlari, ayblashlar tashkil etadi.

Maspero bilan bir vaqtda ingliz olimi Flinders Pitri (1853–1942-yillar) Misrda arxeologik qazishmalarni amalga oshirdi. U ishni XIX asrning 80-yillarida Nil ostonasida yunon koloniyasi Navkratisni, yunon ibodatxonalarini, turli buyumlar bilan topdi. Misrning poytaxti Tanis va bu yerda Bekiexu nomli huquqshunosning uyini ko'pgina papiruslar bilan topdi. Keyin Fiva, Krokodilopol va Fayum vohasida arxeologik qazishmalar olib bordi. Olim Meridov ko'li yonida «piramidalar shahari» Kaxunni ochdi. Kaxun piramidalar quruvchi- ishchilarining katta shaharchasi bo'lgan.

Antik mualliflar asarlari. Antik mualliflar asarlaridan Gero-dot tarixi (mil.avv. V asr), sitsiliyalik Diodorning «Tarixiy kutub-xona» asari, «Strabon geografiyasi» (mil.avv. II-I asr) Plutarxning «Osiris» va «Isida» traktati qadimgi Misrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti to'g'risida batafsil ma'lumotlar beradi. Rimlik tarixchi Tatsit (miloddan avvalgi I asr oxiri II asr boshlari), Misr fir'avni Tutmos III yurishlari, qadimgi Fiva xarobalari to'g'risida batafsil ma'lumotlar to'playdi. Yana bir rimlik tarixchi Ammian Marsellin (IV asr) qadimiy Misr madaniyatini muhim o'rnini ta'kidlaydi.

Etnografiya ma'lumotlari. Misrliklar boshqa ko'pgina qadimgi Sharq xalqlari singari bir qancha qabilalarning asta-sekin aralashib ketishi natijasida tashkil topgan. Qadimgi Misr xalqini tashkil qilgan bu qabilalar Shimoliy va Sharqiy Afrikaning mahalliy qabilalaridir. Misrdagi arxaik davrga mansub bo'lgan kishilarning o'ziga xos haykalchalari, Misr hududidagi arxaik qablardan topilgan bosh suyaklarini o'lchab ko'rish natijalari, shuningdek, qadimgi Misrliklarga somali va boshqa qabilalarning tipiga bir muncha o'xshab ketishi eng qadimgi misrliklarning tropik Sharqiy Afrikadagi qabilalar bilan qarindoshligini ko'rsatadi. Qadimgi Misr tasvirlariga ko'ra, Sharqiy Afrikada (Punt mamlakatida) yashagan qadimgi qabilalar o'zlarining tashqi qiyofalari bilan misrliklarga juda ham o'xshab ketadilar.

Qadimgi Misrdagi samoviy sigir shoxli ayol qiyofasida tasvirlangan hosildorlik ma'budasining tasviri hamda sersoqol, pakana xudo Bes tasviri Misrning Afrika xalqlarining diniy e'tiqodlari bilan yaqin bog'langanidan dalolat beradi. Qadimgi podsholik davriga oid yozuvda Nubiyadan maxsus «xudo raqsi» ni bajaruvchi pakana odamning Misrga keltirilganligi to'g'risida ma'lumot beriladi. Bundan tashqari, qadimgi Misr Shimoliy Afrikaning liviya qabilalari bilan ham juda yaqin bo'lgan. Qadimgi Misr tili o'zining ba'zi xususiyatlari bilan Shimoliy Afrikadagi berber tillariga ham o'xshab ketadi. Misrda va Nil vodiysini o'rab olgan baland tog'liklarda o'tkazilgan arxeologik qazishmalarning ko'rsatishicha, o'ziga xos Misr madaniyatini vujudga keltirgan qabilalar qadimgi tosh davridan buyon shimoliy-sharqiy Afrikada yashaganlar.

2. Misrshunoslik fanining rivojlanishi. XIX asr boshigacha qadimgi Misr madaniyati va tarixi bilan hech kim shug'ullanmagan. Qadimgi Misr yozuvi unitilgan edi. Faqat XIX asr boshlarida fransuz olimlari 1809–1828-yillarda 48 tomli «Misr tasvi-

ri» nomli kitobni nashr etdilar. Misr iyerogliflarini fransuz olimi Silvestr de Sasi va shved olimi Okerblad, ingliz olimi Tomas Yung o'qishga harakat qildilar. Ammo qadimgi Misr yozuvi tizimini va iyerogliflarini o'qish metodini misrshunoslik fanining asoschisi fransuz olimi Jak Fransua Shampolyon (1790–1832-yillar) kashf etdi. J. Shampolyon Grenobl shahridagi litseyda ta'lim oldi. Parijda taniqli lingvist Silvestr de Sasi rahbarligida sharq tillarini o'rgandi. Napoleon yurishlari vaqtida Misrda bo'lgan mashhur fransuz fizigi va matematigi Fur'ening hikoyalari ta'siri ostida qadimgi Misr tiliga qiziqib qoldi. 1799-yilda fransuz askari Rashid (Rozett) nomli Misr qishlog'ida qadimgi Misr va yunon yozuvida bitilgan matnli toshni topdi. Toshda Misrda hukmronlik qilgan Ptolemey V ning mil.avv. 196-yildagi farmoni bitilgan edi. Shampolyon qariyb yigirma yil davomida qadimgi Misr yozuvini o'rganib, Ptolemey V ning farmonini o'qishning kalitini topdi. U 1822 -yil 27-sentabrda Fransiya akademiasida iyeroglif alfavitini ochganligi to'g'risida ilmiy xabar qildi. Shampolyonning Misr iyerogliflarini o'qishi qadimgi Misr yozuvini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi. Olim og'ir ilmiy mehnat va moddiy nochorlik tufayli 1832-yil 42 yoshida vafot etdi. Shampolyondan keyin ham Misr yozuvini o'zganish davom etdi. Nemis olimlari Lepsius va Brugsh «Misr xronologiyasi», «Misr fir'avnlari to'g'risida» nomli asarlarini yaratdilar.

XIX asrning 80-yillaridan boshlab misrshunoslikda yangi bosqich boshlandi:

1. Katta hajmdagi maydonlarda olib boriladigan arxeologik qazilmalarni o'tkazishning ilmiy asoslangan qat'iy metodikasi ishlab chiqildi. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan topilmalar tizimli o'rganildi va doimiy saqlana boshlandi.

2. Topilgan yozma yodgorliklar filologik va tarixiy tahrir bilan chop etila boshlandi.

3. Qadimgi Misr tarixi va madaniyatning turli muammolari ishlanib, yirik asarlar to'plami chop etila boshlandi. Misr topilmalari muzeyini tashkil qilgan va yirik arxeologik qazishmalar olib borgan olim O. Mariyettning misrshunoslik fani taraqqiyotidagi xizmati katta bo'ldi. Ingliz tarixchisi Flinders Pitri uning davomchisi bo'ldi. U III tomli «Qadimgi davrda Misr tarixi», Brested II tomli «Misr tarixi», Maspero «Misr tarixi» va Ed. Meyer «Qadimshunoslik tarixi» asarlarini yaratdilar. XIX asrning o'rtalarida fransuz olimi O. Mariyett qadimgi Memfisdan muqaddas ho'kizlar sag'analarini topdi. G. Maspero XIX

asr oxirida Sakkaradagi piramidalarni tadqiq qilib, V–VI sulola piramidalarining xonalari ichki devoridagi matnlarni chop qildi. Fiva shahrida u Yangi podsholik fir'avnlarning mo'miyolari yashirilgan ulkan maxfiy joyni topdi.

Misrshunoslikning yangi davri XX asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. Angliyada «Kembrij qadimgi tarixi» seriyasi chop etilib (I–XI tomlari 1928–1938-yillarda chop etildi), nemis olimlari A. Erman va X. Tropyte (1926–1931) V tomli Misr lug'atini tuzdilar.

A. Gardner III tomli «Vilbur papirusi», «Ramseslar davri ma'lumoti hujjatlari» va «Misr onomastikasi» asarlarini chop qiladi. Misrda asosiy arxeologik qazishmalarni Yevropa va AQSH olimlari olib bordilar. Faqat XX asrning 20-yillaridan boshlab o'zi misrlik bo'lgan olimlar arxeologik qazishmalarni boshladilar.

XX asrning so'nggi yillarida Kosmik arxeologiya Qadimgi Misrning hali o'rganilmagan qum ostida qolib ketgan shahar yodgorliklari izlarini topdi. Qadimgi Misrning barcha shahar va qishloqlari Nil daryosi qirg'og'ida joylashgan. Rus olimlari V. Turayev, I. Nikolskiy, V. I. Avdiyev va boshqalar misrshunoslik fanini rivojlantirishda muhim o'rin egalladilar.

3. Qadimgi Misr tarixini davrlashtirish. Tarix fanida manba va adabiyotlar atroficha ilmiy tadqiq qilingan holda qadimgi Misr tarixi ilmiy asoslanib davrlashtirilgan. Qadimgi Misr tarixi mil.avv. IV ming yillikning II yarmidan davlat va sinfiy jamiyatni paydo bo'lishidan mil.avv. VI asrda Misrning Ahamoniylar davlatiga qo'shib olingan davrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Qadimgi Misr tarixi quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Sulolalargacha bo'lgan I davr (mil.avv. IV ming yillikning I yarmi). Urug'chilik munosabatlarining yemirilishini boshlanishi.

2. Sulolalargacha bo'lgan II davr yoki Gerzey davri (mil.avv. V ming yillikning II yarmi). Ijtimoiy tengsizlikning paydo bo'lishi, ilk sug'orish inshootlarining paydo bo'lishi, ilk nom birlashmalarining tashkil topishi. Davr oxirida Yuqori va Quyi Misr davlatlarining paydo bo'lishi.

3. Ilk podsholik. I-II umummisr sulolalarining boshqaruvi. Yagona umummisr davlatining paydo bo'lishi (mil.avv. XXXI–XXIX asrlar).

4. Qadimgi podsholik davri. III–VI sulolalar hukmronligi (mil.avv. XXVIII–XXIII asrlar). Piramidalar qurilishi, sun'iy sug'orish tizimining shakllanishi, markazlashgan davlat apparatining mavjudligi, fir'avn hokimiyatining kuchayishi.

5. O'tish davri (VII–VIII sulolalar, XXIII–XXI asrlar). Yagona Misr davlatining nomlarga parchalanishi.

6. O'rta podsholik davrida markazlashgan Misr davlatining qayta tiklanishi. XXI – XVIII asrlar, XI–XIII sulolalar boshqaruvi.

7. II O'tish davri (XIV–XVI sulolalar, XVIII asr oxiri – XVI asr boshlari). Misrning zaiflashuvi. Giksoslar hukmronligi davri (XV–XVI sulolalar). Giksoslar bilan bir vaqtda Fiva hukmdorlari (XVII sulola, XVII asr) hukmronligi.

8. Yangi podsholik davri. XVIII–XX sulolalar hukmronligi (mil. avv. XVI–XI asrlar). Misrning Old Osiyoda eng qudratli davlatga aylanishi. Iqtisodiyot, fan va madaniyatning gullab-yashnashi.

9. III O'tish davri (XXI sulola, XI–X asrlar). Misrning tushkunligi.

10. So'nggi podsholik davri. Misr chet elliklar hukmronligi ostida (XXII–XXV sulolalar, mil.avv. IX–VIII asrlar). Misrning Sais nomarxlari (XXVI sulola) davrida tiklanishi (mil.avv. VII–VI asrlar).

11. Misrning Eron tomonidan bosib olinishi va Eron davlatiga qo'shib olinishi (XXVII–XXX sulolalar, mil.avv. VI–IV asrlar).

4. Mamlakat va aholi. Qadimgi Misr deb Nil daryosining birinchi ostonasidan boshlab, keng Nil deltasini hosil qilgan tor Nil vodiysiga (kengligi 1 km dan 20 km gacha) aytiladi. Tor Nil vodiysi Yuqori Misr, deltaning quyi qismidagi viloyat Quyi Misr deb atalgan («Yegipet» nomi yunoncha, Misr poytaxti Memfis misrcha «Xekau-Ptax» yoki «xikupta» – «xudo Ptaxning ruhi qal'asi» ma'nosini bildiradigan so'zdan kelib chiqqan). Qadimda misrliklar o'z mamlakatlarini Nil vodiysining haydalgan qora tuproqli yeriga qarab, Kemet – «qora yer» deb ataganlar. Misr Afrika qit'asining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. Suvaysh bo'yni orqali Misr Old Osiyoning madaniy markazlari bilan bog'langan. Misr Nil daryosi orqali Tropik Afrika va O'rtayer dengiziga tutashgan.

Gerodot «Misr – Nilning sovg'asi» – deb ta'riflaydi. Chunki Nil daryosi hosildorlik manbai, aholining xo'jalik faoliyatini asosi bo'lib, Misr iqtisodiy hayotida yetakchi o'rin tutgan. Nil daryosida har yil 19-iyunda toshqin ko'tarilgan. Bu toshqin sentabr o'rtalarigacha davom etgan. Noyabrda daryo o'z o'zaniga tushgan. Ekilgan yer aprel-mayda hosil keltirgan. Nil daryosi Misr iqtisodiyotining asosi bo'lgan dehqonchilikda muhim o'rin tutgan. Mo'l-ko'l hosil sun'iy sug'orish asosida olingan.

Misrliklar dehqonchilik ishlariga ko'ra, yilni 3 mavsumga bo'lganlar:

1. «To'la suv mavsumi» – Nil toshqini (iyul o'rtalari).

2. «Ekin unish mavsumi» – ekishdan hosil yig'ishgacha bo'lgan qishloq xo'jalik ishlarining to'liq sikli (noyabr va may o'rtalari).

3. «Quruq mavsum» – yerning dam olish vaqti va shafqatsiz jazirama (may o'rtalaridan iyul o'rtalarigacha) davri. Suv omborlari qurilib, Nil vodiysi to'g'on, kanallar bilan to'g'ri burchakli havza (basseyn)larga bo'lingan.

Ekinlar. Arpa, bug'doy, kunjut, kanop, emmer (polba), xurmo, kokos palmalari, akatsiya (qurilish materiallari uchun), uzum va mevali daraxtlar o'sgan. Asosiy ovqat hisoblangan baliq ko'p bo'lgan.

Chorva mollari. Qo'y, echki, sigir, eshak, cho'chqa boqilgan.

Qazilma boyliklar. Granit, bazalt, diorit, alebastr, shifer, ohak. Memfis yonida yirik tosh konlari, O'rta Misrdagi Fiva yaqinida alebastr konlari va Sinay yarimorolida boy mis konlari bo'lgan. Misrning o'zida metall bo'lmagan. Ular qo'shni davlatlardan olib kelingan. Kumush va temir asosan Kichik Osiyodan, oltin Shimoliy Nubiya va Arabiston yarimorolidan olib kelingan.

Aholi. Nil vodiysida qadimgi aholi Saxara, Liviya sahrosi va Efiopiyadan mil. avv.VI ming yillik oxirida kelib joylashgan. Bu etnik guruhlarining qo'shilishidan qadimgi Misr xalqi kelib chiqqan. Qadimgi misrliklar o'rta bo'yli, to'ladan kelgan, soqoli qirilgan, sochlari qisqa qirrilgan. Kiyimlar qisqa, old yubka, lungidan iborat bo'lgan. Bolalar 11 yoshgacha qip-yalang'och yurganlar.

Ovqat. Arpa noni, emmer bo'tqasi, quruq baliq, piyoz, sarimsoq va bodring. Qadimda misrliklar dunyo tarixida birinchi bo'lib pivoni kashf qilganlar va arpadan tayyorlangan pivo asosiy ichimlik bo'lgan. Go'sht kam iste'mol qilingan.

5. Ilk Misr jamiyati va davlati. Ilk podsholik davri (mil.avv. XXXI–XXIX asrlar). Ilk dehqon jamoalari mil.avv. VI–V ming yillikda Quyi Misrdagi Fayum vodiysida mavjud bo'lgan. Fayum manzilgohida g'alla ekinlari ekilgan, yirik va mayda qoramol boqilgan va baliq tutilgan. Bu madaniyatga mansub bo'lgan manzilgohdan suyak-garpun, toshdan yasalgan o'roqlar va loy idishlar topilgan. Bu davrda Yuqori Misrda chorvador dehqonlar yodgorligi topilgan joyiga qarab, Tasiy madaniyati deb ataladi. Bu yerdan ko'plab qabrlar topilgan. Bug'doy ekilgan,

mayda chorva mollari boqilgan. Sirti qora va kulrang loy idishlar yasalgan. Tasiylar urug'-jamo'a bo'lib yashaganlar. Ulardan ko'ra yuqori rivojlangan Badari madaniyati (mil.avv. IV ming yillik)ga tegishli aholi urug'-jamo'a bo'lib yashab, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Yerga motiga bilan ishlov berilib, kichik kanallar qazilgan. Ov va baliqchilik ham mavjud bo'lgan. Badariylar kulolchilikni takomillashtirganlar. Mil.avv. IV ming yillikning I yarmida Amrat manzilgohlari yanada yuqoriroq rivojlangan. Bu davrda ilk mustahkamlangan qo'rg'onlar paydo bo'lgan. Aholi soni o'sgan. Mis buyumlari ko'paygan. Garpun-qarmoqlar yasalgan, ilk tilla bezaklar paydo bo'lgan. Kulollar naqshli idishlar tayyorlay boshlaganlar (ilk sulolagacha bo'lgan davr).

Mil.avv. IV ming yillikning II yarmida Gerzey davri (hozirgi Gerzi qishlog'i nomidan) sulolaviy davrgacha bo'lgan 2-bosqichda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqqan. Ilk ijtimoiy tabaqalanish yuz beradi. Qazib ochilgan qabrlardan ko'plab buyumlar topilgan. Bu vaqtda ilk ibtidoiy qulchilik paydo bo'lgan. Qullar «tirik murdalar» deb atalgan. Misrning ilk davlatlari xo'jalik faoliyatini birgalikda olib borishga intilgan dehqon jamoalarining birlashmalaridan paydo bo'ldi. Sug'orish inshootlarini rivojlantirish va yiriklashtirishga bo'lgan ehtiyoj davlat hokimiyatini shakllanishini rag'barlantirdi. Davlat hokimiyati sug'orish tizimini yaratish va ta'mirlashda yetakchilik qila boshladi.

Misrning ilk davlatlari hududi uncha katta bo'lmagan. Keyinchalik Yuqori Misr 22 ta, Quyi Misr 20 ta katta bo'lmagan sepat (viloyat) – nomlar (Misr viloyatlarini antik yozuvchilar «nom» deb, ularni hokimlarini «nomarx» deb ataganlar)ga bo'lingan. Nomlarda iqtisodiy ehtiyojlardan kelib chiqib, birlashuv jarayoni kuchli bo'lgan. Nomlar o'rtasidagi uzoq urushlar natijasida mil.avv. IV ming yillik oxirida Yuqori va Quyi Misrda ikkita yirik davlat vujudga keladi. Yuqori Misr hukmdori oq rangli toj, Quyi Misr hukmdori qizil rangli toj kiygan. Birinchisining poytaxti Exnab (Nexen), ikkinchisining poytaxti Buto shahri bo'lgan.

Misrning ilk podsholaridan biri sanalgan Narmer yodgorliklarida yuqori Misr podsholarining g'alabalari, ularning ishtiroki bilan o'tgan muhim marosimlar abadiylashtirilgan. Yodgorliklarda harbiy tasvirlar ko'pchilikni tashkil etadi. Podsholarining hokimiyati mil.avv. IV asr o'rtalaridan boshlab merosiy tus ola boshlaydi. Chunki Nil vodiysining uncha katta bo'lmagan

nomlari o'rtasidagi muntazam olib borilayotgan urushlarda harbiy yo'lboshchi nomarxlarning mavqei kuchayib boradi. Mil. avv. IV ming yillikning oxiriga kelib, podsholarni hokimiyatiga ilohiy tus berilib, ular xudo Xor (bu xudo lochin ko'inishida tasvirlangan) bilan qiyoslangan.

Har ikki podsholik o'rtasida Misrni birlashtirish uchun uzoq kurash boshlanadi. Quyi Misrda podsho Narmer va undan oldin o'tgan o'tmishdoshlari g'olibona urushlar olib borganlar. Mil.avv. XXXI asrning taxminan II yarmida mamlakatni haqiqiy birlashtiruvchisi va I umummisr sulolasi asoschisi deb misrliklar Narmerning o'g'li Mina (yunoncha Menes)ni hisoblaydilar. Mamlakatni birlashtirish uchun Narmer va undan oldin o'tgan podsholar Quyi Misrda uzoq urush olib boradilar. Birlashuv qachon yuz berganining aniq sanasi mavjud emas. Lekin taxminan mil.avv. 3000 yilliklar atrofida Nil vodiysida yagona davlat mavjud edi. Misrni amalda to'la birlashtirgan va I umummisr sulolasiga asos solgan podsho Narmerning o'g'li Mina (mil. avv. XXXI asrning II yarmi atrofida) bo'ldi. Abidos yaqinidagi Tin nomidan chiqqan podsho Mina birlashtirish siyosatini olib bordi. U Yuqori va Quyi Misr tutashgan strategik muhim nuqtda yangi poytaxt, mustahkamlangan shahar Memfis (Minnefer misrcha)ni qurdi. U Memfisni suv toshqinidan himoya qiladigan to'g'on qurdi. Bu shahardan turib mamlakat janubi va shimolini boshqarish qulay edi.

Misrning Tinis viloyatidan kelib chiqqan I–II sulolalar davri ilk podsholik davri hisoblanadi. ilk podsholik davrida yagona davlat va ko'p sonli davlat apparati hamda bu apparatni boqadigan davlat yer egaligi shakllanadi. Davlat yerlarida tashkil etilgan yirik xo'jaliklarda davlatga qaram bo'lgan ishchilar mehnat qiladilar. Davlatga turli soliq va majburiyatlar o'tashga majbur bo'lgan qishloq jamoasi ham mavjud edi. Sug'orish inshootlari va ishlari butun mamlakat miqyosida olib boriladi. Mis qurollari yaxshi ma'lum bo'lsa-da, toshdan qilingan mehnat qurollari keng tarqalgan edi.

I–II sulola podsholari butun mamlakatni har ikki yilda bir marta aylanib chiqishlari an'anaga aylangan. Mafkurada Misrning birligi his qilina boshlanadi. Endilikda podsho unvoniga mamlakatning janubi va shimolida e'tiqod qilinadigan ma'budlar Nexbet va Uajit – «Ikkala hukmron» – «Yuqori va Quyi Misr podshosi» so'zlari qo'shiladi. Butun mamlakat miqyosida Yuqori Misrning bosh xudosi Xorga e'tiqod qilish keng tarqaladi.

Misrliklar I sulola davrida qo'shni hududlarga xo'jalik uchun zarur bo'lgan xomashyo uchun harbiy yurishlar qila boshladilar. Ular janubda Nubiyaga, g'arbda Liviya, sharqda Sinay yarim oroliga bosqinchilik yurishlari qildilar. Misrning tosh ko'zalari bu vaqtda Sharqiy O'rtayer dengizining barcha hududlaridan topilgan. Finikiya va Suriyadan yog'och (mashhur Livan kedri), Sinay yarim orolidan mis, malaxit va feruza toshlari olib kelinadi. Liviya va Arabiston sahrolari yo'llari o'zlashtiriladi. Menes davridan Shimoliy Nubiya ustidan yo'lga qo'yilgan Misrning nazorati saqlanib qoladi.

Mil.avv. XXIX asr o'rtalarida Misrda siyosiy halokat yuz berdi. Podsho Sexemib xudo Xorga sig'inishni bekor qilib, uning afsonaviy dushmani xudo Seton bilan o'zini qiyoslaydi. U poytaxtni Memfisdan Abidosga ko'chirdi. Quyi Misr ajralib chiqdi. Misrning birligini II sulolaning so'nggi vakili Xasexemum qayta tikladi. U Quyi Misrni tor-mor qildi (uning haykalidagi yozuv 47209 kishi o'ldirilgani yoki haydab ketilgani haqida ma'lumot beradi).

Misr xo'jaligining asosi sug'orma dehqonchilik edi. Podsho hokimiyatining eng muhim vazifalaridan biri Nil vodiysida sug'orish tizimini tashkil qilish va uni ta'mirlab, ish qobiliyatini saqlab turish edi. Misrning diniy markazi Gerakleopoldagi ibodatxonada ilk podsholikning fir'avnlari biri sovg'a qilgan hukmronlik ramzi – asoda tarmoqlangan suv havzasi, uning tepasida yer chopish marosimini bajarayotgan fir'avn qo'lida motiga, uning oldida qo'llarida boshhoqlar bilan savat ko'targan erkaklar, undan pastda – suvda mehnat qilayotgan boshqa erkaklar, ularga tomon motiga bilan kelayotgan erkak tasvirlangan. Ilk podsholik davridayoq Misr qishloq xo'jaligi yuqori darajada mahsuldor bo'lgan. Quyi Misrdan topilgan ko'p sonli vino xumlari uzumchilikning yaxshi rivojlanganidan dalolat beradi. Nil vodiysida chorva uchun suvli o'tloqlar ko'p bo'lib, chorvachilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Chorvachilikning o'ziga xos xususiyati – podada xonaki hayvonlar bilan birga, to'la yoki yarim qo'lga o'rgatilgan cho'l jonivorlari – antilopalar, shoxli yovvoyi echkilar, ohular mavjudligi edi. Bu hayvonlarning tasvirlari mil.avv. II ming yillikgacha devoriy tasvirlarda ko'p uchraydi. To'qimachilik tez rivojlandi. Shu davrdan boshlab, papirusdan yozuv uchun foydalanila boshlandi. Keyinchalik papirusdan yunon-rim madaniyati rivojida ham unumli foydalandi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. История Древнего Востока: учеб.пособие /А.А. Вигасин. – 2-е изд. Испр. –М.: Дрофа. 2007.

2. История древнего мира: Восток, Греция, Рим/И. А. Ладынин и др. –М.: Филол. общ-во «СЛОВО»; Изд-во Эксмо, 2004.

Asosiy sanalar

| | |
|---|---|
| Mil.avv. VI–V ming yillik | Neolit madaniyati (Fayum, Tasiy, Badari). |
| Eр.avv. IV ming yillikning birinchi yarmi I sulolasigacha boʻlgan (Amrat) davr. | Urugʻchilik munosabatlarining yemirilishi. |
| Eр. avv. IV ming yillikning ikkinchi davri | Sulolaviy davrgacha boʻlgan II bosqich (Gerzey davri). Ijtimoiy tabaqalanishning rivojlanishi va nom-davlatlarining paydo boʻlishi. |
| Eр. avv. IV ming yillikning oxiri | Yuqori va Quyi Misrning ikki podsholikka birlashuvi. |
| Mil.avv. XXXI–XXIX asrlar | Misrda ilk podsholik davri. |

QADIMGI PODSHOLIK (MIL.AVV. XXVIII ASRNING OXIRI – XXIII ASRLAR). O‘RTA PODSHOLIK (MIL.AVV. 2020 YIL – XVIII ASR BOSHLARI)

1. Qadimgi podsholik davrida jamiyat va davlat. 2. O‘rta podsholik. 3. Davlat boshqaruvi. Tashqi siyosat.

1. Qadimgi podsholik davrida jamiyat va davlat. Qadimgi podsholik davri (mil.avv. XXVIII–XXIII asrlar)da Misr yirik markazlashgan davlat bo‘lib, Sinay yarim orolini qo‘shib olgan. Janubiy Falastin va Nubiyani o‘z ta’siri ostiga olgan. Misrliklarning aytishiga ko‘ra, ularning tarixini eng yorqin davri III sulolaning eng atoqli hukmdori, Qadimgi podsholik davlatchiligining asoschisi Joser hukmronligi vaqti edi (mil.avv. XXVIII asr boshlarida). U Memfis shahrining poytaxt mavqeini tikladi. Fir‘avn hokimiyatini kuchaytirdi, jumladan, podshoning jismi xudolar jismiga o‘xshab, oltindan yaratilganini anglatadigan yangi unvonni kiritdi.

Birinchi Misr piramidasi mil.avv. 2650-yillar atrofida Sakkarada yaqinlarida qurilgan. Josergacha Misr fir‘avnlari xom g‘ishtdan qurilgan yassi bino – mastaba (arabcha – o‘tirg‘ich) ga dafn qilar edilar. Joserning maqbarasi ilk piramida shaklidagi biri ustidan ikkinchisi ustma-ust qo‘yilgan zinapoyasimon 6 mastabadan (balandligi 60 metr) iborat bo‘lib, ohaktoshdan bunyod qilingan. Joser piramidasini Sakkarada hududida saroy me‘mori, bosh maslahatchi Imxotep qurdirgan. Joser davrida Imxotep ishtirokida yangi yil hisobi Sirius yulduzini tongda paydo bo‘lishiga asoslangan yangi taqvim joriy qilinadi.

Piramidalarni ulkan sfinks qo‘riqlab turadi. Bu haykal odam boshli, fir‘avn Xafraning boshi bo‘lishi mumkin. Ehtimol sfinks Xafraning farmoni bilan qurilgan. U sharqqa quyosh chiqadigan tomonga qarab turadi. So‘nggi 4-5 ming yil ichida uni qum bosgan. Mil.avv. 1419-yilda Sfinksga bitilgan yozuv haykal panjalari orasida uxlab qolgan shahzoda Ramzes IV tarixini hikoya qiladi. Uning tushida quyosh ma‘budi kelib, agar u Sfinksni qumdan tozalasa fir‘avn bo‘lishini aytadi. Shahzoda uning aytganini qildi, shundan so‘ng u fir‘avn tojini kiydi.

Joserdan keyingi fir‘avnlari Memfisdan g‘arbda o‘z piramidalarini qurdilar. Fir‘avn Snofruning vorislari davrida ulug‘vor pi-

ramidalar qurilishi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ishga aylanadi. Fir'avn Xufu mil.avv. 2566-yilda vafot etgan. Fir'avn Xufu (yunoncha – Xeops) o'zi uchun asosi 230 kv.km, har birining og'irligi 2,5 tonna bo'lgan, 2,3 mln og'ir tosh blokdan tashkil topgan, balandligi 147 metr bo'lgan piramidani bunyod qiladi. Uning o'g'li Xafra (Xefren) qurgan piramidaning balandligi (143 m.) sal pastroq edi. Eng so'nggi ulug'vor piramida Xafraning o'g'li Menkaura (Mikerin) tomonidan qurilgan bo'lib, balandligi 66 m edi. Piramidalar ohaktoshlardan qurilib, granit plitalar bilan qoplangan. Piramidalar qurilishiga yuz minglab kishilar jalb qilingan. Ular qurilish yaqinida bunyod qilingan shaharchada yashaganlar. Quruvchilar uchun ovqat tayyorlaydigan, non yopadigan yuzlab kishilar xizmat qilgan. Piramidalar yaqinidan non yopilgan tandirlar, ovqat tayyorlanadigan o'choqlar qoldiqlari topilgan. Piramida qurilishida ishtirok etgan oddiy ishchi boshqaruvchi lavozimigacha ko'tarilishi mumkin bo'lgan. V sulola fir'avnlari (XXVI–XXV asrlar) ulkan piramidalar qurishdan voz kechdilar va kichik piramidalar barpo qila boshladilar. Sulolaning so'nggi vakili Unas birinchi bor o'z piramidasi ichiga fir'avn o'limidan keyin, u dunyoda yashashi bilan bog'liq an'ana formulalarini keng to'plami yozuvlarni–piramida matnlarini kiritdi. IV sulolaning asoschisi Snofru (mil.avv. 2600-yillar atrofida) Sinay va Nubiyaga g'olibona yurishlar uyushtiradi. Misga boy bo'lgan Sinay Misrga to'la qo'shib olinadi.

Rivoyatlarga ko'ra, Xufu va Xafra barcha Misr ibodatxonalarini yopganlar hamda yangi umumdavlat Quyosh xudosi Raga sig'inishni joriy qiladilar. Xudo Raga sig'inish markazi Geliopol (misrcha – Iunu) shahri edi. V sulola keng hajmdagi ulkan qurilishlardan voz kechdi. Ibodatxonalar ekin yerlarini hadyaga oldilar. V sulola davrida misrliklar Sinay va Nubiyada o'rnashib qolaverdilar. Liviyada urush olib bordilar va Sharqiy O'rtayer dengizi bilan savdo qildilar. Podsho Isesi davrida Baurjed nomli misrlik uzoq Punt (hozirgi Somali) mamlakatiga sayohat qiladi. VI sulola davrida (mil.avv. XXIV–XXIII asrning boshlari) tashqi siyosat yanada faollashadi. Uning podsholari Falastinga qo'shin tortadilar. Bibl shahri misrliklarning tayanch nuqtasiga aylanadi. Uning hokimlari Misr unvonlarini qabul qilib, Misr xudolariga sig'inadilar. Nubiyadan misrliklar oltin olib keladilar.

Qadimgi podsholikning gullab-yashnagan davrida fir'avn hokimiyati bag'oyat qudratli bo'lib, u nafaqat oddiy misrliklar

uchun, balki fir'avnning eng yaqinlari uchun ham yetishib bo'lmaydigan balandlikda turar edi (bir oliy amaldor qabr toshi yozuvida unga faqat podsho taxti oldidagi yerni emas, balki fir'avnning oyog'ini o'pishga ruxsat berilganini faxrlanib yoza-di). Fir'avnning qo'lida bepoyon yer zaxirasi, oziq-ovqat va ishchi kuchi to'plangan bo'lib, bular uning qudratli hokimiyati asosi edi. Xufu va uning avlodlari «Ra o'g'li» unvonini qabul qildilar. Misrning qonuniy podshosi Quyosh xudosini yerdagi ayol bilan yaqinligidan tug'iladi degan tushuncha shakllanadi. Hech kimga podshoni muqaddas nomini aytishga ruxsat berilmagan. Chunki misrliklar e'tiqodiga ko'ra, uni nomini aytish fir'avnga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan. Shu sababli, uni nomi boshqacha «ulug' uy», «katta uy» (per-o, fir'avn so'zi shundan kelib chiqqan) deb atalgan. Fir'avn odam qiyofasidagi xudo deb tasavvur qilingan. U xudo Xor (Gor)ning ifodasi, xudo Raning o'g'li, u o'limidan keyin xudo Osiris sifatida ulug'langan va unga sig'inish uchun sag'ana-piramidalar oldida ibodatxonalar qurilgan. Fir'avn oliy bosh kohin vazifasini ham bajargan. Fir'avnlr o'zlarini ilohiy «Quyosh» bilan qarindosh ekanliklariga ishonganlar va o'zlarini samoviy hukmdor deb e'tirof etganlar. Oddiy xalq uchun fir'avn «katta xudo», «samo hukmdori» deb ulug'langan. Hatto kohinlar ham fir'avnga ta'zim bajo keltirganlar. Fir'avn kohinlar ishtirokisiz xudoga murojaat qilishi, qurbonlik keltirishi va ibodatxonalarga kirishi mumkin bo'lgan fir'avn oliy bosh kohin bo'lib, uning o'zi ham diniy qonun-qoidalarga rioya qilgan. Fir'avnning xususiy hayoti: oziq-ovqati, kiyimi, sayohati, poklanishi qat'iy qoidalar bilan belgilab qo'yilgan.

Joserning vorislari davrida fir'avn tomonidan qattiq nazorat qilinadigan davlat boshqaruv apparatini shakllanishi tugallanadi. Nomlarning mustaqilligi tugatildi. Nomarxlar fir'avnga qaram bo'lib, bir nomdan ikkinchisiga almashtirib turiladigan oliy amaldorlarga aylantirildilar. Davlat markazlashib fir'avnning mutlaq hokimiyati shakllanib, tarmoqlangan byurokratik boshqaruv apparatiga ega edi. Boshqaruv apparatining oliy amaldorlari zodagonlardan bo'lib, ularning lavozimi merosiy bo'lgan. Ular fir'avn nomidan mamlakatni boshqarganlar. Barcha joylarda hisob-kitob ishlariga katta ahamiyat berilib, boshqaruvda mirzalar alohida o'rin tutgan. Zodagon amaldorlarning o'zlari mirzalik kasbini yaxshi o'zlashtirib olganlar. Bu kasbni o'g'illariga o'rgatishni majburiy deb bilganlar. Zodagonlarning o'g'illarini o'zi ko'pincha o'z otalarining xo'jaligida mirzalik qilganlar.

Davlat boshqaruvi uch bo'g'indan iborat bo'lgan: markaziy, viloyat (nom), mahalliy (qishloq-jamoa). Nomlar boshqaruvi markaziy boshqaruvni kichikroq ko'rinishidagi shakli bo'lgan. Ko'p hollarda nomarxlar separatizmi mavjud bo'lgan. «Jad-jad», «Kanbet» atamaları qishloq jamoa kengashlari nomini bildirib, ular mahalliy sug'orish tizimini kuzatish bilan birga, jamoada sud ishlarini ham amalga oshirganlar. qishloq jamoa kengashlari yuqori hokimiyatga bo'ysundirilgan va ularning a'zolari kichik amaldorlarga aylanganlar. Davlat boshqaruvi tizimi fir'avnning tanho hukmronligiga asoslangan. Fir'avn o'zini oddiy xudo emas, balki «katta xudo» deb ulug'ladi. VI sulola davrida podsho hokimiyati zaiflashgan vaqtida ham Misr podshosi barcha xudolardan ko'ra ulug'roq deb e'tirof etilgan. Fir'avnning eng yaqin yordamchisi oliy amaldor-chati (bosh vazir) bo'lgan. U barcha amaldorlarga rahbarlik qilardi. Shuningdek, u sun'iy sug'orish ishlarini tashkil etgan. Chorva mollarini nazorat qilish, hunarmandlar, harbiy ish, soliq majburiyatlarini, qurilish ishlarini nazorat qilish ham vazirning zimmasiga yuklatilgan. Fir'avn oyoq kiyimini olib boruvchi lavozimidagi amaldor bir vaqtning o'zida qo'shin bosh qo'mondoni, saroy oqsoqoli, Yuqori Misrni boshqaruvchisi, bino quruvchi, biror-bir ibodatxonaning bosh kohini vazifalarini ham bajargan. Yuqori lavozimli amaldorlarning vazifa doiralari kengayib, qisqarib turgan. Ular faqat harbiy boshliq bo'la olmaganlar. Zodagonlar yuqori lavozimlarini egallagan bo'lsalar-da, hunarlarni egallashdan tortinmaganlar. Ular ustaxonalarga, qurilish ishlariga boshchilik qilganlar.

Qadimgi podsholik davrida harbiy ish rivojlanadi. Qo'shinning asosiy quroli o'q-yoy bo'lgan. Qurol-yarog' zaxirasi yaratilib, maxsus joyda saqlangan. Ko'ngilli qo'shinga alohida harbiy boshliqlar boshchilik qilgan. Qo'shin erkin misrliklardan to'planib, o'q-yoy, nayza, kalta qilich bilan qurollangan piyodalardan iborat bo'lgan. Chegaralarda garnizonlar turgan. Qo'shin asosan ko'ngilli to'plangan piyoda bo'lib, fir'avnning vakolatli odami va harbiy bo'lmagan mansabdor shaxslar boshchiligida yurishga chiqqan. Askarlar oddiy kamon va o'qlar bilan qurollanganlar.

Bu davrda misrliklar qanday yashaganlar? Oddiy aholining uy-joylari ham oddiy bo'lgan. Qadimgi podsholik davrida uylar tor bo'lib, xom g'isht, loydan qurilgan. Bu davrga tegishli poli loy bilan suvoq qilingan uylar qazib ochilgan. Qadimgi podsholik davrida oddiy odamlar bellarini bir parcha mato bilan o'rab

yurganlar yoki oldingi tomonga oddiygina ola quroq lattali bel-bog'-kamar ilganlar va ish vaqtida, umuman, yalong'och bo'lib olganlar. Faqat ba'zilar (ovchilar, baliqchilar) gavdaning beldan yuqori qismini yopganlar, chunki ularning mashg'ulotlari shuni talab qilgan. Yosh bolalar qip-yalong'och yurganlar.

Bu davrda, ayniqsa, Quyi Misrda bog'dorchilik, poliz ekinlari (sarimsoq, bodring, piyoz, har xil ko'katlar) ekilib, uzumchilik keng tarqalgan. Misrliklar xo'jalik tarixida birinchi bo'lib asalarichilikni kashf qildilar. Lekin Misrliklar asalarichilikni bundan 10 ming yil oldin bilganlar. Yuqori Misrda asosan donli ekinlar yetishtirilib, ularning bir qismi Nil daryosi bo'ylab shimolga jo'natilgan.

Qadimgi podsholik davrida podsho xo'jaligi, ibodatxona xo'jaligi, xususiy xo'jalik va qishloq-jamoa xo'jaliklari mavjud bo'lgan. V-VI sulolalar davrida zodagonlarning yirik xo'jaliklari iqtisodiy hayotda ustuvor o'rinni egallagan. Misrning ko'pchilik aholisi zodagonlarning katta-katta ekinzorlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida ishlaydigan qaram ishchilar edi. Ularni o'z xo'jaligi bo'lmay, o'z mehnatlari uchun oziq-ovqat ulushi olganlar va o'z ixtiyorlari bilan ish joyini tashlab keta olmaganlar. Xususiy kishilarga qaram qullar oz bo'lgan. O'rta va past darajadagi amaldorlar ish haqini natura tarzida olar edilar. Mil.avv. III ming yillik o'rtalarida oliy amaldorlarga davlat xo'jaligidan yirik yer maydonlari muntazam foydalanishga berilgan. U ko'pincha mansab bilan birga, otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tgan. Ularning ixtiyoridagi davlat yerlari davlatning oliy nazorati ostida turgan. Ishchilar davlat tomonidan mehnat majburiyati tartibida sug'orish inshootlari, qurilish va boshqa ishlarga jalb qilinganlar.

Qishloq-jamoa yerlari mavjud bo'lgan. Qishloq-jamoa a'zolari «podsho odamlari» hisoblanib, turli soliq va majburiyatlarini o'taganlar. Jamoa a'zolari va hunarmandlar «nesu» yoki «xentiushi»; fir'avn, zodagonlar va ibodatxona ishchilari «meret» yoki xemu» deb atalgan. Qullar «bak» deyilgan. Qullarni urushda asirga tushganlar yoki qarzga botgan kambag'allar tashkil qilgan. Ular sotilgan va sotib olingan, ammo Qadimgi podsholik davrida qullar kam sonli bo'lgan.

Aslzodalar, nomlarning noiblari (nomarxlar) fir'avn hokimiyatining kuchayishidan norozi bo'lib, ko'p hollarda markaziy hokimiyat, fir'avn siyosatiga qarshi chiqar edilar. Ularni qarshiligini sindirish uchun fir'avnlardan tomonidan markaziy bosh-

qaruvga mahalliy va xizmat zodagonlari jalb qilinib, diniy siyosat ham o'zgardi. Xudo Raga bag'ishlab ibodatxonalar qurish kuchaydi. Endi fir'avnni ilohiyligi, uning xudo Radan bevosita kelib chiqqanligi g'oyasi ilgari surildi.

VI sulola davrida (XXIV–XXIII asrlar) nom va xizmatdagi zodagonlarning mavqei oshib bordi. Ularning ko'pchiligi immunitet (soliq majburiyatlaridan ozodlik) yorlig'ini oldilar. Markaziy hokimiyatning qudrati zaiflashdi, lekin mahalliy hokimiyat – nomlarning hokimlari katta moddiy boyliklarga ega bo'ldilar. Nil daryosining suvi pasaydi. Suv tanqisligi natijasida hosil kamayishi ochlik va oxir-oqibatda, ijtimoiy norozilikning kuchayishi va davlatning yemirilishiga olib keldi. Oqibatda VI suloladan so'ng Misrda (mil.avv. XXIII asr o'rtalari) markaziy hokimiyat zaiflashib, mamlakat bir-biriga dushman nomlarga bo'linib ketdi. Qadimgi podsholik davri yagona davlatning yemirilishi bilan Misr tarixida I O'tish davri (mil.avv. XXIII asr boshlari – XXI asrning oxiri) boshlanadi. Davlatning zaiflashuvi Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada keskin tabiiy o'zgarishlar – quruq iqlimning bostirib kirishi bilan tezlashib ketdi.

Mil.avv. XXII asr boshlarida Yuqori Misrning markazi Gerakleopolda VIII sulola bilan bir vaqtning o'zida Nil vodiysining o'rta qismida yangi IX sulola hukmronlik qila boshladi. Gerakleopol mamlakat shimolida hosildor tekislikda joylashgan bo'lib, Nilning g'arbi Fayum vohasi yaqinida edi. Mil. avv. XXII asrda Gerakleopol podsholari butun Misr ustidan o'z nazoratlarini o'rnatdilar. Shu bilan birga, Gerakleopol podsholari o'zlarining asosiy ittifoqchisi bo'lgan Siut shahri, Gernopol, Fivaning va bir necha nomlarning avtonomiyasini yo'qota olmadilar. Hukmron sulola nomlarni to'la o'ziga bo'ysundirishga harakat qildi va Osiyo ko'chmanchilariga qarshi urush olib bordi. Mil.avv. III ming yillik oxirida Misrning xo'jalik ahvoli mamlakatni birlashtirishni talab qildi. Sug'orish tizimi tushkunlikka yuz tutdi, aholi ochlikdan qiynaldi. Asr oxirida Fiva nomining hokimlari mamlakat janubini o'z hokimiyatlari ostida birlashtirib, fir'avn unvonini (XXI sulola) oldilar va shimol podsholarining jiddiy raqibiga aylandilar. Ulardan biri Xeti III (mil.avv. XXI asr o'rtalari) Fiva bilan hal qiluvchi to'qnashuvdan xavfsiraydi va o'z o'g'li Merikaraga nasihatnomasida Fiva bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatishni maslahat beradi.

2. O'rta podsholik (mil.avv. 2020-yil – mil.avv. 1750-yillar). Mil.avv. 2020-yil atrofida fir'avn Mentuxotep II shimolni

istilo qilib, butun mamlakatni birlashtirdi. Bu voqeadan soʻng, Oʻrta podsholik davri boshlandi. Qayta birlashgan Misr davlatini boshqargan XI sulola firʼavnlari davrida keng qamrovli qurilish ishlari, faol tashqi siyosat (Osiyoda urushlar, uzoq Puntga ekspeditsiyalar) qayta boshlandi. Ammo mamlakat ichida oʻzaro urushlar hali saqlanib qoldi. Haqiqiy mustahkam davlatni yangi XII sulola barpo qildi. XII sulola asoschisi Amenemxet I (mil.avv. 1976–1947-yillar) firʼavn boʻlganiga qadar XI sulolaning oliy amaldori edi.

Markaziy hokimiyat kuchayib, umummisr sunʼiy sugʻorish tizimi qayta tiklandi. Fayum («koʻl yeri») vodiysidagi bepoyon botqoqliklar oʻzlashtirildi. Fayum suv ombori barpo etilishi natijasida koʻplab yangi yerlar ochildi. Fayum vodiysida yangi shahar – Illaxun barpo qilindi. Illaxun shahrida ming xonali ulkan (labirint – yunoncha) tosh inshoot barpo etildi. Bu inshoot diniy maqsadlarga xizmat qilib, turli nom xudolariga bagʻishlangan ibodatxona vazifasini oʻtagan.

Katta suv ombori qurilib, kanal bilan Nil daryosiga qoʻshildi. Fayum vohasida tarmoqlangan sugʻorish tizimi barpo qilindi. Janubiy ostona, Fayum va uning atroflari obod qilinishi XII sulola firʼavnlarning poytaxtni Fivadan yangi qurilgan shahar Ittaun («Ikkala yerni birlashtiruvchi») shahriga koʻchirishlariga sabab boʻldi. Mehnat qurollari takomillashdi. Sinayda mis xomashyosini qazib olish koʻpaydi. Shimoliy Nubiyada oltin va mis xomashyosini qazish yoʻlga qoʻyildi. Qishloq xoʻjaligi yuksalib, yangi qulay omoch paydo boʻldi. Ilk (jez) qurollar oʻzlashtirildi. Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻoqlari jez qurollarni bundan ancha oldinroq qoʻllay boshlagan edilar. Misrning bu sohada qoloqligining sababi, Nil va uning atrofida jez xomashyosining yoʻqligi edi. Boshqa yutuqlardan biri shishaning kashf etilishi edi. Iqtisodiyotning jonlanishi metallarga, kumush, qurilish yogʻochiga ehtiyojni kuchaytirdi. Bu chet mamlakatlar bilan savdo aloqalari faollashuviga olib keldi. Misr savdo karvonlari Nil, Suvaysh boʻyni orqali Kichik Osiyo va Bobilga chiqdilar. Janubiy Nubiya va Punt dan oltin olib kelindi.

Oʻrta podsholik davrida yirik xoʻjaliklar oʻrniga oʻrta xoʻjaliklar yetakchi oʻrin egalladi. Ular foyda keltiradigan barqaror xoʻjalik edi. Bozor bilan bogʻlanish va qul mehnatidan foydalanish kuchaydi. Kichik xoʻjaliklarning soni oshdi. Moddiy boylikning asosiy yaratuvchilaridan biri – ishlab chiqarish vosita-

lari va mehnat qurollaridan mahrum bo'lgan «xemum-nesut» – «podsho odamlari» deb atalgan ishchilar hisoblangan. Ular podsho, ibodatxona, zodagonlar yerida ishlab, buning evaziga oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana olganlar. «Podsho odamlari» yoshlik paytidan aholi ro'yxatidan o'tkazilib, ma'lum hunarlarga taqsimlanar edilar. Misr hukmron qatlamlarida ham o'zgarish yuz berdi. Oliy tabaqaga oqsuyak zodagonlar, oliy kohinlar va davlat apparatining katta amaldorlari kirar edilar. Endilikda fir'avn xizmatida o'zini ko'rsatgan quyi tabaqadan bo'lgan amaldorlar oliy tabaqaga kira boshladilar.

3. Davlat boshqaruvi. Tashqi siyosat. O'rta podsholik davrida ko'p sonli byurokratik boshqaruv apparati qayta tiklandi. Uning boshida «xudo Radan kelib chiqqan», uning yerdagi soyasi fir'avn turar edi. U mamlakatda tanho hokim edi. Ammo o'rta podsholik fir'avnlari nom (yunoncha – viloyat) boshqaruvi, mahalliy nomarxlarni (nom hokimi) markaziy hokimiyatning to'la nazoratiga ololmadilar. Fir'avn Senusert (1887–1850-yillar), uning o'g'li Amenemxet III (1850–1806-yillar) bir qancha merosiy nomarxlarni o'z kishilari bilan almashtirishga urinib ko'rdilar. Ammo bu harakat nomarxlarning jiddiy qarshiliklariga uchradi. Amenemxet I ning aslzodalarning o'zboshimchiliklariga qarshi qat'iy kurashi uni o'z yotoqxonasida suiqasd qilinishiga sabab bo'ldi. Ko'rinishidan Amenemxet II (mil.avv. 1911–1879-yillar) fitnachilar tomonidan o'ldirilgan. Fir'avnlarning sag'analari endi ko'rimsiz loydan barpo qilinib, kamtarona tusda bo'ldi. Nomarxlarning qoyalarga o'yilgan sag'analari paydo bo'ldi. Fir'avnlarning eski aslzodalarning mavqeini pasaytirishga urinib, davlat mansablariga o'rta qatlam vakillarini tayinlay boshladilar. Xizmatdagi zodagonlar moddiy jihatdan podshoga to'la qaram edilar. Amenemxet III davrida amaldorlardan biri bolalariga nasihatnomasida podshoni ko'klarga ko'taradi va o'g'illarini unga sadoqat bilan xizmat qilishga undaydi. Chunki «podsho – bu yemish» deb uqtiradi u. XII sulola fir'avnlari hokimiyatning merosiyligini kafolatlash maqsadida o'z o'g'illari bilan birgalikda hukmronlik qilish an'anasini kiritadilar. Fir'avn hokimiyati faqat Amenemxet III (mil.avv. 1860–1806-yillar) davridagina to'la mustahkamlanadi.

Mil.avv. 2000–1775-yillarda XII sulola fir'avnlari mamlakatni barqaror holatga keltirdilar. Ular faol ichki va tashqi siyosat yuritib, Misrni kuchli davlatga aylantirdilar. Fayum vohasini o'zlashtirish davom etdi. Nubiyadagi boy oltin konlari ishlati-

la boshlandi. Nubiyada yangi yoʻllar, qalʼalar qurilib, bu yerga Misrdan aholi koʻchirilib keltirildi. Nilning har ikki qirgʻogʻida, ikkinchi ostona hududida Semna va Kumna nomli mustahkam qalʼalar qurildi. Nubiya amalda Misrning provinsiyasi boʻlib qoldi. Sharqiy Oʻrtayer dengizi hududlaridan kumush, qurilish yogʻochi (asosan kedr yogʻochi) olib kelindi. Finikiyaning bir necha shaharlari Misrga qaram boʻldi.

Ammo mil.avv. XVIII asr oʻrtalarida Oʻrta podsholikning zaiflashuv alomatlari koʻrina boshladi. Mamlakatda mil.avv. 1750-yillar atrofida kuchli gʻalayonlar boshlandi. Bu haqda «Ipuser soʻzlari», «Neferti soʻzlari» kabi yozma manbalar aniq maʼlumot beradi. Mamlakatda XIII sulola vakillari bilan bir vaqtda mustaqil hukmronlik qiladigan bir necha markazlar vujudga keldi. Misrning yagona davlat sifatida yemirilishining birinchi belgisi – deltaning gʻarbiy qismida, markazi Ksois shahri boʻlgan XIII sulola bilan bir vaqtda hukmronlik qilgan va unga boʻysunmagan XIV sulolaning paydo boʻlishi edi. Bu voqea mil. avv. 1700-yillar atrofida yuz berib, bu Oʻrta podsholik davri-ning tugashini bildiradi. Bu voqeadan yangi II Oʻtish davri (mil. avv. XVI asr boshlari) boshlanadi. Bu vaqtda Misr chegaralarida koʻchmanchi qabilalar mamlakat xavfsizligiga tahdid sola boshladilar. Ayniqsa, janubiy Falastin va Sinay yarimorolida tashkil topgan koʻchmanchi giksos qabilalari ittifoqining del-tani sharqiy qismiga bostirib kirishi halokatli boʻldi. Mil.avv. III asrda yashagan kohin Manefon oʻzining «Misr tarixi» asari-da giksoslarni «choʻponlar-podshosi» deb tilga oladi. Misrliklar ularni «shasu» («koʻchmanchilar», keyinchalik arab mualliflari asarlarida amalikitlar) deb ataganlar.

Giksoslar Misrni bosib olib, Shimoliy Misrda deltaning sharqiy qismiga Avaris (Xat-Uart-misrcha) shahrini poytaxt qildilar. Ular oʻzlari bilan Misrga otlarni va jang aravalarni olib keldilar. Giksoslar Misr xudolaridan chet el mamlakatlari homiysi hisoblangan Setiga alohida eʼtiqod qildilar. Bosqinchilar uyushmagan edilar. Shu sababli, yagona davlat barpo qila olmadilar. Giksoslarga boʻysunmagan Fiva hokimlari nisbatan mustaqil boʻlib qoldilar va chet elliklarni haydab yuborish uchun kuch toʻplay boshladilar. Misr tarixida giksoslar shartli XV–XVI sulolalar (1710–1580-yillar) sifatida belgilanadi. Ular mamlakatni qariyb 150 yil boshqardilar.

Fiva hokimlari giksoslarni mamlakatdan haydab chiqarishga boshchilik qildilar. Mil.avv. XVI asr oʻrtalarida podsho Yaxmos

I giksoslarni tor-mor qildi. Avaris shahri, janubiy Falastindagi giksoslar tayanchi Sharuxen qal'asi ishg'ol qilindi. Giksoslarning haydalishi bilan Misr tarixida Yangi podsholik (mil.avv. 1584–1075-yillar) davri boshlandi. Yaxmos yangidan Misrni birlashtirgan XVIII sulola asoschisi bo'ldi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. История Древнего Востока: учеб.пособие /А.А. Вигасин. 2-е изд. Испр. – М.: Дрофа. 2007.
2. Замаровский В. Их величества пирамиды. – М.: 1980.
3. Картелл А. Во времени фараонов. – М.:1982.
4. Берлов О. Д. Общественное отношение а Египте эпохи Среднего царства. – М.: 1978.
5. Савельева Т.Н. Аграрный строй Египте в период Древнего царства. – М.: 1962.

Asosiy sanalar

| | |
|-------------------------------------|--|
| Mil.avv. XXVIII–XXIII asrlar | Qadimgi podsholik (III-VI sulolalar) |
| Mil.avv. XXVIII asr | III sulola. |
| Mil.avv. XXVII asr IV sulola. | Eng katta Xufu va Xafra piramidalarining qurilishi. |
| Mil.avv. XXIII–XXI asr o'rtalari | O'tish davri. Davlatning alohida nomlarga parchalinib ketishi. Ger akleopol va Fivaning kurashi. |
| Mil.avv. XXI–XVIII asrlar o'rtalari | O'rta podsholik (XI-XIII sulolalar). |
| Mil.avv. XVIII asr boshlari – | Misrda ikkinchi o'tish davri. |
| Mil.avv. XVI asr o'rtalari-gacha | |

YANGI PODSHOLIK DAVRIDA BUYUK MISR DAVLATI (MIL.AVV. XVI–XI ASRLAR)

1. XVIII–XIX sulolalar fir'avnlarning tashqi siyosati (mil.avv. XVI–XIII asrlar). 2. Iqtisodiyotning gullab-yashnashi. 3. Ijtimoiy munosabatlar. 4. Davlat boshqaruvi. 5. Exnaton (Amenemxet IV)ning diniy-siyosiy islohoti (mil.avv. 1365–1348-yillar). 6. XX sulola hukmronligi (mil.avv. 1200–1085-yillar). Yangi podsholikning so'nggi davri.

1. XVIII–XIX sulolalar fir'avnlarning tashqi siyosati (mil.avv. XVI–XIII asrlar). Yangi podsholik davrida Misr qo'shinlari qayta tashkil qilindi. Giksoslar ta'siri ostida qo'shin tarkibiga jang aravalari kiritildi. Misrda ot zavodlari tashkil qilinib, xo'jalikning yangi sohasi – yilqichilik paydo bo'ldi. Ot zavodlari davlat hokimiyati tomonidan tashkil qilindi va ularni oliy mansabdor boshqargan. Piyodalar asosiy harbiy qo'shinning asosiy qismi bo'lib qoldi. Ammo uning qurol turlari yangilandi. Qilichning 2 turi: og'ir, to'g'ri va yengilroq o'roqsimon qilichlar paydo bo'ldi. Dushmanlardan yaxshiroq himoyalaniş uchun askarlar plastinkali sovut kiya boshladilar. Qo'shin safini og'ir qurollangan kamonchi va nayzachilar to'ldira boshladi. Qo'shinning yangi turi – harbiy dengiz floti paydo bo'ldi. Mudofaa inshootlarini (fortifikatsiya) qurish san'ati takomillashdi. Misrliklar bosib olingan hududlarda kuchli mustahkamlangan qal'alarni qura boshladilar. Qo'shinni to'ldirish tartibi o'zgardi. Askar olishning yangi qoidasiga ko'ra, har 10 balog'atga yetgan erkaklardan biri harbiy xizmatga chaqiriladigan bo'ldi. Ammo bu tartib qo'shinni to'liq to'ldirish imkoniyatini bermadi. Shu sababli, XIX sulola davridan boshlab yollanma chet el askarlari qo'shinning yarmini tashkil qila boshladi.

XVIII sulola kuchli qo'shinga tayanib, bosqinchilik siyosatini olib bordi. Ayniqsa, Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'iga nisbatan istilochilik hujumlari kuchayib ketdi. Bu hududda mil. avv. XV asrda Misrga qarshi faqat birgina Mitanni davlati jiddiy qarshilik ko'rsata olar edi. Mitanni XVI asr oxiri – XV asrning birinchi yarmida qudratli davlatga aylangan edi. U Misrning Suriya va Falastinga ekspansiyasini to'xtatish uchun Kadesh shahri boshchiligidagi Suriya va Falastinning kichik davlat-

chalari koalitsiyasini har tomonlama qo'llab-quvvatladi. Natijada bu ittifoq Misr ekspansiyasini vaqtinchalik to'xtatdi. Misr janubda Nilning uchinchi ostonalaridagi hududlarni bosib oldi.

Yaxmos I giksoslarni Osiyodan haydab chiqarib, Finikiyada Misrning ta'sirini qayta tikladi. Uning o'g'li Amenxotep I Osiyoda hech qanday urush olib bormadi. Keyingi fir'avn Tutmos I (mil.avv. XVI asr oxiri) davrida Misr Yaqin Sharqning eng katta davlatlaridan biriga aylandi. Nubiya (Kush)da katta yutuqlarga erishilib, Kamos Misrning hududini Nilning ikkinchi ostonasigacha, Amenxotep I yanada janubga tomon kengaytirdi. Amenxotep I ga uning kuyovi harbiy boshliq Tutmos voris bo'ldi. U mil.avv. XVI asr oxirida Yuqori Mesopotamiyadagi Mitanni davlatiga qarshi urush boshladi. Bu davlat Shimoliy Suriyani nazorat qilar edi. Misr Mitannidan Shimoliy Suriyani tortib olib, o'z nazorati ostiga oldi. Nubiyada misrliklar Nilning uchinchi ostonasidagi ilgari mustaqil bo'lgan Kush davlatining poytaxti Kermani egalladilar.

Tutmos I ning kichik xotinidan bo'lgan o'g'li, vorisi Tutmos II (mil.avv. 1503–1490-yillar atrofida) o'zining o'gay singlisi, Tutmos I ning qizi malika Xatshepsutga uylandi. Tutmos II vafot qilganda Xatshepsut o'gay o'g'li Tutmos III balog'at yoshiga yetguncha mamlakatni boshqarish vakolatini oldi. Hokimiyatga o'ch bo'lgan malika Xatshepsut Tutmos III ni davlat ishlari-dan chetlashtirishga harakat qildi. malika Xatshepsut (mil.avv. 1498-yildan 1483-yilgacha boshqardi) o'zini eri bilan birga hukmdor deb e'lon qiladi. U Amon ibodatxonasining oliy kohinlari va zodagonlarni mo'l-ko'l sovg'alar bilan o'z tomoniga og'dirdi va ularga tayanib mamlakatni boshqardi. Malika yodgorliklarda o'zini mustaqil fir'avn sifatida tasvirlay boshladi. Malika erkak fir'avn kabi o'z hokimiyatining to'laqonligini ta'kidlash uchun inshootlarda gavda tuzilishini erkaklarga o'xshatib, soqol qo'yilgan holda tasvirladi. Malika Xatshepsut fir'avn-jangchi unvoniga da'vo qila olmas edi. Shunga qaramasdan u Puntga (Eritreya) katta ekspeditsiya tashkil qildi. Malika davrida Karnakda Xed-sed bayrami sharafiga katta ibodatxona va Dayr al Bahrda uning ibodatxonasi va otasi Tutmos I ibodatxonasi barpo qilindi. Bu inshootlarning yaqinida Xatshepsut davrida oliy kohin, me'mor Senemutning sag'anasi qad ko'tardi. Senemut Xatshepsut davrida uning eng yaqin kishisi sifatida davlatni boshqardi. Xatshepsut mil.avv. 1482-yilda vafot etgan.

Shundan so'ng hokimiyat to'la Tutmos III (mil.avv. 1490–1438-yillar) ning qo'liga o'tdi. Tutmos III Xatshepsut to'g'risida gi har qanday eslatishni yo'q qilishga harakat qildi, malikaning devoriy relyef tasvirlari, haykallarini yo'q qildi. Hatto Xatshepsut nomini ham barcha yozuvlardan o'chirib tashladi. Xatshepsutning tarafdorlarini davlat lavozimlaridan chetlashtirdi, qolganlar Tutmosga o'z sodiqliklarini e'tirof etdilar. Tutmos oliy davlat lavozimlariga harbiylarni tayinladi, boshqaruvda qo'shin va xizmatdagi yangi zodagonlarga tayandi. Misrning tashqi siyosatida faol istilochilik davri boshlandi. Misr Falastin va Finikiyada o'z ta'sirini qayta tiklashga bel bog'ladi. Bu davrda xurrit xalqlari butun Falastinni egalladilar. Bu yerdagi shahar-davlatlar Misrning kuchayib borayotgan tazyiqiga qarshi birlasha boshladilar.

Falastin va Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i Misr iqtisodi uchun muhim strategik hududlar bo'lgani sababli Tutmos III bu hududlarni bosib olish uchun uzoq harbiy tayyorgarlik ko'rdi. Suriya va Falastin shahar-davlatlari Misrga qarshi harbiy ittifoq tuzdilar. U mil.avv. 1482-yilda Falastinga ko'p sonli qo'shin tortdi. Megiddo shahri yonida Suriya va Falastinning shahar-davlatlarining Kadesh shahri boshchiligidagi birlashgan qo'shinlari Tutmos III qo'shinlari bilan uchrashdi. Qonli jang misrliklar g'alabasi bilan tugadi. Natijada Misr Suriya va Falastinning katta qismini egallab oldi. Mitanni o'z qo'shinlarini Frot ortidan chaqirib oldi va Misrga Suriya, Finikiya va Falastin hududlari yon berishga majbur bo'ldi. Tutmos III o'n besh marta harbiy yurish qilib, Frot daryosigacha bo'lgan hududlarni bosib oldi. Frot daryosi yelkasidagi Karxemish shahri Misrning shimoliy chegarasi bo'ldi. Janubda Misr Nilning to'rtinchi ostonalarigacha bo'lgan yerlarni o'z tasarrufiga oldi. Misrning shimolidan janubigacha chegarasi 3200 km ni tashkil qildi.

Fir'avnlr kuchli iqtisodiyotga tayanib, tashqi siyosatda jiddiy yutuqlarga erishdilar. Istilochilik urushlari natijasida Misr XV asrda Old Osiyodagi eng qudratli davlatga aylandi. Old Osiyoning Mitanni, Xett va Bobil kabi kuchli davlatlari Misrning kuch-qudrati bilan hisoblashishga majbur bo'ldilar. Ular Misr bilan do'stona munosabat o'rnatishga harakat qildilar. Bu to'g'risida o'sha davrdagi ko'pgina yozma manbalar ma'lumot beradi.

Mitanniga qarshi yurishlarni Tutmos III ning o'g'li Amenxotep II (mil.avv. 1438/1436–1412-yillar), Tutmos IV (mil.avv.

1412–1402-yillar) davom ettirdilar. Tutmos III va Amenxotep II lar fir'avn-jangchilar edilar. Ular shaxsan jangda ishtirok etganlar. Bu fir'avnlar bir harakat bilan og'ir kamonni tarang tortadigan kuchga ega bo'lganlar. Ular o'sha vaqtda Suriyada mavjud bo'lgan yovvoyi fillarni ov qilganlar.

Amenxotep II ancha uzoq hukmronlik qildi. Uning vorisi Tutmos IV Frot sohillarini ishg'ol qilgan XVIII sulolaning so'ngi fir'avni edi. Tutmos IV davrida Mesopotamiyaga yurishlar qilinib, Efiopiyada Misrga qarshi qo'zg'olon bostirilgan. Mitanni bilan do'stlik aloqalari o'rnatilib, uning podshosi fir'avnga o'z qizini berdi. Tutmos IV uzoq hukmronlik qilmadi. U o'ziga inshootlarni bunyod qilishga ulgurdi. Qum bosib qolgan Sfinks qumdan tozalandi. Karnak ibodatxonasida Tutmos III ga bag'ishlangan yodgorlik qurib, nihoyasiga yetkaziladi. Tutmos IV ning o'g'li Amenxotep III (mil.avv. 1402–1365-yillar) davrida Misr Sharqiy O'rtayer dengizining katta hududini nazorat qildi. Uzoq Alasiya (Kipr oroli) ham Misrga bo'ysundirildi. U yerdan mis olib kelingan. Kuchayib ketgan Misr Bobil podshosi Amenxotep II ning qizini qo'lini so'raganda, fir'avn uni mensimay, rad javobini beradi.

Misrning o'sha vaqtdagi xalqaro munosabatlari XVIII sulola oxiridagi Misr fir'avnlarning Tel-Amarnadan topilgan katta davlat arxividagi hujjatlardan bizga yaxshi ma'lumdir. Bu arxivda Bobil, Osuriya, Mitanni, Xett davlatlari va Kipr podsholarining, yana Suriya va Falastindagi ko'p hokimlarning Misr fir'avniga yuborgan diplomatik xatlari saqlanib qolgan. Shu xatlarga qaraganda, Misr Old Osiyodagi bir qancha davlatlar bilan juda mustahkam savdo va diplomatik munosabatda bo'lgan. Ayrim davlatlar o'rtasida bo'ladigan muzokaralar maxsus elchilar yordami bilan olib borilgan.

Xetlar istilosi xavfi aniq bo'lib qolgach, Mitanni va Misr podsholari bosh ko'tarib kelayotgan dushmani birgalikda yengish maqsadida birlashganlar. Misr bilan Mitanni o'rtasida ittifoq tuzishga imkoniyat tug'ilgan. Bu ittifoq bir necha sulolaviy nikohlar bilan mustahkamlangan. Mitanni podshosi Tushrattining Misr fir'avni Amenxotep III ga yozgan xatlarida Misr bilan Mitanni o'rtasida o'ta mustahkam munosabatlar o'rnatilishiga olib kelgan diplomatik muzokaralarning ayrim bosqichlari yorqin va jonli qilib tasvirlangan. Misr Amenxotep hukmronligi yillarida uzoq Suriyadagi o'z yerlarini xetlardan himoya qilish

uchun yetarli harbiy kuchga ega bo'lmaganligidan Mitannining yordamiga tayanishga majbur bo'lgan.

Amenxotep III (mil.avv. 1402–1365-yillar) zamonida ahvol yanada yomonlashgan. Bu vaqtda Misr Suriyadagi mulklarini himoya qilish uchun yetarli harbiy kuchga ega bo'lmadi. Suriya shaharlari zaiflashib qolgan Misr zulmidan qutilish uchun ittifoq tuzdilar. Bu ittifoqni esa xetlar qisman qo'llab-quvvatlaganlar. Bu ittifoqning boshida turgan Suriya hokimi Aziru Suriyani Misr ta'sirining qolgan-qutganlaridan ham ozod qilish uchun qattiq kurash olib borgan. Suriya va Finikiyaning Misrga sodiq bo'lgan ko'p shaharlari xetlar va Aziru qo'shinlarining hujumlaridan o'zlarini arang himoya qilib turganlar. Bu shaharlarning ba'zilari Misr fir'avnidan yordam so'raganlar.

Mashhur Amenxotep IV Exnaton (mil.avv. 1365–1348-yillar) davrida Misrning tashqi siyosiy ahvoli yomonlashadi. Mitanni Janubiy Suriyaning katta qismini bosib oladi. Osiyoda yana bir raqib Xett davlati urushga tayyorlana boshladi. Exnatonning kuyovlari Semnaxkar (mil.avv. 1348–1347-yillar), Tutanxamon («otasining tirik qiyofasi» mil.avv. 1347–1338-yillar)lar davrida ahvol o'zgarmadi. Tutanxamon 10 yoshidan fir'avn taxtiga o'tiradi. Uning vafotidan so'ng, Mitannidan tashqari, yana bir raqib Xett davlati paydo bo'ldi.

Tutanxamon 20 yoshga yetmay, mil.avv. 1338-yilda vafot etdi. Uning bevasi Anxesenpaamon taxtni o'z qo'lida saqlab qolish uchun Xett podshosi Suppilulium I ning o'g'illaridan biri Sannansaga turmushga chiqishga rozi bo'ldi. Xett shahzodasi Misrga keldi, lekin misrlik zodagonlar uni o'ldirdilar. Anxesenpaamon Atonning oliy kohini Eyega turmushga chiqishga majbur bo'ldi. Eye (mil.avv. 1338–1334-yillar) XVIII sulolaning so'nggi fir'avni bo'ldi. Xett podshosi o'g'lining o'limi uchun qasos olish maqsadida Misrga qarshi yurish qilib, misrliklarni Osiyodan to'la haydab chiqardi. Misr qo'shinlarining qo'mondoni Xoremxeb Eyni taxtdan ag'darib (mil.avv. 1334–1306-yillar), keyingi fir'avn bo'ldi. Uning vorisi, XIX sulolaning birinchi fir'avni, kekxa oliy mansabdor Ramzes I nomi bilan (mil. avv. 1306–1304-yillar) taxtga chiqdi. Ramzes I ning o'g'li Seti I (mil.avv. 1304–1290-yillar) Xett podshosi Muvatalli bilan urush olib borib, Falastin, Finikiya va Janubiy-markaziy Suriyani bosib oldi. U Oront daryosi vodiysidagi Kadesh yaqinida xetlarni tor-mor qildi. Seti I Liviya va Nubiyada urush olib borib,

o'ta shafqatsizlik bilan harakat qildi: Karnak ibodatxonasida u asirlarni xudo Amonga bir necha marta qurbonlik kel'tirayotgan holatda tasvirlangan. Seti I ning o'g'li Ramzes II (mil. avv. 1290–1224-yillar) davrida Exnatondan Eyegacha bo'lgan fir'avnlarni fir'avnlarning sulolaviy ro'yxatidan o'chirib tashlandi. Ramzes II ibodatxonalar boyliklarini o'z qo'lga olib, xetlar bilan uzoq davom etgan urush harakatlarini olib bordi. Kadesh yonidagi jangda (mil. avv. 1274-yil) xetlarga kuchli zarba berdi. Mil. avv. 1280 yoki 1270-yillar atrofida Xett podshosi Xattusili III tashabbusi bilan Misr va Xett podsholigi o'rtasida tinchlik shartnomasi tuziladi. Misr qo'l ostida Falastin, Finikiyaning katta qismi va Janubiy Suriyaning ozroq qismi qoldi. Bu mamlakatlarning shimolidagi barcha hududlar xetlarning mulki hisoblandi. Tinchlik shartnomasi bilan birga, o'zaro yordam berish majburiyatiga asoslangan ittifoq shartnomasi tuzildi. Ramzes II Xattusilining qizlaridan biriga uylandi.

Ramzes II hukmronligi uzoq davom etgan, u 87 yoshida vafot etadi. Mashhur malika Nefertiti Ramzes II ning birinchi xotini edi. Abu Simbeldagi Ramzes II ning ibodatxonasidagi relyeflarda bu go'zal malika tasviri mavjud. Bu davrda Misr davlati va madaniyati gullab-yashnagan. Nil daryosining sharqiy qismida Ramzes II yangi poytaxt Per-Ramzes shahrini qurgan. Uning merosxo'rlari davrida ichki va tashqi siyosatda kuchli ziddiyatlar yuzaga kelgan. Uzoq vaqt uning katta o'g'illaridan biri Memfis xudosi Ptaxning bosh kohini Xaemuas voris bo'ldi, lekin u otasining o'limigacha yashamadi. Natijada Ramzes II ning o'n uchinchi o'g'li Merneptax (mil. avv. 1224–1214-yillar) taxtga chiqdi. Bu fir'avnning vafotidan keyin Misr davlat hokimiyatining zaiflashuv jarayoni boshlandi. Ramzes III (mil. avv. 1190–1159-yillar) Yangi podsholik davrining so'nggi taniqli hukmdori edi. XIX sulolaning oxirgi to'rt vakili davrida markaziy hokimiyat nihoyatda zaiflashgan. Mil. avv. XIII–XI asrlarda Misrda kambag'al aholining noroziligi kuchayadi. «Dengiz xalqlari» sharqiy chegaraga, liviyaliklar g'arbiy chegaralarga bostirib kirganlar. Ibodatxonalar davlatdan mustaqil bo'lib, o'ta boyib ketdilar (uzunligi 40 m bo'lgan «Xarris katta papirusi»dagi asosiy yozuvlarda fir'avnning ibodatxonalarga hadyalari sanab o'tilgan). Ramzes II dan keyin Misrda yana 8 fir'avn hukmronlik qildi. Ularning hukmronligi davrida Misrga liviyalik va osiyoliklarning yangi hujumlari kuchaydi. Fir'avn hokimiyati zaiflasha bordi. Nomlarning mustaqilligi kuchaydi.

2. Iqtisodiyotning gullab-yashnashi. Yangi podsholik davrida qul mehnatidan foydalanish kuchayadi. Eng avvalo, podsho va ibodatxona xo'jaliklarida, keyin esa xususiy xo'jaliklarda qul mehnatidan keng foydalanila boshlangan. Ramzes II o'zining 30 yillik hukmronlik davrida ibodatxonalarga Suriya va Falastindan 100 ming asirlarni, 1 mln sechat (50 ming ga) ekin yerni hadya qiladi. Lekin asosiy moddiy ne'mat yaratuvchisi turli soliq va majburiyatlar bilan chulg'angan oddiy Misr jamoachi dehqonlari, hunarmandlari bo'lib qolaverdi. Asirlardan tashqari, Misrga juda katta moddiy boyliklar oqib kelgan. Misr bosib olingan hududlarda har yili belgilangan miqdorda xiroj to'lovini joriy qilgan. Jumladan, Efiopiya oltin qumi, fil suyagi, Falastin va Suriya kumush, qo'rg'oshin, qalay, bo'yoq, gazlama, lazurit, qimmatbaho toshlar, kemasozlik yog'ochi, noyob kedr yog'ochini yetkazib berish majburiyatini olganlar. Misrga qo'shimcha ishchi kuchining kelishi (qullar), turli xil xomashyolarning mo'l-ko'lligi iqtisodiyotga ijobiy ta'sir qilgan.

Mahsulot ishlab chiqarish va uning texnologiyasi takomillashgan. XIX sulola davridan boshlab jezdan foydalanish keng tarqalgan. Uning xomashyosi Suriyadan o'zlashtirib olingan. Metall ishlab chiqarish texnologiyasi ham takomillashtirilgan. Misning juda qimmatligi sababli, tosh qurollardan foydalanish davom etdi. Bu davrdan ba'zi temir buyumlar saqlanib qolgan. Temir Misrda yanada ilgariroq ma'lum bo'lgan. Lekin XVIII sulola nihoyasida ham temir nodir metall hisoblangan. Faqat mil. avv. VII–VI asrlardan boshlab Misrda mehnat qurollari temirdan yasala boshlandi. O'rta podsholik davrida gorizont ip yigiradigan to'quv dastgohi mavjud edi. Yangi podsholik davrida esa vertikal ip yigiradigan to'quv dastgohi kashf qilingan. Bu vaqtda xira shisha tayyorlash alohida hunarmandchilik sohasiga aylanadi. Mo'miyolash san'ati misli ko'rilmagan darajaga yetdi. Bizgacha yuzlab mo'miyolangan odam jasadlari, qushlar va boshqa jonivorlarning bir necha million mo'miyolari yetib kelgan.

Sug'orma dehqonchilik rivojlanib, Omoch takomillashadi. Suvni yuqoriga chiqarib beradigan mexanizm «shoduf» ixtiro qilingan. Yangi o'simliklar o'zlashtirilgan (chechevitsa, smola daraxtlari). Chorvaning yangi turlari (xachir, tuya) paydo bo'ldi. Yilqichilik mustaqil sohaga aylandi. Bog'dorchilikda Osiyodan mevali daraxtlarning yangi navlari: zaytun, shaftoli, bodom, olma va qaroli daraxtlarini o'zlashtirish boshlandi.

Sun'iy sug'orish inshootlarini qurish, ta'mirlash va tartibga solish, yangi yerlarga suv chiqarish fir'avnlarning asosiy e'tiborida turgan. Fayum vohasida yangi yerlar ko'plab ochilib, voha Misrning g'alla omboriga aylangan. Eski kanal, to'g'on va ariq-anhorlar tozalangan. Nil daryosining toshib ketishi ustidan muntazam nazorat o'rnatilgan. Misrliklar asalarini mil.avv. II ming yillikdayoq bilar edi. Nil vodiysida uzumchilik, asalchilik va bog'dorchilik gullab-yashnagan. Yangi podsholik davrida Misr iqtisodiyotida dehqonchilik va chorvachilik yetakchi soha sifatida mahsulotni ko'plab yetkazib bergan.

Qo'ychilikda ko'p jun beradigan, shoxlari qayrilgan qo'chqorlar, mayin junli qo'ylar zoti paydo bo'ldi. Cho'chqa podalarining soni ko'paydi. Yangi podsholik davrida tovuqlar paydo bo'ldi. Suriya va Falastindan yirik qoramol, echki-qo'ylar, Efiopiyadan ho'kizlar olib kelingan. Bunday mo'l-ko'l chorvaning bo'lishi Misrda cho'l hayvonlarini qo'lga o'rgatishdek an'anani xo'jalikda yo'q bo'lishiga olib keldi. Shu vaqtdan boshlab antilopa, ohu, arxarlar poda hisobida tilga olinmaydi, tasvirlarda uchramaydi. Ular faqat qurbonlik keltirilgan va it, mushuk, maymun kabi uy hayvoni sifatida saqlangan.

G'ildirakli aravalar tarqala boshladi. Ikki g'ildirakli ot qo'shilgan arava harbiy maqsadlarda yoki zodagonlarning marosimlarda chiqishlarida foydalanilgan. Yuklar avvalgidek ho'kiz qo'shilgan chanalarda tashilgan. Tutmos III Finikiyada yasalgan qayiqlarni Suriya va Frot orqali ho'kiz qo'shilgan g'ildirakli aravalarda olib kelgan.

Me'morchilik, qurilish sohasi yuqori darajada rivojlangan. Bir necha yangi shaharlar, jumladan, Per-Ramzes nomli yangi shahar qurilgan. Bu shahar Mesopotamiyaga yurish uchun tayanch qal'a, harbiy lager vazifasini o'tagan. Bu davrda noyob san'at namunalari hisoblangan me'morchilik inshootlari barpo qilindi: Luksor va Fivada Amon ibodatxonalari, fir'avn sag'ana-ibodatxonasi bunyod qilingan. Fir'avn Ramzes Abidosda Osiris ibodatxonasini qurgan. Nubiyada qoyatoshda Abu-Simbel ibodatxonasi (balandligi 33 m., kengligi 38 m., uzunligi 65 m.) barpo qilinadi. Bundan tashqari, bu yerda Ramzes II ning balandligi 24 m bo'lgan haykali va uning oyog'i ostida bolalarining 200 haykallari barpo qilingan.

Bu davrda Misr madaniyatining taraqqiyoti uchun qulay ichki va tashqi imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi ichki va tashqi savdo-

ning rivojlanishiga sabab bo'lgan. Yangi savdo aloqalari tobora kengaygan. Suriyaning ayrim viloyatlari bilan Misrning savdo aloqalari mustahkamlangan. Misrliklar bu hududdan qishloq xo'jalik mahsulotlari: don, sharob, asal hamda chorva mollari olib kelganlar. Livandan binokorlik yog'ochlari keltirilgan. Misrga Suriya orqali uzoq mamlakatlardan, Xett davlatidan, Egey dengizlaridagi orollardan va Mesopotamiyadan juda ko'plab mahsulot olib kelingan. Suriya bilan savdo-sotiq ishlari quruqlikdagi yo'llar orqali ham olib borilgan. Bu davrda misrliklarning dengiz floti bo'lgan va shuning uchun ular mahsulotlarni Suriyadan yelkanli kemalarda olib kelganlar. Suriyadan keyin Misr savdosining eng muhim tayanch nuqtalaridan biri Bobil shahri bo'lgan.

Bu davrda misrliklar bir qator yangi mamlakatlarga: Kipr, Kichik Osiyo, Mesopotamiyaga savdo ekspeditsiyalari va istilochilik niyatida qo'shin yuborganlar. Bu vaqtga kelib, Sinaydagi mis konlari xomashyosi tugay deb qolganligi sababli, misrliklar o'zlariga zarur bo'lgan misning yangi manbalarini qidirishga majbur bo'lganlar. Yangi podsholik davrida misrliklar o'zlariga zarur bo'lgan misni Kipr orolidan olib kelganlar. Kipr oroli qadim zamonlardan o'zining juda katta mis konlari bilan ham nom chiqargan. O'sha vaqtdan saqlanib qolgan ba'zi hujjatlarda, Kipr orolidan Misrga juda ko'p mis yuborilgani haqida ma'lumot beriladi. Misol uchun, Kipr podshosi Misr fir'avniga bunday deb yozgan: «Men senga 500 talant (150000 kg) mis yubordim. Men buni birodarimga sovg'a qilib yubordim. Birodar, misning kamligini ko'nglingga olma. Mening mamlakatimda egam Nergalning qo'li (vabo) mamlakatimdagi odamlarning hammasini qirib yubordi. Endi misni tayyorlaydigan hech kim yo'q».

Bu davrda Kichik Osiyodan, xususan, uning xetlar joylashgan sharqiy viloyatlaridan Misrga temir keltirilgan. Temir o'sha vaqtlarda Misrda noyob metall hisoblangan.

Misr savdosi shimoli-sharqdagi Mesopotamiya viloyatlariga kirib borgan. Ikki daryo oralig'ining shimoli-g'arbida joylashgan Mitanni davlatidan jez, lojuvard, gazmol, kiyim-kechak, moy, jang aravalari, otlar va qullar olib kelingan. Misrliklar Bobildan ham xuddi shunday tovarlar, ya'ni kumush, yog'ochdan tortib oltin va fil suyagi bilan bezatilgan qimmatbaho buyumlar keltirganlar. Misr bilan Osuriya o'rtasida ham savdo aloqalari o'rnatilgan. Yozma manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda, misrliklar Osuriyadan jang aravalari, otlar va lojuvard keltir-

ganlar. Misrliklar Old Osiyodan olgan mahsulotlari evaziga bu mamlakatlarga quyma oltin yoki tilla buyumlar, fil suyagi yoki lojuvard bilan bezatilgan buyumlar, gazmol, kiyim-kechak, asosan, qimmatbaho metallar yuborganlar.

3. Ijtimoiy munosabatlar. Avvalgidek, Misr jamiyati uch qatlarga bo'lingan edi:

1. Hukmron tabaqa: quldorlar, ustaxona va uy egalari.

2. Mayda ishlab chiqaruvchilar: o'z mehnati bilan kun kechiruvchi hunarmand va jamoachi-dehqonlar.

3. O'z mulkiga ega bo'lmagan qaram odamlar va qullar. Yangi podsholik davrida ijtimoiy qatlamlar va ijtimoiy tizimda, ularning ichida ko'pgina o'zgarishlar yuz bergan. Quldorlik munosabatlari mustahkamlangan. Yuz minglab asirlar qulga aylantirilgan. 1-3 qulga ega bo'lgan mayda quldorlar paydo bo'lgan. Hukmron tabaqa va uning tarkibida keskin o'zgarishlar yuz bergan. Aslzoda bo'lmagan, ma'muriyatda o'rta va kichik lavozimlarni egallagan, fir'avnga qaram bo'lgan kichik va o'rta quldorlar paydo bo'ldi. Ular fir'avn hokimiyatining asosiy tayanchi edilar.

Hukmron tabaqa ichida xizmatdagi zodagonlar, qo'shinning qo'mondon tarkibi, merosiy zodagonlar, xudo Amon ibodatxonasi boshchiligidagi oliy kohinlar alohida o'rin egallaganlar. Nom zodagonlari va oliy kohinlar XVIII sulola davrida istilochilik urushlaridan ulkan boylik orttirdilar. Yillar davomida moddiy boyliklarni to'plab olgan Fiva kohinlari davlat hokimiyatiga kuchli ta'sir o'tkazib, fir'avnlarning siyosatiga faol aralashganlar. Fiva kohinlari bilan nom zodagonlari va xizmatdagi zodagonlar o'rtasida kuchli qarama-qarshilik paydo bo'lgan. Natijada bu kurash Exnatonning diniy islohotlari bilan tugagan.

Misrdagi ijtimoiy vaziyat ziddiyatli edi. Istilochilik yurishlari natijasida mamlakatga moddiy boyliklar, urush o'ljalari, minglab qullar oqib kelgan. Harbiylar, zodagonlar, ibodatxonalar bu boyliklarning katta qismini o'zlashtirganlar va yanada boyib ketganlar. Oddiy xalq esa kambag'alligicha qolavergan.

4. Davlat boshqaruvi. Yangi podsholik davrida davlatni idora qilishning murakkab apparati yuqori darajada mukammal shakllangan. O'sha vaqtdan qolgan juda ko'p hujjatlar markaziy va mahalliy idora tizimi bilan tanishib chiqishimizga imkon beradi. Markazlashgan byurokratik idora tizimi borgan sari kuchayib boradi. Ota-bobosi fir'avn bo'lgan Yaxmosning ittifoqchisi Al-Kaba nomarxlaridan tashqari, boshqa viloyatlarning ilgarigi mustaqil hokimlari o'z mustaqilliklarini yo'qotganlar

va fir'avnga tamomila itoat qilishga majbur qilinganlar. Mamlakat Shimoliy va Janubiy Misrni o'z ichiga olgan ikkita katta ma'muriy okrugga bo'lingan. Okrugga fir'avnning maxsus hokimi qo'yilgan. Bu esa idora qilish ishini yanada ko'proq markazlashtirishga imkon bergan. Nomlarni idora qilish podsho amaldorlari qo'liga topshirilgan. Har bir viloyatning boshida maxsus amaldor turgan. Uning mirzasi va alohida devoni bo'lgan. Shaharlarni fir'avn tayinlagan maxsus mansabdorlar boshqarganlar.

Hujjatlarda sud ishining qanday tashkil qilinganligiga oid ba'zi bir ma'lumotlar saqlanib qolgan. O'sha davridayoq sud qonunlari to'plami bo'lgan. Shunday tasvirlar saqlanib qolganiki, bu tasvirda biz sud mahkamasida bosh sudyaning o'tirganini va uning oldida bir sandiq bo'lib, uning ichida 40 ta qonunlar to'plamining yozilgan matni borligini ko'ramiz. Exnaton o'zini «Qonun o'rnatuvchi» deb atagan. U o'z yozuvlarida qonunga doimo rioya qilinganligini bayon qiladi.

Bu davrda boshqaruv xodimlari soni o'sib ketdi, boshqaruv bo'g'inlari ko'paydi. Lavozimlar aniq darajalarga bo'linadi. Tutmos III ning bosh vaziri Rexmirning yo'riqnomasi davlat apparati murakkab tuzilganini ko'rsatadi. Bizgacha yetib kelgan ushbu hujjatga ko'ra, XVIII sulola davrida davlat apparati bir necha bo'g'inlarga bo'lingan. Bu yo'riqnoma quyidagi so'zlardan boshlanadi: «Shahar boshlig'i, janubiy shahar va qarorgoh vaziri vazir devonida o'sha to'ra-vazir majlis qurganida, shu vazir devonida eshitib turgan chog'ida qilishi lozim bo'lgan hamma ishlar xususida farmoyish beradi va u vazir kursisida o'tiradi. Yerga bo'yra solingan, tepasida taxtiravon, uning orqasida ham, oyoq ostida ham teri to'shalgan, qo'lida aso, oldida 40 kun uning kamida ikki tomonida janubning 10 ta kibori, ichki qasr boshlig'i uning o'ng tomonidan daromadlar boshlig'i, chap tomonda vazirning mirzalari qo'liga yaqin joyda turadigan...». Bu yo'riqnomaga qaraganda, bu oliy mansabdagi amaldor butun mamlakatni idora qilish ishini o'z qo'liga olgan. Markaziy boshqaruv apparati bir necha bo'g'inlarga bo'lingan. Xazina boshlig'i, uy boshqaruvchisi (soliq yig'uvchi, xiroj to'lovchi), ekinlar mudiri, chorva boshlig'i, qabulxona boshlig'i, sud mudiri, harbiy palatalar boshlig'i kabi vazifalariga ega bo'lgan vazir qoshida 10 ta Yuqori Misr amaldorlari bo'lgan. Keyingi bo'g'in hududiy-ma'muriy boshqaruv apparati bo'lgan. Rexmir yo'riqnomasiga ko'ra, vazir to'rtta ma'muriy hududlarni bosh-

qaradigan amaldorlarni tayinlagan. «U (vazir) Yuqori va Quyi Misr va Yuqori Misrning janubiy qismi (Fiva boshchiligidagi poytaxt okrugi). Nilning viloyati. Ular barcha yuz bergan voqealar to'grisida har to'rt oyda hisobot berishlari kerak. Ular vazirlarga o'zlarining boshqaruvlari yozuvlarini yetkazadilar» (O'sha davrdagi hujjatdan parcha...).

Davlat xavfsizligi uchun muhim bo'lgan qo'shinda yollanma askarlar soni ko'paytirilgan. Shu maqsadda Liviya qabilalaridan ko'plab askarlar olingan, qo'mondonlik tarkibi va qo'shinning moddiy ta'minoti mustahkamlangan. Tashkiliy jihatdan qo'shinlar shimoliy va janubiy qismlarga bo'lingan.

5. Exnaton (Amenemxet IV)ning diniy-siyosiy islohoti (mil.avv. 1365–1348-yillar). Misr jamiyati mafkurasi, ta'lim sohasi kohinlar qo'lida bo'lgan. Kohinlar diniy marosim, diniy vazifalari bilan bir qatorda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat-san'at bilan shug'ullanganlar. Ular savodli, oliy ma'lumotli bo'lganlari uchun davlat hokimiyatida yuqori mamuriy-sudyalik lavozimlarni egallaganlar. Kohinlar me'mor, haykaltarosh va rassom sifatida ulkan inshootlar qurilishida boshchilik qilganlar. Misr iqtisodiyotining asosi sug'orma dehqonchilik ishlari kohinlarning yo'l-yo'riqlari asosida bajarilgan. Qaram yerlar va Misr aholisining talanishi natijasida hukmron tabaqa, ayniqsa, ko'p sonli yaxshi uyushgan kohinlar tabaqasi boyib ketgan. Ibodatxonalar minglab gektar yerlar, chorva mollari, qullar va boshqa moddiy boyliklarga egalik qilganlar. XVIII sulola davrida fir'avnlarning homiysi Amon ibodatxonasi Misr bosh xudosi sifatida alohida ta'sirga ega bo'lgan. Xudo Amon bayrog'i ostida Fiva hukmdorlari giksoslarni haydab chiqarganlar. Fivadagi Amon ibodatxonasi nihoyatda katta obro'e'tiborga ega bo'lgan. Fir'avnlardan tomonidan bu ibodatxonaga o'n minglab qullar, yer, minglab bosh qoramol, oltin-kumushlar hadya qilingan. Karnak va Luksorda xudo Amon sharafiga hashamatli ibodatxonalar qad ko'targan. Mamlakatda Amon ibodatxonasi kohinlarining mavqei kuchayib ketgan. Ular Misr iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsata boshlaganlar. Jumladan, Amon ibodatxonasining oliy kohinlari taxt vorisining nomzodini ko'rsatishdek imtiyozli huquqni olganlar. Boy Amon ibodatxonasining oliy tabaqa kohinlarini kuchayib ketishi, davlatning ichki va tashqi siyosatiga aralashuvi, ularning boyib ketishi, zodagonlarni chetga surib qo'yish hukmron tabaqaning noroziligiga sabab bo'lgan. Bu holat davlat hokimiyatida kat-

ta muammolarni tug'dirgan. Natijada Amenxotep IV hukmron tabaqaga suyanib, Amon xudosi kohinlarining kuch-qudratini sindirishga jur'at qiladi. U diniy islohot o'tkazadi. Amenxotep IV (mil.avv. 1365–1348) davrida Misr xudolaridan Aton – «Quyosh shu'lası» xudosi birinchi o'ringa qo'yila boshlanadi. Fir'avn Amenxotep hukmronligining oltinchi yilida Aton Misrning yagona va oliy xudosi deb e'lon qilinadi. U o'zini Atonning yagona o'g'li deb Amenxotep («Amon rozi») ismini Exnaton («Atonga yoqadigan») ismiga almashtiradi.

Shu bilan birga, Exnaton Fiva kohinlari bilan uzil-kesil aloqani uzib, Fivadan chiqib ketadi. O'rta Misrda (hozirgi Tell Amarna) go'zal saroy va ibodatxonalar bilan bezalgan yangi poytaxt Axetaton (Aton shahri)ga ko'chib keladi. Uning barcha saroy amaldorlari va yangi Quyosh xudosining kohinlari bilan birga Axetaton shahriga joylashadilar.

Aton butun dunyoni va Misrni yaratuvchisi hisoblanib, odatdagidek, hayvon qiyofasida emas, balki Quyoshning yerga nur sochayotgan qo'llari – shu'la sifatida ifodalangan. Aton Misrning hukmdori deb e'lon qilinadi, Aton o'z o'g'li Exnaton bilan Misrni boshqaradi. Quyosh xudosini yagona va sevimli o'g'li sifatida faqat Exnaton Atonning bevosita o'zidan vahiy olishi va fuqaro, kohinlarga amr-farmon qilishi mumkin edi. Yangi xudoga sig'inishni istamagan zodagonlar qatl etilib, ularning jasadlari yoqiladi.

Bu davr yozuvlarida mirzolar boshqa xudolarni eslashdan qochdilar. Eskin yozuvlardan boshqa xudolarning nomlari o'chirib tashlandi. Yozuvlarda yerda va osmonda barcha xalqlar, mamlakatlar uchun bitta xudo, u suzadigan, uchadigan va o'rmalaydigan har qanday mavjudotga hayot beradi. Bu xudoning yagona tanlagani fir'avn Exnaton deb uqtiriladi.

Exnaton tomonidan o'tkazilgan bu diniy islohot ko'ngildagidek natija bermadi. Exnaton Fiva kohinlari va nomlaridagi quldor zodagonlarning qudratini vaqtincha zaiflashtirishga muvaffaq bo'ladi. Juda katta yer-suv, moddiy boylikka ega bo'lgan kohinlar Exnatonning qat'iy chora-tadbirlariga qarshi chiqishga jur'at eta olmadilar va vaqtinchalik chekindilar. Ular payt poylab turadilar. Exnatondan keyin taxtga o'tirgan fir'avnlarning uning diniy siyosatini davom ettira olmaganlar. Islohotchi fir'avn va-fotidan so'ng, eski e'tiqod kohinlari hujumga o'tib, o'z mavqelarini tiklashga qat'iy kirishdilar. Fiva kohinlari Exnaton va u barpo qilgan shaharlarni la'natladilar. Shunday qilib, bu diniy

islohot qattiq qarshiliklarga uchragan. Exnatonning vafotidan keyin poytaxt Memfisga ko'chirilgan.

Exnatonning kuyovi fir'avn Tutanxaton (mil.avv. 1347–1338-yillar) Fiva kohinlariga yon berib, Amon e'tiqodini qaytadan tiklashga va hatto o'z ismini ham shunga yarasha o'zgartirib, Tutanxamon «Amonning tirik qiyofasi» deb atashga majbur bo'lgan. Tutanxamon 9 yoshida taxtga o'tiradi. Misrni amalda Atonning bosh kohini Eye va harbiy boshliq Xoremxeb boshqargan. Tutanxamon 20 yoshga yetmay vafot qiladi (mil.avv. 1338-yil). Uning bevasi o'z siyosiy mavqeini saqlab qolish uchun xett shahzodasiga turmushga chiqishga rozi bo'ladi. Xett shahzodasi Misrga keladi, lekin Misr zodagonlari uni o'ldiradilar. Tutanxamonning bevasi kohin Eye bilan nikoh qurishga majbur bo'ladi. Eye XVIII sulolaning so'nggi fir'avni edi (mil.avv. 1338–1334-yillar). Mil.avv. 1334-yil harbiy boshliq Xoremxeb Eyeni taxtdan tushirib, o'zi taxtga o'tiradi. Uning vorisi XIX sulolaning (mil.avv. 1305–1197-yillar) birinchi fir'avni Ramzes I taxtni egallab, faol tashqi siyosat yuritdi. Falastin, Finikiya, Janubiy-markaziy Suriyani xettlardan tortib oldi. Ramzes II davrida (mil.avv. 1290–1224-yillar) xett davlati bilan uzoq davom etgan raqobat tugadi. Misr-Xett tinchlik shartnomasi tuzilib (mil.avv. 1280-yil) Falastin, Finikiya va Buruja hududlarida har ikki tomonning ta'sir doiralari belgilandi. Ramzes II 87 yil yashadi va Misrni 66 yil boshqardi. Mil.avv. XIII asrning II yarmida Bolqon yarim oroli va Egey havzasidagi xalqlarning migratsiyasi yoki dengiz xalqlari hujumi boshlandi. Liviyaliklar va boshqa xalqlarning Misrga hujumi boshlandi (mil.avv. 1219-yillar atrofida). Misr zaiflashib, chet elliklarning bosqiniga qarshi o'zida zo'rg'a kuch topdi. Misrda qo'zg'olonlar, isyonlar natijasida XIX sulola quladi (mil.avv. 1192-yil).

6. XX sulola hukmronligi (mil. avv. 1200–1085-yillar).
Yangi podsholikning so'nggi davri. XX sulola asoschisi Setnaxt (mil.avv. 1197–1190-yillar) mamlakatni tartibga keltirdi. Uning vorisi Ramzes III (mil.avv. 1192–1175-yillar) qo'shinni qayta tiklaydi va u qo'shinning sonini ko'paytirdi. Liviyaliklar va dengiz xalqlarining hujumlari qaytarildi. Ramzes III Falastin va Suriyada qisqa vaqtga bo'lsa-da Misrning ta'sirini qayta tiklaydi. Ramzes III kohinlarning ma'naviy-siyosiy qo'llab-quvvatlashiga erishish uchun mamlakatdagi yirik ibodatxonalarga ko'plab yer-suv, oltin, qimmatbaho toshlar va qullarni in'om qilgan. Misr ibodatxonalari katta yer-mulkka ega bo'lib, sav-

do-sotiq, hunarmandchilik va boshqa xo'jalik sohalari bilan shug'ullanganlar. Katta miqdorda iqtisodiy qudratga ega bo'lgan kohinlar tabaqasi davlat ishlariga aralashganlar. Bu saroy zodagonlarining noroziligiga sabab bo'lgan.

Ramzes III vorislari davrida Misr zaiflasha boshlaydi. Mil.avv. 1075-yillar atrofida XX sulolaning so'nggi vakili Ramzes XI vafoti bilan Misr ikki qismga bo'linadi va Quyi Misrni birlashtirgan, markazi Tanis shahri bo'lgan ikkinchi davlat paydo bo'ladi. Shu bilan qadimgi Misr tarixidagi oltin davr tugab, III O'tish davri (mil.avv. 1075–656-yillar) boshlanadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. История Древнего Востока: тексты и документы / Под ред. В.И.Кузищина. – М.: 2002.
2. Стучевский И. А. Рамзес I: Херихор из истории Древнего Египта. Эпохи Рамессидов. – М.: 1984.
3. Эберс Г. Уарда. – М.: 1994.
4. R.Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. – Toshkent: Adib. 2013.

Asosiy sanalar

| | |
|-----------------------------------|---|
| Mil.avv. XVIII–XVII asrlar oxiri | II O'tish davri. Xalq qo'zg'olonlari va giksoslarning bostirib kirishi. |
| Mil.avv. XVI–XIV asrlar o'rtalari | Giksos (XV–XVI sulola) sulolalari. XVIII sulola. Buyuk davlatning tashkil topishi. |
| Mil.avv. XVI–XI asrlar | Yangi podsholik (XVIII–XX sulolalar). |
| Mil.avv. 1454–1450-yillar | Tutmos III ning istilochilik yurishlari. |
| Mil.avv. 1365–1348-yillar | Exnatonning hukmronligi. Diniy-siyosiy islohotlar. |
| Mil.avv. 1290–1224-yillar | Ramzes II (XIX sulola) hukmronligi. Xett davlati bilan raqobat. Misr da ulug'vor ibodatxonalarning qurilishi. |
| Mil.avv. 1280-yil | Misr-Xett shartnomasi. |
| Mil.avv. XII asrning I yarmi | Ramzes III (XX sulola)ning dengiz xalqlari hujumini qaytarishi. |
| Mil.avv. XI–X asrlar | III O'tish davri. |

MISR CHET ELLIKLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA. SO'NGGI PODSHOLIK DAVRIDA MISR

1. Misrda ajnabiy liviyaliklar hukmronligi. Misrliklar Efiopiya va Osuriya tazyiqi ostida. 2. Sais sulolasi. Misr davlatining so'nggi yuksalishi. 3. Sais davri madaniyati. 4. Iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar.

1. Misrda ajnabiy liviyaliklar hukmronligi. Yangi podsholik davri yagona davlatning yemirilishi bilan Misr 3-o'tish davri (mil.avv. 1075–656-yillar)ga kirdi. Bu davrda Misr rasman yagona podsho hokimiyati bo'lsa-da, siyosiy tarqoqlik o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Nomlar o'rtasida kuchli ziddiyatlar mavjud edi. Bu davrda Misrda chet ellik: Liviya, Efiopiya va osur sulolalari hukmronlik qildilar.

Davrning boshlarida Quyi va O'rta Misrda markazi Tanis shahri bo'lgan (mil.avv. 1075–945-yillar) XXI sulola hukmronlik qildi. Janubiy Misr Xerixorning vorislari Amon-Ra ibodatxonasi-ning oliy kohinlari boshqaruvi ostida edi. Bu vaqtda alohida nomlar kuchayib ketdi. XXI sulola va Amon-Ra ibodatxonasi oliy kohinlari nomlarning merosiy nomarxlari separatizmiga qarshi tura olmadilar. Ichki kurashlar sababli parokandalikka yuz tutgan mamlakat tez orada chet elliklarga qaram bo'la boshladi. Misrda bu davrda liviyaliklarning ta'siri kuchayib ketdi.

Liviyaliklar deltaning g'arbida va Nil daryosining shimoliga tutashgan joylarda hamda g'arbiy vohalarda qadimdan yashab kelganlar. Ular «mashasha» yoki «ma» deb atalganlar. Bu qabilalar mustaqil, lekin madaniy jihatdan Misrga qaraganda ancha orqada edilar. Yangi podsholik fir'avnlari davrida Misr gullab-yashnaydi va misrliklarning liviyaliklar bilan aloqalari yanada kuchaydi. Shu davrdan boshlab liviyaliklar Misr madaniyati bilan tanishib, Misrga ko'plab kelib o'rnashganlar.

Fir'avnlar liviyaliklarni yollanma askar sifatida xizmatga qabul qilib, ularga asosan deltadan chek yerlarni ajratib berganlar. XX-XXI sulola vakillari davrida liviyaliklarning ko'chib kelishi yanada jadallashgan. Liviya zodagonlaridan ba'zi bir-lari asta-sekinlik bilan oliy kohinlik lavozimlarini egallaydilar. Liviyalik yollanma askarlar boshliqlari ayrim hududlarni bosib olganlar.

Harbiy qo'mondon va Gerakleopoldagi Xerilfe xudosining ibodatxonasi bosh kohini bo'lgan bir liviyalik odam o'zining yozma ma'lumotida ta'kidlashicha, bu odamning o'zidan avval o'tgan ota-bobolaridan 15 tasi shu yerda umr kechirib o'tganligi aytiladi. Bu yozuvga qaraganda, uning ajdodi liviyalik Byuvava XXI sulola davrida Gerakleopolga ko'chib kelgan. Uning avlod-ajdodlari liviyalik qo'shinlarning «ulug' boshliqlari» va Gerakliopol ibodatxonasining kohinlari lavozimini egallagan. Bu liviyalik aslzodalar urug'idan biri podsho oilasi bilan qarindosh ham bo'lib olgan.

Ana shu liviyalikning avlodi bo'lgan Bubastis nomining nomarxi Sheshonk podsholik taxtini egallab, XXII sulolaga asos solgan. Ko'rinishidan u Fiva kohinlari bilan til topishgan va ularni qo'llab-quvvatlashiga tayangan. Kelib chiqishi liviyalik bo'lgan yangi hukmdorlar davlat boshqaruvida Fiva kohinlari bilan maslahatlashib ish ko'rganlar. Yangi sulola podsholari eski podsho xonadoni bilan qarindosh bo'lib, o'z bolalarini Fivadagi ibodatxonaga bosh kohin qilib tayinladilar.

Liviya sulolasiga asos solgan Sheshonk I (mil.avv. 945–924-yillar) serg'ayrat hukmdor bo'lgan. Liviyaliklarning harbiy kuchlariga va Fiva kohinlariga tayanib turib, Sheshonk I o'zini XVIII-XIX sulola zamonidagi buyuk istilochi, fir'avnlarning ishini davom ettiruvchi sifatida ko'rsatadi. U Karnakdagi ibodatxona yonida «Bubastislar hovlisi» (saroyi)ni bunyod qilib, katta minora ham quradi. Sheshonk I nomarxlar separatizmini bir qadar to'xtatishga erishib, mamlakatda vaziyatni biroz barqaror qiladi. U mil.avv. 930-yili Falastin ustiga yurish qilib, katta o'ljalar bilan Misrga qaytgan. Misrning bu hududdagi avvalgi mavqei vaqtincha bo'lsa-da qayta tiklangan. «Bubastislar hovlisi»dagi o'ymakor tasvirlarda va zafarnomalarda Falastinda erishilgan g'alaba tasvirlangan. Bu yerdagi osiyolik asirlardan 156 tasini arqonga bog'lab borayotgan xudo Amonning katta-kon tasviri, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

1938–1939-yillarda Tanisda o'tkazilgan qazish vaqtida Sheshonkning hali qo'l tekkizilmagan maqbarasi topildi. Bu maqbaradan fir'avnning oltin, kumushdan qo'shib ishlangan sarkofagi (tobuti) va unda mo'miyolangan fir'avnning yaxshi saqlangan jasadi topilgan edi.

Sheshonk I dan keyingi hukmdorlar uning davlat ishlarini munosib tarzda davom ettira olmaganlar va bunga qulay imkoniyat ham bo'lmagan. Buning sababi, bu davrda xalqaro

vaziyat o'zgarib, Old Osiyoda Osuriya davlati kuchayib ketdi. XXII sulola fir'avnlari Nil va delta vodiysidan chetga chiqmay, shu yerning o'zi bilan cheklanishga majbur bo'lganlar.

Sharqda kuchayib ketgan Osuriya Misr ta'siri ostida bo'lgan hududlarni istilo qila boshladi. Falastin, Finikiya va Suriya osuriyaliklar ta'siri ostiga tushib qolishi yaqqol ko'rindi. Suriya, Finikiya va Falastin shahar-davlatlari podsholari birlashib, Osuriya podshosi Salamansarga qarshi bosh ko'tardilar. Qarqara yonida (Suriyadagi Oront daryosi bo'yida) mil.avv. 853-yilda birlashgan ittifoqchilar va Osuriya qo'shinlari o'rtasida jang bo'lib o'tgan. Fir'avn Osorkon II ittifoqchilarga yordamga ozgina qo'shin yubordi xolos. Afsuski, jangda ittifoqchilar yengiladi. Bu urushdan keyin tabiiyki Misrning obro'si tushib ketdi. Mamlakatda ichki kelishmovchiliklarning keskinlashuvi mamlakatni bir necha kichik davlatlarga ajralib ketishiga olib kelgan. XXII sulola bilan birga, XXIII sulola vakillari ham mamlakatni boshqara boshladilar. XXIII sulola vakillari rasman o'zlarini butun Misr fir'avni deb e'lon qilganlar. Misr bir-biriga dushman bo'lgan, lekin kuchsiz nomlarga bo'lindi.

Misrning bunday zaif holga tushishi va mayda nomlarga bo'linib ketishi to'g'risidagi ma'lumotlar o'sha zamondagi esdalik – «Podsho Petubastis siklidagi qissalar» yozma manbasida saqlanib qolgan. Yunon tarixchilari bu davrni «Dodekarxiya», ya'ni 12 podsholik hukm surgan davr deb atadilar. Liviyaliklar sulolasidan bo'lgan podsholarga butun mamlakat hududi bo'ysunmaganligini sulola podsholari ham o'zlarining rasmiy yozuvlarida yozib o'tishga majbur bo'lganlar. Liviya sulolasi fir'avnlari Yuqori va Quyi Misrdagi liviyalik boshliqlar va oliy kohinlarni birlashtirishni o'zlarining doimiy siyosiy vazifalari deb bilganlar. Biroq ular bu muddaolariga to'liq erisha olmaganlar. Bir vaqtning o'zida ikki sulola vakillari mamlakatni boshqargan. XXIV sulola vakillari va Petubastis davrida ham Misr o'z qaddini rostlay olmadi. Misrning ichki tushkunliklar tufayli xo'jalik hayoti izdan chiqib, savdo, iqtisodiy va siyosiy vaziyat yomonlashadi.

Mil.avv. VIII asrda hukmronlik qilgan XXIV sulola vakillari, xususan, Bokxoris davrida (721–715-yillar) davlatni inqirozdan qutqarish uchun ayrim ijtimoiy islohotlar amalga oshirilgan. Bokxoris qarzdorlarni qulga aylantirishga qarshi farmon chiqargan. Lekin bu islohotlar mamlakatni inqirozdan chiqara olma-

gan. Misrning zaiflashuvi chet ellik bosqinchilarning hujumini yanada tezlashtirgan.

Nil daryosining birinchi ostonasidan janub tomondagi o'lkalarda azaldan nubiyaliklar yashab kelganlar. Misr fir'avnlari Qadimgi podsholik davridan Nubiyada o'lja, qullarni bosib olish va uning yerlarini egallash uchun muntazam bosqinchilik yurishlari olib borganlar. Misr fir'avnlari Nubiyaga muntazam hujumlar qilib, bu mamlakatni xarob qilib kelar edilar. XVIII sulola vakillari zamonida Misr askarlari Nubiyaning to'rtinchi ostonasigacha bo'lgan hududlarni istilo qilib, u yerda mustahkam o'rnashib olish uchun qal'alar va ibodatxonalar qurdilar. Misrning bir necha yuz yillar davomida Nubiyani o'z ta'siri ostiga olishi, har ikki mamlakat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni muntazam yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Natijada Nubiyaning zodagonlari Misr madaniyatini qabul qildilar.

Kohinlarning XXI-XXII sulolalari hukmronligi davrida Misrning zaiflashganidan foydalangan Nubiya qabilalari o'z mustaqilliklarini tiklashga harakat qildilar. Nubiyada mil.avv. VIII asrda markazi Napate bo'lgan mustaqil davlat tashkil topdi. Nubiya hokimlari Misr madaniyatini qabul qilib, o'zlarining hokimiyatlarini Misr fir'avnlari kabi tashkil qilishga harakat qildilar va o'z yozuvlarini misr tilida tuzadilar. Nubiya hokimlari Jabal-Barkal qoyalari yonidagi o'z poytaxtlari Napateda Misrning oliy xudosiga sig'inganlar. Ular bu xudoni o'zlarining boy xazinalari manbai bo'lgan oltin konlari sharafiga «Oltin xudo» deb ataganlar. Bu oltin konlari bir vaqtlar Fiva ibodatxonasiga qarashli bo'lgan. Liviyaliklar hukmronligi ostida kuchsizlanib, parchalanib borayotgan Misrda hokimiyatni qo'lga olish uchun nubiyaliklar Fiva kohinlari bilan aloqani tiklaydilar. Napate hokimi Pianxi (mil.avv. 729–728-yillar) tashqi siyosat sohasida otasi olib borgan ishni davom ettirib, zo'r g'ayrat bilan Misrni istilo qilishga kirishadi. U Yuqori Misrning ancha qismini va jumladan, Fivani bosib oldi. Mahalliy nufuzli kohinlar bosqinchilarni to'la qo'llab-quvvatladilar. Chunki kohinlar efioplarining yordami bilan o'zlarining oldingi hukmron mavqelarini tiklamoqchi edilar. Pianxi bu istiloni o'zining batafsil yozuvida aks ettirgan. Napatedan topilgan bu yozuv hozirda Qohira muzeyida saqlanadi. Bu qimmatli tarixiy ma'lumotga qaraganda, Sais hokimi Tefnaxt Pianxini asosiy raqibi bo'lgan. Tefnaxt delta bilan Yuqori Misrning anchagina hududlarini o'z atrofiga bir-

lashtirishga muvaffaq bo'lgan. Pianxi esa o'zini Misr fir'avnlari-ning qonuniy merosxo'ri «O'zim podshoman, xudo Atumning jonli siymosi, marhamatli xudoman» deb ulug'laydi. Tefnaxt esa «G'arbning boshlig'i» va o'rta delta o'lkalaridan birining hokimi hisoblangan.

Pianxi yozuvida o'zini ko'p sonli qo'shinga boshchilik qilib, janub tomonga qarab kelayotgan Tefnaxtdan Misrni ozod qiluvchi deb ko'rsatadi. Tefnaxt va Pianxi o'rtasida bir necha janglar bo'lib, so'nggi jang Pianxi g'alabasi bilan tugaydi. Pianxi o'zini Misr fir'avni deb e'lon qiladi. Shunday qilib, mil.avv. 715-yilda Misr Kush tomonidan to'la bosib olinadi. 715-yildan 664-yilgacha Misr Kush fir'avnlari tomonidan boshqarilgan. Efiopiya sulolasi poytaxt qilib Memfis shahrini tanlaydi. Pianxi o'limidan so'ng uning o'g'li Shabaka Misr taxtiga chiqib, 15 yil hukmronlik qildi. Manefon asarida saqlanib qolgan rivoyatga ko'ra, u Quyi Misr fir'avni Bokxorisni asirga olib, uni tiriklayin o'tda kuydiradi. Shundan so'ng Misr nisbatan tinchlikka ega bo'ladi. Shabaka davrida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo biroz jonlandi. Efiopiya sulolasi davrida Misrda ichki ahvol biroz yaxshilandi.

Taxarka foydali ish qilganini ta'kidlab, bu mamlakat «Butun borliq hukmdori» zamonida hamma narsa mo'l-ko'l bo'lganligi kabi, mening vaqtimda ham farovon hayot bo'ladi deb g'urur bilan aytgan. Ammo tobora qudrati oshib borayotgan Osuriya Misrga qo'shni hududlarni bo'ysundirib, Misr chegaralariga yaqin kelib qolgan edi. Pianxining taxt vorislaridan biri Taxarka Misrni Osuriyadan himoya qilishga majbur bo'lgan. Biroq Taxarka osuriyaliklarning Misrga bostirib kelishini to'xtata olmagan. Asarxaddon Arabiston ustidan o'z hokimiyatini mustahkamlagandan so'ng, Misrni bosib olgan va Taxarka to'plagan Misr-efiop qo'shinlariga bir necha marta zarba beradi (mil.avv. 671-yilda) va Misrni istilo qiladi. Taxarka esa qochib ketishga majbur bo'lgan. Asarxaddon o'z yozuvlarida ulug' Misr podsholigining eng qadimgi poytaxti Memfis shahrini yarim kun ichida bosib olib, uni xarobazorga aylantirib, Misrdan efiopiyaliklarning ildizini sug'urib tashlaganini ta'riflagan. Misrni to'la bo'ysundirish uchun osuriyaliklar bir qancha qiyinchilikka duch kelganlar. Mil.avv. 663-yilda osurlar bilan Taxarkaning vorisi Tanutamon qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi. Bu jangda efiopiyaliklar yengilgan va XXIV efiop sulolasi tugatilgan. Os-

uriyaliklar Misrda o'z hukmronliklarini mustahkamlash uchun mamlakatni 20 nomga bo'lib boshqaradilar. Efiop sulolasi osurlarga qarshi kurashni davom ettiradi. Har bir nom Osuriyaning Misrdagi noibiga so'zsiz itoat qiladi. Bosqinchilar mamlakatni birlashuviga yo'l qo'ymaslik siyosatini yuritadilar.

2. Sais sulolasi. Misr davlatining so'nggi yuksalishi. Mil. avv. 656-yilda osuriyaliklar Misrdan haydab chiqarildi. Sais hukmdorlari Misrni birlashtirishga boshchilik qildilar. Sais Quyi Misrning yirik nomlaridan biri bo'lib, bu shahar delta-ning g'arbiy qismida joylashgan. Atrofi botqoq bilan o'ralgan Saisda 665-yildan boshlab Psammetix hokimlik qilgan. Psammetix (mil.avv. 656–610-yillar) Tefnaxt avlodidan bo'lib, liviyalik aslzoda urug'idan kelib chiqqan. U Ashshurbanipalning yordamida ish ko'rgan. Osuriyaliklarning sodiq ittifoqchisi bo'lgan Psammetix butun Misrni o'z qo'li ostiga birlashtirib, yangi XXVI sulolaga asos solgan.

Sais sulolasi faol tashqi siyosat yuritdi. Fir'avnlari Suriya, Falastin va Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'ida Misrning o'tmishdagi ta'sirini tiklashga harakat qildilar. Fir'avn Nexo II Suriyada Misrning hukmronligini o'rnatishga harakat qildilar. Mil. avv. 608-yilda Yaxudiya davlati qo'shinlari Falastin shimolidagi Megiddo shahri yonida Misr qo'shinlariga qarshi jang qildi va yengildi. Shundan so'ng Yahudiya Misrga oltin va kumush bilan katta miqdorda o'lpon to'lay boshladi. Uch yildan so'ng mil.avv. 605-yilda Bobil Misrni Suriya va Falastin ustidan hukmronligini tugatdi. Misr Yahudiyani Bobilga qarshi kurashda qo'llab-quvvatladi. Fir'avn Apriy Finikiya shaharlaridan biri Sidon floti ustidan g'alaba qildi. Mil.avv. 586-yilda Misr qo'shinlari Qudusda paydo bo'ldi, lekin tez orada Bobil tomonidan bu hududdan siqib chiqarildi.

Sais sulolasi davrida Misr so'nggi bor o'z taraqqiyotining yuqori bosqichiga chiqadi. Biroq bu Misr davlati va madaniyatining so'nggi marta, lekin kuchsizroq rivoj topgan davri edi. Uzoq davom etgan urushlar va osur qo'shinlarining mamlakatni xarobaga aylantirgan hujumlari natijasida tinkasi qurigan Misr endi o'z chegaralarini dushmandan himoya qilishi va Osiyodagi obro'sini saqlash uchun zarur bo'lgan ko'p sonli qo'shinni to'play olmadi. Shu sababli, Sais fir'avnlari Kichik Osiyodagi yunonlardan yolangan askarlarga tayanib ish ko'rishga majbur bo'ladilar. Bu davrda yunonlar Misrga jadal kirib kela

boshladilar. Yunon tarixchisi Gerodot yunon savdogarlari, yollanma askarlarining Misrga kirib borganligi to'g'risida yozib, Sais fir'avnlarning «Yunonistonga moyilligi» va o'sha zamonada misrliklar bilan yunonlar o'rtasida juda yaqin madaniy aloqa bo'lganini ko'rsatadi. Psammetix I taxtga o'tirgandan so'ng, yunon yollanma askarlari va savdogarlariga tayanishga urindi. Yunonlarning Navkratisdagi savdo koloniyasiga katta-katta imtiyozlar va yengilliklar beradi.

Sais fir'avnlari ichki siyosat sohasida liviyalik harbiy aslzodalar, Mirs kohinlari va yunon savdogarlari bilan muvozanatda bo'lgan muomala-munosabatni yo'lga qo'yadilar. Fir'avnlr Misrning nufuzli kohinlariga qarshi, shuningdek, haligacha ham ba'zi bir mustaqillikka ega bo'lishni da'vo qilib kelayotgan ko'p mahalliy hokimlarga qarshi kurash olib bordilar. Mamlakatda qonunchilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Davlat hokimiyati jamiyatda adolat o'rnatishga harakat qilgan. Adolat o'rnatishning bir yo'li jinoyatchining ikkinchi marta jinoyat qilishini oldini olish bo'lgan. Misol uchun soxta pul yasovchilarning ikki qo'li kesilgan. Davlat sirlarini oshkora qilganlarning tili kesilgan. Hujjatlarni soxtalashtirganlarning bir qo'li kesilgan. Oldi-sotdi shartlari, garov majburiyatlari aniq belgilanib, guvohlar ishtirokida muhr bilan tasdiqlangan. Foiz berilgan qarz miqdoridan oshib ketmasligi belgilangan. Qarzi uchun qul qilish bo'lmagan. Qulni o'ldirish erkin misrlikni o'ldirish bilan teng jazolangan. Qasamni buzganlar ham shunday jazolangan.

Psammetix I Fiva kohinlarini o'z ta'siri ostiga olish uchun o'z qizi Neytikertni Amonning oliy kohini Shepenopet II («Xudoning qallig'i»)ga qiz qilib beradi. To'g'rirog'i, kohin Shepenopet II ni shunga majbur qiladi. Bu ma'lumot alohida hujjatga yozilgan bo'lib, bizgacha yetib kelgan.

Psammetix I o'zini tushkunlikka yuz tutib borayotgan sobiq homiysi Osuriyaga yordam berishga harakat qiladi. Chunki bu vaqtga kelib, Bobil davlati kuchayib, Misrga tahdid sola boshladi. Psammetix I Osuriya davlatining barqaror turishidan manfaatdor edi. Old Osiyoda kuchlar nisbatining muvozanatini saqlab turish, Bobilning kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun Misr halokat sari borayotgan Osuriyani qo'llab-quvvatladi.

Psammetix I Osuriyaga urush ochgan Bobil hukmdori Nabopalasarga qarshi Osuriyaga yordam berish maqsadida, Frot daryosi bo'ylarida paydo bo'ldi. Psammetix I ning o'g'li

Nexo ham Osuriyaga yordam berishga harakat qildi. Nexo mil.avv. 611-yilda taxtga chiqib, Xarranni bosib olish uchun o'z qo'shinlarini Osuriyaga yordamga jo'natdi. Misr-Osuriya qo'shinlari Karxamesh shahrini ishg'ol qildilar. Navuxodonosor misrliklar bilan osuriyaliklarni ittifoqchi qo'shinlariga zarba berdi. Karxameshda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida misrliklar bilan yunon yollanma askarlarining bu shaharda bo'lganligini ko'rsatuvchi muhim dalillar topildi. Xususan, yunon buyumlari, Gorgonaning surati tasviri tushirilgan ioniy qalqon, shuningdek, jezdan yasalgan haykalchalar, fir'avn Nexoning nomi bitilgan tasvirlar va Psammetix nomi yozilgan uzuk topilgan.

So'nggi podsholik davrining Sais sulolasi hukmronligi davrida yunonlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatildi. Gero-dotning yozishicha, yunonlar Psammetix II huzuriga elchi yuborib, Olimpiya musobaqalarini qanday qilsak, yaxshiroq o'tkazishimiz mumkin deb misrliklardan maslahat so'raganlar. Qadimgi misrliklarning donishmandligi va ularning madaniy taraqqiyoti yuksak bo'lganligi yunonlar tomonidan har doim zavq bilan maqtalgan.

Sais davrining keyingi podsholari Uaxibra (Apriy) bilan Yaxmos II (mil.avv. 569–525-yillar) (Amazis) o'tmishdoshlari siyosatini davom ettirganlar. Korinf dubulg'asida podsho Uaxibraning tasviri saqlanib qolgan. Misr fir'avni kiyinishda yunonlarga taqlid qilganligi ma'lum. Podshoning yunonlarga moyillik siyosati Misr aholisi o'rtasida norozilik tug'dirgan va qo'zg'olon ko'tarilgan. Yaxmos isyonchilarga bosh bo'lib, asosan yunon yollanma askarlaridan iborat qo'shinlarni tor-mor keltirgan va hokimiyatni o'z qo'liga olgan.

Yaxmos II yunon ibodatxonalariga katta sovg'alar yuborib, bu bilan yunonlarning o'ziga nisbatan do'stona munosabatda bo'lishiga, ularni yordam berishi va qo'llashiga erishadi. Yaxmos II ning faol tashqi siyosat olib borgani Bobil yozuvlarining birida aks etgan. Bu yozuvda Misr qo'shinlarining hujumlari to'g'risida so'z yuritiladi va Amazisning nomi tilga olinadi. Lekin bu davr Misr davlati mustaqilligining so'nggi yillari edi. Bu vaqtda sharqda Ahmoniylar Eroni kuchayib, butun Sharq dunyosini o'ziga bo'ysundirishga harakat qilayotgan edi. Eronning yaxshi qurollangan qo'shini hujumini qaytarishga Misrda yetarli kuch yo'q edi. Fir'avn Yaxmos II dan so'ng, Amazis hukm-

ronligi davrida (mil.avv. 570–526-yillar) mamlakatning ahvoli yanada yomonlashdi. Eron podshosi Kambiz 525-yilda Misr yerlariga bostirib kirib, Pelusiya yonida boʻlgan jangda Misr ustidan gʻalaba qozondi. Firʻavn Psammetix III taxtdan tushirildi. Kambiz Misr podshosi deb eʼlon qilindi (XXVII sulola). Misr bir necha bor forslar hukmronligidan qisqa vaqtda mustaqil boʻladi (XXVIII-XXX sulolalar).

3. Sais davri madaniyati. Bu davrda misrliklar bir qancha qoʻshni xalqlar bilan aloqa qilib, madaniy jihatdan ularga ancha taʼsir koʻrsatadi va oʻz navbatida, ulardan ham koʻp yutuqlarni oʻrganadilar. Misr bilan Egey dunyosi, Old Osiyo va Nubiya oʻrtasida oʻzaro madaniy aloqa va taʼsir tobora kuchayib boradi. Bu davrda Misrning siyosiy taʼsiri kamayib, oʻzining chet ellardagi yerlaridan mahrum boʻladi. Misr boshqa mamlakatning taʼsiriga uchrab, istilo qilingan soʻnggi davrda ham uning qoʻshnilar bilan madaniy aloqalari saqlanib qolgan edi. Liviyalik, osuriyalik va efiopiyalik istilochilar Misrning yuksak qadimgi madaniyatini bir qadar taʼsiriga tushmasligi mumkin emas edi. Madaniy jihatdan qoloq boʻlgan liviyaliklar va efiopiyaliklar Misrni istilo qilganlaridan soʻng, bir vaqtlar giksoslar singari Misr madaniyati taʼsiriga tushib qoldilar.

Misrni istilo qilib, u yerda oʻz sulolalarini barpo etgan liviyalik va efiopiyalik podshohlar Misr firʻavnlari unvonlarini qabul qildilar. Ular Misr xudolariga sigʻindilar. Misr yozuvlari namunasida oʻz yozuvlarini yaratdilar. Ular oʻzlaridan oldin oʻtgan Misr firʻavnlarning rasm-rusmlariga taqlid qildilar. Chunonchi, Taxarka oʻzini «Gorgon – ikki tojining egasi» deb eʼlon qiladi. Nubiya oldin ham Misrning madaniy taʼsiri ostida edi. Efiopiyaliklar Misrni bosib olgan vaqtda esa, bu taʼsir yanada kuchayadi. Misr ibodatxonalarining Nubiya hududlarida saqlanib qolgan koʻpgina xarobalari Misr madaniyati Nubiyaga naqadar kuchli taʼsir qilganligidan dalolat beradi. Soʻnggi meroit alifbosi ham Misrning «demotik» yozuvi asosida vujudga kelgan.

Misr madaniyati Old Osiyo oʻlkalari asosan Falastin, Finikiya va Suriyaga, hattoki Kipr oroligacha yetib borgan. Finikiya va Falastin hududlaridan misrliklar sanʼatidan dalolat beradigan koʻpgina madaniy yodgorliklar topilgan. Finikiyada Misr xudolarining, xususan, Tot, Ptax, Xatxor, Gor va asosan Osiris kabi xudolarning taʼsiri kuchli boʻlgan. Aytishlaricha, xudo Osirisning jasadi solingan tobutni yoki uning boshini dengiz

to'liqlari Bobil shahri devoriga olib kelib qo'ygan emish. Qadimgi yahudiylarning «Tavrot»ida to'plangan dunyoviy va diniy manbalarda qadimgi Misrning ta'siri g'oyat kuchlidir. Aton sha'niga aytilgan bir madhiya Dovud surasidagi oyatlardan biriga o'xshaydi. Misrliklarning lirikasi Tavrotdagi «Qo'shiqlar qo'shig'i» ga yaqin keladi. Misrliklarning «nasihatnoma va karamatlari» Tavrot adabiyotidagi va boshqa unga o'xshash asarlar-da aks etgan.

Misrning qadimgi madaniyati. Mil.avv. V asrdan yunonlar Misrning va sharqning bir necha minglik ilm-fan va madaniy yutuqlarini o'zlashtirib oldilar. Mil.avv. VIII asrdan boshlab o'zlarining ilk davlat va jamiyatlarini qurishni boshlagan yunonlarga juda kuchli ta'sir ko'rsatgan. Yunonlar Misr kohinlarining qadimgi donishmandligiga, Misrdagi hashamatli, ulug'vor ibodatxonalarini tilsimlariga va zeb-ziynatlariga maftun bo'lgan edilar.

Yunon dostonlaridan biri «Iliada»da Misrdagi Fiva shahrining 100 ta eshigi bo'lib, har bir eshikdan ot mingan va jang aravasi haydagan 20 ta botir yonma-yon bir qator tizilib, bermalol chiqib ketishi mumkinligi aytiladi. Yunon xudosi Apollonning oldingi haykallari gavdasining old tomoni va shu davrdagi boshqa haykallarga xos bo'lgan belgi – kulib turish Misr haykallariga, xususan, Sais davri haykallariga juda mosdir. Yunonlarning Misrga kelishiga keng yo'l ochgan Sais fir'avnlari yunon madaniyatiga ham Misr darvozalarini ochib berdilar. Yunon rassomlari, hunarmandlari o'zlari ishlagan buyumlari, san'at asarlari bilan Misrni to'ldirib yubordilar.

Yunon va Misr san'atining o'zaro ta'siri jarayoni kuchayadi. Misrga qo'shiqchi va shoirlar – Orfey, Musey, Gomer, Dedal, Likurg va Solonlarning sayohat qilgani to'g'risida afsonalar mavjud. Yunonlarning vaza san'atida Afrika, Misr motivlari: lotos, raqsga tushayotgan negrlar, Misr ma'bud va ma'budalari keng tasvirlangan. Gerodot Misr tarixini o'z sayohatidan olgan taassurotlari, odamlardan eshitgan hikoya, qissa, ertaklar asosida yoritishga urinadi. Yunonlarning Misrdagi yagona koloniyasi Navkratisda yunon hunarmandchiligi yaxshi rivojlanadi.

San'atdagi badiiy realizm mil.avv. VI asrda o'zining yuqori cho'qqisiga yetadi. Misrning shu zamonga xos o'ymakor rasmlarida rassom odam gavdasining yon tomonini tasvirlab, yuza qismiga odamlar va buyumlarni erkin joylashtiradi. Bu davrda Misrda portret haykaltaroshligi badiiy jihatdan yuksak rivoj-

lanadi. Imxotep haykalining bosh qismi va kohin haykalining yashil shiferdan yasalgan bosh qismi portret haykaltaroshligining eng nodir namunalaridan hisoblanadi.

Shu davrda Misrda boshqa diniy e'tiqodlarning kirib kelishi ham keng quloqch yoyadi. Masalan, Misrga Xanaandan olovga qurbonlik – kuydirish odati kirib keladi. Finikiyalik va yahudiy kolonistlar Misrda o'z xudolariga atab ibodatxonalar qurdiradilar. Bularning barchasi ba'zi bir jihatdan misrliklarning diniy e'tiqodlari o'zgarishiga olib keladi. Misrda liviyaliklar hukmronlik qilgan davrdan boshlab liviyaliklarning qadimgi ma'budasi Neytga sig'inish kuchayib, liviyalik podshohlar va ularning vorislari Saisda o'rnashib qolgan XXVI sulola fir'avnlari bu ma'budaga kuchli e'tibor berdilar. Soqolli, pakana xudo Besga sig'inish Misrda so'nggi vaqtlarda keng yoyilib, to xristianlik davrigacha saqlanib qoldi.

Misr bilan qo'shni davlatlar o'rtasida o'zaro madaniy aloqalar chuqurlashib bordi. Misrning an'anaviylikka asoslangan madaniyatida boshqa madaniyatlarning ta'siri sezila boshlandi. Bu davrda Misrning qadimgi dini va an'alarini unutilib yuborilishiga qarshi kuchli harakat seziladi. Sais sulolasi davrida chet elliklar ta'siriga qarshi kurash boshlanadi. Misrning ilk gullab-yashnagan davridagi qadimgi davlat ko'rinishlarini shu davrdagi til, yozuv, san'at va dinni tiklash, xullas, hamma sohada Misrni an'anaviylikda qayta tiklash boshlanib ketadi. Misr kohinlari din va turmush sohasida chet elliklarning ta'siriga qarshi bir qancha taqiqlar kiritish yo'li bilan Misr xalqini va birinchi navbatda, o'zlarini chet elliklar ta'siridan himoya qilishga urindilar. Gerodotning yozishicha: «Misrning na erkagi, na xotini hech qachon yunon bilan labini-labiga qo'yib o'pishmas, yunon odamining pichog'i, qoshig'i, qozonini tutmas, hattoki yunon odamining pichog'i bilan chopib so'yilgan halol mol go'shtini ham yemas edi». Urf-odatlarining ado etilishidagi qat'iy talablar, ba'zi bir ovqatlarni yeyishni man qilinishi misrliklarni chet elliklardan uzoqlashtiradi. Ko'pdan-ko'p unutilgan urf-odatlarni tiklash, ularni davom ettirish, to'la-to'kis urf-odatlarga rioya qilish o'sha davr yozuv va adabiy yodgorliklarida, san'at asarlari va diniy rasm-rusumlarda ochiq sezilib turadi. Alifbo yozuvi belgilarining keng tarqalishiga va ish hujjatlarini yozishga qulay bo'lgan yozuvning, ya'ni demotikaning sodda bo'lishiga qaramasdan,

murakkab va qadimgi iyeroglif yozuv tizimi saqlanib qoladi va hatto bir muncha murakkablashadi. Diniy matnlarda Qadimgi podsholik davridagi piramidalardan olingan matn parchalari uchraydi. Qadimgi misrliklarning xudolari bo'lgan Isida va Osirisga sig'inish keng tarqala boshlaydi.

Yaxmos II zamonida yashagan va bir qancha yuqori mansablarni egallagan Pefnefdineyt nomli bir mansabdor yigit o'zini Abidosda Osiris ibodatxonasini tiklash va kengaytirishda ko'rsatgan xizmatini batafsil yozib qoldirgan: «Xarob bo'lib ketgan muqaddas yozuvlar uyini yana qaytadan tikladim va Osiris sharafiga qilinadigan nazr-niyozlar ro'yxatini, hamma yozuvlarni tartibga soldim», – deb g'urur bilan so'zlaydi. Ammo Misrda turli hayvonlarga sig'inish, jumladan, Bubastisda izzat qilingan ma'buda Bastetga bag'ishlangan, muqaddas ho'kiz (Apis) lar bilan muqaddas mushuklarga sig'inish so'nggi vaqtlarda keng tarqaladi. Muqaddas hayvonlarning katta qabrlari va hayvonlarning hozirda misrshunoslik muzeylarida saqlanadigan ko'pdan-ko'p haykalchalari va tasvirlari bundan dalolat beradi.

Bu davrda afsun-sehrgarlik ham keng yoyilgan. San'at va adabiyotda uzoq o'tmishni qayta tiklash, eski zamondagi an'analarga, turmush-tarziga taqlid qilish harakati boshlanadi. Tasviriy san'at sohasida Qadimgi podsholik zamondagi badiiy asarlarga taqlid qilish, ba'zan esa to'g'ridan-to'g'ri ulardan nusxa olishga intiladilar. Bularning barchasi qadimgi madaniyatni sun'iy ravishda tiriltirish bilan mazkur davrdagi madaniy-iqtisodiy shakllar o'rtasida katta ziddiyatlar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Mil.avv. 525-yilda Misrni Eron davlati bosib oldi. Biroq Misr madaniyati yo'q bo'lib ketmadi. Bu madaniyat qo'shni xalqlarning, ayniqsa, yunonlarning madaniy taraqqiyotiga juda kuchli ta'sir qildi.

4. Iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar. Misr oldingi gullab-yashagan zamoniga qaraganda, tushkunlik davrini kechirayotgan bo'lsa ham, xo'jalik hayoti batamom to'xtab qolmagan edi. Misrliklar bu davrda hunarmandchilik ishlab chiqarishning ba'zi bir sohalarini hatto anchagina mukammallashtirgan ham edilar. Ular jezdan turli xil buyumlarni, nafis haykallarni juda mohirlik bilan ishlay olganlar. Bu haykalchalarni kumush yoki oltin tolalari bilan bezaganlar. Takushet nomli misrlik ayolning Efiopiya-Sais davriga oid haykalchasi shunday tolalar terib ishlash texnikasining ajoyib namunasidir. Podsho Pasebxaning

yaqinda Tanisdan topilgan kumush sarkofagi (tobuti) metallni badiiy jihatdan ishlash sohasida ajoyib yutuqlarga erishilganini ko'rsatadi. To'qimachilik kasbi ham yuksak darajada rivojlangan. Misrda to'qimachilik ishlab chiqarishning alohida markazlari vujudga keladi. Shunday markazlardan biri Memfis bo'lgan. To'qimachilar va yigiruvchilar sexga o'xshash alohida-alohida guruhlariga birlashganlar. To'qimachilik ishining hatto Tait degan alohida ma'budasi, O'rta Misrda to'qimachilik ishining Xets-xetep («Poki Raxmat») degan xudosi mavjud bo'lib, unga sajda qilganlar. Fayans buyumlar ishlab chiqarish rivojlanadi. Fayansdan turli xil uy-ro'zg'or buyumlari, bo'yi 25 sm ga yetadigan nafis haykalchalar yasaladi. Mamlakatda boy-badavlat odamlar va chet ellarga chiqarish uchun tayyorlanadigan zeb-ziynat buyumlari jumlasiga har turli xushbo'y moylar va atir-upa buyumlari ham kirgan. Shu davrdayoq nilufardan maxsus moy olishni bilganlar. Bu boy amaldorlarni yangi mansabga tayinlash vaqtida ularning yuziga surtish uchun ishlatilgan.

Mil.avv. I ming yillikda iqtisodiyotdagi hal qiluvchi omil xo'jalikda temirdan foydalanish bo'ladi. Mil.avv.VII-VI asrlardayoq Misrda temirni ishlash texnologiyasi o'zlashtirib olinadi. Hunarmandchilikda metall ishlash yetakchi tarmoq bo'ladi. Bu davrga kelib topilgan hujjatlar savdo yanada rivojlanib va murakkablashib borganligidan guvohlik beradi. Chet el savdogarlari Misrga tez-tez kelib-ketib turganlar. Tashqi savdoda Misrning asosiy hamkorlari Finikiya va Karfagen edi. Misr savdogarlari yunon polislari bilan savdo aloqalari o'rnata boshlaydilar. Fir'avn Nexo davrida Nil daryosini Qizil dengiz bilan tutashtiradigan kanal qurish yuzasidan katta ishlar olib boriladi. Bu kanal qurilishi bilan Misrdan Nubiyaga va hatto undan uzoqdagi Puntga to'g'ri boradigan suv yo'li ochilar edi. Gerodot ma'lumotiga ko'ra, Nexoning buyrug'i bilan finikiyalik dengizchilar kemada Afrika qirg'oqlarini aylanib chiqqanlar.

Misr Kichik Osiyodagi Kariya-Lidiya xalqlari bilan keng savdo olib boradi. Tashqi savdoning rivoji va Misrning yunonlar bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalarining mustahkamlanishi natijasida pul xo'jaligining ilk shakllari paydo bo'ladi. Misrning iqtisodiy rivoji quldorlardan va yer egalaridan iborat aslzodalarning hukmron qatlamini, kohinlar, liviyalik harbiy aslzodalar, yunon savdogarlarning hamda ma'lum darajada yollanma askarlarning boyib

ketishiga sabab boʻladi. Misrliklar oʻzlariga kerakli mollarning koʻp qismini avvalgidek Suriyadan keltirganlar.

Gerodotning yozishicha, Misr podshosi Yaxmos II misrliklar uchun bir qonun chiqaradi. Bu qonunga muvofiq, Misrning har bir fuqarosi tirikchilik qilish uchun qanday mablagʻlarga ega ekanligini har yili viloyat boshligʻiga kelib aytishga majbur boʻlgan. Buni bajarmagan odamga yoki qonuniy yoʻl bilan topilgan mablagʻlar hisobiga yashayotganini isbot qila olmagan kishiga oʻlim jazosi berilgan. Bu qonun orqali Misr aholisi gʻoyat farovonlikda yashagani koʻrinadi. Oʻsha davrning ijtimoiy tuzumidagi yana bir xususiyat shu ediki, mansab va kasb otadan bolaga meros boʻlib oʻtgan. Shu sababli, kohin, askar va hunarmandlarning tor doiradagi ijtimoiy guruhlar mavjud boʻlgan. Bu toifaviy yopiqlik yurish-turish va urf-odatlarining anʻanaviylikda ham yaqqol koʻrinadi. Soʻnggi davr mafkurasida eʼtiqod, urf-odat, unvonlarga, til, adabiy uslubda, meʼmorchilik va sanʼatda qadimiylikka qaytish kayfiyati hukm suradi. Qadimgi va Oʻrta podsholik davri «Oltin asr» deb atalib, bu davr siyosiy ideal sifatida tasavvur qilinadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. История Востока. Т.1: Восток в древности / Отв. ред. В.А.Якобсон. – М.: 1997.

2. История Древнего Востока: учеб.пособие /А.А. Вигасин. 2-е изд. Испр. – М.: Дрофа. 2007.

3. Хрестоматия по истории Древнего Востока / Под ред. А.А.Вигасина. – М.: 1997.

Asosiy sanalar

| | |
|---|---|
| Mil.avv. XI–X asr oʻrtalari | Oʻtish davri. |
| Mil.avv. X asr oʻrtalarida VI asrgacha | Soʻnggi podsholik. |
| Mil.avv. 945–730-yillar | XXII–XXIII Liviya sulolalari boshqaruvi. |
| Mil.avv. 721–715-yillar | Bokxoris islohotlari. |
| Mil.avv. 715–664-yillar | Misr-Efiopiya (XXV sulola) davri. |
| Mil.avv. 671–655-yillar | Misr Osuriya hukmronligi ostida. |
| Mil.avv. 664–525-yillar | Misrning yangi uygʻonish davri (XXVI-Sais sulolasi). |
| Mil.avv. 600-yillar | Finikiyaliklarning Afrika atrofida- gi sayohati. |

QADIMGI MISR MADANIYATI

1. Misr madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. 2. Misrda din. 3. Til, yozuv, ta'lim tizimi. 4. Adabiyot. 5. Tasviriy san'at va me'morchilik. 6. Ilmiy bilimlar.

1. Misr madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. Qadimgi misrliklar tuzilishi bo'yicha murakkab, mazmunan boy madaniyat yaratdilar. Bu madaniyat ko'pgina Yaqin Sharq xalqlarining madaniy taraqqiyotiga hayotbaxsh ta'sir ko'rsatdi.

Misr madaniyati to'rt ming yil davomida shakllandi. Qadimgi Misr madaniyatining taraqqiyotini nima belgiladi? Birinchi navbatda, Qadimgi Misr ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari, Nil vodiysining o'zlashtirilishi, dehqonchilikning oqilona tashkil qilinishi, umummisr iqtisodining yuksak taraqqiyoti madaniy o'sishning moddiy asosini yaratdi. Shu bilan birga, madaniyat sohasidagi yutuqlar ta'lim, fan, qadimgi misrliklarning umumiy ma'naviy taraqqiyotining yuksalishi bu ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va davlatni takomillashtirishning asosiy sabablaridan biri bo'ldi.

Qadimgi Misr madaniyatida qator o'ziga xos xususiyatlar borki, bu madaniyatni chuqur takrorlanmas tizimini hosil qiladi. Uning o'ziga xosligi va takrorlanmasligi sinfiy jamiyat va davlatning kelib chiqishi hamda Nil vodiysining yopiq geografik joylashuvi natijasida boshqa xalqlarning madaniy yutuqlarini o'zlashtirishning qiyinligi bo'ldi. Nil vodiysining tabiiy sharoiti butun Misr madaniyatida chuqur iz qoldirdi. Xo'jalik hayotida Nil daryosining yetakchi o'rni, dengizdan uzoqlik, Nilni o'rab turgan jonsiz sahro, qumli bo'ronlari, jazirama issig'i, yirtqich hayvonlari bilan qadimgi Misr dunyoqarashi va diniy e'tiqodi, qadriyatlarining butun tizimi xususiyatini belgiladi.

Fir'avnning kuchli hokimiyati orqali tashkil qilingan umumjamo'a mehnati bilan misrliklar qulay hayot uchun shart-sharoit yaratdilar. Shu bois, tabiatning dahshatli kuchlari oldidagi qo'rqinch, fir'avnning qudratli hokimiyati, dahshatli xudolar, ularning ulug'vorligi va qudrati qadimgi misrliklarning dunyoqarashiga singib ketgan edi. Oddiy odamlar qudratli xudolar va

yanada mahobatli fir'avnlar, ularning amaldorlari oldida o'zlarining juda zaifligi va kuchsizligini his qilganlar.

Misr madaniyatiga chuqur konservatizm va an'anaviylik xos. Misrliklar o'zlarining madaniy qadriyatlar tizimiga biror-bir yangilik kiritishdan qochdilar. Aksincha, ularda o'zlariga ma'lum g'oya, qonun, badiiy uslublarni asrash va amaliyotga tadbiq qilish uzoq asrlar asosiy tamoyil bo'lib qoldi. Albatta, bu hol yangi unsur, g'oya va uslublarni inkor qilmadi, ammo ular asta-sekin paydo bo'ldi. Shu sababli, Misr ustalari doimo riya qilgan an'anaviylik va konservatizm Misr san'ati uchun xos bo'lgan konseptuallik va yuqori malakalilik, mohirlik, uyg'unlikni o'zida aks ettirib, nihoyasiga yetkazib ishlangan. Bu faqat misr madaniyatiga tegishli qonun va obrazlarning yaratilishiga olib keldi.

2. Misrda din. Misrda din ilk urug'chilik jamoalarida vujudga kelib, juda uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Diniy an'analar mustahkam va turg'un bo'lgan, fetishizm, totemizm, ayniqsa, hayvonlarga topinish Misrda uzoq davom etgan.

Misr xudolarining panteoni juda katta bo'lib, u ilk davrda vujudga kelgan madaniyatga borib taqaladi. Unda odamlar totem – hayvonga, qabila boshlig'iga sig'inishgan. Qadimgi podsholik davridan misrliklar hayvon qiyofasidagi xudolarga sig'inganlar. Ma'buda – mushuk qiyofasidagi Bastet Quyosh xudosi Raning qizi bo'lgan. Misrliklarning xudolari hayvon qiyofasida: Anubis – o'liklar saltanatining podshosi, bo'ri boshli qilib tasvirlangan. Tot – aql va yozuv xudosi. Soxmet – sher boshli urush ilohasi, suv to'lqini xudosi Sebek timsoh qiyofasida chiqadi. Ma'buda – begemot Tavaret chaqaloq va homilador ayollarning ko'zi yorishiga javob bergan.

Hayvonlar ilohiy hisoblanib, ular ibodatxonalarda saqlangan. Ibodatxonada ular yaxshi parvarish qilingan. Masalan, ilohiy hayvonlardan biri buqa xuddi shunday parvarish qilingan. U kuch-qudrat ramzi hisoblangan. Misrliklar bu buqaga sigir tanlashda ham alohida ahamiyat berishgan. Agar buqa o'lib qolgudek bo'lsa, uni mo'miyolab, marosimlar o'tkazib, alohida bir qabrga ko'mishgan. Va uning o'rniga yangi tug'ilgan buzoqchani izlashgan. Bu juda mushkul ish hisoblangan. Chunki buzoqcha qora rangli bo'lib, peshonasida uchburchak shakldagi oq belgisi bo'lishi kerak edi. Bunday hayvonni topish juda mushkul bo'lgan. Lotos (nilufar) guli Yuqori Misrning

muqaddas ramzi hisoblangan. Misrliklar daraxtlar, o'simliklar va gullarga ham e'tiqod qilishgan.

Misrliklar tabiat kuchlariga sig'inishgan, Quyosh xudosi Ra eng qudratli iloh hisoblangan. Misrning o'zi «Quyosh mamlakati», hukmdori – fir'avnlr esa «Quyoshning o'g'li» deb atalgan. Boshda Fiva shahrining xudosi Anon butun mamlakatda yaratuvchi xudo sifatida keng tarqalgan. Yangi podsholik davridan quyosh xudosi Ra bilan birlashtirilgan. Amon Ra nomida eng qudratli xudo hisoblangan. Yangi podsholik davrida esa, fir'avn Amenxotep IV (Exnaton) diniy islohot o'tkazib, yakka-xudolikni joriy qiladi. Ya'ni u hammani Atonga («Quyosh shu'lasini») sig'inishga da'vat etadi. Quyoshning belgisi (ramzi) turlicha bo'lib, u qanotli sher qiyofasida, sher ko'pgina qo'llar bilan, bu qo'llar esa nur qiyofasida, lochin qiyofasida tasvirlangan. Unga atab ko'p madhiyalar aytilgan.

Gor (Xor) zulmatni yenguvchi xudo hisoblanib, u lochin qiyofasida tasvirlangan. Gor Osirisning o'g'li bo'lgan. «Osiris va Gor» afsonasi ayniqsa, Misr dinini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Afsonada aytilishicha, hosildorlik xudosi Osiris qachonlardir Misrning podshosi bo'lgan. U odamlarga yerga ishlov berishni, bog'lar yaratishni o'rgatadi. U o'z akasi Set tomonidan o'ldiriladi. Set zulmat va yovuzlik xudosi hisoblangan. Osirisning o'g'li Gor Setni ochiq maydonga kurashga chaqirib, uni yengadi. Shundan so'ng, Gor g'olib chiqishi uchun o'z ko'zini Osirisga berib, uni qayta tiriltiradi. Qayta tirilgan Osiris esa, yerga qaytmaydi va u yerosti o'liklar saltanatining podshosi bo'lib qoladi. Shunday qilib, uning yerdagi merosxo'ri sifatida Gor tiriklar saltanatida qoladi.

Dafn marosimlari. Misr madaniyatida o'lim bilan hayot doimo bir-biriga qarama-qarshi turgan. Ajalsiz ruh Misr dinida alohida o'rin egallagan. Mana shu ajalsizlikka intilish ko'mish marosimlarining shakllanishiga olib kelgan. Diniy marosimlarda har bir odam alohida xususiyatga ega bo'lgan. Masalan, sax – inson jismi, shunt – uning soyasi, rek – uning ismi, ax – uning arvohi hisoblangan. Bu yerda eng muhim rolni Ra – insonning joni, ya'ni ajalsizlikning negizi o'ynagan. Misr diniga ko'ra, Ra o'z jismiga birikishi va qayta dunyoga kelishi kerak bo'lgan. Chunki odam o'lganda faqat uning jismi o'ladi, ammo ruhi abadiy yashash uchun narigi dunyo – o'liklar saltanatiga mangu yashash uchun ketadi. Qadimgi misrliklarning ana

shunday diniy tasavvurlari asosida odamning jasadini abadiy saqlash fikri tugʻiladi va moʻmiyolash jarayoni vujudga keladi. Shuningdek, ularning tanasiga hech qanday shikastlar yetmasligi uchun yoki boshqa shovqinlardan xalos boʻlish uchun piramidalar qurish fikri tugʻiladi. Oʻlik 70 kun ichida moʻmiyolanib, keyin esa koʻmilgan. Uning yuragi, jigari, talogʻi maxsus idish (kanopa)da saqlangan. Qadimgi misrliklar tasavvuriga koʻra, marhumning ruhi 70 kundan soʻng narigi dunyoga mangu yashash uchun joʻnatilgan. Oʻliklar saltanatiga borgan odamlarni ikkinchi oʻlim kutgan. U dunyoda marhum Osiris va Anubis xudolari oʻtkazadigan sudda odam oʻldirmagani, oʻgʻrilik qilmagani, yolgʻon gapirmagani toʻgʻrisida qasam ichishi lozim edi. Bu esa, asosan «Oʻliklar kitobi», «Darvozalar kitobi», «Yerosti gʻorlari kitobi» kabi diniy kitoblarda aytilgan. Yangi podsholik davridan sagʻanalarga «Oʻliklar kitobi»ning mazmunini oʻzida aks ettirgan papirus yozuvlari qoʻyilgan.

Qadimgi misrliklarning dini Nil vodiysi tabiiy shart-sharoitlarining oʻziga xos xususiyatlarini, qadimgi Misr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining alohida tomonlarini xayoliy aks etishi edi. Misrliklar oy, quyosh, Nil vodiysi va uning atrofidagi sahro, yirtqich hayvonlar va tabiatning har xil kuchlarini ilohiylashtirdilar. Ular sunʼiy sugʻorish tizimini tashkil qiladigan, insonlar ustidan amr qiluvchi firʼavnga eʼtiqod qildilar.

Misrliklar mingga yaqin turli xil xudolarga sigʻinganlar. Xudolar mahalliy va umummisr miqyosida eʼtiqod qilingan ilohlarga boʻlingan. Qaysi bir nom hukmdori – umummisr hukmdori firʼavnlik taxtiga oʻtirsa, shu nomning xudosi umummisr xudosi aylangan. Misol uchun, nom markazi boʻlgan Fiva Misr poytaxti boʻlganda, hech kimga maʼlum boʻlmagan Fiva xudosi Amon xudolar ichida bosh xudo deb tan olindi.

Misrda oliy xudo quyosh xudosi Ra yaratuvchi xudolar Ptax va Amonning koʻpgina vazifalarini olish bilan Misrning bosh xudolaridan biriga aylangan. Amon-Ra dunyoning yaratuvchisi, podsho hokimiyati, Misr harbiy qudratining homiysi boʻlgan. Osiris oʻlayotgan va uygʻonayotgan tabiatning aksi, u dunyoning hukmdori, podsho hokimiyati homiysi boʻlgan. Uning rafiqasi Isida – ona xudo, onalik va er-xotinlik muhabbatining homiysi boʻlgan. Ularning oʻgʻli ham osmon va yorugʻlik ifodasi, firʼavn homiysi boʻlgan. Donolik va hisob xudosi – Tot; qudrat ramzi

– maʼbuda Soxmet, osmon xudosi Xatxor quvonch va sevgi xudosi boʻlgan. Sia – bilim xudosi, Maat – adolat xudosi boʻlib, adolat, aql kabi mavhum tushunchalarni ifodalagan.

Misr Nubiya, Falastin va Suriya bilan yaqin aloqada boʻlgani sababli, chet el xudolari Anat, Astarta, maʼbud Reshefa (Semit), Dedun (Kush xudosi) Misr xudolari panteoniga qabul qilingan. Misr diniy tasavvurlarida fetishizm va totemizm qoldiqlari saqlanib qolgan. Misrliklar oʻz xudolarini hayvon, ilon, qurbaqa tarzida tasavvur qilishlari shu sababli edi. Xudo Apis kuchli hoʻkiz qiyofasida, maʼbuda Soxmet – sher, Tot – pavian, suv girdobi xudosi Sebek – timsoh, Yuqori-Quyi Misr birligi timsoli boʻlgan maʼbuda Uadjet – ilon-kobra koʻrinishida tasvirlangan.

Xudolarning koʻpligi, ularning vazifalarini bir-biriga bogʻlanib ketishi kohinlarning xudolar panteonini tartibga solish, ular oʻrtasida aniq munosabatlarni oʻrnatish vazifasini qoʻyadi. Geliopol kohinlari maʼlum darajada xudolar oʻrtasidagi munosabatlar va ularning dunyoni yaratishdagi rolini koʻrsatadigan tizimni ishlab chiqdilar. Shunga koʻra, dastlab ibtidoiy suv xudosi Nun yashadi. Undan xudo Atul (Ra) paydo boʻldi. Atul (Ra) oʻzidan suv xudosi Shu va uning xotini Tefnut – namlikni paydo qildi. Ulardan yer xudosi Geb, osmon maʼbudasi Nut tugʻilib, bulardan esa oʻz navbatida, Osiris, Isida, Sia va Neftida tugʻilgan. Bu qadimgi ilohlar ilk ilohiy toʻqqizlik – Enneada oilasiga birlashdi. Ana shu ilohlardan boshqa Misr xudolari tarqalgan.

Firʼavn shaxsini ilohiylashtirish alohida rol oʻynadi. Kohinlar taʼlimotiga koʻra, firʼavn inson koʻrinishidagi xudoning aksidir. U ikki xil – inson va ilohiy tabiatga ega boʻlgan. Uning tugʻilishi Amon – Ra bilan firʼavnning yerdagi onasining nikohi natijasidir. Yerni firʼavn xudo Xorning aksi sifatida boshqargan. Firʼavn oʻlimidan soʻng xudo boʻlib, Osiris bilan tenglashtirilgan. Podsholik qilayotgan va vafot etgan firʼavn oʻz ibodatxonasiga ega boʻlgan. Kohinlar bu ibodatxonalarda qurbonlik keltirganlar va firʼavnga sigʻinganlar. Ulugʻvor piramidalar, hashamatli sagʻanalar bunyod qilish firʼavnni ilohiylashtirishning yana bir belgisi edi. Firʼavn ilohiyligining ramziy aks etishi sfinks koʻrinishida boʻlgan. Misrda yagona xudoga sigʻinish konsepsiyasi rivojlanmagan (Exnaton islohoti).

Diniy urf-odat, anʼanalarga Misrda qatʼiy rioya qilingan. Xudolarga sigʻinish uchun ibodatxonalar, haykallar bunyod qilingan. Ibodatxona xudoning uyi, kohinlar esa uning xizmat-

korlari sifatida qaralgan. Xudo haykal tasvirida boʻlib, unga sigʻinilgan. Xudoga sigʻinish rasm-rusum marosimlari qatʼiy shakllantirilgan: xudolar kiyintirilgan, ramziy ovqatlantirilgan, qurbonlik keltirilib, qoʻshiqlar, raqslar va bayram marosimlari namoyishlari bilan uning koʻngli ochilgan. Ibodatxonalar ulkan boʻlib, ulugʻvor ustunlar, darvozalar va haykallar bilan bezatilgan. Oddiy xalq ibodatxonaga toʻplanib ibodat qilmaganlar. Faqat kohinlarga ibodatxonaga kirish ruxsat etilgan. Ular firʼavn nomidan marosimlarni ado etib, xayr-ehsonlarni qabul qilganlar. Xushboʻy moylar va isiriq tutatganlar, musiqa asboblari cholib qoshiq aytganlar. Kohinlar ham oliy, oʻrta va past tabaqalarga boʻlingan. Ular sochlarini taqir qirganlar, maxsus kiyimlar, ayrimlari qoplon terisini kiyganlar. Ular katta diniy bayramlarni uyushtirganlar. Ayrim kohinlar ibodatxonada maʼlum vaqt – uch oy turganlar, keyin esa oʻz ishlariga qaytganlar. Zodagon ayollar baʼzi marosimlarda kohina vazifasini bajarganlar. Kalendarning belgilangan kunlarida xudo haykali ibodatxonadan ibodatxonaga koʻchirilgan, qaysiki, u turar joylariga kirib chiqishi yoki boshqa xudolarga mehmon boʻlishi lozim boʻlgan. Minglab kohinlar diniy bayram va marosimlarni tashkil qilganlar.

Misr dinida u dunyodagi hayotga katta oʻrin berilgan. Inson goʻyoki, uch asosiy substansiya: jismoniy tana, uning maʼnaviy koʻrinishi («Ka») va uning ruhi («Ba») dan iborat. Faqat shu uch unsur birgalikda yashashga imkon beradi. Demak, shunday ekan, odamlarning jasadini saqlash (moʻmiyolash) kerak. Ana shundagina moʻmiyo oldida «Ka» va «Ba» turadi. Oʻlimdan keyingi hayot bu hayotning davomi deb tushuniladi.

Moʻmiyolangan jasad tobutda saqlangan. Tobut ichki va tashqi tomondan turli sehrli duolar bilan qoplangan, duolar marhumga u dunyoda yordam berishi kerak boʻlgan. Marhumning ichki aʼzolari maxsus idishlar – kanopalarga saqlangan. Odam boshli idishda jigar, pavian (maymun) boshli idishda oʻpka, shaqol boshli idishda qorin, lochin boshli idishda ichaklar saqlangan. Bizgacha bir necha firʼavnlarning moʻmiyolangan jasadlari, muqaddas hisoblangan qushlar, jonivorlarning moʻmiyolangan tanasi millionlab nusxada bizgacha yetib kelgan.

Ibodatxonalar koʻp sonli kohinlarni taʼminlash, bayram va ziyofatlarni tashkil qilish uchun oʻz xoʻjaliklariga ega boʻlgan. Firʼavnlar, zodagonlar ibodatxonaga hadya qilgan yerlarda

ko'plab odamlar ishlagan. Ibodatxonalar nafaqat mamlakatni diniy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynab qolmay, ibodatxona kohinlari davlat siyosatiga faol aralashganlar. Sulolaviy tushkunlik paytida yangi fir'avnning tanlanishi bevosita Amon-Ra oliy kohinlariga bog'liq bo'lgan.

3. Til, yozuv, ta'lim tizimi. Qadimgi misrliklarning tili va yozuvi ming yillik tarix davomida o'z taraqqiyotining 5 bosqichini bosib o'tdi:

1. Qadimgi podsholik davridagi til.
2. O'rta Misr klassik tili (bu tilda noyob adabiy asarlar yaratilgan).
3. Yangi Misr tili (mil.avv. XIV–VIII asrlar).
4. Demotik til (mil.avv. VIII–milodiy V asri).
5. Kopt tili (III–VII asrlari).

Qadimgi podsholik aholisi tilini Yangi podsholik aholisi tushunmagan. Misr tili chetga chiqmagan. Milodiy III asrdayoq qadimgi Misr tili o'lik edi. Uning o'rniga yangi kopt tili keldi. VII asrda kopt tilini arab tili siqib chiqardi. Hozirgi kunda Misrda faqat 4,5 mln kishi kopt tilidan foydalanadi.

Misr yozuvi mil.avv. IV ming yillik oxirida rasm-yozuv, piktografiya asosida kelib chiqdi. Faqat O'rta podsholik davriga kelib rivojlangan yozuvga aylandi. Mil.avv. II ming yillikda 700 iyeroglif keng ishlatilgan. Yozuv uchun material sifatida tosh (inshoot, sag'ana, haykallar), loy taxtachalar (ostrakon), yog'och, charm va papirus xizmat qilgan.

Misrdan bizgacha maktab matnlari yozilgan papiruslar yetib kelgan. Jumladan, o'quvchilarning yozuvlari, o'quv qo'llanmalar, namuna uchun adabiy matnlar. Misrliklar yozuvni «Ilohiy so'z» deb aytganlar. O'qituvchilar o'quvchilar uchun mashqlar, ko'rsatmalar tuzganlar. Misrda o'qish va yozishni bilgan kishilar qadrlangan. Zodagonlar o'zlari va bolalarining savodli bo'lishiga jiddiy e'tibor berganlar.

Misrda maktablar bir necha bosqichli bo'lib, o'qish pullik bo'lgan. Har mingta misrlikdan faqat to'rttasi savodli bo'lgan, davlat boshqaruvi uchun savodli mirzolar tayyorlash maktablarida ta'lim olish sharaf hisoblangan. Mirzolar jamiyatda katta obro'ga ega bo'lganlar. Bizgacha mirzalarning ko'p sonli haykallari yetib kelgan. Maxsus tibbiyot maktablari bo'lib, ularda tabiblar tayyorlangan.

4. Adabiyot. Misrliklar dunyoda eng qadimgi qiziqarli g'oyalari, badiiy obrazlar bilan sug'orilgan boy adabiyotlarni yarat-

dilar. Adabiyotning rivojlanishi uchun qulay omil bo'lib xalq og'zaki ijodi xizmat qildi. Ilk adabiy asarlar mil.avv. IV ming yillikda shakllandi. Ertaklar, didaktik nasihatnomalar, zodagonlar tarjimayi hollari, diniy matnlar va poetik asarlar Qadimgi podsholik davridayoq paydo bo'ldi.

O'rta podsholik davrida janrlarning xilma-xilligi ko'paydi. Yuqori darajada yozilgan prozaik asarlar yuzaga keldi (Sinuxet hikoyasi). Yangi podsholik davrida Misr adabiyoti g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammallashish davrini boshdan kechirdi.

Misr adabiyotida nasihatnoma va bashoratlar didaktik janri to'laroq aks etgan. Nasihatnomalardan eng qadimgisi «Ptaxotep nasihatnomasi»dir. Keyingilari «Gerakleopol podshosi Axtoyning o'g'li Merikaraga nasihati», «Fir'avn Amenemxet I ning nasihatnomasi» kabi asarlarda davlatni boshqarish yo'l-yo'riqlari bayon qilingan. «Axtoyning o'gli Duaufaga nasihati»da mirzalikni boshqa kasblardan afzalligi ko'rsatiladi. Yangi podsholik davrida nasihatnomalardan «Ani nasihati», «Amenemope nasihati»da turmush axloqi va an'anaviy axloq qoidalari batafsil bayon qilinadi.

Ertaklar Misr adabiyotida alohida bir janr sifatida shakllandi. Ulardan eng mashhurlari «Fir'avn Xufu va sehergarlar», «Kema halokatiga uchraganlar», «Egri va to'g'ri», «Ikki aka-uka» va «Fir'avn Petubastis to'g'risida»gi bir necha ertaklardir. Misr adabiyotining «Sinuxet hikoyasi» qissasi, «Arfa chaluvchi qo'shig'i» poetik asari kabi namunalari o'sha davrda yuksak adabiy janr shakllanganligining dalilidir. Turli janrlar orasida adabiyot alohida o'rin tutadi.

Ko'pgina afsonalar, qayta ishlangan diniy madhiyalar Osiris mashaqqatlari, xudo Raning yerosti podsholigiga sayohati hikoya qilingan sikllari qadimda mashhur bo'lgan. «Ko'ngli qolgan kishining o'z ruhi bilan suhbat» nomli falsafiy dialog shaklida yozilgan asar diqqatga sazovor. Dialogda dunyodagi adolatsizlik, huquqsizlik va yovuzlikdan azob chekkan kishi taqdiri hikoya qilinadi.

5. Tasviriy san'at va me'morchilik. Misrning aholisi, Nilning moddiy resurslari va Misrning siyosiy qudrati me'morchilik va tasviriy san'atning gullab-yashnashiga sabab bo'ldi. Me'morchilik va tasviriy san'at asta-sekin mavjud tuzum, uning davlatchiligi va jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini mafkuraviy oqlashga xizmat qila boshladi.

Misr shahar va qishloqlari Nil daryosi sohillarida barpo qilingan. Faqat ibodatxonalar toshdan qurilgan. Boshqa barcha inshootlar fir'avn saroylaridan boshlab oddiy xalqning uyigacha xom g'ishtdan qurilgan. Ko'pchilik misrliklarning uylari tomlarini palma yog'ochi ko'tarib turgan, pol tuproq bilan pishitilgan. Ba'zida boy misrliklarning uylari devorlari alebastr bilan suvalib, rasm-tasvirlar chizilgan. Ularning turar joyi yotoqxona, mehmonxona, oshxona va xo'jalik binolaridan iborat bo'lgan. Tom va devorlar somonli loy bilan suvalgan. U yerda krovatlar, stul, skameykalar bo'lgan, kechqurun salqin tushganda odamlar yassi tomlarda o'tirishgan, yoki salqin bog'larda sayr qilib yurganlar. Bog'larda xurmo, anor, uzum, zangori va qizil gulli lotos o'sgan. Boylarning uylari zax va toshqindan himoya qilish uchun baland ko'tarilgan tuproq supalar ustiga qurilgan.

Misr me'morchiligi, haykaltaroshligi va relyef san'atida badiiy vosita va bosh maqsadlarning asosiy arsenalini shakllantirdi. San'atning diniy e'tiqodga o'ta qaramligi yaqqol seziladi. Mil.avv. III ming yillikdayoq Misr san'atining yetakchi g'oyaviy yo'nalishlari bo'lgan xudo va fir'avnlarning cheksiz qudrati g'oyasini tashkil etish shakllandi. Bu g'oyalar piramida va ibodatxonalar, ulkan haykallarni yaratishda o'z aksini topdi. Me'morchilikda xudo – fir'avn piramida – qabrlari, ibodatxonalar qurish ustivor ahamiyat kasb etdi. Sag'analarning ikki xili: yer usti sag'analari (VI sulola piramidalari) va qoyaga o'yilgan sag'analari (Yangi podsholik davrida) keng tarqaldi.

Piramida va sag'analari qurish uchun I-II sulola fir'avnlari dafn qilingan mastabalar namuna bo'lib xizmat qildi. III sulola fir'avni Joser uchun balandligi 60 m bo'lgan zinapoyasimon ilk piramida mastaba o'rnida qurildi. Bu kichrayib borayotgan olti ustma-ust qo'yilgan mastaba edi. IV sulola fir'avni Xufu piramidasi (146,6 m balandligi, uzunligi 233 m, maydon hajmi 54 ming. kv. m, 2 tonna 2,3 mln. tosh), Xafra piramidasi (balandligi 140 m, uzunligi asosi 220 m) bunyod qilindi. Xafra piramidasiidan so'ng piramidalar kichik hajmda qurila boshlandi.

Ibodatxonalar qurilishi o'zgacha me'morchilik shaklida bo'ldi. Karnak va Luksorda xudo Amon-Raga bag'ishlab ibodatxonalar qurildi. Bu ibodatxonalar xarobalari bizgacha yetib kelgan. Ular juda ulkan, atrof manzaraga uyg'un qo'shilib ketgan, hashamatli bezalgan edi. Ularda yuzlab keng xonalar, katta hovlilar, xudolarning ulug'vor haykallari, sfinks, pilonlar va xiyobon (alleya)lar mavjud. Karnak ibodatxonasida kolonna zali

5,5 ming kv. metr bo'lib, 134 kolonna bor. 12 markaziy kolonnaning balandligi 21 m, eni 10 m, aylanasi 15 m. Ibodatxonada 500 ta toshdan, 17 ming jezdan yasalgan haykal va haykalchalar mavjud bo'lgan. Ular qadimda yashirib qo'yilgan joydan topilgan.

Misr ibodatxonasi ulkan ustunlar, devorlar va baland darvozalar bilan o'ralib turadi. Ustunlar yuqoridan pastgacha yozuv va tasvirlar bilan qoplangan. Ular hayot ramzi bo'lgan yashil rang bilan bo'yalgan. Dayr-al Bahrdagi malika Xatshepsut ibodatxonasi va Ramzes III ning Madinat Abudagi (Fiva) ibodatxonalari hashmatli qurilgan. Yana shunday ibodatxonalar qoyalarga o'yib bunyod qilingan (Ramzes III ning Nubiyadagi Abu Simbel ibodatxonasi).

Ramzes II ning Abu Simbeldagi ibodatxonasida teng kunlikda galereyaning 70 metr uzunligida quyosh nurlari fir'avn haykali yuziga tushgan, boshqa barcha kunlarda u yarim qorong'ilikda turgan. Hindiston g'or ibodatxonalari ham shunday rejalashtirilgan. Shumer, Misr yoki Amerika piramidalari uchlariga hali birinchi quyosh nurlari tushganda, ularning poydevori qorong'ilik qa'rida turgan. Misrliklar birinchi bo'lib ibodatxonalarining shiplariga chambaraklar qo'ydilar, yorug'lik yuqorida chambaraklarda ko'p marta bo'linib, turlicha aks etadi, pastda esa yengil yarim qorong'ilik hukm suradi. Karnakda Tutmos I ga bag'ishlangan obelisk-ustun qurilgan. Obelisk to'rtburchak ustun shaklida bo'lib, ko'kka intiladi. Uning devorlari to'la hierogliflar bilan qoplangan. Misrliklar ohaktosh va granitdan ulug'vor ibodatxonalarining kolonnalarini bunyod qildilar. Misrdagi yana bir me'morchilik san'ati namunasi – podsho saroyi qarorgohi monumental shaklda qurilgan. Barcha ibodatxona va saroylar relyeflar, boy devoriy rangtasvirlar bilan bezatilgan.

Podsholar vodiysi Fiva yonida Yangi podsholik fir'avni Tutankhamonning sag'anasidan qimmatbaho buyumlar topilgan (1922-yil). Sag'anada oltin tobut, qora eben daraxtidan, yarim tiniq alebastr, qimmatbaho tosh va metallardan tayyorlangan (ziynatlangan taxt, marosim harbiy qurollari, ko'plab bezaklar) buyumlar dekorativ – amaliy san'atning yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

6. Ilmiy bilimlar. Misr madaniyatida fan yetakchi o'rin tutadi. U asosan matematika, astronomiya, tibbiyot yo'nalishlarida rivojlandi. Misr kalendari osmon jismlari va Nil daryosining mavsumiy o'zgarishi asosida tuzilib, yil uch mavsum, har mav-

sum to'rt oyga bo'lingan. Har oy uch o'n kunlik dekadani tashkil etgan. Yilda 36 dekada bo'lgan. Oxirgi oyga 5 kun qo'shilib, kalendar va astronomik yil (365 kun) tenglashtirilgan. Sutka 24 soatga bo'linib, yozda kunduz soatlari uzoq, qishda qisqa bo'lgan. Misrliklar yulduzlarning aniq kattaligini o'lchaganlar. Suv va quyosh soatlarini kashf qilganlar. Misrliklar kvadrat, doira, uchburchak maydonlarini hajmini o'lchash metodlarini ishlab chiqdilar. Yer maydoni qurilishlarda binolar balandligi ushbu metodlar bilan aniqlangan. Ular o'nlik tizimda hisoblashni kashf qildilar. Uzunlik o'lchovi sifatida podsho tirsagi – 52 sm, qisqa tirsak 45 sm ga teng bo'lgan. Ular qo'shish, ayirish, bo'lish va ko'paytirishni bilganlar. Misrliklarning bu yutuqlarini yunon-rim madaniyati o'zlashtirdi. Misrliklar quyosh, suv va qum soatlarini kashf etdilar. Misrliklar o'nlik sanoq tizimini kashf qildilar.

Misr jarrohlari butun Old Osiyoga mashhur bo'lganlar. Bizgacha 10 tibbiyot papirusi yetib kelgan. Tabiblar 100 ga yaqin kasalliklarni davolash usullarini bilganlar. Qon aylanishi va yurak faoliyati to'g'risida bilimga ega bo'lganlar. Misrliklar ilk bor yog'ochdan tish protezini qo'yganlar, bosh miyani trepanatsiyasini amalga oshirganlar. Shifokorlar tayyorlaydigan maxsus tibbiyot maktablari tashkil etilgan. Qadimgi Misrning tibbiyot retseptlari, magiya mantlaridan o'rta asrlarda arablar va Yevropa tibbiyoti foydalangan. Mo'miyolash san'ati yuksak darajada rivojlanishi tabibning odam anatomiyasini sinchiklab o'rganishlari uchun muhim omil bo'ldi.

Misr kohinlari osmon jismlarini kuzatib, yulduzlarning ilk xaritasini tuzdilar. Misrliklar qadimgi so'z ensiklopediyalarini tuzganlar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Повесть Петеисе III. Древнеегипетская проза / Пер. и комм. М.А. Коростовцева. – М.: 1977.
2. Коростовцев М.А. Религия древнего Египта. – М.: 1976.
3. Культура Древнего Египта. – М.: 1976.
4. Поэзия и проза Древнего Востока. – М.: 1973 (Библиотека всемирной литературы).

Asosiy sanalar

| | |
|-------------------------------|--|
| Mil.avv. 2600-yillar atrofi | Ulug'vor piramidalar bunyod qilindi. |
| Mil.avv. IV ming yillik | Ilk adabiy asarlar paydo bo'ldi. |
| Mil.avv. IV ming yillik oxiri | Ilk yozuvning ibtidoiy ko'rinishi paydo bo'ldi. |
| Mil.avv. II ming yillik | Asosan 700 iyeroglif ishlatildi. |
| Milodiy VII asrda | Kopt tilini arab tili siqib chiqardi. |
| Mil.avv. 1922-yil | Yangi podsholik fir'avni Tutanxamon sag'anasi topildi. |

QADIMGI MESOPOTAMIYA

1. Geografik o'рни va tabiiy sharoiti. 2. Qadimgi Mesopotamiya aholisi. 3. Davrlashtirish. 4. Mesopotamiyaning qadimiy tarixiy manbalari. 5. Tarixnavislik. 6. Arxeologik ma'lumotlar.

1. Geografik o'рни va tabiiy sharoiti. Shimolda Armaniston tog'laridan janubda Fors qo'ltig'igacha, sharqda Eronning tog'li viloyatlaridan g'arbda Suriya-Mesopotamiya cho'llarigacha cho'zilib ketgan hudud qadimda yunon geograflari tomonidan Mesopotamiya (Ikki daryo oralig'i – Frot va Dajla daryolari oralig'i) deb atalgan. Cho'l va tog'lardan tashkil topgan Shimoliy Mesopotamiyada Osuriya joylashgan edi. Qadimgi Mesopotamiya hududi hozir asosan Iroq Respublikasi hududidir. Dajla va Frot daryolari Arman tog'laridan boshlanib, Fors qo'ltig'iga quyiladi. Daryo suvlari minerallarga boy loyqa bilan oqib, toshqin vaqtida dalalarga toshib, hosildor qatlam hosil qiladi.

Ikki daryo oralig'ida hosil olish uchun yil davomida sun'iy sug'orish (melioratsiya) ishlarini amalga oshirish kerak edi. Bu yerda qadimdan odamlar kanal va dambalar qurganlar. Mesopotamiya iqlimi shimol va janubda bir xil emas. Shimolda quruq subtropik zonada qishda ba'zida qor yog'adi, bahor va kuzda yomg'ir bo'ladi. Janub juda issiq va quruq iqlimli. Mesopotamiyada qadimda loy va tabiiy asfalt mo'l-ko'l bo'lgan. Shimolda qo'rg'oshin, qalay, temir va tosh ham uchraydi.

Mesopotamiya florasi juda kambag'al. Faqat shimolda tog'li hududda har xil daraxtlar uchraydi. Qadimda daryo vodiysida tol daraxti, janubda qamishning turli xillari bo'lgan. Xurmo palmasi muhim rol o'ynagan. Strabonning aytishicha, qadimda uning 360 xil foydali xossasini bilganlar. Uzum va mevali daraxtlar, tariq, polba, kanop, bodring, sarimsoq, baqlajon, oshqovoq, loviya va no'xat o'stirilgan.

Qadimda Mesopotamiya faunasi xilma-xil ko'rinishda edi. Daryolarda baliq ko'p bo'lgan. Qushlar, eshak, cho'chqa, kiyik, quyon, tuyaqush, sherlar to'qay va sahrolarda mo'l-ko'l bo'lgan.

Mesopotamiya Yaqin Sharqning keng bo'shlig'ida joylashganligi uchun xalqaro savdoda yetakchi rol o'ynagan. Ko'pgina yo'llar g'arbdan sharqqa, shimoldan janubga shu yerdan o'tgan.

2. Qadimgi Mesopotamiya aholisi. Mesopotamiyada odamlar qadimdan o'rnasha boshlagan. Neolit davrida bu jarayon tezlashgan. Dastlab iqlimi qulay shimol o'zlashtirilgan. Qadimgi Xassun, Xalaf madaniyatining etnik kelib chiqishi noma'lum. Janubiy Mesopotamiyaning ilk manzilgohlari keyinroq, mil.avv. IV ming yillikda va mil.avv. IV ming yillikning II yarmida El-Ubayd madaniyati bilan belgilanadi. Ba'zi tadqiqotchilar bu madaniyatni shumerlarga tegishli deb bilsa, boshqalari protoshumerlarga bog'laydilar. Shumerlar janubiy Mesopotamiyaga mil.avv. 4600-yil yoki 6600-yil oldin ko'chib kelganini S.Kramer va boshqa shumershunos olimlar aytadilar. Shumerlarning asl vatani Kavkaz, Eron, Hindiston yoki Oltoy bo'lganligi to'g'risida turli ilmiy farazlar mavjud. Shumer tilining qaysi til oilasiga mansubligi ham noma'lum. Shumerlar mahalliy aholi bilan aloqa o'rnatib, ulardan bir qancha xo'jalik yutuqlari, diniy e'tiqodlar va toponomik nomlarni o'zlashtirib olganlar.

Mesopotamiyaning shimolida mil.avv. III ming yillikdan boshlab sharqiy semit chorvador qabilalari yashagan. Ular akkad tilida so'zlashgan. Mil.avv. III ming yillik oxirida g'arb-Suriya cho'llaridan Mesopotamiyaga g'arbiy semit chorvador qabilalari kirib kelgan. Akkadlar ularni amoriylar deb atashgan (akkadcha «Amurri», «Suriya» yoki «G'arb» ma'nosini anglatadi). Mil.avv. III-II ming yilliklarning birinchi yarmida amoriylar Mesopotamiyada bir necha hukmdor sulolalarga asos solganlar. Qadimgi shimoliy Mesopotamiya, shimoliy Suriya va Arman tog'larida xurrit qabilalari yashagan. Shumer va akkadlar ular va ularning mamlakatini Subarti deb atashgan.

Mil.avv. III ming yillikdan shimoliy-sharqiy Mesopotamiyada Diyali daryosidan Urmiya ko'ligacha bo'lgan hududda yarim ko'chmanchi qutiy (gutiy) qabilalari yashagan. Kassit qabilalari shimoliy-g'arbiy Eronda, elamlardan shimolda hayot kechirgan. Ular mil.avv. XVI asrda Bobilni bosib olib, o'z sulolalariga asos soldilar. Kassitlar mahalliy madaniyat, tilni qabul qilib, mahalliy aholini assimillatsiya qildilar. Mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida shimoliy Armaniston va Suriya cho'lidan shimoliy Mesopotamiya hududlariga g'arbiy semit guruhiga mansub kassit qabilalari kirib keldi. Ular mil.avv. XII asr oxirida

shimoliy Suriya va janubiy-g'arbiy Mesopotamiyada kichik davlatlar barpo qildilar. Ular mil.avv. I ming yillik boshlarida xurrit va amoriy aholisi bilan qo'shilib ketdilar. Oromiy tili bu yerda keng tarqaldi. Mil.avv. X asrda janubiy Mesopotamiyaga oromiylarga qarindosh xalday qabilalari kelib o'rnashdi. Bu etnik guruhlarning qadimgi Mesopotamiyaga migratsiyasi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz berdi.

3. Davrlashtirish. Mesopotamiya hududida mil.avv. IV ming yillikdan III ming yillikgacha ibtidoiy jamoa tuzumining yemirinish jarayoni bordi. Shumerlarning mil.avv. IV ming yillik boshlarida Janubiy Mesopotamiyaga kelishi bilan Uruk madaniyati boshlandi.

Mil.avv. III ming yillikdan boshlab mamlakatning janubiy qismida shumerlarning kichik shahar-davlatlari paydo bo'ldi. Mil.avv. III ming yillik ilk sulola davri deb ataladi. Bu davrda ilk shahar-davlatlar paydo bo'ldi. Ayniqsa, janubda shumerlarning Eredu, Ur, Lagash, Larsa, Uruk, Umma, Shuruppak, Isin, Nippur va Kish kabi shahar-davlatlari paydo bo'ldi. Mil.avv. III ming yillikning oxiri kuchli mutlaq monarxiyalar tashkil topish davri hisoblanadi. Mil.avv. XXIII–XXI asrlar siyosiy markaz Mesopotamiyaning markaziga ko'chib, bu yerda Akkad davlati tashkil topadi va uning tarkibiga Shumer janubi va shimoliy Mesopotamiya kiradi. Kutiyalar hujumi sababli, Akkad podsholigi yemirilib, yetakchilik Shumer-Akkad podsholigi qo'liga o'tadi.

Mil.avv. II ming yillikning boshlarida Ikki daryo oralig'ida Bobil podsholigi yuksalib, Bobil boshchiligida butun mamlakat birlashtiriladi. Uning tarixi quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Qadimgi Bobil yoki amoriy davri (mil.avv. XIX–XVI asrlar).
2. O'rta Bobil yoki kassit davri (mil.avv. XV–XII asrlar).
3. Bobilning siyosiy tushkunlik davri (mil.avv. XII–VII asrlar).
4. Yangi Bobilning qisqa qayta uyg'onish davri (mil.avv. VII–VI asrlar) va Eron tomonidan mamlakatning bosib olinishi.

4. Mesopotamiyaning qadimiy tarixiy manbalari. Qadimgi Mesopotamiya tarixi bo'yicha asosiy manbalarga moddiy madaniyat yodgorliklari, yozma hujjatlar va adabiy asarlar, antik mualliflar asarlari kiradi.

Moddiy madaniyat yodgorliklari. Mil.avv. III-I ming yilliklarga oid moddiy madaniyat yodgorliklari Mesopotamiyaning qadimgi Eredu, Uruk, Lagash, Larsa, Nippur, Eshnunna, Mari, Ashshur, Nineviya va Bobil kabi shaharlarining xarobalarini

arxeologik o'rganish natijasida ma'lum. Shaharlardan zinapoyasimon minora, saroylar, ulkan ibodatxonalar, turar joylar, xo'jalik inshootlari, san'at asarlari va uy anjomlari topilgan. Mesopotamiyaning mil.avv. III-II ming yilliklarga oid silindrsimon stealit, lazurit, serdolikdan yasalgan muhrlari Misr, Bahrayn va Hindistondan ko'plab topilgan.

Xo'jalik hujjatlari. Mesopotamiya tarixiga oid eng qadimgi hujjatlar (mil.avv. III ming yillik boshlari) Uruk va Jamdat-Nasrdan topilgan mingga yaqin loy taxtachalardir. Ular piktografik belgilar bilan yozilib, hali oxirigacha o'qilmagan. Lagashdan mil.avv. III ming yillikka oid xo'jalik hujjatlari topilgan. Ayniqsa, mil.avv. II ming yillikka oid ko'pgina xo'jalik hujjatlari mavjud. Ular davlat arxivlari, ibodatxona va xususiy arxivlarda saqlanib qolgan. Hozirgi Turkiya hududidagi Kultepadan mil.avv. II ming yillikka oid osur va amoriy savdogarlariga tegishli qarz, tilxat va sud qarorlari aks etgan 10.000 loy taxtachalardan iborat arxiv; mil.avv. II ming yillikka oid qadimgi Arrapxadan topilgan 4000 loy taxtacha; mil.avv. XII-XI asrlarga oid Ashshur shahri arxivi; mil.avv. I ming yillikka oid Nippur, Bobil, Borsippa, Ur va Uruk shaharlari kesishgan joylardan topilgan arxivlar qadimgi Mesopotamiya xo'jalik hayoti to'g'risida muhim ma'lumot beradi. Ayniqsa, Nippurdagi savdo-tadbirkorlik bilan shug'ullangan «Murashu uyi»dan topilgan mil.avv. V asrga oid 700 hujjat diqqatga sazovordir.

Huquqiy hujjatlar. Bizgacha Mesopotamiya tarixiga tegishli ko'plab huquqiy hujjatlar yetib kelgan. Ulardan eng qadimgisi podsho Shulga qonunlari (mil.avv. III ming yillikning oxiri); mil.avv. XX asrga oid Eshnunna qonunlari, undan kirish va 59 modda saqlanib qolgan; mil.avv. II ming yillik boshlariga tegishli Larsa va Issin qonunlari parchalari; Lipit-Ishtar nomli hukmdor qonunlarining kirish, xulosaning bir qismi va 40 ga yaqin qonun moddalari bizgacha yetib kelgan.

Eng katta qonunlar to'plami 247 modda, asosiy qism, xulosadan iborat Xammurapi qonunlaridir. Mil.avv. II ming yillik o'rtalariga oid O'rta Osuriya qonunlari, Yangi Bobil podsholigiga oid 20 ga yaqin qonun moddalari bizgacha yetib kelgan.

Diplomatik hujjatlar. Eng qadimgi diplomatik hujjatlardan ikki loy silindrda bitilgan mil.avv. XXIV asrga oid Lagash va Umma o'rtasidagi chegara janjali to'grisidagi yozuv bizgacha yetib kelgan. Mil.avv. XXIII asrga oid Akkad va Elam davlatlari o'rtasidagi shartnoma; mil.avv. II ming yillik boshlariga te-

gishli Mari podshosining Bobil, Suriya va Finikiya bilan diplomatik yozishmalari matnlari topilgan. Mil.avv. II ming yillikda Old Osiyo, Misr tarixi va xalqaro munosabatlar to'g'risida boy ma'lumot beradigan bosh manba Misrda topilgan Tell-Amarna arxividir.

Tarixiy mazmundagi yozuvlar. Shumer shaharlari, Akkad, Bobil va Osuriya davlatlari podsholarining bizgacha yetib kelgan yozuvlari juda katta ilmiy qimmatga egadir. Shunday yozuvlardan biri mil.avv. XXIV asrga oid Lagash davlatining yuksalishi, uning qo'shni Umma bilan urushi to'g'risida hikoya qiladigan Lagash hokimi Eannatumning chegarada tosh taxtaga bitilgan «Kalxatlar stelasi» deb ataladigan yozuvidir. Mil. avv. XXIV asrga oid Lagash hokimi Urukagina, mil.avv. XXII asrga oid Lagash hokimi Gudeaning qurilish va bag'ishlov yozuvlari, Akkad podshosi Rimushning (mil.avv. XXIII asr) Elamga yurishlari to'g'risidagi yozuvlari va «Manishtusu yodgorligi (obelisk)»da podsho yer zaxirasi, uning jamoa yeri hisobidan ko'payishi to'g'risida ma'lumot berilgan.

Bizgacha Osuriya podsholarining juda ko'p yozuvlari yetib kelgan. «Sargon II ning Ashshurga xati», mil.avv. 714-yilda Urartuga qarshi yurishi bayon qilingan xatlari saqlanib qolgan. Podsho Ashshurbanipalning batafsil tarixiy ma'lumot beruvchi yilnomasi shular jumlasidandir. Yangi Bobil podsholarining 140 ga yaqin yozuvlari bizga ma'lum. Tarixiy asarlar keyinroq, mil. avv. IV–III asrlarda paydo bo'ldi. Kohin Beroyesning (Bobildagi Marduk ibodatxonasi kohini) 3 qismdan iborat «Bobil va Xaldey tarixi»da to'fon davridan makedoniyalik Aleksandr davrigacha bo'lgan voqealar bayon qilingan. Bizgacha bu asarning parchalari o'rta asr tarixchilari asarlarida keltirilgan ma'lumotlar orqali yetib kelgan.

Shumer-Akkad adabiy yodgorliklari. Bizgacha Mesopotamiya tarixiga oid qator adabiy yodgorliklar yetib kelgan. Jumladan, Uruk podshosi Jmerkar to'g'risidagi epik poemalarda Shumerning ilk sulola davrida (mil.avv. III ming yillik boshlari) uzoq mamlakat Aratta (Eron hududi) bilan aloqasi to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar beriladi.

Shumerning «Gilgamesh va Aga» poemasi Uruk shahri-ning Kish shahri qaramligidan mustaqil bo'lishi uchun kurashi to'g'risida aniq ma'lumotlar mavjud. Akkad podsholigining asoschisi Buyuk Sargon to'g'risidagi Akkad afsonalari saqlanib qolgan.

Shumer, Babil va Osuriya adabiy yodgorliklaridan qimmatli tarixiy ma'lumotlar olish mumkin. «Gilgamesh» dostoni haqiqiy tarixiy xazina hisoblanib, uning matni Nineviya shahridagi mashhur Osuriya podshosi Ashshurbanipal (mil.avv. VII asr) kutubxonasiidan topilgan. Bu doston mil.avv. II ming yillik boshlarida yaratilgan deb taxmin qilinadi.

Antik mualliflar asarlari. Antik mualliflar Mesopotamiya tabiati, iqlimi va aholisining urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari, yutuqlari va tarixiy afsonalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Mesopotamiya to'g'risida eng batafsil ma'lumotlarni Mesopotamiyaga sayohat qilgan yunon tarixchisi Gerodot beradi (mil. avv. V asr). Ko'p yillar Eronda yashagan Gerodotning kichik zamondoshi Knidlik Ktesiy 23 kitobdan iborat «Eron tarixi» asarida Mesopotamiyaga ancha katta o'rin ajratgan. Ammo Ktesiy tarixini bayon qilish afsonaviy an'analarga asoslangan bo'lib, voqealarni soxtalashtirish, xatolarning ko'pligi uchraydi. Mil.avv. V asrda fors shahzodasi Kirning yolanma qo'shinida askar bo'lib Mesopotamiyaga kelgan yunon tarixchisi Ksenofontning «Kiropediya» va «Anabasis» asarlarida Dajla va Frot daryo vodiylari tasviri, mamlakat xalqlari va urf-odatlarini to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Strabonning «Geografiya» asarining (mil.avv. I asr–milodiy I asr) 16 kitobi Mesopotamiyaga maxsus bag'ishlanib, boy ma'lumotlar beradi. Mesopotamiya tarixi bo'yicha bir qancha ma'lumotlar yahudiy yozuvchisi Iosif Flavii va Rim muallifi Pompey Trog asarlarida uchraydi.

5. Tarixnavislik. Mixxatning o'qilishi (deshifrovkasi). Mesopotamiya va Eronga birinchi ilmiy safar qilgan yevropalik odam XVIII asrda daniyalik olim Konstantin Nibur edi. U Yevropaga qadimgi Eron poytaxti Persepol saroyidan mixxat yozuvlarini olib keldi.

1802-yilda qadimgi yunon va lotin grammatikasi o'qituvchisi, nemis olimi Grotofend mixxat yozuvining 39 ta belgisidan 10 tasini o'qidi. XIX asrning 30-40-yillarida Yaqin Sharqda uzoq yillar ishlagan ingliz harbiysi va diplomati G.Roulingson mixxatlarning o'qilishida katta hissa qo'shdi. U Eronning Hamadon (Midiyaning qadimgi poytaxti Ekbatana) shahri yaqinidan Behistun qoyasida Doro I ning uch tildagi qoyatosh yozuvini tekshirdi. 1947-yilda Roulingson Behustun yozuvining Babil qismidagi 600 belgidan 250 tasini o'qidi. 1855-yilda Behustun yozuvining uchinchi qismi bo'lgan elam tilidagi mixxatlar ham

olimlar tomonidan o'qildi. XIX asrning 90-yillarida nemis olimi F. Delich akkad tilining grammatikasi va lug'atini yaratdi. Olimlar J. Oppenxeym, E. Xinks va boshqalar Mesopotamiyaning Akkad mixxatlarini o'qishga o'z hissalarini qo'shdilar. Shumer mixxat yozuvini o'qish XIX asrning I yarmida F. Tyurgo-Danjan, O. Pepel, A. Daymel va A. Falkenshteynlar tomonidan amalga oshirildi.

6. Arxeologik ma'lumotlar. Qadimgi Mesopotamiyadagi birinchi arxeologik qazishmalar XIX asr o'rtalarida uning shimoliy qismi Osuriya joylashgan joyda amalga oshirildi. 1842-yil Mosul shahridagi fransuz konsuli P.Botta Kunjik tepaligini qazishni boshladi. Bu joy mahalliy afsonalarga ko'ra, Osuriya davlatining poytaxti Nineviya bo'lgan. Ammo tepalikni qazishga mahalliy aholi dushmanlik nazari bilan qaragani uchun natija bermadi, P.Botta bu yerda ishni tugatib, Mosul yaqinidagi Xorsabod qishlogida qazish ishlarini boshladi. Xorsabodda olib borilgan arxeologik qazishmalar o'z natijasini berdi. Bu yerdan 1843-yil Osuriya podshosi Sargon I ning Dur-Sharrukin saroyi qoldiqlari topildi. P.Botta topgan yodgorliklar Luvr muzeyining Osuriya kolleksiyasi asosi bo'ldi.

1845–1847-yillarda sharq tillarini yaxshi bilgan ingliz diplomati G. Leyard Nimrud tepaligi (Kichik Osiyo)da arxeologik qazishma ishlarini boshladi. Qadimgi mualliflar Nineviya aylanasini bilan 84 km ni tashkil qilib, baland devor va qal'alar bilan o'rab olinganini tasdiqlagan edilar. Leyardning qazishmalari Nineviya keng hududga joylashganini tasdiqladi. Osuriya poytaxti Nineviya hisoblangan Kunjik tepaligidan osur podsholari saroyi, bu saroydan ulkan odam-ho'kiz, odam-sheer haykallari topildi. Osuriya podshosi Sinaxxerib (mil.avv. VII asr) saroyi uning nevarasi podsho Ashshurbanipalning loy kitoblar bilan to'la kutubxonasi bilan birga topildi. Leyard topilmalari Londondagi Britaniya muzeyi qadimgi Sharq kolleksiyasining asosi bo'ldi. Leyardning xodimi U. Rassam Kunjik tepaligida qazish ishlarini davom ettirdi va harbiy manzaralar tasvirlangan ajoyib relyefli boy podsho kutubxonasi bilan Ashshurbanipalning saroyi qoldiqlarini topdi. Rassam tomonidan Nimrud yaqinidagi Balavat degan joydan mil.avv. IX asrga oid Osuriya yodgorliklari, jumladan, harbiy yurish va xiroj keltirish tasvirlangan to'rt jez taxta-Balavat darvozasi qoplamasi topildi. Angliyalik o'ymakor usta-xattot Jorj Smit kambag'al oiladan bo'lib, o'ymakorlik, naqshkorlik ustaxonasida usta bo'lgan. U

hech qanday maxsus ma'lumot olmagan. Taniqli sharqshunos G. Roulingson yordami bilan muzeyda xodim bo'lib ishlaydi. Nineviya xarobalariga uch marta uyushtirilgan ekspeditsiyaga boshchilik qildi. U Ashshurbanipal kutubxonasidagi loy taxtachalarda Bilgamish dostonining ayrim parchalarini o'qidi.

Ingliz olimlari tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida qadimgi Shumer shaharlari Uruk, Larsa va Eredu qazib ochildi. XIX asrning oxirida fransuz arxeologlari Shumer shahridagi Lagash va uning hukmdorlarining ko'p sonli haykallari, Gudeaning kumush va alebastr vazalari, «Kalxatlar stelasi», ibodatxonaga xo'jaligini ochdilar.

XX asr boshlarida Amerika ekspeditsiyasi (rahbari Gilbrext) Nippur shahridan saroy, maktab, turar joylar va xo'jalik binolarini topdilar. Shahardagi Enlil ibodatxonasi kutubxonasida 20 ming loy taxtacha bitiklari sof shumer tilida yozilgan. Bu Ashshurbanipal kutubxonasidan yoshi yana 2000 yilga qadimiy bo'lgan kutubxona edi. Nippurda sopol suv quvurlari ham qazib ochildi.

Nemis arxeologi Robert Koldevey 1899–1914 yillar davomida hozirgi Bag'dod shahri yaqinidagi Bobil xarobalarida arxeologik qazishmalarni olib bordi. Arxeolog balandligi 91 metr, aylanasi 91 metr bo'lgan mashhur Bobil minorasi va afsonaviy Bobil osma bog'lari xarobalarini ochdi. Tarixdan ma'lumki, Bobilning mashhur podshosi Navuxodonosor II o'z rafiqasi Midiya malikasi Ametis (Semiramida) uchun osma bog' barpo qiladi. Bobil Midiyaning Osuriyaga qarshi yaqin ittifoqchisi edi. Osma bog'lar Bobil shahrining janubida joylashgan. Osma bog'ning tomonlari 123x120 metrni tashkil etgan. Bog' 100 bo'lim – xonadan iborat bo'lib, poydevori 14 kameradan tashkil topgan edi. Bog'ning devorlari xom g'isht, qamish, sement va bitumdan iborat. Suv nasoslar bilan yuqoriga ko'tarib berilgan. Tapa qavatdagi bog'larda asriy daraxtlarni o'stirish mumkin. Osma bog'ning o'rtasida katta maydon va basseyn bo'lgan. Mil.avv. I asrda geograf Strabon Bobilga borib, osma bog'ning suv ta'minotini tavsiflagan. Bobil Old Osiyodagi Nineviya kabi ulkan shahar bo'lib, Osuriyaning halokatidan so'ng butun Old Osiyoning fan-madaniyat o'chog'i bo'lgan. Bobilning tashqi devorida yuzta bronza darvozasi bo'lgan. 1899–1917-yillarda Bobil shahri xarobalaridan shahar devorlari, Navuxodonosor II (mil.avv. VII asr) saroyi, ishlar darvozasidan boshlangan diniy marosimlar ko'chasi, bosh xudo Marduk ibodatxonasi va ulkan zikkurat

qoldiqlari topildi. Nemis arxeologi V. Andre 1903–1914-yillarda Osuriyaning eng qadimgi poytaxti Ashshur shahrini qazib ochdi. 1933–1939-yillarda fransuz arxeologi Parro Mari shahri qoldiqlarini qazib, bu yerdan podsho Zimrilim saroyi (mil.avv.II ming yillik boshlari), 20 ming loy taxtachadan iborat xo‘jalik-diplomatik hujjatlar arxivini topdi. 1922–1924 yillarda ingliz olimi L.Vulli qadimgi Ur shahri xarobalaridan oy xudosi Nannar, ma’buda Ningal ibodatxonalari, podsho Ur-Nammu mil.avv. III ming yillik oxirida qurgan zikkurat, ilk sulola davrida qurilgan maktab, ustaxona, bozor, uy-joylar, ibodatxona, davlat va xususiy arxivlarini qazib ochdi. Leonard Vulli Ur shahrida ilk Shumer qabristonida «Podsho sag‘analari»ni topdi. Bu yerda odamlarning ommaviy qurbonlik qilish dafn marosimi, oltin va lyapis-lazur (yoqut) dan yasalgan buyumlar topildi. Ingliz arxeologi S.Lengdon Ur shahridan 250 km shimoli-g‘arbda joylashgan shumerlarning Kish shahrini qazib ochdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Dajla va Frot daryosining quyi qismida fransuz arxeologi De Sarzek shumer madaniyatini chuqur o‘rgandi. Sarzek 1877–1888-yillarda shumerlarning Lagash shahrini qazib ochdi. Mashhur shumer yodgorligi «Kaltaxatlar lavhasi»ni, ko‘pgina haykallar, san’at asarlari, bir necha ming loy taxtacha yozuvlarini ham De Sarzek topdi. Amerika arxeologik ekspeditsiyasi diniy, madaniy va siyosiy markaz bo‘lgan Nippur shahrini tadqiq qildi. Shaharda kutubxona bilan xudo Bela ibodatxonasi ochildi. Ibodatxonada topilgan loy taxtachalar matnlari shumer tilida yozilgan. Kutubxonaning qazib ochilgan 80 xonasidan 50 ming matn topilgan.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Yevropa va Amerika tadqiqotchilari bilan birgalikda Iroq olimlari arxeologik izlanishlarda ishtirok eta boshladilar. Iroq olimlari Eredu shahri, Nineviya xarobalaridan podsho Asarxaddon saroyini topdilar. XIX asrning 50-80-yillaridan XX asr boshlarigacha topilgan yodgorliklar yangi ilmiy usullar asosida qayta o‘rganila boshlandi. Shu bilan birga, Mesopotamiyaning jamiyat tarixigacha bo‘lgan paleolit davri (Shanidar manzilgohi mil.avv. XI–VIII ming yillik), neolit (Jarmo manzilgohi mil.avv. VII–VI ming yillik; Xassun manzilgohi mil.avv. VI ming yillikning o‘rtalari va II yarmi) yodgorliklari o‘rganila boshlandi.

XIX asr oxiridan boshlab Mesopotamiya tarixiga oid qator tadqiqotlarni nemis olimlari K. Bekold, B. Maysner, amerika-

lik olimlar A. Almeted, A. L. Oppenxeym e'lon qildilar. Olimlar A. Oppenxeym va Kramaerlar o'zlarining tadqiqotlarida Qadimgi Mesopotamiya sivilizatsiyasining boy mazmun-mohiyatini ochib berdilar. Mesopotamiya tarixining quyidagi yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda: siyosiy tarix va davlat qurilishi; Sharq davlatchiligining o'ziga xos xususiyatlari; qadimgi Mesopotamiya huquqi; madaniyat va diniy e'tiqod etnogenezi, shumerlarning kelib chiqishi va ularning semit tilli xalqlar bilan aloqasi kabilar.

Qadimgi Mesopotamiya tarixining iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlari muammolari yetarlicha o'rganilmagan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida E. Meyerning sikl konsepsiyasi bo'yicha, har qanday sivilizatsiya feodalizmdan boshlanadi, kapitalizm davriga o'tib, ichki qarama-qarshiliklar tufayli halok bo'ladi. Shundan so'ng bu sikl yana takrorlanadi, ya'ni jamiyat yana feodalizmga qaytadi. Shunga asoslangan holda tadqiqotchilarning ayrimlari bu nazariya bo'yicha Sharqda jamiyat abadiy feodalizm holatida turadi degan xulosaga keldilar. Shu sababli XX asr boshlarida nemis olimlari B. Maysner, P. Koshaker asarlarida qadimgi Mesopotamiya jamiyati feodal jamiyat deb baholandi.

Tadqiqotlardagi yana bir kamchilik dalillarni tahlil qilmay, boricha qabul qilish bo'ldi. Ammo keyingi paytlarda ijtimoiy tuzilish, xo'jalikni tashkil etish, shaharlarning shakllanishi va ularning o'rni va roli, hunarmandchilik, savdo, ibodatxona xo'jaligi kabi qator muammolarga bag'ishlangan mukammal tadqiqotlar paydo bo'ldi (A. Falkenshteyn, Oppenxeym, I. Gelba, V. Lemans va boshqalarning asarlari).

Mesopotamiya tarixini o'rganish markazlari dastlab Angliya va Fransiyada tashkil etildi. Keyin esa XIX asrda u Germaniyaga ko'chdi. Yevropada fashizmning paydo bo'lishi ko'pgina olimlarni AQShga ko'chishiga sabab bo'ldi. Bu yerda hozir jahonga mashhur osurshunoslik markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, hozir Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Turkiya va Iroqdagi osurshunoslik markazlari samarali tadqiqotlar olib bormoqda.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ладынин И. А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. «Слово», Эксмо Э. – М.: 2004.
2. Сетон Ллойд. Археология Месопотамии. – М.: 1984.
3. История Древнего Востока: тексты и документы / Под ред. В.И.Кузищина. – М.: 2002.
4. Источниковедение по истории Древнего Востока. Под. ред. Кузищина. – М.: 1984.

Asosiy sanalar

| | |
|--|---|
| Mil.avv. V ming yillik oxiri – mil.avv. IV ming yillikning I yarmida | Mesopotamiyada El-Ubayd madaniyati. |
| Mil.avv. IV–III ming yilliklar | Mesopotamiya janubida shumerlarning paydo bo'lishi. |
| Mil.avv. III–II ming yilliklarning I yarmi | Amoriylar Mesopotamiyada bir necha podsho sulolalariga asos soldi. |
| XVIII asr | Mesopotamiyaga daniyalik olim K. Niburning birinchi ilmiy sayohati. |
| XIX asrning 90-yillari | Nemis olimi F. Delichning akkad tili grammatikasi va lug'atini yaratishi. |
| Mil.avv. III ming yillik | Mesopotamiya shimolida sharqiy semit qabilalari yashagan. |

MESOPOTAMIYADA DAVLAT VA JAMIYATNING PAYDO BO‘LISHI. SHUMER SHAHAR-DAVLATLARI. SHUMER-AKKAD DAVLATI

1. Mesopotamiya sivilizatsiyasi. 2. Shumer shahar-davlatlarining siyosiy tarixi. 3. Akkadning yuksalishi. Sargon davlati. 4. III Ur sulolasi.

1. Mesopotamiya sivilizatsiyasi. Mesopotamiya (yunoncha – «Ikki daryo oralig‘i», Dajla va Frot oralig‘idagi o‘lka) Fors qo‘ltig‘i, Arabiston cho‘li, Suriya, Arman Tavri va Zagros tog‘lari bilan chegaralangan. Hudud Quyi va Yuqori Mesopotamiyaga bo‘linadi. Quyi Mesopotamiyada Old Osiyoning eng unumdor yerlari bor, lekin mineral xomashyo va yog‘och taqchil. Sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik mo‘l-ko‘l hosil olishga imkon yaratdi. Lekin qadimda bu hududda keng miqyosdagi sun‘iy sug‘orish ishlari amalga oshirilishi tuproqning sho‘rlanishi va hosilning pasayishiga olib keldi.

Mil.avv. XI–VIII ming yilliklar (mezolit davri)da Dajla va Frot daryolarining vodiylariga qo‘shni tog‘li hududlarda terimchilik, hayvonlar va o‘simliklarni ilk madaniylashtirish jarayoni boradi. Ilk paxsa binolar paydo bo‘ladi. Bu davrda Zavi-Chemi-Shanidar va Mifat dehqonchilik manzilgohlari mavjud bo‘lgan.

Neolit davrida taraqqiyot sur‘ati kuchayadi. Zagros vodiysida Jarmo madaniyati manzilgohlari paydo bo‘ladi. Mil.avv. VII ming yillik oxiri – VI ming yillik boshlarida Tel-Satto o‘troq manzilgohlari shakllanadi.

Mil.avv. VI ming yillik o‘rtalarida Shimoliy Mesopotamiyada Xassun madaniyati rivojlanadi. Mil.avv. IV ming yillik oxiri – III ming yillik boshlarida Jamdat-Nasr madaniyati davrida mis va qalay mehnat qurollari ishlatila boshlandi.

Mil.avv. IV ming yillikda Mesopotamiyaning janubida shumerlar kelib o‘rnashadi. Mil.avv. III ming yillikda Mesopotamiya janubida shumerlar, Dajla va Frot daryolarining o‘rta oqimida akkad, shimolda xurrit xalqlari jamoa davridan davlat va jamiyatga o‘ta boshladilar. Qo‘shni jamoa urug‘ jamoalari dehqonchilik bilan shug‘ullanib, ma‘lum bir hududlarni egallab, o‘zlarining kichik-kichik davlatlarini tuzdilar. Shimolda yirik shahar markazlari Ashshur, Mari, Nineviya va boshqa sha-

harlar paydo bo'ldi. Mil.avv. III ming yillikning birinchi yarmida Mesopotamiya janubida qator shahar-davlatlar: Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Kish va Lagash paydo bo'ladi. Hunarmandchilik yuqori darajada rivojlanadi. Metallurgiya sanoati birinchi o'ringa chiqib oladi. Metall quyish, kavsharlash, payvandlash usullari o'zlashtiriladi. Savdo hunarmandchilikdan ajralib chiqadi. Jamoada maxsus savdogarlar – tamkarlar faqat tovar ayirboshlash bilan shug'ullana boshlaydilar. Yerni sotish va sotib olish boshlanadi. Qulchilik munosabatlari rivojlanadi. Urushlar qulchilik manbai bo'lgan. Qullar «begona mamlakat erkagi (ayoli)» deb yozilgan ideogrammalar bizgacha yetib kelgan. Qullar xo'jalikning turli sohalarida ishlatilgan. Ibodatxonalarda qul mehnatidan foydalanilgan. Qullar soni podsho, ibodatxona xo'jaligida o'rtacha 100-200 ni tashkil qilgan. Xususiy xo'jalikda 1-3 ta, podsho xo'jaligida bir necha o'n qul bo'lgan. Taxminlarga ko'ra, Lagash davlatida 80-100 ming erkin kishiga 30 ming qul, Shuruppakda 30-40 ming erkin kishiga 2-3 ming qul to'g'ri kelgan.

Qullar 15 sikldan 23 sikl kumushgacha sotilgan (1 sikl – 8 gramm). Shumer jamiyatida qullardan tashqari, o'z yeri bo'lmagan yoki yeridan ajralganlar, boshqa jamoalardan kelganlar, kambag'al oilaning kichik a'zosi, ibodatxonaga bag'ishlangan qaram kishilar ko'p bo'lgan. Bunday qaram kishilar ibodatxona va xususiy xo'jaliklarda qullar qatorida mehnat qilganlar. Ilk sulola davrida Shumer jamiyatining hukmron qatlamini boyib ketgan dehqonlar, urug' oqsoqollari, kohinlar va harbiy boshliqlar tashkil qilgan. Ular yaqin kelajakdagi zodagonlar, amaldorlar, saroy a'yonlari qatlamining ilk vakillari edi. Mayda ishlab chiqaruvchilar qatlamini kichik yer ulushiga ega bo'lgan hududiy va katta oilalarga birlashgan oddiy jamoachilar tashkil qilgan. Shumer jamiyatida yer egaligi ikki qismdan: jamoa va ibodatxona yerlaridan iborat bo'lgan.

Shahar-davlat hokimiyati jamoa homiysi bo'lgan xudo ibodatxonasi atrofida shakllangan. Shu sababli shahar hayotida markaziy o'rinni ibodatxona egallagan. Ilk hokimlar «ensi» (kohin – quruvchi) kohinlardan bo'lgan. Ibodatxonalar xudo mulki hisoblangan yerlarga egalik qilganlar. Bu yerlar bo'linmagan va kohinlar ixtiroyida bo'lgan. Ibodatxonaning bir qism yerlariga qaram kishilar tomonidan ishlov berilgan, bir qismi esa bo'laklarga bo'linib, ijaraga berilgan yoki ibodatxona xizmatchilariga, shuningdek, ibodatxonaga xizmat ko'rsatadigan savdo-

gar-hunarmandlarga xizmatlari uchun foydalanishga berilgan. Ibodatxonaning o'z harbiy qismi bo'lib, ularning ta'minoti ham ibodatxona zimmasida bo'lgan. Ibodatxonaning katta miqdordagi moddiy mablag'lari uzoq davom etadigan diniy bayramlarni tashkil qilishga (bu bayramda shaharning barcha aholisi qatnashgan), boshqa qo'shni shahar-davlatlar bilan mahsulot ayirboshlashga sarflangan. Bir qism mahsulot zaxira sifatida favqulodda vaziyatlar uchun saqlangan. Ibodatxona yer-mulki, uning kirim-chiqimlari qat'iy hisob-kitob qilib borilgan.

Ilk sulola davri (mil.avv. XXVIII – XXVII asrlar)da shahar-davlat tepasida «En» (janob) – oliy kohin turgan. Ehtimol, u saylab qo'yilgan. «En»ning vazifasi kohinlik, ibodatxona ma'muriyatini boshqarish, ibodatxona, shahar qurilishi, sug'orish inshootlarini barpo qilish va shuningdek, jamoa mulki hamda uning iqtisodiyotini boshqarish bo'lgan. Mil.avv. III ming yillik o'rtalarida «En» unvoni o'rniga «Ensi» («kohin – quruvchi» shahar boshqaruvchisi) va «Lugal» («katta odam», «podsho», akkadcha «sharru») paydo bo'ladi.

«Ensi»ning vazifasi sug'orish inshootlari va ibodatxonalar qurishga rahbarlik qilish bo'lgan. Shu sababli u devoriy tasvirlarda ko'pincha boshida qandaydir qurilish materiallari bilan to'ldirilgan savat ko'targan tarzda tasvirlangan. Jamoa va ibodatxonani boshqarish, soliqlar to'plash uning vazifasi edi, ba'zida ibodatxona harbiy qismini boshqargan. «Ensi» vazifasi saylanadigan bo'lib, shu sababli, uning boshqaruvi «navbat» deb atalgan.

«Lugalning» funksiyasi «Ensi»dan obro'liroq va mavqei kattaroq bo'lib, yirik shahar, ba'zida shaharlar birlashmasi hukmdoriga nisbatan aytilgan. Ilk sulola davrida oqsoqollar kengashi va yig'ini hokimni saylagan yoki mansabidan tushirgan. Uning faoliyati ustidan nazorat qilgan, jamoa a'ziligiga qabul qilgan. Hukmdor qoshida maslahat organi bo'lgan. Mulkiy tabaqalanishning kuchayishi natijasida xalq yig'inining mavqei tusha boshlaydi. Hokimning iqtisodiy-siyosiy mavqei o'sib boradi. Endilikda u ayrim muammolarni o'zi mustaqil hal qila boshlaydi. Uning tayanchi kichik harbiy qism bo'lgan.

Ilk Shumer shahar-davlatlari hududi kichik bo'lib, odatda u kichik shahar va yaqin atrofdagi qishloq xo'jalik okrugidan iborat bo'lgan. Eng qadimgi Shumer shahri Eredu hisoblangan. U bilan birga, qadimgi hujjatlarda shimoldagi Sippar, janubdagi Shuruppak tilga olinadi.

Mil.avv. III ming yillik boshlarida Mesopotamiyaning janubi Shumer kichikroq, lekin aholi zich joylashgan hudud bo'lgan. Shumerda yuqori darajada hosil beradigan sug'orma dehqonchilik ko'p sonli aholini yetarli ozuqa bilan ta'minlashi mumkin edi. Uning asosiy markazlari bo'lgan Ur, Uruk, Larsa, Kish, Lagash va Umma shaharlari bir-biridan bir necha km uzoqlikda joylashgan edi. Shahar va uning atrofida dehqonlar, hunarmandlar, kohinlar yashagan. Mil.avv. III ming yillikda Mesopotamiya shahar-davlatlari natural xo'jalikka asoslangan sug'orma dehqonchilik asosida yashagan. Xo'jalikning natural holati, mahsulot ayirboshlashning deyarli yo'qligi, o'zi ishlab chiqargan mahsulotini o'zi ishlatishi, iste'mol mollariga ehtiyojning cheklangani har bir shahar-qishloqni mustaqil yashashiga imkon yaratdi. Faqat ayrim xomashyo chetdan olib kelingan yoki ayirboshlangan.

2. Shumer shahar-davlatlarining siyosiy tarixi. Mil.avv. III ming yillikda Shumer janubida 17 shahar – davlat iqtisodiyotining asosi sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik bo'lib, hunarmandchilik va savdo rivojlangan. Shahar-davlatlar o'rtasida hududda yetakchilik uchun o'zaro raqobat kuchli bo'lgan. Mil.avv. III ming yillik boshlaridan shumerlar jezni o'zlashtira boshladilar. Arxeologlar shu davrdan ilk sulola davrini (mil.avv. 3000–2300-yillar atrofi) belgilaydilar. Shumer an'anasiga ko'ra, mamlakat tarixi «to'fon»gacha va «to'fondan» keyingi davrga bo'linadi. Haqiqatdan ham, mil.avv. 2900-yillar atrofida «to'fon», ya'ni Dajla va Frot daryolarida katta toshqin yuz bergani Quyi Mesopotamiyada olib borilgan arxeologik qazishmalar orqali o'z isbotini topdi.

Bir-biriga yaqin joylashgan ikki-uch shahar kichik bir davlatni tashkil qilishi mumkin edi. Shumer tarixini u yoki bu markazning siyosiy yetakchiligiga qarab, mil.avv. III ming yillikning birinchi yarmi (ilk sulola davri)ni uch bosqichga bo'lish qabul qilingan.

Bu davrda Kish shahri yuksalib, bu shahar davlatda I Kish sulolasi hukmronlik qilgan. Uning hokimlari orasida Shumer afsonalari qahramonlaridan biri Etana ko'zga tashlanadi. Kishning qudrati juda uzoq vaqt xotirada qolib, keyinchalik ko'p hokimlar «Kish lugali» unvonga ega bo'lishga harakat qilganlar. Bu unvonning egasi lugal – «yetakchi» bo'lgan. Kishning hokimlaridan biri Etana (mil.avv. XXVIII asr) to'g'risida epik rivoyat shakllanib, rivoyatda u ilohiy burgutda o'zi uchun «tug'ilish

maysasi»ga ega bo'lish va voris merosxo'r olish uchun osmonga xudolar oldiga ko'tariladi deb hikoya qilinadi (Ilk sulolaning I bosqichi).

Kishning zaiflashuvi Uruk shahar-davlatining yuksalishi bilan boshlangan. Mil.avv. 2600-yillar atrofida Kish shahrining podshosi Aggi Uruk shahrining podshosi Gilgamesh (mashhur doston qahramoni) tomonidan taxtdan tushiriladi. Gilgamesh butun Shumerni birlashtiradi. Rivoyatlarga ko'ra, u xudoning o'g'li bo'lib, o'limidan so'ng xudo sifatida ulug'langan (Ilk sulolaning II bosqichi).

Ilk sulola davrining uchinchi bosqichi (mil.avv. 2550-yillar atrofi)da Urukning yetakchiligi o'rniga o'zining shaxta (yerosti) sag'analari bilan ma'lum bo'lgan Ur sulolasi keladi. Ur shahri Janubiy Mesopotamiyada yetakchilik qila boshlaydi. Bu davrning yirik savdo-hunarmandchilik markazlaridan biri Eshnuna shahri bo'ldi. Ur shahrida podsho hokimiyati kuchaydi. Hukmdorlar uchun hashamatli sag'analar qurila boshladi. Vaqt o'tishi bilan ziddiyatlar kuchayishi natijasida Ur zaiflashib, qo'shni Lagash shahri kuchayib ketdi. Lagash deyarli barcha Shumer shaharlarini bo'ysundirib, Elam ustidan g'alaba qozondi. Lagash hokimi Eanatum (mil.avv. 2450–2425 yillar) Umma shahri hokimi ustidan qozongan g'alabasini «Kalxatlar lavhasi» taxtasida aks ettirdi (Hozir Luvr muzeyida saqlanadi). Mil.avv. XXIV asrda Lagash davlati hududi 2000-2500 kv.kmni, aholisi 150-200 ming kishini tashkil etgan. Lagashda ensi hokimiyati kuchayadi va u Lagash bosh xudosi Ningirsu ibodatxonasi-ning bosh kohini bo'ldi. Uning hokimiyati urug'chilik munosabatlarining yemirilishi, savdo-hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida shahar aholisining turli tabaqalari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ibodatxona xo'jaliklariga ham soliq solindi. Hunarmand va jamoachilardan turli majburiyatlarni o'tash talab qilindi. Daromad solig'i ko'paydi. Lagashda ijtimoiy ziddiyat kuchaydi. Yangi «ensi» Urukagina ijtimoiy ziddiyatlarni bo'shashtirish uchun islohot o'tkazdi. Oliy kohinlar soliqlardan ozod qilindi. Ibodatxonalarning qaram kishilarga natural mahsulot to'lovi miqdori oshirilib, ularning huquqlari kafolatlanadi. Aholidan olinadigan soliq-to'lovlar bir qadar kamaytirildi. Urukagina «Lugal» unvonini qabul qiladi. Ammo ichki ziddiyatlar Lagashni zaiflashtirdi. Lagashning ichki qiyinchiliklaridan foydalangan Umma shahrining epsisi Lugalzagissi Uruk, Ur va Larsa

shahar-davlatlarini bosib oldi. Kish shahri zabt etilishi bilan Lugalzagissi butun Shumerda chorak asr yetakchilik mavqeiga ega bo'ldi. Lugalzagissining davlat hududi O'rtayer dengizdan Fors qo'ltig'igacha (shumercha «Yuqori dengizdan to quyi dengizgacha») cho'zilib ketdi.

3. Akkadning yuksalishi. Sargon davlati. Kish hokimining kichik saroy amaldori, kelib chiqishi quyi tabaqadan bo'lgan Sargon (rivoyatga ko'ra u tashlandiq bo'lgan va keyinchalik Kish hokimi saroyida tarbiyalangan) mil.avv. 2316-yilda hokimiyatga kelib, o'zini «Sharrum-ken» (haqiqiy podsho Sargon – ilmiy adabiyotda) deb e'lon qiladi (mil.avv.2316–2261-yillar). Lugalzagissi podsho hokimiyatini kuchaytirishga urinib, shumer koinlariga suyandi. U o'zi ishg'ol qilgan shumer shahar-davlatlarining o'zboshimchaligini tugata olmadi. Ammo uning 25 yillik hukmronligidan so'ng shimoldagi Akkad davlati butun shumerni bosib oldi. Sargon (mil.avv. 2316–2261-yillar) va uning vorislari 150 yil davomida mamlakatni boshqardilar. Tarixda birinchi marta Sargon 5400 askardan iborat yengil qurollangan muntazam qo'shin tuzdi. Lugalzagissi davrida Kish shahar davlatida sargon ismli (uning asl ismi Sharrukenu bo'lgan) amaldor fitna uyushtirib, Lugalzagissini taxtdan tushirdi. Rivoyatga ko'ra past tabaqadan chiqqan. Yoshligida uni Akku ismli suv tashuvchi boqib oladi. Usta siyosatchi va sarkarda Mesopotamiyaning shimoli va janubini tarixda ilk bor birlashtirib, yagona davlat tuzdi. Umma hokimi Lugalzagissi Sargon bilan uzoq urush olib bordi. Sargon kuchli qo'shin bilan 34 jangdan so'ng butun Shumerni istilo qildi. Sargon o'zining 55 yillik podsholigi davrida butun Mesopotamiyani Akkad davlati qo'l ostiga birlashtirdi. Bundan tashqari, u Kichik Osiyo, Kipr, Suriya, Elam va hatto uzoq Janubiy Erongacha harbiy yurishlar qildi. Sargon davlati hududiga teng keladigan biror-bir davlat Ahmoniylargacha bo'lgan bir yarim ming yil davomida bo'lmadi.

Mesopotamiyadagi oldingi shahar-davlatlardan farq qilgan holda Sargon davlati markazlashgan davlat edi. Sargon va uning vorislari davrida mamlakatda iqtisodiyot, pul-tovar munosabatlari, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik yuksaldi. Podshoning mutlaq hokimiyati urug' zodagonlari va oqsoqollar kengashining kuchli qarshiligiga uchradi. Podsho ularning qarshiligini sindirish, o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun xizmatdagi zodagonlar, amaldorlar, qisman koinlarga tayanib ish ko'rди. Ba'zi shaharlarning merosiy «Ji»

(hokim)lari o'rniga podsho o'z kishilarini tayinladi. Sargon o'zi tashkil etgan muntazam qo'shinga g'amxo'rlik qildi. Qo'shindaagi askarlarga harbiy xizmati uchun yer ulushi ajratib berdi. Qo'shinning qo'llab-quvvatlashi natijasida podsho («Sharrum») ning mutlaq hokimiyati vujudga keldi. Sargon tashkil qilgan davlatda hokimiyat to'la unga tegishli bo'lib, keyin o'g'il va nevaralariga meros bo'lib o'tishi kerak edi.

Shumer shahar-davlatlarining hududi Sargon davlatining viloyatlari bo'lib qoldi. Ularning tepasida turgan ensi yoki lugal podsho noiblari hisoblanar edi. Ibodatxona xo'jaligi va mulklari esa podsho davlat xo'jaligining bir qismi edi. Sargonning qo'lida katta miqdorda iqtisodiy kuch to'planib, uning yordamida ichki isyonlar va faol tashqi siyosat yuritish uchun harbiy qismlarni saqlab turish mumkin bo'ldi.

Podsholar markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun merosiy «ensi»larni o'z o'g'illari bilan almashtirdilar. Merosiy hokimlar oddiy amaldorlar darajasiga tushirildi. Podsho ichki siyosatda kohinlarga suyandi. Kohinlarga ko'plab imtiyozlar berildi. Podsho va uning o'g'illari ibodatxona kohinlari lavozimini bajarganlar. Sargon davrida yangi kanallar qurildi. Sug'orish inshootlari umumdavlat miqyosida rivojlantirildi. Yagona o'lchov va og'irlik o'lchov birliklari joriy qilindi. Akkad Hindiston va Sharqiy Arabiston bilan savdo aloqalarini o'rnatdi. Sargon hukmronligining so'nggi yillarida mamlakatda boshlangan ochlik katta g'alayonlarga olib keldi. Bu g'alayon mil.avv. 2270-yilda uning o'limidan so'ng, kichik o'g'li Rumish tomonidan bostirildi.

Sargonning vorisi Rimush Shumer urug' zodagonlarining markaziy hokimiyatga qarshi ko'targan isyonlarini shafqatsiz bostirdi. Isyonchi shaharlarga qarshi Rimush uch marta yurish qildi. Rimush isyonchi shaharlar Umma va Darning 13 mingga yaqin aholisini qirib tashladi. U ichki siyosatda kohinlarga tayanishga harakat qilib, ularga mo'l-ko'l hadyalar qildi. Ammo Rimush o'z yaqinlarining fitna qurboni bo'ldi. Uning ukasi Manishtushu qator qo'zg'olonlarni bostirishga majbur bo'ldi. U Elamga ikki marta bostirib kirdi. Fors qo'ltig'ining sharqiy qirg'og'i tomon dengiz orqali yurish qildi. U podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun jamoa yerlarini sotib olib, davlat yer zaxirasini kengaytirdi. Podsho xo'jalik tizimining asosini yaratdi. O'n besh yillik hukmronlikdan so'ng, Manishtushu ham yangi saroy fitnasi natijasida o'ldirildi. Taxtga uning o'g'li,

Sargonning nabirasi Naram-Suen (mil.avv. 2236–2200-yillar) oʻtirdi. Naram-Suen ham podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun isyonchi shaharlar, «ensi»lar, urugʻ zodagonlariga qarshi muntazam kurash olib borishga majbur boʻldi. Akkadning yuksalishidan norozi boʻlgan janubdagi shaharlar qoʻzgʻolon koʻtardi. Bu qoʻzgʻolonlar uzoq vaqt davom etib, zoʻrgʻa bostirildi.

Naram-Suen davrida Akkadning yuksalishi kuzatildi. Mesopotamiya shaharlari toʻla Sargon sulolasi hukmi ostiga oʻtgach, Naram-Suen oʻzini «Akkadning qudratli xudosi» deb ulugʻlab, oʻzini relyeflarda ilohiylik ramzi boʻlgan shoxli bosh kiyim bilan tasvirladi. Aholi unga iloh sifatida sajda qilishi lozim edi.

Podsho hokimiyatining mustahkam boʻlishi uchun kuchli qoʻshin, koʻp miqdorda moddiy boyliklar muntazam ravishda zarur edi. Sargon va uning vorislari shimolda Frotning yuqori qismi va Oʻrtayer dengizi qirgʻogʻiga, janubda Elam va Fors qoʻltigʻi qirgʻoqlariga, sharqda Eron togʻlik hududlariga harbiy istilochilik yurishlar olib borganlar. Bu yurishlarning asosiy maqsadi oʻlja olish edi. Naram-Suen Subartu, Elam, Fors qoʻltigʻiga, Zagros togʻlarida lulubeylarga qarshi gʻolibona yurishlar olib boradi. Naram-Suenning yurishlari hozir Luvr muzeyida saqlanayotgan, Naram-Suen stelasi deb nomlangan qizil ohaktosh taxtada tasvirlangan. Taxtada oʻz qoʻshini bilan togʻ choʻqqisiga chiqib borayotgan Naram-Suen zagros togʻlik qabilalarining jangchilaridan birini mahv qilayotgani tasvirlangan. Naram-Suen «Dunyoning toʻrt iqlimi podshosi» unvoniga ega boʻldi va koinat Naram-Suenni «Akkad xudosi» deb tan oldilar.

Naram-Suenning vorisi Sharkalisharri («Barcha podsholar podshosi», mil.avv. 2200–2176-yillar) taxtga oʻtirdi. Uning davrida Akkad davlatining yemirilishi boshlandi. Istilochilik urushlari, haddan tashqari koʻp sarf-xarajatlar va shahar aholisining gʻalayonlari mamlakat iqtisodiyotini izdan chiqardi.

Akkad podsholigining qudratiga Mesopotamiyaga Zagros togʻlaridan bostirib kirgan togʻli qabilalardan boʻlgan qutiylar chek qoʻydi. Boshida Naram-Suen ularni ogʻir janglarda yengib, mamlakatdan haydab chiqargan edi va oʻzi shu urushda halok boʻldi. Ammo qutiylar Naram-Suenning vorislari davrida Sargoniylar hokimiyatining zaiflashganidan foydalanib, yana Mesopotamiyaga bostirib kirdilar. Mamlakat qutiylar tomonidan talon-taroj qilindi. Shumerning mahalliy hokimlari ularga xiroj toʻladilar. Lagash hokimlari qutiylar yordamiga tayanib, boshqa

shaharlar ustidan o'z nazoratlarini o'rnatishga harakat qildilar. Lagashning zo'ravonligi janubiy Mesopotamiyada shahar-davlatlarning noroziligiga uchradi va qutiylardan ozod bo'lish vaqti-da qo'shni shahar-davlatlar tomonidan Lagash shahri shafqatsiz buzib tashlandi.

Qutiylar davrida Lagash hokimi bo'lgan Gudea (mil.avv. 2137–2117-yillar) o'zining yozuvlari va haykallari bilan ma'lum. Uning davrida Ningirsu xudosi ibodatxonasi atrofida yagona ibodatxona xo'jaligi tashkil etilgan. Gudea bu xudo uchun olinadigan maxsus soliq joriy qildi va qurilish majburiyatini kiritdi. Gudea Hind daryosi havzasi viloyatlari bilan savdo qildi va Elam bilan urush olib bordi.

4. III Ur sulolasi. Qutiylar Mesopotamiyada yuz yilga yaqin hukmronlik qilganlar. Qutiylar mil.avv. 2109-yil Ur shahri podshosi Utuxengal tomonidan tor-mor qilindi. Ularning podshosi Tirikkani asir oldi va «Shumer – Akkad podsholigi» tojini kiyib, Shumerni birlashtirdi. Markazlashgan davlat «Shumer – Akkad» podsholigi nomida qayta tiklanib, davlat tili shumer tili bo'ldi. Utuxengalning safdoshi Ur-Nammu taxtni egallab, poytaxtni Ur shahriga ko'chirdi. Ur Nammu sulolasi III Ur sulolasi deb aytiladi. Ur-Nammu (mil.avv. 2106–2094-yillar) va uning o'g'li Shulga (mil.avv. 2093–2046-yillar) davrida Ur, Nippur va Lagashda sug'orish inshootlari qurildi. Mamlakatda siyosiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun qonunlar to'plami tuziladi. Bu qonunlar to'plamidan parchalar yetib kelgan.

Bu davrda ibodatxona – zikkuratlar va podsho sag'analari qurildi. Ur shahrida ulkan zinapoyasimon minora – zikkurat qurilgan. Uning saqlanib qolgan birinchi qavati hajmi 65x43 m, balandligi 10 m edi. Ur devorining balandligi 8 m, qalinligi 24 m bo'lgan. Hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan podsho ustaxonalari ishi yo'lga qo'yildi. Tashqi savdo kengaytirildi. O'lchov birliklari tartibga solindi.

Buzilgan sun'iy sug'orish tizimi to'liq qayta tiklanib, yangi-yangi kanal va to'g'onlar qurildi. Katta hajmdagi chorvachilik, dehqonchilik xo'jaliklari tashkil qilindi. Mesopotamiyada ekin yerlarining katta qismi – ibodatxonalar yerlari davlat qaramog'iga o'tkazilib, yersiz va kam yerli odamlar bu xo'jalikda ishlatilar edi. III sulola davrida asosiy yer zahirasi podsho qo'lida to'plangan. Ulkan davlat xo'jaligi Mesopotamiyaning barcha ibodatxona yerlarini birlashtirib, u markazdan turib boshqarilgan.

Ur shahrining boy arxivida barcha ibodatxona yer-mulklarining batafsil xatlangan hujjatlari saqlanib qolgan. Ibadatxona yerlarida ishchi guruhlar mehnat qilganlar. Ularning ish miqdori qat'iy belgilanib, shunga yarasha mahsulot ulushi olganlar. Ur shahri xarobalaridan topilgan minglab mixxat hujjatlari eng mayda xo'jalik operatsiyalari ustidan qattiq nazorat o'rnatilganidan guvohlik beradi. O'sha davrda podsho oshxonasi uchun hisobdan chiqarilgan ikki kaptar to'g'risidagi mas'ul xodim va nazoratchilar muhri bosilgan mixxat hujjati ma'lum.

Jamoa yerlari xususiy qo'llarda to'plana boshladi. Podsho jamoachi dehqonlarni xonavayron bo'lishi jarayonini sekinlashtirish uchun jamoa yerlari oldi-sotdisini taqiqladi. Ammo yersizlik kuchayib ketdi. Kambag'allarning o'z bolalarini qul qilib sotishi, qarz uchun vaqtincha qul bo'lish odatdagi hol bo'lib qoldi. Qullar ko'payib ketdi. Qul 9-10 sikl turgan. Ijtimoiy tabaqalanish kuchayib bordi. Tabaqalar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni barqaror qilish maqsadida davlat hokimiyati ma'lum bir qonun-qoidalarni joriy qilgan. Shumer-Akkad podsholigining davlat boshqaruvi III Ur sulola davrida qadimgi Sharq podsho hokimiyatining tugallangan shakli edi. Podsholar cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib, «Ur podshosi, Shumer podshosi va Akkad podshosi» unvonlariga, ba'zida «dunyoning to'rt iqlimi podshosi» unvonlariga ega bo'lganlar.

Boshqaruv apparati ko'p sonli amaldorlardan iborat bo'lib, amaldorlar davlat xo'jaligini boshqarishda turli qonun-qoidalar, hujjatlarga asoslandilar. III Ur sulolasining yuz yillik hukmronligi davrida Mesopotamiyaning qolgan 3 ming yillik tarixida mavjud bo'lgan hujjatlarga teng hujjatlarni to'pladilar. Ur Naminu va Shulga qonunlar to'plami, Shulqaning keng vakolatlariga ega podsho sudini joriy etilishi davlat hokimiyatini mustahkamlab, jamiyatni barqaror qilishga qaratilgan.

Shulga faol tashqi siyosat yuritdi. Mamlakat sharqiy chegaralaridagi dushman qutiylarga qarshi urush olib bordi. Ur davlati tarkibiga Mesopotamiya, Suriya, Finikiyaning bir qismi, Zagros tog'lari, undan sharqdagi bir necha hududlar va Elam kirgan. Sulola bu hududlarda o'z hokimiyatini kuch ishlatish, muzokara-keleshuvlar va sulolaviy nikohlar tuzish yo'li bilan ushlab turdi.

Mil.avv. 2025-yil Yuqori Mesopotamiya, Suriya cho'llari, Frot o'rta oqimidagi amoriy qabilalari mamlakatning markaziy hududlariga shiddat bilan hujum boshladi. Urning so'nggi podshosi Ibbesuyen amoriylar hujumini qaytara olmadi. Boshqaruv izdan chiqdi. Ishbu-Erra nomli amaldorlardan biri Issin

shahrida hokimiyatni qoʻlga oldi. Amoriylar butun mamlakatga oʻrnashib olib, Ishbu - Errining hokimiyatini rasman tan oldilar. Elam, subariylar Ibbusuenni asirga olib, Ur bilan janubni egallashga harakat qildilar. Quyi Mesopotamiyani Ishbu - Erra oʻz qoʻli ostida birlashtirdi. Markazlashgan davlat xoʻjaligi tugatildi. Podsho va ibodatxona yerlari saqlanib qoldi, lekin mayda boʻlaklarga boʻlinib, kichik oilalarga tegishli majburiyatlar bilan boʻlib berildi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Крамер С. История начинается с Шумера. – М.: 1965.
2. Дьяконов И.М. Общественный и государственный строй древнего Двуречья. Шумер. – М.: 1959.
3. Козерева Н.В. Сельская округа в государстве Ларса. Вестник древней истории. 1975. №2.
4. Струве В.В. Государство Лагаш. – М.: 1961.
5. Ziyotov Z. Shumerlar va Turon qavmlari. – Toshkent: Mumtoz soʻz.

Asosiy sanalar

| | |
|---|---|
| Mil.avv. VII–V ming yilliklarda | Shimoliy Mesopotamiyaning neolit madaniyatlari: Jarmo, Xassun, Xalaf, El-Ubayd madaniyati. |
| Mil.avv. V ming yillik oxiri – mil.avv. IV ming yillikning boshlari | Urugʻchilik madaniyatining yemirila boshlashi. |
| Mil.avv. IV ming yillikning II yarmi | Shumer sivilizatsiyasining boshlanishi. Ilk Davlatlar. Piktografik yozuv. |
| Mil.avv. IV ming yillik oxiri – avv. III ming yillik boshlari | Jamdat-Nasr madaniyati er. |
| Mil.avv. XXVIII–XXIV asrlar | Ilk sulola davri. Shumer shahar-davlatlarining paydo boʻlishi. Mixxatning yaratilishi. |
| Mil.avv. XXIV–XXII asrlar | Mesopotamiya Akkad hukmronligi ostida. Sargon sulolasi hukmronligi. |
| Mil.avv. 2109-yillar | Qudiyalar Ur podshosi Utexengal tomonidan tor-mor qilindi. III Ur sulolasi hukmronligi boshlandi. |

BOBIL MILODDAN AVVALGI II – I MING YILLIKLARDA

1. Bobilning yuksalishi. 2. Xammurapi qonunlari. Bobilning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti. 3. Bobil kassit sulolasi davrida. 4. Bobil mil.avv. XII asr – mil.avv. VII asrda. Yangi Bobil podsholigi.

1. Bobilning yuksalishi. Iqtisodiy tushkunlik, ko‘chmanchi amoriy qabilalarining hujumi, Ur sulolasining yemirilishi Mesopotamiyada siyosiy tarqoqlikka olib keldi. Amoriy va Akkad davlatlari bir-birlari bilan shafqatsiz urushlar olib bordilar. Mil.avv. III ming yillik oxirida amoriy ko‘chmanchi qabilalaridan birining sardori Naplanum Larsa shahrini kuchli davlatga aylantirdi. Uning vorislari davrida Issin va Ur shaharlari qo‘shib olindi. Mil.avv. 1800-yillar atrofida Mesopotamiya janubidagi Larsa podsholidan tashqari, markaziy Mesopotamiyada Bobil shahri va Eshnunna shahar-davlatlari mavjud edi. Yuqori Mesopotamiya va Mari podsholigini mil.avv. XIX asr oxirida amoriy podsho Shamshi-Adad (1824–1870-yillar atrofida) davlati egallab olgan edi. Bu vaqtda O‘rta Mesopotamiyada amoriylar sulolasi asoschisi, yo‘lboshchi Sumuabum edi.

O‘zaro urushlar shahar-davlatlarni zaiflashtirdi. Larsa shahrini Elam podshosi Aradsin (mil.avv.1833–1822-yillar) bosib oldi. Uning o‘gli Elam hokimi Rimsin (mil.avv. 1822–1763-yillar) kanallar va ibodatxonalar barpo qildi. Rimsin davrida Uruk, Nippur, Issin va Larsa shaharlari Elamga qaram bo‘ldi. Faqat podsho Xammurapi davrida bu shaharlar elamitlar qaramligidan ozod bo‘ldi. Mesopotamiyada davlatlar o‘rtasida hududda o‘z hukmronligini o‘rnatish uchun o‘zaro urushlar uzoq davom etdi. Bu urushlar davomida asta-sekin Mesopotamiyaning markazida strategik jihatdan mudofaa va himoya uchun qulay joyda joylashgan Bobil (Bab-ili – «xudo darvozasi») shahri yuksala boshladi. Bu shaharda I Bobil yoki amoriylar sulolasi hukmronlik qilib, uning boshqaruvi tarixda qadimgi Bobil (mil. avv. 1894–1595-yillar) davri deb nom oldi. Mesopotamiyaning markazida joylashgan Bobil shahrining yangi siyosiy markaz sifatida roli kuchayadi. Ikki daryo oralig‘ining qoq o‘rtasida joylashuvi, barcha sun‘iy sug‘orish inshootlarining va Old Osiyo-

ning quruqlik va daryo yo'llarining tutashgan joyda o'rnashgani Bobilning siyosiy, iqtisodiy markaz bo'lishiga qulay omillar edi.

Bobilning gullab-yashnashi I Bobil sulolasining oltinchi podshosi Xammurapi (mil.avv. 1792–1750-yillar) davriga to'g'ri keladi. Xammurapi dono, uzoqni ko'ra oladigan davlat arbobi, ayyor diplomat, yirik strateg, adolatli qonunshunos va mohir tashkilotchi edi. Xammurapi Bobil uchun foydali bo'lgan ittifoqlar tuzishda mohir diplomat bo'lib, bu ittifoq o'z vazifasini o'tab bo'lgach, tezda undan voz kechgan. Xammurapi dastlab Larsa bilan ittifoq tuzadi va janubda Elamga qaram bo'lgan Ur va Issin shaharlarini bosib oladi. Mari bilan ittifoq tuzib, Eshnunna shahrini bosib oladi. Unga xavfli raqib bo'lgan Elamni 10 yillik urushdan so'ng, Mari podshosi Zimrilim qo'shinlari bilan birlashib, mil.avv. 1764-yilda yanchib tashlaydi. Mari bilan birgalikda sobiq ittifoqchisi Larsani o'ziga bo'ysundirgach, Xammurapi mil.avv. 1759-yil Mari shahrini bosib oladi. Shimolda faqat zaiflashib qolgan Osuriya davlati qoladi. Uning yirik shaharlari Ashshur va Nineviya Bobil hokimiyatini tan oladi.

Xammurapining 42 yillik hukmronligi davrida Bobil kichik shahardan butun Mesopotamiyani birlashtirgan yangi qudratli davlatning poytaxti, Old Osiyoning yirik siyosiy-iqtisodiy va madaniy markaziga aylanadi. Mesopotamiyada yagona markazlashgan davlat tashkil topadi. Davlat boshqaruvini samarali bo'lishi uchun qator tadbirlar amalga oshiriladi. Shu maqsadda Xammurapi mamlakatni ikki qismga: akkad tillarida so'zlashadigan, Shumer-Akkad xudolariga sig'inadigan asosiy hududga va Elam Suzasi, Yuqori Mesopotamiyaning xurrit-amoriy hududlarini o'z ichiga olgan alohida viloyatga bo'ldi.

Xammurapining vorisi Samsuilin (mil.avv. 1749–1712-yillar) davrida Bobilda ichki ziddiyatlar kuchayib, qishloq jamoalari, jangchilar va boshqa soliq to'lovchilarning ahvoli yomonlashadi. Mil.avv. 1742-yilda Mesopotamiyaga shimoliy-sharqdan bu yerda avval noma'lum bo'lgan «kass» etnonimidagi hind-yevropa qabilalari (akkadcha Kassu, zamonaviy fanda kassitlar o'zlarini kasp-kaspiy deb atagan) Gandash nomli yo'l boshchilari bilan bostirib kiradilar. Elam janubda Shumer shaharlariga bostirib kiradi. Sippar va Issin shaharlarida qo'zg'olon ko'tariladi.

Shimoliy-g'arbda yangi Mitanni davlati vujudga keladi. Mitanni davlati Bobilni Kichik Osiyo va Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'iga boradigan yo'llardan to'sib qo'ydi. Bobil davlati va jamiyati o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tushkunlik davriga

kirdi. Mamlakat chuqur ichki ziddiyatlar girdobida qoldi. Bobilning zaifligidan foydalangan Xettlar mil.avv. 1595-yilda Bobilga bostirib kirib, I Bobil sulolasini tugatdilar.

2. Xammurapi qonunlari. Bobilning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti. Amoriylar davrida Bobilning iqtisodiyoti, ijtimoiy-siyosiy tuzumi Xammurapining qonunlar to'plami, uning noib va amaldorlar bilan yozishmalari, xususiy hujjatlar orqali ma'lum.

Qonunlar to'plamining tuzilishi Xammurapining jiddiy siyosiy tadbiri edi. Chunki bu to'plam Bobil davlat hokimiyatini mustahkamlash, bobil jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Qonunlar to'plami kirish, 287 moddadan Iborat qonunlar va xulosani tashkil qilgan uch qismdan iborat.

Xammurapi davrida Bobil iqtisodiyoti asosan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdoga asoslangan, sun'iy sug'orish rivojlangan dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo gullab yashnadi. Qadimgi Bobilda bu davrda ekin yerlari ko'paydi. Bog'dorchilikda xurmo yetishtirish ustivor ahamiyat kasb etdi. Podsho «Xammurapi kanali» deb atalmish katta kanal qurdirgan. G'alla ekinlari, moyli o'simliklardan yuqori hosil olindi. Bunday yutuqlar faqat sun'iy sug'orish tizimini butun mamlakat miqyosida doimo yangilarini qurish va kengaytirish asosida amalga oshirildi. Maxsus amaldorlar katta-kichik kanallarni qurish va ta'mirlashni nazorat qilib turganlar. Mari shahri arxiv hujjatlariga ko'ra, aholining barcha mehnatga qobiliyatli qismi erkin kishilardan tortib qullargacha sug'orish inshootlarini qurish va ta'mirlash majburiyatini o'tagan. Bu majburiyatdan bosh tortganlarga o'lim jazosi berilishi mumkin bo'lgan. Xammurapi qonunlarida maxsus to'rt modda dehqon jamoasining o'z yerida sug'orish inshootlariga befarq qarashiga qarshi qaratilgan. Agar dehqonning yeridan qo'shnilar yeriga suv toshib ketsa, u keltirilgan zararni to'lashga majbur bo'lgan. Agar puli bo'lmasa, o'zi va mol-mulki qo'shniga keltirgan zararni qoplash uchun sotilgan.

Chorvachilik keng miqyosda rivojlangan. Qonunlarda bir necha bor yirik va mayda chorva to'g'risida eslatiladi. Ko'pincha qoramol dala ishlari, xirmon yanchish va yuk tashishga ijaraga berilgan. Hunarmandchilikning xilma-xil sohalari rivojlangan. Qonunda bajarilgan ishga qat'iy baho berilgan va ishning past sifati uchun hunarmand qattiq jazo olgan. Xammurapi qonun-

lar to'plamining 229-moddasida shunday deyiladi: «... quruvchi kishiga uy qurdi va o'z ishini mustahkam qilmadi. U qurgan uy yiqilib, uy egasini o'ldirib qo'ydi. Bu quruvchi o'limga hukm qilinishi lozim». Erkin kishini muvaffaqiyatsiz muolaja qilgan jarrohning barmoqlari chopilgan (218-modda). Butun Mesopotamiyaning yagona Bobil davlatiga birlashuvi savdoning rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratdi. Bobildan g'alla, xurmo, kunjut yog'i, jun va hunarmandchilik buyumlari eksport qilingan. Metall, qurilish toshi va yog'och, qullar va zeb-ziynat buyumlari import qilingan.

Bobilda savdo bilan maxsus savdo agentlari – tamkarlar shug'ullangan. O'z xizmatlari uchun ular yer, bog', uy olganlar va sudxo'rlik bilan ham shug'ullanganlar. Bobil, Nippur, Ur, Larsa kabi yirik shaharlar katta savdo markazlari bo'lgan. Erkin kishi «avelium» (odam) deb atalgan. Qonunlarning barcha moddalarida xususiy mulk himoya qilingan.

Bobil aholisining asosiy qismini xazinaga tushadigan soliqlar to'lovchisi: dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar va mayda mulkdorlar tashkil qilgan. Shu sababli, ularning huquqlari qonun moddalari bilan himoyalangan. Misol uchun, ba'zi moddalar ularni sudxo'rlar zo'ravonligidan himoya qilgan. Sudxo'rga qarz uchun hosilni olish taqiqlangan. Qarz uchun qaramlik 3 yil muddat bilan cheklangan. Kumush uchun qarz foizi 20, g'alla qarzi uchun 33 % bilan cheklangan. Garovga olingan kishiga nisbatan shafqatsiz muomala qilingani uchun qat'iy chora – o'lim jazosi qo'llangan. Bobil jamiyatida erkin kishilardan tashqari mushkenumlar – jamoa bilan aloqasi uzilgan, yeri bo'lmagan kishilar bo'lib («mushkenum» atamasi «pastga egilgan» ma'nosini bildirgan), ular cheklangan fuqarolik huquqiga ega bo'lganlar. Mushkenumlar podsho xo'jaligida ishlaganlar, podshodan yerni shartli olganlar. Mushkenumlarga tan jarohati yetkazilsa, qoidaga ko'ra, pul jarimasi to'langan. Mushkenumni davolash erkin kishiga nisbatan ikki marta arzon bo'lgan. Qonunlarga qaraganda, mushkenumlar pul mablag'i va mulkka egalik qilganlar. Erkin kishiga nisbatan talion huquqi (ko'z uchun ko'z, tish uchun tish) qo'llanilgan.

Bobil jamiyatining eng quyi tabaqasi qullar («vardum») bo'lgan. Qullikning manbasi urushlar, mulkiy tabaqalanish natijasida qarzi uchun qul qilish, otaning patriarxal hokimiyati ostida oila a'zolarining huquqsizligi, otaning farzandlarini garovga berish, qullikka sotish huquqi, ba'zi jinoyatlari uchun qul qilish (misol

uchun, asrandi o'g'ilning o'z ota-onasidan voz kechishi, xotinning isrofgarchiligi, jamoachining sun'iy sug'orish inshootiga loqayd qaragani) va qullarning tabiiy ko'payishi bo'lgan. Bobilda qulchilik o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Qul uncha katta bo'lmagan mulkka ega bo'lishi mumkin bo'lgan. Quldan bo'lgan bolalarga mulk vasiyat qilish mumkin bo'lgan.

Bobil oilasi ota va er hukmron bo'lgan patriarxal oila bo'lgan. Oila nikoh shartnomasi asosida qurilgan va er nikoh sovg'asi, xotin sep keltirgan. Xotin o'z sepiga va erining sovg'asiga o'z huquqini saqlagan. Erining o'limidan so'ng, bolalar balog'at yoshiga yetguncha beva oila mulkiga egalik qilgan. Qonunlar ayolning sog'lig'ini himoya qilgan. Agar ayol eriga yomon muomala qilsa va uning mol-mulkini sovursa, ayol qulga aylantirilgan. U eriga xiyonat qilsa, o'lim jazosiga hukm qilingan. Ajralish va qayta erga chiqish qiyinlashtirilgan. Ota-ona mulkiga «somondan oltingacha egalik qilish» huquqiga o'g'il-qiz ega bo'lgan. Ammo o'g'ilga ko'proq moyillik bildirilgan.

Qadimgi Bobil davlatida podsho hokimiyati mutlaq bo'lgan. Davlat boshida podsho turgan. U diniy qonunchilik, sud va ijroiya hokimiyatiga ega bo'lgan. Podsho yer zaxirasi bepoyon bo'lgan. Bu yerlar ijaraga va xizmati uchun berilgan. Sud hokimiyati mukammal shakllangan. Podsho sudi yetakchi o'rinda turgan. Shuningdek, ibodatxona sudi, jamoa sudi va kvartal sudlari mavjud bo'lgan. Sudyalar kollegiyalarga birlashganlar. Ularga jarchilar, choparlar, kotiblar kabi sud xodimlari bo'sungan.

Moliya-soliq mahkamasi kumush va mahsulot, chorva, hunurmandchilik buyumlari orqali olinadigan soliq yig'ish bilan shug'ullangan. Bobilda harbiy ishga katta ahamiyat berilgan. Qo'shin asosan og'ir va yengil qurollangan jangchi (redum) lardan iborat bo'lgan. Askarlarning huquq-majburiyatlari Xammurapi qonunlar to'plamining 16-moddasida shunday belgilangan: harbiylar xizmatlari uchun yer-mulk olganlar. Qonun askarlarni harbiy boshliqlar zo'ravonligidan himoya qilgan. Ularni asirlikdan qutqarish uchun to'lov belgilangan. Askar oilasi davlat tomonidan moddiy ta'minlangan. Askarlar harbiy qonun-qoidalarga so'zsiz rioya qilishlari kerak bo'lgan. Aks holda ular o'lim jazosiga hukm qilinganlar.

3. Bobil kassit sulolasi davrida. Mil.avv. 1595-yildan Bobilda kassit sulolasining hukmronligi boshlanib, 1155-yilgacha

davom etdi. Bu davr «Oʻrta Bobil davri» deb ataladi. Kassitlar Bobilning yuksak madaniyatini qabul qildilar. Kassit sulolasi faol tashqi siyosat yurita olmadi. Bu davrning qudratli davlatlari Misr, Mitanni, Xetlar podsholigi Old Osiyoda yetakchilik uchun raqobat qildilar, Kassit Bobili iqtisodiy-harbiy jihatdan zaif boʻlib, ular bilan tenglasha olmas edi. Oʻsha davr misr yozuvlari Kassit Bobilining Misr qudratini tan olgani va uning hukmdorlariga sovgʻa-salomlar yuborgani toʻgʻrisida maʼlumot beradi. Buria-Buriash davrida (mil.avv. XV asr oxiri) Misrning vaqtincha zaiflashuvi natijasida Bobil Misrga qarshi Mitanni bilan hamkorlik qildi. Natijada Misr Mitanni bilan tinchlik aloqalarini oʻrnatishga majbur boʻldi. Bobil Mitanni davlatining Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻoqlari hududlariga nisbatan daʼvosini qoʻllab-quvvatladi. Kassitlar sulolasi tashqi siyosatda murosachilik siyosatini olib bordi va oʻzining hukmronligini mustahkamlash uchun vaqti-vaqti bilan qoʻshni davlatlar bilan ittifoq tuzdi. Kassitlar Misrga qarshi xetlarni qoʻllab-quvvatladilar. Xetlar podshosiga Buria-Buriash II ning qizi turmushga uzatilib, sulolaviy nikoh bilan davlatlar oʻrtasidagi munosabatlar mustahkamlanadi. Kassit hukmdorlari mil.avv. XIII asrda xetlar bilan ittifoqlikda osuriyaliklarga qarshi urush olib bordi. Mil.avv. XII asr boshlarida kassit Bobili qulay xalqaro vaziyatdan foydalanib, vaqtinchalik Osuriyani oʻziga qaram qildi. Kassit sulolasining hokimiyati kuchsiz boʻlib, markaziy davlat hokimiyatining joylarga taʼsiri zaif edi. Mamlakat ichida davlat yerlarini oqsuyak-zodagonlarga muntazam tarqatilishi, ularga soliq tushumlarini berilishi xazinani boʻshab qolishiga va podsho obroʻ-eʼtiborining tushib ketishiga sabab boʻldi. Kassitlar davri shaharlarning oʻz-oʻzini boshqaruvi va xususiy mulkchilikning kuchaygan davri boʻlgan. Bobil, Nippur va Sippar shaharlari maʼlum mustaqillikka ega boʻlgan. Frot daryosining oʻng qirgʻogʻidagi Sippar shahri yirik savdo-hunarmandchilik markazi boʻlib, oʻz-oʻzini boshqarish huquqiga ega boʻlgan shahar umumdavlat soliq va majburiyatlardan ozoq qilingan. Shamash ibodatxonasi bosh kohinni boshchiligida oqsoqollar kengashi boshqargan. Ular soliq va majburiyatlardan toʻla ozod qilingan. Bu shaharlar oʻzlarining alohida qoʻshinlariga ega boʻlgan. Shaharlar doimo oʻz hududlarida savdo va hunarmandchilikni rivojlantirdilar. Natijada mamlakat iqtisodiyoti gullab-yashnadi. Savdo-hunarmandchilikning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratildi.

Qishloq xo'jaligida natural holat kuchayib, tovar ishlab-chiqarish kamaydi. Yirik yer egaligi mustahkamlana boshladi. Zodagonlar ko'p hollarda soliq to'lovlaridan podsho farmonlari bilan ozod bo'la boshladi. Bunday farmonlar «qudurru» (Yer egalarining soliq va ma'muriy immunitetlari to'g'risidagi farmon) chegara toshlarida yozib qo'yila boshlanadi.

4. Bobil mil.avv. XII asr – mil.avv. VII asrda. Yangi Bobil podsholigi. Mil.avv. XII asrda kassitlar Bobiliga qo'shni Elam davlati halokatli zarba berdi. Elam bir necha urushlardan so'ng mil.avv. 1150-yillar atrofida kassitlar sulolasi hukmronligini tugatdi. Lekin biroz vaqt o'tib, Navuxodonosor I (mil.avv. 1124–1108-yillar) 2-Issin sulolasi davrida elamliklar Bobildan haydab yuborildi. Elamga Novuxodonosor Osuriya va Elam chegarasidagi der qabilasi yonida shunday zarba berdiki, Elam haqida uch asr (mil.avv. 821- yilgacha) biror-bir matn xabar bermaydi.

Elam ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng Navuxodonosor butun Mesopotamiya ustidan hukmronlik qilishga harakat qildi. Navuxodonosor va uning vorislari «Bobil podshosi Shumer va Akkad podshosi to'rt iqlim podshosi» unvonini oldilar. Poytaxt Issindan Bobilga ko'chirildi. Bobilning keyingi tarixida Dajla, Frot daryolari, Fors qo'ltig'i qirg'og'i va Janubiy Mesopotamiyaning shaharlari oralig'ida joylashgan xaldey qabilalari muhim o'rinni egalladilar. Ular yarim ko'chmanchi chorvador va dehqonlar bo'lgan. Xaldeylar mil.avv. IX asrda Bobilning janubiy qismini bosib oldilar va Bobil madaniyatini qabul qildilar. Bobilning oliy xudosi Mardukka sig'ina boshladilar.

Mil.avv. 729-yilda Bobilni Osuriya bosib oldi. Osuriyaliklar Bobilda mil.avv. VII asrgacha hukmronlik qildilar. Yangi Bobil podsholigining paydo bo'lishi mil.avv. 629-yilga to'g'ri keldi. Lashkarboshi Nabopalasar Bobilda yangi xaldey sulolasiga asos soldi. Navuxodonosor II ning hukmronlik yillari Bobilning gullab-yashnagan (mil.avv. 605–562-yillar) davri bo'ldi.

Bobil ulkan, ulug'vor jamoat inshootlari bunyod qilingan, aholisi gavjum bo'lgan qadimgi Sharqning eng yirik shahariga aylandi. Shahar Frot daryosining ikki qirg'ogida joylashgan bo'lib, uzunligi 123 metr, kengligi 5-6 metr bo'lgan ko'prik bilan birlashtirilgan. Shahar uch qator devor bilan o'ralib, uning aylanasi 8 km ni tashkil qilgan va 100 ta bronza darvozadan shaharga kirilgan. Shaharda ulkan podsho saroyi, sun'iy tepalikda Bobilning muqaddas ibodatxonasi Esagila joylashgan.

Ibodatxonaning har bir tomoni uzunligi 400 metrni tashkil qilgan. Undan janubda balandligi 91 metr boʻlgan yetti qavatli Etemenanki («osmon va yer markazidagi ibodatxona») deb atalgan zikkurat – ibodatxona bunyod qilingan. Katta diniy marosim uchun tantanali yurishlar yoʻli qurilib, uning gʻisht devorlari afsonaviy hayvonlar tasvirlangan rangli sirkor sopollar bilan qoplangan. Eng mashhur inshootlaridan biri boʻlgan maʼbuda Ishtar darvozasi nemis arxeologlari tomonidan qazib ochilgan. Bundan tashqari, afsonaviy Semiramida osma bogʻlari qurilgan. U qadimgi dunyoning yetti moʻjizasidan biri hisoblangan. Bizgacha mil.avv. VII–VI asrlarga oid Bobil tarixi boʻyicha maʼmuriy matnlar, yozuvlar, podsho farmonlari va farmoyishlari yetib kelgan. Bobil toʻgʻrisida ayrim antik mualliflar maʼlumotlari ham mavjud.

Mil.avv. 562-yilda Navuxodonosor II vafot qilgandan soʻng, Bobil zodagonlari va kohinlari davlat siyosatiga faol aralasha boshladilar va oʻzlariga yoqmagani podsholarni almashtirar edilar. Keyingi oʻn ikki yil ichida toʻrt hukmdor almashdi. Mil.avv. 556-yilda kelib chiqishi oromiy boʻlgan Nabonid taxtni egalladi. Ungacha oʻtgan Yangi Bobil podsholari xaldey qabilasidan edi. Nabonid diniy islohot oʻtkazdi. Oliy Bobil xudosi Marduk eʼtiqodi oʻrniga Oy xudosi Sinaga eʼtiqod qilishni birinchi oʻringa qoʻydi. Bu bilan u koʻrinishidan xudo Sinaga eʼtiqod qiladigan koʻp sonli oromiy qabilalarini oʻz atrofiga birlashtirib, oʻzining qudratli hokimiyatini mustahkamlashga harakat qiladi. Lekin Nabonidning diniy islohoti Bobil, Borsippa va Urukda nufuzli qadimgi ibodatxonalar kohinlari bilan ziddiyatga olib keldi.

Mil.avv. 553-yilda Midiya va Fors oʻrtasida urush boshlandi. Midiya podshosi Astiag Xarran shahridan oʻz harbiy qismini chaqirib oldi. Bundan foydalangan Nabonid oʻsha yil bu shaharni bosib oldi va mil.avv. 609-yilda osuriyaliklar bilan urushda buzib tashlangan xudo Sinaning ibodatxonasini qayta tiklashga farmon berdi. Nabonid Markaziy Arabistonning shimoliy qismidagi Teyma viloyatini boʻysundirdi va Teyma vodiysi orqali sahro boʻyicha Misrga boradigan savdo yoʻllarida oʻz nazoratini oʻrnatdi. Bu yoʻl Bobil uchun juda katta ahamiyatga ega edi. Chunki mil.avv. VI asr oʻrtalariga kelib Frot daryosi oʻz oqimini oʻzgartirdi. Natijada Fors qoʻltigʻi gavanlari orqali Ur shahri bilan dengiz savdosini olib borish mumkin boʻlmay qoldi. Nabonid oʻz qarorgohini Teymaga koʻchirib, Bobilni boshqarishni oʻz oʻgʻli Belshar Utsuraga topshirdi.

Nabonid g'arbda faol tashqi siyosat bilan mashg'ul bo'lgan bir paytda Bobilning sharqiy chegaralarida qudratli raqib – Ahmoniyar davlati paydo bo'ldi. Fors podshosi Kayxusrav II bu vaqtga kelib, Midiya, Lidiya va boshqa mamlakatlarni Hindiston-gacha bosib oldi. U istilochilik urushlari olib borishga tayyor, yaxshi qurollangan qo'shinga ega bo'lib, boy va zaiflashib qolgan Bobilga qarshi urushga jadal tayyorlana boshladi. Nabonid Bobilga qaytdi va o'z mamlakati mudofaasini kuchli dushman-ga qarshi tashkil qilishga kirishdi. Ammo Bobilda ichki vaziyat yomonlashdi. Nabonidning xudo Marduk ibodatxonasi kohin-larining qudrati va ta'sirini yo'qotishga urinishi, bu e'tiqod bilan bog'langan diniy bayramlarga loqaydligi qudratli kohinlarni unga nisbatan dushmanligini kuchaytirdi. Naboniddan norozi bo'lgan kohinlar unga yordam bermadilar. Arabiston sahrolari-da ko'p yillik urushlarda holdan toygan Bobil qo'shini o'zlariga nisbatan ko'p marta kuchli bo'lgan fors qo'shinlari hujumini qaytara olmadi.

Bundan tashqari, Kayxusrav Bobildagi kohinlarning noroziligidan ustalik bilan foydalandi va ularni o'z tomoniga og'dirib oldi. Mamlakat forslarning ayg'oqchilari bilan to'lib ketgan edi. Bobil 200 ming kishi yashaydigan, uch qator devor bilan o'ralgan, 100 darvozali – o'sha davr uchun ulkan shahar edi. Forslar qo'qqisdan hujum qilganlari uchun shahar markazida yashaydigan bobilliklar dushman shahar atrofni egallaganini bilmadi. Dushman shaharga kirganda ham hech nimadan xabarsiz bobilliklar qandaydir bayramni beg'amlik bilan nishon-layverdilar. Nabonid poytaxt Bobil mudofaasini uyushtirishga urindi. Lekin mil.avv. 539-yil 12-oktabr kuni forslar qo'shini Bobilga kirdi. Nabonid taslim bo'ldi va Kayxusrav unga marha-mat qilib, Karmaniya viloyatiga noib etib tayinladi. Uning o'g'li Belshar qatl etildi. Kayxusrav Bobildagi yahudiylarga Falas-tinga qaytishga ruxsat berdi. Forslar Misrning kuchayishidan qo'rqdi. Bobil mil.avv. 539-yil oktabr oyida forslar tomonidan bosib olindi va o'z mustaqilligini abadiy yo'qotdi. Bobil mil. avv. 331-yilgacha Ahmoniyar davlati tarkibiga kirdi. Keyin esa makedoniyalik Aleksandr davlatiga, uning yemirilishidan so'ng Salavkiylar davlati tarkibiga kirdi.

Mil.avv. VIII–V asrlarda Bobilda mavjud bo'lgan Egibi va Mu-rashu tadbirkorlik uylarining mixxat hujjatlari bu davrda Bo-bilda tovar-pul munosabatlarining yuqori darajada rivojlangani to'g'risida ma'lumot beradi. Bu vaqtda savdo-sudxo'rlik ish-

larida ixtisoslashgan katta mablag' va moddiy vositalarga ega bo'lgan «tadbirkorlik uylari» mavjud bo'lgan. Ana shunday uylardan biri Egibi uyi Bobilda ko'p sonli mol-mulk, yuzlab qullar, yer va ustaxonalarga ega edi. Bu tadbirkorlik uyining vakillari har kuni katta pul mablag'lari talab qiladigan pul-kredit operatsiyalarini amalga oshirganlar.

So'nggi Bobil jamiyati ijtimoiy tabaqalari quyidagi ko'rinishda bo'lgan:

1. Hududiy jamoa doirasida yer egasi bo'lgan, to'la fuqarolik huquqiga ega odamlar. Ular jamoaning o'z-o'zini boshqaruvida hamda qishloq jamoalari o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilishda ishtirok etganlar. Ko'pgina yer egalari o'z yerlarini ijaraga berib, o'zlari boshqa faoliyat bilan shug'ullanganlar va qishloqda yashamaganlar. Jamoa yeri ulushidam mahrum bo'lish fuqarolik huquqidan mahrum bo'lishga olib kelgan. Shu sababli, kambag'al jamoachilar sudxo'rdan qarz olganlar. Qarzdor garovga qo'ygan mulkidan va u orqali ta'minlangan ijtimoiy mavqeyidan mahrum bo'lmaslik uchun o'zi va oila a'zolarini garovga qo'yishga doimo tayyor bo'lgan.

2. Jamoa yerida o'z yeriga ega bo'lmagan kishilar mahalliy o'z-o'zini boshqarish ishlarida ishtirok etmaganlar. Ular egalik qilgan yer davlatniki bo'lgan. Bunday odamlar «podsho xizmatkorlari» sifatida qaralgan. Uning xizmati nufuzli bo'lib, uni ta'minlashga berilgan mulk yaxshi yashash kafolatini bergan.

3. Yerga biriktirilgan va mehnat majburiyatlarini o'tashga majbur bo'lgan qaram dehqonlar. Ko'pincha ular qandaydir jamoalarga, asosan ibodatxonalariga tegishli ishchilar bo'lgan. Bu toifaning qaramligi merosiy bo'lib, ozod bo'lishlari ehtimoli noma'lum edi. Ular oila bo'lib yashaganlar, avloddan-avlodga mehnatning bir xil turi bilan shug'ullanganlar. Lekin bu odamlar ibodatxonaning mulki deb hisoblanmagan. Shu sababli, qul sifatida oldi-sotdi qilinmaganlar. Ularning fuqarolik huquqlari bo'lmagan.

4. So'nggi Bobil hujjatlarida qullar tilga olinadi. Qullar aholining ko'p qismini tashkil qilmagan, lekin qul mavqeyidagi odamlar kam bo'lmagan. Mamlakatda qul bozorlari mavjud bo'lib, u yerda qullarning bahosi doimo barqaror edi. Qullarga xo'jayinning tamg'asi bosilgan. Qullar podsho va ibodatxonalariga tegishli bo'lgan, lekin ularning ko'pchiligi xususiy kishilarning mulki hisoblangan. Ko'pgina qullar o'z kasbining ustasi bo'lganlar. Xo'jayinlar ularni pul ishlashga yuborgan. Yaxshi

kasb-hunarga ega bo'lgan qulga o'z xo'jaligiga ega bo'lish, uylanish huquqi berilgan va erkin odamlar kabi huquqiy bitimlar tuza olgan. Ba'zi qullar savdo-sudxo'rlik faoliyati bilan shug'ullanib boyib ketganlar. Boyib ketgan qullar o'z qullariga ega bo'lganlar, lekin shu bilan birga, qul mavqeida qolaverganlar.

Hujjatlarda bir necha katta boy qul tadbirkorlar ismlari ma'lum bo'lib, ular o'nlab qullarni bahosiga teng bo'lgan mablag' bo'yicha bir vaqtning o'zida bir necha bitimlarni tuzishlari mumkin bo'lgan. Boy qullar yollanma ishchilardan foydalanганlar. Jumladan, erkin fuqarolarni ham ishlatganlar yoki ularni o'z qarzdorlariga aylantirganlar. Qul o'z xo'jayini bilan ish bo'yicha hamkor sifatida chiqishi va shartnomalar tuzishi mumkin bo'lgan. Hujjatlarga ko'ra, bu davrda qullarning soni ko'paygan. Ibodatxona xo'jaligida yuzlab qullar ishlagan. Boylarning yerlarida 3-5 qul, tadbirkorlik uylarida o'nlab qullar mehnat qilgan. Yirik yer egalari erkin kishilarga va qullarga yerni ijaraga bir xil shartlarda berganlar.

So'nggi Bobil davrida katta va mayda yer egaligi mavjud bo'lgan. Yerlar ulushlarga bo'linib, qullar va erkin kishilarga ijaraga berilgan. Davlat amaldori bo'lgan katta yer egasi boshqaruvchi yollagan yoki yerini bir kishiga, misol uchun, tadbirkor va boy qulga ijaraga bergan. U esa, yerni ulushlarga bo'lib, boshqalarga ijaraga berib, ijara haqini yig'ib olgan (sub ijara). Yollanib ishlaydiganlar, kam yerli yoki yersiz kishilar aholining ko'pchilik qismini tashkil qilgan. Ibodatxonalar ham tovar-pul munosabatlariga tortilgan. Ular yer va qullarni ijaraga berganlar. Mil. avv. I ming yillikda podsho xo'jaligi sezilarli rol o'ynamagan. Podsho yerlari ham ijaraga berilgan. Ibodatxona va xususiy xo'jaliklar yetakchi o'rinni egallagan.

Bobil savdogarlari Old Osiyoning eng boy va tadbirkor savdogarlaridan bo'lgan. Bobil savdogarlari xalqaro savdoda Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i mamlakatlari va Mesopotamiyadan janubiy-sharqda turgan viloyatlar o'rtasida savdoda vositachilik qilganlar. Bobil shahari xalqaro savdo markazi bolib, shaharda o'nlab mamlakatlardan savdogarlar kelgan. Misr, Suriya, Elam va Kichik Osiyo bilan gavjum savdo qilingan. Bobil Ahmoniylar viloyatlariga g'alla, kiyim-kechak, jun va gazlama yetkazib beradigan asosiy markaz bo'lgan. Bobil mustaqilligini yo'qotganidan so'ng, fors davlatining eng boy satrapliklaridan biri bo'lib qoldi. U har yili Ahmoniylar davlati xazinasiga 1000 talant (30 tonna) kumush bilan davlat solig'ini to'lagan. Ahmoniylar bobil

savdogarlariga ko'plab imtiyozlar berdilar. Ular buning evaziga Suza xazinasiga katta miqdorda to'lovlar to'laganlar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Мелларт Дж. Древнейшие цивилизации Ближнего Востока. – М.: 1982.
2. Оппенгейм А.А. Древняя Месопотамия: Портрет погибшей цивилизации. – М.: 1990.
3. Кленгел Брандт. Путешествие в древний Вавилон. – М.: 1979.

Asosiy sanalar

| | |
|---------------------------|---|
| Mil.avv. 1894–1595-yillar | Bobilning yuksalishi. |
| Mil.avv. 1792–1750-yillar | Podsho Xammurapi hukmronligi. Qonunlar to'plamining tuzilishi. |
| Mil.avv. 1595-yil | Xetlar Bobilga bostirib kirdi. I Bobil sulolasi tugatildi. |
| Mil.avv. 1595–1155-yillar | Bobilda kassitlar sulolasining hukmronligi. |
| Mil.avv. 605–562-yillar | Navuxudonosor II ning hukmron- lik yillari. Bobilning gullab-yash- nagan davri. |
| Mil.avv. 626–539-yillar | Bobilning yangidan yuksalishi. Yangi Bobil davlati. |
| Mil.avv. 539-yil | Ahmoniymlarning Bobilni bosib olishi. |

SHUMER-BOBIL MADANIYATI

1. Yozuv. 2. Kutubxona. 3. Maktab. 4. Adabiyot. 5. Din. 6. Ilmiy bilimlar. 7. San'at.

1. Yozuv. Mesopotamiya jahon sivilizatsiyasi va qadimgi shahar madaniyatining ilk o'choqlaridan biri. Mesopotamiya madaniyati bir necha ming yillar davomida rivojlandi hamda qo'shni madaniyatlarga hayotbaxsh ta'sir qildi. Mesopotamiyada ilk bor yozuv, adabiyot, fan, ta'lim tizimi o'z davriga nisbatan mukammal rivojlandi. Ilk xalq og'zaki ijodi, aniq fanlar rivojlandi. Mesopotamiya madaniyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu yerda yaratilgan uyg'un madaniyat jahon sivilizatsiyasining ajralmas bir qismini tashkil etdi. Mesopotamiya madaniyatining yutuq va kashfiyotlari qadimda va o'rta asrlarda boshqa madaniyatlardan va xalqlar tomonidan o'zlashtirilib, dunyo madaniyatining keyingi taraqqiyotiga poydevor bo'lib xizmat qildi.

Bu madaniyatning ilk asoschilaridan biri shumerlar bo'lib, ularning yutuqlarini bobilliklar va osuriyaliklar o'zlashtirib, davom ettirdilar. Mesopotamiya madaniyatining asoslari mil. avv. IV ming yillikda shaharlar paydo bo'lishi bilan boshlandi. Uning uzoq yashash davrida unga xos ichki yaxlitlik, an'analarining merosiyligi, uning unsurlarini ajralmas aloqasi saqlanib qoldi. Mesopotamiya madaniyatining boshlang'ich davri o'ziga xos yozuvning shakllanishi bilan belgilanadi. Keyinchalik bu yozuv mixxatga aylanadi. Mixxat Mesopotamiya sivilizatsiyasining asosiy ildizi bo'lib, uning barcha jihatlarini birlashtirgan an'analarini saqlab qolish imkoniyatini berdi.

Mil.avv. IV–III ming yilliklarda shumer mixxat yozuvi paydo bo'ldi. Shumerlar bu yozuvni sivilizatsiyaga xizmat qildirdilar. Shumer mixxati mil.avv. VII asrgacha Old Osiyoda xalqaro yozuv vazifasini o'tadi. Bu yozuvda huquqiy, siyosiy, xo'jalik va adabiy matnlar yozilgan. Shumer mixxati uzoq vaqt davomida shakllandi. Dastlab shumer yozuvi piktografik shaklda alohida buyumlar, tasvirlar tarzida ifodalangan. Shunday yozuvdan mil.avv. III ming yillikdan boshlab foydalanilgan. Piktografiya juda sodda bo'lib, haqiqiy yozuv emas edi. U so'zlarni ifodalamas edi. Asta-sekin u mixxatga aylandi. Mixxatda 600 belgi bor

edi. Amerika arxeologlari Nippur shahridagi eng qadimgi shumer ibodatxonasini va ibodatxona kutubxonasini topish baxtiga muyassar bo'ldilar. Uning ko'p sonli xonalarida shumer tilida bitilgan matnlar 50 ming loy taxtachalar topildi.

Mil.avv. XXIV asrda ilk batafsil yozilgan Shumer matnlari paydo bo'ldi. Akkad tili Janubiy Mesopotamiyada mil.avv. III ming yillikning ikkinchi yarmida shakllandi. Shumer va akkad tillari bir-biridan ko'pgina so'zlarni o'zlashtirib oldi. Mil.avv. III ming yillikning oxirida dunyo tarixida ilk bor qadimgi shumer-akkad lug'atlari tuzilgan. Dastlab shumer yozuvini, keyinchalik shumer-akkad yozuvini butun Old Osiyo xalqlari o'zlashtirib oldilar.

Akkad tili Old Osiyo xalqaro diplomatiya tiliga aylandi. Qadimgi Mesopotamiyada loy mo'l-ko'l edi. Loy taxtacha yozuv uchun asosiy xomashyo bo'lib xizmat qildi. Taxtacha loydan yasalib, tuzlardan kuydirish yo'li bilan tozalangan. Mesopotamiyada o'rmon bo'lmaganligi sababli, faqat eng muhim matnlar yozilgan loy taxtachalar (podsho yozuvlari, kutubxonada saqlanishi lozim bo'lgan asarlar) kuydirilgan. Qolgan taxtachalar oftobda quritilgan. Odatda, taxtachalar 7-9 sm uzunlikda bo'lgan. Yozuvlar ba'zida tosh va metall taxtachaga ham yozilgan.

Mil.avv. I ming yillikda bobilliklar va osuriyaliklar yozuv uchun teri va chetdan keltirilgan papirusni ishlata boshlaganlar. Shu vaqtning o'zida Mesopotamiyada yog'ochdan qilingan uzun taxtachaga mum surtib, mixxat belgilarini tushirganlar. Mil.avv. VII asrdan boshlab oromiy tili va yozuvi kirib kelgan paytda mixxat yozuvlari sekin-asta unutila boshlandi.

2. Kutubxonalar. Babil va Osuriya madaniyatining eng muhim yutuqlaridan biri kutubxonalar edi. Kutubxonalar saroylar, maktablar, ibodatxonalar va xususiy kishilar tomonidan tashkil etilgan. Shumerda ham kutubxonalar mavjud bo'lgan. Kalxu, Ashshur va boshqa shaharlardagi kutubxonalar mashhur edi. Mil.avv. II ming yillikdan boshlab Ur, Nippur shaharlarida adabiy va ilmiy matnlardan iborat kutubxonalar paydo bo'ldi. Qadimgi Sharqning eng mashhur kutubxonasi Ashshurbani-palning (mil.avv. 669–635 yillar) Nineviya shahrida to'plangan 30.000 taxtachadan iborat kutubxonasi edi. Arxeologik qazishmalar natijasida qadimgi Xarran viloyatidagi Sultontepadan Qurdi-Nergal degan odamning xususiy kutubxonasi topilgan. Bu kutubxonada adabiy asarlarning nusxalari, duo-afsunlar yozilgan taxtachalar, tibbiyot matnlari mavjud edi.

Loy taxtachalarga podsho annallari, muhim tarixiy voqealar xronikasi, qonunlar to'plami, adabiy asarlar va ilmiy matnlar yozilgan. Ashshurbanipal kutubxonasining alohida ilmiy qimmati shundaki, bu kutubxonada dunyoda birinchi marta kitoblar tizimli to'plangan va ma'lum tartibda joylashtirilgan. Ko'pgina kitoblar bir necha nusxada mavjud bo'lgan. Katta matnlar bir xil hajmdagi loy taxtachalarda bayon qilingan. Shunday matnlar qirqdan yuztagacha taxtachaga yozilgan. Har bir taxtachada undan foydalangandan so'ng o'z o'rniga qaytarish imkonini bergan tartib raqamlari qo'yilgan.

Arxivlar. Qadimgi Mesopotamiya arxivlar makoni bo'lgan. Eng qadimgi arxivlar mil.avv. III ming yillikning birinchi choragiga tegishli. Bu davrda arxiv ma'lumotlari yozilgan taxtachalar namlikdan saqlash uchun mumlangan savatlarda saqlangan. Mil.avv. XIX asrga oid Ur shahri arxivi maxsus xonadagi yog'och tokchalarda saqlangan. Mil.avv. XVIII asrga oid boy arxiv Mari podshosi saroyidan, Uruk shahridan mil.avv. VIII–VI asrlarga oid 2500 xo'jalik hujjatlari arxivi topilgan.

3. Maktab. Qadimgi Mesopotamiya shaharlarida ijtimoiy-iqtisodiy tarqqiyot natijasida savdo-hunarmandchilik ehtiyojlari va davlat xizmati savodli odamlarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Mixxat yozuvlarini o'qish ma'lum bir kasbiy tayyorgarlikni talab qildi. Shu sababli, dunyo tarixida ilk maktablar Shumerda paydo bo'lgan. Ilk maktablar ibodatxonalar oldida bo'lib, keyinchalik ulardan tashqarida mavjud bo'lgan. Shumer maktabi «edubba» («taxtachalar uyi») deb atalgan. Maktabning boshida «taxtachalar uyi otasi» turgan. Bir vaqtning o'zida u o'qituvchi vazifasini ham bajargan. Boshqa o'qituvchilar – «katta akalar» hamda nazoratchi – «qamchidan foydalanadigan» o'qituvchilar ham bo'lgan. O'qituvchilar o'quvchilarning ota-onalari bergan mablag' hisobidan kun kechirganlar. Maktabda o'g'il bolalar o'qib, ular «taxtachalar uyi o'g'illari» deb atalgan. Maktabda o'qish uzoq va mashaqqatli bo'lgan. O'quvchilar shumer va akkad tillari, yozuvning murakkab tizimini o'rganishi, adabiy asarlardan nusxa ko'chirish ko'nikmasini olishi, ilohiyotshunoslik, matematika, geografiya, tabiatshunoslik va tibbiyot sohasidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirishlari lozim edi. Maktab o'quvchisining hayoti to'g'risida bizgacha bir necha matnlar, shumer maktablari inshootlari qoldiqlari yetib kelgan. Qadimgi Uruk shahrining mil.avv. IV ming yillik oxiri – III ming yillik

boshlariga tegishli qatlamlari qazib ochilganda birinchi o'quv qo'llanmalari bo'lgan loy taxtachalar topilgan. Shuruppak shahri xarobalaridan mil.avv. III ming yillik o'rtalariga tegishli katta miqdordagi «maktab matnlari» mavjud. Ko'rinishidan keyinchalik maxsus kotiblik maktablari butun mamlakat bo'ylab tarqalgan.

Qadimgi Shumer va keyingi Bobil maktablarida asosan davlat va ibodatxonalar uchun kotiblar tayyorlangan. Maktablar ta'lim va madaniyat o'chog'i bo'lgan. Yuqori sinf o'quvchilari kelajakda tor mutaxassislashuvga qarab, grammatika, astronomiya va matematikadan bilim olganlar. O'zini fanga bag'ishlamoqchi bo'lgan o'quvchi bo'lsa, huquq, astronomiya, tibbiyot va matematikani o'rgangan. Maktabda jismoniy jazo keng qo'llanilgan. Mesopotamiya maktablari o'quvchilarining sinf xonasida fanlarni o'rganish uchun loy taxtachalarda yozgan mashq matnlari hamda maktab sinf xonalari xarobalari qazib ochilgan.

4. Adabiyot. Mesopotamiya dunyo tarixida qadimgi mifologiyaning boy adabiy yodgorliklari topilgan hudud hisoblanaidi. Shumer adabiyotiga oid epik asarlar, afsonalar, madhiya, doston, ertak va maqollar to'plami bizgacha yetib kelgan. Shumer shahrining qo'shni qabilalar hujumlari natijasida halokati to'g'risida ma'lumot beradigan asarlar alohida o'rin tutadi. «Ur shahri aholisining halokati motam yig'isi» (mil.avv. XX asr oxiri) asarida ayollar, qariyalar va bolalarning ochlikdan qiynalishi, yong'indan qolgan uylarda halok bo'lganlarning tafsilotlari batafsil tavsiflangan.

Shumer adabiyotining eng mashhur namunasi afsonaviy qahramon Bilgamesh to'g'risidagi epik afsonalar to'plamidir. Doston tarkibiga To'fon afsonasi ham kiradi. Bu asar akkad tilida qayta ishlangan nusxada to'laroq ko'rinishda Ashshurbanipal kutubxonasidan topilgan. Mil.avv. II ming yillik oxirida Bobilda akkad tilida yozilgan falsafiy mavzudagi «Ha, men donolik ilohini sharaflayman» asari saqlanib qolgan. U aybsiz, mashaqqat chekkan kishining shafqatsiz taqdiri to'g'risida hikoya qiladi.

Shu mavzuga yaqin «Bobil teoditsiyasi» (so'zma-so'z tarjimasi «xudoni oqlash») poemasi mil.avv. IX asrda paydo bo'lgan. Uning muallifi podsho saroyida kohin bo'lib xizmat qilgan Esagil qul Ubbib nomli kishi bo'lgan. Asarda bobilliklarni qiziqtirgan diniy-falsafiy g'oyalar o'z aksini topgan. Mil.avv. X asrga oid

«Qul, menga bo'ysun» asari hayotga umidsizlik ruhida yozilgan. U xo'jayinning o'z quli bilan suhbatini tarzida bayon qilinadi.

Katta badiiy qiymatga ega bo'lgan Osuriya podsholarining annallari osur jangchilari bo'lgan begona davlatlar tabiati to'g'risida ritmik tilda yozilgan. Eng mashhur osur asarlaridan biri Osuriya podsholarining dono kotibi va maslahatchisi Axikar to'g'risidagi qissadir. Qissa to'liqroq holda suriya tilida saqlanib qolgan.

5. Din. Qadimgi Mesopotamiya jamiyatining mafkuraviy hayotida diniy e'tiqod hukmron o'rinni egallagan. Mil.avv. IV–III ming yilliklar chegarasida Shumerda batafsil ishlab chiqilgan, keyinchalik, Bobilda o'zlashtirilib, rivojlantirilgan teologik tizim yuzaga keladi. Har bir Shumer shahri o'z xudo homiysiga ega bo'lgan. Bundan tashqari, barcha shumer shaharlari sig'ingan xudolar bo'lgan. Bu osmon xudosi Anu, yer xudosi Enlil, suv xudosi Enki yoki Ea kabi ilohlar tabiat hodisalari kuchlarini aks ettirgan. Ko'pincha ular koinot jismiga o'xshatilgan. Har bir xudoga alohida vazifa yuklatilgan. Enlil taqdir xudosi, shaharlar asoschisi hamda motiga va omoch kashfiyotchisi; shumer quyosh xudosi Utu (akkad mifologiyasida Shamash); xudo Enlilning o'g'li Ninnar; sevgi va hosildorlik ma'budasi Innana (Bobil va Osuriya panteonida Ishtar); abadiy hayot, tabiat xudosi Dumuzi (Bobilda – Tammuz) keng tarqalgan.

Urush xudosi, kasallik va o'lim xudosi Nergal (Marsen) Mars sayyorasiga o'xshatilgan. Bobil bosh xudosi Marduk – Yupiter sayyorasiga, Nabu (Mardukning o'g'li) donolik, yozuv va hisob xudosi Merkuriy sayyorasiga o'xshatilgan.

Xudolardan tashqari ko'p sonli ezgulik devlariga sig'inilgan. Turli xil kasalliklar sababchisi bo'lgan yovuz devlarni rahmdil qilishga harakat qilganlar. Devlar yarim odam, yarim hayvon tarzida tasvirlangan. Odamlar o'zlarini odam boshli, qanotli ho'kiz sifatida ifodalaganlar. Qanotli ulkan haykallar Osuriya podsholari saroylariga kirish joyini qo'riqlagan.

Shumer va akkadlar u dunyoga ishonganlar. Ularning tasavvurida u dunyo soyalar podsholigi, qaysiki, o'liklar ochlik va chanqoqlikdan qiynaladilar. Loy, chang bilan ovqatlanadilar. Shuning uchun marhumlarning bolalari ularga qurbonlik keltirishga majburdirlar.

6. Ilmiy bilimlar. Qadimgi Mesopotamiyada dunyoni ilmiy bilishda ma'lum yutuqlarga erishildi. Shumerliklar sanoqning oltmishlik tizimini yaratdilar. Uning asosida 1, 60, 600, 3600

sonlari yotar edi. Keyinchalik, o'nlilik tizim – 1, 10, 100 asosida paydo bo'ldi. Mesopotamiyaning qadimgi aholisi arifmetikaning to'rt qoidasi: bo'lish, algebraik tenglamani kvadrat va kub darajasiga ko'tarib, ildiz chiqarib yechishni bilar edilar. Ular geometriyaning asoslari bilan tanish bo'lib, «pi» sonini bilganlar. Aylana uzunligi, aylana maydoni, kesik piramida hajmi, to'g'ri burchakli uchburchakning tomonlari o'rtasidagi nisbatini hisoblashni bilar edilar. Uzunlik va og'irlik o'lchov birliklari ishlab chiqildi. Astronomiya asosida oy kalendari yaratildi. Har bir oy 29 yoki 30 kundan iborat bo'lib, yil 12 oy, 354 kundan iborat bo'lgan. Oy kalendarining quyosh kalendaridan farqi bir yilda 11 kunni tashkil etgan. Shu sababli, har 3 yilda qo'shimcha o'n uchinchi oyni kiritish talab qilindi. Yil mart-aprel oyi («nisan» oyi)dan boshlangan. Mil.avv. III ming yillikda har bir Shumer shahrining o'z kalendari bor edi. Astronomlar quyosh va oy tutilishini bilar, kometa, meteoritlarning paydo bo'lishi, yer qimirlashlarini belgilar edilar. Kun quyoshning chiqishidan emas, botishidan boshlangan. U har biri 2 soatdan bo'lgan 12 qismga bo'linib, har bir kundan yetti kunlik hafta tashkil topgan.

Babil astronomiya va matematikasi mil.avv. V asrda katta yutuqlarga erishdi. Bu vaqtda mashhur astronomiya maktablari Uruk, Sippar, Babil va Borsippada faoliyat ko'rsatdi. Bobilda matematika fanlaridan amaliy maqsadlar uchun foydalanilganlar. Zamonaviy olimlar Babil astronomiyasi taraqqiyotini sinchiklab o'rganib, ularning bu sohadagi bilimlari yunonlarnikiga qaraganda keng bo'lganini etirof etadilar. Qadimdayoq bobilliklar zikkuratlarining yuqori qavatlaridan turib osmon jismlarini muntazam kuzatganlar. Mesopotamiyaning har bir shahrida zikkurat bunyod qilingan. Zikkurat, odatda, mahalliy bosh xudo ibodatxonasi oldida uch-to'rt qavatdan yetti qavatgacha xom g'ishtdan qurilgan minora bo'lgan. Uning yuqori qismini tashqi devori havorang sirlangan g'ishtlar bilan qoplangan bo'lib, bu yerda ziyoratgon joylashgan. Bu xudoning istiqomatgohi bo'lib, xudo tunda bu yerda uxlab dam olgan. Kohinlar bu yerdan turib dehqonchilik uchun taqvim muddatlari bilan bog'langan astronomik kuzatishlar olib borganlar. Ana shu ko'p asrlik kuzatishlari natijasida matematik astronomiya vujudga keldi. Astronomlar yulduzlar o'rtasidagi masofani astronomik hisoblab chiqqanlar. Bobilda ko'p sonli astronomik jadvallar

vujudga kelgan. Shu davrda Bobilda mashhur astronomlar – Naburian (mil.avv. VI asr) va Kiden (mil.avv. IV asr) yashagan. Naburian oy fazalarini aniqlash tizimini ishlab chiqdi. Kiden quyosh yilini 365 kun, 5 soat, 41 daqiqa va 41,6 soniya hisobladi. U yil hisobi davomiyligida bor-yo‘g‘i 7 daqiqa, 17 soniyaga xato qilgan. Astronomiya astrologiya bilan bog‘langan edi. Bobil olimi Beroyes mil.avv. 270-yilda Kos orolida astronomiya maktabini ochdi. Bu maktab orqali yunonlar Bobil matematikasi bilan tanishdilar. Yevropa astronomiyasi uyg‘onish davriga kelib faqat shu darajaga yetdi. Bobil astronomlarining bilimlari yunonlarga qaraganda keng bo‘lgan.

Bizgacha juda ko‘p Bobil tibbiyot matnlari yetib kelgan. Mesopotamiya shifokorlari chiqqan va singan suyak bo‘g‘inlarini davolay olganlar, lekin odamning ichki kasalliklarini davolay olmaganlar. Chunki ular odamning jasadini ochib, ichki a‘zolari o‘rganmaganlar. Tibbiyot duo-afsunlar bilan yaqin bog‘langan. Qadimgi Mesopotamiyada terapevtlar, jarrohlar, akusherlar, veterinarlar bo‘lgan. Ular ko‘p kasalliklarni davolaganlar: ko‘zga tushgan pardani (kataraktani) olganlar, yaralarni ochganlar, singan suyaklarni o‘stirganlar, jigar, oshqozon, ichak kasalliklarini davolaganlar. Kasallik belgilarini aniqlash, tashhiz qo‘yishni bilganlar. Bizgacha tibbiy ma‘lumotnomalar, qo‘llanmalar yetib kelgan. Dori-darmon tayyorlashda o‘simlik, hayvon va minerallardan foydalanilgan.

Mil.avv. III ming yillikdayoq Mesopotamiyaliklar Hindistonga boradigan yo‘lni, mil.avv. I ming yillikda Efiopiya va Ispaniyaga boradigan yo‘lni bilganlar. Bizgacha yetib kelgan geografik xaritalar bobilliklarning o‘z geografik bilimlarini tizimga solishga harakat qilganliklarini ko‘rsatadi.

7. San‘at. Qadimgi Mesopotamiya san‘atining shakllanishi va keyingi taraqqiyotiga shumerlarning badiiy an‘analari hal qiluvchi rol o‘ynadi. Tosh o‘ymakorlik mil.avv. III ming yillik boshlarida shakllandi. Toshga naqshlar o‘yish (gliptika) mil. avv. I asrgacha yuksak darajada rivojlandi. Relyef tasvirlar toshdan ishlanib relyeflarda hayvonlar, jang manzaralari tasvirlangan. Mil.avv. XXIV–XXIII asrlarda Mesopotamiya yagona davlat bo‘lib birlashgan paytda podsholarning ideallashtirilgan portret-tasvirlari paydo bo‘ladi.

Mil.avv. II ming yillik boshlaridan qurbonlik keltirish, saroy hayoti manzaralari tasvirlangan freska san‘ati rivojlandi. Mesopotamiya san‘ati mil.avv. VIII–VII asrlarda Osuriya dav-

latining gullab-yashnagan davrida o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu asosan relyef san'atida o'z aksini topgan. Bu davrda ulug'vor saroy va ibodatxonalar barpo qilina boshladi.

Mil.avv. I ming yillikda Mesopotamiyada yirik savdo-hunarmandchilik madaniyat markazlari bo'lgan katta shaharlar paydo bo'ladi. Mesopotamiyadagi osur podshosi Sinaxxerib tomonidan mil.avv. 705–681-yillarda qurilgan, maydoni bo'yicha Old Osiyoda eng katta shaharlardan biri Osuriya poytaxti Nineviya edi. Shahar 729,7 ga yerni egallab, shaharda 170 ming aholi yashagan. Amerikalik arxeolog K.Tompson 1932-yil Nineviya shahrida podsho Sinaxxerib qurgan, shaharni suv bilan ta'minlaydigan akvedukni qazib topdi.

Mesopotamiyaning eng katta madaniy va savdo-hunarmandchilik markazi Bobil shahri edi. Shahar asrlar davomida shakllanib, ulug'vor inshootlar qurildi. Bobilda 200 ming kishi yashab, shaharda 2 xiyobon, 4 katta shoh ko'cha, 53 ibodatxona va 600 ziyoratgoh bo'lgan. Ayniqsa, Bobil shahri Yangi Bobil podsholigi davrida yuksalib, yangi saroylar, ibodatxona-zikkurat va mudofaa devorlari bunyod qilingan. Mesopotamiya me'morchiligi o'zining ulug'vorligi, ulkan, hashamatli inshootlari bilan ajralib turadi. Me'morchilik san'ati yuksak darajada rivojlangan. Me'morlar sho'rlash, zax va namlikka chidamli mustahkam inshootlarni qurganlar. Yangi Bobil podshosi Navuxodonosor II Bobilni o'tib bo'lmas mustahkam devor bilan o'rab oldi. Navuxodonosor II shunday yozuv qoldirgan: «Men Bobilni sharqdan mustahkam devor bilan o'rab oldim. Men xandaq qazidim va uni yonbag'irlarini asfalt va pishiq g'isht bilan mustahkamladim. Xandaq poydevorida baland va kuchli devor bunyod qildim. Men kedr yog'ochidan keng darvoza yasadim va ularni mis taxtacha bilan qopladim. Yomon niyatni o'ylagan g'animlarni Bobilga yon tomonlardan kirmasliklari uchun men uni dengiz to'lqinlari kabi kuchli suv bilan qurshadim. Men istehkomlarni puxta mustahkamladim va Bobil shahrini qal'aga aylantirdim».

Bobil shahrining tashqi devorlarda 100 bronza darvoza bo'lib, devorlarning qalinligi shunday ediki, devor ustida bir necha jang aravasi bir qatorda yurgan. Frot daryosini Bobil shahri bo'yicha qirg'og'i 30 km ga cho'zilib ketgan, u ko'priklar bilan shaharga qo'shilgan. Shahar devorida 250 jangovor minorada qo'riqchilar turgan. Arxeologik qazishmalar bu fikrni tasdiqlaydi.

Mesopotamiyada shaharlar hukmdorlar tomonidan obodonlashtirilgan. Bobildagi Ishtar darvozasi va unga boradigan tantanalar ko'chasi hashamatli qilib bezatilgan. Darvoza va ko'chalar rangli sopol plitkalar bilan qoplangan. Plitkalardan birida Navuxodonosorning shunday yozuvi saqlangan: «Men Navuxodonosor, Bobil podshosi, Nabopolasarning o'g'li Bobil ko'chasini ulug' Marduk tantanalari uchun Shadudan tosh plitalar to'shadim. Marduk ilohim, bizga abadiy hayot ba'g'ishla». Ishtar darvozasi havorang sirlangan g'ishtlar bilan qoplanib, oq, sariq yo'l va relyef frizi bilan bezatilgan hamda sariq, qizil yo'l bilan sherlarning yurishi tasvirlangan.

Podsho Navuxodonosor II o'z rafiqasi bo'lgan midiyalik malika Ametis (Semiramida) uchun qurgan osma bog'lar (Afsonada malika Semiramida bog'lari) ham Bobil shahrida bo'lgan. Bu inshoot qadimgi dunyoning yetti mo'jzasidan biri hisoblangan. Umumiy maydoni 15 ming kvadrat metrni tashkil etgan ko'p qavatli katta inshoot bo'lib, unda salqin xonalar bo'lgan. Inshoot tomiga gullar, daraxtlar, butalar o'tqazilgan. Osma bog'suv ko'tarib beradigan chig'ir bilan qullar tomonidan aylantirilib sug'orilgan. Bog'ning har bir terassasining maydoni g'ishtdan bo'lib, uni salmoqli tosh ustunlar ko'tarib turgan. G'ishtlar ustiga tosh taxtalar, keyin qalin gips qatlami, qamish va asfalt to'shalgan. Namlikdan qalin qo'rg'oshin taxtalar himoya qilgan. Bu plitalarga to'kilgan tuproqda asriy daraxtlar ildizlarini erkin qo'yishlari mumkin edi. O'simliklar uchun kerakli suv eng yuqori qavatda joylashgan hovuzga Frot daryosidan nasoslar bilan ko'tarib quyilgan.

Osuriya kabi Bobilda ham qanotli ho'kizlar, sherlar (shadu) ning relyef tasvirlari va haykallari yuksak san'at asarlari hisoblanadi. Qanotli ho'kiz va sher haykallari saroylar oldiga qo'yilgan. Ular saroyning homiysi va himoyachisi bo'lgan. Britaniya muzeyida Ashshurbanipalning saroyidagi qanotli sher saqlanadi. Osur podshosi Sargon saroyidan 26 juft ho'kizning alebastr haykali topilgan. Mesopotamiya rassomlari jang manzaralarining tantanali marosim yurishlarini juda yengil tasvirlaydilar. Yovvoyi hayvonlar, xonaki jonivorlar hayotiy – ingichka oyoqli, kishnab turgan otlar kabi yengil, ixcham gavdali itlar tasvirlari jonli aks ettirilgan.

Mesopotamiyada shisha ishlab chiqarish juda erta mil. avv. XVII asrda boshlanadi. Temirdan foydalanish esa kechroq –

mil.avv. XI asrga boshlanadi. Mesopotamiyaning ilmiy bilimlari, san'ati, me'morchiligi, dini, yozuvi va adabiyoti qadimda ko'pgina sharq xalqlari madaniyati ravnaqining o'lchov mezonini bo'lib xizmat qildi.

Mesopotamiya sivilizatsiyasining siyosiy nazariya va amaliyoti, huquq, falsafa, tarixshunoslik sohalarida erishgan yutuqlari boshqa mamlakatlar tomonidan o'zlashtirib olindi. Osuriyada shakllangan ma'muriy tizimni forslar o'zlashtirib oldilar (mamlakatni satrapliklarga bo'lish, satraplikni fuqarolik va harbiy hokimiyatlarga ajratish). Ahmoniylar, keyin esa ellin davri hukmdorlari Mesopotamiya podsholarining saroy rasm-rusumlarini o'zlashtirib oldilar.

Qudratli Osuriyaning oqsuyak-zodagonlari, saroy ahli qimmatbaho qizil rangli zarbof kiyimlar, oltin-kumush, qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan harbiy qurollar, yelpig'ich va soyabon tutgan xizmatkorlar hamrohligida yurganlar. Podshoning o'zi toj kiyib, oq uzun kiyim orqasiga tashlangan ko'k lentalar va qo'lida podsholik ramzi bo'lgan aso bilan fuqarolar ooldiga chiqqan. Podsho oliy kohin vazifasini bajarгани uchun uning kiyimida osuriyaliklar sig'inadigan yulduzlar tasviri bo'lgan.

Qadimgi shumerda harbiy san'at yuqori darajada rivojlangan. Dunyo harbiy san'ati tarixida ilk bor mil.avv. III ming yillikda shumer askarlari yog'ochdan to'rtburchak shakldagi, chetlari qisman mis parchalari bilan hallangan jangchi gavdasini to'la yopadigan to'rtburchakli qalqondan foydalanganlar. Bunday qalqonlar bir-biriga taqab qo'yilib, butun bir askarlar qismini himoya qilgan. Shu tarzda qadimgi davrda ilk falanga yuzaga keldi. Shumer jangchilari dunyo tarixida birinchi bo'lib, jangovar qalpoqlardan foydalanganlar. Mil.avv. III ming yillikka oid mis va oltin qalpoqlar Ur shahri podsho qabrlaridan topilgan. Ayniqsa, Osuriya qurol-yarog'i haqiqiy san'at asari bo'lgan, oliy navli po'lat qilichlar, xanjarlar, qalqon va kamonlar mohirona tayyorlangan. Xanjar taqib yurish nasl-nasabi ulug' ekanidan dalolat bergan. Xanjarlarning sopi hayvon kallasi tasvirida nafis ishlangan.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. От начала начал: Антология шумерской поэзии / Пер. и комм. В.К. Афанасьевой. Спб. 1997.
2. Эпос о Гильгамеше (О все издавшем)/ Пер. и.комм. И.М. Дьяконова. – М., – Л.: 1961.
3. Поэзия и проза Древнего Востока. – М.: 1973. (Библиотека всемирной литературы).
4. Флетчер Н.Д. Культура и искусства двуречья и соседних стран. – М., Л.: 1958.
5. Клочков С. Духовная культура Вавилона. Человек, судьба время. – М.: 1983.

Asosiy sanalar

| | |
|--------------------------|--|
| Mil.avv. XXIV asr | Ilk batafsil yozilgan shumer matnlari paydo bo'ldi. |
| Mil.avv. III ming yillik | So'nggi Shumer-akkad lug'atlari paydo bo'ldi. |
| Mil.avv. XVII asr | Mesopotamiyada shisha ishlab chiqarila boshlandi. |
| Mil.avv. XI asr | Temirdan foydalanila boshlandi |
| Mil.avv. 705–681-yillar | Nineviya shahri qurildi. |
| Mil.avv. VII asr | Oromiy tili va yozuvi kirib keldi. |
| Mil.avv. 669–635-yillar | Ashshurbanipalning hukmronlik yillari Nineviya shahrida 30.000 taxtachadan iborat kutubxona tashkil qilindi. |

III BOB

QADIMGI DAVRDA KICHIK OSIYO

1. Iqlim va aholi. 2. Ibtidoiy jamoa davri. 3. Frigiya. 4. Lidiya. 5. Urartu.

1. Iqlim va aholi. Kichik Osiyo to'rt dengiz (Qora, Marmar, Egey, O'rtayer dengizlari) bilan o'ralib, Yevropadan Bosfor va Dardanell bo'g'ozlari bilan ajralgan. Yarim orolning sharqiy qismi Shimoliy Pont, Tavr va Anti Tavr tog'lari bilan o'ralgan, cho'l yassi tog'ligidan iborat. G'arbiy qismida qulay buxtalar ko'p bo'lgan dengiz qirg'oqlari bor. Tog'lar daryo vodiylari bilan almashib keladi. Yarim orolda kichikroq Galis (hozirgi Qizil irmoq), Germ, Paktol daryolari mavjud. Kichik Osiyoda qayin va kedr daraxtlari mavjud. Tog'larda oltin, kumush, qo'rg'oshin, mis va temir xomashyosi qadimdan qazib olingan. Qurilish xomashyolaridan marmar, tog' billuri, slyuda va obsidian uchraydi. Ko'llardan tuz qazib olingan. Kichik Osiyo Yevropa va Osiyo qit'alari oraliqida joylashgani uchun qadimda hunarmandchilik, savdo etnik migratsiyalar va madaniy aloqalar rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

Bir necha ming yil davomida Qora dengizning ikki bo'g'ozini va Kavkaz dovonlari orqali ko'plab etnoslar Kichik Osiyoga migratsiya qildi va bu yerda o'rtnashib qolishga urindilar. Kichik Osiyoning eng qadimgi aholisi Qora dengiz bo'g'ozlari va Kavkaz tog'laridan kirib kelgan xalqlar xettlarning ilk ajdodlari (nesiylar, luviya, palay), kask yoki kashklar, mil.avv. XIV asrlarda axeylar, keyin friglar, ko'chmanchi kimmeriyalar va Kichik Osiyoning g'arbiy sohillarida yunonlar ko'chib keldilar.

2. Ibtidoiy jamoa davri. Kichik Osiyoning tabiiy sharoitga mos ravishda bu yerda bir vaqtning o'zida o'nga yaqin madaniyatlarning mavjudligidan dalolat beradi.

Kichik Osiyo paleolit davridan o'zlashtirildi. Ilk paleolit ovchilari yarim orolni o'zlashtirib, keyin ibtidoiy dehqonchilik bilan

mashgʻul boʻladilar. Hozirgi Antaliya shahri yonidan mil.avv. X–IX ming yilliklarga oid gʻalla oʻroqlari tishlari topilgan. Mil.avv. VIII–VI ming yilliklarda Kichik Osiyoda paxsa uylardan iborat qoʻrgʻonlarda ovchi va dehqonlar yashaganlar (Xojalar, Chayon, Tapa qatlamlari).

Koniya tekisligida mil.avv. VII–VI ming yilliklarda Chatal-Guyuk madaniyati shakllandi. Bu yerda yuksak rivojlangan dehqonchilik madaniyati boʻlgan. Bu madaniyatga 20 dan ortiq qoʻrgʻonlar tegishli boʻlib, ularning eng kattasi Chatal-Guyuk edi. Chatal Guyuk manzilgohi (13 gektar)da uylar bir xil oʻlchamda, xom gʻishtdan qurilgan. Uylarning tomi tepasida yorugʻlik tushishi uchun tuynuk ochilgan, tomdan ochilgan boshqa tuynuk kirib chiqish uchun eshik vazifasini oʻtagan. Devorga ichki va tashqi tomondan zinapoya qoʻyilgan. Chatal Guyukda bundan 14-15 ming yil oldin qurilgan ibodatxona topilgan. Bu ibodatxonani oʻtroq ovchi-terimchilar qurganlar. Ularning qurollari toshdan boʻlgan. Bu yerda bundan 12 ming yil oldin qurilgan don ombori topilgan. Chatal Guyukda 12 xil oʻsimlik oʻstirilgan, echki, qoʻy boqilgan. Mis va qoʻrgʻoshindan turli buyumlar tayyorlangan. Bu yerda mavjud boʻlgan ibodatxona yuksak injenerlik tafakkuri asosida qurilgan. Quruvchilar geologiya fanidan yaxshi xabardor boʻlgan, ibodatxona quruvchilari richag yordamida balandligi 5 metr, ogʻirligi 4 tonnalik ustunlarni koʻtarganlar, 10 tona ogʻirlikdagi ustunlarga relyef tasvirlar tushirilgan. Ibodatxonaga kiradigan darvoza tosh taxtadan boʻlib, har bir taxtaga odam va hayvon tasvirlari tushirilgan 20 dan ortiq relʼyef tasvirlar mavjud. Ibodatxonada hayvon suyaklari juda koʻp. Odamlar ibodatxonada bayram va marosimlar vaqtida toʻplanganlar.

Chatal Guyukdan 400 km uzoqlikda Shimolda joylashgan Tubekli tepaga Chatal Guyukdagi hoʻkiz, buqa tasviri koʻchib oʻtdi. Tubekli tepa (Turkiya)dan bundan 3 ming yil oldin yasalgan haykal topilgan. Kichik Osiyo qadimdan kichik viloyatlarga boʻlingan: Pifiya, Paflagoniya, Kilikiya, Kappadokiya, Vifiniya, Likiya, Misiya, Frigiya, Lidiya va Luviya. Mil.avv. III ming yillikda Kichik Osiyoda hunarmandchilik savdo markazlari boʻlgan shaharlar paydo boʻldi. Kichik Osiyoda mil.avv. III ming yillikda shahar-davlatlar mavjud boʻlgani toʻgʻrisida Anatóliyadan topilgan loy taxtacha matnlari guvohlik beradi. Matnlar savdogarlarning faoliyati mahalliy Anatóliya davlatlari hokimlari nazorati ostida boʻlganini tasdiqlaydi. Kichik Osiyo hokimlari

tranzit savdoda faol ishtirok etganlar. Hunarmandlar mahalliy mehnat qurollari, mis boltalar, tilla ko'zalar yasaganlar. Hunarmandchilik markazlarida arxeologlar Boltiq bo'yida uchraydigan qahrabo (yantar), Afg'onistondan keltirilgan qimmatbaho tosh – la'l, Misrdan olib kelingan yog'och qutichalarni topganlar. Kichik Osiyodan metall xomashyosi Suriya va Mesopotamiyaga chiqarilgan. Ilk temir xomashyosi mil.avv. XIV asrda bu yerda xetlar tomonidan kashf qilingan. Kichik Osiyoda metallga ishlov berish, zargarlik yuqori darajada rivojlangan, xanjar, qilich va jang boltalari, metall qalpoqlar ishlab chiqarish keng tarqalgan.

3. Frigiya. Mil.avv. XIII asr o'rtalarida Bolqon yarim orollaridan o'zini frig deb atagan qabilalar Kichik Osiyoga kirib keldilar. Hududda mavjud bo'lgan Xett davlati yemirilishida ham Frigiya ma'lum bir rol o'ynagan bo'lishi mumkin. Xetlar hududining bir qismi friglarga o'tgan. Friglar mahalliy etnoslarning bir qismi – qisman mushklar bilan aralashib ketadi, oqibatda osuriyaliklar o'z yozuvlarida Frigiyani «mushklar mamlakati» deb tilga oladi. Yuz yildan keyin boshqa Bolqon qabilasi Qora dengizbo'yi friglari Kichik Osiyoga kelib, bu yerdagi birinchi to'lqin – friglarni qisman assimilatsiya qilib, qisman siqib chiqardi. Yangi etnos friglar Ilion (Troya) shahrini to'la buzib tashladilar. Mil.avv. VIII asr o'rtalarida Frigiya davlati amalda butun Kichik Osiyoni Egey dengizidan Tavr va Urartugacha bosib olib, o'zini gullab-yashnagan davriga kirdi. Frigiyaning poytaxti Sangariya daryosi yoqasidagi Gordion shahri bo'lgan. Shahar Frigiya davlatining asoschisi, kelib chiqishi dehqon bo'lgan Gordion nomiga qo'yilgan. Bu g'isht va toshdan qurilgan, keng darvoza, katta qal'a minoralariga ega kuchli qal'a-shahar bo'lgan. Gordiyning o'g'li – Frigiya podshosi Midas otasi ilk marta shaharga kirgan jang aravasini markaziy maydonga qo'yadi. Otlar qo'shilgan bo'yinturuqqa bog'langan argonlarning tugilgan uchlarini ko'rish mumkin emas edi. Aytishlaricha, kim bu tugunlarni yecha olsa, butun Osiyoning hukmroni bo'lar ekan. Aleksandr tugunni qilich bilan chopib tashlaydi va mana endi tugun yechildi deb xitob qiladi.

Gordiyning o'g'li Midas davrida (mil.avv. 725–696-yillar atrofi) Frigiya o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Mil. avv. 717-yil atrofida Midas qo'shni Tavr va Kilikiyani bo'ysundirdi. Frigiya xalqaro savdo yo'llari kesishgan hududda joylashgan edi. Dehqonchilik, savdo-hunarmandchilik aholining asosiy

mashg'uloti bo'lgan. Davlat hokimiyati aholining keng qatlamlari manfaatini himoya qilib, faol tashqi siyosat olib borgan.

Osuriya mil.avv. XII asrda Frigiyaning Sharqqa yurishini yuqori Frotida to'xtatdi. Frigiya Osuriya bilan raqobat qilib, qo'shni Tabbal va Karxamish davlatlari bilan birga Osuriyaga qarshi kurash olib bordi. Lekin Osuriya o'z raqiblarini yakka tartibda yanchib tashladi. Sargon II yilnomasida Frigiya qarshi g'olibona urush olib borilgani aytiladi. Tog'lik hududdagi jang natijasida osur qo'shinlari 300 qal'a, 10 shaharni egallab, 2400 asir oladilar. Natijada Frigiya Osuriya hokimiyatini tan olib, o'ziga to'laydi. Shu bilan birga, mil.avv. VIII asr oxirida Frigiya g'arbdan yunonlar, Misiya va Vifiniya, sharqdan kimmeriy qabilalari hujum qiladilar. Afsonaga ko'ra urushda Midas yengiladi, o'z joniga suiqasd qiladi. Oqibatda Frigiya podsholigi yemiriladi. Uning hududi Lidiyaga o'tdi, mil.avv. 546-yilda Lidiya bilan birga Frigiya Ahmoniylik davlati tarkibiga kirdi. Mil.avv. V asrning oxiri IV asr boshlarida Frigiya ikki qismga: buyuk Frigiya va Kichik Frigiya bo'lindi.

O'z tarixiy taraqqiyoti davomida Frigiya o'ziga xos madaniyat yaratildi. Frigiyaning moddiy madaniyati, tasviriy san'ati namunalari mavjud. Frigiya ibodatxona va maqbaralarni qoyatoshda bunyod qilish rasm bo'lgan. «Midas maqbarasi» qoyatoshga qurilgan, uning peshtoqi turar-joy ko'rinishida ishlangan. Frigiya san'ati o'ziga xos loy relyeflar, rangli keramika, muhrlar va haykallar tarzida berilgan. Bo'g'oz qoyada ma'buda bilan musiqa asboblarini chalayotgan ikki musiqachi haykallari guruhi topilgan. Frigiya musiqasini sharqiy O'rtayer dengizida yaxshi bilganlar va frigiyaliklarning musiqa asboblaridan foydalanganlar. Frigiyaliklar alfavitli yozuvni yaratdilar, fanda hozirgacha frigiyaliklarning alfavitli yozuvini yunonlar o'zlashtirganligi yoki frigiyaliklar orqali qadimgi sharq xalqlari alfavitini yunonlar olgani faraz qilindi. Yunon mualliflari Gomergacha Frigiya Iliadasini yozgan shoir Daret to'g'risida yozib qoldirganlar. Frigiya ma'budalari Attisa va Buyuk ona Kibela antik madaniyatga kuchli ta'sir o'tkazdilar. Bu ma'budalarga Old Osiyoning boshqa hududlardagi aholi ham e'tiqod qilganlar.

4. Lidiya. Poytaxti Sard bo'lgan Lidiya podsholigi taxminlarga ko'ra, mil.avv. XII asrda Anadoliyada (hozirgi Turkiya hududi) egey-bolqon bosqinlaridan so'ng, xett koloniyalari mahalliy luviya qabilasi bo'lgan meonlar tomonidan tashkil etilgan.

Mil.avv. VIII asrda Lidiya Frigiyaga bo'ysundi. Keyin esa Lidiya mustaqillikka erishdi. Mil.avv. 685-yillar atrofida taxtni podsho navkari Gig (Gug) egallab olib, yangi Mermnad sulolasiga asos soldi. Bu sulola davrida Lidiya buyuk davlat mavqeini oldi. Mil. avv. 675-yildan Lidiya to'la mustaqil bo'ldi. Biroz vaqt o'tmay, Lidiyaga kimmeriylar bostirib kirdi. Lidiya podshosi Gig Osuriyaga yordam so'rab murojaat qildi va Ashshurbanipal (mil. avv. 667-yil) hokimiyatini rasman tan oldi. Osuriya bilan ittifoq bo'lib, kimmeriylar hujumi qaytarildi. Mil.avv. 654-yil Lidiya zaiflashgan Osuriya tarkibidan chiqib, Misr bilan ittifoq tuzdi. Mil. avv. 644-yilda kimmeriylar Sardni bosib oldilar. Gig o'ldirildi, uning vorisi yana Ossuriyaga tobe bo'ldi. Kimmeriylar skiflar tomonidan tor-mor qilindi (mil.avv. 643-yil). Skif-Osuriya urushi (mil.avv. 630-yillar oxiri) Lidiyani mustaqil bo'lishiga imkon yaratdi. Lidiya podsholar Aliat va uning vorisi Krez (mil. avv. 561–547-yillar) davrida Kichik Osiyodagi Paflagoniya, Vifiniya viloyatlari bo'ysundirildi. Lidiya, Galis daryosidan g'arb-dagi Likiyadan tashqari butun Kichik Osiyoni bo'ysundirdi. Lidiya iqtisodiyotida savdo-hunarmandchilik yetakchi o'rin tutgan. Kichik Osiyoning qo'shni hududlar bilan savdosida Lidiya yetakchi o'rin tutgan. Lidiya hokimlari savdo-hunarmandchilikka homiylik qilganlar. Poytaxt Sard shahri Kichik Osiyoda savdo, madaniyat o'chog'i bo'lgan.

Lidiya iqtisodiyotida savdo-hunarmandchilik yetakchi o'rin tutgan. Kichik Osiyoning qo'shni hududlar bilan savdosida Lidiya yetakchi o'rin tutgan. Lidiya hokimlari savdo-hunarmandchilikka homiylik qilganlar. Poytaxt Sard shahri Kichik Osiyoda savdo, madaniyat o'chog'i bo'lgan. Lidiya dunyoda birinchi bo'lib, oltin va kumushning tabiiy qo'shilmasi – elektron (mil.avv. VII asr) tangani zarb qildi. Oltin tanga VI asrda zarb qilindi. Krez davrida savdo-hunarmandchilik gullab-yashnadi. Partol daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan Lidiyaning poytaxti Sard shahri yirik savdo-hunarmandchilik markazi edi. U jun matolar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ammo mil.avv. 547-yilda Krez Sard shahri yonida Kayxusrav boshchiligidagi fors qo'shinlari tomonidan tor-mor qilindi va Lidiya fors davlati tarkibiga kirdi.

Lidiya arxaik harbiy davlat edi. Podsho otliq qo'riqchi va muntazam qo'shinga tayanib, davlatni boshqargan. Podsho oldida zodagonlar kengashi va xalq yig'ini bor edi. Lidiya tarixga musiqa san'ati rivojlangan mamlakat sifatida kirdi.

5. Urartu. Urartu tarixiga oid osur, urartu hujjatlari, podsho yozuvlari mavjud. Shuningdek, oz miqdorda xo'jalik hujjatlari ma'lum. Xurritlarga qarindosh bo'lgan Urartu (Uruatriy) qabilalari mil.avv. 1300-yillar atrofida qabilalar ittifoqiga birlashganlar. Mil. avv. IX asr o'rtalarida bu ittifoq Biayneli («Van»; osurlar Urartu deb atagan) nomli davlatni barpo qildilar. Uning markazi Tushpa bo'lib, Van ko'lining sharqida joylashgan edi.

Urartu davlati taraqqiyotining gullab-yashnagan davri podsho Menua (810–786-yil) va uning vorislari hukmronligi vaqtida (mil.avv. IX asr oxirida), zaiflashgan davri Rusa I podsholigiga to'g'ri keladi. Davlat xo'jaligining asosi sug'orma dehqonchilik bo'lib, ekinzorlarda erkin dehqonlar mehnat qilganlar. Asir qullar ko'p sonli bo'lgan. Ular podsho xo'jaligi, dehqonchilik va hunarmandchilik sohalarida ishlaganlar. Urartuning davlat boshqaruvi podshoning yakka hukmronligiga asoslangan. Podsholarning eng birinchi vazifasi mamlakatni qudratli dushman – Osuriya bosqinidan himoya qilish edi.

Urartu davlati uzoq vaqt Osuriya davlatining bosqiniga uchradi. Osuriyaning ko'p sonli qo'shinlari Urartu qal'a, shaharlarini talon-taroj qildilar. Mil.avv. VIII asr oxirida Urartuning diniy markazi – Musasir Osuriya qo'shinlari tomonidan bosib olingan. Podsholar Argishti va Sarduri II Osuriyaga qarshilik ko'rsatishga harakat qildilar. Ular Osuriyaga qarshi turli koalitsiyalarga kirdilar, lekin Osuriya Kichik Urartuni o'ziga tobe qildi. Bundan tashqari, ko'chmanchi kimmeriyalar Urartu shahar, qishloqlarini taladilar. Zaiflashib qolgan Urartu mil.avv. VI asrda Midiya tomonidan bosib olindi. Urartuning madaniyati va iqtisodi to'g'risida arxeologik qazishmalar boy ma'lumot beradi. Teyshebani (Karmir Bilur), Eribuni (qadimgi Yerevan) va Argishtixinili (podsho Argishti qurgan shahar) shaharlari kuchli fortifikatsiya inshootlari bilan o'rab olingan. Teyshebani qal'asidagi ombor va oziq-ovqat saqlanadigan omborlarda birdaniga 5000 gektarli dala va uzumzorlar hosilini saqlash mumkin edi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ладынин И. А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. «Слово», «ЭксмоЭ». – М.: 2004.
2. Меликашвили Г.А. Урартские клинообразные надписи. – М.: 1960.

Asosiy sanalar

| | |
|-----------------------------|--|
| Mil.avv. XIII asr o'rtalari | Bolqon yarim orolidan frigiya qabilalari Kichik Osiyoga kirib keldi. |
| Mil.avv. 1300-yil | Urartu qabilalari ittifoqi. |
| Mil.avv. IX asr | Urartu davlati vujudga keldi. |
| Mil.avv. 1120-yil atrofi | Frigiyaliklar Ilion shahrini to'la buzib tashladi. |
| Mil.avv. 810–786-yillar | Menua – Urartu gullab yashnagan davr. |
| Mil.avv. 725–696-yillar | Midas davrida Frigiya gullab-yashnadi. |
| Mil.avv. 675-yil | Frigiya davlati quladi. |
| Mil.avv. 685-yil | Lidiyada navkar Gig Mermnad sulolasiga asos soldi. |
| Mil.avv. 667-yil | Lidiya Osuriyaga qaram bo'ldi. |
| Mil.avv. 630-yil | Lidiya mustaqilligini qayta tikladi. |
| Mil.avv. VI asr | Midiya Urartu davlatini bosib oldi. |
| Mil.avv. 547-yil | Lidiya Fors davlati tarkibiga kirdi. |

XETT DAVLATI VA JAMIYATI. MITANNI

1. Xett davlati tarixiy manbalari va tarixnavisligi. 2. Davlat va jamiyatning vujudga kelishi. 3. Yangi Xett podsholigi davrida buyuk Xett davlati (mil.avv. XIV – XII asrlar). 4. Xett davlati harbiy tashkiloti. 5. Xett diplomatiyasi. 6. Yangi Xett podsholigi davrida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar. 7. Xett madaniyati. 8. Mitanni.

1. Xett davlati tarixiy manbalari va tarixnavisligi. Mil.avv. II ming yillikda Kichik Osiyo va unga qo'shni hududlarni o'z tarkibiga olgan qudratli Xett davlati to'g'risida tarixiy ma'lumotlar XX asr boshlarigacha deyarli yo'q darajada edi. Bu vaqtgacha Kichik Osiyo va Shimoliy Suriyada sirli iyeroglif yozuvlar va tasvirlar topilgan edi. 1887-yil tadqiqotchilar Tell-Amarna arxividagi diplomatik yozishmalarda Xett podshosining Misr fir'avniga tengligi (uning birodari) eslatib o'tiladi. Bu kashfiyot Old Osiyoda qadimda yana bir buyuk davlat mavjud bo'lganini ko'rsatadi. 1906-yil nemis olimi Y. G. Vinkler Bo'g'ozqoyada (Turkiya) xetlar poytaxti Xattusi xarobalarida arxeologik qazishmalarga kirishadi. Arxeologik qazishmalar natijasida Yaqin Sharq tillarida bitilgan o'n minglab taxtachalardan iborat arxiv, jumladan, Xett-Misr tinchlik shartnomasining mixxat varianti topiladi. Chex tadqiqotchisi B. Grozniy 1915-yilda chuqur tadqiqotlar natijasida xett tili hind-yevropa tillar oilasiga mansub degan xulosaga keladi. Natijada Xett davlati tarixining o'rganish kuchayib ketadi. Olim A. Getse 1933-yil Xett davlati tarixining umumiy ocherkini yaratdi. Bundan tashqari A. Getse 1933-yilda Kichik Osiyo tarixi umumiy ocherkini chop etadi. Muallif Xett davlatining harbiy va sulola tarixiga asosiy e'tiborini qaratadi. U Xett jamiyatining bir qancha ijtimoiy-siyosiy muassasalari o'xshashligiga (yer-mulk, majburiyatli yer egaligi) asoslanib, xetlarning ijtimoiy tizimini feodal tuzum deb ta'rifladi. Lingvist va arxeologlar Xett madaniyati asoslarini yaratishda protoxetlar, xurrit qabilalari o'rnini ko'rsatadigan dalillarni topdilar.

2. Davlat va jamiyatning vujudga kelishi. Qadimgi Xett podsholigi (mil.avv. XVIII – mil.avv. XVI asrlar). Mil.avv. XX–XVIII asrlarda Kichik Osiyoning sharqida ashshur shahri sav-

dogarlari bir necha savdo koloniyalarini barpo qiladilar. Bu savdo koloniyalari orqali xalqaro savdo olib boriladi. Eng avvalo, metallar va yuqori sifatli gazlamalar savdosi amalga oshiriladi. Bu davrda Sharqiy Kichik Osiyoda xett qabilalari boshqa mahalliy tub joy aholini assimillatsiya qiladilar.

Mil.avv. II ming yillik boshlarida Kichik Osiyoda Nesa (Kanes), Burusxan, Kussar va Xattusi kabi shahar-davlatlar vujudga kela boshlaydi. Kichik Osiyoning bu shahar-davlatlarning ilk birlashuvi natijasida mil.avv. XVIII asrning birinchi yarmida xetlar davlati tashkil topdi. Qussar davlati hokimi Pitxan Nesa shahrini bosib oldi. Pitxanning vorisi Anita o'z qarorgohini Nesa shahriga ko'chirdi. Tez orada Salpa, Xattusi va Burusxan bosib olindi. Anita Nesa shahrini markaz qilib, Qora dengizdan Kichik Osiyodagi Tuz ko'ligacha bo'lgan hududlarni egallab, xetlar davlatini barpo qiladi. Bu davr tarixchilar tomonidan Qadimgi Xett davri (mil.avv. XVIII–XVII asrlar) deb ataldi.

Qadimgi Xetlar davlatida urug' tuzumi qoldiqlari hali kuchli bo'lgan. Xett podsholari o'z hokimiyatlarini xalq kengashlariga tayanib amalga oshirganlar. Qurol ko'tarishga qobiliyatli bo'lgan barcha erkaklar podsho chiqaradigan «pankus» deb ataladigan yig'ilishda muntazam ishtirok etganlar. Zodagonlar davlat boshqaruvida faol qatnashib, o'zlarining kuchli tayanchi bo'lgan zodagonlar kengashi (tuliya) orqali xalq yig'iniga boshchilik qilganlar. Zodagonlardan tashqari, davlat boshqaruvida podsho oilasi: aka-ukalari va boshqa qarindoshlari muhim rol o'ynaganlar.

Qadimgi Xett an'anasiga ko'ra, podshoning vorisi podsho oilasidan tanlangan. Ko'pincha voris tanlashda podshoning jiyanlari, uning opa-singillarining o'g'illariga imtiyoz berilgan. Odatga ko'ra, davlatni ikki hukmdor: podsho va malika boshqargan. Agar podsho vafot etsa, malika o'z unvonini yangi podsho hukmronligi davrida ham saqlab qolgan. Yangi podshoning rafiqasi malika bo'lish uchun sobiq podshoning bevasi – malikaning o'limini kutib turgan.

Anita vafotidan keyin mil.avv. XVII asr oxirida boshqa Xett urug'i hokimiyat tepasiga keladi. Xett davlati asoschilarining birlashtiruvchi siyosatini istilochi va islohotchi podsho Labarna (yoki Tabarna, mil. vv. 1675–1650-yillar atrofida boshqargan) tugallaydi. U istilochilik yurishlarini davom ettirib, Tavr tog' tizmasining shimoliy qismini egallaydi va Shimoliy Qora dengizga chiqadi. Xett davlati chegaralarini «dengizdan-den-

gizgacha» kengaytirdi. Uning ichki va tashqi siyosatidan kuchli ta'sirlangan va tan bergan keyingi vorislari Labarna va uning rafiqasi Tavannanna nomlarini o'zlariga unvon sifatida qabul qildilar.

Labarna mavjud Xett an'alariga zid ravishda o'g'li Xattusilini o'z vorisi deb e'lon qiladi. Xattusili I (mil.avv. 1650 –1625-yillar atrofida) poytaxtni xettlarning sobiq bosh markazi Xattusiga ko'chiradi (Shu voqeadan keyin davlat rasmiy ravishda «Xatti» zamonaviy fanda «Xett» deb atala boshlanadi).

Xattusining vorisi Mursili I (mil.avv. 1625 –1590-yillar atrofida) davrida Xett podsholigida markazlashuv kuchayadi. U davlat hokimiyatini kuchaytirib, mahalliy hokimlarning o'zboshimchiligiga chek qo'yadi. Mursili I g'olibona urushlar olib boradi. U Mesopotamiyadan Finikiyaga boradigan yo'ldagi asosiy savdo markazi bo'lgan Shimoliy Suriyadagi Xalpa shahrini bosib oladi. Mursili I mil.avv. 1595-yilda uzoq Bobilga yurish qilib, Xammurapi sulolasini tugatadi. Podshoning markazlashtirish siyosatidan zodagonlar norozi bo'ladilar. mamlakat ichida keskin vaziyat vujudga keladi. Saroy fitnachilari podsho hokimiyatini kuchayishini istamay, taxt vorisligiga ko'pgina da'vogarlar bo'lishiga imkoniyat beradigan an'analarni saqlab qolishga urinadilar. Oqibatda Mursili I saroy fitnasi qurboni bo'ladi. Xett hukmron tabaqalari ichida o'zaro kelishmovchiliklar boshlanadi.

O'zaro kelishmovchiliklarga Telepin I (mil.avv. 1530–1500-yillar atrofida) chek qo'yadi. Uning davrida faqat podshoning o'g'li taxtga chiqish huquqiga ega bo'ladi. Agar podshoning o'g'illari bo'lmasa, uning singlisining o'g'li va eng so'nggida podshoning kuyovlari taxtga da'vogar bo'lish qoidasi o'rnatiladi. Taxt vorisligining bunday tartibi qat'iy bo'lib, zodagonlar kengashi «pankus»ning taxt vorisligi masalasidagi rolini tugatdi. Ammo qolgan masalalarda «pankus» o'z huquqini saqlab qoladi. Pankusning yuqori pog'onasi bo'lgan «tuliya» hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tuliyaning ruxsatisiz podsho uning biror-bir a'zosi bo'lgan zodagonni qatl qila olmas edi. Agarda tuliyaning ruxsati bilan uning biror a'zosiga podsho tomonidan o'lim jazosi berilgan taqdirda ham podsho aybdorning oilasini ta'qib ostiga olish va mol-mulkini musodara qilish huquqidan mahrum edi. Tadqiqotchilar bu davrni (mil.avv. XVIII – mil.avv. XVI asrlar) qadimgi Xett podsholigi davri deb hisoblaydilar.

Telepin va uning o'g'li hukmronligidan so'ng Xett davlatining inqiroz davri boshlanadi. Bu davr O'rta Xett podsholigi davri

(mil.avv. XV asr) deb nom oladi. Bu davrda Xett podsholigining tashqi va ichki ahvoli yana og'irlashadi. Bir asr davomida Xett davlati va jamiyati go'yoki tushkunlikni boshdan kechiradi.

3. Yangi Xett podsholigi davrida Buyuk Xett davlati (mil. avv. XIV–XII asrlar). Mil.avv. XIV asr boshlarida Old Osiyoda Misr, kassitlar Bobili va Mitanni davlatlari zaiflashib, xalqaro munosabatlarda Xett davlatining kuchayishi uchun qulay shart-sharoit tug'iladi. Mil.avv. 1450-yillar atrofida kelib chiqishi xurrit bo'lgan omadli amaldor taxtni egallab, yangi Xett sulolasiga asos soladi. Yangi sulola podsholari qadimgi Xett buyuk davlatchiligi g'oyalarini qaytarishga da'vo qilib, harbiy-byurokratik monarxiyani tashkil qiladilar. Podsho ilohiylashtirilgan mutlaq hukmdorga aylanadi va o'ziga voris tayinlaydi (Bu voris alohida «Tuxkante» lavozimiga aylanib, bu vazifadagi kishini zarur bo'lganda almashtirish mumkin edi). Endilikda saroy to'ntarishlari isyonga aylanib ketmaydi. Shu vaqtdan boshlab podsho alohida samoviy ilohiylik egasi hisoblanib, «quyoshim» deb ulug'landi.

Mil.avv. XIV asr qulay xalqaro vaziyat xett davlatini faol tashqi siyosat olib borishiga shart-sharoit yaratdi. Xett podsholari ichida eng taniqli diplomat, uzoqni ko'ra oladigan siyosatchi va mohir sarkarda Suppilium I (mil.avv. 1380 –1335-yillar atrofida) davlatning harbiy qudratini oshiradi. U yengil, tez yuradigan jang aravalari bilan qo'shinni ta'minlaydi. Xett shaharlari, ayniqsa, poytaxt Xattusining mudofaa inshootlari mustahkamlanadi. Podsho Suppilium I Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i mayda davlatchalarini va Mitanni davlatini o'ziga bo'ysundiradi. Mitanniga tegishli Suriya viloyatlarini va shaharlarini bosib oladi. Suppilium I o'z kuyovini Mitanni taxtiga o'tqazdi. U Suriyada markazi Karxemish va Xalpa bo'lgan xettlarga qaram davlatlarga asos solib, bu davlatlarning hokimlari etib o'z o'g'illarini tayinlaydi. Bobil va Axey (Miken Yunonistoni) davlatlari Suppilium bilan do'stlik aloqalarini o'rnatishga majbur bo'ladi.

Uning vorisi Mursili II (mil.avv. 1335–1305-yillar atrofida) otasining davlatini to'la hajmda saqlab qoladi, lekin qaram hududlardagi isyonlar, qo'zg'olonlar va boshqa qudratli davlatlarning mamlakat hududiga tazyiqiga qarshi to'xtovsiz urushlar olib borishga majbur bo'ladi. Mursili II Kichik Osiyodagi Janubiy Frigiya va Lidiya, Milavan (Milet) hokimlarini bo'ysundiradi. U an'anaviy raqib Arsava podsholigiga (Kichik Osiyo) qarshi g'olibona yurish qilib, Egey dengizi qirg'og'igacha chiqadi. Ammo

Mursili II podsholigining so'nggi yillarida Misr XIX sulola davrida yanada kuchayadi va Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i uchun Xett davlati bilan yana raqobat boshlaydi. Mil.avv. 1286-yilda Kadesh shahri yonida har ikki tomon uchun hal qiluvchi janglardan biri bo'lib o'tadi. Jangda Misr qo'shinlari yengiladi. Shunga qaramasdan Misr fir'avni, iste'dodli sarkarda Ramzes II yana urushga tayyorlanib, xettlarni Falastin, Finikiya va Suriyaning katta qismidan siqib chiqaradi. Oxir-oqibatda Misr va Xett davlati mil.avv. 1280-yilda tinchlik shartnomasini imzolaydilar. Shartnoma bo'yicha Suriyaning bir qismi, Shimoliy Finikiya Xett davlati ta'siri ostida qoladi. Har ikki davlat o'rtasida savdo aloqalari kuchayadi.

Endilikda Xattusili III kuchayib borayotgan Osuriyaning harbiy tazyiqiga qarshi Bobil bilan ittifoq tuzishga harakat qiladi, lekin Osuriyani Yuqori Mesopotamiyadan siqib chiqara olmaydi. Xett davlati kuchli qo'shinga ega bo'lgan Osuriya tazyiqini qiyinchilik bilan qaytaradi.

So'nggi Xett podsholari Tutxaliya IV va uning ikki o'g'li davrida axeylar, Bolqondan kelgan frigiyaliklarni Kichik Osiyoning g'arbida hujumini zo'rg'a qaytaradilar. Axeylar tormor qilinganidan keyin Kichik Osiyo g'arbidagi Ilion shahri bosib olinadi. So'nggi Xett podshosi Suppilium II Kipr orolini yana qayta bosib oladi. Mil.avv. XII asr oxirida Egey dengizi qirg'oqlari va orollarining etnik jihatdan ola-quroq «dengiz xalqlari» Xett davlatini tor-mor qildilar (mil.avv. 1190-yillar). Shunday qilib, Xett davlati tarix sahnasidan abadiy tushib ketdi. Markazlari Karxemish va Melida bo'lgan so'nggi Xett podsholiklari qoldiqlari mil.avv. VIII asr oxirlarida Osuriya tomonidan tugatildi.

4. Xett davlati harbiy tashkiloti. Xett davlati kuch-qudratining asosi yuqori darajada tashkil etilgan jangovar qo'shin bo'lgan. Xett davlati istilochilik siyosatini muntazam va ko'ngil-lilardan tashkil topgan, yaxshi qurollangan qo'shinga tayanib amalga oshiradi. Harbiy yurishlar asosan bahorda boshlanib, kech kuzda tugagan. Yurishlar o'rtasida muntazam qo'shinlarning bir qismi maxsus harbiy qarorgohlarga joylashtirilgan. Xettlarning chegara shaharlarida maxsus harbiy garnizonlar joylashtirilgan. Qaram davlatlar Xett garnizonlarini ozuqa bilan ta'minlashga majbur bo'lganlar.

Qo'shin asosan og'ir qurollangan piyodalar va jang aravalaridan tuzilgan. Harbiy san'at tarixida xettlar qo'shinda yengil

jang aravalarini birinchi bo'lib qo'llaganlar. Xett jang aravasida ikki ot qo'shilgan bo'lib, arava haydovchi, nayzali jangchi va uni himoya qilib turadigan qalqonbardordan iborat bo'lgan. Xettlarning jang aravalarini harbiy jangda qo'llashi podsho Anitaning qadimgi Xett matnida uchraydi. Matnda Anitaning 1400 piyoda askari va 40 jang aravasi bo'lganligi aytiladi. Kades yonidagi jang to'g'risidagi manbalarda Xett podshosi Muvatalli qo'shinlari taxminan 20 ming piyoda askarlar va 2500 jang aravalaridan tashkil topgani to'g'risida ma'lumot beriladi.

Jang aravalari yuqori darajada texnik mohirlik bilan yasalgan bo'lib, juda qimmat turgan. Ularni yasash uchun yog'ochning alohida navlari, teri va metallar talab qilingan. Ko'rinishidan jang aravalarini ishlab chiqarish markazlashgan holda davlatning maxsus ustaxonalarida tashkil qilingan. Ustalar uchun jang aravalarini yasash bo'yicha Xett podsholarining yo'riqnomalari saqlanib qolgan. Jang aravalariga qo'shiladigan otlarni tayyorlashning maxsus usullari bo'lgan. Xettlar jang aravasini takomillashtirib, uni yengil va chaqqon harakat qiladigan qildilar. Xettlar shaharlarni bosib olish uchun maxsus qamal qurollaridan foydalanganlar.

5. Xett diplomatiyasi. Xettlarning tashqi siyosatida diplomatiya muhim o'rin tutgan. Ular Kichik Osiyo va Old Osiyoning ko'p davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatganlar. Bu aloqalar ko'p hollarda maxsus shartnomalar bilan mustahkamlangan. Xett arxivlarida Old Osiyoning boshqa mamlakatlari arxivlariga qaraganda, bir necha marta ko'p miqdorda diplomatik hujjatlar saqlanib qolgan. Xettlar boshqa mamlakatlar bilan davriy ravishda elchilar orqali maktublar, sovg'a-salomlar almashib turganlar. Davlatlar o'rtasidagi aloqalar sulolaviy nikoh shartnomalari bilan mustahkamlangan.

Podsho devonxonasida xalqaro aloqalarga maxsus muassasa rahbarlik qilgan. Bu yerda elchilar, tarjimonlar, mirzolar ishlagan va shartnomalar matnlari tuzilgan. Shartnomalar, odatda, ikki tilda: biri xett tili, ikkinchisi akkat tilida tuzilgan. Davlatlararo shartnomalar matnlari podsho oldidagi kengashda muhokama qilingan. Shartnomalarga podsholar muhrlari tushirilgan. Matnlar loy, metall (kumush, jez, temir) taxtachalarga bitilgan. Shartnomalar matnlari yozilgan taxtachalar mamlakatning oliy xudolari haykallari oldida saqlangan. Chunki xudolar shartnomaning bosh guvohlari sifatida kim uni buzsa, jazolash huquqiga ega bo'lganlar.

Xettlarning xalqaro shartnomalarining ko'pchiligida Xett qo'shinlarining harbiy g'alabalari mustahkamlangan. Shu sababli, ularda ko'p hollarda tomonlarning o'zaro munosabatlari teng huquqda bo'lmagani ko'rinadi. Xett podsholari ko'pincha qaram davlatni o'lpon to'lashga majbur qilganlar. O'lpon to'lovchilar har yili Xett podshosi oldiga kelishga, qaram davlat hududida joylashtirilgan Xett garnizonlariga g'amxo'rlik qilishga, birinchi chaqiriq bilan Xett hukmdoriga qo'shin bilan yordamga kelishga majbur qilinganlar.

Qaram davlat har yili (ba'zida yilida uch marta) shartnomani o'qishga majbur bo'lgan. Qaram mamlakat hukmdorining o'g'illari, nevaralari va evaralari shartnomaga rioya qilishlari shart qilib qo'yilgan. Xett diplomatik amaliyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri xettlarning sulolaviy nikohlariga jiddiy e'tibor berganlaridir. Xett podsholari o'z qizlari va opa-singillarini boshqa podsholarning nikohiga berishga harakat qilganlar. Bu nikohlar har ikki tomonning o'zaro munosabatlari barqaror bo'lishini ta'minlagan. Xetlar Xett malikalari turmushga chiqqanda, albatta, bosh rafiq bo'lishi shartnomada alohida qayd qilingan. Sulolaviy nikohlar vositasida Xett podsholari boshqa davlatlarda o'z ta'sirlarini mustahkamlaganlar. Bundan tashqari, chet davlat taxtining qonuniy vorislari hukmdorining bosh rafiqasi o'g'illari bo'lgan.

6. Yangi Xett podsholigi davrida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar. Yangi Xett davrining xo'jalik va ijtimoiy munosabatlari tavsiflovchi asosiy manba Xett qonunlaridir.

Xo'jalikning asosini dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik (metallurgiya va metallardan mehnat qurollari tayyorlash, kulolchilik, quruvchilik ishlari va h.k) tashkil qilgan. Dehqonchilikda sun'iy sug'orish sezilarli bo'lmagan. Sun'iy sug'orish inshootlari cheklangan holatda barpo qilingan. Xo'jalikda savdo ham muhim o'rin tutgan. Yer egaligi podsho yerlari, ibodatxona yerlari, jamoa yerlaridan iborat bo'lgan. Davlat yerlariga egalik qilish va foydalanish natural (saxan) va mehnat (lussi) majburiyatlarini o'tash bilan bog'langan. Saxan va lussidan ibodatxona yerlari ozod qilingan. Podsho xizmatida bo'lgan xususiy kishilarning yerlari, podshodan hadyaga olingan yerlar ham saxan va lussi bilan bog'langan majburiyatlardan ozod qilinishi mumkin bo'lgan. Davlatning diniy markazlari bo'lgan Arinna, Nerika va Siplanda shaharlarining kohinlari, to'quvchilari, xizmatchilari majburiyatlarni o'tashdan ozod qilinganlar.

Hunarmandchilikning rivojlangani to'g'risida ma'lumot beradigan qonunlar va boshqa hujjatlarda temirchi, kulol, duradgor va tikuvchi kasblari tilga olinadi. Mehnat qurollari va harbiy qurol-aslahalar ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo dastlab mis, keyinchalik qalay bo'lgan. Temirdan faqat diniy marosimlar uchun haykalcha va boshqa buyumlar yasashda oz miqdorda foydalanilgan.

Xetlar davlatida podsho oilasi va podsho bosh kohin sifatida juda katta miqdorda yerga egalik qilgan. Podsho va ibodatxona yerlarida ishlovchilar o'z yerlariga biriktirib qo'yilib, turli soliq va majburiyatlarni o'taganlar. Xett davlati ma'muriyati qaroriga ko'ra ekin yerlari ishlovchilar va o'z foydasiga soliq yig'ish huquqi bilan podsho amaldorlari va ibodatxonalar ixtiyoriga berilganlar. Ayrim ibodatxonalar umumdavlat soliqlaridan ozod qiluvchi immunitet yorliqlarini olgan. Davlat va ibodatxona yerlaridan tashqari, boshqa yerlar xususiy mulk bo'lib, oldi-sotdi qilingan.

Xetlar jamiyatida barcha aholi ikki guruhga bo'lingan: soliq to'lovlari va boshqa majburiyatlarni o'tovchi (podsho, ibodatxona yoki xususiy shaxs foydasiga) kishilar erkin bo'lmagan mavqega ega bo'lib, kamsitilganlar. To'la ma'noda erkin kishilar deb zodagonlar, amaldorlar, kohinlar va katta yer egalari hisoblanganlar. Xett davlati ma'muriyati tomonidan bosib olgan hududlar boshqarilmagan, balki ulardan faqat xiroj olish bilan cheklangan. Qaram hududlar, davlatlarni o'z mahalliy hokimlari boshqargan. Lekin ular turli to'lov va majburiyatlarni o'tashga majbur bo'lgan.

7. Xett madaniyati. Xetlar o'ziga xos madaniyatni yaratdilar. Xetlar jamiyatida qonunlar shakllantirilgani, xett yozuvining mavjudligi madaniyatning ravnaqidan dalolat beradi. Mixxat va ierogliflardan keng foydalanilgan. Xett jamiyatining o'z madaniy taraqqiyotida Misr va Mesopotamiyaning yuksak madaniyatlari ta'siri yaqqol seziladi. Xett madaniyatida, ayniqsa, xurritlarning ta'siri kuchli bo'lgan.

Xett dini o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan. Xetlarning ming ma'bud va ma'budalari to'g'risida manbalarda eslatishlar mavjud. Amalda esa, cheklangan miqdorda ilohlarga sig'inilgan. Poytaxt Xattusining oliy homiysi chaqmoq xudosi bo'lgan. U bilan birga, xurritlarning chaqmoq xudosi Teshubga ham sig'inilgan. Xattusida quyosh, hosildorlik xudosi Telepinga va mahalliy Kilikiya hosil xudosi Sandanga e'tiqod qilingan. Podsho

quyoshga o'xshatilib ilohiylashtirilgan. Shu sababli, xetlar o'z podsholarini «quyoshim» deb sig'inganlar.

Jahon adabiyotidagi eng birinchi yozilgan tarjimayi hol Xattusili III ning tarjimayi holi matni hisoblanadi. Xett yozma asarlaridan bizgacha yetib kelgan podsholarning «tarjimayi hollari» juda qiziqarli va batafsil bayon qilingan. Ularda yorqin obrazlar, chuqur kechinmalar va o'ziga xos axloqiy qarashlar seziladi. Xett yilnomalarida mamlakat tarixini uch davrga bo'lishga urinish yaqqol ko'zga tashlanadi. Xett arxivlarida boshqa mamlakatlar, masalan, Akkad tarixi to'g'risida ma'lumotlar ham mavjud. O'rta va Yangi Xett podsholliklari davrida Xett adabiyotida duo-afsunlar alohida o'rin tutadi. Qadimgi xett dafn qo'shig'i xett poeziyasining yagona namunasi. Xett podsholigining boshqa xalqlar bilan yaqin aloqasining mavjudligidan dalolat beradigan yana bir madaniy yodgorlik – uch tilli shumer-babil-xett lug'atlarining tuzilishidir.

Xett adabiyoti, ayniqsa, mifologiya janri juda boy, bizgacha poemalar, ertaklar, marosim qo'shiqlari yetib kelgan. Yana bizga qadar Xett podshosining bosh otboqari Kikkuli ismli kishi tuzgan yilqichilik to'g'risidagi ajoyib qo'llanma yetib kelgan. Qo'llanma qadimgi Xett davlati iqtisodiy hayotida yilqichilik muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi. Ushbu qo'llanma dunyo tarixida yilqichilik sohasi bo'yicha yaratilgan ilk asardir.

Xett haykal va relyeflari vazmin va ulug'vorligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda mudofaa inshootlari, qal'a devorlarini qurish yuqori darajada bo'lgan. Xett madaniyati ko'p asrlik Shimoliy Mesopotamiyada va unga yaqin boshqa hududlarda yashagan qabila va xalqlarning madaniyatini o'zida aks ettirgan va boshqa madaniyatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xett davlati halokatidan keyingi asrlarda ham xetlarning madaniy merosi boshqa qo'shni mamlakatlar madaniyatiga ijobiy ta'sir o'tkazdi.

8. Mitanni (mil.avv. 1560 –1260-yillar). Yuqori Mesopotamiyada mil.avv. XVIII–XVII asrlarda Kavkaz ortidan Kichik Osiyoga oriylar kirib keldilar. Ular Suriya va Falastin Yuqori Mesopotamiya va Kichik Osiyoning janubi-sharqini egalladilar. Mil.avv. XVI asrda Mitanni (akkad tilida – Xanigalbat) davlatiga (mil.avv. 1560 –1260-yillarda mavjud bo'lgan) oriylardan bo'lgan mitannilar asos soladilar. Mitanni poytaxti Yuqori Xaburda joylashgan Vassokanda shahari bo'lgan. Mitanni podsholari oriy sulola ismlarini saqlab qolib, «Mand jangchilari podshosi» va

«Xurri jangchilari podshosi» unvonlariga ega boʻlganlar. Oriy maʼbudlari Indra, Mitra-Varuna va Nasati hukmron sulolalarining homiy xudolari edi.

Bu davlat mil.avv. XVI–XV asrlarda Old Osiyo siyosatida yetakchi oʻrinni egalladi. Misr, Xett davlatlari Mitanni bilan hisoblashishga majbur boʻldi. Mitanni mil.avv. XVI asr oxirida podsho Shuttarni I davrida Zagros va Nineviyadan Shimoliy Suriyagacha boʻlgan hududni egallab, ulkan davlatga aylandi. Shu vaqtdan boshlab bir yuz ellik yil davomida Old Osiyoda Mitannidan kuchli boʻlgan qudratli davlat yoʻq edi. Mitanni kuchli qoʻshinga ega boʻlib, qoʻshin asosini qattiq intizomga boʻysungan otliq qismlar tashkil etgan. Mitanni yuz yil davomida (mil. avv. XVI asr oxiridan boshlab XV asr nihoyasigacha) qudratli davlatga aylanib, Old Osiyoning eng kuchli davlatlari Misr va Xetlar bilan raqobat qildi. Podsho Shuttarna davrida (mil.avv. XVI asr oxiri) Mitanni hududi Zagros togʻlari va Parratarna (mil. avv. 1471-yillar atrofi) Misrning zaifligidan foydalanib, butun Sharqiy Oʻrtayer dengizini Kilikiyadan Markaziy Falastingacha boʻlgan hududlarni egalladi. Mil.avv. XV asr oʻrtalarida Misr bilan Mitanni oʻrtasidagi chegaralar Kadesh shahri atrofidan oʻtgan. Taxminan mil.avv. XV asr oʻrtalarida Mitanni Suriya uchun xetlar bilan toʻqnashdi. Podsho Ardadama xetlarni toʻlayanchib tashlab, Mitanni chegaralarini Kichik Osiyodagi Tavr va Yuqori Galisgacha choʻzdi (mil.avv. XV asr oxiri). Bu davrda Mitanni Misr bilan Mesopotamiya va Sharqiy Oʻrtayer dengizi havzasi uchun uzoq kurash olib bordi. Mil.avv. XV asrda xalqaro vaziyat oʻzgarib, Misr bilan Mitanni oʻrtasida ittifoqchilik munosabatlari oʻrnatildi va sulolaviy nikohlar tuzildi. Tutmos IV va Amenemxotep III Mitanni malikalariga uylandilar va Mitanniga oltin va turli sovgʻa-salomlar joʻnatdilar.

Mil.avv. XIV asr boshlarida Mitannidagi sulolaviy nizo, saroy fitnalari davlatni zaiflashtirdi. Saroy fitnasi natijasida oʻsmir Tushratti taxtga chiqdi. Tushratti Misr bilan uzilib boʻlgan diplomatik aloqani qayta tikladi, qizi Tado-Xebani Misr firʼavni Amenxotep III ga turmushga berdi. Xett podshosi Suppilulum I Mitanniga bostirib kirdi. Boshda Tushratti xetlarning hujumini qaytardi, lekin hukmronligining soʻnggi yillarida Suppilulum I dan yengildi. Mitannining bir qismini xetlar zabt qildilar, Tushratti qochishga majbur boʻldi va oʻldirildi. Yordamga chaqirilgan Osuriya hukmdori Ashshurballit I mamlakatning sharqiy viloyatlarini anneksiya qildi. Shu vaqtdan Mitanni Shi-

moliy Mesopotamiyadagi kichik bir davlatchaga aylanib qoldi. Uning ustidan nazorat qilish uchun osur va xetlar o'zaro kurash olib bordilar. Qachonlardir qudratli davlat bo'lgan Mitanni qoldig'larini mil.avv. 1260-yilda Osuriya podshosi Salmanasar I tomonidan tugatildi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Вудли А. Забытое царство. – М.: 1986.
2. Герни О.Р. Хетты. – М.: 1987.
3. Гиоргадзе Г.Г. Очерки по социально-экономической истории хеттского государства. – Тбилиси: 1973.

Asosiy sanalar

| | |
|---------------------------|--|
| Mil.avv. XVIII–XVI asrlar | Qadimgi Xett podsholigi. |
| Mil.avv. XVI asr oxiri | Telepin hukmronligi. Taxt vorisi to'g'risidagi farmon. |
| Mil.avv. XV asr | Xett davlatining tushkunligi. «O'rta Xett podsholigi» davri. |
| Mil.avv. XIV–XII asrlar | Yangi Xett davlati. Buyuk davlatning yaratilishi. |
| Mil.avv. XVI asr | Yuqori Mesopotamiyada xurrit qabilasi mitannilar Mitanni davlatiga asos soldi. |
| Mil.avv. 1280-yil | Misr-Xett tinchlik shartnomasi. |
| Mil.avv. 1260-yil | Mitanni davlati Osuriya podshosi Salmanasar I tomonidan tugatildi. |

QADIMGI OSURIYA

1. Mesopotamiyadagi arxeologik qazishmalar. 2. Qadimgi Osuriya davri (mil.avv. II ming yillikning I yarmi). 3. O'rta Osuriya davri (mil.avv. II ming yillikning II yarmi). 4. Buyuk Osuriya harbiy davlati (mil.avv. I ming yillik). 5. Qo'shin. 6. Osuriyaning ijtimoiy-siyosiy hayoti. 7. Osuriya madaniyati.

1. Mesopotamiyadagi arxeologik qazishmalar. Mesopotamiyadagi arxeologik qazishmalar XIX asr o'rtalarida shimolda: dastlab qadimgi topilmalar bilan qiziqadigan ishqiboz kishilar tomonidan, keyinchalik mutaxassis – arxeologlar tomonidan amalga oshirildi. Ikki daryo oralig'idagi birinchi shaharlar qachonlardir Osuriya davlati mavjud bo'lgan shimolda paydo bo'lgan edi. 1842-yil fransuz diplomati E.P. Botta mahalliy afsonalarda Osuriyaning qadimgi poytaxti bilan bog'liq bo'lgan Kunjik tepaligini (Turkiya) qazishdan boshladi, lekin hech qanday natijaga erishmadi. 1846–1847-yillarda ingliz diplomati G.A. Leyyard Nimrud tepaligini qazib, qadimiy Osuriyaning Kalxu shahri qoldiqlarini ochdi. Tepalikdan podsho saroylari, odam-ho'kiz, odam-sher haykallari va badiiy relyeflar topildi. Y.P. Bottaning Kunjik qazishmalarini Leyyard davom ettirdi. 1847-yil Leyyard Kunjik tepaligidan Nineviya xarobalarini, jumladan, podsho Sinaxxerib (mil.avv. VII asr) saroyi, uning nevarasi Ashshurbanipalning kutubxonasini topdi.

Leyyardning shogirdi U. Rassam Kunjik tepaligidan podsho Ashshurbanipalning va harbiy manzaralar tasvirlangan, ajoyib relyeflar bilan bezatilgan saroyi va podshoning boy kutubxonasini ochdi. U Nimrud tepaligi yaqinidagi Balavatdan mil.avv. IX asrga oid yodgorliklar, jumladan, harbiy yurish va xiroj to'lash manzarasi tasvirlangan Balavat darvozalari deb atalgan 4 ta jez taxtani topdi. Fransuz arxeologi V. Andre 1903–1914-yillarda Osuriyaning qadimiy poytaxti Nineviyada podsho Ashshurbanipalning saroylari, ibodatxonalar qoldiqlarini, jumladan, oliy xudo Ashshur ibodatxonasi, podsho qabrlari, turar-joy binolari va ko'chalarini qazib ochdi. XX asrning 50-60-yillarida arxeologlar Nineviya shahri xarobalaridan saroy, xo'jalik inshootlari, ko'pgina hujjatlarni topdilar. Osuriyashunoslikning yuz

yillik tarixi davomida siyosiy tarix va davlat qurilishi muammolari o'rganildi.

Yevropa olimlari ko'p yillik arxeologik qazishmalar natijasida qadimgi Mesopotamiya davlati, jamiyati va boy madaniyatidan dalolat beradigan noyob yodgorliklarni topdilar. Topilgan yozma manbalar qadimgi Mesopotamiya davlatchiligi, ijtimoiy-madaniy, siyosiy hayotini tasavvur qilishga yordam berdi. Mesopotamiya madaniyatining yo'nalishlari, kelib chiqishi, mifologiya, adabiy yodgorliklar, san'atning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy bilimlar to'g'risidagi qator tadqiqotlar amalga oshirildi.

Tarix fanida XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi tarixchi olim Meyerning sikl nazariyasi yetakchi o'rin egalladi. Edvard Meyer har qanday sivilizatsiya siklik rivojlanib, ya'ni feodal tuzumdan boshlanib, kapitalizm darajasiga yetadi, keyin ichki qarama-qarshiliklar tufayli halokatga uchraydi, shundan so'ng sikl yana qaytariladi deb tushuntirdi. Shu sababli, XX asr boshlarida taniqli nemis osurshunoslari B.Maysner, P.Koshaker va boshqalar qadimgi Mesopotamiya tarixini feodal jamiyat deb baho berdilar. Faqat keyingi yillarda ijtimoiy tabaqalanish, xo'jalikni tashkil qilish, shaharlar, savdo-hunarmandchilikning o'rni, ibodatxonalar xo'jaligi bo'yicha muhim ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar (A. Falkenshteyn, A. L. Oppenxeym, I. Gelba va V. Leman asarlari) paydo bo'ldi. Osurshunoslik markazlari dastlab Angliya va Fransiyada, XX asr boshlaridan Germaniyada paydo bo'ldi. Gitler hokimiyatga kelgach, ko'pgina osurshunos olimlar AQShga ko'chib ketdilar. Hozir AQShda mashhur osurshunoslik markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Angliya, Fransiya va Germaniyada ham osurshunoslik maktablari ilmiy tadqiqotlarni olib bormoqdalar.

2. Qadimgi Osuriya davri (mil.avv. II ming yillikning I yarmi). Qadimgi Osuriya Mesopotamiyaning shimoliy-sharqiy yassi tog'ligida Dajla daryosining yuqori qismida shakllandi. Bu g'arbdan hudud shimoli – xetlar, janubi – sharqda xetlar, shumer – bobilliklar bosqiniga muntazam uchrab turdi. Osuriya doimo qo'shnilarning harbiy tazyiqiga uchragani uchun osurlar Old Osiyoda eng jangovar xalqqa aylandi. Dastlab ular ko'ngilli qo'shin tuzdilar va harbiy ko'nikma hosil qildilar.

Osur savdogarlari Kichik Osiyoda o'zlarining bir necha tayanch savdo manzilgohlari (koloniyalar)ni barpo qildilar. Ularning orasidan qulay joyda joylashgan Ashshur asta-sekin

Osuriyaning markaziga aylana bordi. Ashshur savdogarlari asosiy savdo yo'llarida o'rnashib qolish uchun o'z koloniyalarini barpo qilishga harakat qilgan. U Kichik Osiyoning sharqiy qismini faol kolonizatsiya qilgan. Bu yerdan mis, qo'rg'oshin, kumush, chorva mollari, teri va yog'och tashib ketilgan.

Mil.avv. II ming yillik boshlarida qadimgi Osuriya markazi Ashshur bo'lgan kichik hududni o'z ichiga olgan edi. Ilk Osuriya jamiyatida savdo yetakchi o'rin egalladi. Qadimda Osuriya orqali Kichik Osiyo va Kavkazortidan Tigr daryosi bo'ylab O'rta va Janubiy Ikki daryo oralig'i hamda Elamga, Sharqiy O'rtayer dengizidan muhim savdo yo'llari o'tgan edi. Qadimgi Osuriya jamiyatida ibtidoiy quldorlik shakllangan bo'lib, ibtidoiy jamoa qoldiqlari saqlanib qolgan. Podsho va ibodatxona yerlarida jamoachi va qullar mehnat qilgan. Yerning asosiy qismini jamoa yer egaligi tashkil qilgan. Qulchilikning asosiy manbalari mulkiy tabaqalanish natijasida erkin jamoachilarning qarzi uchun qul qilish va chetdan qul sotib olish bo'lgan.

Mil.avv. XVI asrgacha Osuriya podsholari Alum-Ashshur, shahar-jamoa esa Ashshur deb atalgan. «Kichik va ulug'lar» xalq yig'ini o'z ahamiyatini yo'qota borgan. Hokimiyatning oliy organi – «Shahar uyi» boylardan tuzilgan oqsoqollar kengashi edi. Kengash a'zolari ichidan bir xil muddatga alohida lavozimli shaxs – «limmu» tayinlanib, u shahar xazinasini boshqargan. Uning nomi bilan joriy yil boshlangan. Oqsoqollar kengashi sud va ma'muriy ishlar bilan shug'ullanadigan mansabdor shaxs – «ukulluma»ni tayinlagan. Shahar-davlatning merosiy hokimi «Ishshiakkum» lavozimi ham mavjud bo'lib, u diniy vazifalarni bajarib, ibodatxonalar qurilishiga rahbarlik qilgan. U urush vaqtida harbiy boshliq bo'lgan. Mil.avv. XX asrda xalqaro vaziyat Osuriya uchun noqulay kelgan. Frot havzasida Mari davlati yuksalib, Ashshurning g'arb savdosiga jiddiy to'siq bo'lgan. Xett davlati Osuriya savdosini Kichik Osiyoda to'xtatib qo'ygan. Amoriy qabilalarini Ikki daryo oralig'iga yurishlari ham vaziyatni beqaror qilib, Osuriya savdosiga zarar yetkazgan.

Faqat mil.avv. 1781- yillar atrofida amoriylardan bo'lgan yo'l boshchi Shamshi-Adad Ashshur shahrini o'zining Yuqori Mesopotamiyadagi davlati markaziga aylantirgan. Ashshur Ikki daryo oralig'ining shimolidagi shaharlarni bosib oladi. Marini bo'ysundirib, Karxemish bilan ittifoq tuzadi. Suriya shaharlari ham bosib olinadi. Ashshur g'arb savdosida vositachilikni o'z qo'lga oladi. Davlat boshqaruvida podshoning mavqei kuchaya-

di. Shamshi-Adad davlat boshqaruvini bevosita o'z qo'liga olib, mutlaq hukmdor sifatida davlat boshlig'i, oliy harbiy boshliq va sudya vazifasini o'taydi. Boshqaruvni takomillashtirishga zaruriyat tug'iladi. Mamlakat hududi, aholisi okruglarga bo'linib, ularni boshqarish uchun noiblar yuboriladi. Mil.avv. 1757-yilda Shamshi-Adadning o'g'li Ishme-Dagan davrida Ashshurni Hammurappi bosib oladi.

Mil.avv. 1740-yillar atrofida kassitlarning Mesopotamiyaga hujumi davrida Shamshi-Adadning avlodlari hokimiyatni yana o'z qo'llariga oladilar. Ammo bu sulola tez orada hokimiyatni boshqalarga topshirishga majbur bo'ladi. Lekin Shamshi-Adad sulolasining boshqaruvi Ashshur tarixining eng yorqin davri deb tan olingan. Keyinchalik Osuriya podsholari ro'yxatida Shamshi-Adad va uning ajdodlari ham kiritiladi.

Mil.avv. XVI asrda Bobilda amoriylar sulolasi quladi va bu hududda kassitlar hukmronligi boshlandi. Mil.avv. 1500-yillar atrofida Mitanni davlati Shimoliy Suriya viloyatlarini bosib oldi va o'z qudratining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Zaiflashib qolgan Osuriya Mitannining hokimiyatini tan olishga majbur bo'ldi. Osuriya qudratli Mitannining tazyiqiga qarshi Misr bilan diplomatik aloqa o'rnatdi. Ammo mil.avv. XV asr o'rtalarida Mitanni podshosi Shaushaattar Ashshurni bosib olib, uni Mitanniga qaram qiladi. Mitanni Ashshurni g'arbgacha chiqadigan savdo yo'lidan butunlay mahrum qiladi. Keyingi asr boshlarida Osuriya o'z mavqeyini tiklash uchun Bobil bilan yaqinlashib, Mitanniga qarshi urush olib bordi. Lekin Bobilning hukmronligini tan olishga majbur bo'ldi. Buning evaziga Mitanni zulmidan ozod bo'ldi. Osuriya tez orada Bobilning zaiflashib qolganidan foydalanib, o'z mustaqilligini to'la qayta tikladi va bu hududda Bobilga qarshi o'z ta'sirini o'tkazish uchun harbiy harakatlarni boshladi.

3. O'rta Osuriya davri (mil.avv. II ming yillikning II yarmi).

Mil.avv. 1353–1318-yillarda podsho Ashshurballit Osuriyani qudratli davlatga aylantiradi. Zaiflashib qolgan Mitanni xetlar tazyiqiga qarshi Osuriyaga ittifoqchi sifatida chiqadi. Tez orada Osuriya xetlarni Yuqori Mesopotamiyadan haydab chiqarib, Frot daryosiga chiqadi. Natijada Mitannining sharqiy viloyatlari, bu yerdagi diniy markaz – Nineviya bosib olinadi. Mitanni, keyinchalik Bobil ham Osuriya ta'siri ostiga tushib qoladi. Osuriya shahar-davlatdan qudratli davlatga aylanib, yetti yuz yil davomida o'zining talonchilik yurishlari, bosib olingan hudud-

lar aholisiga nisbatan shafqatsizligi bilan qo'shni hududlarga qo'rquv va dahshat tug'diradi.

Osuriya davlatining shakllanishi mil.avv. 1295–1264-yillarda hukmronlik qilgan podsho Adad-Nerari davrida tugallandi. U birinchi bo'lib rasmiy ravishda o'ziga podsho unvoni berib, Old Osiyo buyuk davlatlari hukmdorlariga teng bo'lgan «Buyuk podsho» unvoniga da'vo qiladi. Adadneraruning o'g'li Salmanasar I (akkad tilida Shulmanu – ashared mil.avv. 1274–1245-yillar) otasining Mitanniga qarshi yurishlarini davom ettirdi. U yuqori Mesopotamiyani Karxemeshgacha Osuriyaga qo'shib oldi. Salmanasar I ning o'g'li Tukulti-Ninurta I (mil.avv. 1244–1208-yillar) Bobilga va Kavkazortiga g'olibona harbiy yurishlar uyushtirdi. U Bobilni bosib olib, u yerga o'z noibini tayinladi va Bobil shahridagi Esagila ibodatxonasidan xudo Mardukning haykalini Ashshurga olib ketdi. Podsho Ashshur o'rniga o'zi uchun yangi poytaxt – Kar-Tukulti-Ninurta shahrini qurdirdi. Ammo hukmronligining so'nggi yillarida xetlar va Bobil Osuriyani u bosib olgan hududlarning katta qismidan mahrum qildilar. Mamlakat uzoq urushlar natijasida zaiflashib qolib, ichki tartibsizliklar yuz berdi. Mil.avv. XIII asrda Xett davlati osur savdogarlarini Kichik Osiyodan siqib chiqardi. Misr Suriyada o'z ta'siridan mahrum bo'ldi. Mitanni davlati esa, Osuriya uchun g'arbga chiqadigan yo'lni butunlay yopadi. Mil.avv. XIII–XII asr boshlarida Osuriya Yuqori Mesopotamiyaning qo'shni hududlarini to'rt marta o'ziga qo'shib oldi va to'rt marta yo'qotdi.

Osur zodagonlari podshoning zaif tashqi siyosatidan norozi bo'lib, uni taxtdan tushirib, o'ldirdilar. Osuriya tushkunlikni boshdan kechiradi. Bolqon qabilalaridan bo'lgan mushklar Frot daryosi vodiysiga kelib, Xett davlatini halokatga uchratdilar. Keyin esa, elamlklarning hujumini qaytardilar. Qo'shni Bobilning tazyiqi kuchaydi, bir qator hududlarni bosib oldi. Faqat Ashshur I dan (mil.avv. 1179–1134-yillar) Bobilga qarshi harbiy yurishlarni boshladi. Ammo tashqi siyosatda haqiqiy tub burilish podsho Ashshur – resh-ishi (mil.avv. 1133–1116-yillar) davrida yuz berdi. Uning o'limidan keyin Osuriya taxtiga kuchli siyosiy arbob Tikulti-anal-esharra (Tiglatpalasar 1115–1077-yillar) chiqdi.

Podsho Tiglatpalasar I (mil.avv. 1115–1077-yillar atrofida) davrida xalqaro vaziyat Osuriya foydasiga o'zgardi. Bu davrda Xett podsholigi halokatga uchrab, Misr siyosiy tarqoqlik tomon yo'l tutdi. Osuriya qulay vaziyatdan foydalanib, Shimoliy Suriya

va Shimoliy Finikiya, Kichik Osiyoning janubiy-sharqiy qismini o'z ta'siri ostiga oldi. Osuriyaning gullab-yashnashi mil.avv. XII–XI asrlarda Arabistondan oromiy qabilalarining bostirib kelishi natijasida tugadi.

4. Buyuk Osuriya harbiy davlati (mil.avv. I ming yillik).

Mil.avv. I ming yillikda Old Osiyoda temirdan keng miqyosda foydalanishning boshlanishi qadimgi Sharqda iqtisodiy o'sishga olib keldi. Quruqlik va dengiz savdosi keng hajmda rivojlanadi. Xett va Mitanni kabi qudratli davlatlar tarix sahnasidan tushib ketdi. Bobil va Misr ichki va tashqi siyosatda tushkunlikka yuz tutdi.

Mil.avv. XI asrning I choragida Arabiston yarim orolidan yarim ko'chmanchi oromiylar Mesopotamiya va qo'shni mamlakatlarga bostirib keldilar. Mil.avv. 1000-yillar atrofida ular Frot daryosidan o'tib, Osuriyani bir necha janglarda mag'lubiyatga uchratdilar. Osuriya davlati zaiflashib qoldi.

Mil.avv. X asr oxirlarida osuriyaliklar Shimoliy Mesopotamiyada o'z hukmronliklarini qayta tikladilar va faol istilochilik yurishlarini boshladilar. Bu vatqda Osuriya armiyasi o'zining soni yuqori darajada tashkillashtirilganligi, qurollanish darajasi va jangovar qobiliyati bilan Old Osiyodagi eng birinchi qo'shinga aylandi. Osuriya podshosi Ashshurnasirpal Bobil va Suriya hududlarini istilo qilib, hatto bu yerdagi aholini ozgina qarshilik ko'rsatgani uchun ham qirib tashladi. Istilochilar bo'ysunmaganlarning terisini shildilar va ularni qoziqqa o'tqazdilar yoki bir-biriga bog'lab o'ldirdilar. Aholining qolgan qismini asir qilib, Osuriyaga jo'natdilar. Mil.avv. 876-yilda Osuriya qo'shinlari Finikiya qirg'og'iga chiqdilar. Salmanasar III (mil.avv. 859–824-yillar) Suriyaga yangi yurish uyushtirdi. Bu hududda Osuriyaning ekspansiyasiga qarshi bir necha shahar-davlatlarning Damashq podsholigi boshchiligida ittifoqi tashkil topdi. Suriya, Falastin, Finikiya, Kilikiya va Damashqning birlashgan qo'shinlari osur qo'shinlarini jangda mag'lubiyatga uchratdilar (mil.avv. 853-yil Oront daryosi yonidagi jang). Mil.avv. 845-yilda Salmanasar III 120 ming kishilik qo'shin bilan Suriyada yana jang harakatlarini boshladi. Lekin bu harbiy harakatlar ham yaxshi chiqmadi. Osuriyaliklar vaqtinchalik Suriyadan chekinishga majbur bo'ldilar. Ammo tez orada ittifoqchi shahar-davlatlar o'rtasida kelishmovchiliklar boshlanib, osurlar bundan juda yaxshi foydalandilar hamda mil.avv. 841-yilda harbiy harakatlarni boshlab, Suriyada o'z

hukmronliklarini oʻrnatishga erishdilar. Mil.avv. 840-yildagi-na Frot daryosi ortida 16 yurishdan soʻng Damashq podsholigi boʻysundiriladi. Gʻolibona yurishlar boy oʻljalarni qoʻlga kiritish imkoniyatini tugʻdirdi. Osuriya hukmdorlari Ashshur va Kalxu shaharlarida ulugʻvor saroy va ibodatxonalar bunyod qildilar. Bu vaqtinchalik hukmronlik uzoq davom etmadi. Oʻn yoshida taxtga chiqqan Adat-Nerari III davrida uning onasi Sammuramat amalda hokimiyatni koʻp yillar davomida boshqardi. Suriyaga yurishlar yana qayta boshlanib, Bobilda ham Osuriyaning hukmronligi oʻrnatildi.

Osuriya oʻzining iqtisodiy, harbiy qudratini qayta tiklab, siyosiy markazlashuv va barqarorlikka erishdi. Istilochilik urushlari natijasida Osuriya iqtisodiyoti uchun zarur boʻlgan xomashyo (metall, yogʻoch)ga boy boʻlgan hududlar egallandi. Rivojlanayotgan shaharlar hunarmandchigi va dehqonchiligi hamda quldorlik xoʻjaligi uchun ishchi kuchi – qullarga ehtiyoj tez oʻsdi. Osuriyaning istilochilik urushlari olib borishining yana bir sababi, mamlakat quruqlik va dengiz savdo yoʻllari kesishgan hududda joylashgani uchun yetakchi oʻrinni egalashga harakat qildi.

Osuriya Kichik Osiyo va asosan, Oʻrtayer dengizining sharqiga oʻz taʼsirini kuchaytirishga urindi. Bu hududlarda savdo-hunarmandchilik, dengiz savdosi keng yoʻlga qoʻyilgan, tabiiy boyliklarga boy edi. Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻoqlaridan muhim xalqaro savdo yoʻllari oʻtgan boʻlib, bu yerda boy savdo – hunarmandchilik markazlari Tir, Sidon, Arvad, Bibl, Damashq va Karxemish kabi shaharlar mavjud edi. Osuriya uzoq vaqt olib borilgan urushlar natijasida zaiflashib qoldi. Mil.avv. VIII asrda Osuriya iqtisodiy tushkunlikka yuz tutadi. Ichki ziddiyatlar, qoʻzgʻolon va isyonlar boshlanadi.

Osuriyaning yangidan yuksalishi podsho hokimiyatini bosib olgan harbiy boshliq, podsho Tiglatpalasar III (mil.avv. 745–727-yillar) davrida boshlandi. Gʻayratli sarkarda, mohir tashkilotchi Tiglatpalasar III podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun qator islohotlar oʻtkazdi. U mamlakat hududini kichik-kichik noibliklarga boʻlib yubordi. Noiblar ustidan markaziy hokimiyatning nazorati oʻrnatilib, noiblarning vakolatlarini belgilanib, vazifalari cheklandi. Viloyat noiblariga viloyatda soliqlarni toʻplash, fuqarolarning majburiyatlarni bajarishini tashkil qilish va oʻz viloyatlari harbiy qismlariga rahbarlik qilish vazifalari yuklandi.

Bo'ysundirilgan aholiga nisbatan ham munosabat o'zgardi. Tiglatpalasar III gacha harbiy yurishlarning asosiy maqsadi talonchilik, o'lpon olish va bosib olingan hududlar aholisining bir qismini olib ketib qul qilish edi. Endilikda esa, bunday odamlarni ommaviy ravishda boshqa viloyatlarga ko'chirib o'tkazish, ularning o'rniga boshqa bo'ysundirilgan viloyatlardan asirlarni olib kelib joylashtirish boshlandi. Ba'zida bo'ysundirilgan aholi o'z yerida qoldirilib, ularga og'ir majburiyatlar yuklangan. Bosib olingan hudud esa Osuriya tarkibiga kiritilgan. Ular dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, xiroj to'laganlar. Shuningdek, ular qurilish, yo'l qurish ishlari, sug'orish inshootlarini ta'mirlash ishlariga tortilganlar. Bundan tashqari, yana ular qo'shinda yordamchi qismlarga xizmat qilishlari shart bo'lgan.

Tiglatpalasar III xazinadan maosh oladigan ko'p sonli muntazam qo'shin tuzdi va ko'ngillilarni harbiy xizmatga chaqirishdan voz kechdi. Harbiy xizmatga aholining o'rta va past tabaqalari jalb qilindi. Osuriya qo'shini davlat bosqinchilik siyosatining asosiy quroli bo'lgan. Qo'shin qurollariga qarab, bir necha qismlarga bo'lingan. Piyoda qo'shinlar son jihatidan eng ko'p sonli bo'lib, u yengil va og'ir qurolli qismlarga bo'lingan. Mil. avv. IX asrdan boshlab otliq qismlar paydo bo'ladi. Ular og'ir va yengil qurollantirilgan qismlardan tuzilgan. Qo'shinning zarbdor qismi jang aravalari bo'lgan. Jang aravalari qo'shinning imtiyozli qismi edi. Vaqt o'tishi bilan ularning o'rnini otliq qismlar egalladi. Shahar va qal'alarni qamal qilishda osuriyaliklar turli qamal qurollaridan foydalanganlar. Osuriya qo'shinlari mustahkamlangan harbiy manzilgohlar, harbiy qarorgohlar, yo'llar qurish malakasiga ega edilar. Ular devor buzuvchi, metallardan yasalgan qurilmalar va yondiruvchi qurollarni qo'llay olganlar.

Osuriya davlatining uchinchi gullab-yashnashi mil. avv. VIII asrning 40-yillaridan VII-asrning 40-yillari oxirigacha bo'lgan davrga to'g'ri keldi. Bu davr Osuriya va Old Osiyo tarixida alohida o'rin tutdi. Qaysiki, Osuriyaning faol ekspansiyasi unga qo'shni bo'lgan hududlar, davlatlar ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazdi. Osuriyaning harbiy kuchga asoslangan davlat hokimiyatining tashqi siyosati faqat qo'shni mamlakatlarga nisbatan harbiy tazyiq o'tkazish orqali o'z ta'siri ostida ushlab turishga yo'naltirilgan edi. Bunday siyosat Old Osiyoning o'sha davrdagi va keyingi asrlardagi siyosiy taraqqiyotiga kuchli ta'sir etdi.

Yaxshi qurollangan ko'p sonli qo'shin bilan Osuriya podsholari Tiglatpalasar III (mil.avv. 745–727-yil), Sargon II (mil. avv. 722–705-yil) va Sinnaxxerib (mil.avv. 705–680-yil) g'olibona yurishlar olib bordilar. Tiglatpalasar III harbiy zodagonlar yordamida podsho Ashshurnirari VI ni taxtdan tushirib, hokimiyatga keldi va istilochilik urushlarini olib bordi. Mil.avv. 743–740-yillarda Shimoliy Suriya va Kichik Osiyo hokimlarining birlashgan ittifoqining kuchlari tor-mor qilindi. Urartu davlatiga qarshi g'olibona yurishlar olib borildi va mamlakat talon-taroj qilindi. Sharqda Osuriya Midiyaning bir qismiga ega bo'lib, bu yerda bir necha provinsiyalar tashkil qilindi. Mil.avv. 729-yilda Bobilni bosib olib, Tiglatpalasar Pulu nomi bilan Bobil podshosi tojini kiydi. Sargon II (mil.avv. 722–705-yil) davrida mil.avv. 722-yilda Isroil podsholigi bosib olindi. Hokimiyatni noqonuniy ravishda bosib olgan Sargon II podshoning yangi qarorgohi – Dur-Sharrukin («Sargon qal'asi»)ni qurdi. Uning avlodlari – Sargoniylar Osuriyani uning halokatigacha boshqarganlar.

Badjahl podsho – jangchi Sinaxxerib (mil.avv. 705–680-yillar) poytaxtni Nineviyaga ko'chirdi. Uning podsholigi davrida Osuriya Kichik Osiyoning janubiy-sharqini qo'ldan chiqardi. Yahudiyaning qarshiligini bostira olmadi va uni qo'llab-quvvatlagan Misrni bo'ysundira olmadi. Sinaxerribning vorisi Asarxaddon (mil.avv. 680–669-yillar) vayron qilingan Bobilni qayta tikladi. Zaif, qaram Bobilni Osuriya bilan ittifoqda bo'lgan alohida podsholik deb e'tirof etdi. Asarxaddon mamlakat shimoliy-g'arbida mil.avv. 679-yilda paydo bo'lgan kimmeriyalar hujumini bartaraf qilib, Eronning shimoliy-g'arbida yashagan skiflar bilan mil.avv. 672-yilda ittifoq tuzdi. U mil.avv. 671-yilda Misrni bosib olib, shimoliy arab qabilalarini bo'ysundirdi.

Bu davrda Osuriya davlati chegaralari Nil daryosining birinchi ostonalaridan Kavkaz ortigacha, Eron pasttog'idan Kichik Osiyogacha, O'rtayer dengizidan Fors qo'ltig'igacha cho'zildi. Bu bepoyon davlatni boshqarish Osuriyaga juda katta qiyinchiliklarni tug'dirdi. Tiglatpalasarning vorislari Sargon II (mil. avv. 722–705), Sinaxxerib (mil.avv. 705–680), Asarxaddon (mil. avv. 681–669) va Ashshurbanipal (mil.avv. 669–629) yuz yil davomida ko'plab istilochilik urushlari natijasida tashkil etilgan ulkan imperiyani mustahkamlashga harakat qildilar. Ammo Ashshurbanipal hukmronligining so'nggi yillarida imperiyaning yemirilishi boshlandi. Uning alohida markazlari o'zaro raqobat

qila boshladilar. Ashshurbanipal mil.avv. 629-yilda vafot etdi. Uning ukasi Sinshariskun taxtga chiqdi. Uch yildan so'ng joylarda Osuriyaning hukmronligiga qarshi kuchli noroziliklar boshlanib, oxir-oqibatda uning halokatiga olib keldi. Imperiyaning jadal yemirilishi boshlandi.

Bobil, Elam, xaldey, oromiy hokimliklari, Suriya va Finikiya shaharlari Osuriya hukmronligiga qarshi bosh ko'tardi. Bobil va Midiya birgalikda Osuriyaga qarshi ittifoq tuzib, mil. avv. 614-yilda Ashshurni, mil.avv. 612-yilda Nineviyani vayron qildilar. Natijada Osuriya halokat yoqasiga kelib qoldi. Mil.avv. 590-yilda Xarran yonidagi jangda Osuriyaning harbiy qudrati to'liq sindirildi. Tarixda ilk bor butun Old Osiyoni yagona davlat tarkibida birlashtirgan va bir necha yuz yil hukmronlik qilgan qadimiy Sharqning eng katta davlati tarix sahnasidan tushib ketdi. Osuriyaning yemirilishi natijasida midiyaliklar Osuriyaning o'zini va Xarranni bosib oldilar. Bobil Mesopotamiyada o'rnashib, Suriya va Falastin ustidan o'z nazoratini o'rnatishga tayyorlandi. Misr ham bu mamlakatlarga o'zining o'tmishdagi ta'sirini qayta tiklashga harakat qildi. Mil.avv. VII asr oxirida Old Osiyoda faqat uch qudratli davlat: Midiya, Bobil va Misr, Kichik Osiyoda ikki kichkina mustaqil davlat – Lidiya va Kilikiya qoldi.

5.Qo'shin. Mil.avv. II ming yillikda Old Osiyoda shaharlar kuchli mudofaa inshootlari bilan himoya qilingan edi. Osuriyaliklar himoya inshootlarini qamal qilish texnikasi va bosib olishni takomillashtirdilar. Ularning qo'shini qamal va bosib olish texnikasi, uskunlari bilan yaxshi ta'minlangan maxsus qismlarga ega edi. Devor teshadigan taranlar, qamal qiladigan ko'chma minoralar, devordan laxm kovlaydigan malakali askar bo'linmalari qo'shin tarkibida muntazam mavjud bo'lgan. Osuriyaliklar mudofaa inshootlarini qamal qilish va shtrum qilish texnikasini takomillashtirdilar. Qo'shin bilan birga qamal qilish texnikasi, maxsus asbob-uskunalar, hujum uchun ko'chma minoralar, og'ir devor teshar taranlar olib yurilgan. Minora tepasidan turib, kamonchilar dushman devorini o'qqa tutganlar. Kamonchilarning boshqa qismi esa minorani dushman buzib tashlamasligi uchun uni himoya qilganlar, shahar aholisini qo'rqitish uchun olovli o'q yog'dirganlar.

Osuriya qo'shinining asosiy zarbdor kuchi jang aravalari edi. Ularning vazifasi o'z piyodalari dushmanga hujum qilgandan so'ng dushmanning buzilayotgan safini parokanda qilish edi.

Jang aravalari tezkor harakat qilib, kamonchilar, nayzachilar, suvoriylar bilan hamkorlikda dushman safini to'zitib yuborganlar. Otliq qism qo'shinning kam sonli, lekin yaxshi qurollangan va yuqori jangovar tayyorgarlikka ega bo'lgan qismi edi. Otliqlar qisman zodagonlar vakillari, ko'pchiligi esa sak yollanma otliqlaridan tashkil topgan. Sak otliqlari qat'iy intizom, yuqori darajada jang qilish san'atiga ega bo'lib, mohirona jangga kirishganlar. Faqat otliqlargina jangda murakkab manevrlarni qo'llay olganlar. Sargon II davridan otliqlar soni ko'paytirilib, ular jang aravalarini almashtirgan. Qo'shinning tuzilishi: 200 piyodaga 10 otliq, bir jang aravasi, bir og'ir qurollangan piyodaga ikki kamonchi to'g'ri kelgan. Qo'shinning tashkiliy birligi qisir (bo'linma) 500-2000 askarni tashkil etgan. Qisir ellikka bo'lingan, ular o'z navbatida o'nliklarga bo'lingan, bir necha qisir emukini (kuch) tashkil etgan.

Osur piyodalari og'ir va yengil qurollangan qismlarga bo'lingan. Og'ir piyodalar nayza, qilich bilan qurollangan va himoya vositalari sovut, dubulg'a hamda katta qalqonga ega bo'lgan. Yengil piyodalar kamonchi va sopqonchilardan tashkil topgan. Ikki askar: kamonchi va o'z safdoshini qalqon bilan himoya qiladigan qalqonbardordan bitta jangovar birlik tashkil topgan. Osuriya piyodalari zich saf tortib harakat qilganlar, piyodalar katta qalqonli og'ir piyodalar himoyasi ostida jangga kirganlar. Qalqonlar devori harakatga kelib, piyodalar dushmanga o'q, tosh va kalta nayzalar yog'dirganlar. Piyodalarning bunday harakati to'g'ri saf tortish, ularning aniq harakatini talab qilgan. Jang aravalariga ikki yoki to'rt ot qo'shilgan, jang aravasi kuzovida o'q to'ldirilgan sadoq bo'lgan. Ekipaj kamonchi va nayza, qalqon bilan qurollangan haydovchi va ikki askardan iborat bo'lgan. Ba'zida ekipaj kamonchi va haydovchini himoya qilgan qalqonbardor bilan kuchaytirilgan.

6. Osuriyaning ijtimoiy-siyosiy hayoti. Osuriya katta-katta hududlarni bosib olishi natijasida hududlar, shaharlarda savdo-hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik rivojlandi. Mamlakatda ko'plab yerlar o'zlashtirildi. Irrigatsiya va suv ta'minoti yaxshilandi. Bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik rivojlanishi uchun turtki bo'lgan temir qurollar keng tarqaldi. Metallurgiya, qurolsozlik sohalari yuqori darajada taraqqiy qiladi. Talonchilik urushlaridan olingan ko'plab o'ljalari va qullardan Osuriya shahar va qal'alarni qurishda keng foydalaniladi. Yangi shaharlar quriladi, jumladan, Kalxu shahri qayta

tiklanadi. Osuriyaning yangi poytaxti «Tukulti-Ninurtu qal'asi» asir olingan kassit, xurrit va urartu qabilalari kuchi bilan qayta tiklangan.

Osuriya jamiyatining hukmron tabaqasi harbiylar, davlat xizmatidagi zodagonlar, ibodatxona va savdo ahlidan iborat bo'lib, ular juda katta boylik va imtiyozlarga ega bo'lganlar va mavjud siyosiy hokimiyat bilan yaqin aloqada bo'lib, uning istilochilik siyosatini qo'llab-quvvatlaganlar. Osuriya jamiyatining quyi tabaqalarini kichik ishlab chiqaruvchi yer egalari, jamoa a'zolari va hunarmandlar tashkil etgan. Ular xazinaga qishloq xo'jalik mahsulotlari, chorva mollari va kumush bilan soliq to'laganlar. Ijtimoiy tizimning eng pastidagi ko'chib kelganlar, asirlar va qullar qaram ishchilar toifasini tashkil qilganlar. Ular ko'p hollarda podsho xo'jaligida va ayrim hollarda ibodatxonalar, xususiy yerlarda ishlaganlar. Osuriya davlati o'z tarixining so'nggi davrida qadimgi Sharq davlatchiligining o'ziga xos shakliga ega bo'lgan. Podsho qo'lida dunyoviy, harbiy va diniy sohalardagi cheklanmagan hokimiyat to'plandi. «Podshoga hokimiyat muqaddas xudolar tomonidan topshirilib, xudolar homiyligi ostida hukmdorlar davlatni boshqaradi» tushunchasi xalq ommasiga ongiga singdirilgan edi.

Davlatni boshqarishda osur hukmdorlari qo'shin va yaxshi tashkil etilgan boshqaruv apparatiga tayanganlar. Osuriya davlati boshqaruvida harbiy va moliya muassasalari yetakchi o'rinni egallagan. Harbiy muassasa mamlakat ichida va bo'ysundirilgan hududlarda «tartib»ni saqlagan. Moliya muassasasi esa, davlat xazinasiga soliq va o'lponlarni o'z vaqtida to'lovi uchun javob bergan. To'lov va majburiyatdan faqat podshoning «himoya» yorliqlariga ega bo'lganlar ozod qilingan. Ayrim shaharlar (Bobil, Borsippa, Sippar, Nippur, Xarran va Ashshur) ibodatxonalari va saroy ahllarigina bunday imtiyozlardan foydalanganlar. Mil.avv. IX–VII asrlarda Osuriya davlati yaxshi tashkil etilgan boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Bosib olingan hududlarning ko'pchiligida provinsiyalar (Osuriya, Kichik Osiyoning ayrim shahar va viloyatlari, Xaldey va Oromiy hokimliklari) tashkil qilingan. Ular Osuriya noiblari tomonidan boshqarilgan. Ba'zi hududlarda Osuriyaga xiroj to'laydigan qaram hudud va podsholiklar (Finikiya shaharlari, Yahudiya, Moav, Edem, Tabal, Manna) saqlanib qoladi. Osuriyadan uzoq bo'lgan bir qadar kuchli davlatlar o'z mustaqilligini ma'lum darajada saqlab qoladi (Lidiya, Urartu, Midiya, Elam va Shimoliy

Arabiston yerlari). Bo'ysundirilgan Misr alohida mavqega ega bo'lgan. U 20 ta kichik hududlarga bo'linib, ularning tepasida mahalliy hokimlar (podsho, nomarx, kohinlar) turganlar. Shu bilan birga, bo'ysundirilgan hududlarda Osuriyaning ko'p sonli amaldorlar apparati va harbiy ma'muriyati qoldirilgan. Bobil shahri alohida boshqarilgan. Bobil podsholari rasman o'z mustaqilliklarini saqlab qoldilar.

7. Osuriya madaniyati. Osuriyaliklar birinchi zooparkni yaratdilar. Qonunchilikni joriy qildilar. Bizgacha O'rta Osuriya davrida yaratilgan qonunlar yetib kelgan. Bu qonunlar asosida Osuriyaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tasavvur qilish mumkin. Osuriya yozuvni soddalashtirdi. Ular qamish qalam bilan teriga loy, yog'och taxtachalar, papirusga, toshga, metallga, ko'za va qurollarga yozdilar. Qadimgi osur shahri Shadupumdan matematika va geometriya fanlaridan ma'lumot beradigan loy taxtachalar topilgan. Ulardan birida to'g'ri uchburchaklarni asoslaydigan teorema asoslanadi. Matematik jadvallar topilgan. Ular yordamida ko'paytirish, kvadrat ildiz chiqarish, turli darajalarga ko'tarish, bo'lish va foiz chiqarish mumkin. Ashshel kutubxonasi podsholar Asarxaddon va Sinaxxeriblarning harbiy xizmatlari maqtalgan matnlar mavjud. Osur ayg'oqchilari-ning maxfiy ma'lumotlar matnlari, turli xo'jalik huquqiy-iqtisodiy sohalar bo'yicha ma'lumotlar arxiv qilingan. O'z vaqtida Gerodot har bir osur va bobillik fuqaro o'z shaxsiy muhriga ega deb ko'rsatgan edi.

Osuriya tasviriy-san'atida inson obraziga o'ziga xos yondashilgan, go'zallik va jasoratni yaratishga uriniladi. Barcha relyef va haykallarda jismoniy kuch, sog'lomlik rivojlangan muskullarda, qalin va uzun jingalak sochlarda ifodalanadi. Osurlar tasviriy san'atda harbiy janrni yaratdilar. Podsho saroylari devorlaridagi relyeflarda rassomlar harbiy hayotni juda nozik san'at bilan ifodaladilar. Ulkan jang manzaralari, jangovar osurlarning dushmanni chekinishga majbur qilgani tasvirlanadi. Saroy devorlaridagi alebastr taxtalarda ov, jang, harbiy yurishlar, saroy hayoti va diniy marosimlar o'z aksini topgan. Ulug'vor yaratilgan saroyga kirishda qanotli ruhlar – podsho qo'riqchilari (haykallar) qo'yilgan. Podsho saroylarida haykallarga alohida e'tibor berilgan. Ular hayotiy tasvirlangan. Osurlarning bosh xudosi Ashshur qush patlari bilan qoplangan. Osurlar yaratgan romansning yoshi 3400 yilga teng. Osur musiqachilari ikki nota chiqarganlar va yetti tovushli gammadan foydalanganlar.

Osurlar quyosh va suv soatlarini kashf qilganlar. Ular algebraga asos soldilar, kvadrat va kub ildiz chiqarishni bilganlar. Ular oy kalendarini yaratdilar, oy va yerning yaqinlashuvini, quyosh va oy tutilishini oldindan aytganlar. Osuriya olimlari o‘simliklarni tanlab, ularni tizimga solganlar, qishloq xo‘jaligida tadqiqot ishlarini olib borganlar. Osurlar ilk zooparklarni tashkil qilganlar.

Osuriyaning madaniy yutuqlari tasodifan bo‘lgani yo‘q. Ular o‘z janubiy qo‘shnilari Babil madaniyatining hayotbaxsh ta‘si-ri ostida ilm-fan, madaniyatni rivojlantirdilar. Osurlar shumer mixxatini soddalashtirdilar, babil matematikasini o‘rganib o‘z matematik ilmiy kashfiyotlarini amalga oshirdilar. Ilm-fan diniy e‘tiqod darga‘si bo‘lgan osur kohinlari o‘z hamkasblari – bobil-lik kohinlar bilan yaqin hamkorlik qildilar. Ular Mesopotamiya orqali Kichik Osiyo, Misr bilan aloqa o‘rnatdilar. Osur kohinlari o‘z kasbdoshlari bo‘lgan Misr, Babil kohinlari bilan hamkorlik qildilar. Poytaxt Nineviyadagi Ashshurbanipal kutubxonasidagi Babil adabiyotining eng noyob namunalari, jumladan, Bilgamesh dostoni saqlanar edi. Osuriyaning mashhur hukmdori Ashshurbanipal adabiyot ishqibozi bo‘lgan bo‘lishi mumkin. U shunday yozuv qoldirgan: «Shumerlarning chiroyli, lekin tushunarsiz yozuvlarini va akkadlarning chalkash matnlarini takrorlash men uchun katta quvonch bo‘lar edi». Osuriyaliklar haykaltaroshlik san‘atini yuksak darajada rivojlantirdilar. Osurlarning ilk haykaltaroshlik namunalari Xabur qirg‘oqlarida topilgan sherlar bo‘lib, keyin Nimrud va Xorsabad haykallari yaratilgan.

Osuriyada me‘morchilik san‘ati yuksak rivojlangan edi. Babil shahridan so‘ng Old Osiyoda aholi soni bo‘yicha (170 ming kishi) ikkinchi o‘rinda bo‘lgan Nineviyada hukmdorlarning hashamatli saroylari, ulkan ibodatxonalar qurilgan. Ayniqsa, Sargon II ning saroyi odam boshli, qanotli ulkan ho‘kiz haykallari bilan bezatilgan. Osur saroylari relyef tasvirlarida dunyoviy syujetlar yetakchi o‘rin tutadi. Tasvirlarda osur podsholarining janglarda erishgan g‘alaba va yurishlari, kuch-qudrati o‘z ifodasini topgan. Hukmdor ulug‘vor jiddiy yuz ifodasi bilan ovda, jangda tasvirlangan. Soqolsiz haram og‘alari hamrohligida malika bilan dushman ustidan g‘alaba sharafiga bazmda tasvirlanadi. Relyeflarda podsho ishtirokida dushmanlarni qoziqqa o‘tqazish, asirlarning tilini sug‘urib olish va terisini shilish tasvirlanadi. Ovda yirtqich hayvonlar, bo‘kirayotgan sher, sahroda tuya, yugurib ketayotgan otlar ajoyib, hayotiy ifodalanadi. Osur harbiy san‘ati yuksak darajada rivojlandi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Рагозина З.А. Древняя Ассирия. – М.: 1998.
2. Рагозина З.А. История Халдеи: с отдаленнейших времен до возвышения Ассирии. – М.: 1998.
3. Дьяконов И.М. Законы Вавилона, Ассирии и Хеттского царства. ВДИ 1952. №3-4.

Asosiy sanalar

| | |
|-------------------------|--|
| Mil.avv. 722-yil | Isroil podsholigi bosib olinishi. |
| Mil.avv. XX–XVI asrlar | Osuriya tarixida qadimgi Osuriya davri. |
| Mil.avv. XV–XI asrlar | Oʻrta Osuriya davri. |
| Mil.avv. XV–XIV asrlar | Osuriya qonunlari toʻplamining tuzilishi. |
| Mil.avv. X–VII asrlar | Yangi Osuriya davri. Buyuk Osuriya davlati. |
| Mil.avv. 745–727-yillar | Tiglatpalasarning III hukmronligi. Osuriya qoʻshini qayta tuzildi. |
| Mil.avv. 681–669-yillar | Asarxaddon hukmronligi. Misrning bosib olinishi. Osuriya davlatining gullab-yashnashi. |
| Mil.avv. 669–629-yillar | Ashshurbanipal hukmronligi. Nineviya kutubxonasining tashkil etilishi. |
| Mil.avv. 612-yil | Osuriya poytaxti Nineviyaning Midiya va Bobil qoʻshinlari tomonidan bosib olinishi. |
| Mil.avv. 590-yil | Osuriyaning tarix sahnasidan ketishi. |

QADIMGI SHARQIY O'RTAYER DENGIZI DAVLATLARI

- 1. Mil.avv. III–II ming yilliklardagi davlat uyushmalari.**
- 2. Yamxad davlati va Giksoslar birlashmasi.**
- 3. Finikiya.**
- 4. Damashq podsholigi.**
- 5. Isroil-Yahudiya davlatlari.**
- 6. Sharqiy O'rtayer dengizi madaniyati.**

1. Mil.avv. III–II ming yilliklardagi davlat uyushmalari. Finikiya shaharlaridan bir nechasini arxeologlar qazib ochdilar. Fransuz arxeologi Klod Shefer shimoliy Suriyada Finikiya shahri Ugaritni ochdi. Bu shaharda mil.avv. II ming yillik o'rtalariga tegishli mixxat yozuvlar topilgan loy taxtachalar mifologik, diniy matnlar, xo'jalik hujjatlaridan iborat. Yana bir Finikiya shahari Biblda 1921-yildan arxeologik qazishmalar olib borildi. Bu shahar orqali qadimda Finikiya mahsulotlari Misrga chiqarilgan. Tavr tog'laridan va Frot daryosining o'rta oqimidan Misrgacha bo'lgan Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i hududi va Suriyani qadimda yunonlar Finikiya, Falastin va Suriya cho'llari deb atadilar. Qadimda bu hududning katta qismini Xanaan deb atalgan dengiz qirg'og'i tashkil etgan. Bu yerda katta suv havzalari bo'lmay, mahalliy miqyosida uncha katta bo'lmagan Falastindagi Iordan, Suriyadagi Oront daryolari mavjud edi. Suv havzalarining taqchilligi dehqonchilikning rivojiga imkon tug'dirmadi. Livan tog'lari Sharqiy O'rtayer dengizini bir qancha tumanlarga bo'lib, bir-biridan ajratgan. Cho'l va sahro hududlarida ko'chmanchi qabilalar joylashdi. Shu bilan birga, Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i temir rudasi, keng o'rmonlar, jumladan, mashhur Livan kedriga boy edi. Qadimda Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'ogida yashagan qabilalar va xalqlar to'g'risida qo'shni davlatlar manbalari (Misrning Tell-Amarna arxivi, Xett hujjatlari, Osuriya ma'muriy yozishmalari) va mahalliy yahudiy dini yodgorligi bo'lgan Bibliya (yunon tilida «kitoblar» ma'nosini bildiradi) ma'lumot beradi. Yahudiy bibliyasi xristian bibliyasining bir qismi bilan to'liq mos keladi va Vetxiy Zavet deb ataladi. Yangi Zavet Iso payg'ambar hayoti va uning o'quvchilari faoliyati to'g'risidagi xristian kitoblari-dan iborat. Vetxiy Zavet yangi asr boshlarida rasmiylashdi. U

an'anaviy 3 bo'lim: qonun yoki ta'limot (Tora), payg'ambarlar va yozuv (Pisaniya) dan iborat.

Mil.avv. IV ming yillik oxirida Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i jamoalarida hunarmandchilik va dehqonchilik rivojlanadi. Dastlab shimol, so'ng janubda kulolchilik charxi va sopol kuydirish uchun maxsus o'choqlardan foydalana boshlangan. Metall ham keng ishlatilgan. Dehqonchilikda g'alla, zaytun daraxti va uzum yetishtirila boshlandi.

Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi mil.avv. III ming yillikda shahar tipidagi manzilgohlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ana shunday shaharlardan biri Finikiyada Bibldir. Bibl tosh devor bilan o'rab olingan edi. Shahar tosh to'shalgan ko'cha va tosh devorlar bilan birga, ibodatxonalariga ega edi. Bibldan Misrga kedr yog'ochi, smola, zaytun moyi olib ketilgan. Misrda smoladan mo'miyolashda foydalanilar edi. Misrdan Biblga badiiy buyumlar, munchoqlar, alebastr va diorit ko'zalar, qimmatbaho qutichalar, tilla va kumushdan ziynatlangan qurollar olib kelingan. Qirg'oq shaharlarida mulkiy tabaqalanish natijasida ijtimoiy qatlamlarning paydo bo'lishi kuchayib boradi Taxminlarga ko'ra, shu davrda shahar-davlatlarning ilk uyushmasi paydo bo'ladi. Asta-sekin qirg'oqda Bibldan tashqari, boshqa Finikiyada Ugarit, Sidon va Tir shaharlari paydo bo'ladi.

Mamlakatning ichkarisi Shimoliy Suriyada Alalax shahri (mil.avv. IV ming yilliklar oxiri – III ming yillikning I yarmida) shakllanadi. Mil.avv. III ming yillikda Suriyadagi Ebla shahrida (hududi 56 ga) taxminan 20-30 ming aholi yashagan. Eblada asosan hunarmandchilik va savdo rivojlanadi. Mil.avv. XIV–XIII asrda bu shaharda saroy ansambllari shakllanadi. Bu yerda arxivlar, xomashyo zaxiralari, qimmatli chet el mollari saqlanadi. Ebladan Misr fir'avnlari nomlari yozilgan alebastr xumlari, 32 kg lazurit topiladi. Ebla Akkad hokimlari tazyiqiga uchraydi. Mil.avv. 2225-yilda Eblani Akkad podshosi Naram-Suen bosib oladi. Ijtimoiy jihatdan Ebla shahar-davlat edi. Davlat tepasida podsho turgan va u taxminan diniy vazifalarni bajargan. Uning oldida maslahatchilar bo'lgan.

Madaniy jihatdan Ebla Shumer sivilizatsiyasi yutuqlarini o'zlashtiradi. Shumer-Ebla lug'ati tuziladi. Ebla saroy devorlarining bezalishida Mesopotamiya me'morchiligi bilan aloqa yaqqol ko'rinadi. Mil.avv. III ming yillikda Falastinda Megiddo,

Quddus va Laxesh shaharlari shakllanadi. Barcha shaharlar mustahkam devorlar bilan o'rab olinadi. Iordan daryosi vodiysida Xasor shahri yirik markazga aylanadi. Mil.avv. III ming yillikda Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i aholisi o'z tarkibiga ko'ra xilma-xil edi. Shimolda xurrit qabilalari yashagan. Mil. avv. II ming yilliklarda bu yerga xetlar kirib keladi. Ammo mil. avv. IV ming yilliklarda asosiy aholi semit shoxobchasi tillarida so'zlashadi. Tadqiqotchilar, Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'ida mil.avv. III–II ming yilliklarda mavjud bo'lgan eblaid, qadimgi xanaan, ugarit va amoriy tillarini ko'rsatadilar.

2. Yamxad davlati va Giksoslar birlashmasi. Mil.avv. XVIII asrda Shimoliy Suriyaga bostirib kirgan amoriy qabilalaridan biri bir necha shahar va davlatlarni birlashtirgan yirik davlatni barpo qilishga urinadi. Bu siyosiy birlashma Yamxad nomi ni oladi. Dastlab bu birlashma qabilalar ittifoqi shaklida edi. Uning asoschisi doimiy qarorgohga ega bo'lmagan. Yamxad davlati shimolda Karxemishdan janubda Oront daryosigacha bo'lgan bepoyon hududga hukmronlik qilgan (tax. mil.avv. XVII asrning II yarmida). Xalpa (hozirgi Aleppo) shahri poytaxt vazifasini o'tagan. Mesopotamiya shimolidagi Mari shahri bilan serqatnov savdo aloqasi o'rnatiladi. Mil.avv. XVII asrda Yamxad zaiflashib, tushkunlikka yuz tutadi. Mil.avv. 1600-yillar atrofida Yamxad davlatini xetlar bosib oldilar.

Mil.avv. XVII–XIII asrda Yamxaddan janubroqda bir qancha shaharlarni birlashtirgan qudratli giksoslar ittifoqi vujudga keladi. Qo'shinning zarbdor qismi jang aravalariga ega bo'lgan giksoslar o'z hokimiyatlarini Misrda o'rnatdilar. Ular Falastin va Suriyada ham egalik qildilar. Giksoslar ittifoqiga Kadesh va Megiddo shaharlari ham kirdi. Giksoslar davlati qurama bo'lib, unda semit qabilalari yetakchi o'rinni egalladi. Bu davlat birlashmasiga xurrit va xett qabilalari qo'shildilar.

Giksoslar Misrdan haydalgach, Falastin va Suriyaga chekinib, bu yerda yana qariyb yuz yil hukmronlik qildilar. Shimoliy Suriyada xetlar hokimiyatni qo'lga oldilar, lekin tez orada Mitanni davlati bu hududni egallab oladi. Mil.avv. XVI asr oxiriga kelib, Sharqiy O'rtayer dengizi Misr va Mitanni tomonidan bo'lib olinadi. Bu ikki davlat hududda to'la hukmronlikni qo'lga kiritish uchun to'xtovsiz urushlar olib boradilar. Mil.avv. XV asr oxiriga kelib, bu raqobat Shimoliy Suriyaning Mitanniga, Janubiy Suriya va Falastinning Misrga o'tishi bilan yakunlanadi. Mil.avv. XV–XIV asrlarda Sharqiy

Oʻrtayer dengizi siyosiy tarqoqlik, oʻzaro urushlar girdobida qoladi. Bu hududda halokatga uchragan Mitanni davlatining oʻrniga xetlar keladi. Mil.avv. XIII–XII asr boshlarida Suriya va Falastin Oʻrtayer dengizi qirgʻogʻida egey-anatoliya xalqlari («dengiz xalqlari») bosqiniga uchraydi. Ular Kipr, Karxemish va Ugarit flotini tor-mor qiladilar.

Mil.avv. XII asrda ular (Suriya chegarasidagi savdo-hunarmandchilik markazi) Ugaritni batamom vayron qiladilar. Livan-dagi Amurri davlatini tugatadilar. Sidon va Tir shaharlarini talon-taroj qiladilar. Shundan soʻng ular mil.avv. 1180-yillar atrofida Misrga hujum qiladilar, lekin misrliklar hujumni qaytaradilar. Misrdan uloqtirib tashlangan kelgindilar Falastin qirgʻogʻiga oʻrnashib, Filistim («Peleset») nomi bilan davlat tuzadilar. Tez orada ular bu yerdagi mahalliy aholining tili va madaniyatini oʻzlashtiradilar. Ularning nomidan «Falastin» nomi kelib chiqadi.

3.Finikiya. Sharqiy Oʻrtayer dengizi mil.avv. II ming yillikda doimiy ravishda Old Osiyodagi Misr, Osuriya, Xett, Bobil kabi qudratli davlatlarning raqobat maydoni boʻlib qoladi. Hududda katta-kichik davlatlar, shahar-davlatlar bir-biri bilan munta-zam oʻzaro urushlar olib borar edilar. Finikiyadagi Sidon shahri Tirni oʻziga boʻysundirib, keyin uning yordamida Bobilga tazyiq oʻtkazib, shimoldan dengiz orqali gʻalla olib kelishga xalaqit berdi. Mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida Ugarit shahri dengizboʻyi shahar davlati boʻlib, Mesopotamiya, Misr, Kichik Osiyo, Falastin bilan qizgʻin savdo aloqalarini olib boradi. Ugarit Orontning quyi oqimi va Oʻrtayer dengizi bilan cheklanib, u yerda gʻallachilik, bogʻdorchilik, vino, zaytun moyi ishlab chiqarish rivojlangan edi. Qishloq jamoasi soliqni mis va kumush bilan toʻlar edi. Bu davrda erkin aholi uch toifaga boʻlinadi:

1. Jamoachi dehqonlar.

2. Podsho yaqinlari– «podsho qullari». Ular podshodan yer ulushlari olganlar. Ularning koʻpchiligi oʻz ota meros yerlariga ega boʻlib, qishloq jamoasi bilan rasman aloqani uzmaganlar.

3. «Podsho qulining quli» – oʻz yerlariga ega boʻlmay, zodagonlarning yerida ishlaydigan qatlam. Ular oʻz yeridan ajralib, jamoa bilan aloqani uzganlar va qisman kelgindilardan iborat boʻlgan.

Qulchilik mavjud boʻlib, uning manbasi oldi-sotdi va qarzi uchun qul qilish edi. Mil.avv. XII asr boshlarida «dengiz xalqlari» hujumi natijasida Ugarit toʻla buzib tashlanadi va qayta tiklan-

maydi. Shu vaqtda Sidon shahri ham bosqinga uchraydi, lekin qayta tiklanadi. Sidon mil.avv. XI asr o'rtalarida katta port shahriga aylanadi. Dengiz xalqlarining ikki shoxchasi – filistinlar va chakarlar dengiz bo'yida o'rnashib, mahalliy aholi bilan aralashib ketadilar.

Mil.avv. I ming yillikning birinchi yarmida Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i shaharlari siyosiy kelishmovchiliklarni tugatdilar va jadal rivojlanish davriga o'tadilar. Bu vaqtda finikiyaliklar amalda Sharqiy O'rtayer dengiziga hukmron bo'lib, xalqaro savdoni to'la o'z qo'llariga oladilar. Misr tashqi savdosi to'la Finikiya qo'lida edi.

Mil.avv. II ming yillik oxiri – I ming yillik boshlarida Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i shaharlari qayta tiklanadi. Shuningdek, Finikiya shaharlari Misrning tashqi savdosida birinchi o'rinda edilar. Finikiya shaharlarida kemasozlik, dengizchilik yuqori darajada rivojlanadi. Finikiyaliklar O'rtayer dengizi havzasida o'zlarining o'nlab koloniyalarini barpo qiladilar. Tir va Sidon shaharlari bu yo'nalishga boshchilik qiladi. Mil.avv. 1100-yilda Tir Shimoliy Afrikada Utika koloniyasini, mil.avv. 825–814-yillar atrofida Shimoliy Afrikada Karfagen (Kaxemish-yangi shahar) koloniyasini tashkil qildi. Taxminan, shu vaqtda Tir shahri Ispaniyada o'zining Gades koloniyasiga asos soldi. Finikiyaliklar G'arbiy Sitsiliya, Sardiniya, Malta va Balear orollarida ham o'zlarining tayanch nuqtalarini yaratdilar.

Finikiya shaharlari o'rtasida birlashish ehtiyoji paydo bo'ldi. Tir shahri yuksalib, Sidonni o'ziga bo'ysundirib, Tir hokimlari o'zlariga sidonliklar podshosi unvonini qabul qildilar. Tir-Sidon davlatining eng rivojlangan davri podsho Xiram (mil.avv. 989–936-yillar) davriga to'g'ri keladi. Sharqda Xiram diplomatik yo'l bilan Falastinni bir qismini oladi. Kipr orolidagi Kitiy shahri hokimi o'zini Axiramni (Xiram) quli (ya'ni fuqarosi) deb ataydi. Xiram davrida katta miqyosda qurilish ishlari olib boriladi. Melkart va As-tart ibodatxonalari quriladi. Itobaal (mil.avv. 873–847-yillar) Xiramning siyosatini davom ettirib, Shimoliy Afrikada (Utikadan g'arb tomonda) Avzu koloniyasini barpo qildi. Podsholarning mutlaq hokimiyatga intilishi boy savdogar-hunarmandlarning qarshiligiga sabab bo'ldi. Natijada Tirda podsho hokimiyati zaiflashib, boy savdogar-hunarmandlarning boshqaruvdagi mavqei kuchaydi. Boy savdogarlar o'z savdo flotlariga ega bo'lib, mustaqil ravishda dengiz savdo ekspeditsiyalarini amalga oshirdilar.

Finikiya shaharlari Tir, Sidon va Bibl tranzit savdo bilan shug'ullanib, Misr va Bobilda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Yunonistonga, yunon hunarmandchilik mahsulotlarini Sharqqa sotdilar. Tir savdogarlari mil.avv. VII asr oxiri – VI asr boshlarida Kichik Osiyoning sharqi va Janubiy Arabistonga suqilib kirdilar. Finikiyaliklar tomonidan Ispaniyadan kumush hamda Britaniyadan qo'rg'oshin olib kelingani ehtimoldan holi emas. Misr va Mesopotamiyaga yog'och, hunarmandchilik mahsulotlari chiqarildi. Tir shahri o'z bo'yoqchilik ustaxonalari bilan tanilgan edi. Ustaxonalarda dengiz chig'anoqlaridan siqib olinadigan qizil bo'yoq bilan chetdan keltirilgan jundan tayyorlangan mato bo'yalar edi. Finikiya bo'yog'i butun Old Osiyoda yuqori baholangan. Sidon shisha buyumlar tayyorlash markazi bo'lgan. Qadimgi Sharq va G'arbda Finikiya zargarlik buyumlari (oltin va kumush jomlar, fil suyagiga o'yilgan relyef tasvirlar, tilla zeb-ziynatlar)ning bozori chaqqon edi.

Finikiya dengiz savdosi dengiz qaroqchiligi bilan birgalikda olib borilgan. Dengizda va dengizbo'yi qishloq-shaharlarida vaziyatga qarab, finikiyaliklar odamlarni bosib olar yoki o'g'irlab ketar edilar. Bir qism odamlar qul qilib sotilgan, qolganlari Finikiyaga olib ketilib, portda yukchi, eshkak eshuvchi, ustaxonada qora ishchi sifatida ishlatilgan. Chet elliklarni aldab qullikka sotish, olish, ishonuvchan odamlarni o'z kemalariga aldab olib kelish va ularni qullikka sotish finikiyalik savdogar-dengiz qaroqchilariga xos xususiyat edi. Shu sababli, boshqa hududlarda finikiyaliklarga nisbatan munosabat yomon bo'lgan.

Boy savdo-hunarmadchilik markazlari bo'lgan Finikiya shaharlari Old Osiyodagi qudratli davlatlarning doimiy diqqat markazida edi. Bu shaharlarga egalik qilish uchun Misr, Bobil, Xett, Osuriya, Ahmoniylar Eroni o'rtasida kuchli raqobat mavjud edi. Ayniqsa, Misr, Bobil, Xett davlatlarining tashqi savdosida finikiyaliklar yetakchi o'rinni egalladilar. Misr-Xett davlatlari Finikiya uchun uzoq kurash olib bordilar. Mil.avv. VIII asrda Finikiya Osuriyaga qaram bo'ldi. Tir podshosi Meteni Tiglatpalasar II ga 150 talant tilla miqdorida katta o'lpon to'ladi. Osuriyadan keyin Misr va Bobil Finikiya uchun raqobat qiladilar va raqobatda Bobil g'olib chiqadi.

Mil.avv. VI asrda ulkan Ahmoniylar Eroni davrida ahvol o'zgardi. Finikiya Ahmoniylar hokimiyatini ko'ngilli ittifoqchilar huquqida tan oldi. Buning evaziga Ahmoniylar Finikiya hududini shimolda Iss qo'ltig'igacha, janubda Askalongacha ken-

gaytirdilar. Ahmoniyalar hukmronligi davrida Tir, Sidon, Arvad shaharlari federatsiyasi, uning oliy organi umumfinikiya kengashi tashkil etildi. Finikiya shaharlari Fors davlatining asosiy iqtisodiy markazlaridan biriga aylandi. Finikiya savdogarlari Ahmoniyalar davlati tashqi savdosining katta qismini o'z qo'llarida to'pladilar. Shaharlarda kumush tangalar zarb qilindi. Ahmoniyalar Finikiya shaharlaridan katta miqdorda to'lovlar talab qilar edilar. Shu sababli, finikiyaliklar bu zo'ravonlikka qarshi norozilik kayfiyati kuchli edi. Mil.avv. 343-yilda Sidon shahri forslarga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olon bostirilib, shahar buzib tashlandi. Tir shahri esa makedoniyalik Aleksandr tomonidan vayron qilindi. Finikiya shaharlari mil.avv. III ming yillikdan to makedoniyalik Aleksandr yurishlariga qadar Old Osiyo, Shimoliy Afrika, O'rtayer dengizi havzasi xalqaro savdosida yetakchi o'rinni egalladi. Dunyo tarixida birinchi bo'lib, koloniyalarni barpo qildilar, O'rtayer dengizi savdosida yetakchi o'rinni egallab, yunonlar, etrusklar bilan raqobat qildilar. Mil. avv. IV asrda makedoniyalik Aleksandr yurishlari bilan Finikiya shaharlari o'z mavqeini yo'qotdi. Shu bilan Finikiya tarixi tugadi.

4. Damashq podsholigi. Damashqning yuksalishi mil. avv. II ming yillik oxirida Arabistondan kelgan somiy qabilalaridan biri oromiylar bilan bog'liq. Ular Arabistonda tuya boqish va ko'paytirish bilan mashg'ul bo'lganlar. Mil.avv. I ming yillik boshlarida oromiylar Suriya va Shimoliy Mesopotamiyada oromiy-xurrit aholisini to'la assimilatsiya qiladilar. Bu vaqtga kelib, oromiy tili Old Osiyoda asosiy tillardan biriga aylanadi. Mil.avv. II ming yillik oxirlarida kontinental Suriyaning savdo yo'llari kesishgan nuqtasida Arabistondan kelgan somiy qabilalaridan biri oromiylarning Suriyadagi bosh markazi Damashq shahri kuchayib ketdi. Damashq podsholigining iqtisodiyoti rivojlangan chorvachilik, butun Yaqin Sharqqa mashhur bo'lgan qurolsozlik va oliy navli jun bilan vositachilik savdosiga asoslangan edi. Damashq podsholari qadimgi xurrit podsholari unvonlarini eslatadigan «Xudo Bo'ri O'g'li» («Ben-Xadad») unvonini oldilar.

Mil.avv. IX asr o'rtalarida Damashq osur podsholari Ashshurnasirpal II (mil.avv. 884–859-yillar) va Salmanasar III ning Sharqiy O'rtayer dengizi hududida bosqinchilik urushlariga qarshi kurashda hal qiluvchi rol o'ynadi. Mil.avv. 853-yil Damashq podshosi Ben-Xadad II va Isroil podshosi Axav boshchiligidagi

birlashgan qo'shin Qarqara yonidagi jangda Salmanasarning 120 ming kishilik qo'shini hujumini qaytardi.

Salmanasar III mil.avv. IX asrning II yarmida podsholik qildi. Mil.avv. 841-yilda esa Salmanasar Damashq qo'shinlarini yengadi va shaharni qamal qiladi. Lekin uni ishg'ol qila olmadi. Mil.avv. VIII asr boshlarigacha Osuriya Sharqiy O'rtayer dengizini bo'ysundirishga harakat qiladi, lekin bu yerda o'rnasha olmadi.

Mil.avv. IX asrning II yarmida Damashq podshosi Ben-Xadad III faol tashqi siyosat yuritib, Isroilning Iordan daryosi ortidagi mulklarini qo'lga kiritdi. Damashq Janubiy Falastinga ham kirib boradi va Yahudiyadan xiroj ola boshladi. Damashq podshosi Ben-Xadad III Damashq podsholigining kuch-qudratini doimiy ravishda mustahkamlashga jiddiy e'tibor berdi. U Shimoliy Suriyaning 17 hokimini birlashtirib, ularni Orontdagi raqibi Xamat podsholigiga qarshi qo'ydi. Lekin Damashq podsholigining gullab-yashnashi uzoqqa cho'zilmadi. Nisbatan kichik hududni egallagan Damashq podsholigi Old Osiyoning qudratli davlatlari tazyiqiga dosh bera olmadi. Mil.avv. IX asr oxirida beto'xtov urushlar sababli zaiflashib qolgan Damashq Osuriya podshosi Adadnerari III qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Osuriyaliklar bu yerda ulkan miqdorda temirni o'lja sifatida oldilar.

Sharqiy O'rtayer dengizida birinchilikni da'vo qilgan kuchli shahar-davlatlar—Tir, Sidon va Damashq bilan bir qatorda kichik davlatlar ham mavjud edi. Jumladan, shunday shaharlardan biri Shimoliy Suriyadagi Karxemish boy savdo hunarmandchilik markazi bo'lgan. Xett davlati yemirilgach, u mustaqil bo'ldi va xett tili hamda madaniy an'analarini saqlab qoldi.

5. Isroil-Yahudiya davlatlari. Falastinda isroil qabilalari Misrdan kelib o'rnashdilar. Mil.avv. XIII asrda 12 yahudiy qabilalari Falastinga bostirib kirib, mahalliy Xanaan shahar-davlatlarini bo'ysundirdilar. «Yahudiy» so'zi etimologik jihatdan «daryo ortidagi aholi» degan ma'noni bildiradi. Saylab qo'yiladigan yo'lboshchi – shofetlar («qozi») oliy kohin vazifasini bajarib, qabilaning ko'ngilli qo'shinlariga boshchilik qilganlar. Tinchlik vaqtida esa ajrim ishlari bilan shug'ullanganlar. Mil.avv. XI asrning oxirida yahudiy jamiyatida ibtidoiy jamoa tuzumidan sinfiy jamiyatga o'tish yuz berdi. Saylab qo'yiladigan yo'lboshchilar o'rniga merosiy podsho hokimiyati shakllandi. Mil.avv. XII

asrda Falastin hududida kelgindi ko'chmanchi isroil qabilalari va mahalliy xanaanlar birlashib, 12 qabila ittifoqini shakllantirdilar.

Mil.avv. XI asr boshlarida Falastinda temir qurollar ishlab chiqarishda yetakchi bo'lgan filistimlar hukmronligi o'rnatilgan edi. Isroil qabilalari filistimlarga qarshilik ko'rsata olmadi. Filistimlar bilan bo'lgan janglar davomida podsho qilib Saul saylandi. U podsho hokimiyatini mustahkamlab, birinchi merosiy podsho bo'ldi. Saul filistimlar bilan bir necha g'olibona urushlar olib bordi. Lekin navbatdagi urushda mag'lub bo'lgani uchun o'zini o'ldirdi. Mil.avv. 1000-yillar atrofida Saulning oddiy jangchisi bo'lgan Dovud Isroil podshosi bo'ldi. Dovud markazlashgan harbiy-byurokratik davlat tuzishga harakat qildi. Dovud (1010–970-yillar) podsholigi davrida markazlashgan davlat tuzildi. Bosib olingan Quddus yangi davlatning poytaxtiga aylandi. Mamlakatni boshqarish uchun markaziy davlat organlari tuzildi. Podsho kritlik va filistimlardan o'ziga sodiq yollanma qo'shin tuzadi. Dovud faol tashqi siyosat olib bordi. U filistimlar bilan sulh tuzdi. Iordan daryosi ortidagi yerlar, filistimlar va Janubiy Suriya oromiylarini bo'ysundirib, davlat chegarasini Aqab qo'ltig'igacha kengaytirdi.

Dovudning taxtini uning kichik o'g'li Sulaymon (mil.avv. 970–930-yillar atrofida) egalladi. Sulaymon davrida qurilish ishlari keng yo'lga qo'yildi, shuningdek, Quddusda bosh xudo Yaxva sharafiga ibodatxona qurildi. Davlat hududi 12 okrugga bo'lindi. Ularning har biri yilda bir oy podsho saroyiga oziq-ovqat yetkazish majburiyatini oldi. Mehnat majburiyati joriy qilindi. Rivoyatlarga ko'ra, Sulaymon dono va adolatli podsho deb ta'riflanadi. Haqiqatda esa, Sulaymon hokimiyatparast hukmdor bo'lib, aholiga ko'plab soliq va majburiyatlarni yukladi. Boshqa xalqlarga nisbatan shafqatsiz siyosat olib bordi.

Sulaymon podsholigining so'nggi yillarida shimolda Damashq podsholigi kuchaydi. Sulaymonning shafqatsiz siyosatidan norozi bo'lgan o'n shimoliy yahudiy qabilalari ajralib chiqib, mustaqil Isroil podsholigini tashkil qildilar. Uning poytaxti yangi qurilgan Samariya shahri bo'ldi. Dovud sulolasi hukmdor bo'lgan Quddus podsholigi uning bosh qabilasi nomi bilan Yahudiya davlati deb ataldi. Ikkala podsholik ham bir-biri bilan dushmanlik munosabatida bo'lib, vaqti-vaqti bilan konfederatsiya tashkil qildilar. Yahudiyaning parchalanganidan foy-

dalangan Misr fir'avni Sheshonk I mil.avv. 926-yilda Falastinga yurish qilib, Yahudiya va Isroilni bosib oldi.

Mil.avv. VIII asr o'rtalaridan VI asrgacha Sharqiy O'rtayer dengizi havzasiga Old Osiyodagi siyosiy vaziyat katta ta'sir o'tkazdi. Mil.avv. VIII asr o'rtalarida Osuriya (mil.avv. 732–722-yillar) Damashq va Isroil davlatlarini tor-mor qildi. Tir-Sidon podsholigining katta qismi Osuriya tomonidan bosib olinib, tobe hududga aylantirildi. Finikiyaliklar Osuriya zulmiga qarshi kuchli qarshilik ko'rsatdilar. Yuz yil davomida Tir shahri 5 marta Osuriya tobeligidan qutulishga harakat qildi. Mil.avv. 701-yilda osur podshosi Sinaxxerib Tirning ikkinchi qarshiligini bostirishi natijasida Tir shahri o'ta zaiflashib qoldi. Finikiyada yetakchi mavqeni egallagan Tir shahri boshqa shaharlardan butunlay ajratib tashlandi. Natijada Tir-Sidon podsholigi dengizorti hududlari bilan tugatildi. Osuriyaning g'arbiy qismiga skiflarning hujumi Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'ida Osuriya hukmronligiga chek qo'ydi.

Yahudiya podshosi Iosiya (mil.avv. 640–609-yillar) Osuriya hukmronligiga chek qo'ydi. U davlat mustaqilligini tiklab, podsholar – Dovud va Sulaymon davridagi davlat chegaralarini tikladi. Misr esa Frot daryosigacha bo'lgan yerlarni bosib olib, mil.avv. 616-yilda bobilliklarga qarshi Mesopotamiyada osuriyaliklarga yordamga keldi. Bu vaqtda Tir shahri yana vaqtinchalik butun Finikiyada yetakchi davlatga aylandi. Iosiya davrida Yahudiyada yakka xudolik harakati boshlanadi. Yaxva yagona xudo deb e'lon qilindi.

Osuriyaning halokatidan keyin Sharqiy O'rtayer dengizi Misr va Bobil o'rtasidagi raqobat maydoniga aylandi. Mil.avv. 609-yilda fir'avn Nexo II Megiddo yonidagi jangda Iosiy qo'shinarini yengib, natijada Yahudiya Misrga tobe bo'ldi. Misr va Bobil o'rtasidagi raqobat oxir-oqibatda mil.avv. 587-yilda Yahudiyaning halokati, yahudiylarning Mesopotamiyaga asir qilib olib ketilishi, butun Sharqiy O'rtayer dengizining Bobilga tobe bo'lishi bilan yakunlandi. Mil.avv. 539-yilda Ahmoniyalar tomonidan Bobilning bosib olinishi bilan bu hududda forslar hukmronligi o'rnatildi. Ahmoniyalar Quddus va uning atrofidagi hududlarga cheklangan muxtoriyatlar berdilar.

Mil.avv. I ming yillikda Falastinda Filistim, Yahudiya va Isroil davlatlari vujudga kelishi natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida turli o'zgarishlar ro'y berdi. Savdo-hunarmandchilik, dehqonchilik rivoj topdi. Tashqi savdo kuchayib, ortiq-

cha g'alla va boshqa mahsulotlar Tir shahriga sotildi. Yerga xususiy mulkchilik paydo bo'ldi. Jamiyatning ijtimoiy qatlam va guruhlari shakllandi.

Mil.avv. VIII–VI asrlarda Falastinda quyidagi 4 toifa mavjud edi:

1. Dunyoviy zodagonlar, diniy zodagonlar (kohinlar, payg'ambarlar).

2. Yerli xalq (erkin aholining asosiy qismi).

3. Begona yurtliklar (kelgindi va ko'chib kelganlar).

4. Qullar.

6. Sharqiy O'rtayer dengizi madaniyati. Sharqiy O'rtayer dengizi hududining eng katta madaniy yutug'i alfavitli yozuvning yaratilishi edi. Mil.avv. II ming yillikda Sharqiy O'rtayer dengizi shaharlarida savdo-hunarmandchilik, dengiz yo'li orqali savdo aloqalari barcha ishlarni tez yuritishga imkon beradigan oddiy yozuvni yaratishni talab qildi. Mil.avv. XV–XII asrlardayoq Ugaritda 30 belgili mixxat alfaviti qo'llanildi. Finikiya yozuvining shakllanishi mil.avv. II ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. Finikiyada qulay O'rtayer dengizi portlarining mavjud bo'lishi boshqa xalqlar bilan gavjum savdo aloqalarini o'rnatishga va dengizchilikning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Savdo-sotiq yozuvlari va hisob-kitoblarni olib borish zaruriyati o'qish, o'rganish uchun qulay bo'lgan yozuvni yaratishni tezlashtirdi.

Finikiya yozuvining eng qadimgi yodgorliklari (Xiram, Azerbal, Abibal, Elibal, Shafatbal yozuvlari) mil.avv. XI–X asrlarga tegishli. Yozuv 22 grafik belgidan iborat bo'lib, har bir harf ma'lum bir undosh yoki yarim undosh tovushdan tashkil topgan edi. Dunyo tarixida ilk sof tovushli yozuv paydo bo'ldi. Nisbatan kam sonli belgilar yordamida har qanday so'zni uzatish mumkin edi. Finikiya yozuvining paydo bo'lishi insoniyat ma'naviy taraqqiyotida tub burilish yasadi. Endilikda yozuv faqat ayrim toifalar foydalanadigan tushunarsiz, sirli san'at bo'lmay qoldi. U jamiyat uchun zarur va unga tegishli, hamma foydalanishi mumkin bo'lgan boylikka aylanadi. Ana shu sababli, finikiya yozuvi tez va jadal sur'atda boshqa xalqlar o'rtasida mil.avv. IX asrdan boshlab tarqaladi. Hisoblarga ko'ra, bizga ma'lum alfavitli yozuv tizimlarining 4/5 qismi bevosita yoki bilvosita finikiya yozuvidan kelib chiqadi. Qadimgi finikiya yozuvi asosida oromiy, yunon, janubiy arab, yahudiy, karfagen, braxma yozuvlari kelib chiqdi.

Sharqiy Oʻrtayer dengizi xudolar panteoni tabiat kuchlarini aks ettiradi. Har bir shaharning oʻz homiy maʼbudi bor edi: Bal (hokim) yoki El (xudo), baʼzida Melek («podsho», boshqacha aytilishi Molox), Tir shahrida Melʼkart («shahar podshosi»), ayol maʼbuda Astarta (Mesopotamiyada Ishtar). Falastinda mil.avv. VIII–VI asrlarda monoteistik taʼlimot keng tarqaladi. Ugarit va Ebla shaharlarida hashamatli meʼmorchilik inshootlari saroylari bunyod qilinadi. Dengizchilik, kemasozlik sohalari yuksak darajaga koʻtarildi. Yogʻoch va toshdan podsho va maʼbudalar haykallari yasaladi.

Finikiyaliklar dunyodagi birinchi dengizchilar edi. Ularning kemasozlikka asos soldilar. Finikiya dengizchilari va kemalaridan butun Old Osiyo mamlakatlari foydalandi. Finikiyaliklar dunyo tarixida birinchi boʻlib, uzoq dengiz sayohatlarini uyush-tirdilar. Mil.avv. 600-yillar atrofida firʼavn Nexo buyrugʻi bilan finikiyaliklarning dengizchilik tarixida ilk bor Gibraltar boʻgʻozi orqali Atlantika okeaniga chiqib, Afrikani aylanib oʻtishlari buyuk kashfiyot edi.

Finikiyada hunarmandchilik yuqori darajada rivojlandi. Finikiya hunarmandlari chigʻanoqlarning alohida turidan olinadigan qizil boʻyoqni kashf qildilar. Ular shisha buyumlarni ishlab chiqarishni yuqori darajada takomillashtirdilar. Finikiya boʻyoqlari, shisha buyumlari va kulolchilik mahsulotlari Old Osiyoda yuqori baholangan.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Шифман И.С. Финикийская историческая традиция в греческой и римской историографии (проблемы происхождения финикинцев). – М.: 1981. стр. 103-106.
2. Шифман И.С. Финикийские мореходы. – М.: 1965.
3. Харден Д. Финикийцы. основатели Карфагена. – М.: 2002.

Asosiy sanalar

| | |
|----------------------------------|---|
| Mil.avv. 1600-yil | Yamxad davlatini xetlar bosib olishi. |
| Mil.avv. III ming yillik | Ebla davlati. |
| II ming yillikning II yarmi | Ugarit shahar-davlati. |
| Mil.avv. XIII–VII ming yilliklar | Iyerixon dehqon va chorvadorlar madaniyati. |
| Mil.avv. XIII asr | Falastinga qadimgi yahudiy qabilalarining bostirib kirishi. |

| | |
|----------------------|--|
| Mil.avv. X-IX asrlar | Tir-Sidon davlatining gullab-yashnashi. |
| Mil.avv. IX asr | Damashq podsholigining yuksalishi. |
| Mil.avv. 722-yil | Osuriya tomonidan Isroilning bosib olishi. |
| Mil.avv. 622-yil | Yahudiya podshosi Iosiyning diniy islohoti. |
| Mil.avv. 587-yil | Iyerusalimning Bobil tomonidan bosib olinishi. |
| Mil.avv. VIII asrda | Finikiyaning Osuriyaga qaram bo'lishi. |

ARABISTON YARIM OROLINING QADIMGI DAVLATLARI

1. Arabiston yarim orolining geografik o'rne, iqlimi va aholisi. 2. Qadimgi Arabiston tarixi manbalari va tarixshunosligi. 3. Shimoliy Arabiston. 4. Janubiy Arabistonning qadimgi davlatlari. 5. Janubiy Arabistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti. 6. Qadimgi Arabiston madaniyati.

1. Arabiston yarim orolining geografik o'rne, iqlimi va aholisi. Arabiston Osiyodagi eng katta yarim orol bo'lib, 3 mln. kv. km. hududni egalladi. Uni g'arbda Qizil dengiz, sharqda Fors va Ommon qo'ltiqlari suvi, janubda Adan qo'ltig'i va Arabiston dengizi yuvadi. Arabistonning bepoyon yerlari asosan sahrolardan iborat. Daryolar juda kam. Arabiston yarim oroli tabiiy boyliklarga boy. Qadimgi Sharqda o'zining ziravorlari va xushbo'y moylari bilan mashhur edi. Ziravor va xushbo'y moylardan qadimda kosmetika va parfyumeriya, tibbiyot, diniy marosimlarni bajarishda foydalanilar edi. Arabistonni o'rab turgan dengizlardan qadimdan marvarid, qizil va qora marjonlar olingan. Yarim orolda oltin, temir, qalay, mis va surma kabi xomashyolar va tuz konlari mavjud bo'lgan. Janubiy-g'arb va janubiy-sharqda qadimda oq marmar, oniks, alebastr; qimmatbaho toshlar: zumrad, berulliy, feruza bor edi.

Arabiston yarim orolining mil.avv. IV–III ming yilliklardagi aholisi to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Shumer hujjatlari-da Magan va Meluxxa (ba'zi tadqiqotchilar, Magan Arabiston yarim orolining sharqi deb taxmin qiladilar) mamlakatlari to'g'risida eslatib o'tiladi. Arabiston yarim orolining janubiy qismidan ilk paleolit olduvay qurollariga o'xshash qurollar topildi. Bu topilmalar Janubiy Arabiston Sharqiy Afrikadan boshlangan odamlarning tarqalish yo'llaridan biri bo'lganidan guvohlik beradi.

Qadimda Arabiston yarim oroli sersuv daryo vodiylari, boy flora va faunaga ega bo'lgan. Mil.avv. VIII–VII ming yilliklardan boshlab yarim orolning qariyb butun hududida qurg'oqchil iqlimning mutlaq hukmronligi boshlanadi. Odamlar Arabistonni tashlab ketadilar. Faqat uning chekka janubida va sharqida bir-biri bilan zaif aloqada bo'lgan alohida suvli voqiylar saqlanib qoldi. Mil.avv. VII ming yillikdan odamlar yashashi uchun qulay

iqlim faqat yarim orolning sharqiy qirg'oq qismi (Qatar), keyin mil.avv. VII–VI ming yilliklarda Markaziy va Janubiy Arabiston (Rub-el-Xalilning janubiy-sharqiy qismi, Shimoliy Yaman, Xadramaut)da vujudga kelib, bu hududlarga odamlar kelib o'rna sha boshladilar. Arabistonning sharqiy qirg'og'i bo'ylab mil. avv. V ming yillikdan El-Ubayd madaniyati, keyin Jamdat-Nasr madaniyati odamlari joylashdilar. Sharqiy Arabiston mil.avv. III ming yillikda, ayniqsa, Magan (Omon) Janubiy Mesopotamiya, Baxrayn va Shimoliy-G'arbiy Hindiston bilan dengiz savdosiga kirishdi.

Arabiston yarim oroli orqali qadimda xalqaro savdo yo'llari o'tgan. Bosh savdo yo'li «Xushbo'y moy yo'li» deb atalgan. Arabistonning janubiy-sharqi ikki yo'nalish bilan Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'iga borgan: biri G'azo va Ashdod, boshqasi Tir va Damashqqa yo'nalgan. Yana bir savdo yo'li Janubiy Arabistondan Janubiy Mesopotamiyaga boradi. Bundan tashqari, Arabiston qadimda Qizil dengiz va Fors qo'ltig'i dengiz yo'li orqali Sharqiy Afrika va Hindiston bilan savdo aloqalarini o'rnatdi.

Mil.avv. II ming yillikda Arabiston yarim orolining janubiy-g'arbida somiy tillarining janubiy arab shevasida so'zlashadigan Saba, Mina va Kataban qabila ittifoqlari vujudga keldi. Arabistonning shimoliy-g'arbiy qismida mil.avv. II ming yillikda midianit qabilalari yashagan.

2. Qadimgi Arabiston tarixi manbalari va tarixshunosligi.

Arabiston yarim orolining qadimgi tarixiga oid manbalar to'rt asosiy qismdan iborat: 1.Epigrafik ma'lumotlar. 2.Ashyoviy yodgorliklar. 3.Yozma manbalar. 4.Antik mualliflar ma'lumotlari.

Janubiy Arabistonning tosh, jez, sopolga yozilgan va o'z mazmuniga ko'ra, ikki guruhga bo'linadigan davlat hujjatlari (podsho farmonlari, podsholarning harbiy va ichki siyosatga oid yozuvlari) va xususiy-huquqiy qabrtosh lavhalari, sun'iy sug'orish inshootlaridagi yozuvlardan 2500 tasi saqlanib qolgan.

Arxeologik qazishmalar bizga boy ma'lumotlar beradi. Qadimgi Saba podsholigining bosh shahri Marib xarobalari (Yaman Arab Respublikasi poytaxti Sanaga yaqin joy) o'rganildi. Shahardan saroy qoldiqlari, devorlar va haykallar topildi. Shaharning g'arbidagi ulkan Marib to'g'oni qoldiqlari kishini hayratga soladi. Kataban poytaxti Timna shahri ibodatxonalari, nekropol va qal'a qoldiqlari qazib ochildi. Nabatey podsholigi poytaxti Petra shahridan me'morchilik inshootlari va haykallar topildi.

Bundan tashqari, Arabiston va arablar to'g'risidagi qisqa ma'lumotlar Osuriya, Yangi Bobil, Eron manbalari va Bibliyada uchraydi. Antik tarixchilar Gerodot (mil.avv. V asr)ning «Tarix» asarida, Feofrastning (mil.avv. IV asr) «O'simliklar tarixi», Diodorning (mil.avv. I asr) «Tarixiy kutubxona» va Strabonning (mil.avv. I asr) «Geografiya» kabi asarlarida qadimgi Arabiston to'g'risida qator ma'lumotlar bor.

Yevropada Daniya qiroligining 1760-yilda olim Karsted Nibur boshchiligidagi ilmiy ekspeditsiyasi Yamanni tekshirdi. K.Nibur bu sayohat to'g'risida «Arabiston va unga qo'shni mamlakatlarga sayohat tasviri» asarini yozadi. Qadimgi Arabiston tarixi XIX asrdan boshlab atroflicha o'rganila boshlandi. Dastlab epigrafik yozuvlar tadqiq qilindi. XX asrda Belgiya, Fransiya, Avstriya va AQShda Arabiston xalqlarining geografiyasi, madaniyati, dini va xronologiyasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar e'lon qilindi.

3. Shimoliy Arabiston. Qadimda Shimoliy Arabiston, Suriya va Mesopotamiya cho'llarining keng hududlarida odamlarning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lib, it, eshak, yirik shoxli qoramollar boqilgan. Bu hududda yashagan urug' va qabilalar qabilalar ittifoqi va kichik davlat birlashmalarini shakllantirdilar. Ularning hokimlari Osuriya hujjatlarida «podsho» deb ataladi. Qadimgi davlat birlashmalari asta-sekin harbiy san'atni va qo'shinlarni shakllantirdi. Jangchilar tuyaga ikki kishidan minib, jang qilganlar. Arablar o'zlarining kuchli qo'shnilari Misr, Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'ining kichik davlatlari va Osuriya bilan xalqaro ziddiyatlarga tortildilar.

Mil.avv. 853-yilda Qarqara yonida bo'lgan jangda osuriyaliklar arablar ham kirgan koalitsiya qo'shinlarini tor-mor keltirdilar. Arablar Osuriyaning Misrga qarshi yurishida asosiy to'siq bo'ldi. Bir necha arab qabilalari Osuriya tomonidan bo'ysundirildi. Arablar Osuriyaning raqiblari – Misr va Bobil bilan ittifoq tuzdilar. Osuriya mil.avv. VII asrning 40-yillarida arab qabilalarini to'liq bo'ysundirishga erishdi. Yangi Bobil podsholigi ham Arabiston yarim orolida o'rnashib olishga urindi. Bobil podshosi Nabonid Shimoliy Arabistonning bosh markazlaridan biri Teymu shahrini bo'ysundirib, uni o'z qarorgohiga aylantirdi. U bir necha qo'shni arab qabilalarining shahar va vodiylarini o'ziga bo'ysundirdi. Mil.avv. VI asrda Eron davlatining kuchayishi va uning bosqinchilik yurish-

lari rejasi Arabiston yarim orolining shimoliy qismida forslarning arablar bilan aloqa oʻrnatishiga olib keldi. Shartnoma boʻyicha, fors podshosi Kambiz mil.avv. 525-yil Misrga yurish vaqtida arab nabateylari yeridan oʻtish huquqini va sahrodan oʻtish davrida ulardan fors qoʻshinlarini suv bilan taʼminlashga roziligini oldi. Arab qabilalari Ahmoniylar Eroniga bir yilda ming talant (30 tonna) miqdorida xiroj toʻlash majburiyatini oldilar. Arablar harbiy yurishlar davrida fors qoʻshinlari tarkibiga kiritildilar. Ular yunon-fors urushlari davrida fors qoʻshinlari tarkibiga kirdilar. Arablar Gʻazo shahri uchun jangda (mil.avv. IV asr) yunon-makedon qoʻshinlariga qattiq qarshilik koʻrsatdilar. Aleksandrning Misrga yurishi davrida arab qabilalarining koʻpchiligi yunon-makedonlarga boʻysunmadi. Shu sababli, Aleksandr Sharqqa yurishini tugatgach, unga boʻysunganliklarini bildirib, elchi yubormagan arablarga qarshi yurish qilishni rejalashtirdi. Lekin bu reja amalga oshmay qoldi. Arablar Rim davlati bilan ham aloqada boʻldilar. Rimliklar mil.avv. 106-yillar atrofida Yamanga suqilib kirishga urindilar va Nabatey davlatini bosib oldilar.

4. Janubiy Arabistonning qadimgi davlatlari. Arabiston yarim oroli janubi va janubiy-gʻarbida (hozirgi Yaman Arab Respublikasi va Yaman Arab Demokratik Respublikalari hududi) mil.avv. X–IX asrlarda bir necha davlatlar vujudga keldi. Janubiy Arabistonning chekka shimolida bosh shaharlari Isil va Karnava boʻlgan Main davlati tashkil topdi. Maindan janubroqda markazi Marib shahri boʻlgan Saba, undan janubroqda poytaxti Timna boʻlgan Kataban, Katabandan janubroqda Ausan davlati, sharqroqda markazi Shabva boʻlgan Xadramaut davlatlari bor edi.

Qadimgi Yaman davlatlari mil.avv. IX–VIII asrlarda shakllana boshladi. Mil. avv. VI–V asrlarda Main, Kataban, Saba va Xadramaut davlatlari oʻrtasida yetakchilik uchun kurash boshlandi. Saba, Kataban va Xadramaut dastlab Ausanga qarshi birlashib kurash boshladilar. Natijada Ausan Katabanga qoʻshib olinadi. Main davlati Kataban va Sabaning tazyiqiga zoʻrgʻa bardosh beradi. Mil.avv. III–I asrlarda zaiflashib qolgan Kataban Arabistondagi eng kuchli davlatlar Saba va Xadramaut tomonidan boʻlib olindi. Mil. avv II asrda eng qudratli davlat Saba podsholigi boʻlgan. Saba gullab-yashnagan davrida uning hududi Qizil dengizdan Xadramautgacha, Markaziy Arabistondan Hind

okeanigacha cho'ziladi. Bu davlat Yaqin Sharq bilan yaqin aloqalarni o'rnatdi.

Mil.avv. II asr oxirida shu vaqtgacha Kataban tarkibidagi, poytaxti Zafar bo'lgan yangi Ximyarit davlati yetakchi o'ringa chiqdi. Milodiy IV asr boshlarida Ximyarit davlati butun Janubiy Arabistonga o'z hukmronligini o'rnatdi. Ximyarit davlati davrida Janubiy Arabiston va Efiopiya o'rtasida urush va tinchlik munosabatlari hukm surdi.

Mil.avv. I ming yillik o'rtalaridan milodiy I ming yillik o'rtalarigacha Arabiston Yunoniston, Ptolomeylar Misri va Rim imperiyasi bilan juda samarali savdo aloqalarini olib bordi. Bu aloqalar hududda savdo-hunarmandchilikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qildi. Ko'chmanchi chorvadorlar savdo yo'llarini qo'riqlashda faol ishtirok etdilar.

Janubiy Arabiston davlatlari iqtisodiyoti birinchi navbatda, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik va ko'chmanchi chorvachilik bilan belgilanadi. Saba davlati hududidagi Marib to'g'oni (uzunligi 600 metr, balandligi 15 metr) mil. avv VII asrda qurildi va XIII asr davomida hududning sug'orma dehqonchiligida suv ta'minotini amalga oshirishda yetakchi o'rin tutdi. G'alla, poliz ekinlari, xurmo o'stirildi. Yirik va mayda chorva mollari va tuya boqildi. Hunarmandchilik sohalaridan toshga ishlov berish, qurilish ishlari, metallarni qayta ishlash, kulolchilik, to'quvchilik va teriga ishlov berish yuqori darajada rivojlanadi.

Mil.avv. I ming yillikda Janubiy Arabiston iqtisodiyoti inqirozga uchrashiga bir necha omillar sabab bo'ldi. Ulardan biri yunonlar, misrliklar va forslarning Arabistonni chetlab o'tib, bevosita Hindiston bilan aloqa o'rnatishlari edi. Endilikda quruqlikdagi xavfli savdo yo'lidan ko'ra, xavfsizroq bo'lgan dengiz yo'li yetakchi o'rinni egalladi. Inqirozga sabab bo'lgan ikkinchi omil mavjud sun'iy sug'orish tizimlarining yemirilishi, iqlimning o'zgarishi bilan hosildor yerlarning sahroga aylanishi edi. Bundan tashqari, ichki va tashqi urushlar Janubiy Arabiston davlatlarining iqtisodiga katta zarar yetkazdi.

5. Janubiy Arabistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti. Mil.avv. II ming yillik o'rtalarida Mina, Saba va Kataban qabilalari ittifoqi shakllana boshladi. Mil.avv. I ming yillik boshida ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti natijasida sinfiy tengsizlik kuchaydi. Siyosiy hokimiyatni o'z qo'lga to'plagan kohin va

savdogarlardan iborat hukmron siyosiy qatlam paydo bo'ldi. Asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer qishloq va shahar jamoalari qo'lida edi. Asosiy xo'jalik bo'g'ini patriarxal oila (yoki katta oilali jamoa) edi.

Eng katta yer egalari ibodatxonalar va davlat edi. Qullar urushlarda asir olish va sotib olish orqali paydo bo'ldi. Qarzi uchun qul qilish kabi holatlar deyarli yo'q edi.

Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi qabila ittifoqlarining davlatga aylanishiga olib keldi. Janubiy Arabiston davlatlari siyosiy tuzulishini Saba podsholigi misolida ko'rish mumkin. Saba podsholigini 6 qabila tashkil etdi. Uning 3 tasi qaram ahvolda edi. Har bir qabila katta shoxobchaga, u yana kichik va alohida urug'larga bo'linar edi. Qabilalar zodagon boshliqlar (kabirlar) va ular tashkil qilgan kollegial tashkilotlar orqali boshqarilgan. Qabilalarda oqsoqollar kengashi bo'lgan degan farazlar ham bor.

Imtiyozli qabilalar o'zlarining zodagon urug'laridan ma'lum muddatga (Sabada 7 yil, Katabanda 2 yilga) davlatning oliy mansabdor shaxslari – eponimlarni saylaganlar. Ular oliy xudo Astar bilan bog'liq kohinlik vazifalarini ham bajarganlar. Astronomik va astrologik taqvim nazoratlarini va yer-suvdan foydalanishni tashkil etishdek, ba'zi xo'jalik ishlarini boshqarish ham ularning zimmasida edi.

Eponimlar bo'yicha davlat va xususiy-huquqiy hujjatlar raqamlangan yil hisobi bilan olib boriladi. Ular 30 yoshdan mansabga chiqib, vakolat muddati tugagach, oqsoqollar kengashiga a'zo bo'ladi.

Mil.avv. III–II asrlargacha Saba podsholigining boshqaruv ishlari va ijroiya hokimiyatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar – mug'arriblar bo'lgan. Ularning vazifasiga qurilish faoliyati, sakral vazifalar (qurbonlik keltirish, diniy ovqatlanish marosimlarini tashkil etish) va davlatni tashkil qilgan qabila ittifoqlarini davriy yangilash, davlat hujjatlarini e'lon qilish, huquqiy qoidalar, shahar hududlari, xususiy mulk chegaralarini aniqlash va boshqalar kirgan. Mug'arrib mansabi merosiy edi. Urush davrida mug'arriblar ko'ngillilarga boshchilik qilganlar va vaqtinchalik unvon – malik, ya'ni podsho unvoniga ega bo'lganlar. Mug'arriblar asta-sekin o'z qo'llarida butun hokimiyat vakolatlarini to'plab, mil.avv. I ming yillik oxirida amalda mutlaq podsholarga aylandilar. Saba podsholigining oliy organi oqsoqollar kengashi edi. Unga 6 qabilaning vakillari kirgan. Oqsoqollar

kengashi sakral, qonun chiqaruvchi vazifalar, ma'muriy xo'jalik vazifalarini bajargan. Boshqa janubiy arab qabilalari ham shunday davlat tuzilmalariga ega edi.

6. Qadimgi Arabiston madaniyati. Qadimgi Arabiston sivilizatsiyasining eng katta yutuqlaridan biri yozuvning alfavit tizimi yaratilishidir. Bu yozuv farazlarga ko'ra, Finikiya protosinay (Sinaydan topilgan yozuvlarga ko'ra) alfavitlaridan kelib chiqqan. Shimoliy Arabiston aholisi nabateylar ham oromiy yozuvlariga o'xshash o'z alfavitlarini yaratdilar. Yozuvlar toshga, qoyatoshlarga o'yilgan; yog'och va loy taxtachalarga yozilgan; jez buyumga quyilgan; yumshoq buyumlarga bitilgan. Tarixiy voqealar bayoni, qonunlarning moddalari yozilgan bitiklar topilgan. Bag'ishlov va qurilish matnlari, sag'ana yozuvlari, ish yozishmalari bizgacha yetib kelgan.

Monumental me'morchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Marib, Timna, Shabva va Karnava shaharlari xarobalariga ko'ra, shaharlar to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilib, balandligi 10-12 metrli tosh devorlar bilan o'rab olinadi. Shahar devorlarida kvadrat shaklida minoralar bunyod qilinadi. Petra shahri qoyatosh bag'rida bunyod qilinib, uning inshootlari qoyalarda qurilgan. Alebastr, jez va loydan haykallar yasalgan. Hayvonlar (ho'kiz, tuya, ot) tasviri dinamik va ifodali tasvirlanadi.

Arabiston yarim oroli dini politeistik xususiyatda bo'lgan. Janubiy Arabistonda bosh xudo Astar hisoblangan. Saba qabilalarida Almakaxon oy xudosi hisoblanib, unga ho'kiz qurbonlik keltirilgan. Osmon, quyosh va bir necha sayyoralarga ham e'tiqod qilingan. Nabateylar Ilaxu yoki Alloh («xudo»), Dusharg (chaqmoq xudosi, dunyo boshqaruvchisi)ga sig'inganlar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. История Древнего Востока. /Под редакции Кузицина. –М.: 2002.
2. Лундин А.Г. Государство Мукарибов Саба. –М.: 1971.

Asosiy sanalar

| | |
|-------------------------|---|
| Mil.avv. II ming yillik | Arabiston yarim orolining janubi-g'arbida Mina, Saba va Kataban qabilalari ittifoqining shakllanishi. |
| Mil.avv. IX–VIII asrlar | Qadimgi Yaman davlatlarining shakllanishi. |

| | |
|-------------------------|---|
| Mil.avv. X–IX asrlar | Janubiy Arabistonning ilk davlatlari paydo boʻlishi. |
| Mil. avv. VII asr | Uzunligi 600 metr, balandligi 15 metr boʻlgan Marib toʻgʻonining qurilishi. |
| Mil. avv. VI–V asrlar | Main, Kataban, Saba va Xadramaut davlatlari oʻrtasida yetakchilik uchun kurash. |
| Mil.avv. II asr | Saba podsholigining yuksalishi. |
| Mil.avv. II asr oxirida | Ximyarit podsholigining yuksalishi. |
| Mil.avv.106-yil | Rimliklar Nabatey davlatini bosib oldi. |

KARFAGEN MIL.AVV. IX-III ASRLARDA

1. Karfagen tarixining ilk davri. 2. Karfagen – G‘arbiy O‘rtayer dengizidagi Finikiya koloniyalarining markazi. 3. Qudratli Karfagen davlatining tashkil topishi. 4. Karfagendagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (mil.avv. V-III asrlar). 5. Karfagenning siyosiy tuzumi. 6. Qadimgi Karfagen madaniyati.

1. Karfagen tarixining ilk davri. Mil.avv. II–I ming yilliklar oralig‘ida finikiyaliklar G‘arbiy O‘rtayer dengizida ilk koloniyalarni barpo qila boshladilar. Mil.avv. I ming yillik boshlaridagi Finikiyaning Ispaniyadagi koloniyalari Gades, Afrikadagi Utika shaharlari yirik savdo-hunarmandchilik markazlariga aylandi. Tir shahri yoshlari mil.avv. 814–825-yillarda Shimoliy Afrikada (hozirgi Tunis hududi) Karfagen (Karxamish – «Yangi shahar») koloniyasiga asos solgan edilar. Dastlab ko‘chib kelganlar yersizlikdan qiynalib, mahalliy aholi yerlarida yashash huquqi uchun pul to‘lashga majbur bo‘ldilar. Shahar boyib borishi bilan uning atrofidagi yerlar mahalliy aholidan sotib olina boshlandi yoki bosib olindi. O‘rtayer dengizida savdo va dengiz yo‘llari kesishgan qulay joyda joylashgan Karfagen asta-sekin kuchaya boshladi.

2. Karfagen – G‘arbiy O‘rtayer dengizidagi Finikiya koloniyalarining markazi. Mil.avv. VII asrdan boshlab Karfagen tarixida ikki yuz yilga yaqin davom etgan yangi davr boshlandi. Bu davrda Karfagen shahri G‘arbiy O‘rtayer dengizidagi Finikiyaning boshqa koloniyalari markaziga aylandi. Finikiya koloniyalari ichida Karfagen yetakchi bo‘lishining bir qancha sabablari bor edi:

1. Finikiyaning Osuriya va Eronga qaram bo‘lishi natijasida metropoliya bilan siyosiy aloqalarning zaiflashuvi.

2. Yunonlarning Janubiy Italiya va G‘arbiy O‘rtayer dengizini faol kolonizatsiya qilishi tufayli ularning foydali xalqaro savdo va dengiz yo‘llarida hukmron bo‘lish xavfi.

3. G‘arbiy O‘rtayer dengizidagi Finikiya koloniyalarining ichki taraqqiyotini ma‘lum darajada muvofiqlashtirish (koordinatsiya) va hamkorlikni kuchaytirish ehtiyoji.

Mil.avv. VII asr o'rtalarida Karfagen Shimoliy Afrikadagi rivojlangan hunarmandchilik markazi, Markaziy O'rtayer dengizining ko'p havzalarini savdo munosabatlari bilan bog'lagan eng yirik Finikiya koloniyasiga aylandi. Shahar hududi va aholisi tez o'sib ketdi. Karfagenning qulay tabiiy gavani kemalarga mo'ljallangan sun'iy gavan qurish hisobiga kengaydi.

Karfagen shahar-davlat doirasidan chiqib, G'arbiy O'rtayer dengizi havzasining katta davlatiga aylandi va faol tashqi siyosat olib bordi. U G'arbiy O'rtayer dengizining boshqa qismlarida o'z koloniyalarini barpo qila boshladi. Shu bilan birga, bu yerda mavjud bo'lgan Finikiya koloniyalari ustidan o'z rahnamoligini o'rnatdi. Karfagenning Afrikadan tashqaridagi birinchi koloniyasi Ispaniya yaqinidagi Pitius orollaridagi Ebes (mil.avv. VII asr o'rtalari) bo'ldi. Ebesni tayanch nuqta qilgan holda Karfagen Ispaniyaga kirishga yo'l bermayotgan Finikiya koloniyasi Gadesni tor-mor qilib, mil.avv. VII–VI asrlarda Pireney yarim oroli janubiga o'rnashdi. Yunonlar Karfagenni Ispaniya sharqiy qirg'og'ida o'rnashib qolishiga yo'l bermadilar. Karfagen Sitsiliyada faol harakat qilib, orol g'arbidagi Finikiya koloniyalarini o'z nazorati ostiga oldi. Karfagen mil.avv. VI asr o'rtalariga kelib, Ispaniyadagi mulklari bilan Janubiy Sitsiliyaning g'arbi, Pitius orollari va Shimoliy Afrikagacha cho'zilib ketgan yirik davlat birlashmasi markaziga aylandi.

Karfagen mil.avv. VI asr oxirida Yaqin Sharqda o'zgargan xalqaro ahvoldan yaxshi foydalandi. Bu vaqtda Old Osiyoda o'tmishda qudratli bo'lgan Osuriya, Misr kabi davlatlar zaiflashib qoldi. Yangi qudratli davlat Ahmoniyalar Eroni butun Old Osiyoda va Shimoliy Afrikada o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Karfagen Ahmoniyalar Eroni bilan aloqa o'rnatdi. Bu aloqa Karfagen uchun noqulay bo'lsa-da, lekin Karfagen Sitsiliya va uning janubiy qismini, Janubiy Italiya, Korsika va Sardiniyani yunon shaharlariga qaram bo'lishiga qarshi faol siyosat olib borish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mil.avv. VI asr o'rtalarida Karfagen Markaziy Italiyadagi etrusklar bilan do'stona shartnoma tuzdi. Mil.avv. 535-yilda Karfagen–etrusklarning birlashgan floti Korsika yonidagi Alali jangida yunon flotini yanchib tashladilar. Karfagen Sardiniya janubini egallashga muvaffaq bo'ldi. Natijada yunonlarning Ispaniyaga ta'siri kamaydi. Mil. avv. V asrda Bolqon yarim orolida yunon shahar-davlatlarining zaiflashuvi natijasida Kichik Osiyoning g'arbidagi barcha

yunon shahar-davlatlari Ahmoniyalar Eroni ta'siri ostiga tushib qoldi. Ahmoniyalar Yevropa tomon yurish qilib, Bolqon yarim oroliga ham bostirib kirdi. Mil.avv. V asrda Eronning Yunonistonga bostirib kirishidan foydalangan Karfagen qulay payt poylab, Sitsiliyadagi yunon shaharlariga hujum qildi. Hujum muvaffaqiyatsiz chiqdi. Oqibatda Karfagen Sitsiliyaning g'arbi-da o'zining bir necha shaharlarini zo'rg'a saqlab qoldi.

3. Qudratli Karfagen davlatining tashkil topishi. Karfagenning gullab-yashnagan davri mil.avv. V asr o'rtalaridan – mil.avv. III asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Sitsiliyadagi yurishlarda mag'lub bo'lgan Karfagen o'z tashqi siyosatining asosiy yo'nalishini Shimoliy Afrikaga qaratdi. Karfagen hozirgi Tunis va Jazoir qirg'oqlarini va bu hududlarning ichki hosildor yerlarini kolonizatsiya qila boshladi. Karfagen dengizchilari Mavritaniya, Marokkoning Atlantika okeani qirg'oqlariga chiqib, bu yerlarda o'z koloniyalariga asos soldilar. Mil.avv. VII asrda Karfagen dengizchisi Gannon 60 kema va 30 ming kishilik dengiz ekspeditsiyasi bilan Atlantika qirg'oqlarini tekshirdi. Afrikada katta-katta hududlarni bosib olinishi, Ispaniya janubidagi, Sardiniya orolidagi va Sitsiliya g'arbidagi koloniyalar Karfageni ko'p sonli aholiga, iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli va katta imkoniyatlarga ega qudratli davlatga aylantirdi. O'z savdogarlarini himoya qilish, muhim savdo yo'llarini o'z qo'lida saqlab turish uchun Karfagen boshqa davlatlar bilan o'nlab shartnomalar tuzdi va faol tashqi siyosat yuritdi. Xalqaro qulay vaziyat, faol tashqi siyosat, kuchli yollanma qo'shin Karfagen davlatini qudratini ta'minladi. Bu Karfagenning G'arbiy O'rtayer dengizi havzasida uzoq vaqt yetakchi o'rinni egallashiga qulay shart-sharoit yaratdi. Bu hududda boshqa biror-bir kuchli davlat yo'q edi.

4. Karfagendagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (mil. avv. V–III asrlar). Mil. avv. V–IV asrlarda Karfagen O'rtayer dengizidagi vositachi savdoning markazi edi. Karfagen Sharqiy O'rtayer dengizining turli viloyatlariga, yunon shaharlariga va Pireney yarim orolining Atlantika qirg'oqlariga turli mahsulotlar yetkazib berdi. G'arbiy O'rtayer dengizida Karfagenning savdo manfaatlarini himoya qiladigan Rim bilan uchta shartnoma tuzildi. Mil.avv. V–III asrlarda Karfagen yirik hunarmandchilik markazi edi. Kulolchilik, zargarlik va qurolsozlik ustaxonalari-da oliy navli mahsulotlar tayyorlandi. Karfagenliklar mohir qu-

ruvchi boʻlganlar. Karfagen shahri mustahkam devorlar bilan oʻrab olingan edi. Shahar ichida ibodatxonalar, saroylar, zodagonlar, oddiy fuqarolar uylari, ombor va doklar (kema taʼmirlanadigan va quriladigan joy) qurildi. Kemasozlik yuqori darajada rivojlandi.

Karfagen bepoyon ekin yerlariga ega bolib, dehqonchilik quldorlik xoʻjaliklarida asosiy soha edi. Tokzorlar, zaytun daraxtlari, bogʻ va polizlar moʻl-koʻl hosil berar edi. Mil.avv. VI-III asrlarda Karfagenda rivojlangan qulchilik unsurlari boʻlgan quldorlik jamiyati mavjud boʻlib, erkin ishlab chiqaruvchilar koʻp edi. Dehqonchilik, hunarmandchilik ishlab-chiqarishida qullar va yarim qaram kichilar –bodular mehnatidan keng foydalanilgan. Xususiy ustaxonalar bilan birga davlat korxonalari ham mavjud boʻlib, bunday korxonalarda qul mehnatidan foydalanilgan. Karfagenga qaram boʻlgan dehqonlar davlatga donli ekinlar hosilidan 0,1 miqdorda soliq toʻlaganlar. Karfagen tarkibiga kirgan finikiya koloniyalari ichki avtonomiyadan foydalanganlar, lekin oʻz savdolaridan soliq – boj toʻlaganlar. Qaram hududlar aholisi, ayniqsa, liviya dehqonlari zulmga qarshi tez-tez qoʻzgʻolon koʻtarganlar. Karfagen shahrining oʻzida 200 ming aholi yashar edi. Oliy tabaqa yirik yer egalari, katta savdogarlar, hunarmandlar va kohinlardan tashkil topgan. Sharq mamlakatlaridan farq qilgan holda Karfagenda byurokratik boshqaruv apparati yoʻq edi. Mamlakatning iqtisodiy qudrati asosini koʻp sonli qullar va qaram aholini shafqatsiz talash tashkil qildi.

5. Karfagenning siyosiy tuzumi. Karfagenning siyosiy tuzumi eng boy savdogar – hunarmand, katta yer egalari boʻlgan Karfagen oilalarining tor guruhi manfaatlarini aks ettiradigan oligarxiya edi. Biror-bir zodagon oilaning hokimiyatni bosib olishiga yoʻl qoʻymaslik uchun kengashlarda qatnashadigan oligarxlar doimiy ravishda bir-birlari bilan raqobat qildilar. Karfagenning ichki siyosiy hayoti tarixi hokimiyatni bosib olish uchun oliy tabaqa zodagon guruhlarini oʻrtasidagi doimiy kurashdan iborat edi. Mil.avv. VI asr oʻrtalarida dastlab lashkarboshi Malx Karfagenda oʻz hokimiyatini oʻrnatdi. Keyin esa zodagon Magon oilasi qariyb 50 yil davomida hokimiyat tepasida turdi. Karfagen oligarxiyasi mil.avv.V asr oʻrtalaridagina Magon oilasining hukmronligini yoʻq qilib, oʻz «respublika» boshqaruvi tizimini oʻrnatdi.

Karfagenda mil.avv. V–IV asrlarda birdaniga ikki sufet bir vaqtda bir yil muddatga saylanib, ijroiya va sud hokimiyatini boshqarganlar. Bu lavozim Gʻarbiy Oʻrtayer dengizidagi boshqa finikiya shaharlarida ham mavjud boʻlgan. Sufetlar zodagonlarning 104 kengashi oldida hisobot berganlar. Odatda, sufetlar Karfagenning oqsuyak – zodagon Magonlar, Barkidlar oilalaridan chiqqan. Sufet lavozimi begʻaraz bajarilgan. Barcha davlat ishlarini 30 lar kengashi va 300 aʻzodan iborat oqsoqollar kengashi hal qilgan. Oliy nazorat organi 104 lar kengashi boʻlib, u sudyalik vazifalarini ham bajargan. Karfagenning xalq yigʻini ahyon-ahyonda chaqirilgan. U siyosiy hayotda sezilarli ahamiyatga ega emas edi. Faqat oliy magistratlar orasida kelishmovchiliklar chiqqan paytda xalq yigʻini oʻz hokimiyatini namoyon qilib, oʻz takliflarini ham ilgari surgan. Magistratlar «oqsuyaklik va boyjik» tamoyili asosida saylangan. Karfagen siyosiy hayotida poraxoʻrlilik va korrupsiya keng tarqalgan.

Mil.avv. V asr ikkinchi yarmidan – III asr oʻrtalarigacha Karfagen Oʻrtayer dengizi gʻarbidagi eng qudratli davlat boʻlib, uning qudratining asosi yuqori rivojlangan iqtisodiyot, dinamik ijtimoiy tuzilish, oligarxiyaning barqaror tizimi edi. Karfagenning boy savdogar-hunarmandlari va kema egalari Oʻrtayer dengizi gʻarbi va Shimoliy Afrikada faol tashqi savdo bilan shugʻullandilar. Ahmoniyalar Eroni va Rim bilan bir necha savdo shartnomalari tuzildi. Karfagen Gʻarbiy Oʻrtayer dengizi havzasida oʻz mytlaq hukmronligini taʼminlash maqsadida faol tashqi siyosat olib bordi. U etrusklar bilan ittifoq boʻlib, mil. avv. 535-yil yunonlarning dengiz flotini Alali oroli yonida tor-mor qildi. Natijada Karfagen Gʻarbiy Oʻrtayer dengizi savdosida toʻla hukmron boʻldi. Lekin mil.avv. 480-yilda yunonlardan Gimera yonida magʻlubiyatga ushrab, gʻarbda yunonlarga qarshi urush harakatini uzoq vaqt toʻxtatishga majbur boldi. Mil. avv. V asr oʻrtalaridan Karfagen Sitsiliyani egallash uchun yuz yil davom etgan kurashni boshladi. Mil. avv. III asr boshlarida Sirakuzadan tashqari butun Sitsiliya oroli Karfagen tasarrufiga oʻtdi. Ammo mil. avv. III asrning 60-yillariga kelib, Karfagen Gʻarbiy Oʻrtayer dengizi havzasida hukmronlik uchun Rim bilan keskin kurashga kirishdi. Sitsiliya uchun raqobat birinchi Rim-Karfagen urushiga (mil. avv. 264–241-yillar) olib keldi. Mil. avv. III–II asr oʻrtalarida Rim-Karfagen oʻrtasidagi uch urush (Puni urushlari) natijasida Karfagen batamom tor-mor qilinib,

uning hududi Rim Respublikasining Afrika provinsiyasiga aylantirildi (mil.avv. 146- yil).

6. Qadimgi Karfagen madaniyati. Karfagenda amaliy fanlardan agronomiya, geografiya, matematika, fortifikatsiya va astronomiya sezilarli rivojlandi. Karfagen dengizchilarining Britaniyaga dengiz sayohati (Giskon ekspeditsiyasi), Atlantikaning ekvatorial qirg'og'iga Gannonning mashhur sayohati va Karfagen atrofini yuqori darajada mohirona qurilgan mudofaa devorlari bilan o'rab olish tabiiy fanlarning taraqqiyoti natijasi edi. Karfagenliklar qadimda Afrika, O'rtayer dengizi, Atlantika qirg'og'i, Kanar va Azor orollarining eng aniq geografik xaritasiga ega bo'ldilar. Ular qishloq xo'jaligining dehqonchilik sohasida katta yutuqlarga erishdilar. Karfagenda dehqonchilik sohasidagi qadimgi asarlardan biri Magon tomonidan maxsus yozilgan agronomiya traktati paydo bo'lib, u lotin tiliga tarjima qilingan. Karfagen Misr, Xett, Bobil va Osuriya madaniyatlarining doimiy ta'siri ostida bo'ldi va shu sababli uning madaniyati sinkretik (madaniyatlar qo'shilmasi hosilasi) xususiyatiga ega edi. Karfagen aholisi savdo-hunarmandchilik bilan shug'ullanib, faqatgina iqtisodiyot ehtiyojlariga xizmat qiladigan aniq va tabiiy fanlarga e'tibor berdilar. Adabiyot, tasviriy san'at va falsafa zaif rivojlandi.

Diniy e'tiqod qadimgi Finikiya an'analari asosida rivojlandi. Karfagen panteonining bosh xudolari ma'buda Tinnit va Vaal-Melkart edi. Tinnit shahar homiysi, donolik, mo'l-ko'lchilik va tirilayotgan tabiat, hayotbaxsh ne'matlar yaratuvchisi edi. Dushmanlarni qo'rqituvchi Molox urush xudosi bo'lib, bu iloh odamlarni qurbonlikka keltirishni talab qilgan. Qurbonlikka katta odamlar va go'daklar keltirilgan. Bu xudolar sharafiga Finikiya an'alarini, Misr motivlarini va yunon me'morchiligi usullarini o'zida to'plagan sinkretik uslubda ibodatxonalar qurilgan. Karfagen madaniyati G'arbiy O'rtayer dengizi va Shimoliy Afrika tarixida muhim iz qoldirgan.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Сиркин Й.Б. Карфаген и его культура. – М.: 1986.
2. Харден Д. Финикийцы. Основатели Карфагена. – М.: 2002.

Asosiy sanalar

| | |
|--|--|
| Mil.avv. V–III asrlar | Karfagen yirik hunarmandchilik markazi. |
| Mil.avv. IX asr oxiri | Karfagen shahriga asos solinishi |
| Mil.avv. VII asr | Karfagen dengizchisi Gannon 60 kema va 30 ming kishilik dengiz ekspeditsiyasi bilan Atlantika qirg'oqlarini tekshirdi. |
| Mil.avv. VI asr o'rtalari | Karfagenda lashkarboshi Malx o'z hokimiyatini o'rnatdi. |
| Mil.avv. 535-yil | Alali jangi. |
| Mil.avv. V asr o'rtalari – III asr o'rtalari | Karfagen davlatining gullab-yashnashi. |
| Mil.avv. 146-yil | Rimliklar tomonidan Karfagenning bosib olinishi. |
| Mil.avv. VI asr o'rtalarida | Karfagen markaziy Italiyadagi etrusklar bilan do'stona shart-noma tuzgan. |

SAK-SKIF SIVILIZATSIYASI

1. Sak-skif sivilizatsiyasini o'rganish manbalari. 2. Asosiy siyosiy voqealar. 3. Ijtimoiy hayot. 4. Sak-skif madaniyati.

1. Sak-skif sivilizatsiyasini o'rganish manbalari. Eng qadimgi sivilizatsiyalar qatorida sak-skif sivilizatsiyasini o'rganmaslik, insoniyatning eng qadimgi madaniyatining ajralmas bir qismini e'tibordan chetda qoldirish yoki uning bir qismini unutish demakdir. Chunki mil.avv. II–I ming yilliklardan Shimoliy Xitoydan O'rta Osiyo, Sibir, Oltoy, Uraldan toki Shimoliy Qora dengiz, Dnepr bo'ylarigacha cho'zilib ketgan bepoyon cho'l-dasht, tog'lik hududlarda yashagan ko'chmanchi sak-skif xalqlari betakror, ulug'vor sivilizatsiyani yaratdilar. Bu sivilizatsiya insoniyatning keyingi taraqqiyotiga, madaniy-etnik, siyosiy tuzilishiga katta ta'sir o'tkazdi. Bu sivilizatsiya fanda Buyuk cho'llar sivilizatsiyasi yoki sak-skif sivilizatsiyasi deb nomlanadi. Sak-skif sivilizatsiyasini buyuk cho'llarda yashagan ko'chmanchi, yarim o'troq va o'troq yashagan yuzlab etnik birliklar bir necha ming yillar davomida yaratdilar. Sak-skiflarda urug'-qabila, qabila ittifoqlaridan toki o'ziga xos mukammal shakllangan davlatlar, davlat birlashmalari mavjud bo'lgan. Lekin ularning barcha shakllarini asosi urug' edi. Urug'ni 3-4 avlod vakillari yashagan oilalar tashkil etgan. Oila o'ta xavfli muhit, noqulay tabiat sharoitida yashay olmas edi. Bir necha patriarxal oilalardan tashkil topgan urug' o'z urf-odat, rasm-rusum marosimlari va e'tiqodi bilan xavf-xatarga to'la tashqi muhitga moslashib yashagan. Urug' o'zining saylab qo'yiladigan oqsoqol-yo'l boshchisi va yaxshi qurollangan jangchilariga ega edi. Vaqt o'tishi bilan urug'larda odamlar ko'payib, o'tloq yaylovlar tor bo'lib qolganda, katta urug'dan kichik urug' ajralib chiqib, bo'sh yaylovlarni izlagan. Urug'lar birlashib qabilani, qabilalar birlashib qabilalar ittifoqini tashkil etar edi. Qabilalar ittifoqi yo'l boshchisi birlashgan qabilalarning yig'ini qurultoylarda

odamlari kop va kuchli urug'dan saylangan. Cho'l sharoitida qabila ittifoqi yo'l boshchisi yoki podsho mutlaq hukmdor emas edi, uning oldida «oqsoqollar kengashi» va xalq yig'ini mavjud edi. Ular o'ziga xos yuksak bir sivilizatsiyani yaratdilar. Sak-skif atamasi ilmiy adabiyotda qabul qilingan bo'lib, yuqorida ko'rsatilgan bepoyon hududlarda yashagan, qon-qarindosh, umumiy madaniyatga ega bo'lgan o'nlab urug', qabila, elat, xalqlarning umumiy nomidir. Shimoliy Qora dengiz, Azov bo'yida yashagan qabilalarni antik mualliflar skiflar deb ataganlar. Antik mualliflar Qora dengiz bo'yi qabilalarini boshqa ularga qarindosh qabilalar – saklar, savromatlar, masagetlar, issedonlardan ajratish uchun skiflar deb ataganlar. Skiflar o'zlarini qanday atagani bizga noma'lum. Sak-skiflar tarixi va madaniyati to'g'risida Gerodot, Strabon, Katta Pliniy va boshqa mualliflar boy ma'lumot beradilar. Sak-skif yozuvlari bo'lgan, lekin saqlanib qolmagan. Shu sababli, ularning ijtimoiy-siyosiy tarixi arxeologik qazilma topilmalar asosida o'rganiladi. Bu topilmalar juda boy, xilma-xil, juda katta davrni o'z ichiga oladi. Birgina Sankt-Peterburg shahridagi Ermitaj muzeyida sak-skif madaniyatiga oid 40 mingdan ortiq buymlar saqlanadi.

Yunon tarixchilari Sirdaryoning o'rta oqimini Tanais deb atashgan. Arrianning yozishicha, Sirdaryoni qadimda «Yaksart» deb atashgan. Bu qadimgi nom mahalliy sak qabilalari o'rtasida tarqalgan bo'lishi ehtimol.

Qadimgi yunon tarixchilarining ma'lumotiga ko'ra, sobiq SSSRning Yevropa qismida, Qozog'iston va O'rta Osiyo, Oltoy chegaralarigacha bo'lgan hududda yashagan barcha ko'chmanchi va o'troq qabilalarni skiflar degan umumiy nom bilan atashgan. Ayrim yunon tarixchilarining asarlaridan shu narsa ma'lumki, yuqorida aytilgan hududlarning turli qismlarida yashagan skiflar boshqa-boshqa nomlar bilan atalgan va turli tillarda gaplashgan.

Mil.avv. I ming yillikning o'rtalarida O'rta Osiyoda yashagan ko'chmanchi va dehqonlar na yashash tarziga ko'ra, na til jihatidan hali bir-biridan ajralib ketmagan edi.

O'rta Osiyoning, shu jumladan, O'zbekiston hududining mil. avv. I ming yillik o'rtalaridagi iqtisodiy-geografik va etnografik xaritalari quyidagi ko'rinishga ega: Girkaniya, Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, Xorazm, So'g'd viloyatlari, Gurgon, Murg'ob,

Qunduz, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon daryolarining vohalarini tashkil qilardi.

Amudaryo ostonasining quyi tomonida – g'arbda Sariqamish va sharqda Janidaryoda yashagan apasakilar (apasaki, pasiki, abiyalar, skiflar, saka-tiay-tara-darayya) O'rta Osiyoning janubida saka ravakilar (saka-xaumavaraka, skif-amyurgiyalar va boshqalar) yashaganlar. Amudaryo qadimda bir necha nomga ega bo'lgan. Avestoda u «Raxa», «Ranxa» yoki «Aranxa» nomi bilan tilga olinadi. Yunon tarixchilari Gerodotdan boshlab Amudaryoni Araks deb ataydilar. Gerodot Araks (Amudaryo)ni 360 ta kanalga ajralishi, 40 ta tarmog'i botqoqliklar orasida yo'q bo'lib ketishi, tarmoqlaridan birigina ochiq joylardan oqib borib, Kaspiy dengizga quyilishi haqida ma'lumot beradi.

Sak-skiflarning kelib chiqishini yozma va arxeologik manbalar ma'lumotlari orqali aniqlashtirish mumkin. Antik mualliflardan Gerodot Shimoliy Qora dengizbo'yi skiflarining kelib chiqishi to'g'risida batafsil ma'lumot beradi. Uning ma'lumotiga ko'ra, skiflar Qora dengiz bo'yiga Osiyodan kelganlar va bu yerda yashagan kimmeriy qabilalarini siqib chiqarganlar. Yana bir taniqli antik muallif sitsiliyalik Diodor Gerodotning fikrini yanada aniqlashtiradi. Diodor skiflar qachonlardir Araks (Amudaryo) qirg'og'ida yashaydigan zaif xalq bo'lib, keyinchalik kuchayib ketib, Kavkaz oldi va Qora dengizning shimoliy sohilini egallaganlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Antik mualliflar asarlarida keltirilgan ma'lumotlar orqali sak-skif siyosiy tarixi to'g'risida tushuncha hosil qilish mumkin. Ularning ma'lumotlari sak-skif mifologiyasi asosida keltirildi. Gerodot malika To'marisning Kayxusravga qarshi ozodlik urushini, Polien saklarining Ahmoniylarga qarshi kurashini sak afsona-hikoyalari asosida quradi. Gerodot Doro I ning skiflar ustiga yurishining batafsil tasvirini skif hikoyalari asosida tuzgan. Bundan tashqari, sak-skiflarning O'rta Osiyo, Oltoy, Sibir, Kavkazorti, Dnepr, Qora dengizbo'yi cho'l-dashtlaridagi qo'rg'on qabrlaridan topilgan boy arxeologik topilmalar sak-skiflarda davlat tashkiloti shakllanganidan dalolat beradi. Qo'rg'on qabrlardagi qimmatbaho qurol-aslahalar, noyob toshlar, oltin, kumush bilan ziynatlangan xanjar-qilichlar, kamon sadoqlari, gilam qoldiqlari sinfiy jamiyat, davlat tashkiloti shakllanganidan guvohlik beradi. Doro I ning Behustun yozuvlarida sak hukmdori Skunxani tor-mor qilgani (mil.avv. 519-yil), uning o'rniga boshqa podsho tayinlaganini yozib qoldirgan.

Arxeologik qazishmalar natijasida to'plangan ma'lumotlar antik mualliflarning matnlarini tanqidiy o'rganishga yordam beradi. Hozirgi kunda Osiyo va Yevropaning cho'l-dasht hududlaridan juda katta miqdorda to'plangan boy madaniy topilmalar sak-skif madaniyatini yaxlit tasavvur qilishga yordam beradi. Sak-skif tili to'g'risida ilmiy tadqiqotlar mavjud. Shaxsiy ismlar, joylar, hududlar, daryolarning nomlari boshqa tilda yozilgan matnlarda saqlanib qolgan. Bu ism va nomlar bilan sak-skif tilini olimlar aniqlashga harakat qiladilar. Hozirgi kunda skif tili hind-yevropa tillari oilasiga mansubligi e'tirof etiladi. Osiyo va Yevropaning bepoyon hududlarida yashagan ko'chmanchi qabila-elatlarning tillari asosida keyingi davrda turkiy til shakllangan. Toponomika ma'lumotlari ham bu fikrni tasdiqlaydi. Etnik va til jihatidan sak-skiflar bir-biriga qarindosh bo'lgan Osiyo, Sharqiy Yevropa cho'l-dashtlarida yashagan ko'chmanchi qabila-elat va xalqlarning ulkan konglomerati edi. Ularning urf-odat, an'ana, marosimlari mazmunan bir xil, shaklan esa turli ko'rinishda bo'lgan. Ularning shaklan har xil bo'lishiga sabab, iqlim, atrof-muhit, joylashgan joyi ta'siri natijasi edi. Ular bir tilda, lekin turli shevalarda so'zlashganlar. Buning dalili Osiyo, Yevropa cho'l-dashtlarida yashagan etnoslarning ismlari, geografik nomlarning har xilligidir.

2. Asosiy siyosiy voqealar. Sak-skif qabilalari ittifoqi mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida vujudga keladi. Bu ittifoqqa kirgan qabilalar sharqda hozirgi O'zbekiston, Qozog'iston hududlaridan Volga, Don, Dnepr, Kavkazorti va Shimoliy Qora dengiz qirg'oqlari hamda Yaqin Sharq tomon jadal siljiydilar. Ular mil.avv. VIII asrdan boshlab qadimgi Old Osiyo siyosatida faol ishtirok eta boshlaydilar.

Diodor va Gerodot skiflar (saklar)ni Osiyodan Qora dengiz bo'yiga kelganlari to'g'risida ma'lumot beradilar. Diodor ularning asl vatani Araks (Amudaryo antik manbalarda shunday atalgan) qirg'oqlarida deb guvohlik beradi. Gerodot «podsho skiflari» deb atagan sak-skiflar boshqa skiflar ustidan hukmron bo'lib, ularni o'z qullari deb hisoblaganini yozadi. Demak, kuchli qabila ittifoqini vujudga keltirgan yetakchi sak-skiflar davlat birlashmasidagi boshqa qaram sak-skiflarni ustidan hukmronlik qilganlar. Gerodot hikoyalari ko'ra, Qora dengiz bo'yini bo'sundirgan sak-skiflar o'zlaridan chekingan kimmeriylarni ta'qib qilib, Old Osiyoga bostirib kiradilar. Midiya bilan saklarning aloqasi azaliy edi. Mil.avv. VII asrning oxirida

Orol ko'li bo'ylarida yashovchi skiflarning qandaydir guruhlari o'zaro nizolar natijasida Midiyaga borganlar.

Midiyada ularni kutib olgan podsho Kiaksar ularga midiyalik bolalarni o'q-yoy otishga va skif tilini o'rgatishni topshirgani aytiladi.

«Shoh Artinning davrida, – deb yozadi Diodor, – Ktesiyning so'zlariga muvofiq, parfiyanlar yer va shaharlarini saklarga topshirib, midiyaliklardan ajralib chiqdilar. Shunda saklar bilan midiyaliklar o'rtasida urush chiqdi. Sak podsholari midiyalik asirlarni Tanaisga ko'chirdilar. Ma'lumotlarga ko'ra, saklarning bir necha davlatlari buyuk cho'llarda mavjud bo'lgan.

Sharq yozuvchilari shimoldan kelgan barcha kelgindilarni «gimirri» – kimmeriyalar deb ataganlar. Skiflar va kimmeriyalar etnik va madaniy jihatdan bir-birlariga yaqin edilar. Old Osiyoga sak-skif va kimmeriyalarning bosqini mil.avv. VIII asrdan bir necha marta yuz beradi. Shu davrdan boshlab, ular Old Osiyodagi davlatlar o'rtasidagi to'qnashuvlarda faol ishtirok etadilar. Misol uchun, skiflar (saklar) Osuriya bilan ittifoqda Midiyaga qarshi urushda qatnashib, uning hududida mil. avv. 653–624-yillarda hukmronlik qildilar. Sak-skiflar, ayniqsa, Eron Ahmoniylari davrida bu davlat bilan yaqin aloqada bo'ladilar.

Ktesiy bizga Kir tomonidan asir olingan sak podshosi Amorg va uning xotini Sparetra to'g'risida ma'lumot beradi. Ktesiyning yozishicha, Sparetra erkak va ayollardan askar to'plab, jangda Kirni tor-mor keltirgan va Amorgni ozod qilgan. Ktesiyning yozishicha, shundan so'ng saklar Kir bilan ittifoq tuzganlar va Amorg Kirning dahlar hamda Midiyaga qarshi kurashida unga yordam bergan.

Ahmoniylar Eroni sak-skiflarni bo'ysundirishga bir necha bor urinib, yurishlar uyushtirganlar. Lekin yurishlarda forslar yengilgan. Tarixdan ma'lumki, Kayxusrav qo'shinlari massagetlar tomonidan (mil.avv. VI asr) tor-mor qilinadi. Doro I ning Shimoliy Qora dengizbo'yi skiflari ustiga yurishi natijasiz tugaydi. Saklar fors qo'shinlarini bir necha bor yengadilar (Polien, Shiroq). Doro I ularni mil. avv. 519-yilda qiyinchilik bilan bo'ysundiradi. Doroning saka-tigraxaudalarga qarshi yurishi to'g'risida Behustun yozuvlarida ma'lumot keltirildi. Anchagina o'chib ketgan yozuvda shunday deyilgan: «Men saka – tigraxaudalarga qarshi yurdim... katta daryo tomonga... O'tdim... o'ldirdim... boshqasini tutib olishdi va oyoq qo'lini bog'lab, mening oldim-

ga keltirishdi. Men uni hukm qildim... nomi Skunxu edi, uni tutishdi, u yerda men o'z xohishimga muvofiq boshqa odamni bosh qilib qo'ydim. Shundan keyin mamlakat meniki bo'ldi». Bu yozuvlar mil.avv. VI asrda o'lkamizda saklarning davlati bo'lgani, saklarning rivojlangan davlat va jamiyatda yashaganlaridan dalolat beradi. Doro I saklarga qarshi mil.avv. 519-yilda yurish qilib, ularning podshosi Skunxani asir olgan. Va uning o'rniga boshqa podshoni tayinlagani Behustun yozuvlarida keltirilgan. Saklar Ahmoniyalar davlati bilan alohida munosabatda bo'lganlar. Saklar forslarga o'lpon to'lagan qaram xalqlar orasida tilga olinmaydi. Mil.avv. IV asrda saklar forslarning ittifoqchilariga aylanadi. Saklarning harbiy san'ati yuqori darajada bo'lgan. Ular mohir chavandoz bo'lib, fors qo'shinlari tarkibida ilg'or kamonchi otliq qismlarni tashkil qilib, qo'shinning zarbdor qanoti edilar. Biror-bir xalq yelib borayotgan yaydoq ot ustida kamondan bexato nishonga urishga saklarga tenglasha olmas edi. Sak-skiflar erksevar xalq bo'lib, bosqinchilar tazyiqiga doimo munosib zarba berar, o'z mustaqilliklarini e'zozlar edilar. Mil.avv. 339-yilda makedoniyalik Filipp II skif qo'shinlari bilan to'qnashadi. Skif qo'shinlariga ularning 90 yoshli podshosi Atey boshchilik qiladi.

Sak-skiflarning katta-katta davlat birlashmalari mil.avv. I asrlargacha Osiyo va Yevropa dasht-cho'llarida jiddiy harbiy-siyosiy kuch bo'lgan. Mil.avv. III asrdan milodiy IV asrgacha O'rta Osiyo Volga bo'yi va Uralda yashagan ko'chmanchi qabilalar (tarixiy adabiyotda sarmatlar) kichik qabilalar ittifoqini tuzdilar. Ular Kavkaz oldi tekisligi, Don va Shimoliy Qora dengiz cho'llarini o'zlashtirdilar. Sharqiy Yevropa cho'llari egallanib, sarmatlar siyosat maydonida kuchli mavqeni egalladilar. Bosfor podsholigidagi o'zaro urushlarga aralashdilar. Sarmat podshosi Gatal mil.avv. 179-yil Kichik Osiyo shahar-davlatlar ittifoqiga qo'shildi. Mil.avv. I asrda sarmatlar Pont podshosining Rimga qarshi ittifoqchisi bo'ldi. Sarmatlar bu davrda O'rta Osiyodagi davlatlar, ayniqsa, Xorazm bilan juda yaqin iqtisodiy-siyosiy hamkorlikda bo'ldilar. Sak-skiflarning o'z qo'shnilari bilan munosabatlari murakkab, shu bilan birga barqaror bo'lgan. Ular qo'shni o'troq qabila-xalqlar bilan muntazam ayirboshlash, oila-nikoh, madaniy-etnik aloqalarda bo'lganlar. O'rta Osiyo, Qozog'iston va boshqa atrof hududlarda etnik birliklar yashagan, ko'chmanchi va o'troq turmush tarzida kun kechirganlar. Sak-skiflarning iqtisodiy-madaniy taraqqiyoti natijasida

so'g'diylar, xorazmiylar, farg'onaliklar, parfiyaliklar, baqtriyaliklar deb nomlangan etnik yaxlitlik vujudga kelgan. Boshqacha aytganda, hozirgi O'rta Osiyo hududida xalqlarning etnik genezisida ham sak-skif etnosi qatnashgan. Kelgusi turkiy xalqlarning shakllanishida ham sak-skiflar ustuvor o'rinni egallaydilar. Bu jarayon ularning turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy rivojlanishida o'z ta'sirini o'tkazadi.

Sibir, Shimoliy Kavkaz, Shimoliy Qora dengizbo'yi sak-skiflari o'troqlashuv jarayonini boshdan kechirdilar. Lekin ularning bir qismi ko'chmanchi chorvador, ovchi va baliqchi turmush tarzini saqlab qoldilar. Mil.avv. II asrdan Sharqiy Yevropa tomon O'rta Osiyo, Uraldan siljigan sak-skiflarning bir qismi bo'lgan sarmatlar yoki savromatlar Dnepr qirg'oqlarini egalladilar. Ular Dneprning o'ng qirg'oqini ham o'zlashtirib, bu yerdagi skiflarning bir qismi qirib tashladilar. Qolgan bir qismi o'zini saqlab qoldi. Sarmatlar o'zlariga qarindosh bo'lgan skif madaniyatini o'zlashtirdilar.

3. Ijtimoiy hayot. Sak-skiflarda jamiyat shakllanishi bilan boy chorvadorlar, urug'-qabila oqsoqollari ko'plab chorva mollariga egalik qilib, urug' zodagonlar qatlami va oddiy chorvador cho'ponlar – jangchilar qatlami shakllanadi. Antik mualliflar asarlarida bir necha sak-skif yo'l boshchilari nomlari tilga olinadi. Uchinchi qatlam diniy urf-odat, an'analarni bajaradigan koinlar, shomonlar (turkiy xalqlarda – toyinlar) har bir ovulda bo'lgan. Cho'l-dasht, tog'oldi hududlarida yashagan sak-skiflar qisman dehqonchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lganlar. Chunki qurg'oqchilik yillarida cho'l va dasht hududlarida chorva mollari ko'p qirilib ketgan va ochlik ko'chmanchi chorvadorlarning doimiy hamrohi bo'lgan. Shuning uchun ishonchli oziq-ovqat manbalarini izlashga majbur edilar. Ular tog'oldi daryo vodiylarida o'zlariga kerakli oziq-ovqat manbalari – g'alla, sabzavot-poliz ekinlarini ekib olganlar. Qo'shni xalqlar, davlatlar bilan faol ayirboshlash, madaniy va harbiy aloqalar o'rnatilgan. Qo'shnilar bilan munosabatlar ziddiyatli ham bo'lgan.

Sak-skiflarda mulkiy tabaqalanish kuchli bo'lgan. Topilgan sak-skif qabrlarida uning izlarini ko'rish mumkin. Zodagonlarning qabrida buyumlar boy va xilma-xil. Aqinak (xanjar) va uning qini, o'q-yoy sadoqlariga marosim mifologik tasvirlari tushirilgan hamda oltin plastinkalar bilan bezatilgan. Sag'ananing o'lik qo'yilgan xonasi devorlari marhumning zarbof kiyimlari, so'zanalar bilan bezatilgan. Zodagonlarning qabrlarida

marosim buyumlari bo'lgan ko'zalar – sharsimon qadah-ritonlar, ikki gorizontali quloqli ochiq jomlar ko'p uchraydi. Bunday jom-qadahlar oltin, kumushdan yoki yog'ochdan metall bilan mustahkamlab yasalgan. Gerodot hikoyasi bo'yicha, yo'l boshchilarning dafn marosimida uning barcha fuqarolari ishtirok etgan. Yo'l boshchi qabri ustiga ulkan qo'rg'on – tepalik bunyod qilingan. Dafn marosimidan keyin marhumni xotirlash uchun shu yerning o'zida jamoa umumiy ovqatlanish marosimini o'tkazgan. Uning izlari arxeologik qazilmalarda topilgan. Ukrainadan arxeologlar «Tolstaya Mogila» qo'rg'on-qabrni tekshirganlarida, dafndan keyin iste'mol qilingan xonaki va yovvoyi hayvon suyaklarining ulkan miqdoriga qarab, dafn marosimiga 2,5-3 ming kishi qatnashgan deb faraz qiladilar.

Ko'chmanchi sak-skiflar chorvachilik bilan shug'ullanib, o'tovlarda, ba'zi hududlarda aravalarda yashar edilar. Yilqi, qo'y, tuya, echki boqilgan. Go'sht, sut va ulardan tayyorlangan qazi, pishloq, suzma, qimiz, quritilgan go'shti asosiy oziq-ovqat va ichimlik edi. Asosiy ovqat qo'y-echki, ot-tuyadan olinadigan sut, go'sht bo'lgan. «Ular qaynatilgan go'sht yeydilar, yilqi sutini ichadilar va ippaki yeydilar» deb yozgan edi antik mualliflar. Idish-tovoqlar juda oddiy bo'lib, yog'och, mis, jez va temirdan edi. Katta jez qozonlarda ovqat tayyorlanar edi. Hayvon terisiga ishlov berilib, ulardan kiyim-kechak, oyoq kiyim, uy-ro'zg'or buyumlari (teridan qilingan mesh, ovqat saqlanadigan, yeyiladigan, tayyorlanadigan, pishiriladigan idishlar) tayyorlangan. Shuningdek, hayvon terisidan qamchi, xurjun, arqon, egar-jabduq, bosh kiyim, ko'rpa-to'shak, gilam va boshqalar tayyorlangan.

Sero't yaylov-o'tloqlar uchun doimiy to'qnashuvlar yuz berib, hududlar qabila-urug'lar o'rtasida nisbatan barqaror taqsimlangan edi. Sak-skif yo'l boshchilari o'lganda ularning xotinlari, qurolbardorlari, xizmatkorlari, jangovar otlari va yo'l boshchining qurol-yarog'lari, shaxsiy buyumlari bilan birga ulkan qabr – qo'rg'onida dafn qilingan. Sak-skiflar qaynoq, keskin va yorqin hayot kechirdilar. Doimiy xavfli tahdidlar bilan kurash, doimo bepoyon kengliklarda o'zini himoya qilish moddiy va ma'naviy madaniyatga ham ta'sir qildi. Sak-skiflar o'troq dehqon qo'shnilari bilan o'zlariga zarur bo'lgan don, meva, poliz mahsulotlari, gazlama, uy-ro'zg'or buyumlarini ayirboshlar edilar.

Qurol-yarog' har bir kishi uchun hayotiy zarurat edi. Sakning o'ng biqiniga taqiladigan yog'och qinda kalta qilich (aqinak) bo'lib,

uning qini tilla qoplamasi hayvonlarning o'yib tushirilgan tasviri bilan bezatilgan edi. Qilichning sopiga ba'zida tilla, kumush qoplangan. Uzun nayzalarning uchlari temirdan bo'lib, uzoqqa otadigan qurol – o'q-yoy edi. Kamon o'qining uchi suyak, jez va temirdan yasalgan. Sak kamoni yengil bo'lib, uncha katta bo'lmagan. Bunday kamondan otdan turib nishonga olib otish qulay edi. Kamon belda, chap tomondagi kamarga taqiladigan sadoqda saqlangan. Kamon o'qi ham shu sadoqda saqlanar edi. Sadoq jang manzarasi, hayvonlarning nafis tasvirlari tushirilgan tilla, kumush qoplama bilan bezatilgan. Uzunligi 2 metr bo'lgan yaproqsimon yoki tor yaproqli temir uchli nayza keng tarqalgan. Kalta uchli, kalta nayzalar bo'lgan. Kalta, temir dastali qilich sopi tilla, kumush bilan bezatilgan. Qilichning sopi trapetsiya, uchburchak shaklida bo'lib, hayvon tasviri bo'lgan. Qilichning qini ham sadoq kabi jang manzarasi, hayvon tasvirlari bilan bezalgan. Sak-skif temir pichog'i bukri yelkali bo'lib, odatda, sopi suyakdan yasalgan. Ot sak uchun minish, urushda jangovar yo'ldosh, doimo yonidagi oziq-ovqat manbayi. Ot sakning doimiy hamrohi bo'lgan. Sak oti uncha katta bo'lmagan, qaynoq va o'ynoqi, chidamli edi. Ot anjomlari temir yoki jez jilov, egardan iborat bo'lgan. Otning ko'kragi qo'ng'iroqchalar bilan bezatilgan. Yumshoq egarlarning asosi yog'ochdan ishlanib, oltin yoki kumush, yapaloq boshli mixlar bilan bezatilgan.

Sak-skiflar daryo vodiylari havzasida chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Arxeologik qazishmalar natijasida ko'plab o'troq manzilgohlar topilgan. Sak-skiflar chorvachilik va dehqonchilikdan tashqari, ovchilik bilan ham shug'ullanganlar. Cho'l-dashtlardagi parranda-qushlar, hayvonlar asosiy ov o'ljalari bo'lgan.

Har bir sak bolasi ovchi, cho'pon, jangchi qilib tarbiyalangan, xavf-xatarga to'la hayot, urug'-qabilalar o'rtasida sero't yaylovlar uchun kurash, tabiat ofatlari bilan qurg'oqchilik, qahraton qish, ov o'ljalari bo'lgan hayvonlarning qirilib ketishi urug'-qabila turmush tarzini belgiladi. Har qanday vaziyatga tayyor turish, sabr-toqat va chidam, og'ir holatlarda ham urug'-qabilani, o'z hayotini saqlab qolish, tirik qolish zaruriy ehtiyoj bo'ldi. Sak-skiflar harbiy san'atni mukammal darajada shakllantiradilar. Ularning kamon, qilich, nayza, temir, jez, charm sovutlari nihoyatda pishiq va nozik did bilan yasalgan. Saklarning otliq qo'shinlari jangda yengilmas, tutqich ber-

maydigan harakatchan edi. Sak otliqlari ulkan Ahmoniyar imperiyasining yaxshi qurollangan qo'shinlarini yanchib tashlagan edi. Saklarning harbiy san'atiga tan bergan Ahmoniyar ularni harbiy xizmatidan foydalanadilar. Sak-skiflar urug'-qabilaning har bir a'zosi bo'lgan erkak-ayol jang san'atini bilishi lozim deb hisoblaganlar. Har bir sak bolasi 5 yoshidan kamondan o'q otishni o'rganib, qushlarni ov qilib, o'ziga ovqat topishi shart edi. Otda yurish, otda jang qilish san'atiga bolalikdan o'rgatilgan. Har bir sak bolaligidan chavandozlikni o'rganar, balog'at yoshiga yetguncha otda jang qilish san'atini puxta egallar edi. Kuch sinash bellashuvlari muntazam o'tkazilgan. Kamondan uzoq masofaga bexato nishonga urish, yugurib ketayotgan otda kamondan otish ko'nikmasi bolaga yoshligidan singdirilgan.

4. Sak-skif madaniyati. Sak-skiflar bir necha ming yillar davomida o'ziga xos madaniyat yaratdilar. Sak-skif mifologiyasi boy va mazmunli bo'lib, antik mualliflar tomonidan o'zlashtirilgan. Osiyo va Yevropaning cho'l va dasht hududlarida sak-skiflarning moddiy madaniyat yodgorliklari bo'lgan yuzlab, minglab qo'rg'onlar topib o'rganilgan. Sirdaryoning quyi oqimi, Markaziy Qozog'iston, Tyan-Shan, Pomir, Oltoy, Shimoliy Qora dengizbo'yi, Dnepr daryosi dashtlaridan qazib o'rganilgan qabr-qo'rg'onlardagi topilmalar sak-skif madaniyatini bepoyon dasht-cho'l hududlarida an'anaviy bir xil shakllangani, syujetlar, uslublar, tasvirlar bir xilligi, bir-birini takrorlab kelishi bilan bu madaniyatning yaxlitligidan dalolat beradi. Chunki yaxlit etnik birlik xo'jalik hayotining bir xilligini, an'anaviy turmush tarzi, dunyoqarash va diniy e'tiqodning ham bir xilligini ta'minladi. Minglab kilometrlarga cho'zilib ketgan bepoyon kenglikda iqlim, landshaft, geografik muhitning har xilligi madaniyatda shaklan o'ziga xoslikni yaratdi. Arxeologik qazilma topilmalarida harbiy qurol-yarog'larning tuzilishi, ularga tushirilgan hayvon tasvirlari bir-biriga o'xshash.

Sak-skif madaniyatining gullab-yashnashi mil.avv. VII-VI asrlarga to'g'ri keladi. Abadiy muzlik sababli Tog'li Oltoydan topilgan juda yaxshi saqlanib qolgan Paziriy madaniyati yodgorligi bu san'atning ajoyib namunasi hisoblanadi. Paziriy va hududdagi boshqa qabrlardagi buyumlar yaxshi saqlangan. Bu buyumlar ichida marhumlarning kiyimi, taqinchoqlar va yog'ochdan o'yilgan ashyolar, kigiz, patli gilamlar va boshqa buyumlar bor. Dafn qilingan odamlarning badanlariga chizil-

gan (tatiurovka). Bular barchasi abadiy muzlik sharoitida yaxshi saqlanib qolgan. Kuban dashtlarida mil.avv. VI-IV asrlarga oid skif qo'rg'on va qabrlarida odamlar jasi bilan birga, katta miqdorda hayvon suyaklari, jez qozonlar, egar-jabduqlar, harbiy va mehnat qurollari, turli xil oltin zeb-ziynatlar topilgan. Sak-skif qabrlarida qurol-yarog'lar muntazam uchraydi: kamon o'qi uchlari, kamon qoldiqlari, nayza va qilich-aqinaklar. Ayollar qabridan baldoq, uzuklar, bilakuzuklar va oynalar topilgan.

O'rta Osiyo, Qozog'iston, Sibir va Qora dengiz bo'yi cho'l-dashtlarida yashagan sak-skif qabilalari urf-odat an'analari, turmush tarzini o'z madaniyatlarida ifodali aks ettirdilar. Bu madaniyatning tasviriy san'at sohasida hayvon uslubi nihoyatda mukammallikda o'z ifodasini topdi. Sak-skiflar tabiat qo'ynida bir umr hayvonot dunyosi bilan birgalikda uyg'un yashaganlar. Xonaki va yovvoyi hayvonlar ko'chmanchi, yarim o'troq urug' qabilalar uchun hayot manbayi edi. Kiyim-kechaklar, egar-jabduqlar, qurol-yarog'lar va turar-joy, o'tovlar hayvonlar tasvirlari bilan bezatilgan. Hayvonot dunyosi sak san'atida guruh-guruh qilib tasvirlangan. Kiyik, bug'u, tog' echkisi, qo'y, ot, sher, yo'lbars, qoplon, qushlar sher gavdali, burgut boshli qilib afsonaviy qanotli mavjudotlar kabi tasvirlanar edi. Hayvonlarning olishayotgan tasvirlari sak-skiflarning tabiat dunyosini uzoq kuzatib, uning borlig'ini aks ettirishga harakat qilganlarini ko'rsatadi. Ular o'zlarining uzoq ajdodlari totemlari, asoschilari, homiylari qilib hayvonlarni tanlaydilar. Hayvonlarda sehrli kuch mavjudligiga ishonidilar. Hayvonlar tasviri urug' jamoaga, uning a'zosi – odamga yordam berishi, homiylilik qilishi, balo-qazolardan, yovuz kuchlardan saqlashi va qutqarishi lozim edi.

Har bir buyum – mehnat quroli, harbiy qurol-yarog'da badiiy san'at namunasini ko'rish mumkin. Tasvirlar jonli, uyg'un, hayotiy bo'lib, ularda sak-skiflarning dunyo-jamiat va tabiat to'g'risidagi tasavvurlari o'z aksini topgan. Qrimdagi Ko'loba qo'rg'onidan bundan 170 yil oldin topilgan elektron qadahda o'z yarasini davolayotgan uch odamning tasviri hayotiy ifodalangan. Shunday manzara Voronej yaqinidagi qo'rg'onidan topilgan kumush xumda tasvirlangan. Bu har ikkala topilmada tasvirlangan manzara bepoyon cho'l-dashtlarda yashagan sak-skiflarning tuzmush tarzi, urf-odat, an'analari, marosimlari bir xil bo'lgan xalqning yaxlit madaniyatni shakllantirganini ko'ramiz.

Sak-skiflar tabiat kuchlariga e'tqod qilganlar. Olov, suv, havo, hayvonlarga sig'inish keng tarqalgan. Gerodotning guvohlik

berishicha, temir qilichga singdirilgan xudo ruhiga e'tiqod qilingan. Uning yozishicha, skiflarning har bir viloyatida yog'och va shoxlardan ulkan mehrob qilinib, uning tepasiga qo'yilgan qilich – aqinakga xonaki hayvonlar, har yuz asirdan biri qurbonlik keltirilgan. Sak-skiflarning bir qismi bo'lgan massagetlar osmon xudosi Ko'k tangriga sig'inganlar. Unga uchqur otni qurbonlik keltirganlar. Homiy hayvonlarga qurbonlik qilish, uning sharafiga marosimlar o'tkazish an'ana bo'lib qolgan. Chertomlik qo'rg'onidan topilgan katta kumush ko'zada otni qurbonlik keltirish marosimi tasvirlangan. Diniy aqidalar yuqori darajada shakllanganini sak-skif turmush tarzi, urf-odat, an'analari namoyon etsa, tabiat kuchlariga e'tiqodning singib ketganini arxeologik topilmalar, mifologiya, mozor-qo'rg'onlar, shakllangan dafn marosimlari yaqqol ko'rsatadi.

Uzoq Norvegiyada Oseberg qo'rg'onida topilgan XI asrga tegishli kema san'at namunasi hisoblanadi. Kema hayvon uslubidagi yog'och o'yma ornament bilan bezalgan. Ajdarning mohirona yo'nib ishlangan, ochilib turgan og'zi sak-skif xanjari sopidagi hayvon tasviri bilan o'xshash. Sak-skif madaniyati Old Osiyo, Yevropa va sharqning boshqa mamlakatlari madaniyatiga asrlar davomida hayotbaxsh ta'sir qildi. O'rta Osiyo, Eronda topilgan noyob san'at asari bo'lgan oltin, kumush, jez ko'za, jom, qadahlarda ot kallasi, kiyik va tog' echkisi tasviri tushirilgan. Cho'llar, dasht va tog'oldi hududlarida yashagan ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan sak-skiflar o'zlari bilan yonmayon yashagan o'troq etnik birliklar bilan faol hamkorlik qildilar. Ko'chmanchilar ko'p hollarda birgalikda yashab o'troq aholi tinchligini himoya qildilar. O'zaro yaqin aloqalar har ikki tomonning turmush tarzi va madaniyatlariga ta'sir qildi. Yevropaning ilk sivilizatsiyasi hisoblangan Yunon dunyosi madaniyatida sak-skiflar, sharqning ilk sivilizatsiyalarining ta'siri yaqqol ko'rinadi. San'atdagi hayvon uslubi Xitoy san'atining eng qadimgi yodgorliklarida, Yevropaning so'nggi temir davridagi kelt qabilalarining dekorativ san'atida yaqqol namoyon bo'ladi. Hozirgi O'rta Osiyo, Afg'oniston va Eron xalqlarining san'ati va madaniyatida sak-skiflarning san'atidagi ko'chib yuradigan obrazlar: ot, kiyik, tog' echkisi, sher, qo'y tasvirlari, geometrik shakllar asrdan asrga, avloddan avlodga o'tib keladi. Turli xalqlarning harbiy san'at namunalari bo'lgan jez, kumush, tilla sopli qilich, xanjar va qalqonlarda hayvon uslubi mustahkam o'rinni egallagan. Milodiy IV asrga oid Amudaryo xazinasidagi

oltin buyumlarning barchasida sak-skif san'atining qaynoq nafasi yaqqol sezilib turadi.

Tadqiqotchilarning fikricha, sak-skiflar hayvonlarda ilohiy kuchni ko'rganlar. Odamlar ana shu ilohiy kuchni o'zlashtirishlari lozim deb tasavvur qiladilar. Mifologiyada ma'budlar antropomorf qiyofada gavdalanadi. U o'ziga xos keng dasht-cho'llar, atrof dunyoni ramziy yaxlit aks ettirgan buyumlar, qurol-yarog', uy-ro'zg'or buyumlari, haykalchalar, qabr-qo'rg'onlarda aks etdi. Hayvon obrazi, uslubi bu xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatining ustuvor yo'nalishi edi.

Saklarning kiyimlari ko'chmanchi turmush tarziga mos edi. Kiyimlar ishlov berilgan charm, jun, bo'zdan bo'lgan. Charm etik, boshga cho'qqi qalpoq kiyilgan. Kalta kamzul, belda kamar, tor yoki keng charm ishton etikka tiqilgan. Boy ko'chmanchilar kiyimlarida tilla, kumush bezaklar, otlarning egar-jabduqlari ham shunday ziynatlangan. Ayollar belda kamar bilan uzun tor yengli ko'ylak, kalta kamzul kiyganlar. Ularning bo'yinlariga munchoq, qo'llariga bilakuzuk, barmoqlariga uzuklar taqilgan. Oyoqlarida ham halqa taqqanlar.

Sak-skif san'atining eng noyob namunalaridan biri – Tog'li Oltoydagi qabr-qo'rg'ondan yoshi 2500 yilga teng, hajmi 83x2.00 metrli qadimgi gilam topilgan. Bu qabrdan yana bir katta – 4,5x6,5 m kigiz gilam topilgan. Uning oq rang bilan bo'yalgan yuzasidagi ikki qatorli tasvirda taxtda o'tirgan malika qo'lida gullab turgan shoxcha oldida otliq turibdi. Suvoriy yo'lboshchi kalta kamzul, tor ishton va yumshoq oyoq kiyimda, kamari-da sadoq osilgan bo'lgan. Ehtimol, gilam yo'lboshchi chodiri – qarorgohi devoriga ilingan bo'lgan. Topilmalardan yana biri foytun. U bir necha qismlardan tuzilgan bo'lib, qayish bilan bir-biriga bog'langan. Butun foytun faqat yog'ochdan bo'lib, qayish bilan bir-biriga puxta bog'langan. Katta g'ildiraklar qo'yilib, ular o'rtasiga ayvon qilingan bo'lib, foytunning balandligi uch metrga yetadi. To'rt ot foytunni tortgan. Pazirliq qo'rg'onlarida ham otlar qabrga dafn qilingan. Otning egar-jabduqlari bug'u terisidan qilinib, ichiga jun to'ldirilgan charm yostiqchalar bilan otning jasadini o'ziga xos, otning dumi charm g'ilof, yoliga xo'rozlar tasvirlangan kigiz g'ilof kiydirilgan. Otning tumshug'idan kiydirilgan niqobning davomida kallasiga charmdan tikilgan bug'uning tarmoqlanib ketgan shoxlari turibdi. Charm niqob, kigiz va teri otning burni va peshanasi ustida yashil rangda bo'yalgan sher tasviri bilan bezalgan. Bu topilmalar

sak-skif san'atining yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Gilamlardagi tasvirlar, rasmlar, hayvonlar, naqshlar, geometrik shakllar an'anaviy ravishda sak-skiflarning keyingi avlodlari bo'lgan barcha turkiy xalqlarning madaniyatida to'la saqlanib qoldi va yanada rivojlandi.

Sak-skiflar Osiyo va Yevropa hududlarida ko'payib, turli xalq-etnoslarning keyingi shakllanishida poydevor bo'ldilar. Bu madaniyat insonni tabiat qo'ynidagi erkin dunyoqarashi, uning tabiat bilan uyg'un munosabatini o'zida aks ettirdi. Ayniqsa, hayvonot dunyosi sak-skiflar bilan uyg'un bog'langan edi. Sak-skiflar ko'chmanchi chorvachilik bilan birga, ovchilik bilan shug'ullanar edilar. Ov ularning doimiy hamrohi bo'lib, ular yovvoyi hayvon va parrandalarning tabiatini yaxshi bilganlar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Oriylar muammosi: Yangicha qarashlar va yondashuvlar. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2005.

3. Аскарлов. А. Антинаучная позиция пан-ираниста (ответ на статью Р.Масова «Тюркизация арийцев») 25.01.2006. Источник – Центр Азия Постоянный адрес статьи -<http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=1138149000>

Asosiy sanalar

| | |
|------------------------------------|--|
| Mil.avv. II–I ming yilliklar | Sak-skif sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishi. |
| Mil.avv. I ming yillikning I yarmi | Sak-skif qabilalari ittifoqining judga kelishi. |
| Mil.avv. VIII asrdan Old Osiyoga | Sak-skif va kimmeriylarning yurishi. |
| Mil.avv. VII–VI asrlar | Sak-skif madaniyatining gullab-yashnashi. |
| Mil. avv 519-yil | Doro I ning saklar podshosi Skunxaga qarshi yurishi. |
| Mil.avv. VI–IV asrlar | Sak-skif qo'rg'on va qablari. |
| Mil.avv. II asr | Sharqiy Yevropaga O'rta Osiyo, Uraldan sak-skiflar bir qismining migratsiyasi. |

QADIMGI AFG‘ONISTON

1. Hududi, geografik o‘rni va tabiiy sharoiti. 2. Asosiy siyosiy voqealar. 3. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. 4. Qadimgi Afg‘oniston madaniyati.

1. Hududi, geografik o‘rni va tabiiy sharoiti. Afg‘oniston hududida ilk odamlar bundan 200-100 ming yil oldin yashagani G‘azna viloyatidagi dashti Navurda topilgan tosh qurollar dalolat beradi. Shimoli-sharqiy Afg‘onistonda Darran-g‘u darasida o‘rta paleolitning mustye bosqichiga tegishli tosh qurollarning yoshi mil.avv. 60-35 ming yilliklarni tashkil etadi. Manzilgohda xuddi O‘zbekistonda Teshik tosh g‘orida topilgan neandertal kabi odam qoldiqlari topildi.

So‘nggi paleolitga tegishli manzilgohlar Qora Kamar Tosh-qo‘rg‘onga boradigan Puli Xumri yo‘lidagi g‘orlarda mavjud. Qora Kamar darasining mezolit ovchilari qo‘y, jayron, turli qushlarni ovlaganlar (mil.avv. 10000-7000 ming yilliklar), bu davrga tegishli ikki g‘or va bir ochiq manzilgoh Mozori Sharif shahridan pastroqda topilgan. Shimoliy Afg‘onistonning so‘nggi mezolit topilmalari bu davrdagi O‘rta Osiyodagi mezolit yodgorliklariga o‘xshash. Paleolit yodgorliklari Hindiqush tog‘ etaklaridagi Baqtriya tekisligida, Shimoliy Afg‘onistonda joylashgan manzilgohlarda tosh qurollar bilan idishlar, yorg‘ichoq va tosh motigalar topilgan.

Akademik N.I. Vavilov Afg‘oniston hududidagi Hirot va Qandahorda ilk dehqonchilik rivojlanishini ko‘rsatadi. Afg‘onistonda eng qadimgi dehqonchilik va chorvachilik yodgorliklari mil. avv. IV–III ming yilliklarga tegishli (Qandahor viloyati). Janubiy Afg‘onistonda ilk dehqonchilik madaniyatining rivoji fransuz arxeologi J.M. Kasalning arxeologik qazishmalari natijasida ochildi. Mil.avv. III ming yillikning birinchi yarmida O‘rta Osiyodan qabilalarning Afg‘onistonning janubi-sharqi tomon migratsiyasi kuzatiladi. Bu davrda Qandahor dehqonchilik madaniyati metall dan keng foydalanadi. Afg‘onistonning o‘zida mavjud bo‘lgan xomashyosidan mis va jez boltalar, xanjar va turli taqinchoqlar tayyorlash boshlanadi. Bu davrda ko‘rinishidan mulkiy tabaqalanish kuchaydi. Mingquduq hududi deh-

qon jamoasining manzilgohi va ilk shahar bo'lgan. Munguduq qo'rg'oni mahalliy poytaxt bo'lgan deb faraz qilinadi. Bu yerda katta inshootlar barpo qilinadi. Shunday inshootlardan biri mahalliy hokimning qarorgohi bo'lgan. Bu yerdagi ikkinchi yana bir inshoot – ibodatxona qurilgan. Hozirgi Pokiston hududida joylashgan qadimgi Xarappa shahri Afg'onistondan mashhur la'l toshini olgan.

Janubiy Afg'onistonda Seyiston viloyatida (Gilmen viloyati) ham ilk dehqonchilik rivojlanadi. Mil.avv. II ming yillikda Shimolda Mozori sharif hududida bir necha vodiylarda dehqonchilik va chorvachilik o'choqlari paydo bo'ladi. Avestoda Afg'onistondagi qator tarixiy-madaniy viloyatlar nomlari mavjud: Qandahor viloyati «Avesto»da Xaraxvati (yunon tilida Araxosiya), Seyiston viloyati «Avesto»da Xaytumanta (hozirgi Gilmend). Hirot viloyati «Avesto»da Xaroyva (yunon tilida Ariya), Amudaryoning o'rta oqimi O'zbekiston va Tojikistonning janubi bilan Baqtriya Avestoda Baxdu (yunon tilida Baqtriana), Murg'ob va Turkmanistonning janubi-sharqi Marg'iyona Avestoda Mouru (yunon tilida Margiana). Avestoda Afg'oniston, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston hududlarini o'z ichiga olgan Baqtriya davlatini shakllangani to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Avestoning «Mixr yasht» qismida (Mitruga bag'ishlangan qism) bir necha viloyatlarni birlashtirgan davlat tepasida turgan Daxyanat to'g'risida so'z boradi. Oriylar mamlakati So'g'd, Marg'iyona, Ariya, Xorazm va Afg'onistonning tog'li hududlaridagi viloyat tavsiflanadi. Zardushtiylik dini asoschisi Zardusht mil.avv. VII asrda yashagan. Uning onasi Dugdava (sigir sog'uvchi), otasi Purushaspa (kulrang otlar egasi). Zardusht 30 yoshida yangi ta'limotni targ'ib qilishni boshlaydi. An'anaviy din kohinlari uni ta'qib qilganlari uchun o'z tug'ilgan joyidan ketishga majbur bo'ladi. U hokim Vishtasp saroyida panoh topadi. Vishtasp saroyida uning ta'limotiga zodagonlar, hokimning bosh maslahatchisi Jamasp ergashadilar. U 42 yoshida necha yutuqqa erishadi. Vishtasp hokimiyatini mustahkamlay olmaydi. Uning yaqinlaridan biri uni hokimiyatdan chetlashtiradi. Zardusht 77 yoshida tur qabilasi vakili tomonidan o'ldiriladi. Bu Baqtriyada katta davlat tuzish uchun kurash borganidan dalolat beradi. Baqtriya davlati hukmdorlari katta yutuqlarga erishadilar. Avestoda Baqtriya bayroqlari baland ko'tarilgan ming shaharli mamlakat deb tavsiflanadi.

2. Asosiy siyosiy voqealar. Mil.avv. VII asrda Afg'oniston, hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning janubiy hududlarini o'z ichiga olgan Baqtriya davlati tashkil topdi. Yunon muallifi Knidlik Ktesiy Baqtriyani qudratli davlat deb tasvirlab, Baqtriyani Osuriya bilan urushini hikoya qiladi. Baqtriyaning poytaxti Mozori sharif yaqinidagi Baqtra (hozirgi Bolou Hisor) juda yaxshi mustahkamlangan shahar bo'lib, shaharda ark ham bo'lgan. Baqtriya qadimgi sharqning siyosiy hayotiga tez tortiladi. Ahmoniyalar Eroni mil.avv. VI asrda Afg'onistonning Ariya, Baqtriya Drangiana, Araxosiya va Hindistonning Ganxara viloyatlarini o'z ta'sir doirasiga oladi. Ahmoniylarning Baqtriyani bosib olingani to'g'risida yozma ma'lumotlar yo'q. Kayxusrav hozirgi Bag'ram viloyatidagi Kapisa shahri qarshiligini shafqatsizlik bilan bostiradi. Baqtriya bo'ysundirilgach, Baqtriya satratligi tashkil etiladi. Baqtriya siyosiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan. Doimo forslarga qarshi urushib, mustaqilligini tiklashga harakat qilgan, bir necha bor ahmoniyalarga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Baqtriya yiliga fors xazinasiga 360 talant (1 talant – 30 kg kumush) o'lpon to'lagan.

Mil.avv. I ming yillikda Afg'onistonda turli etnik guruhlar yashagan: Ariya viloyatida oriylar, sak-amarglar (evrget), paktlar. Bo'lg'usi Afg'oniston etnik birliklarining shakllanishida sak-qabilalari muhim o'rin tutadi. Amudaryoning har ikkala qirg'og'ida yashagan saklar toki Hind daryosi vodiysigacha migratsiya qilganlar.

Mil.avv. I ming yillik o'rtalarida Afg'oniston hududidagi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik rivojlandi. Sun'iy sug'orish inshootlari, korizlar barpo qilindi. Ahmoniyalar koriz qurgan dehqonlarni ma'lum muddatga soliqlardan ozod qilganlar. Afg'onistonning Farax-guruh hududidagi korizlar mil.avv. I ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. Aholi asta-sekin iqtisodiyot va madaniyat markazlari bo'lgan shahar ko'rinishidagi qo'rg'onlarda to'plana boshlaydi. Arxeologlar tekshirgan Baqtriyaning poytaxti Baqtra shahrining hududi shahar atrofisiz 120 gektar maydonni tashkil etadi. Ko'pgina devorlar bilan o'ralgan shaharlarda mustahkamlangan qal'a – ark bo'lgan.

Yuejilar Baqtriya hududini to'liq egalladilar. Sak qabilalari janubiy viloyatlar – Drangiana Araxosiya va Ganxarani egallab, bu hududda o'zlarining bir qancha davlatlarini tuzdilar. Kashmir va Gandxaranni birlashtirgan sak davlati hukmdori Mayes zarb qilgan tangalar bizgacha yetib kelgan.

Makedoniyalik Aleksandr Ahmoniylar davlatini tugatgach (mil.avv. 330-yil), Baqtriya satrapi Bess o'zini «Osiyo hukmdori» deb e'lon qildi. U davlat tarkibiga Baqtriyadan tashqari Ariya va Drangiana (Afg'onistondagi viloyatlar) ham kirgan. Ariya satrapi Aribarzan boshda Aleksandrغا bo'ysundi, lekin keyin qo'zg'olon ko'taradi. Drangiana (Afg'onistondagi viloyat) jiddiy qarshilik ko'rsatmay Aleksandrغا bo'ysunadi. Aleksandr Araxosiya va Baqtriyaga jadal qo'shin tortdi. Bess raqibga qarshilik ko'rsata olmay, hozirgi O'zbekiston janubiga Amudaryoni kechib o'tdi. Lekin «Osiyo hukmdori»ni o'z yaqinlari Aleksandrغا ushlab berdilar. Aleksandr O'rta Osiyoda sak-massaget va so'g'dning kuchli qarshiligiga duch kelib, bu yerda mil.avv. 329–327-yillarda qolib ketdi. Faqat O'rta Osiyoning ayrim hududlarini nominal o'ziga bo'ysundirdi. Mil.avv. 327-yil bahorida Hindiqush tog'laridan o'tib, Qobil hududiga aspasiy, guriy va assakenning tog'lik qabilalari qarshiligiga uchradi. Paronomisad tog'li viloyatiga o'zining qaynotasi so'g'd zodagoni Oksiartni hokim etib tayinladi. Shundan so'ng u Hind vodiysi tomon yurish qildi.

Afg'oniston hududida ma'lumotlarga ko'ra Aleksandr Ariya, Araxosiya (G'azna hududi), Hindiqush tog'i yonbag'rida (Chorikor hududida bo'lishi mumkin) shaharlar barpo qiladi. Shahar albatta bir yoki ikki yilda barpo qilinmaydi. Bu uzoq yillar davom etadigan jarayon. To'g'rirog'i, Aleksandr bu yerlarda yunon-makedon harbiy qismi turadigan tayanch nuqta – himoyalangan qal'a qurgan bo'lishi mumkin.

Aleksandrning o'limidan so'ng Afg'oniston hududi taxminan mil.avv. 306 yoki 305-yillar Salavk ixtiyoriga o'tadi. Salavkning o'g'li Antiox hukmronligi davrida (mil.avv. 281–260-yillar) Baqtra shahri Antioxning qarorgohi bo'ldi. Mil.avv. 250-yillar atrofida sarkarda Diodot Baqtriyani Salavkiylar davlatidan ajratib oladi. Bu davlat tarixga Yunon-Baqtriya nomi bilan kiradi. Yunon-Baqtriya davlati mil.avv. 250-yillar atrofida paydo bo'ladi. Afg'oniston, O'rta Osiyo janubi va Shimoliy Hindistonni o'z ichiga olgan Yunon-Baqtriya davlati shakllangan boshqaruv tizimiga ega edi. Hukmdorlar faol tashqi siyosat olib boradilar, savdo-hunarmandchilikning rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratadilar va tangalar zarb qiladilar. Baqtriya yuzlab shaharlar mamlakati edi. Bu shaharning qoldiqlari Afg'oniston, O'zbekistonning janubida ko'plab qazib ochiladi. Ana shunday shaharlardan biri Ko'kcha daryosining Amudaryoga quyilish

joyida qurilgan shahar g'ishtdan bunyod qilingan. Shahar devorlar bilan o'rab olingan. Devorlarda minoralar mavjud. Shaharning tik qirg'oqlar bilan himoyalangan baland tepaligida mustahkamlangan qal'a qurilgan.

Diodot faol tashqi siyosat yuritishga harakat qilib, Parfiya-ga ham tazyiq o'tkazadi. Mil.avv. 230-yilda Diodot sulolasini Yevtidem qirib tashlab, o'z hukmronligini o'rnatdi. Yevtidemning o'g'li Demetriy (190–171-yillar) Araxosiyani va Hind vodiysidagi Ganxarani bosib oldi. Demetriy Maurilar davlatiga kirgan bir necha viloyatlarni bosib olishga harakat qildi. U mil. avv. 171-yilda hind yurishida bo'lganida hokimiyatni uning sarkardasi Yevkratid bosib oladi. Yevkratid (171–155-yillar) o'z hokimiyatini mustahkamlab, hind yurishini davom ettirdi va qator viloyatlarni bosib oldi. Yunon-Baqtriyaning g'arbiy qo'shnisi Parfiya bu vaqtda kuchayib ketib, Yunon-Baqtriyaning bir necha viloyatlarini bosib oldi.

Yevkratid mil.avv. 155-yillar atrofida harbiy yurishdan qaytayotgan paytda o'z o'g'li Geliokl tomonidan o'ldirildi. O'ligi ustidan jang aravasi bilan bosib o'tib, uning jasadini xo'rladi. Yangi noqonuniy hukmdor Geliokl o'z otasini Yunon-Baqtriyaning so'nggi qudratli vakili edi. Tez orada mil.avv. 140–130-yillar atrofida shimoldan kelgan ko'chmanchi yueji qabilalari Yunon-Baqtriya davlatini tugatdilar. Uning xarobalarida 100 yildan so'ng Kushon davlati barpo qilindi.

Mil.avv. I ming yillikda Sharqiy Turkiston, Turon hududlaridan Afg'onistonga qabila-elatlarning muntazam migratsiyasi Afg'onistonda etnik-siyosiy vaziyatni o'zgartiradi. Afg'onistonda mil.avv. III–II asrlarda zaiflashgan Yunon-Baqtriya davlati o'rnida alohida 5 mustaqil davlat paydo bo'ladi. Araxosiya O'rta Osiyodan kelgan qabilalar va Shimoliy Hindistonda bir necha davlatni tashkil qiladilar. Davlat hokimiyatiga ega bo'lgan hokimlar aholining oliy tabaqasi vakili bo'lib, hashamatli hayot kechirganlar.

Mil.avv. I asr o'rtalarida Kashmir va Gandxaraga saklar kirib keldilar va bu hududda o'z davlatlariga asos soldilar. Bu davlat o'z tangasiga ega bo'lib, tanganing orqa tomonida ot tasviri, keyinchalik otda nayza ushlab turgan hukmdor tasvirlangan. Ilk tangalardan birida sak hukmdori Maues (hind yozuvchilarida Moga) tasvirlangan. Boshda Maues o'zini podsho deb, keyin «podsholar podshosi» deb ulug'laydi. U uzoq podsholik qilgan, uning vorisi Aza (mil.avv. I asrning ikkinchi yarmi) davri-

da sak davlati gullab yashnaydi. Uning tangalari 1500 dona Gandxara poytaxti Taksilada, 4 mingga yaqini Mir Zahokda (Drangiana) topilgan. Bu tangalarning o'ng tomonida podsho og'ir qurol-aslahada nayza yoki jangovar bolta bilan otda tasvirlangan. Bu vaqtda hind-saklar davlati tarkibiga Araxosiya va Sakistonning sharqiy qismi kirgan. Azilisning vorislari davrida davlat zaiflashadi va hokimiyat boshqa sulolaga o'tadi. Sulolaning birinchi vakili Gondofar mil. I asrning birinchi yarmida hukmronlik qilgan. Afg'onistonda milodiy I asrdan Kushonlar davlati hukm suradi. Hozirgi Afg'onistonning butun hududi bu davlat tarkibiga kirgan. Bu davlatning birinchi hukmdori Geray podsho unvoniga ega bo'lmagan. Kushonlar davrida qadimgi Afg'oniston sivilizatsiyasining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan davri edi. Sug'orma dehqonchilik, yuqori darajada ixtisoslashgan hunarmandchilik xo'jalikning yuksalishiga olib keldi. Shahar madaniyati yuqori darajada rivojlandi. Baqtriyanning aholisi mil.avv. II asrda 1 mln kishi bo'lsa, Kushonlar davriga kelib aholi soni jadal o'sadi. Baqtriyanning o'zida 18 shahar qoldiqlari qolgan. Baqtra shahri poytaxti bo'lib, iqtisodiy va madaniy markazi bo'lgan kushonlar davrida yangi devor bilan o'rab olinadi. Shaharsozlik rivojlanib, o'nlab shaharlar quriladi. Bu davrda Afg'oniston G'arb va Sharq dunyosining iqtisodiy-madaniy aloqalari kesishgan chorrahaga aylanadi.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Afg'oniston hududida mil.avv. I ming yillikda bunday mustahkamlangan qo'rg'onlarning mavjudligi mulkiy tabaqalanish natijasida ilk jamiyat va davlatning paydo bo'lishidan dalolat beradi. Daryo vodiylarida savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lgan shaharlar, dehqonchilik bilan shug'ullangan qishloq jamoalari rivojlanadi. Qishloqlarda kulolchilik ustaxonalarida turli shakldagi idishlar tayyorlangan. Nafis, baland oyoqli ko'za, qadahlar, tovoq va kichkina tovoqchalar yasaladi. Tog' va dashtlarda aholi o'troq va ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanadilar.

XX asrning 80-yillarida Afg'onistondagi mil.avv. II asrlarda yashagan kichik davlat hukmdorining sag'anasidan qimmatbaho metallardan yasalgan 20 ming buyumlar topilgan. Topilgan buyumlarning barchasi yuksak mahorat bilan nafis, turli xil badiiy uslubdagi an'analar ruhida yasalgan. Sherda o'tirgan ma'buda Kibela tasviri tushirilgan jomlar, afsonaviy yirtqich qush (grifon)ni eslatadigan qandaydir maxluqqa mingan ma'budlar ifodalanadi.

Buyumlarda mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholining an'analari, dunyoqarashlarini ijodkor ruhi yuqori darajada aks etadi. O'rta Osiyoda shu davrlarga oid san'at asarlari topilmalari Afg'onistondagi topilmalar bilan ishlanish uslubi aynan bir xil. Bu O'rta Osiyo va Afg'oniston hududlarida qadimgi davrda bir-biri bilan qon-qarindosh bo'lgan madaniyat vakillari hayot kechirganidan dalolat beradi.

Bu vaqtda Shimoliy Baqtriyaning eng muhim markazi Ter-miz (janubiy O'zbekiston) bo'lib, uning atrofidagi Qoratepa, Fayoztepada ibodatxonalar va monastrlariga ega bo'lgan budda markazlari ochilgan. Kushon davlat hokimiyati savdo-hunarmandchilik, dehqonchilikka homiylik qilgan. Shimoliy Baqtriyada sug'orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Katta qishloqlarda ko'p xonali uylarda katta oilalar yashagan. Qo'rg'on qishloqlar shahar ko'rinishida to'g'ri burchakli kvadrat shaklida qurilgan bo'lib, ularda vino, don mahsulotlari saqlanadigan katta omborlar qazib ochilgan. Dalvarzin, Dilberjin kushon shaharlarida shahar zodagonlarining katta-katta uylari, xo'jalik binolari bilan bunyod qilingan. Davlat hokimiyati zodagonlarga katta yer mulklarini hadya qilgan. Katta yer egalarining siyosiy mavqelari kuchli bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, kushon jamiyati zodagonlar, hunarmand-savdogar, jamoachi dehqonlar, ruhoniy-kohinlar, chorvadorlar, qaram kishilardan tashkil topgan. Ichki va tashqi savdo rivojlangan. Kushonlar Xitoy, Rim, Parfiya bilan savdo qilganlar. Savdo yo'llari ko'p tarmoqli bo'lib, quruqlikdagi savdo Hirot orqali Parfiyaga, janubda Sakiston, boshqasi tog' dovonlari bilan Kapisa-Baqramga, undan Qobul va Ganharaga yo'nalgan dengiz yo'li Hindiston portlari orqali Qizil dengizga, Misrga va Rimning sharqiy viloyatlariga chiqqan. Baqtriyada Xitoyga mahsulotlar chiqarilgan. Qadimgi mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, Rim viloyatlaridan Hindistonga 55 mln sestersiylik mahsulot chiqarilgan. Kushon davlati ichki va tashqi savdo uchun turli qiymatdagi tanga pullarni zarb qilgan. Yunon – Baqtriya hukmdorlarining tangalari portret san'atining noyob namunalari hisoblanadi.

Afg'onistonning barcha shahar va qishloqlaridan ko'p sonli loy haykalchalar topilgan. Ko'pincha uzun kiyimdagi ma'budaning qo'lida diniy e'tiqod buyumi – ko'za yoki meva bilan haykalchasi ko'proq uchraydi. Bu hosildorlik homiysi va uy o'chog'i saqlovchisi ramzi hisoblanib, bunday haykalchalar har

bir uyda mavjud edi. Otlıq suvoriylar, egarlangan ot haykalchalari ham ko'p uchraydi.

4. Qadimgi Afg'oniston madaniyati. Afg'oniston bizning eng yaqin qo'shnilarimizdan biri bo'lib, uning eng qadimgi, o'rta asrlar, yangi va eng yangi tarixi bizning tariximiz bilan chambarchas bog'langan. Qadimgi Afg'oniston madaniyati bizning madaniyatimiz bilan yonma-yon, ko'p vaqtlar birgalikda yashab o'tgan qon-qarindosh etnoslarning hamkorlikda shakllantirgan boy va o'ziga xos mazmunga ega bo'lgan taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Afg'onistonning shimolidagi Baqtriya viloyati Amudaryoning o'ng va so'l qirg'og'ini qamrab olgan edi. Shimoliy-g'arbda Ariya viloyati (Hirot vodiysi) Baqtriya va Parfiya madaniyatlarini o'zida aks ettiradi. Ko'chmanchi saklar yashagan g'arbdagi cho'l hududlarida Sakiston sivilizatsiyasi shakllanadi. Bu sivilizatsiya qadimgi dehqonchilik va shimoldagi ko'chmanchi etnoslar madaniyatlarining o'zaro ta'siri natijasida shakllangan yaxlit bir madaniyatni tashkil qiladi. Qadimda Afg'onistonning janubiy-g'arbida hozirgi G'azna va Qandahor viloyatlarida o'ziga xos madaniyat shakllanadi. Markaziy Afg'onistonning tog'li viloyatlarida (antik mualliflar bu hududni Paropamus deb ataydilar) ko'chmanchi chorvadorlarning an'anaviy madaniyati shakllanadi. Hozirgi Qobul va Jalolobod viloyatlari hududida O'rta Osiyo va hind madaniyatlarining o'zaro ta'siri yaqqol ko'rinadi. Afg'oniston hududidagi qadimgi madaniyatlar turli darajada va turli vaqtda rivojlanib, qadimgi davr oxirida bir-biriga yaqinlashib rivojlanadi.

Mil.avv. II ming yillik oxirida Afg'onistonning shimoli Baqtriya yada iqtisodiy taraqqiyot boshlanadi. Baqtriya tekisligida qadimgi madaniyat o'choqlari vujudga keladi. Hindiqush tog' etaklaridan boshlanadigan sersuv daryo vodiylarida mil.avv. II ming yillik boshlaridan qadimgi dehqonlarning o'nlab, yuzlab uy-ro'zg'or manzilgohlari paydo bo'ladi. Uy-joylar to'g'ri to'rtburchakli reja asosida xom g'ishtdan qurilgan. Uy qurish san'ati yuqori darajada rivojlanib, uyni isitishda uy devorlari oralig'ida tutunni xonadan tashqariga chiqaradigan mo'rili o'choqlar quriladi. Qo'rg'onlarda zax suvlarni haydaydigan drenaj tizimi mavjud edi. To'g'ri to'rtburchakli qilib qurilgan, qalinligi 4 m gacha bo'lgan mustahkam devorlar bilan o'ralgan qal'alar paydo bo'la boshlaydi. Devorlar burchaklarida aylana minoralar mavjud edi.

Jez davrida topilgan yuzlab mis-jezdan tayyorlangan mehnat qurollari, har xil taqinchoqlar Afg'onistonda metallurgiya rivojlanganini ko'rsatadi. Ko'p hollarda marosimlarda foydalanish uchun yasalgan og'ir oyboltalarga qushlar, hayvonlar va odam tasviri tushiriladi. Ayniqsa, Afg'oniston hududidan topilgan qushboshli, to'ng'iz va qanotli ajdarho tasviri tushirilgan kumush oybolta haqiqiy san'at asaridir. Tog' echkisi, to'ng'iz, to'g'nag'ichlar, qushlar shakli, odamlar tasviri tabiiy ishlanadi. Oltin va kumush ko'zalarda manzaralar o'yib tushiriladi. Haykalchalar bilan misdan yasalgan atir-upa idishlarning kolleksiyasi jez davri badiiy san'atining yuksak namunasi. Qadimgi Baqtriyaning qabrlaridan topilgan metall buyumlar, garpunlar Elam, Mesopotamiya topilmalariga o'xshash. Baqtriyada tosh yo'nish san'ati yuqori darajada rivojlangan. Rangli marmarsimon tosh jinsidan turli shakldagi ko'zalar yo'niladi. Qora, yumshoq steatitdan juda kichik idish (flakon) va atir-upa qutichalari tayyorlangan. Ular turli tasvirlar, jumladan, to'lg'anayotgan ajdar ko'rinishida bezaladi. Tosh o'yishning yuksak namunasi sifatida qora steatitdan yo'nilib, oq toshdan boshchalar ko'rinishidagi haykalchalarni ko'rish mumkin.

Baqtriyaning tosh tumorlari, muhrlarida o'yilgan ajdarholarning ilon bilan kurashi ezgulikning yovuzlik bilan kurashini ifodalaydi. Mis muhrlarda qadimgi Baqtriya ma'budlari, ularning ba'zilarida qush boshli qanotli ma'budlar tasvirlangan. Qadimgi Baqtriyada jez davrida me'morchilik yuqori darajada rivojlangan. Saroy va ibodatxonalar qurilishida Baqtriyaning o'ziga xos uslubi shakllanadi. Janubiy Baqtriyadagi Qutlug'tepadan topilgan ulkan inshootda aylana zallar tizimi inshoot asosini tashkil qiladi. Dashlin vodiysida ham katta me'moriy inshoot tadqiq qilinib, u Oltin-10 deb ataladi. Inshoot bir necha mustaqil binolardan tashkil topgan. Ulardan biri 80x55 m, to'rt burchagining har birini markazida tayanch ustunli bittadan kvadrat bino joylashadi. Bu xonalarning tashqi burchaklari keng plyastrlar bilan jihozlanadi. Barcha inshootlar o'rtasida cho'zilgan xonalar tizimi bilan chegaralangan, o'z navbatida, ularning teng yarmi bilan bo'lingan. Ularning har biri uch tomondan ayvon bilan o'raladi.

Ikkinchi inshoot uncha katta bo'lmagan bino bo'lib, ichki hovli va hovuzga ega. Uch yo'nalishdagi binolar hovli tomondan yo'lak bilan cheklanadi. Bu inshoot mahalliy hokimning qishki saroyi va bir vaqtning o'zida ibodatxona vazifasini ham

o'tagan bo'lishi mumkin. Mil.avv. IV asrning 20-yillarida makedoniyalik Aleksandr yurishi davrida Afg'oniston hududida bir necha shaharlar yoki to'g'rirog'i mustahkamlangan qal'alar qurilgani to'g'risida antik yozuvchilar ma'lumot beradilar. Shahar hududida uy-joy va jamoat binolari qurilgan. Bu yerda 6 ming kishilik teatr binosi, maktab mashg'ulotlari uchun gimnaziya va sport mashg'ulotlari uchun bino va hovuz joylashgan.

Oyxonum shahri Yunon-Baqtriyaning eng ko'zga ko'ringan savdo-hunarmandchilik, madaniy va ma'muriy markazlaridan biri edi. Shaharning 1/3 qismini ulkan saroy egallagan. Saroy tarkibiga rasmiy tantanalar o'tkaziladigan binolar, turar joy va xizmat xonalari kirgan. Saroy oldidagi keng hovli doriy uslubidagi ustunlar (kolonnalar) bilan o'ralgan. Saroy qurilishida sharqona uyg'unlik, barqarorlik yunoncha qurilish uslublari bilan uyg'unlikda gavdalanadi. Saroyga xazina binosi yopishib turadi. Bu binoda loy taxtachaga tush bilan yozilgan moliyaviy hisobot bo'yicha bir necha hujjatlar saqlanib qolgan. Shahardagi ibodatxonalar Sharq me'morchiligi uslubida qurilgan. Bu yerda sharqona diniy urf-odat va an'analar bajarilgan. Ibodatxona haykallari ham mahalliy uslubda yasalgan.

Bu davrning eng mashhur yodgorligi Afg'onistonning eng janubida joylashgan Surx Qo'tal sulolaviy muqaddas ziyoratgohidir. Ziyoratgoh baland tepalikda joylashgan. Tepalikka chiqishda bir-biriga tutashgan uch ulkan supa bunyod qilingan. Supalar markazida tepalikning eng yuqorisida qurilgan ibodatxonaga boradigan zinapoyasimon yo'l mavjud. Ibodatxona katta maydon o'rtasida joylashgan bo'lib, to'rt tomoni ayvon bilan o'ralgan. Ravoqlarda ko'rinishidan hukmron sulola a'zolarining tasvirilarini aks ettiradigan haykallar va haykal guruhlari joylashtirilgan. Olimlarning fikricha, bu zardushtiylik ibodatxonasi bo'lgan.

Boshqa bir yirik madaniy markaz – Bagram. Bu yerda shahar devori yonidan inshoot qazib ochilgan. Bu binoda dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan san'at buyumlari saqlangan ulkan ombor binosi topildi. Arxeologik qazishmalar natijasida Hindistondan olib kelingan fil suyagidan yasalgan panno, laklangan Xitoy qutichalari, Rim imperiyasi hududlaridan olib kelingan buyumlar qazib ochildi. Bagramdan topilgan katta miqdordagi jez haykalchalar, tasvirlar tushirilgan shisha ko'zachalar, kumush idishlar ajoyib taassurot qoldiradi. Bagram viloyatidan topib tadqiq qilingan shahar qoldig'i va turli buyumlar bu yer

xalqaro savdo yoʻllari tutashgan yirik savdo-hunarmandchilik markazi boʻlganidan dalolat beradi.

Milodiy I–V asrlarga tegishli budda sanʼatining noyob namunalari Afgʻonistonning barcha viloyatlaridan topilgan. Chunki bu davrda Afgʻoniston qudratli Kushonlar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrda Afgʻoniston turli sivilizatsiyalar bilan, ayniqsa, Oʻrta Osiyoning qadimgi sivilizatsiyasi bilan hamnafas rivojlanadi. Oʻzbekistonning janubiy va gʻarbiy hududlarida yashagan etnik guruhlarining Afgʻoniston bilan etnik-madaniy assimilatsiyasi va madaniyatlarning oʻzaro aloqasi yuz beradi. Bu Afgʻoniston va Oʻrta Osiyoning milodiy I–II ming yilliklarda bir-birini boyitgan yaxlit bir madaniy muhiti shakllanishiga olib keladi.

Meʼmorchilik. Qadimgi Afgʻonistonda shaharsozlik mudofaa inshootlari, qalʼalar, ibodatxonalar, uy-joy qurish yuksak rivojlangan. Shaharlar reja asosida toʻrtburchakli kvadrat shaklida qurilib, bir-biri bilan kesishgan toʻgʻri koʻchalar boʻlgan. Baqriya, Araxosiya, Ganhara va boshqa viloyatlarda koʻplab shaharlar boʻlgan. Davlat hokimiyati shaharsozlikka, uning devorlari, asosiy qismlarini qurishni yoʻnaltirib turgan. Qunduz viloyatida Oksdagi Aleksandriya (hozirgi nomi Oy-Xonim), Shimoliy Baqriyada Qayqubodshoh, Dalvarzintepa, Zartepa (hozirgi Oʻzbekiston), Kapisa shahri (Bagram viloyati) Dilberjin (Mozori-sharif yonida) qazib ochilgan. Qazib ochilgan shaharlarda sanʼat asarlarining ajoyib namunalari, turli oʻlchamdagi haykallar topilgan. Oks Aleksandriyasi (Oy Xonim) shahrida hokim saroyining hashamatli zalida balandligi 1 metrdan 1,5 metrgacha boʻlgan 15 haykal devor boʻylab qoʻyilgan. Boshqa inshootda odam boʻyidan 2-3 marta baland boʻlgan ulkan haykallar ansambli mavjud. Bosh koʻchaning nihoyasidagi ibodatxonada ulkan maʼbud haykali qoʻyilgan. Haykallar marmar va loydan ishlangan.

Qadimgi Afgʻoniston madaniyati mil.avv. II–IV asrlarda oʻz taraqqiyotining yuqori choʻqqisiga chiqdi. Bu madaniyatda Oʻrta Osiyo oʻtroq va koʻchmanchi etnoslari va Hind madaniyatining hayotbaxsh sintezi yaqqol koʻrinadi. Ellin madaniyati unsurlari ham bu davrda ayrim yodgorliklarda oʻz aksini topdi. Kushonlar davri yaxlit, ulugʻvor madaniyatining namunasi – Tillatepa yodgorligidir. Bu yerda kushon shaharlari madaniy hayoti, uy-roʻzgʻor buyumlari diniy eʼtiqod ashyolari namunalarida bu davr Afgʻoniston yoki umuman Oʻrta Sharq madaniyatining mezon-oʻlchamlari oʻz ifodasini topgan. Bu

davrda O'rta sharqning ommaviy shaharlashgan madaniyati barcha kushon yodgorliklarida o'z aksini topadi. Kushonlar davrida budda madaniyati davlatning barcha hududlarida keng tarqaldi. Budda madaniyati haykallar, relyeflar va tasviriy san'atda o'z aksini topdi. Hozirgi Jalolobod yaqinidagi budda ibodatxonalari monastrlari va boshqa yodgorliklari atroficha tadqiq qilingan. Shimoliy Afg'onistondagi Puli Xumrida Kushon sulolasiga tegishli tosh haykallar mustahkamlangan ibodatxonada topilgan. Afg'onistonning barcha hududlarida topilgan Kushon yozuvi yunon-baqtriya, baqtriya yozuvlarining yuzlab namunalari qadimgi O'rta Sharq madaniyatining yuqori darajadagi taraqqiyotidan dalolat beradi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Никифоров В.Н. Восток и всемирная история. –М.: 1977.
2. История Афганистана с древнейших времен до наших дней / Отв.ред. Ю.В. Ганковский. – М.: МЫСЛЬ, 1982.

Asosiy sanalar

| | |
|----------------------------------|---|
| Mil.avv. II ming yillik boshlari | Hindiqush tog' etaklarida qadimgi dehqonchilik manzilgohlari. |
| Mil.avv. II ming yillik oxiri | Afg'onistonning shimoli Baqtriya - da taraqqiyot jadallashdi. |
| Mil.avv. I ming yillik | Mustahkamlangan qo'rg'onlar. |
| Mil.avv. III-II asrlar | Araxosiya va Shimoliy Afg'onistonda zaiflashgan Yunon-Baqtriya davlati o'rnida 5 mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi. |
| Milodiy I asrda | Yunon-Baqtriya davlati paydo bo'lishi. |
| Mil.avv. I-IV asrlar | Afg'oniston Kushon davlati tarkibiga kirdi. |

QADIMGI ERON

1. Eron iqlimi va aholisi. 2. Qadimgi Eron tarixi manbalari va tarixnavisligi. 3. Qadimgi Elam. 4. Midiya podsholigi (mil.avv. VII–VI asrlar). 5. Parsuash mamlakati. 6. Ahmoniy-lar Eroni davlatining siyosiy tarixi. 7. Qo‘shin. 8. Ahmoniy-lar davlatining ijtimoiy holati va davlat tuzumi. 9. Qadimgi Eron madaniyati.

1. Eron iqlimi va aholisi. Eron bepoyon tog‘li va ko‘p cho‘llardan iborat kontinental iqlimli mamlakat. Dehqonchilik uchun qulay vodiylar, tog‘ oldi hududlari juda ko‘p. Shimolda Elburs tog‘ tizimi va unga Turkman, Xuroson tog‘lari qo‘shiladi. G‘arbdan va janubdan Zagros va Janubiy Eron tog‘lari o‘rab turadi. Janubiy-g‘arbiy Eronda (Xuziston) Qorun va Qerxa daryolari vodiysida yuqori hosil beradigan yerlar mavjud.

Qadimgi G‘arbiy Eronda hind-yevropa tillarida so‘zlashadigan elam, lulubey, qutiy (gutiy) va kassit qabilalari yashagan. «Eron» so‘zi «ariana» – oriylar mamlakati degan ma‘noni bildiradi. Oriylar mil.avv. II ming yillikda O‘rta Osiyodan Eron, Afg‘oniston, Hindistongacha tarqaldilar. Ular ko‘chmanchi chorvadorlik bilan shug‘ullanib, bepoyon hududlarda yashaganlar. Bu davrda sak-skif qabilalari Osiyo va Yevropa sharqini Qora dengiz bo‘yigacha bo‘lgan hududlarni egallagan edilar. Iqlimning o‘zgarishi, mehnat qurollarining takomillashuvi, aholi sonining ko‘payishi sak-skiflarni bo‘sh yotgan yerlarni egallash uchun siljishlariga sabab bo‘ldi. Ular bir necha ming yil davomida Shimoliy Xitoydan Qora dengizigacha cho‘zilib ketgan, fanda Buyuk cho‘llar deb atalgan bepoyon hududda yashadilar. Oriylar sak-skiflarning mil.avv. II ming yillikdagi migratsiya to‘lqini bo‘lib, Hindistongacha bo‘lgan hududlarda yuz berdi. Oriylarning turmush tarzi, madaniyati, urf-adat va an‘analari sak-skiflar bilan aynan mos tushadi. Arxeologik topilmalar bu fikrning yaqqol dalilidir.

2. Qadimgi Eron tarixi manbalari va tarixnavisligi. Eron tarixining alohida davrlari turli xil yozma manbalarga boy. Yozuvlardan eng qadimgilari mil.avv. III–I ming yilliklardagi Janubiy-G‘arbiy Eron hududi bo‘lgan Elam tarixini yoritadi:

ular podsho yozuvlari, huquqiy hujjatlar, bag'ishlov matnlari, davlatlararo shartnomalardir.

Qadimgi fors davlati tarixi bo'yicha manbalar xilma-xil: bu xo'jalik hujjatlari, tarixiy yozuvlar, podsho Doro I ning tosh bitiklari, amaldorlarning rasmiy yozishmalari. Hozirgi vaqtda qadimgi fors tilidan elam va akkad tillariga tarjima qilingan 200 ga yaqin (podsholar) mixxat yozuvlari chop etilgan. 1972-yilda fransuz arxeologlari Suzadan Doro I ning ulkan haykalini topdilar. Haykal qadimgi fors, elam, akkad va misr iyeroglif matnlari bilan qoplangan. Qadimgi Eron poytaxtlaridan biri Persepoldan podsho Kserks yozuvlari nusxalari hamda mil.avv. III ming yillikka oid elam tilida mixxat bilan yozilgan 800 ta hujjat topilgan.

Mil.avv. I ming yillikda O'rta Osiyo va Eronda hukmron bo'lgan zardushtiylik e'tiqodining muqaddas kitobi «Avesto» Eronning qadimgi tarixini o'rganishda eng muhim tarixiy manbalardan biri bo'ladi. «Avesto» oromiy alfavitida yozilgan bo'lib, bizgacha uning ayrim qismlari yetib kelgan.

Fors qabilalarining Old Osiyo chegaralaridagi migratsiyasi to'g'risida mil.avv. IX–VII asrlarga oid Osuriya yozuvlari ma'lumot beradi. Bobil tarixiy xronikasi Mesopotamiyani forslar tomonidan bosib olinishi haqida hikoya qiladi. Forslar davriga oid loy taxtachalarda yozilgan 100 ming Bobil xususiy-huquqiy va ma'muriy xo'jalik hujjatlari mavjud. Misrdan forslar davriga oid turli xil ma'muriy xo'jalik hujjatlari, podsho Kambizning Misr ibodatxona mulklarini cheklash to'g'risidagi dekreti, Doro I ning Misr qonunlarini kodifikatsiya qilish to'g'risidagi farmoni katta qiziqish uyg'otadi.

Midiya va Eron tarixi bo'yicha ma'lumot beradigan manbalardan biri bu – yunon mualliflarining asarlari hisoblanadi. Gero-dot (mil.avv. V asr)ning asari, Fukidid (mil.avv. V asr) tarixi, Ksenofontning «Yunon tarixi» asari, uning «Anabasis» memuari, sitsiliyalik Diodorning «Tarixiy kutubxona»si kabi asarlar qadimgi fors tarixiga oid boy siyosiy, ijtimoiy, harbiy-diplomatik ma'lumotlar beradi.

Eronda mezolit va neolit davriga oid manzilgohlar, arxeologik topilmalar, kulolchilik buyumlari, Suza shahrining ilk qatlamlari yodgorliklari, Eron poytaxt shaharlari – Suza, Ekbatana, Persepol xarobalaridan topilgan ulug'vor haykallar, qoyatosh relyeflari, qimmatbaho metallardan qilingan buyumlar:

riton-qadahlar, harbiy qurollar va taqinchoq-bezaklar topib o'rganildi.

Qadimgi Eron tarixi bo'yicha Yevropa olimlari qator tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Italiyalik yosh sayyoh keyinchalik papa Urban VIII ning kamergeri bo'lgan Petro della Valle 1614-yilda Eronga sayohat qilib, qadimgi Persepol shahri xarobalari va undagi yozuvlar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar beradi. Daniyalik olim Karsted Nubur 1760-yilda Persepol yozuvlarini o'rganib, bu yozuv uch tilda yozilganini aniqlaydi. Shundan so'ng nemis olimi O.G. Tixsen bu yozuvlarni o'qishga harakat qildi. Persepol yozuvlarini o'qishga nemis olimi Gpotefend, ingliz Roulingson va boshqa olimlar o'z hissalarini qo'shdilar. Yevropa olimlari J. de Margo va Grishman qadimgi shaharlar xarobalarini o'rganib, eronshunoslik faniga muhim hissa qo'shdilar.

Qadimgi Elam poytaxti Suzada 1807-yil fransuz arxeologi De Morgan arxeologik qazishmalarni olib bordi. De Morgan Suzada Xammurapining qonunlari yozilgan bazalt toshini topdi. M.M.Dandamayevning «Qadimgi Eron tarixi ocherklari», amerikalik R.Frayning «Eron merosi» asarlari hamda J. Kameron, V. Xins, Yu.B. Yusupovlarning asarlarida qadimgi Elamning siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tarixi yoritiladi. I.M. Dyakonov, E.A. Granovskiylarning asarlarida Eronda ilk qabilalar migratsiyasi, I.M. Dyankonov, I.G. Aliyevning asarlarida Midiya tarixi va madaniyati yoritiladi. Qadimgi Eron diniy e'tiqodlari V.I. Abayev, V.V. Struve, A. Dandamayev, J. Dyushen-Gilmen va G. Videgren asarlarida o'z aksini topgan.

Manbalar asosida qadimgi Eron tarixini to'rt bosqichga bo'lish mumkin:

1. Elam sivilizatsiyasining paydo bo'lishi va gullab-yashnagan davri (mil.avv. IV ming yillikning oxiridan – mil.avv. VII asr oxirigacha).

2. Midiya davri (mil. avv VIII – mil.avv. VI asr o'rtalari).

3. Ahmoniyalar davri (mil.avv. VI asr o'rtalarida – mil.avv. 330-yilgacha).

4. Parfiya davri (mil.avv. III asr o'rtalari–milodiy 224-yilgacha).

3. Qadimgi Elam. Qadimgi Elam tarixi uchga: qadimgi mil. avv. III ming yillikdan – mil.avv. XIV asrgacha, o'rta elam davri mil.avv. XIV asrning II yarmidan – mil.avv. VIII asrgacha, yangi elam davri mil.avv. VII – mil.avv. VI asr o'rtalari. Mil.avv. VII –

VI ming yilliklarda G'arbiy Eronda dehqonchilik bilan shug'ullanadigan o'troq va ko'chmanchi chorvador qabilalar yashaganlar. Aholining ko'payishi natijasida ushbu qabilalarning bir qismi mil.avv. VI – V ming yilliklarda Eronning boshqa hududida tarqaladilar. Mil.avv. III ming yillik boshlarida Janubiy-G'arbiy Eronda elam qabilalarining Elamtu (Bobil va osur tilida «mamlakat») yoki Elam ilk davlat birlashmasi shakllanadi. Elam Mesopotamiya hamda Shimoliy va Sharqiy Eron bilan bog'langan Qorun va Qerxa daryolari vodiylarida joylashgan edi. Suza shahri poytaxtga aylanadi. Elam davlati mil.avv. XXIV–XXII asrlarda Akkad podshohligiga bevosita qaram bo'ladi.

Elamning tekislik qismi Qorun va Qerxa daryolari bilan sug'orilib, mil.avv. IV – III ming yilliklarda tariq, emmer va mevalar yetishtirilgan. Shu vaqtda hunarmandchilik, ayniqsa, kullolchilik rivojlandi. Tog'li Baxtiyor hududlari mis, qo'rg'oshingaga boy bo'lgan. Tog'li hududlar aholisining asosiy mashg'uloti chorvachilik edi. Bundan tashqari, Elamda qadimda Avan, Anshan, Qimash va Simash kichik davlatlari mavjud bo'lgan. Ular asta-sekin bir davlatga birlashtiriladi.

Elamning siyosiy tarixi uning butun tarixi davomida Mesopotamiya tarixi bilan yaqin bog'langan. Har ikkala hudud bir-biri bilan yaqin siyosiy-iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalarda bo'ladi. Mil.avv. XXIV – XXIII asrlarda Elam Mesopotamiyani birlashtirgan Akkad davlati tarkibiga kirdi. O'sha davrda Elamdagi ko'pchilik hujjatlar va yozuvlar akkad tilida tuziladi. Mil. avv. XXII – XXI asrlarda III Ur sulolasi davrida Elam Mesopotamiya tarkibida qoldi. Mil.avv. XXI asrning II yarmida Elam yana mustaqilligini tikladi. Podsho Kutir-Naxxunte I davrida (mil. avv. 1730–1700-yillar) Elam Mesopotamiyani bosib oldi. Elam mil. avv. XIV asrgacha mustaqil davlat sifatida mavjud bo'ldi.

Mil.avv. XIV asrdan – mil.avv. XII asrgacha Elam kassitlar hukmron bo'lgan Bobilga qaram bo'ladi. Elam mil.avv. 1155-yildan – mil.avv. 1115-yillarda o'z mustaqilligini qayta tikladi. Elam podshosi Shutruk – Naxxunte I Bobilga g'olibona yurish qilib, shaharni taladi va boy o'lja bilan Suzaga qaytdi. Bu o'ljalarda Xammurapi qonunlari bitilgan tosh lavha bor edi. XX asr boshlarida Suzada fransuz arxeologlari olib borgan qazishmalarda bu lavha topildi. Elam podshosi Kutir-Naxxunte III mil.avv. 1159–1157-yillar kassitlar Bobili bilan urushlar olib boradi. Urush Bobil, Sippar, Nippur va boshqa sha-

harlarni elamliliklar tomonidan bosib olinishi bilan tugadi. Bu davr Elamning gullab-yashagan davri edi. Elam davlatining hududi Eronning o'zida hukmronligi janubda Fors qo'ltig'igacha, shimolda Hamadon shahrigacha cho'zilgan. Mil.avv. VIII asrda Elam Bobil va Osuriyaga qarshi urushlar olib bordi hamda mil.avv. 720-yilda Elam qo'shinlari Der yonidagi jangda osuriyaliklarga kuchli zarba berdi. O'n yil o'tgandan so'ng Osuriya podshosi Sargon II Elamga bostirib kirib, uning qo'shinini yanchib tashladi.

Mil.avv. VII asrda ham Elam Osuriyaga qarshi kurashda Bobilga bir necha marta yordam berdi. Ashshurbanipal Elamga olti marta yurish qilib, Elam shaharlarini vayron qildi. Elam Osuriyaga rasman bo'ysundirildi. Osuriyaning halokatidan so'ng, o'zaro urushlar girdobida qolgan Elamni Midiya bosib oldi. Keyinchalik midiyalik mil. avv 549-yil atrofida Elam forslar tomonidan bosib olinib, o'z mustaqilligini abadiy yo'qotdi.

Qadimgi manbalarda Elam – xatamti deb aytiladi. Elamning eng muhim viloyatlari Baraxishi, Simashki, Anshan, asosiy shaharlari Avan (bu shahardan elam hukmdorlari kelib chiqqan. Shumer hujjatlari Mesopotamiyaning Elam bilan savdo aloqalari mil.avv. III ming yillikdan o'rnatilgani to'g'risida ma'lumot beradi. Elamdan shumer shaharlari qimmatli yog'och, kumush va mis olib ketganlar, tariq va metall eksport qilganlar. Elamda hunarmandchilik mil.avv. II ming yillikdan yuqori darajada rivojlanadi, hujjatlarda quruvchi, duradgor, kulol va novvoy kasblari keltiriladi. Podsho yerlari, ibodatxona xo'jaligi va uy xo'jaligida mil.avv. II ming yillikdan boshlab qul mehnatidan foydalaniladi.

Qadimgi Elamda shakllangan davlat boshqaruvi mavjud bo'lgan. Podsho sukkalmax («buyuk elchi») unvoni bilan Suzadan turib davlatni boshqaradi. Davlatni boshqarishda yordam bergan podshoning kenja ukasi sukkalom («elchi») deb atalib, Simash (elam tilida Nishanki) shahrini qarorgoh qilib, Elam va Simashni boshqaradi. Kichik viloyatlarni «otalar» («adda») boshqaradilar. Hukmdor dunyodan o'tgach, uning o'rniga podshoning ona urug'idan jiyani yoki singlisining o'g'li taxtga o'tirgan. Elam podsholari oilasida bo'lg'usi hukmdorlar o'z singillari bilan turmush qurganlar (levirat). Podsho vafot qilgach, uning ukasi akasining beva ayoliga uylanib, podsho bo'lish huquqiga ega bo'lgan. Mil.avv. XIII asrdan boshlab podsholik taxti ota

urug'i bo'yicha podshodan uning katta o'g'liga meros bo'lib o'tadigan bo'ldi.

Elamda mil.avv. III ming yillikda qishloq dehqon jamoasi asosiy iqtisodiy-ijtimoiy tashkilot shakli edi. Qishloq jamoasiga qon-qarindoshligidan qat'iy nazar yerga jamoa egalik qilib, jamoa tarkibiga barcha erkin kishilar kirar edi. Jamoa xalq yig'inida saylangan oqsoqol tomonidan boshqarilgan. Xalq yig'ini va ular saylagan vakolatli kishilar mulkiy muammolarni va boshqa muammoli masalalarni hal qilib, jinoyatchilarni sud qilganlar. Mil.avv. II ming yillik boshlarida qishloq jamoalari mulkiy tabaqalanish natijasida yemirila boshladi. Yer boy oilalar qo'lida to'planib, qaram dehqonlar paydo bo'la boshladi. Elamda jamoa yer egaligi o'rniga xususiy xo'jalik, podsho va ibodatxona xo'jaliklari paydo bo'ldi.

Elam o'zining uch ming yillik tarixi davomida yuksak madaniyatni yaratdi. Elamliliklar mil.avv. III ming yillik boshlarida piktografik (rasm) yozuvni yaratdilar. U 150 belgidan iborat bo'lib, ko'pincha xo'jalik hujjatlarini yozishda 400 yil davomida foydalanib kelindi. Yozuv takomillashib borib, mil.avv. III ming yillikning ikkinchi yarmida Elamda 80 belgili chiziqli yozuv vujudga keldi. Bu yozuvda siyosiy matnlar bitilgan.

Elam jamiyati rivojlangan diniy e'tiqodga ega bo'lgan. Mil. avv. XXIII asrga bir matnda Elamning 37 ilohlari nomlari keltirilgan. Iloh va ma'budalarga bag'ichlab hashamatli ibodatxonalar qurilgan. Elamning diniy markazi Suza shahri bo'lib, bu shaharning homiysi xudo Inshushinak edi. Dastlab Elam xudolari panteonida «ulug' ma'buda», xudolar onasi ma'buda Pinekir birinchi o'rinda turgan. Bu Elam jamiyatida matriarxat an'analarining ustuvor bo'lganini ko'rsatadi. Keyinchalik xudo Xumban yetakchi mavqeyini egallaydi. Quyosh xudosi Naxunta kunning yaratuvchisi hisoblangan. Ibodatxona, zikkuratlar qurilib, ularda ilohlarning haykallari qo'yilgan.

Elam uch ming yil ichida yuqori darajada shakllangan san'at yaratdi. Elam xum va ko'zalari geometrik chiziqlar, qushlar va mavjudotlar va odamlarning geometrik shakldagi tasvirlar bilan bezatilgan. Muhrlarda grifonlar (yirtqich qush), qanotli sherlar va devlar, tosh ko'zalarda yirik qoramol, qushlar va yovvoyi hayvonlar tasviri tushirilgan. Elamda haykaltaroshlik san'ati rivojlangan bo'lib, ilohlarning haykallari oltin, kumush va jezdan ishlangan. Malika Napirasuning 1800 kg vaznli jez

haykali Elam san'atining noyob namunasi hisoblanadi. Elam haykaltaroshlik san'atida Bobilning ta'siri seziladi.

Elamliklar mohir me'morlar bo'lib, jamoa inshootlari, mudofaa devorlari qurganlar. Elam me'morchiligining eng katta yodgorligi bu – Suza shahridan 30 km masofada bo'lgan Dur–Untash shaharida qurilgan zikkuratdir (mil.avv. XIII asr). Zikkuratga kirishda sherlar, buqalar, kalxatlar, oltin va kumushdan quyilgan xudo va podsholarning haykallari qo'yilgan. Zikkuratning pastki qavati tomonlarining uzunligi 105 metrga teng. Zikkurat 7 darvozaga ega bo'lib, 4 qavatli edi. Inshootning umumiy balandligi 42 metrni tashkil etadi. Uning qurilishiga millionlab g'isht, yuz minglab toshlar ishlatilgan. Zikkurat xarobalaridan fransuz arxeologlari metall, marmar va shishadan yasalgan ko'plab bag'ishlov ko'zalarini hamda yuzlab podsho yozuvlarini topdilar. Dur-Untash shahri mil.avv. VII asrda Elamga bostirib kirgan Osuriya qo'shinlari tomonidan vayron qilingan. Elam madaniyati qo'shni xalqlarning madaniyatlariga hayotbaxsh ta'sir qildi.

4. Midiya podsholigi. Midiyaliklar Shimoliy Qora dengiz bo'yidan hozirgi Afg'oniston hududlarigacha cho'zilgan bepoyon hududda yashagan sak-skif qabilalarining bir qismi edi. Olimlarning fikriga ko'ra, midiyaliklar mil.avv. IX–VIII asrlarda O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlardan Eron yerlariga tarqalganlar. Mil.avv. I ming yillik boshlarida midianitlar Shimoliy-G'arbiy Eronda o'rnashadilar. Bu hududda mil.avv. IX asrda ibtidoiy jamoa munosabatlari yemirilib, kichik siyosiy birlashmalar vujudga keldi. Mamlakatning g'arbiy qismi Zagros tog'i hududi bo'lib, keyinchalik Midiya Atropatenasi deb atalgan. Atropatenadan sharqda Midiyaning tekislik qismi joylashgan. Mil.avv. III–II ming yilliklarda bu hududlarda kassit, kutiy va xurrit tillarida so'zlashadigan o'troq va ko'chmanchi chorvadorlar yashaganlar.

Osuriyaning muntazam tazyiqi midianitlarni kichik davlat birlashmalarini mil.avv. VII asr boshlarida birlashishga majbur qildi. Skif va kimmeriyalar qo'llab-quvvatlagan midianitlar VII asr boshlarida Osuriyaga qarshi isyon ko'tardilar. Osuriya qo'zg'olonchilardan skiflarni ajratishga erishdi, lekin midianitlar Osuriyaga qarshi kurashni davom ettirib, mustaqillikka erishdilar. Ularning yo'l boshchisi Kashtariti Midiya hududini birlashtirib, sharqda mil.avv. VII asr o'rtalarida Midiyani Osuriya, Elam kabi qudratli davlatga aylantiradi. Shu vaqtda mil.

avv. 653-yil Osuriyaning ittifoqchisi skiflar Midiyaga bostirib kirib, uni ishg'ol qildilar. Ular Midiyada 29 yil hukmronlik qildilar.

Kashtaritining vorisi Kayxusrav mil.avv. 624-yili skiflar hukmronligiga chek qo'yib, barcha Midiya qabilalarini birlashtirdi. Mamlakat poytaxti qilib, Ekbatana shahri (hozirgi Hamadon yaqinida) belgilandi. Kayxusrav ko'ngilli qo'shin o'rniga qurol turlari bo'yicha (nayzachilar, kamonchilar, otliqlar) bo'lingan kuchli jangovar qobiliyatga ega bo'lgan qo'shin tuzdi. Kayxusrav ana shunday kuchli qo'shinga ega bo'lgach, Bobil bilan azaliy dushman, zaiflashib borayotgan Osuriyaga qarshi ittifoq tuzib, unga qarshi urush harakatlarini boshladi.

Kayxusrav o'z chegaralarini janub va sharqdagi qo'shnilari hisobiga kengaytirishga kirishdi. Mil.avv. 624-yil Fors viloyati, keyin Parfiya va Girkaniya, Armaniston bosib olindi. Mil.avv. 614-yil Osuriyaning qadimgi poytaxti Ashshur bosib olinib, mil.avv. 612-yil 2 yillik qamaldan so'ng Nineviya taslim bo'ldi. Natijada Kichik Osiyoning sharqiy qismi va Osuriyaning asosiy hududi Midiya qo'liga o'tdi. Mil.avv. 609-yilda Midiya qo'shnilari Xarran shahrida osur qo'shinlari qoldiqlarini tor-mor qildilar. Midiya Shimoliy Mesopotamiya va Xarran viloyatini, janubda Fors, Kaspiy dengizining janubiy-sharqidagi Parfiya va Girkaniyani bosib oldi. Mil.avv. 593-yilda midiyaliklar Urartu, Skif davlatlarini, Sakasena va Manna kabi kichik davlatchalarni o'ziga qo'shib oldi. Mil.avv. 590-yilda Kichik Osiyodagi Kappadokiya zabt etildi. Shundan so'ng Kichik Osiyoning qudratli davlati Lidiya bilan urush boshlandi. Urush Navuxodonosor II vositachiligida Kayxusrav va Lidiya podshosi Aliatt farzandlari (fraorti) o'rtasidagi sulolaviy nikoh tuzish bilan tugallandi.

Mil.avv. 585-550-yillarda podsholik qilgan Astiag davrida Midiya katta va qudratli davlatga aylandi. Bu vaqtda Elam ham qo'shib olindi. Astiagning vorisi yo'q bo'lib, u o'z taxtini qizi Mandana yoki uning bolalariga qoldirishi lozim edi. Qizi Mandana Astiagga qaram Fors viloyati hokimi Kambizning rafiqasi bo'lib, bu nikohdan bo'lajak fors hukmdor Kayxusrav tug'ildi. Mil.avv. 554-yilda Midiyaga qaram forslar unga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. To'rt yillik urushdan so'ng forslar Midiya ustidan to'la g'alaba qildilar. Midiya Fors qabilasining Ahmon urug'i vakili hukmron bo'lgan Fors davlati tarkibiga kirdi. Midiya madaniyati namunalari bo'lgan me'moriy inshootlar, tasviriy san'at asarlari bizgacha yetib kelgan. Gerodot va Polibiy asarlarida Midiya poytaxti Ekbatanadagi podsho saroyi

tasviri saqlanib qolgan. Saroy-qal'a yetti qavat devorlar bilan o'rab olingan. Bu devorlarning ichida saroyning o'zi va xazina joylashgan. Saroyning aylanasi 1 kilometr dan ortiq bo'lgan. Saroyning devorlari va shiftlari kedr yog'ochidan qilinib, oltin va kumush bilan qoplangan.

Arxeologik qazishmalar Midiya hududida XX asrda tizimli olib borildi. Ushbu arxeologik qazilmalar natijasida topilgan yodgorliklarning yoshi mil.avv. 1300–1600-yillarga tengligi aniqlangan. Bu yerdan topilgan jezdan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari, qurollar hayotiy va afsonaviy mavjudotlar tasviri bilan bezatilgan. Mahalliy aholi 1947-yilda Sakkiz shahri yaqinidagi baland tepalikdan Midiya davriga tegishli xazina topgan. Topilmalar ichida ko'rinishidan podsho taqqan ko'krak bezagi, podsho oltin tojining parchasi, qilich sopining quyma oltin qismi, ot egar-jabdug'ining oltin qismlari va sopol ko'zalar mavjud. Bu buyumlarni bezashda kiyik, kalxat va quyon tasvirlaridan foydalanilgan. Arxeologlar, bu xazina topilgan joyda mil.avv. VIII–VII asrlarda Midiya qal'asi mavjud bo'lganini aniqladilar. Shimoliy-G'arbiy Eron, Gilyon viloyati va Hamadon yaqinidan Midiya davriga oid qal'alar, saroylar, ibodatxonalar, oltin, kumush, sopol yasalgan erkak va ayollar haykalchalari hamda oltin, kumush ko'zalar qazib ochildi.

5. Parsuash mamlakati. Forslar to'g'risidagi ma'lumotlar ilk bor Osuriya yozuvlarida uchraydi. Osur podshosi Salmanasar III ning mil.avv. 843-yildagi yozuvida Parsua viloyati tilga olinadi. Osuriya mil.avv. 843-yilda bu viloyatning 27 «podshosidan» xiroj olgan. Bu viloyatlar Markaziy Zagros tog'larida joylashgan deb faraz qilinadi. Bu vaqtda ko'p sonli fors qabilalari tarqoq yashaganlar.

Mil.avv. VIII asr oxiridagi osur manbalarida Elamdan shimoli-g'arbda joylashgan (hozirgi Sulaymoniya shahridan sharqda) Parsuash mamlakati eslatiladi. Taxminan mil.avv. 800-yillar atrofida forslar qardosh midianitlardan uzoqlashib, janubiy-sharq tomon asta-sekin siljiydilar. Mil.avv. 714-yilda forslar osur podshosi Sargon II ning fuqarosi sifatida tilga olinadi. Ma'lum vaqt davomida forslar Eronning janubiy-g'arbidan Elamning asl hududlarini egalladilar. Natijada bu hudud yangi kelgindilar nomi bilan Pars nomini oladi. Bu hudud hozirgi Eronning Fors viloyatiga to'g'ri keladi. Fors so'zi Parsning arab tilida aytilishi bo'lib, mamlakat va fors xalqini, ularning poytaxti Pasargad (yunon tilida Persepol)ni bildiradi.

Forslar mil.avv. VII asrning o'rtalarigacha Elamga, keyin esa qisqa vaqt Osuriyaga o'lpon to'ladilar. Ko'rinishidan shu vaqtdan boshlab forslar ahmonlar urug'idan bo'lgan yo'l boshchilar yetakchilik qilgan qabilalar ittifoqini tashkil qiladilar. Sulolaning asoschisi an'ana bo'yicha Ahmon hisoblanadi. Mil. avv. 675–650-yillarda fors qabilalari ittifoqini Chishpish nomli yo'l boshchi boshqaradi. An'anaga ko'ra, Ahmonning o'g'li Chishpishdan so'ng podsholik hokimiyati Kayxusravga o'tadi. U Mil.avv. 642-yil osurlar Elamni zabt etganda, Osuriyaga qaramligini tan oladi va katta o'g'lini garovga Nineviyaga jo'natadi. Kayxusravning ikkinchi o'g'li Kambiz I mil.avv. 600–559-yillar podsholik qiladi.

6.Ahmoniyalar Eroni davlatining siyosiy tarixi. Navbatdagi Parsuash hokimi Kambiz I ning o'g'li Kayxusrav II bo'lgan. Mil.avv. 558-yilda fors qabilalari podshosi bo'ldi. Forslar o'zlari qaram bo'lgan Midiyaga qarshi mil.avv. 553-yilda Kayxusrav II boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tardilar. Kayxusravning otasi Kambiz Midiya podshosi Astiagning qiziga uylangan edi. Urush uch yil davom etdi va mil.avv. 550-yilda forslarning g'alabasi bilan tugadi. Midiyaning poytaxti Ekbatana fors podshosining qarorgohlaridan biri bo'lib qoldi. Midiya bosib olinganidan keyin forslar qo'shni mamlakatlarga yurish boshladilar. Ular mil.avv. 549–548-yillar Parfiya va Girkaniyani va ehtimol, Armanistonni bosib oladilar. Mil.avv. 547-yilda forslar Kichik Osiyoda eng kuchli davlat hisoblangan Lidiyani istilo qilishga kirishdilar va ikki jangdan so'ng Lidiya podsholigi istilo qilinadi. Shundan so'ng, Kichik Osiyodagi yunon shaharlari Kayxusrav hokimiyatini ko'ngilli tan oldilar.

Kayxusrav mil.avv. 545-yildan 530-yilgacha hozirgi Eronning sharqiy hududlari, Afg'oniston va Hindiston, O'rta Osiyodagi ba'zi viloyatlarni va Marg'iyona, Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya, Ariya, Gedrosiya, Sattagidiya, Araxosiyona va Gandxarani bo'ysundirdi. Ahmoniyalar davlati hududlari Hindistonning shimoliy-g'arbiy chegaralarigacha, Hindiqushning janubiy yonbag'irlarigacha yetdi. Kayxusrav shimoliy-sharqiy yo'nalishlarda o'z ta'sirini mustahkamlab oldi. Shundan so'ng Kayxusravning navbatdagi yurishi natijasida mil.avv. 539-yil kuzida Bobil podsholigi bosib olindi. Bobil podsholigi rasman saqlab qolinib, uning ijtimoiy tuzilmasi o'zgartirilmadi. Bobil shahri fors podsholari turadigan qarorgohlardan biriga aylantirildi. Bobil davlat boshqaruvida bobilliklar yetakchi o'rinda qolaver-

di. Bobilliklarning qadimgi diniy e'tiqodlariga fors podsholari homiylik qildilar. Amalda Bobil mustaqil davlatdan Ahmoniyalar satrapiyasi (viloyati)ga aylandi. Mamlakat mustaqil siyosat yuritishdan mahrum bo'ldi. Ichki siyosatda oliy harbiy va ma'muriy hokimiyat fors podshosining noibi qo'liga o'tdi.

Shundan so'ng Suriya, Falastin va Finikiyaning shahar-davlatlari Misr chegaralarigacha Kayxusravga ko'ngilli ravishda bo'ysundilar. Finikiya, Bobil va Kichik Osiyoning savdo-hunarmand qatlamlari tranzit savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlaydigan kuchli markazlashgan davlatdan manfaatdor edilar. Shu sababli, ular qudratli Fors davlatini qo'llab-quvvatladilar.

Kayxusrav buyuk imperiyaning boshlanishiga asos soldi. Uning davridan boshlab, fors urug'-qabila yo'l boshchilari imperiyaning oliy amaldorlari satrapliklarning noiblariga aylandilar. Ular katta-katta yer va mulklar, boyliklarga ega bo'ldilar. Oddiy forslar harbiy tabaqaga aylandilar, harbiy turmush tarzida yashadilar. Fors harbiylariga ajratilgan yerlarda qaram kishilar, qullar ishladilar. G'olibona yurishlardan ulkan harbiy o'ljalar, o'n minglab asirlar olib kelindi. Asirlar shaharlar, ibodatxonalar, yo'llar va sug'orish inshootlari qurilishida ishlatildi. Bosh poytaxt Persepolning ulkan hashamatli saroylari ularning kuchi bilan tog'yonbag'rida bunyod qilindi. Vaqt o'tishi bilan oliy amaldorlar, satraplar turli yo'llar bilan mislsiz boylik to'pladilar va markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ydilar. Oxir-oqibatda davlat hokimiyati zaiflashdi va qariyb 200 yildan so'ng halokatga yuz tutdi.

Yangi shakllangan fors davlatining shimoliy-sharqiy chegaralarida jangovar sak va massagetlar yashar edi. Bu gabilalar azaldan Eron chegara hududlaridagi yaulovlarda ko'chib uyg'anganlar. Kayxusrav ularni o'z chegaralariga bostirib kirish xavfini tugatish uchun mil.avv. 530-yilda massagetlar ustiga yurish qildi. Uning maqsadi massagetlarni bo'ysundirish edi. Gerodot tarixida bu yurish batafsil tasvirlanadi. Massagetlar malikasi To'maris tomonidan Kayxusrav qo'shini Amudaryoning sharqiy tomonida mil.avv. 530-yil avgust boshlarida bo'lgan katta jangda yanchib tashlandi. Bu jangda Kayxusravning o'zi o'ldirildi.

Mil.avv. 530-yil avgust oyida Fors taxtiga Kambiz (Qo'mbiz) chiqdi. Kambiz o'z hokimiyatini mustahkamlab, Misrga yurishga tayyorlana boshladi. Misr fir'avni Amasis (Yaxmos II) bu vaqtda tashqi xavfni oldini olish uchun mamlakatning iqtisodiy

sodiy-harbiy qudratini mustahkamlashga kirishdi. U yunon yollanma askarlarini o'z qo'shini tarkibiga kiritdi. Fir'avn Kipr, Lidiya va Bobil bilan ittifoq tuzgan edi. Lekin Lidiya, Bobil tez orada Kayxusrav tomonidan bosib olindi. Kambis Misrga katta qo'shin va flot bilan yurish boshladi. Shu vaqtda yaxshi tashkilotchi fir'avn Amasis vafot edi. Yangi fir'avn Psammetix III Misrni forslar bosqinidan saqlab qola olmadi. Yollanma yunon qismlari sarkardasi Fanes xoinlik qilib, forslar tomoniga o'tib ketdi. Pelusiya yonidagi jangda va Memfis shahri himoyasida misr qo'shinlari kuchli qarshilik ko'rsatdilar, lekin misrliklar yengildilar. Forslar mamlakat poytaxti Memfisni bosib olib, ikki ming kishini qirib tashladilar. Psammetix III ning o'g'li ham qatl qilindi. Lekin Psammetixning o'ziga Kambiz shafqat ko'rsatdi.

Mil.avv. 525-yil avgust oxirida Kambiz Misr fir'avni deb e'lon qilindi. U Misr urf-odati bo'yicha toj kiydi va yangi XXVII sulo-laga asos soldi. Misrni bosib olgach, Kambiz janubga Nubiyaga qarshi yetarlicha tayyorgarlik ko'rmay yurush boshladi. Yetar-licha oziq-ovqatga ega bo'lmagan qo'shin suvsiz sahroga tushib qoldi. Qo'shinda odamxo'rlik boshlanib, Kambiz chekinishga majbur bo'ldi. Harbiy yurish muvofaqiyatsiz tugadi. Kambiz-ning og'ir vaziyatga tushib qolganidan foydalanib, misrliklar qo'zg'olon ko'tardilar. Kambiz (mil.avv. 524-yil) Memfisga qaytib, Misrda boshlangan qo'zg'olonni bostirdi. Kambiz uch yil Misr-da qolib ketdi. Mil.avv. 522-yil mart oyida uning kichik ukasi Bardiya qo'zg'olon ko'tarib, Eronda podsho bo'lgani to'g'risidagi xabarni oldi. Kambiz Eronga qaytish uchun yo'lga chiqib, sirli holda vafot qildi (mil.avv. 522-yil).

Kambizning vorisi Doro I ning Behistun qoya yozuvlarida bayon qilingan rasmiy farazlariga ko'ra, Kambiz Misrga yurishi-ga qadar o'zining ukasi Bardiyadan shubhalanib, uni maxfiy ravishda o'ldirishga buyruq beradi. Mag Gaumata ismli kimsa bundan foydalanib, o'zini Bardiya deb e'lon qiladi va u 522-yil 2-martda Bardiya nomi bilan taxtga o'tiradi. Bardiya-Gaumata qaram xalqlarni o'ziga moyil qilish uchun soliq va harbiy maj-buriyatlarni uch yilga bekor qiladi. U fors urug'-zodagonlarining imtiyozlarini bekor qilish, ularning iqtisodiy va siyosiy hukm-ronligini tugatish uchun harakat qildi. Shu sababli, u mam-lakatdagi keng xalq ommasini qo'llab-quvvatlashiga erishadi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Gaumata to'g'risidagi faraz asosli emas. Hokimiyatga haqiqiy Bardiya kelgan. U yetti oylik boshqaruvdan so'ng, 522-yil 29-sentabrda yetti fors urug'ining

aslzoda vakillari bo'lgan fitnachilar tomonidan o'ldirilgan. Fitnachilardan biri 28 yoshli Doro (mil.avv. 522–486-yillar) podsho taxtiga o'tirdi. Doro I mil.avv. VII–VI asrlarda Kayxusravgacha hukmron bo'lgan Ahmoniy podsholari avlodidan edi. Doroning o'zi fors urug' aslzodalari oliy tabaqasiga mansubligi tufayli Bardiya bekor qilgan zodagonlarning imtiyozlarini qayta tiklaydi. Doro I taxtga o'tirishi bilan unga qarshi Bobilda ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirayotgan bir vaqtda Fors, Midiya, Elam, Marg'iyona, Parfiya, Sattagidiya (hozirgi Afg'oniston), O'rta Osiyoning sak qabilalari va Misr qo'zg'olon ko'taradi. Forsning o'zida ham o'zini Bardiya deb e'lon qilgan Vaxayazdata nomli kimsa Doroga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, Sharqiy Eron viloyatlari va Afg'onistongacha bo'lgan hududlarni bosib oldi. Mil.avv. 521-yil 16-iyulda Doro Vaxayazdata qo'shinlarini tor-mor qildi.

Midiyada o'zini Midiya podshosi Kiaksar urug'idan deb hisoblagan Fravartish (Fraorti II) qo'zg'olon ko'tarib, hokimiyatni qo'lga oldi. Doro bu qo'zg'olonni ham bostirdi. Mil.avv. 521-yil yoziga kelib, Doro qo'shinlari besh jangdan so'ng Afg'onistonni qayta bo'ysundirdi. Doroning qaynotasi Dadarshish Parfiya va Girkaniyadagi g'alayonlarni bostirdi. Bu vaqtda Bobilda so'nggi qo'zg'olon boshlanib, mil.avv. 521-yil 27-noyabrgacha davom etdi. Doro I taxtga chiqqanidan bir yil o'tgach, o'z hokimiyatini bir qadar mustahkamladi. U mil.avv. 519-yilda O'rta Osiyoga saklarga qarshi yurish qildi. Saklar podshosi Skunxa qo'shini tor-mor qilindi. Bu yurish to'g'risida Doro I ning Behustun yozuvlarida aytib o'tiladi. Forslar mil.avv. 519–512-yillarda Frakiya, Makedoniya va Hindistonning shimoliy-g'arbiy qismini bosib oldilar. Mil.avv. VI asrning oxirida Ahmoniyalar davlati chegaralari sharqda Hind daryosidan g'arbda Egey dengizigacha, shimolda Armanistondan janubdan Nilning birinchi ostonasigacha yetib boradi. Doro I ning faol istilochilik yurishlari natijasida dunyo tarixida birinchi bor Osiyo, Afrika, Yevropadagi o'nlab mamlakatlar va xalqlarni o'z ichiga olgan ulkan imperiya tashkil topdi.

Doro I Shimoliy Afrikada Liviyaning bir qismini, Bolqonda Frakiyani, Samos va boshqa yunon orollarini bosib oldi. Uning vorisi Kserks Yunonistonni to'liq bosib olishni rejalashtirgan edi. Fors davlatining mil.avv. 490-yilda Bolqon Yunonistonida go'libona boshlagan urushi bir necha o'n yillarga cho'zilib ketdi. Bir necha janglardan so'ng forslar mag'lubiyatga uchradilar. Kserks (mil.avv.486-464) Doro I ning ikkinchi xotini Atossa-

ning o'g'li edi. (Doro I ning o'limidan so'ng (mil.avv. 486-yil) taxt vorisligi uchun uning birinchi va ikkinchi nikohidan bo'lgan o'g'illari o'rtasida kurash ketganda, Atossaning ta'siri kuchli bo'lgan edi. Atossa o'zining katta o'g'li Kserksni taxtga o'tqazgan edi). Mil.avv. 465-yil Kserks fitna qurboni bo'ldi. Taxtga uning o'g'li Artakserks I (forscha nomi Artaxshassa) o'tirdi. Mil. avv. 460-yil Misrda Inar boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi. Bu qo'zg'olon faqat mil.avv. 454-yilda bostirildi. Mil.avv. 449-yilda afinaliklar 200 kema bilan Kipr orolining katta qismini bosib oldilar. Mil.avv. 449-yil «Kalliy» sulhiga ko'ra, forslarning Yevropadagi mulklari, Kichik Osiyodagi yunon shaharlaridan voz kechildi. Forslar mil.avv. IV asrning birinchi yarmida Kichik Osiyodagi yunon shaharlari ustidan hukmronliklarini qayta tikladilar. Yunon shaharlari fors davlatiga tegishli o'lpon – to'lovlarini to'lab turdilar. O'zaro urushlar girdobida qolgan yunon polislari ham barqaror fors davlatini himoyasiga o'tishga harakat qildilar.

Ahmoniyalar davlatining keyingi davrida ichki ziddiyatlar, satraplarning o'zboshimchaligi kuchayib, O'rta Osiyo saklarining va Misrni vaqtinchalik ajralib chiqishi yuz berdi. Lekin davlat chegaralari o'zgarmay qolaverdi. Artakserks I ning mil. avv. 424-yilgi vafotidan keyin mil.avv. 423-yilda uning o'g'li Ox (qadimgi fors tilida Vaxuka) Doro II nomi bilan taxtga o'tirdi. Uning hukmronligi davrida saroy a'yonlarining ta'siri kuchayib, qaram xalqlarning qo'zg'olonlari natijasida davlat yanada zaiflashdi. Doro II mil.avv. 404-yil mart oyida vafot etdi. Uning katta o'g'li Arsak Artakserks II nomi bilan taxtga chiqdi (mil.avv. 405–358-yillar).

Doro II ning o'g'li shahzoda Kayxusrav Kichik Osiyoning bir necha satrapliklarning noibi hamda Kichik Osiyodagi fors qo'shinlarining qo'mondoni edi. Shahzoda Kayxusrav qobiliyatli lashkarboshi va davlat arbobi bo'lib, imperiyaning o'tmishdagi qudratini tiklashga astoydil harakat qildi. U taxtni egallash uchun akasi Artakserksga qarshi isyon ko'tardi. Shahzoda Kayxusrav kuchli qo'shin bilan mil.avv. 401-yilda Kichik Osiyodan Bobilga yurish qildi. Fors podshosi qo'shinlari bilan isyonchi shahzoda o'rtasida Bobildan 90 km uzoqlikdagi Kunaksda mil. avv. 401-yil 3-sentabrda hal qiluvchi jang bo'ldi. Jangda Kayxusrav o'ldirildi, isyonchi qo'shin yengildi. Artakserks II qo'shinlariga Kariya satrapi tajribali sarkarda Tissafern boshchilik qildi (Tissafern mil.avv. 395-yilda shahzoda Kayxusravning onasi

Parasatidaning xoinlikda ayblovi bilan qatl etildi.) Kichik Osiyodagi Kariya, Lidiya va Kilikiya satrapliklari ham Artakserks II hukmronligining so'nggi yillarida qo'zg'olon ko'tardilar.

Artakserks II mil.avv. 358-yil vafot etdi. Uning o'g'li Ox Artakserks III (mil.avv. 358–338-yillar) nomi bilan taxtga chiqdi. U, eng avvalo, o'z hokimiyatini mustahkamlash va saroy fitnalarini oldini olish uchun o'z aka-ukalarini qilichdan o'tkazdi. Yosh podsho kuchli irodaga ega bo'lib, zaiflashib borayotgan imperiyaning kuch-qudratini qayta tiklash uchun qattiqqo'llik bilan ish boshladi. U o'zining 20 yillik hukmronligi davrida imperiyada ko'tarilgan har qanday norozilikni shafqatsizlik bilan bostirdi. Artakserks III mil.avv. 345-yil Finikiyaning qo'zg'olon ko'targan Sidon shahriga qarshi shaxsan o'zi qo'shinga boshchilik qilib, qo'zg'olonni bostirdi. U shaharning 40 ming aholisini qirib tashladi, aholining tirik qolgan qismi qullikka sotib yuborildi. Artakserks mil.avv. 343-yil qishida qo'zg'olon ko'targan Misrga qarshi yurish boshladi. Fir'avn Nektaneb II yuz ming kishilik qo'shin bilan forslarga qarshi qo'zg'olon ko'tardi, ammo mag'lub bo'ldi. Mil.avv. 342-yilda Misr qayta bo'ysuntirildi va forslar uning barcha shaharlarini talon-taroj qildilar.

G'ayratli Artakserks III ga qarshi saroy a'yonlari haram og'asi Bagoy boshchiligida fitna uyushtirib, uni zaharlab o'ldirdilar (mil.avv. 338-yil). Artakserks III ahmoniyalar sulolasining so'nggi qudratli hukmdori edi. Uning o'limidan so'ng Eron g'alayonlar, saroy nizolari ichida qoldi. Qachonlardir qudratli bo'lgan imperiya o'z halokati sari jadal yuzlana boshladi. Bagoy Artakserks III ning o'g'li Aresni taxtga o'tqazdi. Mil.avv. 338–336-yillar. Ares ham mil.avv. 336-yilda makkor Bagoy tomonidan o'ldirildi. Artakserks III va uning o'g'li Aresni o'ldirgan fitnachilar boshlig'i, makkor Bagoy mil.avv. 336-yil Armaniston satrapi Qodomonni Doro III (mil.avv. 336–330-yil) nomi bilan taxtga o'tkazdi. Qodomon qo'rqqoq va jur'atsiz, hech kim bilmagan kichik bir viloyat satrapi edi. Bagoy bu zaif podshoni qo'g'irchoq sifatida qo'yib, ulkan imperiyani o'zi boshqarmoqchi edi. Ammo u adashdi. Doro III Bagoyni o'ldirib, o'z hokimiyatini mustahkamlashga kirishdi.

Doro III uch qit'aning hududlarini birlashtirgan, lekin halokatga yuz tutib borayotgan imperiyaning zaif hukmdori edi. Qachonlardir qudratli bo'lgan, lekin ichki ziddiyatlar girdobida qolgan imperiya uning qisqa muddatli hukmronligi davrida

halokatga uchradi. Katta moddiy boyliklar va kuchli millionli qo'shinga ega bo'lgan Doro III tashqi dushman hujumini qaytarish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlardan foydalanmadi. U Makedoniyalik Aleksandr boshchiligidagi yunon-makedon qo'shinlari bilan Kilikiyadan Suriyaga o'tish chegarasidagi Issa yonidagi jangda (mil.avv. 333-yil) va Arbel yaqinidagi Gavgamel yonidagi hal qiluvchi jangda (mil.avv. 331-yil 1-oktabr) sharmandalarcha yengildi. Issa yonidagi jangda fors otliqlari Aleksandrning otliqlaridan besh marta, fors piyodalari ikki marta ko'p edi. Yunon-makedon qo'shinining intizomi, qat'iyati ko'p sonli fors qo'shinidan ustunlik qildi. Doro III Baqtriyaga qochib ketdi va u yerda o'z yaqinlari tomonidan o'ldirildi.

Makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan so'ng, Eron hududi Salavkiylar davlati tarkibiga kirdi (mil.avv. 312–250-yillar). Parfiya davlatini parn-dax qabilalari tashkil etdilar. Kaspiy va Orol dengizi oralig'ida yashagan ko'chmanchi parn qabilalari mil.avv. 250-yillar atrofida Atrek vodiysidagi Niso viloyatini (Hozirgi Turkmaniston) egallab oldilar. Yangi paydo bo'lgan Parfiya davlati qudratli Salavkiylar davlati bilan to'qnashdi va uning hududlarining bir qismini bosib oldi. Keyin esa u Parfiya davlati tasarrufida bo'ldi.

Mil.avv. 171-yilda Parfiyada podsholik taxtini egallagan Arshak faol istilochilik urushlarini olib bordi. Mamlakat hududi kengaydi. Parfiya davlati o'sha davrdagi dunyoning qudratli davlatlari bo'lgan Salavkiylar, Rim, Xitoy va Kushon davlatlari bilan bir qatorda turgan. Parfiya Ahmoniylar Eroni madaniy taraqqiyoti an'analarini davom ettirdi. Parfiya uzoq vaqt davom etgan urushlar, ichki nizolar natijasida zaiflashib, inqirozga yuz tutdi.

Vaqt o'tishi bilan Eronning janubi, Forsda mavjud bo'lgan bir necha kichik davlatlardan biri kuchayib ketdi. Bu davlat boshida Soson urug'idan bo'lgan hokimlar turar edi. Sosonning avlodi Ardasher o'z hududlarini qo'shni viloyat hisobidan kengaytira boshladi. Fors viloyatlari, Kirmon va Xuziston qo'shib olingdi. Ardasherning kuchayib ketishi Parfiya bilan to'qnashuvga olib keldi. Mil.avv. 224-yil Parfiyaning so'nggi podshosi Artaban V sosoniylarning yo'l boshchisi Ardasher tomonidan mag'lub qilindi. Parfiyaning markazlaridan biri Ktesifonni Ardasher mil. avv. 226-yilda bosib olib, o'zini podsho deb e'lon qildi. Natijada Eronda yangi Sosoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi. Shu bilan Eronning qadimgi tarixi tugadi.

7. Qo'shin. Ahmoniyalar davlatining asosiy kuchi, uning yaxshi tashkil qilingan harbiy qo'shini edi. Yaxshi tashkil qilingan harbiy tashkilot Ahmoniyalar davlatining 200-yildan ko'proq davom etgan davlati xavfsizligini ta'minladi. Fors qo'shini asosan quyidagi qismlardan tashkil topgan: suvoriylar, jang aravalari, piyodalar, harbiy flot kirgan. Bundan tashqari, ayg'oqchilar, xabarchilar va boshqa yordamchi qismlar bo'lgan. Janglarda tuyalar, jangovar fillardan ham foydalanilgan. Davlat hududi 4 dan 7 tagacha harbiy okruglarga bo'lingan. Okruglarda muntazam qo'shinlar doimiy joylashtirilgan. Fors podsholigi qudratining asosini fors va midiyaliklar tashkil qilgan jangovar qo'shin belgilagan. Qo'shinning jangovar qobiliyatini tashkil qilishda fors va midiyaliklardan tashqari, O'rta Osiyoning sak qabilalari, baqtriyaliklar muhim o'rin tutganlar. Saklar asosan imtiyozli otliq qo'shinlarda xizmat qilganlar. Otliq kamonchi saklar asosan o'q-yoy bilan qurollanib, yugurib ketayotgan ot ustidan bexato nishonga tekkizganlar. Harbiy qal'a, garnizon, tayanch nuqtalarda, odatda, oliy harbiy mansabni forslar egalaganlar. Qo'shin otliq va piyoda qismlardan tashkil topgan. Otliq qismlar, zodagonlar, piyodalar dehqonlardan olingan. Bu ikkala qismlarning uyg'un harakati urushlarda g'alabani qo'lga kiritishga sabab bo'lgan. Piyoda qo'shinning asosiy quroli kamon, suvoriyning qurol-aslahasi temir sovut, jez qalqon va ikki temir nayza bo'lgan. Qo'shinning eng ilg'or askarlarini birinchi ikki mingtasi faqat fors aslzodalari vakillaridan iborat bo'lib, ikki ming piyoda nayzabador podshoning shaxsiy qo'riqchilari hisoblanganlar. Qolgan o'n ming piyoda askar turli fors, elam qabilalardan to'ldirilgan.

Bosib olingan mamlakatlarda isyonlar, qaram aholining qo'zg'olonlarini bostirish maqsadida qo'shinlar joylashtirilgan. Misr va Bobilda 10-12 ming kishilik qo'shin turgan. Davlat chegaralarida harbiylarga yer berilib, harbiy garnizonlar joylashtirilgan. Bevosita xizmatda bo'lgan harbiylar har oyda mahsulot bilan ish haqi olganlar. Iste'foga chiqqan askar oilasi bilan asosan kichik yer ulushidan kun ko'rgan, savdo va turli hunarlar bilan shug'ullangan.

Eng muhim urush harakatlari davrida har bir qaram xalq ma'lum miqdorda askar yetkazib berish majburiyatini olgan. Doro I davrida forslar dengizda ham yetakchi rol o'ynay boshlaydilar. Dengiz janglari Finikiya, Kipr, Egey orollari va Misr floti yordamida olib borilgan. Matros sifatida saklar, forslar

xizmat qilganlar. Ko'pincha flotda rahbarlik vazifalariga misrliklar tayinlangan. Mil.avv. V asrdan boshlab Fors o'lkasida dehqonlarning iqtisodiy ahvoli yomonlashdi. Dehqonlar harbiy xizmatdan bosh torta boshladilar. Bu, o'z navbatida, fors piyoda qo'shinlarining jangovar qobiliyati pasayishiga olib keldi. Endilikda ular yaxshi qurollangan yunon yollanma askarlar bilan almashtirila boshlandi.

8. Ahmoniyalar davlatining ijtimoiy holati va davlat tuzumi. Ahmoniyalar davlatiga uzoq bosqinchilik urushlardan so'ng, Fors davlati paydo bo'lgunga qadar Kichik Osiyo, Elam, Bobil, Suriya va Misr kabi o'zining rivojlangan davlat hokimiyatiga ega bo'lgan hududlar kirdi. Bundan tashqari, forslar ko'chmanchi arab va skif qabilalarini bo'ysundirdilar. Ulkan davlat tarkibiga kirgan yuzlab xalqlar, elat va qabilalar turli bosqichdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda yashaganlar. Ayrim viloyatlar, hududlarda tovar-pul munosabatlari yuqori darajada rivojlangan edi. Forsning o'zida yollanib ishlovchi ishchilar «gardash» (fors tilida) yoki «kurtash» (elam tilida) deb atalgan. Kurtashlarning bir qismi davlat fuqarosi hisoblangan. Bu ko'p sonli ishchi guruhlari bo'lib, ko'pincha harbiy asirlar, majburiyatni o'tash uchun chiqarilgan jamoachilardan iborat edi. Qullar oldi-sotdi qilingan va turli yumushlarni bajargan. Asir qullar soni juda ko'p bo'lgan.

Kayxusrav va Kambiz bosib olingan mamlakatlarda hech qanday o'zgarish qilmay, avvalgi ichki boshqaruvni saqlab qoldilar. Qaram xalqlarga bir qadar o'z-o'zini boshqaruv huquqini berdilar. Ammo mil.avv. 522–521-yillardagi qo'zg'olonlar Ahmoniyalar davlati mustahkam emasligini ko'rsatdi. Shu sababli, Doro I davlat hokimiyatini mustahkamlashga xizmat qiladigan qator islohotlar o'tkazdi. U ma'muriy-hududiy, moliya va harbiy islohot o'tkazdi. Doro I islohotlari, eng avvalo, bosib olingan hududlar ustidan nazoratni amalga oshirish va davlat boshqaruv tizimini yaratish, soliqlar yig'imini tartibga solish va uning miqdorini oshirishga xizmat qildi. Islohotlar bir necha yilda amalga oshirildi. Bu islohotlarni amalga oshirish natijasida Bobil, Misr va boshqa hududlarda yangi ma'muriy tizim vujudga keldi va Ahmoniyalar davlatining oxirgi yillarigacha boshqaruv tizimida biror sezilarli o'zgarish yuz bermadi.

Ahmoniyalar davlat hokimiyati tepasida qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatini o'z qo'lida to'plagan mutlaq hukmdor – podsho turgan. Podsho o'zining hashamatli kiyimi bilan

ham oqsuyak zodagonlardan ajralib turgan. Faqat u qizil-zarrin kiyim va toj kiyishi mumkin bo'lgan. Uning tan soqchilari 10 ming saylanma askardan tashkil topgan. Tansoqchilar «olmas» deb nomlanib, uning soni doimo bir xil qolgan. Qaysidir tansoqchi vafot qilsa, uning o'rnini boshqasi egallagan. Podsho davlat boshqaruvida shakllangan davlat apparatiga tayangan.

Doro I ning islohotlari podshoning mutlaq hokimiyatini ham kuchaytirdi. Saroy qonun-qoidalari, rasm-rusumlari va marosimlari, podsho hokimiyatining ramzlari shakllantirildi. Keyinchalik Ahmoniy podsholarning turmush tarzi boshqa sharq va g'arb podsholari uchun namuna sifatida qabul qilindi. Cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan podsho shaxsi oliy va muqaddas bo'lib, xudo Axuramazdaning yerdagi soyasi bo'lgan Podshoga yaqinlashadigan har qanday kishi tiz cho'kib, ta'zim bajo keltirishi kerak edi. Faqat 6 urug' oqsoqoli uning huzuriga to'g'ridan-to'g'ri kirishlari mumkin bo'lgan. Qarindosh-urug'lar, saroy a'yonlari va hamtovoqlar ham podsho oldiga hech qanday sababsiz kirishga botinmaganlar, buning uchun hayotlaridan mahrum bo'lishlari mumkin edi. Arz-shikoyat bilan podsho huzuriga kiradigan qolgan fuqarolar uchun ko'p sonli xizmatchilar, tansoqchilardan o'tish amri mahol bo'lgan. Zardusht kohinlari (maglar) ma'naviy va dunyoviy ishlarda podshoga maslahatchi bo'lganlar. Ular sud ishlarini ham bajarganlar. Podshoga minglab kishilar xizmat qilgan. Uning tan soqchilari 2000 fors suvoriylari, 2000 nayzabardorlar va 10 000 piyodalardan iborat ilg'or qism bo'lgan. Qo'shinning katta qismi mamlakatning turli viloyatlarida bo'lib tashlangan. Podsho harami joriyalari Doro I ning vorislari davrida 360 taga yetgan. Podsho va uning a'yonlari harbiy yurishlarda o'z xotin, bola-chaqalarini ham olib yurganlar. Aleksandr Issa yonidagi jangda 300 ayolni, 277 oshpaz, 13 ta sutlik ovqat tayyorlovchilar, 17 ta ichimlik tayyorlovchilar, 70 ombor xizmatchisi, 40 ta xushbo'y surgii tayyorlovchilar, 46 ta supurgi to'quvchilarni asirga olgan.

Fors davlat boshqaruvi uchun kadrlar tayyorlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Tashkilotchilik, boshqaruv qobilyatiga ega bo'lgan yosh zodagonlar podsho saroyida, bir qismi satrapliklarda, satraplar rahbarligida bo'lg'usi lavozimlarga tayyorlangan. Ular harbiy san'atni, dunyoviy-ilohiy bilimlarni hamda boshqaruv san'atini o'zlashtirganlar.

Doro I mil.avv. 515-yil atrofida mamlakatni satrapiya (viloyat, fors tilida kshatriy) deb atalgan ma'muriy hududlarga bo'ldi:

Kichik Osiyo to'rt satraplik to'rt bosh shahar bilan (Milet, Sard, Daskiley va Tars); Misr markazi Memfis bo'lgan o'ltinchi satraplik; Osuriya Bobil bilan birga to'qqizinchi satraplik; o'ninchi satraplik Midiya; yigirmanchi satraplik Hind daryosining o'ng qir'g'og'i hududi. Satrapliklar o'z hajmi jihatidan ilgari, ilk katta davlatlar, provinsiyalardan katta bo'lgan. Ularning chegaralari mamlakatning eski davlat va etnografik chegaralariga mos kelgan. Satrapliklar ichida avtonom o'z-o'zini boshqaradigan qabila va shaharlar – Finikiya, Kichik Osiyodagi yunon shaharlari mavjud edi. Forslar Finikiya shaharlarining ichki ishlariga aralashmaganlar va buning evaziga ular Ahmoniy-lar-ni oxirigacha qo'llab-quvvatladilar.

Satrapliklar tarkibiga ichki boshqaruvda muxtor bo'lgan mamlakatlar ham kirdi. Bu markazdan uzoq hududlar bo'lib, ularning ichki ishlariga fors hokimiyati aralashmagan. Ular mahalliy hokimlar yordamida boshqarilib, forslar o'lpon olish bilan cheklangan. Arablar, kolxlar, efioplar, saklar o'z hokim-lari tomonidan boshqarilgan.

Satrapliklar ro'yxati Behistun va boshqa qadimgi fors yozu- larida keltiriladi. Ularda 23 mamlakat sanaladi. Gerodot tarixida 20 satraplik keltirildi. Gerodot 20 satraplik tarkibida Ahmoniy- lar davlati tarkibiga kirgan 70 ta shaharni sanaydi. Gerodot va Ahmoniy-lar yozuvlaridagi farqlar mavjudligining sababi, sat- rapliklar soni va chegaralari yangi bosqinchilik urushlari yoki ma'muriy islohotlar natijasida o'zgarib turgan. Fors podsholari muntazam ravishda satrapliklar hududlarini qayta bo'lib tur- dilar. Ularning soni oshib, hududlarning hajmi kichraydi. Mi- sol uchun, Doro I davrida Kichik Osiyo 4 satraplikka, Doro III davrida 7 satraplikka bo'linadi.

Yangi ma'muriy birliklar boshida satrap (noib)lar turgan. Satrap mansabi Ahmoniy-lar davlati vujudga kelishi bilan mav- jud edi. Kayxusrav, Kambiz va Doro I podsholigining birinchi yillarida qaram hududlarda rahbarlik vazifalarini imtiyozli et- nik guruh-forslar qo'lida to'plashni maqsad qilib qo'yanlar. Satrap lavozimiga endilikda qoida sifatida faqat forslar tayin- lanadigan bo'ldi. Kayxusrav va Kambiz davrida satrap qo'l os- tida fuqarolik va harbiy hokimiyat to'plangan. Bu haqida sat- rap Gobriyning Bobil, Suriya va Yuqori Mesopotamiyadagi bir vaqtning o'zida fuqarolik va harbiy noib vazifasini bajargani to'grisida aniq ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, Behus- tun yozuvlari ma'lumotlariga ko'ra, Doro I hukmronligi davrida

satraplar o'z viloyatlarini boshqarish bilan bir qatorda, urush vaqtida qo'shinga qo'mondonlik qilganlar.

Doro I satrap hokimiyatining kuchayib ketishini oldini olish uchun satrap vazifasini harbiy hokimiyatdan ajratish bilan chekladi. Endilikda satraplar viloyatlarda faqat fuqaro hokimiyatiga ega noibga aylandilar. Ular o'z viloyatlarida ma'muriyat boshlig'i bo'lib, sud hokimiyatini amalga oshirganlar. Satrap o'z viloyatining taraqqiyoti, savdo-hunarmandchilikning rivojlanishi, pul muomalasi, yo'llar, kanallar ustidan nazorat qilish va o'z kumush tangasini zarb qilish huquqiga ega edi. Soliqlar yig'imining nazorati ham satraplarning qo'lida bo'lgan. U soliqlarni okruglar bo'yicha taqsimoti va yig'ilgan soliqlarni markazga yuborishga mas'ul edi. Satraplikdagi harbiy hokimiyat alohida lavozimli kishi – harbiy boshliq qo'lida to'plandi. U satraplikdagi harbiy qismlar va qal'alar, garnizonning boshlig'i edi. Eng ko'p harbiy qismlar Sard, Memfis, Bobil va Ekbatanada joylashtirilgan.

Soliqlardan faqat Fors viloyati ozod etilgan bo'lib, faqat podsho viloyatga kelganda mahalliy mahsulotlar (sut, asal, xurmo va boshqa)ni tortiq qilishi lozim edi. Satraplar o'z satrapliklari chegarasida xavfsizlikni ta'minlaganlar va mahalliy amaldorlarning faoliyatini boshqarganlar. Tinchlik vaqtida satraplar qo'l ostida faqat ozgina shaxsiy qo'riqchilar bo'lgan. Viloyatda turgan qo'shinga esa satrapdan mustaqil bo'lgan, bevosita podshoga bo'ysungan harbiy boshliq rahbarlik qilgan. Satrap va harbiy boshliqlar markaziy hokimiyatni, podshoning va ayniqsa, uning maxfiy xizmatining doimiy nazorati ostida bo'lganlar. Chunki viloyatlar satraplari doimo mustaqillikka intilishga harakat qilib, ajralib chiqish xavfini tug'dirganlar. Davlat boshqaruvi va barcha amaldorlar ustidan oliy nazorat xazorapat deb atalgan mansabdor qo'lida bo'lgan. U bir vaqtning o'zida «o'n ming o'lmas» podsho shaxsiy gvardiyasining boshlig'i bo'lgan. Har bir satrap oldida uning nazorati uchun podsho tayinlagan kotib turgan. U farmoyish ko'rsatmalarini bevosita podshoning o'zidan olib, ularni satrap va harbiy boshliqqa yetkazib bergan. Shu bilan birga, u satraplikdagi vaziyat to'g'risida podshoga muntazam ma'lumot yuborib turgan. Satraplar ustidan oliy nazoratni bosh nazoratchi amalga oshirgan, u podsho nomidan satrapliklarni kutilmaganda taftish qilgan, u «podshoning ko'zi» deb atalgan. Agar satraplikda ishlar yaxshi ketayotgan bo'lsa, satrap rag'batlantirilgan, aksincha ishlar yomon bo'lsa, u jazo-

langan. Bosh nazoratchidan tashqari yana maxfiy ayg'oqchilar bo'lib, ular «podshoning quloqlari» deb atalgan.

Ammo Doro I davridan so'ng harbiy va fuqarolik hokimiyatining bo'linishiga qat'iy rioya qilinmagan. Ko'pincha satrap hokimiyatining hajmi ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib qoldi. Doro I ning o'g'li Kserks va keyingi podsholar davrida satraplar harbiy boshliqlarga qaram holatda bo'lganlar. Mil.avv. IV asrdan boshlab bu odatdagi hol bo'lib qoldi. Kserks podsholigi davridan ba'zida ikki yoki bir necha satrapliklar bir kishi qo'lidagi bo'lgan. Misol uchun, shahzoda Kayxusrav Kichkina Lidiya satrapi bo'lishi bilan birga, uning hokimiyati Daskiley va Ioniya satrapliklarining katta qismini qamrab olgan. Mil.avv. IV asr o'rtalarida Kiliqiya satrapi Mazey bir vaqtning o'zida Ikki daryo oralig'i noibi ham bo'lgan. Istilochilik urushlari davrida har bir satrap o'zining viloyatidan qo'shin to'plab, urush harakatlarida ishtirok etishi shart edi. Misol uchun, yunon-makedonlar bilan bo'lgan jang harakatlarida baqtriyaliklar o'z satraplari boshchiligida ishtirok etganlar.

Islahotlar natijasida podsho markaziy devonxonasi bilan birga, katta byurokratik apparat vujudga kelgan. Ahmoniylar davlatining markaziy davlat boshqaruvi ma'muriy markaz Suzada bo'lib, podshoning bosh qarorgohi Fors viloyatidagi Persepol shahrida joylashgan. Podsho o'rdasi kuz va qishni Bobilda, yozni Ekbatanada, bahorni Suzada o'tkazgan. Oromiy tili Ahmoniylar davlatining rasmiy tili edi. Barcha rasmiy hujjatlar oromiy yozuvida mamlakat bo'yicha tarqatilgan. Joylarda mirzalar hujjatlarni mahalliy tillarga tarjima qilganlar. Rasmiy hujjatlar joylarda mahalliy tillarda ham yozilgan. Ikki yoki undan ko'proq tillarda ish qog'ozlari yuritilgan.

Imperiyaning bepoyon hududlarini boshqarish samarali bo'lishi uchun muntazam aloqa (pochta) xizmati yaxshi yo'lga qo'yilgan. Markaziy yo'llarda bir kunlik yo'l masofasida maxsus aloqa qo'nimgoh bekatlari joylashtirilib, davlat tomonidan qo'riqlangan. Suzadan Kichik Osiyodagi Sard shahrigacha bo'lgan 2470 km uzunlikdagi yo'lda bir yuz o'n bir bekat bo'lgan. Bir kunda ot va choparlarni alamashtirib, 300 km yo'lni bosib o'tish mumkin edi. Suzadan Sardgacha, odatda, bir hafta yurilgan. Aloqa xizmati o'sha davrda faqat davlat ehtiyojlari uchun xizmat qilgan. Davlat hokimiyati ko'p sonli malakali choparlarni maxsus topshiriqlar bilan joylarga yuboriladigan amaldorlarni saqlab, ularning doimiy moddiy ta'minoti davlat xazinasidan

to'langan. Turli mamlakatlarga podsho topshiriqlari bilan yuradigan amaldor, choparlar uchun bekatlarda podsho omborlari tashkil etilgan bo'lib, ular doimiy oziq-ovqat, yem-xashak bilan ta'minlangan, otlar doimiy zaxira sifatida saqlab turilgan. Xabarlar tez yetkazish zarur bo'lgan paytlarda minoralardan olov yoqish bilan belgi berilgan.

Pasargaddan mil.avv. VI-V asrlarda tuzilgan mixxat hujjatlar ko'plab saqlanib qolgan. Misrdan Hindistongacha cho'zilgan Ahmoniyar davlatining turli viloyatlariga yuborilgan rasmiy mixxatlar hozirgacha yetib kelgan. Joylarga xususiy xat-xabarlar tanish-bilishlar, sayohatchilar, maxsus yollangan odamlar orqali yuborilgan. Ahmoniylarning rasmiy yozuvlari akkad, elam va qadimgi fors tilida va mixxatning uch turida ko'pincha toshga bitilgan.

Qaram mamlakatlar, hududlar satrapliklar ustidan markaziy hokimiyatning doimiy nazoratini podsho nomidan kutilmaganida tekshirish o'tkazadigan «podsho ko'zi» deb atalgan bosh nazoratchi amalga oshirar edi. Bosh nazoratchidan tashqari, maxfiy choparlar, «podsho quloqlari» hisoblangan ayg'oqchilar ulkan imperiya hududlarida doimo izg'ib yurar edilar. Davlat apparatida forslar eng muhim harbiy va fuqarolik vazifalarini faqat Fors o'lkasida emas, balki boshqa qaram hududlarda ham egallab olganlar. Shu bilan birga, Ahmoniyar boshqaruv ishlarida boshqa xalqlar vakillaridan ham foydalanganlar.

Doro I islohotlari agrar sohada katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Qaram xalqlarning yerlari tortib olinib, podsho oila a'zolariga, fors aslzodalari va amaldorlariga meros qilib beriladi. Bunday yer-mulklar soliqdan ozod qilingan. Podsho tomonidan alohida xizmat ko'rsatgan qo'shinlarga beriladigan yerlar merosiy bo'lib, soliqdan ozod qilingan. Bunday imtiyozga ega kishilar qaram viloyatlarda sud ishlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lganlar. Yerlarning katta qismi podshoning mulki edi. Podsho yerlari, odatda, ijaraga berilgan. Bundan tashqari, yirik sug'orish kanallari podshoga qaragan. O'rta Osiyodagi Aq daryosi havzasidagi sug'orish inshootlari, Suriyadagi o'rmonlar, Misrdagi Fayum ko'lida baliqchilikdan keladigan daromadlar, konlar, bog' va saroylar podsho ixtiyorida bo'lgan. Bir qism yerlar harbiylarga foydalanishga berilgan. Dastlab harbiylar xizmatda bo'lgan vaqtda bu yerlardan soliq olinmagan. Keyinchalik askar xo'jaliklaridan soliqlar doimiy ravishda olinib boshlanadi. Buning ustiga askarlarga harbiy xizmati uchun ajra-

tiladigan yerlarning hajmi yildan-yilga qisqarib borgan. Shu sababli, oddiy jamoachilar harbiy xizmatni o'tashdan bo'yin tovlay boshlaganlar. Natijada qo'shinning jangovar qobiliyati pasayib ketadi. Shu sababli, Ahmoniyar mil.avv. V-IV asrlarda yollanma qo'shinga suyanadigan bo'lganlar.

Doro I soliq siyosatini o'zgartirdi. Yangi umumdavlat soliq tizimi shakllantirildi. Har bir viloyat yer hajmi va hosildorlik darajasiga ko'ra, qat'iy belgilangan soliq to'lovini amalga oshirishi shart qilib qo'yildi. Ilk bor ayrim ibodatxonalar o'zlariga qarashli yerlardan soliq to'lashga majbur qilindi. Forslarning o'zlari pul to'lovidan ozod bo'lib, natural to'lovga tortilganlar. Qolgan qaram xalqlar har yili 7740 Bobil kumush talanti (232200 kg) miqdorida soliq to'laganlar. 111. 89... *Kayxusrav va Kambiz podsholiklari davrida hech qanday aniq xiroj belgilanmagan, lekin faqat ko'ngilli sovg'alar bunday ulkan soliq va boshqa shunga o'xshash tadbirlar tufayli Doro savdogar edi, Kambiz hukmdor, Kayxusrav ota edi der edilar, chunki Doro butun davlatni savdogarlarcha qurdi; Kambiz shafqatsiz va takabbur edi, Kayxusrav marhamatli bo'lganligi uchun unga barcha yaxshiliklari uchun hamma qarzdor edi. (Gerodot Tarix asari. 111. 89...)*

Doro I ning islohotlari fors davlatining kuch-qudratini mustahkamladi. Davlat hokimiyati boshqaruvining samarasini oshirdi. Imperiyaning turli hududlarini markaziy davlat hokimiyati bilan aloqasini kuchaytirdi. Barqaror boshqaruv tizimi mustahkamlanishi fors davlatini siyosiy barqarorligini 200 yildan ko'proq vaqt ta'minladi. Ahmoniy imperiyasi tarkibiga kirgan xalqlarning iqtisodiy taraqqiyoti, turli xalqlar o'rtasida o'zaro savdo-iqtisodiy va madaniy muloqoti kuchaydi.

Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi pul islohoti o'tkazilishiga sabab bo'ldi. Mil.avv. 517-yildan so'ng Doro I butun mamlakat miqyosida yagona pul birligi – fors pul tizimining asosi 8,4 gr og'irlikdagi tilla tanga – darikni joriy qildi. Tilla tangani faqat podsho zarb qilish huquqiga ega edi. Darik tarkibida bor-yo'g'i 3 % qo'shimcha metall qotishma bo'lganligi sababli, u bir necha asr davomida Old Osiyo savdo dunyosida asosiy muomala vositasi – tilla tanga vazifasini o'tadi. Ahmoniyar davlatida bundan tashqari, satraplar tasviri, provinsiyalarda podsho tasviri bilan zarb qilinadigan va qaram shahar va mamlakatlar zarb qiladigan kumush tangalar mavjud bo'lgan. Kundalik muomala vositasi sifatida Kichik Osiyo satrapliklarida zarb qilingan podsho kumush sikli (og'irligi 5,6 gr) xizmat qilgan.

Soliq to'lovi sifatida yig'ilgan to'lovlar kumush quymati shaklida ko'p yillar podsho xazinalarida saqlangan. Faqat ularning bir qismi xarajatlar uchun ishlatilgan. Shu boisdan, savdo uchun tanga pul doimo taqchil bo'lgan. Bu hol tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga to'sqinlik qildi va natural xo'jalikning saqlanishiga olib keldi.

Mil.avv. VI asr oxirida Fors davlatining qudrati o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Xo'jalik taraqqiyoti, qulay dengiz yo'llari, eski va yangi karvon yo'llarining namunali saqlanishi, pul muomalasining rivojlanishi xalqaro savdoning yanada o'sishiga olib keldi. Fors davlati hududidan bir necha xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar o'tgan. Ulardan biri Lidiyadan boshlanib, Kichik Osiyoni kesib o'tib, Bobilgacha borgan. Boshqasi Bobil va Suzadan o'tib, Pasargadgacha davom etgan. Bobil va Ekbatanani birlashtirgan savdo yo'li Baqtriya va Hind chegaralarigacha yetadi. Mamlakatning turli hududlari o'rtasida savdo aloqalari kuchaydi.

Ahmoniyalar savdo yo'llarini rivojlantirishga katta e'tibor berdilar. Doro I o'z davlati viloyatlarining Hindiston bilan dengiz aloqalarini o'rnatish imkoniyatlarini bilish uchun mil.avv. 518-yil dengizchi Skilakning dengiz ekspeditsiyasini tashkil etdi. Skilakning kemalari Hindiston orqali Hind okeanigacha suzib borib, Arabistonni aylanib o'tib, Qizil dengiz qirg'oqlariga yetib bordi.

Misr Yunonistonga g'alla, gazlama eksport qildi. Misrda fir'avn Nexo davrida qurilishi tugallanmay qolgan 84 km li kanalni ahmoniyalar bitkazadi. Imperiyaning turli hududlari orasida savdo-sotiq jadal rivojlandi. Hindistondan oltin, fil suyagi, xushbo'y moylar, Arabistondan oltin, So'g'diyonadan lazurit, serdolik, Xorazmdan feruza chiqarilgan. Bolqondagi yunon shaharlari kulolchilik mahsulotlari, Bobil g'alla, Kichik Osiyo temir va boshqa rudalarni ishlab chiqaradi. Ahmoniyalar Finikiya shaharlarida savdo-hunarmandchilikning rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi, ularning xalqaro savdo faoliyatini rag'batlantirdi. Finikiyalik dengizchilar xizmatidan foydalandi. Xalqaro dengiz savdosi finikiyaliklar qo'lida qoldi.

9. Qadimgi Eron madaniyati. Diniy e'tiqod. Qadimgi Eron mafkurasida mil.avv. I ming yillikda shakllangan diniy ta'limot zardushtiylik muhim o'rin egallaydi. Ahmoniyalar Eronida eron zardushtiylik kohinlari yuqori lavozimlarni egallaganlar. Ularning qurbonlik keltirish marosimini boshqarganlar, davlat ken-

gashi va oliy sudda ishtirok etganlar, kohinlar diniy e'tiqod xizmatchilarni tayyorlaganlar. Zardushtiylik Midiya podshosi Astiag davridayoq rasmiy dinga aylangan edi. Zardushtiylik dinining kohinlari diniy an'ana, urf-odat va rasm-rusumlarni saqlovchi maglar bo'lgan. Zardushtiylik odamlarni qurbonlik qilishni taqiqladi, odamlarning bir-biriga mehribon bo'lishini targ'ib qildi. Doro I mil.avv. 520-yil atrofida zardushtiylikni rasmiy davlat dini deb e'lon qildi.

Qadimgi Eronda qadimgi zardushtiylikning tabiat xudolari Mitra (quyosh xudosi), Anaxita (suv va hosildorlik xudosi) va yorug'lik, oy, shamol kabilarni o'zida ifodalagan xudolarga sig'inilgan. Fors podsholari zardushtiylikning afzalligini tan olib, rasmiy din sifatida qabul qilgan bo'lsalar-da, eng qadimgi xudolardan voz kechmaganlar.

Ahmoniyalar boshqa dinlarga ham homiylik qilganlar. Doro I Bobil, Elam va Yahudiyadagi buzib tashlangan ibodatxonalarni qayta tiklashga buyruq berdi. Misr ishg'ol qilingach, Kambiz Misr urf-odatlarini bo'yicha toj kiydi. U Sais shahridagi ma'buda Neyt ibodatxonasida diniy marosimlarda qatnashdi. Doro I o'zini ma'buda Neytning o'g'li deb e'lon qildi. Xudo Amon va boshqa Misr xudolariga bag'ishlab ibodatxonalar qurdi.

Diniy e'tiqodni markazlashtirish maqsadida Kserks (mil.avv. V asr) Eronda diniy islohot o'tkazdi. U zardusht inkor qilgan Mitra, Anaxita va boshqa qadimgi ilohlarning ibodatxonalarini yo'q qilishga urindi. Ammo bu amalga oshmadi. Bu islohot o'z maqsadiga erishmadi. Yarim asrdan so'ng qadimgi xudolarga sig'inish yana keng avj oldi.

Ahmoniyalar ibodatxonalarni iqtisodiy qudrati haddan tashqari kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun Misr, Bobil va Kichik Osiyodagi ibodatxonalarni davlat soliq majburiyatlarini o'tashga majbur qildilar. Ahmoniyalar davlati uchun turli xalqlarning madaniyati va diniy qarashlarni sinkretizmi xarakterli edi. Forslar hukmronligi davrida Misrda forslarning ilohi Serapisga sig'inilgan. Uch qit'aga tarqalgan fors davlatining ulkan hududida turli etnoslarning qo'shilib ketish jarayonlari, imperiyaning turli hududlari o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi natijasi edi. Chet elliklar mahalliy xalqlar bilan qo'shilib ketdilar. Ularning urf-odat, an'analarni qabul qildilar. Davlat hokimiyati imperiya tarkibida bo'lgan turli xalqlarning diniy e'tiqod, madaniyatlari rivojlanishi va bir-biriga yaqinlashuviga to'sqinlik qilmadi.

Yozuv. Mamlakat turli hududlarining doimiy iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy aloqasi madaniyatlarining o'zaro ta'siriga ijobiy turtki beradi. Turli xalqlarning yagona davlat hududida yashab turishi xalqlarning ilmiy bilimlari, san'at va adabiyotlarining bir-birini boyitishiga olib keldi. Ahmoniyalar davrida O'rta Osiyo va Hindistonga oromiy yozuvi kirib keldi. Oromiy yozuvi asosida so'g'd, xorazm va o'rta fors yozuvlari shakllandi.

Forslar va boshqa xalq-elatlar Bobil, Misr va Elamning qadimiy madaniyatlarini o'zlashtirib oldilar. Forslarning eng katta madaniy yutuqlaridan biri o'ziga xos mixxatning yaratilishi bo'ldi. Fors mixxati akkad alfavitidan farq qilgan holda bor-yo'g'i 40 belgidan iborat bo'lib, deyarli alfavitli yozuv bo'lgan.

Eron Ahmoniyalar davrida o'zining noyob madaniyatini yaratdi. Qadimgi fors yozuvi 43 belgidan iborat bo'lib, asosan, podshoning tantanali yozuvlari uchun foydalanilgan. Hukmdorlarning sag'analari, saroy devorlari, ustunlari shu yozuv bilan bezalgan. Tosh vaza va muhrlar, metall idishlar, qurollarga yozuvlar o'yib bitilgan. Ana shunday yozuvlarning eng noyobi Behustun bitiklaridir. Behustun bitiklari Kambiz hukmronligining so'nggi yillari, Doro I hukmronligining birinchi yillari to'g'risida ma'lumot beradi. Uning balandligi relyef bilan birgalikda 7,8 m ni, kengligi 2,2 m ni tashkil etadi. U qadimgi fors, elam va akkad tillarida bitilgan. Uch tilli yozuv Hamadon va Kirmonshoh shaharlari o'rtasidagi Bobil, Midiya va boshqa mamlakatlar bilan bog'laydigan yo'ldan 105 metr balandlikdagi Behustun qoyasida bitilgan. Bitik ustida boshqa odamning relyef tasvirlari ustida parvoz qilib turgan xudo Axuramazda yuksalib turadi. Axuramazda uzukli chap qo'lini Doroga uzatib, podsholik hokimiyatini ramziy topshirib, o'ng qo'li bilan podshoni sharaflamoqda. Doro I tabiiy kattalikda podsho tojida tasvirlangan. Uning o'ng qo'li Axuramazdaga ibodat qilishga uzatilgan, chap qo'li bilan kamonni ushlab turibdi. Doro chap oyog'i bilan Kambiz hayotligi davrida taxtni bosib olgan, yerga yiqitilgan, talvasaga tushgan Mag Gaumatani oyog'i bilan bosib turibdi. Chapda Doroning orqasida uning ikki saroy a'yoni – nayzabardor Gobriy va kamonchi Aspatin turibdi. Bevosita Gaumata orqasida Doroni taxtga chiqishi vaqtida isyon ko'targan sakkiz isyonchi va saka-tigraxaudalar podshosi tasvirlangan. Ularning qo'llari orqalariga bog'langan, ular bir uzun zanjirga chirmashtirib tashlangan.

Ahmoniytlarning boshqa yozuvlari Naqshi Rostam, Suza, Pa-sargad, Ekbatana va Misrda mavjud. Naqshi Rostam yozuvi Pa-sargadning shimoliy-g'arbidan 5 km dagi Doro I ning sag'anasi-ga bitilgan. Maqbara 20 m balandlikda bunyod qilingan. Qa-dimgi Eron an'analari-ga ko'ra, qoyatoshga o'yilgan sag'anaga kirishda uch ulkan ravoqlarda uch sag'ana joylashgan. Ular-dan birida Doro I jasadi, qolgan ikkita sag'anada uning oila a'zolari dafn qilingan. Ayvon ustida haykal tasvirlar mavjud. Doro saroy a'yonlari qurshovida taxtda o'tiribdi. Uni 30 ta xalq vakillari ko'tarib turibdilar. Tasvirlarda har bir xalqning o'ziga xos antropologik va etnografik xususiyatlari belgilari bilan ifo-dalashga harakat qilingan. Tasvirda ularning har birini etnik mansubligini bildiradigan yozuvlar bor. Podsho chap qo'lida kamonni ushlab turibdi. O'ng qo'lida butun yodgorlik ustidan go'yoki parvoz qilayotgan Axuramazdaga murojaat qilmoqda. O'ngda muqaddas olov bilan mehrob.

Doro I ning uch yozuvi uning buyrug'i bilan Nil daryosidan Qizil dengizga kanal qurgani to'g'risida hikoya qiladi. Ular Su-vaysh kanalining sobiq bo'ynida topilgan bo'lib, misr, fors, elam, akkad tillarida tuzilgan. Misr matnidagi uch lavhada Misrning ikki tomoni o'xshash tasvirlari Doro nomi yozilgan oval bilan ramziy birlashtirilgan. Yozuv Doroga tobe 24 mamlakatni es-latadi. Har bir mamlakatning vakili alohida ovallarda tasvirla-nib, podsho nomi yozilgan ovalga yuzlari qaratilgan.

Suzadan qachonlardir o'zining hashamatli saroyining ulkan darvozalari oldida turgan Doro haykali topilgan. Podsho Misr xudosi Atum qiyofasida, fors kiyimida tasvirlangan. Yodgorlik-da to'rt tildagi yozuv mavjud.

Qadimgi O'rta Osiyo va Eronda zardushtiylik kalendari bo'lib, oy va kunlarning nomi zardushtiylik ma'budalari Axuramazda, Mitra, Anaxita va boshqalarning nomlaridan kelib chiqqan. Yil 12 oy, har bir oy 30 kundan iborat, har bir yilga yana besh kun qo'shilgan (jami 365 kun).

San'at. Ulug'vor saroylar, ibodatxonalar Ahmoniytlar imperi-yasining qudrati ramzi edi. Bu ulug'vor inshootlarni imperi-yaning turli hududlaridan kelgan quruvchi-me'morlar bunyod qildilar. Osuriya, Bobil, Misr, Yunon, Elam badiiy an'analari, texnik usullari bilan Eron va O'rta Osiyo badiiy an'analari sin-tezi yuz berdi. Eron badiiy san'ati yuqori darajada rivojlandi. Turli xil metallardan ishlangan vaza va jomlar, tosh qadahlar fil suyagidan yasaliib, oltin, kumush bilan ziynatlangan ritonlar,

zargarlik buyumlari, lazuritdan ishlangan haykallar yuksak badiiy did shakllanganidan dalolat beradi. Yuksak badiiy san'at asarlari hisoblangan buyumlarda xonaki va yovvoyi hayvonlar (qo'ylar, sherlar, to'ng'izlar va boshqalar) hayotiy ifodalangan.

Badiiy buyumlar ichida agat, xalkidon va yashma kabi yarim qimmatbaho toshlardan ishlangan silindrsimon muhrlarga podsholar, afsonaviy qahramonlar va afsonaviy mavjudotlar tasviri tushirilgan. Ular nihoyatda mohirlik bilan yasalgan bo'lib, haqiqiy san'at asari hisoblanadi. Fors san'atida, ayniqsa, o'simlik va hayvonlarning hayotiy tasvirlari bo'lgan badiiy buyumlar bizni hozirgacha hayratga soladi.

Manbalar Ahmoniyalar davlati hukm surgan yuz yillar davomida barqaror siyosiy tizim, yagona davlat hududlari, o'nlab mamlakatlar amaldorlarining poytaxt Suza va Persopolga muntazam qatnaganlari to'g'risida ma'lumot beradi. O'z tarkibiga 80 dan ortiq xalqlar, elatlar, qabilalarni birlashtirgan Ahmoniyalar imperiyasi davrida yagona davlat tarkibiga kirgan turli xalqlar, hududlar madaniyatlari va diniy e'tiqodlari rivojlanishiga, ularni aralashib, biri-birini boyitishi uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va siyosiy shart-sharoitlar yaratildi. Hududlar, mamlakatlar o'rtasida xilma-xil iqtisodiy-madaniy aloqalar ilgariga qaraganda muntazam tus oldi.

Me'morchilik. Qadimgi fors me'morchiligining ulug'vor inshootlari Persepol va Suzadagi saroy ansambllari edi. Persepol shahri maydoni 135000 m. kv ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, 12000 kv.m sun'iy maydon hosil qilingan. Tog' qiyaliklarini tekislash bilan bu sun'iy maydonda shahar uch tomondan devor bilan o'rab olinib, to'rtinchi tomoni tog' qoyasiga chiqadi.

Doro I ning Pasargaddagi rasmiy saroy qarorgohi 3600 m. kv maydonga ega bo'lgan ulkan inshootdan iborat bo'lgan. Saroyning katta zali ayvon bilan o'ralgan. Zal va ayvonlar tomini toshdan nafis, nozik yasalgan, balandligi 20 m bo'lgan 72 ta ustunlar ko'tarib turgan. Saroyga kirishdagi uzun zinapoyaning (Apadana) ikki tomon devorlari relyef tasvirlar bilan qoplangan. Ushbu relyef tasvirlarda Ahmoniyalar davlati tarkibiga kirgan xalqlar o'z kiyimlari va antropologik tuzilishlarida aks ettirilgan. Ularda saroy ayonlari, podshoning shaxsiy gvardiyasi, otliq va jang aravalari relyef tasvirlari ishlangan. Zinapoyaning bir tomonida fors podshosiga hadyalar va o'lponlarni olib borayotgan qaram hududlarning 33 xalqi vakillarining uzun qatori tasvirlangan. Bu saroy Fors davla-

ting kuch-qudrati ramzini ifodalab, muhim davlat qabul-lari, elchilarni qabul qilish uchun xizmat qilgan. U Doro I va Kserksning shaxsiy saroylari bilan maxsus chiqishlar orqali bogʻlangan. Bu haqiqiy etnografik muzey, qaysiki, bu yerda turli xalq va qabilalarning oʻziga xos kiyimlari, qurollari va ularning kasblarini ifodalaydigan tasvirlari toshga oʻyib tushirilgan. Pasargadda boshqa fors podsholarining saroylari, xizmatchilar xonalari va kazarmalar qurilgan.

Pasargad (Eram bogʻi) qoyatosh bagʻrida barpo qilingan boʻlsa-da, shaharni suv bilan taʼminlash maxsus qazilma akveduklar bilan amalga oshirilgan. Shaharda botanik bogʻ yaratilgan va fontan, favvoralar qurilgan.

Doro I davrida ikkinchi poytaxt Suzada katta qurilishlar olib borilgan. Qurilish ashyolari 12 mamlakatdan olib kelingan. Doro I ning yozuvlarida shunday deyilgan: «Kedr daraxti Livan togʻlaridan Suzaga uni kariylar, bobilliklar olib kelishdi. Yogʻoch Gandxara va Karmaniyadan, oltin Lidiya va Baqtriyadan olib kelingan. Feruza Xorazmdan, kumush, eban daraxti Misrdan, saroy devorlari uchun bezaklar Ioniyadan, fil suyagi Efiopiya va Kariyadan keltirilgan. Tillakor ustalar midiyalik va misrliklar edi. Yogʻochga naqsh beradiganlar misrliklar boʻlgan. Ahmoniylarning saroylari Fors davlatining kuch-qudratini aks ettirishi kerak edi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Дандамаев М.А. Политическая история Ахеменидской державы. – М.: 1980.
2. Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. – М.:1980.
3. Фрай Р. Наследие Ирана. – М.: 1972.
4. Хинкс В. Государство Элам. – М.: 1977.

Asosiy sanalar

| | |
|-----------------------------------|---|
| Mil.avv. III ming yillik boshlari | Ilk davlat birlashmalarining tashkil topishi. |
| Mil.avv. XXII asr | Markazi Suza boʻlgan Elam davlatining paydo boʻlishi. |
| Mil.avv. 520-yil | Zardushtiylik dini rasmiy dinga aylandi. |
| Mil.avv. VIII–VI asrlar | Elamning Osuriya bilan kurashi. |

| | |
|-------------------------|--|
| Mil.avv. 673–672-yillar | Midiya davlatining tashkil topishi. |
| Mil.avv. 558–530-yillar | Kayxusrav II hukmronligi. |
| Mil.avv. 550-yil | Midiyaning bosib olinishi. |
| Mil.avv. 547-yil | Lidiyaning bosib olinishi. |
| Mil.avv. 545–539-yillar | Oʻrta Osiyoning bosib olinishi. |
| Mil.avv. 539-yil | Bobilning bosib olinishi. |
| Mil.avv. 525-yil | Misrning bosib olinishi. |
| Mil.avv. 522–486-yillar | Doro I hukmronligi. Maʼmuriy-moliyaviy islohotlar. |
| Mil.avv. 515-yil | Doro I davlatni viloyat (satraplik)larga boʻldi. |
| Mil.avv. 499–449-yillar | Yunon-fors urushlari. |
| Mil.avv. 334–330-yillar | Yunon-makedonlarning yurishi va Ahmoniylar davlatining yemirilishi. |
| Mil.avv. XIV-XII asrlar | Bobilga Elam qaram boʻldi. |
| Mil.avv. 549-yil | Bobilni forslar butunlay bosib oldi, mustaqilligini abadiy yoʻqotdi. |

QADIMGI JANUBIY OSIYO

1. Hududi va aholisi, manbashunoslik va tarixnavislik. 2. Davrlashtirish. 3. Manbalar. 4. Tarixnavislik. 5. Qadimgi hind sivilizatsiyasi. 6. «Veda davri». Shimoliy Hindistonda ilk davlatlarning tashkil topishi (mil.avv. XIII–VII asrlar).

1. Hududi va aholisi, manbashunoslik va tarixnavislik. Qadimgi Sharqning o'ziga xos noyob sivilizatsiyalaridan biri hind sivilizatsiyasidir. Qadimgi hind sivilizatsiyasi insoniyat madaniy taraqqiyotiga qo'shilgan ulkan hissadir. Hind sivilizatsiyasi qadimdan Sharqning qator mamlakatlari bilan tarixiy-madaniy aloqa o'rnatib, ularning madaniy taraqqiyotiga hayotbaxsh ta'sir qildi. Sharqning O'rta Osiyo, Arab, Eron yozuvchi va olimlari Hindistonga bordilar va hind fanining dunyoning tuzilishi, unda insonning o'rni to'g'risidagi ta'limotlari va yutuqlarini o'zlashtirdilar. Hindiston o'zining bepoyon hududi, iqlim sharoitlari, relyefi, joylashishi va tuprog'i jihatidan bir necha zonaga bo'linadi. Shimoliy-g'arbiy viloyatlar qadimda qalin o'rmonlar bilan qoplangan. Hind vodiysining tuprog'i juda hosildor. Hind daryosi vodiysida mil.avv. III ming yillikda Janubiy Osiyodagi eng qadimgi shahar sivilizatsiyasi shakllandi. Hindiston shimol va shimoliy-sharqidan Osiyoning boshqa qismidan Himolay tog'lari bilan ajratilgan. Mil.avv. II ming yillikda bu yerdan turli etnik birliklar, qabilalarning yo'li o'tgan.

Hind-Gang tekisligining markaziy qismi qadimda «oriy»larning «muqaddas yeri» (Ar'yavarta) deb atalgan. Ikki buyuk daryoning oralig'ida va Gangning yuqori qismida mil.avv. I ming yillikning birinchi yarmida Veda sivilizatsiyasi shakllanadi.

Gang daryosining shimoliy-sharqiy havzasida namlik darajasi juda yuqori va xilma-xil tropik o'simliklarga ega. Mil.avv. I ming yillik o'rtalarida bu hududda keng miqyosda dehqonchilik ishlari boshlanadi. Mil.avv. I ming yillikning ikkinchi yarmida bu yerda qadimgi Hindistonning eng muhim siyosiy va madaniy markazlari vujudga keldi.

Hind-Gang tekisligini Dekan (qadimgi hind tilida «Danishna» – janub) yarim orolidan yassi tog'lar ajratib turadi. Dekan yarim orolida faqat milodiy I asr boshlarida yirik davlatlar paydo

bo'ldi. Orolning markaziy qismida Shri-Lanka (Seylon) o'rmonli tog'lik hudud joylashgan. Orolning geografik o'rnini Janubiy Hindiston qirg'og'i bilan muntazam aloqalar belgilab beradi.

Janubiy Osiyoni hozirgi aholisining katta qismi asosiy yevropoid irqiga mansub. Faqat yarim orolning janubiy qismi va Shri-Lankaning aholisi irqiy belgilariga qarab (badani, sochining qora rangi va boshqalar) avstroloidlarga yaqin turadi. Shimoliy-sharqning qator qabilalari janubiy mongoloid irqiga mansub.

Shimolda hind-yevropa tillari (hind, bengal va boshqalar), janubda dravid (masalan, tamil), Dekan va Shimoliy-Sharqiy Hindistonning qator tillari Janubiy-Sharqiy Osiyo, Tibet va Xitoyda tibet-birma va mund tillari bilan yaqin turadi. Shri-Lanka aholisining ko'pchilik qismi hind-yevropa (singal) tilida, ozchilik qismi dravid (tamil) tilida so'zlashadi.

Ma'lumki, oriy qabilalari O'rta Osiyodan Afg'oniston orqali Hindistonga mil.avv. II ming yillikda kirib keldilar. Singallar materikdan Shri-Lankaga mil.avv. I ming yillikda paydo bo'ldilar.

2. Davrlashtirish. Hindistonda olib borilgan arxeologik qazishmalar bu hududda odamlar eng qadimgi davrlarda yashaganidan dalolat beradi. Hozirgi Pokiston va Hindistonning turli hududlarida ilk paleolit madaniyatlari topildi. Xo'jalik, mehnat quollarining rivojlanishi bu hududlarda ijtimoiy munosabatlar paleolitdan mezolit va neolitga o'tishga olib keladi. XX asrning 70-yillarida Pokistonning Mehrgard hududida fransuz arxeologi J. F. Jarij o'tkazgan arxeologik qazishmalar mahalliy madaniyatlar neolit davrigacha uzoq vaqt tizimli rivojlanganini ko'rsatdi. Bu ilgari fanda mavjud bo'lgan qarashlar Hindistonda neolit boshqa Sharq hududlariga nisbatan kech boshlangan degan tushunchaning asossizligini ko'rsatdi. Hindistonda o'troq dehqonchilikning neolit manzilgohlari mil.avv. VII ming yillikdan shakllangan. Bu davrda aholi donli ekinlarni ko'p ekib, yirik shoxli qoramollarni xonakilashtiradi. O'rta Osiyo va Eron bilan madaniy aloqaga kirishadi. Shu davrlardan Hindiston qadimgi Sharq sivilizatsiyasining eng birinchi madaniyatlari qatoridan o'rin oladi. Janubiy Osiyoning qadimgi tarixi quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Eng qadimgi hind sivilizatsiyasi. Taxminan mil.avv. XXIII–XVIII asrlar bilan belgilanadi (ilk shaharlar, davlatlarning paydo bo'lishi).

2. Mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida oriylarning paydo bo'lishi. Mil.avv. II ming yillikning oxiridan – mil.avv. VII asrgacha «Veda» davri. Bu davrda yaratilgan muqaddas kitoblar «vedalar» nomi bilan mashhur.

3. «Budda davri». Mil.avv. VI–III asrlar. Budda dinining paydo bo'lish va tarqalish davri. Bu davrda iqtisodiyotning yuqori taraqqiyoti, shaharlar shakllanishi, yirik davlatlar Mauriylar umumhind davlatining tashkil topishi.

4. Mil.avv. II asrdan milodiy V asrgacha «Klassik davr» deb atalib, bu davrda Janubiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiyoti va madaniyati gullab-yashnaydigan davri.

3. Manbalar. Janubiy Osiyoga xos bo'lgan xususiyat taraqqiyotning merosiyligi va davomiyligidir. Qadimgi va o'rta asrlarda bu yerda keskin etnik o'zgarishlar yuz bermagan. Ijtimoiy munosabatlarda kasta tuzumi va madaniy an'analarning barqarorligi ko'rinib turadi. Qadimgi Hindistonning ko'pgina asarlari hozirgacha hinduizm va buddizmning muqaddas kitoblari hisoblanadi. Yozma manbalar bizgacha ko'plab yetib kelgan. Sanskrit tilini o'rganish qadimgi til grammatik asarlariga, asosan, Panini grammatikasiga (mil.avv. IV asr) asoslanadi. Adabiyot asosan diniy madhiyalar (rigveda va boshqa vedalar), marosim sharhlari, nasihatlar to'plamidan iborat.

Ijtimoiy munosabatlarni o'rganish uchun asosiy manba sifatida, diniy-axloqiy majburiyat – draxmalar («Manu qonunlari»), siyosat, san'at (Artxashastra), muhabbat to'g'risidagi (Kamasutra) maxsus traktatlardan foydalaniladi. Bu manbalarda fikrlar tarqoq, an'anaviy ruhda bayon qilingan. Shu bilan birga, bu asarlar qachon va qayerda tuzilganligini aniqlashning iloji yo'q. Adabiyotlarda tarixiy voqealar kam tilga olinadi. Tarixiy voqealar ko'p hollarda yarim afsonaviy qissalarda aks etadi. Ilk yilnomalar Milodiy I asrlarda Seylondagi budda monastirlarida tuzilgan. Davlat arxivlari, xususiy arxivlar bizgacha yetib kelmagan. Hujjatlar palma daraxti barglari, po'stloq yoki mato parchasi kabi mo'rt asosga yozilgani uchun hozirgacha saqlanib qolmagan. Ba'zi hujjatlarni hisobga olmagan qadimgi Janubiy Osiyo siyosiy tarixi bo'yicha asosli ma'lumotlar juda kam. Katta tarixiy davrlar va keng hududlarni tahlil qilish bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni faqatgina umumiy belgilarda tavsiflash mumkin.

Bizgacha faqat mil.avv. III–II ming yilliklarga oid, o'qish qiyin bo'lgan Hind sivilizatsiyasiga mansub muhrlardagi qisqa yozuv-

lar va Ashoki davri (mil.avv. III asr) yozuvlarigina yetib kelgan. Ashoki ediktleri deb atalgan yozuvlarda davlat qonun-qoidalari va diniy-axloqiy yo'riqlar berilgan. Antik mualliflar (Gerdot, Strabon, Diodor, Arrian) Hindiston to'g'risida ma'lumotlar beradilar. Salavk Nikatorning Hindistondagi elchisi Megafen uzoq vaqt Maurilar saroyida yashab, o'zining «Indika» asarini yozadi. U Hindistonning iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, davlat hokimiyati va o'sha davrdagi Hind kastachilik tuzumini tasvirlaydi. Xitoy tarixchisi Sima Syan va mil.avv. II asrda yashagan boshqa xitoy yozuvchilari qadimgi Hindiston to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Xitoy sayyohi Fan Syan (IV–V asrlar) butun Hindistonni Seylongacha kezib chiqib, o'sha davr Hindistoni to'g'risida, Chandragupta II davrida davlatning boshqaruv tizimi va ijtimoiy munosabatlar to'g'risida ma'lumot beradi.

Qadimgi Hindistonda qurilish materiali sifatida asosan yog'och ishlatilgan. Bu yog'och inshootlarining umri qisqa. Bunday inshootlar vaqt o'tishi bilan yo'q bo'lib ketgan. Tosh va jez haykaltaroshligi keyingi asrlardagina paydo bo'ldi. Yana shuningdek, Hind qadimiy obidalarini o'rganish asosan XX asrda boshlandi. Faqat ozgina shaharlar – Moxenjo-Daro va Xarappa katta maydonlarda qazib ochildi.

4. Tarixnavislik. Qadimgi Hindiston tarixi bo'yicha o'rta asrlardan boshlab tarixiy asarlar yozila boshlandi. O'rta Osiyo va arab olimlari bu o'lka tarixi, tili, e'tiqodi, urf-odat va an'analari to'g'risida asarlar yaratdilar. Mashhur qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973–1048-yillar) Hindistonda bir necha yil yashaydi. Uning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston» asarlarida qadimgi hind tarixi va madaniyati to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Yangi davrdan boshlab Yevropa olimlari Hindistonga qiziq boshladilar. Dastlab qadimgi hind tili, adabiyotini o'rganish boshlandi (Gamilton, Rozen, Lassen, Rot, Myuller va boshqalar). XVIII asr oxirida sanskrit adabiyotining yodgorliklari: «Manu qonunlari», Kalidasining «Shakuntali» dramasi, falsafiy poema «Bxagavagita» tarjima qilinadi.

Nemis tadqiqotchilari Hindistonda jahon madaniyatining ildizini qidirdilar. XIX asrning birinchi yarmida sanskrit tilining qadimgi fors, lotin va yunon tillari bilan qarindoshligi nazariyasi ilmiy asoslandi. XIX asrning o'rtalarida va ikkinchi yarmida hind adabiyotining yodgorliklari, asosan vedalarni tarjima qilish va chop qilish yuzasidan muhim ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 50 tomli «Sharqning muqaddas kitoblari» (Oksford

universitetida Maks Myuller asos solgan), ko'p tomli sanskrit lug'atlari paydo bo'ldi. XIX asrning oxirida T. Ris, Devids pali tilidagi matnlarni o'rganish va chop etish jamiyatini tashkil etdilar.

XIX asrning 70-yillari XX asrning boshlarida Hindistonda arxeologik qazishmalar boshlanadi. Hindistonning ilk arxeologik xaritasini olim A. Kanningem tuzadi. XX asrning 20-30-yillarida Janubiy Osiyoning eng qadimgi hind sivilizatsiyasi ochildi. Tizimli arxeologik qazishmalar natijasida XX asr boshlaridan arxeolog Marshall Taksila shahri xarobalarini ochdi. Xarappa va Moxenjo-Daro shaharlaridan boy topilmalardan – eng qadimgi yozuv namunalari topildi (Banerji, Marshall, Makkey va boshqalar). XX asr boshlarida hindshunoslikning umumiy konsepsiyasida yevrosentrizm an'anasi kuchli edi. Qadimgi hind jamiyati turg'un, mustaqil taraqqiyotga qobiliyatsiz, hind davlati teokratik va despotik, tafakkur chalg'itilgan va faqat diniy deb asoslashga harakat qilindi. Hindistonga makedoniyalik Aleksandr yurishining siyosiy ahamiyati bo'rttirib ko'rsatiladi. Hind madaniyatining muhim yutuqlari (epik asarlar, poeziya, teatr) yunonlardan o'zlashtirilgan deb uqtirildi.

Faqat XX asrning birinchi yarmida hind milliy tarixnavisligining juda katta tadqiqotlari bunday qarashlarning asossizligini ko'rsatdi. Hind milliy tarixnavisligi manbalarda ko'p hollarda yetarlicha tanqidiy tahlil etilmadi. Qadimgi tarix ma'lum darajada modernizatsiya qilindi. Shunga qaramasdan, qadimgi hind tarixi va madaniyati bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda qadimgi hind sivilizatsiyasining mustaqil rivojlanib, noyob bir madaniyat sifatida mukammal shakllanganligi o'z isbotini topdi.

5. Qadimgi Hind sivilizatsiyasi. XIX asrning 50-yillarida ingliz generali, ishqiboz arxeolog A. Kanningem Hindistonda arxeologik qazishmalarga boshchilik qildi. U hozirgi Pokistondagi Xarappada qadimgi shaharcha qoldiqlarini ko'zdan kechirayotganda, noma'lum yozuvlar bitilgan muhrni topdi. Rejali arxeologik qazishmalar XX asrning 20-yillarida boshlandi. Hind daryosi vodiysidan Xarappa va Moxenjo-Daro (sinxi tilida «o'liklar tepaligi») shaharlari qoldiqlari ochildi. Bu mil.avv. III-II ming yilliklarga oid fanda noma'lum bo'lgan sivilizatsiya edi. Bu keyinchalik Hindistonda oriylargacha mavjud bo'lgan Xarappa sivilizatsiyasi deb nomlandi. Janubiy Osiyoda eng qadimgi bo'lgan hind sivilizatsiyasi Hind daryosi vodiysida (hozir

asosan Pokiston hududi; taxminan, mil.avv. XXIII–XVII asrlar) paydo boʻlib, qadimgi Sharq sivilizatsiyalarining yuzaga kelishiga koʻra, xronologiya boʻyicha uchinchi hisoblanadi.

Hind daryosining gʻarbida neolit davrida (mil.avv. VII–VI ming yilliklar) aholi dehqonchilik bilan shugʻullana boshlaydi. Vodiya paxsa uyli kichik qoʻrgʻonlar paydo boʻladi. Hind arxeologi Rakxaldas Banerji 1922-yilda Hind daryosi yaqinidan qadimgi shahar xarobasini ochdi. Shahar qoldigʻi tepalik nomi bilan Moxenjo-Daro («oʻliklar tepaligi») deb ataldi. Shu yili boshqa hind arxeologi Ray Bahodir Dayaram Saxniy Gʻarbiy Panjobda Xarappa shahri xarobalarini ochdi. Keyinchalik Chanxo-Daro va Kalibangan shahar qoldiqlari qazib ochiladi. Hozirgi vaqtda hind vodiysi havzasida hind sivilizatsiyasining bir necha yuz qoʻrgʻonlari ochilgan. Hindiston sivilizatsiyasining qoʻrgʻonlarini G.Majumdara, E.Makkey, D. Marshall va M.Vilerlar ilmiy tadqiq qildilar. Natijada bu madaniyatning yuqori darajada rivojlangani toʻgʻrisida yetarli arxeologik dalillar toʻplangan. Hind sivilizatsiyasining shahar-qishloqlari ulkan hududga sochilib ketgan: shimoldan janubga 1100 km va gʻarbdan sharqqa 1600 km. Olimlarning hisobiga koʻra, eng katta shaharlarda 100 minggacha odamlar yashagan. Shaharlar savdo-hunarmandchilik markazi, maʼmuriy hokimiyat turadigan joy boʻlgan. Aholining koʻpchiligini tashkil qilgan dehqon, chorvadorlar qishloq joylarida jamoa boʻlib yashaganlar. Xarappa sivilizatsiyasining xronologiyasi mil.avv. 2500/2300 – mil.avv. 1800/1700-yillar deb koʻrsatiladi.

Xarappa sivilizatsiyasida shaharsozlik qurilish madaniyati yuqori darajada boʻlgan. Shaharlar qurilishi qatʼiy rejalashtirish asosida amalga oshirilgan. Ulkan meʼmoriy inshootlar, yozuv, oʻlchov va ogʻirlik oʻlchovlari tizimi va sanʼat asarlarini mavjudligi bu davrda davlat va jamiyat tartib-qoidalari rivojlanganligidan dalolat beradi. Asosiy markazlar qazib ochilganda, ular har tomonlama puxta tuzilgan reja asosida qurilgani koʻrinadi: koʻchalar bir-biri bilan parallel boʻlgan, toʻgʻri burchakda biri ikkinchisi bilan kesishgan, bosh koʻchalar ancha keng – 10 m gacha boʻlgan. Misol uchun, Moxenjo-Daro shahri bir necha oʻn ming kishi yashaydigan 2 kv. km maydondan iborat boʻlgan. Uylar 2 qavatli, kanalizatsiyaga ega. Barcha yirik shaharlar ikki qismdan iborat boʻlgan: shahar ustida koʻtarilgan qalʼa va «quyi shahar». Qalʼada koʻrinishidan shahar hokimiyati (baʼzi olimlarning fikricha, kohinlarning uyi ham shu yerda boʻlgan)

joylashgan. Uning yaqinida diniy marosimlar uchun xizmat qiladigan hovuz topilgan. «Quy shahar»da esa aholining asosiy qismi yashagan. Arxeologik qazishmalar shaharning ikki qismi o'rtasidagi aloqalar chek; langanligini ko'rsatadi. Oddiy aholini qal'aga kiritmaslik uchun maxsus darvozalar mavjud bo'lgan. Boy shaharliklar hatto uch qavatli uylarda yashaganlar. Aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lib, bug'doyning bir necha navi, tariq va no'xat ekilgan. Bog'dorchilik ham mavjud bo'lgan. Bir necha manzilgohlardan sholi qoldiqlari topilgan. Xarappa qal'asida ulkan g'alla ombori qurilgan. Sug'orma dehqonchilik uchun sun'iy sug'orish tizimi yo'lga qo'yilgan. Yer o'g'itlanib, yilda ikki marta hosil olingan. Yirik qoramol, qo'y, echki boqilgan.

Bu shahar sivilizatsiyasida o'ziga xos yozuvdan foydalanilgan. Hozirgacha muhr, sopol, metall buyumlarga bitilgan ko'plab yozuvlar topilgan. Olimlar 400 dan ko'proq belgilarni ajratdilar. Yozuv o'ngdan chapga tomon yozilgan. Bu sivilizatsiyaning ijodkori bo'lgan aholi protodrauid tiliga mansubligi aniqlangan.

Shahar hunarmandchiligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Kulolchilik, to'qimachilik yuqori darajada rivojlangan. Haykalchalar kichik hajmda bo'lib, hokim-kohin, yalang'och ayolning (raqqosa deb taxmin qilinadi) jez haykalchalari topilgan. To'g'ri burchakli muhrlar topilib, ularning ko'pchiligida mifologik manzaralar tasviri tushirilgan. Bu yerdan topilgan boshqa muhrlarga o'xshash buyumlar hind vodiysidan uzoq bo'lgan Bahrayn orollari, Mesopotamiya, Eron va Turkmanistondan topilgan. Bu Moxenjo-Daro va Xarappaning qadimgi Sharq sivilizatsiyalari bilan yaqin aloqada bo'lganidan dalolat beradi. Xalqaro savdo yuqori darajada yo'lga qo'yilgan. Afg'oniston, Belujiston va O'rta Osiyodan tosh va metallar olib kelingan. Sharqiy va Janubiy Hindiston, Birma bilan savdo aloqalari o'rnatilgan. Bu aloqalar quruqlik va dengiz yo'llari bilan olib borilgan. Baxrayn orolidagi qazishmalar, bu yer Hind savdogarlari boshqa Sharq savdogarlari bilan mahsulot almashadigan joy ekanligini ko'rsatadi. Lotxala (hozirgi Mumbay shahri yaqinidagi Xarappa shahri)dan topilgan muhrlarda machtali kemalar tasviri tushirilgan. Bu dengiz savdosi bo'lganligidan dalolat beradi.

Moxenjo-Daro va Xarappadan katta miqdorda jez va mis buyumlar, jumladan, boltalarning bir necha turlari, turli shakldagi pichoqlar, tig'lar va tarozi topilgan. Qilich, xanjar, nayza

va kamonlarning metall uchlari quyma va toblab yasalgan. Topilmalar ichida jez va mis oynalar ham mavjud. Oltin, kumush, mis va jezdand bilaguzuklar, uzuk va baldoqlar nihoyatda nafis tayyorlangan. Tosh asosiy xomashyo bo'lib, toshdan yorg'ichoqlar, bo'yoqlarni eritadigan idishlar tayyorlangan. Tarozi toshlari slans, kvarsit, ohaktosh, yashma va alebastrodan yasalgan. Shimoliy-G'arbiy Hindistonda kulolchilik san'ati yuqori darajada rivojlanib, tasvirli va tasvirsiz sopol buyumlar tayyorlangan. Naqshli sopol idishlar kulolchilik charxida tayyorlanib, tiniq bo'lmagan qizil rang bilan qoplab, keyin unga qora tasvir tushirilgan. Loydan yasalgan suv quvurlar, loy g'ildiraklar, urchuq qismlari, loy bilaguzuk, siyohdon, o'yinchoqlar va shamdonlar topilgan. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan tasvirlar va suyaklarga ko'ra, hind sivilizatsiyasida dehqonchilik va chorvachilik yaxshi rivoj topgan. Tur, zebu, kalta shoxli ho'kiz, buyvol, echki va it boqilgan. Fil qo'lga o'rgatilgan. Tovuq va tovus kabi parrandalar bo'lgan. Bug'doy, tariq va paxta ekilgan. Ovchilik, termachilik, baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Ho'kiz qo'shilgan aravalarda transport vositasi sifatida xizmat qilgan.

Moddiy madaniyat va san'at yodgorliklari asosida hind vodiysi aholisining diniy tasavvurlari to'g'risida tushuncha hosil qilish mumkin. Muhrlardagi tasvirlar bu yerda yashagan aholi daraxtlar, hayvonlar, osmon jismlariga e'tiqod qilganidan guvohlik beradi. Ona ma'buda haykalchasi dinning dehqonchilik xususiyatini ko'rsatadi. To'rt hayvon qurshovida log holatida turgan erkak ma'bud dunyoning to'rt tomoni hukmdori deb qaraladi.

Mil.avv. XVIII asr oxirida Xarappa madaniyati asta-sekin halokatga yuz tutadi. Hind sivilizatsiyasining siyosiy va ijtimoiy tizimi to'g'risida faqat umumiy tasavvur qilish mumkin. Qal'a va shaharlar reja asosida qurilishi davlat hokimiyati mavjudligidan darak beradi. G'alla ombori va ishchilar uchun xonalar mavjudligi bu hududning aynan Mesopotamiyadagi ibodatxonaga, davlat xo'jaligi bilan o'xshashligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasi, shaharlar va yozuvning mavjudligi, uy-joy inshootlari hajmlarining katta-kichikligi aholi o'rtasida ijtimoiy tengsizlikdan dalolat beradi. Qadimgi hind sivilizatsiyasining halokati turli hududlarda turli xil bo'lgan. Ba'zi joylarda iqlimning o'zgarishi, boshqasida turli epidemiyalar yoki tektonik o'zgarishlar sivilizatsiya halokatiga olib kelgan. Antro-

pologlarning XX asrning 70-yillaridagi suyak qoldiqlarini yangi uslub asosida tekshirishlari natijasida shahar-qishloqlar aholisining o'limi sababi bezgak (malyariya) ekanligi aniqlandi. Bu halokat oriy qabilalarining Hindistonga kelishidan bir necha asr oldin yuz bergan.

Mil.avv. XVII asrdan qadimgi Hindistonga oriylar kirib keldi. Ular Hind va Gang daryo vodiylarini egalladilar. Mahalliy aholining bir qismi Hindiston janubiga ko'chdi. Oriylar bilan qolgan qoratanli mahalliy aholining bir qismi asta-sekin bir-biri bilan aralashib ketdi. Aborigenlar oriylarning madaniy ta'siri ostiga tushdilar.

Mil.avv. XII–X asrlarda oriylar Hind-Gang tekisligining Markaziy qismini (oriylar bu hududni «O'rtalikdagi yer» Arya varta- «Oriylar yeri» deb atadilar) o'zlashtirdilar. Veda matnlari ma'lumotlari asosida hind-oriy qabilalarini sharqqa – Gang vodiysiga siljishini umumiy ko'rish mumkin. Oriylarning Gang daryosining vodiysi tomon siljishlari bir necha asrlarni qamrab olgan davomiy jarayon edi.

6. «Veda davri». Shimoliy Hindistonda ilk davlatlarning tashkil topishi (mil.avv. XIII–VII asrlar). Mil.avv. II ming yillikning oxiri – I ming yillik boshlaridagi Shimoliy Hindiston tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri «Vedalar» hind diniy adabiyotining eng qadimgi yodgorliklari hisoblanadi. Vedalar madhiyalar, qo'shiqlar, qurbonlik aytishlari, muqaddas marosimni tushuntiradigan keng asarlardan iborat to'plamlardir. Til, din va mifologiya bo'yicha ular «Avesto» bilan o'xshashdir. «Avesto» vedalari tadqiqotchilarning fikricha, oriy («ariya» so'zidan «oliyjanob») qabilalari tomonidan tuzilgan. Tuzilish bo'yicha «vedalar»: Ilk veda (mil.avv. I ming yillik boshlari) va So'nggi veda (mil.avv. IX–VII asrlar) davrlariga bo'linadi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, hind oriylari yodgorligi «Rigveda» matnlari mil.avv. XI–X asrlarda shakllangan. «Rigveda» (hind-oriylarning vedalarini eng qadimgi qismi)da uchraydigan geografik nomlarga ko'ra, u Panjobda tuzilgan. So'nggi veda matnlari shakllangan paytda oriy qabilalari Hind-Gang tekisligining butun markaziy qismiga tarqalgan edi.

«Rigveda» yaratilgan davrda oriylarda jamiyat va davlat hali shakllanmagan edi. Iqtisodiyotda yirik qoramolchilikka asoslangan chorvachilik rivojlangan. Bu davrda dehqonchilikka e'tibor berilmagan. Oriylar mis va jezdan foydalanganlar. Uy-joyni qamish va loydan qurganlar. Gang daryosining yuqori qismi,

Gang va Jamna o'rtasidagi yerlar «Mahabxarat» epik asarining syujetini tashkil qiladi. «Rigveda» davrida harbiy yo'lboshchilar aravalarda jang qilganlar. Maxabxaratda yengil jang aravalari to'g'risida eslatiladi. Jang aravalarida musobaqa – poygalar o'tkazilgan. Diniy va epik asarlarda aholining asosiy qismi to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Ijtimoiy tashkilot qabila bo'lgan. Qabila boshlig'i roja – harbiy boshliq va yo'lboshchi sifatida o'z qarindoshlari va xizmatkorlariga tayangan. Qabila uch tabaqa: kohinlar, harbiylar va oddiy jamoachilarga bo'lingan. Muhim masalalar yig'ilishda hal qilingan. Vedalarda ko'rsatilgan qo'shnilar bilan podalarni haydab ketish mumkin bo'lgan urushlar oddiy hol bo'lgan. Veda tilida «urush» (gavishta) so'zi «sigirlarni bosib olish» ma'nosini bildiradi. Ilk veda davrida qulchilik mavjud bo'lgan. Qadimda hindcha «dasa» – qulni bildirgan so'z ko'pgina veda madhiyalarida uchraydi. Dastlab asirlar qulga aylantirilgan. Veda va dostonlarda qul erkaklar kam tilga olinadi. Ayol qullar to'g'risida keyinchalik ko'p so'zlanadi. Qulchilik xonaki tusda bo'lib, veda jamiyati ham urug'-jamoat tashkiloti darajasida bo'lgan. Keyinchalik jamoa a'zolari ham qarzi uchun qul qilinganlar.

Mil.avv. IX–VII asrlardan so'nggi veda davrida iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy tuzumda keskin o'zgarishlar yuz beradi. Oriylar mahalliy aholidan shu hudud tabiati va iqlimiga mos keladigan xo'jalik faoliyatini o'rgandilar. Oriylar uchun asosiy harakatlanish vositasi bo'lgan yilqi nam tropik sharoitda ko'paymas edi. Gang chakalakzor o'rmonlarida ko'chmanchi chorvachilik qilish mumkin bo'lmagan. Bu yerda asosiy ekin tariq va sholi bo'lgan. Dehqonchilik rivojlanib, Hind-Gang vodiysida keng dalalar o'zlashtiriladi. Daraxtning qattiq yogochidan omoch yasash boshlanadi. Eshaklar asosiy yuk tortish vazifasini bajaragan. Sutli ovqat kundalik yemish bo'lgan. Bayramlarda chorva mollari mo'l-ko'l qurbonlik qilingan. Temirdan faqat kamon o'qi va nayza uchlari tayyorlangan. Uylar yog'och va bambukdan qurilgan.

Veda davri aholisi sholi, tariq, bug'doy va dukkakli ekinlarni ekkan. Sholikorlik Gang daryosi vodiysini o'zlashtirish davomida paydo bo'ladi. Olimlarning fikricha, hind-oriylarga bu o'simlik ilgari ma'lum bo'lmagan. Sholikorliukni mahalliy aholidan o'zlashtirib oladilar. Veda qabilalari uncha katta bo'lmagan, mustahkamlangan manzilgohlarda yashaganlar. Shaharlar keyinchalik paydo bo'lgan.

Erkin va to'la huquqli dehqonlar jamoani tashkil qilib, bir yoki bir necha qishloqda yashaganlar. Jamoatchilar qo'shni va qon-qarindosh aloqalar asosida birlashganlar. Jamoada eng muhim masalalar urug' yiginlarida hal qilingan. Urug' jamoasi a'zolari yig'ilib, butun jamoa nomidan asosiy marosimlar bajarilgan.

Qishloq aholisining bir qismi to'la huquqli bo'lmagan. Ular boshqa joydan ko'chib kelgan kishilar bo'lgan. To'la huquqli bo'lmaganlar xizmat ko'rsatadigan sohalar, jumladan, hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Qishloqda keskin mulkiy tabaqalanishga jamoa ichki aloqalarining o'ta mustahkamligi qarshilik ko'rsatgan edi. So'nggi veda davrida o'z-o'zini boshqarish qishloq jamoasi bilan cheklanib qoladi. Qabila va qabilalararo munosabatlardagi barcha masalalar hokim va yo'l boshchilar vakolatiga kiradi.

Mil.avv. II ming yillik oxiri – I ming yillik boshlarida Shimoliy Hindistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida jamiyatning quyidagi to'rt toifasini ko'ramiz:

1. Kohinlar; 2. Kshatriylar-qabila harbiy zodagonlari; 3. Vayshilar – savdogar, hunarmand, dehqonlar; 4. Shudra (qullar) – jamoaning pastki to'la huquqli bo'lmagan aholisi.

Har bir qatlam yopiq toifa – varna (hindcha so'zma-so'z «rang», «nav»)ga aylanadi. Har bir varna vakilining merosiy mavqeyi ularning mashg'uloti va diniy majburiyatlarini belgilagan. Braxmanlarga kohinlik va o'qituvchilik majburiyati; kshatriylarga jang qilish va boshqarish; vayshilarga qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo bilan shu'gullanish; shudralarga uch oliy varnalarga so'zsiz xizmat qilish majburiyati yuklatilgan. Bu toifaviy mavqe merosiy bo'lib o'tgan. Har bir varna uchun o'z huquqi, o'z ovqati, kiyimi, uy anjomi, kiyimining rangi va boshqalar qat'iy belgilangan edi. Braxmanlar turli varnalarni ilk odam – Purusha jismining turli qismidan (braxmanlar og'zidan, kshatriylar qo'lidan, vayshilar biqinidan, shudralar loyga botgan oyoqlaridan) yaratilgan deb o'qitar edilar. Shu sababli, qolgan uchta varnaga xizmat qilish shudralarga buyurilgan.

Brahmanlar qator imtiyozlarga ega bo'lganlar. Uni hech kim haqorat qilishi, tazyiq o'tkazishi yoki tan jarohati yetkazishi mumkin emas, aks holda brahman g'azablanib butun dunyoni yondirib yuborishi mumkin. Muqaddas matn bag'ishlanmaganlar qo'lga tushmasligi va marosimiy bulg'anmasligi uchun brahmanlarning bilimlari avloddan-avlodga og'zaki uzatiladi.

Olim brahman o'smir o'quvchilar qurshovida bo'ladi, balog'atga yetguncha ular o'z o'qituvchilari – guruhiga xizmat qiladilar, uning so'zlaridan ko'p ming bet bo'ladigan matnlarni yodlaydi. Xotirada qolishi kerak bo'lgan matn tili alohida «poklangan» («sanskrit») bo'lgan. U hech qanday o'zgarishi mumkin emas. Shu sababli aholi so'zlashadigan jonli tillardan uzoqlashib, ajralib borgan.

Qadimgi hind tarixining yangi davri Gang daryosi vodiysi bilan bog'langan. Oriylarning ilk manzilgohlari savdo-hunarmandchilik o'choqlari, siyosiy markazlarga aylandi. Mil.avv. I ming yillikda Gang vodiysida Koshala, Magadxa, Anga, Vatsa va boshqa davlatlar paydo bo'ldi. Vedalar va dostonlarda Gang vodiysidagi eng qadimgi sulola va davlatlar nomlari tilga olinadi. Mahabxarat dostonida Pandav va Kauravlar sulolalari o'rtasidagi urushlar to'g'risida hikoya qilinadi. Mayda davlatlar o'rtasida yer-suv, chorva uchun muntazam urushlar bo'lgan. Mil.avv. I ming yillik o'rtalarida Hindistonda yirik davlatlar paydo bo'ldi. Ularning ko'pchiligida alohida sulolalar hukmronligi, ayrimlarida boy-zodagonlar hukmronlik qilgan oligarxik respublikalar mavjud edi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Бонгард Левин Г.М. Индия в древности. – М.: 1985.
2. Шарма Р.С. Древнеиндийское общество. – М.: 1987.
3. Бэшем А.А. Чудо которым была Индия. – М.: 2000.

Asosiy sanalar

| | |
|------------------------------|---|
| Mil.avv. V–IV ming yilliklar | Shimoliy-G'arbiy Hindistondagi neolit madaniyati. |
| Mil.avv. XVIII asr oxiri | Xarappa madaniyatining parchalanishi. |
| Mil.avv. XXIII–XVII asrlar | Qadimgi Hind sivilizatsiyasi. |
| Mil.avv. XIII asr | Shimoliy-G'arbiy Hindistonda hindoriy qabilalarining joylashuvi. «Rigveda»ning yaratilishi. |
| Mil.avv. XI–X asrlar | Rigvedaning matnlari shakllanishi. |
| Mil.avv. IXVII asrlar | «So'nggi veda» davri. Shimoliy Hindistonda davlatlarning paydo bo'lishi, Gang vodiysining o'zlashtirishi. |
| Mil.avv. XVIII asr | Xarappa madaniyati tushkunlikka uchradi. |

UMUMHIND DAVLATINING VUJUDGA KELISHI.

«KLASSIK DAVR»

(mil.avv. II asr – milodiy V asr)

- 1. Mil.avv. VI–III asrlarda Hindiston. Ijtimoiy tuzum.**
- 2. Mil.avv. VI–III asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayot.**
- 3. «Klassik davr». Janubiy Osiyoning siyosiy tarixi (mil.avv. II asrdan – milodiy V asrgacha).**

1. Mil.avv. VI–III asrlarda Hindiston. Ijtimoiy tuzum.
Hindshunoslik adabiyotida mil.avv. VI–III asrlar buddaviylik, urbanizatsiya davri yoki magadxa-mauri davri deb ataladi. Mil. avv. I ming yillik o'rtalarida Shimoliy Hindiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar to'g'risida arxeologik va yozma manbalar, ayniqsa, budda manbalari boy ma'lumot beradi.

Mil.avv. I ming yillik o'rtalarida Shimoliy Hindistonda o'n oltita katta urug' va bir necha o'n kichik davlat paydo bo'ldi. Mil.avv. VI asr oxirida Ahmoniyalar Eroni Hind daryosi vodiysini bosib oldi. Shu vaqtdan boshlab Hindiston Old Osiyo mamlakatlari bilan yaqin madaniy aloqaga kirishadi. Bu vaqtda Hindistonning asosiy madaniy-siyosiy markazlari Gang vodiysida edi. Magadxa va Koshala Gang daryosining quyi oqimida, Gang va Yamun oralig'ida Vatsa, Avanti davlatlari o'rtasida yetakchilik uchun kurash olib bordilar. Vaqt o'tishi bilan Gang vodiysida ko'p sonli mayda davlatchalar ichidan Magadxa podsholigi birinchi o'ringa chiqib oldi. Qadimgi Magadxa (hozirgi Janubiy Bixar viloyati hududi) qulay geografik, strategik va savdo yo'llari kesishgan hududda joylashgan. Bu davlat boshqa bir necha kichik davlatchalarni birlashtirdi. Mamlakat Hindistonning ko'plab viloyatlari bilan gavjum savdo qilgan. Magadxa qazilma boyliklar, jumladan, metallga boy edi. Uning yangi qadimgi poytaxti Rajagrixa shahri edi. Magadxa podshosi Udain davrida (mil. avv 461–445-yillar) poytaxt Pataliputraga (hozirgi Patna shahri) ko'chirildi. Bu shahar butun Hindiston bo'yicha eng katta savdo-hunarmandchilik markaziga aylandi. Keyin Magadxa taxtida nand sulolasi qaror topdi va Magadxa katta

imperiyaga aylandi. Nand davlati Maurilar imperiyasini tashkil topishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Mil.avv. IV asrda Shimoliy Hindistonda Panjobdan to Bengaliyagacha bo'lgan yerlar Mauri urug'idagi magadxalik zodagon Chandragupta (mil.avv. 321–297-yillar) tomonidan bo'ysundirildi. Maurilar imperiyasining tashkil topishi Hindiston tarixida muhim tarixiy voqea bo'ldi. Qadimgi Hindiston tarixida birinchi bor chekka janubdan tashqari, ilk bor butun Hindiston hududi birlashgan davlat tarkibiga kirdi.

Antik mualliflar podsho Chandragupta makedoniyalik Aleksandr Shimoliy Hindistonda qoldirgan yunon-makedon garnizonlari va uning noiblari bilan urush olib borgani to'g'risida ma'lumot beradilar. Chandragupta Shimoliy-G'arbiy Hindistondan to Pataliputra hududlarigacha istilochilik urushlarini olib borgan. U Nand sulolasining so'nggi podshosi bilan urushda g'alaba qozondi va Magadxu hududlarini o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi.

Taxminan mil.avv. 314-yilda Chandragupta yangi Maurilar sulolasi (mil.avv. 317-yildan mil.avv. 180-yilgacha)ga asos solib, o'z mutlaq hokimiyatini o'rnatdi. Ammo uning davlati uchun Salavkiylar davlati jiddiy raqib edi. Chandragupta bu davlatning g'ayratli hukmdori Salavk Nikator bilan urush olib borishga majbur bo'ldi. Bir necha yillik urushlardan so'ng har ikki tomon o'rtasida mil.avv. 303 yoki 302-yilda tinchlik shartnomasi tuzildi. Shartnomaga ko'ra, Maurilar Aleksandr ilgari bo'ysundirgan Hindiston shimoliy-g'arbidagi ayrim viloyatlarga ega bo'ldilar (Ariya, Araxosiya, Gedrosiyaning bir qismi va Parapamisad qabilalari yerlari). Salavk buning evaziga 500 jangovar filni oldi. Hindiqush tog'i Salavkiylar va Maurilar o'rtasidagi chegaraga aylandi. Tinchlik shartnomasidan so'ng Salavk o'z elchisi Megasfenni Maurilar saroyiga yubordi. Megasfen Maurilar saroyida 5 yil yashab, Maurilar davlati davrida Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, davlat tuzumi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Chandraguptaning vorisi Bindusara mil.avv. 297–272-yillarda faol istilochilik urushlari olib borib, Afg'onistonning katta qismi, Belujiston, Shimoliy Hindiston va deyarli Dekan yarim orolini to'liq bo'ysundirdi.

Megasfendan so'ng Maurilar saroyiga Salavkiylarning navbatdagi elchisi Deymax keldi. Bu elchilik Bindusara podsholigi davriga to'g'ri keladi. Podsho Bindusara Misr bilan elchilik aloqalarini o'rnatdi. Shu sababli, Maurilar saroyiga Ptolemeyning

elchisi Dionisiy tashrif buyurdi. Bindusara mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun qator ishlarni amalga oshirdi.

Chandraguptaning nevarasi podsho Ashoki davrida (mil. avv. 272–232-yillar) Maurilar davlati gullab-yashnadi. Bu vaqtda butun Hindiston chekka janubdan tashqari yagona davlatga birlashdi. Ashoki hukmronligining sakkizinchi yili Kalingi davlatini bosib oldi. Ashoki davlat hokimiyatini mustahkamlashga harakat qildi. Uning qonunlari (ediktlar) mamlakatning turli hududlarida tosh lavhalarga yozib qo'yildi. Bu ediktlar orqali Ashoki davlatining boshqaruv tizimi, eng muhim siyosiy voqealar, podshoning ijtimoiy siyosati to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin. Umumhind davlatining hukmdori o'zini faqat Magadxa davlatining podshosi deb hisoblagan. Bosqinchilik urushlari ma'muriy apparatni to'liq almashtirish va eski siyosiy tuzumni o'zgartirishga olib kelmagan. Mamlakat asosan besh viloyat – noiblikka bo'lingan. Noibliklarni podsho xonadoni a'zolari boshqargan. Noibliklar yana kichkina ma'muriy hududlarga bo'lingan. Podsho maxsus amaldorlar (radjuklar)ni har uch yoki besh yilda bir marta viloyatlarga mahalliy hokimlar faoliyatini nazorat qilish uchun yuborgan.

Podsho hokimiyati poytaxtda oliy mansablarni egallagan zodagonlar va podsho qarindoshlaridan tuzilgan podsho kengashi bilan cheklangan. Podsholar ham o'z navbatida, urug' zodagonlari, kshatriylarning imtiyozlarini cheklashga harakat qilganlar. Ularni o'z tarafdorlari bilan almashtirishga intilganlar. Podsholar o'z qo'llariga moliyaviy boshqaruvni to'plab, davlat xazinasini to'ldirishga uringanlar.

Hindistondagi barcha davlatlarning hukmdorlari noan'anaviy dinlarga, asosan, budda diniga homiylik qildilar. Mauriylar budda dini targ'ibotiga jiddiy e'tibor berdilar. Turli mamlakatlarga budda g'oyalarini targ'ib qilish uchun missionerlar yuborildi. Ayniqsa, Hindiston bilan yaqin aloqada bo'lgan viloyatlarda budda ta'limoti tez qabul qilindi. Shri-Lankada bu jarayon jadal sur'atlar bilan kechdi.

Mahalliy tarixchilar Shri-Lankada dehqonchilik, hunarmandchilik va davlatchilikning paydo bo'lishini mil.avv. V asrda Shimoliy Hindistondan kelganlar faoliyati bilan bog'laydi. Shaxzoda Singala («Yo'lbars») ularning boshida turgan. Uning nomi bilan mamlakatdagi hukmron etnik guruh – aholi singallar deb aytila boshlandi. Arxeologik qazishmalar ham mil.avv. I ming yillik

o'rtalarida Shri-Lankada birdaniga temir asri madaniyati paydo bo'lganidan guvohlik beradi. Seylon xronikalari Ashokining ukasi maxsus missiya bilan mahalliy hokimni budda ta'limotining afzalligiga ishontirgani va tez orada bu yerda ilk budda monastirlari paydo bo'lgani to'g'risida hikoya qiladi. Shri-Lanka Ashoki davridan to shu kungacha budda dini hukmron bo'lgan mamlakatdir.

Mil.avv. IV–III asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida umumhind davlatining tashkil topishi muhim ahamiyat kasb etdi. Mamlakat miqyosida savdo-hunarmandchilik rivojlanib, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalar kuchaydi.

Bu davrda hunarmandchilik markazlari bo'lgan shaharlar gullab-yashnaydi. Pataliputra, Ujayana, Varanasa va Matxura shaharlari rivojlandi. Pataliputra shahriga mil.avv. V asrda asos solingan bo'lib, tez orada shimoliy Hindistonda Magadxa davlatining savdo-hunarmandchilik va madaniy markaziga aylandi. U Magadxa, Maurilar, Nand, Shung, Gupta davlatlarining poytaxti bo'ldi. Hunarmandlar ixtisosliklar bo'yicha joylashib, o'z birodarliklari (shreni) ga ega bo'lganlar. Ba'zi yirik ustaxonalar (verflar, qurolsozlik, zargarlik, to'qimachilik) podshoga qarashli bo'lgan. Mahsulot ishlab chiqarishda joylarning ixtisoslashuvi kuzatilgan: Magadxada sholi va metall, mamlakatning shimoli-g'arbi – tariq, yilqi, janub – qimmatbaho toshlar, marvarid va ziravorlar, g'arb – paxta va paxta mahsulotlari bilan shuhrat qozongan hokimiyat savdodan katta foyda ko'rgan. Tashqi savdo rivojlangan.

Mil.avv. V–III asrlarda iqtisodiyotning barcha sohalari o'sdi. Qishloq xo'jaligida yangi yerlar o'zlashtirildi, sun'iy sug'orish rivojlanib, ekiladigan o'simliklar soni ko'paydi. Shimoliy Hindistonning rivojlangan viloyatlarida yerga xususiy mulkchilik salmog'i o'sib bordi. Mulk merosiy bo'lib, oila boshlig'i mulkning to'la xo'jayini edi. Xo'jalikni katta yoki kichik oila yuritdi. Aholi qishloq jamoasi bo'lib yashadi. Qishloqning ichki hayoti jamoa tashkiloti orqali boshqarilib, qo'shnilar o'rtasidagi ixtiloflar odat asosida hal qilingan. Alohida hollardagina ish podsho sudiga cha borgan. Qishloq jamoasi oqsoqoli podsho hokimiyati oldida jamoaning kafolatchisi bo'lgan qishloqda dehqonlardan tashqari ularga xizmat qiladigan turli kasb egalari ham yashagan. Qishloqning shahar bilan aloqasi zaif edi. Jamoa ichida mulkiy tabaqalanish kuchli edi. Qishloq jamoalari besh yoki 10 qishloq birlashgan katta jamoani ham ba'zida tashkil qilgan. Davlat

jamoaning ichki ishlariga aralashmay, hosilning uchdan biri miqyosidagi soliq olish bilan cheklangan amaldorlarga xizmati uchun ma'lum miqdorda yer ulushi bergan. Bu davrda hunarmandchilik markazlari bo'lgan shaharlar gullab-yashnaydi. Bundan tashqari, umumhind davlati butun Janubiy Osiyoning barcha hududlari sivilizatsiyalashuvida muhim rol o'ynadi. Maurilar imperiyaning mafkuraviy asosi qilib budda dinini oldilar. Ayniqsa, Ashoki budda diniga homiylik qilib, mo'l-ko'l sovg'alar berib, biddaviylik ibodatxonalari va monastirlarini qurilishini rag'batlantirdilar. Ashokining davlat va diniy siyosati mahalliy zodagon – rojalar va brahmanlik kohinlari qarshiligiga duch keladi. Uning o'limidan so'ng maurilar sulolasi zaiflashdi. Mil.avv. 180-yillar atrofida Maurilar sulolasining so'nggi vakili o'z sarkardasi tomonidan o'ldiriladi. Yangi sulola Shunglar hokimiyat tepasiga keldi. Maurilar davlati zaiflashib, mil.avv. II asr boshlarida parchalanib ketdi. Lekin u to'g'risida xotira qoldi. Madaniy birlik – davlat paydo bo'ldi. Ashoki kapitelidagi to'rt sher hozirgi kunda Hindiston Respublikasining milliy ramzi hisoblanadi.

2.Mil.avv. VI-III asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Hind-Gang tekisligida temir qurollarning tarqalishi sun'iy sug'orish inshootlarini qurish va muntazam hosil olish imkoniyatini tug'dirdi. Hindistonning shimoliy-sharqida sug'orma dehqonchilik sharoitida asosiy ekin sholi bo'lgan. Bu davrda shaharlar aholisining soni keskin oshdi. Tovar-pul munosabatlarining o'sishi natijasida mil. avv. I ming yillik o'rtalarida tanga pul zarb qilina boshladi. Yirik shaharlarning maydoni – Udjayin va Kaushanbi – 1,5-2,5 kv. km ni tashkil etgan. Bu o'sha davrdagi eng katta yunon shaharlari maydoni bilan teng edi. Salavkiylar davlatining elchisi yunon Megasfen elchi sifatida Maurilar saroyiga kelganda, Pataliputra shahri devorlarining uzunligini 30 km deb hisobladi.

Hind afsonalarida shahar boshqaruvi va jamiyatning ijtimoiy tuzilishi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Ularda savdogarlar birlashmalari va hunarmandlarning sex tashkilotlari eslatiladi. Aholining ko'pchiligi jamoa-kasta tuzumida yashagan. Qishloqda patriarxal oila yetakchi o'rin tutgan. Oila boshlig'i bo'lgan ota yer va chorvani oila nomidan boshqargan. Ayollar jamiyatda hurmat qilinsa-da, lekin mulk huquqiga ega bo'lmaganlar. Patriarxal oilada bir necha avlod yashagan. Xususi mulkchilikning rivojlanishi mulkiy tengsizlikka olib kel-

gan. Qarzi uchun qul qilish keng tarqaldi. Faqat jamoa munosabalarining mustahkamligi bu jarayonni ma'lum darajada jilovlab turgan.

Mil.avv. I ming yillik o'rtalarida hokim (roja)lar davlat boshqaruvida shakllanayotgan ma'muriy apparat va xizmatga tortilayotgan aslzoda bo'lmagan kishilarga tayanganlar. Hokim uchun asosiy tayanch kuchi qo'shin edi. Qo'shinda yengil jang aravalari o'rnini og'ir kvadrigalar egallaydi. Otliq qo'shnlardan keng foydalaniladi. Jangovar fillardan qo'shin tuzila boshlanadi. Qo'shin endilikda muntazam xususiyatga ega bo'ldi.

3. «Klassik davr». Janubiy Osiyoning siyosiy tarixi (mil. avv. II asrdan – milodiy V asrgacha). Ijtimoiy tuzum. Mil.avv. II asr boshlarida Maurilarning so'nggi vakili hukmronligi tugab, shu vaqtdan boshlab mamlakatda uzoq siyosiy tushkunlik boshlandi. Mil.avv. 180-yilda hokimiyat yangi Shung sulolasi vakili qo'liga o'tdi (mil.avv. 180-milodiy 68-yil atrofida). Shung davlatining asoschisi Maurilar davlatining sarkardasi Pushy-amitra va uning vorisi Agnimitra Magadxalar imperiyasini to'la halokatdan saqlab qoldilar. Gang vodiysi, Panjobning sharqiy qismi, Markaziy Hindistonning bir qismi yangi davlat hududi bo'ldi. Baqtriya davlatining hujumi qaytarildi. Shunglar davrida hindu e'tiqodining qayta tiklanishi boshlanib, budda dini ta'qib ostiga olinadi. Bu davlatning so'nggi hukmdori Devaxuti o'z vaziri Vasudeva tomonidan taxtdan tushirildi. Vasudeva yangi Kanva sulolasiga asos soldi. Hindistonning shimoliy-g'arbida bir necha mayda hind-yunon davlatlari tashkil topdi. Bu yerdagi hind-yunon davlatlari podsholari ichida eng taniqlisi Menandr ismli hukmdor edi. Menandr zarb qildirgan tangalar orqali uning davlatini Gandxara, Araxosiya va Panjobning ba'zi hududlari bilan chegaralash mumkin.

Mil.avv. I asrlarda O'rta Osiyodan Hindistonga sak qabilalari kirib kelib, shimoliy-g'arbda bir necha davlatlarni barpo qildilar. Sak podsholari o'zlarini «Buyuk podsholar podshosi» deb atadilar. Yirik davlat birlashmalarida noiblik, satrapliklar joriy qilinib, hududlarda satrap (kshatrap) ancha mustaqil bo'lgan. Hind-yunon davlatlari saklarning kuchli tazyiqiga uchradi.

Milodiy I asr boshlarida Eronning shimoliy-g'arbiy hududlarida hukmronligini o'rnatgan parfiyaliklar hind-yunon va sak davlatlari hududlarini bosib ola boshladilar. Podsho Gondafor davrida Hind-Parfiya davlati kuchaydi. Ammo ular tez orada yangi qudratli sulola – kushonlar tomonidan bo'ysundirildi.

Boshqa kushonlar O'rta Osiyoda Baqtriyani egalladilar va asta-sekin o'z davlatlari hududini kengaytirdilar. Podsho Kudzula Kadfiz davrida kushonlar Araxosiya, Parfiyaning bir qismini bosib oldilar. Kudzula Kadfizning o'g'li Vima Kadfiz Hindistonni jadal istilo qilishga kirishdi va natijada o'z hokimiyatini Hind daryosining quyi oqimigacha o'rnatdi. Poytaxt hozirgi Peshovarga ko'chirilib, Hind viloyatlari davlatning asosiy qismini tashkil qildi. Kushon davlati hindlashdi. Bu jarayonni Vima Kadfiz tangalarida ko'rish mumkin. Tangalarda ma'buda Shi-va tasvirlanadi. Podsho shu xudoning nomlaridan biri bo'lgan Maxeshvara nomi bilan ulug'landi. Vima Kadfiz davrida savdo-hunarmandchilikni rivojlanishini rag'batlantirish uchun pul islohoti o'tkazilib, yangi tilla tanga zarb qilindi. Mis tanganing qat'iy nominal qiymati belgilandi. Kushon davlati Kanishka (78–123-yillar) hukmronligi davrida gullab-yashnadi. Kanishka davri to'g'risida numizmatika, «Kanishka erasi» yil hisobi yozuvlari, keyingi budda hikoyalarida juda ko'p ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Budda yozuvlarida Kanishka buddaviylikning sodiq muxlisi deb tilga olinadi. Chunki u buddaviylik dinini davlat diniga aylantirib, uni har tomonlama qo'llab-quvvatladi. Kanishka davrida davlat hududlari kengaydi. Kushon davlati tarkibiga Kanishka hukmronligi davrida Bixar viloyati, Markaziy Hindistonning ayrim viloyatlari, Narmada daryosigacha bo'lgan yerlar kirgan.

Kanishka hukmronligi davrida Kushon davlati Xitoy, Parfiya va Rim kabi qudratli davlatlar qatoriga kirgan. Kushonlar davlati bu davlatlar bilan savdo-elchilik munosabatlarini amalga oshirgan va raqobat qilgan. Antik mualliflar milodiy 99-yilda Kushon elchilarini Rimga kelgani to'g'risida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, Rimdagi imperator Trayan kolonnasida Rimga kelgan kushon elchilarining relyef tasvirlari bor. Kanishkaning vorislari davrida imperiya zaiflasha boshladi. Hindistonning turli hududlaridagi hokimlar, qo'shni kuchayib borayotgan Sosoniylar davlati Kushon davlati hududlarini bosib ola boshladi. Sosoniylar hukmdori Shopur I (241–272-yillar) Kushon davlatining g'arbiy viloyatlarini bosib olib, Sosoniylar davlati tarkibiga kiritdi. Faqat Gandxara vodiysigina Kushon davlati qo'lida qoldi (milodiy III asr oxirida). Keyin esa kushonlarning Hind viloyatlari Guptalar davlati (IV asr boshlari – VI asr o'rtalar) tarkibiga kiritildi.

Gupta davlatining mustahkamlanishi Chandragupta I hukmronligi davriga to'g'ri keladi. U «Buyuk podshohlar hokimi» unvonini olgan. Uning hukmronligi milodiy 320–345-yillarga to'g'ri keladi. Uning vorisi Samudragupta hukmronligi davrida (335–380-yillar) faol istilochilik urushlari olib borilib, Shimoliy Hindistonda o'nga yaqin davlatchalar, Dekan yarim orolida kichik o'n besh davlat tugatiladi. Magadxaga janubda Tamish shahri Kanchini, shimolda Nepal va Assam kabi chegara viloyatlar ham qaram bo'ladi. Dekan viloyati g'olibona yurishga qaramasdan, Gupta davlati tarkibiga kirmaydi. Guptalar davlatiga kirmagan janubdagi viloyatlar qaram yerlar hisoblanib, o'lpon to'lagan. G'arbiy va Shimoliy-G'arbiy Hindistonning ba'zi hududlari Guptalar davlatiga qaram holda bo'lgan.

Gupta davlati Shri-Lanka bilan yaqin aloqada edi. Samudragupta davrida imperiya Sharqda qudratli davlatlardan biriga aylanadi. Ko'plab davlatlar bilan aloqalar o'rnatildi va uning ta'siri kuchaydi. Samudraguptadan so'ng taxt uning o'g'li Chandragupta II qo'liga o'tdi (380–413/415-yillar). Bu hukmdor Hind an'anasida Vikramadita (Qudrat quyoshi) nomi bilan ma'lum. Uning hukmdorligi davrida ko'plab buyuk yozuvchilar, olimlar ijod qildilar. Zamonaviy hind fanida Samudragupta II hukmronligi davri «Guptalarning oltin asri» deb ataladi. Chandragupta II o'limidan so'ng davlat zaiflashdi. Tez orada O'rta Osiyodan eftalitlarning kuchli hujumi boshlandi. Eftalitlar hukmdori Toraman davrida (490–515-yillar) eftalitlar Hindistonning ichki hududlariga kirib bordilar. Ular Sind, Rajastxon va G'arbiy Hindiston yerlarida o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. Guptalar bir necha vaqt Magadxa va boshqa hududlarda o'z hukmronliklarini saqlab qoldilar. Lekin endi bu davlat qachonlardir qudratli bo'lgan Guptalar davlatining zaif bir parchasi edi.

Dekan mamlakatlari tarixida Satavaxan sulolasi alohida o'rin tutadi. Milodiy II asrda Satavaxanlar davlati o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Uning asosiy markazlari G'arbiy Dekanda edi. III asrda bu davlat parchalanib ketdi. Janubiy eng chekka viloyatlar siyosiy tarixiga oid ma'lumotlar yo'q darajada.

Mil.avv. I ming yillik oxiri – milodiy I asrlari Hind iqtisodiyotining gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Hindlar yuqori nav po'lat ishlab chiqarishni o'zlashtirdilar. Metall san'atining noyob namunasi sifatida Sandra temir ustunini (o'tgan bir yarim ming yil davomida bu temir ustunda biror zang paydo bo'lmagan, bu yodgorlik hozirgacha yetib kelgan) ko'rsatish mumkin. Qal'alar

qurilishi bilan birga, g'or ibodatxonalarini bunyod qilish keng tarqaldi.

Turli xil tilda zarb qilingan tangalar paydo bo'ldi. Serqatnov savdo yo'llari Taksila, Madxur, Udjain va Varnasi kabi yirik shaharlarni qamrab oldi. Varnasi va Madxur ip-gazlama, shimoliy-g'arbiy hududlar vino, ot, jun matolari bilan, Udjain qimmatbaho toshlar, fil suyagi bilan, Janubiy Hindiston esa ziravorlari bilan mashhur bo'ldi. Kushon davlati paydo bo'lishi Hindistonni Markaziy Osiyo bilan aloqalari kuchayishiga va uni Buyuk Ipak yo'li savdosida faol qatnashuvi uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Mil.avv. II–I asrlarda G'arbiy va Janubiy Hindistonda Misr savdogarlari paydo bo'ldi. Hind okeani orqali Rim, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Indoneziya orollari bilan savdo aloqalari kuchaydi.

Hindistonning ijtimoiy tuzumi to'g'risida umumiy tushuncha hosil qilish mumkin. Qadimgi Hind qishlog'ida jamoa yetakchi o'rin tutgan. Butun bir qishloqni bir jamoa tashkil qilgan. Ekin yerlari oilalar o'rtasida taqsimlangan qishloq jamoasi ixtiyorida yaylov, bo'sh yerlar va o'rmonlar qolgan. Jamoa a'zolari yo'l, kanallarni ta'mirlash va qurishda ishtirok etganlar. To'la huquqli jamoa a'zolari jamoa yig'inida ishtirok etganlar.

Qishloq ichida mulkiy tengsizlik juda kuchli bo'lgan. Yer egalari boy jamoa a'zolarini tashkil qilganlar va yerlarini ijaraga berganlar. Yollanib ishlovchilar, qarzdorlar ko'p bo'lgan. Jamoada kir yuvuvchilar, qorovul, duradgor va kulollar ko'pchilikni tashkil etgan. Har bir toifadagi kishilarning mavqeyi o'zgarmas bo'lgan. Har bir hududda bir xil mavqeda bo'lgan oilalar yopiq birdamlik – kastani tashkil qilganlar. Har bir kasta endogam bo'lgan. Chunki uning a'zolari bir-biri bilan qarindosh bo'lgan. Kasta a'zolarini iqtisodiy va diniy marosimlar, urf-odatlar bog'lab turgan.

Boylar va yer egalari o'zlarini brahma – kshatriylarga mansub deb, shahar savdogar sudxo'rlari o'zlarini vayshilar deb hisoblaganlar. Mehnatkashlarning asosiy ommasi – hunarmand va dehqonlar va shudra kastasi eng og'ir ishlarni bajarganlar. Qullar qatlami turli manbalardan to'ldirilgan. Qullar (dasa)ning farzandi ham qul bo'lgan. Urushlarda asir olingan, bosib olingan aholining bir qismi qulga aylantirilgan. O'zini va o'z bolalarini qullikka sotish asosida qullar safi to'ldirilgan. Qul xo'jayinning mulki bo'lib, u meros bo'lib o'tgan, sotilgan, boshqalarga sovg'a qilingan, garovga qo'yilgan, yutqazilgan. Xo'jayin o'z qulining merosini o'zlashtirishi mumkin bo'lmagan.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Бонгард Левин Г.М. Индия эпохи Маурьев. –М.: 1978.
2. Кочетов А.Н. Буддизм. –М.: 1983.

Asosiy sanalar

| | |
|-------------------------|---|
| Mil.avv. VI–V asrlar | Temir qurollarning tarqalishi, shaharlar qurilishi va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdagi o'zgarishlar. |
| Mil.avv. V–IV asrlar | Magadxaning yuksalishi. Panini sanskrit grammatikasining yaratilishi. |
| Mil.avv. 314–180-yillar | Maurilar umumhind davlati. |
| Mil.avv. 268–231-yillar | Ashoki hukmronligi. Buddha dinining tarqalishi. |
| Mil.avv. II–I asrlar | Shimoliy-G'arbiy Hindistonga yunon-baqtriyaliklar, saklar va parfiyaliklarning bostirib kirishi. |
| Mil.avv. I–III asrlar | Dekan hududida Sataxavanlar davlatining gullab-yashnashi. Shimoliy-G'arbiy Hindistonni Kushonlar davlati tarkibiga kirishi. «Arxashastra» va «Manu qonunlari» to'plamining yaratilishi. |
| Mil.avv. 297–272-yillar | Bindusara davrida faol iste'lochilik urushlarini olib bordi. |
| Mil.avv. 272–232-yillar | Podsho Ashoki davrida Mauriylar davlati gullab-yashnashi. |
| 380–415-yillar | Chandragupta II hukmronligi. Gupta davlatining gullab-yashnashi. Kalidasi dramasi. |

QADIMGI HINDISTON MADANIYATI

1. Vedalar. 2. Hinduizm. 3. Budda dini. 4. Adabiyot. 5. Me'morchilik va san'at. 6. Fan.

1. Vedalar. Hind adabiyoti, tasviriy san'at, me'morchilikda diniy g'oyalar kuchli. Qadimgi hindlarning adabiyot, san'at, fan va falsafada erishgan yutuqlari jahon sivilizatsiyasining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. Hind sivilizatsiyasi boshqa mamlakatlar, xalqlar, ayniqsa, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq madaniyati taraqqiyotiga hayotbaxsh ta'sir qildi. Qadimgi Hind adabiyotining mashhur yodgorligi «Rigveda»ning minglab madhiyalari va so'nggi veda adabiyotlari oriylarning diniy e'tiqodlari to'g'risida boy ma'lumot beradi. Oriylar deb O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston va Hindiston hududlarida bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan xalq nazarda tutiladi.

Qadimgi Hindistonda xudolar pog'onasi mavjud bo'lmagan. Xudolar samoda yashaydi, hind Oriylari xudolar tasviriga sig'inganlar. Qurbonlik keltirish olovga moy quyish va arpa donini tanlash bilan ifodalangan. Go'yoki, qurbonlik tutun bilan samoga ko'tarilib, xudolar qurbonlikdan to'yib, yerdagi bandalariga ovqat yuboradilar.

Dastlab ibodatxonalar qurish rasm bo'lmagan. Kohinlar yopiq tabaqa bo'lgan. So'nggi veda davrida kohinlar alohida toifa – braxmanlar varnasini tashkil qilganlar va boshqa varnalardan mavqelari yuqoriligiga da'vo qilganlar. Uch varnadan birortasining to'la huquqli a'zosi bo'lish uchun faqat bu varnada tug'ilish emas, balki braxman o'qituvchining uyida o'qish va maxsus bag'ishlov marosimlaridan o'tishi lozim edi. Bag'ishlov marosimida bolaga muqaddas ip ilganlar. Bu «ikkinchi tug'ilish» hisoblangan. Shudralarga marosimda ishtirok etishga ruxsat berilmagan. «Ikkinchi tug'ilish» marosimi veda matnlarini o'qish va diniy sirlarni bilish huquqini bergan. Veda matnlarini o'qituvchidan o'quvchiga faqat og'zaki uzatganlar. Natijada vaqt o'tishi bilan ijtimoiy muhitning ta'siri ostida matnlar mazmuni o'zgarib ketgan.

2. Hinduizm. Qadimgi Hindistonning m'anaviy hayotida diniy e'tiqod muhim o'rin tutgan. Hinduizm asosiy diniy e'tiqod

edi (hozirgi kunda Hindiston aholisining 80% idan ko'prog'i shu dinga e'tiqod qiladi). Hinduizm asosini qadimgi Hindistonning arxaik e'tiqodlari: daraxtlar, tog', suv havzalari, ilon, sigir va maymun kabilarga sig'inish tashkil etadi. Hinduizmda qadimgi davrdan boshlab ma'buda onaga sig'inish an'anasi hozirgi kunda ham katta rol o'ynaydi. Hinduizmda bosh yaratuvchi xudo g'oyasi mavjud. Braxma – dunyoning yaratuvchisi va boshqaruvchisi. U yerda ijtimoiy qonunlarni o'rnatadi (dxarma), varnalarga bo'ladi va gunohkorlar, shakkoklarni jazolaydi. Vashna – himoya qiluvchi ma'bud, shiva – vayron qiluvchi ma'bud xudo Vishna u hayvonlar: sirtlon, baliq, toshbaqa yoki insonlar, odatda, qora tanli podsho yoki cho'pon (krishna) qiyofalarida namoyon bo'ladi. Vishna boshqa kichik xudolar timsoliga kirishi mumkin. Vishna, odatda, podsho tojida, ba'zida dunyo iloniday yastanib yotgan holda tasvirlanadi.

Boshqa hinduistlar bosh xudo deb, sopol parchalarini ilib olgan asket (darvish) yoki raqqos qiyofasida ifodalanadigan Shivani hisoblaydilar. Shivaga ko'pincha unga bag'ishlangan muqaddas ho'kiz hamrohlik qiladi. Qadimgi davr oxiri va hozirgi kunlarda hinduistlar Vishna va Shivaga e'tiqod qiluvchi ikki oqimga bo'linadi. Indra – chaqmoq xudosi; Varuna – dunyoda tartib va adolatni saqlovchi xudo; Agni – uy o'chog'i himoyachisi, uy va odamlarni saqlovchi xudo; Yama – u dunyo xudosi.

Hinduistlarning muqaddas matnlari vedalar hisoblanaidi. Hinduizmda ibodatxonada toat-ibodat qilish rasm bo'lgan. Bayram tantanalarining eng muhim qismi tantanali yurishlar, namoyishlar bo'lib, xudoning tasviri olib yurilgan. Ibodatxona oldida uning xizmatchilari – koinlar, raqqoslar va musiqachilar yashagan.

Hinduizm mafkurasining asosiy belgilari «Bxagavagita» («Xudo qo'shiqlari») poemasi bo'lib, «Maxabxarat» tarkibiga kiritilgan. Hinduizmning axloqida cheksiz sabr-toqat qilishga chaqiriladi. Ijtimoiy munosabatlarda inson muloqoti o'z ijtimoiy doirasi bilan cheklanishi kerak. Kasta bo'yicha kasbni o'zgartirish taqiqlanadi. Nikohni bolalikda o'qitish odati tarqalgan. Beva o'z erining jasadini gulxanda kuydirilgan paytda o'zi ham birga yonishi eng savob ish hisoblangan.

Mil.avv. 1350-yillar atrofida koinlar diniy e'tiqod qoidalari, huquq to'g'risidagi barcha hujjatlarni to'pladilar. Bu to'plam Vedalar (bilim) deb ataldi. Unda xudoga e'tiqod, qurbonlik marosimlari bayon qilindi, xudolarga tog' o'simligidan tayyorlan-

gan sharbat, guruch, sut va yog‘ ehson qilingan. Odam iste‘mol qilishi kerak bo‘lgan oziq-ovqatga alohida e‘tibor berilgan. Har bir jonivorda vafot etgan kimnidir: do‘stning, qarindoshning yoki ajdodning ruhi bo‘lish eh‘timoli borligi uchun braxmanlar go‘shltli ovqatni umuman taqiqlaganlar. Xalqning ongiga bu tushunchani qat‘iy singdirish mumkin emasligini hisobga olib, faqat qoramol go‘shltini yeyishni qat‘iy taqiqladilar. Chunki sigir muqaddas hayvon hisoblanib, uning suti va yog‘i xudolarga qurbonlik keltirilishi lozim bo‘lgan. Brahmanlar piyoz va sarimsoqdan boshqa sutli va o‘simliklardan tayyorlangan ovqatni iste‘mol qilishni tavsiya qilganlar. Kimki taqiqlangan ovqatni iste‘mol qilsa yoki boshqa gunoh qilsa, sudni kutib o‘tirmay, o‘zini-o‘zi jazolashi lozim. U ming marta duolarni takrorlashi yoki ro‘za tutishi yo o‘zini o‘ldirishi lozim. Misol uchun kim taqiqlangan ovqatni yesa, u 30 kun davomida faqat guruch yeyishi kerak. Kim mast bo‘lsa, 30 kun guruch qaynatmasini ichishi, qachonki uning ichki a‘zolarini kuydirishi kerak, shundan so‘ng uning gunohlari yuviladi. Kim sigirni tasodifan o‘ldirib qo‘ysa, u sochini qirishi, o‘ldirilgan sigirning terisiga o‘ralib, molxonaga borib sigirlarga sig‘inishi, ularga xizmat qilishi kerak. Agar Kshatriy ataylab brahmanni o‘ldirsa, o‘zini kamondan otilishi qo‘yib berishi yoki o‘lguncha o‘zini-o‘zi 3 marta olovga tashlashi kerak. Brahman uchun bu yo‘riqnomalar yanada qattiq bo‘lgan. Ularning majburiyatlari ipidan-ignasigacha belgilangan, qanday holda turib ovqatlanishlari, qo‘l va barmoqlarini qaysi qismi bilan poklanishlari, hayotning har qanday vaziyatlarida o‘zlarini qanday tutishlari ko‘rsatiladi.

3. Budda dini. Mil.avv. VI asrda Hindistonda yangi budda e‘tiqodi shakllandi. Bir necha asr o‘tgach, buddaviylik butun dunyoga tarqalib, uch dunyo dinining biriga aylandi. Siddxartxa (mil.avv. 566–486-yillar) Shakyamuni («Shak‘ya urug‘idan tarki dunyo qilgan») budda dinining asoschisi bo‘lgan. U Lumbuni (Nepal) hududda kshatriy oilasida tug‘iladi. Siddxartxa 29 yoshida bu dunyo ne‘matlaridan voz kechadi. U 7 yildan so‘ng Varanasi shahari yonida o‘z mustaqil targ‘ibotini boshlaydi va keyin esa 40 yil Gang daryosi havzasida daydib, o‘z ta‘limotini targ‘ib qiladi. U Sarnatxada (Banoras shahri yonida) ilohiy nur olib, Budda («nurlangan») nomini oldi. Hayot bu azob, hayot yerda yashash, uning lazzatlaridan bahramand bo‘lish istagida paydo bo‘ladi. Istaklardan xoli bo‘lish 8 yo‘l: to‘g‘ri qarashlarga ega bo‘lish, to‘g‘ri fikrlar, to‘g‘ri o‘zini tutish, to‘g‘ri harakat,

to'g'ri so'z, to'g'ri fikrlar namunasi, to'g'ri xotira, to'g'ri turmush tarzi, to'g'ri o'zligiga kirishga intilish lozim. Budda dini insonning axloqiga jiddiy e'tibor berdi.

Budda o'z ta'limoti bilan bevosita xalqqa maydon va bozorlarda tushunarsiz sanskritda emas, balki xalqning oddiy tilida murojaat qildi. U o'z ta'limotini brahma ta'limotiga qarshi qo'yib, yerdagi barcha odamlar tengligini targ'ib qildi. Bir-birini og'irini yengil qilish, yovuzlikka qarshi turishni aytdi. Gunoh qilgan odam uchun og'ir jazolar kerak emas, u qalban chuqur tavba qilishi lozim. Buddani oddiy xalq qo'llab-quvvatladi, uni Veshnaning bir qiyofasi deb tushundi.

Budda ta'limotining o'ziga xos xususiyati u hayotni azoblanish deb tushuntiradi. Azoblanish o'lim va kasalliklar bilanгина bog'liq emas. Budda ta'limotining mohiyati to'rt haqiqatda ifodalanadi: birinchi haqiqat – hayot, ahmoqona yoki baxtsiz hayot, lekin har qanday hayot, umuman hayot – yovuzlik, azoblanish; ikkinchi haqiqat – hayotning va qayta tug'ilishlarning sababi istak-hayotga, huzur halovatga, hokimiyat va boylikka chanqoqlik; uchinchi haqiqat yozuvlikdan hayotni qutqarish imkoniyati; to'rtinchi haqiqat – bu qutulishga erishish yo'li mutlaq tinchlanish orqali har qanday hissiyot, istaklardan tiyilish, saqlanish. Har bir dindor intilishi kerak bo'lgan oliy maqsad bu – nirvanaga erishish, ya'ni bu dunyoning har qanday huzur-halovati, orzu-istaklaridan xoli bo'lish; bunday odam boshqa qayta tug'ilmaydi.

Buddaviylikda ilk o'qituvchini tasvirlash an'anasi yo'q edi. Faqat Budda ramziga tayanadigan asosiy e'tiqod inshooti stupa – soyabon ostidagi sun'iy tepalik edi. Dindorlar stupa va undagi Budda sochi yoki tishiga chapdan o'ngga (quyosh bo'yicha) o'zini gunohlardan xoli qilish uchun bu dunyo hayotidan, oilasidan, mulkidan, tashqi an'anaviy aloqalardan, ruhiy bog'lanishlardan kechishi lozim. Buddaning izdoshlari qizg'ish kiyimda, sochlari taqir olingan. Ular qishloq va shaharlarni kezib, sadaqa so'rab yurganlar. Ularni bxikshu (gadoy) deb ataganlar.

Budda dini uchun diniy marosim hech qanday ahamiyatga ega emas edi. Dindorlar avvalgiday to'y, o'lim marosimlariga braxmanlarni chaqirar edilar. Budda matnlari mahalliy so'zlashuv tillaridan tuzilgan bo'lib, aholiga tushunarli edi. Braxmanlar esa sanskrit adabiyotini aholining juda ko'p qismidan yashirar edilar. Budda dini, ayniqsa, shahar aholisi o'rtasida keng tarqaldi. Chunki shahar paydo bo'lishining o'zi

an'anaviy urug'chilik, ijtimoiy aloqalarning yemirilishi, xususiy mulkning paydo bo'lishi, shaxsning jamoadan ajralishi bilan bog'liq edi.

Buddaviylik e'tiqodi katta davlatlar hukmdorlarining homiyli-gi ostida bo'ldi. Chunki budda matnlarida jahon hukmronligi g'oyasi ilgari surilib, qaysiki, bu hukmdor orqali adolat podsho-ligiga asos solinadi degan g'oya mavjud edi. Adolatning tarqali-shi, bir vaqtning o'zida hukmdorning hokimiyatini kuchayishi – diniy g'oyaga to'g'ri kelishini bildiradi. Dastlab budda dini xudosizlar dini edi. Chunki xudo har bir insonning qalbida, u o'zini anglab yetishi lozimligi g'oyasi kuchli edi. Keyincha-lik Buddaga nisbatan munosabat o'zgardi. Uning tasviri pay-do bo'ldi. Ibadatxonalar qurilib, Buddha ilohiy mavjudot ekan-ligi aytila boshlandi. Dunyoning oxirati va uning kelajagida qutqaruvchi Buddaning kelishi tushunchasi shakllana bosh-ladi. Xudoga sig'inish rasm-rusumlari, ibodat va qurbonlik keltirish marosimlari paydo bo'ldi, afsun o'qish, tumorlar katta ahamiyat kasb eta boshladi. Bu dunyodan voz kechgan Bud-da ta'limotining targ'ibotchilari – rohiblar din xizmatchilariga aylandilar. Buddha maktablari ikki asosiy yo'nalish: «xinayana» – «kichik arava» («qutilishning tor yo'li») va «maxayana» – «buyuk arava» («qutilishning keng yo'li») dan iborat edi. Xinayanada har bir dindor Buddha ko'rsatgan yo'l bo'yicha mustaqil borishi lozim edi. Maxayanada esa, u Buddha bo'lishga juda yaqinlash-gan bodxisattva – avliyolar yordamiga tayanish mumkin edi. Ularning birinchisi eng qadimiylikka da'vo qilib, Ashoki davri-dayoq Lanka orolida va keyin Janubiy-Sharqiy Osiyoga tarqal-di. «Buyuk arava» ta'limoti yanada kattaroq yutuqlarga erishdi. Kushon podsholari homiyli-gi ostida bu yo'nalish O'rta Osiyo orqali Eron, Xitoy, Tibet, Mongoliya va Yaponiyaga tarqaldi.

4. Adabiyot. Qadimgi Hind adabiyoti asarlarining katta qis-mi an'anaviy janrlar bo'lgan veda, epik va budda adabiyotlariga tegishli bo'lib, asrlar davomida og'zaki shaklda yashab keldi. Aynan muqaddas matnlarni eslab qolish, uzatish va talqin qi-lish lingvistika, falsafa va mantiq kabi fanlarning rivojiga sabab bo'ldi. Janubiy Osiyoda Maurilardan so'ng turli davlatlarning gullab-yashnashi dunyoviy adabiyot – drama, poeziya va pro-za, me'morchilik hamda tasviriy san'atning noyob yodgorlikla-rini yaratilishiga sabab bo'ldi. Milodiy I ming yilligi o'rtalari (Shimoliy Hindiston Guptalar davri) qadimgi Janubiy Osiyoda madaniyat taraqqiyotining yakuni bo'ldi.

Qadimgi Hind adabiyotida diniy adabiyot yodgorliklari markaziy o'rinni egallaydi. Ularning eng qadimgisi bo'lgan vedalar o'qituvchidan o'quvchiga og'zaki uzatilgan. Veda madhiyalari-ning katta qismi hinduizm dini qurbonlik rasm-rusumlariga bag'ishlangan. «Maxabxarat» (100 ming misra) va «Ramayana» (24 ming misra) epik poemalari qadimgi Hind adabiyotining haqiqiy ensiklopediyasi bo'lib, qadimgi hindlar hayotining barcha tomonlarini tasvirlaydi. Bu eposlarning obraz va syujetlari mamlakat umummilliy an'analarining tarkibiy qismiga kirib, teatr, musiqa va tasviriy san'atning asosiy syujetlari bo'lib qoldi. Har ikkala doston milodiy I asrda to'liq shakllantirilib, tuzatildi. Ular didaktik ma'noga ega diniy-falsafiy g'oyalar bilan sug'orilgan diniy mazmundagi to'plamlarni o'ziga singdirgan.

Maxabxarat poemasining asosiy syujeti – ikki podsho sulolalari – Pandavlar va Kauravlarning raqobati, Kuru dalasidagi 18 kunlik jang to'g'risidagi qissani tashkil etadi. Poema muallifi an'anaga ko'ra, donishmand Vyasa hisoblanadi. «Ramayana» qissasi asosida podsho Ramning devlar podshosi Ravan o'g'irlab ketgan sevgilisi Sitani qutqarish uchun Lanka oroliga yurishi to'g'risidagi hikoya yotadi.

Qadimgi Hindistonda adabiy ijod nazariyasi, jumladan, poeziya yuqori darajada rivojlandi. She'r yozish qoidasi batafsil ishlab chiqildi. Poetika bo'yicha traktatlar tuzildi. Poetika fanining bir necha maktablari asta-sekin paydo bo'ldi. Bu maktablarda poeziyaning mohiyati, badiiy usullar, janrlar, poetik til to'g'risida munozaralar olib borildi.

Mil.avv. I ming yillikning II yarmida budda adabiyoti shakllandi. Milodiy I–II asrlarda yashagan shoir Ashvagxosha «Budd – xacharita» (Buddaning hayot tasviri) poemasida xalq poeziyasining kuchli ta'siri seziladi. Ilmiy va didaktik ruhdagi adabiyotlardan biri bo'lgan Panini tuzgan sanskrit grammatikasi mil.avv. V–IV asrlarda yaratilgan. Bu asar mutaxassislarining fikricha, jahon fanida XIX asrgacha tilning eng yaxshi bayon qilingan asaridir. Hindistonda yozuv kechroq paydo bo'lgan. Uning ilk namunalaridan biri Ashoki yozuvlaridir.

Guptalar davrida qadimgi Hind teatri rivojlandi. Qadimgi hind teatrida diniy motivlar asosiy o'rinda turgan. Bu davrda dramaturgiya bo'yicha maxsus traktatlar paydo bo'ldi. Milodiy I asrda turli adabiy janrlarning rivoji davom etdi. Chandragupta II davrida mashhur dramaturg Shakun Kalidasi ijod qildi. U «Shakuntala» dramasi-ning muallifidir. «Panchatatra» deb atal-

gan kitobda masallar to'plandi. Uning arabcha tarjimasi «Kalila va Dimna» deb ataladi.

5. Me'morchilik va san'at. Maurilar davridan so'ng ming yil davomida hind me'morchilik va tasviriy san'atining noyob yodgorligi bo'lgan g'ordagi Ajanta ibodatxonasi (qurilish mil. avv. II asrdan milodiy VII asrigacha davom etgan) va budda monastirlari yaratildi. Ajanta ibodatxonasi 29 g'orda qurilgan budda majmuasi bo'lib, ichki devorlari va shiftlari tasvirlar bilan qoplangan. Budda hayotidan keltirilgan turli manzaralar, har xil mifologik mavzular budda afsonalarini tasvirlaydi. Bundan tashqari, kundalik hayot va saroy mavzusidagi (podsho ovi, elchilar qabuli va boshqalar) holatlar tasvirlangan. Ajanta ibodatxonasi tasvirlariga o'xshash noyob tasvirlar Shri-Lankadan ham topilgan.

Qadimda ko'p inshootlar yog'ochdan bunyod qilingani uchun ular saqlanib qolmagan. Salavkiylar elchisi Megasfen yozuvlariga ko'ra Mauriylar podshosi Chandraguptaning ulkan saroyi yog'ochdan qurilgan. Hind arxeologlari Chandraguptaning poytaxti Pataliputraning poytaxtida faqat tosh ustunlarning qoldiqlarini qazib topganlar. Milodiy I asr boshlarida qurilishda toshdan keng foydalanila boshlandi. Bu davr diniy me'morchiligi hinduizm, buddizm ibodatxonalarining g'or majmualarida o'z aksini topdi. Ana shunday g'or majmualaridan Karle (Bombey yaqini) va Ellordagi ibodatxonalaridir. Karledagi g'or ibodatxonasining balandligi 14 m, kengligi ham 14 m, uzunligi 38 m ga yaqin. Markaziy zalda tosh ustunlar, ko'plab haykallar va ibodat uchun stupa mavjud. Ellordagi g'or ibodatxonasi majmuasi qurilishi Guptalar davrida boshlanib, bir necha asrlar davom etgan.

Maurilar davridan so'ng g'isht va toshdan qurilishda keng foydalaniladi. Hozirgacha saqlangan obidalar ichida g'arbiy Hindistondagi budda monastirlari diqqatga sazovor. Yer ustidagi monastirlardan biri Sanchida bunyod qilingan. Sanchida tepalik ustida ulkan budda monastiri qurilgan. Yana bir noyob san'at yodgorligi Ashoki yozuvlari bitilgan tosh ustunlardir. Bu ustunlar mamlakatning turli viloyat va shaharlaridagi maydon, ko'chalarga qo'yilgan. Bu yozuvlarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti uchun muhim bo'lgan Ashoki qonunlari, yo'riqnomalari aks etgan.

Maurilardan so'ng haykaltaroshlikning mahalliy maktablari vujudga keladi. Ulardan eng mashhurlari Shimoliy-G'ar-

biy Hindistondagi Gandxara, Shimoliy Hindistonning markaziy qismidagi Madxur va Dekan viloyatidagi maktablardir. Milodiy I asridan Gandxara maktabida O'rta Osiyo, Ellin va Rim madaniyatlarining ta'siri yaqqol ko'rinadi. Gandxara uslubi Kushon podsholigi davrida Markaziy va Sharqiy Osiyoning budda madaniyatiga ta'sir qildi.

Madxur va Dekan maktablari Hind tasviriy san'ati an'analari bilan ko'proq bog'langan. Ana shu maktablar asosida o'rta asrlar Hind va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyati shakllandi.

6. Fan. Qadimgi hindlar matematika, astronomiya, tibbiyot va tilshunoslikda katta yutuqlarga erishdilar. Hind fanining ilmiy yutuqlari boshqa xalqlarning madaniyatiga katta ta'sir o'tkazdi. Qadimgi hind kashfiyotlari Yevropada faqat yangi davrdagina amalga oshirildi. Dunyo matematika va astronomiyasi tarixida milodiy V–VI asr boshlarida yashagan olim Ar'yabxataxa alohida o'rin egallaydi. U «pi» sonining ahamiyatini aniqladi va chiziqli tenglamani yechishning o'ziga xos yo'lini taklif qildi. Bu zamonaviy matematika yutuqlariga yaqin edi. Hind matematikasining yana bir ajoyib yutug'i nol bilan hisoblashning o'nlik tizimi yaratilishi edi. O'nlik tizim arablar tomonidan o'zlashtirilib, ular orqali boshqa xalqlarga tarqaldi. Hozir undan butun dunyo foydalanadi. Qadimgi hind raqamlarini belgilash tizimi zamonaviy nomerlash tizimini belgiladi va zamonaviy arifmetikaning asosida yotdi. Mavhum son to'g'risidagi ta'limot va raqamli tizimning yuqori darajasi ishlab chiqilishi algebra fanining yutug'i bo'ldi. Antik fanda faqat geometriyaga e'tibor berilgan edi. Qadimgi hindlar esa matematika fanini rivojlantirdilar. O'rta Osiyolik olimlardan al-Xorazmiyning matematika bo'yicha asari hind matematikasining yutuqlaridan foydalanilgan holda yaratildi va bu asar 1145-yilda lotin tiliga tarjima qilingan edi.

Zamonaviy matematikada foydalaniladigan «raqam», «sinus», «ildiz» atamaları hindlar tomonidan taklif qilingan. Astronomiya fanida ham hindlar katta yutuqlarga erishdilar. Matematika, astronomiya fanlari bo'yicha V asrda mashhur olim Ar'yabxata harakatning nisbiyligi asosida yerning o'z o'qi atrofida va quyosh atrofida aylanishini faraz qildi.

Qadimgi Hindistonda falsafa yuqori darajada rivojlandi. Falsafada materialistik oqim bo'lgan lokayata maktabi vujudga keldi. Hind materialistlari diniy «erkin bo'lish» va xudolarning

kuch-qudratlilik g'oyasiga qarshi chiqdilar. Bilimning asosiy manbasi hissiy qabul qilish deb hisobladilar. Mashhur faylasuf, targ'ibotchi Shankara Vedanta idealistik falsafa maktabini yaratdi.

Qadimgi hind tibbiyotida uzoq yashash fani – ayurveda shakllandi. Hind tabiblari inson sog'ligiga iqlimning ta'siri, o'tlarning xususiyatini o'rganmdilar. Shaxsiy gigiyena va parhezga alohida e'tibor qaratdilar. Hind tibbiyot asarlarida 300 xil jarrohlik amaliyoti va 120 jarrohlik asboblari eslatib o'tiladi. Tibet tibbiyoti qadimgi hind ayurvedasiga asoslangan.

Qadimgi Hindistonda tilshunoslik fani yuqori darajada rivojlandi. Hindlar barcha fanlar va san'atlar asosida so'z yotadi, deb hisobladilar. Mashhur tilshunos Paninining «Ashtadxyai» («Sakkiz kitob») grammatik asarida til materialini chuqur va asosli tahlil qilingan va mukammal til nazariyasi shakllantirilgan.

Qadimgi hind adabiyoti, falsafasi va madaniyati Yevropa va Amerikaning taniqli olimlari e'tiborini jalb qildi. Taniqli olimlar I. Gerder, I. Gyote, G. Getne, G. Gesse, S. Sveyg, L. Tolstoy, R. Rollan, R. Kipling va boshqalar qadimgi hind syujet va motivlaridan foydalanganlar. Gerder, Gyote, F. Shiller jahon adabiyotining yuksak namunalaridan biri bo'lgan Kalidasining «Shakuntala» dramasi o'qib, hayratga tushganlar. Bu dramani dunyo adabiyotining eng ajoyib namunalaridan biri deb e'tirof etdilar. Gyote hind afsonalari syujeti asosida bir qancha balladalarni yaratdi (ayniqsa, uning 1794-yilda yozgan mashhur «Xudo va raqqos» balladasi diqqatga sazovor). Mashhur Amerika yozuvchilari U. Emerson, G. Toro, U. Uitmeyn ijodiy faoliyatiga qadimgi hind falsafasi kuchli ta'sir o'tkazdi.

Qadimgi hind madaniyati bilan O'rta Osiyo madaniyati juda yaqin aloqada bo'ldi va bizning madaniyatimizning shakllanishida hind madaniyatining ta'siri qadimdan juda kuchli ta'sir qildi. O'z navbatida, hind madaniyati bizning ajdodlarimiz yaratgan madaniyat namunalarini o'zlashtirdi. Har ikkala buyuk madaniyatning bir-biriga hayotbaxsh ta'siri xalqlarimizni bir-biriga yaqinlashtirdi. Hind madaniyati va san'atida O'rta Osiyoning ta'siri me'morchilik san'atida yaqqol ko'rinadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Бэшем А.Л. Чудо которым была Индия. – М.: 2000.
2. Древние цивилизации / С.С. Аверинцев, В.П.Алексеев, В.Г. Ардзинба и др.: Под общ. ред. Г.М. Бонгард-Левина. – М.: Мысль, 1989.

Asosiy sanalar

| | |
|-------------------------------------|---|
| Mil.avv. I ming yillik o'rtalari | Budda dini vujudga keldi. |
| Mil.avv. I ming yillikning II yarmi | Budda adabiyoti vujudga keldi. |
| Mil.avv. V asr | Olim Ar'yabxataxa yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va uning quyosh atrofida aylanishini faraz qildi. |
| Mil.avv. 1350-yil atrofida | Kohinlar diniy e'tidoq haqidagi matnlarni yig'dilar. |
| Milodiy I asrda | «Maxabxarat» va «Ramayana» dostonlari to'liq shakllantirildi. |

QADIMGI XITOIY

1. Mamlakat va aholi. 2. Xronologiya va davrlashtirish. 3. Qadimgi Xitoy tarixi manbalari. 4. Tarixnavislik, arxeologik topilmalar. 5. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirishi, ilk davlatlarning shakllanishi. 6. Mil.avv. VIII–III asrlarda Xitoy. 7. Sin, Xan davlatlari (mil.avv. III asr – milodiy III asr).

1. Mamlakat va aholi. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi mil.avv. V–III ming yilliklarda Xuanxe daryosining oʻrta oqimida uzoq vaqt yopiq holda shakllandi. Mil.avv. I ming yillik oʻrtalaridan boshlab Yanszi daryosi havzasini ham qamrab oldi.

Xuanxe daryosi havzasi qadimda qalin oʻrmonlar bilan qoplangan. Mil.avv. IV–II ming yilliklarda Xuanxening oʻrta oqimida karkidon, tapir, bambuk kalamushlari kabi hayvonlar mavjud boʻlgan. Bambuk daraxti oʻsgan. Vodiyning yumshoq allyuvial tuprogʻi dehqonchilik uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Mil. avv. IV–III ming yilliklarda Xuanxe havzasida Yanshao madaniyatini bu yerda yashagan paleosiyo aholisini siqib chiqargan protosinotibetliklar yaratganlar. Mil.avv. I ming yillikda Xuanxening oʻrta oqimida inlar va chjoularning oʻzaro taʼsiri natijasida qadimgi Xitoy etnosi vujudga keldi. Bu etnosning shakllanishida shimolda yashagan paleosiyo va austroosiyo Janubiy Osiyo tillarida soʻzlashuvchi etnoslar ishtirok etganlar.

2. Xronologiya va davrlashtirish. Anʼanaviy Xitoy tarixnavisligi fanida Xitoy tarixini sulolalar boʻyicha davrlashtirish xarakterlidir. Shunga koʻra, afsonaviy «besh imperatorlar» davridan soʻng «uch sulola» – Sya, Shan-In (mil.avv. XVII–XIII asrlar) va Chjou (mil.avv. XI–III asrlar) davrlari boshlandi. Anʼana boʻyicha Chjou davri Chunsyu va Chjango davrlarini oʻz ichiga olgan ikki qism: Gʻarbiy Chjou (mil. avv XI–VIII asrlar) va Sharqiy Chjou (mil. avv VIII–III asrlar) ga boʻlinadi. Sin sulolasi (mil.avv. III asr) oʻrniga hukmronlik vaqti gʻarbiy va sharqiy davrlarga boʻlinadigan Xan sulolasi keladi. Mil.avv. III asr oxiri – milodiy III asr Sulolaviy davrlashtirish hozirgi tadqiqot

talablariga javob bermaydi. Shu sababli, jamiyat taraqqiyotini ishlab chiqarish kuchlari va mehnat qurollari tayyorlangan asosiy buyumlar bo'yicha bosqichlarga bo'ladigan arxeologik davrlashtirish ilmiy-amaliy jihatdan asosli. Demak, Xitoyda «uch sulola»dan oldingi davr neolit davriga to'g'ri keladi. Shan-In davrida qadimgi Xitoy jamiyati jez davriga kirdi. Chunsyu davri (mil.avv. VI–V asrlar) oxirida qadimgi Xitoyda temir davri boshlanadi.

Qadimgi Xitoy tarixini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti asosida quyidagicha davrlashtiriladi:

1. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va ilk davlatlarning vujudga kelishi (mil.avv. II ming yillik).

2. Mil.avv. VIII–III asrlarda qadimgi Xitoy.

3. Xitoyda birinchi markazlashgan davlat – Sin imperiyasi (mil.avv. 221–207-yillar).

4. Qadimgi Xitoy II–VIII asrlarda.

3. Qadimgi Xitoy tarixi manbalari. Qadimgi Xitoy tarixiga oid juda ko'p aniq davrlashtirilgan yozma yodgorliklar mavjud. Bu bizgacha kitob holda yetib kelgan tarixiy asarlardir. Yozma manbalar ichida qadimgi Xitoy yilnomalari, eng avvalo, Lu podsholigi davrida tuzilgan, mil.avv. VIII–V asrlar voqealari yoritilgan «Chunsyu» yilnomasi muhim ahamiyatga ega. «Chunsyu» matni bilan an'anaviy ravishda uning muallifi, qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiy nomi bog'lanadi.

Yilnomalar bilan yaqin bog'langan, eng avvalo, «Shanshu» («Shuszin» – Qo'shiqlar kitobi) nomli kitob va boshqa qadimgi Xitoy tarixiy asarlari janridir. Bu asarlarda hukmdorlar va ularning yaqinlarini so'zlari mavjud. Bizgacha yetib kelgan «Shanshu» matni qismlarigina haqiqiy deb hisoblash mumkin. Chunki bu manbaning ba'zi boblari keyingi davrlarga oid.

Mil.avv. I asrda qadimgi Xitoyda yangi tarixiy asarlar paydo bo'ldi. Bu asarlar Xitoy tarixnavisligida katta o'rin tutadi. Ana shunday asarlardan biri Sima Syanning (mil.avv. 105–90-yillarda yozilgan) «Tarixiy yozishmalar»i edi. Bu asar qadimgi Xitoy ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti to'g'risida boy ma'lumotlar beradi. Sima Syan tarixiy voqealarni yoritishda kishilar faoliyatini bayon qilish usulini tanladi. Sima Syanning tarixnavislik usulidan «Xan tarixi» muallifi Gu G'arbiy Xan (mil.avv. 206-yil) sulolasining tarixini yozishda foydalandi. Ban Gu Xitoy tarixnavisligining yangi «sulolalar tarixi» nomini olgan janr asoschisi bo'ldi. Xitoy tarixini arxeologik o'rganishda amalga oshirilgan

ishlar muhim ahamiyatga ega. Arxeologik qazishmalar natijasida ilk Shan davriga oid Ermitou shahri, Chansha yaqinidan boy qabrlar (mil.avv. III asr) topilgan.

4. Tarixnavislik, arxeologik topilmalar. An'anaviy Xitoy tarixnavisligida ikki o'ziga xos xususiyat ajralib turadi: Xitoy madaniyatining boshqa qo'shni madaniyatlardan ustunligi; Xitoy davlatchiligining kelib chiqishini afsonalarga bog'lab o'ta qadimiylashtirish. Xitoy tarixini o'rganishni o'rta asrlarda yapon olimlari boshlab berdilar. Yaponiyada Xitoy tarixini barcha davrlari o'rganildi. Mashhur xitoyshunos olim Kaydzuka Sigeki qadimgi Xitoy davlatlarining shakllanishiga oid kapital tadqiqotlar muallifi hisoblanadi.

Yevropada Xitoy tarixini o'rganishda fransuz tadqiqotchilari katta yutuqqa erishdilar. XX asr boshlarida E. Shavann Sima Syanning «Tarixiy yozishmalar»ni tarjima qila boshladi. Mashhur sharqshunos, fransuz olimi A. Maspero o'zining «Qadimgi Xitoy» nomli kapital asarini yaratdi. AQShda XX asrning 60-yillari oxirida «Qadimgi Xitoy tarixini o'rganish» xalqaro jamiyati tashkil topdi (AQShda kelib chiqishi xitoylik bo'lgan olimlar Xitoy tarixini o'rganadilar). Amerikalik olim Rixtgofenning ilgari surgan nazariyasi qadimgi Xitoy madaniyatini kelib chiqishiga ko'ra, Xitoy xalqining ajdodlari Xitoy hududiga qadimgi davrlarda O'rta Osiyodan yoki Sharqiy Turkistondan (hozirgi G'arbiy Sinzyan) ko'chib kelganlar. Rixtgofen nazariyasini uning tarafdorlari quyidagi dalillar bilan asosladilar:

1. Xitoy hududida ilk odamlarning suyaklari topilmagani;
2. Shimoliy Xitoyning turli hududlaridan topilgan neolit davri naqshli sopol buyumlari keyingi davr Xitoy keramikasidan butunlay farq qiladi va o'xshash emas. U o'z tipiga ko'ra, Tripole naqshli keramikasiga yaqinlashadi.
3. Qadimgi Xitoy mifologiyasida «bizning ajdodlar g'arbdagi tog'lardan keldilar» deb to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatiladi.

XIX asrning oxirida arxeologlar mil.avv. XI–V asrlarga oid In va Chjou sulolalariga tegishli jez ko'zalarga tushirilgan yozuvlar, hayvon suyaklari va toshbaqa qalqonidagi bitiklarni topdilar.

Shved geologi G. Anderson 1914-yilda ilk bor Xitoyda paleolit va neolit yodgorliklarini topdi. Fransuzlar Suyyuan provinsiyasidan mustye qurollari va neandertal odamning tishlarini topdilar. XX asrning 20-yillarida yosh Xitoy olimi Pey Ven-Chjun Pekindan 50 km janubiy-g'arbda joylashgan Chjou-

koudyan qishlog'i yaqinidagi g'ordan eng qadimgi odamlardan biri bo'lgan sinantrop qoldig'ini va quyi paleolit tosh qurollarini topdi. Shu yillarda Anderson Xenan provinsiyasidan neolit davri manzilgohi va bu yerdan yerto'lalar, silliqlangan tosh qurollari, naqshli loy idishlarni topdi. Bu madaniyat topilgan qishloq nomi Yanshao madaniyati deb ataldi. Bu madaniyatning so'nggi bosqichida mis buyumlar paydo bo'ladi.

1930-yil Shandun provinsiyasidan neolit madaniyati manzilgohi ochildi. Bu yerda qora va sariq rangli silliqlangan idishlar topildi. Bu madaniyatning Yanshao madaniyatidan farqli tomoni shundaki, bu yerdan topilgan sopol buyumlarda naqshlar yo'q. Bu Lunshan madaniyati nomini oldi. Bu madaniyatga tegishli Chenszyay manzilgohi mustahkam devor bilan o'rab olingan.

5. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi, ilk davlatlarning shakllanishi. Yuqori paleolit davrida (mil.avv. 50 ming yillar atrofi) Xitoyda mongoloid irqiga mansub odamlar yashagan. Xitoy shimolidan Xuanxe daryosi vodiysi bo'ylab ilk mongoloidlar janubga – Yanszi daryosi tomon siljib, janubdan kelgan avstraloidlar bilan to'qnashdilar. Ming yillar davomida bu guruhlarining bir-biri bilan aralashib ketishi natijasida mongoloid irqiga mansub hozirgi xitoyliklarning ilk ajdodlari – neolit odami shakllandi. Janubiy Xitoy va Janubiy Xitoy dengizi qirg'oq bo'yi hududlarida qadimgi Indoneziya, Ve'tnam qabilalariga mansub antropologik tip – minyu, mavzeyeye shakllanib, ular hozirgi Xitoyning kichik etnik guruhlarining ajdodlari hisoblanadi.

Mil.avv. IV–III ming yilliklarda Xuanxe daryosining o'rta oqimida Yanshao madaniyati tipidagi neolit manzilgohlari vujudga keldi. Dehqonchilik, cho'chqa va it boqish asosiy mashg'ulot bo'lgan. Maxsus o'choqlarda 1400 haroratda idish-tovoqlar toblanadi.

XX asrning 70-yillarida Xitoyning shimoliy-sharqida lunshan madaniyati topildi. Bu madaniyat mil.avv. XXIV–XVI asrlarni o'z ichiga oladi. Kulolchilik charxi paydo bo'ladi. Kulrang va qora rangli idishlar tayyorlanadi. Qo'y, sigir boqiladi. Mil.avv. III ming yillikning ikkinchi yarmida kulolchilik charxi yordamida dehqonchilikda o'roq va pichoqning takomillashgan shakli vujudga keldi. Ijtimoiy tabaqalashuv jarayoni tezlashdi. Eng qadimgi bronza davri buyumlari (mil.avv. II ming yillikning birinchi yarmi) Ermitou tipidagi manzilgohlardan topilgan.

Maydoni 4 km² bo'lgan manzilgohda saroyga o'xshash katta inshoot topilgan. Xitoy an'anasiga ko'ra Xitoydagi ilk davlat

Syadan boshlanadi (mil.avv. 2205–1766-yillar). Lekin bu davrga oid maʼlumotlar yoʻq. Keyingi In davri (mil.avv. XVII–XIII asrlar)da poytaxt Shan shahri hozirgi Anyan yaqinida mil.avv. XV asrda paydo boʻladi, in davlati bir necha oʻn qabilalar birlashmasi boʻlgan. Birlashmani in qabilasining yoʻlboshchisi Van boshqargan. Uning hokimiyatining tayanchi oqsuyak-zodagon boʻlgan. Van qoʻshini oqsuyak zodagonlarning jang aravalari, piyodalar hamda boshqa ittifoqchi qabilalarning koʻngillilaridan iborat boʻlib, bu qoʻshin bilan boʻysunmagan qoʻshni qabilalar ustiga yurishlar qilingan. Yurishlarda olingan asirlar ajdodlarga qurbonlik qilingan, oʻlja qabila boshliqlari oʻrtasida taqsimlangan. Urugʻ-qabila boshqaruvi uning oqsoqoli va urugʻ zodagonlari qoʻlida boʻlgan. Urugʻ-qabilaning asosiy qismi – oddiy jamoachi dehqonlardan iborat boʻlgan. Ular jamoaga tegishli yerlarda mehnat majburiyatini oʻtab, olingan hosilning bir qismini zodagonlarga berganlar. Ilk shaharlarda turli kasb egalari boʻlgan aholi yashagan. Mil.avv. XIV–XI asrlarda Oʻrta Xitoyda In davrida ilk shaharlar paydo boʻldi. Jez qurollarining paydo boʻlishi, shaharlar va yozuvning yuzaga kelishi eng muhim yutuq boʻldi. Jezdan qurollar va marosim koʻzalari tayyorlangan. Jez quyish sanʼat darajasiga koʻtarilgan. Bu davrdagi ijtimoiy tabaqalanish izlarini In qabrlarida koʻrish mumkin. In davlati tepasida van (hokim) turgan. Van bir vaqtning oʻzida oliy kohin vazifasini ham bajargan. In davlatining eng qudratli davri mil. avv. XIII asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan Van **U Di** davriga toʻgʻri keldi. Uning davrida Shan shahrida saroy va ibodatxonalar qurildi. Mamlakat hududi kengaydi.

Mil.avv. 1027-yilda chjoular yoʻlboshchisi U Van boshchiligi-da gʻarbiy qabilalar In davlatini agʻdarib tashladilar. Shu lahzadan Chjou sulolasi davri boshlanadi (mil.avv. XI asr – III asrlar). Chjou qabilasi yuzlab urugʻ-qabilalarning vani – hokimi edi. Lekin uning hokimiyati zaif boʻlgan. Chjoular davrining boshlanishida uning tarkibida 200-300 mahalliy hokimliklar bor edi. Bu katta-kichik hokimliklar oʻrtasida doimiy urushlar, toʻqnashuvlar oddiy hol edi. Ular bosib olgan hududlarda nisbatan katta, lekin mustahkam boʻlmagan davlat birlashmasini tashkil qildilar. Chjou davlati asoschisi U Van vafotidan soʻng uning ukasi Chjou Gun qaram inlarning qoʻzgʻolonini bostirdi. Van hokimiyatini mustahkamlash siyosatini yuritdi. Koʻpgina mayda hokimliklarni tugatib, katta davlatni tashkil qildi. Ularga podsho sulolasining vakillarini hokim etib tayinladi. Bosh-

qaruv va soliqqa tortishning yangi tizimini joriy qildi. An'ana bo'yicha bu davlat G'arbiy Chjou deb ataldi. Davlat boshida Chjou podsho urug'idan bo'lgan merosiy hukmdor Van tura-di. U o'z hokimiyatini katta o'g'liga qoldirgan. Rasman barcha yerlar davlatga ya'ni Vanga tegishli bo'lgan. Vanning kichik o'g'illari «merosiy mulklar hokimi» hisoblangan. Chjoular in-lardan jez quyish san'ati, yozuvni o'zlashtirdilar. Ular harbiy jang aravalarini ham inlardan o'zlashtirdilar. Chjou davrida jamiyat besh ijtimoiy qatlama ajralgan:

1. Van – «kishilar orasida yagona» hukmdor;
2. Chjou – mero-siy hudud hokimlari, Chjou oliy aslzodalari.
3. Dafu – urug'-qa-bila guruh-lari boshliqlari.
4. In – katta oila boshliqlari.
5. Oddiy kishilar.

U yoki bu qatlama mansublik tufayli odamning va oilasining tashqi turmush tarzi juda qat'iy belgilangan: kiyim; uyning ha-jmi, jihozlanishi, katta va kichiklarning darajasi bo'yicha o'zaro salomlashuvi, hatto qabrda o'tqaziladigan daraxt miqdori, ma-rosimlar, kiyim, ovqat odamning ijtimoiy toifadagi o'rniga aniq mos kelishi kerak edi. Chjou jamiyati qat'iy oqsuyaklar jami-yati bo'lgan. Oqsuyaklar xalqdan o'zlarini keskin ajratganlar. O'zlarining shajaralari, merosiy an'analari, madaniyatlari bilan guruhlanganlar. Bu saylanma ijtimoiy qatlama kirish oson bo'lmagan. Hunar va savdo oddiy odamlarning ishi hisoblan-gan. Hatto tadbirkorlik bilan boyigan odam o'z ijtimoiy qatlam-i-dan chetga chiqa olmagan. Oddiy xalq hududiy jamoalarga birlashgan. Yer umumiy egalikda hisoblanib, oilalar o'rtasida muntazam taqsimlanishi kerak bo'lgan. Odatda, oilalar katta bo'lib, voyaga yetgan o'g'illar otaning hokimiyati ostida qolgan-lar, ota vafotidan keyin ham oila mulki bo'linmagan.

Chjou davlati etnik jihatdan ola quroq bo'lgani uchun va ular o'rtasida mustahkam iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy aloqalar mavjud bo'lmagani sababli, Van hokimiyati qonuniy ekanligini asoslash lozim edi. Van hokimiyatining ilohiyligi Chjou qabilalarida eng oliy xudo – osmon e'tiqodidan keltirib chiqarildi. Chjou Vani osmon oliy ilohining o'g'li deb e'lon qilindi. Van Osmon mam-lakatida eng oliy mulkdor, boshqalar esa uning xizmatkori edi. Shu bilan birga, «Van Chjouni o'z xizmatkori deb hisoblaydi, Chjou o'z xizmatkori deb dafuni tan oladi, dafu inni o'z xizmat-kori deb biladi» tushunchasi mavjud bo'lgan. Bu davrda ko'plab asirlar qul qilindi.

6. Mil.avv. VIII–III asrlarda Xitoy. Mil. avv. VIII asr boshlarida chjoularning Xuanxe daryosi yuqori oqimi havzasida yashagan jun qabilalari bilan to‘qnashuvi kuchaydi. Jun qabilalari kelib chiqishi chjoularga qarindosh edi. Lekin ular turmush tarzi va xo‘jalik yuritish shakli bilan bir-biridan farq qilgan. Yu-van davrida (781–771-yillar) yarim ko‘chmanchi junlar bilan hal qiluvchi to‘qnashuv yuz berdi. Merosiylar yerni mulklarining ko‘payishi, chjuxou (merosiylar hudud hokimlari) mustaqilligining kuchayishi Van hokimiyatini zaiflashtirdi. Chjou Pix-van isyonchi chjouxoular va junlar hujumini qaytara olmadilar. U poytaxt hududini tashlab ketishga majbur bo‘ldi. Bu voqea Xitoy an‘anasiga ko‘ra, G‘rbiy Chjou davrining tugashi deb hisoblanadi.

Chjou davlati hududlari keskin qisqardi. G‘arbdagi qo‘shnilar tazyiqi ostida mil. avv. 770-yil poytaxt sharqqa – hozirgi Loyan hududiga ko‘chirildi. Shu sababli, Xitoy tarixida mil. avv. VIII–III asrlar Sharqiy Chjou davri deb ataldi. Junlardan mamlakatni himoya qila olmagani uchun hukmdor – vanning obro‘-e‘tibori keskin tushib ketdi. Endilikda uning hokimiyati zaiflashib, Chjou hokimlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga aralasha olmadilar. Chjou hokimlari amalda mustaqil siyosat yurita boshladilar. Vanning yerlari kamaytirilib, unga o‘lpon to‘lanmay qo‘yildi. Mil.avv. VIII asr oxirida Xitoyda mustaqil, bir-biri bilan o‘zaro nizolar girdobida bo‘lgan 150 ga yaqin mustaqil, yarim mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi. Bu davlatlar ichidan Xuanxening o‘rta oqimi va Buyuk Xitoy tekisligidagi davlat madaniy an‘analarining birligi bilan ajralib turadilar. Ulardan ba‘zilari o‘zlarini chjoular avlodlari, boshqalari inlar deb hisobladilar. Ular mamlakatning an‘anaviy birligi ramzi sifatida Chjou vanining oliy hokimiyatini rasman tan oldilar.

Bu davrda ijtimoiy tabaqalanish murakkablashdi. Qullarning va qaram aholining soni o‘tdi. Temir qurollar paydo bo‘lib, tovar-pul munosabatlari, ishlab chiqarish kuchlari o‘tdi. Sun‘iy sug‘orish inshootlarini qurish avj oldi. Aholi tez ko‘paydi. Shahar hunarmandchiligi, savdo rivojlanib, tanga pul paydo bo‘ldi. Van tomonidan yer-mulklar zodagonlar, harbiylarga taqsimlab berildi. Yerga xususiy mulkchilik paydo bo‘ldi. Oddiy xalq ichidan boylar paydo bo‘ldi. Endi ularni avvalgi ijtimoiy mavqeyi qondirmas edi. Qishloqda jamoachilik an‘analari zaiflashdi.

Mil. avv. VII asrdan boshlab o'zaro urushlar kuchaydi. Chjoularning Xuanxening yuqori oqimidagi jun qabilalari bilan to'qnashuvi avj oldi. Ko'chmanchilar birlashib, chjoularga katta xafv tug'dirdilar va Chjou podsholiklari ichki kurashida ishtirok etdilar.

Xuanxening o'rta oqimi va Buyuk Xitoy tekisligidagi davlatlar o'zlarining madaniy an'analari birligi bilan boshqalardan ajralib turar edi. Ulardan ba'zilari o'zlarini chjoular avlodidan deb, boshqalari inlarga mansub deb hisoblar edilar. Chjou vani Osmon o'g'li sifatida inning diniy va oliy hokimiyatini tan oldi. Bu davlatlar hududida Xuasyao madaniy-genetik birligining shakllanish jarayoni bordi va mil.avv. I ming yillik o'rtalarida o'rtalikdagi podsholiklar (Chjungo)ning barqaror etnomadaniy-siyosiy jamlanmasi paydo bo'ldi. Ularning dunyoni to'rt iqlimi varvarlaridan ustunligi tushunchasi shakllandi. Chjungojen (o'rtalikdagi podsholiklar odamlari)larning madaniy ustunligi g'oyasi qadimgi xitoyliklarning o'zligini anglashida muhim unsur bo'ldi.

Xitoy an'anasi bo'yicha mil.avv. VIII–V asrlar Chunsyu (Bahor va kuzlar) deb nomlanadi. Bu davrda Xitoyda mavjud bo'lgan besh qudratli davlatdan to'rttasi Chjou an'anasiga ko'ra mensilmaydigan varvar davlatlari bo'lgan: shimoli-g'arbdagi Jun podsholigi – Sin, Yanszining o'rta oqimida Man podsholiklari – Chu va U, ular eng janubdagi etnik jihatdan olaquroq, ve'tnamliklarning ajdodlariga qarindosh bo'lgan aholi yashagan Yue davlati bo'lgan. Bu davlatlar hududining kattaligi va taraqqiyoti bilan Xitoyning o'rta tekisligida mavjud davlatlardan qolishmagan, faqat bu davlatlar tili – madaniyati, mahalliy etnik kelib chiqishi bilan farq qilgan. Bu davlatlarni yuqori madaniy taraqqiyoti to'g'risida arxeologik topilmalar boy ma'lumot beraadi. To'rt davlatdan faqat Sin podsholigi Sharqiy Chjou vanining hokimiyatini rasmiy tan olgan.

O'rta podsholiklar qo'shni xalqlar bilan muntazam aloqada bo'ldilar. Bu aloqalar jarayonida xalqlarning assimilatsiyasi va murakkab o'zaro ta'siri yuz berdi. Jumladan, xuasyao etnik birligining shakllanishida Buyuk Xitoy tekisligida mil.avv. VII–VI asrlarda o'troqlashgan, sak-skif dunyosiga mansub Di qabilasi muhim o'rin tutadi. Kelib chiqishi Sak-skiflardan bo'lgan Di qabilasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jarayonida Xitoy tekisligida davlat va jamiyatni tashkil qildi. Di davlati qo'shni qabila-etnik birliklar bilan yaqin aloqada bo'ldi. XX asrning 70-yillarida

o'tkazilgan arxeologik qazishmalarda bu vaqtda oq Dilar tashkil qilgan Chjunshan Xebey podsholigining yuqori madaniy darajasi to'g'risida guvohlik beradigan ko'plab yodgorliklar ochildi. Topilmalar ichida mil.avv. I ming yillik o'rtalaridagi jez quyma san'atining eng yaxshi badiiy namunalari mavjud. Oq Di qabilalari Shimoliy Xitoyda boshqa davlatlarni ham tuzganlar.

Vanlar rivojlanmagan iqtisodiy sharoitda zodagonlarga xizmati uchun yer-mulk berdilar. Bunday yer-mulk vaqtinchalik foydalanishga bo'lib, Van uni qaytarib olishi mumkin edi. Bunday yerlarni meros qilib qoldirish muntazam tus oldi. Chunsyu (Bahorlar va kuzlar) davri (mil.avv. VIII-V asrlar)da urug' zodagonlari (ko'p hollarda ular podsho uyi bilan qon-qarindosh edilar) hukmron mavqega ega bo'lib, ular davlat boshqaruvidagi oliy lavozimlarni merosiy egallaganlar. Ular qo'shinning asosini tashkil qilgan jangovar jez jang aravalari egalari edilar. Ularga qarshi hukmdorlar o'z qo'shinlarini piyodalardan shakllantirdilar.

Mil.avv. VI asrdan urug' zodagonlari o'z podsholiklarida Van hokimiyatiga jiddiy tahdid tug'dirdilar. Vanlar esa oqsuyak zodagonlarning imtiyozlarini yo'q qilishga harakat qildilar. Kuchli podsholiklarda asta-sekin markazlashgan siyosiy-ma'muriy tizim shakllana boshladi. Asosiy ishlab chiqaruvchilar dehqon jamoachilari edi. Mil.avv. VI-V asrlarda jamoa yerlarini qayta taqsimlash an'anasi tugadi. Yer alohida oilalarning mulkiga aylandi. Jamoachilarning mulkiy tabaqalanish jarayoni kuchaydi. Chunsyu davri oxirida xususiy qo'rg'on, bog'-polizlarni garovga qo'yish va begonalashtirish amaliyoti boshlandi. Qarzi uchun qul qilish dastlab «o'g'il qilib olish» va «bolalarni garovga berish» shaklida bo'ldi. Qullarni belgilash uchun umumiy nom «nubey» so'zi paydo bo'ldi. Bu so'z keyingi asrlarda ham o'z ma'nosini saqlab qoldi.

Mil.avv. V-III asrlar – «Chjango», «Urushayotgan podsholiklar» davrida qadimgi Xitoyning «yetti qudratli» davlatlaridan uchta xuasyaoga (xitoy) mansub emas edi: shimoliy-sharqiy Yan, Chu va Sin edi. Chu davlati Yanszi o'rta oqimida joylashgan bo'lib, asta-sekin kuchaydi. Uning hokimi mil.avv. 704-yilda butun Chjou Xitoyi oliy hukmdorlariga tegishli bo'lgan Van unvonini qabul qildilar. Temirdan mehnat qurollari ishlab chiqish, irrigatsiya inshootlarini qurish keng yo'lga qo'yildi. Chu davlati tajovuzkor tashqi siyosat olib borib, 45 ta kichik davlatchalarni bosib oldi. Chjango davrida (mil.avv. V-III asrlar) eng katta va eng ko'p aholiga ega bo'lgan davlatga aylandi. Sin mil.avv. X

asrdan Chjou sulolasiga tobe davlat edi. Uning hududi Shensi viloyatining shimoli-g'arbi, Gansu va Sichuanning sharqiy qismini o'z ichiga olgan Chjango davrida Shan-Yan islohotlari natijasida kuchayib ketdi va boshqa qo'shni davlatlarni bosib oldi. Sin davlati Xitoy tarixida muhim iz qoldirdi. «Sinlik» etnonimi qadimgi xitoyliklar nomi bo'lib qoldi. Shunga asosan O'rta Osiyoda Chin, lotincha Sine, nemischa Xina, fransuzcha Shin, inglizcha Chayna etimologik atamalari paydo bo'ldi.

Bu vaqtda Chunsyu davri boshlarida mavjud bo'lgan ikki yuz davlatdan o'ttizga yaqini qoldi. Ularning ichidan kuchli yetti davlat (Sin, Yan, Chu, Vey, Chjao, Xan, Si) ajralib chiqdi. Chjango (urushayotgan podsholiklar) davri 200 yil davom etib, bu davrda yetti podsholik o'rtasida Xitoyda yetakchi mavqeni egallash uchun uzluksiz kurash bordi.

Mil.avv. I ming yillik o'rtalaridan qadimgi Xitoy jamiyatiga tub o'zgarishlar davri kirib keldi. Temir quyishni o'zlashtirish ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga sabab bo'ldi hamda dehqonchilik va hunarmandchilikni jadal rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratdi. Temir mehnat quollaridan keng foydalanish ishlov beriladigan yerlar maydonining kengayishiga olib keldi. Xuayxe va Yanszining yuqori oqimida ilk suv inshootlari paydo bo'ldi. Sun'iy sug'orish inshootlarini barpo qilish ko'pchilik kuchli davlatlar tomonidan o'z hududlaridagi barcha daryo vodiylarini qamrab oldi. Sug'orma dehqonchilikning kengayishi kuchli davlatlarning o'z hududlarining daryo vodiylari havzalariga to'liq yoyishga urinishlariga olib keldi. Chjango davrida yarim millionli aholisi bo'lgan savdo-hunarmandchilik shaharlari paydo bo'ldi. Pulning tanga shakli tarqala boshladi. Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikda bozorga yo'naltirilgan yirik xususiy xo'jaliklar paydo bo'ldi. Xususiy quldorlik kuchaydi. Ba'zi davlatlarda yer oldi-sotdisiga ruxsat berildi.

Mil.avv. 359–348-yillarda Sin podsholigida vazir Shan Yan islohotlar o'tkazdi. Bu islohotlarning maqsadi siyosiy markazlashtirish, mamlakatni ma'muriy-hududiy qayta qurish, kuchayib ketgan urug'-zodagonlarining qudratiga chek qo'yish, jamoaning o'zgarishi bilan soliq tizimini tartibga solish edi. Shan Yan butun mamlakat miqyosida yagona qonunchilik va sud tizimini joriy qildi. Garov va yer sotishni qonunlashtirdi. Yer ulushining hajmi cheklanishini bekor qildi. Katta oila birlashmalarini yer egaligiga aralashib, patriarxal xo'jaliklarni bo'lishni talab qildi. Eski merosiy unvonlar bekor qilindi. Zo-

dagonlarning yangi darajasi (rangi) ularning davlatga shaxsiy, birinchi navbatda, harbiy xizmatlari uchun beriladigan bo'ldi. Zodagonlarga shaxsiy qobiliyatiga qarab ma'muriy lavozimlarni egallash huquqi berildi. Bunday mavqega ega bo'lganlar tegishli belgilangan yer-mulk, qullarga ega bo'lish huquqiga ega bo'ldilar.

Tez orada unvonlar sotila boshlandi. Bu qudratli zodagonlarga hokimiyatda yuqori lavozimlarni egallashlari uchun yo'l ochdi. Shan Yan qo'shinda zodagonlarning harbiy qudrati asosi bo'lgan jang aravalarini tez harakat qiladigan otliq qo'shin bilan almashtirdi. Jez qurollar o'rnini temir qurollar egalladi. Qurol tayyorlash huquqiga faqat davlat ega bo'ldi. Sin qo'shinining jangovar qobiliyati o'sdi. Bu islohotlar natijasida Sin davlatining kuchayishi uchun qulay shart-sharoit yaratildi.

Xitoy tarixida ilk bor yerga xususiy mulkchilik huquqi qonuniylashtirildi. Yerni oldi-sotdisiga ruxsat berildi. Katta patriarxal oilalar voyaga yetgan o'g'illar soniga qarab 2-3 barobar ko'p soliq to'lashlari kerak edi. Shu tarzda xazina boyidi, oilalar bo'lindi. Davlatning butun hududi okruglarga bo'lindi, okruglar tumanlarga bo'lindi. Rayonlar tarixiy shakllangan chegaralarni hisobga olmay tuzildi. Bu mahalliy oqsuyaklar hokimiyatini yo'qotishga olib keldi. Quyi ma'muriy bo'linish bir-birini kafolatini olgan 5-10 kishidan iborat guruhgacha bo'lindi. Bunday guruh a'zolaridan birining qilmishi uchun barcha jazolangan. Kafillikka olish harbiy bo'linmalarda ham bor edi. Qonunni har qanday buzish qattiq jazolangan. Xazinani to'ldirish uchun ayrim xo'jalik sohalari davlat monopoliyasiga aylantirildi (tuz qazib chiqarish). Qo'riq yerlarga ishlov berila boshlandi. Yangi hududlar o'zlashtirildi. Shan Yan ijtimoiy faollikni rag'batlantirdi. Zodagonlikning 20 darajasi huzur-halovatda yashashga kafolat bermadi. Agar kimdir harbiy xizmat qilmagan bo'lsa, zodagonlik darajasi tortib olindi. Aksincha, davlatga harbiy xizmat ko'rsatgan oddiy odamga zodagonlik darajasi berildi. Natijada davlat xizmatiga qobilyatli odamlarning kelishiga yo'l ochildi. Islohotchi vazir keyinchalik davlat xazinasini to'ldirish uchun zodagonlik darajasini sota boshladi. Shan Yan bir oz vaqt o'tib, jinoyatda ayblanib, qatl qilindi. Lekin uning islohotlari Sin davlatini kuchaytirdi.

7. Sin, Xan davlatlari (mil.avv. III asr – milodiy III asr). Mil. avv. IV asrda boshqa davlatlarda ham davlat hokimiyatini mustahkamlaydigan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni barqaror qiladigan

islohotlar o'tkazildi. Amaldor Shan Yanning mil.avv. 350-yillarda o'tkazgan islohoti natijasida Sin davlati qudratli davlatga aylandi. Shu davrdan boshlab Sin hukmdorlari bosqinchilik siyosatini olib bordilar. Qo'shni davlatlarning ichki ziddiyatlari va o'zaro urushlaridan foydalangan Sin vanlari qadimgi Xitoyning barcha davlatlari hududlarini bosib ola boshladilar.

Mil.avv. 246-yil Sin taxtiga 10 yoshli In Chjen chiqdi. Mil. avv. 238-yil yosh podsho Chjen o'ziga qarshi fitnani fosh qildi. Mil.avv. 230-yil asosiy raqib bo'lgan Xan podsholigini, mil. avv. 228–221-yillar oralig'ida boshqa besh podsholiklarni bosib oldi. Mil.avv. 221-yil Shandun yarim orolidagi so'nggi mustaqil davlat Si podsholigi bosib olinib, Xitoy o'z tarixida ilk bor yagona davlatga birlashtirildi. Sin davlatining poytaxti Syanyan umumxitoy davlati poytaxti deb e'lon qilindi. Sin vani 28 yoshli In Chjen Sin Shixuandi («Sin sulolasining birinchi imperatori») unvonini qabul qildi. U «Bizning avlodimiz vorislik tartibiga ko'ra, Ershi («Ikkinchi»), San'shi («uchinchi») va toki o'n minglab avlodlargacha ular abadiy merosxo'r bo'ladilar», deb o'z farmonida tantanali e'lon qildi. Ammo bu davlat bor-yo'g'i 14 yil yashadi.

Sin Shixuandi bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi. Shimolga yurish qilib, syunnu qabilalarini Xuanxe havzasidan haydab chiqardi. U Janubiy Xitoy va Shimoliy Ve'tnamga yurish qildi. Qo'shin bu yurishda juda katta talafot ko'rdi. Qadimgi Ve'tnamning Namyue (Namvyet) va Oulo (Aulak) davlatlari rasman bo'ysundirildi xolos. Sin davlatining poytaxti Chyanyan imperiya poytaxtiga aylantirildi.

Sin Shixuandi butun mamlakatda Shan Yan ko'rsatmalarini yuritdi. Sin hududi zodagonlari imtiyozli mavqega ega bo'lib, barcha davlat lavozimlarini egallab oldilar. Ieroglif yozuv unifikatsiya qilinib, soddalashtirildi. Barcha to'la huquqli erkin fuqaro uchun qonun bilan «qoraboshlar» nomi belgilandi. Qullar bozori tashkil etildi.

Mamlakat hududi 36 yirik ma'muriy okrug (szyun)ga bo'lingdi. Har bir okrug uyezdlar (szyan)ga, uyezdlar volostlar (szyan)ga, volostlar esa bir necha jamoa (li)dan iborat edi. Okrug boshlig'i (szyun shou) va okrug qo'shin boshlig'i (szyun vey) imperator tomonidan tayinlangan. Okrug boshlig'i uyezd boshlig'i va ularning o'rinbosarlarini tayinlagan. Har ikki lavozimga bir xil miqdorda maosh berilgan. Jamoa oqsoqollari (fulao yoki sanlao) saylab qo'yilgan. Imperatorning ikki maslahatchisi (chensyan)

bo'lib, ular markaziy davlat apparatini boshqarganlar. Imperatorning barcha farmonlarini hayotga tadbiq qilishga mas'ul bo'lganlar.

Markazlashgan davlat apparati harbiy, moliya, sud, imperator oilasi bo'limi va inspeksiya nazorat bo'limlaridan tashkil topgan. Harbiy ishni imperiyaning barcha qo'shinlarining qo'mondoni (tayvey) boshqargan. Unga okrug harbiy boshliqlari bo'ysungan. Moliya boshqarmasi boshlig'i Chjisuneyshi deb atalgan. Sud boshqarmasi boshlig'i tinveyning vakolatiga jinoiy qonunlarni bajarish va nazorat qilish kirgan. Imperator oilasi bo'limi boshlig'i (shaofu) imperator oilasi shaxsiy ehtiyojlarining ta'minoti bilan shug'ullangan.

Qat'iy markazlashgan davlat boshqaruv apparatida eng quyi bo'g'inda jamoa oqsoqollari turar edi. Davlat jamiyat hayotining barcha jabhalarini qat'iy bir qolipga soldi. Aholidan barcha qurollar tortib olinib, qo'ng'iroqlar quyildi. Mamlakat bo'yicha yozuv, pul, tanga, o'lchov birliklari, yo'llarning kengligi, aravalarning o'lchami unifikatsiya qilindi. Beqiyos shavqatsiz ruhda bo'lgan yagona qonunchilik tizimi joriy qilindi. Jinoyati uchun butun oila jazolangan. O'lim jazosi barcha ayblar uchun qo'llanilgan. Jinoyatchilar ommaviy ravishda **katorga** ishlariga surgun qilingan. Mafkura ham bir xil qilindi; xususiy maktablar taqiqlandi; ta'lim davlat tasarrufiga o'tdi. Eskilik to'g'risida fikrlash jinoyat deb qaraldi. Konfutsiy kitoblari yoqilib, 460 olim hukmdor farmoni bilan tiriklay yerga ko'milgan. Odamlar Sin davridan oldingi davrlarni xotirasidan chiqarishi uchun Sin podsholidan oldingi davrda yozilgan asarlarni yo'q qilishga buyruq berilgan. Qadimiyatga e'tiqod qilganlari uchun yuzlab Konfutsiy ta'limoti muxlislari, olimlar jismoniy yo'q qilingan. Butun Xitoy aholisi og'ir mehnatga duchor qilindi. Misli ko'rilma-gan qurilish bo'lgan: shimoldan xunnlardan himoya vositasi bo'lgan 5 ming km uzunlikdagi Buyuk Xitoy devorini bun-yod qilishga kirishildi. Uzoq davom etgan istilochilik urush-lari, Buyuk Xitoy devori, sug'orish inshootlarining qurilishi, yo'llar, saroylar, ibodatxonalar, maqbaralar va shaharlar qu-rilishi ulkan xarajatlar, yuz minglab odamlarni qurbon qilish evaziga amalga oshirildi. Sin Shi Xuandi istilochilik urush-larini olib bordi. Shimolda 300 ming kishilik Xitoy qo'shini xunnlarga zarba berdi. Janubiy Xitoy va Shimoliy Ve'tnamni bosib olish uchun urush olib borildi. Xitoy qo'shini ulkan

yo‘qotishlar evaziga qadimgi Ve‘tnamning Namvyet va Aulak davlatlarini rasman bo‘ysundirdi.

Epon imperator saroyi va tog‘ qoyatoshida o‘yib qurilgan imperator sag‘anasida o‘rtacha odam bo‘yi balandligida bo‘lgan 6 ming jangchi haykallari joylashtirildi. Xitoyning barcha hududlari aholisi bu qurilishlarga majburan, zo‘ravonlik bilan haydab kelindi. Sin Shixuandi mil.avv. 210-yil to‘satdan 48 yoshida vafot etdi. Uning o‘limidan so‘ng butun mamlakat qo‘zg‘olonlar ichida qoldi. Qo‘zg‘olonchilar boshida dehqon yo‘lboshchilari va eski zodagonlarning vakillari turdilar. Qo‘zg‘olonchi guruhlardan birining omadli yo‘lboshchilaridan biri, oddiy jamoachilardan chiqqan Lyu Ban xalq harakati kuchlarini birlashtirdi. Harbiy ishga Sin hokimiyatining dushmanlari bo‘lgan merosiy zodagonlarni jalb qildi. Qo‘zg‘olonchilar mil.avv. 207-yil poytaxtni ishg‘ol qilib, Sin sulolasini hokimiyatdan mahrum qildilar.

Mil.avv. 202-yilda Lyu Ban Gao-szi nomi bilan imperator deb e‘lon qilindi (mil.avv. 202–195-yillar) va u yangi Xan sulolasi asoschisi bo‘ldi. Xan sulolasi davri (mil.avv. 202-yildan – milodiy 220-yillar) qadimgi Xitoy xalqi shakllanishining muhim bosqichidir. Shu davrdan boshlab xitoyliklar o‘zlarini xan – etnik nomi bilan atay boshladilar. Xan davri ikki bosqichga bo‘linadi: Katta Xan (yoki ilk Xan) davri mil.avv. 202-yildan – milodiy 8-yilgacha va Kichik Xan (yoki so‘nggi Xan) milodiy 25-yildan – 220-yilgacha. Yangi sulola Sin qonunlarini bekor qildi, lekin Sin ma‘muriy bo‘linishi va boshqaruv tizimi hamda ko‘p iqtisodiy tartib-qoidalar saqlab qolindi. Lekin mavjud siyosiy vaziyat Luyu Banni markazlashuv tamoyilidan chekinishga majbur qildi, u bir qism yerlarni o‘z safdoshlariga mulk qilib berishga majbur qildi. Ulardan eng kuchli yettitasi «Van» unvonini olib, oliy zodagon darajasiga ko‘tarildi. Lyu Banning vorislari uchun ularning separat harakatlariga qarshi kurash eng birinchi ichki siyosiy muammo bo‘ldi. Vanlarning kuchi faqat imperator U-di davrida (mil.avv. 140–87-yillar) to‘la sindirildi.

Imperator Gao-szu (Lyu Ban, mil.avv. 202–195-yillar) xalqning ahvolini yengillashtiradigan tadbirlarni amalga oshirdi. Qarzi uchun qul qilinganlar qullikdan ozod qilindilar. Jamoalarga vaqtinchalik imtiyozlar berildi. Soliqlar Sin davridagidan 10 marta kamaytirilib, hosilning 1/15 qismini tashkil etdi. Imperator Syao Ven-di (mil. avv. 180–165-yillar) xalqning ahvolini yanada yengillashtirdi. U saroy xarajatlarini kamaytirdi. Dehqonlardan olinadigan yer solig‘ini kamaytirdi.

Qarindoshining jinoyati uchun jazolash, imperatorni haqorat qilgani uchun jazo berish bekor qilindi. Xitoy iqtisodiyotining asosi bo'lgan dehqonchilikda asosiy ishlab-chiqaruvchilar dehqon jamoatchilar edi. Ular yer solig'i (hosilning 1\15, 1\30 qismi), jon solig'i, xo'jalikdan olinadigan pul soliqlariga tortildilar. Erkaklar mehnat majburiyati (yilda bir oy, uch yil davomida), harbiy (2 yillik armiya va har yili 3 kunlik garnizon xizmati) majburiyatini o'tadilar. Xan davrida hunarmandchilik va savdo sohasi rivojlandi. Poytaxt Chanyan va Linszi shaharlarida yarim milliongacha, boshqa ko'pgina shaharlarda 50 mingdan ortiq aholi yashar edi. Shaharlar o'z-o'zini boshqarish organlariga ega edilar. Qullar ko'psonli bo'lib, dehqonchilik va hunarmandchilikda hamda davlat xo'jaligida qul mehnatidan keng foydalanilgan. Har bir shaharda qul bozori mavjud edi. Mil.avv. II asrda Sariq dengizdan boshlanib, O'rtayer dengizigacha borgan Buyuk Ipak yo'li shakllandi.

Imperator U-di davri (mil.avv. 140–87-yillar) qadimgi Xitoy ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisi edi. U-di markazlashtirish siyosatini olib bordi. Vanlar va oqsuyak zodagonlarga meros mulkni faqat katta o'g'li emas, balki barcha o'g'illari o'rtasida taqsimlash joriy etildi. Natijada merosiy mulklarning hajmi keskin qisqarib, ular amalda hokimiyatdan mahrum bo'ldilar. Markaziy davlat apparati mustahkamlandi. Mamlakat hududi 14 okrugga bo'lindi. Okrug amaldorlari faoliyatini nazorat qiladigan nazorat inspektori lavozimi qayta tiklandi. Okrug boshliqlari tomonidan amaldorlik vazifasiga qobiliyatli kishilarni muntazam tavsiya etish tizimi joriy qilindi. Ma'muriy mansablarni egallash uchun davlat imtihonlari tizimi joriy qilindi. Imperatorning birinchi maslahatchisini vakolat doirasi cheklandi. Imperator devonxonasi tashkil etilib, imperator hududlarni boshqarish tizimlari faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. U di, Lyu che davrida konfutsiylikni davlatning rasmiy mafkurasiga aylanish jarayoni tugallandi.

Xitoy azaldan o'zining shimoliy qoshnisi xunlar bilan yaqin aloqada bo'lishga majbur bo'lgan. Mil.avv. 214-yilda Sin Shi Xuandining 300 ming kishilik qo'shini xunlarga qarshi urushib, ularni Inshan tog' etaklari va Xuanxe daryosi vodiysidagi o'tloq yaylovlardan mahrum qildi. Shimoliy chegaralarni xunlardan himoya qilish uchun Xitoy devorini bunyod qildi. Ammo Xitoyning bu g'alabasi vaqtinchalik edi. Mil.avv. 200-yilda xunlar xitoy qo'shinlarini to'la yanchib tashlab, imperiyani «Tinchlik va qon-qarindoshlik» shartnomasini imzolashga maj-

bur qildilar. Shartnomaga ko'ra xunlar hukmdori xitoy malikasiga uylanishi va har yili xitoyliklar sovg'a-salom (o'lpon) jo'natishlari kelishib olindi. Xan imperiyasi Mode boshchiligida kuchayib ketgan xunlarga qarshi turli diplomatik o'yinlarni olib bordi. Xitoy xunn qabila, urug'lari o'rtasida nizolar keltirib chiqarish, qo'shni qabila-etnik birliklarni xunlarga qarshi qo'yish yo'lga o'tdi. Imperator U-di chaqqon harakat qiladigan otliq qismlarini tuzdi, xunlarning jang taktikasini o'rgandi. Mil.avv. 127–119-yillardagi Xitoy qo'shinining xunlarga qarshi yurishlari g'alaba bilan tugadi. Xunlar xitoy devori atrofidagi hududlardan siqib chiqarildi.

Xunlar bilan urush yillarida Xitoy hozirgi Sinszyan (Sharqiy Turkiston) va O'rta Osiyo bilan ilk aloqalarni o'rnatdi. U-di mil.avv. 139-yilda o'z elchisi Chjan Syanni O'rta Osiyo («G'arbiy o'lka»)ga yuborgan. Elchi 10 yildan so'ng Xitoyga qaytib keldi. Xitoyliklar Farg'ona, Baqtriya va Parfiya to'g'risida bilimga ega bo'ldilar va bu mamlakatlar bilan aloqa o'rnatdilar. Ana shu vaqtda Xitoy O'rta Osiyodan uzum, poliz ekinlari, musiqa asboblari, idish-tovoqlarni o'zlashtirib oldi. Xitoy Hindistonga boradigan yo'lda Yuanyan va Sichuanni mil. avv. 109-yil Koreya yarim orolidagi Choson davlatini bosib oldi.

Imperator U-dining hukmdorlik yillari qadimgi Xitoy tarixida «oltin davr» hisoblanadi. Xan davrida qullarning soni oshdi. Xususiylar, davlat qullari, qarz uchun qul qilingan qullar mavjud edi. Manbalar bu davrdagi yirik quldor xo'jaliklari, qul bozorlari to'g'risida ma'lumot beradi. Mil.avv. II–I asrlarda xalqning iqtisodiy ahvoli yanada og'irlashdi. Yer va boshqa boyliklar oldi-sotdisi keng tus oldi. Qarzi uchun o'zi va oila a'zolarini qul qilish yanada rivojlandi. Yer katta yer egalari qo'lida to'plana boshladi. Qaram dehqonlar ko'paydi. Yer ijara haqi juda yuqorilab ketdi. Yollanma mehnat keng tarqaldi.

Milodiy birinchi yillarda yirik amaldor Van Man imperator hokimiyatiga ega bo'lib, yer egaligi va quldorlik munosabatlari islohot o'tkazdi. Bu vaqtda dehqonlarning yersizlanishi kuchayib, katta-katta yer maydonlari boy zodagonlar qo'lida to'planib qolgan edi. Van Man barcha yerlarni imperator mulki deb e'lon qilib, yer sotishni taqiqladi. Qul savdosi ham taqiqlandi. Ammo bu islohotlar amalga oshmadi. Shandun viloyatida milodiy 18-yilda «Qizilqoshlilar» xalq harakati boshlanib, poytaxt Chanyan egallanib, Van Man o'ldirildi. Hukmron tabaqa xalq harakatini uyushmaganidan foydalanib, tashabbusni o'z

qo'liga oldi. Xan sulolasining kichik vakili Guan Udini (mil. 25–57-yil) imperator deb e'lon qildi. «Qizilqoshlilar» qo'zg'olonni 29-yil bostirildi, yangi imperator qullarni tamg'alash, qulni xo'jayin tomonidan o'ldirilishini taqiqlovchi qonunlarni e'lon qildi, qulchilikni cheklovchi, xalqning ahvolini yengillashtiruvchi tadbirlarni amalga oshirdi. Shimoliy Ve'tnamda opa-singil boshchiligida Xitoyga qarshi xalq ozodlik harakati boshlanib, bu harakat 44-yilda zo'rg'a bostirildi.

Xunn davlati hukmdori Mode dun-xu, yueji, usun va qirg'izlar (gyangun)ni bo'sundirdi. Keyin esa Xitoyga bostirib kirib, imperator Lyu Banni o'lpon to'lashga majbur qildi. Mil.avv. I asrda Xitoyning makkor diplomatiyasi xunnlr orasiga nifoq soilishga erishdi. Oqibatda, xunn davlati parchalanib, davlat boshlig'i Shanyuning hokimiyati o'ta zaiflashdi. Paytdan foydalangan Xitoy xunnlarga qarshi qo'shin tortdi va ularni Xitoyga qaram qildi (mil.avv. 51-yil). Milodiy I asr boshlarida Xitoy zaiflashdi. Xunnlr o'z mustaqilligini qayta tikladilar. Lekin Xitoy yana xunnlr orasiga nifoq urug'ini sochib, milodiy 48-yilda sakkizta xunn urug'ini o'ziga qaram qildi. Xan davlati xunnlarni to'la zaiflashtirish va davlat sifatida yo'q qilish siyosatini davomiy olib bordi. Xunnlr janubiy va shimoliy qismlarga bo'linib ketdilar. Milodiy III asr boshlarida o'zlarining shimoliy urug'doshlari bilan birga 304-yilda Lyu-Xann (304–318-yillar) imperiyasini tashkil etdilar va Katta Chjao, Kichik Chjao podsholiklarga bo'linib ketdilar. Kichik Chjao 329-yil Katta Chjao davlati va shimoliy Xitoyni bo'sundirdilar. Lekin xunn hukmdori asrandi o'g'il qilib olgan Xitoy lashkarboshisi Jan Min 350-yilda hokimiyatni bosib oldi. U kichik Chjao davlatidagi barcha xunnlarni qirib tashlashga buyruq berdi. Faqat Ordosda va Nanshan (hozirgi Gansu provinsiyasi)da yashagan xunnlr tirik qoldi.

I asrning ikkinchi yarmidan Xitoy Rim bilan savdo aloqalarini o'rnatdi. Birma va Assam orqali Hindiston bilan, Koreya orqali Yaponiya bilan aloqa o'rnatildi. Bu vaqtda Xitoyda 68 mln kishi yashagan edi, bu butun dunyo aholisining 15 qismini tashkil etar edi. III asrdan Xitoyda tushkunlik boshlandi. Dehqonlarning yersizlanishi kuchaydi, pul-tovar xo'jaligi zaiflashdi, pul-tanga iste'moldan chiqib, natural mahsulot ayirboshlash keng tus oldi. Iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy tushkunlik oqibatida 184-yilda «Sariq belbog'lilar» deb nomlangan kuchli xalq harakati boshlandi. Harakat 10 yil davomida sehrigar-tabib Chjan Syao tomonidan tayyorlangan edi. Harakat davlat hokimi-

yati binolarini buzib tashladi, amaldorlarni o'ldirdi. Mulkdor tabaqalar bu harakatga qarshi birlashib, zo'rg'a bostirdilar, xalq harakati bostirilgach, g'oliblar hokimiyat uchun o'zaro kurash boshladilar. Natijada Xann imperiyasi 220-yil uch mustaqil podsholik: Vey, Shu va U davlatlariga bo'linib ketdi. Bu davr San-Go-uch podsholik davri deb ataladi (220–280-yillar). Vey davlati shimoliy-g'arbiy va markaziy Xitoy hamda hozirgi Dunbeyning janubiy qismini, U davlati Xitoyning janubi, janubi-sharqiy qismini egalladi. Shu davlati janubi-g'arbiy Xitoy, qisman Shansi va Xubey hududlarini egalladi. Shu davlati qirq uch yil yashadi, 263-yilda Vey davlatiga qo'shib olindi. Vey davlatida hokimiyatni sarkarda Sima Yan bosib olib, Szin sulolasiga (265–420-yillar) asos soldi. U davlati 280-yilda bu sulola tomonidan bosib olindi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Конрад Н.И. Избранное Синология. –М.: 1977.
2. Сыма Сян. Исторические записки. –М.:1972–1987. Т.1-5.
3. Крюков М.В., Переломов Л.С., Сафронов М.В., Чебоксаров Н.Н. Древние китайцы в эпоху централизованных империй. –М.: 1983.

Asosiy sanalar

| | |
|-------------------------------|--|
| Mil.avv. V–III ming yilliklar | Yanshao madaniyati. |
| Mil.avv. XVII–XI asrlar | Shan-In davri. Ilk sinfiy jamiyat va davlatning paydo bo'lishi. |
| Mil.avv. XIV asr | Poytaxt shahar Shanga asos solinishi. In «fol yozuvlari»ning paydo bo'lishi. |
| Mil.avv. XI–VIII asrlar | G'arbiy Chjou davri. |
| Mil.avv. VIII–V asrlar | Chunsyu («Bahor va kuz») yilnomasida aks etgan davri. |
| Mil.avv. VIII–III asrlar | Poytaxti Loyan bo'lgan Sharqiy Chjou sulolasining hukmronligi. Siyosiy desentralizatsiya. |
| Mil.avv. VI–V asrlar | Temir qurollarning tarqalishi. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdagi o'zgarishlar. Konfutsiyning hayoti va faoliyati. |
| Mil.avv. IV–III asrlar | «Urushayotgan podsholiklar» davri. Pul muomalasining tarqalishi. |
| Mil.avv. 359–350-yillar | Sin podsholigida Shan-Yan islohotlari. |

| | |
|-------------------------|--|
| Mil.avv. 221–207-yillar | Sin umumxitoy sulolasi. Markazlashgan imperiyaning yaratilishi. Sin Shixuandi islohotlari. Buyuk Xitoy devorining qurilishi. |
| Mil.avv. 206-yillar | Xan sulolasining hukmronligi. |
| Mil.avv. 140–87-yillar | Imperator U-dining hukmronligi. Xan sulolasining «Oltin davri». Syunnular bilan gʻolibona urushlar. «Gʻarbiy oʻlkalar»ga ekspeditsiya. Sima Syan «Tarixiy yozuvlar». |
| Milodiy 9–25-yillar | Van Man imperatorligi davri. Ijtimoiy islohotlarni oʻtkazishga urinish. «Qizilqoshlilar» qoʻzgʻoloni. |
| Milodiy 18–25-yillar | Soʻnggi (Sharqiy) Xan sulolasi (Loyan shahri poytaxti). Parfiya, Rim imperiyasi bilan aloqalar oʻrnatilishi. Xitoyda buddizmning tarqalishi. |
| Mil.avv. 127–119-yillar | Xitoy qoʻshinlari xunnlarni butunlay yengdi. |
| Mil.avv. 184–207-yillar | Xitoy imperiyasining uch podsho likka boʻlinishi. «Sariq belbogʻlilar» xalq qoʻzgʻoloni. |
| Mil.avv. 109-yil | Koreya yarim oroli bosib olindi. |
| Mil.avv. 220-yil | Uch mustaqil podsholik: Vey, Shu, U davlatlarining paydo boʻlishi. |

QADIMGI XITOIY MADANIYATI

1. Mifologiya va din. 2. Yozuv. 3. Adabiyot. 4. Tabiiy-ilmiy bilimlar.

1. Mifologiya va din. Qadimgi Xitoy mifologiyasi to'g'risidagi manbalar asosan mil.avv. XI asrga oid. Bu afsonalar mazmuniga ko'ra, ikki guruh yoki siklga bo'linadi.

Kosmogonik miflar ichida ilk, tartibsiz holatdan tabiat va insonning paydo bo'lishi to'g'risidagi asosiy konsepsiya, bo'linish va aylanish berilgan. Ulardan birinchisi jonsiz va tirik mavjudotlar tartibsizligi, ikki ilk unsur (erkak)ning boshlanishi, «Yan» va qorong'ilik (ayol)ning boshlanishi – «In» paydo bo'lgan. Ikkinchi konsepsiya – barcha mavjudotlarning paydo bo'lishi ushbu transformatsiya natijasidir deb tushuntiriladi. Odam Nyuy ismli ma'buda tomonidan loydan yaratilgan. Tabiat ofatlari va ulardan odamlarni qutqargan qahramonlar to'g'risida afsonalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Toshqin va qurg'oqchilik hodisalari afsonalarda ko'p tilga olinadi. Qadimgi qahramonlar to'g'risidagi afsonalarda qahramonlar odamlarni olovdan foydalanishga o'rgatgan, ilk bor shox-shabbadan chayla qurgan. Baliq ovi va ovchilik usulini kashf qilgan. Ilk dehqonchilik qurollarini yasagan. Donni bug'da pishirishni o'rgatgan qahramonlar mavzusi yetakchi o'rinni egallaydi. Ko'pgina qahramonlar ilon gavdali, buqaning kallasi bilan yarim hayvon, yarim odam qiyofasida tasvirlangan. Bu qadimgi totemistik tasavvurlarni aks ettirishdir. Qadimgi xitoyliklar u dunyo to'g'risidagi tushunchalarida yerda mavjud bo'lgan tartib-qoidalar aks ettiriladi. Yerda hokimiyat Vanga tegishli, osmonda hamma jismlar Oliy xudo (Di)ga bo'ysunadi. Di qudratli, u odamlarga marhamat qiladi yoki ularni baxtsizlik bilan jazolaydi. U odamlarga mo'l hosil sovg'a qiladi, qurg'oqchilik yuboradi. Yomg'ir va shamol Diga bog'liq. Dining yaqinlarini vanning vafot qilgan ajdodlari tashkil qiladi. Vanning ajdodlari Dining topshiriqlarini bajaradi va ular Vanning yordam berish to'g'risidagi iltimosini Diga yetkazadi. Vanning oliy kohin sifatidagi vazifasi odamlar va xudolar dunyosi o'rtasida vositachi bo'lgan o'z ajdodlari bilan muloqotni amalga oshirishdir.

Konfutsiylikning paydo bo'lishi va tarqalishi ajdodlarga e'tiqod qilishni kuchaytirdi. Konfutsiy (mil.avv. 551–479-yillar) ning axloqiy-siyosiy ta'limotida markaziy o'rinni «olijjanob kishi» (Szyan Szi) to'g'risidagi tushuncha egallaydi. Konfutsiylik gumanizm (Jen), sadoqat (Chjun), kattalarga hurmat (Syuo), kishilar o'rtasidagi munosabatlarga rioya qilish (Li)dan iborat. Konfutsiy ochko'zlik, zo'ravonlikga qarshi axloq va burchni qarama-qarshi qo'yadi.

Bu davrda qadimgi Xitoyning asosiy ta'limotlari: konfutsiylik, legizm, daosizm vujudga keldi. Konfutsiylik ta'limotining asoschisi o'qituvchi Kun (Kunszi, mil.avv. 551–479-yillar) Lu podshohligidagi daydib yuradigan targ'ibotchi bo'lgan. O'qituvchi Kun o'z ta'limotini og'zaki dialogik suhbat tarzida bayon qildi. Keyinchalik u ilohiylashtirilgan. Konfutsiy ta'limoti bo'yicha inson tabiatan ezgulik xislatiga ega va o'z burchini sidqidildan o'tashga tayyor. Konfutsiy barcha ijtimoiy munosabatlar uchun oilani namuna deb hisobladi. Oilada kattalar kichiklarga g'amxo'rlik qiladilar va ularni tarbiyalaydilar. Kichiklar kattalarni hurmat qiladilar va ularga bo'ysunadilar. Davlatga xalq farzandlar o'rnida, hukmdor ota o'rnida bo'ladi. Hukmdor o'z shaxsiy manfaati to'g'risida emas, xalq farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi lozim. Konfutsiylik davlatning yagona mafkurasi sifatida qabul qilingan. Konfutsiylik davlat e'tiqodi sifatida rasmiy qurbonliklar keltirish marosimi bilan mil.avv. 59-yil joriy qilinib, Xitoyda 1928-yilgacha mavjud bo'ldi.

Konfutsiy ta'limotida insonning ma'naviy komilligi tushunchasi muhim o'rin tutadi. Hukmdor shaxsiga oliy barkamollik zarur. Hukmdor markazda turadi, unga oddiy fuqaroga xos bo'lgan kamchiliklar yot, shu sababli u oliy adolatni amalga oshirdi. Davlat barqarorligini Konfutsiy tartib-intizom muxlisi «davlatni qoida va qonunlar vositasida boshqaradilar, dunyo albatta betartib, lekin uni yaxshilash mumkin, buning uchun faoliyat, insoniyatga xizmat qilish kerak» deb mushohada qiladi.

II–III asrlarda Xitoyga budda dini kirib keldi. Afsonalarga ko'ra, birinchi budda sutralari (matn yoki qoida) Xitoyga oq otda olib kelingan. Bunga xotira sifatida Loyan shahri yonida budda «oq ot ibodatxonasi» qurilgan va hozirgacha saqlanib qolgan. Xitoyda sutralarni tarjima qilish va budda dinining tarqalishi IV–VI asrlarga tegishlidir. Adabiyotda buddaviylik ta'siri ostida asketizm motivlari, xo'rlanganlarga, muhtojlarga yordam be-

rish, o'zini qurbon qilish g'oyasi paydo bo'ldi. VI asrga kelib Xitoyda 60 ming budda monastri va 2 mln monax bor edi.

2. Yozuv. Ilk Xitoy yozuvining eng qadimgi yodgorliklari mil. avv. XIV–XI asrlarga oid fol ko'rish yozuvlaridir. In yozuvlarining ko'pchilik qismi buyumlar tasviridir. In belgilari buyumlar tasviri yoki murakkab tushunchalarni ifodalaydigan ko'pgina tasvirlar qo'shilmasi ideogramma ko'rinishidadir. Ierogliflar bir necha mingtani tashkil qiladi. In belgilarining hozirgi Xitoy iyerogliflaridan 3 xil farqli tomoni bor. Birinchidan, har bir oddiy belgi qandaydir buyumning shaklini tasvirlagan. Ikkinchidan, bir belgining yozilishida ko'p xilma-xillik mavjud. Uchinchidan, belgini qatorning nisbiy yo'nalishiga tomon harakati hali barqaror bo'lmagan. In yozuvining mil.avv. I ming yillikda chjoular tomonidan o'zlashtirilishi uning taraqqiyotini uzib qo'ymadi. Mil.avv. II–I ming yilliklarda iyerogliflarning mahalliy variantlari unifikatsiya qilindi. Belgilarni yozishning yangi husnixati paydo bo'ldi.

Qadimgi Xitoyda yozuv, odatda, suyak, yupqa yog'och yoki bambuk taxtachalariga yozilgan. Tushli mo'yqalam bilan yozuv ana shu taxtachalarga tushirilgan va yozuvlar metall pichoq bilan tozalangan. Mil.avv. I ming yillikning o'rtalarida ipak mato-ga ham yozilgan. Ipak mato qimmat bo'lib, undan hamma foydalana olmas edi. Qog'ozning kashf etilishi madaniyat taraqqiyotida yangi bosqich bo'ldi. Qog'oz latta, po'stloq va bambuk aralashmasidan tayyorlangan. Eng qadimgi qog'oz qoldiqlari mil.avv. II–I asrlarga tegishli. Qog'ozning ixtirochisi deb, Xunan viloyatida yashagan qul Saylun aytiladi. Xan davrida yozuv takomillashdi. Kayshu standart yozuv uslubi paydo bo'ldi. Xitoy yozuvini Ve'tnam, Koreya, Yaponiyaning qadimgi xalqlari o'zlashtirib oldilar.

3. Adabiyot. Eng qadimgi Xitoy she'riyati namunalari mil. avv. XI–VI asrlarda jez ko'zalardagi yozuvlarda yetib kelgan. «Shiszin» («Qo'shiqlar kitobi») qadimgi Xitoy adabiyotining haqiqiy xazinasidir. Bu yodgorlik 4 bo'limga bo'lingan («Podsholik axloqi», «Kichik odalar», «Buyuk odalar», «Madhiyalar») 305 poetik asarlar majmuasidan iborat. «Shiszin» an'analari mil. avv. IV asrda poetik asarlar mualliflari tomonidan o'zlashtirib olindi. Bizgacha bu asarlar do'mbira shaklini eslatadigan tosh uyumlarda yetib kelgan. Shu sababli, ular «Tosh do'mbiralardagi matnlar» deb ataladi. Mil.avv. IV asrda mashhur Syuy Yuan, Xan davrida Sima Syan-ju kabi shoirlar ijod qilgan. Siam

Syan-ju (mil.avv. 179–118-yillar) Xan imperiyasining qudrati va «Buyuk odam»ning o‘zi – imperator U-dini ulug‘lab, odalar yozdi.

Xitoy tarixchilarining otasi Sima Syanning «Tarixiy yozishmalar» asarida Xitoy tarixi afsonaviy ajdod Xuandidan imperator U-di hukmronligining so‘nggi yillarigacha olib boriladi. Sima Syan o‘z asarida siyosiy va iqtisodiy vaziyatni, turmush va axloqiy yurish-turishni qisqa va yorqin tasvirladi. U Xitoyda ilk bor adabiy portretni yaratdi. Sima Syanning uslubini Van Gu (32–92-yillar) o‘zining «Katta Xan sulolasi tarixi» asarida davom ettirdi. Asar an’anaviy konfutsiylik ruhida yozilib, rasmiy nuqtayi-nazarda qat’iy bayon qilindi. Voqea-hodisalarga baho berishda Sima Syan bayoniga zid talqin qilinadi. Sima Syan daosizmga e’tiqod qilishda ayblanadi. Xan davridan boshlab, har bir sulola o‘zidan oldingi sulola hukmronligi davrini tasvirlay boshladi.

Musiqqa, poeziya va raqs kabi san’at janrlari Xitoyda yuqori darajada shakllangan. Musiqqa asboblari uch asosiy guruhga: torli, tovush chiqaradigan va urib chalinadigan asboblarga bo‘lingan. Ko‘pgina musiqqa asboblari milodiy I–II asrlarda O‘rta Osiyodan o‘zlashtirib olingan.

Sin davrida ulkan inshootlar qurilgan. Me’morchilik san’ati namunalari sifatida ibodatxonalar, Buyuk Xitoy devori saqlanib qolgan. XX asr oxirida imperator Sin Shixuandi qabridan topilgan, uning olti ming piyoda va otliqdan iborat shaxsiy qo‘riqchilarining loy haykalchalari xuddi asliday, yuz tuzilishi va bo‘yi balandligida yasalgan. Imperator U-dining rafiqasining ukasi vafot etganida 2156 nefrit parchalaridan oltin iplar bilan birlashtirilgan marhumning o‘lim kiyimi tikilgan. Bu jasad saqlanib qolgan maqbara Xan sulolasi davrining o‘ziga xos qimmatli yodgorligi hisoblanadi. Xan sulolasi oila a‘zolari hashamatli maqbaralarda dafn qilinganlar. Xan davri dunyoqarashiga ko‘ra u dunyoda ham hayot davom etgan. XX asr oxirida Xitoyda Xan sulolasi shahzodasining maqbarasi qazib ochilgan. Shahzoda maqbarasi go‘yoki saroyi eslatadi. Uzun toshdan qurilgan koridorlar, oshxona, qabul zali, omborxonalar, kirxonalar, hojatxonalar va hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan barcha buyumlar mavjud. Me’morlar yer osti suvini basseyniga yig‘ish texnologiyasini ixtiro qilganlar. Bundan tashqari, bu maqbaradagi eng ajoyib mo‘zija bu – shahzodaning oltin plastinkalardan qilingan dafn kostyumidir.

Chansha shahrida 1971-yil mil.avv. ikkinchi asriga tegishli maqbara topilgan. Maqbarada turli musiqa asboblari va ayol kishining mo'miyolangan jasadi topilgan, ayolning jasadi 20 metr matoga o'ralib, 20 metr chuqur qazilib, 4 ta tobutda dafn qilingan. Tobut qo'yilgan qabr tosh bilan yopilib, maydalangan toshlar bilan shibbalangan. Bu qabr ochilganda mo'miyolangan ayol jasadi xuddi kechagidek saqlanib qolgan. Jahon tarixida shu vaqtgacha topilgan biror-bir mo'miyolangan jasad bunday yaxshi saqlanib qolmagan. Chunki bu mo'miyolangan jasad 20 metr chuqurlikda, to'rt tobutga dafn qilinib, to'la tashqi iqlim, namlik ta'siridan himoya qilingan.

Xitoy me'morchilik san'atida yog'och asosiy xomashyo edi. Xan davrining noyob me'morchilik yodgorligi bo'lgan imperiya poytaxti Chanyan shahri 12 darvozali devor bilan o'rab olingan. Baland, ko'p xonali imperator saroyi, ma'muriy binolar va ibodatxonalar shaharning ko'rki edi. Ma'muriy binolar sariq rang, imperator saroylari qizil rang bilan bo'yalgan. Xan davrida portret san'ati yuksak darajada bo'lgan. Saroylar portret freskalari bilan bezatilgan.

Qadimgi Xitoy amaliy san'atida qo'g'irchoq teatri alohida o'rin tutgan. Qo'g'irchoq teatr guruhlari ko'cha-ko'yda, maydonlarda, xalq gavjum bo'lgan joylarda tomosha ko'rsatgan. Teatr repertuari oddiy xalqning turmush tarzi, ijtimoiy muammolar, hayotiy voqealarni aks ettirgan syujetlardan tuzilgan. Qadimgi Xitoy madaniyatining mukammal shakllanishida qo'shni xalqlarning madaniyatlari yaqqol seziladi. Sak-skif sivilizatsiyasining g'oya va motivlari Xitoy madaniyatida o'z aksini topdi. Hayvon uslubini tasviriy san'at, harbiy san'atda yaqqol seziladi. O'rta Osiyo qadimiy san'atining qaynoq nafasi Xitoy madaniyatida o'z aksini topdi. Rangli keramika, musiqa san'ati va boshqa sohadagi yutuqlar, natijalar Xitoy madaniyatiga hayotbaxsh ta'sir qildi. Xitoyda neolit davrida paydo bo'lgan bo'yalgan naqshli keramika O'rta Osiyo, Eron va Hindistondagi (Moxenjodaro) keramika bilan bir xil. Xitoyda topilgan qo'rg'on-qabrlar, jez idishlar, uch oyoqli ko'zalar Xitoy hududi va Buyuk cho'llarda jez davrida uchraydi.

4. Tabiiy-ilmiy bilimlar. Qadimgi Xitoyda astronomiya, matematika, tibbiyot, agronomiya kabi bilimlar, harbiy san'at rivojlangan. Qadimgi Xitoy olimlari sun'iy sug'orish, sug'orish inshootlarini barpo qilish hamda ekinlarni almashlab ekish

bo'yicha ilk ilmiy asarlarni yaratganlar. Dunyodagi harbiy san'at bo'yicha birinchi ilmiy asar ham Xitoyda yozilgan.

Ayniqsa, matematika fani yaxshi rivojlangan. Mil.avv. II asrda 9 kitobdan iborat «matematika» traktati tuzildi. Bunda oldingi olimlarning bilimlari, proporsiya, progress, bo'lishlar bayon etilgan. Pifagor teoremasi va boshqalar to'plangan. Matematika bilan yonma-yon astronomiya fani ham rivojlandi. Xitoy astronomi Shi Shen (mil.avv. IV asr) eng qadimgi yulduzlar (800 yulduz) jadvalini tuzgan. Mil.avv. 104-yilda 1 yil 365,25 kun ekanligi hisoblab chiqildi. Shu asosda qabul qilingan kalendar milodiy 85-yilgacha foydalanildi. Bu kalendar bo'yicha yil 12 oyga bo'linadi. Qo'shimcha oy kabisa yiliga qo'shib, 3 yilda bir marta belgilangan. Quyosh-Oy kalendari qishloq xo'jalik ishlariga moslashtirilgan. Xitoyda dunyoda birinchi bo'lib yulduzlar katalogi tuzilgan (mil.avv. V asr), oy va quyosh tutilishlarining muddatlari hisoblab chiqilgan, kometalarni paydo bo'lishi belgilangan. Astronom Chjan Xen (78–139-yillar) 2500 yulduzni tasvirladi. Koinotning cheksizligi nazariyasini ilgari surdi, seysmografni ixtiro qildi. Mil.avv. 28-yilda Xitoy astronomlari quyoshda dog'lar borligini aniqladilar.

Xitoyning eng qadimgi kitobi «Dao de Szin» – (mil.avv. VI asr oxiri) «Ezgulikka yo'l to'g'risidagi kitob» deb ataladi. Kitobning muallifi Lao Szi (mil.avv. 579–499-yillar) bo'lib, u dunyoni falsafiy asoslashga urinadi. Xitoyda falsafiy fikr rivojlandi. Uning eng taniqli vakillaridan Dao Szi, Konfutsiy, Mo Szi, Chjuan Szilarni ko'rsatish mumkin.

Qadimgi Xitoyda tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishildi. Mil.avv. III asrda Xitoy tabiblari igna bilan davolashni kashf qilganlar. Tabiblar 52 kasallikni davolashni bilganlar. 280 davolash usulini qo'llaganlar. Katta hajmli «Xuan-di neyszin» nomli tibbiy asarda (mil.avv. I ming yillik o'rtalari) ko'pgina kasalliklarning davolash usullari va fiziologiya batafsil tasvirlangan. Chjan Chjunszin (150–219-yillar) puls bo'yicha diagnostika usulini ishlab chiqdi. Davolashda dorivor o'tlar va choydan foydalanilgan.

Moddiy madaniyat. Xitoy badiiy hunarmandchiligining eng katta yutug'i lak ishlab chiqarish bo'ldi. Lak mahsulotlari Xan imperiyasi tashqi savdosining muhim qismi edi. **Lak yog'ochni, gazlamani namlikdan, metallni zanglashdan himoya qilar edi. Xitoyda** qurol-yarog'lar ham namlik va zangdan saqlash

uchun lak bilan qoplangan. Me'morchilik detallari, devoriy freska – tasvirlar, dafn buyumlari laklangan, Xitoy laki kislota va yuqori haroratga chidamli ekanligi yuqori baholangan.

Xitoyda falsafa fani rivojlandi. Faylasuf Xan Fey (mil.avv. 288–233-yillar) davlat boshqaruvida qonunning o'rne bo'yicha shug'ullangan. Men Szi mil.avv. (372–289-yillar) faylasuf bo'lib, insonparvarlikka tayanib davlatni boshqarish g'oyalarini ilgari surdi. E. Feyerbax «Men Szi Xitoyning Konfutsiydan keyingi eng buyuk faylasufi», deb unga yuksak baho bergan.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Антология древнекитайской философии. –М.: 1972–1973. Т.1-2.
2. Сыма Сян. Исторические записки. –М.: 1972–1987. Т.1-5.
3. Юан К.Е. Мифы древнего Китая. –М.: 1987.

Asosiy sanalar

| | |
|------------------------------|---|
| Mil.avv. II–I ming yilliklar | Xitoyda iyerogliflarning mahalliy variantlari unifikatsiya qilindi. |
| Milodiy II–III asrlar | Xitoyga budda dini kirib keldi. |
| Mil.avv. 551–479-yillar | Konfutsiy yashagan yillar. |
| Mil.avv. III asr | Xitoy tabiblari igna bilan davolashni kashf qildi. |
| Mil.avv. II asr | Xitoyda 9 kitobdan iborat «matematika» traktati tuzildi. |
| Milodiy I–II asrlar | Musiqa asboblari O'rta Osiyodan o'zlashtirib olindi. |
| Mil.avv. 104-yil | Xitoyda 1 yil 365,25 kun ekanligi hisoblab chiqildi. |
| IV–VI asrlarda | Xitoyda budda dinining tarqalishi. |

UZOQ SHARQ VA JANUBIY-SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARI

1. Koreya yarim orolining qadimgi davlatlari. 2. Qadimgi yapon davlatlari. 3. Qadimda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari. 4. Qadimgi Vyet davlatlari va ularning qo'shnilari. 5. Mon-Kxmer davlatlari. 6. Indoneziya xalqlarining qadimgi davlatlari. 7. Qadimgi Janubiy-Sharqiy Osiyo madaniyati.

1. Koreya yarim orolining qadimgi davlatlari. Qadimgi koreyslar mil.avv. I ming yillik o'rtalarida Koreya yarim oroli, Janubiy Manjuriya va Lyaodun yarim orolida yashaganlar. O'rmon va vodiylarda o'troq aholi, tog'larda ovchilar yashagan. Mil.avv. VII asrda koreyslar jez qurollarini yasay boshlaydilar. Shimolda tariq, arpa, janubda sholi ekila boshlanadi. Eramizgacha bo'lgan I asrda temir qurollar tarqala boshlaydi. Ilk Koreya davlati Choson mil.avv. III asrda rivojlangan dehqonchilik va urug'chilik munosabatlarini yemirilish jarayoni natijasida paydo bo'ldi. Choson davlati hududi Shimoliy Koreya va Lyaodun yarim orolini egalladi.

Mil.avv. I asrga qadar shimoliy-g'arbda qabilalar birlashuvi natijasida Koreya yarim oroli shimoli va Manjuriya janubini o'z ichiga olgan Kogure davlati, janubda xan qabilalari birlashuvi bilan Silla va Pekche davlatlari paydo bo'lgan. Bularning ichida eng kuchlisi Kogure bo'lib, u Xan davlati (Xitoy)dan to'la mustaqillikka erishadi.

Qadimgi koreys jamiyati: hukmron tabaqa, zodagonlar, erkin aholi va qullardan iborat edi. Davlatga qaram, shaxsan ozod, ammo iqtisodiy qaram bo'lgan «pastki hovlilar» eng ko'p sonli mayda ishlab chiqaruvchilarni tashkil qilgan. Qullar yordamchi ishlarni bajargan. Qullar Xitoyga sotilgani to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Milodiy I-II asrda Kogure davlatida to'laqonli mustabid siyosiy tuzum hukmron bo'lgan. Hukmdor hokimiyati darajalarga (rang) bo'lingan harbiy xizmat aslzodalariga tayangan. Hukmron qatlamning harbiy xususiyati Xan davlati bilan urush va uch koreys davlatining yetakchilik uchun o'zaro urushlari bilan belgilangan.

Kogure davlatida hukmron sinflarning manfaatini himoya qiladigan qonunlar chiqarilgan. Xususiy mulkka daxl qilishga qarshi juda ko'p jazolar belgilangan. Milodiy I–III asrlarda Koreya yarim orolida eng kuchli davlat Kogure bo'lgan. IV asrda esa yarim orolning janubiy-g'arbida uzoq urushlardan so'ng Pekche davlati yetakchi o'ringa chiqadi. Yarim orolning janubiy-sharqiy qismida Silla davlati mustahkamlanadi. Tashqi siyosatda Koreya davlatlarining asosiy vazifasi kuchli raqib – Xitoyning tazyiqiga qarshi kurash bo'lgan. Bu urushlarning asosiy og'irligi Kogure davlati zimmasiga tushgan.

2. Qadimgi yapon davlatlari. Qadimgi yapon madaniyati o'ziga xosligi, an'analarga sodiqligi va sirli ekanligi bilan juda qiziqarlidir. Qadimgi yaponlar o'ziga xos san'at, adabiyot va dunyoqarashni har xil va turli xil bosqichlardagi unsurlar asosida yaratdilar. Bu madaniyat barcha zamon va makonda o'z qudrati va jozibasini yo'qotmay keldi. Orollarda shakllangan yapon sivilizatsiyasi turli davrlarda bu yerga ko'chib kelgan, qit'adan ajralgan holda mahalliy iqlimga moslashgan turli etnoslarning qo'shib ketishi oqibatida vujudga keldi. Yaponiyaning eng qadimgi aholisi ehtimol protoyapon qabilalari hamda kelib chiqishi malay-polinez qabilalari bo'lgan. Yaponiya orollarida mil. avv. III ming yillikda qadimgi neolit madaniyati tarqalgan. Yaponiya orollarda joylashgan bo'lsa-da, qadimgi Sharqiy Osiyo bilan yaqin aloqada bo'lgan.

Mil.avv. I ming yillikning ikkinchi yarmida yapon orollariga Koreya yarim oroli orqali qabilalar migratsiyasi boshlangan. Bu qabilalar Kyusyu orolining shimoli, Xonsyu orolining janubida ko'pgina qabrlar qoldirganlar. Migrantlar o'zlari bilan jez qurollari, ot va sigirlarni olib keldilar. Eng muhimi, sug'orma sholikorlik texnikasi bilan kirib keldilar. Yaponiyada dehqonchilik so'nggi neolit davridan ma'lum bo'lib, u asosan tariq, grechixa va bir qism quruq sholikorlik bo'lib, uncha katta bo'lmagan xo'jalik faoliyatidan iborat bo'lgan. Aholi qirg'oqbo'yi baliqchiligi, terimchilik va ov bilan shug'ullangan. Sug'orma sholikorlikning tarqalishi yangi xo'jalik madaniyatining shakllanishiga olib keldi.

Misrda metall asri mil.avv. IV ming yillikda boshlandi. Qo'shni Xitoydan Yaponiyaga jez qurollar mil.avv. XIII asrda tarqaldi. Mil.avv. III asrda Chjou va Xan davlatlarida temir qurollardan foydalanildi. O'rta Osiyoda temir davri mil.avv. IX–VIII asrlarda boshlandi. Ular bilan taqqoslaganda, Yaponiya neolit davriga

kech o'tdi. Yaponiyada jez va temir qurollar bir vaqtning o'zida mavjud edi. Xitoydagi Xan sulolasi davrida temir qurollar Xitoy orqali Yapon orollariga ham yetib keldi. Yaponiya Xan madaniyati orqali tosh asridan birdaniga temir asriga o'tdi.

Yapon tarixshunosligida olti asr (mil.avv. III asrdan milodiy III asrgacha) «Yayoy» davri (ilk bor Tokiodagi bu madaniyatning qoldiqlari topilgan joy nomi bo'yicha) deb ataladi. Yayoy madaniyati hayotining asosi sug'orma dehqonchilik bo'lgan barqaror jamoaning shakllanishi bilan ajralib turadi. Jezdan diniy marosim buyumlari bo'lgan oynalar, qilichlar, qo'ng'iroqlar va temirdan mehnat qurollari tayyorlangan. Yayoy keramikasi paydo bo'lib, u boshqa keramika madaniyatlaridan farq qilgan. Mil.avv. I ming yillik o'rtalarida Yaponiyadagi barcha qabilalar urug'-jamoat tuzumida yashaganlar. Bu davrda sug'orma sho'likorlik va metallga ishlov berish boshlandi.

Mil.avv. III asr oxirida tuzilgan «Vey Chji» asarida sholi ekishga o'tish jarayoni turli hududlarda uzluksiz yuz bergani to'g'risida ma'lumot beriladi. Sug'orma dehqonchilikning paydo bo'lishi urug'-jamoachilikni yemirilishi, mulkiy taqabalanishga olib keldi. «Vey Chji» asarining muallifi Yaponiyada «ekinlardan sholi, kanop, tut daraxtlari o'stiriladi», «Iki, Susima orollarining aholisi janubga boradilar» deb ma'lumot beradi. Bu manba Yaponiyada odamlarning o'z badanini bo'yash (tatuirovka qilish) an'anasi keng tarqalganini baliqchilik kasbi bilan bog'laydi: «Ular suvda baliq tutadilar, chig'anoqlarni teradilar va katta baliq, qushlarni qo'rqitish uchun tatuirovka qiladilar». Mil.avv. I asrlarda jez qurollar tarqalgan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligida asosan mehnat qurollari yog'och va toshdan qilingan. Yer motiga bilan ishlanib, hosil yarim oy shaklidagi tosh o'roqlar bilan o'rilgan. Protopyapon qabilalarining xo'jaligi va moddiy madaniyatiga oid arxeologik ma'lumotlar bilan birga, qadimgi Xitoy yilnomalari ham qiziqarli ma'lumotlar beradi.

Yaponiyada jez davri ko'p sonli protodavlat birlashmalari tashkil topgan vaqt bo'lib, ulardan eng kichiklari faqat bir necha ming «hovli»dan iborat bo'lgan. Shu bilan bir vaqtda, ularning birlashuv jarayoni boradi. Agar mil.avv. I asrda davlatchalar soni yuzdan ortiq bo'lsa, milodiy III asrda «Vey Chji» manbasi faqat ulardan 30 tasini eslatadi. Bu «davlatlar» hokimiyat uchun kurashda Xan imperiyasini qo'llab-quvvatlashiga umid qilib, u bilan aloqa o'rnatganlar. Qadimgi Xitoy xronikalari mil.

avv. I asrda «Va odamlari» Koreya yarim orolidagi Xan okrugi amaldorlariga sovg'alar bilan kelganligi to'g'risida ma'lumot beradi. Keyinchalik Yaponiyadan Xan saroyiga elchilar kela boshlaydi. Mil.avv. 56-yilda Loyandagi imrerator Guan U-di saroyida shunday elchilardan biri qabul qilinib, unga muhr taqdim qiladilar. Muhrda «Xanga bo'ysunuvchi Va davlati hokimi» yozuvi bitilgan. Bu qadimgi Xitoyning Xan tipidagi muhridir.

Yaponiyada davlatchilikning shakllanishi milodiy III–IV asrlar bilan belgilanadi. Bu davrda Yapon orollarida bir necha katta-kichik davlatlar tashkil topdi. Bu vaqtda Janubiy Kyusyu orolidagi qabilalar ittifoqi Markaziy Yaponiyaga istilochilik yurishlarini boshladilar. Bu yurishlar natijasida Yamato davlati shakllandi va u yetakchilik rolini o'ynashga harakat qildi. Xonsyu oroli va uning atrofida Yamato davlatining to'la hukmronligi o'rnatildi. Yamato malikasi 238-yilda Shimoliy Xitoydagi Vey imperiyasi bilan aloqa o'rnatdi va yuborilgan sovg'alar uchun «Veyga do'st Va malikasi» deb yozilgan oltin muhrini oldi. Yamato davlatida ma'muriy tizim shakllangan bo'lib, asosiy hududiy birlik provinsiya bo'lgan. Manbada «Har bir provinsiyada bozor bo'lib, u yerda hukumat amaldori nazorati ostida savdo qilinadi» deyiladi. Yamato hududida yagona soliq tizimi joriy qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Yamatoning boshqa yapon davlatlari o'rtasida alohida o'rin tutgani to'g'risida ma'lumotlar bor. Yamato hukmdorining kelib chiqishi ilohiy lashtirilgan. U Quyosh ma'budasi Amaterasu avlodi hisoblangan. Uning hokimiyatini muqaddas ramzi qilich, yashma bezagi va jez oyna bo'lgan.

Qadimgi Xitoy manbalarida ko'rsatilgan mahalliy aholi kiyimlarini o'ziga xos xususiyatlari, uy-joylar qurilishidagi jihozlar, qoziqlar ustidagi uylarning tasvirlari bu davr protoyapon qabilalari madaniyatining janubdan kelib chiqqani belgilarini ko'rinadi. Mil.avv. I ming yillikning so'nggi asrlarida Yaponiya hududida turli xil madaniy ekinlardan, dehqonchilik unsurlaridan asta-sekin so'nggi davr yaponlariga tegishli o'ziga xos xo'jalik ko'rinishi shakllanadi.

Xitoy tilidagi yodgorliklar protoyaponlarni «Va odamlari» deb ataydi. Manbada ularning ijtimoiy tuzumida tabaqalanishning chuqurlashgani ko'rinadi: «Xalq ichida tengsizlik mavjud. Bir kishi ikkinchisiga bo'ysunadi». Manbalarga ko'ra, jamiyatda zodagonlar, oddiy aholi va qullar mavjud bo'lgan. Qulchilik manbalaridan biri jamoada qarindoshlarni qul qilish bo'lgan.

Yaponiyaning qadimgi tarixini arxeologik davrlashtirishda IV–VII asrlar «qoʻrgʻonlar davri» («Kofun driday») deb ataladi. Bu ilgari Yaponiya uchun nomaʼlum boʻlib, III asr oxiridan hududda paydo boʻlgan dafn qilishning oʻziga xos qabr-qoʻrgʻonlari bilan bogʻliq. Yaponiyadan oʻn mingga yaqin shunday qoʻrgʻonlar topilgan.

«Qoʻrgʻonlar davri»da Yaponiya hududida jez mehnat qurollari bilan bir vaqtda, temir qilich va temirdan yasalgan mehnat qurollari keng tarqaladi. Shu bilan birga, IV–VIII asrlar madaniyatini oʻtgan davrlar madaniyatidan ajratib turadigan yana bir xususiyat mavjud. Bu davrda chavandozlik, otda yurish sanʼati bilan bogʻliq oʻziga xos anʼanalar yapon orollariga kirib keladi. Bu davrga oid Yapon orollaridagi arxeologik topilmalar – uzangi, egar va boshqa ot anjomlari Koreya va Shimoliy Xitoydan topilgan buyumlarga oʻxshaydi. Jilovlangan ot zodagonning faxr-iftixori boʻlgan. Jilovlangan ot kichik hajmda, juda tabiiy koʻrinishda mayda loy haykalchalarda ifodalangan. Odatda, qabrga qoʻyilgan bu haykalchalar «xaniva» deb atalgan. Qabr-qoʻrgʻonlardan topilgan dafn marosimi buyumlari namunalari orasida uylar, ibodatxona, koʻzalar, qurollar, qushlar, kohinlar, askarlar tasvirlari bor. Bu tasvirlar boʻyicha qadimgi yaponlarning moddiy-maʼnaviy hayotining oʻziga xos xususiyatlari qayta tiklandi. Yapon tarixchilarining fikriga koʻra, «qoʻrgʻonlar davrida» Yaponiyaga Markaziy Osiyodan koʻchmanchi qabilalar kirib keladilar va ular davlatlarni barpo etadilar.

Yaponiyada qoʻrgʻonlarning qurilishi ajdodlar ruhiga, quyoshga sigʻinish bilan bogʻlangan. Ajdodlar ruhiga sigʻinish davlat hokimiyati darajasida, hukmron urugʻning asoschisi Quyosh maʼbudasi Amaterasuga sigʻinishda oʻz ifodasini topdi. Ilk sintoizm xudolar panteoniga – urugʻ ajdodlari ruhlari, ilohlari kirgan. Bundan tashqari, joylarda koʻp sonli landshaft ilohlariga ham siʻgʻinilgan. Qadimgi yapon rivoyatiga koʻra, dunyo qorongʻilik qaʻriga choʻkkanda, Amaterasu samoviy gʻorga yashirinadi va xudolar uni sehr usullari yordamida boshpanasidan chiqarib olmaguncha, gʻorda oʻtiradi. Tarixiy va yarim afsonaviy voqealar qayta ishlanib, «Kodziki» va «Nixon syoki» nomli toʻplamlarga kiritildi. Bu toʻplamlar sinto mifologiyasi asosida umumdavlat mafkurasini yaratishda muhim bosqich boʻldi va Yaponiyaning keyingi rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratdi. Birinchi bor jamiyatning turli sohalarini qamrab oladigan qonunchilik «Tayxoryo»

shakllandi. Jamiyatning iqtisodiy asosi bo'lgan yerning yagona egasi davlat edi.

Yapon diniy e'tiqodi uzoq vaqt mobaynida shakllandi. Ibtidoiy jamoa davrida ilk diniy tasavvurlar animizm, fetishizm va magiya mavjud edi. Yaponiyada magiya ilk ibtidoiy e'tiqod shakli bo'lgan. Odamlar jamoa bo'lib, turli xil magiya-sehrgarlik marosimlarini bajarganlar. Bir manbada shunday ma'lumot keltiriladi: Yamato Ximeko davlati malikasiga «yovuz ruh joylashdi va u xalqni zaharladi». Bu dalil ilk davlatlar paydo bo'lganda, ularning hokimlari magiya marosimlarida shomon vazifasini bajarganlarini ko'rsatadi. Davlat boshlig'i ham boshda turli magiya sehrgarlik marosimlaridagi ijro asosida urug' jamoa yengilishida saylangan.

Kyusyu orolining shimolida ulkan jez qilich, nayza, jez qo'ng'iroqlar topilgan. Ulardan amalda na qurol, na musiqa asbobi sifatida foydalanib bo'ladi. Eh'timol ulardan urug' jamoalari magiya marosimlarini o'tkazishda foydalanganlar. Dehqonchilik jamoalarida turli xil sehrgarlik marosimlari yerga ishlov berish oldidan va hosilni yig'ish paytida o'tkazilgan.

Hozirgi yapon milliy dini sinto (yapon tilida «xudolar yo'li») asl diniy tasavvurlar va Xitoydagi konfutsiylik va mistik ta'limot daosizm ta'siri ostida shakllandi. V asr o'rtalarida yunon hukmdorlari davlat barqarorligini ta'minlash va mafkuraviy tarqoqlikni rag'batlantiradigan sintoning urug' va hududlar e'tiqodlari kuchini sindirish uchun rivojlangan jamiyat e'tiqodi bo'lgan buddaviylikni qabul qildilar. Buddaviylik dini ehtiyojlariga xizmat qiladigan ibodatxonalar qurildi. Buddha va bodxusatvalarning haykal tasvirlari va boshqa diniy buyumlar yasala boshlandi. Sintoizm bu vaqtda diniy marosimlar o'tkaziladigan inshootlar qurilishi an'analarga ega emas edi. İlk yapon budda ibodatxonalari janubdan shimolga yo'naltirilib, Xitoy va Koreya an'analari bo'yicha qurilgan. Lekin inshootlarning seysmologik chidamiga etibor berilgan. Bu hol qurilishda mahalliy an'analarni mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Yapon budda ibodatxonasida toat-ibodat qiladigan xona bo'lmagan. Ibodatxona xonalari muqaddas buyumlar saqlanadigan joy vazifasini o'tagan. Nara shahri yaqinidagi ilk budda ibodatxonalaridan biri bo'lgan Xaryudzi ibodatxonasi hozirgacha asl holida saqlanib qolgan.

Yamato hukmdori Syotoku-taysi VII asr boshlarida davlat apparati va boshqaruv tizimining asosiy shakllarini vujudga keltiradi. U 603-yilda zodagonlik darajasining (rang) yangi tizimini

kiritadi. 604-yilda esa davlatning mafkuraviy asosi qilib, konfutsiylik belgilanadi. Hukmron Syotoku-taysi Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, barcha fuqarolar hukmdorga bo'ysunishlari lozimligi to'g'risidagi qonunni e'lon qiladi. 607-yilda Syotoku-taysi Xitoyga elchi bilan maktub jo'natadi. Maktubda shunday yozilgan: «Quyosh chiqadigan osmon mamlakati o'g'li quyosh botadigan mamlakat o'g'liga murojaat qiladi». VII asr oxiridan boshlab, Yapon davlati eski Yamato nomi o'rniga Nippon deb atala boshlanadi. Hozirgi «Yaponiya» so'zi shundan kelib chiqqan.

Shaharsozlikning rivojlanganligini 710-yilda qurilishi tugallangan doimiy poytaxt Nara shahrida ko'rish mumkin. Shahar reja asosida janubdan shimolga 9 ko'chaga, g'arbdan sharqqa 8 ko'chaga bo'lingan. 72 hududga bo'lingan shaharda 200 ming kishi yashashi mumkin edi. Savdo-hunarmandchilikning rivojlanishi bilan Yaponiya VIII asrdan o'z tanga pulini zarb qila boshladi.

3. Qadimda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari. Yaqinda topilgan juda kam sonli o'ziga xos iyerogliflarga o'xshash yozuvlardagi qadimiy yozma manbalar mavjud. Janubiy-Sharqiy Osiyoning qadimgi tarixini qayta tiklashda ilk o'rta asr (vyet, mon va boshqalar) xronikalari hamda qadimgi Xitoy, qadimgi hind, antik mualliflar asarlari va manbalari muhim rol o'ynaydi.

Botqoqli vodiylar, kichik tog' daryolari, tropik o'rmonlar bilan qoplangan baland tog'lar Janubiy-Sharqiy Osiyo uchun xarakterli hol. Bu yerda mil.avv. VIII ming yil (mezolit davri) da o'troq manzilgohlar paydo bo'lgan. Neolit davrida esa sholikorlik xo'jaligi qadimgi Janubiy-Sharqiy Osiyoda keng tarqalgan. Janubiy-Sharqiy Osiyoning kontinental qismida yashagan qadimgi xalqlar austroosiyoliklar (monlar, kxmerlar va boshqalar), orollarda austroneziylar (malayalar, yavalilar va boshqalar), etnograflar ularning barchasini qo'shib austri xalqlari deb ataydilar.

Qadimda eng rivojlangan austroosiyo viloyatlaridan biri Janubiy Hindi-Xitoy tekisliklaridir. Bu yerda aholi mil.avv. III ming yillikda dastlab mis, keyinchalik jez davriga mustaqil o'ta boshladilar. Mil.avv. II ming yillikda Janubiy-Sharqiy Osiyo taraqqiyotda qo'shni viloyatlardan orqada qola boshlaydi. Daryolarning murakkab tizimi xo'jalikning bosh yo'nalishi bo'lgan sholikorlik uchun zarur bo'lgan sun'iy sug'orish tizimini barpo qilishni qiyinlashtirgan. Uzoq vaqt jamiyatning asosiy

bo'g'ini sholikorlik bilan shug'ullanadigan kichikroq qishloq jamoalari bo'lib qolavergan.

Dongshon sivilizatsiyasi (mil.avv. I ming yillik, Dongshon qishlog'i yonidan bu madaniyatning birinchi qabri topilgan) Hindi-Xitoy yarim orolining shimoliy-sharqiy qismida shakllandi. So'nggi jez asrida Dongshon sivilizatsiyasi vaqtida Janubi-Sharqiy Osiyoning katta va o'rta daryolari vodiylarida katta-katta dehqonchilik manzilgohlari paydo bo'ladi. Bu davrda omoch dehqonchiligi paydo bo'ldi. Jamiyat ijtimoiy tuzilmasi murakkablashdi. Uning asoschilari austroosiyo oilasiga tegishli tilda so'zlashadigan lakvyetlar (vyetnamliklar ajdodi) edi. Bu yerda ilk ijtimoiy-sinfiy jamiyat tuzilmasi paydo bo'ldi. Ajdodlar ruhiga sig'inish e'tiqodi shakllanib, uzoq vaqt jahon dinlari va konfutsiylik bilan yonma-yon yashab keldi va qo'shni xalqlar tomonidan o'zlashtirib olindi.

Ilk sinfiy jamiyatlar qadimgi austroosiyo va ularga qarindosh qadimgi vyetlarda paydo bo'lib, G'arbiy Hindi-Xitoyda hozirgi Shimoliy Vyetnam orqali Yanszi daryosi quyi oqimigacha cho'zilib ketgan. Ularning orasida davlatlarning to'rt guruhini ko'rsatish mumkin:

1. Shimoliy-Sharqiy Hindi-Xitoy va Janubiy Xitoy dengiz qirg'og'i.

2. Janubiy Hindi-Xitoy davlatlari.

3. Malakka yarim oroli va arxipelagida qadimgi Indoneziya davlatlari.

4. Shimoliy Hindi-Xitoyning markaziy qismi va tay tilli, birma tilli xalqlar joylashgan qo'shni hududlar davlatlari.

4. Qadimgi Vyet davlatlari va ularning qo'shnilari. Shimoliy Vyetnamdagi va Janubiy dengizning shimoliy qismidagi davlatlardan shimolroqdagi qadimgi Xitoy an'analariga ko'ra, birinchi navbatda «varvar» (Xitoy an'anasi nuqtayi nazaridan) Yeu (Vyet) podsholigi tarixda yaxshiroq ma'lum. Yue podsholigi mil.avv. VII asrda Yanszi daryosining quyi oqimida paydo bo'lgan. Uning ijtimoiy tuzilishi qadimgi Xitoy podsholiklariga qaraganda, soddaroq bo'lgan. Aholining asosiy mashg'uloti sug'orma sholikorlik edi. Mil.avv. IV–III asrlarda Yanszi daryosining yuqori qismida besh davlat: Xongxa, quyi qismida Vanlang (keyin Aulak), sharqda Tayau, Namvyet va boshqalar mavjud bo'lgan. Ular yuqori ijtimoiy taraqqiyot darajasida bo'lgan. Janubiy podsholiklarda xan madaniyatini qabul qilish shimolga qaraganda, ancha yuqori bo'ladi.

Mil.avv. III asrda hududdagi eng rivojlangan davlatlardan biri Xuanxe daryosining quyi qismi va unga qo'shni hududlarda Siszyan pastida vyetnamliklarning ajdodlari lakvyetlar joylashgan davlat Namvyet edi. Markaziy Vyetnam hududida vyetnamliklarning ajdodlari lakvetlarning vanlang qabila ittifoqi mil.avv. IV asrda shakllandi. Hokimiyatni xung oilasi egalladi. Asta-sekin qabila ittifoqi davlatga aylandi. Davlat tepasida xung oilasidan chiqqan viong (hokim) turgan. Aholi sun'iy sug'orishga asoslangan plug dehqonchiligi va baliqchilik bilan shug'ullanadi. Bronza metallurgiyasi yuqori darajada rivojlanadi. Mulkiy tabaqalanish jarayonida urug'-qabilaning oqsoqollari, harbiy boshliq, kohin va boy dehqonlardan oqsuyak-zodagonlar – lakchonglar ajralib chiqadi. Lakchonglar ichidan viong hokimiyati shakllandi. Mil.avv. III asrning ikkinchi choragida Viong Kin Zeong davrida lakvetlar davlati to'la shakllanib bo'ldi. Lakvetlar qo'shni qabila ittifoqi Teyvu bilan urushlar olib bordi va yengildi. Mil.avv. 257-yilda Aulak davlati tarkibiga kirdi. Aulakda aholining asosiy qismini jamoachilardan iborat mayda ishlab chiqaruvchilar tashkil qilgan. Turli manbalar Namvyet jamiyatida qullar mavjudligini ko'rsatadi. Hukmron sinflar jamiyatda katta yer-mulkka ega bo'lgan tabaqa bo'lib, ularga zodagonlar, mayda ishlab chiqaruvchilar va qullar qaram bo'lgan. Davlat tepasida hukmdor turgan. Qadimgi vyetlar madaniyati o'ziga xos edi. Ayniqsa, ajdodlarga e'tiqod, yer ruhiga, timsoh-ajdar va suvda suzuvchi qushlarga sig'inish keng tarqalgan.

Mil.avv. 221–214-yillarda Aulak, Tayau va Namvyet davlatlari Sin imperiyasi bilan o'z mustaqilliklari uchun urush olib bordilar. Urushlar jarayonida Aulak o'z mustaqilligini saqlab qoldi va Tayauning bir qismini o'ziga qo'shib oldi. Namvyet bir necha yil Sin qo'shinlari tomonidan bosib olingan. Mil.avv. 207-yilda Namvyet va Aulak davlatlari birlashadi. Bu davlat mil.avv. II asrda Janubiy-Sharqiy Osiyoda eng kuchli davlat bo'lib, faqat Xan imperiyasidan kuchsizroq bo'lgan. Mil.avv. II asr boshlarida Namvyet viongi (hukmdori) o'zini Xan imperatoriga teng deb e'lon qiladi. Mamlakat iqtisodiyotining asosini sholikor hududlar tashkil qilgan. Temir mehnat qurollaridan foydalanilgan. Bu davlatda yirik shaharlar, rivojlangan ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik mavjud bo'lgan.

Mil.avv. II asr boshlarida Namvyet-Aulak hukmdorlari urushlar va diplomatik yo'l bilan qo'shni davlatlarni qo'shib olishga harakat qiladilar. Ammo mil.avv. 111-yilda mamlakat Xan im-

peratori U-di tomonidan bosib olinadi. Xan imperiyasi mamlakat ichki ishlariga aralashmaydi. Imperiya «varvarlarni varvarlar boshqaradi» siyosatini olib boradi. Mil.avv. III–II asrlarda Janubiy-Sharqiy Osiyoning togʻli hududlarida qadimgi tay xalqlarining Diyen va Yelan davlatlari (hozirgi Yunnan va Guychjou viloyatlari) alohida guruhni tashkil etadi. Bu yerda dehqonchilik zaif boʻlib, chorvachilik yetakchi oʻrinni egallagan. Shu bilan birga, bu yerda qandaydir birma tilli guruhlar va Markaziy Osiyo chorvador aholisi bilan birgalikda ilk sinfiy jamiyatlar shakllantirilgan. Qullarning safi mahalliy etnik birliklarni qaram qilish hisobidan toʻldirilgan.

Mil.avv. I asr boshlarida Xan maʼmuriyati hozirgi Shimoliy Vyetnamdagi lakvyetlarni ommaviy assimilatatsiya qilish siyosatini olib borgan. Bu siyosat kuchli qarshilikka uchraydi va zodagonlar boshchiligida qoʻzgʻolonlar koʻtariladi. Milodiy 40–44-yillarida lakvyetlar «Ikki opa-singil» (opa-singil Chinglar) boshchiligida qoʻzgʻolon koʻtarib, Xan hokimiyatini agʻdarib tashlaydilar va oʻz mustaqilliklarini qayta tiklaydilar. Xan imperiyasi uzoq urushlardan soʻng mamlakatda oʻz nazoratini qayta tiklaydi. Lekin mahalliy aholini assimilatatsiya qilish siyosatidan voz kechishga majbur boʻladi. Milodiy I–III asrlarda Vyetnamga Hindistondan buddizm, Xitoydan xitoy madaniyati kirib keladi. Buddaviylik XII–XIII asrlargacha hukmron dinga aylanadi.

5. Mon-Kxmer davlatlari. Milodiy asr boshlarida Hindi-Xitoy va Indoneziya yirik daryo vodiylarida sinfiy jamiyat va davlatlar shakllanadi. Soʻnggi jez davrida xoʻjalikning yuqori taraqqiyoti, temir qurollaridan keng foydalanishga oʻtish davlatning shakllanishiga olib keladi. Janubiy Hindistonning dravid xalqlari orqali Shimoliy Hindiston, Yaqin Sharq va Oʻrtayer dengizi bilan doimiy aloqalar oʻrnatiladi. Tekislikda vyetlarda boʻlgani kabi yetakchi ijtimoiy birlik kichik qishloq jamoasi edi. Vodiylarda yuqori darajada rivojlangan dehqonchilik, togʻli viloyatlarda ovchi-termachilik xoʻjaligi mavjud boʻlgan.

Mahalliy jamiyatlarning oʻziga xosligi bir etnolingvistik guruh ichida tekislikda yuqori taraqqiyot darajasiga erishgan dehqonlar bilan qoʻshni togʻlik vohadagi ovchi-terimchilarning birgalikda yashashi edi. Ana shunday ijtimoiy-iqtisodiy har xillik sinfiy jamiyat va davlatning ibtidoiy jamoa munosabatlari hukm surgan viloyatlar bilan ajratilishiga sabab boʻldi. Aulak, Bapnom (Funan), Shrikshetra (Tarekittara), Suvannabxumi (Janubiy Birma)dagi va Tyao-Praye (Menam), Malakka yarimorolidagi va

arxipelagidagi Malay, ilk Yava davlatlari ma'lum bir siyosiy-iqtisodiy yadro – aholi zich joylashgan sholikor voqa va uning poytaxti atrofida joylashgan edilar. Hukmdor barcha yer zaxirasining oliy egasi edi. Bir qism yer zodagonlarning merosiy yeri, ibodatxona va kohinlarning «abadiy» yerlari bo'lgan. Aholining asosiy qismi erkin jamoatchilardan iborat bo'lib, kohinlar, zodagonlar qatlami mavjud edi. Qullar kam sonli bo'lgan.

Ko'pgina Mon va Kxmer davlatlari milodiy I asrlar atrofida paydo bo'ladi. Ular bir-birlari bilan yaqin aloqada bog'langanlar. Bu davlatlar ichida eng kattasi Bapnom (Funan) imperiyasi bo'lib, u o'zining gullab-yashnagan davrida Janubiy Hind-Xitoyning butun Mon va Kxmer tekisligini egallagan. Bapnom davlati yangi eraning I asrlarida vujudga keldi. Milodiy II–III asrlarda mamlakatni birlashtirish tugagach, qadimgi Kxmer hukmdorlari istilochilik urushlarini olib boradilar. Kxmer hukmdorlaridan eng mashhuri Fanshiman bo'lgan. U kuchli flot quradi va qator qo'shni viloyatlarni bosib oladi. Bapnomning harbiy, dengiz va savdo qudrati milodiy IV asr o'rtalarigacha o'sib boradi. Sun'iy sug'orish inshootlari va ibodatxonalar qurilishi keng miqyosda olib boriladi. Mamlakatda hinduizm va budda e'tiqodlari tarqaladi. Hukmdor hokimiyati kuchayadi.

Milodiy V–VI asr boshlarida qadimgi Kxmer jamiyatida shimoliy guruhlar kuchaydi. Ular ilgari savdoda ishtirok etmagan edilar. Asta-sekin ular dengizbo'yi hududlarini bo'ysundiradilar. Bapnom imperiyasi zaiflashib, inqirozga yuz tutadi. Mon-Kxmer xalqlari Janubiy Hindiston madaniyatining ayrim unsurlarini, jumladan, yozuv, diniy til, ayrim diniy tasavvurlarni, monlar **asosan** buddizmni, kxmerlar hinduizmni qabul qilganlar.

6. Indoneziya xalqlarining qadimgi davlatlari. Milodiy I–IV asrlarda orollarda davlatlarning g'arbiy (malaya), sharqiy (yava) guruhlarini paydo bo'ladi. G'arbiy guruh Sumatra davlatlarini tashkil qiladi. Ularning ichida, ayniqsa, Markaziy Sumatraning tekislik qismida Malakka yarim orolining kichik davlatlari boshchiligida markazlashuv jarayoni tez boradi. Bu davlatlar hayotida tashqi savdo, tranzit savdo (ko'pgina ziravorlar, Malakka orollari bilan savdo qilingan) yetakchi o'rin tutadi. Janubiy–Sharqiy Osiyoning bu asrlardagi dengizchilari mon-kxmer va indoneziyaliklar edi. Shalmaladvipa (Malakka orolining qadimgi nomi) davlatlaridan eng mashhuri (II asrdan) Kataxa va Tambralinga edi. Ular nisbatan kuchli qo'shinga ega bo'lgan

boy davlatlar bo'lgan. Bu davlatlarda madaniy taraqqiyot darajasi yuqori bo'lib, shahar aholisi orasida sanskrit adabiyoti, yozuv va til, hinduizm va budda diniy ta'limotlari keng tarqalgan. Yava va Kalimantandagi Malaya va Yava davlatlari agrar mamlakatlar edi. G'arbiy Yavadagi Taruma va Mulavarmanna davlatlari (IV–V asrlar) sun'iy sug'orish inshootlari qurishni amalga oshiradilar. Qullar, chorva va yer-mulkka xususiy mulkchilikni induizm kohinlari qo'llab-quvvatlaydilar.

Hindi-Xitoy yarim orollarining sharqiy qirg'og'ida Indoneziya tillari oilasiga mansub xalqar yashaydigan Tyampa boshdan kuchli dengiz flotiga ega bo'lgan yirik savdo davlati bo'lgan. Tyampa hokimlari qirg'oq bo'yidagi qo'shnilarini talash bilan shug'ullanar, dengizdagi o'z qudratini muntazam namoyish qilardilar. Madaniyatda Tyampa Indoneziya dunyosiga tegishli bo'lib, ko'p hollarda ularga kxmerning ta'siri kuchli edi. Xan Xitoyi bilan urushlar, doimiy diplomatik va savdo aloqalari almashinib turilgan.

7. Qadimgi Janubiy-Sharqiy Osiyo madaniyati. Qadimda Janubiy-Sharqiy Osiyoda o'ziga xos yuksak madaniyat shakllandi. Hindi-Xitoy yarim orolining janubida tosh va g'ishtdan ibodatxonalar qurildi. Tasviriy san'atda dunyoviy o'ziga xos obrazlar va motivlar aks etdi. Hinduizm va budda madaniyati bilan yonma-yon yashagan mahalliy madaniyatlar o'zaro bir-birlarining madaniy yutuqlarini o'zlashtirdilar. Austro xalqlarining boy diniy-mifologik obrazlari, ajdodlar ruhiga va tabiat xudolari ruhlariga etiqod-an'alariga hinduizm va buddaviylik e'tiqodlari moslashdi. Ibodatxonalar qurilishida qo'ng'iroq, qalpoq uslubi keng tarqaldi. Tosh, yog'och va jezdand nafis haykalchalar yaratildi. Bu hududda hind diniy me'morchilik an'analari ta'siri kuchli edi. Kambodjaning Sambor ibodatxonasidagi hindulashgan xudolar haykallari, Markaziy va G'arbiy Hindi-Xitoyning davlatlari me'morchiligida budda uslubi yaqqol ko'rinadi.

Janubi-Sharqiy Osiyo qadimda Hindiston va Xitoy bilan yaqin aloqa o'rnatgan. Birinchi navbatda, savdo-ayirboshlash aloqasi o'rnatiladi. Bu o'z navbatida madaniyatlarning o'zaro muloqotiga va jadal migratsiyaga shart-sharoit yaratdi. Hinduizm, budda diniy e'tiqodlari va madaniyati, Xitoydan konfutsiylik diniy-axloqiy ta'limoti kirib keldi. Natijada mahalliy madaniyatlar boyidi. Me'morchilik va tasviriy san'atda yangi uslub va g'oyalar paydo bo'ldi. An'anaviy diniy e'tiqodlar bilan bir qatorda hinduizm, buddaviylik va konfutsiylik qaror top-

di. Milodiy I asrdan lakvyetlarda an'anaviy diniy etiqodlarni buddaviylik dini siqib chiqardi. Bu diniy me'morchilik va diniy haykal va tasvirlarda yaqqol o'z ifodasini topdi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Иофан Н.А. Культура Древней Японии. –М.: 1974.
2. Древние цивилизации / С.С. Аверинцев, В.П.Алексеев, В.Г. Ардзинба и др.: Под общ. ред. Г.М. Бонгард-Левина. –М.: МЫСЛЬ, 1989.

Asosiy sanalar

| | |
|---------------------------------------|---|
| Mil.avv. I ming yillikning II yarmida | Yapon orollariga qabilalarning migratsiyasi. |
| Mil.avv. IV–III asrlar | Ilk Vyetnam davlatlari. |
| Mil.avv. III asr | Aulak davlati. |
| Mil.avv. I asr | Mon-Kxmer davlatlarining paydo bo'lishi. |
| Milodiy I–III asrlar | Yaponiyada Yematay, Yamato davlatlarining paydo bo'lishi. |
| Milodiy I–VI asrlar | Indoneziyada Sharqiy (Yava) G'arbiy (Sumatra) davlat birlashmalarining tashkil topishi. |
| Milodiy II–III asrlar | Bapnom davlatining kuchayishi. |
| Milodiy IV–VII asrlar | «Qo'rg'onlar davri». |

QADIMGI SHARQ TARIXI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Tarixiy хотirasiz kelajak yo'q. –Т.:1998.
2. Ладынин И. А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. «Слово», Эксмо Э –М.: 2004.
3. Васильев Л.С. История Востока. Ч. I-II. – М.: 1993.
4. Древние цивилизации / С.С. Аверинцев, В.П.Алексеев, В.Г. Ардзинба и др.: Под общ. ред. Г.М. Бонгард-Левина. – М.: МЫСЛЬ, 1989.
5. История Древнего Востока: учеб.пособие /А.А. Вигасин. – 2-е изд. Испр. – М.: Дрофа. 2007.
6. История Древнего Востока. /Под редакции Кузищина. – М.: 2002 г.
7. История Востока. Т.1: Восток в древности / Отв.ред. В.А.Якобсон. – М.: 1997.
8. История Древнего Востока: тексты и документы / Под ред. В.И.Кузищина. – М.: 2002.
9. Никифоров В.Н. Восток и всемирная история. – М.: 1977.
10. Заблоцка Ю. История Ближнего Востока в древности /Пер. с польск. – М.: 1989.
11. Мелларт Дж. Древнейшие цивилизации Ближнего Востока. – М.: 1982.
12. Перепелкин Ю.Я. История Древнего Египта. СПб., 2000.
13. Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. Tuzuvchi: R.Rajabov. – Т.: Adib. 2013.
14. Хрестоматия по истории Древнего Востока / Под ред. Струве В. В. и Редера Д.Г. – М.: 1963.
15. Хрестоматия по истории Древнего Востока. – М.: 1980. Т. 1,2.
16. Хрестоматия по истории Древнего Востока. – М.: 1997.
17. Хрестоматия по истории Древнего Востока / Под ред А.А.Вигасина. – М.: 1997.
18. Харден Д. Финикийцы. Основатели Карфагена. – М.: 2002.

19. Иофан Н.А. Культура Древней Японии. – М.: 1974.
20. Дьяконов И.М. Пути истории. – М.: 1994.
21. История отечественного востоковедения с середины XIX в. до 1917 г. – М.: 1997.
22. Источниковедение истории Древнего Востока. – М.:1984.
23. Религии Древнего Востока. – М.:1995.
24. Васильев Л.С. История религий Востока. –М.: 1988.
25. Поэзия и проза Древнего Востока. – М.: 1973. (Библиотека всемирной литературы).
26. Луна, упавшая с неба. Древняя литература Малой Азии /Пер. и комм.В.В. Иванова. – М.: 1977.
27. От начала начал: Антология шумерской поэзии / Пер. и комм. В.К. Афанасьевой. Спб.: 1997.
28. Повесть Петеисе III. Древнеегипетская проза / Пер. и комм. М.А. Коростовцева. – М.: 1977.
29. Эпос о Гильгамеше (О все видавшем)/ Пер. и.комм. И.М. Дьяконова. – М., Л.: 1961.
30. Я открою тебе сокровенное слово. Литература древней Месопотамии / Сост. И.М. Дьяконов и В.К. Афанасьева. – М.: 1981.
31. Оппенгейм А.А. Древняя Месопотамия: Портрет погибшей цивилизации. – М.: 1990.
32. Мерперт Н.Я. Очерки археологии библейских стран. – М.: 2000.
33. История и культура Древней Индии: Тексты /Сост. А.А.Вигасин. – М.:1990.
34. Бэшем А.А. Чудо которым была Индия. – М.: 2000.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

Misr

1. Бруннер К. Золотой фараон. – М.: 1992.
3. Веллар К. Архитектура страны фараонов. – М.: 1990.
4. Ж.Ф. Шампольон и дешифровка египетских иероглифов. – М.: 1980.
5. Жан Кристиан. Египет великих фараонов. – М.: 1992.
6. Замаровский В. Их величества пирамиды. – М.: 1986.
7. Керам К. Боги, гробницы, ученые. Роман археологии. – М.: 1986.
8. Кинк Х.А. Египет до фараонов. – М.: 1964.

9. Ковтунович О.В. Вечный Египет. – М.: 1989.
10. Котрелл Л. Во времена фараонов. – М.: 1982.
11. Культура древнего Египта. – М.: 1976.
12. Матье М.Э. Во времена Нефертити. – М.: 1965.
13. Матье М.Э. Искусство древнего Египта. – М.: 1976.
14. Перепелкин Ю.Я. Тайна золотого гроба. – М.: 1968.
15. Рак И.В. Мифы древнего Египта. Спб., 1993.
16. Солкин В.В. Солнце властителей: Древнеегипетская цивилизация эпохи Рамессидов. – М.: 2000.

Old Osiyo

1. Вейнберг И.П. Человек в культуре древнего Ближнего Востока. – М.: 1986.
2. Вулли Л. Забытое царство. – М.: 1986.
3. Герни О.Р. Хетты. – М.: 1982.
4. Гиоргадзе Г.Г. Очерки по социально-экономической истории хеттского государства. – Тбилиси: 1973.
5. Дьяконов И. М. Языки Древней Передней Азии. – М.: 1967.
6. Кленгель-Брандт Э. Путешествие в древний Вавилон. – М.: 1979.
7. Клочков И. С. Духовная культура Вавилонии. Человек, судьба, время. – М.: 1983.
8. Косидовский З. Библейские сказания. – М.: 1987.
9. Крамер С. История начинается в Шумере. – М.: 1965.
10. Къера Э. Они писали на глине. – М.: 1984.
11. Маккуин Дж. Хетты и их современники в Малой Азии. – М.: 1983.
12. Мелларт Дж. Древнейшие цивилизации Ближнего Востока. – М.: 1982.
13. Оппенгейм А.А. Древняя Месопотамия. Портрет погибшей цивилизации. – М.: 1980.
14. Пиотровский Б.Б. Ванское царство (Урарту). – М.: 1959.
15. Сетон Ллойд. Археология Месопотамии. – М.: 1984.
16. Флиттнер Н.Д. Культура и искусство двуречья и соседних стран. – М., – Л.: 1958.
17. Шифман И.Ш. Ветхий завет и его мир. – М.: 1987.
18. «Я открою тебе сокровенное слово» / Сост. И.М. Дьяконов и В.К. Афанасьева. – М.: 1981.

Eron va O'rta Osiyo

1. Авеста. Пер. и ред. Стеблин-Каменского. – М.: 1994.
2. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. – М.: 1987.
3. Бонгард – Левин Г. М., Грантовский Э.А. От Скифии до Индии. – М.: 1983.
4. Грантовский Э.А. История Ирана. – М.: 1977.
5. Дандамаев М.А. Политическая история Ахеменидской державы. – М.: 1985.
6. Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика Древнего Ирана. – М.: 1980.
7. Аскарлов. А. Антинаучная позиция пан-ираниста (ответ на статью Р.Масова «Тюркизация арийцев») 03:30 25.01.2006. Источник – ЦентрАзия Постоянный адрес статьи <http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=1138149000>
8. А.Аскарлов: Тюрки коренные жители Средней Азии. Источник:http://nogaistan.ucoz.ru/publ/naroldy_uhavst-vujushhie_v_ehtnogeneze_nogajcev/tjurki/a_askarov_tjurki_korennye_zhiteli_srednej_azii/43-1-0-139
9. Columbia Electronic Encyclopedia, 6th Edition, 11/1/2011. Manba: <http://web.ebscohost.com/hrc/detail?vid=3&sid=5c0b8026-2c56-4181-8b41-ac2495e5a84b%-40sessionmgr114&hid=128&bdata=JnNpdGU9aHJjLWxpd-mU%3d#db=khh&AN=39044744>
10. Чайлд Гордон. «Арийцы основатели европейской цивилизации». – М.: Центрполиграф. 2007. 270 с.
11. Klaus Klostermaier »Questioning the Aryan Invasion Theory and Revising Ancient Indian History» ISKCON Communications Journal, vol.6, No.1 June 1998,
12. Бонгард-Левин, Эдвин Арвидович Грантовский. «От скифии до Индии. Древние Арии: Мифы и история». Издание второе исправленное и дополненное. – М.: Мысль, 1983. – 206 с.
13. Пути миграции Ариев .Алевтина ЭНГЕР. Источник: http://posteom.h16.ru/Path-Giper/Puti_migracii_arijevGX-2.htm
14. Григорьев С.А. (археолог, кандидат исторических наук). Синташта и арийские миграции во II тыс. до н.э. Новое в археологии Южного Урала. РАН:Уральское отделение, 1996 г.

15. Курганная гипотеза. Материал из Википедии свободной энциклопедии. WWW.wikipedia.org.
16. Андроновская культура. Материал из Википедии свободной энциклопедии. WWW.wikipedia.org
17. Арии. Материал из Википедии свободной энциклопедии. WWW.wikipedia.org
18. Бактрийско-Маргианский археологический комплекс. Материал из Википедии свободной энциклопедии. WWW.wikipedia.org.
19. Доисторическая Центральная Азия. Материал из Википедии свободной энциклопедии. WWW.wikipedia.org.
20. Индоарийские миграции. Материал из Википедии свободной энциклопедии. WWW.wikipedia.org.
21. История Индии. Антонов К.А. и др. История Индии (краткий очерк). – М.: Мысль, 1973. 558 с.; 18 л. илл.
22. ПРОИСХОЖДЕНИЕ Арийцев. Isaac Taylor - The Origin of the Aryans. Доисторический человек /Москва: Издание магазина «Книжное Дело» Моховая, д. Бикендорфъ. 1897 год.
23. Тамара Т.Райс. Скифы. Строители степных пирамид. 196 с. 2004.
24. История Древнего Востока. Под ред. Кузищина В.И. Учебник. – 2003, 3-е изд. – 462 с.
25. Чайлд Гордон. Арийцы. Основатели европейской цивилизации. 197с. Центрполиграф. – Москва: 2010.

Janubiy Osiyo

1. Алаев Л.Б. Сельская община в Северной Индии. – М.: 1981.
2. Альбедиль М.Ф. Забытая цивилизация в долине Инда. Спб., 1991.
3. Бонгард – Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация: История. Религия. Философия. Эпос. Литература. – М.: 2000.
4. Бонгард – Левин Г.М. Индия в эпоху Маурьев. – М.: 1973.
5. Бонгард - Левин Г.М., Ильин Г.Ф. Индия в древности. – М.: 1995.
6. Бэшем А.А. Чудо, которым была Индия. – М.: 1977.
7. Вигасин А.А., Самозванцев А.М. Артхашастра: проблемы социальной структуры и права. – М.: 1984.
8. Дюмон Л. Человек иерархический. Исследование кастовой системы Индии / Пер. с фр. СПб., 2000.

9. История и культура древней Индии. Тексты. – М.: 1990.
10. Кузьмина Е.Е. «Откуда пришли индоарии?» – М.: 1994.
11. Лысенко В.Г. Опыт введения в буддизм: ранняя буддийская философия. Учебное пособие. – М.: 1994.
12. Ольденбург С.Ф. Культура Индии. – М.: 1991.
13. Радхакришнан С. Индийская философия. Т.1-2. – М.: 1956, 1957.
14. Серебряков И.Д. Очерки древнеиндийской литературы. – М.: 1971.
15. Три великих сказания древней Индии. – М.: 1978.
16. Шарма Р.Ш. Древнеиндийское общество. – М.: 1989.

Xitoy. Uzoq Sharq

1. Антология древнекитайской философии. Т.1-2. – М.: 1972.
2. Вопросы истории Китая. – М.: 1981.
3. Васильев Л. С. Культы, религии и традиции в Китае (любое издание).
4. Васильев Л. С. Проблемы генезиса китайской мысли. – М.: 1988.
5. Илюшечкин В.П. Сословно-классовое общество в истории Китая. – М.: 1986.
7. История китайской философии. – М.: 1989.
8. Кравцова М. Е. История культуры Китая. 9. Конфуцианство в Китае. Проблемы теории и практики. – М.: 1982.
9. Личность в традиционном Китае. – М.: 1992.
10. Лукьянов А.Е. Начало древнекитайской философии: И Цзин, Дао Дэ Цзин, Лунь Юй. – М.: 1994.
11. Лукьянов А.Е. Лао-цзы и Конфуций: Философия Дао. – М.: 2000.
12. Переломов Л.С. Конфуций. Жизнь, учение, судьба. – М.: 1995.
13. Переломов Л.С. Конфуций. Лунь Юй. – М.: 1998.
14. Шуцкий Ю.К. Китайская классическая «Книга Перемен». В 2 т. Спб. – М.: 2000.

Kurs ishlari mavzulari

1. Qadimgi Sharqda davlat hokimiyati.
2. Qadimgi Sharqda qulchilik.
3. Qadimgi Sharqda jamoa.
4. Qadimgi Misr tarixi manbalari.
5. Misrshunoslik fanining vujudga kelishi.
6. Qadimgi Misr davlatchiligi.
7. Gerodot tarixida Misr.
8. Exnaton islohotlari.
9. Misr madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
10. Qadimgi Mesopotamiyada davlat va jamiyat.
11. Mesopotamiya mifologiyasi.
12. Xett davlatining siyosiy tarixi.
13. Osuriya davlati va jamiyati.
14. Falastin, Finikiya va Suriya antik mualliflar asarlarida.
15. Karfagen davlati.
16. Janubiy Arabiston davlatlari.
17. Zardushtiylik dini.
18. Behustun yozuvlari bo'yicha Ahmoniyalar davlati.
19. «Artxashastra» bo'yicha qadimgi Hindistondagi ijtimoiy munosabatlar.
20. Qadimgi hind madaniyatida buddaviylik dinining o'ri.
21. Qadimgi Hindiston va O'rta Osiyo aloqalari.
22. Qadimgi Hind madaniyati.
23. Qadimgi Xitoy tarixchilari.
24. Konfutsiy ta'limoti.
25. Qadimgi Koreya davlati.
26. Qadimgi Yapon jamiyati.
27. Qadimgi Indoneziya davlatlari.

Qadimgi Sharq tarixi bo'yicha ushbu kurs ishlari ro'yxati bilan talabalar tanlovi cheklanmaydi. Talabalar kurs ishini mustaqil ravishda shakllantirib, ilmiy rahbarga mavzuni taklif qilish huquqiga egalar. Eng muhimi, tanlanadigan ma'lum mavzu bo'yicha manba va adabiyotlar miqdori yetarli bo'lishi lozim.

IKKINCHI QISM

I BOB

QADIMGI YUNONISTON QADIMGI YUNONISTON TARIXI

1. Geografik o'рни, tabiiy sharoiti va aholisi. 2. Tarixiy asarlar. Manbalar. 3. Moddiy manbalar. 4. Yunon tarixini davr-lashtirish.

1. Geografik o'рни, tabiiy sharoiti va aholisi. Yunoniston geografik jihatdan uch qismga bo'linadi: 1. Fessaliya va Epir, shimolda Moli va Pagasey ko'rfazlari. 2. Janubdan Korinf va Saronika bilan cheklangan markaziy qism. 3. Peloponnes yarim orolidan iborat janub.

Yunonistonning shimoliy qismida Fessaliyani Epiridan Pind tog'lari zanjiri ajratib turadi. Qadimda bu ikki viloyat yunon madaniyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu yerda ilk bor shimoldan janubga tomon yunon qabilalari siljib kelgan.

Fessaliyada qadimgi yunon afsonalari paydo bo'ldi. Uning janubidagi Sperxa daryosi vodiysidagi axey Ftiotidasi axil va mirmidonlar vatani. Fessaliyadan afsonaviy Yason uzoq Kolxidaga oltin mo'yna uchun jo'nab ketgan. Dodonda Sella kohinlari muqaddas dub daraxtining barglarini shitirlashiga qarab fol ochganlar. Epir yunon madaniyatiga aloqasi bo'lmagan yovvoyi o'lka bo'lib, uni Markaziy Yunoniston bilan faqat xaon, tesprot, moloss va oresta kabi epir qabilalari joylashgan Axeloy daryosi bog'lab turgan.

Fessaliya barcha tomondan tog'lar bilan o'ralgan bo'lib, bu yerdagi ikki tekislikni fessaliyalik bosqinchilar ishg'ol qilganlar. Ular mahalliy aholini qaram penestlarga aylantirganlar. Qisman ularni vodiyaning tog'larga siqib chiqarganlar. Fessaliyaning g'arbiy qismida g'alla va chorvachilik rivojlangan. U yerda qulay qirg'oq va qo'ltiqlar yo'q. Shimoliy Yunonistonni Markaziy Yunonistondan dengiz va Oyta tog'lari orasida yotgan Fermopil daryosi ajratib turadi.

Markaziy Yunonistonda kam sonli tog'lik qabilalar joylashgan. Egey dengizi qirg'og'ida Evbey oroli qarshisida Opunt lokrlari

joylashgan. Mil.avv. V asrda afinaliklar uchun lokrlar qoloqlikning namunasi bo'lgan. Parnas (2450 m) va Kifris tog'larida joylashgan vakiiy qabilalari yanada qoloq bo'lgan. Markaziy Yunoniston yo'lidagi eng muhim joy bu Elateya shahri bo'lgan. Delfa qadimgi Elladaning diniy markazi vazifasini o'tagan. Parnasdan shimolda Yunonistonning eng kichik viloyati – Dorida (185 kv.km) bo'lgan. Ko'rinishidan doriylar shu yerda ilk bor o'rnashganlar. Fokidadan g'arbga Agra, evitan nomidagi illiriya qabilalari yashagan tog'li va ozroq unumdor vodiya ega bo'lgan Etoliya viloyati joylashgan.

Shimolda Epir bilan tutashgan Abrakiy qo'ltig'igacha bo'lgan hudud Akarnaniyada illiriya qabilalari yashagan. Janubda 3000 kv. km hududni egallagan Beotiya viloyati birdaniga 3 dengiz bilan tutashgan. Poytaxti Fiva bo'lgan Beotiyada g'allachilik, chorvachilik va baliqchilik kuchli rivojlangan. Beotiyani janubdan Kiferon va Parnas tog'larini o'rab turadi. Yunonistonning markazida tuprog'i dehqonchilikka noqulay bo'lgan Attika viloyati joylashgan. Qadimgi Attikada suv tanqis bo'lsa-da, marmar, kumush va zaytun daraxtlariga boy bo'lgan.

Afinaning dengiz yo'lini Salamin oroli to'sib turadi. Salamin uchun Afina Megara va Egina bilan uzoq urush olib borgan. Faqat Eginaning bo'ysundirilishi Afinaning dengiz savdosiga yo'l ochdi. Korinf va Saronik qo'ltiqlari orasidagi tog'lik hudud-da Megara shahri joylashgan. Korinf qo'ltig'idan so'ng Peleponnes yarim oroliga o'tish mumkin. Uning markazida Arkadiya balandligi turadi.

Lakoniya va Messeniya viloyatlari yarimorol g'arbida joylashgan. Bu viloyatlarda g'alla ekilgan. Messeniya shimolda Elida viloyati joylashgan bo'lib, Alfey va Kladey daryolari qo'shilish joyida har 4 yilda bir marta Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan Olimpiada shahri joylashgan. Elidadan shimolda Axeya viloyati turadi.

Yunonistonning iqlimi yumshoq, harorati 16°C ni tashkil etadi. Landshafti qadimda hozirgidek farq qilgan. Qalin o'rmonlar ko'p bo'lib, tuproq hozirgidek toshloq bo'lgan. Faqat ozgina yer unumdor bo'lgan. Mil.avv. VI asrgacha faqat bug'doy va tariq ekilgan. Keyin esa uzum va zaytun bu ekinlarni siqib chiqargan.

Yunonistonda oltin yo'q, mis juda ko'p. Xalkida shahrining nomi ham «mis» degan ma'noni bildiradi. Qadimda bu yerdan mis qazib chiqarilgan. Beotiya va Lakoniyadan sifati past temir, Tasos va Sifnos orollaridan mil.avv. VIII–VI asrlardan kumush

qazib olingan. Mil.avv. VI asrdan Lavrion kumush koni ochilgan. Bu konlardan olingan daromad mil.avv. V asrda Afinani qudratli flot qurishga va Yunonistonda yetakchi shahar-davlatga aylanishi hamda boshqa yunon shahar-davlatlariga boshchilik qilishiga shart-sharoit yaratgan. Afinada tog'-konchilik sohasida ulkan yutuqlarga erishildi. Konlarning chuqurligi 100 m ga yetgan. Qimmatli metallarni qidirib topish san'ati yuqori darajada bo'lgan. Kulolchilikda yunonlar haqiqiy san'atkor bo'lganlar. Tosh juda yuqori baholangan. Hamma joyda tosh mo'l-ko'l bo'lgan. Marmarning vatani Pentelikon Afinadan bor-yo'g'i 10 km uzoqlikda joylashgan. Mashhur Parfenon va Propiley inshootlari pentelikon marmaridan bunyod etilgan.

Egey dengizi havzasida mil.avv. III-II ming yilliklarda yunon bo'lmagan, kelib chiqishi Osiyodan bo'lgan turli leleglar, pelasg, kariylar joylashgan edi. Mil.avv. II ming yillik boshlarida Yunoniston hududiga axey qabilalari paydo bo'ldi. Axeylar bilan mahalliy pelasg, kariy va minoylar o'rtasida murakkab munosabatlar yuzaga keladi. Mil.avv. XII asrda Dunay ortidan Bolqon yarim oroliga doriy qabilalarining migratsiyasi boshlandi. Mil. avv. II ming yillik oxirida Yunoniston va Egey dengizi havzasini egallab oldi. Natijada yangi etnik birlik – ellinlar shakllandi. Ular to'rt qabila guruhidan iborat edi:

1. Axeylar. Ular tog'li Arkadiya, Krit oroli va Kichik Osiyoning ba'zi hududlarida yashar edilar;
2. Doriylar. Ular Peloponnes yarim orolining katta qismi, Krit va Rodos orollari, Kariya va Kichik Osiyoda joylashganlar;
3. Ioniylar. Ular Attika hududi, Egey dengizining markaziy orollari va Kichik Osiyodagi Ioniya viloyatini egalladilar;
4. Eoliylar. Ular Beotiya, Fessaliya, Etoliya, Lesbos oroli va Kichik Osiyodagi Eolida orolini egalladilar.

Mil.avv. XI-IX asrlarda yunon qabilalarining har bir guruhi o'z diniy dunyoqarashi, o'z sheva xususiyatlariga ega bo'lsalarda, bir tilda so'zlashib, o'zlarini bir xalq, bir madaniyatga mansub ekanliklarini his qila boshlaganlar.

2. Tarixiy asarlar. Manbalar. Qadimgi Yunoniston tarixiga oid manbalar ko'pligi va yaxshi saqlanib qolganligi bilan boshqa hududlar tarixidan farq qiladi. Bu manbalar ichida qadimgi yunon yozuvchilarining asarlari muhim o'rin tutadi. Ilk bor yunon prozaik asarlari yunoncha logos – hikoya deb atalgan. Logograflar yunon viloyat, shaharlari tarixini geografik o'zni, turmush tasviri va mifologiyada berganlar. Logograflar mil.avv. VII asrda yashaganlar. Ulardan miletlik Gekateyni, Kadi, Ev-

geon, Deiox, Damokl va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Fukidid Gerodotni ham logograflar safiga qo'shadi. Logograflar asarlarining ayrim parchalari keyingi antik mualliflar asarlarida bizgacha yetib kelgan.

Mil.avv. VI–V asrlarda Yunonistonda qator tarixiy asarlar yaratilgan. Bu davrda tarix bo'yicha ilk yunon yozuvchilari Gerodot, Fukidid va Ksenofontni ko'rsatish mumkin. Gerodot (mil.avv. 484–431\ 25) Kichik Osiyoning janubi g'arbidagi Kariya viloyatidagi Galikarnas shahrida tug'ilgan. U qarindoshi Paniasid bilan Galikarnas shahri Tirani Ligdamidga qarshi siyosiy kurashda qatnashadi. Natijada Paniasid o'ldirilib, Gerodot Galikarnasdan qochib ketadi. U Misr, Mesopotamiya, Eron, Shimoliy Qoradengizbo'yi, Sitsiliya va Egey orollariga safar qiladi. Afinada Perikl bilan yaqinlashadi, janubiy Italiyadagi Furiya shahriga boradi. Gerodotni vafot etgan joyi noma'lum. Uning qo'lyozmalari mil.avv. III asrda Aleksandriyalik olimlar tomonidan 9 jildga keltiriladi. Gerodot asari dunyodagi birinchi tarixiy asar emas. Ungacha 4 ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimgi sharq mamlakatlarida ko'plab tarixiy asarlar yaratilgan, lekin ular bizgacha yetib kelmagan. Sitseron uni tarixning otasi deb atagan. Bu ibora hozirgacha kitobdan kitobga ko'chib yuradi. Gerodot Ahmoniyalar Eroni bostirib kirgan mamlakatlar hududlari to'g'risida hikoya qiladi. Uning hikoyalari tizimga solinmagan bo'lib, ilmiy ahamiyatga ega emas.

Gerodotning kichik zamondoshi Fukidid (mil.avv. 460\ 51–396-yillar) frakiyalik bo'lib, Afinada yashadi. Fukidid Afinada strateg etib saylangan. Harbiy yurishlarda qatnashadi, Afina uning faoliyatini salbiy baholab, natijada u umrbod Afinadan quvg'in qilinadi. Frakiyada yashab, o'zining tarix asarini yozadi. Uning asari keyinchalik antik mualliflar tomonidan 8 kitobga, bob va paragraflarga bo'linadi. Ushbu 8 kitob Fukididga tegishli ekani shubha qilinadi. Fukidid Peloponnes urushi tarixini o'ziga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar asosida tahlil qiladi. Bu ilmiy-tarixiy tanqidning boshlanishi edi.

Ksenofontning Yunon tarixi bo'yicha yozgan asari Fukidid tarixining davomi edi. Afinalik Ksenofont (taxminan mil.avv. 430–360- yillar) boy, zodagon oilasidan bo'lib, Suqrotning shogirdi bo'lgan. U shahzoda Kayxusrav qoshinida yollanma sarkarda bo'lib xizmat qiladi. Shahzoda mil.avv. 401-yil Kunaks yonidagi jangda yengilgach, Ksenofont Spartaga harbiy xizmatga kirdi. Podsho Ageselay bilan do'stlashdi. Shundan so'ng

Afina uni xoin deb hisoblab, umrbod shahardan quvg'in qildi. Ksenofontning «Yunon tarixi» mil.avv. 410-yildan boshlanib, Peloponnes urushining nihoyasiga bag'ishlangan.

Kvint Kursiy Ruf Rim tarixchisi taxminan mil. I asrda yashab, 40-yillarda Makedoniyalik Aleksandrning tarixi nomli 10 jildli asarini yozdi. I-II jilddan boshqa barcha jildlari saqlanib qolgan. Asarda Makedoniyalik Aleksandrning faoliyati tanqidiy yoritilgan. Plutarxning «Qiyosiy tarjimayi hollar» asari qadimgi yunon-rim siyosiy arboblarning qiyosiy tarjimayi hollariga bag'ishlangan.

Makedoniyalik Aleksandrning Sharqqa yurishlaridan so'ng Yunoniston tarixida Arastu tarixi maktabi shakllandi. Bu davrning eng ko'zga ko'ringan asari Arastuning «Politiya» asaridir. Bu asar Arastu va uning shogirdlari tomonidan yozilgan bo'lib, yunon polislari, O'rtayer dengizi qirg'oqlaridagi yunon koloniyalari to'g'risida muhim ma'lumot beradi. Asar juda ko'p bo'limlardan iborat bo'lsa-da, bizgacha uning faqat «Afina politsiyasi» qismi yetib kelgan. Ellin davriga kelib, yunon jamiyatidagi keskin o'zgarishlar, katta davlatlarning vujudga kelishi bilan umumiy tarixga asos solindi. Bu davrning eng ko'zga ko'ringan tarixchilaridan biri Timey bo'lib, u o'zining asarida Bolqon Yunonistoni, g'arbiy yunon koloniyalari haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Qadimgi yunon tarixi bo'yicha eng muhim manbalardan biri arxeologik topilmalar hisoblanadi. Arxeologlar Bolqon Yunonistoni va Egey dengizi orollaridagi qadimgi ibodatxonalar, saroylar, mudofaa inshootlarini qazib ochdilar. Ayniqsa, Krit orolida ingliz arxeologi A. Evans 40 yildan ko'proq vaqt davomida Knoss saroyini qazib ochdi. Knoss saroyi katta supa ustida qurilgan bo'lib, maydoni 1 ga yaqin. Bu saroy Kritning afsonaviy podshosi Minosning qarorgohi bo'lgan. Kichik Osiyoda nemis arxeologi G. Shlimanning Troya xarobalarini qazib ochishi natijasida Troya shahar-davlati to'g'risida aniq ma'lumotlar paydo bo'ldi. Yunonistonning janubida mil.avv. II ming yillikka tegishli Miken, Tirinf va Pilos shaharlari o'rganildi.

Yozuvlar. Yunon tarixini o'rganishda yozuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Asosan, XIX asrning 70-yillaridan papirus topilmalarini o'rganish natijasida yangi «papirologiya» faniga asos solindi. Yunon jamiyatiga papirusning kirib kelishi Misr tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Qadimgi mashhur yunon lirik shoirlari Alkey, Sapfo, Korin, Pindar, Vaxximida va mashhur fojiana-

vislar Sofokl, Esxil, Evripid hamda mashhur hajviy asarlar muallifi Menandrlar o'z asarlarini papirusga yozishgan. Papirusga ko'chirilgan eng yirik asar Arastuning «Afina politiyasi» asaridir. Keyinchalik qog'oz paydo bo'lgach, papiruslar o'z ahamiyatini yo'qotgan. Ularni faqat hukmdor saroyidagi arxivlardan topish mumkin.

Kritdan eng qadimgi A chiziqli yozuv topilgan. Keyinchalik yunonlar bu yozuvni o'z tillariga moslashtirganlar (B chiziqli yozuv). Bu yozuvni 1953-yilda ingliz olimlari M.Ventris va J.Chedvik o'qidi. Matnlar xo'jalik hisobotlaridan iborat. Mil. avv. VIII asrda yunonlar finikiya yozuvini o'zlashtirib, 24 belgi alfavitli yozuvni yaratdilar. Mil.avv. VIII asrdagi qadimgi yunon yozuvi yodgorliklari Afina, Itaka va Liginadan, mil.avv. VII asrga tegishli yozuvlar Fera, Melos orollari va Egey dengizining janubiy qismidan topilgan. Yunonlarning to'liq shakllangan klassik alfaviti mil.avv. 403-yilga kelib 24 harfda (17 unli, 7 undosh harf) shakllanib bo'ldi. Keyinchalik Vizantiya ham shu yozuvdan foydalandi.

Memuar asarlar. Polislarning yemirilishigacha yunonlar tarix va adabiyotga oid asarlarni ko'pincha memuar shaklda yozishgan. Mil.avv. IV asrdagi eng yirik memuar asar Ksenofontga tegishli. U asosan harbiy sohaga oid ma'lumotlarni beradi. Ellinizm davrida memuar va tarjimayi hol ko'rinishidagi asarlar yozish odat tusiga kirdi. Ellin davri siyosatchilaridan Pirra va Arata eng yirik tarixiy asarlar muallifi hisoblanadilar. Ular «Axey ittifoqi» to'g'risida keng ma'lumotlarni yozib qoldirishgan.

Xatlar. Antik jamiyatda xatlar muhim o'rin tutgan. Ular ikki xil shaklda yozilgan: ochiq va yopiq. Platon, Isokrat va Sallyustiylar yozgan ochiq xatlarida falsafiy muammolar haqida fikr yuritilgan. Yopiq xatlar davlat ahamiyatiga molik xatlar bo'lib, maxsus kishilar nomidan yozilgan. Ularda asosan siyosiy va maxfiy ma'lumotlar yozilgan.

Poeziya, tragediyalar. Qadimgi Yunon tarixining manbalaridan biri Gomerning Iliada va Odissey poemalari. Hozirgi tadqiqotchilarning fikricha Iliada poemasining muallifi Kichik Osiyodagi frigiyalik shoir Daret bo'lgan. Har ikkala poema mil. avv. XI–IX asrlar ijtimoiy-iqtisodiy hayoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Yunon she'riy adabiyotining shakllanishi mil.avv. IX–VIII asrlarga tegishli bo'lib, bu davrni «Gomer davri she'riyati» deyishadi. Shoirlar Gomer, Gesiod va dramaturglar Evripid, Esxil, Sofoklning tragediyalari juda yaxshi saqlangan.

Gesiod o'zining «Mehnat va kunlar» asarida mil.avv. VII asrdagi yunon jamiyati ijtimoiy ziddiyatlari haqida yozadi. Komediya janri shakllandi. Aristofanning komedyalari yunon ijtimoiy hayoti to'g'risida boy ma'lumot beradi.

3. Moddiy manbalar. Shaharlar. Yunon tarixiy manbashunosligida shahar qoldiqlari muhim o'rin tutadi. Shaharlardagi saroylar, ibodatxonalar yaxshi saqlangan. Krit-Miken davri saroylari, inshootlari ko'plab topilgan. Qadimgi Yunonistonning Mikena, Tirinf, Pilos, Afina, Fiva va Orxomey shaharlarida saroy, qal'a qoldiqlari ochilgan. Axey saroylari Krit saroylaridan farq qilib, ularning barchasi mustahkam devorlar bilan o'rab olingan. Ulardan eng mashhuri Tirinf qal'asi bo'lib, uning devorlari ulkan ohaktosh xarsanglaridan qurilib, ba'zilar 12 tonna og'irlikka ega. Devorlar qalinligi 4,5 m, balandligi 7,5 m bo'lgan. Krit va Axey saroylari simmetrik, bir xil tuzilgan. Pilos saroyi ikki qavatli bo'lib, bir necha o'n xonadan iborat. Yunon me'morchiligining asosiy yodgorliklaridan bu – palestralar va gimnasiylardir. Palestralar – bu sport inshootlari jumlasiga kirib, u yerda asosan yosh bolalar muntazam sport bilan shug'ullanishgan. Gimnasiy ham sport inshooti bo'lib, bu yerda asosan katta yoshdagilar sport va fan bilan shug'ullanganlar. Bizgacha Afinaning ikki katta gimnasiysi saqlanib qolgan. Ulardan biri qahramon Akadem bog'ida, ikkinchisi likeylik Apolon dala hovlisida joylashgan.

Yunonistondagi madaniyat markazlaridan yana biri bu muqaddas joylar va ulardagi haykal va inshootlardir. Shaharlar tarixini o'rganishda qadimgi yo'llar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eng yirik yo'l xarobasi Afina va Pirey portidagi yo'l bo'lib, dengiz orti mamlakatlaridan mahsulotlar Pirey portiga tushirilib, shu yo'l orqali Afinaga keltirilgan. Bu mashhur yo'l Peloponnes urushlari davrida Sparta va uning ittifoqchilari tomonidan buzib tashlangan. Hozirgi kunda faqat uning xarobalarigina saqlanib qolgan. Pireydan tashqari, Yunonistonning ikki yirik porti – Samos va Aleksandriya ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Mudofaa devorlari. Yunon mudofaa va harbiy tarixida himoya devorlari va boshqa fortifikatsiya inshootlari muhim o'rin tutadi. Yunon tarixini qadimgi davriga oid mudofaa inshootlari Troya, Mikeni, Tirinf va Afinada yaxshi saqlangan. Undan tashqari, Xersones, Eley, Metapont va Akrogant shaharlari devorlari asl holicha saqlanib qolgan.

Tangalar. Yunoniston iqtisodiy tarixini o'rganishda tangalar muhim o'rin tutadi. XVIII asrda Venada o'tkazilgan qadimgi yunon tangalari ko'rgazmasida 70000 dona yunon tangalari kolleksiyasi namoyish etiladi. Qadimgi yunon tangalari iqtisod va savdo sohasidagi eng muhim ashyoviy dalildir.

Arxaik davr yunon tangalari kumushdan bo'lib, uning teskari qismida shahar ramzi yoki shahar nomining birinchi harfi tushirilgan. Ellin davri tangashunosligi arxaik davr tangashunosligidan farq qiladi. Ularda asosan hukmdorning surati va teskari tomonida esa yozuv va ramzlar tushirilgan. Tangalardan tashqari, tesserlar, ya'ni hozirgi kundagi chipta shaklidagi hujjatlar yaxshi saqlangan. Ular asosan sopol va metallardan tayyorlangan. Tesserlar ikki xil vaziyatda ishlatilgan: harbiy sohalarda kiyimlarga taqilgan bo'lsa, kundalik hayotda teatr va dam olish joylariga kirish uchun ruxsatnoma vazifasini o'tagan. Bizgacha yetib kelgan tesserlardan eng mashhuri Dionis teatriga kirish uchun ko'rsatilgan tesserlardir. Ularda asosan yunon harflari yozilgan. Har bir tesserda bitta harf uchraydi.

Ostrakonlar. Ular sopol parchalari bo'lib, Afina demokratiyasiga xavf soladigan siyosiy arbob, taniqli shaxslarga qarshi ovoz berishda ishlatilgan. Ular mil.avv. V asrga oid. Bizgacha yetib kelgan ortrakonlardan biri Femistoklga qarshi yozilgan.

Qadimgi Yunoniston tarixini o'rganishda faqat yuz bergan voqealarni qayd etadigan logograflarning asarlari ham muhim o'rin tutadi. Logograflar mil.avv. VII–VI asrlarda yashaganlar. Ular o'sha davr voqea-hodisalarini hech qanday izoh bermay tasvirlab, tarixni afsonalar bilan aralashtirganlar. Afsonalarga tarixiy voqealar deb qarab, unga ishonganlar. Mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmida yashagan miletlik logograf Gekatey o'z asarida Yunonistonning geografik xaritasini chizadi. Uning asarlaridan bizgacha ayrim parchalar yetib kelgan.

4. Yunon tarixini davrlashtirish. Mil.avv. III–II ming yilliklar. Yunon qabilalari doriylargacha yunon bo'lmagan egey yoki Krit-miken davri. Krit – miken jamiyati va madaniyatining gullab-yashnashi.

Qadimgi Yunoniston tarixini besh davrga bo'lish mumkin.

1. Mil.avv. XI–IX asrlar – Yunon - doriy qabilalarining ibtidoiy jamoa davri. Ibtidoiy jamoa munosabatlarining rivojlanishi.

2. Arxaik davr (mil.avv. VIII–VI asrlar). Ibtidoiy jamoa tartiblarining yemirilishi, yunon polis-davlatlarning shakllanishi, Buyuk yunon kolonizatsiyasi va ilk yunon tiraniyalari davri.

3. Mil.avv. VI asrning oxiri – mil.avv. V asr. Yunon polislarida iqtisodiy va madaniy yuksalish. Yunon demokratiyasining rivojlangan davri. Bu bosqich fanda klassik davr deb nomlanadi.

4. Yunon polis – davlatlarining tushkunlik davri (mil.avv. IV asr). Bu davrda yunon polisleri o‘zaro urushlar girdobida qoldi. Iqtisodiy ijtimoiy va siyosiy hayot tushkunlikka uchradi.

5. Mil.avv. III asr – mil.avv. I asrlar – Ellin davri. Ahmoniy-lar hukmronligidan so‘ng Yunon dunyosi va Old Osiyoda ellin davlatlari va madaniyati davri. Bu davr oxirida O‘rtayer dengizi, Egey dengizi havzasini Rim tomonidan sharqda Frot daryosiga-cha bo‘lgan hududlarni Parfiya bosib olishi bilan tugadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Боннар А. Греческая цивилизация. – М.: 1995.
2. Хаммонд Н. История Древней Греции. – М.: 2003.

Asosiy sanalar

| | |
|------------------------------|--|
| Mil.avv. VIII–VI asrlar | Tasos va Sifnos orollaridan kumush qazib olindi. |
| Mil.avv. VI asr | Lavrion kumush konlari ochildi. |
| Mil.avv. VI–V asrlar | Logograflar yashagan davr. |
| Mil.avv. VI asrning II yarmi | Miletlik Gekatey Yunoniston xaritasini yaratdi. |
| Mil.avv. VI–V asrlar | «Alohida polislar tarixi» davri. |
| Mil.avv. IV asr | Timey yashagan davr. |
| Mil.avv. IV asr | Ksenofont yashagan davr. |
| Mil.avv. IX–VIII asrlar | «Gomer she’riyati» davri. |
| Mil. avv. V asr | Afina siyosiy hayotida ostrakonlar qo‘llanilgan davr. |
| XVIII asr | Avstriya poytaxti Venada yunon tangalari ko‘rgazmasi o‘tkazildi. |
| XIX asr 70-yillari | Dastlabki papirus hujjatlar topildi. |

EGEY MADANIYATI

1. Egey dunyosi madaniyati. 2. Krit madaniyati. 3. Iqtisodiy-ijtimoiy hayot. 4. Miken madaniyati. 5. Kiklad madaniyati.

1. Egey dunyosi madaniyati. Krit-Miken madaniyati ingliz arxeologi Artur Evansning (1851–1941) Krit orolida olib borgan arxeologik qazishmalari, G. Shliman (1822–1892)ning Kichik Osiyodagi Hissorlik tepaligida Troya shahri xarobalarini qazib ochishi, Yunoniston janubida Miken va Tirinf shaharlarining arxeologik qazishmalari natijasida fanda ma'lum bo'ldi. Artur Evans Krit orolidagi Knoss saroylarini ochib, Kritning afsonaviy podshosi Minoy nomi bilan atalgan ajoyib Minoy madaniyati manzarasini yaratdi.

Genrix Shliman kambag'al pastorning o'g'li. Non topish uchun kichkina Genrix do'konda yugurdak, kemada yunga bo'lib xizmat qiladi. Og'ir ahvolga tushganda sadaqa so'raydi. Nihoyat Amsterdamdagi savdo uyiga agent bo'lib ishga kiradi. U 1846-yil firma ishlari bilan Rossiyaga kelib qolib, shu yerda turib qoldi. Qrim urushi (1853–1856-yillar) davrida rus armiyasi ta'minotchisiga aylanadi. Armiyaga chirigan charm etik va qog'oz taglik yetkazib beradi. Urushda rus armiyasi yengildi. Lekin G.Shliman millionlarni orttirib boyib ketdi. G.Shliman Amerika, Afrika, Hindiston, Xitoy va Yaponiyaga sayohat qildi. U 1861-yilda 42 yoshida Sarbonna Universitetining talabasiga aylandi va arxeologiya kursini o'rgandi.

U bolaligida Gomer poemasida Troya tasvirini o'qib, uni topib ochishni orzu qilgan edi. G.Shliman 1870-yil Turkiya hukumatining ruxsati bilan Kichik Osiyoda qadimgi Troya xarobalari bo'lgan Hissorlik tepaligini qazishni boshladi. Uch yil davomida u arxeologik qazishma ishlarini olib bordi. Tepalikda 13 madaniy qatlam bor edi. Troya qoldiqlarini topishni maqsad qilib qo'yan Shliman bu madaniy qatlamlarni ayovsiz buzib tashladi. U mil. avv. III ming yillikka tegishli qatlamdagi shaharni Troya ekaniga ishonib, qazishmalar natijasida katta miqdorda tilla buyumlar topdi. Bu buyumlarni biror-bir muzey sotib olishga qurbi yetmadi. Shliman janubiy Yunonistonda Mikenini qazib, shaharning mashhur «Sherlar darvozasi» poydevorini ochdi. Qabrlar-

dan boy tilla topilmalar, Agamemnon qabri hisoblangan qabrni mo'l-ko'l tilla buyumlar bilan topdi. Topilgan katta miqdordagi qadimgi tilla buyumlarni biror-bir muzey sotib olish imkoniyatiga ega emas edi. U Tirinf va Arxomenda ham qazish ishlari olib bordi. G.Shliman topilgan san'at asarlarini ilmiy tadqiq qilib, uch tilda kitob yozdi. G.Shliman Yevropada mashhur bo'lib ketdi, qirollar, hatto O. Bismark ham u bilan yozishmalar olib borishni o'zi uchun baxt hisobladi. U o'z kolleksiyasini Berlin muzeyiga sovg'a qildi. U Afinaga dafn qilindi.

Artur Evans arxeolog, Oksford muzeyi xodimi, taniqli arxeolog va geolog Jon Evansning o'g'li. U yunonlardan bir necha ming yil oldin bo'lgan mashhur Krit sivilizatsiyasini ochdi. Krit madaniyati mil.avv. III ming yillikda sharqdan kelgan xalq yaratgan ajoyib sivilizatsiya edi. A. Evans 1900-yilda qazishma ishlarini boshladi. Arxeolog hududi 20 ming kv metr dan ko'proq bo'lgan ulkan saroyning qoldiqlarini ochdi. Saroy bir necha qavatdan iborat bo'lib, saroyda ajoyib devoriy tasvirlari bo'lgan saroy zallari, turar joylar, ustaxonalar, omborlar, yer osti yo'llari va cho'milish joylari mavjud edi. Omborlarda don, moy qoldiqlari bilan ulkan sopol xumlar (pifos) saqlanib qolgan. Bundan tashqari, katta miqdorda qurol-aslaha, mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar topildi. Noma'lum tilda yozilgan loy taxtachalar yozuvlari topilib, ularni 50 yil davomida hech kim o'qiy olmadi. Faqat ingliz olimlari Maykl Ventris va Jon Chedvik 1953-yilda bu yozuvlarni o'qishga erishdilar. Evans bilan birga italyan arxeologlari qadimgi Fest shahri qoldiqlarini ochdilar.

Bundan tashqari, Amorgos, Paros, Sifnos, Siros, Naksos, Tera, Melos kabi Egey orollaridagi ko'pgina madaniy yodgorliklar ochildi. Natijada mil.avv. II ming yillikgacha Sharq xalqlari yaratgan va bu xalqlar yutuqlarini ijodiy o'zlashtirgan, yunonlargacha bo'lgan axeylarning Miken madaniyati deb atalgan madaniyatini yaxlit ko'rinishi shakllantirildi.

Qadimda Egey havzasida uch madaniy birlik mavjud bo'lgan:

1. Eng qadimgi Krit yoki Minoy madaniyati (mil.avv. 3000–1200-yillar, markazi Krit).
2. Orollardagi Kiklad madaniyati.
3. Bolqon Yunonistonidagi Miken madaniyati.

2. Krit madaniyati. Mil.avv. III–II ming yilliklarda Egey dengizi orollarida kelib chiqishi sharqdan bo'lgan krit-miken sivilizatsiyasi shakllandi. Bu madaniyat Kritning afsonaviy podshosi nomi bilan Minoy sivilizatsiyasi ham deb ataladi. Krit

sivilizatsiyasi hali yunonlar ibtidoiy jamoa davrini boshidan kechirayotgan paytda vujudga kelgan buyuk madaniyat edi. Ular yunonlargacha bo'lgan, yunoncha so'zlashmagan, o'z yozuvlariga ega xalq bo'lgan. Krit yoki Minoy madaniyati uch davrga: Ilk Minoy (mil.avv. 3000–2300/2100-yillar), O'rta Minoy (2300/2100–1600-yillar) va So'nggi Minoy (1600–1200-yillar) ga bo'linadi. Kritning ilk gullab-yashnash davri va uning Egey dunyosidagi yetakchiligi mil. avv. III–II ming yilliklarga to'g'ri keladi. Dastlab orolning janubiy-sharqiy qismi rivojlangan.

O'rta Minoy davrida Kritda «birinchi saroylar» davri bo'ldi. Knoss, Fest va Malliya kabi shahar markazlari rivojlandi. Krit me'morchiligining Kiklad va Ellada sivilizatsiyalaridan ajratib turadigan xususiyati, bu saroylarning ulug'vor qurilgani va saroylardagi nafis freska tasvirlarining yuksak san'at darajasida bo'lganidir. Freska tasviriy san'atining gullab-yashnashi «ikkinchi saroylar davriga» (mil.avv. XVII asr) va So'nggi Minoy davriga to'g'ri keladi. Krit orolida qudratli davlat tashkil topgan, uning kemalari dengizda hukmron bo'lgan. Krit bilan raqobat qiladigan biror-bir davlat bo'lmagan. Orolning mudofaa devorlari bilan o'rab olinmagani bundan dalolat beradi. O'rta Minoy davri Kritda taxminlarga ko'ra, yer qimirlashi natijasida halokat bilan tugallandi. Mil.avv. XVII asrda Knoss, Fest, Malliya saroylari xarobaga aylandi.

Ellik yildan so'ng Krit yana qayta tiklandi va bu yuksalish mil.avv. 1400-yillargacha davom etdi. Bu davrda Krit dengizda cheksiz hukmronlik qildi. Krit Bolqon yarim oroli, Misr, Iberiyaga oliy nav vino, zaytun moyini eksport qildi. Misrdan rangli shisha, fayans; Kipr orolidan mis; Suriyadan otash; Liviyadan qimmatbaho metallar va fil suyagi olib kelindi.

Kritning Egey dengizidagi yangi yetakchiligi mil.avv. 1700-yildan boshlanib, Knoss va Festda yangi saroylar qurilib, uning devorlari ajoyib freskalar bilan bezatilgan. Ingliz arxeologi Artur Evans Knoss saroyini 40 yil davomida tekshirdi va ajoyib san'at namunalarini topdi. Bir necha qavatli saroy Kritdagi ulug'vor inshoot edi. U bir necha marta qayta qurilgan bo'lib, podsho oilasi istiqomatgohi, rasmiy qarorgoh va xo'jalik inshootlaridan iborat edi. Saroyda ko'plab xona va zal devorlari did bilan bezatilgan. Krit me'morlari misrliklardan kolonnalar qurish san'atini egalladilar. Ularning tosh saroylarida juda yo'g'on, lekin kalta kolonnalar mavjud. Devoriy tasvirlarda hashamatli kiyingan ayollar va erkaklar, saroy hayoti manzara-

si, o‘simlik va hayvonlarning hayotiy ko‘rinishlari yuqori darajadagi badiiy usulda tasvirlangan. Krit kulolchiligida badiiy san‘atning nihoyatda yuksak darajasida shakllangani ko‘rinadi. Sopol idishlarda tabiatning boy manzaralari mohirona tasvirlanadi. Bunday tasvirlar ko‘za (amforalar), zaytun yog‘i va vino saqlanadigan, bo‘yi 2 m gacha bo‘lgan xum (pifos)larning sirtiga chizilgan.

Krit orolining janubidagi fest katta madaniyat o‘chog‘i bo‘lib, Knoss saroyiga o‘xshash ulug‘vor saroy ansambli – uch tosh terilgan hovli teatr – 500 kishilik, ziyoratgoh, ibodatxonalar mil. avv. 2200-yillar atrofida qurilgan. Mil.avv. XVIII asrdagi zilziladan so‘ng saroy qayta qurilib, kengaytiriladi. Saroy yuqori me‘morchilik namunasi darajasida bunyod qilingan. Ko‘p sonli xonalar, uzun yo‘laklar, devorlari toshdan yo‘nilgan plitkalar freska-tasvirlar bilan bezatilgan. Saroy atrofida shahar joylashgan. Mil.avv. 1470-yildagi zilzila festni to‘la vayron qilgan. Krit madaniyatining yuqori darajada rivojlanganligining yana bir dalili, Knoss saroyidagi bizgacha yetib kelgan raqqosa tasvirining bir qismidir. Raqqosaning go‘zal qaddi-qomatini nafis noziklikda tasvirlanganligidan hayratda qolgan arxeologlar uni shartli «parijlik ayol» deb nomladilar. Bu raqqosaning sochi o‘ziga xos did bilan ma‘lum bir uslubda turmaklangan. Knoss saroylaridan topilgan kohinalarning fayans haykalchalarida uzun yubka, yarim yalang‘och ko‘krak, nozik yelkalarga tushib turgan sochlar tasviri saroyda hukm surgan nozik did, yuksak madaniyat dunyosidan dalolat beradi.

Devoriy tasvir-freskalar va Krit xudolar panteonida ayol ma‘budalarining oldingi o‘rinda turgani, Krit jamiyati hayotida ayollarning mavqeyi yuqori darajada bo‘lganini anglatadi. Bundan tashqari, gemma va uzuklarda qalqon tutgan ayol, kabutar bilan ma‘buda, tog‘ cho‘qqisidagi ma‘buda va ikki sher o‘rtasidagi ma‘buda tasvirlari buning yaqqol misoli bo‘ladi.

Freskalarda Krit orolining saroy va diniy hayoti tasvirlari: yosh yigit-qizlarning yurishi, gullar orasidan yurib kelayotgan hokimning tasviri, qo‘shiq aytib raqs tushayotgan raqqosalar, qo‘lida marosim ko‘zalarini ko‘tarib ketayotgan o‘smirlar, Kritda diniy ramz sanalgan ikki yoqlama bolta-labris ushlagan kohina kabi tasvirlar aks ettirilgan.

Taxminlarga ko‘ra, O‘rta Minoy davrida orolning shimoliy qismida (poytaxti Knoss) mustaqil sulola, boshqasi janubda (poytaxti Fest) hukmronlik qilgan. Hokim oliy kohin vazifasini

ham bajargan. So'nggi Minoy davrida Kritdagi butun hokimiyat Knoss hokimlari qo'lga o'tadi. Siyosiy hokimiyat tuzilishi bilan Sharq despotiyasiga o'xshash bo'lgani ehtimoldan xoli emas. Podsho yerning oliy egasi bo'lib, ishlab chiqariladigan moddiy ne'matlarning katta qismini tasarruf qilgan. U mamlakatni o'z a'yonlari, yaqinlari yordamida boshqargan. Joylarda podsho noiblari boshqaruv ishlarini amalga oshirgan. Krit podsholari oliy dunyoviy hokimiyatdan tashqari, diniy hokimiyatga ham ega bo'lganlar. Fukididning ma'lumotlariga ko'ra, podsho Minos har 9 yilda Zevs tasviri turgan muqaddas g'orga borib, uning oldida o'z podsholik boshqaruvi to'g'risida hisobot bergan va o'z hukmronligining navbatdagi muddati uchun yorliq olgan.

Knoss saroyi xarobalari qazib ochilganda, podsho taxti bilan taxt turgan inshoot topilgan. Katta zalning ikki tomonida ehtimol davlat ishlarini muhokama qilishga to'planadigan podsho kengashi a'zolari o'tiradigan uzun o'rindiqlar qo'yilgan. Devoriy tasvirlarda Krit podshosi odatdagi odamlardan ko'ra, bo'yi bir necha marta baland qilib tasvirlangan.

Knoss saroyida 10 ming taxtachada qadimgi krit yozuvlari topildi. A.Evans bu yozuvlarni 30 yil davomida o'qishga urindi, lekin ocha olmadi. U 1940-yil vafot qildi. 1950-yil B-chiziqli yozuv o'qildi. U Knoss saroyining xo'jalik hujjatlari edi. Hozirgacha B - chiziqli krit yozuvi o'qilgani yo'q.

Mil.avv. XVI asrda yunon hali ibtidoiy jamoa davrida yashagan paytlarida, Kritda rivojlangan davlat va jamiyat, yozuv, yuqori darajadagi madaniyat hamda suv quvuri (vodoprovod) mavjud edi. Ushbu ajoyib sivilizatsiyani sharqdan kelgan qandaydir xalq yaratgan edi. Krit sivilizatsiyasini yunonlar o'zlashtirdilar. Shu sababli Krit madaniyati Yevropa sivilizatsiyasining asosi hisoblanadi.

3. Iqtisodiy-ijtimoiy hayot. Kritning ijtimoiy-siyosiy munosabatlari to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Qadimgi Krit jamiyatida qullar bo'lgani taxmin qilinadi. Kritda qul mehnatidan podsho xo'jaliklarida foydalanilgani, uy qulchiligi mavjud bo'lgani faraz qilinadi. Mil.avv. III ming yillikka borib taqaladigan Messara vodiysida mavjud bo'lgan guruhliy qabrlar, Vasilikadan topilgan ikki qavatli uylar jamoa munosabatlarining uzoq vaqt mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Knoss saroyining o'zida bir vaqtda 10 ming kishi yashagan.

Orolda qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangani ko'rinadi. Topilgan qishloq qo'rg'onlari yirik yer egaligi va boy dehqonlar bo'lganidan

dalolat beradi. Fest shahri yonidan topilgan koʻzaning sirtida, odatda, pishgan zaytun mevalarini urib tushiradigan panshasimon tayoq koʻtarib kelayotgan bir toʻda dehqonlar mohirona tasvirlangan. Podsho saroylarining koʻp sonli xonalaridan hunarmandchilik ustaxonalari topilgan. Kritda asosan uch soha: kemasozlik, kulolchilik va qurilish rivojlangan. Kritliklar mohir meʼmor boʻlib, koʻp qavatli saroylar, ustaxonalar va omborlar qurganlar. Kulolchilik yuqori darajada rivojlanib, kulollar turli shakldagi buyumlar yasagan. Kulollar odam boʻyidan baland qalin devorli xumlardan tortib, devori tuxum poʻchogʻidan ham yupqa nafis koʻzalar yasaganlar. Koʻzalarda rangli tasvirlar, ayniqsa, gullar, sakkiz oyoqlar (dengiz hayvoni) ustalik bilan tasvirlanadi.

Kemasozlar mil.avv. XVI–XV asrlarda suvda uzoq masofaga suzadigan dengiz kemalarini qurganlar. Knoss hukmdorlarining kuchli dengiz floti Oʻrtayer dengizining sharqiy qismi – Sitsiliyadan Suriyagacha, Misrdan Atlantikagacha suzar edi. Kritliklar Misr, Suriya va Sharqiy Oʻrtayer dengizining boshqa shaharlari bilan keng dengiz savdosini olib bordilar. Krit hunarmandchilik mahsulotlari namunalari Mesopotamiyadagi Mari shahridan topilgan. Misr devoriy tasvirlarida Krit (Kef-tiu) elchilari tasvirlanadi. Krit orolida esa Misr va Suriya hunarmandchilik mahsulotlari topilgan. Italiyaning Sitsiliya oroli va Kampaniya qirgʻoqlaridan topilgan Krit buyumlari gʻarbiy yoʻnalishda kritliklar qizgʻin savdo qilganlaridan dalolat beradi.

Mil.avv XV asr oʻrtalarida Kritning ichki va tashqi ahvoli oʻzgaradi. Krit oʻzining Sitsiliya va Egey havzasidagi mavqeyini yoʻqotadi. Dengiz davlati yemiriladi. Shu vaqtda Fera orolida Kritdan 100 km shimolda (mil.avv. 1470-yil) vulqon otilib, uning natijasida ulkan toʻlqin – sunami 30 metr balandlikda qirgʻoqdagi shaharlarni yuvib, gullab-yashnagan Krit shaharlariga shiddat bilan yopirilib kelgan, deb faraz qilinadi.

Mil.avv. 1450-yillarda Kritni zaiflashganidan foydalangan Yunonistonning janubida yashagan axey qabilalari orolga bostirib kirib, Kritning siyosiy yetakchiligiga chek qoʻydilar. Egey havzasi ikki asr mobaynida doriylar kelganlariga qadar axeylar hukmronligi ostida qoldi. Axeylar krit sivilizatsiyasining ajoyib yutuqlarini oʻzlashtira olmadilar. Ular krit sanʼatining yuqori badiiy qiymatini, goʻzalligini his qilishdan ojiz edilar. Aholi soni kamayadi, shaharlar boʻshab qolib, sivilizatsiya epitsentri Egey dengizining boshqa havzasiga koʻchdi.

4. Miken madaniyati. Yunoniston mil.avv. III ming yillikda ibtidoiy jamoa tuzumida edi. Gerodotning ma'lumotlariga ko'ra, Bolqon Yunonistonida tub joy aholi leleglar, pelasglar va kariylar yashar edilar. Ularning mehnat qurollari toshdan bo'lib, endigina mis qurollari tayyorlay boshlaganlar. Jez davri mil. avv. III ming yillik o'rtalaridan boshlandi. Shu davrdan boshlab ibtidoiy kichik qishloqlar o'rnida katta qishloqlar, mustahkamlangan qal'alar paydo bo'la boshladi. Urug'chilik munosabatlarining yemirilish jarayoni faqat mil.avv. III ming yillik oxiridan asta-sekin boshlandi. Mil.avv. III ming yillik oxirida hind-yevropa madaniy til birligiga mansub etnik guruhlar o'z vatanlari – Markaziy Yevropadan turli yo'nalishlarda ko'cha boshladi. Ulardan bir qismi Bolqon yarim oroliga kirib kelib, yunon etnosiga asos soldi. Ularni dastlab axeylar deb nomladilar.

Mil.avv. III ming yillik oxirlarida Bolqon Yunonistonida qabilalarning ko'chishi bilan jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Taxminlarga ko'ra, bu vaqtda Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'ida ham hind-yevropa tillarida so'zlashuvchi etnik guruhlar paydo bo'ladi. Ular Yunonistonda urug'chilik munosabatlarining yemirilishini vaqtincha sekinlashtirdilar.

Mil.avv. II ming yillik boshlarida kulolchilikda, kumushga ishlov berish ishlarida, urf-odat, an'analarda (jumladan, uy ichida, pol ostida yoki devor orasida bolalar qabri) yangi jihatlar paydo bo'ladi. Yangi etnik birliklar eskilari bilan aralashib, yangi moddiy va ma'naviy madaniyatni vujudga keltirdilar. Taxminan, mil.avv. XVIII asr oxirlarida Bolqon Yunonistonida mustahkamlangan kichik-kichik qishloqlar ko'plab paydo bo'ladi. Qabrlarda metall qurollar uchramaydi. Bolqon Yunonistonini Kritdan (qabrlarda Krit ko'zalari, Krit namunasi taqlid qilib yasalgan sopol buyumlar) boshqa hududlar bilan aloqalari deyarli yo'q edi. Mil.avv. 1600-yillar atrofida Kritda yuksak rivojlangan madaniyat mavjud bo'lgan paytda Bolqon Yunonistonda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi.

Axeylar mil.avv. III ming yillik oxiri – II ming yillikning birinchi yuz yilliklarida Yunoniston janubiga asta-sekin siljib, o'z manzilgohlarini barpo qila boshladilar. Ehtimol, ular ilk bor kulolchilik charxi, ot qo'shilgan arava va jang aravasini olib kelganlar. Mil.avv. XVI asrda kelgindilarning mahalliy aholi bilan to'la assimilatsiyasi tugallandi. Natijada yangi samarali iqtisodiyot, zodagonlar (ko'pincha harbiylar), kohinlar, oddiy ja-

moachilardan iborat ijtimoiy guruhlar shakllandi. Markaziy va Janubiy Yunonistonda markazi Miken shahri qudratli davlat va boshqa ilk davlatlar (Tirinf, Pilos, Afina) shakllana boshladi.

Miken madaniyati Ilk Miken (mil.avv. 1700-yillardan – 1550-yillargacha), Oʻrta Miken (1550–1400-yillar) va Soʻnggi Miken (1400–1200-yillar) davrlariga boʻlinadi. Egey havzasida 400 yil davomida bir xil madaniyatning mavjud boʻlishi uni shartli ravishda «Miken» madaniyati deb atalishiga sabab boʻldi. Miken (Axey) sivilizatsiyasining gullab-yashnagan davri mil.avv. XV–XIII asrlarni oʻz ichiga oladi. Miken siyosiy markaz sifatida oʻz hukmronligini keng qamrovda amalga oshira olmadi. Mikenda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida faqat Miken madaniyatiga mansub inshootlar qazib ochildi. 1876-yilda arxeolog G. Shliman Mikendan qoyaga oʻyilgan shaxta tipidagi qabrlarni topdi. Qabrlardan kumush va oltin bilan bezatilgan jez qilichlar, oltin va kumush qadahlar, tilla niqoblar va boshqa buyumlar topildi. Qabr toshlarida ov va jang manzaralari tasvirlangan.

Mil.avv. XV asrdan Mikenda va Yunonistonning boshqa viloyatlarida gumbazli qabrlar rasm boʻla boshladi. Bunday qabrlarda hokimlar dafn qilingan. Mikendagi mashhur «Agamemnon qabri» hashamatli va ulugʻvor qilib qurilgan. 5 metrgacha balandlikda boʻlgan ogʻir eshiklar, usti har biri taxminan 120 tonna keladigan ikki xarsang tosh bilan yopilgan. Qabrlardan koʻp miqdorda qimmatli buyumlar, qurol-yarogʻlar topilgan. Miken madaniyatining kulolchilik mahsulotlari Rodos, Kipr, Kichik Osiyo, Misr, Sitsiliya va Janubiy Italiyaga chiqarilgan. Bolqon Yunonistonida mil.avv. 1400-yildan mustahkamlangan qoʻrgʻonlar (Terin, Miken, Afina, Fiva, Iolik) paydo boʻladi.

Miken sanʼati koʻp jihatdan Krit madaniyati bilan oʻxshash. Miken tasviriy sanʼatida mavhum chizgilar va oʻsimliklar tasviri, hashamatli kiyingan kishilarning bir xildagi tantanali yurishlari mavjud. Tasvirlarda statiklik, shartlanganlik hukm suradi. Bu davrda monumental meʼmorchilik mavjud emas. Diniy tasavvurlar toʻgʻrisida maʼlumotlar juda kam. Diniy rasm-rusumlar gemma va muhrlarda ifodalangan. Joylardan diniy topilmalar boʻlgan mehroblar qoldiqlari topilgan. XX asrning 60-yillarida Miken akropolidan (mustahkamlangan qalʼa) diniy marosimlar bajariladigan markaz topildi. Markazdan topilgan topilmalar ichida qoʻllarini yuqoriga koʻtargan 16 ta loy haykalcha, loydan yasalgan ilonlar va mehrob bor. Muqaddas joy yaqinida turar

joy binosi bo'lib, tadqiqotchilarning fikricha, bu binoda bosh kohin yashagan. 1953-yil ingliz olimlari Ventriss va Chedvik Miken saroylaridan topilgan buyumlarda sanoq, hisob-kitoblar to'g'risida ma'lumot beradigan loy taxtachalardagi Miken yozuvlarini o'qidilar.

Miken sivilizatsiyasining asosiy markazlari mil.avv. XV–XII asrlarda Miken, Tirinf va Pilos edi. Ularning ichida Miken bu davrda eng kuchli davlat birlashmalaridan biri bo'lib, axey dunyosining yetakchisi bo'lgan. Gomer Miken podshosi Agamemnonni Troyaga qarshi umumiyunon yurishining yo'l boshchisi deb tilga oladi. Zaiflashgan Krit mil.avv. XV asr o'rtalarida Miken istilosiga uchrab, unga qaram bo'ldi. Axey hukmdorlari Mikenda ulkan inshootlar, boyliklarga to'la «shaxta qabrlar, mustahkam qal'alarni barpo qildilar. Miken qal'asining kirish qismidagi darvozaning tepa qismida ikki sher relyef tasviri tushirilgan. Miken shahrida hashamatli podsho saroyi, Miken hukmdorlarining katta va ajoyib sag'analari mavjud.

Tirinf Mikenga qo'shni bo'lgan yana bir axey davlat birlashmasi edi. Tirinf hokimining saroy qal'asi balang va ulug'vor qurilgan. Qal'a devorlari og'irligi 12 tonnagacha bo'lgan yaxlit ohaktoshlardan bunyod qilingan. Ularning eni 4,5 metrgacha, balandligi 7,5 metrgacha yetadi. Qal'a devorlarining ba'zi joylarida oziq-ovqat va qurol saqlanadigan ombor inshootlari qurilgan.

Qal'aning ichida ikkinchi mudofaa devori tepalikda joylashgan podsho saroyini himoya qilgan. Saroyga yaqinlashish maxsus to'siq inshootlari bilan himoyalangan. Qal'ada ichimlik suv zaxirasi bilan shahar tashqarisidagi suv manbasiga boradigan yashirin yerosti yo'li qurilgan. Chunki Tirinf uchun eng xavfli raqib Miken 17 km uzoqlikda joylashgan edi. Tirinf saroyi devorlari ov manzaralari, hashamatli kiyingan xonimlarning aravadagi tasvirlari bilan bezalgan.

Axey davlatlaridan yana biri Peloponnes yarim orolining janubiy-g'arbida joylashgan, markazi Pilos bo'lgan Pilos shahar-davlatidir. Gomer «Iliada» dostonida Troyaga qarshi yurishga qatnashgan yunon floti ichida eng ko'p sonli 90 kemadan iborat Pilos floti to'g'risida hikoya qiladi. Bu flotning qo'mondoni Pilos podshosi Nestor edi. Nestor yunon yo'l boshchilari ichida eng donosi, Pilosning o'zi esa eng boy davlatlardan biri hisoblangan. Pilos podsho saroyi yaxshi saqlanib qolgan bo'lib, Miken saroy me'morchiligining eng yaxshi namunasi hisobla-

nadi. Bu saroy maydoni boshqalarga qaraganda kichik bo'lsa-da, uyg'un rejalashtirilgan. Saroy devori freskalar bilan, toshdan yasalgan pol geometrik va dengiz mavjudotlari tasvirlari bilan bezatilgan. Xonalarning biridan Pilos davlati va jamiyati, Miken sivilizatsiyasining turli sohalari to'g'risida ma'lumot beradigan bir yarim ming loy taxtachadan iborat arxiv topilgan. Pilos doimiy raqobat va o'zaro urushlar ichida bo'lgan Miken va Tirinfdan uzoqda joylashgan. Pilos mil. avv XIV–XII asrlarda eng rivojlangan va farovon davlat bo'lgan. Miken, Tirinf va Pilos Janubiy Yunoniston va Peloponnesda shakllangan axey davlatlari edi. O'rta Yunonistonda ilk davlat birlashmalari Attika va Beotiya viloyatlarida mil.avv. XIV–XII asrlarda shakllana boshladi.

Mil.avv. XIV asrda Kichik Osiyoda Axaya davlati mavjud bo'lgani to'g'risida mixxat yozuvlari ma'lumot beradi. Xett manbalarida (XIV–XIII asrlarda) Axaya deb atalgan davlatni tadqiqotchilar Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo va Rodos orolida deb turli farazlar qiladilar. Yunonistonning Axaya davri siyosiy tarixi yaxshi yoritilmagan. Ba'zi olimlar Miken boshchiligida yagona Axaya davlati mavjud bo'lganini yozadilar. Bir necha Axaya davlatlari mustaqil mavjud bo'lib, ular vaqtinchalik birlashgan bo'lishlari mumkin. Troya urushi yunon qabilalarining tarqalishi jarayonining bir unsuri bo'lishi mumkin. Axey koloniyalari Kichik Osiyoning g'arbiy va janubiy qirg'oqlarida paydo bo'ldi. Rodos va Kiprda axeylar o'rnashib olganlar. Mil. avv. 1000-yillarning oxirida Kipr Kichik Osiyodagi panfliyalik axeylar tomonidan o'zlashtiriladi. Sitsiliya va Janubiy Italiyada axey faktoriyalari (tayanch nuqtalari) paydo bo'ladi. Axeylarning Old Osiyo mamlakatlari qirg'oq bo'ylariga kuchli bosqini «dengiz xalqlarining» harakati deb ataladi. Ilmiy farazlarga ko'ra, mil. avv. XIII asrda yuz yil davomida doriylar va boshqa xalqlarning Bolqonga kuchli tazyiqi axey sivilizatsiyasining halokatiga olib keldi. Ularning bir qismi Attika va boshqa viloyatlar, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'i va Kipr orolida saqlanib qoldi. Qolgan qismi qirilib ketdi.

Mil.avv. XII asr boshida Sharqiy O'rtayer dengizining Osiyo qirg'og'ida filimstimlar deb atalgan xalqlar o'rnashdi. Ularning manzilgohlaridan bu yerda ilgari bo'lmagan, shu yerning o'zida ishlab chiqarilgan Miken sopolga o'xshash buyumlar ko'plab topilgan. Bu vaqtda Bolqon Yunonistoniga shimoldan turli qabila guruhlarini migratsiyasi boshlandi. Yodgorliklarda mod-

diy-ma'naviy madaniyatning tushkunligi ko'rinadi. Bu vaqtdan boshlab temir o'zlashtirila boshlanadi. Eng avvalo, Peloponnes yarim oroli va Kritga doriylar kelib o'rnashadilar. Troya urushi to'g'risida muammoli fikrlar juda ko'p. Qadimgi Troya Kichik Osiyoda joylashgan bo'lib, jez asrida paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin Troyaning yoshi Mikendagi shaxta qabrlaridan yosh jihatidan 600 yil katta bo'lgan va Bolqon yarim orolidan kelgan qabilalar tomonidan bosib olinishi mumkin emas edi. Troya shahri hududidan arxeologlar olti madaniy qatlamlarni qazib ochdilar. Bu madaniy qatlamlar Troyada hayot uzluksiz davom etganligidan dalolat beradi. Mil.avv. 1800-yillar atrofida Troya-VI qatlami paydo bo'ldi.

5. Kiklad madaniyati. Kiklad Krit shimolining Egey dengizidagi ko'pgina orollar majmuasidir. Ularni yunonlar «kikladlar» ya'ni «aylana» deb atashgan. Kiklad orollarida qadimda kariy va leleglar yashaganlar. Ularga Krit orolidan ko'chib kelganlar qo'shilgan. Aholi uzumchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Kiklad orollari bilan Egey havzasidan chekkadagi o'lkalalar bilan dengiz savdosi alohida o'rin tutadi. Kema egalari, hunarmandlar, savdogarlar orol ijtimoiy hayotida yetakchi o'rinni egalladilar. Tadbirkor, uddaburon savdogar, boy hunarmand va kemasozlar dengiz savdosining tashkilotchilari edilar. Kiklad orollari aholisi katta-kichik, pishiq qilib qurilgan bir-ikki qavatli uylardan iborat shahar ko'rinishidagi kichik manzilgohlarda yashaganlar. Kichik shaharchalar jamoa asosida xalq yig'inlari orqali boshqarilgan deb taxmin qilinadi. Shaharchalar, odatda, dengiz qirg'oqlarida, port yaqinida qurilgan. Port yaqinida maydon bo'lgan. Bu yerda bozor bo'lib, savdo va boshqaruv ishlari muhokama qilingan. Kiklad orollarida mil.avv. XVI-XV asrlarda Knoss hukmronligi o'rnatildi. Knossga qaramlik o'lpon to'lash bilan cheklanib, Kiklad o'ziga xos madaniyatni saqlab qoladi. Ammo mil.avv. XV asr o'rtalarida Fera orolida otilgan vulqon Kiklad orollari halokatiga sababchi bo'ldi. Dengizda ko'tarilgan ulkan sunami qirg'oqdagi shaharlarni vayron qildi. Vulqon kuli inshootlarni olov ichiga soldi. Ko'plab kishilar halok bo'ldi. Vulqon otilgandan so'ng to'zib ketgan aholi va vayrona orolchalar Peloponnes va Bolqon Yunonistonining boshqa hududlaridan kelgan axeylar o'ljasiga aylandi. Kiklad madaniyati uch yirik davrga bo'linadi: 1. Qadimgi Kiklad davri (2700-2300-yillar). 2. O'rta Kiklad davri (2300-1500-yillar). 3. So'nggi Kiklad davri (1500-1100-yillar).

XIX asr oxiri XX asrdan Egey dengizi orollarida ham faol arxeologik qazilma ishlar olib borildi. Ingliz arxeologlari Antikoros orolidan jez davri yodgorliklarini topdilar. Shundan soʻng Melos, Seros, Spornos, Loros va Naksos orollarida arxeologik qazish ishlari olib borildi. 1932-yil yosh yunon arxeologi Spiridon Marinotos Minos orolining yirik porti Amnissni topdi. U arxeologik ishlarda Strabonning «Geografiya» asaridan keng foydalandi. 1967-yil arxeologlar Fera orolidan Akrotir shahrini topishdi. U Egey Pompeyasi deb ataldi. Vulqon kullari ostidan vulqon otilishi oqibatida halok boʻlgan shahar qoldiqlari topildi. Qazishmalar natijasida tosh tashalgan koʻchalar, katta inshootlar, uylarning ikkinchi va uchinchi qavatlar va ularga boradigan zinapoyalar saqlanib qolgan. Inshootlar devorlariga ajoyib tasvirlar tushirilgan: koʻk rangli maymunlar, antilopalar tasviri, ikki kurash tushayotgan bola, ularning birini qoʻlida maxsus qoʻlqop. Qizil, sariq va yashil rangdagi ot va mox oʻti bosgan qoyalar, sariq poyalardagi qizil nilufarlar, ularning ustidan uchayotgan qaldirgʻochlar. Boshqa tasvirda shaharning koʻrinishi va koʻp kemalar suzayotgan dengiz tasvirlanadi.

Kiklad madaniyati jez davri madaniyati boʻlib, orollardan jezdan yasalgan mehnat qurollari, sopol buyumlar, zeb-ziynatlar topilgan. Rassomchilikda freska tasvir sanʼati yuksak rivojlangan. Kiklad madaniyati yodgorliklarida Kichik Osiyoning taʼsiri koʻrinadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Лурье С. Я. Язык и культура микенской Греции. – М., – Л.: 1957.
2. Андреев Ю.В. От Евразии к Европе. Крит и Эгейский мир в эпоху бронзы и раннего железа (III начало I тыс. до.н.э.). СПб. 2002.
3. Томсон Дж. Исследования по истории древнегреческого общества. Доисторический эгейский мир. – М.: 1958.
4. Пендлбери Дж. Археология Крита. – М.: 1950.
5. Полякова Г. Ф. Социально-политическая структура пилосского общества. – М.: 1978.
6. Штоль. Г. Шлиман. – М.: 1965.

Asosiy sanalar

| | |
|--------------------------------|---|
| Mil.avv. III–II ming yillik | Dunay ortidan yunonlar Bolqon yarim oroliga bostirib kirdilar. |
| Mil.avv. III–II ming yilliklar | Kritning gullab-yashnashi. |
| Mil.avv. 3000–2300-yillar | Ilk Minoy davri. |
| Mil.avv. 2300–1600-yillar | Oʻrta Minoy davri. |
| Mil.avv. 1600–1200-yillar | Soʻnggi Minoy davri. |
| Mil.avv. XVII asr | Kritda «Ikkinchi saroylar» davri. |
| Mil.avv. 1700–1550-yillar | Ilk Miken davri. |
| Mil.avv. 1550–1400-yillar | Oʻrta Miken davri. |
| Mil.avv. 1450-yil | Kritning siyosiy yetakchiligiga axey qabilalari tomonidan chek qoʻyilishi. |
| Mil.avv. 1400–1200-yillar | Soʻnggi Miken davri. |
| Mil.avv. XV asr | Miken va Yunonistonda gumbazli qabrlar paydo boʻldi. |
| Mil. avv. 1400-yillar | Qoʻrgʻonlar paydo boʻldi. |
| Mil.avv. XII asr | Sharqiy Oʻrtayer dengizi Osiyo qirgʻo-gʻida filimstimlar kelib oʻrnashdi. |
| Mil.avv. XI asr | Temirning oʻzlashtirilishi. |
| Mil.avv. VIII asr | Gomer yashagan davr. |
| XX asr 60-yillarida | Miken akropoli topildi 1953-yil M.Ventris va D.Chedvig Miken yozuvlarini oʻqidilar. |
| Mil.avv. I ming yillik oxiri | Kipr va Panfiliya axeylar tomonidan oʻzlashtirildi. |
| 1800-yil | Troya VI qatlami paydo boʻldi. |
| 1822–1892-yillar | Nemis arxeologi Genrix Shliman hayoti va faoliyati. |
| 1851–1941-yillar | Ingliz arxeologi Artur Evans hayoti va faoliyati. |
| 1876-yil | Genrix Shliman Mikendan shaxtali qabrlarni topdi. |

GOMER DAVRI YUNONISTONI. YUNON SHAHAR-DAVLATLARINING SHAKLLANISHI

1. Gomer davri Yunonistoni. 2. Yunon polisining shakllanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari. 3. Shaharlar va pul-tovar munosabatlari taraqqiyoti. 4. Davlat qurilishi. 5. Buyuk kolonizatsiya. 6. Tiraniya.

1. Gomer davri Yunonistoni. Mil.avv. XIII asrda axey davlatlari tushkunlikka yuz tutdi. Axey davlatlarining zaiflashuvi bilan hozirgi Makedoniya va Epir hududida yashagan doriy qabilalari mil.avv. XII asrda Yunonistonga bostirib kirdilar. Doriylar o'z hududlarini frakiya qabilalari tazyiqi ostida tark etdi. Yunonistonda axey hududlarini doriylar yuz, bir yuz ellik yil davomida egalladilar. Mil.avv. XI asr oxirida doriylar butun Shimoliy va O'rta Yunonistonga o'rnashib, Peloponnesning katta qismini o'zlashtirdilar. Axeylarning bir qismi doriylar tazyiqi ostida Attika hududi va Egey dengizi havzasiga ko'chdilar.

Yuqori darajada rivojlangan axey davlatlarini bosib olgan doriylar ibtidoiy jamoa turmush tarzida va harbiy demokratiya sharoitida yashar edilar. Doriylar axeylarning shaharlarini vayron qildilar va ibtidoiy jamoa tuzumida yashashni davom ettirdilar. Yunonlar bu davrda ibtidoiy jamoa tuzumida yashadilar. Ayrim paytda urug'lar o'zlariga tegishli biror-bir umumiy masalani yechish uchun kattaroq tashkilot – fratriyaga birlashganlar. Fratriyalar birlashib, qabila – filni tashkil qilgan. Fratriya va urug' bir umumiy ajdoddan kelib chiqqan. Urug' boshliqlari bilan bir qatorda, fil va fratriyaning Gomerda filobasiley deb eslatiladigan yo'l boshchilari bo'lib, urug' boshliqlari ularga o'z hokimiyatlarining bir qismini berganlar. Bir necha urug'lar bir qabilaga birlashgani uchun qabila oqsoqoli saylanadi.

Shimol xalqlari va doriylar mil.avv. XIII asrda Yunonistonga kirib keldi. Axeylar Yunonistonning bir necha viloyatlarida saqlanib qoldi. Yunon tarixidagi mil.avv. XI–IX asrlarni tarixchilar «Qorong'i davrlar» deb ataydilar. Chunki bu davrga oid ma'lumotlar juda kam. Mil.avv. XI–IX asrlardagi yunon tarixini o'rganish bo'yicha asosiy manba bo'lib, Gomerda «Iliada» va «Odissey» dostonlari xizmat qiladi. Shu sababli bu davr

Gomer davri deb ataladi. Bu davr uchun asosiy manba bo'lgan Gomerning «Iliada» va «Odissey» dostonlari orqali yunon jamiyatining uch yuz yillik hayotini qayta tiklash mumkin. Poemalarda axeylarning Troyaga yurishi, shaharning bosib olinishi, Troya urushi qahramonlaridan biri bo'lgan Odisseyning ko'pgina sarguzashtlardan so'ng uyga qaytishi hikoya qilinadi. Shu tarzda poema axey sivilizatsiyasi gullab-yashnashining so'ngi davri hayotini tasvirlaydi. Lekin Gomerning o'zi mil.avv. VIII asrda yashagani uchun o'tmish voqealarini o'zi yashagan davr nuqtayi nazaridan zamonaviylashtiradi.

«Odissey» va «Iliada» dostonlarida yunon jamoasidagi mulkiy tabaqalanishni, urug'chilik munosabatlari zaiflashganini, basileylar bilan hokimiyatga intilayotgan ko'p sonli urug' zodagonlari qatlami shakllanayotganini kuzatish mumkin. Asta-sekin mehnat taqsimoti natijasida dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqadi. Poemalarda temirchi, tosh teruvchi, duradgor va kema yasovchilar to'g'risida hikoya qilinadi. Erkin kishilar bilan bir qatorda, qullar ham mehnat qilganlar. Qulchilik hali xonaki shaklda ko'rinadi. Ularning soni ko'p emas edi. Xo'jayin qul bilan yonma-yon jismoniy mehnat qilishdan hali jirkanmagan. Odisseyning otasi Laert yerda ishlaydi. Uning xotini Penelopa kalava yigiradi. Navsakiya kir yuvadi. Odissey sol, Paris butun bir saroy qur'adi. Odisseyning xo'jaligida 50 qul bo'lgan. Gomer o'tmish qahramonlarini sharaflab, o'zi yashagan davrning mavjud ijtimoiy tabaqalanishining hayotiy tasvirini chizadi Olimp xudolariga borib taqaluvchi yo'lboshchi podsholar bilan oddiy xalq ommasi o'rtasidagi yetilib kelayotgan qarama-qarshiliklar kichkina bir epizodda o'z aksini topgan: Troyani qamal qiluvchilar bilan yo'lboshchi Agamemnon o'rtasida unga qarshi norozilik tug'diruvchi, o'jar Tersit obrazining kelib chiqishi voqeasida ijtimoiy hayotni ko'rish mumkin. Qadimgi Troya xarobalarini XIX asrda havaskor arxeolog Genrix Shliman ochdi.

Urug'-jamo'a kichik qishloqlarda yashab, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Jamoani saylab qo'yilgan oqsoqol-basiley urf-odat, an'analar asosida boshqargan. Basiley urug' mulkini qo'riqlagan, urug'doshlarini sud qilgan va urug'ning afsonaviy asoschisini hurmatlashga bag'ishlangan marosimlarni o'tkazishda boshchilik qiladi. Axey sivilizatsiyasi asta-sekin parchalana boshladi. Mil.avv. XIII asr oxiridan axeylarning parokanda ahvoli vaqtida shimoldan doriy qabilalari Yunonistonga bostirib kirdi. Doriylar mil.avv. XI asrning oxiri-

ga kelib butun Shimoliy va O'rta Yunoniston, Peloponnes yarim orolining katta qismini egallab oldilar. Bu davrda ularda ibtidoiy jamoa munosabatlari hukm surgan. Dostonlarda aholi qishloqlarda yashab, shahar to'g'risida tasavvurga ega bo'lmagani bayon qilinadi. Xo'jalik natural shaklda bo'lib, aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi. Asosiy ekin tariq edi. Savdo ibtidoiy ayirboshlash holatida edi. Gomer davri yunonlari hatto ularning zodagonlari ham kichik, qo'pol qurilgan, poli tuproq, xona o'rtasida gulxan yoqiladigan uylarda yashaganlar. Mil.avv. XI asrda xo'jalik hayotidagi bir qancha qiyinchilikdan so'ng temir o'zlashtirilib, xo'jalik hayotining jonlanishi boshlandi. Ammo Yunonistonda unumdor yerlar juda kam bo'lgan. Taqchil bo'lgan unumdor yerlarning asosiy qismini donli ekinlar egallay boshlagan. Bog'dorchilik, uzumchilik va zaytun darraxtlarini o'stirish yo'lga qo'yilgan. Chorvachilik rivojlangan. Gomer poemalariga ko'ra, qoramol asosiy ayirboshlash vositasi bo'lgan. «Iliada»da katta uch oyoqli jez buyum 12 buqaga, mohir usta ayol 4 ho'kizga tenglashtiriladi. Hunarmandchilikda katta o'zgarishlar yuz berdi. Mehnat qurollari tayyorlashda temir keng qo'llanila boshlandi. Jamoada oilalarning birgalikdagi mehnatiga o'rin qolmadi. Temirdan yasalgan mehnat qurollari ish unumdorligini oshirdi. Oila moddiy ehtiyojini o'z mehnati bilan qondirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu sababli ekin yerlari berildi. Keyinchalik bu yerlar xususiy bo'ldi.

Erkin dehqon xo'jaligi asosiy ishlab chiqaruvchi bo'ldi. Jamoaning alohida bir ko'rinishi sifatida jamoa-polis jamiyat tashkilotining asosiy shakli bo'ldi. Keyinchalik polis shahar-davlatga aylandi. Har bir oila iqtisodiy mustaqil birlik bo'lib, ular huquqlarda teng edilar. Jamoada shakllanayotgan urug' zodagonlari jamoani o'z nazorati ostiga olishga urinar edilar. Polis-jamoa asosan ikki vazifani bajargan: aholini va hududni qo'shnilar bosqini va tazyiqidan himoya qilish va jamoaning ichki munosabatlarini tartibga solish. Hali davlat tashkiloti yuzaga kelmagan edi.

Mil.avv. IX asr oxirida yunon dunyosi dehqonlarni birlashtirgan yuzlab kichik polis-jamoalardan yoki ular katta-kichik qishloqlardan iborat edi. Asosiy iqtisodiy birlik mustaqil xo'jalik yuritish asosida tirikchiligini o'tkazadigan, oddiy turmush kechirib, tashqi dunyo bilan aloqasi bo'lmagan patriarxal oila bo'lgan. Yunon dunyosida hali katta yer egalari, yersiz, birovga qaram oilalar, odamlar va jamoa a'zolari yo'q edi.

Hunarmandchilikning sohasi bo'lgan kulolchilikda protogeometrik usul shakllandi. Dafn marosimlari o'zgardi. Endilikda tuproqqa dafn etish o'rniga jasadni krematsiya qilish (yoqish) rasm bo'ldi. Bolqon Yunonistonidan yuqori darajada rivojlangan Sharqqa yunonlar kirib kela boshladi. Mil.avv. XI asr oxiridan Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'ida yunon qo'rg'onlari paydo bo'lib, ularning aholisi eoliy, ioniy va doriy shevalarida so'zlashgan.

2. Yunon polisining shakllanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Qadimgi yunon jamiyatining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy tashkilotining asosiy shakli polis edi. Polis bu – jamoaning alohida tipi bo'lib, dehqon va shahar aholisini o'zida birlashtirgan yerga ishlovchilar – fuqaro jamoasi edi. Yunon polisining taraqqiyoti va shakllanishini belgilaydigan asosiy shartlari quyidagicha edi: Eng avvalo, davlat va xususiy mulk birlashgan antik mulkchilik shakli edi. Yunon jamoasi a'zosi bo'lgan fuqaro yerga egalik qilish huquqiga ega edi. Har bir fuqaro polis hududida yer ulushiga ega bo'lishi shart edi. Yerga egalikning oliy huquqi fuqarolar jamoasiga tegishli edi. Polis tashkilotining ajralmas qismi fuqarolik muassasasi edi. Polis aholisi to'la huquqli fuqarolar, to'laqonli huquqga ega bo'lmagan va huquqi bo'lmagan aholi toifalaridan iborat edi. Polis jamoasi tarkibiga kirgan fuqarolar iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy huquqlarning majmuasiga ega edilar. Faqat polis fuqarolarigina aholining imtiyozli qismini tashkil etar edi.

Fuqaroning asosiy ramzi ozod kishi mavqeyi edi. Yunon fuqarolik mavqeyini fuqaro ota-onadan tug'ilishi bilan olar edi. Fuqarolik huquqini boshqa polisdan kelganlarga sovg'a qilishga faqat polisning xalq yig'ini haqli edi. Oligarxiya hukmron bo'lgan polislarda fuqarolik mavqeyiga ega bo'lish uchun fuqaro mulkiy senz, yerga egalik, og'ir qurol-aslahasi mavjudligi shartlarini bajarishi lozim edi. Polisning iqtisodiy asosini qishloq xo'jaligi, yerga fuqaroning erkin mehnat qilishi tashkil etar edi. Yerga egalik, dehqonchilik uzoq vaqt polis fuqarosining imtiyozi bo'lib qoldi. Polis fuqarosidan boshqa hech kim uning hududida yerga egalik qilish huquqiga ega emas edi. Polis fuqarolar jamoasiga tegishli jamoa yerlariga egalik qila olmas edi.

Har bir fuqaroning eng muhim huquqi va bir vaqtning o'zida majburiyati, bu uning o'z polisining himoyasida shaxsan ishtirok etishi edi. Uncha katta bo'lmagan yunon polislari muntazam qo'shin saqlash qobiliyatiga ega emas edilar. Shu

sababli, uning himoyasi erkaklar zimmasida edi. Qo‘shinning asosini tashkil qilgan og‘ir qurollangan falangani o‘rta hol fuqaro-dehqonlar tashkil etar edi. Yunon polisining ajralmas qismi – fuqarolik jamoasida o‘z-o‘zini boshqarish edi. Xalq yig‘ini, kengash, sud va ijroiya hokimiyati lavozimlari fuqaro jamoasining qo‘lida bo‘lib, hech qachon undan ajralmadi.

Polis jamiyatida barcha huquqiy me‘yorlar manbasi xalq yig‘inida ishlab chiqilgan qonun edi. Fuqarolarning qonunlarini ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishdagi ishtiroki ajralmas huquq edi. Shunday qilib, polis fuqarolik jamoasi a‘zolari bo‘lgan shahar va qishloq aholisi uyushgan yopiq jamoani tashkil qilib, o‘z imtiyozlari va huquqlarini qat’iy saqlab, himoya qilar edi. Polis hududi shahar va uning atrofidagi qishloqlarni o‘z ichiga olgan. Yunon shahar-davlatlari hududi va aholisi soni bo‘yicha har xil bo‘lgan. Eng katta shahar-davlat Sparta hududi 8400 km² bo‘lib, aholisi 150- 200 ming kishi, Afina hududi 2500 km², aholisi 120-150 ming kishi. Hududi 30-40 km², aholisi 5-12 ming kishi, 1000 kishidan 2000 ming kishigacha bo‘lgan yunon shahar-davlatlari ham bor edi. Lekin maydoni 30-40 km² (5x 8 km), aholisi bir necha yuz kishi bo‘lgan polislar ham mavjud bo‘lgan. Shu tarzda yunon polisi mitti davlat bo‘lib, uning hududini 2-3 kunda piyoda aylanib chiqish mumkin edi. Polis-shahar davlatning uncha ko‘p sonli bo‘lmagan fuqarolari bir-birlarini yaxshi tanigan, har bir fuqaroning kelib chiqishi va yurish-turishi barchaga ma’lum bo‘lgan polis-davlat hududi markazida shahar bo‘lib, bu yerda qishloq aholisining bir qismi: hunarmandlar, savdogarlar yashagan, xalq yig‘ini to‘plangan ibodatxona bo‘lgan. Odatda, shaharlar portlar, gavanlar bilan dengiz sohiliga joylashgan. Shahar markazida tepalikda mustahkamlangan qal’a – akropol bo‘lib, bu yerda ibodatxona, shahar xazinasini binosi bo‘lgan. Akropol yonida bozor – agora maydoni bo‘lib, bayramlar, sport musobaqalari va xalq yig‘ini o‘tkazilgan. Polis hududida bir necha qishloqlar joylashgan, lekin shahar markazi boshqaruvi bitta bo‘lgan. Polisda aholi asosan uzumchilik, zaytun ekini, hunarmandchilik, savdo bilan shug‘ullangan. Aholining ijtimoiy qatlami asosan mayda dehqonlar, hunarmand va savdogarlardan tashkil topgan.

Har bir yunon polisi suveren davlat bo‘lib, o‘z fuqaroligi, qonunlari, hokimiyat organlari, ibodatxona, teatr, xalq yig‘ini o‘tadigan maydoni, palestr, gimnasiy va stadion kabi jamoat

inshootlariga ega edi. Yunon polislarining barchasi Spartadan tashqari, shahar atrofida birlashgan bir necha qishloq majmuasi edi. Sparta 5 qishloq birlashgan polis edi. Har bir polisda vaqt o'tishi bilan polis tuzilmasi tugallangan shaklni oldi va barqaror fuqarolik siyosiy tashkiloti (demokratiya yoki oligarxiya) shaklida faoliyat ko'rsata boshladi.

3. Shaharlar va pul-tovar munosabatlari taraqqiyoti. Mil. avv. VII asrda Yunon shaharlarida savdo-hunarmandchilik tez sur'atlarda taraqqiy qildi. Shaharlar sezilarli darajada o'sdi. Korinf va Afinada 25 ming, Miletida 70 ming, Sibaris shahrida 50 ming kishi yashar edi. Barcha shaharlar dengiz savdosi bilan shug'ullangan. Bu kemasozlikning rivojiga sabab bo'ldi. Mil. avv. VII asrda palubali ko'p yuk ko'taradigan kemalar paydo bo'ldi. 50 eshkakli Finikiya pentekopterlari bilan bir qatorda «Iliada» dostonida eslatiladigan ikki qatorli eshkaklar – diyeralar, uch qatorli – trieralar paydo bo'ldi. Mahsulot bilan to'la kemani endilikda qirg'oqqa tortib chiqarish mumkin emas edi. Shu sababli, mil.avv. VII asrdan port va gavanlar qurilib, langar (yakor)dan foydalanila boshlandi.

Mil.avv. VIII asrda O'rtayer dengizi savdosi finikiyaliklar qo'li-da edi. Sharq mahsulotlari mo'l-ko'l bo'lib, yunon mahsulotlari ular bilan raqobat qila olmas edi. Mil.avv. VII asrda ahvol o'zgardi. Yunon savdogarlari finikiyaliklar bilan raqobatlasha boshladilar. Yunonlar keramika, gazlama, zaytun va vino eksport qila boshladilar. Pul-tovar xo'jaligi, savdo o'lchov birliklari tizimi va yozuvning shakllanishiga olib keldi. O'lchov birligi, yozuv Bobil va Misrdan o'zlashtirib olindi. Yunonlar Misrning o'nlik sanoq tizimidan foydalandilar. Mil.avv. VII asrda ilk bor tanga pul paydo bo'ldi. Birinchi to'laqonli tangalar Kichik Osiyodagi Lidiyada zarb qilindi. Oltin va kumush aralashmasidan iborat elektron deb ataladigan tanga zarb qilindi. Tangalar uzunchoq shaklda, bir tomonida davlat ramzi, ikkinchi tomonida kvadrat tasviri tushirilgan edi. Yunonistonning pul birligini 436,5 gramm og'irlikdagi mina tashkil qilgan. Bir mina 8,73 g og'irlikdagi 50 staterga bo'lingan.

Savdo-hunarmandchilik taraqqiyoti bilan ustaxona egalari va savdogarlardan iborat kuchli ijtimoiy qatlam vujudga keldi. Ular siyosiy hayotdan hukmron urug' zodagonlarini chetlatishga urindilar. Pul-tovar munosabatlari, savdoning rivojlaniishi, Italiya, Sitsiliya va Qora dengizbo'yanidan arzon g'allaning import qilinishi yunon polislarida qishloq xo'jaligining ahvoli

yomonlashuviga va g'alla ekadigan dehqonlarning xonavayron bo'lishiga olib keldi. Bu jamiyatda ijtimoiy tabaqalar o'rtasida ziddiyatlarni keskinlashtirdi.

4. Davlat qurilishi. Qadimgi davrda sud ishlarini urug' jamoasining o'zi bajarar edi. Davlat hokimiyati urug'dan bu vazifani tortib oldi. Zodagonlar uzoq vaqt sud hokimiyati, boshqaruvni o'z qo'llarida saqlab turdilar. Vaqt o'tishi bilan ular bir qism hokimiyatni yangi ijtimoiy kuchlarga berishga majbur bo'ldilar. Yangi ijtimoiy kuchlar bo'lgan savdo-hunarmandlar tabaqasi zodagon sudyalarga hokimiyatiga chek qo'yish uchun odatdagi huquqni yozishni talab qildi. Jamiyat yana olg'a qadam tashlab, savdo munosabatlarini muvofiqlashtirishga, majburiy qoidalarini kiritish ehtiyojini tug'dirdi. Qonunlarning eng qadimgi kodifikatsiyasini Lokrada Zalevk (Italiyadagi yunon shahrida), Katanada Xarond (Sitsiliyadagi yunon shahrida) amalga oshirdi.

Yunon shaharlarida odatdagi huquqni yozish va yangilash barchaning hurmatiga sazovor bo'lgan «diallakt» – murosa-ga kel'tiruvchi yoki «aysyumet» – adolatni biluvchi kishilarga ishonib topshirilgan. Yunon an'analariga ko'ra, «yetti donodan biri» Lesbosdagi Mitilena shahrida Pittak, Sirakuzada Diokl, Fivada Filolay, Afinada Drakont va Solon shunday kishilardan edi.

Yangi qonunchilik natijasida sudyalarga mansabdor shaxs sifatida saylab qo'yiladigan bo'ldi. Chiqarilgan hukmni xalq yig'inida appelatsiya (qayta ko'rib chiqish) qilish mumkin edi. Qadimgi qonunchilikda jazo hajmi va xususiyati aniq belgilanib, sudya o'zicha jazo belgilay olmas edi. Huquqiy hujjatlar-da «qonga-qon», «jonga-jon» olish an'anasi mavjud edi (talion huquqi). Jazo juda og'ir edi. Drakont qonunchiligida (mil.avv. 622-yil) jinoyatning og'ir, yengil shakllari yo'q edi. Faqat Solon bu tushunchani kiritdi. Drakont qonuniga ko'ra, har qanday o'g'rilik uchun o'lim jazosi belgilangan. Bundan tashqari, qonunda pul jarimasi, qullikka sotish, kaltaklash va fuqarolik huquqidan mahrum qilish ko'zda tutilgan edi. Qarzini to'lama-gani uchun qarzdor turmaga qamashga hukm qilingan. Drakont qonunlari «fonos dikayos» – o'zini himoya qilish maqsadida odam o'ldirish jinoyati tushunchasini olib kirdi. Bu holda aybdor quvg'in qilinishi yoki pul jarimasi to'lashi ko'zda tutilgan. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi turli yunon shaharlarida siyosiy

vaziyatni murakkablashtirdi. Ularning ko'pchiligida tiranlar hokimiyatni qo'lga oldilar.

Mil.avv. VIII–VI asrda Buyuk yunon kolonizatsiyasida Afina qatnashmadi. Attikada mavjud hosildor yerlardan qishloq xo'jaligida unumli foydalanildi. Kulolchilik sohasi rivojlandi. Mulkiy tabaqalanish kuchaydi. Siyosiy hokimiyat yevpatridlar – urug' zodagonlari qo'lida edi. Yevpatridlarga qarshi dehqonlar, savdo-hunarmandchilik tabaqalari – demos qat'iy kurash olib bordi.

5. Buyuk kolonizatsiya. Temir qurollarning xoj'alikda keng qo'llanila boshlanishi dehqonchilik, ayirboshlash, hunarmandchilik rivojlanishiga olib keldi. Yunonlar ilk bor egey dengizi havzasiga chiqa boshladilar. Mil.avv. I ming yillikning boshlarida ilk bor finikiyaliklar begona hududlarda o'zlarining tayanch nuqta (koloniya – manzilgoh)larini barpo qila boshladilar. Finikiyaliklardan so'ng yunonlar ham bu jarayonda faol ishtirok etdilar. Koloniyalar begona hududlarda ularni tashkil etgan finikiyalik va yunon savdogarlari uchun savdo-sotiq olib boriladigan tayanch nuqtalar bo'lib xizmat qilgan. Yunonlarning koloniyalarni barpo qilish faoliyati mil.avv. VIII–VI asrlarga to'g'ri keladi. Bu vaqt Buyuk yunon kolonizatsiyasi davri deb ataladi.

Koloniyalarni barpo qilishning bir necha sabablari bor edi. Birinchi navbatda, Yunonistonning bir necha viloyatlarida aholining haddan tashqari ko'payib ketganligi edi. Arxaik davrining boshlanishida aholi sonining keskin o'sishi natijasida demografik portlash yuz berdi. Ishlab chiqarish kuchlarining zaif rivojlanishi oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarning taqchilligiga olib keldi. Yunonistonning o'zida dehqonchilik qilish uchun yaroqli bo'lgan yerlar deyarli yo'q edi. Shu sababli, aholining ortiqcha qismi begona hududlarga ko'chib ketib, yangi yerlarni o'zlashtirishga majbur bo'ldi.

Buyuk yunon kolonizatsiyasining yana bir ijtimoiy sababi bor edi. Kambag'allashgan jamoachi dehqonlar o'zlarining boyib ketgan zodagon qarindosh (evpatrid)lariga qarzi uchun qul bo'lishni xohlamadilar. Ular o'zlarining qarzlari uchun garovga qo'yilgan bir parcha yerlarini tashlab ketishga majbur bo'ldilar. Ular uchun yagona yo'l boshqa hududlarga ketish edi. Arxaik Yunonistonning qishloqlari bu vaqtda ancha rivojlandi, ilk savdo, hunarmandchilik qilinadigan gavjum joy bo'ldi. Ayirboshlash xo'jalik hayotida sezilarli o'rinni egallay boshladi. Boshqa joylar bilan mahsulot ayirboshlashni o'ziga kasb qilib olgan kishilar paydo bo'ldi. Shaharlar tarkib topdi.

Yunon shaharlaridagi tabaqaviy ijtimoiy-siyosiy kurash kolonizatsiya jarayonini yana bir sababi edi. Shaharlarning iqtisodiy taraqqiyoti ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirdi. Shahar aholisining turli tabaqalari o'rtasida ijtimoiy-siyosiy kurash kuchayib ketdi. Ayrim hollarda siyosiy kurashda yengilgan guruh shaharni tashlab ketishga majbur edi. Shuningdek, savdo-hunarmandchilikning rivojlanishi xomashyoga bo'lgan ehtiyoj va tayyor mahsulotni sotish uchun yangi hududlarni izlab topish zaruriyatini tug'dirdi. Bundan tashqari, arxaik davrda Yunonistonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan viloyatlarida fuqarolarni qarzi uchun qul qilish qonun bilan taqiqlandi. O'sib borayotgan iqtisodiyotni arzon ishchi kuchi – qullarga bo'lgan talabini qondirish uchun begona hududlardan qullarni olib kelish boshlandi. Yunon kolonistlari ko'p hollarda yangi qul bozorlarining tashkilotchilari bo'ldilar.

Begona joylarda yunonlar o'z tayanch nuqtalarini mahalliy aholi bilan kelishgan holda, ayrim hollarda kuch ishlatish yo'li bilan barpo qildilar. Yunonlar begona hududlarda ba'zida mahalliy aholining qarshiligiga duch keldilar, ba'zida do'stona aloqaga kirishdilar. Kiklad, Sporada orollari va Kichik Osiyo qirg'oqlari dastlab yunonlar o'zlashtirgani sababli, mil.avv. VIII asrda aholining ko'chishi g'arbda Sitsiliya va Janubiy Italiyaga, shimoliy-sharqda Qora dengiz qirg'og'iga tomon yo'naldi. Janubiy Italiya mil.avv. VIII–VI asrlarda kolonizatsiya qilindi. Bu yerdagi kolonistlar o'zlarining kelib chiqishlarini Peleponnes axeylaridan deb hisoblar edilar. Yunonlarning koloniyalari asosan 3 geografik yo'nalishda bordi: Shimoliy Qora dengiz havzasi; Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'i va Apennin yarim orolining janubi va Sardiniya, Korsika va Sitsiliya orollarining ayrim qismlari.

Mil.avv. VII–VI asrlardagi kolonizatsiya jarayonida barpo qilingan yunon shaharlari xo'jalikning bir necha yo'nalishida rivojlandi. Janubiy Italiyadagi shaharlar qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga, Qora dengiz bo'yidagi Millet koloniyalari savdoga ixtisoslashgan edi. Janubiy Italiyada Metapont va Sires, Sibaris, Posidoniya kabi yunon shaharlari qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanar edi. Bu yerda spartaliklar asos solgan Tarent shahri koloniyalar orasida yetakchi o'rinni egalladi. Shahar Sparta shevasini va boshqaruv uslubini to'liq saqlab qoldi.

Sitsiliya orolida Evbey Xalkidasi yunonlari mil.avv. 735-yil atrofida Naksos, Katanu va Leontiano, Zankli (keyingi Messina) hamda Regiy koloniyalarini barpo qildilar. Shimolda Gaetan qo'ltig'ida Qum shahriga asos solindi. Loklar Italiyaning Zefir burnida Zefir Lokri (hozir Kap Spartivento)ni, Korinf aholisi Sitsiliyaga vaqt o'tishi bilan yunon g'arbining bosh markazi va metropoliya rolini o'ynagan Sirakuza koloniyasini barpo qildilar. Sirakuza o'z navbatida, Akr va Kamerina koloniyasini barpo qildi. Megara Gibliya Megarasi va Seluninga, rodosliklar Agrigent shahriga asos soldilar. Shunday qilib, yunonlar Sitsiliyaning sharqiy va janubiy qismini egalladilar. Orolning g'arbida bu yerga yunonlardan ilgari kelgan finikiyaliklar hukmronlik qilgan. Vaqt o'tishi bilan orolning g'arbida Finikiya yerlari qisqarib, faqat Finikiyaning uch nuqtasi: Solunt, Panorm (hozirgi Palermo) va Motiya qoldi.

Mil.avv. VI asrda yunonlarning Italiya va Sitsiliya koloniyalari gullab-yashnadi va Bolqon Yunonistonidan ko'ra, bu yerda savdo-hunarmandchilik va dehqonchilik yuqori darajada rivojlanib, Buyuk Yunoniston nomini oldi. Bu koloniyalarning gullab-yashnashining asosi yaxshi yo'lga qo'yilgan qishloq xo'jaligi, savdo, hunarmandchilik edi. Sitsiliya va Italiyadagi yunon koloniyalaridan g'alla Yunoniston va Kichik Osiyoga chiqarildi. Mil.avv. VII asrda Liguriya qirg'og'idagi Rodan daryosi havzasida fokiyaaliklar Massiliya (hozirgi Marsel), Janubiy Italiyada Eleya shaharlariga asos soldilar.

Sharqda Xalkidika yarim oroli Evbeydagi Xalkida aholisi tomonidan, Epir qirg'og'idagi (hozirgi Korfu) Kerkira oroli korinfliklar tomonidan bosib olindi. Korinfliklar Ambrakiy qo'ltig'ida Ambrakiya va Anaktorn; Illiriya qirg'og'ida Appoloniya va Epidamn koloniyalariga asos soldilar. Qora dengiz qirg'oqlarida Kichik Osiyodagi yunonlarning eng kuchli savdo markazi Miletning fuqarolari o'nlab koloniyalarni barpo qildilar. Abidos, Sinop, Koteo, Kerasun va Trapezund; Qora dengiz shimoli, shimoliy-g'arbiy qirg'oqlarida Olviya, Appoloniya, Odessa, Toma, Tira, Feodosiya; Bosforda Kalxidon (megalalilar asos solgan); Qora dengizning Yevropa qirg'og'ida Vizantiy, Gerakleya koloniyalari qad ko'tardi. Bu koloniyalarning asosiy mashg'uloti savdo, hunarmandchilik va dehqonchilik edi. Qora dengiz shimolidagi yunon koloniyalari o'z vatanlariga g'alla eksport qildilar. Mil.avv. VII asrda Misrda ham yunonlarning tayanch nuqtalari vujudga keldi. Bu yerda Navkratis koloniyasi barpo qilindi. Shi-

moliy Afrikada Liviya qirg'og'ida shoir Kallimax va olim Eratosfenning vatani Kirenaga asos solindi. Ammo yunonlarning g'arbga siljishini Karfagen, janubiy-sharqda esa Misr to'xtatdi. Yunonlar janubiy Italiya, Korsika, Sardiniya va Sitsiliya orollari hamda unga yaqin joylarda etrusklar, finikiyaliklar va mahalliy aholining qarshiligiga duch keldilar.

Buyuk kolonizatsiya deb atalgan jarayon bilan bog'langan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar qadimgi Yunonistonning keyingi taraqqiyotini belgilab berdi. G'arb va Sharqda ko'p sonli yunon koloniyalarining barpo qilinishi, O'rtayer dengizi savdosidan finikiyaliklarning siqib chiqarilishi yunon savdosining o'sishi, hunarmandchilikning yuksak taraqqiyotiga olib keldi. Tovar sotish bozorlari, hunarmandchilik mahsulotlari hajmi kengaydi. Ishchi kuchiga yanada ehtiyoj kuchayib, qullarning soni o'sdi. Ellada iqtisodiyotining barcha sohalarida qul mehnati yetakchi o'ringa chiqa boshladi. Zodagon oligarxiya ayrim polislarda boshqaruvni xalq tomonidan hokimiyat tepasiga chiqarilgan, o'z shaxsiy hokimiyatini o'rnatishga erishgan kuchli va faol shaxslar – tiranlarga topshirishga majbur bo'ldi. Mil. avv. VI asrda arxaik davrning tugashi davrida ba'zi bir polislarda demokratik qurilishning ilk asoslari tashkil topdi.

6. Tiraniya. Yunonistonda mil.avv. VIII–VI asrlarda xo'jalik hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar siyosiy hayotga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Savdo, hunarmandchilik ishlab chiqarishining ilk rivoji hukmron tabaqa – katta yer egalari – oqsuyak zodagonlarga qarshi turgan kuchli, ko'p sonli savdo, hunarmandlar qatlamining paydo bo'lishiga olib keldi. Milet, Efes, Korinf, Sikion, Megara, Afina shaharlari, Samos, Lesbos va Sitsiliya orollarida iqtisodiy o'sish kuchli edi. Aynan shu joylarda kuchli, siyosiy faol shaxslar hokimiyatni noqonuniy tarzda zo'ravonlik bilan bosib oldilar. Hokimiyatni noqonuniy, zo'ravonlik bilan egallab, boshqarish shakli – «tiraniya» paydo bo'ldi. Tiraniya mil.avv. VII asrda ayrim yunon shaharlari (Korinf, Sikion, Milet, Efes, Afina, Sirakuza, Megara, Argos)da keng tarqaldi. Zodagonlar ichidan chiqqan tiranlar urug' zodagonlari va xalq hokimiyatini keskin rad qildilar. Hokimiyatni bosib olgan tiranlar o'zlarining raqiblari bo'lgan oqsuyak urug' zodagonlariga qarshi shafqatsiz kurashdilar. Chunki bu vaqtda urug' zodagonlari jamoa-polisning eng uyushgan hamda boy va ta'sirli qismi edilar. Shu sababli, tiranlar o'zlarining shaxsiy hokimiyatlari uchun eng xavfli deb, zodagonlar hokimiyatini hisoblar edilar. Tiran-

lar o'z hokimiyatlarini kuch bilan ushlab turgan holda urug' aslzodalarining siyosiy-iqtisodiy hukmronligini zaiflashtirdilar. Tiranlar aslzodalarning kuch-qudratini zaiflashtirib, demosni kuychaytirdilar va o'zlari istamagan holda hokimiyatlarining halokati uchun qulay shart-sharoit yaratdilar.

Xalq ommasi orasida mustahkam tayanchga ega bo'lish uchun tiranlar kambag'al qatlamlarni tirikchilik o'tkazishi uchun shart-sharoitlar yaratdilar. Xalq ommasi tiranlarni yoq-tirmas, lekin hurmat qilardi. Ular aholini ish bilan band qilish maqsadida yo'llar, kanallar, binolar qurilishi kabi jamoat ishlarini uyushtirdilar. Savdo-hunarmandchilik va qishloq xo'jalik sohalarini bevosita qo'llab-quvvatladilar. Tiranlar madaniyat, ma'rifat, qadimiy urf-odat, an'ana va diniy e'tiqodlarni rag'batlantirdilar. Ularning hukmronligi davrida yunon polislari o'zlarining buyuk kelajaklari poydevorini qo'ydi (Afina-Pisistrat davrida, Sirakuza-Gelon va Dionisiy davrida). Korinf va Samos shaharlarining gullab-yashnashiga tiranlar sababchi bo'ldilar. Tiranlar boshqaruvga o'z qarindosh-urug'larini tortdilar. Ular boshqaruvda yollanma qo'shinlardan foydalandilar.

Sitsiliya orolidagi yunon-shahar davlatlaridan biri Sirakuza edi. Geron tiraniyasidan so'ng shaharda demokratik tuzum qaror topdi va mil.avv. V asr oxirigacha davom etdi. Sirakuzaning raqibi Karfagen unga qarshi mil.avv. 409–405-yillarda g'olibona urush olib bordi. Sirakuzada og'ir harbiy siyosiy vaziyat yuzaga kelib, hokimiyatni o'rta tabaqadan chiqqan harbiy boshliq, 24 yoshli Dionisiy bosib oldi. Dionisiyning tiraniyasi 40 yil atrofida (mil.avv. 406–367-yillar) davom etdi. Bu davrda Sirakuza na-faqat Sitsiliyada, balki butun Yunonistonda eng yetakchi davlat birlashmalaridan biriga aylandi. Mohir siyosatchi bo'lgan Dionisiy mil.avv. 398–392-yillarda Karfagen bilan bo'lgan urushda g'alaba qozondi. Natijada Sitsiliyaning katta qismini bosib oldi. Janubiy Italiyadagi Regiy, Kavloniya va Kraton shaharlarini qaram qildi. Hatto Adriatika dengizining shimoli, Illiriya qirg'oqlariga o'rnashib oldi. Dionisiy Po daryosining boshida o'z koloniyalarini barpo qiladi. Sirakuza Sitsiliyani Bolqon bilan bog'laydigan savdo yo'li ustidan o'z nazoratini o'rnatdi.

Dionisiy davlat boshqaruvida xalq yig'ini mavqeyini pasaytirdi. Muhim davlat ishlari Dionisiy oldida majlis qiladigan «do'stlar kengashi»da muhokama qilindi. Tiran harbiy qo'shinni nihoyat darajada mustahkamladi. Qo'shin yaxshi qurollantirildi. Qo'shinning 1/3 qismi yollanma askarlar edi. Harbiy flot

400 kemadan tashkil topdi. Dionisiy nozik ijtimoiy siyosat olib bordi. U barcha ijtimoiy qatlamlarning manfaat va ehtiyojlarini qondirishga harakat qildi. Yersizlarga yer berdi, harbiy o'ljalarini xayr-ehson qilib, xalq uchun bayramlar uyushtirdi. Sirakuza zodagonlariga mansablar berib, o'ziga moyil qilishga urindi. O'z muxoliflarini musodara qildi. Dionisiyning hokimiyati merosiy deb e'lon qilindi. Qudratli Dionisiy vafotidan so'ng uning zaif o'g'lining hokimiyati ag'darilib, Sirakuzada demokratiya qaror topdi. Dionisiyning o'g'li Dionisiy II Sirakuzani mil.avv. 357-yilgacha boshqardi. Hokimiyatdan mahrum bo'lgach, Korinfda yashab, kambag'allashib tilanchilik qildi va tirikchilik uchun bolalarni o'qitdi.

Timoleon (mil.avv. 411–337-yillar) siyosatchi va sarkarda bo'lib, demokratiyaning qizg'in tarafdori edi. U mil.avv. 364-yilda Korinfda o'z akasi tiran Timofanni o'ldirishda qatnashdi. Mil.avv. 357-yilda Korinfning koloniyasi Sirakuzaga Dionisiy II ning tiraniyasiga qarshi va Sirakuzani bosib olishga urinayotgan qudratli Karfagen davlatiga qarshi urushga yuborildi. U Sirakuza, Leontina, Kanat shaharlarida tiraniyani tugatdi. Bu shaharlarni Sirakuza ittifoqiga birlashtirdi. Korinflik fuqarolarning katta qismini Sirakuzaga ko'chirdi, Karfagen qo'shinlarini mil.avv. 341-yilda tor-mor qilib, Karfagen bilan tinchlik shartnomasini tuzdi. Shartnomaga ko'ra Karfagenning mulklari Sitsiliyaning g'arbiy qismi bilan cheklandi. Timoleon Sirakuzada demokratiyani qayta tikladi (mil.avv. 352–336-yillar). Uning vafotidan so'ng shahar oldidagi xizmatlari uchun Sirakuzada unga haykal o'rnatildi.

Yunon shaharlarida demos ma'lum darajada kuch to'plaganidan so'ng, o'zlari yoqtirmagan tiranlarning hokimiyatidan yengil qutildilar. Tiraniya urug' zodagonlari bilan kurashda yetakchi rol o'ynab, mil.avv. V asr boshlarida deyarli hamma joyda polis tuzumi o'rnatilishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berdi va hokimiyatni topshirib, siyosiy sahnadan chiqib ketdi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Gomer. Iliada. – Toshkent: 2000.
2. Gomer. Odissey. – Toshkent: 2000.
3. Андреев Ю. В. Раннегреческий полис. – Л.: 1976.
4. Молчанов А.А. Социальные структуры и общественные отношения в Греции II тысячелетия до н.э. – М.: 2000.

5. Блаватская Т.В. Черты истории государственности Элады. – СПб. 2003.

6. Высокий М.Ф. История Сицилии в архаическую эпоху. Ранняя греческая тирания конца VII – середины V в. до н.э. – СПб. 2004.

7. Фролов Э.Д. Рождение греческого полиса. – СПб. 2004.

Asosiy sanalar

| | |
|------------------------|--|
| Mil.avv. VIII asr | Yunonlarning Sitsiliya, Janubiy Italiya, Shimoliy-Sharqiy Qora dengiz boʻylarida koloniyalari tashkil topdi. |
| Mil.avv. VIII–VII asr | Janubiy Italiyada yunon koloniyalari paydo boʻldi. |
| Mil.avv. 735-yil | Evbey Xalkidasi yunonlari Naksos, Katanu, Leontida, Zankli, Regiy koloniyalari barpo qildilar. |
| Mil.avv. VII asrda | Misrda yunonlarning tayanch nuqtalari vujudga keldi. |
| Mil.avv. VII asrda | Yunon shaharlarida savdo-hunarmandchilik tez surʼatda rivojlandi. |
| Mil.avv. VII–VI asrlar | Buyuk kolonizatsiya davri. |

SPARTA

1. Sparta jamiyati. 2. Davlat tuzumi. 3. Sparta davlatida fuqaro tarbiyasi. 4. Arxaik davr hayotining umumiy manzarasi.

1. Sparta jamiyati. Qadimgi Sparta arxaik va klassik davrlarda Yunonistonning eng katta polislaridan biri edi. Sparta polisi va davlatchiligining boshlanishi doriylar bosqinining tugallanish vaqtiga to'g'ri keladi. Doriy qabilalari mil.avv. XII–XI asrlarda Peloponnes hududiga o'rnashdilar va mil.avv. XI–VIII asrlarning birinchi yarmi davomida mahalliy qabilalar bilan hukmronlik uchun uzoq kurash olib bordilar. Mil.avv. X asrda Peloponnes janubidagi Lakonikada Yevrot daryo vodiysining o'rta qismidagi unumdor yerlarda Sparta manzilgohi paydo bo'ldi. Qadimgi yunonlar Sparta davlatini Lakedemon deb atadilar. Ko'pchilik doriylar bo'lg'usi Sparta polisining fuqarolari 5 qishloqni birlashtirgan Sparta manzilgohiga o'rnashdilar.

Doriylar mahalliy axey aholisining bir qismini qaram qilib, qolgan qismini qirib tashladi, Sparta davlatining paydo bo'lishi qisqa vaqt ichida boshqa keng hududlarni bosib olish bilan belgilanadi. Doriylar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning quyi bosqichida, urug' munosabatlarining yemirilish davrida turar edilar. Bu hol Sparta davlatida urug'chilik tuzumi qoldiqlarining uzoq vaqt saqlanishi uchun shart-sharoit yaratdi. Peloponnes yarim orolida arxaik davrdan Sparta davlati yetakchi o'ringa chiqib oldi va bu hududda tashkil topgan shaharlar ittifoqiga boshchilik qildi. Mil.avv. VIII asrda Sparta Janubiy Lakonikaning bir qancha viloyatlari, Kifera oroli, keyin esa Pamis daryosi vodiysidagi hosildor Messeniyani bosib oldi. Bu boy o'lka Spartaning kam sonli, to'la huquqli fuqarolari tomonidan bo'lib olindi. Mahalliy aholining bir qismi qirib tashlanib, qolganlari huquqsiz qaram ilotlarga aylantirildi.

Lakonika va boshqa bosib olingan hududlarning aholisi perieklar deb atalib, savdo, hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar, o'zlariga qoldirilgan yerda ishlab, mahsulotning bir qismini spartaliklarga berganlar. Ular bundan tashqari harbiy xizmat majburiyatini ham o'taganlar. Perieklardan tashqari Sparta davlatiga qaram bo'lgan ilotlar davlatga tegishli qullar

hisoblanib, alohida spartaliklarga taqsimlab berilgan. Ilotlar davlat va spartaliklarning yerlarida ishlab, ularga mahsulot yetkazib berganlar. Shu bilan birga harbiy yurishlar paytida qarorgoh qurish, urushda yengil qurolli bo'lib qatnashish majburiyatlarini o'taganlar. Ilotlar bir xil kiyim – charm qalpoq va qo'y terisini kiyganlar. Periek va ilotlar hech qanday siyosiy huquqqa ega bo'lmaganlar.

Spartaliklar o'zlariga tegishli bo'lgan ekin yerlarini 9000 ta ulushga bo'ldilar. Har bir to'la huquqli spartalik shunday yer ulushini bu yerdagi bosib olingan mahalliy aholi – ilotlar oilasi bilan umrbod mulk qilib oldi. Ilotlar xo'jayinlariga hosilning yarmini berishga majbur edilar. Yuz yildan so'ng Sparta G'arbiy Messeniyaning ham egalladi. Keyin esa Sparta sharq va shimoldagi Agros, Arkadiya viloyatlarini ham o'ziga qo'shib oldi. Arkadiyaning janubiy qismidagi bir qancha viloyatlar ham Sparta tarkibiga kirdi. Tergiya, Korinf, Sikion, Megara, Egina va Elida kabi shahar va davlatlar Sparta bilan simmaxiya – ittifoqga kirishga majbur bo'ldi. Ittifoq majlisida har bir polis bir ovozga ega bo'lib, qaror ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinardi va har bir shahar-davlat Sparta podsholari ixtiyoriga o'z qo'shinining 1/3 qismini berishga majbur edi. Ittifoqchilar o'rtasida aloqa zaif bo'lib, alohida polislar bir-biri bilan urush olib borardi, boshqa ittifoqchilar bunga aralashmas edilar. Sparta Peloponnes yarim orolining 1/3 qismini (8000 km) bevosita o'z hukmronligi ostiga olgandi. Spartaning ittifoqdagi yetakchilik mavqeyi kuchli edi. Spartaning ittifoqdagi yetakchilik o'rniga nisbatan hech kimda shubha yo'q edi. Bu ittifoq o'sha davrda Yunonistonda eng kuchli edi.

2. Davlat tuzumi. Sparta aristokratik davlat xarakteriga ega edi. Butun hokimiyat periek va ilotlar ustidan to'la hukmronligini o'rnatgan tor doiradagi spartaliklar qo'lida edi. Davlat tepasida ashdod va yevrionit urug'lariga mansub bo'lgan ikki podsho turardi. Ular asosan harbiy boshliqlar bo'lib, tinchlik vaqtida ba'zi kohinlik vazifalarini, qisman sud majburiyatlarini amalga oshirgandi. Ikki podsho ham oqsoqollar kengashi (gerusiya) tarkibiga umrbod kirgandi. Podsholar hokimiyati xalq yig'inining keng vakolatlari bilan cheklab qo'yilgandi. Podsholardan biri urush vaqtida qo'shinga boshchilik qilgandi, ammo ular rahbarlikda eforlarning fikrlarini hisobga olishga majbur bo'lgandi. Podsholar yoshi 60 yoshdan yuqori bo'lgandi, yigirma

sakkiz zodagon keksadan tuzilgan kengash (gerusiya) majlisiga boshchilik qilganlar.

Eforlar. Spartada oliy lavozimli besh nafar eforlar har yili xalq yig'ini – appelada saylanganlar. Eforlar lavozimi oliy nazorat organi sifatida ko'rinishidan mil.avv. VIII asr o'rtalarida paydo bo'ladi. Eforlar Gerusiya (oqsoqollar kengashi) va apellani (xalq yig'ini) chaqirganlar, bu tashkilotlarning ishiga rahbarlik qilganlar, davlat xazinasini boshqarganlar; qo'shin to'plashni e'lon qilganlar; harbiy boshliqlarni tayinlaganlar va ishdan bo'shatdanlar. Sud ishlarini olib borganlar; davlat tashqi siyosatini boshqarganlar. Eforlar Sparta davlati va jamiyati hayotini nazorat qilar edilar: ular ikki podsho faoliyatini, fuqarolarning yurish-turishini, qaram aholi periek va ilotlarning hayoti ustidan nazorat olib borganlar, kriptiyani e'lon qilganlar. Shu tarzda eforlar qo'lida katta hokimiyat to'plangan. Lekin efor lavozimiga bir yil muddatga saylanish bilan cheklangan. Bu lavozimga qayta saylanish taqiqlangan. Eforlarning keng nazorat vakolatlari va ularning faoliyati Spartadagi mavjud siyosiy-ijtimoiy tartib-qoidani barqaror qiladigan omil bo'ldi. Eforlar tashkiloti boshqa yunon polislarida ham mavjud bo'lgan (Gerakliya, Fera oroli, Kerenaika koloniyasi).

Oqsoqollar kengashi – gerusiya. Gerusiya urug' jamoa davridan mavjud bo'lib, fuqarolik, jinoyat va harbiy ish sohalari bo'yicha keng vakolatga ega tashkilot. Gerusiya tarkibi – 28 oqsoqol va 2 podsho – jami 30 kishidan iborat bo'lgan.

Podsho hokimiyati. Ikki podsho bir xil hokimiyatga ega bo'lib, har ikki podsho hokimiyatni kelishib boshqarishi, o'z vazifasini suiiste'mol qilishini boshqasi yo'l qo'ymasligi kerak edi. Podsholarning vakolati oliy harbiy qo'mondonlik bilan cheklangan. Har ikki podsho gerusiya tarkibiga kirgan. Podsholar umrbod hukmronlik qilganlar.

Fuqarolik ishi bo'yicha sud ishlarini mansabdor shaxslar – eforlar amalga oshirganlar. Keyinchalik xalq yig'ini tomonidan tayinlanganlar. Besh efor kollegiyasi mil.avv. VIII asr o'rtalarida podsholar va gerusiya faoliyatini nazorat qiladigan oliy organ sifatida paydo bo'ldi va tezda Sparta oligarxiyasi hokimiyatining oliy organiga aylandi. Eforlar davlatda ijroiya hokimiyatni ham amalga oshiganlar. Taxminlarga ko'ra, eforlar ilk davrda podsholar tomonidan tayinlanganlar. Besh Sparta qishlog'ining har biridan bittadan efor bir yil muddatga saylangan. Ular oliy

nazorat hokimiyatiga ega edilar. Geront va podsholarni ham javobgarlikka tortish huquqiga ega edilar. Ular Sparta fuqarolari turmush tarzi qoidalari va Sparta qonunlarining bajari-lishini kuzatganlar.

Eforlar Spartaning ichki va tashqi siyosatini boshqardilar hamda ilotlarga qarshi jazo-qo'rqitish tadbirlarini amalga oshirishga rahbarlik qildilar. Gerusiyada xalq yig'inida ko'riladigan qaror loyihalarini tayyorlaganlar hamda jinoiy ishlar bo'yicha sud ishlarini amalga oshirganlar. Eforlar xalq yig'ini-appelaga boshchilik qilganlar. Ular har qanday mansabdor shaxsni ishdan chetlatish, zaruriyat bo'lganda chet elliklarni mamlakatdan chiqarib yuborish huquqiga ega edilar. Davlat moliyasi, tashqi ishlar ularning qo'lida edi. Podsholar ba'zi umrbod imtiyozlar-ga (harbiy o'ljalarning 1/3 qismiga egalik qilish, tantanali dafn qilish va h.k.) ega bo'lsalar-da, eforlarning kuchli hokimiyati ularni podsholar bilan bir qatorda qo'yar edi. Bu tashqi tomondan quyidagi odatda ifodalangan: Boshqa spartaliklardan farq qilgan holda eforlar podsholar ko'ringanda o'z o'rinlaridan turmaslik huquqiga ega edilar.

Xalq yig'ini – appella. Xalq yig'ini – appellada 30 yoshga yetgan barcha spartaliklar ishtirok etar edilar. Xalq yig'ini eng muhim masalalar yuzasidan qaror chiqarish huquqiga ega bo'lgan. Faqatgina xalq yig'inigina urush e'lon qilish huquqiga ega edi. Sparta appellasi masalalar qizg'in muhokama qilina-digan, oddiy fuqaro faol so'zga chiqadigan Afina xalq yig'ini – ekklesiyasidan keskin farq qilar edi. Appellada oddiy spartaliklarning ovozi faqat favqulodda holatlarda eshitilar, barcha qarorlar eforlar va gerusiya a'zolari tomonidan taklif etilar edi. Appellada fuqarolar masalani muhokama qilmas, bahslash-mas edilar, faqat ular ovoz berar edilar. Spartaliklarning davlat qurilishi ana shunday edi. Bu davlat qurilishi qonunshunos Likurg tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasi edi. Li-kurg Sparta podsholaridan birining tog'asi bo'lib, o'z jiyanining yoshi kichik bo'lganligi uchun davlatni boshqargan. Likurg is-lohotlarining asosiy maqsadi Sparta fuqarolarining hukmron-ligini ta'minlash edi. Shuningdek, qaram ilot va perieklarning norozilik chiqishlari va tashqi hujumni bartaraf qilishga qodir kuchli harbiy tashkilotni yaratish edi. Likurg spartaliklarning tengligiga raxna soladigan, mulkiy tabaqalanishga olib kelish ehtimoli bo'lgan, savdo-hunarmandchilikni cheklaydigan qator

qonunlarni amalga oshirdi. Sparta fuqarolariga xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlandi. Fuqaro o'ziga berilgan yer ulushida ilotlar yetishtirgan mahsulotlarni olib, o'z ehtiyojini qondirgan. Hunarmandchilik bilan perieklar, dehqonchilik bilan ilotlar shug'ullanganlar. Qaram ilotlar olingan mahsulotning yarmini o'z xo'jayinlari yoki davlatga toshirganlar. Spartada katta binolar qurish, zeb-ziynat buyumlari, san'at asarlarini ishlab chiqarish keskin cheklangan. Kumush tanga o'rniga savdo ishlari uchun noqulay, qo'pol, katta temir bo'laklari ishlatilgan. Bu tadbirlar savdo, hunarmandchilikning keskin cheklanishiga olib keldi. Faqat qurol-aslaha ishlab chiqarish bundan soqit edi. Likurg spartaliklarning tengligini saqlab qolish uchun boylik to'plashni taqiqladi. Sparta to mil.avv. IV asrning ikkinchi yarmigacha shu holatda yashadi.

Spartalik erkaklarning barchasi uchun harbiy xizmat majburiy edi. Spartaliklar 7 yoshdan 18-20 yoshgacha harbiy ta'limni o'rganib, 20 yoshdan 60 yoshgacha harbiy xizmatda bo'lganlar. Harbiy lagerda yashash bayram hisoblangan. Dushmanidan tortib olingan o'lja – ozuqa va ichimlik harbiy xizmatdagilar kayfiyatini yanada ko'targan. Sparta jangchilari zich saflanib (falanga) gulchambar bilan bezalgan qizil kiyimda surnay, musiqa bilan jangga kirganlar. Faqat jangda halok bo'lganlar qizil kiyimda tantanali dafn etilganlar. Qo'rzoq haqoratlanib obro'sizlantirilgan. Kimdir jangda qo'rzoqlik qilib qochsa yoki safni tashlab ketsa, u gimnastika o'yinlarida, sissitiyalarda qatnashish huquqidan mahrum qilingan. Hech narsani sotib olishga jur'at qilmagan, xalqning oldida sazoyi qilingan. Sparta shahari devorlar, mudofaa inshootlari bilan o'rab olinmagan, mudofaa faqat shahar fuqarolarining jasoratiga asoslangan. Spartaliklar shaharlarni qamal qilishni bilmaganlar va yoq-tirmaganlar. Yuzma-yuz jang qilish ularning qoidasi bo'lgan. Jangda qo'shinning oldingi qismida ilotlar, perieklar borgan. Ulardan keyin yosh spartaliklar, oxirida 60 yoshgacha bo'lgan keksalar jangga kirishgan. Qayrilgan qilich, uzun nayza, zich saf – falanga va jangchilarning jasorati hamda mohirligi g'alabani ta'minlagan.

Sparta qo'shini mil.avv. VI–V asrlarda Yunonistondagi eng yaxshi tashkil etilgan intizomli va kuchli qo'shin edi. Qo'shinlar 12 ta harbiy qismga (loxga) bo'lingan. Harbiy qism tepasida harbiy boshliq (loxak) turgan. Qo'shinga qo'mondonlikni podsholar

amalga oshirgan. Ularga harbiy ishlarda harbiy maslahatchilar yordam bergan. Qo'shin tarkibida 300 ta suvoriy askar bor edi. Suvoriylar urush vaqtida podsholarni qo'riqlaydigan, tinchlik vaqtlarda esa mamlakat xavfsizligini ta'minlaydigan o'ziga xos otliq gvardiyani tashkil etgan.

Sparta Peloponnes urushidan so'ng qisqa vaqt mil.avv. 404-yildan 379-yilgacha yunon dunyosida yetakchi o'rinni egalladi. Mil.avv. IV asrning II yarmidan butun yunon dunyosini qamrab olgan ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar Spartaga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Spartaning maqtalgan tenglar jamiyati buzildi. Spartaning harbiy qudrati mil.avv. 371-yilda Fiva bilan urushdagi mag'lubiyatdan keyin zaiflashdi va tushkunlikka yuz tutdi.

3. Sparta davlatida fuqaro tarbiyasi. Spartaliklar o'z vaqt-larini doimiy muntazam harbiy mashqlar va ovda o'tkazib, chodirlarda yashar edilar. Sparta Yunonistonda yagona profes-sional qo'shinni tashkil qildi. Spartaliklarda fuqaroning davlat-ga sadoqat, qonunlarga so'zsiz bo'ysunish, katta yoshdagilarga hurmat, mutlaq jasorat ruhida tarbiyalash yo'lga qo'yildi. Likurg ta'kidlagan edi: «Spartalikni tarbiyalashning maqsadi goplitni shakllantirishdir». Spartaga a'lo jangchilar zarur edi. O'smir yoshlar tarbiyasida birinchi o'ringa jismoniy tarbiya qo'yilib, faqat xor qo'shiqlari, harbiy musiqa, shoir Terpandrning harbiy marsllari o'rgatilar edi. Spartalik imkoniyat darajasida qisqa va aniq so'zlashi uqtirilar edi (lakonizm). Sport tayyorgarligida ot sporti va atletika yetakchi o'rinni egallagan edi.

Spartalikni tarbiyalash tizimi uch bosqichdan iborat edi:

1. 7 yoshgacha bolalar ota homiyligi ostida. 7 yoshdan so'ng davlat nazorati ostiga o'tgan.

2. O'smirlar 12 yoshdan 15 yoshgacha katta yoshli o'smir (iryen) boshchiligida maxsus guruhlar (il)ga kirgan.

3. 16-20 yoshlarda o'qitishning uchinchi bosqichi (iryeniya) ga o'tilgan.

Bolaligidan kasal va jismoniy zaif bolalar ortiqcha yuk hi-soblangani uchun ularni jarlikka uloqtirar edilar. Davlat tar-biyasining birinchi bosqichida 7-12 yoshgacha bolalarni agella («poda»)ga to'plab, mashqlar va sinovlar muntazam o'tkazilgan. Bu bosqichda bolalarda kuch va chidamlilikni tarbiyalash aso-siy maqsad qilib qo'yilgan. Bolalar badani momataloq bo'lguni-cha kaltaklash, tan jarohati yetkazish marosimidan o'tar edi.

Kaltaklanayotgan og'riqqa un chiqarmay chidashi, og'riqni sezdirmasligi lozim edi. O'smirlar 12 yoshdan 15 yoshgacha katta yoshli o'smir (iryen) boshchiligida maxsus guruhlar (il) ga kirganlar. Ular g'arib chaylada yarim och, juldur kiyimlarda o'zlari yig'ib kelgan qamish ustida uxlar edilar.

Harbiy mashqlar (qurollarni o'zlashtirish, zich safda harakat qilish, tez harakatlanish va taktika) harbiy o'qish kursi, sport va ov bilan to'ldiriladi edi. Bu davrda o'qituvchilar spartalik yosh o'smirlarda ilotlarga nisbatan mensimaslik, nafrat tuyg'usini shakllantirganlar. Bu o'qitish davri dala mashqlari (kriptiya) bilan tugallanadi edi. Keyinchalik bu mashqlar ilotlarni yo'q qilish marosimi shaklini oldi. Yosh spartaliklar mamlakat bo'yicha daydisha yuborilganlar. Ular ilotlarning suhbatlarini yashirincha eshitishlari, ilotlar ichidan isyonchilik kayfiyatida bo'lganlarini o'z xanjarlari bilan o'ldirishlari buyurilgan. Eng kuchli va jasur ilotlar maxfiy o'ldirilgan. Ilotlar 9 ming sparta oilasiga xavf tug'dirmasligi uchun bu ish muntazam amalga oshirilgan.

16-20 yoshlarda o'qitishning uchinchi bosqichi (iryeniya) boshlangan. Yosh spartalik yigit yer ulushi egasiga aylanadi edi. Bu yer ulushi uni va oilasini boqishi kerak edi.

Ayollar tarbiyasi ham qat'iy va sodda bo'lgan. Ayollarni kuchli, sog'lom, chiroyli bo'lishi uchun gimnastika mashg'ulotiga asosiy e'tibor qaratilgan. Qizlar diniy marosimlarda qatnashganlar. Ularga ozgina qo'shiq va raqs o'rgatilgan. Lekin asosiy maqsad sog'lom bolani dunyoga keltirish edi. Sog'lom ona kuchli va to'laqonli bolani dunyoga keltirishi shart edi. Sparta davlati bola tug'ilishiga mukofot belgilab, farzandsizlik uchun jarimani kiritdi. Tarbiyaning qattiqligi o'smirlarni Artemida ibodatxonasida har yili o'tkaziladigan qiynoq sinovlarda o'z aksini topgan edi. Sinalayotgan o'smir qiynoqlarga dosh berishi va og'riqni sezdirmasligi shart edi.

Yosh yigit 20 yoshga yetgach, Sparta («Tenglar jamiyati») ning to'la huquqli a'zosi hisoblanadi edi. Endi u kattalar bilan birgalikda o'tkaziladigan ovqatlanish (fiditiya yoki filitiya)larga ishtirok etishi majburiy edi. Fiditiya uchun har bir spartalik har oy ma'lum miqdorda pishloq, arpa, vino, anjir va pul beradi edi. Spartaliklar birgalikda o'tirib, uksus, tuz qo'shib, qonda tayyorlangan cho'chqa go'shti bo'tqasini iste'mol qiladi edilar. Qattiq, shafqatsiz tarbiya natijasida spartaliklarning ongida boshqa yunon polislari aholisiga nisbatan jismoniy va ma'naviy

ustunlik his-tuyg'usi shakllantirilar edi. Yunon dunyosida spartaliklarni qat'iy intizomi uchun hurmat qilar edilar, ammo yoqtirmasdilar.

Bosib olingan qaram viloyatlarning ilotlarga aylantirilgan aholisining qo'zg'olonlaridan xavfsiragan spartaliklar har yili ilotlarga dahshat solish va ularning ongida bo'ysunish hissi-ni tug'dirish uchun ularni tunda o'ldirishni (kriptiya) e'lon qilganlar. Yosh sparta yigitlari qishloqlarda tunda aylanib yurib, kuchli, isyonkor kayfiyatdagi ilotlarni o'ldirganlar. Mil.avv. XI asrdayoq spartaliklar o'zlarini har xil «yangiliklar»dan himoya qilish, an'anaviy turmush tarzini saqlash maqsadida tashqi dunyodan ajralib yashashga urindilar. Qadimgi an'anaviy holatning o'zgarimasligi uchun Sparta faqat mayda temir tangani muomalaga kiritdi. Sparta uylarining eshik va tomlari yog'ochdan bo'lib, ularni faqat bolta va arra bilan tayyorlashga ruxsat etildi. Hashamatli kiyimlar qonundan tashqari edi. Jamiyatdagi mavqeyiga qarab, spartaliklar bir xildagi kalta yoping'ich (plash) kiyar edilar va bu bilan o'zlarini teng deb hisoblardilar. Qonunga ko'ra chet ellik Spartada belgilangan muddatdan ortiq qolmasligi, birorta ham spartalik vatandan tashqari uzoq yashash huquqiga ega bo'lmagan.

4. Arxaik davr hayotining umumiy manzarasi. Taxminlarga ko'ra, arxaik davrda yunon uy-joyi oddiy va bir qavatli edi. Epik matnlarga ko'ra, erkaklar kalta ko'ylak (xiton) kiyib, ko'chaga chiqayotganda ustilariga keng yoping'ich (xlamida) tashlaganlar. Ayollar xiton ustidan hashamatli keng kiyim, kamar bilan tortilgan kamzul (peplum) kiyganlar. Sharqdan erkaklar uchun uzun, yupqa kanopdan to'qilgan, tumshuqqacha boradigan xiton o'zlashtirib olingan. Sochga tilla to'g'nog'ich qistirilgan. Ijtimoiy tabaqalanish kiyinishga ta'sir qilgan. Zodagon yoshlar otliq yurganda oval plash (xlamida) bilan o'ranganlar. Hunarmandlar esa chap yelka orqali tashlangan kamtar jun yoping'ich (eksomida) bilan cheklanganlar.

Arxaik davrda oila-nikoh munosabatlari ham o'zgardi. Gomer davrida kuyov kelinning ota-onalariga qimmatbaho sovg'alar berib, sotib olar edi. Arxaik davrda esa kelinga sep berish odatga aylandi. Nikohga asos bo'lib, yoshlarning ota-onasi o'rtasida tuzilgan kelishuv shartnomasi xizmat qilar edi. Tegishli qurbonliklar qilingach, kelinning otasini uyida to'y tantanalari va ziyofat boshlanar edi. Quyosh botishi bilan kelin kuyovning uyiga kuzatib qo'yilgan.

Dafn marosimlari o'zgardi. Arxaik davrda ko'kragiga urib yig'laydigan go'yandalar paydo bo'ldi. Yig'i-sig'idan so'ng marhum jasadi yuvib-taralib, xushbo'y yog'lar surtilgan. Keyingi kun dafn qilish marosimi o'tkazilib, yig'i bilan mayit shahar tashqarisidagi qabristonga chiqarib ko'milgan. O'likning og'ziga yer osti Aid podsholigida o'liklarni tashuvchi Xarondga to'lov sifatida tanga qo'yanlar. Ehtimol, krematsiya ham bo'lgan. Bu haqida Gomer poemalarida eslatiladi. Marhum o'zining qimmatli buyumlari bilan katta gulxanda yoqilgan. Olovga vino, sut va asal sepish odati bilan marosim tugagan. Yunon uylari xom g'ishtdan qurilib, tomi loy cherepitsadan bo'lgan. Uylarda kichik derazalar bo'lib, o'g'rilarni qo'rqitish uchun kichik eshikchalar bilan yopilgan. Pol ohak yoki zichlangan qumli bo'lgan. Uylarga yana qoshimcha xonalar qurib borilgan, ko'chalar egri-bugri bo'lgan. Uyda mebel deyarli bo'lmagan. Qishloqda dehqonlar ho'kizlarni qo'shga qo'shganlar, eshaklardan yuk tashishda foydalanganlar.

Yunonlar dehqonchilik bilan shug'ullanib, qurg'oqchilikka chidamli zaytun ekkanlar, zaytundan yog' olingan, ovqatga, dori-darmon va jinchiroq uchun yog'i ishlatilgan. Go'shtga ehtiyoj xonaki hayvonlarni saqlash, quyon, kaltakesak va mayda qushlarni ovlash bilan qondirilgan. Dengizga yaqin aholi uchun baliq asosiy ozuqa o'rnini bosgan. Demetra dehqonchilik ilohasi bo'lib (qadimgi yunon tilida dem – yer, metra – ona ma'nosini bildiradi), yunonlar uchun asosiy ovqat sut, pishloq edi, mevalarni ho'l va quruq holda iste'mol qilganlar. Piyoz, dukkaklilar va sholg'om ham asosiy ovqat bo'lgan. Qahatchilik yillarida yovvoyi mevalar, tipratikan hatto chigirtkalarni yeganlar. Asosiy ichimlik uzumdan tayyorlangan vino bo'lgan. U juda quyuq bo'lib, suv qo'shib ichilgan. Ba'zida vinoga qayin daraxti qatroni qo'shilgan. Natijada vinoni 3-4 yil saqlash mumkin bo'lgan.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Колобова К. М. Древняя Спарта X–VI вв. до н. э. – Л.: 1957.
2. Фролов Э.Д. Рождение греческого полиса. СПб. 2004.
3. Йегер В. Пайдейя. Воспитание античного грека. В.3 т. Т. I, II. – М.: 1997–2001.
4. Печатнова Л.Г. История Спарты (период архаики и классики). СПб. 2001.

Asosiy sanalar

| | |
|-------------------|--|
| Mil.avv. XII asr | Axeу qabilalari tomonidan Peloponnes yarim orolining bosib olinishi. |
| Mil.avv. VIII asr | Sparta davlati Janubiy Lakoniya viloyatlarini, Kifera va Messeniyani bosib oldi. |
| Mil.avv. VI–V asr | Sparta davlatining kuchaygan davri. |

MIL.AVV. VII – VI ASRLARDA ATTIKADA DEMOKRATIYANING SHAKLLANISHI

1. Arxaik davr boshlarida Attika. 2. Solon islohotlari. 3. Afinada Pisistrat tiraniyasi. 4. Klisfenning islohotchilik faoliyati.

1. Arxaik davr boshlarida Attika. Oʻrta Yunonistonning janubiy-sharqiy viloyatlaridan biri, markazi Afina boʻlgan Attika misolida yunon polisining shakllanishini atroficha koʻrish mumkin. Yunonistonning markaziy viloyatlaridan biri boʻlgan Attikaning maydoni 2250 km kv boʻlib, maydoni boʻyicha Spartadan keyingi oʻrinda turgan. Barcha tomonlari dengiz va togʻlar bilan oʻralgan Attika dehqonchilik uchun noqulay boʻlib, unumdor yer kam boʻlgan. Kumush konlari, marmarning moʻl-koʻlligi savdo-hunarmandchilikning ilk taraqqiyotiga yordam berdi. Qulay dengiz gavanlari dengizchilikning rivojlanishiga sabab boʻldi. Dastlab Attika aholisi kichik qishloqlarda yashagan. Keyinchalik esa ular qoyatosh bagʻrida joylashgan Afina akropoli markazi boʻlgan shahar atrofida birlashdilar.

Attikaning qadimgi aholisi boʻlgan ioniyalar va pelasglarga doriylarning koʻchishi taʼsir qilmadi. Attika doriylar hujumini qaytardi. Attikada doriylar Peloponnesdan haydab yuborgan axeylarning bir qismi panohtopdi. Attikada yunon tilining ioniy shevasida soʻzlashadigan qabilalar guruhi toʻrt urugʻ yoki qabila (fil)ga boʻlingan edi. Har bir fil bir necha oʻnlab urugʻlardan iborat boʻlgan uch fratriyaga boʻlingan. Gomer davrida Attika aholisini urugʻ zodagonlaridan chiqqan yoʻlboshchi basileylar boshqargan. Basileylar oliy hukmdor, sudya, koin va harbiy boshliq vazifasini bajarganlar. Boshqa yunon polislarida boʻlganidek, basileylar huzurida Afinada oqsoqollar kengashi – areopag bor edi. Afsonalarga koʻra, Afina aholisini birlashtirgan afsonaviy Tersiy aholini uch guruhga boʻladi: yer egalari – yevpatridlar, dehqonlar – geomorlar va hunarmandlar – demiurglar.

Attika viloyati 12 alohida hudud – qabila okruglariga boʻlingan. Ularning markazlari Afina, Torika, Marafon, Afidna boʻlgan. Mil.avv. VIII asr davomida xoʻjalik va xususiy mulkchilikning rivojlanishi natijasida yevpatridlar basileylar-

ning huquqini asta-sekin cheklay boshladilar. Ular o'zlarining ichidan arxontlar (oqsoqollar)ni saylay boshladilar. Basileylarning boshqaruv vakolatlari harbiy arxont (boshliq, sudya)ga o'ta boshladi. Natijada basileylarga faqat koinlik vazifasi qoldi va u saylana boshlandi. Shunday qilib, Afinada hokimiyatni yevpatridlar orasidan har yili saylanadigan 9 arxont boshqara boshladi. Ularning o'rtasida ijroiya, harbiy va sud hokimiyati taqsimlangan edi.

Yil davomida arxont vazifasini bajargan yevpatridlar o'z o'rinlarini yangi saylanganlarga bo'shatib berib, o'zlari areopagning umrbod a'zolari bo'lib qolar edilar. Areopag mil.avv. VIII–VII asrlarda eng obro'li hokimiyat organi bo'lgan. Yevpatridlar kolonizatsiya va dengiz savdosida faol qatnashdilar.

Mil.avv. VIII asrdan qishloq jamoalarida yer oilalarga bo'lib berildi. Yer xususiy mulkka aylanib, asosan mayda dehqon xo'jaligi paydo bo'ldi. G'allachilik, uzumchilik, zaytun daraxtlarini ekish dehqon xo'jaligining asosiy mashg'uloti bo'ldi. Asta-sekin ishbilarmon dehqonlar, urug' oqsoqollari mayda dehqonlarning yerlarini turli yo'llar bilan bosib ola boshladilar. Qarzga botgan kambag'al dehqonlar yerlaridan ajralib, qarzlari uchun qullikka tushib qoldilar. Yeri bo'lmagan yoki yeridan ajralgan bir qism dehqonlar hunarmandchilik bilan shug'ullandilar. Kulolchilik sohasi, metallga ishlov berish, qayiq yasash va boshqa sohalar rivojlandi. Ikki-uch kishi ishlaydigan hunarmandchilik ustaxonalari paydo bo'ldi. Bu ustaxonalarning barchasi katta-kichik shaharlarda to'plandi, ichki va tashqi savdo rivojlandi.

Savdo, hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan aholi orasida ham tabaqalanish kuchayib, boy, o'rta va mayda savdogar, hunarmandga ajraldi. Dehqonlar, hunarmand-savdogarlar yollanib ishlaydigan demos (xalq) aholining asosiy qismini tashkil qildi. Demos ichidan boy dehqonlar, boy tadbirkor hunarmand-savdogarlar, kema egalari ajralib chiqdi. Dastlab polislarda hokimiyatni egallab olgan katta yer egalari – zodagon evpatridlar o'z mavqelarini yo'qota boshladilar. Yunon polislarida mil.avv. VII asrda o'tkazilgan harbiy islohotlar natijasida zodagonlarning jang aravalari va otliq qism o'rniga polisning o'ziga tog' aholisi demosdan shakllantiriladigan og'ir qurollangan piyoda goplitlar paydo bo'ldi. Natijada zodagonlar polisning harbiy tashkilotida o'zlarining avvalgi imtiyozli mavqelaridan mahrum bo'ldilar. Endilikda demos boy yunon polis-davlatlari-

ning iqtisodiy-siyosiy hayotida muhim o‘rinni egallay boshladi. Bu yangi qatlam hokimiyatni bosib olgan urug‘ zodagonlari bilan hokimiyat uchun kurashga kirishdi.

Tovar ishlab chiqarish, savdo, hunarmandchilik tez rivojlanishi natijasida Attikada demos o‘z haq-huquqi uchun harakatga keldi. Attikada dehqonlarni qarzga botish jarayoni kuchayib ketdi va natijada qarzi uchun qul qilish odatdagi holga aylanib qoldi. Mil.avv. VII asrning ikkinchi yarmida Attikada ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskinlashib ketdi. Mil.avv. VII asrning 30-yillarida zodagon Kilon hokimiyatni bosib olishga urunib ko‘rdi. Arxont Drakont tomonidan 622-yilda og‘zaki qonunchilikning yozma to‘plamga keltirilishi urug‘ zodagonlarining hokimiyatini zaiflashtirdi. Drakont qonunlari bilan urug‘chilikning qoldig‘i bo‘lgan xun olish taqiqlandi. Jazolash funksiyasi areopagga berildi. Drakont qonunlari shafqatsiz bo‘lib, o‘g‘rilik jinoyati uchun o‘lim jazosi belgilangan. Mehnat qilmagan fuqarolar jazolanar edi.

2. Solon islohotlari. Afinada yevpatridlar bilan aholining kambag‘al qismi bo‘lgan oddiy demos o‘rtasida ijtimoiy ziddiyatlar kuchaydi. Drakont qonunlari Attika aholisining eng katta muammolaridan biri – qarz masalasini hal qila olmadi. Solon (mil.avv. 640–559-yillar) Attikaning eng qadimgi oilalaridan birining vakili bo‘lib, uning ajdodi podsho Kodriy sulolasiga borib taqalar edi. Yevpatrid Solon ancha yerga ega bo‘lib, savdo-hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanib, boylik to‘plagan edi. U harbiy qobiliyatga ega, ma‘lumotli bo‘lgan va she‘rlar yozgan. Solon mil.avv. 594-yilda arxont vazifasiga saylanib, tub islohotlar o‘tkazdi. Solon, eng avvalo, «seysaxteya» (qarzlarni olib tashlash) Afina aholisini qarzlaridan voz kechishni amalga oshirdi. Qarzi uchun qul qilish abadiy taqiqlandi. Katta yer egaligi cheklandi. Yer ulushini belgilangan miqdordan ortiqcha olish man qilindi. Solon islohotlari Afinadagi vaziyatni tubdan o‘zgartirdi. Qarzi uchun dehqonlarni qul qilish bekor qilindi. Ilgari qarzi uchun qul qilinganlar ozod qilindi hamda chetga qul qilib sotib yuborilganlar jamoa hisobidan pul to‘lanib, Afinaga qaytarildi. Solon qonli drakon qonunlarini bekor qildi, faqat odam o‘ldirgani va boshqa jinoyat ishlar uchun hamda kim kambag‘al bo‘lsa, ayol yoki qulni xafa qilgan bo‘lsa, bunday qonunlar saqlanib qoldi. Solonning qarori bilan vatan uchun urushda qurbon bo‘lganlarning bolalari davlat hisobidan tarbiyalangan. Yana bir qaror bo‘yicha vatan uchun jonini fido qilganlar tan-

tanali danf qilingan. Bu qarorlar afinaliklarda vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanishiga xizmat qilgan.

Solon suyoqoyoq ayollarga maxsus uylarda ma'lum kasb bilan shug'ullanishga ruxsat etdi. Faqat bu kasb bilan shug'ullanish uchun qa'tiy baholar va soliq to'lash belgilandi. Xo'jalik faoliyatini rag'batlantiradigan qator islohotlar o'tkazildi. Pul islohoti, uzunlik va og'irlik o'lchov birliklari takomillashtirilib, savdo-hunarmandchilik rag'batlantirildi. Attikadan chetga mahsulotlar sotish kuchaydi. Solon Attikadan g'alla chiqarishni taqiqladi. Bu chora-tadbirlar Afina bozorida chayqovchilikni tugatib, dehqonchilikni rag'batlantirdi va zaytun moyi, vino eksport qilish uchun qulay shart-sharoit yaratdi.

Vasiyatlar erkinligi to'g'risidagi qonun urug'chilik aloqalarini zaiflashtirdi. Alohida oilalarning iqtisodiy kuchayishiga shart-sharoit yaratdi. Yerga egalik qilish me'yori belgilandi.

Ijtimoiy-siyosiy sohada qator islohotlar amalga oshirildi. Solon Attikaning barcha erkin aholisini daromad miqdoriga qarab, to'rt toifaga bo'ldi. Fuqarolarning huquq va majburiyatlari shunday taqsimlandiki, boy fuqarolar avvalgidek, to'la hokimiyatga ega bo'ldilar. Shu bilan birga, fuqarolik jamoasida ularga katta majburiyatlar yuklandi. Yangi yuqori tabaqaga mansub bo'lish yer ulushidan yillik olinadigan daromadga bog'liq bo'ldi. Bu yer egasini yerga yaxshi ishlov berib, ko'p hosil olish imkoniyatini qidirishga majbur qilar edi. Endilikda u yoki bu oq-suyak urug'ga mansublik emas, balki aynan daromad miqdori, yerga mehnat qilish fuqaroning jamiyatdagi obro'ining o'lchov mezoni bo'ldi.

Sud tizimi isloh qilindi. 30 yoshga yetgan erkin Afina fuqarolaridan sud maslahatchilari – gemey joriy qilindi. Gemey fuqarolar ishi bo'yicha oliy appelatsiya huquqiga ega bo'ldi. Faqat u jinoiy ishlar bo'yicha hukm chiqara olar edi. Odam o'ldirish bo'yicha sud ishi sobiq arxontlar kengashi areopag qo'lida qoldi.

Siyosiy huquq mulkiy senz asosida taqsimlandi. Afina jamiyati to'rt toifaga ajratildi:

1. Pentakosiomedimnlar – bir yilda 500 medimn g'alla yoki 500 metret (bir metret – 39 litr) zaytun yog'i oladigan fuqarolar.
2. Suvoriylar (gippeylar).
3. Zevgitlar – ikkita eshak aravaga ega bo'lgan og'ir qurolli piyodalar.
4. Fetlar – hunarmandlar.

Faqat birinchi uch toifa amalda davlat lavozimlarini egallashi mumkin edi. Oliy arxont mansabiga faqat pentakosiomedimnlar da'vo qilishlari mumkin edi. Fetlar polisning bevosita boshqaruvidan chetlashtirildilar.

Xalq yig'ini – eklessiyada oddiy fuqarolar davlatning umumiy siyosatini belgilashda mansabdor shaxslarni saylashga ta'sir ko'rsatish, maslahatchilar sudi (gelieya)da ishtirok etib, mansabdor shaxslarning suiiste'mollarini yo'q qilishlari mumkin edi. Solon fuqarolarining siyosiy faolligiga jiddiy e'tibor berdi. U shunday bir qonunni qabul qildiki, bu qonunga ko'ra kimki xalq harakatlari paytida kimnidir tomonini olmasa, u nomussiz deb e'lon qilingan. Bu qonun bilan Solon ko'ngilchan odamlarning ijtimoiy ishlarga zararli loqaydligini oldini olmoqchi bo'ldi. Chunki loqaydlik oqibatida zararli ishlar ustunlikka erishadi.

Solon davrida davlat tuzilmasining yana bir yangi organi – maslahatchilar sudi (gelieya) joriy qilindi. Sudyalar barcha fuqarolardan saylangan. Solon islohotlari polis boshqaruvini demokratik shakllari asosini yaratdi, lekin izchil bo'lmaganligi sababli zodagonlar hokimiyatini to'la tugata olmadi.

Solon islohotlari bo'lg'usi Afina demokratiyasining kurtagi edi. Arxont va areopagning roli o'zgarmadi. Polisning urug', fillarga bo'linishi saqlanib qoldi. Islohotlar fillarda urug' huquqining yemirilishiga olib keldi. Endilikda Afina fuqarosi o'z mulkini erkin vasiyat qilish huquqini oldi. Otasi hunar o'rgatmagan o'g'il keksaygan otasiga g'amxo'rlik qilish majburiyatidan ozod qilindi. Solon qonunlari yog'och taxtachaga yozilib, shaharga qo'yildi. Afina fuqarolari bu qonunlarni 10 yil davomida o'zgartirmaslikka qasam ichdilar. Shundan so'ng Solon arxont vazifasini topshirib, Sharq mamlakatlari bo'ylab uzoq sayohatga chiqdi. Bundan foydalangan oqsuyak zodagonlar shaharda oddiy xalqdan hokimiyatni tortib olishga harakat qildi.

3. Afinada Pisistrat tiraniyasi (Mil.avv. 560–527-yillarda Afinani boshqardi). Solon islohotlari barcha ijtimoiy muammolarni yecha olmadi. Afinada keskin ichki siyosiy kurash boshlandi. Tez orada kuchli ijtimoiy ziddiyatlar Afinada Pisistrat tiraniyasining o'rnatilishiga olib keldi. Mil.avv. 560-yil zodagonlardan biri Solonning qarindoshi Pisistrat (mil.avv. 560–527-yillar) qattiq kurash natijasida hokimiyatni bosib oldi va o'zining tiraniya shaklidagi shaxsiy hokimiyatini o'rnatdi. Afinaning eng kambag'al aholisi o'z siyosiy huquqlarini kengaytirish va yer mulkini taqsimlashdan umidvor bo'ldi. Shu sabab-

li ular Pisistrat tiraniyasini qoʻllab-quvvatladilar. U dastlab eng muhtoj kichik yer egalariga davlat xazinasidan yordam koʻrsatdi. Qishloq kambagʻallari uchun soliqlar majburiyatini yengillashtirdi. Qishloq jamoalari huquqini kamaytirdi. Yer egalarini Afinaga sudga kelishdan qutqarib, qishloq joylarida sudyalarni tayinladi. U fuqarolardan qurollarini tortib olib, oʻz hokimiyatini mustahkamladi. Fuqarolar daromadiga soliq joriy qildi. Bu oʻrta hol dehqonlarni ogʻir ahvolga solib qoʻydi.

Pisistrat dengiz savdosining rivojlanishiga shart-sharoit yaratdi. U Kichik Osiyoda Dardanel boʻgʻoziga chiqadigan muhim nuqtani bosib olib, Afinaning Qora dengizga boradigan dengiz yoʻllari ustidan nazoratini oʻrnatdi. Afinada savdo-hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida bir qancha jamoat inshootlari qurilishini amalga oshirdi. Pisistrat davrida Afina akropolida Afina Pallada, Pifiyalik Apollon Elevsinada ibodatxonalar va yangi bozor qurildi. Pirey portining qurilishi davom etdi, 9-quvurli suv oʻtkazgich barpo etildi, bu suv quvuri milodiy 18 asrgacha ishlatildi. Pisistrat yollanma qoʻshinni tashkil qildi, hosilning oʻndan bir miqdorida soliq joriy qilindi. Solon joriy etgan oʻzgarishlar saqlab qolindi, lekin Pisistrat boshqa tiranlar bilan juda yaqin aloqa oʻrnatdi. Shoirlar va rassomlarga homiylik qildi. Uning farmoyishi bilan Afinada xalq qoʻshiqchilari toʻplanib, ularning soʻzlaridan Gomerning mashhur «Iliada» va «Odissey» poemalari yozib olindi.

Pisistratning tadbirlari eski urugʻ zodagonlarining mavqeyiga putur yetkazdi. Ularning koʻp vakillari Afinadan quvgʻin qilindi. Mil.avv. 527-yilda Pisistratning vafotidan soʻng oʻgʻillari Gippey va Gipparx Afina hokimlari boʻldilar. Bu vaqtda kuchli Fors davlati Kichik Osiyoni bosib olib, Egey dengizidan Qora dengizga boradigan yoʻllarni egallab oldi. Afina dengiz savdosiga katta putur yetdi. Natijada Afinaga chetdan gʻalla olib kelish vaqtinchalik uzilib qolib, oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashdi. Tabiiyki, bu aholining noroziligini keltirib chiqardi. Aholi Pisistratning oʻgʻillari hokimiyatini agʻdarib tashladi.

4. Klisfenning islohotchilik faoliyati. Pisistrat va uning oʻgʻillari tiraniyasidan soʻng Afinada turli ijtimoiy qatlamlar oʻrtasida kurash kuchayib ketdi. Pisistrat va uning oʻgʻillarining 50 yillik (mil.avv. 560–510-yillar) tiraniyasi agʻdarilganidan soʻng, yevpatridlarning oʻz hukmronliklarini tiklashga urinishlari Afina demosining keskin qarshiligiga uchradi. Afinada taniqli boʻlgan Alkmeonidlarning urugʻidan boʻlgan Klisfen toi-

faviy tuzum sarqitlaridan xoli bo'lib, Afinaning qudratini yangi Tiraniyani o'rnatish bilan emas, aksincha, barcha fuqarolarning huquqlarda to'la va mutlaq tengligini amalga oshirish bilan ta'minlash mumkin deb hisobladi. Shunday bir sharoitda demos qo'llab-quvvatlagan Klisfen yangi islohotlarni o'tkazdi (mil.avv. 509–507-yillar). Klisfen mil.avv. 509-yilda qo'shimcha vakolatlar bilan Birinchi arxont lavozimiga saylandi. Uning islohotchilik dasturining asosiy maqsadi Solon asos solgan demokratik muassasalarni rivojlantirish va mustahkamlash, demokratiyani oligarxik to'ntarish yoki tiraniyaning o'rnatilishidan himoya qilish mexanizmini yaratish edi. U, eng avvalo, demokratiyaning ijtimoiy tayanchi sifatida Afina fuqarolik jamoasini mustahkamladi va kengaytirdi. U ma'muriy-hududiy islohotni amalga oshirdi. Azaldan mavjud bo'lgan urug'zodagonlari va badavlat boylarning hokimiyati tayanchi bo'lgan to'rt sinf (fillar) tugatildi. Klisfen Attika viloyatini geografik tuzilishi bo'yicha har birini tarkibida 10 dem (jamo) bo'lgan 10 fil (okrug)ga bo'ldi. Fillarga chet elliklar va meteklar birlashtirildi. Shu bilan urug'zodagonlari hokimiyati tugatildi. Har bir fil o'n demdan iborat bo'lib, har bir dem oliy ma'muriy organ Besh yuzlar kengashiga 25 kishigacha a'zo saylagan. Afina ko'ngilli qo'shinlari tarkibi ham o'zgardi. Uning asosiy qismini og'ir qurollangan jangchi – goplitlar tashkil etdi. Ular ko'p sonli uchinchi toifa zevgitlardan to'ldirilgan. Fetlar yengil qurollangan jangchilar va harbiy flot matroslarini tashkil etdilar.

Afina siyosiy ustqurmasida zodagonlar tayanchi bo'lgan areopagga qarshi turgan To'rt yuzlar kengashi (Bule) tashkil etildi. Kengash a'zolari to'rt fildan yuztadan fuqaro saylanadigan, muntazam faoliyat ko'rsatadigan organ bo'ldi. To'rt yuzlar kengashi xalq yig'inida ko'riladigan va tasdiqlanadigan masalalarni tayyorlar edi. Xalq yig'ini (ekkleziya) to'laqonli barcha vakolatlarga ega bo'lgan boshqaruv organi bo'lib, fuqarolarning barcha qatlamlari ovoz berish va uning ishida qatnashish huquqiga ega bo'ldilar. Xalq yig'ini muntazam yig'iladigan bo'ldi (mil.avv. V asrda yiliga 40 marta yoki 9 kunda 1 marta).

To'rt yuzlar kengashi endilikda 500 fuqaroni o'z tarkibiga kiritdi. Har yangi 10 hududiy fildan 50 kishi bu kengashga saylandi. Shu bilan birga, yangi Besh yuzlar kengashi tarkibi (Bule) har yili to'la yangilandi. Ikki martadan ortiq saylanish mumkin emas edi. Klisfen tub joy aholi huquqiga kelgindi aholi huquqini tenglashtirdi. Endi fuqarolik qadimgi urug' filiga

mansublik bilan emas, balki eng kichik hududiy birlik – demga mansublik bilan belgilandi. Endilikda har bir fuqaro o‘z ismiga otasining avlodi ismi emas, o‘z demining nomini qo‘shdi. Bu fuqarolik jamoasining barqarorligiga olib keldi.

Yana bir siyosiy yangilik – tiraniyaning o‘rnatilishiga qarshi qo‘yilgan ostrakizm qonuni qabul qilindi. Bu qonunga ko‘ra demokratiya, tenglik va erkinlikka tahdid qiladigan fuqaro Afinadan 10 yil muddatga, keyin besh yil muddatga quvg‘in qilinishi mumkin bo‘lgan. Quvg‘in qilinadigan fuqaroga qarshi 6 ming kishi ovoz berishi kerak edi. Bu qonun siyosiy hayotda mil.avv. 487-yildan 417-yilgacha qo‘llanib, shu davrda tiraniyaning uch tarafdori Afinadan haydab yuborilgan. Klisfenning islohotlari urug‘chilik aloqalarining uzilishi va aholining aralashib ketishiga olib keldi. Endilikda Attika aholisi yashash joyiga qarab hududiy aloqalar bo‘yicha birlashdi. Urug‘ fillari to‘la tugatildi.

Bu vaqtda zodagonlar Isagor boshchiligida hokimiyatni zodagonlarga qaytarish uchun Spartadan yordam so‘radilar. Spartaning kichik harbiy qismi Afinaga kirdi. 700 ta oila quvg‘in qilindi, beshyuzlar kengashi tarqatib yuborildi. Lekin oddiy xalq qurollanib, spartaliklarni Afinadan chiqib ketishga majbur qildilar. Spartaning yangidan tazyiq o‘tkazishidan qo‘rqqan afinaliklar forslardan yordam so‘radilar. Sard shahrida turgan Eron satrapi Klisfen boshchiligidagi Afina elchilarini qabul qildi. U yordam berishga va‘da qilib, faqat fors podshosiga yer va suv berishga (qaramlik belgisi) rozi bo‘lishni so‘radi. Elchilar bunga rozi bo‘ldilar. Lekin afinaliklar bu shartnomani rad qildilar. Klisfen Afinaga qaytishi bilan u Afinaga xiyonat qilgan hisoblanib, ostrakizm yo‘li bilan Afinadan quvg‘in qilindi.

Klisfen islohotining ahamiyati shundaki, bu islohotlar urug‘chilik munosabatlari va urug‘ zodagonlarining hokimiyati qoldiqlarini to‘la tugatdi. Afina davlat qurilishiga demokratiyaning to‘la hukmronligini o‘rnatdi. Barcha Afina fuqarolari (Afinada yashayotgan chet elliklar, qullar bundan mustasno) polisning siyosiy hayotida faol qatnashdilar. Ular har qanday davlat lavozimlariga saylanishlari, o‘z fuqarolik jamoalari siyosiy hayotini eng muhim muammolarini yechishda ishtirok etishlari mumkin edi. Barcha yunon polislari orasida Afina davlati eng ilg‘or va rivojlangan demokratik davlat qurilishiga ega bo‘ldi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Бузескул В.П. История афинской демократии. – СПб. 2003.
2. Курциу Э. История Древней Греции. В 5 т. – Минск: 2002.

Asosiy sanalar

| | |
|--------------------------------------|---|
| Mil.avv. VII asrning 30-yillarida | Zodagon Kilon hokimiyatni bosib olishga urinib koʻrdi. |
| Mil.avv. 622-yil | Arxont Drakont tomonidan ogʻzaki qonunchilikning yozma toʻplamga keltirilishi. |
| Mil.avv. 594-yil | Solon Afina arxonti etib saylandi. |
| Mil.avv. 560-yil | Hokimiyatni Pisistrat oʻz qoʻliga oldi. |
| Mil.avv. 527-yil | Pisistratning vafot etishi. |
| Mil.avv. 509–507-yillar | Klisfen yangi islohot oʻtkazdi. |
| Mil.avv. 487–417-yil | «Ostrakizm» yaʼni tiraniyaning oldini olish uchun Afina demokratiyasida oʻylab chiqilgan tadbirning rivojlan- gan davri. |
| Mil.avv. VI asr | Afinada demokratik tartib-qoidalar gʻalaba qildi. |
| Mil.avv. VI asr | Arxaik davrning tugashi. |

MIL.AVV. V ASRDA YUNONISTON

1. Yunon-fors urushlari. 2. Afina dengiz ittifoqi. 3. Yunon-fors urushlaridan so‘ng Afina. 4. Afina demokratiyasi.

1. Yunon-fors urushlari. Mikala yonidagi jang ham yunonlarning g‘alabasi bilan tugadi. Forslar ustidan g‘alaba Afina strategii Femistoklning dengiz va moliya islohotlari natijasida yuz berdi. Mil.avv. 483-yilda yunonlar katta dengiz floti qurishga rozi bo‘ldilar. Bu ulkan mablag‘ni talab qilar edi. Femistoklning boshqaruvi davrida Afina kumush konlaridan katta daromad qilgan. Olingan foyda qadimgi odat bo‘yicha fuqarolar yunon-fors urushlari o‘rtasida taqsimlanishi lozim edi. Femistokl fuqarolarga bu pulni taqsimlashdan voz kechib, mablag‘ni davlat ehtiyojlariga beg‘araz berishni taklif qildi. Afina harbiy dengiz floti qurish uchun yetarli pul mablag‘iga ega bo‘ldi.

Mil.avv. VI asr oxirida Yunonistonda polis tizimining shakllanishi tugadi. Uncha katta bo‘lmagan mustaqil shahar – davlatlar shakllandi. Mil.avv. VI asr oxirida qadimgi Sharqning katta qismini birlashtirgan qudratli Ahmoniyalar davlati va yunon dunyosiga o‘zining madaniy-siyosiy ta‘sirini o‘tkaza boshladi. Mil.avv. V asr oxirida forslar Kichik Osiyodagi barcha yunon shaharlari va Lidiya podsholigini bosib oldilar.

Qudratli Ahmoniyalar Bolqon yarim orolidagi yunon-shahar davlatlarini bosib olishni rejalashtirdi. Mil.avv. 490-yil fors qo‘shinlari kemalarda Egey dengizidan o‘tib, Attikaga Afinadan 42 kilometr uzoqlikdagi Marafon tekisligiga kelib tushdi. Marafon tekisligida forslar bilan yunon qo‘shinlari o‘rtasida shiddatli jang bo‘ldi. Jangda forslar yengildi. Mil.avv. 480-yilda podsho Kserks katta qo‘shin va flot bilan Dardanell bo‘g‘ozi orqali kemalardan yasalgan suzuvchi ko‘prik orqali o‘tib, Shimoliy Yunonistonni jangsiz egalladi. Sparta podshosi Leonid boshchiligida fivalik va fespilylik jangchilar fors qo‘shinini O‘rta Yunonistonga o‘tkazmaslik uchun Fermopil darasida jang qilib halok bo‘ldi. Forslar Attika viloyatini egalladilar. Salamin oroli yonida yunonlarning birlashgan floti fors floti bilan to‘qnashdi. Afina strategii yoshi endigina 30 dan o‘tgan Femistokl Salamin oroli yonida fors floti bilan jangda o‘zining harbiy qobiliyatini

namoyon qildi. Jang yunonlarning birlashgan floti g'alabasi bilan tugadi.

Mil.avv. 479-yilda fors sarkardasi Mardoniy boshliq fors qo'shini Afina shahrini ishg'ol qilib, Beotiya viloyatiga yurish qildi. Fors qo'shini Asop daryosi qirg'og'idagi Plateya shaharchasi yonida yunon-shaharlarining birlashgan qo'shini bilan jang qildi. Jangda fors qo'shini yengilib, qo'shin sarkardasi Mardoniy halok bo'ldi. Mil.avv. 479–459-yillarda Egey dengizi orollari va Kichik Osiyodagi forslar bosib olgan shaharlar ozod qilindi.

Forslar bilan tinchlik shartnomasi mil.avv. 449-yilda Kipr orolida Afina elchisi olimpiya o'yini g'olibi Kalliy imzoladi. Shartnomaga ko'ra yunonlar Kichik Osiyo satrapliklari va Misrning ishlariga aralashmaydi. Forslar esa Egey dengizi va bo'g'ozlarga harbiy flotni kiritmaydi. Kichik Osiyodagi yunon koloniyalari va Egey orollaridagi yunon shaharlari mustaqilliklarini saqlab qoldilar.

2. Afina dengiz ittifoqi. Yunon polislari forslarga nisbatan turli munosabatda bo'ldi. Fessaliya va Beotiya forslar bilan yaqin aloqa o'rnatdi. Sparta va Afina forslarga qarshi yunon shaharlari ittifoqini tashkil qildi. Mil.avv. 481-yil yunon shahar-davlatlari forslarga qarshi Ellin ittifoqini tuzdilar. Dastlab ittifoqda Sparta yetakchi rol o'ynadi. Sparta vakili uning ishiga rahbarlik qildi. Lekin forslarga qarshi harbiy harakatlarda asosan flot hal qiluvchi o'rin egallar edi. Sparta o'zining flotiga ega bo'lmaganligi sababli, ittifoqda yetakchi o'ringa da'vo qila olmas edi. Spartaliklardan rahbarlikni olish uchun Ioniya orollarining Afinaga yordam so'rab murojaat qilishi bahona bo'ldi. Afina atrofida bir necha yunon shaharlari birlashib, yangi siyosiy kuch Birinchi Afina ittifoqi (Afina Arxesi) ni vujudga keltirdi. Shu vaqtdan boshlab Sparta va Afina ittifoqchilari o'rtasidagi raqobat mil.avv. V asrda Yunonistondagi voqealar rivojiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazdi.

Afina ittifoqi tez orada mustahkam, uyushgan kuchli tashkilotga aylandi. Ittifoqning barcha qatnashchilari to'la huquqli bo'lib, uning xazinasida Delos orolidagi Apollon ibodatxonasida joylashgan edi. Ittifoqchilar kengashiga har bir a'zo davlat bittadan vakil yubordi. Afina ittifoqi mablag'i 480 talant hajmida belgilanib, har bir ittifoqchi davlat umumiy xazinasiga a'zolik to'lovi (foros)ni amalga oshirar edi. Ittifoq ichida Afinaning harbiy-siyosiy va savdo mavqeyi kuchayib ketdi. Barcha ittifoqchi yunon

shaharlari o'zlarida Afina tosh-tarozi va o'lchov birliklarini joriy qildi. Umumiy xazina Delosdan Afinaga ko'chirildi.

Afinaliklar ittifoqchilarning to'lov badali hisobiga Afinada mashhur Propiley va Parfenon ibodatxonasini qurdilar. Afinaning bunday zo'ravonligi ittifoqchilarning norozilik chiqishlariga sabab bo'ldi. Ittifoqchilarning chiqishlari afinaliklar tomonidan shafqatsiz jazolandi. Masalan, jazolangan Tasos Afinaga o'zining barcha kemalarini berish, devorlarini buzish, tovon to'lash va eski a'zolik badalini to'lashni davom ettirishga majbur bo'ldi. Plutarxning yozishicha, «Ittifoqchilar xiroj to'lovchilar va qullarga aylandilar». Afinaning o'z ta'sir doirasini yunon dunyosida muntazam ravishda kengaytirib borishi Spartaning qarshiligiga uchradi. Forslar bilan umumiy g'alabadan so'ng, har ikki davlat o'rtasidagi raqobat keskinlashdi. Forslar Egey dengizidan siqib chiqarildi, u yana «Yunon ko'li» bo'lib qoldi. «Kalliy» sulh shartnomasi (mil.avv. 449-yil)dan so'ng, forslarning dengiz floti Egey dengiziga kirishdan mahrum bo'ldi. Eron quruqlikdagi qo'shinlarini Kichik Osiyo qirg'og'idan uzoqda saqlab turish majburiyatini oldi.

Mil.avv. V asrda yunon dunyosining siyosiy va madaniy hayotining markazi Kichik Osiyo va Egey orollaridan Bolqon Yunonistoniga ko'chdi. Yunon viloyatlari ichida Attika viloyatining roli oshdi. Yunon-fors urushlaridan so'ng Afinada keskin siyosiy kurash natijasida demokratik kuchlar Perikl boshchiligida g'olib chiqdilar. Periklgacha Efial't islohot o'tkazib, zodagonlar areopagining siyosiy mavqeyini yo'q qilgan edi. Areopag ixtiyorida faqat qasddan odam o'ldirish va diniy an'analarga qarshi jinoyatlarni ko'rib, sud qilish vazifalarigina qoldi xolos. Areopagning siyosiy funksiyalari Klisfen joriy qilgan Besh yuzlar kengashi va gelieyaga berildi.

Xalqaro savdodan manfaatdor bo'lgan Afina savdogar-hunarmand va dengizchilari Afinaning yunon shaharlari ustidan yetakchiligini mustahkamlashni talab qildilar. Ular ittifoqchilarga nisbatan qat'iy siyosat yuritish, Afinaning yunon dunyosiga boshchilik qilishiga qarshi turadigan har qanday kuchlarga qarshi keskin kurash olib borishni talab qildilar. Afinada zodagon Kleonning Periklga qarshi turishi tugatilgandan so'ng, demokratik harakat Afina siyosiy hayotida yetakchi o'ringa chiqdi. Besh yuzlar kengashining ta'siri kuchaydi. Bu kengashda aholining kambag'al tabaqalarining ishtiroki uchun imkoni-

yatlar yaratildi. Gelieyada sudyalik vazifasini bajarish uchun yoki Besh yuzlar kengashiga a'zolik uchun ish haqi to'lashning joriy qilinishi, hatto kambag'allarga ham qur'a tashlash yo'li bilan saylanadigan 5 ming sudyadan biri bo'lish imkoniyatini berdi. Shahar aholisining o'rta qatlami bo'lgan zevgitlarga arxont vazifasini bajarishga ruxsat berildi. Tashqi siyosatda Afina yunon dunyosiga hukmronlik qilish uchun faol harakat qildi. Afinaning qo'shni viloyatlarga tazyiqi kuchayib, Sparta bilan urush harakatlari olib borildi. Mil.avv. 445-yil Sparta bilan 30 yil muddatga tinchlik shartnomasi imzolandi. Ammo tinchlik 14 yil davom etdi. Keyin esa Peloponnes urushi boshlanib, uzoqqa cho'zilgan urush barcha yunon shaharlarini zaiflashtirdi. Urush 27 yil davom etib, ko'pgina shaharlar vayron bo'ldi. 10 minglab kishilar qurbon bo'ldi. Urf-odat va qonunlar poymol qilindi. Yunon dunyosi shundan so'ng tushkunlikka yuz tutdi.

3. Yunon-fors urushlaridan so'ng Afina. Yunon-fors urushlaridan so'ng Afina tez tiklandi. Pirey porti qayta qurilib, o'sha davrda O'rtayer dengizidagi eng yirik port hisoblangan Karfagen portiga tenglashdi. Dengiz ittifoqiga yetakchilik qilgan Afina yunon dunyosi dengiz savdosida ham birinchi o'rinni egalladi. Afina eksporti Shimoliy Qora dengiz, Sitsiliya, Apuliya, Etruriyani qamrab oldi. Egina, Korinf, Kerkira va boshqa shaharlar savdoda Afinaning birinchiligini e'tirof etishga majbur bo'ldi. Afina ijtimoiy qatlamlarida ham tegishli o'zgarishlar yuz berdi. Jamiyatda yetakchi o'rinni savdo-hunarmand tabaqalari egaladilar. Davlatning ichki va tashqi siyosatini ana shu tabaqalar belgilar edi. Attika dehqonlari poytaxtni g'alla bilan ta'minlay olmas edilar. G'allani Qora dengiz bo'yidan yoki Italiyadan olib kelish arzonga tushar edi. Qishloq aholisi ish topishi uchun ko'plab shaharlarga kelib o'rnasha boshladilar.

Yunon shahar-davlatlarining hukmron tabaqalari qadimgi sharqning davlat apparati bilan bog'langan, hukmron sinfdan (saroy a'yonlari, amaldorlar, kohinlar, oqsuyak zodagonlar) farq qilar edi. Yunon shahar-davlatlarining hukmron tabaqasi, katta yer egalari, boy savdogar – tadbirkorlardan iborat edi. Davlat byudjetlari hisobidan hech yashamas, boylik xususiy tadbirkorlik savdo-hunarmandchilik faoliyati bilan orttirilgan. Qadimgi sharqdagidek hukmron tabaqa ulkan boylikka ega bo'lmay, fuqarolarning boshqa tabaqalari orasida boylik jihatdan katta ajralish yo'q edi. 2-3 talant (1 talant – 6 ming draxm) mulk

katta boylik hisoblanib, 10-15 talantlik mablag'ga ega bo'lish katta mablag' hisoblangan. Katta boylikka ega bo'lgan boylar hashamat uchun soliq to'laganlar. Davlat hokimiyati mulkiy keskinlikni doimo yumshatib, ijtimoiy muvozanatni saqlashga harakat qilgan. Bundan tashqari o'sha davrda tadbirkorlik bilan katta boylik jamg'arish juda qiyin bo'lgan.

Mil.avv. V asr o'rtalaridan Afinada hunarmandchilik va dehqonchilikda foydalaniladigan qullarning soni ko'payib ketdi. Afina olib borgan ko'plab urushlar natijasida Kichik Osiyo, Frakiya va Illiriyadan qullar olib kelib sotiladigan Xios orolidagi qul bozori iqtisodiyotining ishchi kuchiga bo'lgan doimiy ehtiyojni qondirdi. Qullarning soni keskin oshib ketdi. Malakasiz qul arzon bo'lib, hunarga o'rgatilgan qulning narxi 100-150 draxma belgilanar edi. Perikl davri Afinasida qullarni aniq soni noma'lum. Taxminlarga ko'ra, ular 400 mingtaga yetmagan.

Shahardagi eng boy odamlardan biri Nikiyning Lavrion kumush konlarida ming quli, boy Gipponikning 600 quli bo'lgan. Oddiy hunarmandlarning ustaxonalarida 5 tadan 10 tagacha qul ishlagan. Qalqon yasovchi usta Lisiyning ustaxonasida 120 qul bo'lgan. Boy shaharliklar xo'jaligida 10-20 qul mehnat qilgan. Hunarmandchilik korxonalari, konlar, poliz, uzumzor va zaytunzorlarda qullar mehnat qilgan. Afina shahar politsiyachilari asosan qullardan iborat bo'lgan. Qullarga «gapiruvchi qurol» deb qarashgan. Ularning hech qanday ijtimoiy huquqi bo'lmagan. Ishlab chiqarishda qullarning ko'payib borishi bilan erkin fuqarolar orasida jismoniy mehnat qilish past ish, qulga xos mehnat degan tushuncha keng tarqala boshladi. Arxaik davridayoq zodagonlar ish haqi uchun kundalik og'ir ishga nafratlanib qaraganlar. Mil.avv. V asrga kelib, bunday qarashni aholining erkin qatlamlarining ichida ham uchratish mumkin edi.

3. Afina demokratiyasi. Qadimgi yunon shahar-davlatlarining eng katta yutug'i demokratik siyosiy tuzumning yaratilishi bo'ldi. Bu ayniqsa Afina shahar-davlatida to'la o'z aksini topdi. Afinaning o'rta qatlamini tashkil qilgan dehqonlar, savdogar-hunarmandlar, yollanib ishlovchi demokratik tuzumning mustahkam ijtimoiy asosi bo'ldi. O'rta qatlamlar manfaatlarini himoya qilgan Afinaning siyosiy arboblari Solon Klisfen, Efialt va Periklning islohotlari Afina demokratiyasining huquqiy negizlarini shakllantirdi.

Afina demokratiyasining taniqli vakillaridan biri bo'lgan Efi-alt (mil.avv. V asr o'rtalari) Sparta bilan aloqani uzishni, mustaqil tashqi siyosat yuritishni, jamiyatni yanada demokratlashtirish hamda zodagonlarning siyosiy tayanchi bo'lgan areopagning mavqeyini tugatishga chaqirdi. Efi-alt mil.avv. 462-yilda areopagni funksiyalarini cheklash bo'yicha islohot o'tkazdi. Areopag ixtiyoriga faqat jinoiy ishlarni ko'rib chiqish qoldirildi. Tez o'tmay Efi-alt zodagonlar fitnasi qurboni bo'ldi. Uning izdoshi Perikl demokratik islohotlarni davom ettirdi. Afina demokratiyasining eng taniqli arboblardan biri Perikl qadimgi aslzoda urug'idan edi. Perikl Afina demokratiyasini 15 yil (mil. avv. 444–429-yillar) boshqardi. U kuchli siyosatchi, o'tkir notiq edi. Xalq uni o'zining otashin nutqlari uchun Zevsga qiyos qildi. Afina demokratiyasi va davlati Perikl davrida gullab-yashnadi. Shahar buyuk haykaltaroshlar, rassomlar, me'morlarning asarlari bilan bezatildi. Afina akropolida mashhur Parfenon (ma'buda Afina ibodatxonasi), Propiley (Akropolga bosh kirish darvozasi), Erexteyon (afsonaviy Afina podshosi sharafiga ibodatxona) bunyod qilindi. Afinada mashhur olim va faylasuflar o'z maktablarini ochdilar. Afina teatri yunon dunyosidagi eng yaxshi teatr hisoblanar edi. Periklning o'zi o'z atrofiga mashhur me'mor va haykaltarosh Fidiy, faylasuf Anaksimen, shoir-tragik Yevripid va boshqa san'at va fan arboblari to'pladi. U Afina butun Ellada uchun maktab bo'lishini orzu qilar edi.

Perikl qator demokratik islohotlar o'tkazdi. Uning davrida saylov huquqi kengaytirildi. Saylovlarda qur'a tashlash joriy qilindi. Davlat lavozimlariga ilk bor maosh to'lash boshlandi. Bu kambag'al fuqarolarni ham lavozimlarni egallashlariga imkoniyat yaratdi. Keyinchalik fuqaroni xalq yig'iniga qatnashgani uchun haq to'lash boshlandi. Kambag'al fuqarolarni teatrga kirishi uchun «teatr puli» berila boshlandi. Perikl davrida Afina demokratiyasi o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi.

10 strateg kollegiyasi. Mil.avv. 431-yilda Periklning tashabbusi bilan fuqarolik tog'risida qonun qabul qilindi. Qonunga ko'ra fuqarolik mavqeyiga ega bo'lish uchun odamning ota-onasi fuqaro bo'lishlari va qonuniy nikohda bo'lishlari lozim. Afinalik yigit-qizlar 18 yoshga yetishlari bilan o'z dem (Afinaning quyi hududiy-ma'muriy birligi)ning a'zolari yig'ilishida o'zining kelib chiqishi va yetuk yoshga yetishganini asoslovchi alohida tekshirishdan o'tganlar. Bu tekshirishdan o'tgan

o'smirlar dem a'zolari ro'yxatiga kiritilib, fuqarolik mavqeyiga ega bo'lganlar. O'smirlar 18-20 yoshda dastlab bir yillik harbiy tayyorgarlikdan o'tib, bir yil davlat chegaralarini qo'riqlaganlar. Bu harbiy xizmatdan keyin ular ekklesiya ishida ishtirok etishlari mumkin edi.

Ekklesiya – xalq yig'ini Afina davlat hokimiyatining bosh organi. Xalq yig'inida 20 yoshga yetgan Afina fuqarolari qatnashgan. Afina xalq yig'ini Afinaning barcha dolzarb masalalarini ko'rib chiqqan: moliya masalalari, urush va tinchlik, diplomatlarning hisobotlari, chet davlat diplomatlarining chiqishlari, Afinaning kundalik hayotiga tegishli muammolar kabilarni. Bir qator yunon shaharlarida xalq yig'ini o'ziga xos nomlangan: apella – Spartada, agora – Delfada, epidavr – Gela va Akragantda. So'nggi antik mualliflarda xalq yig'inlari o'tkaziladigan joy ekklesiya deb atalgan.

Bule – beshyuzlar kengashi, Klisfen davrida asos solingan. Beshyuzlar kengashi xalq yig'ini kun tartibida ko'riladigan masalalarni tayyorlagan. Afina mansabdor shaxslarining ishi ham beshyuzlar kengashida ko'rib chiqilgan.

Gelie – maslahatchilar sudi. Sudyalar Afinaning barcha fuqarolaridan qur'a tashlash yo'li bilan saylangan. Jami 6 ming sudya, shindan 5 ming maslahatchi va 1 ming zahira saylangan. Afina sudi 10 palataga bo'lingan. Bunday ko'p sudya va sud tashkilotlarining bo'lishiga sabab bor edi. Ular faqat Afina fuqarolariga tegishli bo'lmay, balki Afinaning barcha ittifoqchilari ham bu yerda sudlashuvi uchun lozim bo'lgan.

Afina sudida ishi ko'rilayotgan fuqaro qaysi palatada uning ishi ko'rilishini bilmagan. U buni sud kuni yoki sudyalar kengashi arafasida bilgan. Bunday qoidalar bo'lishiga sabab, javobgar pora bera olmasligi kerak edi. Sudda jabrlangan yoki aybdorning o'zi yo uning qarindoshi so'zga chiqqan. O'sha vaqtda advokat bo'lmagan.

Har bir Afina fuqarosi har qanday masalani xalq yig'iniga qo'yish huquqiga ega bo'lgan. Qaror ochiq ovoz berish yo'li ya'ni qo'l ko'tarish, ba'zida yopiq ovoz berish bilan amalga oshirilgan. Yopiq ovoz berishda urnaga qora yoki oq toshchalar, ba'zan sopol siniqlari tashlangan. Afina fuqarosining xalq yig'iniga qatnashishi majburiyati emas, balki huquqi edi. Shu sababli kvorum (yig'ilish qatnashchilarning qaror qabul qilish uchun zaruriy eng kam soni) tushunchasi mavjud emas edi. Faqat ba'zi

o'ta muhim masalalar bo'yicha qaror qabul qilish uchun 6 ming kishidan kam bo'lmagan fuqaroning ishtiroki zarur bo'lgan. Tanlov erkinligi demokratiyaning asosiy qoidasi: fuqaro masalaning muhokamasida ishtirok etmasligi mumkin, lekin boshqa fuqaroning qabul qilgan qonunlarni bajarishga majbur bo'lgan. Ekklesiyada yangi qonunlar (nomos) va qarorlar qabul qilingan. Davlat himoyasi, shahar oziq-ovqat ta'minoti masalalari ko'rilgan. Ba'zi lavozimlar saylangan, saylangan amaldorlarning faoliyati nazorat qilingan, ularning hisoboti tinglangan. Boshqa shahar-davlatlarning elchilari qabul qilingan. Boshqa polislar bilan tuzilgan shartnomalar muhokama qilingan va tuzatishlar kiritilib tasdiqlangan. Xalq yig'inida musodara qilish va meros muammolari, diniy e'tiqod va boshqa shaxsiy va ijtimoiy ishlar ham ko'rilgan.

Har bir fuqaro muhokama qilinayotgan masala bo'yicha o'z fikrini aytishi, ko'pchilik qo'llab-quvvatlasa, qaror matniga o'zgartirishlarni kiritishi mumkin edi. Demokratiyaning eng muhim qoidalaridan biri barcha fuqarolar ega bo'lgan qonunchilik tashabbusi edi. Qabul qilingan har bir qonun matni ko'cha, maydon va bozorlarda ko'pchilik e'tiboriga qo'yilib, u yoki bu qonun qarorining tashabbuskorining ismi yozib qo'yilgan. Qonun tashabbuskorligi fuqarolardan mas'uliyat talab qilgan. Afinada har bir fuqaro qabul qilingan qonun mavjud qonunchilikka zid ekanligi to'g'risida shikoyat qilish huquqiga ega bo'lgan. Ish sudda ko'rilgan. Agar ayblovchi o'z fikri to'g'riligini isbotlay olsa, qonun bekor qilingan va qonun tashabbuskori jazolangan. Agar o'z fikrini isbotlay olmasa, shikoyatchining o'zi jazolangan.

Attika 10 filining har biri Beshyuzlar kengashi (Bule)ga a'zolik vazifasiga nomzodlarni taklif qilganlar. Har bir fildan 50 kishi qur'a tashlash yo'li bilan uning a'ziligiga 500 kishi belgilangan. Ular bir yil davomida Bule tarkibida ishlaganlar. Har bir filning vakillari navbat bilan 39 yoki 50 kun navbatchi (pritan) bo'lganlar. Pritanlar har kun kengash majlisini chaqirganlar va kengash kun tartibini belgilaganlar. Bule kengashi masalani xalq yig'ini muhokamasiga olib chiqqan. Kengash davlat moliyasini, jamoat ishlarini, harbiy sohani, tashqi ishlarni, diniy masalalarni nazorat qilgan. Mehnatga haq to'lanishi qur'a tashlash yo'li bilan o'tkaziladigan har yilgi saylovlar afinalik fuqarolarning hayoti davomida hech bo'lmasa

bir marta kengash a'zosi bo'lish imkoniyatini berdi. Kengash a'zolari kuniga 5 obol ish haqi, pritanlar esa ulardan bir obol ko'proq olganlar. Kengash yig'ilishi Bulevteriy deb atalib, u Afina agorasida joylashgan.

Mansabdor shaxslar qur'a tashlash yo'li bilan o'ttiz yoshdan katta barcha fuqarolar orasida saylanar, faqat mansabga nomzodlar afinalik bo'lishi ustidan nazorat qilingan. Arxont yoki strateg vazifasini har qanday fuqaro bajarishi mumkin degan tushuncha mavjud edi. Chunki barcha mansabdor shaxslar xalq irodasi va qonunlarini xalq yig'ini orqali amalga tadbiq qilar edilar. Ularning funksiyasiga hech qanday muhim vazifa kirmas edi. Oliy mansabdor shaxslar – arxontlar hokimiyati oila va meros huquqiga rioya qilishga g'amxo'rlik (arxont eponim), sakral vazifa (arxont basiley), sud jarayonlariga raislik qilish (fesmofet) bilan cheklangan edi. Arxont polemarch (qo'shin qo'mondoni) faqat nomigagina qo'mondon bo'lib, amalda u chet elliklar ustidan sud ishlarini amalga oshirar edi. Qurolli kuchlarga urush va tinchlik paytida rahbarlik qilish 10 strategga tegishli edi. Ular qur'a tashlash yo'li bilan emas, balki har bir nomzodga bevosita ovoz berish yo'li bilan saylanar edilar. Mansabdor shaxslar faqat boshidagi mirta gulchambaridan boshqa hech qanday hokimiyat belgisiga ega emas edi. Bu uning hokimiyati cheklanganidan guvohlik berar edi. Ammo katta bo'lmagan hokimiyatni ham suiiste'mol qilish mumkin edi. Shu sababli, qonun bir kishini bir mansabga qayta saylashni taqiqlar edi.

Boshqaruv kollegial edi. Har bir fildan 10 strateg saylangan. Ko'cha va inshootlarning holatini nazorat qilish uchun 10 astinom saylangan. Bozor va tovarlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi janjallarni 10 agranomlar ajrim qilar edilar. Ijroiya hokimiyati har bir fildan 50 kishi saylanadigan Beshyuzlar kengashi – pritanlar qo'lida edi. Kengash xalq yig'iniga olib chiqiladigan qarorlar loyihasini tayyorlar va mansabdor shaxslar yordamida yig'in qarorlarini bajarar edi. Kengash jamoat ishlarini tashkil qilish, konfiskatsiya qilingan mulkni sotish, davlat saylagan komisiya orqali moliya ishlarini nazorat qilish, kemalar qurilishi va otliq qo'shinlar, Afina doimiy qo'shinining jangovar qobiliyatini saqlash kabi ishlarni amalga oshirar edi. Beshyuzlar kengashi boshqaruv masalalarini tezkor hal qila olmas edi. Shu sababli, har bir fil o'zining

50 vakili – pritanlar orqali davlatni yilning 1/10 qismida idora qilar edi. Pritanlar kun davomida majlis qurganlar, ularning 3/4 qismi tunda qolgan. Kengash chet davlatlar bilan yozishmalar olib borgan, elchilarni qabul qilgan. Har kun pritanlar tarkibidan qur'a tashlash yo'li bilan kengash raisi saylanib, u davlat xazinasining kaliti va muhrini olgan. U shu kun xalq yig'ini bo'lsa, unga raislik qilgan.

Dastlab xalq yig'ini oyda bir marta, keyinchalik oyda 4 marta shaharning g'arbiy qismidagi qoyali terrasa – pniksda to'plangan. Yig'ilishlarda Beshyuzlar kengashi tayyorlagan qaror loyihalari muhokama qilinib, so'zga chiquvchilar faqat shu mavzudagina so'zlashlari mumkin edi. Beshyuzlar kengashi yig'ilishi va ekklesiyada «isogoriya» – so'z erkinligiga qat'iy rioya qilinar, qaysiki, «isotomiya» – mansablarni egallashda tenglik va «isonomiya» – qonunlar oldida tenglik fuqarolarning siyosiy huquqlarining poydevorini tashkil qildi.

Afina davlati mehnat qobiliyatini yo'qotgan fuqarolar va vatan uchun jonini fido qilgan fuqarolarning bolalari to'g'risida g'amxo'rlik qilgan. Aksincha, davlat uchun xavfli deb hisoblangan fuqarolarni xalq yig'ini quvg'in qilishi mumkin bo'lgan. Afina demokratiyasi ostrakizm vositasi bilan obro'li, ma'lum bir ta'sirga ega bo'lgan mashhur fuqarolarni o'z yakka hukmronligini o'rnatishdan xavfsirab, ularni quvg'in qilgan. Xalq yig'ini vakolatiga Afina fuqaroligiga qabul qilish, meteklar ishi, chet davlatlarga elchilar yuborish kirgan. Urush vaqtida strateglar xalq oldida o'zlari o'tkazgan urush harakatlari to'g'risida hisobot berganlar. Harbiy mag'lubiyat uchun hatto strateglarni o'lim jazosiga hukm qilinish xavfi kuchli bo'lgan.

Afinada mansabdor shaxslar katta hokimiyat va obro'ga ega bo'lmaganlar. Aksincha, yig'inlarda so'zga chiqishni biladigan, qonunlar loyihasini qabul qilishga xalqni ko'ndira oladigan, hech qanday mansabga ega bo'lmagan kishilar xalq ishonchiga sazovor bo'lganlar. Ular demagoglar deb atalgan. Afina davlati o'z fuqarolarining ma'naviy barkamolligiga jiddiy e'tibor bergan. Fuqarolarga teatrga kirish, bayramlarda ishtirok etish imkoniyatlari yaratilgan. Tomoshalarga kambag'al kishilarning kirishi uchun davlat teorikon – teatrga kirish uchun ikki obol miqdorida pul to'lovini joriy qildi. Perikl taklifi bilan joriy qilingan nafaqa oddiy fuqaroga teatrga kirish imkoniyatini berdi.

Tenglik, erkinlik hamma uchun emas edi. Siyosiy huquqlardan qullardan tashqari ayollar, boshqa viloyatlardan Afinaga ko'chib kelganlar va Afinada yashab turib, erkin bo'lsa-da, fuqaroligi bo'lmagan meteklar mahrum edi. Meteklar 100 mingga yaqin kishini tashkil qilib, ular asosan savdo-hunarmandchilik bilan shug'ullanar edilar. Ayollar hech qanday huquqlarga ega bo'lmaganlar. Meteklar qo'shimcha soliqlarni to'lash, harbiy xizmat qilish majburiyatlarini o'tashlari shart edi. Ularda yerga egalik qilish huquqi yo'q bo'lib, afinalik ayolga uylanishlari mumkin emas edi. Afina fuqarolari meteklarga dushmanlik ko'zi bilan qaraganlar. Ammo meteklarning mehnati, ijodkor faoliyati Afinaning rivojlanishiga xizmat qildi. Qullar Afina aholisining yarmini tashkil etgan. Ularning ko'pchiligi qul oilasida tug'ilgan, boshqalari urushlarda asirga olinganlar yoki dengiz piratlari qurbonlari bo'lganlar, ayrimlari qarzi uchun qulga aylantirilganlar hamda qul bozorlarida sotib olinganlar. Egey dengizidagi Xioss oroli uzoq asrlar o'zining qul bozori bilan mashhur bo'lgan. Afina shahar-davlatining aholi soni 150 ming kishini tashkil etgan.

Mil.avv. VI-V asr boshlarida sport musobaqalari zodagonlar uchun ko'ngil ochish edi. Afina demokratiyasi oddiy fuqarolarni sport musobaqalarida ishtirok etishga, ularning sport bilan shug'ullanishlariga qulay sharoit yaratishga harakat qildi. Zallar, hammomlarga ega bo'lgan gimnasiylar, mashq qiladigan ko'p sonli palestrlar har qanday Afina fuqarosi uchun ochiq bo'lgan. Lekin boy afinaliklar uchun gimnasiy va palestrlar alohida edi. Barcha sport inshootlari davlat ixtiyorida edi. Sport inshootlari ishini tashkil etish va boshqarish xalq yig'ini tomonidan tayinlangan lavozim – safronist qo'lida edi. Sport Afinada kishining o'z-o'zini idora qilishga o'rgatish, adolatli o'yin qoidasiga rioya qilish, o'z ruhini ko'tarishga xizmat qilishi kerak edi. Afinaliklar boshqa yunonlar kabi ko'pgina yugurish musobaqalari bilan (mash'ala yoki boshqa yuk bilan uzun masofaga, to'la harbiy anjomda yugurish) shug'ullanganlar. Shu bilan birga, aravalarda poyga, sakrash, nayza yoki disk uloqtirish, qo'l jangi, kurash va kamondan otish kabilar keng tarqalgan. Sport bilan shug'ullanish Afina fuqarosini jismoniy va ma'naviy barkamol bo'lishida, vatan uchun fidokorona xizmat qilishi yo'lida lozim edi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Дэвис Дж. К. Демократия и классическая Греция. – М.: 2004.
2. Карпюк С.Г. Общество политика и идеология классических Афин. – М.: 1994.
3. Арский Ф. Н. Перикл. – М.: 1971.
4. Бергер А. К. Политическая мысль древнегреческой демократии. – М.: 1966.
5. Лурье С. Я. Эксплуатация афинских союзников. – Вестник древней истории, 1947, № 2.
6. Сахненко Л. А. Аристофан и афинские союзники. – Вестник древней истории, 1979, № 3.

Asosiy sanalar

| | |
|-------------------------|---|
| Mil.avv. VI asr oxiri | Ahamoniylar davlatining shakllanishi hamda Kichik Osiyodagi yunon. shaharlari va Lidiya podshohligining bosib olishi. |
| Mil.avv. VI–V asrlar | Afinada sport musobaqalarining rivojlanishi. |
| Mil.avv. V asr | Attikaning kuchayishi. |
| Mil.avv. 492–490-yillar | Fors qo‘shinlarining Yunonistonga bostirib kirishi. |
| Mil.avv. 481-yil | Yunon polislari «Yunon ittifoqi»ni tuzdi. |
| Mil.avv. 448-yil | «Kalliy» sulh shartnomasining tuzilishi. |
| Mil.avv. 445-yil | Afina va Sparta o‘rtasida 30 yilga mo‘ljallangan tinchlik shartnomasi imzolandi. |
| Mil.avv. 444–429-yillar | Periklning Afina demokratiyasiga rahbarligi. |

MIL.AVV. V ASR SO'NGGI CHORAGI – IV ASRDA YUNONISTON. POLIS TIZIMINING TUSHKUNLIGI

1. Peloponnes urushlari. 2. Polis tizimining tushkunligi.

1. Peloponnes urushlari. Yunon-fors urushlaridan so'ng Yunonistonda iqtisodiyotning umumiy o'sishi kuzatildi. Polislar o'rtasida va xalqaro savdo rivojlandi. Bu jarayon savdo-hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan polislar o'rtasida raqobatni kuchaytirdi. Ayniqsa, gavjum savdo-hunarmandchilik, dengiz savdosi bilan shug'ullangan Afinaning Korinf va Megara bilan raqobati kuchaydi. Afina va Sparta boshchiligidagi ikki kuchli harbiy-siyosiy ittifoqlar o'rtasidagi muvozanat buzildi. Afina yunon polislaridagi demokratik tuzumlarni, Sparta esa oligarxiya hukm surgan polislarini qo'llab-quvvatlashga harakat qildi. Yana shuningdek, Sparta va Afina o'rtasida Yunonistonda yetakchilik uchun raqobat qariyb 30 yil davom etgan Peloponnes urushlariga olib keldi. Urush mil.avv. 431-yilda Sparta qo'shinlarining Attika hududiga bostirib kirishi bilan boshlandi. Afina harbiy kuchlarini boshqargan Perikl quruqlikda mudofaa taktikasini qo'llash, dengizda esa faol urush harakatlarini olib borish kerak, deb hisobladi. Sparta qo'shinlari Attika hududini talon-taroj qilayotgan paytda barcha aholi Afina shahriga kirib jon saqladi. Tezda shaharda oziq-ovqat tanqisligi boshlanib, xolera epidemiyasi tarqaldi. Xalq norozi bo'ldi. 15 yil davomida arxont lavozimiga ketma-ket saylangan Perikl birinchi marta mil.avv. 430-yilda arxont etib saylanmadi. U sudga tortilib, jarima to'lashga majbur qilindi. Lekin mill.avv. 429-yilda u o'zini oqladi va arxont etib saylandi. Ammo u shu yilda yuqumli kasallikdan vafot etdi.

Periklning o'limi natijasida Afinada siyosiy beqarorlik boshlanib, tinchlik bitimi tuzish tarafdorlari bo'lgan mo'tadillar Nikiy va savdo-hunarmandlar manfaatlarini aks ettirgan radikal demokratlar Kleon boshchiligida o'zaro kurash boshladilar. Natijada davlat boshqaruvi faol urush harakatlarini olib borish tarafdori bo'lgan Afina demokratiyasining vakillari qo'lga o'tdi. Uning rahbarlaridan biri Kleon kelib chiqishi hunarmandlardan bo'lgan ustaxona egasi edi. U ajoyib notiq, shijoatli siyosat-

chi bo'lib, urushni g'alabagacha davom ettirish tarafdori edi. Uning davrida Afina floti Peloponnes qirg'oqlarida faol urush harakatlarini boshladi. Afinaliklar mil.avv. 425-yil Messeniya-dagi muhim Pilos hududi va uning qarshisidagi Sifakteriya orolchasini bosib oldilar. Spartaliklarning ahvoli og'irlashib qoldi. Ular urush harakatlarini shimolga – Frakiyaga ko'chirdilar. Bu yerdagi bir qancha shaharlar Afina bilan ittifoqdan chiqdi. Mil.avv. 422-yilda Amfiopol shahri yaqinida katta jang bo'lib, har ikki tomondan ko'plab qurbonlar berildi. Afinaliklar Kleon boshchiligida jangda yengildilar.

Yunonlar uchun urush faqat ba'zida bosqinlar o'tkazish va dushman shaharini qamal qilish bilan cheklangan. Chet el bosqinchilari bilan urush siyrak bo'lgan. Sarkardalar o'z askarlarining intizomi, jangovar qobilyatiga, jang bo'ladigan joyda qulay o'rnashishga suyangan. Jang boshlanishi bilan jangchilarni boshqarish qiyin bo'lgan. Bir yoki bir necha sarkardalarning o'limi yoki qochishi, qo'shinda hujumga o'tishga qo'rquv, vahimaga, to's-to'polonga sabab bo'lgan. Yunon qoshinining asosiy qismi og'ir qurollangan piyodalar (goplitlar) bo'lib, ular yelkama-yelka saf tortib (falanga) jang qilganlar. Ular bardosh berib, safni buzmay o'z qatorlari bilan himoya qilinganlar. Lekin ular vahimaga tushsalar, saflari buzilib, dushman 30 kg og'irlikdagi qurol-aslahali goplitlarni yakka-yakka to'zitib yuborishi oson bo'lgan.

Ahmoniyalar bu urushda har ikki raqib tomonlar bilan munosabatda o'z foydasini ko'zlab ish olib bordilar. Kariya satrapi, tajribali diplomat Tissafern Kichik Osiyodagi yunon koloniyalarini fors davlatiga qaytarish sharti bilan mil.avv. 412-yil Sparta-ga yordam ko'rsatdi. Mil.avv. 411-yilda esa u Alkiviad vositachiligida Afina bilan muzokara olib bordi. Har ikki tomondagi urushni davom ettirish tarafdorlarining kuchlari zaiflashdi. Natijada Afina bilan Sparta o'rtasida 50 yil muddatga tinchlik shartnomasi imzolandi. Bu shartnoma Afinaning elchisi Nikiy nomi bilan Nikiy shartnomasi deb ataldi. Ammo bu tinchlik uzoqqa bormadi. Afinada mil.avv. 420-yilda Sparta bilan urushni davom ettirish tarafdorlari Periklning jiyani Alkiviad boshchiligida hokimiyatga keldilar va bir necha Peloponnes polislarida Sparta-ga qarshi fuqarolarning chiqishini uyushtirdilar. Alkiviad Sitsiliyani bosib olish g'oyasini ilgari surdi. Bundan tashqari, Janubiy Italiya, hatto Karfagenni

bosib olishni orzu qildi. Uning istilochilik rejaları Afina keng qoʻllab-quvvatlandi. Mil.avv. 415-yil afinaliklar Sitsiliya oraliqidagi Sirakuza shahriga qarshi harbiy dengiz ekspeditsiyasini uyushtirdilar. Alkiviad bu urushda qatnashmadi. Chunki u urush boshlanishida diniy jinoyatda ayblanib, Sparta qochib ketdi. Spartaning yordami bilan Sirakuza Afina qoʻshinlarini tor-mor qildi. Natijada 7000 afinalik asirga olinib, qul qilindi. Afina dengiz flotining Sitsiliyadagi halokati natijasida uning dengiz davlati qudratiga putur yetdi. Afina ittifoqchilari boʻlgan bir necha yirik shahar va orollar vaziyatdan foydalanib, Afinadan ajralib ketdi.

Yunon polislarida maxfiy siyosiy ittifoqlar – geteriyalar tuzilar edi. Geteriyalarni tuzishdan asosiy maqsad, saylovlarda oʻzaro yordam uchun oʻz aʼzolarini sudda himoya qilish, diniy muloqot qilish edi. U oligarxiya va demokratiya yoʻnalishlarida tuzilgan. Afina mil.avv. 411–404-yillardagi oligarxik toʻntarishlarda geteriya muhim rol oʻynadi. Sparta oʻz hukmronligini oʻrnatishning tayanchi deb qarab, uni qoʻllab-quvvatladilar.

Sparta Eronning yordami bilan Kichik Osiyodagi yunon shaharlariga oʻz taʼsirini kuchaytirdi. Afina hokimiyatni oligarxlar bosib oldilar (mil.avv. 411-yil) va ular Sparta bilan tezda tinchlik oʻrnatish harakatini boshladilar. Peloponnes urushining ikkinchi bosqichi Dekeley urushi (mil.avv. 415–404-yillar) deb ataldi. Spartaliklar Qora dengizga boradigan yoʻllardagi boʻgʻozlarni bosib oldilar. Bu Afinani oziq-ovqat bilan taʼminlashni qiyinlashtirdi. Afinaning yunon dunyosidagi obroʻ-eʼtibori tushib ketdi. Yunonistonda Spartaning gegemonligi oʻrnatildi. Peloponnes urushlari davrida vaziyatga qarab, har ikki tomonga yordam berib turgan, aslida Afina va Sparta munosabatlarini keskinlashtirgan Eron asta-sekin yunon polislarida oʻz taʼsirini kuchaytirdi. Aslini olganda, biror-bir yunon polisi bu urushdan foyda koʻrmadi, aksincha, bu urush yunon polislarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tushkunligini tezlashtirdi.

2. Polis tizimining tushkunligi. Peloponnes urushlaridan yunon polisleri ichida eng katta moddiy zararni Afina koʻrdi. Attika dehqonlari xonavayron boʻldi. Afinaning ichki va tashqi savdosi toʻxtab qoldi. U dengiz yoʻllaridan mahrum boʻldi. Afina dengiz savdosidagi yetakchi mavqeyini yoʻqotdi. Kuchli dengiz flotidan mahrum boʻldi. Urush oxirida pul mablagʻlari tugadi. Afinalik savdogar-hunarmandlar boshqa yunon polis-

larining kuchli raqobatiga bardosh bera olmadi. Iqtisodiy tushkunlik natijasida ishsizlik, ochlik yuz berdi va ijtimoiy norozilik kuchaydi. Afina dengiz ittifoqi yemirildi. Sparta ham urushdan foyda ko'rmadi. U rasman butun yunon shahar-davlatlari ustidan yetakchiga aylandi. Forslar urushdan so'ng ko'rsatgan yordamlari uchun Spartadan Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini berishni talab qildilar. Sparta bu talablarni bajarishdan bosh tortdi. Oqibatda Kichik Osiyoda har ikki o'rtada urush harakatlari boshlanib, bu urushda Sparta bir muncha yutuqlarga erishdi.

Forslar Spartaga qarshi yunon shaharlari Fiva, Argos, Korinf, Afina va boshqa yunon polislari koalitsiyasini tuzdi. Natijada Korinf urushi (mil.avv. 399–394-yillar) deb ataladigan urush boshlandi. Urushda spartaliklar mag'lubiyatga uchradilar. Mil. avv. 394-yildagi Knid yonidagi jangda Sparta dengizdagi ustunligini yo'qotdi. Bundan foydalangan Afina forslardan moliyaviy yordam olib, o'zining yangi harbiy flotini tashkil qildi. Afina Pirey atrofida mustahkam devorlarni qurdi. Afinaliklar Egey dengizining shimoliy qirg'og'ida mustahkamlanib, bo'g'ozlar ustidan o'z nazoratlarini o'rnatdilar.

Voqealarning bunday borishi fors podshosi Artakserks II ni qanoatlantirmadi. U butun Yunonistonni zaiflashtirishni o'zi uchun asosiy vazifa deb hisobladi. Spartaga qarshi bo'lgan yunon shaharlari urush harakatlarida sezilarli yutuqlarga erisha boshlashi bilan Artakserks II zaiflashib qolgan Spartaga moliyaviy yordam ko'rsatdi. Fors podshosi Spartaga qarshi Afina, Fiva, Argos, Korinf, Megara va boshqa polislarning birlashmasi g'alabasiga yo'l qo'ymaslikka harakat qildi. Cho'zilib ketgan urush harakatlari har ikki tomon kuchlarini keskin zaiflashtirdi. Forslar aynan shuni istagan edi. Artakserks II har ikki tomonning yuzaga kelgan vaziyatda Eronga tahdid tug'dira olmasligini bilib, hakam sifatida chiqdi. Uning vositachiligida mil.avv. 387-yilda Antalkid tinchlik bitimi tuzildi. Tinchlik shartlarini amalda forslar ishlab chiqdi. Unga ko'ra, Spartaning yunon dunyosidagi yetakchiligi rasman tasdiqlandi.

Amalda esa, Spartada ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi. Davlat mulki hisoblangan yerlar ayrim spartaliklarning mulkiga aylandi. Yerni xufiya oldi-sotdisi avj oldi. Mil.avv. V asr so'nggida yunon polislari uzoq davom etgan tushkunlik pallasiga kirdi. Fuqarolarning yopiq jamoasiga asoslangan yunon polisida

yer mulkchilik munosabatlarida keskin o'zgarishlar boshlandi. Yerga ishlov berishdan keladigan daromaddan ko'ra, sudxo'rlik daromadi o'sib ketdi. Yer-mulk munosabatlarida o'zgarishlar yuz berdi. Mil.avv. V asr oxiridan yerning erkin oldi-sotdisi keng tarqaldi. Ko'pgina fuqarolar nochorlikdan o'z yerlarini sotishga majbur bo'ldilar. Natijada bu yerlarni fuqaroligi bo'lmagan kishilar ham sotib ola boshladilar. Xususiy va jamoa yerini ijaraga berish va garovga qo'yish keng tarqaldi. Katta-katta yer maydonlari ayrim fuqarolarning qo'lga o'tib qoldi. Kambag'alashgan, yeridan ajralgan fuqarolar o'z fuqarolik majburiyatlarini bajarmay qo'yidilar. Ilgari iqtisodiy o'sish davlatning boyishi bilan birga borar edi. Boy fuqarolar ko'pgina mablag'larini fuqarolik jamoasi ehtiyojlariga sarflashni o'z majburiyatlari deb bilar edilar. Mil.avv. V asrda esa boylik ayrim xususiy kishilar qo'lida to'plandi va ular o'zlarining fuqarolik majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlay boshladilar. Ularning ko'pchiligi o'z mablag'larini dengiz savdosiga qo'yidilar. Ular o'z polislaridan boshqa hududlarda katta-katta yer maydonlariga egalik qila boshladi va ma'lum bir polis fuqarosi bo'lish ahamiyatsiz bo'lib qoldi.

Mil.avv. IV asrga kelib, asta-sekin Afina fuqarolarining ko'pchiligi og'ir dehqonchilik va hunarmandchilik mehnati fuqaro uchun loyiq bo'lmagan past mashg'ulot, bu mashg'ulotlar to'laqonli fuqaro bo'lmagan metek va qullarga mos deb qaray boshladilar. Bu davrda yunon polislarida davlat xo'jaligining mavjud emasligi davlat xazinasiga daromad tushmasligi bilan ko'zga tashlanadi. Davlat hokimiyati iqtisodiy-moliyaviy jihatdan hech qanday mablag'ga ega emas edi. Bundan tashqari, polislarining moliyaviy qiyinchiliklari uzluksiz urushlar, yollanma qo'shinlarning keng tarqalishi, harbiy ehtiyojlarga xarajatlarning muntazam ravishda o'sib borishi bilan chuqurlashdi. Demokratik polislarda lavozimlarga haq to'lash, kambag'al fuqarolarga muntazam nafaqa berish tizimi bu qiyinchiliklarni yanada chuqurlashtirdi. Agarda ilgari Afina o'z xarajatlarini ittifoqchilar hisobidan qondirgan bo'lsa, mil.avv. IV asrda esa mulkdan olinadigan favqulodda soliq – eysfora bilan qoplay boshladi. Tinchlik vaqtida Afina fuqarolari hech qanday soliq to'lamas edilar. Xalq yig'ini eysfora to'g'risidagi qarorlarni kambag'al fuqarolar manfaatlariga zid ekanligi uchun uni istar-istamas qabul qilar edi. Afinaning boy tabaqasiga soliq solishga

urinish boylarning noroziligiga olib keldi. Mil.avv. V asr soʻn-gida meteklar va chet elliklarga alohida xizmatlari uchun polis hududida yer va uylarga egalik qilish huquqi berildi. Chetdan kelganlarga fuqarolik huquqi kamroq sovgʻa qilindi.

Polisning tushkunligi yollanma askarlarni tarqalishida ham koʻrindi. Yer-mulkidan ajralgan, qarzga botib, kambagʻallashib qolgan fuqaro qurol-yarogʻ olishga mablagʻ topa olmas, koʻpincha begonalarning manfaati uchun jang qilishni xohlamas edi. Toʻxtovsiz urushlar harbiy texnikaning takomillashuvini, harbiy jang sanʼatini yaxshi egallagan askarlarni talab qilar edi. Oʻz yeridan mahrum boʻlgan, jismoniy mehnat bilan shugʻullanishni istamaganlar, polislaridan quvilgan kishilar yollanma askarlar safini toʻldirdilar.

Yunon polisining tushkunligi quldorlik tizimining tushkunligi emas edi. Chunki qulchilik yanada rivojlandi, qullar mehmatidan foydalanish hajmi oʻsdi. Afinada davlat qurilishida erkin fuqarolarning mehnati kamaydi. Chunki ularning mehnatiga ham, metek va qullarga ham bir xil miqdorda haq toʻlanar edi. Qullardan qishloq xoʻjaligi, hunarmandchilik, uy-roʻzgʻor ishlarida foydalanish, boshqa kishilarga yollanma mehnatga berish bilan birga, quldor qulni hunar va savdo bilan mustaqil shugʻullanishga ruxsat berar edi. Bunday qullar mulk va oilaga ega boʻlib, alohida yashar edilar. Ular pul toʻplab, oʻz ozodliklarini sotib olishlari mumkin edi. Mil.avv. IV asrda ozod qoʻyilgan qullarning soni oʻsdi va ularning yunon polisleri iqtisodiy hayotidagi roli kuchaydi. Huquqiy jihatdan ular meteklarga tenglashtirilib, ijtimoiy jihatdan hunarmand va savdogarlar ommasiga qoʻshildilar. Mehnat va hayot kechirishning oʻxshashligi fuqaro va fuqaroligi boʻlmagan kishilarni bir-biriga yaqinlashtirdi. Mil.avv. IV asrda polislarda turli ijtimoiy tabaqalar oʻrtasidagi ziddiyatlar kuchaydi. Boylar va kambagʻallar oʻrtasidagi qarama-qarshiliklar davlat hokimiyatining zaiflashuviga olib keldi. Davlat hokimiyatining tabaqalar oʻrtasidagi nizolarni hal qilishga urinishi natija bermadi.

Mil.avv. IV asrning birinchi yarmida Spartaning Yunonistondagi mavqei kuchaydi (mil.avv. 404–379-yillar). Sparta polislarining ichki ishlariga qoʻpol ravishda aralasha boshladi. Bu koʻpchilik polislarining noroziligiga olib keldi. Oqibatda, Yunonistonda Spartaga qarshi harbiy harakatlar boshlandi va Spartaning Yunonistondagi yetakchiligi tugatildi. Yana bir yunon

polisi Fivaning yunon dunyosiga yetakchiligi ham vaqtinchalik bo'ldi. Afinaning dengiz ittifoqini qayta tiklashga urinishi ham natijasiz tugadi. Mil.avv. IV asrning 60-30-yillarida biror-bir yunon polisi qandaydir mustahkam birlashuvni tashkil qilish va unga rahbarlik qilish qobiliyatiga ega emas edi. Yunon polislari endilikda o'zaro kelishmovchiliklarni bartaraf qila olmay qoldi. Qudratli Eron davlatining yunon polislaridagi ta'siri kuchaydi. U polislar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda asosiy hakam sifatida chiqishi odatdagi holga aylandi. Ko'pgina yunon polislari o'zaro urushlardan xoli bo'lish uchun forslarning homiyligini ko'ngilli qabul qildilar. Mil.avv. IV asr o'rtalarida na Sparta, na Afina yoki Fiva yunon-polis davlatlarini birlashtirish qobiliyatiga ega emasligi yaqqol ko'rindi. Notiq Isokrat kuchli Makedoniyaning boshchiligida tarqoq yunon-polislarini kuch ishlatib birlashtirish g'oyasini ilgari surdi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Андреев В. Н. Размеры земельных участков в Аттике IV в. до н. э. Вестник древней истории, 1959, № 2.
2. Глускина Л. М. Проблемы социально-экономической истории Афин IV в. до н. э. – Л.: 1975.
3. Казакевич Э. Л. Термин и понятие «раб» в Афинах IV в. до н. э. Вестник древней истории, 1956, № 3.
4. Казакевич Э. Л. Рабы как форма богатства в Афинах IV в. до н. э. Вестник древней истории, 1958, № 2.
5. Маринович Л. П. Греческое наемничество IV в. до н. э. и кризис полиса. – М.: 1975.
6. Фролов Э. Д. Греческие тираны IV в. до н. э. – Л.: 1972.

Asosiy sanalar

| | |
|-------------------------|--|
| Mil.avv. 430–404-yillar | Peloponnes urushlari. |
| Mil.avv. 429-yil | Perikl vafot etdi. |
| Mil.avv. 422-yilda | Nikiy tinchlik shartnomasi. |
| Mil.avv. 415-yil | Afinaliklarning Sitsiliyaga harbiy ekspeditsiyasi. |
| Mil.avv. 415–404-yillar | Dekeliy urushi. |
| Mil.avv. IV asr | Yunon polislarining tushkunligi. |

QADIMGI YUNON MADANIYATI

1. Qadimgi yunon madaniyati. 2. Falsafa. 3. Din. 4. Tarix matnlari. 5. Adabiyot va teatr. 6. Notiqlik san'ati. 7. Me'morchilik. 8. Haykaltaroshlik. 9. Tibbiyot va aniq fanlar.

1. **Qadimgi yunon madaniyati.** Yunonistonning ko'pchilik polislarida o'rnatilgan demokratik tuzum fuqarolarning so'z erkinligini ta'minladi, shaxs huquqini kafolatladi va ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini berdi. Xalq yig'ini-da ichki va tashqi siyosatning barcha masalalarini muhokama qilish fuqarolarning o'zligini anglashini rivojlantirdi. Davlatda yuz berayotgan barcha hodisalar fuqaroda mas'uliyat hissini shakllantirdi. Har qanday fuqaro o'zining butun hayoti davomida bir necha marta davlat va jamoat lavozimlarini egallashi mumkin edi. Polisning siyosati uning barcha fuqarolarining ishi edi. Rivojlangan polislarda aholining asosiy qismi savodli edi. Davlat bayramlari va musobaqalari katta ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega edi. Yunon teatri tomoshalari fuqaroda axloqiy va siyosiy sifatlarni tarbiyalash vositasi hisoblanar edi. Shu sababli, davlat barcha fuqarolarni teatr tomoshalarini ko'rishiga shart-sharoit yaratib, g'amxo'rlik qildi. Demokratik polislarda notiqlik san'ati rivojlandi: xalq yig'inlarida nutq so'zlaganda notiq minglab kishilarni o'ziga qaratib, o'z nutqini eshitishga majbur qilishi lozim edi. Sudda esa fuqaro o'zining fikrini san'atkorona va mantiqiy asoslash bilan sudyalarni ishontirishi lozim edi. Bu esa nutq san'atini egallashni talab qildi. Natijada maxsus fan – ritorika (notiqlik san'ati) paydo bo'ldi. Fikrlash, mushohada qilish qonunlari to'g'risidagi fan – mantiq rivojlana boshladi.

Yunonistonda dinning qadimgi Sharq jamiyatlaridagi kabi nufuzli mavqega ega bo'lmaganligi ham yunon madaniyatining rivojlanishida turtki bo'ldi. Yunonlar uchun xudolar qudratli mavjudot bo'lsalar-da, lekin ular insonga yaqin va tushunarli edi. Har qanday yunon kohinlarning yordamisiz o'z xudosisiga qurbonlik keltirishi mumkin edi. Qadimgi Sharqda kohinlar toifasi katta mol-mulkka ega bo'lgan yopiq imtiyozli qatlam edi.

Jamiyatning ma'naviy, madaniy va ta'lim tizimi kohinlar toifasi izmida edi. Yunonlarda esa kohinlar yopiq qatlam sifatida shakllanmadi. Kohinlik lavozimi saylanadigan va almashtiriladigan edi. Kohinlar alohida toifa sifatida polis hayotiga ta'sir o'tkazmadilar. Yunon ibodatxonalari kichik hajmda chiroyli qilib qurilgan edi. Ular qadimgi Sharq ibodatxonalari kabi ulug'vor va hashamatligi bilan odamlarni qo'rqitib, vahimaga solmas edi.

Qadimgi yunon madaniyati fuqaro erkinligi va iqtisodiy faoliyat erkinligi sharoitlarida rivojlandi. Ko'chadigan va ko'chmas mulkka xususiy mulkchilik, davlatning xo'jalik hayotiga aralashmasligi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi – bularning barchasi alohida odamning tashabbusini rivojlanishiga, insonning o'zida kuch va ishonchini qaror topishiga hamda tanqidiy fikrlashni paydo bo'lishiga yordam berdi. Chunki tanqidiy mushohadasiz ilmiy yuksalish bo'lishi mumkin emas edi.

Qadimgi yunon madaniyati taraqqiyoti ikki katta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Ilk yunon madaniyati (mil.avv. VIII–VI asrlar).
2. Klassik yunon madaniyati (mil.avv. V–IV asrlar).

Ilk yunon madaniyati keskin siyosiy kurash, polis davlatlarining shakllanishi hamda boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi sharoitida rivojlandi. Bu davr madaniyati Sharqning qadimgi sivilizatsiyalari ta'siri ostida rivojlandi. Qadimda yunonlar Sharq madaniyati bilan o'zlarining Kichik Osiyodagi manzilgohlari orqali tanishdilar. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga yaqin joylashgan geografik hududlarda Milet, Lesbos, Samos kabi ilk yunon madaniy o'choqlari vujudga keldi.

Mil.avv. VII asrda yashab ijod qilgan Gesiodning didaktik asarlarida o'zi yashagan davrning ijtimoiy hayoti va ziddiyatlari aks ettiriladi («Mehnat va kunlar» poemasi).

Badiiy adabiyot, eng avvalo, poeziya janrida rivojlandi. Poeziya siyosat bilan bog'liq edi. Mashhur shoirlar Feognid, Solon, qisman Arxiloy siyosat bilan faol shug'ullangan edilar. Hatto Alkey va Safo kabi lirik shoirlar ham siyosatga tan berdilar. Shu davrdagi Ezop masallari adabiyotda demokratik yo'nalishni aks ettirib, ijtimoiy adolatsizlikni qoraladi. Ilk yunon materialistik falsafasi fanining rivojida qadimgi Sharq jamiyatlari yutuqlaridan keng foydalanildi.

Klassik yunon madaniyatining rivojlanishi uchun mil.avv. VI asrda qulay ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoit vujudga

keldi. Yunon polislaridagi demokratik tartib-qoidalar, pul-tovar munosabatlatining rivojlanshi, yunon kolonizatsiyasi qadimgi yunon madaniyatining gullab-yashnashi va klassik sifatga ega bo'lishiga olib keldi.

Klassik yunon madaniyati taraqqiyotida uch avlod muhim o'rin tutadi:

Birinchi avlod mil.avv. VI asr oxirida kirib keldi va Afina madaniyatining gullab-yashnashi uchun poydevor qo'ydi. Esxil va Frinix Attika komediyasiga asos soldi. Haykaltaroshlar Kritiy va Nesiot mil.avv. 476-yil Afina agorasini tiranlarga qarshi kurashchilar – Garmoniy va Aristogiton haykallari bilan bezadilar. Olimpdagi Zevs ibodatxonasini haykallar bilan jihozladilar.

Ikkinchi avlod Perikl davrida eng yaxshi yutuqlarga erishdi. Sofokl tragediyalari, Gerodot «Tarix»i, Parfenon va Propileyning yetuk klassik shakllari shu davrda yaratildi.

Uchinchi avlod Peloponnes urushlari davriga mansub edi. Afinaliklarning bu vaqtda boshqa madaniy dunyolar bilan tanishuvi natijasida ularning siyosiy va diniy qarashlari ma'lum darajada o'zgardi.

2. Falsafa. Ilk yunon falsafasi vakillari miletlik Fales (mil. avv. 624–547-yillar), Anaksimandr (mil.avv. 610–546-yillar), Kichik Osiyolik Anaksimen tabiat, borliqning mohiyatini tushunishga harakat qildilar. Pifagor maktabining vakillari, shuningdek, Geraklit (mil.avv. 544–483-yillar), Empedokl (mil. avv. 483–423-yillar) kabi «fiziklar» (fyuzis-tabiat demakdir) tabiatni o'rgandilar. Ular dunyoning asosini qidirdilar. Tabiat mohiyatini turlicha izohladilar. Fales dunyoning asosi suv, Anaksimandr apeyron (boshlang'ich ibtido), Geraklit esa olov deb qaradi. Demokrit (taxminan mil.avv. 470-yilda tug'ilgan) borliq cheksiz bo'linma – atomdan iborat degan fikrni aytdi. U dunyoning sababiy bog'lanishi haqida fikr yurutdi. Platon (mil.avv. 427–347-yillar) borliq abadiy, o'zgarmas, bo'linmas, uni aql bilan bilish mumkin deb hisobladi. Platon akademiyasida 20 yil ta'lim olgan Aristotel (mil.avv. 384–322-yillar) «g'oyalar dunyosi to'g'risida»gi ustozining fikrini tanqid qildi. Aristotel fikricha, borliq jins va tur shaklida mavjud bo'ladi.

Suqrot (tax. mil.avv. 470–399-yillar) falsafasida inson muammosi oldingi o'ringa chiqdi. U insonning o'zini, o'zligini anglashiga jiddiy e'tibor berdi. Suqrot insonni o'rganish falsafa obyektini tashkil etadi, deb hisobladi.

3. Din. Qadimgi yunon afsonalariga ko'ra, dastlab Yer (Geya) va Xaos, hayotning boshlanishi (Eros) va yer osti dunyosi (Tartar) bo'lgan. Geya yulduzli osmon Uranni tug'adi. Uran dunyoning birinchi hukmdori va Yer ma'budasi Geyaning turmush o'rtog'i bo'ladi. Uran va Geyadan so'ng xudolarning ikkinchi avlodi – titanlar boshlanadi. Uran o'z o'g'li, dehqonchilik xudosi titan Kronos tomonidan taxtdan ag'dariladi. Kronosning bolalari Aid, Zevs, Poseydon, Gestiya, Demetra, Gera bo'lgan. Olimpning bosh xudosi Zevs osmon va chaqmoq hukmdori, Poseydon yer va dengizni sug'oradigan namlik xudosi, Aid (Pluton) yerosti dunyosi hukmdori bo'ladi. Zevsning rafiqasi Gera nikoh homiysi, Gestiya uy o'chog'i ma'budasi, Demetra dehqonchilik homiysi deb sig'inganlar. Zevs va Geradan: o'smirlik ma'budasi Geba; urush xudosi Ares; temirchi va hunarmandlar homiysi Gefest tug'iladi.

Yunon mifologiyasida yerni yuvib turadigan daryoning nomi va uning ma'budi Okean deb nomlangan. Okeanning qizi dono Metida Zevsning rafiqasi. U yerning eng chekkasi hayot va o'limning chegarasi bo'ladi. Okean Prometeyni Zevs bilan murosaga keltirishga urinadi. Zevsning avlodlaridan tabiatning ilk uyg'onish xudosi Apollon alohida o'rinda turadi. U san'at homiysi hamda davolovchi xudo. Apollonning singlisi Artemida ovchilik ma'budasi va yoshlarning homiysi. Germes moddiy mo'l-ko'lchilik xudosi, keyin savdo, aldamchi va o'g'rilar xudosi, keyinchalik esa notiqalar va sportchilar homiysi. Dionis (Vakx) ga tabiat kuchlari, uzumchilik va vinochilik xudosi deb sig'inganlar. Jangovar Afina donolik ma'budasi sifatida shuhrat qozondi.

Yunon diniy dunyoqarashi bo'yicha xudolar odamlarga o'xshab azob chekishlari, insoniy his-tuyg'uga ega bo'lishlari mumkin edi. Yunonlarning fikri bo'yicha odamlar va xudolar dunyolari o'rtasida o'tib bo'lmaydigan chegara yo'q edi. Ularni bog'laydigan bo'g'in sifatida xudolar va yerdagi ayollarning aloqasi natijasida tug'ilgan qahramonlar (yarim xudolar) bo'lgan. Misol uchun, o'z qahramonliklari uchun xudolar safiga kiritilgan Gerakl shunday edi.

Alohida polislarning homiylari hisoblangan xudolar va qahramonlarga bag'ishlab ibodatxonalar qurilgan va ko'p sonli qurbonliklar keltirilgan. Eng qadimgi yunon ibodatxonalarini yog'ochdan qurilgan, keyinchalik hashamatli ibodat-

xonalar tosh va marmardan qurilgan. Ibodatxonalar xudolar haykallari, mifologik tasvirlar bilan bezatilgan. Afina Akropolida qurilgan Ereteyon afsonaviy maʼbud Eretey, Afina shahri homiysi maʼbuda Afinaga, dengiz maʼbudi Poseydonga bagʻishlangan. Baʼzi ibodatxonalar oldida ibodat qilayotgan kohinlar xudolardan kelajak toʻgʻrisida bashoratlarni soʻrashlari mumkin edi. Xudo mehrobiga 100 qoramol qurbonlik (gekatomba) keltirilgan. Qurbonlikka hayvonning ichki aʼzolari berilib, goʻshti esa polisning barcha fuqarolari uchun bazmda ishlatilgan. Bayram tadbirlarida sport, musiqa, poetik musobaqalar alohida oʻrin tutgan. «Xudolar» ishtiroki bilan tantanali teatr tomoshalari uyushtirilgan. Homiy xudo sharafiga uyushtiriladigan bayram polis-shaharning kuch-qudratini namoyishi sifatida polisning barcha fuqarolari birligining eng yuqori choʻqqisi deb qaralgan.

Olimpiya oʻyinlari. Yunon bayramlari ichida eng mashhuri Peloponnesning shimolidagi Elida viloyatining Olimpiya shaharchasida har 4 yilda Zevs sharafiga oʻtkaziladigan Olimpiya oʻyinlari edi. Birinchi Olimpiya oʻyinlari mil.avv. 776-yilda boʻlib oʻtgan. Bayramning boshlanishi toʻgʻrisida barcha yunonlarga maxsus elchilar – spondoforlar xabar berganlar. Musobaqalar oʻtkazilish vaqtida urushayotgan shahar-davlatlar urushni toʻxtatib, ular oʻrtasida muqaddas sulh – ekexeriya tuzilgan. Olimpiya shaharchasining katta qismi 1829-yilda qazib ochildi. Bu joyda sportchilar va tomoshabinlar uchun inshootlar, Gera va Zevsga bagʻishlangan ikki ibodatxona boʻlgan.

Sportchilar musobaqalardan bir oy oldin tanlov sinovlariga kelganlar. Oʻyinlarda faqat maʼlum yoshga yetgan yunon fuqarolari ishtirok etganlar. Mil.avv. 662-yildan bolalar uchun musobaqalar kiritilgan. Varvar va qullar faqat tomoshabin boʻlishlariga ruxsat berilib, ayollarga musobaqalarda qatnashish va oʻyinlarni kuzatish qatʼiy taqiqlangan. Elida fuqarolari ichidan 10 sudya belgilangan. Tayoq bilan qurollangan nazoratchilar (rabdoxlar) oʻyinlarda tartib-intizomni saqlab turganlar. Atletlar qip-yalangʻoch boʻlib kurash tushganlar. Bayramning birinchi kunida ishtirokchilar Zevs mehrobi oldida musobaqa qoidalariga rioya qilishlari toʻgʻrisida qasam ichganlar. Ikkinchi, uchinchi, toʻrtinchi kunlar musobaqalar oʻtkazilib, beshinchi kun oʻyinlarning yopilishi, gʻoliblarni taqdirlash marosimi oʻtkazilgan.

Olimpiya o'yinlariga yugurish, kurash, qo'l jangi, qoidasiz kurash (pankratiya), beshkurash – pentatlon (uzunlikka sakrash, qisqa masofaga yugurish, nayza va disk uloqtirish), ot chopish va poyga aravalarida yugurish kirgan. Musobaqalar guruhlar bo'yicha qur'a tashlash yo'li bilan o'tkazilgan. G'oliblar olimpionik faxriy unvonini olib, mil.avv. 752-yildan zaytun novdalaridan gulchambarlarni mukofot sifatida olganlar. G'oliblar moddiy rag'batlantirilganlar. G'oliblar Olimpiyalik Zevs xiyobonida o'z haykallarini qo'yish huquqiga ega bo'lganlar. Buyuk yunon shoirlari Olimpiada g'oliblari sharafiga madhiyalar to'qiganlar.

Olimpiya o'yinlarida jang aravalari poygasida siyosiy arboblardan Afinalik Alkiviad, Akragant shahri hokimi Feron, Sitsiliyalik Tiran Gieron II va Gionisey, Makedon podshosi Filipp II bir necha bor g'olib bo'lganlar. So'nggi Olimpiya o'yinlari milodiy 393-yilda o'tkazilgan. Yunonistonda Olimpiya o'yinlaridan tashqari, Umumellin o'yinlaridan Pifiya (4 yilda bir marta Apollonga bag'ishlangan), Nemeya (Nemeylik Zevsga bag'ishlangan) va Istma (Poseydonga bag'ishlangan) o'yinlari ham o'tkazilgan. Yunonlar guruh bo'lib emas, balki shaxsiy sport bellashuvini afzal ko'rganlar. Ayollarga Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish, tomoshabin bo'lish taqiqlangan. Ayollarning ma'buda Gera sharafiga o'tkaziladigan o'z o'yinlari bo'lib, u ham Olimpiyada o'tkazilgan. Yunonlar guruh bo'lib emas, balki shaxsiy sport bellashuvini afzal ko'rganlar. Ayollarga olimpiya o'yinlarida ishtirok etish, tomoshabin bo'lish taqiqlangan. Ayollarning ma'buda Gera sharafiga o'tkaziladigan o'z o'yinlari bo'lib, u ham Olimpiyada o'tkazilgan.

Sport musobaqalari fuqarolarning jismoniy rivojlanishiga imkoniyat yaratgan va yoshlarni harbiy jihatdan chiniqtirish uchun xizmat qilgan. Fuqaro jismoniy va ma'naviy mukammal rivojlanishi va jang san'atini egallagan bo'lishlari talab qilingan. Siyosiy arboblar ham urush vaqtida qo'lga qurol olib, oddiy goplit qatorida turib jang qilganlar. Yunonlar bayramlar, o'yinlarni hamkorlikda tashkil qilish va eng muqaddas ziyoratgohlarni himoya qilish uchun alohida ittifoqlar – amfiktioniyalar tashkil qildilar.

4. Tarix matnlari. Mil.avv. V asrda ilk bor o'tmish voqeahodisalarining matnini tuzish va xalq oldida bayon qilish boshlanadi. Mil.avv. V asrda yunonlarda jamiyat taraqqiyoti-

ga bag'ishlangan ana shunday matnlar paydo bo'ldi. Uzoq vaqt turli o'lkalarda bo'lgan Gerodot (mil.avv. 485–425-yillar atrofida yashagan, Kichik Osiyodagi Galikarnas shahrida tug'ilgan) ilk bor ko'rgan va eshitgan voqealarini ma'lum bir tizimga solib, hikoya qilishga kirishdi. U tuzgan matnni Afinada ilk bor xalq oldida o'qib berdi. Keyinchalik mil.avv. III asrda Aleksandriya olimlari uning hikoyalari 9 jilddan iborat kitob holatiga keltiradilar. 9-jild «Tarix» (yunoncha «Istoriya» – «tasvir» ma'nosini bildiradi) yoki «Muzalar» deb atalib, asosan yunon-fors urushlariga bag'ishladi. Lekin muallif bayon qilish davomida Misr, Eron, skiflar tarixiga ham murojaat qiladi. Gerodot insonlar faoliyatida xudolarning ishtirokiga shubha qilmadi.

Olorning o'g'li Fukidid (mil.avv. 460/51–396-yillar) boy afinalik oiladan bo'lib, frakiyadagi oltin konlarini merosga oldi. Siyosiy hayotga faol qatnashdi. Peloponnes urushi davrida strateg bo'ldi, lekin harbiy ishda xatoga yo'l qo'ygani uchun Afinadan quvg'in qilindi. Fukidid Peloponnes urushiga bag'ishlangan 8 kitobdan iborat tarixiy asarning muallifi. Uning asari afsonaviy va haqiqiy voqealarni Gerodotga xos bo'lgan, quruq bayon qilishning aksi bo'lgan haqiqiy tarixiy tadqiqot edi. Fukidid tarixchilar ichida birinchi bo'lib tarixiy voqealarni, ularning harakatga keltiruvchi kuchlari, taraqqiyot yo'llari bilan o'zaro aloqada ko'rishga harakat qildi. Voqealarning sabablarini o'rganish uchun siyosiy voqelikni ilmiy tahlil qilish usullarini qo'lladi. Fukidid xudolarni tarix doirasidan chiqardi. U tarixni xudolar emas, balki kishilar o'z faoliyatlari bilan yaratadilar deb hisoblar edi. Kishilarning «tabiati» hamma vaqt qonun va shartnomalardan kuchliroq bo'ladi. Kishilarning qiyofasi va uning ko'rinishlari Fukidid uchun shu davr jamiyatining voqeligini tushinishda yetarli edi. Gerodot va Fukidid yunon polislari fuqarolarining o'z ozodligini himoya qilishi, vatanparvarlik va o'zini qurbon qilishdek qahramonlik kurashiga murojaat qildilar.

Fukidid an'analarini Ksenofont (mil.avv. 430–355-yillar) davom ettirdi. Uning «Anabasis», «Lakedemeon politiyasi», «Kiropediya», «Agesilay» va «Daromadlar to'g'risida» asarlarida o'sha davr yunon dunyosining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti aks etadi. Efor (mil.avv.405–330-yillar) 30 kitobdan iborat «Tarix» asarida yunon dunyosi, shuningdek, yunon koloniyalari tarixini yoritdi.

Mil.avv. V asrda yunon dunyosida yuz bergan kuchli siyosiy jarayonlarni tahlil qilgan, shu davrning siyosiy arboblari Femistokl va Perikl kabi afinalik demokratiya yo'lboshchilarini ayovsiz tanqid ostiga olgan siyosiy adabiyotlar yuzaga keldi. Shunday adabiyotlardan biri «Afinaning boshqaruvi to'g'risida»gi risola mil.avv. 430-yillar atrofida paydo bo'ldi. Kritiyning «Lakedemon politiyasi»da Sparta jamiyati qurilishi ko'klarga ko'tarildi, Afina demokratiyasiga salbiy nazar bilan qaraldi.

5. Adabiyot va teatr. Mil.avv. VIII–VI asrlarda yunon madaniyati taraqqiyotida qadimgi Sharq madaniyatining ta'siri kuchli bo'ldi. Yunonlar o'zlarining Kichik Osiyodagi shaharlari orqali qadimgi Sharqning boy madaniyati bilan tanishdilar. Bu davrning asosiy madaniy o'choqlari (Yunonistonning o'zida bo'lmay) Kichik Osiyodagi Milet shahri, Lesbos va Samos orollarida edi. Adabiyotda poeziya janri rivojlandi. Alkey, Arxilox, Feognid, Safolar yunon poeziyasida yorqin iz qoldirdilar. Lesbosda tug'ilgan, Spartada yashagan shoira Safo 9 poetik asar yaratdi. Shundan faqat bitta poema bizgacha yetib keldi. Uning mavzusi go'zallik va muhabbat edi. Qul Ezop o'zining masallari bilan mashur bo'ldi.

Qadimgi Yunonistonning eng noyob adabiy yodgorligi ijodkor shoir Gomerning (mil.avv. IX yoki VIII asrlar yashagan deb taxmin qilinadi) «Iliada» va «Odissey» dostonlaridir. Hozir bu poemalarni ikki yoki bir necha guruh mualliflar yozgan deb faraz qiladilar. «Iliada» dostonining birinchi varianti bir necha asr oldin Kichik Osiyodagi Frigiyada yaratilgan deb faraz qilinadi. Gomerning asarlari paydo bo'lgunga qadar yunon xalq og'zaki ijodining ajoyib namunalari: qo'shiqlar, ertaklar, rivoyatlar va masallar yunon adabiyotining haqiqiy poydevori edi. Gomerining qahramonlik dostonlari u yashagan (taxminan mil.avv. IX–VIII asrlar) davrdan oldingi mil.avv. XI–IX asrlar voqealarining adabiy tasviridir.

Arxaik davrda lirika keng tarqalgan bo'lsa, mil.avv. V asrda Afina adabiyoti va poetik ijodiyotning markazi bo'lgan birlashma Attika tragediyasi bilan mashhur bo'lib ketdi. Tragediya («Echkilar qo'shig'i») vinochilik xudosi Dionisning echki terisi kiygan quvnoq, doimiy hamrohlarini ifodalovchi satirlar aytdigan xor qo'shiqlaridan kelib chiqdi. Mil.avv. VII asrdayoq butun Yunonistonda shunday «Echkilar xori» yoki satirlar keng tarqalgan edi. Attika tragediyasining tug'ilishida Afina tirani Pisistratning umumdavlat bayrami sifatida Buyuk Dionisiy

bayramlarini ta'sis etishi muhim o'rin tutdi. Shoir Fespid mil. avv. 530-yil atrofida Dionis bayramida xor qo'shiqlariga ilk bor musiqa asboblari hamrohligida hikoyani qo'shadi. Shu vaqtdan drama tug'iladi. Aktyor xorga hikoya bilan «javob» berib, xor bilan dialog olib borar edi. Shu tariqa, tragediya dramatik ko'rinishga aylandi. Tragediyada boshqa ko'rinish qatnashchilari Dionis to'g'risidagi afsona-miflardan sahna ko'rinishlari o'ynar edilar. Keyinchalik boshqa afsonalarga navbat keldi. Mil.avv. V asr birinchi yarmida Esxil tomoshabin oldiga ikkinchi aktyorni, Sofokl uchinchi aktyorni qo'shdi va natijada qadimgi «Echkilar xori» to'la dramaga aylandi.

Attika teatrida Dionis sharafiga o'tkazilgan bayram vaqtida faqat uch kun tomosha ko'rsatilgan. Birdaniga uch tragediya qo'yilib, keyin satirik drama yana bir mifologiyadan yengil quvnoq sahnalashtirilgan parcha berilgan. Teatr ko'rinishi ochiq havoda, dumaloq maydoncha – orxestrada namoyish qilingan. Tomoshabinlar uchun Akropolning toshloq qiyaligida toshdan o'rindiqlar (teatron) yo'nilgan. Tomoshabin o'tiradigan tosh o'rindiq teatron deb atalib, teatr so'zi shundan kelib chiqqan. Ochiq va katta teatrdan aktyorlar imo-ishoralarini va kiyimlarini aniq ko'rib bo'lmas edi. Shu boisdan, aktyorlar sahnaga uzun tantanali kiyim va niqoblarda hamda aktyor gavdasini baland qilish uchun baland poshnali oyoq kiyim – koturnada chiqqanlar. Teatr tomoshalari mart oyining oxiri, aprel oyining boshlarida ko'rsatilgan.

Yunon tragediyasi. Yunon tragediyasining mil.avv. V asrdagi yuksak parvozi uch buyuk tragik shoirlari – Esxil, Sofokl, Yevripid va komediograf Aristofanlar asarlari bilan belgilanadi.

Esxil. Yunon tragediyasining asoschisi Esxil (mil.avv. 525–456-yillar) hisoblanadi. Afina yaqinidagi Elevsin shaharchasida tug'ilgan Esxil 30 yoshida o'z tragediyalari bilan shuhrat qozonib, 20 yil davomida yunon tragediyasining birinchi darg'asi bo'lib keldi. Lekin mil.avv. 468-yil yosh Sofokldan mag'lub bo'lib, faqat o'n yildan keyin «Oresteya» trilogiyasi bilan g'alaba qildi. Shundan so'ng Esxil Sitsiliyaga ko'chib o'tib, u yerda vafot etdi. Uning 70 ta tragediyasidan 7 tasi yetib kelgan. Shoirning «forslar» (mil.avv. 472-yil) tragediyasi Salamin jangi-ga bag'ishlangan. «Zanjirband Prometey» tragediyasida erkinlik g'oyasi ilgari suriladi.

Sofokl. Esxildan so'ng Attika teatrida Sofokl (mil.avv. 496–405-yillar) yetakchi o'rinni egalladi. Sofokl ko'pgina ras-

som, faylasuflar hamda Perikl bilan do'st edi. Sofokl Afina dengiz ittifoqining xazinachisi, strateg lavozimini egalladi. U teatrga uchinchi aktyorni olib kirdi, xor ishtirokchilarini ko'paytirdi. Sofokl mahsuldor ijod qilib, 123 ta komediya yozdi, undan 7 tasi bizgacha yetib kelgan. Shoirning «Shoh Edip», «Antigona», «Fivaga qarshi yetti», «Agamemnon», «Xoeforalar», «Yevmenid», «Gerakl», «Avlidadagi ifigeniya», «Gekuba», «Androomaxa», «Ion», «Yelena», «Edip Kolonda» asarlarida axloqiy va etik muammolar ko'tariladi.

Yevripid. Yevripid (mil.avv.480–406-yillar) polis mafkurasi-ning tushkunligi davrida ijod qildi. Uning asarlari falsafiy ruhda bo'lib, faqat to'rt marta g'olib bo'ldi xolos. Lekin 100 yildan so'ng uning tragediyalari ellin teatrlarining barchasida qo'yildi. Natijada Yevripidning 90 asaridan 18 tasi saqlanib qoldi. Shoir «Vakxankalar», «Gerakl», «Medeya», «Ippolit», «Iffegeniya» tragediyalarida insonning chuqur ruhiy dunyosi, his-tuyg'usini aks ettirdi. Bu asarlar jahon teatri sahnasidan tushmay kelmoqda.

Attika teatrida tragediyadan tashqari komediya (mil.avv. 445–386-yillar) janri ham keng tarqalgan. Bizgacha yetib kelgan komediyalarning ko'pchiligi Aristofan qalamiga mansubdir. Aristofanning «Tinchlik», «Axaryaliklar», «Lisistrat», «Suvoriylar», «Qurbaqalar» va «Bulutlar» komediyalarida mil.avv. V asr Yunon dunyosining siyosiy ziddiyatlari hajv qilinadi. Aristofandan II komediya qolgan. Mil.avv. IV asrda Yunonistonda 15-20 ming kishilik teatrlar qurilishi avj oldi. Afinadagi mashhur Dionis teatri marmardan yarim doira shaklida tepalikda qurilgan edi. Barcha fuqarolar teatr tomoshalariga borganlar. Teatrga kirish uchun fuqarolarga pul berilgan. Yunon teatri omma- viy san'at o'chog'iga aylandi. Mil.avv. VI–V asrlarda yashagan yarim afsonaviy Ezop masal janrida ijod qilib, allegorik obrazlarni yaratdi. Rivoyatga ko'ra u ozod bo'lgan qul bo'lib, Lidiya hokimi Krez saroyida yashagan. Qadimda Ezopning bir necha masallari ma'lum edi.

6. Notiqlik san'ati. Yunon shahar-davlatlarida demokratik tartib-qoidalarning o'rnatilishi, fuqarolarning xalq yig'ini, sud ishlarida faol ishtiroki notiqlik san'atining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Sudda so'zlanadigan nutqlar keng qiziqish uyg'otdi. Qadimgi mifologiya qahramonlari hikoyasiga yoki maqtoviga bag'ishlab tuzilgan namunaviy nutqlar keng tarqalgan. Notiqlik san'atiga arziyas haq evaziga o'qitilgan. Afina notiqlik san'ati markazi bo'ldi (mil.avv. V asr). Afina notiqqlari uch xil: siyosiy,

sud, tantanali nutqlar tuzganlar. Sud nutqi bo'yicha Lisiy (mil. avv. 459–380-yillar) shuhrat qozondi. U Afina fuqarolariga pul evaziga sudda ko'riladigan ish uchun ayblovchi, oqlovchi nutqlar tuzib berdi. Ikkinchi bir mashhur notiq Isokrat (mil. avv. 436–338-yillar) edi. Mil. avv. 391-yilda Isokrat notqlik san'ati maktabini ochdi. Isokratning bu maktabida mashhur notiqlar Demosfen, Giperin, Esxin, Likurg va tarixchilar Feopomp, Efor va Filistlar yetishib chiqdi. Isokrat kuchli ovozga ega bo'lmaganligi sababli, omma oldida kam nutq so'zlagan. Isokrat siyosiy targ'ibot olib bordi. U Afinada Periklgacha bo'lgan aristokratik tuzumni maqtab, o'zining publitsistik to'plamlarini tarqatdi. Isokrat o'tmishni ko'klarga ko'tarib, yunonlarni makedoniyalik Filipp atrofida jipslashib, Sharqda eski dushman – Eron ustiga yurishga chaqirdi. Ehtimol u Makedoniyaning kuchayishi Yunonistonga qanday xavf tug'dirishini bilmagan edi. Afsonaga ko'ra, yunonlarning Xeroniya yonidagi mag'lubiyatidan so'ng mil. avv. 338-yilda Isokrat o'zini ochlikdan o'ldiradi.

Isokratning eng yaxshi o'quvchilaridan biri afinalik mashhur siyosiy arbob Demosfen (mil. avv. 384–322-yillar) Afinadagi antimakedon guruhning murosasiz rahbari edi. Demosfen boshidayoq Makedoniyaning kuchayishi Afina demokratiyasi va mustaqilligi uchun halokatli ekanligini ko'ra bilgan edi.

7. Me'morchilik. Yunon-fors urushlaridan so'ng Afina juda katta miqdorda moliyaviy mablag'larga ega bo'ldi. Mil. avv. 449–444-yillarda Afinaning xalq yig'inlari va bozor maydoni Agorada olov va temirchilik xudosi Gefestga bag'ishlangan ibodatxona qurilib, ibodatxona ichida Gefestning bronza haykali qo'yilgan.

Ayniqsa, Afina Akropolida Perikl davrida Afinada yigirma yil ichida ulug'vor inshootlar barpo qilindi. Akropoldagi Parfenon ibodatxonasi, Propiley (Akropolga kirishdagi marmar darvoza), G'olib Afina ibodatxonasi, Parfenon qarshisida mil. avv. 421–406-yillarda me'mor Filokl bunyod qilgan, mahalliy ilohlarga bag'ishlangan Erexteyon ibodatxonasi Afinaning mashhur inshootlari bo'ldi. Ioniy, korinf va doriy uslublarida qurilgan bu inshootlar me'morchilik san'atining ajoyib namunalari bo'ldi. Parfenonning quruvchilari Iktin va Kallikrat nafislik va ulug'vorlikni uyg'unlashtirishga erishdilar. Akropol darvozalarini qurishda me'mor Mnesikl (mil. avv. 438–432-yillar) ioniy va doriy ustunlarini yonma-yon qo'lladi. Ibodatxonaning janubida ustun qizlarning figuralari (Kariatid) bilan almashtirildi. At-

tikaning Pentelikoni konlarida marmar qazib olish boshlandi va bu me'morchilik san'atining ravnaqiga yo'l ochdi. Mil.avv. V asrning ikkinchi yarmida Afinadan tashqari Yunonistonning boshqa viloyatlarida, Janubiy Italiya va Sitsiliyada (Agrigentdagi Zevs ibodatxonasi, Pestdagi olti ustunlik Poseydon ibodatxonasi) me'morchilik inshootlari barpo qilindi.

Dastlab shaharlar rejasiz qurilgan. Faqat mil.avv. V asrdan shaharlar rejali asosda qurila boshladi. Miletlik Gippodam shahar qurilishining rejali tizimini yaratdi. U Miletni qayta tikladi. Afinada Pirey portini, o'zi asoschisi bo'lgan janubiy Italiyada Furiya koloniyasini qurdi. Har bir shaharda akropol (mustahkamlangan qal'a), markaziy maydon, hunarmandchilik mahallalari va minorali mudofaa devorlari bunyod qilindi. Teatr va odeonlar (musiqali chiqishlar uchun yopiq inshoot), stadion va ippodrom, gimnasiy va palestrlar (sport mashqlari o'tkaziladigan inshoot), pritaniya va bulevteriyalar (ma'muriy bino) qurila boshlandi. Me'morchilik san'atida yangi bosqich boshlandi. Hashamat, ulug'vorlik, yengillik va dekorativ nafislikka intilish sezildi. Yunon badiiy an'analari Sharq an'analari bilan qo'shib ketdi. An'anaviy doriy va ioniy uslublari bilan keyinchalik paydo bo'lgan korinf uslubi ko'proq qo'llanila boshlandi. Kichik Osiyoda Ahmoniyning Kariy viloyati satrapi Mavsol sharafiga Galikarnas shahrida qurilgan maqbara ulkan yodgorlik hisoblanadi. Mavzoley so'zi shundan kelib chiqqan. Galikarnas mavzoleyida uch uslub o'z aksini topdi. Mavzoleyni me'mor Satir va Pifiylar bunyod qildi.

8. Haykaltaroshlik. Mil.avv. V asrdan yunon haykaltaroshligi rivojlanib, noyob haykallar yaratildi. Buyuk haykaltaroshlar Miron, Fidiy va Polikletlar yaratgan haykallar insoniyat sivilizatsiyasining mo'jizalari hisoblanadi. Haykaltaroshlikning qator maktablari yuzaga keldi. Yunon haykaltaroshligining rivojlanishi to'rtta bosqichga bo'linadi. Birinchi davr mil.avv. V asrgacha bo'lib, Miron bilan tugaydi. Shundan so'ng yunon haykaltaroshligi g'oyaviylik va shakllarni eng oliy mukammalligi davriga kiradi. Ikkinchi bosqich – Fidiy va Polikretning ijodi davri. Uchinchi bosqich mil.avv. IV asrdan Makedoniyalik Aleksandrgacha bo'lgan davr. IV bosqich Aleksandrning o'limidan mil.avv. II asrgacha. Bu bosqichda Rodos va Pergam maktablari oldinga chiqadi. Yunonistonda mil.avv. V asrning 70-yillaridan boshlab haykaltaroshlik san'ati gullab-yashnadi. Buyuk haykaltarosh Fidiy Afina va Zevs haykallarini yaratdi. Ma'buda

Afinaning 12 metrli haykalini yaratishda fil suyagi va oltindan foydalandi. Maʼbuda «Afina» haykali Akropolning eng baland joyiga qoʻyilib, uning quyoshda yaraqlagan nayzasi uzoqdan koʻrinib, kemalar uchun mayoq boʻlib xizmat qilgan. Fidiyning mashhur asarlaridan biri «Olimpiyalik Zevs»ning ulkan haykali (14 metr) Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasiga qoʻyilgan edi. U taxtga oʻtirgan holda ifodalanib, fil suyagidan yasalgan. U maʼbuda Afina qalqonida doʻsti Afinaning siyosiy arbobi Periklni va oʻzini tasvirladi. Afinada haykaltaroshning dushmanlari Fidiyni maʼbudani haqorat qilishda aybladilar. Natijada Fidiy qamoqqa hukm qilindi va u yerda vafot etdi. Fidiyning ikki munosib shogirdi Alkmen va Agorakrit Parfenon ibodatxonasi peshtogʻi tasvirini ishladilar.

Mashhur haykaltarosh Miron «Diskobol», «Afina va Marsiy» haykallari bilan oʻzining nomini abadiylashtirdi. Uning shogirdi haykaltarosh Dimetriy anʼanaviylik va klassikadan uzoqlashib hayotiy asarlar yaratdi. Haykaltarosh Poliklet esa uni teskarisi boʻlib, oʻz asarlarida sof goʻzallikni izladi. U tanlovlarda Fidiy bilan raqobatlashdi va uni yengdi. Uning Zevsning rafiqasi «Gera», «Nayza ushlagan oʻsmir» haykallari mukammal sanʼat asarlari boʻldi.

Klassik yunon haykaltaroshligining yorqin vakillaridan biri argoslik Poliklet edi. Uning «Diodumen» asari noyob sanʼat namunasi edi. Yunon haykaltaroshlari inson gavdasining uygʻunligi nuqtasini qidirar edilar. Poliklet ham bu nuqtani izladi. Poliklet qonuniga koʻra, haykal tovonining uzunligi gavdaning 1/6 qismini, boshining uzunligi 1/8 qismini tashkil qilishi kerak edi. Bu va boshqa nisbatlarga Dorifor haykalida qatʼiy rioya qilingan. Poliklet qonuniga keyingi yuz yil davomida haykaltaroshlik sanʼatida amal qilib keldi. Haykaltarosh Peoniyning «Maʼbuda Rika» haykali mil.avv. V asrning noyob sanʼat asarlaridan biri edi.

Mil.avv. IV asrda haykaltarosh Praksitelning (mil.avv. 370–340-yillar) «Germes chaqaloq Dionis bilan», «Knidlik Afrodita», «Kaltakesakni oʻldirayotgan Apollon» haykallarida nafislik, goʻzallik yaqqol aks etadi. Uning «Erot», «Vino quyayotgan satir», «Dam olayotgan satir» haykallari sevgi, bazmga bagʻishlangan. Praksitel barcha haykallarini marmardan ishladi. Uning «Knidlik Afrodita» haykali ayol goʻzalligining timsoli sifatida shuhrat qozondi. Praksitelning haykallarida sokinlik motivlari koʻrinadi. Uning mashhur «Knidlik Afrodita» haykali bizgacha

yetib kelmagan. Praksitelning «Dam olayotgan Satir» haykalinining yuzdan ortiq nusxalari bizgacha yetib kelgan. Buyuk haykaltaroshning ikki o'g'li va nevarasi uning ishini davom ettirdilar. Uning o'zi ham haykaltaroshning o'g'li edi.

Mil.avv. IV asrda polis tizimining tushkunligi davrida haykaltaroshlikda qahramonlik mavzusidan uzoqlashib, insonning ichki ruhiy dunyosini ko'rsatish asosiy yo'nalish bo'ldi. Shu davrning mashhur haykaltaroshlari sifatida Skopas, Praksitel va Lisipp (makedoniyalik Aleksandrning saroy haykaltaroshi) larni aytish mumkin. Paroslik Skopas (mil.avv. 420–355-yillar) Attika, Peloponnes va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarida ishladi. O'zi me'mor bo'lgan Gegeyadagi Afina ibodatxonasini haykallar bilan bezadi. Skopasning «Sevib qolgan Arey» va «Afrodita» haykallarida inson ruhining harakati va uning eng nozik va yashirin tuyg'ularini ifodalashga harakat ko'rinadi.

Mashhur haykaltaroshlarning orasida eng so'nggisi va mahsuldori mil.avv. IV asrda yashagan Lisipp edi. U marmar va metallardan ilohlar, qahramonlar, yarim ilohlarning 1500 haykallarini yaratdi. Lisippning «To'rt ot qo'shilgan aravadagi Gelios» va «Tlet» haykallari mashhur bo'ldi. Uning «Istmiyalik poseydon», «Agiy», «Gerakl» haykallarida kurash ruhi singdirilgan. U Makedoniyalik Aleksandrning buyurtmasi bilan «Granik yonidagi jang» haykallar guruhini yaratdi. Guruh 35 figuradan tashkil topib, ulardan 26 tasi otliq edi. Makedoniyalik Aleksandrni marmar va bronzada tasvirlash faqat Lisippga ruxsat berilgan edi. Lisipp Aleksandrni turli ko'rinishda: o'smir, erkak, jangda, taxtda o'tirgan holda, ovda, otda tasvirladi. Mashhur haykaltarosh Makedoniyalik Aleksandrning buyustini ham yaratdi. Lisipp haykaltaroshlik san'atida Poliklet qonunining o'rniga yangi qonunni tadbiiq qildi. Lisippning zamondoshi afinalik Leoxar yunon haykaltaroshligida mumtoz usulni tiklashga harakat qildi. «Belvederlik Apollon», «Gaimed!» haykallari uning asari deb taxmin qilinadi.

Rodos orolida Agezandr, Afenodor va Polidor mashhur «Laokoon va uning o'g'illari» asarini yaratdilar. Sofoklning hikoyasiga ko'ra, iloh Apollon muqaddas tepalikni oyoqosti qilgani uchun ilohlarni Laokoanni o'ldirishga yuboradi. Laokoon noqonuniy tug'ilgan o'g'illari bilan birga o'ldiriladi. Lisippning shogirdi rodoslik Xares Rodos orolida qadimgi dunyoning yetti mo'jizasidan biri bo'lgan xudo Geliosning 36 metrlik ulkan haykalini yaratdi (mil.avv. 216-yil). Rodosdagi kuchli zilzila

paytida bu haykal buzilib ketdi. Uning «Gerakl sher bilan» va «Apoksiomen» haykallari, bazm qilayotgan Gerakl haykalchasi haykaltaroshlik san'atining eng noyob namunalari hisoblanadi.

Tasviriy san'at taraqqiyotini vazalar tasviri orqali yaqqol tasavvur qilish mumkin. Bu san'at janrida Sikion maktabi va Afina maktabi shakllangan edi. Tasviriy san'atda kundalik hayot va mifologiyadan olingan tasvirlar ko'plab uchraydi. Birinchi bo'lib mashhur yunon rassomi tasoslik Poliklet faqat to'rt rang: oq, qora, qizil va sariqni ishlatgan. Klassik davrda yunon tasviriy san'atining eng mashhur namoyandalardan biri Polignot ulkan ko'p shaklli kompozitsiyalar ustasi edi. Afinalik Apollodor tasviriy san'atda yorug'lik soyasini kashf qildi. U bo'yoq bilan chizgan ko'pgina vazalar bizgacha yetib kelgan. Bu davrdagi Zevksid va Parrasiy, Apelles (Aleksandrning saroy rassomi) va Nikiylar tasviriy san'at janrida yorqin iz qoldirdilar. Rassomlar tarixiy, harbiy, peyzaj va portret janrlarida ijod qildilar.

9. Tibbiyot va aniq fanlar. Mil.avv. V asr ikkinchi yarmidan kohinlar tibbiyoti o'rniga, aniq kuzatishlarga asoslangan shifokorlarning tibbiyoti vujudga keldi. Mil.avv. 400-yilda mashhur yunon tabibi Gippokrat (mil.avv. 470–430-yillar) ning tibbiyot maktabi paydo bo'ldi. Gippokrat kasallikni o'rganish nazariyasidan ko'ra muhimroq deb uqtiradi. U «Tibbiyotning otasi» sifatida shuhrat qozondi. Uning maktabida tabiblar tajriba, kuzatish usuliga tayanib, tez va to'g'ri tashxis qo'yishga harakat qildilar va davolashda dorivor o'tlar, parhez va gigiyena kabi usullarni keng qo'lladilar. Yunon tabiblari singan suyaklarni, urushda olingan jarohatlarni tuzatishni, davolashni bilardilar, lekin yuqumli kasalliklarni davolashni bilmas edilar. Asklepiy davolash ma'budi hisoblangan. Tabiblar odamning sog'lig'i uning organizmidagi 4 asosiy suyuqlik: qon, flegma, qora va sarit o't orasidagi muvozanatga bog'liq deb hisoblaganlar. Apolloniyalik Diogen qon aylanish tizimini yaxshi o'rgandi. Krotonlik Alkmeon kasalliklarning manbai inson organizmidagi suyaklarning mutanosibligining buzilishi deb ko'rsatdi. O'sha davr tibbiy bilimlari to'g'risida 53 traktatdan iborat «Gippokrat korpusi» deb ataladigan tibbiyot to'plamlari orqali ma'lumot olish mumkin.

Yunonlar matematikani misrliklardan, astrologiyani bobilliklardan o'zlashtirdilar. Aniq fanlar to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Afinalik astronom, matematik Meton quyosh soatini yasagani, taqvimni isloh qilgani to'g'risidagi ma'lumotlar biz-

gacha yetib kelgan. Samos orolida tugʻilgan Pifagor (mil.avv. 540–500-yillar) matematika va musiqa bilan shugʻullangan hamda mashhur matematik teoremani kashf etgan. Aytishlaricha, oʻz kashfiyotidan xursand boʻlib, u 100 hoʻkizni qurbonlik keltiradi. U juda katta jismoniy kuch va aqliy qobiliyatga ega boʻlgan va 18 yoshida Olimpiya oʻyinlari gʻolibi boʻladi. Pifagor Krit va Misrga sayohat qiladi. Misrning maʼnaviy-diniy gʻoyalari uning keyingi faoliyatiga katta taʼsir oʻtkazadi. Olim janubiy Italiyadagi yunon shahri Krotonda yashab ijod qiladi. U ilm asosida davlatni boshqarish gʻoyasini ilgari suradi. Knidlik astronom va geograf Evdoks yer shar shaklida ekanini asoslab berdi va uning aylanasini hisoblab chiqishga urindi. Mil.avv. 432-yilda afinalik matematik yangi taqvimni joriy qildi. Aristotel fizika boʻyicha, Empedokl kimyoviy unsurlar toʻgʻrisida asarlar yaratdi. Aristotel zoologiya boʻyicha oʻz asarida mavjudotlar dunyosini turkumladi. Miletlik Gippodam meteorologiya bilan shugʻullandi. Mil.avv. IV asrda afinalik Ksenofont harbiy ishga bagʻishlangan va stunfallik Eney shaharlar mudofaasi toʻgʻrisida asarlar yaratdilar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Фролов Э.Д. Факел Прометея. Очерки античной общественной мысли. СПб. 2004.
2. Ярхо В.Н. Древнегреческая литература: собрание трудов. В 4 т. – М.: 2000–2002.
3. Зеленский Ф.Ф. Эллинская религия. – Минск: 2003.
4. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: 2000.
5. Немировский А.И. Мифы древности: Эллада. – М.: 2000.
6. Каллистов Д. П. Очерки истории античного театра. – М.: 1969.
7. Лурье С.Я. Демокрит. – Л.: 1970.
8. Ривкин Б. И. В долине Алфея. Олимпийские игры в искусстве Древней Греции. – М.: 1969.
9. Рожанский И.Д. Развитие естествознания в эпоху античности. – М.: 1979.

Asosiy sanalar

| | |
|-------------------------------|--|
| Mil.avv. VII asr | Yunon tragediyalarning paydo boʻlishi. |
| Mil.avv. VII–VI asrlar | Yunon madaniyatining rivojlanishi. |
| Mil.avv. VI asr oxiri – V asr | Afina madaniyatining gullab-yashnagan davri. |

| | |
|-------------------------|--|
| Mil.avv. V asr | Tarixchilar Gerodot va Fukididning yashagan davri. |
| Mil.avv. V asr | Praksitel «Germes chaqaloq Dionis bilan», «Knidlik Afrotida», «Kaltakesakni o'ldirayotgan Apollon» haykallarini yaratdi. |
| Mil.avv. 427–347-yillar | Platon yashagan yillar. |
| Mil.avv. 470–399-yillar | Suqrot yashagan yillar. |
| Mil.avv. 430-yil | «Afina boshqaruvi to'g'risida» asari paydo bo'ldi. |
| Mil.avv. V asr II yarmi | Gippokrat tibbiyot maktabining paydo bo'lishi. |
| Mil.avv. 438–432-yillar | Akropol darvozalarining Mnesiklet tomonidan qurilishi. |
| Mil.avv. IV asr | Haykaltarosh Lisipp makedoniyalik Aleksandr byustini yaratdi. |
| Mil.avv. IV asr | Tarixchi Ksenofont yashagan davr |
| Mil.avv. 391-yil | Isokrat notiqlik maktabining vujudga kelishi. |
| Mil.avv. 280-yil | Yunonistonda Axey ittifoqlari vujudga keldi. |
| Mil.avv. III asr | Spartaning rivojlanishi. |

II BOB

MAKEDONIYANING YUKSALISHI. ALEKSANDR ISTILOLARI VA UNING OQIBATLARI

1. Makedoniyaning yuksalishi. Yunonistonda makedon hukmronligining o'rnatilishi. 2. Aleksandrning Sharqqa yurishlari. 3. Diadoxlar urushi.

1. Makedoniyaning yuksalishi. Yunonistonda makedon hukmronligining o'rnatilishi. Makedoniya Bolqon yarim orolining shimolida joylashgan bo'lib, uning shimol va sharqdagi qo'shnilari qadimgi frakiya qabilalari, g'arbda illir qabilalari, janubda fessaliyaliklar edi. Makedoniya uncha baland bo'lmagan tog'lar va bir necha hosildor vodiylarda joylashgan. Iqlimida dengiz va kontinental iqlimning uyg'un qo'shilib ketgani ko'rinadi. Makedoniyada temir, mis, oltin va kumush zaxiralari mavjud. Tog' hududlarida kema qurish uchun zarur bo'lgan daraxt navi o'sgan. Makedoniyada ko'p etnik guruhlar yashagan. Aholining asosiy qismini tashkil etgan makedonlar mil.avv. XIII–XII asrlardan beri bu yerda yashar edilar. Bundan tashqari, epir, illir va frakiyaliklarga tegishli etnik guruhlar mavjud edi.

Makedoniyada mil.avv. VI–V asrlar oralig'ida ilk davlat va jamiyat shakllandi. Makedoniya yunon shahar-davlatlaridan ko'ra, zaif rivojlangan, urug'chilik an'analari kuchli bo'lgan davlat edi. U dengizga chiqadigan yo'lga ega emas edi. Shu sababli, dengiz savdosi va koloniyalar barpo etishda ishtirok eta olmadi. Makedoniya dehqonchilik mamlakati bo'lib, aholining asosiy qismini dehqonlar tashkil etgan. Peloponnes urushlaridan so'ng Makedoniya yunon sivilizatsiyasini tez o'zlashtira boshladi. Ayniqsa, yunon harbiy san'ati va harbiy texnikasi yaxshi o'zlashtirildi. Yunonlar uchun Makedoniya qoloq varvarlar mamlakati edi.

Podsho Aminta va uning o'g'li Aleksandr hukmronligi davrida Makedoniya yunon-fors urushlariga tortildi. Makedon podsholari vaziyatga qarab, har ikki tomonni ham qo'llab-quvvatlaganlar. Boshda Makedoniya forslar tarafida bo'ldi. Podsho Aleksandr (mil.avv. 498–454-yillar) Kserksning mil.avv.

480–479-yillardagi magʻlubiyatidan soʻng yunon shahar-davlatlari bilan yaqinlasha boshladi. Yunonlar hatto Aleksandrga umumyunon Olimpiya oʻyinlarida ishtirok etishiga ruxsat berdilar. U yugurish musobaqasida gʻalaba qozondi. Podsho Arxelay (mil.avv. 419–399-yillar) qator islohotlar oʻtkazib, podsho hokimiyatini kuchaytirdi. U Makedoniyaning chekka hududlaridagi yarim mustaqil hokimlarning oʻzboshimchaligini chekladi. Podsho mamlakatning turli hududlarida bir necha qalʼalarni qurib, ularni qoʻshin va oziq-ovqat bilan taʼminlash qulay boʻlgan toʻgʻri yoʻllar bilan bogʻladi. Podsho Arxelay otliq qismlarni takomillashtirdi va uni zarbdor kuchga aylantirdi. Dengizga va dengizboʻyi shaharlariga yaqin Pella shahrini poytaxtga aylantirdi.

Podsho Arxelay Afina bilan yaqinlashib, uning yordamida Xalkida va Fessaliyadagi bir necha yunon shaharlarini bosib oldi. Makedoniya urugʻ zodagonlarining bir qismi podsho hokimiyatining mustahkamlanishi, boshqaruvning markazlashuvi hamda yunon shaharlari bilan yaqinlashuvidan norozi boʻlib, fitna uyushtirdilar. Natijada Arxelay oʻldirildi. Makedoniya bir necha oʻn yil ichki ziddiyatlar ichida qoldi. Makedon podsholari hududiy separatizmga barham berib, podsho hokimiyatini mustahkamlash siyosatini olib bordilar.

Makedon davlatchiligining rivojlanishida Filipp II katta yutuqlarga erishdi. Makedon podshosi Filipp II (mil.avv. 359–336-yillar) makedon urugʻ-qabilalari oʻrtasidagi nizolarga qatʼiy chek qoʻydi. Oʻz hokimiyatini butun mamlakat miqyosida tan olinishiga erishdi. U harbiy islohot oʻtkazib, makedon falangasini tuzdi. Ogʻir qurollangan piyoda (goplitlar) 16-29 qator saflanadigan jangchilar boʻlib, 5 metrgacha uzunlikdagi sarissa (nayza) bilan qurollangan. Orqa safdagilar sarissalarini oldingi qatordagilar yelkasiga qoʻyar edilar. Ogʻir qurollangan jangchilar katta qalqonlar bilan himoyalaniib, sarissalarni tikandek chiqarib, dahshatli kuchni tashkil qilar edilar. Makedon zodagonlaridan tuzilgan ogʻir qurolli suvoriy getayrlar («podshoning oʻrtoqlari») qoʻshinda muhim oʻrin tutgan. Qoʻshin tarkibida turli qamal qurollari bilan taʼminlangan injener qismlar mavjud edi. Filipp II oʻz maqsadiga erishish uchun har qanday vositadan qaytmadi. U «Oltin ortilgan eshak eng baland devorni ham oshib oʻtadi», deb aytar edi.

Mil.avv. IV asr oʻrtalarida Makedoniya Bolqon shimolidagi eng kuchli davlatga aylandi. Mil.avv. IV asr oʻrtalarida Makedoniya

kuchli qo'shin bilan Epir va Frakiyani egalladi. Shu vaqtdan boshlab Makedoniya yunon davlatlarining ishlariga faol aralasha boshladi. Mil.avv. 355-yilda Makedoniya Fiva va Fokida o'rtasidagi urushga aralashib, Fokidani tor-mor qildi. Natijada Makedoniya butun Shimoliy Yunonistonga egalik qildi. Tez orada Fessaliya, Xalkidika yarim orolining bir qismi, Frakiyaning janubiy qirg'og'i, Bosforgacha Makedoniyaga qaram bo'ldi. Makedoniya endi dengiz davlatiga aylandi. Yunonlarni Qora dengizga chiqish yo'li Makedoniya qo'liga o'tdi.

Yunon davlatlaridan faqat Afina Filipp II ga qarshi tura olishi mumkin edi. Lekin Afinada makedon va antimakedon partiyasi mavjud edi. Makedon partiyasi (yetakchisi Isokrat) yunonlar Filipp II boshchiligida Eronga qarshi yurish qilib, katta o'lja olishi mumkin, yunonlar ichidagi o'zaro kelishmovchiliklarga chek qo'yiladi, Kichik Osiyoni bosib olib, norozi kambag'allarni yerga ko'chirish mumkin, deb hisoblar edilar. Filipp II Afinada o'z tarafdorlarini sotib olish uchun oltinni ayamadi, o'z tarafdorlarini qo'llab-quvvatladi. Demosfen boshchigida antimakedon partiyasi Makedoniya bilan ittifoq yunon davlatlarining erkinligi va demokratiyani yo'qotishga olib keladi deb hisobladi. Demosfen Afina, Fiva, Korinf, Xios, Evfeya va Vizantiy kabi boshqa yunon shaharlari birlashgan kuchli antimakedon guruhini tuzdi.

Mil.avv. 338-yil avgust oyida birlashgan yunon shaharlari va Filipp II qo'shinlari o'rtasida Beotiya (Xeroneya)da hal qiluvchi jang bo'ldi. Demosfenning o'zi oldingi qatorlarda oddiy askar bo'lib jang qildi. Makedon qo'shinlari yunonlarni tor-mor qildi. Shundan so'ng, mil.avv. 338-yilda (591-yilda) Filipp II Korinf shahrida umumyunon kongressini chaqirdi. Kongressda muhim qarorlar qabul qilindi. Yunon shaharlarining ittifoqi tuzildi. O'zaro urushlar taqiqlandi. Yunon davlatlari makedon podshosi bilan abadiy mudofaa va hujum ittifoqi tuzdi. Filipp II Korinf kongressida ellin davlatlaridan Eronga yurish uchun kemalar va odamlarni berishni talab qildi va o'zini yunonlarning yo'l boshchisi deb e'lon qilishga majbur etdi. Spartadan tashqari Argos, Arkadiya, Messeniya va Elidaning olqishiga sazovor bo'ldi. Eron bilan urush boshlashga qaror qilindi. Kongressda xususiy mulkning daxlsizligi e'lon qilindi, qarzlarni kassatsiya qilish, birovning mulkini bosib olish va qayta taqsimlash, qullarga erkinlik berish va ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish taqiqlandi. Faqat Sparta bu kongressda qatnashmadi.

2. Aleksandrning Sharqqa yurishlari. Filipp II Eron bilan urushga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshladi. Bu davrda Ahmoniy-lar imperiyasi ancha zaiflashgan edi. Mil.avv. 360-yillarda sat-raplarning isyonlari, Finikiya shaharlarining qo'zg'olonlari yuz berib, Misrning mustaqillikka intilishi kuchaydi. Eronning so'nggi qudratli podshosi Artakserks III Ox 20 yil davomida yemirilayotgan davlatni bir qadar mustahkamladi. Ammo shi-joatli hukmdor o'z a'yonlari tomonidan zaharlab o'ldirildi. Pod-sho Artakserksni zaharlab o'ldirgan qudratli Bagoy amalda hokimiyatni qo'lga oldi. Miloddan avvalgi 338-yilda Artakserks-ning o'g'li Aresni taxtga o'tqazdi. Lekin ikki yildan keyin Ares ham o'ldirildi. U mamlakatni boshqarishda o'zining mavqey-iga putur yetkazmaydigan zaif bir shaxsni taxtga o'tqazishni niyat qildi. Bagoy qo'g'irchoq hukmdor sifatida ko'plarga tanish bo'lmagan Armaniston satrapi Qodomonni Doro III nomi bi-lan taxtga o'tqazdi. Yangi podsho Bagoyni hokimiyatdan chet-lashtirib, o'z hokimiyatini mustahkamlashga kirishdi.

Makedoniya esa bu davrda yunon dunyosida o'z mavqeyi-ni mustahkamlab, Sharqqa yurishga faol tayyorgarlik ko'ra boshladi. Filipp II mil.avv. 336-yil Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'ini bosib olish uchun 10000 makedon qo'shinini jo'nat-di. Ammo Sharqqa yurish g'oyasini amalga oshirish Filipp II ga nasib etmadi. Bu g'oyani uning o'g'li Aleksandr amalga oshirdi. Aleksandr taxt vorisi va oqsuyak oilaning farzandiga munosib bo'lgan ta'lim-tarbiyani oldi. O'sha davrda hali mash-hur bo'lmagan faylasuf Aristotel (Arastu) uning o'qituvchi va tarbiyachilaridan biri bo'ldi. Filipp II o'g'lini davlat boshqaruv ishlariga asta-sekin torta boshladi. Aleksandr mil.avv. 340-yil-da Shimoliy Yunonistonning tog'li hududlaridagi qabilalardan birining qo'zg'olonini bostirib, birinchi bor o'zini kuchli sarkar-da ekanligini ko'rsatdi.

Mil.avv. 336-yil yozida Filipp II qizining to'yi bo'lgan kuni o'ldirildi. Zodagon Pavsaniyning tansoqchisi makedon a'yoni Attal uni haqorat qilganda, Filipp uning shikoyatini e'tiborsiz qoldirgani uchun Filipp soqchisiz teatrga kirayotganda xanjar sanchib o'ldirdi. Demosfen Filipp II ning o'limini eshitib, xalq yig'iniga ajoyib kiyim va boshida gulchambar kiyib keldi. Filipp-ning 20 yoshli o'g'li Aleksandr podsho hokimiyatini egalladi. Aleksandr otasining o'limidan so'ng barcha yunon davlatlari vakillari to'plangan Korinf shahrida otasi kabi o'zining forslar-ga qarshi barcha ellinlarning yo'l boshchisi vakolatini majbu-

ran tan oldirdi. Faqat Sparta bundan bosh tortdi. Filipp II ning o'limidan foydalangan yunon shaharlari Fiva shahri boshchiligida Makedoniyaga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Yunonlar uchun kutilmagan holda Aleksandr bu qo'zg'olonni shafqatsiz bostirdi. Fiva shahri buzib tashlandi va uning tirik qolgan 30 ming aholisi qul qilib sotib yuborildi. Aleksandr Eron bilan bo'lg'usi urush katta tayyorgarlikni talab qilishini bilar edi. U forslarning hushyorligini yo'qotish uchun Kichik Osiyodagi makedon qo'shinini chaqirib oldi. Ammo Fors davlati mavjud makedon bosqiniga qarshi hech qanday tayyorgarlik ko'rmadi. Ikki yildan so'ng, mil.avv. 334-yilda nihoyatda puxta tayyorgarlikdan keyin makedon qo'shinlari Gellespont bo'g'ozidan o'tib, Osiyo hududiga kirdi. Qo'shin 30 ming piyoda, 5 ming otliq, 160 harbiy kemadan iborat edi. Urush e'lon qilish uchun mil. avv. V asr o'rtalarida yunon-fors urushlari davrida yunon ibodatxonalarining forslar tomonidan oyoq-osti qilinishi bahona bo'ldi. Bu mafkuraviy shiordan Aleksandr yunon-makedon kuchlarini birlashtirishda foydalandi.

Forslar bilan birinchi jang Kichik Osiyodagi Granik daryosi bo'yida bo'ldi (mil.avv. 334-yil). Bu jangda yunon-makedonlar Eronning Kichik Osiyo satraplari va yunon yollanma askarlari qo'shinlari bilan jang qildilar. Eron podshosi Doro III va uning muntazam qo'shini Granik jangida ishtirok etmadilar. Bu jangdan so'ng Aleksandr Kichik Osiyo qirg'og'idagi yunon shaharlarini forslardan ozod qildi va Kichik Osiyoning katta qismini bo'ysundirdi. Sard va Gordiy shaharlari ishg'ol qilindi. Galikarnas shahri forslarga sodiq qolib, makedonlarga qattiq qarshilik ko'rsatdi.

Kichik Osiyoni bosib olishni tugallab, Aleksandr Kilikiya orqali Shimoliy Suriyaga o'tdi. Mil.avv. 333-yil kuzida Issa shahri yonida yunon-makedonlar Doro III qo'shinlari bilan to'qnashdilar. Har ikki tomon uchun bu jang og'ir bo'lib, katta qurbonliklar berildi. Fors qo'shinlari son jihatidan yunon-makedonlardan ko'ra ko'p edi. Doro III jangda o'zini yo'qotib qo'ydi va jang natijasini kutmay, maydonni tashlab ketdi. Hattoki Doro III qarorgohdagi o'z oilasini ham tashlab ketdi. Aleksandr juda katta qiyinchilik bilan g'alaba qozondi. Bu jang Suriya va Falastin qirg'og'ini bosib olish uchun yo'l ochdi. Doro III g'olibga tinchlik bitimini taklif qilib, Aleksandrga Kichik Osiyoni berishni, katta Kontribunisiya va katta qizi Statirani Aleksandrga rafiqalikka berishni taklif qildi. Lekin Aleksandr bu foydali shartlarni rad qildi.

Damashq shahrida Doro III ning xazinasini bosib olindi. Bu Aleksandr qo'shinlarining moddiy ta'minotini ancha yaxshiladi. Tir va G'azo shaharlari bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatdi. G'azoning bosib olinishi yunon-makedonlarga Misr tomon yo'l ochdi. Doro III yordamidan mahrum bo'lgan fors satrapi g'oliblarga taslim bo'ldi. Misrliklar fors zulmidan Aleksandrni xaloskor sifatida kutib oldilar. O'rtayer dengizi qirg'og'ida, Nil daryosi bo'yida mil.avv. 331-yilda Aleksandriya shahriga asos solindi. Bu shahar Misrda yangi hokimiyatning markazi, muhim savdo porti bo'lib xizmat qildi. Misr hududida bu shaharga asos solinishi Sharqda shaharlar qurilishi siyosatining boshlanishi edi. Aleksandr Memfis shahrida toj kiydi va bu bilan Misrda o'z hokimiyati qonuniyligini ta'kidladi.

Mil.avv. 331-yil bahoridan Sharqqa yurishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Dajla daryosidan uzoqda bo'lmagan Gavgamela qishlog'i yaqinida 1-oktabr kuni Aleksandr va fors qo'shini o'rtasida hal qiluvchi jang bo'ldi. Jang boshlanishida fors qo'shini makedonlarning o'ng qanotini yanchib tashladi. Markazda Aleksandr fors qo'shinining o'rtasiga o'z o'tliqlari bilan kirib oldi. Forslar jang aravalari va fillarni jangga tashladilar. Ammo Doro III Issa yonidagi jangda bo'lganidek, davom etayotgan jangni yutqazilgan deb hisoblab, yana jang maydonini tashlab qochdi. Aleksandr qo'shinlari hech qanday qarshiliksiz jadallik bilan butun Mesopotamiyani bosib o'tib, Suza shahri va Ahmoniylar davlatining markaziy hududlariga kirib bordilar. Aleksandr Suza shahridagi Ahmoniylar saroyi xazinasidan 50 ming talant tilla va kumush quymaga ega bo'ldi. Bobil va boy Suza shahri, Eronning muqaddas markazi Persepol jangsiz bosib olindi. Suza va Persopol shaharlaridagi Ahmoniylarning boy xazinalari Aleksandrning qo'lga o'tdi. Mil.avv. 330-yil Persepol saroyini yondirish bilan Aleksandr Fors davlati ustidan g'alabasini ramziy belgiladi. Fors podsholarining asosiy xazinasini Pasargadda edi. Aleksandr afsonaviy o'ljaga ega bo'ldi. Forslarga qarshi urushning maqsadi ham ahmoniylarning afsonaviy boyliklarini qo'lga kiritish edi. Plutarxning ma'lumoti bo'yicha Persepoldagi xazinani olib ketish uchun 10 ming arava, 5 ming tuya kerak bo'lgan. Faqat quyma tillaning o'zi 120 ming talant (3144 tonna) bo'lgan. Haqiqatan ham kichkina bir tog'li Makedoniya davlatchasi cho'pon va dehqonlari uchun bu quloq eshitmagan boylik edi. Bu vaqtda Baqtriya satrapligiga chekingan Doro III o'z yaqinlari tomonidan o'ldirildi.

Aleksandr forslarni o'zlari egallab turgan yuqori lavozimlarda qoldirdi. Bu makedon qo'shinida norozilik tug'dirdi. Doro III ning halokati urush tugashini bildirar edi. Girkanianing markazi Gekatompl shahrida ittifoqchi yunon polislarining qo'shinlari rasmiy tarqatildi. Shu bilan birga, yunonlarga Aleksandrning yollanma askarlari sifatida yurishni davom ettirish taklif qilindi. Aleksandr o'zini fors podsholarining qonuniy vorisi sifatida urushni davom ettirishga ahd qildi. Aleksandr qiyinchilik bilan yurishni davom ettirishni istamagan qo'shin qarshiligini yengib, yana oldinga siljidi. Parfiya bosqinchilarga hech qanday qarshilik ko'rsatmay, uning satrapi o'z obro'sini saqlab qoldi.

Aleksandr mil.avv. 329-yilda Amudaryodan o'tib, O'rta Osiyoga kirdi. Bu yerda u mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchradi. Spitamen boshchigida sak-massagetlar uch yil davomida Aleksandr qo'shinlariga qarshi turdilar. Noiloj qolgan Aleksandr mahalliy zodagonlarni sovg'a-salom bilan o'z tomoniga og'dirib olishga urindi. U So'g'd hokimi Oksiartning qizi Roksanaga uylandi. Rivoyatlarga ko'ra, Aleksandr O'rta Osiyoda o'z tayanch nuqtasi sifatida 12 shahar quradi. Ammo bu shaharlarning xarobalari topilgani yo'q. Bu afsona bo'lishi mumkin. Tarixda ma'lum bo'lganlari hozirgi Xo'jand shahri yaqinida Aleksandriya Esxata (Uzoqdagi Aleksandriya) shahri, Afg'onistonda Hirot shahri yaqinida Aleksandriya Ariya shaharlaridir.

Mil.avv. 327-yilda Aleksandr Hindukush tog'lari orqali Hindistonga o'tdi. Shimoliy Hindistondagi Gidas daryosi bo'yida Aleksandr qo'shinlari Panjob hukmdori Por qo'shinlari bilan to'qnashib, o'zining oxirgi g'alabasiga erishdi (mil. avv. 326-yil). Aleksandrning qo'shini yurishni davom ettirishni istamay, uning buyruqlarini bajarmay qo'ydi. Aleksandr qo'shinni yurishni davom ettirishga ko'ndirishga urindi, ammo qo'shin ko'nmadi. Ikki kunlik muzokaralardan so'ng Aleksandr yon berishga majbur bo'ldi. Vatanga qaytish to'g'risida buyruq berildi. Aleksandr qo'shinlarining qaytishi ikki yilga cho'zildi. Qo'shinning bir qismi dengiz orqali, bir qismi quruqlik yo'li orqali ortga qaytdi. Qo'shinning har ikkala qismi mil.avv. 324-yil Bobilda uchrashdi.

Yurishning tugallanayotgan bosqichida Suza shahrida Aleksandr makedon va forslarni murosaga keltirish belgisi sifatida o'zining 10 ming askarini mahalliy aholining qizlari bilan nikoh to'yini katta tantana bilan o'tkazdi. O'z qo'shini tarkibiga 30 ming fors yigitlarini qabul qildi. U bosib olingan hududlar-

da o'nlab koloniya va harbiy qo'rg'onlarni o'z hokimiyatining tayanch nuqtasi sifatida barpo qildi.

Makedoniyaning qadimgi poytaxti Pellaga qaytishni istamagan Aleksandr o'z davlatining poytaxti qilib qadimgi shahar Bobilni tanladi. U Kaspiy dengizini o'rganish uchun tekshiruvchi ekspeditsiya tashkil qildi. Arabiston yarim oroli qirg'oqlarini tekshirishga buyruq berdi.

Aleksandr yurishlari natijasida g'arbda Adriatika dengizidan sharqda Hindistongacha, shimolda Kavkaz tog'laridan janubda Nil daryosining o'rta oqimigacha cho'zilgan hududda yunon-makedonlarning yurishi sodir bo'ldi. Aleksandr bu bepoyon hududlarni o'z ichiga olgan davlat tuzmoqchi bo'ldi. U ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan avvalgi Ahmoniylar davlatini eslatar edi. U mil.avv. 323-yil 32 yoshida bezgak kasalidan Bobil shahrida vafot etdi. Aleksandrning o'limidan so'ng uning lashkarboshilari o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlandi. Oxir-oqibatda u bosib olgan hududlarda katta-kichik davlatlar paydo bo'ldi.

3. Diadoxlar urushi. Aleksandr o'z vorisini rasmiy jihatdan tayinlashga ulgurmedi. Bu uning lashkarboshilari o'rtasida Aleksandr merosi uchun uzoq kurash davom etishiga olib keldi. Bu kurash bir necha o'n yillarga cho'zilib, juda ko'p qon to'kishlarga sabab bo'ldi.

Aleksandrning o'limi vaqtida makedon taxtiga qonuniy da'vogarlar bo'lmay, Aleksandrning xotini bo'lgan so'g'd malikasi Roksana hali homilador edi. Pergamda Aleksandrga asir tushgan fors satrapi Artabazning qizi Barsinadan 4 yoshli noqonuniy o'g'li Gerakl qolgan edi. Taxtga Filipp II ning aqli zaif, noqonuniy o'g'li Arridey ham da'vo qilishi mumkin edi. Makedoniyada Aleksandrning yaqinlari Roksana agar o'g'il tuqsa, uni podsho deb e'lon qilish, uning go'dakligi davrida hokimiyatni tajribali sarkarda Perdikka boshchigidagi davlat kengashiga topshirish lozim, deb hisobladilar. Harbiy boshliqlar va saroy a'yonlarining boshqa bir guruhi Arridey nomzodini yo'qlab chiqdilar. Obro'li lashkarboshi Nearx makedon taxtiga birdan-bir da'vogar Gerakl bo'lishi mumkin, dedilar. Aleksandrning safdoshi, lashkarboshi Ptolemey boshchiligidagi yana bir guruh podshoni saylash kerak emas, chunki Aleksandrning o'g'illarini onalari Sharq ayollari, uning asiralaridir, oqibatda, bunday da'vogarlarini taxtga chiqarish hamma vaqt noqonuniy bo'ladi, deb hisobladilar.

Taxt vorisi to'g'risidagi munozaralar Perdikka regentligi bilan Filipp II ning noqonuniy o'g'li Arrideyni podsho deb e'lon qilish bilan tugadi. Xuddi shu vaqtda Aleksandrning bevasi Roksana o'g'il tug'di va unga Aleksandr deb nom berildi. Makedon taxtiga birdaniga Arridey Filipp III nomi bilan, Roksananing o'g'li Aleksandr IV nomi bilan podsho deb e'lon qilindi. Osiyodagi qo'shinlar qo'mondonligini o'ziga olgan Perdikka yana regent etib tayinlandi. Shunday qilib, u Aleksandr davlatining amaldagi hokimiga aylandi.

Aleksandrning vafotidan keyin yagona davlatning amalda oliy hokimi bo'lgan Perdikka Bobilda makedon podshosining eng yaqinlari o'rtasida satrapliklarni taqsimladi. Yunoniston va Makedoniya Antipatrga, Frakiya Lisimaxga, Misr Ptolemeyga, Kappadokiya va Paflagoniya Yevmenga, Gellespont Frigiya-si Leonardga, Buyuk Frigiya Antigonga, Suriya Laomedontga va Midiya Pifonga berildi. Barcha yangi saylangan hokimlar qo'shinlari bilan o'z mulklariga jo'nab ketdilar. Aleksandrning aynan ana shu sobiq safdoshlari (diadoxlar) o'zlariga berilgan hududlarga qanoat qilmay hamda boshqalarning mulkiga egalik qilish uchun Aleksandr merosini talashib, qonli kurashni boshladilar.

Aleksandr o'limidan keyingi ikki yil davomida Yunoniston makedon zulmidan ozod bo'lishga urindi. Yunoniston va Makedoniya hokimi Antipatr yunon qo'shinlarini tor-mor qilib, bu yerga makedon garnizonlarini joylashtirdi. Mil.avv. 321-yilda Misrda o'rnashib olgan Ptolemey Perdikka regentligini tan olmadi. Antigon, Ptolemey va Antipatrga Perdikka juda qudratli ko'rindi. Perdikkaga qarshi fitna uyushtirdilar. Perdikka Misrga qo'shin tortdi, yurish paytida Perdikka Memfis yaqinidagi qarorgohda g'animlari yuborgan qotillar – o'z suvoriylari tomonidan o'ldirildi. Shundan so'ng davlat regenti qilib Yunoniston va Makedoniyaning hokimi kekxa Antipatr saylandi. Uning buyrug'i bilan podsho oilasi Makedoniyaga ko'chirildi.

Antipatr topshirig'i bilan mil.avv. 321-yilda satrapliklar qisman qayta taqsimlandi. Natijada kelajakdagi eng yirik Osiyo davlatining asoschisi Salavk Bobilni o'z qo'liga oldi. Shundan ikki yil keyin mil.avv. 319-yilda Antipatr vafot etdi. U regentlikka voris qilib kekxa va tajribali harbiy boshliq Poliperxontni tayinlashga ulgurgan edi.

Ammo yuzaga kelgan bu vaziyat Aleksandrning yaqinlari bo'lgan yosh va g'ayratli lashkarboshilarni qanoatlanirma-

di. Jumladan, Antipatrning bu qaroridan o'z o'g'li Kassandr norozi bo'lib, Poliperxontdan bu lavozimni tortib olish uchun Sharqdagi satraplar Lisimax, Antigon va Ptolemey bilan ittifoq tuzdi. Mil.avv. 316-yilda Poliperxont regentlikdan chetlashtirildi. Kassandr butun Yunonistonni egallab oldi. Lekin Kassandrning kuchayib ketishidan Antigon va Aleksandrning sobiq kotibi Yevmen norozi bo'ldilar. Aleksandr davlatining yaxlitligini saqlab qolishga uringan, separat kayfiyatlarga qarshi natijasiz kurashgan birdan-bir kishi Yevmen edi. U makedon podsholigining «qonuniy» podsholari nomidan harakat qilgan, qator sabablarga ko'ra, hech qanday hudud va qo'shinga ega bo'lmagan birdan-bir diadox edi. Lekin uning qo'lida Aleksandr sobiq davlatining turli shaharlarida bosib olingan katta miqdordagi moliyaviy mablag'lar mavjud edi. Yevmen ana shu mablag'lar hisobiga katta yollanma qo'shin to'plab, Bobil va Eronni bosib olishga urindi. Bu xavfga qarshi Antigon Bobil va Midiya satraplari Pifon va Salavk bilan ittifoq tuzdi. Bu ittifoq Yevmenga qarshi yurish qildi. Mil.avv. 316-yilda Gabiyan yonida (Midiya va Eron chegarasi) Yevmen bilan Antigon o'rtasida hal qiluvchi jang bo'ldi. Yevmenning yollanma qo'shinlarining xoinligi jangni Antigon foydasiga hal qildi. Yevmen qo'lga olinib, qatl qilindi.

Mil.avv. 317-yilda Aleksandrning onasi Olimpiada hokimiyatni Roksananing o'g'liga qoldirish uchun Filipp Arridey va uning xotini Evridikani o'ldirishga buyruq berdi. Shundan so'ng uning o'zi Kassandr tomonidan qatl qilindi. Rokzana va Aleksandr IV Kassandrning asirligida bir necha yil ushlab turildi.

Kassandr Aleksandrning kichik singlisi Fessalonikaga uylangan bo'lib, Aleksandrning o'g'li hozircha hayot ekan, o'zini noqulay sezar edi. Kassandr buyrug'i bilan Amfipol noibi Rokzana va uning o'g'lini maxfiy o'ldirib, ularni dafn qildi (mil.avv. 311–310-yillar). Bir necha yildan so'ng Kassandr keksayib qolgan Polisperxont bilan maxfiy shart bilan tinchlik shartnomasini tuzdi. Shartga ko'ra, Polisperxont Aleksandrning Barsinadan bo'lgan o'g'li o'n yetti yoshli Gerkulesni zaharlab o'ldirishi kerak edi. Polisperxont bu yovuzlikni amalga oshirib, siyosatdan chetlashdi. Qotillik evaziga Etoliya va Epirdagi o'ziga berilgan mulklarda qolgan umrini yashadi. Aleksandrning katta opasi Epir malikasi beva Kleopatra Sard shahrida yashab turgan edi. Malikaning qo'lini Salavk so'radi. Buni bilib qolgan Antigonning buyrug'i bilan malikani o'z kanizaklari o'ldirdilar. Shundan

so'ng Antigon kanizaklarni ham qatl qilishni buyurib, malikani favqulodda dabdaba bilan dafn ettirdi.

Diadoxlar o'rtasidagi urushlar uzoq davom etib, Yunoniston, Misr, Kichik Osiyo va Mesopotamiya asosiy jang maydonlariga aylandi. Mil.avv. 306-yilda Antigonning o'g'li Dimitriy Poliorket («shaharlarni qamal qiluvchi») makedon garnizonlarini Yunonistondan haydab yubordi. Afina va Megarada erkinlik va demokratiya e'lon qilindi. Mil.avv. 306-yilda Antigon, keyinroq Ptolemey, Lisimax, Salavk va Kassandr o'zlarini podsho deb e'lon qildilar. Yuzaga kelgan bu vaziyat diadoxlarni o'z hududlarida o'z podsholik hokimiyatlarini o'rnatishga intilishlari uchun hech qanday rasmiy to'siq qolmaganini bildirar edi.

Antigon bilan Ptolemey o'rtasida Yunonistonda urush boshlandi. Antigonning o'g'li Dimitriy Kipr yonidagi dengiz jangida Ptolemey flotini batamom yanchib tashladi. Shundan so'ng Antigon barchaga xat yozib, o'zini podsho deb atashlarini talab qildi. Dimitriy Afinadan Kassandrning makedon qo'shinlarini haydab chiqardi. Qachonlardir Filipp va Aleksandrdek u ham yunonlarni Korinfga to'plab, ularni o'zini Makedoniyaga qarshi yo'lboshchi deb e'lon qilishga majbur qildi. Ptolemey, Salavk va Lisimax 80 yoshli Antigon va uning o'g'li Dimitriyga qarshi ittifoq tuzdilar, ittifoqchilar bilan birga Salavk 100 jang aravasi va 480 ta jangovar fillar bilan Frigiyadagi Ips yonida (mil.avv. 301-yil) Antigon va Dimitriyga qarshi jang qildilar. Jangda Aleksandrning eng qudratli vorislaridan biri Osiyo hukmdori 80 yoshli Antigon o'ldirildi. Uning o'g'li Dimitriy qolgan-qutgan askarlari bilan qochishga ulgurdi. Lisimax butun Kichik Osiyoni egalladi, Salavk Tavr tog'laridan Hindistongacha bo'lgan yerlarni Suriya va Finikiya bilan birga egalladi. Mil.avv. 301-yilda Antigon, 297-yilda Kassandr, 284-yilda Dimitriy Poliorket, 281-yilda Lisimax, 283-yilda Ptolemey Lag va 281-yilda Salavk vafot etdi. Aleksandrning safdoshlari va bevosita merosxo'rlaridan so'nggi diadox bo'lgan Salavkning halokati bilan diadoxlar davri tugadi. Ularning o'rniga Ellin podsholari (Epigonlar) avlodi keldi.

Aleksandr vafotidan so'ng uning eng yaqinlari diadoxlar o'rtasidagi 40 yillik urush natijasida Aleksandr davlati xarobalarida 3 asosiy va eng yirik podsholiklar: Makedoniya (unga bo'ysundirilgan Yunoniston), Misr (Suriyaning janubiy qismi va Kichik Osiyoning ba'zi viloyatlari) va Salavkiylar davlati (Osiyo mulklarining asosiy qismi) tashkil topdi. Ulardan tashqari, ellin davrida bir qancha katta-kichik davlat birlashmalari: Pergam,

Pont, Vifiniya, Kappadokiya, Yunon-Baqtriya va Parfiya podshohlari mavjud edi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Маринович Л.П. Греки и Александр Македонский: к проблеме кризиса полиса. – М.: 1993.
2. Шахермайр Ф. Александр Македонский. – М.: 1984.
3. Эллинизм: Восток и Запад / Отв. ред. Е.С. Голубцова. – М.: 1992.
4. Дандамаев М. А. Политическая история Ахеменидской державы. – М.: 1985.
5. Гафуров Б. Г., Цибукидис Д.И. Александр Македонский и Восток. – М.: 1980.

Asosiy sanalar

| | |
|---------------------------|--|
| Mil.avv. 359–336-yillar | Makedon podshosi Filipp II hukmronligi. |
| Mil.avv. 355-yil | Fiva va Fokida o'rtasidagi urush. |
| Mil.avv. 337-yil | Korinf kongressi. |
| Mil.avv. 338-yil | Xeroniya jangi. |
| Mil.avv. 336-yil | Aleksandrning taxtga chiqishi. |
| Mil.avv. 334-yil | Granik daryosi bo'yidagi jang. |
| Mil.avv. 331-yil | Aleksandriya shahriga asos solindi. |
| Mil.avv. 331-yil 1-oktabr | Gavgamel jangi. |
| Mil.avv. 330-yil | Ahamoniylar davlatining qulashi. |
| Mil.avv. 329–327-yillar | Spitamem boshchiligidagi sak-mas-sagetlarning yunon-makedonlarga qarshi ozodlik kurashi. |
| Mil.avv. 327–324-yillar | Aleksandrning Hindistonga yurishi. |
| Mil.avv. 323-yil | Aleksandr Bobil shahrida vafot etdi. |

ELLIN DAVLATLARI

1. Ellinizmning mohiyati. 2. Ellin Misri (mil.avv. 323–30-yillar). 3. Salavkiylar davlati. 4. Makedoniya. 5. Pergam. Attalidlar davlati. 6. Yunoniston materigi va orollar.

1. Ellinizmning mohiyati. Aleksandr yurishlaridan boshlab to mil.avv. II asrgacha Rim Yunoniston va Yaqin Sharqda o'z hukmronligini o'rnatganiga qadar bo'lgan davr G'arb adabiyotida ellinizm davri, deb ataladi. Bu davrda savdo-hunarmandchilik, madaniyat o'choqlari – shaharlar jadal rivojlandi (Aleksandriya, Antioxiya, Baqtra va boshqalar). Bu davrda O'rtayer dengizining g'arbiy qismi Sharqning boy qadimgi madaniyati bilan jadal tanishib, uning to'rt ming yillik to'plagan madaniy yutuqlarini o'zlashtirib ola boshladi. Ma'naviy-madaniy hayot, ilm-fan va san'at bu davrda yuksak darajada rivojlandi. Yangi ilm-fan o'choqlari, oliy maktablar va kutubxonalar paydo bo'ldi. Fan-texnikada kashfiyotlar, ixtirolar qilinib, nodir asarlar yaratildi. Yangi fan tarmoqlari paydo bo'ldi. Fanning taniqli arboblari o'zlarining nodir asarlarini yaratdilar. Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'limotlar shakllandi.

«Ellinizm» tushunchasi tarix fanida birinchi marta XIX asrning birinchi yarmida nemis olimi I. Droyzen tomonidan kiritildi. Droyzen bu tushunchani makedoniyalik Aleksandrning bosqinchilik yurishlaridan keyingi katta tarixiy davrga nisbatan qo'lladi va uning mazmunini madaniy soha bilan chekladi.

XX asrning 50-yillari boshlaridan ko'pchilik tarixchilar ellinizm davrini siyosiy-iqtisodiy va madaniy-mafkuraviy sohalarida mahalliy (Sharq) va ellin (G'arb) madaniyatining sintezi natijasida madaniy taraqqiyotning yangi bosqichi deb hisoblaydilar. Bu sintez qadimgi Sharqning ko'pgina hududlari yunon-makedon istilolari oqibatida aniq tarixiy vaziyatda amalga oshdi degan tushuncha hukm suradi. Haqiqatga esa, mil. avv. I ming yillikdan boshlab, ayniqsa, dunyoda birinchi bor uch qit'ani birlashtirgan ulkan Ahmoniylik imperiyasi davrida Sharq va G'arbnning madaniy-iqtisodiy aloqalari va madaniyatlar muloqoti boshlangan edi.

Ellin davrining uch yuz yillik xronologik davri uch tizimli izchil bosqichga boʻlinadi: Birinchi bosqich Aleksandrning Sharqqa yurishlari, uning davlatining tashkil topishi va diadoxlar urushlari natijasida bu davlatning yemirilishi (mil.avv. 334–281-yillar)ni oʻz ichiga oladi. Ikkinchi bosqich (mil.avv. 280–mil.avv. II asr oʻrtalari) yunon-sharq davlatchiligi, iqtisodiyoti va madaniyatining gullab-yashnagan davri. Ellin davrining yetuklik bosqichi. Uchinchi bosqich mil.avv. II asr oʻrtalaridan ellin davlatchiligining oxir-oqibatda yemirilishiga olib kelgan tushkunlik belgilarining yaqqol koʻrinishi bilan tavsiflanadi. Soʻnggi ellin davlati – Ptolemeylar Misrining mil.avv. 30-yilda halokatga uchrashi va uning Rim davlati tarkibiga qoʻshib olinishi bilan belgilanadi. Bu vaqt Ellin tafakkurining yaqqol soʻnish davri edi. Ilgari Ellin davlatlariga qarashli butun hudud gʻarbda Rim, sharqda Parfiya davlatlari tomonidan boʻlib olindi.

2. Ellin Misri (mil.avv. 323–30-yillar). Sharqdagi boshqa ellin davlatlari kabi Misrda Ptolemeylar podsholigi ham bir necha ming yillik madaniyat va qadimiy anʼanalar rivojlangan qadimgi Sharq mamlakatlaridan birini bosib olish natijasida paydo boʻldi. Ptolemeylar davlati ellin davlatlari ichida eng boyi va bepoyoni edi. Ptolemeylar sulolasi 100 yil davomida faol tashqi siyosat olib borib, Misrni haqiqiy imperiyaga aylantirdilar. Uning asosini Misrning anʼanaviy tarixiy geografik chegaralari tashkil qildi. Ellin Misrining sharqiy chegaralari Ptolemeylar sulolasi hukmdorlarining tashqi siyosati yutuqlari va magʻlubiyatlari bilan oʻzgarib turdi. Mil.avv. III asr boshlarida Ptolemeylar Misrdan tashqari, Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻogʻining barcha orollarini nazorat qildilar. Lekin Salavkiylar va Makedoniya bilan bir necha urushlar natijasida mil.avv. II asr boshlarida bu hududlar Misrdan ajralib ketdi. Ptolemeylar davlati Misr, Kerenaika, Kipr, Janubiy Suriya, Finikiya, Kichik Osiyoning janubi-gʻarbiy yunon shaharlari bilan va Egey dengizining qator orollariga egalik qilgan. Davlat poytaxti Aleksandriya shahri boʻlib, sharqiy Oʻrtayer dengizining eng katta porti, savdo-hunarmandchilik va mmmadaniy markazi edi.

Misrda hukmronlik qilgan ellin sulolasining asoschisi 44 yoshli Ptolemey I (mil.avv. 323–283-yillar) Lag makedon zodagonining oʻgʻli, harbiy boshliq, Aleksandrning safdoshi edi. U oʻzi keksayib, oʻz tabiiy oʻlimi bilan vafot qilgan Aleksandrning birdan-bir diadoxi boʻlgan. Antik mualliflar Ptolemey Lagni Soter (Qutqaruvchi) deb nomlaydilar. Chunki u Misr xalqi-

ni Aleksandr tayinlagan noib Kleomen zulmidan ozod qilgan hisoblanadi. Ptolemey I va Misrni boshqargan uning vorislari Ptolemey II (mil.avv. 247-yilda vafot etgan) Filadelf, Ptolemey III Everget, Ptolemey IV Filopator (mil.avv. 222–205-yillar) Ptolemey V Epifan (mil.avv. 205–180-yillar) deyarli yuz yil davomida faol tashqi siyosat olib borib, ellin dunyosida yetakchilik qilishga da'vo qildilar. Ular Misrni Old Osiyoda kuchli davlatga aylantirishga bor kuchlarini sarfladilar. Lagning o'g'li Ptolemey I Soter mil.avv. 305-yil boshqa diadoxlar kabi o'zini podsho deb e'lon qildi. O'z o'g'li bo'lajak podsho Ptolemey II Filadelf (singlisini sevadigan) ni (mil.avv. 283–246-yillar) o'zi bilan birga hukmdor deb e'lon qildi. Ptolemey II o'zining opasi Arsinoyaga uylandi. Uning davrida Misrning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va siyosiy tuzumining yangi davrdagi asosiy belgilari shakllandi. Ptolemey II faol tashqi siyosat olib bordi, Misrdan ajralib ketgan Kirena va Makedoniya bilan urush olib bordi, Yunonistonning ichki ishlariga aralashdi. Ptolemey III Everget (mil.avv. 246–222/221-yillar) Kirena malikasi Berenikaga uylanib, Kirenani Misrga qo'shib oldi. Salavkiylar bilan urush olib borib, uning poytaxti Orontdagi Antioxiya shaharini egalladi. Ptolemey III davrida Misr o'z qudratini cho'qqisiga chiqdi. Ptolemey V Epifan (mil.avv. 180-yil) o'limidan so'ng tashqi siyosatda qiyinchiliklar tug'ila boshladi. Sharqda Rimning faol istilochilik urushlari Misrning siyosiy mustaqillik uchun jiddiy xavf tug'dirdi. Natijada tushkunlikning uzoq davri boshlanib, mil.avv. 30-yilda Misr Rimning istilo qilishi bilan tugallandi.

Bosqinchilar mamlakat boshqaruvida minglab yillar davomida saqlanib qolgan an'anaviy, ma'muriy tizimni saqlab qoldilar. Faqat yuqori lavozimlarda turgan fors va Misr amaldorlarining o'rniga yunon-makedonlar o'tqazildi. Ptolemeylar qadimgi fir'avn-podshoning mutloq hokimiyati, ko'p tarmoqli davlat apparati, ko'p sonli amaldorlar, qat'iy markazlashgan davlat hokimiyati va uning mamlakat xo'jalik hayotiga faol aralashuvini saqlab qoldilar.

Yangi sulola Misr fir'avnlaridan mamlakatning hududiy bo'linishi, nom tizimini meros qilib oldilar. Faqat nomlar sonlarini o'zgartirib, ularni qayta tashkil qildilar. Dastlab nomlarni podsho tayinlagan nomarxlar boshqardilar. Mil.avv. III asr oxiridan nomarxlar qo'lida hududning moliyaviy sohasigina qoldirilib, ularning oliy ma'muriy hokimiyati harbiy soha bilan boshqa mansabdor-strateglarga berildi. Ptolemeylar mamlakat-

ning iqtisodiyoti va mafkurasida muhim o‘rin tutgan mahalliy kohinlar va ibodatxonalar mavqeyini fir‘avnlar davridagidek, o‘zgarmagan holda saqlab qoldilar. Lekin ularning faoliyati davlat nazoratiga olindi. Ibodatxonalar oldida podshoning maxsus vakillari – epstatlar kohinlarning diniy va iqtisodiy faoliyati ustidan nazorat qilib turdilar.

Yunon-makedonlarning kelishi arafasida Misrning iqtisodiyoti so‘nggi tosh davri ibtidoiy texnikasi darajasida bo‘lib, faqatgina qisman takomillashtirilgan mis va jez qurollariga asoslangan edi. Yunon-makedonlar kelishi bilan mamlakat xo‘jaligida haqiqiy to‘ntarish bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligida temir mehnat qurollari paydo bo‘ldi. Bobildan ekin ekadigan moslama (seyalka) olib kelindi. Qishloq xo‘jaligida yangi texnik moslamalar-vino va zaytun yog‘ini olish uchun vintli press (Arximed vinti)dan foydalana boshlanishi dehqonlarning mehnatini yengillashtirdi. Yangi ekinlar paydo bo‘ldi va ishlov beriladigan yer maydonlarining hosildorligi keskin o‘sdi. Fir‘avn Nexo kanali qayta tiklandi. Tashlab qo‘yilgan ko‘plab yerlar o‘zlashtirilib, sun‘iy sug‘orish inshootlari qayta ishga tushirildi.

Hunarmandchilik shaharlarda rivojlanib, qishloq xo‘jaligiga qaraganda, bu sohada qul mehnati keng qo‘llandi. Hunarmandchilik mahsulotlari bozor uchun ommaviy ravishda ishlab chiqarildi. Kemasozlik, uy-joy va jamoat binolarining qurilishi, metall va sopol idish-tovoqlar, gazlamalar, mebellar va zargarlik buyumlari tayyorlash keng rivojlandi. Yuqori sifatli hunarmandchilik mahsulotlari eksport qilindi.

Ptolemey I savdo-hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida o‘zining tanga pullari – oltin stater, kumush tetradraxma va mis obollarni zarb qila boshladi. Oltin va kumush qazish, tanga zarb qilish, turli xil pul ayirboshlash davlat monopoliyasiga aylantirildi hamda chet el tanga pullarini ishlatish taqiqlandi. Misr iqtisodiyoti va tashqi savdosida o‘ziga xos qog‘oz vazifasini bajargan papirusni ishlab chiqarish ham davlat monopoliyasiga aylantirildi. Ptolemey Aleksandriya shahrini poytaxtga aylantirdi. Savdo-hunarmandchilikka homiylik qildi, flot va qo‘shinni kuchaytirdi. Gavan va kanallar qurdi.

Ptolemey II (mil.avv. 283–247-yillar) davriga Aleksandriya haqiqiy ilm-fan o‘chog‘iga aylandi. Otasi boshlagan muzeyon qurilishini tugalladi. Keyin u otasi boshlagan kutubxona kিতob-qo‘lyozmalar jamg‘armasini 400 000 jildga yetkazdi. Ular ilk

bor Iliada dostonini o'zining qadimiy ko'rinishida qayta tikladilar. Ptolemey II vafoti vaqtida xazinada 740 000 talant pul bo'lgan. Appianning guvohligicha Misrning muntazam armiyasi 200 000 piyodalar, 40 000 otliq, 2000 jangovar fil, 15000 kema, 300 fil bo'lgan. Finikiya, Keleseriya, Kirena va Kipr Misrning tashqi provinsiyalari bo'lgan.

Mil.avv. III asr o'rtalarida Misr kuchli harbiy flot va qo'shinga ega edi. Ptolemeylarning asosiy raqiblari – Makedoniya, Bobil va Kichik Osiyodagi ba'zi davlatlar bo'lgan. Ptolemey IV Filopator davri Misr tashqi siyosiy yutuqlarining eng oliy nuqtasi bo'ldi. Misrning mavqeyi Old Osiyoda kuchayib ketdi. Lekin bu vaqtinchalik edi.

Mil.avv. I asr boshlarida Rimning mulklari Misr chegaralari-gacha yetib bordi. Ptolemeylar sulolasini o'zaro nizolar va xalq harakatlari zaiflashtirdi. Ptolemey IX mil.avv. 88-yil Fivada boshlangan qo'zg'olonni 3 yildan so'ng qo'zg'olon markazi bo'lgan Fiva shahrini buzib tashlash bilan bostirdi. Mil.avv. 70-yillardan Rim davlati Misrning ichki ishlariga faol aralasha boshladi. Ptolemey sulolasining bir necha vakillari Rim yordami bilan hokimiyatni boshqardilar. Keyingi 15 yilda O'rta Misr nomlarida norozilik harakati kuchaydi. Rim senatida bir necha bor Misrni bosib olish masalasi muhokama qilindi. Ammo hali kuchli bo'lgan bu davlatga qarshi senat urush boshlashga jur'at qila olmadi. Mil.avv. 48-yil Yuliy Sezar 8 oylik urushdan so'ng Misrni ittifoqchi davlat sifatida Rimga qo'shib olish bilan cheklandi. Sulolaning so'nggi vakili Kleopatra rimliklar yordamida taxtga keldi. Oktavian mil.avv. 30-yil Misr davlatini tugatib, Misrni Rim provinsiasiga aylantirdi.

3. Salavkiylar davlati. Aleksandrning safdoshlaridan biri katta jismoniy kuchga ega bo'lgan Salavk Nikator (g'olib) mil. avv. 321-yilda satraplar o'rtasidagi shartnomaga ko'ra, Bobilni egalladi. Salavk I (mil.avv. 312–281-yillar) buqani faqat quruq qo'li bilan yiqitishi mumkin bo'lgan. Salavk diadoxlar o'rtasidagi kurash natijasida Eron satrapliklari, O'rta Osiyoning ayrim hududlari ustidan o'z nazoratini o'rnatdi. Ammo Osiyoning oliy hokimi Antigon tez orada Salavkdan Bobilni tortib oldi (mil.avv. 315-yil). Antigon bilan boshqa satraplar o'rtasidagi kuchayib ketgan raqobatdan foydalangan Salavk Misr hukmdori Ptolemeyning yordami bilan mil.avv. 312-yilda Bobilda o'z hokimiyatini qayta tikladi. Aynan shu yildan boshlab Salavk sulolasining mil.avv. 64-yilgacha davom etgan hukmronligi boshlandi.

Salavk I (mil.avv. 312–280-yillar) Suriyani o‘z davlatining bosh viloyatiga aylantirdi, o‘zi Orontdagi Antioxiya shahrida, Yuqori Suriya yoki Dajla daryosi yoqasidagi Salavkiya shahrida yashadi. Salavk g‘arbda diadoxlar o‘rtasida davom etayotgan urushdan foydalanib, Sharqqa yurish qildi. Yurish davomida u Eron va O‘rta Osiyo satrapliklarini qayta qo‘lga kiritdi. Yurish oxirida Salavk Hindistonda Maurilar davlatining asoschisi Chandragupta bilan to‘qnashdi. Urush Salavkni ilgari Aleksandr davlati tarkibiga kirgan barcha hind mulklaridan voz kechishi, buning evaziga Chandragupta tomonidan 300 jangovar fillarning Salavkga sovg‘a qilishi bilan tugadi. Salavk mil.avv. 305–304-yillar atrofida o‘zini podsho deb e‘lon qildi. Shundan sal o‘tgach, Shimoliy Suriyani, mil.avv. 281-yilda Kichik Osiyoning katta qismini bosib oldi. Shu yildayoq u Makedoniyani egallash uchun bo‘lgan yurishda halok bo‘ldi.

Salavkiylar davlati tarkibiga boshda Mesopotamiyaning bir qismi, Kichik Osiyoning bir qismi, Eron, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston kirgan. Davlatning poytaxti Suriyadagi Oront daryosi qirg‘og‘idagi Antioxiya edi. Salavkiylar davlati o‘zining gullab-yashnagan davrida Aleksandrning Osiyodagi sobiq mulklarining katta qismini o‘z tarkibiga oldi. Bu bepoyon hududda turli iqtisodiy va madaniy taraqqiyot bosqichida turgan, etnik va til jihatidan ola quroq bo‘lgan xalqlar joylashgan edi. Salavkiylar davlatida yunon va makedonlar podsho boshchiligida hukmron tabaqaga aylandilar. Ular barcha oliy hokimiyat lavozimlarini egallab olib, qo‘shinning asosiy qismini tashkil etdilar. Mahalliy zodagonlar hokimiyat boshqaruvida deyarli ishtirok etmadi. Faqat Bobil shaharlarining fuqaro-ibodatxona jamoalari ma‘lum bir imtiyozlardan foydalandi.

Salavkiylar davlati aholisining asosiy qismi jamoachi dehqonlardan tashkil topgan. Bu jamoalar podsho foydasiga pul va natural majburiyatlarni o‘tar edi. Jamoachi dehqonlar shaxsan erkin bo‘lgan. Lekin davlat hokimiyati dehqonlarni asta-sekin qaram qila boshladi. Bu ularni yerga biriktirib qo‘yishda ko‘rinadi. Davlat yerlari ikki qismga bo‘lingan. Bir qism yerlar podshoning shaxsan o‘ziga tegishli bo‘lsa, ikkinchi qismi shaharlar, mahalliy zodagon-hokimlar, qabilalar va jamoalarga tegishli bo‘lib, podsho hokimiyati tomonidan nazorat qilingan. Salavkiylar davlat boshqaruvida yunon-makedonlarga suyandilar, mahalliy aholini huquqlarda kelgindi yunon-makedonlarga tenglashtirilmadi.

Davlatning butun hududi 72 satraplikga bo'linib, undan kichik ma'muriy birliklar – yeparxiya va giparxiyalar edi. Satraplik boshida satrap (Antiox III davrida strateg) turib, u fuqarolik va harbiy hokimiyatni amalga oshirgan. Moliya muassasasi esa mustaqil bo'lgan.

Salavkiylar davlatida O'rta Osiyo va Eron hududlari muhim o'rin tutar edi. Salavk I davrida uning o'g'li va merosxo'ri Antiox I Soter (mil.avv. 281–261-yillar) bu hududlarni boshqarar edi. Antiox I Salavkning onasi Spitamenning qizi malika Apama Salavkiylar saroyida katta hurmat-e'tiborga ega edi. O'rta Osiyoda sulola hokimiyatini mustahkamlash uchun yangi shaharlar va harbiy manzilgohlar qurildi, eskilari qayta tiklandi (Marv vohasi devor bilan to'liq o'rab olindi). Antiox I Kichik Osiyoda Pergam davlatining ajralib chiqishiga qarshilik qila olmadi.

Antiox II davrida (mil.avv. 261–247-yillar) mil.avv. III asr o'rtalarida Baqtriya, So'g'diyona va Parfiya ajralib chiqdi. Vifiniya, Paflagoniya, Kappadokiya va Galatiya kabi davlatlar paydo bo'ldi. Qora va Kaspiy dengizlari oralig'ida Armaniston davlati, Midiyaning shimoliy qismida satrap Atropat Salavkiylar davlatidan ajralib chiqib, Midiya Atropatenasini tashkil qildi. Natijada Yunon-Baqtriya va Parfiya podsholiklari vujudga keldi (Yunon-Baqtriya mil.avv. 130–yillargacha, Parfiya davlati esa milodiy 227-yilgacha mavjud bo'ldi). Qobiliyatli sarkarda Antiox III buyuk (mil.avv. 223–187-yillar) davlatni eski chegaralarda tiklash uchun bu davlatlarni bo'ysundirish uchun mil.avv. 212–205-yillarda Sharqqa yurish qildi. Yurish davomida xarajatlarni qoplash uchun Antiox III Ekbatanadagi Anaxita ibodatxonasini taladi. Yurish natijasida Parfiya qayta bo'ysundirildi. Yunon-Baqtriya shaharlarining ikki yil natijasiz qamal qilish bilan rasman Salavkiylar hokimiyatini tan oldi. Antiox qo'shinlari Hindiqush tog'laridan o'tib, Hindiston yerlariga bostirib kirdi va mahalliy hokim bilan shartnoma tuzdi. U Hindistondagi salavkiylarga tobe yerlardan voz kechdi, buning evaziga Antiox hind jangovar fillariga ega bo'ldi.

Antioxning bu yurishi Salavkiylar davlatining yemirilishini vaqtincha to'xtatdi. U markaziy hokimiyatni mustahkamladi. Kichik Osiyoning katta qismi bosib olindi va Kelesiriya Misrdan batamom tortib olindi. Kuchayib ketgan Salavkiylar davlati Pergam va Rodosning xavfsizligiga jiddiy xavf sola boshladi. Pergam va Rodos Antiox III dan shikoyat qilib, Rimdan yordam so'radi. Rim ham Antiox III saroyiga mashhur Karfagen qo'mondo-

ni Gannibalning maslahatchi bo'lib turganidan norozi edi. Mil. avv. II asr boshlarida Salavkiylar bilan Rim respublikasi o'rtasida Yunoniston uchun raqobat boshlandi. Mil.avv. 189-yilda Rim bilan bo'lgan urushda Antiox III qo'shinlari yengildi. Mamlakat hududlarida norozilik, Salavkiylarning zulmiga qarshi qo'zg'olon va isyonlar boshlanib ketdi. Yunon-Baqtriya va Parfiya o'z mustaqilliklarini qayta tikladi va Parfiya g'arbga tomon yurish qilib, Salavkiylar hududlarini bosib ola boshladi. Midiyada satrap Timarxning isyon ko'tarishi bu viloyatni parfiyaliklar tomonidan bosib olinishiga yordam berdi. Bundan tashqari, parfiyaliklar Fors va Elamni egalladilar.

Antiox III ning o'g'illaridan biri Antiox IV Epifan (mil.avv. 175–164-yillar) shijoatli hukmdor bo'lib, davlat hokimiyatini bir qadar mustahkamlashga erishdi. Uning boshqaruvi davrida mamlakatda podsho san'at va madaniyatga homiylik qildi. Shuhratparast Antiox IV Salavkiylar davlatining o'tmishdagi kuch-qudratini tiklashga urindi. Mamlakat ichida bir qadar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni vujudga keltirib, uning hududini kengaytirishga harakat qildi. Antiox IV Misrni bosib olish uchun kuchli qo'shin bilan yurish boshladi. Yo'lda uni Rimning Misrdagi elchisi Gay Popiliy Lena to'xtatdi. Aytishlaricha, Salavkiylardan ko'ra, qudratli bo'lgan Rim elchisi Antiox IV o'tirgan joyning atrofini doira chizib, Rimning talabi bajarilmaguncha (Misrga yurishni to'xtatish) Antiox IV ni doira ichidan chiqib ketishini taqiqlagan. Natijada rimliklarning tazyiqi ostida Misr yurishi to'xtatilgan.

Antiox VII Sidet (mil.avv. 138–129-yillar) davlatning yaxlitligini tiklashga urinishi uning mag'lubiyati va halokati bilan tugadi. Bu Bobil, Parfiya va mahalliy sulolalar hokimiyati ostiga o'tgan Fors va Midiyaning ajralib ketishiga olib keldi. Mil.avv. I asr boshlarida Yahudiya va Kommagen o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Salavkiylar davlatining yemirilish jarayoni tezlashib ketdi. 35 yil ichida taxtda 12 da'vogar almashdi. Ko'p hollarda bir vaqtning o'zida ikki yoki uch podsho taxtga chiqdi. Natijada Salavkiylar davlati hududi Suriya, Finikiya va Kilikiyaning bir qismi bilan chegaralanib qoldi. Salavkiylarning so'nggi vakili Antiox XIII Rim tomonidan tan olindi, lekin 2 yildan keyin Pompey uni taxtdan tushirdi. Siyosiy ta'sir vositasi bo'lgan armiya va flotdan mahrum bo'lgan Salavkiy hukmron guruhlarini Rim va Parfiyaning qo'g'irchoqlariga aylandi. Mil.avv. 63-yilda Salavkiylar davlatining qoldiqlari Rim tomonidan bosib olinib,

uning hududida Suriya provinsiyasi tashkil etildi. Sharqiy Pont, Paflagoniya, Galatiya, Kappadokiya, Armaniston va Kommagen rimliklarga vassal bo'lgan mahalliy hokimlar qo'lida qoldi.

4. Makedoniya. Bu davlat tarkibiga Makedoniya, Yunoniston va Egey dengizidagi bir necha orollar kirgan. Ptolemeylar Misri Salavkiylar davlati bilan bir qatorda Makedoniya ellin dunyosining katta davlatlaridan biri edi. Diadoxlar urushlaridan so'ng Makedoniya tushkunlik holatida edi. Aholining katta qismi Aleksandr yurishlari davrida Sharqqa ko'chdi. Antigonidlar sulolasi olib borgan doimiy urushlar, shimoldagi varvar qabilalarining xavfi makedon iqtisodi va davlatini zaiflashtirdi. Antigonidlar sulolasi xo'jalik hayotini qayta tiklash, aholining ko'payishiga e'tibor berishga majbur bo'ldilar. Shu sababli, yangi shaharlar qurilib, eskilari qayta tiklandi. Bo'sh yotgan yerlarga aholi ko'chirildi. Konlar qazildi. Kemasozlik rivojlandi. Qurilish yog'ochlari bilan qizg'in savdo qilindi.

Iqtisodiyotning asosini erkin dehqon mehnati yetakchi bo'lgan qishloq xo'jaligi tashkil etar edi. Podshoga faqat o'rmon va qazilma boyliklar tegishli edi. Ellin Makedoniyasiga podsho hokimiyati ba'zi bir eski belgilarini meros qilib oldi: qo'shin yig'ini avvalgidek, podshoning taxtga chiqish vaqtidagi o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Qo'shin yig'ini oliy sudya rovida chiqar edi. Makedoniyadagi beqaror vaziyat Aleksandr vafotidan so'ng qariyb ellik yil davom etdi. Aleksandrning o'limidan so'ng Makedon taxtiga rasmiy huquqni Kassandr oldi. Uning o'limidan so'ng mil. avv. 298-yilda Makedoniya taxtiga Kassandrning o'g'illari Lisimax, Ptolemey Keravn, epirlik Pirr, Dimitriy Poliorket, uning o'g'li Antigon egalik qildilar. Aholining katta qismini sharqqa ko'chishi, dehqonlarning xonavayron bo'lishi mamlakat ahvolidni og'irlashtirdi. Mil.avv. 276-yilda galat (kel't)lar hujumini ikki marta qaytardi. Shu tarzda Antigon Yunonistondagi vaziyatni barqaror qilgan Antigon Dimitriy Poliorketning o'g'li bo'lib, mil. avv. 276-yilda taxtga chiqdi. Antigon II epirlik Pirrning hujumini qaytarib, shimoliy chegarani mustahkamladi, barqaror dengiz aloqasini yo'lga qo'ydi. Makedoniyani yunon shaharlariga ta'sirini kuchaytirdi. Antigon II Gonatning avlodlari Makedoniyani Rim bosib olgunga qadar (mil.avv. 168-yilgacha) boshqardilar. Antigonidlar sulolasi uchun Yunonistonni bo'ysundirib turish juda qiyin siyosiy muammo edi. Bu davrda manfaatlari bir-biriga zid bo'lgan yunon polislari Etoliya va Axey ittifoqlariga birlashib, urush olib borar edilar. Makedoniya ham bir necha

yunon polislari kirgan Ellin ittifoqiga boshchilik qildi va yunon shaharlari ichki ishlariga faol aralashdi.

Rim va Ptolemeylar sulolasi yunon polislari Makedoniyaga qarshi chiqishlarini qo'llab-quvvatladilar. Ikkinchi puni urushlari davrida Makedoniya Gannibal bilan ittifoq tuzdi. Bunga qarshi Rim Pergam va Peloponnesning bir necha polislari Makedoniyaga qarshi chiqishga undadi. Natijada mil. avv. 215–206-yillarda 1-makedon urushi yuz berdi. Karfagenni Gannibal ustidan g'alabasi Makedoniya podshosi Filipp V ni Italiyaga yurish xavfini yo'qqa chiqardi.

G'ayratli podsho Filipp V Salavkiylar bilan ittifoq tuzib, zaiflashgan Ptolemeylarning Kichik Osiyo va Egey mulklarini bosib oldi. Italiya, Pergam va Rodos bunga qarshi chiqib, Rimdan yordam so'radi. Natijada 2-makedon urushi (mil.avv. 200–197-yillar) boshlandi. Fessaliyadagi mil.avv. 197-yildagi hal qiluvchi jangda Makedoniya yengildi. U Yunoniston va Kichik Osiyodagi barcha mulklaridan ajraldi.

Filipp V ning o'g'li Persey (mil.avv. 179–168-yillar) Makedoniyaning avvalgi qudratini qayta tiklashga urindi. Ammo u Rim bilan urushda (3-makedon urushi mil.avv. 171–168-yillar) Pidna yonidagi jangda yengildi. Makedoniya hududi g'oliblar o'rtasida to'rt okrugga bo'lindi. Mil.avv. 148-yilda Andriskning Rimga qarshi qo'zg'olonidan so'ng Makedoniya Rim provinsiyasiga aylantirildi.

5. Pergam. Attalidlar davlati. Mil.avv. 287-yil Pergam Salavkiylar davlati tarkibiga kirdi. Makedon zodagoni Attalning o'g'li Fileter Salavkiylarning noibi edi. U Diadozlarning o'zaro urushlaridan foydalanib, Pergam va bu yerda saqlanayotgan xazinani bosib oldi. Fileter Pergamni 22 yil boshqarib, keyin hukmronlikni jiyani Attalga topshirdi. Mil.avv. 240-yil Salavkiylar noibi hisoblangan Attal I Pergamni mustaqil deb e'lon qilib, podsholik tojini kiydi. Uning asosiy hududi Kichik Osiyoning shimoliy-g'arbiy qismi va Misiya viloyatidan iborat edi. Attalidlar sulolasi hukmdorlarining faol tashqi siyosati hamda mohir diplomatiyasi sababli, Pergam davlatining hududi mil.avv. II asr boshlarida G'arbiy Kichik Osiyoning Troada, Lidiya, Kariya va Likiyani qo'shib olinishi bilan kengaydi. Bu hududlarda qadimdan rivojlangan yunon polislari mavjud bo'lganligi sababli, rivojlangan iqtisodiyotga ega edi.

Attalidlar tashqi siyosatda sharqda Salavkiylar podsholigiga qarshi turib, g'arbda kuchli ittifoqchi sifatida Rim davlati-

ga tayandilar va bu amalda Pergamni Rim respublikasiga tobe bo'lishga olib keldi. Attal I (mil.avv. 241–197-yillar) galatlar ustidan g'alaba qilib, Rim bilan ittifoq tuzdi. U 1- va 2-makedon urushlarida (mil.avv. 215-205-yillar va 200–197-yillar) rimliklar tomonidan ishtirok etdi. Rimliklarning homiyligi yordamida Pergam podsholigi Kichik Osiyodagi barcha Salavkiylar mulklarini egallab oldi va o'zining eng qudratli davriga kirdi. Ammo Pergamning yuksalishi uzoq davom etmadi. Attal II va Attal III hukmronligi davrida Rim Pergam jamiyatining hukmron tabaqalariga kuchli ta'sir o'tkazgan holda podsholikning ichki va tashqi siyosatiga faol aralasha boshladi. Oqibatda Attalidlar sulolasining so'nggi podshosi mil.avv. 133-yilda vafot etgan Attal III ning vorisi bo'lmaganligi sababli, o'z davlatini rimliklarga vasiyat qilishga majbur bo'ldi.

Bunga javoban Pergam jamiyatining quyi tabaqalari podsho Yevmen II ning noqonuniy o'g'li Aristonik boshchiligida qo'zg'olon ko'tardilar. Qo'zg'olonni yunon shaharlari aholisi qo'llab-quvvatlamadi. Natijada qo'zg'olonchilar yengildi. Aristonik mil.avv. 129-yilda rimliklar tomonidan qatl qilindi. Vasiyat qilingan podsholik o'rniga Rimning Osiyo provinsiyasi tashkil etildi.

Pergam ellin dunyosining iqtisodiy jihatdan rivojlangan markazlaridan biri edi. Qulay iqlim va tabiiy sharoit qishloq xo'jaligini uzluksiz rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Pergam O'rtayer dengizi hududi aholisi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib beradigan markazlardan biriga aylandi. Qul mehnatidan unumli foydalanildi. Pergam shaharlari dengiz savdosi yo'llarida turganligi uchun mamlakatning boy xomashyolari (metall, yog'och, smola, teri, jun), Pergam hunarmandchilik mahsulotlari, jumladan, pergament qog'ozi butun O'rtayer dengizi ehtiyojlarini qondirdi.

Attalidlar sulolasi podsholari savdo-hunarmandchilikka homiylik qildilar. Yunon tipidagi yangi shaharlarga asos sol-dilar. Bu shaharlar eski shaharlar bilan bir qatorda tezda iqtisodiyot va madaniyat o'choqlariga aylandi. Attalidlar fan, adabiyot va san'atga faol homiylik ko'rsatdilar. Podsholik poytaxti Pergamda galatlar ustidan g'alaba sharafiga ulkan Zevs ibodatxonasi qurildi. Yevmen II mashhur Pergamda kutubxona binosini barpo qildi. Bu kutubxona antik mualliflar asarlari to'plami hamda filologiya maktabiga ega bo'lib, mashhur Aleksandriya kutubxonasi bilan raqobat qildi.

6. Yunoniston materigi va orollar. Yunoniston hududidagi talonchilik urushlari iqtisodiy hayotni butunlay izdan chiqardi. Ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashdi. Bu esa og'ir qarama-qarshiliklarni tug'dirdi. Joylarda hokimiyatni tiranlar egallay boshladi.

Aholi Argosda tiran Aristomaxni, Megalopolda Aristodemni qo'llab-quvvatladi. Mil.avv. III asr o'rtalarida Xios va Teri orollarida ijtimoiy-iqtisodiy norozilik harakatlari kuchayib ketdi. Antik mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, ellin davrida Yunonistondan aholining katta qismi sharqqa ko'chdi. Faqat Afina va Korinf o'z ahamiyatini saqlab qolishga urindi. Mil.avv. 284-yilda Etoliya ittifoqi tashkil topdi. Aleksandr va uning vorislari yo'q qilgan Axey ittifoqi ham qayta tiklandi (mil.avv. 280-yil). Axey ittifoqi alohida yunon davlatlari o'rtasidagi mudofaa va hujum ittifoqi edi. Umumiy tadbirlar va pul tizimi kiritildi, lekin shaharlar mustaqil boshqaruvlarini va o'z muassasalarini saqlab qoldilar. Yilda ikki marta ittifoq a'zolari Egeya shahriga to'planar edilar. Ittifoqning oliy lavozimi strateg deb ataldi. Mil. avv. 284-yilda tashkil etilgan Etoliya ittifoqi Axey ittifoqi bilan muntazam dushmanlik munosabatida bo'ldi. Sparta har ikkala ittifoqni ham zaiflashtirishga harakat qildi. Mil.avv. 222-yilda Senlaziya yonidagi jangda spartaliklar yengildi. Makedoniyaliklar bu g'alabadan keyin Spartaga kirdilar va Spartaliklarni Axey ittifoqiga qo'shilishga majbur qildilar. Makedoniya davlati Rimga olingandan so'ng (mil.avv. 268) Axey va Etoliya ittifoqlari ham Rim tomonidan tugatildi.

Dimitriy Poliorket. Tushkunlik holatidagi yunon shaharlari Kassandr hukmronligi ostida edi. Aleksandrning safdoshi Antigonning g'ayratli o'g'li Dimitriy Poliorket Afinani Kassandrdan tortib oldi. Afinaliklar Dimitriy va uning otasini o'z shaharlari-ning «homiy-ilohlari» deb e'lon qildilar, Dimitriyning haykalini yaratish uchun o'zaro raqobat qildilar. Iloh sifatida Afina ibodatxonasining bir qismini unga qarorgoh qilib berdilar. Dimitriy Peloponnes va uning shaharlarini ozod qildi. Va shaharlarning erkinligini tikladi. Buning evaziga Istma o'yinlarida u Yunonistonning oliy yo'lboshchisi deb e'lon qilindi.

Dimitriy kayf-safoda, axloqsizlikda hammadan o'tib tushdi. Lekin u yaxshi lashkarboshi, ulkan tez harakat qiladigan kemalar, qamal mashinalari ixtirochisi edi. Shu sifatlari bilan u dushmanlarini hayratga soldi va Poliorket (shaharlarni bo'ysundiruvchi) laqabini oldi. Lisimax va Salavk birlashib,

Dimitriyning 80 yoshli otasi Antigonga qarshi qo'shin tortdilar. Dimitriy Poliorket otasiga yordamga keldi, lekin mil.avv. 301-yil Frigiyada Ips yonidagi jangda yengildi. Afina o'z homiysiga yordam bermadi. Dimitriy qo'shinni ta'minlashga mablag' topish uchun Xersones shahri va Lisimaxga tegishli viloyatlarni talon-taroj qildi. Misr hukmdori Ptolemey Dimitriy bilan yaqinlashdi. Dimitriy Antioxiyada uning qizi Stratonikaga uylandi. Shundan so'ng Afinaga flot bilan suzib borib, shahar himoyasida turgan tiran Laxaritni uzoq qamal va ochlik bilan taslim bo'lishga majbur qildi. U afinaliklardan xoinliklari uchun o'ch olmadi, aksincha ochlik hukm surayotgan shaharga katta miqdorda oziq-ovqat sovg'a qildi. Dimitriy Afinadan Spartaga yurish qilib, spartaliklar qo'shinini yanchib tashladi, u yunon podsholigini barpo qilishni rejalashtirdi. Shu vaqtda Kassandr vafot qildi. Uning katta o'g'li Antipatr onasi Fessalonikani vorislikka ukasi Aleksandrni tanlagani uchun o'ldirdi. Aleksandr yordam so'rab Epir podshosi Pirrni chaqirdi. Pirr yetib kelib, aka-ukalarni murosaga kelib, podsholikni bo'lib olishni taklif qildi. Dimitriy o'z qo'shini bilan yetib kelganda, Aleksandr uni qaytib ketishga ko'ndirishga urinib, Dimitriyga Larissa shahrigacha hamrohlik qildi. Aleksandr Dimitriyga ishonmay, undan ajralishni rejalashtirgani uchun bazmlardan birida Dimitriy uni chopib tashlashga buyruq berdi. Makedoniyaliklar shu lahzadayoq Dimitriyning Aleksandrning o'rniga podsho deb e'lon qildilar. Antipatr o'z qaynotasi Lisimax oldiga qochib ketdi. Dimitriyning barcha Makedon podshosi deb tan oldi. Dimitriyning eski raqiblari Salavk (uning qaynotasi), Ptolemey, Lisimax va keyinchalik Pirr o'zaro birlashib Makedoniyaga yurish qildilar. Dimitriy ularga qarshi turdi.

Ammo makedonlar Dimitriyning sharqona hashamati, mutlaq hokimiyati va turmush tarzidan norozi bo'lib, xiyonat qildilar va Pirr tarafiga o'tib, uni o'z podsholari deb e'lon qildilar. Dimitriy o'ziga sodiq ozgina askarlar bilan o'g'li Antigon Gonat qarorgohiga qochdi. Pirr va Lisimax uning podsholigini bo'lib oldilar. Dimitriy hech qachon Makedoniyaga qaytmadi. Yunonistonda qo'shin va flot to'plab, Dimitriy Osiyoga jo'nadi, Milet shahrida Ptolemeyning qizlaridan biriga uylandi. Keyin o'z qaynotasining barcha hududlarni vayron qilib, Kariya va Lidiyaga o'tdi. Bu hududlarda u podsholik barpo qilmoqchi edi. Lekin Lisimaxning kuyovi Agafokl unga qarshi chiqib, bir necha janglarda uni yanchib tashladi. Chorasiz qolgan Dimitriy kuyovi

Salavkka yordam soʻrab murojaat qildi. Salavk Agafoklni chekinishga majbur qildi. Dimitriy yordamga javoban nonkoʻrlik qilib, yana bosqinchilik yurishi qildi va Salavkning qarorgohiga tunda hujum qildi. Oldindan ogohlantirilgan Salavk zarba berishga tayyorlanishga ulgurdi, Salavkning taklifi bilan Dimitriyning askarlari uning tomoniga oʻtdilar. Dimitriy oʻrmonzor, togʻlarga qochdi, lekin toʻrt tarafdin oʻrab olingach, taslim boʻldi. Salavk himmat koʻrsatib, uni kechirdi. Dimitriyga Suriyadagi Apameya shahrida yashashga, barcha qulayliklardan foydalanishga ruxsat berdi. Lekin uning orqasidan oʻta qattiq nazorat qilishga buyruq berdi. Podsholikdan mahrum boʻlgan, joʻshqin faoliyatdan chetlashtirilgan Dimitriy Poliorket barcha vaqtini ovda, azart oʻyinlarda, ichkilikbozlikda oʻtkazib, tutqunligining uchinchi yilida 54 yoshda mil.avv. 284-yil vafot etdi. Dimitriy Poliorket Aleksandrning safdoshi Antigonning oʻgʻli, Yunon shaharlari yoʻlboshchisi, Makedoniya podshosi, qudratli Ptolemeyning ikki qizining turmush oʻrtogʻi, Salavkning qaynotasi, qobiliyatli sarkarda, shahar qamali mashinalari va katta kemalar ixtirochisi edi.

Sparta. Spartada ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarni bartaraf etish uchun podshohlar – Agis III (mil.avv. 244–235-yillar) va Kleomen III (mil.avv. 235–221-yillar)lar islohotlar oʻtkazishdi. Agis III qarzlarni bekor qilishga, Likurg qonunlarini tiklashga harakat qildi. Yerlar yangidan 700 oila oʻrtasida taqsimlandi. Fuqarolar sonini koʻpaytirish uchun qolgan yerlarni 15 ming perieklarga taqsimlab berishni taklif qildi. Agis oʻz mol-mulkini ham spartaliklarga hadya qildi. Qadimgi Sparta tarbiyasi va urf-odatlarini qayta tiklandi, perieklar hisobiga fuqarolar soni koʻpaydi. Aholining katta qismi islohotlarni qoʻllab-quvvatladi. Sparta qoʻshinining qudrati kuchayib, Spartaning asosiy raqibi Axey ittifoqiga qarshi gʻolibona urushlar olib bordi. Agisning bu siyosati Sparta zodagonlariga yoqmad. Ular fitna uyushtirib, islohotchi podshohni boʻgʻib oʻldirdilar.

Spartaning keyingi podshohi Kleomen III (mil.avv. 235–221-yillar) Agisning siyosatini davom ettirishga harakat qildi. U dastlab podsho hokimiyatini kuchaytirishga, qudratli eforlarning hokimiyatini zaiflashtirishga harakat qildi. Kleomen Axey ittifoqi bilan navbatdagi urushda gʻolib chiqdi. U Sparta yollanma askarlar bilan kirib, toʻrt eforni oʻldirib, efor unvonini bekor qildi. Eforlar kollegiyasi tugatilib, davlatni boshqarish vakolatla-

rining katta qismi podsho qo'lida to'plandi. Qarzdorlarning qarzi to'liq bekor qilinib, yerlar qayta teng taqsimlandi.

Lekin bu islohotlar Axey ittifoqi bilan yangi urush natijasida nihoyasiga yetdi. Axey ittifoqi Makedoniyaning yordami bilan Spartaga qarshi urush boshladi va Sparta qo'shinlarini mil.avv. 222-yil mag'lubiyatga uchratdi. Kleomen Misrga qochib ketdi va Ptolemey Filopatrdan yordam so'radi. Filopatr yordam bermadi. Filopatrdan o'ch olish niyatida Kleomen unga qarshi Misr fuqarolarini gij-gijladi. Lekin hech qanday natijaga erishmadi, podshoning qo'liga tushmaslik uchun o'zini o'ldirdi. Uning onasi va bolalari qatl qilindi. Kleomenning jasadı teriga o'ralib, dorga osib qo'yildi. Sparta tushkunlikka uchrab, oxir-oqibatda mil.avv. 146-yil o'z mustaqilligini yo'qotdi va Rim provinsiyasi tarkibiga kirdi.

Hududda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat keskinlashdi. Ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar kuchayib, mil.avv. III asrda yerlarni qayta taqsimlash harakati Yunonistonda avj oldi.

Rodos. Mil.avv. III–II asrlarda Rodos oroli xalqaro savdo yo'lida joylashgani uchun gullab-yashnadi. Rodos orqali Yunonistondan vino, keramika, zaytun yog'i; Finikiya qizil matosi, sharq xushbo'y moylari, qimmatbaho matolar, zargarlik buyumlari, Misr g'allasi tashilar edi. Vositachilik savdosi Rodosda yiliga 1 mln draxm daromad keltirgan, Rodos orqali 1 yilda 50 mln draxma miqdorida tovar (taxminan hozirgi 500 mln dollar) o'tar edi. Rodos Bolqon Yarim oroli va Egey havzasini O'rtayer dengizi, Finikiya portlari va Misr Aleksandriyasi bilan bog'lagan. Rodosning tashqi siyosatining asosiy yo'nalishi savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlash bo'lib, shu sababli u kuchli harbiy flot saqlagan. Dengiz savdo yo'lining xavfsizligini ta'minlash uchun Rodos dengiz piratlari bilan shafqatsiz urush olib borgan. U doimiy ravishda biror-bir qudratli davlat panohida bo'lishga harakat qildi. Rodos mil.avv. III asrda qudratli Misr bilan ittifoqqa, mil.avv. III asr o'rtalarida Pergam podsholigiga tayandi. Shu asr oxirida qudratli Rim davlati bilan ittifoq tuzdi. Rodos dengiz va bo'g'ozlarda yetakchilik uchun Makedoniya bilan doimo dushmanlik munosabatlarida bo'ldi. Shu sababli Rodos Makedoniyaga qarshi har qanday urushga kirgan davlatlar bilan ittifoqchilik munosabatlarini o'rnatdi. Ikkinchi Rim – makedon urushi davrida (mil.avv. 200–196-yillar) Rim tomonida turib, rimliklarning dengiz ta'minotini amalga oshirdi. Makedoniya bo'ysundirilgandan keyin Rim respublikasi Rodos-

ning savdo-harbiy va siyosiy qudratini zaiflashtirish siyosatini olib bordi. Rim senatining qarori bilan Rodosning qit'adagi boy mulklari tortib olindi. Rodosning dengiz savdosidagi monopoliyasini tugatish uchun Delos orolidagi port bojsiz savdo qiladigan nuqta deb e'lon qilindi. Natijada dengiz savdosining bir qismi Delos oroli orqali o'tib, Rodosning savdo va siyosiy nufuzi keskin qisqardi. Keyinchalik esa Rodos oroli Rimga qaram hududga aylandi.

Rodosda san'at gullab-yashnadi. Mahalliy haykaltaroshlik maktablari shakllandi. mashhur Lisippning shogirdi haykaltarosh Xares Rodosning homiysi xudo Geliosga bag'ishlab 36 metrli haykal yaratdi. Bu haykal 12 yil davomida bunyod qilindi (taxminan mil.avv. 304–292-yillar). Dunyoning 7 mo'jizasi-dan biri sanalgan bu haykal Pergamdagi mavzoley va Galikarnosdagi Artemida ibodatxonasining kichik zamondoshi edi. Shuningdek, Rodosda Lisipp maktabi vakillari «Ilonlar bilan kurashayotgan Laokoon va uning o'g'illari» haykallari guruhini yaratdilar.

Rodosda notiq Esxin asos solgan Rodos notqlik maktabi faoliyat ko'rsatdi. Mil.avv. II asr oxiri – I asr boshida Rodosda mashhur Sitseronning o'qituvchisi notiq Molon ta'lim olgan. Rodos homiyligida orollarda ipakchilik va vinochilik markazi, Kosda mashhur tabiblar maktabi faoliyat ko'rsatdi.

Mil.avv. III asrda yangi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot Bolqon Yunonistonining madaniy markaz sifatidagi roli yo'qolishiga olib keldi. Natijada bu hudud ellin dunyosining chekka hududiga aylandi. Yunonistonning madaniy o'choq sifatidagi shuhratini Afina bir qadar qo'llab-quvvatlab turdi. Afina yunon falsafasi o'qitildi. Bu yerda bir qancha an'anaviy haykaltaroshlik maktablari mavjud edi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Эллинизм: Восток и Запад / отв. ред. Е.С. Голубцова. – М.:1992.
2. Эллинизм: экономика, политика, культура / отв. ред. Е. С. Голубцова. – М.: 1990.
3. Бенгтсон Г. Правители эпохи эллинизма. – М.: 1982.
4. Зельин К.К., Трофимова М. К. Формы зависимости в Восточном Средиземноморье в эллинистический период. – М.: 1969.
5. Кошеленко Г. А. Греческий полис на эллинистическом Востоке. – М.: 1979.

Asosiy sanalar

| | |
|------------------------------|--|
| Mil.avv. 312–364-yillar | Salavkiylar davlati. |
| Mil.avv. 300-yillar | Antioxiya shahariga asos solindi. |
| Mil.avv. III–II asrlar | Misrning zaiflashuvi. |
| Mil.avv. 323–30-yillar | Ptolemeylar sulolasining hukmronligi. |
| Mil.avv. 323–283-yillar | Ptolemey Lag hukmronligi. |
| Mil.avv. 281–261-yillar | Antiox I Salavk hukmronligi. |
| Mil.avv. 276–168-yillar | Makedoniyada Antigonidlar sulolasi hukmronligi. |
| Mil.avv. 252-yillar atrofi | Yunon-Baqtriya, Parfiya davlatining Salavkiylar davlatidan mustaqil boʻlib chiqishi. |
| Mil.avv. 250-yil | Yunon-Baqtriya va Parfiya davlati tashkil topdi. |
| Mil.avv. 246-yillar | Ptolemey III Everget hukmronligi. |
| Mil.avv. 240–133-yillar | Pergamda Attalidlar sulolasining hukmronligi. |
| Mil.avv. 223-yillar | Antiox III hukmronligi. |
| Mil.avv. 189-yil | Magnesiya jangi. |
| Mil.avv. 168-yil | Makedoniyaning Rim tomonidan bosib olinishi. |
| Mil.avv. 148-yil | Rimliklar tomonidan Makedoniya provinsiyasining tashkil etilishi. |
| Mil.avv. 129, 101, 74-yillar | Rimliklar tomonidan Osiyo, Kilikiya va Vifniya provinsiyalarining tashkil etilishi. |

ELLIN MADANIYATI

1. Din va falsafa. 2. Tabiiy va aniq fanlar. 3. Adabiyot va san'at.

Ellin davrining (mil.avv. III–I asrlar) eng muhim merosi madaniyat bo'lib, bu madaniyat ellin dunyosining barcha hududlariga keng tarqalib, Rim madaniyatining rivojlanishiga hamda o'rta asrlar madaniyatiga ta'sir ko'rsatdi. O'z navbatida qadimgi Sharqning 4 ming yillik ilm-fan va madaniy yutuqlari mil.avv. III asrdan boshlab g'arb dunyosi tomonidan o'zlashtirildi. Sharqning bu yutuqlari Yunon-Rim dunyosi madaniyati, Rimga qaram bo'lgan boshqa o'lkalarning madaniy-ma'naviy, siyosiy taraqqiyotida sezilarli o'rinni egalladi. Chunki bu davrdan boshlab sharq va g'arbning savdo-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy aloqalari kuchaydi. Misr, Mesopotamiya, O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy g'arb dunyosi bilan yaqin aloqa o'rnatdilar. Sharq madaniyati, diniy e'tiqodlari Britaniya orollarigacha kirib bordi. Parfiya, Kushonlar davlati, Xitoy va Hindiston g'arb dunyosi tomonidan ochildi. Shu sababli ilmiy adabiyotda Ellin madaniyati deb nomlangan mil.avv. III–I asrlardagi madaniyat bir xil bo'lmay, har bir hududda mahalliy barqaror madaniyat an'analari va boshqa madaniyatlarning unsurlarining o'zaro qo'shinishi natijasida shakllandi. Mil.avv III–I asrlarda O'rtayer dengizi havzasining madaniy-ma'naviy shakllanishida davlatlarning ulkan hududlari, cheklanmagan podsho hokimiyatining mavjudligi, shaharlarning amaldagi mustaqilligining yo'qolishi o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu davrda fan va texnika notekis rivojlandi. Davlat hokimiyati manfaatdor bo'lgan harbiy ish, kemasozlik, shaharlarni qamal qilish texnikasi va qurilish sohalarida eng katta yutuqlarga erishildi.

1. Din va falsafa. Ellinizm davrida yunon dunyosi Sharq diniy tasavvurlarini qabul qila boshladi. Misrda Kichik Osiyo xudosi Serapisga sig'inish avj oldi. Misr ma'budasi Isidani yunonlar Demetra sifatida qabul qildilar. Pergamda Frigiya ma'budasi (Kibela – yerning onasi) bosh ma'buda sifatida qabul qilina boshlandi. Ellinlashgan Sharq ilohlarining barchasi mistik va ekstatik edi.

Ellin davlatlarida turli xudolar, turli xalqlarning diniy e'tiqodlari keng tarqaldi. Diniy tolerantlik shakllandi. Joylarda dinning universalligini namoyish qilishga intilib, barcha xudolarga atab ibodatxona – Panteon qurila boshlandi. Ana shunday Panteon Aleksandriyada qurildi. Yunonistonda yahudiy dini tarqala boshladi. Yunonlar bu monoteistik dinga ishonib, uni qabul qildilar. Yahudiy diniga yangi qabul qilinganlar «prozelitlar» deb ataldi.

Turli hududlarda turli xudolarga e'tiqod qilish saqlanib qolsada, ayrim xudolarga e'tiqod qilish keng tarqaldi. Zevs, Dionis, Osiris hamda Kichik Osiyo ma'budlari Sabaziy va Adonisga, ayol ma'budalardan Misr Isidasiga sig'inish keng yoyildi. Sharqda shakllangan sinkretik e'tiqodlar Kichik Osiyo, Yunoniston va Makedoniya, keyinchalik esa G'arbiy O'rtayer dengiziga kirib bordi.

Ellin madaniyatining tarqalishidagi eng muhim omil an'anaviy va yangi paydo bo'lgan ko'plab bayramlar bo'ldi. Xudolar sharafiga o'tkaziladigan bayramlar bir qatorida homiy podsholar sharafiga diniy markazlar va poytaxtlarda o'tkaziladigan maxsus bayramlar paydo bo'ldi. Misol uchun, ana shunday bayramlardan biri mil.avv. 165-yil poytaxt Antioxiya yaqinida salavkiy sulolasi hukmdori Antiox IV (mil.avv. 175–160-yillar) tomonidan o'tkazilgan bayramni ko'rsatish mumkin. Bu bayramning ochilishida 50 mingga yaqin piyoda va otliq askarlar, jang aravalari va fillar, oltin gulchambar kiygan 800 o'smir va oltin hamda kumush bilan bezalgan taxtiravonlarda o'tirgan 580 ta ayollar; xudolar va qahramonlarning son-sanoqsiz boy bezalgan haykallari; yuzlab qullar oltin va kumush buyumlar, fil suyagini olib borar edilar. Manbada 300 qurbonlik dasturxonlari va minglab boqilgan buqalar ko'rsatiladi. Bayram 30 kun davom etib, bayram davomida turli xil gimnastika o'yinlari, bellashuvlar, teatr tomoshalari, ming-bir yarim ming kishiga mo'ljallangan bazmlar va ov uyushtiriladi.

Ptolemeylar Misrda qadimgi fir'avnlr davrida bo'lganidek, podsho hokimiyatining mavqeyi kuchayib ketdi va ellin sharqidagi boshqa mamlakatlardagi kabi Misrda podsholarga sig'inish yana avj oldi. Ptolemey II Filadelf o'zi va o'z singlisi Arsinoyaga sig'inishga farmon berib, o'zi va singlisi sharafiga ibodatxonalar qurdirdi. Shuningdek, Misrda Ptolemey III va uning xotini Berenikaga sig'inish keng yoyildi.

O'sha davr falsafasida inson shaxsini o'rganish muammosi birinchi o'ringa chiqqan boshladi. Mil.avv. V–IV asrlarda ikki falsafiy maktab: yangi stoik va epikur maktablari vujudga keldi. Ular inson, shaxs nima, baxt nima degan savollar ustida bosh qotira boshladilar. Afinada stoiklar maktabiga mil.avv. 302-yil kelib chiqishi Kipr orolidan bo'lgan faylasuf Zenon (mil.avv. 336–264-yillar) asos soldi. Bu maktabga ellin davrining ko'pgina taniqli faylasuflari va olimlari kirgan edi. Stoiklar Afinaning eng gavjum joyi bo'lmish agorada, naqshin peshayvon «stoya» ostida va'z aytib, o'z tinglovchilariga ta'lim berar edilar (Bu maktabning nomi ham shu so'zdan kelib chiqqan). Stoizm yunon va Sharq nazariyalarining sintezi edi. U keng tarqalgan va shu bilan birga, uzoq yashagan ellin falsafiy maktabi edi. Stoiklar hamma narsani, shu jumladan, fikr, so'z, olov va shu kabilarni ham jism deb atar edilar. Butun olamni stoiklar rivojlanib turadigan olov deb hisoblashar edi. Stoiklar barcha odamlar teng degan g'oyani ilgari surdilar. Ular insonlar tabiat bilan uyg'un holda yashab, baxt va ilohiylik topadi, degan fikrni shakllantirdilar.

Mil.avv. IV asrda Afinada Epikur falsafa maktabi shakllandi. Faylasuf Epikurning bog'ida uning do'stlari va shogirdlari to'planib, falsafiy suhbatlar qurdilar. Bozorlar, maydonlar, odamlar ko'p bo'lgan joylarda o'z ta'limotlarini targ'ib qilgan stoiklardan farq qilgan holda Epikur tinch va sokin joyda tafakkur qilishni yo'lga qo'ydi. Epikurchilar «Baxtning mohiyati – azobning yo'qligidir», «Kimda kam ehtiyoj bo'lsa, u kishida ko'p farog'at bo'ladi» tushunchalarini ilgari surdilar.

Aleksandrning ustoz faylasuf Aristotel «Afina politiyasi» asarini yozib, davlat boshqaruvining uch shaklini: bir kishining qo'lidagi hokimiyat – monarxiyani, ozchilik hokimiyati – oligarxiya, uchinchi ko'pchilikning hokimiyati demokratiyani ko'rsatdi. Mil.avv. III asrda yana bir falsafiy maktab – skeptiklar maktabi shakllandi. Bu maktabga Arastuning kichik zamon-doshi Pirron asos soldi. Skeptiklar atrof dunyoni bilib bo'lmaydi, uning tabiati to'g'risidagi barcha nazariyalar xayol deb hisobladilar. Shuning uchun ular fizika bilan shug'ullanmadilar. Dunyoni bilish nazariyalarini yaratmadilar. Lekin boshqa maktablar yaratgan nazariyalar tanqidiga e'tibor berdilar. Ular: «Barcha narsalarni hech qachon bilib bo'lmaydi, ular haqida na haqiqatni, na yolg'onni aytishlari mumkin emas», deb hisobladilar.

Skeptiklar falsafiy oqimi tibbiyotga ta'sir qildi. Tabiblar kasalliklarning sabablarini bilishlari mumkin emas, faqat bemor kasalligini kuzatish kerak, kasallikni kasalda dorilarni sinash bilan davolash zarur, degan tushunchani ilgari surdilar.

Mil.avv. IV asrda falsafada yana bir maktab – kiniklar paydo bo'ldi. Bu maktab asoschisi Antisfen bo'lib, Diogen uning mashhur o'quvchisi edi. Kiniklar tabiatga qaytish qulayliklaridan voz kechishni talab qildilar. Inson yaratgan qonun-qoidalari tabiatga qarama-qarshidir deb, davlatni tan olmadilar. Ular ko'chalar, maydonlar va portlarda olomon oldida so'zga chiqib, mavjud tartib-qoidalarning noto'g'riligini asosladilar. Kambag'allikni nafaqat so'zda, balki o'z turmush tarzlari bilan targ'ib qildilar.

2. Tabiiy va aniq fanlar. Mil.avv. III–II asrlarda Afinadagi Arastu maktabida aniq va tabiiy fanlar o'rganildi. Feosfrast avvalgi faylasuflarni, Menon tibbiy adabiyotini o'rgandi. Evdem matematika va astronomiya tarixini yozdi. Feofrast «O'simliklar tarixi», «O'simliklar fiziologiyasi» asarlarini yozib, ilmiy botanikaga, uning ustozlari Arastu esa zoologiyaga asos soldi. Arastu Likmiyada o'z o'quvchilari bilan sayr qilib yurar va ular bilan falsafiy suhbat qilardi. Shu sababli, ular «peripatetiklar» («sayr qilayotganlar») deb atalgan.

Orontdagi Antioxiya, Aleksandriya va boshqa poytaxtlarda ilmiy markazlar va kutubxonalar vujudga keldi. Ptolemey I Soter Aleksandriyada ilmiy markaz – Museyonni tashkil qildi. Ilmiy markazda matematika, fizika, astronomiya, jug'rofiya va filologiya fanlari bo'yicha ko'p olimlar to'plangan edi. Jumladan, Museyonda mashhur matematik Yevklid (uning «Boshlang'ich geometriya»si ko'p asrlar davomida 1700 marta chop etilgan) ishladi. Arximed yoshligidan bu yerda o'z faoliyatini boshladi. Aleksandriyada geograf Eratosfen, astronomlar Kono va Dosifeylar faoliyat ko'rsatdilar. Aleksandr yurushlari qisqichisi Aristobul, harbiy boshliq Nearx yunonlarga boshqa mamlakatlar to'g'risida boy ma'lumotlar berdilar. Aleksandriyada bir necha o'n ming jildli ulkan kutubxona, botanika bog'i, zoopark, jarrohlik laboratoriyalari, astronomik rasadxona, olimlar uchun o'quv zali va yotoqxonalar bor edi. Museyonda tashkil etilgan kutubxona o'sha zamonga qadar to'plangan sharq-yunon donishmandligining asarlarini to'laroq ravishda o'z ichiga olgan edi. O'sha vaqt uchun bu g'oyat katta kutubxonada ellin davrining oxiriga borib 70000 ga yaqin qo'lyozma-matnlar

– papirus o‘ramlari mavjud edi. Aleksandriya olimlari matematika, tibbiyot va texnika fanlari sohasida erishgan yutuqlari bilan hamda mutaxassis-filologlar sifatida dong taratdi. Misrdagi Aleksandriya bilan bir qatorda Orontdagi Pergam, Antioksiya ellin dunyosining ilmiy va madaniy markazi sifatida o‘z mavqelarini saqlab qoldi.

Mil.avv. III–II asrda Pergida mashhur matematik Apollogiy ishladi. Kirenalik Eratosfen fizik va matematik jug‘rofiyaga asos soldi. Samoslik Aristrax mil.avv. III asrda yerdan oygacha bo‘lgan masofani o‘lchab ko‘rdi. Xuddi shu davrda Aleksandriyalik Ktesiy pnevmatik qo‘lda otadigan snaryadni kashf qildi. U yana suv soati, turli nasoslar, gidravlik asbob, olovga qarshi nasosni yaratdi. Ellin davrida fanlar differensiyalashib va sistemalashib bordi. Aristotelning shogirdlari va muxlislari bo‘lmish peripatetiklar tarixi bu differensiyalash va sistemalashish jarayonining yaqqol misolidir. Peripatetiklar falsafa maktabiga rahbarlik qilgan Arastuning vorisi Feofrast faqat faylasufgina emas, balki olim ham edi.

Feofrastdan so‘ng maktabga Straton rahbarlik qildi. Qadim zamonda u «fizik» degan laqab olgan edi. Stratonning alohida xizmati shundan iboratki, u tabiat hodisalarini tadqiq qilishda eksperiment usulini tadbiq etishga intilgan edi. Stratonning shogirdlari orasida Samos orolida tug‘ilib o‘sgan, ajoyib astronom Aristarx yer va boshqa sayyoralar quyosh atrofida aylana-di degan farazni ilgari surdi. Lekin ilm-fanning o‘sha vaqtdagi darajasi va u o‘zi kashf qilgan geliosentrik sistemaning to‘g‘riligini boshqa olimlarga ishonarli tarzda isbot qila olmas edi.

Aleksandriya matematiklaridan birinchisi Yevklid edi. U o‘z davri falsafasining erishgan yutuqlarini tizimga soldi, umumlashtirdi va tugalladi. Uning «Ibtido» degan asosiy asari ikki ming yildan oshiq vaqtdan beri boshlang‘ich geometriya darsliklari uchun asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Taxt vorisi, bo‘lg‘usi Ptolemey IV Filopatorning tarbiyachisi, Museyon kutubxonasining mudiri kirenalik Eratosfen atoqli geograf, astronom, matematik va faylasuf edi. U yer aylanasini uzunligini ko‘p darajada aniqlab, hisoblab chiqdi va fizik-matematik geografiyaning asoslarini yaratdi. «Geografiya» atamasini ilk bor Eratosfen ishlatdi. Aleksandriya birdan-bir fan markazi emas edi. Feofrast Afinada ishlagan. Arximed janubiy Italiyadagi Sirakuzada yashagan. Atoqli injener-ixtirochi bo‘lmish Arximed nazariy mexanika, gidrostatika, sferik

geometriya va trigonometriyaning asoslarini yaratgan yirik nazariyotchi olim edi. Olim katta sonlarni hisoblab chiqishning arifmetik metodlarini yaratishda dastlabki qadamlarni qoʻydi. U atoqli astronom ham edi.

Mil.avv. III asrda tibbiyot ancha taraqqiy qildi. Misrdan anatomiyaning yutuqlari, Misr va Bobildan dori-darmonlar tayyorlash va tadbiq qilishning ming yillik tajribasi oʻzlashtirildi. Yunon tibbiyot nazariyasi va amaliyotini qadimgi Sharq tajribasi bilan birga qoʻshish Aleksandriyadagi tibbiyot maktabida oʻz ifodasini topdi. Gerofil bu maktabning asoschisi hisoblanadi. U odamning tasviriy ifodasini yaratgan, tashxis usullarini aniqlagan, dori-darmonlarga katta ahamiyat bergan tabib edi. U qisman Salavkiylar hududida, qisman Aleksandriyada ishlagan edi.

Mil.avv. II asrda yashagan nikeyalik Gipparx atoqli astronom va geograf edi. U bir qancha astronomik asboblarni takomillashtirdi va ixtiro qildi. Kecha-kunduzning tengligi kashfiyotini Gipparxga nisbat berdilar. Ammo bu kashfiyot Bobilda qilingan boʻlishi mumkin. U harakatsiz yulduzlar katalogini tuzdi. Bu katalogda 900 ga yaqin yulduzlar oʻz oʻrnini topgan. Gipparx taqvimni, yerdan oygacha boʻlgan masofani, yer va quyosh massasi haqidagi bilimlarni aniqladi. Lekin ikkinchi tomondan bu mashhur olim samoslik Aristarxning geliosentrik nazariyasiga qarshi chiqdi va oʻz obroʻyi uchun geliosentrik tizimni mustahkamlab keldi. Lekin bu nazariyaning xatoligini tan olmadi. Gipparx ekvatorni 360 ga taqsimlab, uzunlik va kenglik tushunchasini joriy qildi. Mil.avv. I asrda Geron mexanika bilan muvaffaqiyatli shugʻullangan edi.

Harbiy ish rivojlandi, qalʼa, shaharlar mustahkam inshootlar bilan oʻrab olina boshlandi. Bunga qarshi shaharlarni qamal qilish texnikasining yangi xillari ixtiro qilindi. Qalʼalarni qamal qilish uchun mashhur taranlardan tashqari, gʻildiraklar ustiga oʻrnatilgan maxsus harakatlanuvchi minoralar – geliorlar (shahar olarlar) paydo boʻldi. Bu moslamalar dushman shahri devorlariga baravar yoki balandroq qilib yasalar edi. Harakatlanuvchi minora ichida askarlar, zaxira oʻqlari va tosh otuvchi toʻplar joylashtirilgan.

Savdo, dengiz kemalari takomillashtirildi. Ular koʻpincha ochiq dengizga, okeanga ham chiqar edi. Mil.avv. II asrda yunon Gippal Hindistonga kemada safar qilganida ilk bor musson shamollaridan foydalandi. Dengizchilikning rivojlani-

shu mukammal bo'lgan portlar va savdo sohillarida ombor va boshqa yordamchi binolar qurishni talab qildi.

Ellin me'morchiligida umumiy va xususiy kishilar foydalanadigan binolar ko'pchilikni tashkil qilardi. Klassik Yunonistonning me'morchiligida asosiy bino pripter – xususiy uy bo'lgan. Shaharlar reja asosida qurilib, bir-birini kesishib o'tadigan to'g'ri burchakli tik ko'chalari bilan chiroyli ko'rinar edi.

Mil.avv. I asrda Pont podsholigida ixtiro qilinib, ishlab chiqarishda o'z o'rnini topgan suv tegirmoni ellin jamiyatidagi eng yuqori texnika yutug'i edi. Kam sonli suv tegirmonlari bilan bir qatorda yuz yillar davomida hayvonlar kuchi bilan aylantiriladigan tegirmonlar, yorg'ichoqlar va hatto oddiy o'g'irlar keng rasm bo'lib keldi. Konchilik ishi texnika jihatidan eng qoloq va mehnatning eng og'ir sohasi bo'lib, konlarda qullar, hukm qilingan jinoyatchilar, harbiy asirlar ko'plab halok bo'lar edi.

3. Adabiyot va san'at. Bu davrda Sharq va yunon madaniyatining o'zaro ta'sirida Bobil va Misrda tarixshunoslikning rivoji ko'zga tashlanadi. Mil.avv. III asrning I yarmida bobillik kohin Beroesning «Xaldeya tarixi» va misrlik kohin Manefonning «Misr tarixi» nomli asarlari yaratildi. Har ikkala asar ham yunon tilida bo'lsa-da, mahalliy manbalar asosida yozilgan edi. Afsuski, ikkala asardan ham bizgacha faqat ayrim parchalar yetib kelgan. Manefon asarida fir'avnlarning eng qadimgi zamonlardan to Aleksandrgacha bo'lgan podsho sulolalarining xronologik ro'yxati berilgan. Tarixchi Apollodor keyinchalik parfiyaliklar tarixini yozdi.

Ellin davri tarixiy va falsafiy to'plamlarida insonning jamiyatga, o'z davrining siyosiy-ijtimoiy muammolarga munosabati ochib beriladi. Tarixiy asarlarning sujetlari bo'lib yaqin o'tmish voqealari xizmat qildi. Ko'pincha tarixchilar o'z asarlarini badiiy adabiyot chegarasida shakllantirdilar: bayon qilish mohirona fojialashtirildi, kuchli his-tuyg'uga qaratilgan ritorik usullar ishlatildi. Ana shunday usulda Kallisfen (mil. avv. IV asr oxiri) va Aleksandriyalik Klitarx (mil.avv. III asr o'rtalari) makedoniyalik Aleksandr tarixini, Timey (mil.avv. III asr o'rtalari) Yunoniston tarixini mil.avv. 280-yildan – 219-yilgacha, Kleomen islohotlari tarafdori Filarx (mil.avv. III asr oxiri) ana shunday usulda bayon qildilar. Bu usuldan farq qilgan holda boshqa tarixchilardan Ptolemey I (mil.avv. 301-yildan keyin) tomonidan yozilgan Aleksandr yurishlari tarixi, kardiylik Gieronim

(mil.avv. III asr o'rtalari) diadoxlar urushlari davri tarixini faqat quruq dalillarni qat'iy bayon qilish usulini qo'lladilar.

Ellin davrida fan sifatida adabiyotshunoslik kurtaklaridan filologik tanqid Gomerdan boshlab klassik mualliflar asarlarini asl nusxalarini qayta tiklash va sharhlash shaklida yuzaga keladi. Filologlar mantiqiy asosda yunon grammatika tizimini ishlab chiqdilar.

Aleksandriya Museyoni yunon adabiyotining muhim markazi bo'lib qoldi. Bu yerda va boshqa joylarda rivoj topgan adabiy oqim «Aleksandriya adabiy oqimi» deb nom olgan. Bu ellin jamiyati yuqori tabaqasining kayfiyatini ifodalagan poeziya edi. Aleksandriya shoirlarining boshlig'i Kallimax edi. U Museyon kutubxonasining mudiri va taxt vorisining tarbiyachisi edi. Kallimax kutubxona katalogini tuzdi. Shu bilan birga, Kallimax mifologik, tarixiy va adabiy mavzularda yozilgan, hajmi jihatidan kichik-kichik she'rlar muallifidir.

Kallimaxning kichik zamondoshi Feokrit Aleksandriyadagi eng taniqli shoir edi. U kichik-kichik lirik-dramatik poema va g'oyalar muallifi bo'lib tarixga kirdi. Kallimax o'z asarlarida qishloq va shahar hayotining tinch manzaralarini ideallashtirgan, cho'ponlar hamda shaharlik erkak va ayollarning hissiy kechinmalarini madh etuvchi nozik lirikdir.

Aleksandriya poeziyasidan tashqari, ellin davrida yangi Attika komediyasi katta ahamiyat kasb etdi. Bu davrdagi Attika komediyasining asosiy vakili Menandr edi. Misrdan topilgan papirus o'ramlari tufayli uning komediyalari bizga ma'lum bo'ldi. Menandr komediyalari sujeti oilaviy, maishiy dramalardan iborat. Menandr komediyalari baxtiyorlik bilan tamomlanadi.

Ellin davrida tasviriy san'at ajoyib yutuqlarga erishdi. Bu davrda Sharq va yunon an'analarini bilan qo'shilgan anchagina me'moriy yodgorliklar bunyod etilgan. Hashamat va ulug'vorlikka intilish ularning ko'plari uchun xos bo'lgan xususiyatdir. Haykaltaroshlik san'ati bu davrda ancha ravnaq topgan edi. Ammo uning mazmuni klassik davr an'alaridan farq qildi. Ma'budalar va qahramonlarning ideallashtirilgan va umumlashtirilgan haykallari orqaga surilib, tabiiy tarzda gavdalantirilgan va tasvirlangan shaxsning individualligi yaqqol ko'rsatilgan portretlar oldingi qatorga chiqdi. Ellin davrining haykaltaroshlari yaratgan yakka va guruh tarzidagi haykallarda jismoniy va ruhiy azob, kurash, g'alaba, o'lim tasvirlab ko'rsatilar edi. Mil.avv. IV asrda Sikion maktabining portret chizuvchi rassomi

mashhur Apelles o'zining Makedoniyalik Aleksandrning «Rok-sand bilan to'yi», «Dengizdan chiqayotgan Afrodita» tasviri bilan shuhrat qozondi.

Rodos oroli mil.avv. 304-yilda shaharning dushman qamali-dan ozod bo'lgani munosabati bilan shahar homiysi – quyosh xudosi Geliosning 36 metrlik haykalini bronzadan Lisippning shogirdi Xares 12 yil davomida bunyod qildi. Bu ulug'vor haykal uzoq vaqt orolda qad ko'tarib turdi. Bu qadimgi dunyodagi yetti mo'jizadan biri edi.

Peyzajni mustaqil tasvirlab, unda yoki uning o'rtasida aso-siy sujetni aks ettirish haykaltaroshlikda yangilik edi. Bu usul klassikada ma'lum emas edi. Shu bilan bir qatorda haykalta-roshlikda dabdabali yo'nalish mavjud bo'lib, u ellin hukmdor-larining haykallari soyasida namoyon bo'ldi. Ellin haykaltaro-shligida mil.avv. IV asrning mohir ustalariga borib taqaladigan bir necha yo'nalishni ko'rish mumkin. Afina va Aleksandriyada Praksitelga borib taqaladigan san'at asarlarini tomosha qilayot-gan inson o'ziga to'q kishilarning didiga mo'ljallangan san'at asarlarini ko'rish mumkin edi.

Afrodita va boshqa ma'budalarning yalang'och haykallari bu yo'nalishga xos xususiyatdir. Dramatizmga to'la Pergam mak-tabi haykaltarosh Skopasga borib taqaladi. Pergam mehro-bining frizi mazkur maktabning ajoyib yodgorligi bo'lib, unda ma'budlarning gigantlar bilan kurashi tasvirlanadi. Bu Pergam va boshqa ellin davlatlarining jangovar galat (kel't) qabilalari bi-lan olib borgan og'ir kurashlarining ramzi edi. Rodosning mash-hur haykaltaroshlik maktabiga Asipp asos soldi. Bu maktabda yaratilgan haykallarda asosan baquvvat atletlar tasvirlandi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Вощина А. И. Античное искусство. – М.: 1962.
2. Лурье С. Я. Архимед. – М., – Л.: 1945.
3. Соколов В. В. Античная философия. – М.: 1958.
4. Тарн В. Эллинистическая цивилизация. – М.: 1949.
5. Дройзен И.Г. История эллинизма. В 3 т. – СПб. 1997–1999.
6. Эллинизм: Восток и Запад / отв. ред. Е.С. Голубцова. – М.: 1992.
7. Эллинизм: экономика, политика, культура / отв. ред. Е. С. Голуб-цова. – М.:1990.

Asosiy sanalar

| | |
|--------------------------|--|
| Mil.avv. IV asr | Afinada «Epikur maktabi» paydo bo'ldi. |
| Mil.avv. III asr | Ktesiy snaryadni kashf qildi. |
| Mil.avv. III asr I yarmi | Bobillik kohin Beroes «Xaldeya tarixi» va Misr kohini Manefon «Misr tarixi» asarlarini yozdilar. |
| Mil.avv. III-II asrlar | Arastu maktabida aniq va tabiiy fanlar o'rganildi. |
| Mil.avv. III-II asrlar | Ellin madaniyati davri. |
| Mil.avv. II asr | Astronom va geograf Gipparx yashagan davr. |
| Mil.avv. I asr | Pont podsholigida suv tegirmoni ixtiro qilindi. |
| Mil.avv. I asr | Geron mexanika bilan shug'ullandi. |

QADIMGI YUNON METROLOGIYASI

YUNON UZUNLIK O'LCHOVLARI

daktil – 18,5 mm.
plefr – 29,6 m.
Attika stadiysi – 177,6 m.
Olimpiya stadiysi – 192,27 m.

Yunon pul birliklari

oltin stater – 8,4 g.
Attika mini – 341,2 g.
draxma – 4,366 g.
(Attika) kumush talanti – 26,196 kg.
kotila – 0,274 l.
obol – 1/6 draxma – 0,728 g.

QADIMGI YUNONISTON TARIXI BO‘YICHA TAVSIYA ETILADIGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: 1998-yil.
2. Боннар А. Греческая цивилизация. – М.: 1995.
3. История древней Греции /Под ред. В.И.Кузицина. – М.: 1986, 2000.
4. Лурье С.Я. История Греции. СПб., 1993.
5. Курциус Э. История Древней Греции. В 5 т. – Минск: 2002.
6. Хаммонд Н. История Древней Греции. – М.: 2003.
7. Немировский А. И. История древнего мира. – М.: 2000.
8. Куманецкий К. История культуры древней Греции и Рима. – М.: 1990.
9. Немировский А.И., Ильинская Л.С., Уколова В.И. История Древнего мира. Греция и Рим. в 2-х. т. – М.: Дрофа, 1996.
10. Андреев Ю.В. От Евразии к Европе. Крит и Эгейский мир в эпоху бронзы и раннего железа (III начало I тыс. до.н.э.). СПб. 2002.
11. Молчанов А.А. Социальные структуры и общественные отношения в Греции II тысячелетия до н.э. – М.: 2000.
13. Пендлбери Дж. Археология Крита. – М.: 1950.
14. Томсон Дж. Исследования по истории древнегреческого общества. Доисторический эгейский мир. – М.: 1958.
15. Ленцман Я. А. Рабство в микенской и гомеровской Греции. – М.: 1963.
16. Лурье С. Я. Язык и культура микенской Греции. – М., – Л.: 1957.
17. Пендлбери Ж. Археология Крита. – М.: 1950.
18. Штол Г. Шлиман. – М.: 1965.
19. Чиглинцев Е.А. Античное рабство как историографическая проблема. – Казан. 2000.
20. Блаватская Т.В. Черты истории государственности Элады. СПб. 2003.
21. Высокий М.Ф. История Сицилии в архаическую эпоху. Ранняя греческая тирания конца VII – середины V в.до н.э. СПб. 2004.
22. Фролов Э.Д. Рождение греческого полиса. СПб. 2004.
23. Шишова И.А. Раннее законодательство и становление рабства в Античной Греции. – Л.: 1991.

24. Бузескул В.П. История афинской демократии. СПб. 2003.
26. Дэвис Дж.К. Демократия и классическая Греция. – М.: 2004.
27. Карпюк С.Г. Общество политика и идеология классических Афин. – М.: 1994.
28. Лосев А.Ф. Платон. Аристотель / А.Ф. Лосев. А.А.Тахо-Годи. – М. 2000.
29. Печатнова Л.Г. История Спарты (Период архаики и классики). СПб. 2001.
30. Фролов Э.Д. Греция в эпоху поздней классики. (Общество. Личность. Власть). СПб. 2001.
31. Бенгтсон Г. Правители эпохи эллинизма. – М.: 1982.
32. Бикерман Э. Государство Селевкидов. – М.: 1985.
33. Дройзен И.Г. История эллинизма. В 3 т. СПб. 1997–1999.
34. Жигунин В.Д. Международные отношения эллинистических государств в 280–220 гг. до. н.э. – Казан. 1980.
35. Маринович Л.П. Греки и Александр Македонский: к проблеме кризиса полиса. – М.: 1993.
36. Шахермайр Ф. Александр Македонский. – М.: 1984.
37. Эллинизм: Восток и Запад / отв. ред. Е.С. Голубцова. – М.: 1992.
38. Эллинизм: экономика, политика, культура / отв. ред. Е. С. Голубцова. – М.: 1990.
39. Конноли П. Греция и Рим: энциклопедия военной истории. – М.: 2000.
40. Лосев А.Ф. Античная философия истории. СПб. 2000.
41. Суриков И.Е. Проблемы раннего афинского законодательства. – М.: 2004.
42. Фролов Э.Д. Факел Прометея: Очерки античной общественной мысли. СПб. 2004.
43. Йегер В. Пайдейя. Воспитание античного грека. В.3 т. Т. I, II. – М.: 1997–2001.
44. Скржинская М.В. Будни и праздники Ольвии в VI–I вв. до н.э. СПб. 2000.
45. Ярхо В.Н. Древнегреческая литература: собрание трудов. В 4 т. – М.: 2000–2002.
46. Зеленский Ф.Ф. Эллинская религия. – Минск: 2003.
47. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: 2000.
48. Немировский А.И. Мифы древности: Эллада. – М.: 2000.

49. Маринович Л.П. Судьба Парфенона / Л.П.Маринович, Г.А.Кошеленко. – М.: 2000.
50. Менар Р. Мифология в древнем и современном искусстве. – Минск. М.: 2000.
51. Лосев А.Ф. История античной эстетики. В 8 т. – М.: 2000.
52. Гомер. Илиада. – Т.: 1995–2000.
53. Альтман М. С. Греческая мифология. – М., – Л.: 1937.
54. Блаватский В. Д. Архитектура античного мира. – М.: 1939.
55. Блаватский В. Д. Греческая скульптура. – М., – Л.: 1939.
56. Борухович В. Г. История древнегреческой литературы. Классический период. – М.: 1962.
57. Виппер Б. Р. Искусство Древней Греции. – М.: 1972.
58. Воцанина А. И. Античное искусство. – М.: 1962.
59. История греческой литературы. – М., – Л.: 1946–1955, т. I–II.
60. Ю. В. Яковец. История цивилизаций. – М.: ВЛАДОС. 1997.
61. История древнего мира: Восток, Греция, Рим./И. А. Ладынин и др. – М.: 2004.

UCHINCHI QISM

I BOB

QADIMGI RIM

Rim tarixiga kirish. Italiya va uning qadimgi aholisi

1. Apennin yarim orolining geografik o'рни va tabiiy sharoiti. 2. Qadimgi Rim tarixi manbalari. 3. Rim tarixi tarixnavisligi. 4. Rim tarixini davrlashtirish. 5. Apennin yarim orolining qadimgi aholisi.

1. Apennin yarim orolining geografik o'рни va tabiiy sharoiti. Qadimgi Italiya (yunoncha «Buzoqlar mamlakati») deb, dastlab o'zining sero't yaylov-o'tloqlari bilan ma'lum bo'lgan Apennin yarim oroli janubi aytilgan. Apennin yarim oroli O'rtayer dengizi dunyosining markazida joylashgan bo'lib, qadimda qulay geografik va iqlim shart-sharoitlariga ega bo'lgan. Italiyani sharq, janub va g'arbdan Ligur, Tirren, Ioniya va Adriatika dengizlari o'rab, uni O'rtayer dengizining barcha mamlakatlari bilan bog'lagan edi. Mil.avv. I ming yillikda Italiyaning shimoliy hududlari mo'tadil iqlim zonasida bo'lib, Apennin yarim orolining qolgan hududlari iqlimi iliq va yumshoq edi. Shimolda uning tabiiy chegaralari Alp tog'lari, janubda Messin qo'ltig'i uni Sitsiliyadan ajratib turar edi. Italiyaning g'arbiy qirg'og'i qulay buxtalarga boy bo'lib, dengizchilik va savdning rivojlanishiga turtki berdi.

Italiyaning ko'pgina qismini tog'lar egallaydi. Faqatgina 20 % hududi tekisliklardan iborat. Etruriya, Kampaniya va Apuliyaning unumdor yerlari, Latsiya tekisligi va Po daryo vodiysi dehqonchilik uchun qulay bo'lganligi uchun bu yerda tariq, bug'doy, polba ekilgan. Qadimda bog'dorchilikda zaytun daraxtlari va uzumchilik bilan shug'ullanganlar. Qadimgi Italiya suv va o'rmonlarga boy edi. Qadimda foydali qazilmalar ko'p emas edi: temir, mis, qo'rg'oshin, oltin, kumush, qurilish toshi, marmar, loy, tuz.

Qadimgi Italiyani geografik jihatdan 3 qismga bo'lish qabul qilingan:

1. Shimoliy (Liguriya, Alp orti Galliyasi va Venetsiya);

2. Oʻrta (Etruriya, Latsiya. Kampaniya, Umbriya, Pitsen va Samniy);

3. Janubiy (Apuliya, Kalabriya, Lukaniya va Bruttia).

Apennin togʻlari janubiy-sharqqa tomon choʻzilib, Arelin tumanida Adriatika dengizigacha yetib boradi. Yarim orolning shimoliy qismi markaziy va janubiy qismidan ajratib turadi. Uning shimoliy iqlimi oʻrta Yevropa iqlimiga yaqinroq. Yarim orolning bu qismi juda hosildor boʻlib, keyinchalik Italiya deb atala boshlangan. Dastlab bu nom yunonlar Italiya deb atagan aholi yashagan Kalabriyaning janubiy tumanlariga nisbatan aytilgan.

Mil.avv. V asrda Po daryo vodiysiga gallar koʻchib kelib, u yerdan etrusklarni siqib chiqardilar. Shu sababli, bu oʻlka Rimda «Sizalp Galliyasi» deb nom oldi. U Sispadan Galliyasi, Po daryosining oʻng qirgʻogʻi va Transpadan Galliyasi (daryodan shimol tomondagi viloyat)ni oʻz ichiga oladi. Italiyaning oʻzi Apennin janubidan boshlanadi. Markaziy Italiyaning gʻarbiy qismi madaniyat tarixida oʻz yer tuzilishiga koʻra, muhim rol oʻynadi. Bu yerda etrusk (hozirgi Florensiya), lotin markazi Rim, Kampaniya (Kapuya va Neapol bilan) kabi uch tekislik yotadi. Bu yerdan kemachilik uchun qirgʻoqlari qulay tabiiy portlari boʻlgan Tibr daryosi oqib oʻtadi.

Lotin tekisligining markazida Tibr daryosi va shimoliy-sharqdan Sabin, sharqdan Alban, janubdan Volsk togʻlari bilan oʻrab turishi yarim orol tarixida lotin xalqlarining yuksalishiga sabab boʻldi. Italiyaning sharqiy qismi togʻlik boʻlib, janubga tomon mars, piligin, marrusen, vistenlar vatani boʻlgan yovvoyi Sabin togʻlari choʻzilib ketadi. Undan soʻng Samniy tepaliklari yotadi. Janubiy Italiyaning gʻarbiy qismida samniylarga qarindosh togʻli qabilalar joylashgan togʻlik Lukaniya va Bruttia yotadi. Sharqiy qismida suvsiz Apuliya va Kalabriya viloyatlari boʻlib, bu yerda Tarent qoʻltigʻi orqali Yunonistondan kolonistlar kelgan. Bu yerda Tarent, Regey, Kroton, Metapont, Posidoniya, Eleya kabi koʻp sonli yunon koloniyalari barpo etilib, qadimda Buyuk Yunoniston deb atalgan.

Qadimgi Rim tarixida Sitsiliya oroli madaniyati muhim oʻrin tutadi. Orolning sharqiy va janubiy hududlarini mil.avv. VIII asrdan boshlab yunonlar egalladilar. Bu yerga ilgariroq finikiyaliklar kelib, Panorm (hozirgi Palermo) va Lilibey (hozirgi Marsel) shaharlariga asos soldilar. Qadimdan Italiyada apelsin va limon daraxtlari oʻstirilgan. Italiyaga xurmo va anorni karfagenliklar

olib keldilar. Yunonistonga qaraganda, Italiyada hosildor yerlar ko'proq. Ayniqsa, Po daryo vodiysi, Kampaniya viloyati sikurn va falern navli vinolari bilan mashhur edi. Italiyada dehqonchilik uchun juda ko'p botqoq yerlar quritilib, sun'iy sug'orish ishlari amalga oshirildi. Bu ishning mohir ustasi etrusklar edi. Mamlakatda metall juda kam bo'lgani uchun u chetdan olib kelingan. Faqat Etruriyadan mis va qo'rg'oshin, Elba orolidan temir qazib olingan. Metallga ishlov berishda etrusklar katta yutuqlarga erishdilar.

2. Qadimgi Rim tarixi manbalari. Qadimgi Rim tarixining an'anaviy xronologik chegarasi Rim shahrining barpo qilinishi (mil.avv. 754–753-yillar)dan boshlanib, G'arbiy Rim imperiyasining qulashi (476-yil) bilan tugallanadi. Rim tarixini o'rganishda turli xil manbalar: Rim va Yunon tarixchilarining asarlari, tabiiy, ilmiy va badiiy adabiyot, huquqiy yodgorliklar, arxeologiya, epigrafika, numizmatika va papirologiya ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Qadimgi Rim tarixi bo'yicha moddiy manbalar xilma-xil bo'lib, Italiyaning paleolit va neolit davridan dalolat beradigan tosh qurollar, sopol idishlar, qoyatosh tasvirlari mavjud. Shimoliy va O'rta Italiyada etrusk madaniyatiga tegishli bo'lgan sag'analar, uy-joy, ibodatxona qoldiqlari topilgan. Rim shahrining o'zida Palatin, Eskvilin va boshqa tepaliklardan hamda Rim forumidan ko'p sonli qabrlar, ibodatxona poydevorlari, ona bo'riining jez haykali va Serviy Tulliy davridagi shahar devori qoldiqlari qazib ochilgan. Italiyaning boshqa shaharlarida ko'p sonli arxeologik yodgorliklar mavjud. Jumladan, milodiy 79-yilda vulqon otilishi natijasida kul ostida qolib ketgan Pompeya va Gerkulanum shaharlari arxeologlar tomonidan to'la qazib ochilgan. Bu shaharlardagi ko'chalar, uylar va ibodatxonalar to'laligicha saqlanib qolgan va mil. avv. I ming yillikdan milodiy II asrgacha mavjud bo'lgan shahar me'morchiligi to'g'risida boy ma'lumotlar beradi.

Moddiy madaniyat yodgorliklarida yozuvlar juda ko'p. Qazib ochilgan inshootlardan etrusk, lotin va yunon yozuvlari topilgan. Bu yozuvlar bino devorlari, sopol idishlar, sag'analar va toshlarga bitilgan. Rim tarixi bo'yicha eng qimmatli manbalardan biri bu yozma adabiyotdir. Rim yozuvi mil.avv. VI asrda paydo bo'ldi. Rim tarixi bo'yicha eng birinchi rasmiy hujjatlardan kalendar (taqvim)ni ko'rsatish mumkin. Kalendar Rim koinlari – pontifiklar tomonidan olib borilib, unda yig'ilishlar, sud va boshqa fuqarolik ishlarini amalga oshirish, diniy tao-

milga ko'ra ruxsat etiladigan hamda taqiq etiladigan kunlar belgilab qo'yilgan. Respublika davridan yil hisobi oliy mansabdor shaxs – konsullar nomi bilan yuritilgan. Konsullar ro'yxati konsul fastlari deb atalgan. Rim lashkarboshilarining o'tkazgan zafar tantanalarini hisobga olib borish zafar fastlari deb nomlangan. Bundan tashqari, Rim koinlari boshlig'i Buyuk pontifik har xil tabiat belgilari (quyosh va oy tutilishlari), alohida bayramlar, urushlar, non narxining ko'tarilishi va h.k yozib borgan. Bu Rim tarixiy hikoyasining ilk janri bo'lib, yil bo'yicha yozilgan yozuvlar, annallar (annales) yoki yilnomalar deb atalgan. Bunday yilnomalar mil.avv. V–IV asrlardan tuzilgan. Mil.avv. 320-yildan Buyuk pontifik Publiy Mutsiy tomonidan «Buyuk yilnomalar» nomi bilan 80 kitobda jamlangan. Ular Rim shahriga asos solinishidan boshlanib, Rim tarixi bo'yicha asosiy manba hisoblanadi. Qadimgi Rimda mashhur kishilar sharafiga qisqa yozuvlar (elogiyalar) tuzilgan. Mil.avv. III asrdan Rim xalqaro siyosatda yetakchi rol o'ynashi bilan uning tarixi to'g'risida boy ma'lumotlar to'plana boshlandi.

Mil.avv. II asrda Polibiy kabi yunon yozuvchilarining asarlari Rim tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Rimdagi fuqarolar urushi davri Gay Salliyustiy Krispning tarixiy monografiyalarida aks etdi («Katalina fitnasi», «Yugurta urushu»). Rim respublikasining so'nggi davridagi yirik siyosiy arboblari Sitseron va Sezarning asarlari, ilk imperiya davrida Tit Liviyning Rim tarixi, milodiy I asrda Velley Paterkulning ham shu nomdagi asarlari yaratildi. Tit Liviyning shaharga asos solganidan «Rim tarixi» asari tarixida Rimning ichki va tashqi siyosati, diniy hayoti to'g'risida boy ma'lumotlar berilgan. Velley Paterkulning ikki jildli asarida Rim butun dunyo markazi sifatida tasvirlangan.

Mil.avv. I asr so'nggida Rimda yashagan galikarnaslik yunon Dionisiyning «Rim qadimiyatlari» nomli 20 ta kitobida Rimning ilk etnik, ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixi batafsil tasvirlanadi. Bu kitoblardan 9 tasi to'la saqlanib qolgan bo'lib, mil.avv. 442-yilgacha bo'lgan voqealar bayon qilinadi. Rim tarixshunosligining eng yirik vakili Tatsit (milodiy I asr II yarmi – I asr boshlari) asarlarida milodiy I asrdagi voqealar va Rim tarixiga oid german qabilalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

II–IV asrlar tarixiga oid asarlar to'la saqlanmagan. Ularning ichida IV asrda tuzilgan «Avgustlar tarixi yozuvchilari», «Imperatorlar tarjimayi hollari» kabi to'plamlarni ko'rsatish mumkin.

Soʻnggi imperiyaning yirik tarixchisi Ammian Martsellin asarlarida tarixiy voqealar milodiy 378-yilgacha bayon qilingan. Qadimgi Rim tarixi boʻyicha muhim maʼlumotlar yunon mualliflari: Plutarx (mil.avv. II asr), Appian (II asr) va Dion Kassiy (III asr) asarlarida mavjud.

Bundan tashqari, tarixiy voqealarning borishini tiklash uchun Askaniy Pedian (milodiy I asri), Lutsiy Anney Flor (II asr), Evtropiy (IV asr) kabi imperiya davri yozuvchilarining yirik asarlari, har xil kompendiyalar, yozuvchilarning yirik asarlari, xronografiyalar va obzorlarni koʻrsatish mumkin.

Rim shahrining arxeologik yodgorliklari alohida ahamiyatga ega. Bu yerdan topilgan qabrlar, uy-joylar, jamoat binolari, mudofaa devorlari, Rim forumi va suv quvurlari muhim arxeologik manba boʻlib xizmat qiladi. Rim porti Ostiya toʻla oʻrganilgan. Rimdagi Kolizey, hammomlar qoldiqlari, Trayan kolonnasi, Rim devori qoldiqlari saqlanib qolgan. Shimoliy Afrikada, Fransiyaning janubida, Ispaniya, Suriya hududida qadimgi rim davriga tegishli meʼmoriy inshootlar qoldiqlari saqlanib qolgan. Italiyalik arxeologlar hozirgi kungacha bu yodgorliklarni tarixiy-madaniy jihatdan toʻla tadqiq qilib, Rim tarixini qayta tiklashda ilmiy jihatdan qimmatli boʻlgan 100 ga yaqin tadqiqotlarni eʼlon qildilar.

Milodiy 79-yil 24-avgustda Vezuviy vulqoni otilib, Pompey va Gerkulanum shaharlari lava kulining qalin qatlamlari ostida qoldi. 1748-yil Pompey shahrini qazish boshlanib, koʻchalar, maydonlar va uylar ochila boshlandi. Pompeyda teatr binosi, amfiteatr, ibodatxonalar, hammomlar, sport maydonlari, shaharning bosh maydoni – forum qazib ochilgan. Rimning etrusklar davri, respublika va imperiya davrlarida dinga munosabatini qimmatli maʼlumotlar mavjud boʻlgan qadimgi kohinlar kollegiyasi jadvallari, qabrtosh yozuvlari, nasroniy dini kitoblari, nasroniy tarixchilarning asarlari orqali bilish mumkin.

Yozuvlar. Qadimgi Rim tarixiga oid turli yozuvlar saqlanib qolgan. Hujjatli manbalar haqida antik mualliflar asarlarini oʻqib maʼlumot olish mumkin. Oʻn ikki jadval qonunlari matnlarining parchalari huquqshunos va boshqa mualliflar asarlarida mavjud, lekin bunday yodgorliklar juda kam. Tarixchilarning asarlarida shartnomalar, qonunlar saqlanib qolgan.

Rimning imperiya davridan imperatorlarga bagʻishlangan yozuvlar, qabr toshidagi yozuvlar, katta inshootlar devoridagi yozuvlar, imperator farmonlari, senat qarorlari (mil.avv. III

yildagi agrar qonun, manisipiylar to'g'risidagi Yu. Sezar qonuni), Vespasianning hokimiyati to'g'risidagi senat qarori, Antoninlar davridagi kolonat munosabatlari to'g'risidagi hujjatlar, xudolarga murojaat va boshqalar. Jami 10 mingga yaqin hujjatlar saqlanib qolgan. Misrning Rim imperiyasining turli bosqichlaridagi hayoti to'g'risida ma'lumot beradigan papirus yozuvlari Misrda topilgan. Rim tarixiga oid manbalardan biri qadimgi tangalar hisoblanadi.

Rim mifologiyasi, falsafa, adabiyot, komediya kabi yozma yodgorliklari bizgacha juda katta miqyosda yetib kelgan. Shu bilan birga, Rim imperiyasi qaramog'ida bo'lgan Italiyadan tashqari Yevropaning boshqa hududlarida, Osiyo, Afrikada ko'p miqdorda me'moriy inshootlar: saroy-ibodatxona, mudofaa inshootlari qoldiqlari, ko'priklar, portlar saqlanib qolgan.

3. Rim tarixi tarixnavisligi. Rim tarixini o'rganish uyg'onish davridan lotin va yunon matnlarini to'plash va chop etishdan boshlandi. Antik mualliflarning asosiy asarlari XIV–XVI asrlarda izlab topildi. XVII asr oxirida fransuz olimi Abbat Tillemonning 16 tomli «Cherkov tarixi» kitobining 6 tomi Rim imperiyasi tarixiga bag'ishlangan. XVIII asrda fransuz olimi Monteske «Rimliklarning buyukligi va halokati to'g'risida mushohadalar» asarini Rim tarixini tahlil qilishga bag'ishladi. Eduard Gibbon (1737–1794-yillar) «Rim imperiyasining tushkunligi va yemirishi» nomli asarida Rim tarixini Antoninlar davridan Konstantinopolning halokatigacha – 1453-yilgacha tasvirladi. Bu asar juda ko'p manbalar asosida yaratilgan. Navbatdagi asar Bartold Georg Niburning (1776–1831-yillar) 3 tomli «Rim tarixi» bo'lib, asar jamoa davridan birinchi Puni urushigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Teodor Mommzen (1817–1903-yillar) 3 tomli «Rim tarixi», 3 tomli «Rim davlat huquqi» asarlarini yozdi. Birinchi asarda Rim hayotining barcha tomonlari yoritiladi, asosiy e'tibor siyosiy tarixga qaratiladi. Ikkinchi asarda Rim davlat muassasalari (magistratura, komisiyalar, senat, munisepial kengashlar) tizimli yoritiladi.

XIX–XX asrlarda E.Meyer, E.Paysa, G.Ferrero va boshqa olimlarning asarlarida Rim tarixining turli muammolari yoritiladi. Bu asarlarda Rim davlati va jamiyati taraqqiyoti masalalari bo'yicha turli konsepsiyalar ilgari suriladi. «Kembrij qadimgi tarixi» ko'p jildli kitobning VII tomidan Rim tarixi bayon qilinadi. IX jilddan XII jildgacha to'la qadimgi Rim tarixiga bag'ishlangan.

4. Rim tarixini davrlashtirish. Rivoyatlarga ko'ra, Rim

shahriga mil.avv. 753-yil 21-aprelda asos solingan. «Qadimgi Rim» tushunchasi oʻn ikki asrdan ortiqroq vaqtni oʻz ichiga olgan (mil.avv. 753-yil 21-apreldan boshlanib, milodiy 476-yil 23-avgustida Gʻarbiy Rim imperiyasining halokati bilan tugallandi) davlat, jamiyat va sivilizatsiya tarixini oʻz ichiga oladi. Boshida uncha ham katta polis-davlat boʻlmagan Rim mil.avv. 265-yilga kelib, butun Italiyani oʻziga boʻysundirdi. Mil.avv. II asr oʻrtalarida eng qudratli Oʻrtayer dengizi davlatiga aylandi. Milodiy I–II asrlarga kelib, Oʻrtayer dengizi qadimgi sivilizatsiyalarining ulkan madaniy merosini oʻzlashtirgan bepoyon imperiyaga aylandi. Jahon tarixida antik madaniyatning buyuk yutuqlarini qabul qilgan, oʻzlashtirgan va keyingi avlodlarga yetkazgan davlat va jamiyat sifatida Qadimgi Rim tarixi muhim ahamiyatga ega. Qadimgi Rim davlati va jamiyati tarixi uzluksiz taraqqiyot jarayonida boʻlgan iqtisodiy-siyosiy, madaniy va ijtimoiy voqealardir.

Rim tarixi uning taraqqiyotini belgilovchi tarixiy jarayonlarga koʻra, olti davrga boʻlinadi:

1. Podsholik davrida Rim (mil.avv. VIII–VI asrlar). Bu davrda urugʻ-qabila munosabatlari, tuzilmalari yemiriladi. Ilk sinfiy jamiyat paydo boʻladi va Rimning boʻlajak siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida asos boʻlib xizmat qilgan ilk davlat muassasalari shakllanadi.

2. Ilk respublika davri (mil.avv. V–III asrlar). U Italiyada quldorlik jamiyati va davlatining uzluksiz taraqqiyoti bilan belgilanadi.

3. Soʻnggi respublika davri (mil.avv. II–I asrlar). Bu davrda klassik qulchilik shakllanib, Rim Oʻrtayer dengizi davlati tashkil topadi.

4. Ilk imperiya yoki prinsipat (milodiy I–II asrlar) davri. Bu davr Rim imperiyasining oltin davri. Oʻrtayer dengizi antik sivilizatsiyasining gullab-yashnashi, iqtisodiyot va madaniyatning oʻsishi bilan belgilanadi;

5. Umumiy tushkunlik. Rim imperiyasining yemirilish xavfi (milodiy III asr). Bu davrda Rim jamiyatining barcha tuzilmalarida kuchli tushkunlik belgilari yaqqol koʻrinadi va Rim davlatchiligidan halokati xavfi tugʻiladi;

6. Soʻnggi Rim imperiyasi yoki Dominat (milodiy IV–V asrlar). Bu davr quldorlik jamiyatining yemirilishi, uning bagʻrida feodalizmning ilk belgilari shakllanishi va Gʻarbiy Rim imperiyasining qulashi bilan belgilanadi.

5. Apennin yarim orolining qadimgi aholisi. Arxeologik

qazishmalar Italiyada odamlar paleolit davrida joylashgani-
ni tasdiqlaydi. Ular dastlab g'orlarda yashaganlar va ovchilik
bilan shug'ullanganlar. Mil.avv. 1800-yillar atrofida Apennin
yarim orollariga shimoldan yangi qabilalar kelib o'rnashdilar.
Ular o'zlari bilan Terra-Marra (italyancha – «qora unumdor yer»)
dehqonchilik madaniyatini olib keldilar. Bu qabilalar suvdan
ko'tarilgan ustunlarga o'rnatilgan yoki to'g'ridan-to'g'ri qirg'oq-
da qurilgan uylarda yashaganlar. Keyinchalik bu madaniyat-
ning vakillari lotin, samniy, umbr qabilalariga bo'linib ketdilar.

Mil.avv. I ming yillik atrofida qabilalarning yangi to'liqini Vil-
lan madaniyatini (Boloniya yaqinidagi joy nomi bo'yicha) olib
keldilar. Bu madaniyat vakillari mayitlarni gulxanda yoqib,
kulini maxsus idishlarda saqlaganlar. Mil.avv. VIII asrda Itali-
yada ikki til guruhida so'zlaydigan: lotin-sikull, sabin-umbrlar
qabilalar guruhi tashkil topdi. Lotinlar dastlab qadimgi Lat-
siya hududida yashadilar. Umbrlar Tibrning yuqori qismida,
samniylar tog'li Samniy viloyati, Shimoliy Kampaniya, Apuli-
ya, Lukaniya va Bruttiyada hayot kechirganlar. Tili umbrlar va
sabin qabilalariga yaqin bo'lgan volsklar lotinlardan janubdagi
hududda joylashganlar.

Aterna daryosining so'l qirg'og'ida vestin va marusin qabi-
lari yashaganlar. Ularning ijtimoiy munosabatlari mutlaqo
ibtidoiy edi. Mamlakatning shimoliy-g'arbidagi ligurlar itali-
yaliklar kelishigacha eng qadimgi tub joy aholi edi. Jez davri
boshlarida kelgindi hind-yevropa qabilalari ligurlarni Itali-
yaning shimoliy-g'arbiga siqib chiqardilar. Italiyada joylash-
gan sikan va sikunlar ham ibtidoiy hayot kechirar edilar. Ular
dastlab Sitsiliyada yashaganlar. Keyinchalik ularni Finikiya va
yunon kolonistlari orol ichkarisiga siqib chiqardilar. Bu davr-
da Italiya hududida finikiyaliklar va etrusklar qaram kishilar
mehnatidan foydalanib, jamiyat taraqqiyotida yuqori darajaga
erishganlar. Mil.avv. I ming yillikda yarim orol aholisining aso-
siy qismini hind-yevropa qabilalari bo'lgan italiyaliklar, illiriya-
liklar va yunonlar tashkil qildi.

Yunonlar ilk bor Italiyada mil.avv. II ming yillikda pay-
do bo'ldilar. Mil.avv. VIII asrda Janubiy Italiya va Sitsiliyada
ko'plab yunon koloniyalari barpo qilina boshlandi. Janubiy
Italiyada shunday koloniyalardan Lokri, Sibaris, Tarent va Kro-
ton; Sitsiliyada esa Sirakuza, Gela va Akragant koloniyalariga
asos solindi. Yunonlar uzumchilik, zaytun daraxti, donli ekin-
lar ekish, chorvachilik bilan shug'ullandilar. Yunon shaharla-

rida hunarmandchilik rivojlanib, Tarent qizil zarbof matosi, Regiy bronza buyumlari, Sirakuza kemalari, Qum shahri kulolchilik bilan shuhrat qozondi. Yunon koloniyalarida savdo-hunarmandchilik, dehqonchilik gullab-yashnadi. Bu koloniyalar o'z ona vatanlari – Bolqon Yunonistoni, Kichik Osiyo va boshqa hududlar bilan faol savdo aloqalarini yo'lga qo'ydilar. Vaqt o'tishi bilan bu hudud Buyuk Yunoniston nomini oldi. Yunon koloniyalarida ijtimoiy-siyosiy hayot o'ta ziddiyatli edi. Yunonlar va ularning koloniyalari joylashgan hududlardagi xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, davlat tuzumi, madaniy turmush tarzi o'zaro bir-biriga ta'sir qilib, taraqqiyot jarayonida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi.

Mil.avv. I ming yillik o'rtalarida Po daryosi vodiysida kel't qabilalari o'rnashdilar. Ular bosh kiyimlarini xo'roz patlari bilan bezar edilar. Shu sababli, rimliklar ularni gall (lotincha gallus – «xo'roz») deb atadilar. Mil.avv. VI asrdan Sitsiliya va Italiyaga finikiyaliklar o'rnasha boshladilar. Mil.avv. III asrda Italiya hududi Rim istilolari natijasida yagona davlatga birlashdi. Natijada bu yerda yashagan turli qabila va xalqlar bir-biri bilan yaqinlashib, romanlashish jarayonini boshdan kechirdi. Mil.avv. I asrga kelib lotin tilida so'zlashadigan yagona italiyan xalqi shakllandi. Shu davrdan boshlab mamlakat Italiya deb atala boshlandi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Моммзен Т. История Рима – М.: 1999.
2. Конноли П. Греция и Рим: энциклопедия военной истории. – М.: 2000.
3. Хрестоматия по истории Древнего Рима/Под ред. С. А. Утченко. – М.: 1962.

Asosiy sanalar

| | |
|------------------------------------|--|
| Mil.avv. I ming yillik o'rtalarida | Kel't qabilalarining Po daryo vodiysiga kelib o'rnashishi. |
| Mil.avv. 1800-yillar atrofi | Apennin yarim orolida Terra-Marra madaniyatining shakllanishi. |
| Mil.avv. 1000-yillar atrofi | Villan madaniyatining paydo bo'lishi. |
| Mil.avv. VIII asr | Janubiy Italiyada yunon koloniyalarining barpo qilinishi. |
| Mil.avv. 754–753-yillar | Rim shahrining barpo qilinishi. |

ETRUSKLAR. RIM PODSHOLIK DAVRIDA

1. Etrusklar. 2. Rim podsholik davrida (mil.avv. 753–510-yillar).

1. Etrusklar. Gerodot, Starabon, Katta Pliniy va Tatsit etrusklar Kichik Osiyodagi Lidiyadan mil.avv. XIII asrda dengiz orqali Italiyaga kirib kelganlar, deb ma'lumot beradilar. Etrusklar, ularning kelib chiqishi to'g'risida Gerodot, Strabon, Katta Pliniy, Galikarnaslik Dionisiy ma'lumot berganlar. Tarixshunoslikda Dempster (1579–1625-yillar, u etruskologiya fanining asoschisi ham sanaladi), Puje, Maspero, Nibur va boshqalar etrusklarning kelib chiqishi bilan shug'ullandilar. Lekin hozirgacha fanda etrusklarning kelib chiqishi to'g'risida aniq bir fikr yo'q. Lotinlar ularni etrusklar yoki tusklar, yunonlar tirrenlar yoki tersenlar deb atadilar. Etrusklar tarixi bo'yicha sag'ana, dafn toshlari, qo'rg'oshin taxta, ko'za, muhrlarda mavjud bo'lgan 11 ming etrusk yozuvlari mavjud. Ularning ko'pchiligi bag'ishlov, in'om mazmunida bo'lib, qisqa yozilgan. Ularning yozuvi biror-bir tilga yoki tillar oilasiga to'g'ri kelmaydi.

Etrusklar to'g'risidagi ilk aniq ma'lumotlar mil.avv. VIII asrga tegishli. Etrusk madaniyatining asosiy yodgorliklari O'rta Italiyadagi Tibr va Arnus daryolari oralig'ida rimliklar Etruriya (hozirgi Toskana) deb atagan viloyatda to'plangan. Etruriya Liguriya, Sizalp Galliyasi, Umbriya va Latsiy viloyatlari bilan chegaradosh bo'lib, Tirren dengiziga chiqqan. Etruriya o'rmonlar, qurilish toshi, gilga boy edi. Etrusklar uchun zarur bo'lgan mis, qo'rg'oshin, qalay xomashyosi mo'l-ko'l bo'lgan. Qo'shni Ilva (Elba) orolidan etrusklar temir rudasini olganlar. Ilk arxeologik yodgorliklar etrusklarning ijtimoiy-iqtisodiyotda yuqori darajada rivojlanganidan guvohlik beradi. Villan madaniyatiga tegishli urug'-jamoqa qo'rg'onlari qoldiqlari, Etruriya shaharlarining paydo bo'lishi mil.avv. VIII asrga mansub.

Mehnat taqsimoti, ayirboshlashning rivojlanishi, jamoa tuzumining yemirilishi boy oilalarning – hukmronligini yuzaga keltiradi. Jamiyatning imtiyozli qatlami – harbiy kohinlar (lugumonlar) oqsuyak zodagonlar shakllanadi. Etruriyada qulchilik juda erta paydo bo'lgan. Qulchilikning mavjudligidan etrusk zo-

dagonlarining qo'rg'onlarida uyushtiriladigan gladiatorlar janglari guvohlik beradi. Qadimda jangda halok bo'lgan yo'lboshchilar qabri ustida asirga tushgan dushmani jang qilishga majbur etilishi orqali gladiator janglari kelib chiqqan. Oqibatda ular tomosha sifatida saqlanib qolib, bunday tomoshani etrusklardan boshqa Italiya shaharlari o'zlashtirib olganlar.

Qullar va qaram odamlardan tuzilgan qurolli guruh bilan luqumonlar qo'shni viloyatlarga hujum qilganlar, dengiz qaroqchiligi (piratlik) bilan shug'ullanganlar. Etruriya shaharlarida podsholar boshda saylab qo'yilgan. Siyosiy kurash natijasida ayrim shaharlarda podsholarning o'rnini saylab qo'yilgan lavozimlar egalladi. Podsho hokimiyati ramzlari – xivich bog'lami va unga suqilgan bolta ko'targan xizmatchilar podsho oldida borganlar, qizil zey berilgan toga, podsho o'tirgichi – kreslo rimliklarga etrusklardan o'tgan. Ko'rinishidan rimliklar oliy hokimiyat (imperuim) tushunchasini etrusklardan o'zlashtirganlar.

Etrusklar xo'jaligining asosi sug'orma dehqonchilik bo'lib, ular toshloq yerlarga suvni kanallar, yer osti suv omborlari orqali yetkazganlar. Etrusk dehqonlari toshloq yerlarning botqoqlanishini oldini olish, zax suvlarni qochirish yo'llarini bilganlar. Etrusklar Italiyada birinchi bo'lib shaharsozlik, shahar hayoti va madaniyatini barpo qildilar. Aholisi ko'p sonli va boy bo'lgan Veyi, Populoniya, Kluziy, Belsiniya, Peruziya, Tarkviniya, Vulchi va Sere kabi etrusk shaharlari barpo qilindi. Savdo-hunarmandchilik rivojlanib, etrusk hunarmandchilik mahsulotlari chet ellarga chiqarilgan. Dengiz orqali vositachilik savdosini jadal amalga oshirdilar. Etrusklarning savdo kemalari Karfagen, Finikiya, Yunoniston va boshqa sharq mamlakatlari portlarida muntazam langar tashladilar. Ular ichki va tashqi savdoning rivojlanishi uchun tanga-pul zarb qildilar. Etrusklar metallga ishlov berishda yuqori natijalarga erishdilar. Etruriyaning o'zida mis, qo'shni Elba orolida temir rudasi qazib chiqarilgan. Etrusk kulolchilik mahsulotlari nihoyatda yuksak baholangan.

Etrusklar Janubiy Italiya, Korsika va Sardiniyada o'z koloniyalarini barpo qildilar. Mil.avv. VII–VI asrlarda Etruriyada markazi Volsiniya shahri (bu shaharda etrusklarning oliy xudosi Kertumnaning ziyoratgohi bor edi) bo'lgan etrusklarning 12 shahar konfederatsiyasi mavjud edi. Konfederatsiya siyosatiga 12 luqumon kengashi rahbarlik qilgan.

Janubiy Italiyadagi yunon shaharlari etrusklar bilan raqobat qildilar. Mil.avv. 535-yilda etrusklar Karfagen bilan ittifoq bo'lib, Korsika oroli yaqinidagi Alali yonidagi jangda yunonlarni tor-mor qiladilar. Korsika oroli etrusklarning tayanch nuqtasiga aylandi. Shu vaqtda Latsiya, Kampaniya va Shimoliy Italiyaning bir qismi etrusklar qo'lida edi. Rimda etrusklarning Tarkviniy sulolasi qaror topdi, yarim orolning shimoli-sharqida etrusklarning Adriya shahri Adriatika dengiziga o'z nomini berdi. Mil.avv. VI asrning birinchi yarmi Etruriya iqtisodiy-siyosiy hayotining yuksalish davri bo'ldi.

Mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmidan etrusklar zaiflasha boshladi. Etrusklarning zaiflashuvining bir necha sabablari bor edi. Etrusk federatsiyasi hech qachon mustahkam bo'lmagan. Shaharlar o'rtasida doimiy raqobat, shaharlardagi ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi ziddiyatlar siyosiy zaiflashuvga olib keldi. Italiya shaharlari etrusklarning hukmronligiga chek qo'yishga harakat qildilar. Etrusklar shimolda keltlarning hujumini qaytarish uchun og'ir kurash olib bordilar. Etrusklar davlati hududlari qisqarib bordi. Etrusk federatsiyasiga kirgan shaharlar o'rtasidagi ichki aloqa zaiflashdi. Etrusklar birdaniga yunonlar, rimliklar va keltlarning siquvi ostida qoldi.

Rivoyatlarda rimliklarning etrusklarga qarshi urushlarining yorqin tasvirlari saqlanib qolgan. Bir rivoyatga ko'ra etrusk podshosi Parsenni o'ldirish uchun rimlik o'smir Gay Musiy etrusklar qarorgohiga kiradi, lekin uni ushlab oladilar. Parsena Gay Museyni qiynoqqa solib, sheriklarini aytishni talab qiladi, gay Stsevola og'riq va o'limdan qo'rqmasligini ko'rsatish uchun qo'lini olovga tutadi va qo'li qanchalik kuymasin, miq etib ovoz chiqarmaydi. Mil.avv. 524-yilda yunonlar Kampaniya yonida, mil.avv. 474-yilda Qum yonida etrusk flotini tor-mor qildilar. Mil.avv. 509-yilda rimliklar so'nggi etrusk podshosi Tarkviniy Mag'rurni shahardan haydab yubordilar. Mil.avv. 265-yilda etrusk shahri Voliniyaning qulashi bilan rimliklar Etruriyaning to'la istilosini tugalladilar. Yangi era boshida etrusklar romanlashuv jarayonida o'z ona tillarini unutdilar va rimliklar bilan qo'shib ketdilar.

Etrusk madaniyati. Etrusklar bir necha yuz yillar davomida oziga xos yuksak rivojlangan madaniyatni shakllantirdilar. Etrusk madaniyati tarixi to'rt davrga bo'linadi: 1. Mil.avv. VIII-VII asrlar; 2. Arxaik davr (mil.avv. VI asr); 3. Klassik davr (mil.avv. V-IV asrlar); 4. Ellin davri (mil.avv. III-I asrlar).

Etrusk me'morchiligi yuqori darajada shakllangan bo'lib, keng ko'chalar (kengligi 10-15 metr), maydon, kvartal, mudofaa devorlari, tosh ko'prik, suv quvurlari va kanalizatsiyalarning mavjudligi buning dalilidir. Etrusk shaharlarida qal'a inshootlari va ibodatxonalarining barchasi, odatda, tuf va travertindan (toshning bir turi) qurilgan.

Etrusklar qobiliyatli muhandislar bo'lib, mustahkam ko'prik va yo'llarni bunyod qilish qobiliyatiga ega bo'lgan. Ular qabrlar ustida ajoyib haykallar, relyef tasvirlar ishlaganlar. Jahon san'ati tarixiga mansub mashhur etrusk Klyuzi, Cherveteri, Vulchi, Volterra va Mantanoli maqbaralari bo'rtma naqshlar, jez va loydan yasalgan haykallar bilan bezatilgan. Luqumonlarning naqshlar bilan bezatilgan sag'analari, dafn ko'zalari, jezdan yasalgan diniy va kundalik buyumlari zargarlik san'atining nafis va yuksak asarlaridir. Bizgacha Tarkviniy Mag'rur davrida etrusk haykaltaroshi ishlagan afsonaviy Vulchi haykali yetib kelgan. Shuningdek, etrusklarning jezdan bunyod qilingan noyob haykallari – «Kapitoliy ona bo'risi» va «Ximera» (mil.avv. V asr) insoniyat madaniyati tarixida noyob san'at namunalari hisoblanadi.

Etrusklar kohinlik «ilmi»ning bilag'onlari hisoblanib, shakllangan diniy e'tiqodga ega edilar. Ular fol ko'rish va muqaddas marosimlar o'tkazish bo'yicha maxsus kitoblarni yaratdilar. Etrusklarning dini asosida odamlarni qurbonlik keltirish bilan o'liklarga, ruhlar va devlarga e'tiqod qilish yotar edi. Etrusklarning oliy xudosi Vertumn hisoblangan. Uning orqasida xudo triadasi turadi: Tiniya, Uni va Minerva (rimliklarda – Yupiter, Yunona va Minerva). Qolgan xudolar Fuffuns, keyin u rimliklar tomonidan Vakx – Dionis bilan, Maris – Mars bilan, Aplu – Apollon bilan, Turms – Germes bilan tenglashtirilgan edi.

Etrusk madaniyatining shakllanishida Sharqning qadimgi sivilizatsiyasi ijobiy ta'sir qildi. O'z navbatida, etrusk sivilizatsiyasi keyingi Rim madaniyatining rivojlanishida jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Italiyaning boshqa xalqlari etrusklarning dehqonchilik, qurilish san'ati, hashamatli turmush tarzi, podsholik hokimiyati ramzlari hamda etrusk diniy e'tiqodi va fol ochishlarini o'zlashtirib oldilar.

2. Rim podsholik davrida (mil.avv. 753–510-yillar). Qadimgi Rim yarim orolning markazidagi Latsiya viloyatida, Tibr daryosining o'ng qirg'og'ida, Etruriya viloyatidan janubda joylashgan edi. Bo'lajak shahar hududidagi ilk manzilgohlar qoldiqlari mil. avv. X asrga tegishli. Arxeologik qazilmalarga ko'ra, mil.avv. X

asrda lotinlarning kichik guruhi Palatin tepaligining g'arbiy tomonida – Tibr daryosi bo'yida kelib joylashadi. Bu yerda mudofaa devori bilan o'ralgan to'rtburchak shakldagi qishloqlar paydo bo'ldi. Ana shu tarzda odamlarning yashashi uchun eng qulay, tabiiy tik qiyalik bilan himoyalangan Palatin tepaligida ilk manzilgohlar paydo bo'ldi. Al'ba shahridan kelgan lotinlar Palatinga joylashdilar. Mil.avv. IX asrdan Eskvilin, Kvirinal va Vimmal tepaliklarini sabinlar o'zlashtiradilar. Ko'rinishidan mil.avv. VIII asrdan Palatin, Eskvilin va boshqa tepaliklardagi qishloqlar birlashadi va bu ittifoq Septimontium (Yetti tepalik) ittifoqi deb nom oladi. Kapitoliyda qal'a barpo qilinib, bu yerda yosh shaharning muqaddas ziyoratgohlari to'planadi. Shahar asta-sekin boshqa tepaliklarni ham o'z tarkibiga oladi. Faqat Aventin tepaligi mil.avv. IV asrda qo'shib olinadi. Rimning bo'lajak maydoni botqoqlik bo'lgan Forum quriladi. Shahar devor bilan o'rab olinadi. Uning chegarasi pomerium deb nomlanadi.

Italiyaning kichik bir qabilasi lotinlar Latsiya viloyatida yashar edi. Mil.avv. VIII asrda eng qadimgi shaharlari Lavrent, Lanuviy va Laviniy bo'lgan 30 shahar Al'ba-Longa shahri boshchiligida Lotin federatsiyasini tashkil qildi. Rivoyatlarga ko'ra, Al'ba-Longaning asoschisi Askaniy-Yul Troya qahramoni Eneyning o'g'li edi.

Rim shahri Italiyaning markazida Tibr daryosining o'rta oqimida joylashgan. Afsonaga ko'ra Gomer Troyasining oxirgi qahramonlari lotin qabilasining ajdodi bo'lgan Eney boshchiligida Italiyaga kelib qoladilar. Afsonaga ko'ra, lotin qabilasi yo'lboshchilaridan biri ma'buda Vesta ibodatxonasida kohina bo'ladi. Xudoning irodasi bilan kohina homilador bo'lib, ikki egizakni dunyoga keltiradi. Ularni gunohdan bo'lgan bolalar deb, cho'ktirishga buyuradilar. Qul bolalarni savatga solib, daryoga olib borib, daryoning oqimi bo'yicha oqizib yuboradi. Savat qirg'oqqa kelib to'xtaydi. Chaqaloqlarni bo'ri o'z suti bilan boqadi. Keyin esa cho'pon topib oladi va ularni Romul va Rem deb ataydi. Egizaklar katta bo'lgach, o'zlarini o'linga mahkum qilgan yo'lboshchidan o'ch oladilar. Keyin bir guruh yoshlar bilan yangi jamoa barpo qilishga qaror qiladilar. Romul Palatin tepaligining kimsasiz balandligini tanlaydi. Lekin bu joy ukasiga yoqmay janjallashib qoladilar, Romul ukasini o'ldirib qo'yadi. Romul mil.avv. 753-yil 21-aprelda bo'lajak shahar bo'ladigan joyning chegarasini so'qa tortib belgilaydi. Shu tarzda Rim shahriga asos solinadi.

Romul Rimning yetti podshosidan birinchisi (mil.avv. 753–715-yillar) boʻladi. Rimning ilk aholisini sabin-umbr qabilalari tashkil etgan. Romul Rim aholisini 30 kuriyaga boʻldi. U 300 kishilik podsho gvardiyasini tuzib, Veya shahrini bosib oldi. Romuldan soʻng Numa Pompiliy (mil.avv. 715–673-yillar), Tull Gostiliy (mil.avv. 673–641-yillar), Ank Marsiy (mil.avv. 641–616-yillar), Lutsiy Tarkviniy Qadimgi (mil.avv. 616–578-yillar), Serviy Tulliy (mil.avv. 578–534-yillar) va Lutsiy Tarkviniy Magʻrur (mil.avv. 534–509-yillar) hukmronlik qildilar. Bulardan kelib chiqishi etrusk boʻlgan oxirgi uch podshoni tarixiy deb aytish mumkin.

Dastlab Rim aholisi 3 urugʻ-qabila (Titsiy, Ramn va Lutsern) tribi, 30 kuriya va 300 urugʻ, 3000 familiya (oila)ga boʻlingan. Tribalar etnik farqlanmagan qabilalar birlashmasi boʻlishi mumkin. Kuriya-erkak jangchilarning diniy, harbiy va shakllanayotgan siyosiy tashkilotning asosi boʻlgan ibtidoiy birlashmasi, gent – podsholik davrida yemirilayotgan urugʻ jamoasi, familiya – katta patriarxal oila edi.

Lotinlarning bir necha oʻnlab mustahkamlangan markazlari ittifoqqa birlashtirilgan boʻlib, uning boshida Alʻba-Longa shahri turar edi. Har yili lotin jamoalari vakillari hamma uchun umumiy boʻlgan lotin bayramlarini nishonlash uchun Alban togʻi tepaligida toʻplanar edilar. Barcha lotinlar uchun umumiy xudo maʼbuda Diana edi. Palatinda yashagan odamlar mayitlarni dafn qilmasdan gulxanda yoqar edilar. Bu odat Alʻba-Longadagi dafn marosimiga oʻxshar edi. Bu Rimning ilk aholisining kelib chiqishi Alʻba shahridan ekanligini tasdiqlaydi. Bir necha oʻn yildan soʻng ular qoʻshni tepaliklar – Seliy va Eskvilinni egalladilar. Mil.avv. VII – VI asrlarda 285 gektar yerni egallagan Palatin, Seliy, Eskvilin tepaliklaridan tashqari boshqa Kvirinal va Viminal tepaliklari ham qoʻshib olindi. Bu tepaliklar va Palatin oʻrtasidagi boʻshliq shahar markaziga aylandi. Shu yerda uzoq yuz yilliklar davomida Rim davlat hayoti toʻplangan bosh maydon – Forum Romanum paydo boʻldi.

«Toʻrt kvartalli» shaharning paydo boʻlishida etrusklarning roli katta edi. Ular shaharga Roma (Rim) nomini bergan boʻlishlari mumkin. Soʻnggi Rim tarixchilarining aytishicha, Rimning eng birinchi podsholaridan biri Serviy Tulliyning kelib chiqishi etrusklardan boʻlib, Serviy Tulliy davrida shahar yanada kengaydi. Kapitoliy va Aventin tepaliklari qoʻshib olinib, mustahkam devorlar bilan oʻrab olingan. Endilikda Rim eng qudratli

lotin shahriga aylandi va tezda Latsiy viloyatida Al'ba Longadan yetakchilikni tortib oldi.

Ilk Rim jamiyatining asosi urug'(gent) edi. Urug' a'zolari umumiy mulkka ega bo'lib, diniy marosimlarni birgalikda bajarar edilar. Bu qadimgi urug' jamoa tuzilmasining izlari Rim ismlarida ko'rinadi. Rim ismlari uch qismdan iborat bo'lgan: birinchi qism – shaxsiy ism, ikkinchi qism – urug'ning nomi va uchinchi qism – urug' shoxchasi yoki shu odamga tegishli laqab. Misol uchun, Gay (shaxsiy nom), Yuliy (urug' nomi), Sezar (urug' shoxchasiga tegishli laqab). Bu keyinchalik merosiy bo'lib o'tgan. Vaqt o'tishi bilan urug'chilik aloqalari zaiflashib, oilaviy aloqalar kuchaydi. Bu aloqalar nafaqat oila a'zolarini, balki xonaki qullarni ham qamrab oldi.

Patriarxal oila tepasida barcha oila a'zolarining hayoti va o'limi ustidan cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan «pater familius» (oilasi otasi) turar edi. Rim oilasi ajdodlarning an'ana va urf-odatlarini saqlovchisi edi. Oila juda mustahkam edi. Farzand ko'rmaslik ham oilani buza olmagan. Farzandsiz oila qarindoshlarining bolalarini asrandi o'g'il-qiz qilib olganlar. Rimda er-xotinning ajralishi oson bo'lsa-da, er-xotinlar ajralmaganlar. Er oila boshlig'i, xo'jayini edi. Oila a'zolari biror-bir ayb qilib qo'ysa, ota oila sudini amalga oshirar, hatto o'g'lini qatl qilishi yoki sotib yuborishi mumkin edi. Ayollar oilada izzat-hurmatda bo'lib, ular erlarining yordamchilari edi. Erga chiqqan rimlik ayol matrona deb atalgan. Matronalar erlari bilan mehmonga borar, uydagi ziyofatlarda ishtirok etar edilar. Farzandlari ham ularni hurmat qilganlar. Oilada bir xizmatkor bo'lsa, ona uy ishlari bilan shug'ullanmagan. Uning faxrli ishi ip yigirish bo'lgan. Zodagon matronalarga yuqori darajada hurmat ko'rsatilgan. Erkaklar ularga yo'l berganlar. Matronalarning dafn marosimlari ham hashamatli bo'lgan. Ular erlari ustidan hukm surishni yaxshi ko'rib, oila or-nomusini saqlashni o'z burchlari deb bilganlar. Ular erlariga buyruq va maslahat berishni xush ko'rganlar. (Mil.avv. I asrda Yuliy Sezarga qarshi fitnada ayollar erlari bilan birga qatnashganlari tarixda ma'lum). Farzand o'g'il-qizlar ham ota-onaning so'zini ikki qilmas, oila g'ururini saqlashga bir umr harakat qilganlar.

Podsholik davrida qullar hali ham kam sonli bo'lgan. O'sha vaqtda Rimning to'la huquqli fuqarolari «Populus Romanus» (Rim xalqi) shahardagi uch etnik unsur – lotin, sabin va etrusklarni aks ettirgan uch trib (qabila)ga bo'lingan.

O'n kuriya bir trib (qabila)ni tashkil qilgan. Har bir trib o'n kuriyani, har bir kuriya esa o'n urug'ni o'z ichiga olgan edi. Shunday qilib, Rim tarixchilarining ma'lumotiga ko'ra, Rimning erkin aholisi dastlab 300 urug'dan iborat bo'lgan. Podshoning chaqirig'iga ko'ra, ular kurial yig'inlari – komisiyalariga to'planar edilar. Saylov kuriyalar bo'yicha o'tkazilgan. Kuriya yig'inlarida urushlar, tinchlik, diniy e'tiqodga oid qarorlar qabul qilingan.

Boshqa lotin shaharlari kabi Rimda ham jamoalar tepasida kuriya komisiyalarida (xalq yig'ini) saylanadigan podsho turar edi. Podsho oldida uning hokimiyati ramzi bo'lgan, bolta ko'targan 12 liktorlar borgan. Davlatni podsho bilan dastlab 100, keyinchalik 300 a'zodan iborat bo'lgan oqsoqollar kengashi – senat (senatus – senex so'zidan keksa) boshqargan. Senat komisiyalar qabul qilgan barcha qarorlarni tasdiqlagan. Podsho vafot etgan taqdirda, senat yangi podsho saylaguncha o'z ichidan har besh kunda bir kishini vaqtinchalik podsho («interreks»)ni tayinlagan. Bu odat keyingi vaqtlarda ham saqlanib qoldi. Rimda oliy mansabdor shaxs – konsul vafot etganda ham bu odat qo'llanilgan.

Podsho oliy harbiy boshliq, kohin va sudya bo'lib, zaruriyat bo'lganda bir qancha yordamchilar – kvestorlarga tayanган. Kvestorlar odam o'ldirish ishlari bo'yicha sudni amalga oshirganlar. Podsho mutlaq hukmdor bo'lmasa-da, etrusklar davrida uning hokimiyati juda kuchli bo'lib, Rim oilasi («pater familius») hokimiyatini eslatar edi. U umrbod saylab qo'yilgan. Podsho qonunlarni qo'llash huquqiga ega bo'lib, lekin uni o'zgartira olmas edi.

Romul davridan Rim podshosi (rex) shaharning sudyasi, bosh kohini va lashkarboshisi bo'lgan. Rim etrusk davlat hokimiyati ramz va belgilarini o'zlashtirib oldi. Rim podshosi oltin toj, tilla iplar bilan tikilgan qizil rangli hashamatli kiyim, baland poshnali qizil etik kiyib, qo'lida burgut tasvirli podsholik asosini ushlagan. Podshoga qo'llarida qamchi va bolta ushlagan tan soqchilar hamrohlik qilar edilar. Ular podshoning buyrug'i bilan aybdor fuqaroni o'lim jazosiga tortish yoki tan jazosi berishga doimo tayyor turganlar. Podsho fil suyagidan yasalgan taxtda o'tirib, sud ishini amalga oshirgan. Podsho hokimiyati imperiya (oliy) deb atalar edi. Podsho o'z vorisini tayinlash huquqidan mahrum edi. Yangi podshoni xalq saylagan.

Urug' tashkilotlari a'zolari Rim xalqi (Romanus populus)ni tashkil qildi. Boshda ko'chib kelganlar hisobidan to'ldiriladigan

Rim fuqarolik jamoasi kuriyalar (Rimda o'n urug' bir kuriyaga birlashtirilgan) bo'yicha taqsimlangan edi. Ank Martsiy davrida jamoa yer (ager publicus) zaxiralari tugadi. Chetdan ko'chib keladiganlar endilikda jamoaga qabul qilinmadi va Rimda yopiq jamoa hosil bo'ldi. Natijada qadimgi Rimning ikki sinfiy toifalari – patritsiylar va plebeylar shakllandi. Imtiyozli patritsiylar (patricius – «zodagon otaning o'g'li») jamoa yer jamg'arimasidan foydalanish, kuriya komisiyalarida (comitca – lotin tilida yig'ilish) ishtirok etish huquqiga ega edilar. Ko'p sonli plebeylar (plebs – lotin tilida omma) esa, o'z urug'larini saqlab qolib, Rim urug'chilik tashkilotidan tashqarida bo'lib, hech qanday huquqlarga ega emas edi. Shu sababli, patritsiy va plebeylar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yuz yillab davom etdi.

Ijtimoiy tabaqalanish jarayonida bir qism plebey boyib ketdi. Kambag'allashib qolgan plebeylar, xonavayron bo'lgan fuqarolar hamda ozod qo'yilgan qullar qudratli patritsiylar homiyli (patron)ga o'tib, ularga kliyent (clients – «qaram kishilar») bo'ldilar. Kliyent o'z patroni – urug'ining a'zosi bo'lib, unga bo'ysunar edi. So'nggi Rim podsholari o'z shaxsiy hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan siyosat olib bordilar. Ular patritsiylarga qarshi kurashda plebeylardan siyosiy qurol sifatida foydalandilar. Podsho Serviy Tulliyning islohotlari Rim jamiyatini urug' jamoasidan davlatga o'tishida muhim o'rin tutdi. U harbiy islohot va unga bog'liq senz (mulk) islohotlarini o'tkazdi.

Bu o'zgarishlar natijasida kuriyalar bo'yicha yig'inlarni ikkinchi darajali qilib qo'yan senturiy komisiyalari yetakchi o'ringa chiqib oldi. Podsholik davri so'nggida mulkchilikning antik shakli bilan Rim polisi yoki civitas – fuqarolik jamoasini shakllanishi tugadi. Serviy Tulliy o'tkazgan siyosiy islohotlar bu qarama-qarshiliklarni ma'lum darajada yumshatdi. Serviy Tulliy islohoti urug'chilik tuzumi asoslarini yemirdi.

Podsho Serviy Tulliy (mil.avv. 578–534-yillar) Rimning barcha erkak aholisini (patritsiy va plebeylarni) olti mulkiy toifaga bo'ldi: 100 000 mis assga teng mulkka ega bo'lgan I toifa; 75 000 assga teng mulkka ega bo'lgan II toifa; 50 000 assga teng mulkka ega bo'lgan III toifa; 25 000 assga teng mulkka ega bo'lgan IV toifa; 11 500 ass qiymatli mulkka ega bo'lgan V toifa, VI toifa butun boyligi faqat bolalari bo'lgan barcha kambag'allar proletariy (latincha proles – «avlod»)larni tashkil etdi.

Har bir toifa Rim qo'shini tarkibiga belgilangan miqdorda senturiy (yuzlik qo'shin) berishi shart edi: I toifa – og'ir qurollangan piyodalar 80 senturiy, suvoriylar 18 senturiy, jami 98 senturiy; II toifa – 22 senturiy; III toifa – 20 senturiy; IV toifa – 22 senturiy; V toifa – 30 senturiy yengil qurollangan piyodalarni; VI toifa – 1 senturiy, jami olti toifa 193 senturiy (yuzlik) berishi shart edi.

Xaql yig'inida har bir senturiy bir ovozga ega edi. Ko'pchilik senturiy ovozi bilan qaror qabul qilingan. Senz fuqarolarning huquq va burchlari uyg'unligini ta'minlashi lozim edi. Rimlik fuqaro qanchalik darajada boy va zodagon bo'lsa, shuncha darajada umum foydasiga mablag' sarflashga majbur edi. Serviy Tulliy xalq yig'inining yangi ko'rinishi senturiy komisiyalarini joriy qildi. Ularda patritsiylar bilan plebeylar ham qatnashdilar. Senturiylarda odamlarning soni bir necha o'ndan (1 toifa) bir necha yuzgacha (proletar senturiylari) tebransa-da, har bir senturiy ovoz berishda faqat bir ovozga ega edi. I mulk senzi toifasi 193 ovozdan 98 ovozga egalik qilar edi. Shundan xulosa qilgan holda, senturiy komisiyalarida hal qiluvchi ovozga mulkdor fuqarolar egalik qildilar.

Mulkiy senzdan tashqari, yosh senzi ham belgilandi: yoshlarning senturiylari (17 yoshdan 46 yoshgacha) harbiy dala xizmatini o'tadilar, keksalarning senturiylari (46 yoshdan katta) garnizonlarda xizmat qilar edilar. Rim qo'shini podsho qo'mondonligi ostidagi 4 legiondan tashkil topgan edi. Serviy Tulliy yana ma'muriy-hududiy islohot o'tkazdi. Rim davlati hududi 21 okrugga (mil.avv. 241-yildan ularning soni 35 taga yetdi) bo'lindi. Bu okruglar trib deb (ulardan 4 tasi shahar, qolgan 17 tasi qishloq tribi) ataldi.

Senturiy komisiyalari ixtiyoriga kuriya komisiyalarining muhim vakolatlari – qonunlarni qabul qilish, mansabdor shaxslarni saylash, urush e'lon qilish va tinchlik bitimi tuzish kabilari o'tdi. Serviy Tulliy islohoti demokratik ruhda bo'lib, u zodagon bo'lmagan, qobiliyatli oddiy fuqaroga o'zini mehnati va samarali faoliyati bilan yanada yuqoriroq mulk senziga o'tish imkoniyatini berar edi. Bu islohot oqsuyak urug' zodagonlarining ta'sirini zaiflashtirdi. Serviy Tulliy ibtidoiy jamoa munosabatlarini zaiflashtirdi. Rim shahrini lotin shaharlari ittifoqidagi mavqeyini mustahkamladi, patritsiy va Plebeylarni bir-biriga yaqinlashtirdi. Islohot davlat hokimiyatining ilk

asoslarini mustahkamladi. Serviy Tulluyning islohotlarini oddiy aholi qo'llab-quvvatladi. Lekin bu islohot senator «otalar»ning qahr-g'azabiga sabab bo'ldi. Ular fitna uyushtirib, islohotchi podshoni o'ldirdilar. Uning kuyovi va davomchisi Tarkviniy Mag'rur islohotchi podsho Serviy Tulliyning siyosatini davom ettirdi. U hunarmandchilik, savdo va qurilishni rivojlantirishga harakat qildi. Senatni past mavqedagi urug' vakillari bilan to'ldirdi. Amaldagi hokimiyat eski patritsiy urug'lari qo'lida saqlanib qoldi. Chunki ular yerning eng ko'p miqdoriga ega bo'lib, birinchi tabaqani tashkil etib, senturiy komisiyalarida ko'pchilik (98)ni tashkil qildi.

Qadimgi Rim jamiyati dehqonlar va cho'ponlar jamiyati edi. Rimliklar etrusklardan yerga ishlov berishning samarali usullari va uzumchilikni o'zlashtirib oldilar. Etrusklarning tajribasidan foydalanib, rimliklar forum atrofida eng katta yer osti kanalini qurdilar. Ular yana etrusklardan markaziy zalga ega, tomida tuynugi bo'lgan uyning maxsus shakli atriyni o'zlashtirib oldilar. Etrusklarning Rimda hukmronligi davrida mahalliy hunarmandchilik va savdo aloqalari rivojlandi. Savdoning rivojlanishi uchun shaharning geografik jihatdan qulay joylashganligi, serqatnov suv yo'li bilan Tibr daryosining o'rta oqimida joylashganligi muhim ahamiyat kasb etdi. Bir necha asrlar davomida rimliklar savdo aloqalarini pul o'rnida hayvon (pekus)ni ayirboshlash yordamida amalga oshirdilar. Qadimda asosan ho'kiz, qo'y va mis metali ayirboshlashning asosiy mahsulotlari edi. Dastlab Rim savdo aloqalarini Janubiy Italiyadagi yunon shaharlari bilan olib bordi. Podsholik davrining oxirida esa, Attika va Karfagen bilan savdo aloqalarini o'rnatdi. Eng birinchi savdo shartnomasi Karfagen bilan tuzildi. Savdo va hunarmandchilik bilan birinchi navbatda, plebeylar shug'ullandilar. Bu soha bo'yicha Rimdagi Kapitoliy va Palatin o'rtasida etrusk kvartali «Vikus tuskuss» muhim rol o'ynadi.

Dastlabki Rim dini animistik ko'rinishda bo'lib, unda totemizmning bir qancha qoldiqlari saqlanib qolgan edi. Bunga misol qilib, Rim shahrining asoschilari Romul va Remni emizgan ona bo'ri afsonasini aytish mumkin. Podsholik davrida Rim yovuzlik va ezgulik ruhlari bilan to'la edi. Ularni sehrgarlik, qurbonlik va duo-afsunlar o'qish bilan yumshatish mumkin edi. Rimliklar asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ul-

langanliklari uchun, tabiat hodisalari va dehqon hamda choʻponning barcha ishlariga homiylik qiladigan koʻpgina xudolarga sigʻinar edilar.

Vervaktor, Vedator va Obarator deb atalgan uch xudo qoʻriq yerni haydashda odamlarga yordam koʻrsatgan. Yerlarni oʻgʻitlashda xudo Saterkuliniyga qurbonlik keltirilgan. Ekin ekishda Saturin va Semonga, ilk maysalar chiqqanda maʼbuda Siga, gʻalla unib chiqqanda maʼbuda Segitiyaga murojaat qilar edilar. Begona oʻtlardan ekinlarni Runsinator, gʻallani chirishidan esa Robig himoya qilgan. Boshqoning yetilishi xudo Laturnaning, gullashi maʼbuda Floraning vazifasi, oʻrimni xudo Messis boshqargan. Uy-joyni Lara va Penat, eshiklarni Yanus, uy oʻchogʻini maʼbuda Vesta himoya qilgan. Har bir oila oʻzining homiy xudoriga ega edi.

Rim eʼtiqodi, eng avvalo, barcha diniy urf-odatlariga qatʼiy riya qilish edi. Shu sababli, koʻp sonli kohinlar mavjud boʻlib, ular barcha xudolarning nomlari va vazifalarini yaxshi bilar edilar. Kohinlar duolarning rasmiy tasdiqlangan toʻplamlarini tuzar edilar. Ular kalendarni ham joriy qildilar. Qaysi kunda qaysi diniy marosimlarni bajarishni, baxtli va baxtsiz kunni aniqlaydigan kohinlar avgurlar deb atalgan. Avgurlarning maxsus kollegiyasi mavjud boʻlgan. Kohin-folbin garuspiklar qurbonlik hayvonlarining ichki aʼzolariga qarab fol ochardilar. Kohinlar Rimda saylab qoʻyiladigan mansabdor shaxslar boʻlib, lekin alohida toifa emas edilar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Залесский Н. Н. Этруски в Северной Италии. – Л.: 1959.
2. Ильинская Л. С. Находки в древнем Лации и их место в понимании традиции об Энее на Западе. Вестник древней истории, 1983, № 3.
3. Немировский А. И. Этруски. От мифа к истории. – М.: 1983.
4. Немировский А. И. История раннего Рима и Италии. Воронеж, 1964.
5. Маяк И. А. Рим первых царей. – М.: 1983.

Asosiy sanalar

| | |
|----------------------------|--|
| Mil.avv. X asr | Lotinlar Tibr daryosi bo'yiga kelib joylashdilar. |
| Mil.avv. 753-yil | Rim shahriga asos solinishi. |
| Mil.avv. VII–VI asrlar | Lotinlar Kivirinal va Viminal tepaliklarini egalladilar. |
| Mil.avv. VIII–VI asrlar | Etrusklarning Italiyada yetakchiligi. |
| Mil.avv. VII asr o'rtalari | Etrusklar Latsiy va Kampaniyani o'zlariga bo'ysundirdilar. |
| Mil.avv. VI asr | Rim-Karfagen ilk savdo shartnomasi tuzildi. |
| Mil.avv. VI asr | Serviy Tulliy islohotlari. |
| Mil.avv. VI–V asrlar | Yunon-etrusk raqobati. |

RIM ILK RESPUBLIKA DAVRIDA

1. Rimning Italiyani bosib olishi. 2. Ilk respublika davrida davlat qurilishi. 3. Mil.avv. VI–III asrlarda Rim jamiyatining toifaviy-sinfy tuzilishi. 4. Mil.avv. VI–III asrlarda Italiyaning iqtisodiyoti.

1. Rimning Italiyani bosib olishi. Rimdan etrusk podsholari haydalgandan so'ng, qisqa bir davrda Rimning Latsiya viloyatidagi yetakchilik roli pasaydi. Rim mil.avv. V–III asrlarda Apennin yarim orolini bosib olish uchun uzoq urushlar olib bordi. O'sha vaqtda rimliklar qo'shinlari Sabin, Ekv, Volsk, Tuskul boshchiligidagi Lotin shaharlari ittifoqi bilan olib borilgan urushlar Rimning g'alabasi bilan tugadi. Mil.avv. V asrning 90-yillarida rimliklarning lotinlar bilan ittifoqi etrusklarga qarshi bosqinchilik urushlari olib borish imkonini berdi. Tibrning o'ng qirg'og'idagi etrusklarning Veya shahri o'n yillik qamaldan so'ng (mil.avv. 406–396-yillar) bosib olinib, uning aholisi qullarga aylantirildi, yerlari esa rimliklar mulkiga aylandi. Ekv, volsk va gernik qabilalari ham bo'ysundirilgach, Tibrning o'ng qirg'og'i Rimga bo'ysundi. Qo'shni hududlarni bosib olishi natijasida Rimning hududi ancha kengaydi. Urushlar natijasida qo'shnilar hisobidan Rim shahri tribiga 17 qishloq tribi qo'shib olindi. Mil.avv. 396-yilda etrusk shahri Veyini bosib olinishi bilan ularning soni 25 taga yetdi.

Mil.avv. 390-yil Alp tog'lari orqali Po daryo vodiysini egallagan gall qabilalaridan biri senonlar yo'lboshchi Brenn boshchiligidagi Etruriyaga bostirib kirdilar. Rim etrusklarga harbiy yordam bermadi. Lekin rimliklar gallarga o'z elchilarini yubordilar. Elchilar gallar bilan mensimay muomala qilib, ziddiyat keltirib chiqardilar. Gallar etrusk shahri Kluziy qamalini tashlab, Rimga yurish qildi. Ular Rimni urushsiz egalladilar va uni talab, yondirib yubordilar. Rimliklar yana 7 oy Kapitoliyni himoya qildi. Lekin oxir-oqibatda gallarga oltin bilan katta miqdorda tovon to'lashga majbur bo'ldilar. Rivoyatlarga ko'ra, rimliklar senonlar talab qilgan miqdordagi oltinni taroziga o'lchab, topshirmoqchi bo'ladilar. Shunda senonlar yo'lboshchisi qilichini tarozini pallasiga tashlaydi. Natijada oltinni miqdori yengil keladi. Bundan g'azablangan rimliklar o'z noroziliklarini bildiradi-

lar. Aynan shu vaqtda Brenn «yengilganlarni holiga voy!» mashhur soʻzini aytgan.

Rimning zaiflashganidan qoʻshni lotin, volsk, ekv va etrusklar foydalandilar. Ular yana Rimdan mustaqil yashashga oʻtdilar. Rim-lotin ittifoqi (mil.avv. 384-yilda uning aʼzolari 47 lotin jamoasi boʻlgan edi) yana tarqalib ketdi. Rim lotin shaharlarini yana qayta kuch bilan boʻysundirishga majbur boʻldi. Lotin ittifoqi faqat 32 yildan keyingina rimliklar tomonidan qayta tiklandi. Mil.avv. IV asr oʻrtalarida Rim kuchli qoʻshin bilan Italiyaning bir qancha hududlarini egallab oldi. Mil.avv. IV asr oʻrtalarida Rim respublikasi faqat Latsiya viloyatida emas, balki butun markaziy Italiyada kuchli davlatga aylandi.

Samniylar oʻrta Italiyaning togʻli qismida yashab, chorvachilik (ayniqsa yilqichilik) va ovchilik bilan shugʻullanar, temirga ishlov berishga usta boʻlganlar. Ular yuqori harbiy sanʼatga ega edilar. Samniylar boy Kampaniya viloyatiga vaqti-vaqti bilan bosqin qilib, uni egallab oldilar. Rim patritsiy va dehqonlari uchun samniylarning yerlari va Kampaniyaning unumdor yerlari kerak edi. Rim uzun nayza va toʻgʻri toʻrt burchakli qalqonlar bilan qurollangan dovyurak togʻli qabilalar – samniylar bilan urush boshladi. Jangovar samniy qabilalari Kampaniyada oʻrnashib, Rim bilan mil.avv. 354-yildan ittifoqda edilar. Kampaniya viloyatidagi Kapuyani rimliklar tomonidan bosib olinishi samniy urushini keltirib chiqardi. Uch samniy urushlari boʻlib oʻtdi. Birinchi samniy urushi mil.avv. 343–341-yillarda rimliklar gʻalabasi bilan tugadi.

Ikkinchi samniy urushi mil.avv. 327–304-yillarni oʻz ichiga oladi. Rimliklar Neapolni bosib olishlari bilan bu urush boshlandi. Rim urushda lukan va apullar bilan ittifoq tuzdi. Kavdin dasida rimliklar ogʻir magʻlubiyatga uchradilar va sharmandalarcha taslim boʻldilar. Rim egallagan shaharlardan chiqib ketdi. Rimliklar mil.avv. 316-yilda urushda tub burilish yasadilar. Rim qoʻshini qayta tuzildi. Harakatchan kichik qismlar kalta nayza, kalta qilich bilan qurollantirildi. Natijada urush harakatlarida rimliklarning qoʻli baland keldi. Urush oxirida gernik va ekvlar Rimga toʻla boʻysundirildi. Qoʻshimcha hududlar Rim tarkibiga kirdi. Samniylar bilan yana shartnoma tuzildi. Gallar etrusklar bilan birlashib, mil.avv. 299-yil Rim hududiga bostirib kirdilar. Samniylar bu qulay vaziyatdan foydalانب, Lukaniya viloyatida yana oʻz hukmronliklarini oʻrnatdilar.

Bu uchinchi samniy urushiga olib keldi (mil.avv. 288–290-yillar). Urush Italiyaning turli hududlarini qamrab oldi. Samniylar gallar bilan birga harakat qilib, Umbriyada etrusklar bilan qo‘shilishlari lozim edi. Rimliklar Etruriyaga bostirib kirishi bilan etrusklar kel‘tlardan ajralib ketdilar. Sentin yaqinidagi jangda (mil.avv. 296-yil) rimliklar samniy-gall qo‘shinlari ustidan hal qiluvchi g‘alabaga erishdilar. Etruriya bilan tinchlik bitimi imzolandi. Samniylar to‘la bo‘ysundirildi. Etrusk shaharlari Rim bilan ittifoq tuzishga majbur bo‘ldi. Ko‘pgina hududlar Rim ixtiyoriga o‘tdi. Ularning aholisi cheklangan Rim fuqaroligi huquqini (civitas sine suffragio – «ovoz berish huquqi bo‘lmagan fuqarolik») oldi. Pisena aholisi ham g‘oliblarga taslim bo‘ldi. Adriatika dengizi sohilida Adriya lotin koloniyasi barpo qilinishi bilan Italiyaning sharqiy qirg‘og‘ida Rim hukmronligiga asos solindi. Endi O‘rta Italiya to‘la Rim qo‘lida edi. Gallar shimolga uloqtirib tashlandi.

Rimning samniy urushlari lotin ittifoqining barcha qatnashchilari uchun og‘ir majburiyat bo‘ldi. Samniy urushidan faqatgina Rim foyda ko‘rdi. Rimliklar samniylardan bir qism yerlarni tortib oldilar. Lotin shaharlari bunday adolatsizlikka chiday olmay, Rim bilan urush boshladilar, lekin ular yengildilar. Urush faqatgina mil.avv. III asr boshlarida tinchlik shartnomasi bilan tugallandi. Faqatgina mil.avv. 493-yildagina Rim va boshqa lotin shaharlari bilan mudofaa ittifoqi tuzishga erishildi. Bu ittifoq mil.avv. V asr davomida saqlanib qoldi va rimliklarni bir qancha qo‘shni viloyatlarni bosib olishiga qulay shart-sharoit yaratdi.

Samniy urushlaridan so‘ng rimliklar bevosita Janubiy Italiyadagi yunon shaharlari bilan chegaradosh bo‘ldilar. Janubiy Italiyadagi yunon shaharlaridan eng katta va qudratlisi Tarent shahri edi. Shaharda dastlab aristokratik, so‘ng demokratik boshqaruv tartibi o‘rnatildi. Tarentning o‘z qo‘shini bo‘lmay, yunon yollanma askarlari xizmatidan foydalanar edi. Shaharning rimliklar bilan shartnomasi bor edi. Savdo-hunarmandchilik va dehqonchilik rivojlangan. Tarent juda boy shahar bo‘lib, rimliklar uchun mazali luqma edi. Tarent Rim elchilarini haqoratlashda ayblanib, Rim mil.avv. 281-yilda Tarentga qarshi urush e‘lon qildi. Tarent Epir podshosi Pirrni yordamga chaqirdi. Pirr jangovar fillar bilan Janubiy Italiyaga bostirib kirib, Gerakleya va Auskul yonidagi ikki jangda rimliklarni tormor qildi.

Mil.avv. 275-yilda esa Benevent yonida rimliklar Pirr qo‘shinlarini yanchib tashladilar. Bir necha yildan so‘ng Tarent shahri va u bilan ittifoqchi bo‘lgan samniylar, lukanlar va Bruttiya shahri aholisi Rim hokimiyatini tan olishga majbur bo‘ldilar. Mil.avv. 265-yilda rimliklar etrusklarning markazi bo‘lgan Volsiniya shahrini bosib oldilar. Butun Italiya Rubikon daryosidan Sezalp Galliyasidan Messen qo‘ltig‘igacha Rim tarkibiga kirdi. Rim kichik bir jamoadan O‘rtayer dengizining qudratli davlatiga aylandi.

Bosib olingan joylarni aholisi cheklangan Rim fuqaroligi (sine suffragio – xalq yig‘inida ovoz berish huquqidan mahrum) huquqini oldi. Bu o‘z-o‘zini boshqarish huquqidan va jamoa yig‘inlarida ovoz berish huquqidan mahrum bo‘lish demak edi. Shahar ishlarini Rimdan yuborilgan prefekt boshqarar edi. Rimliklar Italiyadagi bosib olingan yerlar aholisini turli huquqlarga ega bo‘lgan toifalarga bo‘ldilar. Faqat Rim fuqarolari bo‘lgan patriisiylar va plebeylar hamda Rimga qo‘shib olingan lotin shaharlari, Rim shahriga doimiy ko‘chib o‘tgan barcha lotinlar huquqlardan foydalanishlari mumkin edi. Rim qonunlari bo‘yicha fuqaro nikoh o‘qitish, mulkini erkin tasarruf qilish, o‘z moddiy manfaatlari himoyasi uchun sudga murojaat qilish, yig‘inlarda ovoz berish va mansablarni egallashi mumkin edi. Bu to‘la huquqli fuqarolar Rim triblariga doimiy birlashtirilgan edi. Bundan tashqari, Italiyaning turli muhim strategik markazlarida senat qarori bilan barpo qilingan Rim koloniyalarining aholisi ham to‘la huquqli fuqarolar hisoblandi. Chunki koloniyalar aholisini Rimdan ko‘chib borganlar tashkil qilgan. Koloniyalar o‘z-o‘zini boshqaruviga ega edi.

Cheklangan huquqlarga ega fuqarolar toifasi («sives sine suffragio») ham mavjud edi. Ular Rim odati bo‘yicha nikoh bitimi tuzishlari, o‘z mulklarini tasarruf qilish huquqiga ega edilar, lekin ular Rimda mansablarni egallash va ovoz berish huquqidan mahrum edilar. Bunday cheklangan huquqlarga ega shaharlar munitsipiylar deb atalar edi. Ularning ba‘zilari Rimdan yuborilgan prefekt tomonidan boshqarilar edi.

Munitsipiylar aholisi huquqiy mavqelariga ko‘ra, lotin koloniyalari aholisiga yaqin turar va lotin huquqiga ega edilar. Munitsipiylar boshqaruvda avtonom bo‘lib, o‘z tangalarini zarb qilish huquqiga ega edilar. Rimliklar bunday munitsipiylardan yordamchi harbiy qism – kogortalar olish majburiyatini o‘tashni talab qilardilar. Ozod qullar Rim qonuni bo‘yicha ochiq nikoh

o'qitishlari mumkin emas edi. Ular faqat tribut komisiyalarida ovoz berish huquqiga ega edilar.

Italiya aholisining «sotsii» (ittifoqchilar) deb atalgan yana bir toifasi Rim bilan yanada zaifroq bog'langan edi. «sivitates federat» huquqidagi ittifoqchi shaharlar ham Rimga qo'shinlar bilan yordam berishlari shart edi. Lekin ular o'zlarining cheklangan davlat suverenitetini saqlab qoldilar. Ularga Rimning ruxsatisiz shartnomalar tuzish, mustaqil tashqi siyosat yuritish, o'z tashabbusi bilan urush olib borish taqiqlangan edi. Janubiy Italiyadagi yunon shaharlari Rim ittifoqchilarining alohida toifasini tashkil etar edi. Ular Rimga faqat harbiy flot bilan yordam berish majburiyatini olgan edilar.

2. Ilk respublika davrida davlat qurilishi. Mil.avv. VI asrda etrusk istilolari urug' jamoasining yemirilish jarayoni, sinfiy jamiyat va Rim davlatchiligi shakllanishini tezlashtirdi. Etrusklar Rimda ilk yunon tiraniyasiga o'xshash monarxiya rejimini tashkil etdilar. Uning o'rniga Rimda mil.avv. 509-yil ilk respublika tuzumi o'rnatildi.

Rim tarixchilari, respublika boshlanishini mil.avv. 509-yil kelib chiqishi etrusk bo'lgan so'nggi Rim podshosi Tarkviniy Mag'urning (mil.avv. 534–509-yillar) Rimdan haydalishi bilan belgilaydilar. Erkinlik tarafdorlari, senat hokimiyati himoyachilari Yuniy Brut boshchiligida monarxiyani aristokratik respublika bilan almashtirdilar. Respublika davlat boshqaruv tizimi birdaniga shakllanmadi. Uning shakllanishi asta-sekinlik bilan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan birga bordi. Rim magistratura tizimining tugallangan shakli mil.avv. IV asr II yarmida yuzaga keldi.

Rim magistraturasi. Rimda amaldorlar apparati yo'q edi. Barcha ijroiya hokimiyat saylanadigan lavozimli shaxslarga – magistratlarga tegishli edi. Respublika tuzumi o'rnatilishi bilan barcha mansablar xalq yig'inlarida saylangan. Mansablar magistrat deb atalgan. Magistrat (magister) boshliq so'zidan olingan. Magistratura – (mansablar) ordinar (odatdagi) va ekstra ordinar (favqulodda) shakllarga bo'lingan. Magistrant xalq tepasida turadi. Xalq bilan birga «davlatning ulug'vorligini» tashuvchisi bo'ladi. Vakolatlarini topshirgandan keyingina sobiq magistratni sudga tortish mumkin edi. Magistratni haqorat qilish, rim xalqining ulug'vorligini haqoratlash bilan tenglashtiriladi. O'z lavozimida turgan vaqtda magistratni javobgarlikka tortish, lavozimidan tushirish mumkin emas. Mansablarga haq

to'lanmasligi oddiy Rim fuqarolarini magistratura lavozimlarini egallashga imkoniyat bermadi. Aksincha, davlat vazifalariga saylanish va uni bajarish uchun fuqaroning o'zi katta miqdorda mablag'ga ega bo'lishi shart edi. Chunki lavozimni bajarish uchun kotiblar, choparlar, qo'riqchilar, quyi tabaqa xizmatchilarini yollab, ularga ish haqi berish kerak edi. Shu sababli, boy kishigina magistrat bo'lishi mumkin edi. Magistrat lavozimini o'tash – xizmat emas, faxr, sharaf. Barcha magistratlar beg'araz, ish haqi olmay o'z vazifasini bajargan, bir yil muddatga saylangan (diktatordan tashqari), barchasi kollegial bo'lgan. Hokimiyatning umumiy tushunchasi Potestas atamasi bilan belgilangan; qo'shin oliy qo'mondonligi, oliy fuqarolik hokimiyati, ma'lum bir diniy funksiyalarni o'z tarkibiga oladigan Oliy hokimiyat **imperium** (oliy) nomini olgan.

Konsul. Respublika tuzumi o'rnatilishi bilan oliy hokimiyat bir yil muddatga saylanadigan ikki konsul qo'lga o'tdi. Dastlab ular pretor (oldinda yuruvchilar) deb atalar edi. Farazlarga ko'ra, respublikaning birinchi yillarida ijroiya hokimiyatining boshida bir oliy magistrat – pretor bo'lib, unga o'rinbosari – kvestor yordam bergan. Plebeylarning Muqaddas toqqa birinchi chiqib ketishlaridan so'ng xalq tribunlari va plebey edillari, ularning yordamchilari lavozimlari joriy qilindi. Ammo ijroiya hokimiyatga pretorning yagona rahbarligi va u tomonidan hokimiyatni bosib olinish imkoniyati mavjudligi xavfi tug'ildi. Shuning uchun mil.avv. V asr o'rtalarida bir oliy magistrat o'rniga ikkitasi saylanadigan bo'ldi. Ular bir xil hokimiyatdan foydalandilar va birgalikda boshqardilar. Ular bir-birlari bilan maslahatlashishlari lozim edi. Shuning uchun ular konsullar (consulo – maslahatlashaman so'zidan olingan) deb ataldilar. Lisiniy va Sekst qonuni bo'yicha mil.avv. 367-yildan konsullardan biri plebeylardan saylana boshladi. Oliy magistratlar tarkibiga konsullar, sensorlar va pretorlar kirar edi.

Konsullarni senturiy yig'inlarda patritsiylar orasidan saylar edilar. Konsullar roziligisiz senat komissiyalari to'plana olmas edi. O'zlari esa vazifalarini bajarish davrida har qanday sud javobgarligidan ozod edilar. Konsullar urush vaqtida qo'shin qo'mondoni vazifasini bajarganlar. Senat va komissiyalarni chaqirar edilar hamda qonunchilik tashabbusiga ega edilar. Konsullar hokimiyati faqat biri ikkinchisining qaroriga veto (taqiq) qo'yishi bilangina cheklangan edi. Amaliy hayotda esa konsullar patritsiylar va ularning oliy organi – senatning siyosiy man-

faatlari bilan hisoblashishga majbur edilar. Rimdan tashqarida konsul cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan, shaharda esa konsullarning huquqi ma'lum bir normalar bilan cheklangan. Imperiya davrida senat o'z mustaqilligini yo'qotdi, lekin uning tashqi hashamati kuchaydi. Senat imperator irodasiga qullarcha bo'ysundi. Imperator senator unvonini merosiy qilib, ularning sonini 600 taga tushirdi. So'nggi imperiya davrida konsullik, pretor, edil lavozimlari faxrli unvonga aylandi.

Kvestorlar. Boshda kvestorlar konsullar tomonidan tayinlandilar va ular konsullarning yordamchilari edilar. Mil.avv. 447-yildan boshlab tribut komisiyalari to'rt kvestorni saylay boshladi. Mil.avv. 409 -yildan bu lavozimga plebeylar ham saylandilar. Kvestorlar davlat xazinasini boshqardilar, kirim-chiqim daftarlarini olib bordilar, davlat arxivining saqlovchilari edilar, harbiy yurishlarda konsullarga hamrohlik qildilar va qo'shinning pul mablag'ini boshqardilar. Hamda harbiy o'ljani taqsimlash va sotish bilan shug'ullandilar.

Pretor. Mil.avv. 366-yilda o'zlarining oralaridan bir kishini konsulning o'rinbosari – pretorni senturiy komisiyalarida saylashga erishdilar. Pretorning vazifasi shaharda tartibni saqlash edi. Pretor oldida oltita liktor yurgan, u sud ishlari bilan shug'ullangan vaqtida uning oldida ikki liktor turgan. Mil.avv. 337-yildan plebeylar ham pretor lavozimini egallash huquqini olganlar.

Senzor. Mil.avv. 443-yildan boshlab senturiy komisiyalarida faqat patritsiylar ichidan ikki sensor saylanadigan bo'ldi. Ular 5 yilda bir marta 18 oy muddatga saylanar edi. Sensorlar sobiq konsullardan saylangan. Ular Rim fuqarolarini mulk toifalari-ga kiritib, senatorlar tarkibini tekshirib, uning yangi ro'yxatini tuzishlari lozim edi.

Tribunat. Xalq tribunlari triblar bo'yicha o'tkaziladigan plebey yig'ilishlarida saylangan. Xalq tribuni lavozimiga faqat plebeylar saylanishi mumkin edi. Dastlab ikki tribun saylangan, keyin ularning soni o'ntaga yetgan. Xalq tribuni shaxsi daxlsiz bo'lgan. Ularning asosiy vazifasi plebeylarning manfaatlarini himoya qilish edi. Plebeylar manfaati uchun xalq tribunlari diktator va senzordan tashqari magistratlar faoliyatiga aralashishlari mumkin bo'lgan. Xalq tribuni magistrat topshirig'i, xalq yig'ini, senat qarorini Veto (taqiq) bilan bekor qilish huquqiga ega bo'lgan. U hatto magistratni qamoqqa olish huquqiga ega bo'lgan. Tribunlar plebey yig'inlarini chaqirish huquqiga

ega edi. Shahardan tashqarida tribun o'z vakolatini yo'qotgan. Ular magistrat emas edilar. Tribunning uyi har qanday plebey uchun boshpana bo'lib, u kecha-kunduz ochiq turgan.

Plebey edillari. Boshda plebey edillari xalq tribunlarining yordamchilari bo'lganlar. Ularning turar joylari plebeylar sig'inadigan ma'buda Serera ibodatxonasi bo'lgan. Ibodatxonada plebsning arxivi ham bo'lgan. Mil.avv. 366-yildan ikkita plebey edillidan tashqari ikki qurul edilli boshda patritsiylardan saylana boshlagan. Lekin tez orada bu lavozimga plebeylar ham saylanadigan bo'ldi. Qurul edillari plebey edillari bilan bitta kollegiyani tashkil qildilar. Ularning vazifasi shaharda tartibni saqlash; shaharning oziq-ovqati ta'minoti to'g'risida g'amxo'rlik qilish va bozorlarni kuzatish; jamoa bayram va o'yinlarini tashkil etish to'g'risida g'amxo'rlik qilish bo'lgan. Edillar trubut komisiyalarida saylanganlar.

Diktator. Ekstraordinar magistraturaga diktator lavozimi kiradi. Mil.avv. 507-yilda Rim tarixida ilk bor favqulodda vakolatlar berilgan mansabdor shaxs – diktator saylandi. Diktator hokimiyati podsho hokimiyatiga o'xshash edi. Diktatorni rimliklar davlat uchun favqulodda xavf tug'ilib qolgan paytda (urush xavfi yoki ichki noroziliklar) yagona boshliqqa ehtiyoj bo'lgandagina saylar edilar. Diktatorni rasman konsullar tayinlaganlar, amalda esa uni senat saylar edi. Diktator to'la hokimiyatga ega bo'lib, uning farmoyishlariga xalq tribunlari veto (taqiq) qo'ya olmaganlar. Diktator hokimiyati faqat muddat (olti oygacha) bilan cheklangan. Barcha magistratlar uning qo'l ostida o'z vazifalarini bajarganlar. U butun hokimiyatga egalik qilgan. Diktator hokimiyati cheklanmagan edi. Boshda diktator patritsiylardan tayinlangan, plebeylardan birinchi diktator mil.avv. 356-yilda tayinlangan. Diktator o'ziga yordamchi qilib otliq qism boshlig'ini tayinlagan. Unga konsullar kabi 12 liktor emas, balki 24 liktor hamrohlik qilar edi. 24 liktor uning hokimiyatini ramzi bo'lgan.

Xalq yig'ini. Rim respublikasida oliy davlat organi – xalq yig'ini hisoblangan. Xalq yig'ini qonunlarni qabul qilish va bekor qilish, urush e'lon qilish va sulh tuzish, oliy mansabdor shaxslar – magistrat (magister – boshliq)larni saylar edi. Shu bilan birga, u oliy sud tashkiloti edi. Rim xalq yig'inlarini demokratik mohiyati va ularning keng vakolatiga qaramay, eng demokratik tribut komisiyalari ham aristokratiya qo'lida qurol bo'ldi. Xalq yig'ini faqat senatda muhokama qilingan, magistratlar kiritgan

masalalarnigina muhokama qilar edi. Komisiyalar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega emas edi.

Senturiy komisiyalari. Rimda xalq yig'inlari yoki komisiyalarining uch ko'inishi mavjud edi. Serviy Tulliy islohotlarigacha kuriya komisiyalari mavjud edi. Serviy Tulliy qurolli xalq yig'ini – senturiy komisiyalarini kiritdi. Tezda ular kuriya komisiyalarini siqib chiqardi. Senturiy komisiyalari konsullar tomonidan Rim shahridan tashqaridagi Mars maydonida chaqirilar edi. Barcha Rim fuqarolari 193 senturiy, eng boy I toifa 98, jami senturiylarning yarmidan ko'p senturiy qo'yar edi. Ovoz berish senturiylar bo'yicha o'tkazilib, har bir senturiy bir ovozga ega edi. Ovoz berish qat'iy qabul qilingan tartibda: dastlab I toifa senturiylari, keyin II, III va h. k. ovoz berar edi. Agar taklif qilinayotgan masala bo'yicha senturiylar ovozining 50% idan ko'proq ovozi berilsa, ovoz berish to'xtatilib, taklif qonun kuchiga kirar edi. Bunday ovoz berish tartibi bo'yicha barcha masalalarni Rim fuqarolarining boy qismi bo'lgan I toifaning 98 senturiylari hal qilar edi. Bu komisiyalarda pretorlar, konsullar va senzorlar saylanar edi. Ovoz berishning mulk senziga asoslanishi demokratik saylov tizimi tarafdorlarining noroziligiga uchradi.

Rim respublikasi aristokratik xarakterda edi. Qonunchilik tashabbusiga ega bo'lmagan senturiy yig'ilishlarini jamiyatning patriksiy qatlamlarining vakili (konsul, diktator, pretor) chaqirishi mumkin edi. Bu komisiyalarning biror-bir qarori «patres» – senat tomonidan tasdiqlanmasa, kuchga kirmas edi. Mil.avv. 471-yildan kuriya va senturiy yig'inlari namunasidagi plebey yig'inlari chaqirila boshlandi. Plebey yig'inlarida qabul qilingan qarorlar – «plebitsit» faqat plebeylar uchun majburiy edi. Mil. avv. 241-yilda senturiy komisiyalari islohoti o'tkazildi. Endilikda har besh toifadan 70 senturiy qo'yiladigan bo'ldi. Ularga suvoriylarning 18 senturiylari, hunarmandlarning 4 senturiy va proletarlarning 1 senturiysi qo'shiladigan bo'ldi. Jami 370 senturiy (avvalgi 193 o'rniga). Patriksiyalar va plebeylarning kurashi jarayonida plebeylarning hududiy okrug – triblar bo'yicha tribut komisiyalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi (Rim hududi hududiy jihatdan 4 shahar va 31 qishloq tribiga bo'lingan). Tribut komisiyalarida edillar, kvestorlar va plebey tribunlari saylanar edi.

Senat. Senat podsholik davrining oxirida patriksiy urug'lari oqsoqollari kengashi asosida paydo bo'ldi. Jamoa ishlarini harbiy boshliq bilan birga boshqarishda katta obro'ga ega edi.

Podsholik davrida podsho oldidagi davlat kengashi edi. Mil. avv. 509-yilda podsho hokimiyati qulagandan so'ng senatning ahamiyati kuchaydi. Respublika davrida senat 300 a'zoga ega bo'lgan. Senat harbiy ishga, tashqi siyosatga, moliya ishlari va davlat mulkiga rahbarlik qilar edi. U diniy e'tiqod ustidan nazorat qilib, favqulodda holat e'lon qilish huquqiga ega edi. U hukumat vazifasini amalga oshirdi. Mil.avv. 287-yilgacha har qanday qonun loyihasi senatda muhokama qilinganidan keyingina xalq yig'ini muhokamasiga olib chiqilar edi. Xalq yig'inida qabul qilingan qonun faqat senat tasdiqlaganidan keyingina qonun kuchiga kirar edi. Shunday qilib, senat o'ziga kerakli yo'nalishda xalq yig'ini faoliyatiga rahbarlik va nazorat qilar edi. Senat tashqi siyosatga rahbarlik qilib, davlat moliyasining egasi edi. Mansabga saylangan magistratlar o'z faoliyati uchun senat oldida hisobot berar edilar, shu bilan senatga tobe edilar. Mil.avv. IV asrdan vakolatlari muddati tugagan oliy mansabdor magistratlar senat tarkibiga kirar edilar. Senatorlar ro'yxatini senzorlar tuzganlar. Ularning rahbari eng kekxa va obro'li senator – princeps senatus (u munozara paytida birinchi bo'lib so'zlagan) edi. Senat ro'yxatida birinchi senzorlar, keyin konsullar, pretorlar turar edi. Senat majlisini chaqirish huquqiga oliy magistratlar: diktator, konsullar, pretorlar haqli edi. Senatning qarori senatus konsul (senatus konsultum) yoki dekret (dekretum – qaror) deyilar edi. Senat Rim oligarxiyasining tayanchi edi. Senator unvoni umrbod edi. Odatda, senatorlar ro'yxati ilgari magiustratura lavozimini egallagan yoki egallab turgan kishilardan ma'lum bir mulk seni asosida (Oktavian davrida 1 mln sestertsiy) nobillarning tor doirasidan tuzilgan. Imperiya davrida Oktavian hukmronligidan boshlab, senatning funksiyalari cheklana boshladi (ayniqsa moliya, harbiy ish, tashqi siyosat, provinsiyalar boshqaruvi). Imperiya davrida senat o'z mustaqilligini yo'qotdi, lekin uning tashqi hashamati kuchaydi. Senat imperator irodasiga qullarcha bo'ysundi. Imperator senator unvonini merosiy qilib, ularning sonini 600 taga tushirdi. So'nggi imperiya davrida konsullik, pretor, edil lavozimlari faxrli unvonga aylandi. Imperiya davrida senat o'z mustaqilligini yo'qotdi, lekin uning tashqi hashamati kuchaydi. Senat imperator irodasiga qullarcha bo'ysundi. Imperator senator unvonini merosiy qilib, ularning sonini 600 taga tushirdi. So'nggi imperiyaning tugashi arafasida konsullik, pretor, edil lavozimlari faxrli unvonga aylandi.

Amalda hokimiyat prinseps qoʻlida boʻlib, senat davlatning oliy tashkilotlaridan biri hisoblanar edi. Imperator Diokletian davridan senat oʻz ahamiyatini toʻla yoʻqotdi, u Rim shahar kengashiga aylandi.

Kohinlar. Rimda diniy eʼtiqod siyosiy hayotdan ajralmadi. Qadimgi Rimda barcha oliy magistratlar qandaydir bir kohinlik funksiyalarini bajarganlar. Kohinlar alohida ijtimoiy qatlam emas edi. Kohinlar kollegiyaga uyushgan boʻlib, faqat diniy vazifani bajardilar. Pontifiklar kollegiyasi boshda uch, keyin olti kishini tashkil qildi. Kollegiya boshligʻi buyuk pontifik deb atalgan. U diniy marosim, rasm-rusumlarni bajarishda qatnashib, kalendar, ob-havo yozuvlarini olib borgan. Pontifiklar patriitsiyalar bilan yaqin aloqada boʻlgan. Magistratlarga diniy masalalar boʻyicha maslahatlar bergan. Buyuk pontifik mil.avv. III asr oxiridan alohida komisiyalarga saylangan, pontifiklar kooptatsiya yoʻli bilan tayinlanganlar. Pontifiklar Mil.avv. 300-yildagi Ogulniy qonuni boʻyicha plebeylar ham pontifik lavozimlarini egalashi lozim boʻldi. Turli ibodatxona kohinlari flaminlar deb atalgan. Maʼbuda Vesta ibodatxonasi kohinlari Rimda katta obroʻga ega boʻlganlar. Bashoratchi kohin – avgurlar alohida kohinlar kollegiyasiga kirganlar. Boshda avgurlar faqat patriitsiyalardan saylangan.

Magistratura. Rim konstitutsiyasi boʻyicha magistraturalar kollegial boʻlib (2 konsul, 2 ta pretor, 4 edil, 10 xalq tribuni, 2 senezor va 4 kvestor), bir yil ijro etilgan. Lavozimlar har yili qayta saylangan (faqat senezorlar bir yarim yil, diktatorlar yarim yil). Konsullar, pretorlar, kvestor va edillar lavozimga 1-martdan (mil.avv. 153-yilgacha, keyin 1-yanvardan), plebey tribunlari esa 10-dekabrdan lavozimga kirishar edilar.

Dastlab sud hokimiyati ikki pretorga tegishli edi. Harbiy qoʻshin taʼminoti (intendant) qismi va harbiy oʻlja toʻrt kvestor (mil.avv. 267-yildan sakkiz kvestor), shahar obodonchiligi, taʼminoti, tartibni saqlash, jamoat bayramlarini tashkil etish toʻrt edilga tegishli edi. Plebeylarning manfaatini 10 plebey tribunlari himoya qilardi. Xalq tribunlari triblar boʻyicha plebey yigʻinlarida saylangan. Xalq tribuni lavozimi faqat plebeylarga tegishli edi. Dastlab ikki tribun saylangan. Keyin esa ularning soni 10 taga yetdi. Tribunlarning asosiy vazifasi plebeylarning manfaatlarini himoya qilish edi. Xalq tribunlari diktator va senezordan tashqari barcha magistratlarning faoliyatiga aralashish huquqiga ega edilar. Xalq tribunining veto (taqiqlayman)

si magistratning farmoyishi, xalq yig'ini va senatning qarorini bekor qilgan. Xalq tribunlariga magistratni qamash huquqi ham tegishli edi. Tribunning turar joyi har qanday plebey uchun yashirinish joyi edi. Tribun uyi tun-u kun ochiq bo'lishi lozim edi. Lekin shahar chegarasidan tashqarida tribunlar o'z hokimiyatini yo'qotar edi. Tribunlar senat qaroriga norozilik bildirishlari mumkin edi, lekin dastlab ular senatda so'zlash huquqiga ega emas edilar. Ularga senat majlisi bo'layotgan bino eshiklari oldida turishgagina ruxsat berilgan. Keyinchalik tribunlar senatga kirish, munozaralarda ishtirok etish, hatto senat majlislarini chaqirish huquqiga ega bo'ldilar. Tribunlar bilan boshda xalq tribunlari yordamchilari – plebey edillari lavozimi kiritildi. Plebey edillari komisiyalarida saylangan. Rim respublikasi komisiyalari tuzilmasida demokratik an'analar kuchaygan bo'lishiga qaramasdan, boshqaruvdagi hal qiluvchi rolni senat va magistratlar o'ynadilar. Bu Rim respublikasi aristokratik mazmunining ifodasi edi.

3. Mil.avv. VI–III asrlarda Rim jamiyatining toifaviy-sinfy tuzilishi. Mil.avv. VI–IV asrlarda Rimning ijtimoiy tuzilmasi murakkab va tushunarsiz edi. Rim jamiyatida patritsiylar, klientlar, plebeylar va qullar sinfiy-toifaviy guruh sifatida chiqdilar. Bu guruhlarning har biri jamiyat va ishlab chiqarishda o'z huquq-majburiyatlari bilan alohida o'rinni egalladilar. Pater – ota ko'p sonli oilaning, unga kiradigan boshqa qaram kishilar va qullarning xo'jayini edi. Qadimgi Rimda otalar deb yana oliy boshqaruv organi – senat a'zolarini ham aytar edilar. Patritsiylar ilk Rimning imtiyozli hukmron sinfi – toifasi edilar. Ular barcha fuqarolik huquqlaridan foydalanar edilar. Kuriya komisiyalarida ovoz berib, senat a'zoriga saylanganlar. Og'ir qurollangan piyoda qo'shinda, imtiyozli otlq qo'shinlarda xizmat qilar edilar. Har bir patritsiy katta oila jamoasi – ko'p sonli familiya (familias)ning boshlig'i bo'lib, bu jamoani ta'minlash uchun jamoa yer jamg'armasidan katta ulushlarni olish va foydalanish huquqiga ega edi.

Mil.avv. IV asr o'rtalarigacha asosiy magistrat lavozimlari patritsiylar bilan to'ldirilar edi. Patritsiylar uzoq ibtidoiy jamoa davri, urug'chilik jamoalariga borib taqaladigan urug'guruhlar (gentes)ga bo'lingan edilar. Yer egalarining imtiyozli hukmron sinf qatlami bo'lgan holda urug'chilik aloqalari muhim o'rin egallagan bu tuzilmada Rim patritsiylari jamiyatning konservativ unsurlari edilar. Ular yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabat-

lar, xususiy mulkchilik, qulchilik taraqqiyotiga to'siq edilar. Ilk Rimning asosiy sinf – toifalaridan biri plebeylar edi. Plebeylarning bir qismi qaram klientlar sifatida patritsiy urug'lariga qabul qilingan. Lekin plebeyning ko'pchiligi tub joy fuqarosi – patritsiylar ijtimoiy tashkilotidan tashqarida bo'lib, huquqiy jihatdan erkin bo'lsalar-da, fuqarolik huquqlaridan mahrum edilar. Plebeylarning asosiy qismi o'zining avvalgi vatani va Rimdan tashqarida bo'lgan urug' tashkiloti bilan aloqasini uzgan kelingdi kishilar edi.

Plebeylar kichik yer maydonlarida dehqonchilik qilib, savdo-hunarmandchilik bilan shug'ullanar edilar. Ularning ko'pchiligi asosan Rim atrofidagi qishloqlarda yashab, o'z jamoa tashkilotlari, o'zaro yordam tizimiga ega edilar. Plebeylar Rim jamiyatining shakllanayotgan jamoa – dehqon tarkibining asosiy qismini tashkil qilar edilar. Plebeylar orasida tez orada ijtimoiy tabaqlanish yuz berib, boy qatlam ajralib chiqdi. Plebeylarning asosiy ommasi yer olish va qarzi uchun qullikni bekor qilinishini talab qilgan bo'lsalar, o'ziga to'q va boy plebeylar birinchi navbatda, patritsiylar bilan siyosiy teng huquqlik uchun kurashdilar.

Serviy Tulliy islohotlari natijasida plebeylar Rim ko'ngillilari tarkibiga kiritildi. Lekin qo'shindagi barcha boshliq lavozimlari patritsiylar qo'lida edi. Bundan tashqari, patritsiylar ozod etilgan harbiy soliq (tribut)ni plebeylar to'lar edilar. Bu davrda Rim shahrining o'zida plebeylar va patritsiylar o'rtasida yer uchun keskin kurash boshlandi. To'xtovsiz urushlar natijasida xonavayron bo'lgan, qarzlarga botib qolgan Rim plebey bosib olingan yerlarni taqsimlashda o'z hissasini talab qildi. Shuningdek, patritsiylarning zo'rvonligidan qonuniy himoya va o'z siyosiy huquqlarini kengaytirishni talab qilib chiqdilar. Bu kurash mil. avv. 494-yilda o'ta keskinlashdi. Og'ir qarz majburiyatlari, qarz beruvchining zulmi plebeylarni ekvlar bilan urushda ishtirok etishdan bosh tortishlariga olib keldi. Ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik belgisi sifatida mil.avv. 494-yilda Rimdan 4,5 km shimoldagi «Muqaddas tog'»ga chiqib ketishga (sesessiya) majbur bo'ldilar.

Sesessiya va harbiy xavf patritsiylarni yon berishga majbur qildi. Natijada plebey yig'inlarida har yili ikki yoki to'rt xalq tribuni saylash huquqi olindi. Keyinchalik xalq tribunlari soni o'ntaga yetdi. Tribunlar mansabdor shaxslar bo'lmay, plebs vakillari sifatida chiqib, uning manfaatlari himoyachisi bo'ldilar. Xalq tribunlari shahar hokimiyatining faoliyatiga aralash-

ishlari, mansabdor shaxslar va senatning qarorlarini bajari-lishini to'xtatishlari mumkin edi. Komissiyalarda qabul qilingan qarorlarga plebeylar veto (taqiq) qo'ysa, bu qaror yana ovozga qo'yilishi mumkin emas edi. Tribunlarning o'zlari hali faqat plebeylar uchun majburiy bo'lgan qarorlar qabul qilishlari mumkin edi. Tribunlar faqat plebeylar orasidan saylanib, daxlsizlik huquqidan foydalanar edilar. Xalq tribuniga qo'l ko'targan kishi qonundan tashqari deb e'lon qilinar edi. Bunday jinoyat qilgan kishini har kim jazosiz o'ldirishi mumkin edi.

Yarim asr o'tgach, mil.avv. V asr o'rtalarida plebeylar tazyiqi ostida patriitsiyalardan tuzilgan detsemverlar («o'n erkak») komissiyasi mavjud qonunlarni kodifikatsiya qildi. Komissiya mis taxtachalarga yozilgan XII jadval qonunlarini Rim forumi, bozorlar va Rim koloniyalariga osib qo'ydi. XII jadval qonunlari birinchi va yagona Rim huquqi kodeksi edi. XII jadval qonunlari Rimda ijtimoiy munosabatlarni klassik quldorlik jamiyatiga o'tish davrini aks ettirdi.

Plebeylarning siyosiy tenglik uchun kurashi davom etdi. Mil. avv. 447-yildan 2 konsul bilan birgalikda senat qaroriga ko'ra 3 tadan 8 tagacha konsul hokimiyati vakolati bilan tribunlar saylana boshlandi. Plebeylarga mil.avv. 445-yildagina tribun Kanuley qonuni asosida patriitsiyalar bilan nikohdan o'tishga ruxsat berildi. Yangi sensor mansabi joriy qilinib, ularning vazifasi fuqarolarning mulk senzi majburiyatini bajarishini nazorat qilish, keyinchalik senatorlar ro'yxatini tuzish edi. Sensor hukmi bekor qilinmas edi. U qat'iy edi. Bundan tashqari, ular daromad-xarajatlar to'lovini nazorat qilar, katta jamoa ishlarini tashkil qilar edilar.

Mil.avv. 367-yilda konsul Sekst Lateran 3 ta muhim qonun-ning qabul qilinishiga erishdi. Birinchi qonun: qarz foizlarini tartibga soldi. Ikkinchi qonun barcha Rim fuqarolari – patriitsiyalar va plebeylarga jamoa yerlaridan foydalanishning teng huquqini berdi. Uchinchi qonunga ko'ra, konsullik lavozimini plebeylar ham egallashi mumkin edi. Keyinchalik ikki konsuldan biri plebeylardan saylanishi odat tusiga kirdi. Bir vaqtning o'zida konsullardan sud ishlari yangi mansabdor shaxs – pretorlarga olib berildi. Pretorlar konsullar kabi senturiy komissiyalarida saylanar edi. Mil.avv. 356-yil ilk bor plebeylardan diktator saylandi. Besh yildan so'ng birinchi plebey sensor, mil.avv. 332-yildan senzordan biri muntazam plebey vakillaridan saylanadigan bo'ldi. Shundan yana o'ttiz yil o'tgach, plebeylardan Rimning

oliy kohini – pontifik saylanadigan bo'ldi. Plebeylarning patritsiylarga qarshi to'laqonli teng huquq uchun so'nggi kurashi mil.avv. 287-yilgi Gortenziy qonunining qabul qilinishi bilan yakunlandi. Shu davrdan plebey yig'inlarining qarorlari Rimning barcha fuqarolari uchun senatning tasdig'isiz majburiy qonunga aylandi.

Rimda patritsiy va plebeylarning ikki yuz yillik ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlari mil.avv. III asr so'ngida nihoyasiga yetdi. Mil. avv. IV asr oxirida eng boy yangi patritsiy va plebey zodagonlaridan iborat yangi nobillar qatlami vujudga keldi. Rim patritsiy va plebeylar ichidan o'z boyligi siyosiy-iqtisodiy jihatdan katta mavqega ega bo'lgan davlat boshqaruvini monopoliya qilib olgan uncha katta bo'lmagan guruh nobillar edi. Nobillarning iqtisodiy tayanchi katta yer egaligi, ko'p sonli kliyentlar, jumladan, o'nlab provinsiya shaharlari edi. Nobillar yirik yer-mulka egalik qiladigan va davlatni boshqaruvchi oliy toifaga aylandi. Nobillar hokimiyatining amaldagi tayanchi senat bo'lib, u yerda patritsiy urug'lari bilan bir qatorda Litsiniy va Liviy kabi boy plebey urug'lari ham muhim rol o'ynadi.

Nobillar senatorlar toifasining oliy guruhi bo'lib, yirik va o'rta quldor yer egalari, savdogar va moliyachilardan tashkil topgan suvoriylar toifasi bilan birga, hukmron qatlam tarkibini tashkil qildi. Qolgan fuqarolar – kichik mulkdorlar, erkin dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlardan tashkil topgan plebeyni tashkil etdi. Imtiyozli toifalar va plebeyga qarama-qarshi, hech qanday huquqqa ega bo'lmagan ko'p sonli qullar qatlami turar edi. Kliyent fuqarolik huquqiy qobilyatga ega bo'lmay, uning uchun barcha bitimlarni patron tuzgan.

Ilk Rim jamiyatida kambag'al va siyosiy huquqsiz kishilarning ko'p sonli qatlami – kliyentlarni tashkil qildi. Ozod qo'yilgan qullar yoki Rimga ko'chib kelgan boshqa urug' vakillari patritsiylardan himoya va homiylik qidirishga majbur bo'lib, ularga kliyent bo'lishlari mumkin edi. Kliyentlar patritsiylarning urug'iga qaram a'zo sifatida kirib, o'z homiylari urug'i nomini oldilar. Ularga patron yerlarida ishlash vazifasi, patronni yurishda, shaharga chiqishida hamrohlik qilish majburiyatlari yuklandi. Agar patron urushda asir tushib qolsa, kliyent tovon to'lab uni qutqarib olishi shart edi. Kliyent vasiyat qoldirmagan bo'lsa, o'limidan so'ng uning mulki patronga meros qolar edi. Agarda kliyent patronga bo'ysunmasa, sud orqali u qul-

ga aylantirilishi mumkin edi. O'z navbatida, patron kliyentni boshqalarni tazyiqidan himoya qilishga majbur bo'lib, sudda uning manfaatlarini himoya qilar edi. Mil.avv. III asrga borib yangi ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi bilan kliyentlarning katta qismi o'z patronlaridan ozod bo'lib, davlatdan yer oldilar va erkin dehqonlarga aylandilar. So'nggi Rim imperiyasi davrida kuchli senator – patrisiylarni patronatiga kichik yer egalari, hatto qishloqlar, jamoalar va shaharlar o'ta boshladi. Kichik yer egalari patronga o'z yerlarini berib, uni prekariy sifatida qaytarib olib, amaldorlar, sudxo'rlar va sudyalar zo'ravonligidan o'zlarini himoya qildilar.

Mil.avv. V asrgacha qulchilik xonaki (patriarxal) shaklda edi. Mil.avv. V asrdan qul mehnati xo'jalikning turli sohalariga kirib bordi. Rimda qarzi uchun qul qilish mil.avv. 326-yildagi qonun bilan bekor qilindi. Natijada, qullar qatlami asosan urushlarda olingan asirlar hisobidan to'ldirila boshlandi. Qulga buyum sifatida qaralmadi. Inson shaxsi huquqlari kam darajada bo'lsa-da, saqlanib qoldi. Bu davrda erkin kishi va qullar o'rtasidagi farq unchalik keskin emas edi.

Qonunlarda mulk huquqi kuchli himoya qilingan edi. Mulkka daxl qilish og'ir jinoyat hisoblanib, qiynoq bilan o'lim jazosi berilar edi. Qullar uchun jazo erkin tug'ilganlarga nisbatan og'ir edi. O'g'rilik qilgan erkin fuqaro kaltaklanar edi, qullar esa savalanganidan so'ng qoyadan tashlanar edi. Sudxo'r qarzdorni qul qilish bilan cheklanmay, balki uning hayotiga egalik qilishi ham mumkin edi.

Rimning istilochilik urushlari lotin shaharlari bilan ziddiyatni keltirib chiqardi. Lotin shaharlari Rimga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Ular senatning yarmi lotinlardan va bir konsul ham lotinlardan bo'lishini talab qildilar. Natijada mil.avv. 340-yildan 388-yilgacha davom etgan lotin urushi kelib chiqdi. Urush Rimning g'alabasi bilan tugadi. Lotin ittifoqi tugatildi. Rimga yaqin shaharlar uning tarkibiga qo'shildi va rimliklar bilan teng huquqqa ega bo'ldilar. Boshqa lotin jamoalari rimliklar bilan fuqarolik huquqida tenglashtirildilar. Ulardan ba'zilari savdo qilish va mulkka ega bo'lish huquqi – jus kkommersicu, ba'zilari Rim fuqarolari bilan nikoh tuzish huquqi – jus connubii ni oldilar. Ammo ularga xalq yig'inida ovoz berish huquqi berilmadi. Bundan tashqari, eskidan bo'lgan qoida – Rimga ko'chib o'tgan va senzdan o'tgan lotinlar Rim fuqarolari bo'lar edilar. Bu ko'chib o'tish huquqi – jus migrationis edi. Faqat Tibur va

Preneste lotin shaharlari Rim ittifoqchilari bo'lib qoldilar. Shu tarzda lotin fuqaroligining boshlanishiga asos qo'yildi.

4. Mil.avv. VI–III asrlarda Italiyaning iqtisodiyoti. Mil.avv. VI–III asrlarda Italiya hududlarining iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti notekis bordi. Etruriya va Kampaniya viloyatlari, Janubiy Italiyadagi yunon koloniyalarining iqtisodiyoti yaxshi rivojlandi. Latsiya viloyati qo'shni etrusk shaharlari va yunon koloniyalaridan qoloq edi. Italiyaning tog'li hududlaridagi qabilalar ibtidoiy urug' jamoa sharoitida yashar edilar. To'qimachilik zaif rivojlangan edi. Qul mehnatidan faqat konchilikda, tosh qazib chiqarishda keng foydalanilar edi.

Italiyada eng ommaviy hunarmandchilik sohalaridan biri – kulolchilik edi: turli xil idish-tovoqlar, suv quvurlari, cherepitsa, xom g'isht, chiroqlar, etrusk qora rangli «bukker» bo'rtma bezakli idishlari mashhur edi. Kulolchilikning eng katta markazlari Kluziya, Arretsiya va Kalax edi. Mil.avv. VI–V asrlarda etrusk shaharlarida savdo-hunarmandchilik gullab-yashnadi. Ayniqsa, metallurgiya va metallga ishlov berish, kulolchilikda etrusklar katta yutuqlarga erishdilar. Etrusk va kampan jez idishlariga Bolqon Yunonistonida ehtiyoj katta edi. Mil.avv. VI–III asrlarda asosiy savdo-hunarmandchilik markazlari Sirakuza, Tarent, Dikearxiya (Puteola), Populoniya, Adriya va Spina edi. Rimning savdo ahamiyati o'sdi. Har yili katta diniy bayramlar vaqtida Etruriyaning markazi Volsiniya va Latsiyaning 4 viloyat bilan tutashgan chegarasida savdo yarmarkalari uyushtirilgan.

Mil.avv. VI–III asrlarda tashqi savdo yuksaldi. Savdo asosan suv yo'li bilan amalga oshirildi. Mil.avv. VI asrda dengiz savdosiga Rim ham tortildi. Tibr daryosi boshlanishida Rimning Ostiya portiga asos solindi. O'sha vaqtning eng katta dengiz davlati Karfagen bilan Rim mil.avv. 509, 348 va 279-yillarda uch marta savdo shartnomalarini tuzdi. Etrusklar va Janubiy Italiya yunonlari, gallar, Bolqon Yunonistoni, Kichik Osiyo bilan savdo aloqalarini o'rnatdilar. Ilva va Populoniyadan qazib olingan temir Kampaniya va etrusk shaharlariga yetkazib berilar edi.

Mil.avv. IV–III asrlarda Rim shahrida obodonchilik, qurilish ishlari avj oldi. Sensor konsul lavozimlarini egallagan, mil.avv. 292-yilda diktator bo'lgan Appiy Klavdiy davrida senat ilgari xarajatlarda o'ta tejamkorlik siyosatidan voz kechdi. Katta xarajat talab qilgan qimmat, lekin foydali inshootlar qurildi: Italiyaning turli hududlarida a'lo yo'llar, jumladan, mashhur

Appiy yo'li, Rimdagi suv quvuri qurildi. Botqoq yerlar quritilib, ekinzorlarga aylantirildi. Appiy Klavdiy yurisprudensiyani ham rivojlantirishga shart-sharoit yaratdi.

Italiyaning ko'pgina hududlari xo'jaligining yetakchi sohasi dehqonchilik edi. Etruriyada unumdor tuproq, yumshoq iqlim, yuqori agronomiya madaniyati va agrotexnika taraqqiyoti yuqori hosil olishni ta'minlar edi. Bu yerda bug'doy, arpa, tariq, polba; Kampaniya va Janubiy Italiyada uzumchilik, zaytun daraxti keng tarqalgan edi. Etruriya g'allasi Rim va lotin shaharlarini, Buyuk Yunonistondan keltirilgan zaytun yog'i Latsiya va Etruriyani ta'minlar edi.

Mil.avv. VI–III asrlarda jamoa yer egaligining yemirilishi bilan birga, yerga xususiy mulkchilik kuchaydi. Urug'ning yerlari kichik ulushlarga bo'linib, yer ishlov berish uchun qarindoshlar, kliyent va qullarga berilgan. Plebeylar xususiy mulk sifatida o'zlariga tegishli yer maydoniga ishlov berar edilar (ular davlatdan 2 yugerdan 0,5 gektargacha yer olganlar). Xususiy va jamoa yerlaridan tashqari, davlat yer jamg'armasi (ager publikis) mavjud edi. Rim fuqarosi davlat yerini katta bo'lmagan ijara to'lovi bilan okkupatsiya (lotincha egallash) qilish huquqiga ega edi. Patritsiylar bu huquqdan unumli foydalandilar. Plebeylar ham yuz yillik kurashlar natijasida «ager publikis»dan foydalanish huquqiga ega bo'ldilar. Ilk respublika davrida Rim iqtisodiyotining asosi qishloq xo'jaligi edi. Mayda va o'rta yer egaligi yetakchi rol o'ynagan. Mil.avv. IV asrdan patritsiylar jamoa yerlarini («ager publikus») bosib ola boshladilar. Natijada yirik xo'jalik (imeniye)lar paydo bo'lib, qullar mehnatidan ko'proq foydalanila boshlandi.

Boshda qadimgi Italiyada ayirboshlashning keng tarqalgan vositasi bo'lib chorva hayvoni (pecus, shundan pulning lotincha nomi – pecunta) xizmat qildi. Eng qadimgi davrdan boshlab Rimda mil.avv. III asrgacha pul sifatida og'irligi 2-2,5 kg gacha bo'lgan, ishlov berilmagan mis parchasi (aer rude) yurar edi. Ularni mil.avv. V asrdan og'irligi 1000-1830 gramm bo'lgan, xudo va hayvonlar tasviri tushirilgan quyma jez parchalari siqib chiqara boshladi. Mil.avv. IV–III asrlarning ikkinchi yarmidan 327,45 gramm og'irlikdagi jezdan quyilgan (aes grave) tangalar keng tarqaldi. Mil.avv. IV asrning ikkinchi yarmidan natural xo'jalik o'rniga pul-tovar xo'jaligi keldi. Rim pul birligi – mis ass paydo bo'ldi. Dastlab bu tangalar Yunon Moneta ibodatxonasida zarb qilina boshlandi. Shundan «moneta» so'zi kelib chiqdi.

Mil.avv. III asr oxiridan ass 10 marta yengillashib, 173 gramm-ga keldi. Jez tanganing tressis, dupondiy, semis kabi turlari mavjud edi. Mil.avv. III asrdan Rimda kumush tangalar, jumladan, denariy (4,55 gramm) va sestersiy (1,13 gramm) zarb qilina boshlandi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Грант М. Цивилизация древнего Рима. – М.: 2003.
2. Нечай Ф. М. Образование Римского государства. – Минск: 1972, гл. II-IV, с. 51-202.

Asosiy sanalar

| | |
|------------------|---|
| Mil.avv. 509-yil | So'nggi Rim podshosi Tarkviniy Mag'rur-ning Rimdan haydalishi. |
| Mil.avv. 507-yil | Rim tarixida birinchi marta diktator saylandi. |
| Mil.avv. IV asr | «Samniy» ittifoqi tuzildi. |
| Mil.avv. 390-yil | Rimga gall qabilalari bostirib kirdi. |
| Mil.avv. 356-yil | Rim tarixida plebeylardan ilk bor diktator saylandi. |
| Mil.avv. 287-yil | Gortenziy qonunining qabul qilinishi bilan plebey va patritsiylar o'rtasidagi ziddiyatlar yakunlandi. |

RIM O'RTAYER DENGIZI DAVLATI (MIL.AVV. III-I ASRLAR)

1. Rim-Karfagen urushlari. 2. Rim iqtisodiyoti. 3. Qullar. 4. Harbiy tashkilot.

1. Rim-Karfagen urushlari. Rim Italiyani bosib olishni tugallash davrida Shimoliy Afrikadagi qudratli dengiz davlati Karfagen manfaatlari bilan to'qnashdi. Karfagen bir necha asrlar davomida G'arbiy O'rtayer dengizi havzasidagi xalqaro savdoda yetakchi mavqega ega bo'lgan davlat edi. Ikki davlatning raqobati uchun asosiy sabab boy Sitsiliya oroli edi. Karfagenliklar orolning g'arbiy qismida qadimdan o'rnashib, bu yerda Lilibey, Drepana va Panorm tayanch nuqtalarini barpo qildilar. Uzoq vaqt Rim va Karfagen mil.avv. 509, 348 va 279-yillarda tuzilgan savdo shartnomalari bilan tinchlik munosabatlarini saqlab turdilar. Rim Apennin yarim orolini bo'ysundirish bilan band bo'lgan bir paytda, Karfagen Shimoliy Afrikani bosib olish vaqtida ularning manfaatlari to'qnashmadi. Ammo rimliklar Janubiy Italiyaga suqilib kirishi bilan vaziyat o'zgardi. Rim respublikasi qudratli davlatga aylanib, O'rtayer dengizi orollari, jumladan, boy Sitsiliyaga hukmronlik qilishga da'vo qila boshladi. Karfagen Rimning kuchayishi va ekspansiyasidan bezovta bo'ldi. Har ikki tomon urushga tayyorlana boshladi.

Rimliklar karfagenliklarni punilar deb atar edilar. Rim va Karfagen o'rtasida uch marta urush bo'lib o'tdi (I urush mil.avv. 264–241-yillar, II urush mil.avv. 218–201-yillar, III urush mil.avv. 149–146-yillar). Har uchala urushda ham rimliklar g'olib chiqdilar. Karfagenliklar Rim bilan to'qnashuv arafasida Sardiniya va Korsika orollariga o'rnashib olib, butun Sitsiliya ustidan hukmronlik qilar edilar. Sitsiliyadagi Sirakuza va Messina shaharlari bundan mustasno edi. Karfagenning Messanani egallashga urinishi Rim bilan urushni keltirib chiqardi. I puni urushi 23 yil davom etdi.

Dastlab harbiy harakatlar Sitsiliyada boshlanib, rimliklar bu yerda bir necha yutuqlarga erishdilar. Lekin bu yutuqlar rimliklar uchun hech qanday ahamiyatga ega bo'lmadi. Chunki rimliklar dengiz flotiga ega emas edilar va bu sohada Karfagen

bilan raqobatlasha olmas edilar. Karfagen floti dengizda cheksiz hukmron edi. Rim qisqa vaqt ichida barcha vositalarni ishga solib, mil.avv. 260-yilda 120 jangovar kemadan iborat harbiy flotga ega bo'ldi. Shu yilda Lipar orollari yaqinida karfagenliklar Rim floti ustidan yengil g'alaba qozondilar. Dong'i ketgan dengizchi karfagenliklar tez yuradigan kemalarga ega bo'lib, Rim flotiga mensimay qaradilar. Tez orada rimliklar dengizda birinchi g'alabani qo'lga kiritdilar. Rimliklar urush harakatlarini dushman hududi Afrikaga ko'chirishga erishdilar. Ammo Afrikaga birinchi yurishda rimliklar yetarli tayyorgarlik ko'rmaganlari uchun urush harakatlarida muvaffaqiyatsizlikka uchradilar.

Urush cho'zilib ketdi va urush harakatlari yana Sitsiliyaga ko'chdi. Har ikki urushayotgan tomonlarning kuchlari zaiflashdi. Hal qiluvchi jang mil.avv. 241-yilda Sitsiliyaning g'arbidagi Egat orollari yonida bo'lib o'tdi. Karfagen floti batamom tor-mor qilindi. Karfagen tinchlik shartnomasini tuzishga majbur bo'ldi va Sitsiliyani qo'ldan boy berdi hamda katta miqdorda tovon to'ladi. Bir qancha vaqt o'tgach, rimliklar Korsika va Sardiniya orollarini bosib oldilar. Karfagen rimliklarni bu istilosiga chidashga majbur bo'ldi. Bu vaqtda Karfagenning o'zida yollanma askarlar qo'zg'oloni boshlanib, unga Liviya aholisi ham qo'shildi. Qo'zg'olon lashkarboshi Gamilkar Barka tomonidan bostirildi.

Qo'zg'olonning birinchi kunidayoq o'zini ko'rsatgan Gamilkar Barkaning Karfagenda obro'si oshib ketdi. Gamilkar Barka Rimdan o'ch olishni orzu qilar edi va Karfagenda boy savdogar-kemachilar va oligarxiyaning rimliklar bilan yangi urush tarafdorlariga boshchilik qildi. Gamilkar urushga yaxshi tayyorgarlik ko'rish uchun Karfagen qo'shini bilan Ispaniyaga jo'nadi. U Ispaniyaning tabiiy boyliklarini o'zlashtirib, Karfagen qo'shinining qudratini kuchaytirish maqsadida Ispaniyada yangi yerlarni bosib olishga harakat qildi. U mahalliy iber qabilalarining qarshiligini bostirishga harakat qilib, mil.avv. 229-yil halok bo'ldi. Qo'shin o'z yo'l boshchisi etib uning kuyovi Gazdrubalni sayladi. Gazdrubal Gamilkarning ishini davom ettirib, Yangi Karfagen shahriga asos soldi. Rimliklar Shimoliy Ispaniyada karfagenliklarning yutuqlaridan bezovta bo'lib, mil. avv. 226-yil Ispaniyaga Rim elchilarini jo'natdilar. Gazdrubal bilan shartnoma tuzilib, unga ko'ra, karfagenliklar Ebro daryosini harbiy maqsadlar bilan kechib o'tmaslik majburiyatini oldilar. Bu shartnoma Karfagen uchun foydali edi. Rim bu vaqtda

gallar bilan urushda band bo'lgani va ichki vaziyat Rimda jiddiy bo'lganligi uchun Karfagenning Ispaniyada mustahkamlanishiga qarshilik ko'rsata olmas edi.

Gazdrubal mil.avv. 221-yil o'ldirildi. Uning o'rniga qo'shin qo'mondoni etib Gamilkarning 25 yoshli o'g'li Gannibal saylandi. Yosh bo'lishiga qaramasdan, Gannibal Rimga nafrat ruhida tarbiyalangan yetuk lashkarboshi edi. Bo'lg'usi mashhur lashkarboshi Gannibal 11 yoshida rimliklarga qarshi kurashishga qasamyod qilgan edi. Qo'mondonlik Gannibal qo'liga o'tishi bilan Rim bilan urush qilish masalasi hal qilindi. II Puni urushi mil.avv. 218-yil boshlanib, 17 yil davom etdi. G'ayratli sarkarda urush harakatlarini rimliklar hududida olib borib, Rim qo'shinlarini shu yerdayoq tor-mor qilish rejasini tuzdi. Bu rejani amalga oshirish uchun Gannibal qo'shinlari Pireney yarim orolidan Italiyaga Pireney va Alp tog'laridan oshib o'tdi. Gannibal qo'shinlari Rim qo'shinlari ustidan bir necha marta g'alaba qozondi (mil.avv. 217-yil Tisin daryosi bo'yida; Trebiy daryosi bo'yida, Trazimen ko'li bo'yida). Mil.avv. 216-yil Apuliya viloyatidagi Kanna yonida Rim qo'shinlari Gannibal qo'shinlari bilan to'qnashdi. Kanna yonidagi jang janglarning ichida eng mashhuri edi. Bu jangda Gannibal konsullar Emeliy Pavel va Varronlar boshchiligidagi Rim qo'shinlarini qurshab olib, to'la tor-mor qildi. 50 ming kishilik Rim qo'shinidan bor-yo'g'i 14 ming kishi omon qoldi. Italiyaning bir necha shaharlari, samniylar, lukanlar, girpinlar va Janubiy Italiyaning barcha qabilalari Gannibal tomoniga o'tdi. Kanna yaqinidagi jangdan so'ng Sirakuza va Makedoniya Karfagen tomoniga o'tdi. Rim o'z harbiy kuchini bir necha frontga bo'lishga majbur bo'ldi. Lekin rimliklar mil. avv. 211-yilda Sirakuzani egalladi va Makedoniyani podshosi Filipp V ni Karfagenga yordam berishiga xalaqit berdi. Birinchi Makedoniya urushi mil.avv. 211-yilda boshlandi. Faqat Kampaniyadagi yunon shaharlari Rimga sodiq qoldi.

Karfagen o'z qo'mondoniga yetarli yordam ko'rsata olmadi. Gannibal biror marta yengilmagan bo'lsa-da, qo'shinlari bilan o'z yurtidan uzoqlashib, Janubiy Italiyada qamalib qoldi. Rim qo'shinlari Ispaniyada muvaffaqiyatli harakat qildi. Rimliklar karfagenliklarning Ispaniyadagi asosiy tayanch nuqtasi Yangi Karfagenni mil.avv. 209-yil bosib oldilar va yarim orolning janubiy-sharqiy qismini egallab oldilar. Italiya hududida ham rimliklar asta-sekin dushman qo'shini ustidan yaxshi natijalarga erisha boshladilar. Karfagenliklar tomoniga o'tgan shaharlar

yana Rimni qoʻllab-quvvatlay boshladi. Yosh rimlik sarkarda Publiy Korneliy Sisipion Ispaniyada karfagenliklarga qarshi gʻolibona urush harakatlarini olib bordi. U Ispaniyani punilardan tozalab, Afrikaga qoʻshin tushirdi. Karfagen hukumatining buyrugʻi bilan Gannibal mil.avv. 203-yil Afrikaga qaytdi. Mil. avv. 202-yilda Karfagen shahri yaqinidagi Zam qishlogʻi yonidagi hal qiluvchi jangda Gannibal oʻz hayotida birinchi va oxirgi magʻlubiyatni boshidan kechirdi. Karfagen qoʻshinlari toʻla tor-mor qilindi. Rimliklarga bu jangda Karfagenning qoʻshnisi Numidiya otlig qoshinlari yordam berdi.

Mil.avv. 201-yilda Rim va Karfagen oʻrtasida sulh shartnomasi imzolandi. Uning shartlariga koʻra, Karfagen Afrikadan tashqari barcha koloniyalaridan mahrum boʻldi. Oʻz jangovar fillari va harbiy flotini yoʻq qildi. Karfagen 50 yil davomida 10 ming talant toʻlashi, Rimning ruxsatisiz oʻzining afrikalik qoʻshnilari bilan urush olib borishi taqiqlandi. Tinchlik shartnomasining bu ogʻir shartlari Karfagenning harbiy-siyosiy qudratini umrbod zaiflashtirdi.

II Puni urushidan soʻng, Rim Po daryosi vodiysidagi viloyatlarini egallagan Karfagenning ittifoqchilari boʻlgan gal qabilalarini boʻysundirdi. Rim Liguriya, Korsika va Sardiniyada oʻz hukmronligini mustahkamlash uchun urush harakatlarini olib bordi. Rimliklar bu urushlarda mahalliy aholiga nisbatan oʻta shafqatsiz munosabatda boʻldilar. Boʻlajak mashhur tribunlarning otasi Tiberiy Semproniy Grakx sardinlarning bir qismini qirib tashlab, 80 ming sardinni asir oldi. Ular qulga aylantirilib, qul bozorlarida shunday past narxlarda sotildiki, Italiyada «sard kabi arzon» degan ibora paydo boʻldi.

III Puni urushidan 20 yil oʻtgach, Italiya va Ispaniya oraliqidagi dengiz qirgʻogʻida yashaydigan Alp orti gal qabilalarining yerlarini bosib oldi. Bosib olingan hududlarda Alp oldi va Alp orti ikki gal provinsiyasi tashkil etildi. Shu tarzda mil.avv. II asrda butun Apennin yarim oroli Alp togʻigacha va Oʻrtayer dengizi gʻarbiy qismining barcha qirgʻoqlari Rim hukmronligi ostiga oʻtdi. Gannibal Karfagenda mil.avv. 195–194-yillarda sufet oliy mansabiga saylandi va mamlakatning kuch-qudratini qayta tiklash maqsadida siyosiy islohotlar oʻtkaza boshladi. Karfagenning haqiqiy xoʻjayinlari – qudratli zodagon oligarxlar Gannibalni Rim bilan urushda asosiy aybdor deb hisoblar edilar. Amalda esa Gannibalning Italiyadagi gʻolibona yurishini mustahkamlash uchun havodek zarur boʻlgan yordamni aynan

ular bermadilar. Gannibal xalq yig'inini qonunchilik funksiyalarini kuchaytirib, uni ijroiya hokimiyati ustidan nazoratini yo'lga qo'ydi. U moliya ishlari bilan shug'ullanadigan mansabdorlar ustidan nazorat qilib, suiiste'mol va korrupsiyani yo'q qildi.

Ammo Karfagendagi siyosiy vaziyat keskinlashdi. Gannibal mamlakatdan chiqib ketib, Salavkiylar podshosi Antiox III saroyidan panoh topdi. U Antiox III ning maslahatchisi bo'ldi. Buyuk sarkarda Salavkiylarni har qanday yo'l bilan Rimga qarshi urushga gij-gijladi. Bir necha urushlarda Antiox III Rimdan mag'lub bo'lib, tinchlik sulhi tuzdi. Gannibal Salavkiylar saroyidan Armanistonga, keyin Kichik Osiyodagi Vifiniyaga keldi. Bu yerda u Rimning sodiq ittifoqchisi Pergamga qarshi urushni uyushtirdi. Rimliklar Gannibalni o'zlariga topshirishni talab qildilar. Buyuk sarkarda turgan qal'a qamal qilinganda, Vifiniya podshosi uni Rimga berishga tayyorligini bilib qolib, 70 yoshli Gannibal zahar ichib o'ldi (mil.avv. 183-yil).

Karfagen o'tgan 50 yil ichida o'zining qulay geografik joylashuvi bilan o'z iqtisodiy qudratini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi. U yana xalqaro vositachilik savdosining Shimoliy Afrikadagi yirik markaziga aylandi. Rimliklar o'zlarining eski raqibini Rim hududiga bostirib kirganini hech qachon unuta olmas edi. II Puni urushidan so'ng rimliklar Karfagenning xatti-harakatini diqqat bilan kuzatib borar edilar. Karfagenning yana o'z kuch-qudratini qayta tiklayotgani Rimni bezovta qildi. Kuchayib borayotgan Rimning savdo-sudxo'rlik doiralari Karfagenni bosib olishni talab qildilar. Numidiya davlati Rim homiyligi ostida Karfagen bilan doimiy to'qnashuvlarni keltirib chiqardi. Karfagen Numidiyaga qarshi urushga kirdi va bu urushda yengildi.

Mil.avv. 149-yilda III puni urushi boshlandi. Rimliklar Karfagenga mil.avv. 201-yildagi shartnoma shartlaridan birini buzishda ayblab, mil.avv. 149-yilda Karfagenga qarshi urush e'lon qildilar. Rim-Karfagen qo'shinlari uchinchi va oxirgi marta to'qnashdi. Bu II Puni urushidan 50 yil o'tgach sodir bo'ldi. Rim konsullari Karfagenga og'ir shartlarni qo'ydilar. Karfagenda bu paytda hokimiyat tepasida Rim bilan murosa qilish tarafdorlari turib, ular har qanday shartlarga rozi edilar. Utika shahriga kelgan Rim konsullari boshqa talablar bilan birga, karfagenliklarga shaharni tark etib, dengizdan 15 km uzoqlikda borib joylashishni talab qildilar. Karfagenliklar bu talabni qat'iy rad

qildilar va o'z shaharlarini oxirigacha himoya qilishga ahd qildilar. Karfagen uch yil qamal qilindi. II Puni urushida Karfagen qamalgan rahbarlik qilgan Sisipionning o'g'li Emiliy Sisipion shaharga bostirib kirdi. Karfagenga senat komisiya si keldi va shaharni to'la yo'q qilishga qaror qildi. Shahar 16 kun o't ichida qoldi. Tirik qolgan shahar aholisi qul qilib sotib yuborildi. Karfagen mulklari o'rniga Rimning Afrika provinsiyasi tashkil qilindi. III Puni urushidan so'ng Rim G'arbiy O'rtayer dengizining eng qudratli davlatiga aylandi. Rim Italiyadan tashqari Sitsiliya, Sardiniya va Korsikaga egalik qildi. Mil.avv. 241-yil Sitsiliya birinchi rim provinsiyasi (qaram yer) bo'ldi, mil.avv. 227-yil Sardeniya, Korsika, mil.avv. 197-yil Iberiya hududida (Rimliklar uni Ispaniya deb atadilar) ikki provinsiya tashkil etildi.

II Puni urushidan so'ng rimliklar O'rtayer dengizining sharqiy qismini egallash uchun harakat boshladilar. Ular sharqda Rimning eng xavfli raqibi ellin Makedoniyasiga qarshi uch marta (mil.avv. 206, 197 va 168-yillar) urush olib bordilar. Rim senati mil.avv. 215-yil Pergam, Etoliya ittifoqi va boshqa yunon-shaharlari bilan ittifoq tuzib, Makedoniya bilan urush olib bordi. Bu urush 206-yil Rimning g'alabasi bilan tugadi. Rim o'zini yunon shahar-davlatlarini Makedoniya zulmidan ozod qiladigan xaloskor deb e'lon qildi. Amalda Makedoniya Yunonistondan haydab chiqarilganidan so'ng, Bolqon Yunonistoni Rimga qaram bo'ldi.

Makedoniya Salavkiylar bilan ittifoq bo'lib, mil.avv. III asr oxirida Misrga qarashli Egey orollari, Kichik Osiyo va Suriya hududlarini bo'lib olmoqchi bo'ldi. Pergam, Rodos va boshqa yunon davlatlari Rimdan yordam so'radilar. Mil.avv. 200-yilda Rim Makedoniyaga qarshi urush boshladi. Fessaliyadagi mil. avv. 197-yil hal qiluvchi jangda Makedoniya mag'lub bo'ldi. II makedon urushidan so'ng sharqda Rimga qarshi ittifoq tashkil etishga uringan Salavkiylar hukmdori Antioxni zaiflashtirish uchun rimliklar bor kuchlarini ishga soldilar. Antiox III saroyidan panoh topgan Gannibal Antioxga Rimga qarshi yunon-davlatlari bilan ittifoqini tuzib, Italiya hududida urush olib borishni taklif qildi. Lekin Antiox yunonlarning yordamiga umid qilib, urushni Yunonistonda boshladi. Faqat Etoliya va Beotiya ittifoqlari Antioxga bir qadar yordam berdilar. Kichik Osiyodagi Magnesiya yonida mil.avv. 190-yilda hal qiluvchi jangda Antiox III qo'shinlari yengildi. Salavkiylar Yevropadagi va Osiyodagi bir qism hududlaridan mahrum bo'ldilar.

Bu vaqtda makedon podshosi Persey Rimga qarshi ittifoqni tashkil etishga urinib ko'rdi. U Salavkiylar va Vifiniya bilan sulolaviy aloqalarni mustahkamlashga urindi. Xalq ommasining yordamini olish uchun qarzlardan kechishga, qamalganlarni amnistiya qilishga va'da berdi. Lekin Persey Rimga qarshi ittifoq tuza olmadi. Mil.avv. 171-yil III Makedon urushi boshlanganda faqat odrislar podshosi Kotis Makedoniyaning ishonchli ittifoqchisi bo'ldi. Mil.avv. 168-yilda Pidna yonidagi jangda Rim qo'shinlari Makedoniya qo'shinlarini tor-mor qildi. Rim Makedoniyaning tarafdorlaridan shafqatsiz o'ch oldi. Epirning 70 shahari talanib vayron qilindi. Ularning 150 ming aholisi qul qilib sotib yuborildi. Bosib olingan hududlarda Makedoniya provinsiyasi tashkil topdi (mil.avv. 148-yil). Persey ustidan g'alabadan so'ng Rimga garovga olingan 100 ming yunon olib kelindi. Ularning ichida mashhur tarixchi Polibey ham bor edi. Perseyning kutubxonasi dagi nodir kitoblar Rim konsulining o'g'illariga sovg'a qilindi. Tez orada Yunonistonda rimliklar zulmiga qarshi harakat boshlandi. Rimliklar bu harakatni shafqatsiz bostirdilar va mil.avv. 146-yilda Korinf shahrini vayron qildilar. Yunonistonda Axey provinsiyasi tashkil qilindi. Mil.avv. 133-yil Kichik Osiyoda Pergam podshosi vafot etdi va o'z podsholigini Rimga vasiyat qildi. Rimliklar bu yerda yana bir Osiyo provinsiyasini tashkil qildilar.

2. Rim iqtisodiyoti. O'rtayer dengizi havzasida yuz yil davomida olib borilgan bosqinchilik urushlari natijasida Rim kichik shahar-davlat doirasidan chiqib, O'rtayer dengizining eng qudratli davlatiga aylandi. Bu mamlakat iqtisodiyoti va Rim jamiyat hayotining boshqa sohalarida ham o'zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, iqtisodiyotda muhim o'zgarishlar yuz berdi.

Rim-Italiya xo'jaligiga klassik qulchilik munosabatlarining kirib kelishi chuqur o'zgarishlarga olib keldi. Qishloq xo'jaligining turli sohalarida o'sish boshlandi. Uzunchilik, zaytun daraxtlari o'stirish, bog'dorchilik va sabzavotchilik rivojlandi. Yunoniston, Kichik Osiyo va Afrikadan uzumning yangi navlari, meva daraxtlar keltirildi. Qishloq xo'jaligida mehnat qurollarining turlari ko'paydi. G'allachilik takomillashdi. Sifatli bug'doy ekilib, hosildorlik o'sdi. Yerlarga ishlov berish, o'g'itlash va boshqa agrotexnika qoidalariga rioya qilina boshlandi. Chorvachilikda ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Chorvachilik va parrandachilik o'sha vaqtda eng daromadli sohalariga aylandi. Qishloq xo'jaligining o'sishini asosiy sabablari qulchilikni keng

tadbiq qilinishi, tovar ishlab chiqarish xo'jaligining tashkil qilinishi, kichik xo'jaliklardan voz kechib, katta ekin maydonlarida xo'jalik yuritish edi. Qishloq xo'jaligida bu davrda xo'jalikning asosiy yetakchi turi bir necha yuz yuger yer va unda 10-20 qullar ishlaydigan quldor xo'jaligi edi. Bular o'rta quldor xo'jaligi hisoblanib, ular bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Bunday xo'jaliklar villa deb atalgan. Villalar bilan bir qatorda qishloqda erkin dehqonlarning kichik xo'jaligi keng tarqalgan edi. Dehqon 10-30 yuger yerda o'z oilasi bilan ishlab, ba'zida bir yoki ikki qul mehnatidan foydalanar edi.

Italiyada hunarmandchilikning gullab-yashnashi mil.avv. II – I asrlarga to'g'ri keladi. Rim va boshqa shaharlarda kichik ustaxonalar (ergasteriyalar)da 10-20 hunarmand ishlar edi. Qul mehnatidan keng foydalanila boshlandi. Hunarmandchilikda ozod qo'yilgan qullar mehnati ham sezilarli o'rinni egalladi. Ularning o'zlari ham uncha katta bo'lmagan ustaxonalarga ega edilar. Hunarmandchilikning rivojlanishi metall, tosh, yog'och, jun, teri, shisha va qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Sardiniya va Ispaniyada temir qazib chiqarish keng yo'lga qo'yildi. Tog'-kon va metall quyishda yangi texnik o'zgarishlar amalga oshirildi. Shaxtalarda 150 m gacha chuqurlikda ishlana boshlandi. Konlarda ventilatsiya, Arximed vinti, kon-dan suvni qochirish g'ildiragidan foydalanila boshlandi.

Yunonistondan marmar, Misrdan granit import qilindi. Italiyaning o'zida Shimoliy Etruriyadan marmar qazib olina boshlandi. Qurilish materiallari taqchil edi. Arzon, qulay, mustahkam qurilish materialiga ehtiyoj o'sdi. Mil.avv. II asrda rimliklar bu talablarni qondiradigan qurilish xomashyosi – betonni kashf qildilar. Rimliklar pishirilgan g'isht ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'ydilar. Mil.avv. II–I asrlarda ma'lum ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik hunarmandchilik markazlari shakllandi: Puteola – temirni qayta ishlash, Kapuya – jez va qo'rg'oshin quymalari bilan, Manturin va Kaliy – qishloq xo'jalik qurollarini tayyorlash, Arretsiy – kulolchilik, Tarent, Kanuziy – jun mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shuhrat qozondi. Rimliklar fuqarolik va muhandis me'morchiligini rivojlantirdilar. Rim suv quvurlari, ko'priklari, termalari, amfiteatrlari, portlar, Rimdagi ko'p qavatli uylar me'morchilik va qurilishning eng yaxshi yutuqlari asosida bunyod qilindi.

O'rtayer dengizi savdosi gullab-yashnadi. Rim, Puteola, Sirakuza eng yirik savdo markazlari bo'lib qoldi. Kemasozlik,

dengizchilik rivojlandi. 200 tonnagacha yuk ortiladigan savdo kemalari paydo bo'ldi. Qo'shimcha yelkanlar, kema boshqaruvi, mayoqlar, gavanlar qurildi. Dengiz savdosi bilan hatto savdo qilish man etilgan nobillar ham shug'ullana boshladilar. Ular qonunni chetlab o'tib, dengiz savdosida vositachilar va o'zlarining ozod qo'yilgan qullaridan foydalandilar.

Quruqlikdagi savdo ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shahar va qishloqlar o'rtasida mahsulot almashuv maxsus qurilgan shahar bozorlarida, viloyatlararo yarmarkalarda amalga oshirildi. Viloyatlar o'rtasida aloqalarning mustahkamlanishi Italiyada puxta qurilgan qurilish san'atining noyob yutuqlari bo'lgan yo'llarning qurilishiga sabab bo'ldi. Yo'llar tosh to'shalgan mustahkam to'g'ri chiziqda bunyod qilinib, boshda Italiyaning barcha viloyatlarini, keyinchalik provinsiyalarni qamrab oldi. Rim shahridan o'tadigan eng yirik yo'llar Italiyaning barcha viloyatlari va undan tashqari cho'zilib ketdi. Rim forumida oltin suvi yuritilgan ustun qo'yilib, undan Italiyaning bosh yo'llari masofasini hisoblash boshlandi. Ana shu yerdan «barcha yo'llar Rimga boradi» aforizmi tug'ildi. Rim savdosining o'sishi tanga miqdorini ko'paytirishni talab qildi. Rimning sestersiy va denariy kumush tangalari tezda O'rtayer dengizi havzasida asosiy valyuta o'rnini egallab, boshqa tangalarni siqib chiqardi.

Bosqinchilik urushlari natijasida Rimga moddiy boylik, pul mablag'lari va qullar oqib keldi. I Puni urushidan so'ng Rim xazinasiga 3200 talant kumush kiritildi. II Puni urushidan so'ng Karfagenning to'lov puli 10 ming talant, Antioxga yuklangan tovon to'lovi 15 ming talantni tashkil etdi. Rim sarkardalarining harbiy o'ljalari behisob edi. Makedoniya podshosi Perseyning g'olibi Emiliy Pavelning Rimga zafarli kirishida bosib olingan qimmatbaho qurollar, san'at asarlari, oltin, kumush bilan to'la katta xumlar jang aravalarida uch kun davomida olib o'tildi. Antiox ustidan g'alaba natijasida harbiy o'lja sifatida 1280 fil tishi, 234 oltin chambar, 187 ming funt kumush (1 Rim funti 327 gramm), 224 ming yunon kumush tangasi, 140 ming makedon tilla tangasi, ko'p miqdordagi zargarlik buyumlari Rim xazinasiga kelib tushdi. Mil.avv. II asrgacha Rim kumush tangaga ehtiyoj sezmad. Bu istilolar, ayniqsa, ispan kumush konlarining bosib olinishi Rim davlatini o'z pul tizimini kumush bilan ta'minlash imkoniyatini yaratdi. Bu Rimda savdo, moliya-sudxo'rlik kapitali rivojlanishiga turtki bo'ldi. Rimda turli jamoat ishlari, provinsiyalarga soliqlarni ijaraga olgan moliya-

chi-tadbirkorlar paydo bo'ldi. Istilochilik urushlaridan olingan o'ljalar, qaram hududlardan olinadigan daromadning o'sishi natijasida Pidna yonidagi jangdan so'ng (mil.avv. 168-yil) Rim fuqarolari harbiy xarajatlar uchun olinadigan soliqni to'lamay qo'ydilar.

Rim bosib olingan hududlar boshqaruvini yo'lga qo'ydi. Bu hududlar rimliklarning mulki provinsiya (qaram) yer deb e'lon qilindi. Rimdan pretor yoki Rimda konsullik muddatini o'tab bo'lgan konsullar noib etib tayinlandilar. Bosib olingan hududlarda Sitsiliya, Sardiniya provinsiyalari tashkil etildi. Pireney yarim orolining asosiy aholisi iber qabilalari edi. Puni urushlari natijasida rimliklar va Ispaniya deb ataladigan yarim orolning katta qismini bosib oldilar. Ispaniya Betika (mil.avv. 197-yil) Tarrakon Ispaniyasi (mil.avv. 197-yil) provinsiyalarni tashkil etdilar. Rim urushlar davomida Italiyadan chetdagi bosib olingan hududlar provinsiya deb ataldi. Boshda «provinsiya» so'zi oliy magistratga beriladigan topshiriq ma'nosini bildirgan. Keyin esa bu so'z bosib olingan hududlarga nisbatan aytildi. Rimning birinchi provinsiyalari Sardiniya (mil.avv.241-yil), Sardiniya va Karsika (mil.avv. 227-yillar), Ispaniyada Betika va Tarrakan Ispaniyasi provinsiyalari (mil.avv. 197-yil) tashkil etildi. Respublika davrida 20 provinsiya bo'lib, rimliklar ularni «rim xalqining pomestesi» deb hisoblar edilar. Provinsiyalar rim noibi va uning qo'shinini o'z hisoblaridan saqlashlari majbur bo'lgan. Noiblar o'zlari chiqaradigan ediktlar orqali oliy harbiy, ma'muriy va sud hokimiyatini ommaga oshirganlar. Oktavian davrida promagistratlar boshqaradigan senat provinsiyalari va legat yoki propretor unvoni bilan prokuratorlar boshqaradigan imperator (chegara) provinsiyalariga bo'linib ketdi. Provinsiyalarni boshqarish tizimi asta-sekin shakllandi. Provinsiyalarni boshqaradigan pretorlar bir yil muddatga saylab qo'yilgan. Provinsiya boshqaruv muddatini uzaytirish senatning maxsus qarori bilan amalga oshirilgan. Noib bilan birga, provinsiyaga moliya-xo'jalik ishlarini olib boradigan kvestor jo'natilar edi. Sobiq konsullar, hali konsul bo'lmagan yuqori mansabdorlar ham noib lavozimini egallar edilar. Noiblar provinsiyalarda harbiy va sud hokimiyatini o'z qo'llariga to'pladilar. Provinsiyalar noib, uning amaldorlari va qo'shinlarini moddiy jihatdan ta'minlashi kerak edi. Noiblar o'z mansablarini suiiste'mol qilib, shaxsiy boylik orttirish uchun provinsiyalarni talon-taroj qildilar. Shu sababli, mil.avv. 149-yil Rimda provinsiya noiblarining talon-

tarojligiga, suiiste'molligiga qarshi senator tribunallari tashkil qilindi. Bu maxsus sudlarga provinsiyalarning noiblaridan jabr tortgan kishilar murojaat qilishi mumkin edi. Provinsiyalar aholisi uchun yana bir kulfat bu rimliklarning soliq yig'ishdagi tovlamachiliklari bo'ldi. Rim noiblari soliq yig'ish huquqini xususiy kishilar («publikanlar»)ga topshirdilar. Ular soliq summasini oldindan kelishilgan miqdorda Rim noibiga to'lab, keyin uni mahalliy aholidan bir necha barobar ko'paytirib yig'ib olganlar. Bu ishlar bilan asosan moliya zodagonlari bo'lgan yangi suvoriylar qatlamining vakillari shug'ullangan. Rim davlati bo'ysundirilgan xalqlarning yerlarini bir qismini tortib oldi. Oltin va kumush, tuz, tosh konlari va o'rmonlar Rim davlati ixtiyoriga o'tdi. Katta miqdordagi urush tovonlari, asirlarni qul qilib sotishdan kelgan daromadlar, harbiy o'ljalar Rim davlatini dunyoda eng katta moliyaviy markazga aylantirdi. Ayniqsa, Rim respublikasida oliy hokimiyat egasi bo'lgan nobilitet yanada boyib ketdi. Nobillar boyligining asosi bu yirik yer egaligi edi. Nobillar qo'shin qo'mondonlari yoki provinsiyalar noiblari sifatida katta miqdorda boyluk to'pladilar.

Mil.avv. 218-yilda qabul qilingan alohida qonun bo'yicha senatorlar savdo va moliya ishlari bilan shug'ullanishlari taqiqlab qo'yildi. Shu sababli, zodagon senatorlar ko'p miqdorda yer maydonlarini sotib oldilar. Yirik xo'jaliklar tashkil qilib, qullar mehnatidan foydalandilar va yuqori daromad oldilar. Nobillarining iqtisodiy-siyosiy qudrati zodagonlarning tashqi ko'rinishida ham aks etdi. Ular keng qizg'ish yo'li tunika (ko'ylak) va maxsus poyafzal kiyar hamda qo'llariga maxsus senator uzugini taqar edilar. Bu ularning Rim jamiyatining boshqa qatlamlaridan ajratib turadigan ramziy belgi edi.

Mashhur yunon tarixchisi Polibiy Rimda birinchi marta senatorlarni ko'rib, ularni hashamatli kiyingan ulug'vor ko'rinishlaridan hayratda qolgan edi. Polibiy senatorlarni podshohlar bilan tenglashtirdi. Nobillar «oddiy» fuqarolarni davlatda nufuzli mansablarni egallashlariga, eng avvalo, konsullik mansabiga yaqinlashtirmaslikka harakat qilar edilar. Mil.avv. 180-yilda qabul qilingan qonun nobillarning oddiy fuqarolarni hokimiyatga yaqinlashtirmasliklari uchun qilgan harakatlarining natijasi edi. Ushbu qonunga ko'ra, Rim fuqarosi uchun mansabga erishish o'n yillik harbiy xizmatdan so'ng, 28 yoshdan boshlanishi lozim edi. Dastlab kvestor, keyin kurul edili, 40 yoshdan so'ng pretorlik lavozimini egallash mumkin edi va 43 yoshda-

gi shuhratparast rimlik fuqaro konsul mansabiga da'vo qilishi mumkin edi.

Nobillar kam sonli ijtimoiy qatlam bo'lishlariga qaramasdan, yuz yillar davomida davlat hokimiyatining oliy mansablarini faqat o'zlari egallab turdilar. Ular mamlakat miqyosida o'z obro'-e'tiborlarini kuchaytirish maqsadida Italiya munitsipiy boy zodagonlari bilan yaqin aloqada bo'ldilar. O'zlariga xizmat qiladigan ko'p sonli klientlarni saqlab turdilar. Rim magistraturasiga faqat o'z toifalariga yaqin bo'lgan kishilarni qo'ydilar. Bir necha patritsiy oilalari yuz yillar davomida Rimga senatorlar, konsullar, sensorlar va boshqa oliy mansabdorlarni yetkazib berdi. Oliy mansablarni egallash uchun zodagon-patritsiy oilalar bir-birlari bilan ittifoq tuzib, mansablarni egallash uchun saylovlarda o'zaro yordam uyushtirganlar.

Rimning istilochilik urushlari davrida jamiyatning yangi imtiyozli suvoriylar tabaqasi paydo bo'ldi. Suvoriylar soliqlar yig'ish, qo'shin ta'minoti va sudxo'rlik ishlari bilan shug'ullanib boyib ketdilar. Qul mehnatidan ommaviy tarzda foydalanish, provinsiyalardan arzon g'alla keltirilishi Italiya dehqon xo'jaligini izdan chiqardi. Dehqonlar g'alla o'rniga uzum va zaytun daraxtlarini o'stira boshladilar. Bog'dorchilik, poliz-sabzavotchilik keng rivojlandi. Vinochilik tez orada katta daromad keltira boshladi. Dehqonlar xonavayron bo'lib, katta shaharlarga keta boshladilar va Rim hokimiyatidan tekin non va tomosha talab qildilar. Ularning ba'zilari senatorlarning klientlariga aylandilar. Zodagon-patritsiylarning tayanchi bo'lgan davlat hokimiyati Rim va boshqa shaharlarda to'plangan, yeridan ajralgan oddiy fuqarolarni boqishga majbur bo'ldi. Hokimiyat ularga muntazam oziq-ovqat mahsulotlarini tarqatishni yo'lga qo'ydi.

3. Qullar. Qulchilik Rimda eng qadimgi davrlardan mavjud edi. Klassik qulchilik nima u? Moddiy ne'matlar ishlab chiqarishda dehqonchilik-hunarmandchilikda asosiy ishchi kuchi qullar bo'lgan iqtisodiyot klassik qulchilikning ko'rinishi, mazmun-mohiyati bo'ladi. Lekin qulchilik o'z klassik shakliga Puni urushlari davrida ega bo'ldi. Har qanday Rim istilochilik urushlari minglab kishilarni asirlikka olish va qullikka sotish bilan birga olib borildi. Ko'pgina urushlar Rimga 100 minglab asirlarni olib kelishga sabab bo'ldi. Karfagen yurishlaridan sarkarda, konsul Regen Rimga 20 ming asirni qul qilib jo'natdi. Mil.avv. 209-yilda Tarent ishg'oli vaqtida 30 ming aholi qul qilindi. Agrigent qamali vaqtida 25 ming kishi asir olindi. Mil.

avv. 167-yilda Epir shahri qamal qilinganda, uning asir olingan 150 ming aholisi qul qilib sotib yuborildi. Rimliklar Sardiniyani bosib olib, uning tirik qolgan barcha aholisini qul qilib sotdilar. Qullarning narxi tushib ketdi. «sard kabi arzon» iborasi shundan kelib chiqdi.

Mil.avv. III asrda Rim iqtisodiyotida qullar asosiy ishlab chiqaruvchilarga aylanib, moddiy ne'matlarni yaratuvchi asosiy ishchi kuchi bo'ldi. Bu ilmiy adabiyotda klassik qulchilik deb nomlandi. Qul mehnatiga asoslangan Rim zodagonlarining yirik pomeste – latifundiyalari paydo bo'lishi bilan Italiyada qulchilik klassik shaklga kira boshladi. Yirik latifundiyalarning g'alla va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan xo'jalikka aylanishi bilan minglab kichik yer egalari ular bilan raqobat qila olmay, xonavayron bo'ldilar. Qullarning mehnati juda arzon, o'zlari esa qadrsiz edilar.

Quldorlik xo'jaligi bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashib, tobora ko'proq mahsulot ishlab chiqarish uchun qul mehnatidan keng foydalandi. Qullarning ijtimoiy va huquqiy ahvoli yomonlashdi. Qul buyum va hayvonga tenglashtirildi. Xo'jayin qulning ustidan mutlaq hukmron bo'lib, u qulni o'ldirishi, yirtqich baliqlar va yovvoyi hayvonlarga yem qilishi mumkin edi. Rimning har bir katta shahrida qul bozori mavjud bo'lib, bu yerda har qanday fuqaro qulni sotishi yoki sotib olishi mumkin edi. O'rtayer dengizidagi eng katta qul bozorlari Delos (Egey dengizi) orolida, Akvileya shaharlarida (Shimoliy-sharqiy Italiya), Tanais (Don daryosi yuqori oqimi)da muntazam mavjud edi. Delos qul bozorida bir kunda 10 minggacha qul sotilar edi. Bozorga kiritilgan qullar miqdoriga qarab uning narxi o'zgarib turar edi. Jang natijasida olingan asirlar qo'shindagi kvestor ixtiyoriga berilgan. Kvestor ularni kim oshdi savdosida sotar edi. Kim oshdi savdosida qul savdogarlari ularni sotib olib, keyin bozorga chiqarar edilar.

Rim fuqarolarini qarzi uchun qul qilish mil.avv. 326-yilda qabul qilingan senat qonuni bilan bekor qilingan edi. Biroq Italiya va provinsiyalarning Rim fuqaroligi bo'lmagan aholisi uchun qarzi evaziga qul qilish o'z kuchini saqlab qoldi. Provinsiyalarda rimlik soliqchilar aholiga katta foizda qarz berib, ularni qul qildilar. Qullar safini to'ldirishning yana bir manbasi ularni tabiiy ko'payishi edi. Cho'ri qullarning bolalarini ko'paytirish va tarbiyalash ba'zi quldorlar tomonidan rag'batlantirilar edi. Go'dakligidan qullikda tarbiyalangan qullarning bolalari kasb-hunarga o'rgatilgan. Qullar safini to'ldirishning yana bir

manbasi dengiz qaroqchilarining dengizlarda qirg'oqqa yaqin shahar-qishloqlarni talab, o'z qurbonlarini qullikka sotishi edi. Ba'zi yillarda qaroqchi piratlar bir necha yuz ming qullarni bozorga yetkazib berar edilar. Ma'lumotli qullar yoki malakali qullar (o'qituvchi, aktyor, oshpaz, raqqosalar)ning bahosi juda baland turar edi. Italiya qishloq xo'jaligi mamlakati bo'lib qolaverdi. Qullar asosan qishloq xo'jaligida ishlatildi. Ulardan qishloq xo'jaligidan tashqari tog'-kon, metallurgiya va qurilishda foydalanila boshlandi.

Faqat qullarga va qaroqchilarga xochga tortib o'lim jazosi berilgan. Boshqa obro'li jinoyatchilarning boshi kesilgan. Ozod kishilarni qiynoqqa solib, so'roq qilish taqiqlangan. Qullarni qiynoq ostida so'roq qilishga ruxsat etilgan. Qul uchun eng og'ir jazo tosh konlariga, gladiatorlar maktabiga sotib yuborish edi. Rimning deyarli barcha fuqarolari qullarga ega edilar. O'rta darajadagi fuqaroning shahardagi uylarida 5-10 ta qul, shahar tashqarisidagi qo'rg'onida 15-20 ta qul ishlab turgan. Qullarni erkinlikka chiqarish faqat imperiya davrida keng tus oldi. Qul qarib qolgach, uni boqmaslik uchun ko'chaga haydab yuborilgan.

4. Harbiy tashkilot. Rim – kichik bir shahar davlatdan qudratli davlatga aylanishi va bu davlatning ming yildan ko'proq vaqt yashashi, uning siyosiy tizimi va tuzilmasining barqarorligining omillaridan biri – Rim davlatining yuqori darajada shakllantirilgan harbiy tashkilotining mavjudligi edi. Har bir Rim fuqarosi 16 yoshdan 46 yoshgacha zaruriyat tug'ilganda harbiy xizmatni o'tashga majbur bo'lgan. Harbiy qo'shinning jangovar qobiliyatini yuqori darajada saqlab turish uchun u bir necha marta isloh qilindi. Grakx rim qo'shinini to'ldirish bo'yicha islohot o'tkazdi (mil.avv. II asr oxiri). Harbiy sarkarda va konsul Gay Mariy (mil.avv. I asr) o'tkazgan harbiy islohot rim armiyasini mustahkamladi. Qo'shin tarkibiga endilikda mulki bo'lmagan fuqarolar ham qabul qilindi. Harbiylar ma'lum miqdorda ish haqi va qurol-aslaha olar edilar. Harbiy xizmat muddati tinchlik yoki urush paytiga qaramay, 16 yil etib belgilandi. Shundan so'ng askarlar iste'foga chiqib, odatda yer ulushi olganlar. Qo'shinning saflanish va jangga kirish tartibi o'zgartirildi. Har bir legionga eski nishon o'rniga kumush burgut berildi. Intizom ancha yaxshilandi. Askarlar doimo mashq qilishlari, lagerda ishlashlari, yo'llar, harbiy mudofaa inshootlari qurishlari majbur qilib qo'yildi. Odatda, Rim qo'shini 4 le-

giondan iborat bo'lib, har bir legionni 4200 piyoda va 300 o'tliq tashkil qilgan. Piyodalar nayza, keng qilich, to'rtburchak qalqon bilan qurollanib, temir qalpoq kiyar edilar. Har bir legionga lotinlar va ittifoqchilarning kogortalari yordamga birlashtirilgan. Qo'shin tepasida konsullar turgan. Ularga senatorlar yoki harbiy tribunlardan legatlar yordamchi sifatida berilgan. Rim legionida birinchi qatorda 24 yoshgacha bo'lgan yigitlar nayza bilan, ikkinchi qatorda 24-30 yoshli, uchinchi qatorda keksa va tajribali 31-46 yoshgacha bo'lgan harbiy triariylar saflanib jangga kirgan.

Rim harbiysi qalqon, qilich, qalpoq va pichoq bilan qurollangan. Qalqon Kichik Osiyo, Osuriya, Kelt va yunonlarnikiga o'xshash bo'lgan. Qurol-aslahada sharqning ta'siri kuchli edi. Qadimda Rim qalqonlari to'g'ri burchakli bo'lgan. Keyin aylanma ekrusk qalqonlari tarqaldi. Uning o'lchami balandligi 1 m 20 sm, eni 75 sm bo'lgan. Qalqonlar charmdan yoki jezdan yasilib, chetlari metall zey bilan aylantirilgan, qalqonning yassi o'rtasiga tasvir tushurilgan. Imperiya davrida oval qalqonlar keng tarqaldi. Ular juda yengil va diametri bor-yo'g'i 30 sm bo'lib, metall zey bilan charmdan yasalgan. Qalqonning ichida uning egasining nomi o'yib yozilgan. Qalpoq jezdan yuzga tushadigan himoya niqobi bilan yasalgan. Boshda rimliklar charm va jundan telpak kiyganlar. Mil.avv. IV asrdan rimliklar uchi bo'yalgan patlar yoki ot yollari bilan po'lat qalpoqlarga o'tdilar. Imperator Adrian davrida suvoriylar temirdan, oltin bilan halangan, katta qizil tutamli niqob va qalpoqlar kiyishgan.

Rim qo'shinlarining dong'i ketgan mustahkam intizomlilik ularning ko'p sonli g'alabalarining asosiy omili edi. Har bir legioner o'zi bilan belkurak va qoziq olib yurar edi. Harbiy lager to'rtburchak shaklda qurilib, 4 darvozali ikki ko'chadan iborat bo'lgan. Qo'shinda intizom juda qattiq jazo va mukofotlar bilan saqlab turilar edi. O'zini ko'rsatgan legionerning ko'kragiga mis taxtacha (keyinchalik bu orden bo'lgan) taqib qo'yilar edi. Legioner qo'lida uning xizmatini rag'batlantiruvchi belgi 3-4 qator bilaguzuk taqilar edi. Legioner uchun eng oliy mukofot Rim fuqarosini o'limdan saqlab qolgani uchun beriladigan daraxt barglaridan qilingan gulchambar edi. Qamal qilinayotgan dushman shahrining devoriga kim birinchi bo'lib ko'tarilgan, u oltin toj bilan taqdirlanar edi. Lashkarboshi uchun oliy mukofot bu Rim shahridagi «Muqaddas yo'l» bo'ylab Kapitoliy tepaligida jang aravasida ko'tarilish edi. Zafar huquqini senat

g'alaba qilgan lashkarboshiga berar edi. Agar g'alaba unchalik katta bo'lmasa, zafar o'rniga «ovatsiya» (qarsak chalish bilan olqishlash) yoki kichik zafar belgilanar edi. Qo'shinda harbiy tribunlar katta harbiy boshliqlar bo'lib, dastlab ularni konsul-lar tayinlar edi. Keyinchalik esa harbiy tribunlarni xalq yig'ini saylaydigan bo'ldi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Кузицин В. И. Генезис рабовладельческих латифундий в Италии (II в. до – н. э.-I в. н. э.). – М.: 1976.

2. Кузицин В.И. Римское рабовладельческое поместья II в.до н. э.-I в. н. э. – М.: 1973.

3. Утченко С. А., Штаерман Е. М. О некоторых вопросах истории рабства. Вестник древней истории, 1960, № 4.

4. Штаерман Е. М. Расцвет рабовладельческих отношений в Римской республике. – М.: 1964.

Asosiy sanalar

| | |
|--------------------|---|
| Mil.avv. 260-yil | Rimliklar Karfagen ustidan ilk bor g'alaba qildilar. |
| Mil.avv. 218-yil | II Puni urushi boshlandi. |
| Mil.avv. 202-yil | Rimliklar Afrikada Zama yonidagi jangda Gannibal qo'shinlarini yengdilar. |
| Mil.avv. 206, 197 | Makedon urushlari va 168-yillar. |
| Mil.avv. 149-yilda | III Puni urushi boshlandi. |
| Mil.avv. 146-yilda | Karfagen shahri vayron qilindi. |
| Mil.avv. 146-yilda | Axey provinsiyasi tashkil etildi. |

RIM RESPUBLIKASIDA IJTIMOIIY-SIYOSIIY KURASH

1. Sitsiliyadagi qullar qo'zg'oloni. 2. Agrar masala. 3. Rim respublikasining tashqi siyosati. 4. Rimda siyosiy kurashning keskinlashuvi.

1. Sitsiliyadagi qullar qo'zg'oloni. Rimning istilochilik urushlari natijasida mil.avv. II asrda Italiya va Sitsiliyada qullarning soni keskin o'sdi. Qul asosiy ishlab chiqaruvchiga aylandi. Yirik quldorlik xo'jaliklari – latifundiyalar, o'rta quldorlik xo'jaliklari – villalarda yuzlab, minglab qullar ishladi. Qulchilik manbalari urushlar, provinsiyalarda qarzi uchun qul qilish, dengiz qaroqchiligi va qullarning tabiiy ko'payishi edi. Rim huquqi qullarni buyum (jez), «so'zlaydigan qurol» (inshtrumtum vocale) deb hisoblar edi. Xo'jayinning mulki sifatida qul huquqsiz edi. Xo'jayin uni jazolashi, o'ldirishi mumkin edi.

Qullarning shafqatsiz ezilishi va xo'rlanishi ularni tez-tez qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ldi. Qullar mil.avv. 196 – 95-yillarda Etruriyada, mil.avv. 185-yilda Apuliyada qo'zg'olon ko'tardilar. Rim jamiyati va davlati asoslarini titratgan ana shunday qo'zg'olonlardan biri mil.avv. 138 –132-yillarda Sitsiliyadagi qul Evnoy boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni edi. Qo'zg'olon rahbari Evnoy «Antiox» nomini olib, yangi Suriya davlati tuzilganini e'lon qildi. Davlatni boshqarish uchun kengash va xalq yig'ini tashkil etilib, Enna shahri davlat markazi bo'ldi.

Qo'zg'olonga Sitsiliyaning janubiy-g'arbidagi qullar ham qo'shildi. Bu yerda qo'zg'olonchilarga kilikiyalik qul Kleon boshchilik qildi. Tezda Evnoy va Kleon birlashib, Rim qo'shinlarini yanchib tashladilar. Kleon «podsho Antiox»ning strategii lavozimini oldi. Rimliklar juda katta qiyinchiliklar bilan qo'zg'olonni mil.avv. 132-yilda bostira oldilar. Mil.avv. 104-yilda Sitsiliyada qul Salviy (Trifon) boshchiligida yana qullar qo'zg'oloni ko'tarildi. Lilibey shahari yaqinida qul Afniodn boshchiligida qullar qo'zg'olonining ikkinchi o'chog'i paydo bo'ldi. Qo'zg'olonchi qullar birlashib, rim armiyasiga qarshi bir necha bor zarba berdi. Faqat mil.avv. 101-yilda konsul Manliy Akviliy bu qo'zg'olonni zo'rg'a bostirdi.

Sitsiliyadagi qullar qo'zg'oloni bilan bir vaqtda Pireney yarim orolida iber qabilalari Rim hukmronligiga qarshi urush olib

bordilar. Viriat boshchiligida luzitan qabilalari qo'zg'olonining bostirilishi yarim orolni to'la tinchlantirishga olib kelmadi. Ispaniyaning shimoliy-sharqiy qismidagi iber va kel't-iber qabilalari rimliklarni haydab chiqarishga qat'iy ahd qildilar. Bu harakatning tayanch markazi Numansiya shahri edi. Luzitanlar qo'zg'oloni bostirilganidan so'ng, Viriat o'ldirilib, rimliklar katta kuch bilan iber qabilalarining uyushgan ittifoqining qarshiligini bostirishga kirishdilar. Besh yil davomida Rim qo'shini qo'zg'olonni bostira olmadi. Ochko'z, qobiliyatsiz harbiy boshliqlar davlat manfaatlaridan ko'ra, talonchilikni afzal ko'rdilar. Ular o'zlarining ochko'zligi bilan ittifoqchi bo'lgan qabila va mahalliy aholining qahr-g'azabini qo'zg'atdilar. Mil.avv. 137-yilda Rim qo'shini qurshovga tushib qoldi. Faqat kvestor Tiberiy Semproniy Grakxning harbiy san'ati tufayli Rim qo'shini qirib tashlanmadi. Kvestor iberlarning talabi bilan Rimliklarni Ispaniyadan olib chiqib ketishga va'da berdi. Ammo senat Tiberiy tuzgan shartnomani tasdiqlamadi va urushni davom ettirishga qaror qildi. Ispaniyaga eng yaxshi Rim harbiy boshliqlari yuborildi va 15 oy davomida qo'zg'olonchilar bilan olib borilgan urush rimliklarning g'alabasi bilan tugadi.

2. Agrar masala. Sitsiliyadagi qullar qo'zg'oloni Rim jamiyatining ichida va butun mamlakat miqyosida kuchli ziddiyatlar mavjudligining belgilaridan biri bo'ldi. Quldorlik munosabatlarning keng tarqalishi, dehqonlarning yersizlanishi, xonavayron bo'lishining ommaviy tus olishi ijtimoiy qarama-qarshiliklarni yanada kuchaytirdi.

Hukmron tabaqaning uzoqni ko'ra oladigan vakillari davlat va uning harbiy kuchini mustahkamlash maqsadida Rim qo'shinlarining asosini tashkil etgan dehqonlar ahvolini yaxshilash zarurligini tushunar edilar. Shu maqsadda yirik yer egalari qo'lida to'planib qolgan ortiqcha jamoa yerlarining bir qismini yersizlarga va muhtojlarga taqsimlash taklif qilindi. Ammo nobillar va katta yer egalari hal qiluvchi rol o'ynagan senat yerni qayta taqsimlashga keskin qarshilik ko'rsatar edi. Agrar islohotlarni o'tkazish uchun Rimda harakat boshlandi. Taniqli plebey urug'i Semproniydardan bo'lgan mashhur Sisiptionning nevarasi, otasi ikki marta konsul bo'lgan senzorning o'g'li 28 yoshli Tiberiy Semproniy Grakx agrar islohotlarni o'tkazish uchun keskin kurash boshladi. Mil.avv. 133-yilda Tiberiy Grakx xalq tribuni lavozimiga saylanib, o'z agrar qonun loyihasini taklif qildi. Bu qonun loyihasi bo'yicha yerga egalik qilish

500 yugergacha cheklanib, agar oilada ikki voyaga yetgan o'g'il bo'lsa, har bir oila 1000 yugergacha yerga ega bo'lishi mumkin edi. Qolgan ortiqcha yer pul mablag'i bilan kompensatsiya qilish asosida davlatga qaytarilishi kerak edi. Yangidan tashkil etilgan yer jamg'armasi 30 yuger (7,5 ga.) miqdorida chek yerga bo'linib, yersiz va kam yerli fuqarolarga merosiy ijara huquqida taqsimlanishi kerak edi. Ularning egalari xazinaga uncha ko'p bo'lmagan miqdorda soliq to'lashlari lozim edi. Qishloqdagi kichik ishlab chiqaruvchilarning yersizlanishi va xonavayron bo'lishini to'xtatish maqsadida davlatdan olingan yerlarni sovg'a qilish yoki sotish taqiqlangan. Qonun loyihasi qabul qilindi. Islohotni amalga oshirish uchun tarkibida Tiberiy va uning ukasi Gay bo'lgan komisiya tashkil etildi. Islohotga qarshi bo'lgan senat tashkiliy xarajatlarga pul mablag'i berishdan bosh tortdi. Tiberiy senatga qarshi bo'lgan yana bir qonunni komisiyalarda qabul qilinishiga erishdi. U agrar komisiyaning ehtiyoji uchun vafot etgan Pergam podshosi Attal III ning xazinasini berishga erishdi. Tiberiy Grakxning islohotchilik faoliyatiga qarshi kuchli qarshilik boshlanib, uning dushmanlari navbatdagi saylovlar paytida Tiberiy va uning tarafdorlarini o'ldirdilar.

10 yil o'tgach, islohotlar dasturini Tiberiyning ukasi Gay Grakx taklif qildi. Gay Grakx agrar sohada emas, sud, ma'muriy tizim, qo'shin va pul tizimida qator islohotlarni tizimli amalga oshirdi. Bir qancha tadbirlar shahar plebey foydasiga o'tkazildi (arzon non sotish) va suvoriylar toifasidan provinsiya noiblari suiiste'mollarini ko'radigan sud komisiyalari tashkil etildi.

Lekin shahar plebeyning katta qismi va suvoriylar agrar islohotlardan manfaatdor emas edilar. Buning ustiga provinsiyalarga qishloq xo'jalik koloniyalarining tashkil etilishi suvoriylarning noroziligiga olib keldi. Gay Grakxning Italiyaning Rimdan tashqari hududlari aholisiga fuqarolik huquqini berish niyati Rim plebsini unga qarshi bo'lishiga sabab bo'ldi. Plebey o'z imtiyozlari va o'zlari oladigan xayr-ehsonni boshqalar bilan baham ko'rishni istamas edi. Gay Grakx islohotchilik faoliyatida jamiyatning turli xil tabaqalariga tayandi. Uning raqiblari mil.avv. 122-yildagi saylovda uning qayta saylanishiga yo'l bermadilar. Ommaviy to'qnashuvda Gay Grakx va uning tarafdorlari halok bo'ldi. Uning o'limidan so'ng agrar qonunni hech kim bekor qilishga botina olmadi. Lekin yerlarni taqsimlovchi komisiya tugatildi va yer berish to'xtatildi. Mil.avv. 111-yildagi agrar islohot ilgari 500 yugergacha egallangan yerlarni va islohotlar

natijasida 30 yugerlik yerlarni o'z egalariga xususiy mulk sifatida qonunlashtirdi.

Islohotchi aka-uka Grakxlarning tizimli amalga oshirgan ko'pgina tadbirlari eng jiddiy natijalarga olib keldi. Gay Grakx o'limidan so'ng, oligarxiya o'z mavqeyini qisman tikladi. Suvoriylar sud ishlarini o'z qo'llarida saqlab qoldilar. Agrar islohot o'tkazish to'xtatildi. Mil.avv. 121-yilda agrar islohotlar natijasida olingan yer ulushlarini begona qilmaslik bekor qilindi. Mil.avv. 119-yilda agrar komisiya faoliyati to'xtatildi. Mil.avv. 111-yilda plebey tribuni Spuriy Toriy qonuniga asosan fuqarolar ijara-ga olgan 500 yugergacha bo'lgan barcha davlat yerlari xususiy mulk deb e'lon qilindi. Italiyada tashkil topgan 10 minglab dehqon xo'jaliklar o'nlab yillar mavjud bo'ldi. Shahar plebsiga tarqatiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining miqdori o'sdi. Plebey Grakxlar faoliyati senatda va siyosiy hayotda nobillarning yagona hukmronligiga putur yetkazdi.

Aka-uka Grakxlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatlari natijasida Rimda senat, suvoriylar va barcha boy toifalarning optimatlar partiyasi va nobillarga qarshi turgan plebey demokratiyasining populyarlar partiyasi paydo bo'ldi. Populyarlar va optimatlar atamasini birinchi bo'lib mil.avv. 63-yilda notiq va siyosiy arbob Sitseron ishlatdi.

3. Rim respublikasining tashqi siyosati. Bo'lib o'tgan voqealar senat hokimiyatining samarali boshqaruvi yo'qligi, xalq kengashi ahamiyatining o'sishi va ichki siyosatning beqarorligi, siyosiy arboblarning o'sib borayotgan roli, ularning ochiqdan-ochiq demagogiyasi kurashning zo'ravonlik usullarini qo'llashga tayyorligi yaqqol ko'rindi.

Grakxlar va ularning eng faol tarafdorlarining o'limidan so'ng, populyarlarning zaiflashuvi vaqtinchalik edi. Rim jamiyatidagi qarshiliklar bartaraf qilinmagan edi. Begona hududlarda urush harakatlari olib borayotgan Rim qo'shinlariga qo'mondonlik qilayotgan, nobillar homiylik qilgan qo'mondonlarning muvaffaqiyatsizliklari norozilikni kuchaytirdi.

Rimning ichki siyosatidagi beqarorlik tashqi siyosiy masalada hukmron doiralar e'tiborini vaqtinchalik susaytirdi. Mil.avv. II asrning so'nggi 10 yilligida Rimning xalqaro ahvoli keskinlashgan edi. Yaqin Sharqdagi eng kuchli ellin davlati Misr bilan Rim ittifoq tuzgan edi. Yaqingacha qudratli bo'lgan Salavkiylar davlati yemirilish davriga kirib, Sharqda parfiyaliklar bosimiga qarshi tura olmay qoldi. Kichik Osiyoda Aristonik qo'zg'oloni

bostirilganidan so'ng vaziyat osoyishta edi. Ammo bu vaqtda Afrikada Rim hukmronligiga Numidiya podsholigi jiddiy xavf tug'dirayotgan edi. Numidiyaning taniqli podshosi Masinissaning nevarasi, Rimda ta'lim olgan yugurta Numidiya podsholigi taxtini egalladi.

Yugurta (mil.avv.160 –104-yillar) bilan urush olib borayotgan Rim qo'shinlari birin-ketin mag'lubiyatga uchradilar. Podsho Yugurta rimlik sarkardalarni sotib oldi va harbiy hiylalar bilan rimliklarni bir necha bor tor-mor qildi. Numidiya shaharlarida shu vaqtda bo'lgan italiyalik savdogar va sudxo'rlar qirg'in qilindi. Yugurta o'z siyosatida rimliklarni dushman deb bilgan turli Shimoliy Afrika qabilalarining qo'llab-quvvatlashiga tayandi. Mil.avv. 109-yilda Numidiyadagi Sutule yaqinidagi jangda Yugurta rimliklarni tor-mor qildi. Rimliklar Numidiya hududidan chiqib ketish va Yugurta bilan shartnoma tuzish majburiyatini oldilar. Sutule yonidagi g'alaba Yugurtaning Shimoliy Afrika qabilalari oldida harbiy-siyosiy mavqeyeni kuchaytirdi. Ko'p sonli gugul qabilalari, Mavretaniya podshosi Bokx Yugurtaga yordam berishga va'da qildi. Rimning Shimoliy Afrika mulklarini yo'qotish xavfi yaqqol ko'rindi. Yugurta rimlik harbiy qo'shin boshliqlarini, Rimdagi ayrim senatorlarni katta pora evaziga sotib oldi. Sotilgan poraxo'r harbiy boshliqlar nomigagina urush harakatlarini olib bordilar.

Rimda xalq yig'ini Yugurta bilan rimliklar uchun sharmandali «tinchlik» shartnomasini tasdiqlamadi. Numidiyaga qarshi yana urush boshlandi. Qo'shin tartibga solindi. Tezda asosiy Numidiya shaharlari bosib olindi. Yugurta sahroga chekinib, partizan urushiga o'tdi. Urush cho'zilib ketdi. Bundan norozi bo'lgan xalq yig'ini senatning irodasiga qarshi qo'shinga qo'mondonlik qilish uchun o'z sarkardasi, o'zining dovyurakligi va harbiy qobiliyati bilan obro'-e'tibor qozongan dehqonning o'g'li, plebey 48 yoshli Gay Mariyni qo'mondon qilib tayinladi. Gay Mariy mil.avv. 107-yilda konsulligidan so'ng, yaxshi qurollangan qo'shin bilan mil.avv. 105-yilda Yugurta urushini tugatdi. Yugurta Mavretaniyada, qaynotasi podsho Bokx saroyidan panoz izladi. Bokx uni rimliklarga berishga majbur bo'ldi. Yugurta Rimda qatl qilindi. Numidiya qaram davlatga aylantirilib, uning rasman hukmdori qilib Yugurtaning aqli zaif ukasi tayinlandi. U nafaqat Yugurta urushini (mil.avv. 111–105-yillar) tugalladi, balki Rimni shimoldan kimvr va tevton german qabilalari hujumidan himoya qildi.

Ayni shu vaqtda Rim uchun yangi bir xavf tug'ildi. Rimning shimoliy chegaralarida german qabilalaridan bo'lgan kimvr va tevton qabilalarining bosqini boshlandi. Kimvrlar va tevtonlar dastlab Yutlandiya yarim orolida yashar edilar. Mil.avv. II asr oxirida bu qabilalar o'z joylaridan ko'chdilar. Tevtonlar g'arbga – Galliya, kimvrlar janubga tomon yurdilar. Jangovar kimvr qabilalari (150 ming kishi atrofida) mil.avv. 113-yillar atrofida Janubiy Germaniyaga kirib, Alp dovonlariga kelib, Italiyaning shimoliy-sharqiy chegaralariga xavf soldilar. Konsul Papirey Karbon Noreya shahri yonida kuchli qo'shin bilan kimvrlarga hujum qildi, lekin shafqatsiz tor-mor qilindi. Italiyaga yo'l ochiq edi, lekin kimvrlar Alpdan shimolga o'tib, Galliya hududiga bostirib kirdilar. Galliyada ham rimliklar mil.avv. 109-yilda yana yengildilar. Kimvrlarning gelvetlar, Galliyaning o'zida ularga qarindosh bo'lgan tevtonlar bilan birlashuvi rimliklar uchun xavfli vaziyatni yana murakkablashtirdi. Mil. avv. 107-yilda konsul boshchiligidagi Rim qo'shini Akvitaniyada pistirmaga tushib to'la yo'q qilindi. Ammo rimliklar mil.avv. 105-yilda Janubiy Galliyada kimvrlardan eng dahshatli mag'lubiyatga uchradilar. Jang maydonida Kanna halokatidan ham ko'proq 80 mingga yaqin legionerlar jasaki qoldi. Kimvrlar o'z g'alabalaridan keyin himoyasiz Italiyaga emas, Ispaniyaga yurish qildilar.

Rim senati konsul Gay Mariy tashabbusi bilan harbiy-siyosiy islohotlar o'tkazildi. Islohotlar natijasida yaxshi ta'lim berilgan yangi qo'shin tuzildi. Ko'p sonli tevton qabilalari mil.avv. 102-yil Sekstiy Akva yonidagi jangda rimliklardan yengildi. Mil.avv. 101-yilda Shimoliy Italiyadagi Vertsella yonidagi jangda kimvrlar ham tor-mor qilindi. Janglarda 150-200 ming germanlar halok bo'ldilar. Yana shunchasi Italiya va O'rtayer dengizi qul bozorlarida sotib yuborildi.

Gay Mariyning bunday yutuqlarining asosiy sababi uning harbiy islohotlari edi. Ilgari Rim qo'shini zaruriyat bilan chaqirilgan fuqarolarning ko'ngilli qismlaridan iborat bo'lib, urush harakatlari tugaganidan so'ng ular o'z tinch ishlariga qaytar edilar. Qo'shinda xizmat qilish ma'lum miqdorda mulkka ega bo'lgan, o'zini qurol-yarog' bilan ta'minlay oladigan fuqarolarning faxriy majburiyatlaridan biri edi. Bunday tarkibda tuzilgan qo'shin Rim shahar-davlati sharoitida o'zini oqlar edi. Endilikda Rim O'rtayer dengizining turli qismlarida to'xtovsiz urushlar

olib borayotgan bir paytda harbiy majburiyat nafaqat faxriy, aksincha, og'ir bo'lib, ayniqsa, ko'ngillilarning asosini tashkil etadigan dehqonlar uchun xonavayron qiladigan majburiyat bo'ldi.

Gay Mariy senatdan qo'shinga mulkiy ahvoliga qaramasdan barcha fuqarolarni qo'shinga yollashga ruxsat oldi. Eng kam-bag'al shaharlik va yersiz dehqonlar davlatdan qurol-yarog', harbiy xizmati uchun maosh, xizmat muddati tugaganidan so'ng yer ulushi oladigan bo'ldilar. Italiyaliklar va boshqa ittifoqchilar harbiy xizmatga ko'plab jalb qilina boshlandilar. Natijada dehqonlardan tuzilgan ko'ngillilar qo'shini professional qo'shinga aylana boshlandi. Bu qo'shin o'z ehtiyoj manfaatlari bilan aholini boshqa tabaqalaridan ajralib turar edi hamda ular o'z qo'mondonlariga so'zsiz va sadoqat bilan bo'ysunar edilar. Chunki har bir legionerning taqdiri va farovon hayoti bu sarkardalarga bog'liq edi. Gay Mariy qo'shinning tuzilishi, qurollanishi, jangni tashkil qilish, jangchilarning harbiy mashqlarini tashkil qilish, qismlarning tuzilishiga taalluqli bo'lgan qator islohotlarni amalga oshirdi. Rim qo'shinida eng qadimgi davrdan bayroq yoq edi. Asosan dala nishonlari uchun pichan tutami qistirilgan uzun tayoq ko'tarilgan edi. Gay Mariy qo'shinga burgut tasviri tushirilgan nishon joriy etdi. Shu vaqtdan boshlab burgut tasviri legionning ramziga aylandi, bundan tashqari har bir kogorta ham o'z ramziga ega bo'ldi. Qo'shinni qayta qurishning ijobiy natijalari tevton qabilalari ustidan (mil.avv. 102-yil) qilingan g'alabalarda yaqqol ko'rindi. Bu ijobiy o'zgarishlar Gay Mariyni Rimda eng obro'-e'tiborli kishiga aylantirdi. Natijada Gay Mariy uzluksiz 5 yil davomida 5 marta, jami esa 7 marta mavjud qonunlarga zid ravishda konsul qilib saylandi.

4. Rimda siyosiy kurashning keskinlashuvi. Mil.avv. I asrda Italiyada ittifoqchilar urushi bo'lib o'tdi. Rimning italiyalik ittifoqchilari rimliklar bilan birga, harbiy xizmatning barcha majburiyatlarini o'tab, bundan hech qanday yengillik, foyda olmadilar. Provinsiyalarda shaharlarning katta qismi mahalliy ishlarda bir qism o'z-o'zini boshqarish huquqidan («sosi – ittifoqchilar») foydalanar edilar. Bunday shaharlar qatorida keng avtonomiyadan foydalanuvchi erkin shaharlar ham bor edi. Rim provinsiyalarini bunday boshqarishda «bo'lib tashla va hukmronlik qil» («dividit et impera») siyosatidan foydalandilar. Dehqonlar yerga egalik qilish kafolatlariga muhtoj edilar.

Yersiz dehqonlar va qo'shinda harbiy xizmat muddatini o'tagan veteranlar yer ulushi olish, shahar plebey esa turli xayr-ehson, oziq-ovqat mahsulotlarini tekin olish ilinjida edilar.

Italiya aholisining turli toifalari Rim fuqaroligiga ega bo'lishga harakat qildilar. Respublikaning I asrlarida Rim davlat hokimiyati ittifoqchilarning ancha qismiga Rimga ko'chib o'tib, uning fuqarolari bo'lish huquqini berdi. Vaqt o'tishi bilan bunday imkoniyatlar cheklandi. Rimning O'rtayer dengizi davlatiga aylanishi bilan Italiya federatsiyasi kamroq rol o'ynadi. Rimda Italiya aholisiga past nazar bilan qarash an'anasi kuchaydi.

Xalq tribuni Appuley Saturnin mil.avv. 103-yilda rim aholisiga favqulodda arzon narxlarda rim fuqarolariga davlat tomonidan non sotish to'g'risidagi qonunni o'tkazdi. Saturnin dasturida G.Mariy veteranlarini yer bilan ta'minlashni ham ko'zda tutdi. Nobillarning qattiq qarshiligiga qaramay, Saturninning agrar qonuni qabul qilindi. G.Mariy siyosiy hokimiyatga erishish va yangi konsullikga saylanish uchun populyarlarni qo'llab-quvvatladi. Saturnin qonuni qabul qilingan bo'lsa-da, uni amalga oshirish mumkin bo'lmadi. Demokratik harakatning keng ko'lamga aylanib ketishi suvoriylarni qo'rqitib yubordi. Natijada suvoriylar nobilitet bilan birlashdi. Mil.avv. 100-yildagi siyosiy kurash qurolli to'qnashuvga aylanib ketdi. G.Mariy ham nobillar tomoniga o'tdi va senatdan favqulodda vakolatlar olib, qo'zg'olonni bostirdi. Saturnin agrar qonuni mayda va katta yer egaligi o'rtasidagi kurashning yangi bosqichi bo'ldi.

Italiyadagi vaziyat juda keskin edi. Yetarlicha siyosiy tajribaga ega bo'lgan nobillarning ba'zi bir vakillari faqat o'z vaqtida o'tkarilgan islohotlar norozilikni oldini olishi mumkin deb hisoblar edilar. Bu islohotlarni o'tkazish tashabbusi bilan mil.avv. 91-yilda xalq tribuni lavozimiga saylangan optimat Kichik Liviy Druz chiqdi. U Rim fuqarolari va italiyaliklarning keng qatlamlariga suyangan holda senat obro'ini mustahkamlash, shu bilan bir vaqtda kuchayib ketayotgan suvoriylarni zaiflashtirish maqsadini ko'zladi. U bir necha qonun loyihalarini taklif qildi:

1. Barcha italiyaliklarga fuqarolik huquqini berish.
2. Kampaniya va Sitsiliyadagi hali taqsimlanmagan jamoa yerlarida Rim fuqarolari koloniyalarini tashkil qilish.
3. Senatorlarning sud komissiyasiga provinsiya noiblari suiste'mollari to'g'risidagi ishlarni berish, shu bilan birga, senatni 300 suvoriy bilan to'ldirish.

4. Eng kambag'al fuqarolarga arzon non sotishni ko'paytirish.

Birinchi qonun loyihasi keskin qarshilikka uchradi. Ittifoqchilar to'g'risidagi masala muhokama qilinadigan xalq kengashidan bir kun oldin Liviy Druz o'ldirildi.

Liviy Druzning o'ldirilganligi, uning qonun loyihasi rad etilganligi haqidagi xabar Rimga qarshi ittifoqchilarning urushini keltirib chiqardi (mil.avv. 91– 88-yillar). Katta yer egaligining o'sishi Italiya aholisi foydalanib kelgan yerlarni okkupatsiya qilinishiga olib keldi. Italiya aholisi rim fuqaroligini olish uchun kurashdi. Rim bu urushga bor kuchini to'pladi. Eng yaxshi sarkardalar Gay Mariy, Lutsiy Korneliy Sulla, Litsiniy Krass va hatto ozod qullar ham qo'shinga safarbar qilindi. Urush davomida rimliklar yon berishga majbur bo'ldilar. Rim fuqaroligini barcha italiyaliklarga va Rimga sodiq qolgan etrusk va umbrlarga berish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Keyin esa ikki oy davomida qurolini topshiradigan qozg'olonchi ittifoqchilarga ham fuqarolik va'da qilindi. Faqat shundan keyingina qozg'olonchilar o'rtasida ajralish boshlandi. Urushni oxirigacha davom ettirmoqchi bo'lgan mars va boshqa qabilalarning shahar va qishloqlari kultepaga aylantirildi. Ittifoqchilar urushi qator muammolarni hal qildi. Urush quyidagi asosiy natijalar bilan tugadi:

- Rim rasmiy jihatdan ham jamoa-davlat sifatida yashashni to'xtatdi;

- Ittifoqchi jamoalar mahalliy o'z-o'zini boshqaruvini saqlab qolgan yagona davlat tarkibiga kirgan shahar-munisipiylarga aylandi;

- Munisipiylar ichki qurilishda Rim tartiblarini o'zlashtira oldilar. O'z-o'zini boshqaruvning bosh organi xalq yig'ini saylagan sobiq magistrantlar, 100 dekurionlardan saylangan senat (kuriya) edi. Senat a'zolari, odatda, boy shaharliklar, o'rta yer egalari – quldorlar edi;

- Italiyani Rim fuqaroligi bilan yagona davlatga birlashuvidan birinchi navbatda, boy italiyaliklar foyda ko'rdilar. Jumladan, dekurionlar toifasi shu vaqtdan boshlab hukmron sinfnings iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchli guruhi sifatida o'rin egallay boshladi;

- Italiya iqtisodiyotida quldorlik munosabatlari jamoalararo doiradan chiqib, yanada jadal rivojlana boshladi;

- Asosan yersizlikdan azob chekkan Italiya dehqonlari veteranlar sifatida provinsiya yerlarini egallash imkoniga ega bo'l-

dilar. Provinsiyalarda italiyalik savdogarlar, sudxo‘rlar, ijara-chilar hamda hunarmandlar keng faoliyat ko‘rsata boshladilar. Eng kambag‘al italiyaliklar legionerlar va davlat yordamini oladigan Rim yo‘qsillari safini to‘ldirdilar.

Rim fuqarolari sonini 400 mingdan ikki milliongacha o‘shishi ijtimoiy-toifaviy ziddiyatlarni tugatmadi, balki yanada kuchaytirdi. Ittifoqchilar urushida rimliklarning g‘alabasi juda qimmatga tushdi. Italiya shahar va qishloqlari vayron qilindi. Juda ko‘p qurbonliklar berildi. Iqtisodiy tushkunlik boshlanib, pul qadrsizlandi. Iqtisodiyotdagi tushkunlik rim jamiyatida ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashuvi bilan birga bordi. Tashqi siyosatda bu vaqtda jiddiy muammolar tug‘ildi. Rim respublikasi-ning og‘ir vaziyatidan foydalangan Pont podshosi Mitridat VI Yevpator Rimning Osiyodagi provinsiyalariga bostirib kirdi. Mil. avv. 88-yilda Rim respublikasi chuqur ijtimoiy-siyosiy tanglik va qonli tashqi urushlar davriga kirdi. Oqibatda, Respublika tizimi zaiflashdi, demokratik tuzumdan mutlaq hokimiyat tomoniga jadal siljish boshlandi. Agrar masala, Italiya shaharlarining huquqsizligi, oddiy xalq-plebsning ahvolini yomonlashuvi hamda hukmron tabaqalar o‘rtasidagi kurash respublika tuzumi asoslarini zaiflashtirdi. Rim respublikasi o‘z halokati tomon jadal yurishni boshladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Аппиан. Гражданские войны. – Л.: 1935.
2. Плутарх. Сравнительные жизнеописания, т. 3. Биографии Тиберия и Гая Гракхов.
3. Утченко С. А. Кризис и падение Римской республики. – М.: 1965.
4. Чиглинцев Е.А. Античное рабство как историографическая проблема. – Казан: 2000.

Asosiy sanalar

| | |
|--------------------------|--|
| Mil.avv. 191– 88-yillar | Ittifoqchilar urushi. |
| Mil.avv. 138 –132-yillar | Sitsiliyada qullar qo‘zg‘oloni. |
| Mil.avv. 133-yil | Tiberiy Grakx xalq tribuni etib saylandi. |
| Mil.avv. 133-yil | Rimda agrar qonun loyihasi taklif qilindi. |
| Mil.avv. 133–121-yillar | Rimda agrar harakat. |

Mil.avv. 119-yil

Rimda agrar komisiya faoliyati to'xtatildi.

Mil.avv. 111–105-yillar

Yugurta urushi.

Mil.avv. 105–102-yillar

Kimvr-tevtonlar hujumi.

Mil.avv. 104–101-yillar

Sitsiliyadagi yangi qullar qo'zg'oloni.

RIM RESPUBLIKASINING IJTIMOYIY-SIYOSIY PAROKANDA BO‘LISHI VA RESPUBLIKANING QULASHI

1. Rim respublikasining parokanda bo‘lishi. 2. Sulla diktaturasining o‘rnatilishi. Spartak boshchiligidagi qullar qo‘zg‘oloni. 3. Pompeyning Sharq yurishlari. I triumvirat. 4. II triumvirat. Respublikaning qulashi.

1. Rim respublikasining parokanda bo‘lishi. Rim respublikasi tuzumining parokanda bo‘lishi siyosiy hayotning o‘zgarishida yaqqol ko‘rindi. Alohida shaxslar, butun-butun guruhlarining siyosiy faoliyatining asosiy maqsadi hokimiyat yoki boylikka erishish edi.

Pretor yoki konsul mansabini egallash uchun shahar kambag‘allarining ovozi asosiy rol o‘ynar edi. Shu sababli, lavozimga nomzodlar ularni o‘z tomonlariga ag‘darib olish uchun non, vino yoki moy tarqatish bilan ko‘p xarajat talab qiladigan o‘yinlar, bayramlar uyushtirar edilar. Hatto saylovlarda bevosita saylovchilarning ovozi sotib olinar edi. Nomzodlar va saylovchilar o‘rtasida vositachilar bo‘lib, ular nomzod mablag‘idan saylovchilarga pul va non, may tarqatib, ularning ko‘nglini olganlar. Saylovlarga nomzodlar oldindan tayyorgarlik ko‘rib, o‘z tanish-bilishlari, obro‘-e‘tiborli kishilarning qo‘llab-quvvatlashiga erishishga harakat qilganlar.

Nomzodlar saylovlar kompaniyasi davrida o‘zlariga ittifoqchilar izlab, turli xil kelishuvlar va murosalariga kelar edilar. Siyosiy kurash nutqlar so‘zlash, varaqalar tarqatish va sud da‘volari bilan amalga oshirilar edi. Siyosiy raqiblarga qarshi turli xil sud jarayonlari qo‘zg‘atilar va siyosiy raqib turli yo‘llar bilan obro‘sizlantirilar edi.

Rim respublikasining so‘nggi davrida poraxo‘rlikning avj olishi, korrupsiya, ma‘naviy-axloqiy buzuqlik respublika ijtimoiy hayotining aynishidan dalolat berar edi. Nobillar va suvoriylarga shaharning quyi tabaqalari o‘z ovozlari saylovlarda sotishlari odatiy hol bo‘lib qoldi. Hatto Rimning tashqi dushmanlari ham Rim lashkarboshi va siyosatchilarini sotib olishga muvaffaq bo‘ldilar. Yugurta o‘ziga qarshi urushga yuborilgan rim lashkarboshilariga pora berib, ularni uzoq vaqt keskin urush harakatlari olib borishdan tiyib turgan edi. Numidiya podsho-

si (hozirgi Mavritaniya hududi) Yugurta Rimdagi poraxoʻrlik toʻgʻrisida mashhur soʻzini aytgan edi: «Rim sotqin shahar, kimki uni sotib olishni istasa, unga albatta erishadi». Rim respublikasida oliy darajadagi amaldorlar uchun pora olish odatdagi hol boʻlib qoldi. Misr podshosi Ptolemey Avlet taxtga oʻz huquqi tan olinishi uchun Sezar va Pompeyga 6000 talant miqdorida pora bergan edi. Suriyadagi noib Avl Gabiliy Ptolemeyni taxtga chiqarish uchun 10000 talant toʻlagan. Korrupsiya Rim sudini ham chetlab oʻtmadi. Rimliklar Rimda mil.avv. 74-yildagi shov-shuvga aylangan sud ishini uzoq vaqt eslab yurdilar. Sudyalarning biri sudda boshqa sudyalarga taqsimlab berish uchun ayblovchi va ayblanuvchidan ham pora olgan edi.

Rim respublikasi hukmronligining soʻnggi yarim asrida sudxoʻrlik kapitali, moliyachilar va bankirlarning soni koʻpaydi. Sudxoʻrlik bilan nafaqat suvoriylar, balki qonun boʻyicha rasmiy taqiqlangan boʻlsa-da, senatorlar ham boshqalar vositachiligida shugʻullandilar. Ringa qaram boʻlgan jamoalar, shaharlar, hatto podsholiklar maʼmuriyati amalda moliyachilar va sudxoʻrlar bilan birgalikda mahalliy aholini talar edilar. Rimda provinsiyalar noiblari va boshqa mansabdor shaxslarning poraxoʻrliklariga oid sud ishlari odatdagi hol boʻlib qoldi. Provinsiyalarni talab, boyib qaytgan noiblar toʻgʻrisida «Rimdan boy provinsiyaga qashshoq boʻlib ketdi, qashshoq provinsiyadan boy boʻlib qaytdi» degan ibora tez-tez ishlatiladigan boʻldi. Provinsiyalarning talanishi, foydali moliya operatsiyalari natijasida Rimda bu ish bilan shugʻullanadigan kishilar qoʻlida juda katta boylik toʻplandi. Rimliklarning oldingi ajdodlari bunday boylikni tushlarida ham koʻrmagan edilar. Bu hali chegara emas edi.

Mashhur patritsiy Lukullning boyligi 100 mln sestertsiy, Krassning boyligi 200 mln sestertsiyga baholangan. Mashhur notiq va siyosiy arbob Sitseronning boyligi 100 ming sestertsiyga yaqin edi. Rimda 100 ming sestertsiy daromad qilmagan kishini boy deb hisoblamas edilar. Juda katta boylikka ega boʻlish bilan birga, Rimda juda koʻp zodagonlar qarzga botgan edi. Qarz majburiyatlarining oʻsishi narx-navoning tez koʻtarilib ketishiga, siyosiy vaziyatning beqaror boʻlishiga olib keldi. Rim zodagonlari, siyosiy arboblarning jamoa oldida obroʻsizlanmaslik uchun juda katta sarf-xarajat qilishga majbur edilar. Oila ham patriarxal ahamiyatini yoʻqotdi. Ayollar endi erga boʻysunishdan bosh torta boshladilar. Nikoh koʻp holatlarda siyosiy maq-

sadlarni koʻzlab tuzila boshlandi. Rim ayollarining oʻz erlariga nisbatan xiyonati, buzuvchiligi odatdagi hol boʻlib qoldi.

Qulchilik munosabatlarida ham bir qancha oʻzgarishlar roʻy berdi. Mil.avv. I asrning I yarmidan baʼzi qullar ozod qilina boshlandi. Qul mehnati foydasiz ekanligi yaqqol koʻrindi. Ozod qoʻyilgan qullar tadbirkorlik bilan shugʻullanib, ularning ayrimlari juda katta boylik, koʻchmas mulk toʻpladilar.

Rim aslzoda patriitsiyalar respublikasi edi. Senat aʼzolari, konsullar, oliy amaldorlar, odatda, eng boy Rim oilalaridan saylanar edi. Konsul hokimiyati rimliklarning oʻzlari aytganlaridek, eng boy patriitsiy oilalar oʻrtasida «qoʻldan qoʻlga» uzatilar edi. Patriitsiy oilalarning qarshiligi tufayli oddiy nomzod konsul saylovlarida juda kam 20-30 yilda bir marta gʻolib boʻlar edi. Aslzodalar bunday gʻolibni mensimasdan «yangi odam» deb aytar edilar. Italiyadagi koʻp shaharlar, hududlar Rim davlati tarkibida boʻlsalar ham ular ittifoqchilar hisoblanib, Rim fuqarosi hisoblanmas edilar. Mil.avv. 90-yillarda Italiya aholisi fuqarolik huquqini talab qilib, qoʻzgʻolon koʻtardi (mil.avv. 90-88-yillar). Bu urush natijasida Italiya aholisi fuqarolik huquqini oldi.

Italiyada ittifoqchilar urushi tugamasdan Rimda birinchi fuqarolar urushi boshlandi. Ikki lashkarboshi zodagon Lutsiy Korneliy Sulla va oqsuyak zodagonlar uchun begona boʻlgan «yangi odam» Gay Mariy oʻrtasidagi nizo urushning boshlanishiga bahona boʻldi. Gay Mariy lotin shaharchasi Arpin yaqinidagi suvoriy oilasidan boʻlib, qattiqqoʻl, adolatli odam edi. U harbiy xizmatni sidqidildan oʻtab, konsullik lavozimiga yetti marta saylandi. Mariy birinchi konsulligi davrida harbiy islohot oʻtkazdi. Ilgari 17 yoshdan 45 yoshgacha barcha Rim fuqarolari urush vaqtidagina harbiy xizmatga chaqirilar va oʻz hisoblari-dan qurol-yarogʻ olar edilar. Gay Mariy qoʻshinga kambagʻallarni ham qabul qilishga ruxsat berdi. Endilikda askarlar davlat hisobidan qurol-yarogʻ, davlat xazinasidan maosh oladigan boʻldilar. Harbiy xizmat muddati 16 yil deb belgilandi. Shu tarzda Rim koʻngillilar qoʻshini muntazam qoʻshinga aylandi. Legioner endi oʻzini fuqarodan koʻra askar deb hisobladi. Askarlarning moddiy ahvoli davlatga va lashkarboshining saxiyligi, omadi chopishiga bogʻliq boʻlib qoldi. Asta-sekin lashkarboshilarning buyrugʻi, davlat hokimiyati obroʻsidan koʻra muhim boʻla boshladi. Qoʻshinning Rim siyosiy hayotidagi mavqeyi kuchaydi. Gay Mariyning raqibi Lutsiy Korneliy Sulla patriitsiy oilasidan kelib chiqqan edi.

2. Sulla diktaturasining o'rnatilishi. Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni. Rim respublikasi mil.avv. 80-yil boshlarida Italiyada ittifoqchilik urushlari tugaganidan keyin moliyaviy tushkunlik, savdo-hunarmandchilik degradatsiyasi va ichki siyosiy beqarorlik holatida edi. Shu bilan bir vaqtda Pont podshosi Mitridat VI ning Kichik Osiyo va Bolqon yarimorolini bosib olishi Rimni sharqda urush boshlashiga chaqiriq bo'ldi. Mitridat mashhur shaxs bo'lib, baland bo'yi, juda katta jismoniy kuchga ega bo'lgan. U 22 tilni bilgan, har tomonlama ma'lumotli kishi edi. Mitridat VI Bosfor, Kolxida, Kichik Armanistonni bosib olib, rimliklarning Kichik Osiyo mulklariga bostirib kirdi. Mahalliy aholi uni xaloskor sifatida kutib oldi. Kichik Osiyoning barcha shaharlarida uning topshirig'i bilan bir kunda 30 ming rimlik o'ldirildi. Mitridatga qarshi urushda qo'shinga qo'mondonlik qilish uchun birdaniga ikki sarkarda da'vogar bo'ldi. Ulardan biri optimatlar yetakchisi, mil.avv. 88-yilda konsul bo'lgan 50 yoshli Lutsiy Korneliy Sulla edi. Ikkinchi da'vogar populyarlarning o'tmishdagi ittifoqchisi, 6 marta konsul bo'lgan shuhratparast, 68 yoshli kekxa Gay Mariy edi.

Rim qo'shiniga qo'mondonlik qilish senat tomonidan Lutsey Korneliy Sullaga (mil.avv. 138–78-yillar) topshirildi. Rimda xalq yig'ini esa Sullani chetlatib, Sharqqa yurishga Gay Mariyni qo'mondon etib tayinladi. Shu vaqtda Janubiy Italiyada turgan g'ayratli sarkarda Sulla o'z qo'shinlariga juda katta va'dalar berib, Rimga yurish qildi. Rim o'zining ko'p asrlik tarixi davomida birinchi bor rimlik qo'shinlar tomonidan jang bilan egallandi. Gay Mariy Afrikaga yashirinishga majbur bo'ldi. Sulla o'z qo'shini bilan Yunonistonga yurish qilib, Mitridat VI qo'shinlarini tor-mor qildi. Shu vaqtda Rimda to'ntarish sodir bo'lib, hokimiyatni yettinchi marta konsul qilib saylangan Gay Mariy va 4 marta konsul bo'lgan Sinna egalladilar Tez orada Mariy bezgak kasalligidan vafot etdi. Sulla mil.avv. 83-yilda o'z qo'shini bilan Janubiy Italiyaga kelib tushdi. Fuqarolar urushining yangi davri boshlandi. Bu urush Sullaning g'alabasi bilan tugadi.

Sulla hokimiyatni bosib olgach, o'z mavqeyini huquqiy rasmiylashtirdi. U senatga murojaat qilib, davlatda tartib o'rnatish uchun bir kishini favqulodda vakolatlar bilan ta'minlash zarurligini aytdi. Komisiyalar (mil.avv. 82-yil)da oliy hokimiyat to'g'risida qonun qabul qilinib, Sullaga noma'lum vaqtgacha

diktatorlik vakolatini berdi. Qonunga ko'ra, Sulla qonunlar chiqarish va boshqaruvni tashkil etish uchun cheklanmagan vakolatlarga ega bo'ldi. Diktator barcha sohalarda fuqarolar hayoti va mulkiga o'zi xohlaganicha egalik qiladi; u alohida kishilarga oliy hokimiyatni berishi mumkin, koloniyalar barpo qilishi mumkin, tashqi siyosatni olib borishi mumkin, har qanday muammo bo'yicha qonunlar chiqarishi mumkin. Ilgari diktatura muddati qat'iy (6 oygacha) cheklab qo'yilar edi. Sulla esa noma'lum vaqtgacha diktator etib tayinlandi. Sulla o'zining raqiblarini bartaraf qilish uchun proskripsiya deb nomlangan tadbirni amalga oshirdi. Sulla tomonidan tuzilgan, mol-mulki tortib olinishi kerak bo'lgan va o'zi xoin deb hisoblagan kishilarning alohida ro'yxati (proskripsiya) shunday deb atalar edi. Kim bu ro'yxatga tushgan bo'lsa, u qonundan tashqari deb e'lon qilinib, har qanday kishi uni o'ldirishi, hatto bu uchun mukofot olishi mumkin edi. Shu yo'l bilan 100 senator va 2500 suvoriy o'ldirildi va ularning mulki musodara qilindi. O'ldirilganlarning boshi forumga qo'yildi. Hukm qilinganlarning mulki auksionda sotildi. Sullaning yaqinlari, uning ozod qullari va veteranlari katta mol-mulkka ega bo'ldilar. G'arazli maqsadlar, shaxsiy dushmanlik bilan ko'pgina begunoh kishilar o'ldirildi.

Sulla bepul non tarqatishni bekor qildi, qarz foizlarini chekladi hamda mil.avv. 241-yilda bekor qilingan senturiy komisiyalarini qayta tikladi. Senat tarkibiga Sulla o'z tarafdorlaridan bo'lgan 300 yangi a'zoni kiritdi. Diktator plebey tribunlari va komisiyalarning qonunchilik hokimiyatini bekor qilib, bu vakolatni senatga berdi. Sullaning maqsadi eski bo'lib, patriitsiy-plebey aslzodalarining hokimiyatini qayta tiklash edi.

Uning davrida senatda aslzodalar hukmronlik qila boshladilar. Sud hokimiyati suvoriylardan qaytarib olinib, senatga berildi. Sulla o'rnatgan tartib-qoidalarining tayanchi uning veteranlari edi. Sulla o'zining legioner veteranlariga (harbiy xizmati tugagan askarlar) Italiya shaharlari va qishloqlaridan proskripsiya ro'yxati bo'yicha qatl etilgan «yangi fuqarolarning» yerlarini taqsimlab berdi. Veteranlar har qanday norozilikni bostirishga tayyor turar edilar. Lekin tez orada mil.avv. 79-yilda ko'plar uchun kutilmagan holda Sulla diktatorlik vakolatini o'zidan soqit qilib, hokimiyatdan chetlashdi. Diktator tuzalmas qichima kasalligiga yo'liqqan bo'lib, badaniga yiringli yara toshib ketgan va faqat suvda cho'milib, bir oz orom topar edi. Sobiq diktator baliqchilik bilan shug'ullanib, memuarlar yozdi. Sulla mil.avv.

78-yil 60 yoshida miyasiga qon quyilishi oqibatida vafot etdi. Sulla konstitutsiyasi yana 8 yil yashadi.

Mohir sarkarda Sulla askarlari orasida katta obro'ga ega edi. U xudbin, sovuqqon bo'lib, pulga juda o'ch edi. U ma'lumotli odam bo'lib, yunon adabiyoti va falsafasini yaxshi bilgan. Bir qobilyatsiz shoir Sullaga bag'ishlangan maqtov she'rini keltirganda Sulla unga boshqa she'r yozmaslik sharti bilan katta miqdorda pul berishga buyruq beradi.

Sulla konstitutsiyasiga birinchi bo'lib 78-yilda konsul bo'lgan Mark Emiliy Lepid qarshi chiqdi. Konsullikni topshirib, Lepid qo'shin to'plab Rimga yurish qildi. Lekin Mars maydonidagi jangda yengildi. U Sardiniyaga qochib ketdi va shu yerda vafot qildi. Ikkinchi bo'lib Sullaga qarshi mil. avv. 81-yil Ispaniyada noiblikni topshirgan Sertoriy chiqdi. Kvint Sertoriy iberlar bilan yaxshi munosabatda bo'ldi. Ibirlar uning legionlari safini to'ldirdilar. Sulla tartib-qoidalariga sodiq bo'lgan senat unga qarshi Gney Pompey boshchiligidan katta qo'shin yubordi. Mil.avv. 72-yil Ispaniyada Sertoriy qo'zg'oloni bostirildi va qatl etildi.

Shu vaqtda Italiyani Spartak rahbarligidagi misli ko'rilmagan qullar qo'zg'oloni qalqitib yubordi (mil.avv. 74 -71-yillar). Spartak kelib chiqishi Frakiyadan bo'lib, Rim qo'shinida yollanma askar bo'lib xizmat qiladi va xizmatdan qochadi. Keyin esa asir olinib, gladiatorlikka berilgan. Spartak o'zining jismoniy kuchi, dovyurakligi uchun ozodlikka chiqadi. Kapuya shahridagi Lentul Batiatning gladiatorlik maktabiga qilichbozlik o'qituvchisi bo'lib ishga kiradi. Boshda Spartak qo'zg'oloniga ahamiyat berilmadi. Sarkardalik qobiliyatiga ega bo'lgan shijoatli Spartak tez orada o'z qo'l ostida qullardan tuzilgan 120 ming kishilik qo'shin to'pladi. Bir necha bor rimliklar ustidan g'alaba qildi. Ayniqsa, Shimoliy Italiyadagi Mutina shahri yonida Spartak yaxshi qurollangan ikki konsul boshchilik qilgan Rim qo'shinarini tor-mor qildi (mil.avv. 72-yil). Bu hol Rimni vahimaga tushirib qo'ydi.

Senat mil.avv. 72-yilda Spartakka qarshi qo'shinga boshchilik qilishni favqulodda vakolatlar bilan eng boy quldor Mark Krassga topshirdi. Spartak tezlik bilan Rimni chetlab o'tib, Italiyaning janubiga yurish qildi. Farazlarga ko'ra, Spartak Sitsiliyaga o'tishga harakat qilgan. Spartakning Sitsiliyaga o'tishida kemalar bilan ta'minlashga va'da bergan Kilikiya dengiz qaroqchilari (piratlar) uni aldadilar. Qullar qo'shini Bruttiya

viloyatida qamalib qoldi. Krass bu yerda 52,5 km uzunlikdagi okop qazishga buyruq berdi. Spartak qo'shinlari rimliklarning bu to'siqlarini buzib o'tib, Brundiziy portiga qarab harakat qildilar. U o'z qo'shinini kemalar bilan Yunonistonga olib o'tmoqchi edi. Tez orada Spartak qo'shinlaridan bir necha qismlar ajralib ketdi. Bu Spartakning kuchini zaiflashtirdi. Krass qullar qo'shinini ta'qib ostiga olib, ularning orqasidan izma-iz bordi. Apuliya viloyatida Krass va Spartak qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang bo'ldi (mil.avv.71-yil). Jang boshlanishida Spartakka otini minishga hozirladilar, lekin u qilichini sug'urib otni o'ldirdi. Spartak g'alaba qilgan taqdirda eng yaxshi otlarga ega bo'lishi mumkinligi, yengilgan taqdirda hech qanday ot kerak emasligini aytdi. Jang juda shafqatsiz bo'lib, rimliklar g'alaba qildilar. Spartak va minglab qullar bu jangda qahramonlarcha halok bo'ldi. Uch yil davom etgan qullar qo'zg'oloni bostirildi. 6 ming qul Kapuyadan Rimga boradigan yo'lda xochga mixlandi.

3. Pompeyning Sharq yurishlari. I triumvirat. Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni bilan bir vaqtda Mitridat VI bilan (mil.avv. 74–64-yillar) yangi urush boshlandi. Mitridat VI haqiqiy sharq podshosi bo'lib, o'z onasi, ukasi, o'zi bilan nikohda bo'lgan singillari, 3 o'g'li va 3 qizining o'limiga aybdor edi. U 300 ming kishilik qo'shin, 400 kemadan iborat kuchli flotga ega edi. Dastlab Rim qo'shinlariga tajribali sarkarda Lukull boshchilik qilib, bir qancha yutuqlarga erishdi. Lekin Mitridat VI ni yenga olmadi. Bundan tashqari, u qattiqqo'lligi bilan legionerlarning noroziligini tug'dirdi. Shunda senatning irodasiga qarshi xalq yig'ini sharqda qo'mondonlikni Gney Pompeyga topshirdi.

Gney Pompey Sulla davrida tanilib, fuqarolar urushi davrida Sullani qo'llagan edi. Keyin esa senat uni Spartakka qarshi Krass qo'shiniga yordamga yubordi. Mil.avv. 70-yil Pompey va Krass konsul etib saylandi. Krass ovatsiya (piyoda triumf) ga, Pompey triumfga sazovor bo'ldi (Qadimdan Rimda katta janglarda g'alabaga erishgan lashkarboshi sharafiga Rim shahrida zafar (triumv) marosimi uyushtirilar edi. Rim uchun ahamiyati katta g'alabaga erishgan lashkarboshi jang aravasi-da, kichikroq ahamiyatli g'alabaga erishgan lashkarboshi piyoda yurib, kapitoliy tepaligiga ko'tarilib, qurbonlik keltirgan. Rim fuqarolari ularni qarsaklar bilan olqishlar (ovatsiya) edilar. Pompey qo'shinlari rag'batlantirildi. Pompey O'rtayer dengizi qirg'oqlarini talagan dengiz qaroqchilarini tugatib, Rimda katta obro'ga ega bo'ldi.

G'ayratli sarkarda Pont podshosini tor-mor qilib, Armanistonni vassal davlatga aylantirdi. Pompey Bosfor podsholigida Mitridat VI ga qarshi qo'zg'olon uyushtirib, uning o'zini o'ldirishga majbur qildi hamda Suriya va Yahudiyani istilo qildi. Kichik Osiyoda Rim hokimiyatini qayta tikladi. Urushdan so'ng Rimda uning sharafiga zafar (trium) uyushtirildi va Pompey sharqda 22 podsho ustidan g'alaba qildi, 12 mln kishini bo'ysundirdi, 1538 shahar va qal'alar istilo qildi deb e'lon qilindi. Pompeyning Sharqqa yurishi ellin sharqi mamlakatlarining Misrdan tashqari Rimga bo'ysundirishni tugalladi.

Pompey Rimga g'alaba bilan qaytdi. Bu vaqtda Rimda qarzga botgan patrisiy Lutsiy Sergiy Katilina boshchilik qilgan harakatning fitnasi bostirildi. Bu harakat qarzlarni bekor qilish va davlat to'ntarishini maqsad qilgan edi. Etruriyada Katilina va uning uch ming kishilik tarafdorlari shafqatsiz jangda o'ldirildi. Nobillar va suvoriylar Katilina fitnasi davrida birlashdilar. Senat oqsuyak-patriisiylar respublikasi va an'anaviy Rim erkinligining himoyachisi sifatida chiqdi. O'zining sharqdagi g'alabalari bilan obro'-e'tibori oshib ketgan Pompeyni Rimda hokimiyatni qo'lga olishidan qo'rqqan senat unga dushmanlik nazari bilan qaradi. Senat Pompeyni konsullikka o'z nomzodini qo'yishga ruxsat bermadi. Senatda kuchli ta'sirga ega bo'lgan yana bir taniqli patrisiy Lukull ham Pompeyga qarshi chiqdi. Pompeyning veteranlariga yer berilmadi. Ispaniyada noib bo'lgan, luzitanlarning qo'zg'olonini bostirgan. Senat Gay Yuliy Sezarni ham mil.avv. 60-yilda sirdan konsullikka o'z nomzodini qo'yishiga ruxsat bermadi. Ispaniyada katta boylik to'plagan Sezar shaxsan o'zi Rimga keldi. U konsullik saylovida o'z nomzodini qo'ydi va mil.avv. 59-yil konsullikka saylandi. Sezar Rimdagi siyosiy vaziyatdan o'z manfaati yo'lida foydalandi. U senat qo'llab-quvvatlamagan va bir-birovi bilan dushman bo'lgan Pompey va Krassni murosaga keltirdi. Bu murosa juda muhim siyosiy oqibatga olib keldi: Rimdagi uch qudratli kishi Pompey, Sezar va Krass norasmiy ittifoq tuzib, bir-birlariga yordam berish majburiyatini oldilar. Bu kelishuv I triumvirat (uch qudratli kishi ittifoqi, mil.avv. 59-yil) deb ataldi. Har uchalasining ham nobillardan do'stlari, plebs orasida ko'plab klientlari, Italiya va provinsiyalarda tarafdorlari bor edi. Kelishuv Pompeyning Sezarni qiziga uylanishi, Sezarni o'zining taniqli bir tarafdorining qizi Kalpuriyaga uylanishi bilan mustahkamlandi.

Rimda siyosiy hokimiyat uch taniqli siyosiy arbob Pompey, Krass va Sezar qo'liga o'tdi. Gay Yuliy Sezar (mil.avv. 100–44-yillar) bu vaqtda Krass va Pompey kabi obro'ga ega emas edi. Lekin u shuhratparast, shijoatli bo'lgani uchun tez orada I triumviratning amaldagi rahbari bo'ldi. Bundan tashqari, u mil. avv. 59-yildagi kelishuvga binoan konsul qilib saylandi. Bitimga ko'ra, Sezar agrar qonun loyihasini amalga oshirdi. Natijada Pompeyning sobiq jangchi-veteranlari yer ulushlariga ega bo'ldilar.

Respublika an'analariga sodiq bo'lgan respublikaning hi-moyachilarini mafkuraviy ilhomchisi bo'lgan siyosatchi, taniqli siyosiy arbob, notiq Mark Tulliy Sitseron (mil.avv. 106–43) maxsus qaror bilan Rimdan haydalib, mol-mulki musodara qilindi. Respublikaning boshqa tarafdorlari ham bosim ostida qoldi. Sezar hokimiyat uchun kurashda shahar va qishloq plebey uning mustahkam tayanchi bo'lib xizmat qila olmasligini tushunar edi. Buning uchun yaxshi qurollangan sadoqatli qo'shin kerak edi. Bu qo'shinni tashkil qilish uchun katta miqdorda mablag' topish maqsadida Sezar Galliya provinsiyasiga 5 yil noiblik lavozimini olishga erishdi.

Mil.avv. I asrning 50-yillarida rimliklar Galliyaning bir qismini ishg'ol qilgan edilar. Lekin uning katta qismi (hozirgi Fransiya, Belgiya, Gollandiyaning bir qismi, Shvetsariyaning katta qismi) hali erkin edi. Bu hududda yashagan o'nlab qabilalar doimo o'zaro urushlar girdobida edilar. Senat Galliyaning qolgan ana shu qismini bo'ysundirish uchun Sezarga qo'shin to'plashga ruxsat berdi. Galliyani istilo qilish yetti yil davom etdi. Boshda Sezar gelvet (hozirgi Shvetsariya hududida yashovchi) qabilasiga qarshi, keyin esa german qabilalaridan bo'lgan Ariovis boshchiligidagi svevlarga qarshi urush harakatlarini olib bordi. Nihoyat belg qabilalari bilan keskin kurashdan keyin Galliya bo'ysundirildi va u mil.avv. 57-yil Rim provinsiyasi deb e'lon qilindi.

Mil.avv. 56-yil bahor oyida Sezarning Galliyadagi vakolati yana 5 yilga uzaytirildi. Sezar mil.avv. 55-yilda german qabilalariga qarshi Reyn ortiga, mil.avv. 54-yilda esa Britaniyaga yurish qildi. Lekin mil.avv. 54-yilda Rimga qarshi Buyuk gal qo'zg'oloni yuz berdi. Bu qo'zg'olon arvern qabilalari tashabbusi bilan boshlanib, qo'zg'olonga qobiliyatli yo'l boshchi Versingetorik boshchilik qildi. Rimliklar juda qiyin ahvolga tushib qoldilar. Sezarda 60 ming qo'shin, qo'zg'olonchilarda 300 ming

kishi bor edi. Faqat Sezarning harbiy-tashkilotchilik qobiliyati, uning diplomatik san'ati qo'zg'olonchilar orasida o'zaro kelishmovchiliklar kelib chiqishiga olib keldi. Natijada rimliklar bu qo'zg'olonni bostirdilar. Qo'zg'olonning so'nggi o'choqlari mil. avv. 51-yilda tugatildi.

Galliya istilosi natijalari ulkan edi. Sezar 300 qabilani bo'ysundirdi. 800 shahar qamal qilib olindi. 1 mln. kishi asir olindi. Rimliklar qo'liga ulkan miqdorda o'lja tushdi: Rimda oltin qadoqlab sotildi va uning bahosi juda pastga tushib ketdi. Bularning hammasi Rimda Sezarning obro'-e'tiborini oshirib yubordi. Galliyada urush harakatlari tugamasdan I triumvirat amalda tugadi. Krass mil.avv. 55-yil Parfiyaga yurish vaqtida yengilib halok bo'ldi. Sezarning yutuqlari va obro'-e'tiborining oshib ketishi u bilan Pompey orasidagi munosabatlarda sovuqlik va dushmanlikka sabab bo'ldi. Galliyada Sezarning vakolati tugadi. U o'z qo'shinini tarqatishi lozim edi. Lekin u qo'shinni tarqatmadi. Sezarning kuchli qo'shinidan qo'rqib qolgan senat uni Rimning dushmani deb e'lon qildi. Senat uning raqibi Pompeyga Italiyada qo'shin to'plab, Sezarga qarshi chiqishga topshiriq berdi.

Nozik diplomat va uzoqni ko'ra oladigan siyosatchi bo'lgan Sezar Rimdagi vaziyatni kuzatib, Galliya noibliigi davridan boshlab katta miqdorda pora berish bilan o'z tarafdorlariga ega bo'lgan edi. Sezar Pompey qo'shinlarini kutib turmadi. U mil. avv. 49-yil yanvarida Shimoliy Italiyaning chegarasi bo'lgan kichik Rubikon daryosidan o'tdi. Qonunga ko'ra, bu daryodan o'tgan har qanday qurollangan qo'shin Rimning dushmani deb hisoblanar edi. Aytishlaricha, daryodan o'tish oldidan Sezar uzoq o'ylanib turib, «qur'a tashlandi» deb xitob qiladi va qo'shinga daryodan o'tishga buyruq beradi. Shimoliy Italiyaning shaharlari Sezar qo'shinlariga deyarli qarshilik ko'rsatmaydi. Pompey qo'l ostida jangovar qo'shin bo'lmaganligi uchun mil. avv. 49-yil 17-yanvarida janubga qo'shin yig'ishga jo'nab ketdi. Uning orqasidan vahimaga tushgan konsullar va senatning ko'pgina senatorlari qochib ketdi.

Sezar 3 bora Pompey bilan muzokaralar olib borishga urindi. Lekin Pompey 17-martda o'ziga sodiq qo'shin va tarafdorlari to'planayotgan Yunonistonga jo'nab ketdi. Nozik diplomat Sezar ikki oy davomida hech qanday qon to'kmasdan butun Italiyani egalladi. U Rimga kirib, 5000 funt tilla va kumushdan iborat davlat xazinasini bosib oldi. Sezar Rimda ko'p turmay, Pompey-

ga sodiq yetti legion turgan Ispaniyaga yurish qildi. Ispaniyada g'alaba qilib, Sezar Bolqon yarim oroliga o'tmoqchi edi. Ispaniyadagi Ilerda shaharchasi yonida Sezar dushman qo'shinlarini 2-avgustda tor-mor qildi. Shundan so'ng ikki ispan provinsiyasi Sezar tomoniga o'tdi. Hal qiluvchi jang mil.avv. 48-yilda Yunonistondagi Farsal shahri yonida bo'lib o'tdi. Pompey qo'shinlari yengildi. Pompey boshda Lesbos oroliga qochdi, u yerdan Misrga yo'l oldi. U bir vaqtlar o'smir Ptolemeyga homiylik qilgan bo'lib, endi yosh podsho Ptolemeydan yordam olmoqchi bo'ldi. Lekin u qirg'oqqa tushishi bilan Ptolemeyning buyrug'i bilan o'ldirildi.

Sezar Pompey o'limidan uch kun keyin Misrga yurish qilib, bu yerda Ptolemeylar sulolasining taxt uchun kurashiga aralashib, malika Kleopatrani hokimiyat uchun ukasiga qarshi kurashida yordam berdi. Oqibatda Aleksandriyada Sezarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Bu qo'zg'olonni Sezar zo'rg'a bostirdi. Shundan so'ng u sharqqa Mitridatning o'g'li Farnakka qarshi yurish qilishga majbur bo'ldi. Sezar bu yurishni juda qisqa muddatda – atigi 5 kunda amalga oshirdi va bu to'g'risida senatga o'zining «Keldim, ko'rdim, yengdim» degan mashhur maktubini yubordi.

Pompeyning asosiy tarafdorlari endilikda Afrikada to'plandilar. Mil.avv. 46-yilda Afrika provinsiyasining sharqiy qirg'og'ida Tais shahri yonida katta jang bo'lib, Pompey tarafdorlari to'la tor-mor etildi. Shundan so'ng Sezar Numidiyani bo'ysundirdi. Mil.avv. 46-yilda u Rimga qaytdi va bu yerda Galliya, Misr, Pont va Numidiya ustidan g'alabalari sharafiga to'rt zafar triumfini bayram qildi. Lekin pompeychilar bilan kurash hali tugamagan edi. Pompeyning o'g'illari Ispaniyada kuch to'pladilar. Munt yonida mil.avv. 45-yilda Sezar o'zining raqiblari ustidan so'nggi g'alabasiga erishdi. Jang juda qonli va keskin bo'ldi. Sezarning so'zi bo'yicha u birinchi bor g'alaba uchun emas, o'z hayoti uchun jang qildi.

Fuqarolar urushi nihoyat tugadi. Sezar ikkinchi bor Rimda senat tomonidan diktator deb e'lon qilindi (senat Sezarni Ispaniyada bo'lgan vaqtida birinchi marta diktator deb e'lon qilgan edi). Unga 5 yillik konsullik, umrbod tribun hokimiyati, saylov komisiyalarida o'z nomzodini tavsiya qilish huquqi hamda boshqa unvonlar va vakolatlar berildi. Sezar o'zining o'rinbosari (otliq qism boshlig'i) etib, diktator Rimda bo'lmagan paytda Rim va Italiyani boshqargan Antoniyni tayinladi. Sezar mil.

avv. 44-yilda beshinchi marta konsul lavozimini egalladi. Umr-bod diktator deb eʼlon qilindi. U mutlaq hokimiyatga ega boʻldi. Sezar podsho kiyimini kiyish huquqiga ega boʻldi. Uning nomi bilan qasamyod qildilar. Unga xudo kabi sigʻindilar. Uning tasviri tangalarda zarb qilindi. Sezarning ijtimoiy tayanchi yoʻq edi. Chunki uning tarafdorlarining manfaatlari bir-biriga toʻgʻri kelmas edi. Bunday vaziyatda Sezar oʻz hokimiyatini mustahkamlashda qoʻshindan foydalandi. U oʻz raqiblarini taʻqib qilmadi. Faqat Pompeyning va uning ashaddiy tarafdorlari mulkini musodara qildi. Sezarning eski dushmanlari afv etildi. Pompeyning tarafdorlari boʻlgan taniqli senatorlarni Sezar moʻl-koʻl sovgʻalar bilan taqdirladi. Ular provinsiyalarda oliy davlat lavozimlariga saylandilar, yer-mulklarini hadyaga oldilar. Sezar turli ijtimoiy guruhlardan tayanch topishga urinib, ijtimoiy sohada turli islohotlarni oʻtkazdi.

Sezar davridan oltin tanga muntazam zarb qilina boshlandi. Denariy butun davlat uchun yagona tangaga aylandi. Sezar konsulligi vaqtida (mil.avv. 59-yil) provinsiyalarda poraxoʻrlikka qarshi qonun qabul qildi. Davlatdan tekin non va boshqa mahsulotlar oladigan plebsni 320 mingdan 150 mingga kamaytirdi. Shaharlarga mahalliy muammolarni yechish uchun avtonomiya huquqini berdi. Soliq tizimi tartibga solindi, soliq yigʻuvchi –publikanlar faoliyati ustidan nazorat oʻrnatildi. Dehqonchilikni rivojlantirish uchun botqoqliklarni yoʻq qilib, yoʻllarni qurish loyihalarini Sezarning oʻzi ishlab chiqdi va qisman amalga oshirdi. Sezar kalendar islohotini oʻtkazdi. Misrlik matematik va astronom Sozigen yordami bilan mil.avv. 45-yil 1-yanvardan vaqt hisobi kiritildi. Sezar nomi bilan kvintiliy (iyul) oyi belgilandi.

Sezar Parfiyaga qarshi yurishga tayyorlana boshladi. Rimda Parfiyani faqat podsho yengishi mumkin degan gap tarqaladi. Rim nobillari orasida Sezarning dushmanlari koʻp edi. Ular respublika tartib-qoidalarining buzilishi, davlat lavozimlaridan oʻzlarining chetlashtirilganligidan norozi edilar. Faqat barcha haqorat va tahqirlar uchun Sezardan oʻch olishga bahona izlar edilar. Sezarga qarshi fitna uyushtirib, bu fitnada 60 dan koʻp senator ishtirok etdi. Fitna boshida Gay Kassiy Longin, Mark Yuniy Brut va Detsim Yuniy Brut turdi. Sezar mil.avv. 44-yil 15-martida senat majlisida Brut va Kassiy boshchiligidagi fitnachilar tomonidan oʻldirildi. U 23 joyidan yaralangan boʻlib, jarohatning faqat bittasi uning oʻlimiga sabab boʻldi.

4. II triumvirat. Respublikaning qulashi. Sezarni o'ldirib, fitnachilar o'zlarini yo'qotib qo'ydilar. Ular tiraniyaga qarshi kurash va boshqarishning respublika tuzumini qayta tiklash shiori ostida harakat qildilar. Lekin senatorlar ozodlikning tiklanishini olqishlash o'rniga vahimaga tushib qochib ketdilar. Hech qanday rejaga ega bo'magan fitnaning faol ishtirokchilari Brut va Kassiy shahardan qochishga majbur bo'ldi. Sezarning eng yaqin do'stlaridan biri, mil.avv. 44-yildagi konsul Mark Antoniy Rimning amaldagi xo'jayiniga aylandi. Antoniy Sezarning merosxo'ri sifatida marhumning uyidan uning arxivi, 100 mln sestersiy miqdoridagi pul mablag'ini o'zlashtirib oldi. Sezarning dafn qilish marosimi dabdabali qilib o'tkazildi.

Dafn marosimi arafasida Sezar vasiyatida o'zining bosh merosxo'ri qilib, asrandi o'g'li, singlisining 18 yoshli farzandi Gay Oktavian Furinni belgilagani ma'lum bo'ldi. Antoniy aholining turli guruhlarida o'z mavqeyini mustahkamlash uchun faol harakat qildi. Senatga yon berdi. Sezarning veteranlariga suyanishni ko'zlab, ularga qonun bilan yer ulushi berdi. O'z hokimiyatini kuchaytirish uchun boy Galliya provinsiyasini o'z ixtiyoriga o'tkazdi. Senat Sitseron boshchiligida unga qarshi muxolifatga o'tdi. Boshda Antoniy Gay Yuliy Sezar Oktavianga mensimasdan qaradi. Oktavian senat bilan vaqtinchalik ittifoq tuzdi. Respublika tarafdori bo'lgan mashhur notiq va konsul Sitseron yangi tiran Mark Antoniyga qarshi Oktavianni qo'llab-quvvatladi. Shu vaqtda respublika tarafdorlari bo'lgan Brut va Kassiy Bolqon yarim orolida katta harbiy kuch to'pladilar. Mil.avv. 42-yil kuzida Makedoniyadagi Filipp shahri yaqinida triumvirlar qo'shinlari bilan senat respublikasi tarafdorlari qo'shinlari o'rtasida ikki jangda respublikachilar yengildi.

Fuqarolar urushining oxirgi bosqichi boshlandi. Senatning topshirig'i bilan Oktavian Mark Antoniyga qarshi urush boshlandi. Mil.avv. 43-yil aprelida Mutina yonidagi jangda Antoniy yengildi. Legionerlar Oktavianga imperator unvonini berdilar. Antoniy esa respublika dushmani deb e'lon qilindi. Antoniy yengilgach, senat g'alabani bayram qildi. Sitseron boshchiligidagi senat oligarxiyasi Oktavianning o'z mutlaq hokimiyatini o'rnatishiga yo'l bermaslikka urindilar. Oktavianning konsul bo'lishiga qarshi chiqdilar va unga qo'shin qo'mondonligini topshirishga buyruq berdilar. Oktavian esa qo'mondonlikni topshirmadi. Antoniy ta'qib qilmadi. Aksincha, Mark Antoniy va Sezar tarafdorlaridan bo'lgan Lepid bilan o'zaro shartnoma

tuzdi. Ularning ittifoqi II triumvirat (Bononi shahri yaqinida mil.avv. 43-yil) nomi bilan ma'lum. Bu ittifoq I triumviratdan farq qilgan holda xalq yig'inishida rasmiy tasdiqlandi. Triumvirlar kelishuviga binoan Oktavian mil.avv. 41-yil 19-avgustida konsul etib saylandi. Italiyada ular o'zlariga qarshi bo'lgan respublika tarafdorlarini ta'qib ostiga oldilar. G'oliblar proskripsiya ro'yxatiga nafaqat o'zlarining dushmanlari bo'lgan senatorlarni, balki boy bo'lgan rim fuqarolarini ham kiritdilar. Ular Sulla davridagi proskripsiyadan hajmi va shafqatsizligi bilan oshib tushdi. E'lon qilingan proskripsiya natijasida minglab odamlar, birinchi navbatda, taniqli respublikachi Sitseron halok bo'ldi.

Respublikachilar tor-mor etilgach, Brundiziyda Oktavian va Antoniy triumvirlar o'rtasida provinsiyalar yangidan taqsimlandi: Oktavianga G'arbiy provinsiyalar Illiriya bilan birga berildi, Antoniy sharqdagi provinsiyalarga ega bo'ldi, Lepedga Afrika qoldirildi. Shartnoma sulolaviy nikoh bilan mustahkamlandi. Antoniy Oktavianning yaqinda beva qolgan singlisi Oktaviyaga uylandi. Pompeyning o'g'li Sekst Pompey dengizda qaroqchilik qilib, Rimga oziq-ovqat keltirishni qiyinlashtirdi. Oktavian unga qarshi keskin urush harakatlari olib borib, bir necha jangda S.Pompeyning flotini yanchib tashladi. Italiyada Oktavianning obro'si oshib ketdi. Mil.avv. 36-yilda Antoniy Parfiyaga yurish boshladi, lekin bu yurish natijasiz tugadi. Antoniy mil.avv. 34-yilda Armanistonga yurish qilib, arman podshosini xoinlikda ayblab qatl qildi. Shundan so'ng Kleopatra podsholar podshosi deb e'lon qilindi. Uning o'g'illari mustaqil hisoblangan yoki rim provinsiyalari tarkibiga kirgan podsholiklarni Antoniydan sovg'aga oldilar. Antoniy va Kleopatra ma'lum bir siyosiy maqsadlarni ko'zlagan edilar. Antoniy Misr podsholigining katta boyliklari parfiyaliklarga qarshi harbiy yurish uyushtirish imkoniyatini beradi deb hisobladi. Kleopatra Ptolemeylar podsholigini mil.avv. III asr boshlaridagi chegaralarda tiklashni orzu qilgan edi. Rim hukmron tabaqalar Antoniyning faoliyatini Rimning manfaatlariga zid hisobladi. Oktavian rimliklarning Antoniyga nisbatan dushmanlik kayfiyatini yanada kuchaytirishga harakat qildi. Oktavian Rimga qaytib, Antoniyga qarshi zimdan kuch to'play boshladi. Tez orada triumvirlardan biri Lepid Sitsiliyada hokimiyatni qo'lga olishga urindi, lekin uning qo'shinlari Oktavian tomoniga o'tib ketdi. Natijada Lepidning siyosiy faoliyati tugallandi. Lepid oliy pontifik lavozimiga ega bo'lgani uchun Oktavian uning hayotini saqlab qoldi. Shundan

so'ng Lepid Rimda hech qanday siyosatga aralashmay, mil.avv. 12-yilgacha yashab, 77 yoshida vafot etdi. Italiya va uning atrofidagi hududlarda o'z hokimiyatini mustahkamlagan Oktavian raqibi Antoniyga qarshi urushga jiddiy tayyorlana boshladi.

Mark Antoniy Misrga jo'nab ketdi va u yerda malika Kleopatraga uylandi. U mutlaq hukmdor sifatida sharqdagi Rimning yer-mulklariga egalik qildi. Mil.avv. 32-yilda rimliklar Misrga qarshi urush e'lon qildilar. Antoniy tarafdorlaridan tozalangan senat uni «respublika dushmani» deb e'lon qildi. Oktavian 250 jangovar kema, 80 ming legionerlardan iborat quruqlikdagi qo'shinga, Antoniy esa 100 ming piyoda askar, 12 ming otliq va 500 kemaga ega edi. Mil.avv. 31-yil 2-sentabrda Epir qirg'og'idagi Aksiy burni yonida dengiz jangi bo'lib, bu jangda Antoniy floti yengildi. Mil.avv. 30-yilda Oktavian Suriya va Misrga yurish qildi va hech qanday qarshiliksiz Aleksandriya shahrini egalladi.

Jangda yengilib, hokimiyatdan ajralgan, umudsizlikka tushgan Antoniy o'zini qilichga tashlab o'ldirdi. Kleopatra esa o'lim to'shagida yotgan eriga o'zini o'ldirib, uning orqasidan borishni va'da qildi. Ammo buning o'rniga u Oktavian tomoniga o'tmoqchi bo'ldi. Faqat g'olib Oktavian uni kishanlab, Rimga olib borish niyati borligini bilib qolib, o'zini o'ldirdi. Aytishlaricha, malika o'zini zaharli ilonlarga chaqtirib o'ldiradi. Oktavianning buyrug'i bilan Sezar va Kleopatraning o'g'li Sezarion hamda Antoniyning Fulviyadan bo'lgan katta o'g'li Antullni o'limga hukm qildilar. Antoniyning qolgan 9 bolasini uning sobiq xotini Oktaviya (Oktavianning singlisi) o'z tarbiyasiga oldi. Ptolemeylar sulolasi 300 yilga yaqin hukmronlik qilgan Misr Rim provinsiyasiga aylantirildi. Shu bilan Rimda fuqarolar urushining fojiali davri tugadi. Sezarning asrandi o'g'li Oktavianning Rim O'rtayer dengizi davlatiga uzoq hukmronlik yillari boshlandi (mil.avv. 30-yildan–milodiy 14-yiligacha).

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Штаерман Е. М. Проблема падения Римской республики в советской историографии. Вопросы истории, 1966, № 3.

2. Плутарх. Сравнительные жизнеописания, т. 2, 3. Биографии Катона, Цицерона, Антония, Брута, Гая Мария, Суллы, Красса, Помпея, Цезаря.

Гай Саллюстий Крисп. Сочинения. – М.: 1981.

3. Цицерон. Речи. В 2-х т. – М.: 1962.

4. Коржева К. П. Восстание Спартака в советской историографии. Вопросы. истории, 1974, № 10.

5 Утченко С. Л. Цицерон и его время. – М.: 1972.

6. Утченко С. Л. Юлий Цезарь. – М.: 1976.

Asosiy sanalar

| | |
|------------------------|--|
| Mil.avv. 79-yil | Sulla diktatorlik vazifasini o'zidan soqit qildi. |
| Mil.avv. 74 –71-yillar | Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni bo'ldi. |
| Mil.avv. 59-yil | I triumvirat (Pompey, Sezar va Krass). |
| Mil.avv. 59-yil | Sezar konsul etib saylandi. |
| Mil.avv. 55-yil | Krass va Pompey konsul etib saylandilar. |
| Mil.avv. 43-yil | II triumvirat (Oktavian, Mark Antoniy va Lepid). |
| Mil.avv. 31-yil | Oktavian va Antoniy qo'shinlari o'rtasida Aksiy yonida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. |

RIM JAMIYATI VA DAVLATI ILK IMPERIYA DAVRIDA

1. Avgust prinsipati. 2. Rim siyosiy hayoti. 3. Rim imperiyasi milodiy I asrda.

1. Avgust prinsipati. Ko'p yillik fuqarolik urushlaridan so'ng, nihoyat Rimda tinchlik o'rnatildi. Oktavianning eng faol raqiblari fuqarolar urushlarida halok bo'ldi. Sezarga qarshi guruhlarining tirik qolgan vakillari siyosiy jihatdan zaif va bo'linib ketgan edi. Ular o'z mavqelarini saqlab qolish uchun Oktavianga har qanday yo'l bilan yordam berish yoki kelishishga tayyor edilar. Aksiyonidagi g'alaba natijasida 33 yoshli Oktavian (mil. avv 30-yildan – milodiy 14-yiligacha) ulkan davlatning yagona hukmdoriga aylandi. U diktatura va umrbod senzorlikdan voz kechdi. Hech kim uni podsholikka intilmoqda deb ayblamasligi uchun Romul nomi va dominus (janob) unvonini inkor qildi.

Oktavian mil.avv. 30-yildan plebey tribuni hokimiyatiga ega edi. U mil.avv. 29-yilda senatdan qo'shin qo'mondoni, ichki va tashqi siyosat sohalarida oliy hokimiyatda egalikni bildiradigan umrbod imperator unvonini oldi. Mil.avv. 28-yil senatda navbatdagi tozalash o'tkazilib, senat a'zolari soni ming kishigacha yetkazildi. Senat a'zolarining yangi ro'yxatida Oktavianning nomi birinchi turar edi. Ana shundan uning prinseps senatus («birinchi» – lotin tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjimasini) unvoni kelib chiqdi. Respublika Rimida prinseps unvoni senatorlar ro'yxatidagi birinchi o'rinda turgan eng hurmatli va eng keksa, odatda, sobiq senzorlardan senatdagi o'rnini bildirar edi. Bu unvon faxriy bo'lib, konsullarning so'roviga ko'ra prinsepsga o'z fikrini birinchi bo'lib bildirish huquqidan boshqa hech qanday alohida vakolatlar bermas edi. Rimning O'rtayer dengizi havzasida yetakchilik uchun kurashi davrida ichki va tashqi siyosatga shubhasiz ta'sir o'tkazgan obro'li kishilar prinsepslar bo'lgan edi (Kvint Fabiy Maksim, Sisipion Katta va boshqalar). Sulla diktaturasidan so'ng prinsepslar oldingi ahamiyatini yo'qotdi. Oktavian senatorlar ro'yxatida o'zini birinchi qo'yib, go'yoki senat prinsepsining ilgarigi mavqeyini qayta tikladi. Bu unvon Oktavianga o'z fikrini birinchi bo'lib bildirish va senatning qaroriga ta'sir qilishga imkon yaratdi. Senat unga Avgust («Xudolar ulug'lagan») unvonini berib, uning hokimiyati

muqaddas ekanligini ta'kidladi. Bundan tashqari, Oktavian Avgust oliy harbiy hokimiyatga egaligi, umrbod konsul, xalq tribuni bo'lganligi uchun «veto» (taqiq) huquqidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Oktavian hokimiyatining moddiy asosini unga shaxsan qaram bo'lgan provinsiyalardan keladigan daromadlar va senat xazinasi bilan yonma-yon ta'sis etilgan prinseps xazinasi (fisk) tashkil qildi. Uning davrida respublika muassasalari – senat, konsullar, kvestorlar lavozimi saqlab qolinib, barcha mansabdor shaxslar ma'lum bir muddatga saylanar edi. Avgust senatdan barcha ozod qo'yilgan qullarni chiqarib, unga Italiya munisipiylari va koloniyalarining zodagonlarini kiritdi. O'zining hokimiyati uchun xavfli bo'lgan yirik yer egalari va boylarning ijtimoiy ahvolini turli tadbirlar bilan mustahkamladi va ularni o'ziga moyil qildi. Oktavian Avgustni yana bir tabaqa suvoriylar qo'llab-quvvatladi. Bu tabaqaga prinseps muhim imtiyozlarni berdi. Suvoriylar uchun 400000 sestersiz mulk seni belgilanib, eski respublika an'analari bilan bog'lanmagan bu qatlam tarkibiga boylik orttirgan mulkdorlar kiritildi. Ba'zi bir yuqori mansablar suvoriylarga berildi. Oktavian shaharning quyi qatlamlarini ham o'z tomoniga og'dirib olish uchun ularga muntazam tekin non tarqatib, tomoshalar uyushtirishni tashkil qildi. O'sha davrda Rimda yashagan mln aholidan kamida 200000 kishi davlatdan bepul non olar edi.

Avgust hokimiyatining asosiy tayanchi qo'shin edi. Oktavian davrida muntazam yollanma qo'shinga o'tish tugallandi, uning hukmronligi yillarida qo'shin 25 legiondan tashkil topib, umumiy soni 250 ming kishini tashkil etdi. Qo'shinning barcha sarkardalari shaxsan imperatorga bo'ysungan, legionni propretor unvoniga ega bo'lgan legat boshqargan. Oliy qo'mondonlik tarkibiga harbiy tribunlar kirgan. Tribun va legatlar senatorlar toifasidan, yordamchi qo'shin sarkardasi bo'lgan qo'shin ta'minoti bilan shug'ullanadigan prefektlar suvoriylardan bo'lgan. O'rta sarkardalar tarkibiga senturionlar kirgan. Ular yaxshi xizmat qilgan legionerlar orasidan olingan. Legionerlarga oylik muntazam to'lab turildi. Qo'shin professional bo'lib, Rim fuqarosi harbiy xizmatga kirgan vaqtda shaxsan prinsepsga sodiqlik to'g'risida qasamyod qilar edi. Harbiy xizmat 25 yil qilib belgilandi. Provinsiyalardagi fuqarolar yordamchi qo'shin tarkibida xizmat qilar edi. Lashkarboshilik qobiliyati bo'lmagan va urushlar olib borishni yoqtirmagan imperator imperiyaning

hududlarini kengaytirishni emas, balki mavjud boʻlgan hududlar chegaralarini mustahkamlashni afzal koʻrdi.

Faqat milodiy I asr oxirida Oktavianning vorislari davrida Alp togʻlari hududi va Dunay havzasidagi keng hududlar bosib olindi. Bosib olingan bu hududlarda Pannoniya va Meziya provinsiyalari tashkil etildi. Imperiyaning shimoldagi chegaralari Reyn va Dunay daryolari oʻrqali oʻtdi. Rimliklarning Reyn va Elba daryolari havzasida oʻrnashib, german provinsiyasini tashkil qilishga urinishlari toʻla magʻlubiyat bilan tugadi. Milodiy 9-yilida Xerusk qabilalari yoʻlboshchisi Arminiy boshchiligida Tevtonburg oʻrmonida Rimning uch legioni tormor qilindi.

Oktavian sharqda urush harakatlarini olib bormadi. Parfiya bilan diplomatik aloqalar oʻrnatildi. Mil.avv. 20-yilda parfiyaliklar bilan tinchlik shartnomasi tuzildi. Shartnomaga koʻra, Rim qoʻshinlarini mil.avv. 53, 40 va 36-yillardagi magʻlubiyatlari natijasida bosib olingan asirlar, bayroqlar hamda garovga olingan zodagon rimliklar Rimga qaytarib berildi. Ikki davlat oʻrtasidagi chegara Frot daryosi boʻyicha belgilandi. Oktavian Kichik Osiyo va Suriyaning sharqida Rimga qaram boʻlgan vassal davlatlarni saqlab qoldi.

Qoʻzgʻolonchi Galliya mil.avv. 27-yilda toʻla boʻysundirilib, 4 provinsiyaga rasman boʻlindi: Narbon Galliyasi, Lugdun Galliyasi, Belgika va Akvitaniya. Pireney yarim orolining shimoliy-gʻarbida jangovar astur va kantabr qabilalari bilan mil.avv. 28-19-yillarda ogʻir urush olib borilib, bu urush mil.avv. 19-yilda Rimning toʻla gʻalabasi bilan tugallandi. Shundan soʻng Pireney yarim orolida uch provinsiya tashkil qilindi: Tarrakon Ispaniyasi, Luzitaniya va Betika. Rimliklar mil.avv. 25-15-yillarda salass, ret va vindelik qabilalarini boʻysundirib, Retsiya provinsiyasini tashkil qildilar. Rimda urush vaqtida ochib qoʻyiladigan Yanus ibodatxonasi eshiklari bosh kohin sifatida Oktavianning oʻzi tomonidan tantanali yopildi. Bu Rimda tinchlik davri boshlanganligini bildirar edi. Quruqlik yoʻllaridagi va dengizdagi qaroqchilik tugatildi.

Avgust oʻziga shaxsan boʻysunadigan, uning hayoti uchun masʼul boʻlgan shaxsiy qoʻriqchi – pretorian qismi (gvardiya)ni tuzdi. Avgust pretorian gvardiyasi sarkardasi lavozimini joriy qildi. Bu lavozimga suvoriylardan ikki kishi bir vaqtning oʻzida tayinlangan. Ularga urush harakatlariga boshchilik qilish, elchiliklarga rahbarlik qilish topshirilgan. Avgust davrida Rim-

da tez-tez chiqadigan yong‘inlarni o‘chirish uchun ilk bor o‘t o‘chirish qismlari tashkil etildi.

Oktavian muzokaralar olib borishga juda usta bo‘lib, senat bilan hokimiyatni bo‘lishdi. Provinsiyalar imperator va senat o‘rtasida taqsimlandi. Misr imperatorning shaxsiy mulki hisoblanar edi. Boy va strategik jihatdan muhim bo‘lgan provinsiyalar imperatorning bevosita nazorati ostida bo‘lib, legatlar tomonidan boshqarilar edi. Senat ixtiyoridagi provinsiyalar ham amalda imperator hokimiyati nazorati ostida edi. Davlat boshqaruv apparatini tartibga solish bilan birga, Oktavian Rim jamiyati va oilasini mustahkamlaydigan bir qancha qonunlarni qabul qildi. Qonunlarga ko‘ra, fohishabozlik, erga xiyonat va isrofgarchilik qattiq jazolandi. Qadimgi Rim urf-odat va an‘analarini qayta tiklashga tomon yo‘l tutildi. Oila mustahkamlanib, ko‘p bolali oilalar rag‘batlantirildi. Senator va suvoriylarga ozod qullar bilan nikoh tuzish taqiqlandi. Qonunga ko‘ra, senator va suvoriylar toifasi oila qurishga majbur edilar. Qullarni ozodlikka chiqarish cheklandi. Vasiyat bo‘yicha ozod qilinadigan qullar soni kamaytirildi. Boshqa bir qonunga ko‘ra, xo‘jayin qul tomonidan o‘ldirilgan taqdirda shu vaqtda uyda bo‘lgan barcha qullar o‘lim jazosiga hukm qilinar edi.

Ilk respublika davrida podsho yoki konsullar Rimda o‘zlari yo‘q bo‘lgan paytlarida boshqaruvni olib borish uchun o‘z o‘rinlariga shahar prefektini tayinlar edilar. Oktavian bu lavozimni yana qayta tikladi. Bu lavozimga senatorlar toifasidan tayinlangan Avgust davridan Misr va boshqa provinsiyalarni boshqarish uchun prefektlar tayinlandi.

Avgust qadimgi Rim diniy an‘analarini qayta tiklashga harakat qildi. Buzilgan ibodatxonalar qayta tiklandi. Shu bilan birga, sharqdan kirib kelgan yangi xudo va ma‘budalar ta‘qib ostiga olindi. Rimda magiya va astrologiya taqiqlandi.

Oktavian harbiy qobilyati yo‘q kasalmand kishi bo‘lsa-da, 44 yil hukmronlik qildi. Uning hokimiyatining uzoq davom etishining sababi Avgust eng avvalo diplomat edi. U hokimiyat uchun kurashayotgan turli guruhlar o‘rtasida turib, o‘z murosachilik siyosatini olib bordi. Hokimiyatini mustahkamlash uchun har qanday vositani ishga soldi. O‘ziga foydali bo‘lgan kishilarni o‘z atrofiga to‘pladi. U milodiy 14-yilida Nola shahrida 76 yoshda vafot etdi. Svetoniyning yozishicha, o‘limidan oldin Oktavian o‘z do‘stlaridan u hayot komediyasida o‘z rolini yaxshi o‘ynagan yoki o‘ynamaganini so‘ragan. U hashamat va dabda-

ba bilan dafn etildi. Senat qarori bilan ilohiy deb tan olindi. Uning hokimiyatini birinchi xotini Liviyaning birinchi nikohidan bo'lgan o'g'li Tiberiy Klavdiy Neron (14–37-yillar) egalladi. Yangi prinsepsning hokimiyatga kelishi hech kimning e'tiroziga sabab bo'lmadi. Chunki boshqaruvning yangi shakli amalda o'z samarasini ko'rsatdi. Imperiya davrida Rimda taxt vorisligi to'g'risida biror-bir rasmiy hujjat yo'q edi, lekin imperator hokimiyati tan olingani uchun imperatorning hokimiyatni o'z merosxo'riga tayinlashiga hech kim qarshilik qilmadi.

Tiberiy shijoatli lashkarboshi va qobiliyatli boshqaruvchi edi. Boshda Tiberiy Oktavianning siyosiy yo'li va qoidalarini davom ettirib, senat bilan to'la kelishuv asosida davlatni boshqardi. Tiberiy komisiyalardan saylov va sud funksiyalarini olib senatga berdi. U iqtisodiy jihatdan tejamkorlik siyosatini olib bordi (o'zidan keyin xazinada 2 mlrd 700 mln sestertsiy qoldirdi). Provinsiyalar boshqaruvini yaxshilashga urindi va jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirishga harakat qildi. Eskicha turmush tarzidan voz kechishni istamagan hukmron tabaqa barcha islohotlarga norozilik bildirib, passiv qarshilik ko'rsatdi. Tiberiyga qarshi fitna uyushtirildi, lekin u fosh bo'lib qoldi. Imperator 26-yilda Rimdan Kapri oroliga ko'chib o'tdi va 10 yil shu yerda yashadi. 77 yoshli kasal imperatorni 37-yil mart oyida pretor prefekti Makron bo'g'ib o'ldirdi.

2. Rim siyosiy hayoti. Milodiy 14-yilida Avgust o'limidan so'ng uning merosxo'rlari Tiberiy Klavdiy Neron (14–37-yillar), Gay Sezar Kaligula (37–41-yillar) va Klavdiy Neron Germanik (41–54-yillar)lar imperatorlik taxtini egalladilar.

Lekin bu hukmdorlarning hukmronligini so'nggi yillarida siyosiy raqiblar bilan qonli kurashi prinsepslarning o'ldirilishi bilan tugallandi. Kaligula fitna qurboni bo'ldi. Neron o'zini-o'zi o'ldirdi. Senat bilan prinsepsning qarama-qarshiligi eski Rim nobilitetini munisipal va provinsiya zodagonlari tomonidan siqib chiqarish jarayonini o'zida aks ettirdi. Tiberiy (14–37-yillar) komisiyalari yig'ini tugadi. Magistratlar saylovi senat ixtiyoriga o'tdi. Boshqa Tiberiy senat bilan kelishib hukmronlik qildi. Uning hukmronligi yillarida chegarani qo'riqlaydigan bir necha legionlar o'zlarining og'ir hayotlaridan norozi bo'lib, qo'zg'olon ko'tardilar. Tiberiy provinsiyalarni qo'llab-quvvatladi, ularning soliq to'lovlarini oshirmadi. Hammaga shubha bilan qaraydigan Tiberiy pretorian gvardiyasining prefekti Lutsey Eliy Seyanni o'ziga yaqinlashtirdi. Shuhratparast Seyan o'z g'arazli

maqsadlarini koʻzlab Tiberiyning oʻgʻli Druzni zaharlab oʻldirdi. Qator senatorlar taʼqib qilindi. Tiberiy 27-yildan umrining oxirigacha (37-yil) Kapri orolida yashadi va imperiyani shu yerdan boshqardi. Oʻzining yaqin kishisi Seyanning fitnasi ochilib qoldi, uning hamtovoqlari shafqatsiz jazolandi.

Senator-suvoriylar anʼanaviy elitasining siyosiy tushkunligi bilan pretorian gvardiyasi boshliqlarining mavqeyi kuchaydi. Agar Tiberiyni senat hokimiyat tepasiga keltirgan boʻlsa, 33-yildan soʻng uning jiyani Klavdiy Neronni pretorian gvardiyasi imperator deb eʼlon qildi. Buning evaziga yangi imperator har bir pretorian gvardiyachisiga 15 ming sestersiy miqdorida mukofot berdi. Senat hukmdorning shaxsiy qoʻriqchilari (pretorian gvardiyasi) qabul qilgan qarorlarni tasdiqlaydigan oddiy tashkilotga aylandi. Tez orada qoʻshin ham oʻzining siyosiy huquqini talab qilib chiqdi. Milodiy 68-yillari qonli fuqarolar urushi natijasida Tit Flaviy Vespasian imperator deb eʼlon qilindi.

Vespasian (69–79-yillar) fuqarolar urushida qoʻshinning qoʻllab-quvvatlashi bilan gʻolib chiqib, Flaviylar sulolasi (69–96-yillar)ga asos soldi. Flaviy va uning birinchi merosxoʻrlari davrida Rim davlati maʼlum darajada mustahkamlandi. Davlat xazinasi toʻldirildi. Flaviylar provinsiya zodagonlaridan senat tarkibini toʻldirdilar va senat bilan murosa qilgan holda ichki va tashqi siyosatni olib bordilar. Vespasianning kichik oʻgʻli Domitsian (81–96-yillar) davrida siyosiy terrorning yangi toʻlqini boshlandi. Domitsian cheklanmagan hokimiyatga intilib, senatni oʻzini xudo va hukmdor deb eʼlon qilishga majbur qildi va oʻzi raqib deb hisoblagan senator va boshqa boy fuqarolarni qatagʻon qildi. Shu sababli, u milodiy 96-yili fitnachilar tomonidan oʻldirildi.

Domitsian oʻldirilganidan soʻng imperatorlar 100 yil davomida senat bilan kelishgan holda davlatni boshqardilar. Imperatorlar provinsiyalar ravnaqi uchun qator tadbirlarni amalga oshirdilar, gʻolibona tashqi urushlar olib bordilar. Imperiya chegaralarini tashqi dushmanlardan himoya qildilar. Shuningdek, ular Rimning qadimgi urf-odatlarini va anʼanalariga hurmat bilan qaradilar. Fan va sanʼatga homiylik qildilar. Ayniqsa, Italiyadan tashqarida tugʻilgan birinchi Rim askar-imperatori Mark Ulpiy Trayan (98–117-yillar) va imperator-faylasuf Mark Avreliy (161–180-yillar) davlat hokimiyati va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun oʻzlarining namunali ichki va tashqi siyosatlari bilan shuhrat qozondilar.

Milodiy I-II asrlarda Rim imperiyasining tashqi siyosati mudofaa xarakteriga ega bo'ldi. Keyinchalik, imperiya hududlari bir qadar kengaydi. Britaniya oroli Rim imperiyasi provinsiyasiga aylandi. Afrika va Bolqon yarim orolida yangi provinsiyalar paydo bo'ldi. Ammo bepoyon hududlarda barqarorlikni saqlab turish, provinsiyalarda tez-tez ko'tarilgan qo'zg'olonlar faol istilochilik siyosatini olib borishga xalaqit berdi. Galliya va Yahudiyadagi kuchli qo'zg'olonlar, Quyi Dunaydagi daklar, shimoldagi german qabilalari bilan urushlar, sharqda esa Parfiyaning kuchayishi Rim davlatining chegaralari mudofaasini mustahkamlashni talab qildi.

Imperatorlar Trayan (mil.98–117-yillar), Adrian (117–138-yillar) va Mark Avreliy (161–180-yillar) davrida yaxlit mudofaa liniyalari shakllandi. Adrian davrida Rim fuqaroligiga ega bo'lmagan provinsiya aholisi ham legionlarga harbiy xizmatga qabul qilina boshlandi. Milodiy I-II asrlarda prinsepslar hokimiyatining moddiy asoslari kuchaydi. Provinsiyalarning ko'pchiligini daromadlari imperator xazinasi (fisk)ga tushdi.

3. Rim imperiyasi milodiy I asrda. Milodiy I asrda Rim imperiyasida ikki sulola Yuliylar – Klavdiylar va Flaviylar hokimiyatni boshqardilar. Tiberiyning vorisi Germanikning o'g'li 24 yoshli Gay Sezar Kaligula (37– 41-yillar) hokimiyatni egalladi. Kaligula badjahl, axloqan buzuvchi, o'ta mag'rur, takabbur shaxs edi. Dastlab u senat bilan kelishgan holda ichki va tashqi siyosatni olib bordi. Soliqlarni kamaytirdi. Bir necha oy ichida u isrofgarchilik bilan Tiberiydan qolgan xazinani turli tomosha, mo'l-ko'l sovg'alar tarqatish bilan talon-taroj qildi. Kaligula o'zini «Janob» (Dominis) va «Xudo» deb e'lon qilib, omma oldiga Yupiter qiyofasidagi kiyimlarda chiqdi. O'ziga xudolarga sig'ingandek sajda qilishni talab qildi. Senatorlar toifasini ta'qib ostiga oldi. Bo'shab qolgan xazinani to'ldirish uchun hukm qilinganlarning mol-mulkini musodara qildi, provinsiyalar katta miqdorda soliqlar to'ladilar. Bu aqlsiz imperatorning hukmronligi uch yil davom etib, 41-yil yanvar oyida pretor tribuni Kassiy Xerey boshchiligidagi fitnachilar tomonidan o'ldirildi.

Pretor qismlari Kaligulaning 50 yoshli tog'asi Tiberiy Klavdiy Nerenni (41–54-yillar) imperator deb e'lon qildilar. Klavdiy senat bilan munosabatni yaxshiladi. O'zining senatdan mustaqil bo'lgan ma'muriyatini tuzdi. Uning ma'muriyati bir necha muassasalardan tashkil topib, ularni ozod qo'yilgan qullar boshqardilar. Klavdiy davrida boshqaruvning markazlashuvi

va imperatorning shaxsiy hokimiyatini kuchayishi kuzatildi. Klavdiy hokimiyati qo'shin, turli tekin tomosha va xayr-sadaqa beriladigan Rim plebsi hamda provinsiyalarning zodagonlariga tayandi. Tashqi siyosatda urushlar o'rniga diplomatik vositalar qo'llanila boshlandi. Faqat 43-yil Britaniyaga harbiy ekspeditsiya uyushtirildi. Klavdiy o'z ukasi Germanikning qizi Agrippinaga uylangan edi. Klavdiyning ikkinchi xotini bo'lgan 33 yoshli Agrippina 54-yil uni zaharlab o'ldirdi va o'zining 17 yoshli o'g'li Neron Klavdiy Sezarni (54–68-yillar) taxtga chiqardi.

Neron Yuliy – Klavdiylar sulolasining so'nggi vakili bo'lib, axloqan buzuvchi, shafqatsiz kishi edi. U o'zini taxtga chiqargan onasi Agrippinani (62-yil), ukasi Britanikni (55-yil), xotini Oktaviyani (62-yil), ikkinchi xotini Poppeya Sabinani (65-yil) o'ldirdi. Neron senat bilan murosa qilishni istamadi. Pulga muhtoj bo'lgani uchun juda ko'p senatorlar va zodagonlarni qatl etib, ularning mol-mulkini o'zlashtirib oldi. Uning davrida imperator saroyi xarajatlari haddan tashqari oshib ketdi. Neronning o'zi musiqa va qo'shiqchilik bilan shug'ullanib, sahnada rol o'ynar edi. Yunonistonda shoirlar ko'rigida qatnashdi. Rimda 64-yil juda katta yong'in bo'lib, u bir hafta davom etdi va shaharning 14 kvartalidan 10 tasi to'la yonib ketdi. Yong'indan so'ng Palatin va Eskvilin tepaliklari o'rtasida 270 ga. maydonga Neron uchun hashamatli «oltin» saroy qurildi. Xalq ommasi o'rtasida Rimdagi yong'inning asosiy sababchisi Neron degan mish-mish tarqaldi. Neron yong'inga Rimdagi nasroniylar jamoasini aybdor deb topib, ularni ommaviy qatlini uyushtirdi.

Imperatorning shafqatsizligi, uning zo'ravonligi zodagonlarning keskin noroziligini keltirib chiqardi. Unga qarshi fitna uyushtirildi (65-yil). Fitna fosh etildi va fitnachilar shafqatsiz jazolandi. Ularning ichida faylasuf-stoik Lutsiy Anney Seneka, uning jiyani shoir Mark Anney Lukan va yozuvchi Gay Petroniy Arbitrlar bor edi. Siyosiy vaziyat keskinlashdi. Parfiya bilan Armaniston uchun uzoq davom etgan urush Rimning mag'lubiyati bilan tugadi (66-yil).

Neron hukmronligining so'nggi ikki yilida davlat boshqaruvidan umuman chetlashdi. Britaniyada urush davom etib, 66-yilda Yahudiyada qo'zg'olon boshlandi. Neron hukmronligiga qarshi ommaviy norozilik boshlandi. Galliya, Germaniya va Ispaniyada 68-yil bahorida Neronga qarshi legionlar qo'zg'olon ko'tardilar. Neron ko'ngliga kelgan ishlarni qildi. Axloqsiz hayot kechirdi. Davlat xazinasini talon-taroj qildi. Uning davrida

qaram Pon podsholigi Rimga qo‘shib olindi. Taxt vorisligiga 70 yoshli zodagon Serviy Sulpitsiy Galba nomzodi qo‘yildi. Neronni hech kim himoya qilmadi. Hatto pretorian qismlari ham Galba tomoniga o‘tdi. Neron yashirinishga urindi, lekin yashirina olmadi. Dushmanlar qo‘liga tushmaslik uchun u o‘zini qilichga tashladi. Neronning o‘limi bilan Yuliyalar-Klavdiyalar sulolasi hukmronligi nihoyasiga yetdi.

Rim imperiyasiga sarkarda Galba qisqa vaqt 68–69-yillarda hukmron bo‘ldi. U xarajatlarni qisqartirishga urindi. O‘z tarafdorlariga va‘da qilingan pul-mablag‘ni to‘lashdan bosh tortdi. Pretorian gvardiyasi provinsiyadagi qo‘shinlar, Galliyaning sharqiy va janubiy viloyatlari undan norozi bo‘ldilar. 69-yil 15-yanvarda Galba o‘ldirildi. Galbadan so‘ng Galliya va Britaniyadagi legionlar qo‘llagan Vitelliy imperatorlik taxtiga qisqa muddatga o‘tirdi.

Aleksandriyada 69-yil 1-iyulda Yahudiyadagi qo‘shin qo‘mondoni Tit Flaviy Vespasian imperator deb e‘lon qilindi. Yangi imperator qisqa muddatda boshqa da‘vogarlarni bartaraf qildi. 69-yil oxirida senat Vespasianni imperator sifatida tan oldi. Vespasian yangi Flaviylar sulolasini boshlab berdi. Bu sulolaga yana ikki imperator – Vespasianning o‘g‘illari Tit (79–81) va Domisian (81–96) kirdi. Vespasian uzoqni ko‘ra biladigan aqlli hukmdor sifatida imperiyaning iqtisodiy va moliyaviy kuchini nisbatan tez va samarali tikladi. Davlat xarajatlarini qoplash uchun 40 mlrd sestersiy kerak edi. Imperator tejab-tergashga kirishib, xarajatlarni qisqartirdi va yangi soliqlarni joriy qildi. Hatto u dafn marosimlariga va Rim jamoa hojatxonalariga ham soliq soldi. Imperator Rim fuqaroligi huquqini mo‘l-ko‘l tarqatdi, senatorlar va suvoriylar toifasini provinsiya zodagonlari, boyib ketgan ozod qullar bilan to‘ldirdi.

Flaviylar davridan boshlab imperatorlar provinsiya zodagonlariga bevosita tayana boshladilar. Vespasian 79-yil iyunida 70 yoshida vafot etdi. Uning o‘g‘li Tit 79–81-yillar taxtga chiqib, 42 yoshga yetmasdan bezgak kasalligidan vafot etdi. Tit davrida mashhur Vezuviy vulqoni otilib, Pompey va Gerkulanum shaharlari kul ostida qoldi (79-yil). Flaviylarning so‘nggi vakili Domisian (81–96-yillar) bo‘lib, o‘zining mutlaq hokimiyatini o‘rnatishga harakat qildi va 45 yoshida fitnachilar tomonidan o‘ldirildi.

Flaviylar davrida imperiyaning shimoli-sharqiy chegaralarida dakiya, sarmatlar, roksolanlar va markoman qabilalari

harakatga keldilar. Rim legionlari dakiya podshosi Detgebal qo'shinlari bilan urushda yengildilar va daklarga o'lpon to'lashga majbur bo'ldilar. Sharqda Kommagen, Kichik Arabiston to'la qo'shib olindi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Светоний Транквилл. Жизнь двенадцати Цезарей. – М.: 1966.
2. Колосовская Ю. К. Паннония в I–III вв. – М.: 1973.
3. Шифман И. Ш. Сирийское общества эпохи принципата (I–III вв. н. э.). – М.: 1977.
4. Штаерман Е. М., Смирин В. М., Белова Н. Н., Колосовская Ю. К. Рабство в западных провинциях Римской империи в I–III вв. – М.: 1977.
5. Штаерман Е. М., Трофимова М. К. Рабовладельческие отношения в ранней Римской империи (Италия). – М.: 1971.

Asosiy sanalar

| | |
|---------------------|--|
| Mil.avv. 53-yil | Krass qo'shinlarining Parfiya tomonidan tor-mor qilinishi. |
| Mil.avv. 30-yil | Oktavian Avgust hukmronligi. |
| Milodiy 14-yillari | |
| Mil.avv. 12-yil | Oktavian Avgust oliy pontifik lavozimiga saylandi. |
| Milodiy I asr oxiri | Oktavianning o'gay o'g'illari Tiberiy va Druz Pannoniya Meziya provinsiyalariga asos soldilar. |
| 69–96-yillar | Flaviylar sulolasi hukmronligi. |

RIM IMPERIYASINING OLTIN DAVRI (MILODIY II ASR)

1. Rim imperiyasining oltin davri (milodiy II asr). 2. Imperium Romanum. 3. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

1. Rim imperiyasining oltin davri (milodiy II asr). Domitian o'limidan so'ng senat 66 yoshli senator Mark Koksey Nervani (96–98-yillar) imperator etib sayladi. Uning hukmronligi bilan II asrdan Rim imperiyasida Antoniyalar sulolasi hukmronligi boshlandi. U qadimgi senator urug'idan bo'lib, uning saylanishi senat va imperator o'rtasidagi kelishuvning ramziy belgisi edi. Nerva qo'shinda tayanchga ega bo'lish uchun Germaniya provinsiyasi noibi Mark Ulpiy Trayanni taxt vorisi etib tayinlashga majbur bo'ldi. Trayan askarlar o'rtasida obro'-e'tiborga ega edi. Nerva agrar qonun qabul qilib, eng kambag'al fuqarolarga 60 mln sestersiyl yerni taqsimlab berdi. Kam ta'minlangan fuqarolar, bolalarga mablag' ajratilib, ijtimoiy ta'minot jamg'arma tizimi asoslari yaratildi. Trayan 98–117-yillar Rim imperiyasiga hukmronlik qilgan paytdan imperiya o'zining iqtisodiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi (96–196-yillar). Bu imperiyaning oltin davri edi.

Trayan davrida Rimning oxirgi istilochilik urushlari olib borildi. U faol tashqi siyosat olib borib, imperiya hududlarini kengaytirdi. Uning davrida legionlar soni 30 taga yetkazildi. Rim qo'shinlari 101–103-yillar va 105–107-yillarda Dunay bo'ylaridagi kuchli Dakiya podsholigini bo'ysundirdi. Dakiyaning podshosi Detsebal o'z joniga qasd qildi. Dakiya Rim provinsiyasiga aylandi. Dakiyaning bosib olinishi natijasida uning boy oltin va tuz konlari Rimga katta o'lja bo'ldi. Dakiya g'alabasiga bag'ishlab Rimda 123 kun turli tomoshalar ko'rsatildi. Plebeyga mo'l-ko'l sadaqa ulashildi. Trayanning ajoyib termalari (hammomlari), yangi suv quvuri hamda balandligi 30 metrli Trayan kolonnasi bunyod etildi. 106-yilda Arabistonda Nabatey davlati Rimga qo'shib olindi.

Trayan Parfiyadan Mesopotamiya va Armanistonni tortib olish uchun 113-yilda urush boshladi. Keyingi yil Armanistonni bosib olib, uni provinsiyaga aylantirdi. G'ayratli imperator 115–116-yillarda Parfiya podshosi Vologes IV qo'shinlarini tor-

mor qilib, uning poytaxti Ktesifonni egalladi. Butun Mesopotamiya Fors qo'ltig'igacha imperiya tarkibiga kirdi. Mahalliy aholining Rim bosqinidan noroziligi va sharqiy provinsiyalarda vaziyatning notinchligi Trayanni legionlarni Frot qirg'og'idan olib ketishga majbur qildi. Sharqda yangi bosib olingan yerlarni rimliklar qo'ldan chiqardilar. Italiyaga qaytishda Kilikiyada Trayan kasal bo'lib, 117-yil avgustida vafot etdi.

Taxtga Trayanning jiyani, 41 yoshli asrandi o'g'li Publiy Eliy Adrian chiqdi (117–138-yillar). U Trayanga loyiq, juda puxta ma'lumot olgan, ajoyib boshqaruvchi, tajribali sarkarda, aqlli va uzoqni ko'ra oladigan siyosatchi sifatida o'z oldida turgan muammolarni juda yaxshi tushunar edi. Adrian davlat resurslarining to'la tugagani va Sharqda bosqinchilik siyosatining samarasizligini anglab yetib, Parfiya bilan Frot daryosi bo'yi chegaralarini tiklash sharti bilan tinchlik shartnomasini tuzdi. Adrian imperiyaning sharqiy chegaralarida kuchli mudofaa inshootlarini bunyod qildi. Ana shunday tadbirlar natijasida Parfiya bilan tinchlik 44 yil saqlandi.

Sharqda ishlarni tugallab, Adrian Yevropa va Afrikada imperiya chegaralarini mustahkamlash maqsadida chegara istehkomlarini qurish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirdi. Ana shunday istehkomlardan biri Adrian vali (istehkomi) Britaniyada hozirgacha saqlanib qolgan.

Adrian qo'shinining yuqori jangovar holatda saqlab turishga katta e'tibor berdi. U legionlarni Rim yoki lotin fuqaroligi bo'lmagan provinsiya aholisidan to'ldirishga ruxsat berdi. Chunki bu vaqtda qo'shinga xizmat qilishga xohish bildirgan fuqarolar soni keskin qisqardi. Rim harbiy mashinasini varvarlashtirish uchun asos ana shunday yaratildi. Adrian davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. U prinseps kengashini qayta tashkil qildi. Kengash tarkibiga oliy amaldorlar, muassasa rahbarlari va yirik yuristlar jalb qilindi. Adrian boshqaruvga suvoriylar toifasining ko'plab vakillarini taklif qildi. Qullarni qatl qilishni taqiqladi. Uning vorisi Antonin Piy qullarga ibodatxona mehrobi va imperatorlar haykallari oldida panoh izlash huquqini berdi. U davlat pochtasini joriy qildi. Provinsiyalar boshqaruvi qayta tuzib, noiblar faoliyati ustidan doimiy nazorat o'rnatdi. Adrian uzoq sayohat qildi va ko'plab inshootlarni bunyod qildi: Venera va Roma ibodatxonalari, mashhur Rim panteonini bunyod qildi. Panteon hashamatli marmar va ma'budlar

haykallari (inshoot markazida Yupiter haykali) bilan bezaldi. Panteon binosi hozirgi kunda mashhur kishilar dafn qilinadigan mavzoley. Adrian deyarli barcha provinsiyalarga safar qildi. Safar davomida aholining turmush tarzini o'rgandi, joylarda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qildi. Provinsiya zodagonlari Adrianning siyosatini qo'llab-quvvatladilar. Rim shahri aholisi bilan provinsiyaliklar o'rtasidagi farq yo'qoldi. Adrian 138-yil og'ir kasallikdan vafot etdi. Uning tantanali dafnidan so'ng kuli solingan idish maxsus qurilgan mavzoleyga qo'yildi. Uning vorisi Antonin Piy (138–161-yillar) boy senator bo'lib, uning davrida iqtisodiy o'sish davom etdi. U daklarning qo'zg'olonini, Mavretaniyadagi norozilikni bostirdi. Parfiyaga bir vaqtlar bosib olingan podsho taxtini qaytardi.

Adrianning vorisi kelib chiqishi Gall shahri Nimdan bo'lgan Antoniy Piy (mil.avv. 138–161-yillar) boy senatorlardan biri edi. Uning boshqaruv tamoyili aeguetas, felieitas, fides (adolat, baxt, sadoqat) edi. U Trayan va Adrian erishgan yutuqlarni mustahkamladi. Uning davrida Yahudiylar qo'zg'oloni (mil.avv. 152-yil), Misr (mil.avv. 155–152-yillar)da norozilik harakatlari yuz berdi. Qo'zg'olon ko'targan gaklarga qarshi urush olib bordi. Tashqi siyosatda Adrianning hamkorlik siyosatini olib bordi. Parfiya, Hindiston, Gerkaniyadan Rimga elchilar keldi. Trayan Parfiyadan tortib olgan taxtni Voloz III ga qaytarishdan bosh tortdi. Parfiyaning bosqinini murosa-muzokara bilan yo'q qildi.

Antoniylar sulolasining taniqli vakillaridan biri, tarixga taxtdagi faylasuf sifatida kirgan Mark Avreliy (161–180-yillar) edi. Mark Avreliy uchun davlat manfaatlari hamma narsadan yuqori bo'lib, imperiya taqdiri uchun o'z mas'uliyatini to'la anglab yetgan edi. U senator va suvoriy toifalari bilan yaqin hamkorlikda ish olib bordi. Senat tarkibiga ko'pgina provinsiya zodagonlarini, ayniqsa, kelib chiqishi Sharqdan va Afrikadan bo'lgan nufuzli kishilarni kiritdi. Mark Avreliy 19 yil hukmronlik qildi. Unga qarshi shu yillar davomida birorta ham fitna uyushtirilmadi. U 180-yil 59 yoshida Vindobana (Vena) shahrida vafot etdi. Rimda uning sharafiga kolonna bunyod etildi.

Uning vorisi 18 yoshli o'g'li Kommod (180–192-yillar) imperator bo'ldi. Antoniylar sulolasining so'nggi vakili Kommod qo'pol, shafqatsiz va maishatparast hukmdor edi. Otasining o'limidan keyin Kommod kvad va markomann qabilalari bilan urushni tugatib, 180-yilda Rimga qaytdi. Davlat boshqaruvini o'zining ochko'z yaqinlariga topshirib, kayf-safoga berildi. O'z rafiqalari

sini qatl etib, buzuqchilk yoʻliga kirdi. Katta jismoniy kuchga ega boʻlgan imperator oʻzini rimlik Gerkules deb eʼlon qildi. U omma oldida arslon terisini yopinib, yelkasida kaltak bilan paydo boʻlar edi. Amfiteatr sahnasiga gladiator sifatida chiqdi. Oxir-oqibatda es-hushini yoʻqotib, kalendarning barcha oylarini oʻz nomiga oʻzgartirdi. Hatto Rimning nomini oʻzgartirib, uni «Kommod» shahri deb atashga buyruq berdi.

Kommodga qarshi 183-yilda fitna uyushtirildi, lekin u amalga oshmadi. Shundan soʻng senatorlar toifasiga qarshi taʼqib, qatllar avj oldi. Pannoniya va Britaniyada norozilik harakatlari, daklar va markomannlar qoʻzgʻolonlari qoʻshin tomonidan zoʻrgʻa bostirildi. 193-yilga oʻtar kechasi Kommod gladiatorlar kazarmasida maʼshuqasi va pretor gvardiyasi boshligʻi qatnashgan fitnada oʻldirildi. U keyingi kun gladiator kiyimida konsullikni qabul qilishi kerak edi.

2. Imperium Romanum. Milodiy I asrga kelib Rim asrlar davomida kichik bir shahar davlatdan bepoyon hududga ega boʻlgan davlatga aylandi. Bu vaqtda deyarli butun Oʻrtayer dengizi davlatlari Rimga boʻysunar edi. Provinsiyalar Rim davlatining bir qismi emas, balki rim xalqining pomestesi (yaʼni daromad oladigan yeri) (praedia populi Romani), uning hokimiyati (imperium) tarqaladigan viloyatlar deb qaraldi. II asrga kelib qachonlardir rim hokimiyatini bildirgan Imperium Romanum Rim imperiyasi maʼnosini oldi; bu soʻzning ostida Rimning hokimiyati qamrab olgan bepoyon hudud tushuniladi. Boshda imperator unvonini ramziy maʼnoda qoʻllanib, urushda muhim gʻalabaga erishgan rim qoʻshini qoʻmondonlariga berilgan. Rim respublikasi oʻrnida mutlaq monarxiya qaror topgach, hokimiyatni egallagan har bir hukmdor oʻzini harbiy qoʻshin bilan aloqasini koʻrsatish uchun imperator unvonini oldi. Chunki mutlaq monarxiyaning ishonchli tayanchi qoʻshin edi. Boshqaruv tizimi va apparati imperator qoʻlida toʻplana boshladi. Senat oʻz siyosiy mavqeyini yoʻqotishi bilan uning tarkibi ham oʻzgardi.

Respublika davrida yuqori mavqega ega boʻlgan zodagon oilalari fuqarolar urushi va proskripsiyalarning qurboni boʻldilar. Qolganlari esa kambagʻallashib qoldi. Prinsipatning birinchi yillarida ularning oʻrnini suvoriylar, munisipiylardan chiqqan boy zodagonlar egalladilar. Klavdiy davrida senat tarkibiga gall qabilasi ekvlarning romanlashgan zodagonlari uchun yoʻl ochildi. Vespasian davrida senatga munisipiylar, koloniyalar va provinsiyalardan yangi kishilar kiritildi. Milodiy I asr soʻnggida

kelib chiqishi gallardan boʻlgan kishilar senatga kiritildi. Keyingi 100 yillik boshida senat tarkibida Kichik Osiyo va Afrikadan kelgan senatorlar, koʻpgina yunonlar uchraydi. Qadimgi Rim nobilitetining vakillari senatda deyarli qolmadi va ular bilan birga senatdagi muxolifat kayfiyati ham yoʻqoldi.

Prinsepslar hokimiyatining yana bir tayanchi suvoriylar toifasi edi. I–II asrlarda suvoriylar savdo-moliya zodagonlari mavqeyini saqlab qoldi. Lekin bu davrda suvoriylar xizmatdagi odamlarga aylana boshladi. Ularning ijtimoiy tarkibi ham oʻzgardi. Yangi suvoriylarning kelib chiqishi Italiya munisipiyalari va provinsiyalardan edi. Suvoriylarning yuqori qatlamini, eng avvalo, boyib ketgan moliya zodagonlari, oʻrta qatlamni esa davlat xizmatiga koʻtarilgan amaldorlar tashkil qildi. Suvoriylarga prokuratorlar lavozimi, provinsiyalardagi prinseps mulklarining boshqaruvi, pretorian gvardiyasi prefekti, politsiya xizmati qoʻriqchilarining prefekti kabi lavozimlar ajratildi. Adrian davrida suvoriylar prinsepsning shaxsiy devonxonasida xizmat qila boshladilar. Shu vaqtgacha prinsepsning shaxsiy devonxonasida barcha ishlarni imperatorlarning ozod qullari bajarar edi. Avgurt davridan suvoriylar toifasining vakili uchun eng oliy daraja pretor prefekti lavozimi boʻlib, undan keyingi oʻrinda Misr prefekti turar edi. Suvoriylar toifasi imperator hokimiyatining mustahkamlanishiga va imperator boshqaruvining oqilona boʻlishiga yordam berdi.

Rim shaharlari budjeti turli boj toʻlovlari, ijaraga berilgan yerlardan olingan ijara puli hisobidan shakllantirilgan. Nerva va Trayan davrlarida shahar prokuratorlari lavozimi joriy qilinib, ular keng vakolatga ega boʻlib, shahar moliyasini ham nazorat qilganlar. Shaharlarda shahar senati (keyinchalik kuriya deb atalgan), boshqaruv organi boʻlgan ikki edil shahar obodonchiligi, oʻyinlar va bayram uchun masʼullar boʻlgan.

Rim shahrining aholisi mil.avv. II asrda 1 mln kishi, rim dunyosining barcha aholisi 50-60 mln kishini tashkil etgan. Rim imperiya poytaxti sifatida hashamatli jamoa binolari bilan bezaldi. Har bir imperator oʻz nomini abadiylashtirish uchun terma, ibodatxona yoki zafar arki, bazilika (ayvon) bunyod qildi. Tomoshalarni uyushtirishga juda katta mablagʻlar sarflandi. Rim shahrining 200 mingga yaqin plebsi muntazam bepul non olar edilar; deyarli har bir imperator davrida favqulodda pul tarqatilar edi (congiaria). Imperiya davrida Rim olomoni-ning asosiy talabi shoir Yuvenal aytganidek, «non va tomosha»

edi. Rim plebsi sirk va amfiteatrlarda tomoshalar vaqtida ba'zi paytda hukmronlik qilayotgan imperatorga uning faoliyatini yoqlab olqishlar yoki boshqa talablarni qo'yar edilar. Rimdagi ko'pchilik plebs kambag'al bo'lib, o'z patronlarining xayr-ehsoni bilan yashar edilar. Rimning oddiy aholisi hech qanday siyosiy huquqqa ega emas edi. Ularning bir qismi ishlab chiqarish bilan, ko'pchiligi davlatdan tekin non olib, zodagonlarning uylarida kliyent majburiyatini bajarar edilar. Poytaxt Rim iste'molchi markaz bo'lib, g'alla Afrika va Misrdan keltirilgan.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Milodiy II asr Rim imperiyasi-ning oltin davri hisoblanadi. Bu vaqtda imperiya eng katta hududga ega edi. Uning chegaralari shimolda Shotlandiyadan janubda Nil ostonalarigacha, g'arbdan Atlantika qirg'oqlaridan sharqda Fors qo'ltig'igacha cho'zilgan edi. Quldorlik tizimi o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Ko'p quldorlik xo'jaliklari bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishga o'tdi. Qullarga nisbatan shafqatsiz zulm kuchayib ketdi.

Bu davrda provinsiyalarning iqtisodiyoti va bu yerdagi shahar hayoti o'z taraqqiyotida yuqori bosqichga ko'tarildi. Milodiy I–II asrlarda O'rtayer dengizi hududidagi barcha xalqlar tarixda birinchi bor yagona ulkan davlat Rim imperiyasi tarkibiga kirdilar. Rim provinsiyasiga aylantirilgan alohida davlatlar o'rtasidagi chegaralar tugatildi. Pul tizimlari ma'lum darajada unifikatsiya qilindi. Urushlar va dengiz qaroqchiligi tugatildi. Rim imperiyasidagi xalqlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining turli darajalarida yashar edilar. Misr, Suriya, Kichik Osiyo, Bolqon va Makedoniya iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuqori darajasiga erishdi. Pireney yarim orolidagi va Galliyadagi iberlar, kel'tlar, Shimoliy Afrikadagi numidiyaliklar, liviyaliklar, Dunay bo'yidagi pannonlar, illiriyaliklar va mezlar hali arxaik davrning so'nggi bosqichida edilar.

Rim istilolariga qadar g'arbiy provinsiyalarda qishloq xo'jaligi qoloq bo'lib, asosan g'alla ekilgan. Yerga ishlov berish ibtidoiy holatda edi. Apennin yarim oroli aholisi qishloq xo'jaligining rivojlangan shaklini g'arbiy provinsiyalarga olib kirdilar.

Gall vinolari, ispan zaytun moyi Italiya va yunon navlari bilan raqobat qila boshladi. Imperiya hududida quldorlik xo'jaligi tez rivojlandi. O'rta va yirik quldor xo'jaliklari (villa) yetakchi o'ringa chiqdi. Quldorlik xo'jaliklarida qul mehnatidan keng foydalanildi. Barcha provinsiyalarda imperator yer egaligi keng tarqaldi. Milodiy II asrda imperator yerlari va xususiy katta

latufundiyalar yetakchi yer egaligi shakli edi. G'arbiy provinsiyalarda o'rta quldor pomestelari, mayda yer egaligi keng tarqaldi. Ayniqsa, kichik yer egaligi Pannoniya, Dalmatsiya, Meziya, Frakiya va Fokeyada avj oldi.

Afrika provinsiyalarida quldorlik xo'jaliklarida asosiy ishchi kuchi sifatida qullar mehnati keng tarqaldi. Misr imperiyaning g'alla ombori edi. Quldorlik latifundiyalari Galliya va Ispaniyada keng tarqalgan bir paytda Ispaniya va Afrikaning sharqiy provinsiyalarida kolonlar mehnatiga asoslangan latifundiyalar ko'paydi. Qullarga ish qurollari va chek yerlar ajratib berila boshlandi. Lekin qul xo'jayinning mulki bo'lib qolaverdi. Qulni mulk (pekuliy) bilan ta'minlash mil.avv. III asrdayoq ma'lum edi. Endilikda bu odatdagi hol bo'lib qoldi. Qul pekuliydan foydalangan holda o'ziga o'rinbosar sotib olishi mumkin edi. O'rinbosar qul uning xo'jayiniga ishlab berishi kerak edi. Imperiya davrida qullarni ozodlikka chiqarish kuchaydi. Ozod bo'lgan qullar o'z patronlari bilan aloqani uzmas, u homiy-patron bo'lib qolaverdi. Ozod qullar rim fuqaroligi yoki lotin fuqaroligi huquqini olganlar. Lekin ularning bolalari hech qanday cheklovsiz erkin fuqarolar bo'lganlar. Imperator saroyidagi ozod bo'lgan qullar maxsus topshiriqlarni bajarganlar, hatto yuqori martaba bo'lgan prokurator etib tayinlanganlar. Ozod qullar ko'p hollarda tadbirkorlik bilan shug'ullanib, boyib ketar edilar. Ular o'z xo'jayinlariga zarurat tug'ilganda turli xil xizmatlarni ko'rsatganlar. Misol uchun, diktator Sullaning ozod bo'lgan quli Xirosogon Rim davlatidagi eng qudratli kishilardan biri bo'lib, hatto uning oldida senatorlar ham titrab-qaltirar edilar. Ammo ko'pchilik ozod bo'lgan qullar o'rta darajadagi mulkka ega bo'lib, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanar hamda oshxonalarining egalari edilar.

Quldor latifundistlar o'z yerlarini chek yerlarga bo'lib, kolonlarga ijaraga berganlar. Milodiy II asrda kolonlar o'zlari yetishtirgan bug'doy, tariq, zaytun moyining 1/3 qismini quldorga berishi kerak edi. Bundan tashqari, kolon quldorning yerida bir necha kun ishlab berishi kerak edi. Yerga ishlov berish takomillashdi. G'alla va boshqa ekinlarning, o'g'itning yangi navlari joriy qilina boshlandi. Qishloq xo'jaligi takomillashdi. G'alla latifuniyalarida g'allani yig'adigan mexanizm, g'ildirakli plug, suv tegirmoni kashf etildi. Provinsiyalarda shaharlar va shahar aholisining o'sishi, qishloq xo'jalik mahsulotlarining Italiya va imperiyaning boshqa viloyatlariga chiqarish imkoniyatining

paydo bo'lishi provinsiya qishloq xo'jaligida yerdan unumli foydalanish va tovar xo'jaligining kirib kelishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Quldor xo'jaligi endilikda bozor bilan yanada yaqin bog'landi. Qishloq xo'jaligida tovar munosabatlarining rivojlanishi latifundiyalarda hunarmandchilikni vujudga keltirdi. Latifundiya egalari kulolchilik, to'quvchilik, duradgorlik, oshpazlik kabi hunarmandchilik ustaxonalarini ochdilar. Ba'zi gall latifundiyalarida konlardan temir rudasi qazib olinib, metall ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Milodiy I asrlarda qishloq xo'jaligi bilan birga, hunarmandchilik va savdo keng rivojlandi. Rim hunarmandchiligi uchun Ispaniyadagi qo'rg'oshin va mis konlari, Galliyaning temir va qalay konlari, Norika, Dalmatsiya, Kilikiya va Kappadokiyaning boy temir konlari xomashyoni yetkazib berib turar edi. Ayniqsa, temir rudasini qazib chiqarish keng yo'lga qo'yildi.

Temir rudasi Norika va Dalmatsiya, Galliya va Ispaniya, Kappadokiya va sharqda qazib chiqarildi. Barcha konlar imperatorning mulklari bo'lib, ko'pincha ijaraga berilar edi. Hunarmandchilikning rivojlanishi qul mehnatidan keng foydalanish imkoniyatini berdi. Agar o'tgan asrlarda hunarmandchilik ustaxonalarida ishlagan qullar soni 10 tagacha bo'lsa, milodiy II asrda ularning soni 50 taga yetdi.

Hunarmandchilik ustaxonasining kengayishi, mehnat taqsimotining o'sishi uning iqtisoslashuvining o'sishiga olib keldi. Ammo hunarmandchilikda erkin mehnat yetakchi rol o'ynar edi. Tog'-kon ishlarida, qurilish, tosh konlari, marmar konlarida qul mehnatidan keng foydalanilar edi. Ustaxonalarda eng og'ir mehnat qullar zimmasida edi. Hunarmandchilik taraqqiyoti oshpazlik, g'isht kuydirish kabi yangi sohalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Qurilishda betondan foydalanish keng tarqaldi. Milodiy II asrda provinsiyalarda hunarmandchilik, ayniqsa, yuksaldi. Bir qancha provinsiyalar o'z mahsulotlarini boshqa provinsiyalarga, shuningdek, Italiyaga eksport qila boshladilar. Ayniqsa, gall shaharlari nihoyatda rivojlandi. Gall hunarmandlarining kanop gazlamalari, jun yoping'ichlar va kulolchilik mahsulotlari g'arbiy provinsiyalar va Italiyada keng tarqaldi. Suriya shaharlari esa zarbof gazlamalar, zargarlik buyumlari, rangli shisha va gazlamalarni ishlab chiqaradigan asosiy markazlarga aylandi.

Milodiy II asrda hunarmandchilik markazlari yarim oroldan Shimoliy Italiyaga koʻchdi. Puteola, Kapuya, Arretsiya kabi anʼanaviy hunarmandchilik markazlari tushkunlikka uchradi. Ularning oʻrniga gall provinsiyalari, Norika va Dalmatsiyaning temir konlariga yaqin Milan, Akvileya va boshqa hunarmandchilik markazlari vujudga keldi. Ayniqsa, Akvileya shahri metall buyumlar va qurol-yarogʻ, shisha, zargarlik buyumlari, cherepitsa ishlab chiqaradigan yirik hunarmandchilik markaziga aylandi.

Milodiy I-II asrlarda barcha provinsiyalarda savdo aloqalari keng rivojlandi. Italiya savdogarlari Ispaniya, Suriya, Dakiya, Misr, Mavritaniya va Britaniyaga kirib bordilar. Gall kema egalari, savdogarlari Italiya, Reyn viloyatlari va ispan provinsiyalari bilan faol savdo qildilar. Palmira savdogarlari Dakiya va Misrga kirib bordilar. Shaharlarda koʻplab savdo doʻkonlari va omborxonalar qurila boshlandi.

Milodiy II asrda Rimda ulkan besh qavatli Trayan bozori qurildi. Savdo-sotiqning rivojlanishi provinsiyaning mahsulot ishlab chiqarishining ixtisoslashuviga olib keldi. Ispaniya zaytun moyi va vino; Galliya vino, shisha idishlari, jun mahsulotlari; Misr gʻalla, papirus, granit, shisha buyumlari; Suriya vino, zarbof gazlamalar va zeb-ziynat buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi.

Savdogar va hunarmandlar kollegiyalarga birlashdi. Savdo taraqqiyoti sarroflik va sudxoʻrlikning rivojlanishiga turtki boʻldi. Tashqi savdo rimliklar uchun foydali edi. Rim imperiyasi Qora dengiz hududlari, Sharqiy Yevropa, Eron, Oʻrta Osiyo va Hindiston bilan muntazam savdo aloqalarini oʻrnatdi. Milodiy II asrda Sharqdan 3 savdo yoʻli Oʻrtayer dengizi qirgʻoqlariga borar edi: 1.Petra – Transiordaniya – Damashq – Oʻrtayer dengizi. 2.Frot – Palmira – Damashq – Oʻrtayer dengizi. 3.Hindiston – Arabiston – Aleksandriya.

Afrika provinsiyalaridan Rim savdogarlari Efiopiya, Mavritaniya va hatto Markaziy Afrikagacha kirib bordilar. Imperiya davrida yangi tanga – «aureus» zarb qilina boshlandi. Oʻng tomonida hukmdor-imperator tasviri tushirilgan edi. Rim tilla tangasi yuqori baholanar edi. Koʻp tarqalgan Rim tangalaridan biri kumush denariy edi. Milodiy I asrda denariy sof kumushdan, milodiy II asrning oxiridan esa mis qoʻshib, tarkibida 50 % kumush bilan zarb qilina boshlandi. Mis tanga asosan mahalliy

muomalada foydalanilar edi. Mayda savdoda asosan mis tanga sestersiy (4 ass) va dupandiy (2 ass) ishlatilar edi.

Milodiy I-II asrlarda Rim jamiyati quldorlik jamiyati edi. Uning asosiy qatlamlari qullar va quldorlar bo'lib, ulardan tashqari mayda ishlab chiqaruvchilar, kichik chek yerlarning egalari yoki ijarachilar, kichik hunarmandchilik ustaxonalari egalari, mayda savdogarlardan iborat edi. Tabaqalar o'rtasida kuchli ijtimoiy ziddiyatlar mavjud edi. Jamiyatda asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar qullar edi. Milodiy I-II asrlargacha quldorlik xo'jaliklarida qullarga bo'lgan ehtiyoj urushlar natijasida qondirilgan edi. Milodiy II asrda istilochilik urushlarining nihoyasiga yetishi qullar oqimining Rimga kelishini keskin kamaytirdi. Lekin quldorlik xo'jaliklarida qul mehnatiga ehtiyoj juda kuchli edi. Bu hol qullar narxining keskin o'sishiga olib keldi. Qul mehnatining unumdorligidan manfaatdor quldorlar qullarning maishiy turmush sharoitini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Qishloq pomestelari va shaharlarda qul cho'rilar soni o'sib bordi. Qullarga oila qurishga ruxsat berildi va ular rag'batlantirildi.

Qullikda tug'ilgan bolalar (ular vernlar deb atalgan) biror-bir hunarga o'rgatilgan. Bunday qulning narxi qul bozorlarida yuqori edi. Qullarning oila qurishini rag'batlantirgan quldorlar qul oilasi uchun chek yer, mehnat qurollari, kulba, kichikroq do'kon va bir necha qoramol ajratar edilar. Quldor tomonidan ajratilgan bunday mulk «pekuliy» deb atalgan. Milodiy I-II asrlarda pekuliy keng tarqaldi. Quldor sovg'a qilgan yerini istalgan paytida tortib olishi mumkin edi. Qullarning huquqiy holati ham o'zgardi. Imperator Adrian qullarni sababsiz o'ldirishni taqiqladi. Milodiy II asrda yerni ijaraga berish va kolonat keng tarqaldi.

Mil.avv. I-II asrlarda qullar ozodlikka chiqarila boshlandi. Ozod bo'lgan qullar o'zlarining sobiq xo'jayinlari bilan aloqani uzmadilar, u patron bo'lib qolaverdi. Ozod bo'lgan qullar rim fuqaroligi huquqi yoki lotin fuqaroligi huquqini olganlar. Ularning farzandlari hech qanday cheklovsiz ozod fuqaro bo'lganlar.

Kolon huquqiy jihatdan erkin kishi bo'lib, yer egasidan shartnoma muddati tugagandan so'ng ketishi mumkin edi. Shartnoma, odatda, 5 yil muddatga tuzilgan. Kolon 5 yil davomida qarz va boshqa turli majburiyatlar ostida qolib, huquqiy jihatdan o'z yeridan ketishi mumkin emas edi. U noiloj bu yerda uzoq mud-

dat ishlagan. Erkin, o'z yerini yo'qotgan dehqon, batrak va ozod bo'lgan qul, yerga ishlashga qaytgan shahar plebeyi kolonga aylanishi mumkin edi. Yerga birlashtirilgan qullar ham kolonga aylanar edilar. Kolonatning yana bir manbasi chegara provinsi-yalarda asir olingan, yerga joylashtirilgan varvarlar edi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Дементьева В.В. Римская магистратура военных трибунов с консульской властью. – Ярославль: 2000.

2. Грант М. Римские императоры. Биографический справочник правителей Римской империи. 31 г. До н.э. – 476 г. Н.э. – М.: 1998.

3. Трухина Н. Н. Политика и политики «золотого века» Римской республики II в. до н. э. – М.: 1986.

Asosiy sanalar

Milodiy I–II asrlar

Rim imperiyasining tashqi siyosati mudofaa xarakteriga ega bo'ldi.

Milodiy I–II asrlar

O'rtayer dengizi xalqlari Rim imperiyasi tarkibiga kiritildi.

96 –117-yillar

Imperator Trayan hukmronligi.

105 –107-yillar

Dakiya podsholigi bo'ysundirildi.

117–138-yillar

Imperator Adrian hukmronligi.

161–180-yillar

Mark Avreliy hukmronligi.

SO'NGGI IMPERIYA DAVRI (III-V ASRLAR)

1. So'nggi imperiya davri. III asr talato'plari. 2. Dominat davrida imperiya. 3. Rim imperiyasining ikkiga bo'linishi. 4. G'arbiy Rim imperiyasining qulashi.

1. So'nggi imperiya davri. III asr talato'plari. Kommod o'ldirilganidan so'ng turli guruhlar o'rtasidagi kurash fuqarolar urushiga olib keldi (193–197-yillar). Turli provinsiyalar dagi legionlar o'z nomzodlarini imperator deb e'lon qildilar: Suriyada imperator deb legat Pessenniy Niger e'lon qilindi. Uni sharqdagi provinsiyalar tan oldi; Britaniyada gall zoda-gonlari ham qo'llab-quvvatlagan Kladiy Olbin, Pannoniyada Dunay provinsiyalari bilan legat Lusiy Septimiy Sever hokimiyatni da'vo qildilar.

Da'vogarlar o'rtasidagi kurashda Shimoliy Afrikada tug'ilgan Septimiy g'olib chiqdi va imperatorlik hokimiyatini egal-ladi (193–211-yillar). Septimiy Severlar sulolasiga asos soldi (193–235-yillar). Uning davrida imperiya qo'shinga tayanib boshqarildi. Septimiy Sever qo'shinda bir necha islohotlar o'tkazdi. Rim qo'shinlari Dunay va Suriya legionlaridan tashkil topa boshladi. Qo'shinning varvarlashuv jarayoni chuqur-lashdi. Legionerlar, turli lavozimdagi harbiylar qator imtiyoz-larga ega bo'ldilar. Oddiy legioner xizmat davomida yuqori harbiy lavozimlargacha ko'tarilishiga qadar suvoriylar toifasi tarkibiga kirish, qonuniy oila qurish huquqlariga ega bo'ldi. Legioner hukumatdan oziq-ovqat ulushi, ijarachi sifatida yer olar edi. Imtiyozlar, sovg'alar va turli yengilliklar qo'shinda intizomning susayishi va aynishiga olib keldi.

Imperator o'z ma'muriyatini suvoriylar, asosan, Afrika va Sharq provinsiya shaharlarining katta amaldorlari bilan to'ldirdi. Boshqaruv apparatida harbiylarning soni ko'pa-yib ketdi. Eski muassasalarga yangilari qo'shildi. Ularda la-vozimlar yildan-yilga oshib bordi. Eski magistrat lavozimlar (kvestura, pretura va konsulat) byurokratik amalparastlik bosqichlari bo'ldi.

Septimiy Sever kichik va o'rta tabaqalar manfaatini ko'zlab ish olib bordi. Agrar muammo va qo'shin saflarini to'ldiradi-gan ijtimoiy qatlamlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat

jamg'armasi ixtiyoridagi yerlarni hadya qilish va sotishni yo'lga qo'ydi. Tashqi siyosatda u Parfiya bilan 195–199-yillarda g'olibona urush olib bordi. Mesopotamiya bosib olinib, Ktesifon talandi. Britaniyada 208–211-yillarda kaledon qabilalari bilan muvaffaqiyatli urush olib borildi.

Severlarning navbatdagi vakili Mark Avreliy Antonin Karakalla (211–217-yillar) qo'shin va boshqaruv xarajatlarini qoplash maqsadida soliq to'lovchilar sonini oshirishni ko'zlab, 212-yil provinsiyalarning barcha erkin aholisini Rim fuqarosi deb e'lon qildi. Lekin ular immunitetdan mahrum qilinib, soliq to'lovchilarga aylandilar. Senatning mavqeyini pasaytirish va qo'shinga tayanishni imperator Karakalla davom ettirdi. Karakalla 212-yil imperiyaning barcha erkin aholisiga Rim fuqarolik huquqini bergan mashhur ediktini e'lon qildi. Imperator 215-yil Aleksandriyaning undan norozi bo'lgan aholisidan qattiq o'ch oldi. Keyingi yili Karakalla Parfiyaga tinchlik va do'stlik shartnomasini taklif qildi. Ammo Rim legionlari Parfiyaga bostirib kirib, ko'pgina Parfiya zodagonlari qirib tashlandi. Arbela shahri talon-taroj qilindi. Karakalla 35 yoshida fitna qurboni bo'ldi.

Tez orada Karakallaning o'gay onasining singlisi Mezaning nevarasi Variy Avit Bassian (218–222-yillar) legionlar tomonidan imperator deb e'lon qilindi. Finikiya quyosh xudosi Geliogabalning kohini bo'lgan 14 yoshli Geliogabal (Varit Avit Bassian shu nom bilan tarixga kirdi) Rimga kelib, eng avvalo, o'zining sevimli xudosi sharafiga ibodatxona qurib, har kun unga qurbonliklar keltirdi. Axloqi buzuq, kaltafahm o'smir davlat ishlari bilan shug'ullanishni istamay, ko'ngil ochishga berilib ketdi. Ziyofat zallari pollariga atirgul yaproqlari to'shab, maishat qilayotgan do'stlariga misli ko'rilmagan qimmatbaho sovg'alar qildi. U quyon terisi yoki qirg'ovul patlari bilan qoplangan so'rida yastanib yotdi. Geliogabal tuya tovoni, xo'roz toji, tovus va bulbullar tilini yedi. Baliq va tryufelning ustiga tuz o'rniga marvarid sepdi. Uning bir tushlik ovqati 100 ming sestersiydan kam turmas edi.

Imperator-kohin jamoa g'ashini keltirib, oltin iplar bilan tikilgan, qimmatbaho toshlar bilan bezalgan ipak tunika kiyar edi. U aktyor, aravakash va turli firibgarlarni oliy davlat mansablariga tayinlab, qullar va ozod bo'lgan qullarni provinsiya noiblari etib tayinladi. Barchaning nafratiga sazovor bo'lgan Geliogabal 222-yil mart oyida onasi bilan harbiylar tomonidan o'ldirildi. Aql-

siz hukmdorning jasadi Rim ko'chalarida ilmoq bilan sudralib, keyin axlatga cho'miltirilib, Emiliy ko'prigidan Tibr daryosiga tashlandi.

Severlar sulolasining so'nggi imperatori Aleksandr Sever (222–235-yillar) 235-yil o'ldirilganidan so'ng qo'shin davlat nazoratidan chiqdi. Legionerlar birin-ketin tarixshunoslikda «askar imperatorlari» deb atalgan hukmdorlarni taxtga chiqardilar. Ular davlatni uzoq boshqara olmadilar.

Imperator Filipp Arab (244–249-yillar) davrida 248-yil aprelda abadiy shahar Rimning 1000 yilligi hashamatli bayram qilindi. Publiy Lisiniy Valeriyani (253–260-yillar) va uning o'g'li 35 yoshli Gallien (253–268-yillar) davrida parokandalik eng yuqori cho'qqiga chiqib, imperiya amalda bir necha qismlarga parchalandi. Galliya, Ispaniya va Britaniyada hokimiyatni Kassian Postum (258–268-yillar) bosib olib, Gall imperiyasini, Sharqda Septimey Odinat (261–267-yillar) qudratli Palmira podshohligini tuzdi. Dunay provinsiyalari, Bolqon va Misrda ham markazga bo'ysunmagan hukmdorlar paydo bo'ldi.

Faqat illiriyalik 49 yoshli Mark Avreliy Klavdiy (268–270-yillar) imperator bo'lganidan so'ng imperiyani qayta tiklash boshlandi. U alleman va gotlarning hujumlarini qaytardi. Dunay provinsiyalarini qayta tuzdi. Tez orada Klavdiy vabo kasalligidan vafot etdi. Uning o'rniga yana bir illiriyalik 55 yoshli harbiy boshliq Lusiy Domisiy Avrelian (270–275-yillar) taxtga o'tirdi. Avrelian uzoqni ko'ra oladigan g'ayratli siyosatchi bo'lib, 271-yil u Shimoliy Italiyaga bostirib kirgan german qabilalari hujumini qaytardi va Rim atrofida 18-18 km uzunlikdagi mustahkam mudofaa istehkomlarini qurishga buyruq berdi. Shu yilda imperator Dakiya provinsiyasiga safar qilib, imperiyaning Dunay chegaralarini barqaror qilishga harakat qildi.

Palmirada Odinatning bevasi Zinoviya hukmronlik qilar edi. Zinoviya qo'shinlari Suriya, Falastin, Kichik Osiyo va Misrni nazorat qilar edi. Avrelian 272–273-yillarda Zinoviya qo'shinlarini tor-mor qilib, sharqiy provinsiyalarda Rim hokimiyatini tikladi. U Gal imperiyasini ham nisbatan qiynalmay bo'ysundirdi. Shundan so'ng Rim imperiyasining yaxlitligi tiklandi. Hukmdor davlatning iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun pul islohotini o'tkazdi va o'zining ilohiy homiysi sifatida «yengilmas quyosh» xudosini joriy qilib, unga e'tiqod qilishga buyruq

berdi (274-yil). Avrelianning hokimiyati mutlaq edi. U «janob va xudo» deb ulugʻlanib, «davlatni qayta tiklovchi» unvoniga ega edi. Qattiqqoʻl imperator forslarga qarshi yurish vaqtida uyushtirilgan fitna natijasida 275-yil oʻldirildi.

Imperiyada yana siyosiy beqarorlik, tartibsizliklar boshlandi. Davlat tizimining yemirilishi, ichki oʻzaro nizolar, german qabilalari hujumi va III asrda sharqda tashkil topgan qudratli Sossionlar davlati bilan uzoq olib borilgan muvaffaqiyatsiz urushlar Rim imperiyasining parokanda boʻlishiga sabab boʻldi.

Ishlab chiqarish hajmlari keskin kamayib ketdi. Provinsiyalar oʻrtasidagi savdo aloqalari buzildi. Imperiyaning turli hududlari oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalar zaiflashdi. Xoʻjalik tobora natural xususiyat kasb eta boshladi. Markaziy hokimiyat boshqaruv apparati va qoʻshinni saqlab turish uchun juda katta sarf-harajatlarni qilindi, davlat xazinasi barbod qilindi.

Davlat hokimiyati moliyaviy qiyinchilikni tugatish uchun pulni qadrsizlantira boshladi. Pulning qadrsizlanishi yer-mulkni sotib olishda katta miqdorda pul sarflashga majbur qilar edi. Denariyda kumush miqdori 50% ga kamaytirildi. III asr oxiriga kelib kumush denariy mis tanga qiymatiga teng boʻlib qoldi. Pulning qadrsizlanishi iqtisodiyotga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Savdo-hunarmandchilik tushkunlikka uchrad. Yerga ijara haqi keskin oshdi. Bu kolonlarning xonavayron boʻlishiga olib keldi. Qarz majburiyati oshdi. Qullarning soni kamayib, ishchi kuchiga boʻlgan ehtiyoj ortdi. Provinsiyalarda quyi tabaqa vakillarining qoʻzgʻolonlari koʻtarildi. Jumladan, III asrning 50-yillarida Galliyada dehqonlar va qullar qoʻzgʻoloni, Shimoliy Afrikada dehqonlarning qurolli chiqishlari yuz berdi.

III asrning 70-80-yillarida german qabilalarining imperiyaga hujumi kuchaydi. Dakiyani got, sarmat va markomannlar bosib oldi. Imperiyaning shaharlariga tegishli boʻlgan juda koʻp yerlar qarovsiz qoldi. Shaharlar savdo-hunarmandchilik markazlari sifatida oʻz ahamiyatini yoʻqotdi. Imperator buyrugʻi bilan boʻsh yotgan yerlar qoʻshni shahar yoki magnatlar mulkiga qoʻshib berildi. Davlat hokimiyati gʻarbiy provinsiyalarning magnatlariga urushda olingan asirlarni ishchi kuchi sifatida ishlatish uchun taqsimlab berdi. Bu asirlar kolonlarga aylantirildi.

2. Dominat davrida imperiya. 235-yilda navbatdagi imperator Aleksandr Sever oʻldirilishi bilan hokimiyat uchun

turli da'vogarlar o'rtasida kurash boshlanib, bu siyosiy tushkunlik yarim asr davom etdi. Oddiy jangchilar ichidan ham imperatorlikka da'vogarlar chiqdi. Jangchi-imperatorlar bir-birlarini tez-tez almashtirdilar. Odatda, ularning barchasi o'ldirilar edi. 284-yil kuzida tarixga Diokletian nomi bilan kirgan illiriyalik 39 yoshli Diokl (284–305-yillar) imperator deb e'lon qilindi. Diokletianning hukmronligi boshlanishi bilan Rim imperiyasining so'nggi davri yoki Dominat (284–476-yillar) davri boshlandi.

Ozod bo'lgan qulning o'g'li, tegishli ma'lumot olmagan, lekin aqlli va shafqatsiz bo'lgan imperator Gay Avreliy Valeriy Diokletian hukmronligi vaqtida «dominat» (lotincha dominus – «janob», «xo'jayin») nomini olgan siyosiy tizimning asoslari yaratildi. Diokletian va uning vorislari davrida Rim davlatining cheklanmagan monarxiyaga o'tishi tugallandi. Imperator hokimiyati ilohiylashtirilib, unga iloh sifatida sig'inish joriy qilindi. Unga ta'zim bajo keltirish, uning oldida tiz cho'kish, boshini yerga qo'yib yiqilish va kiyimi etagini ochish rasm bo'ldi. Imperatorning ko'pchilik oldida namoyon bo'lishi haqiqiy diniy bayram, an'anaga aylandi. U hashamatli qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kiyimi bilan boshqalardan ajralib turar edi. Senat o'z siyosiy mavqeyini yo'qotdi. Umumdavlat ishlari endilikda senatda muhokama qilinmaydigan bo'ldi. Senat faqat sport o'yinlari va senatorlarga tegishli ishlarni ko'rib, uning qarorlarini imperator tasdiqlashi lozim edi. Bu davrda konsul, pretor, kvestor lavozimlari faqat faxriy bo'lib qoldi.

Diokletian yirik tashkilotchi va xushyor siyosatchi bo'lgani uchun bir qator provinsiyalarning separat kayfiyatlarini hisobga olgan holda imperiyani 4 qismga bo'ldi va o'ziga uch yordamchi (tetrarxiya) belgiladi. Bundan tashqari, imperiya 101 provinsiyaga bo'linib, bir necha provinsiyalar yana kattaroq ma'muriy birlik – dioses (jami 12 dioses)ga birlashtirildi.

Diokletian imperiyaning siyosiy ahvolini nisbatan barqaror holatga keltirib, iqtisodiyot va moliyani sog'lomlashtirishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. 301-yil imperator Diokletian edikti bilan chayqovchilik va sudxo'rlikka qarshi kurash boshlandi. Oziq-ovqatga qat'iy baholar belgilandi. Hunarmand va yollanma ishchilarning ish haqining qat'iy stavkalari belgilandi. Pul muomalasi unifikatsiya qilindi. Provinsiyalarda pul zarb qilish taqiqlandi va 286-yilda to'laqonli tilla, kumush

va mis tangalar zarb qilina boshlandi. Soliq tizimi ham isloh qilindi. Ilgari soliqlar pul bilan emas, mahsulot bilan ko'proq olinar edi. Imperator soliqqa tortish tizimini unifikatsiya qildi. 289–290-yillarda imperiya aholisi yalpi ro'yxatdan o'tkazildi. Ro'yxatga olish har 15 yilda bir marta takrorlanishi kerak edi. Soliq kvotalari 5 yilda bir marta qayta ko'rilar edi. Ekin yerlari va yaylov, o'tloqlar kadastri (hujjat) tuzildi. Qishloq aholisi ekin yeri, yaylovlar sifati, chorva va boshqa mulkka qarab yer solig'i to'lar edi. Hunarmand-savdogarlar esa qator soliqlarni to'lar edilar.

Diokletian juda ko'p inshootlar bunyod qildi. Uning davrida saroylar, sirk, Rimda termalar, Illiriyadagi Salonika shahrida (hozirgi Bosniyadagi Split shahri)gi ulkan saroy ansambli bunyod qilindi. Diokletianning eng oxirgi tadbirlaridan biri u nasroniylik dinini ta'qib qildi. 303–304-yillarda kekxa va kasal Diokletian yordamchisi Galeriy tazyiqi ostida nasroniylarga qarshi o'zini 4 ediktini (farmon) e'lon qildi. Rim imperiyasi g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'lindi. Italiya imperiya markazi sifatida imtiyozini to'la yo'qotdi.

II asr boshlarida Trayan davri provinsiyalarining soni 45 ta bo'lsa, endilikda eski bepoyon provinsiyalarni bo'lish yo'li bilan ularning soni 108 taga yetdi. Diokletian markazi Nikomediya bo'lgan imperiyaning sharqiy qismini boshqardi. Markazi Mediolan (Milan, Shimoliy Italiya) bo'lgan imperiyaning g'arbiy qismini Maksimian boshqaruviga topshirdi. Diokletian va Maksimian «Avgust» unvonini olib, o'zlariga yordamchi belgilab, ularga «Sezar» unvonini berdilar. Sezarlarni Avgustlarning avlodi hisoblagan Diokletianning fikricha, bunday tartib imperiya birligini saqlashga yordam berishi, viloyatlarda hokimiyatning zo'ravonlik bilan tortib olinish imkoniyatiga yo'l qo'ymasligi va shuningdek, Rim davlat chegaralarini qo'riqlashni osonlashtirishi lozim bo'lgan. German qabilalarining Rim hududiga doimiy ravishda bostirib kirishi harbiy islohot o'tkazishga majbur qildi.

Qo'shinning soni ko'paytirildi. Endilikda yirik yer egalari kolonlar va ozod bo'lgan qullardan jangchilar berishga majbur edilar. Harbiy xizmatga german qabilalarining qismlari – federatlar qabul qilina boshlandi. Bundan tashqari, qo'shinning tezkor harakat qilishini ta'minlash uchun qo'shin chegaraga qo'shinlari va harakatdagi qo'shinlarga bo'lindi. Chegara qo'shinlari imperiyaning mustahkamlangan qal'alari va che-

garalarida joylashtirildi. Harakatdagi yoki zaxiradagi qo'shin urush xavfi bo'lgan chegara hududiga yuborish uchun doimo jangovar holatda saqlab turildi. Davlat hokimiyati narx-navo va ish haqining o'sishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatdi. Bir vaqtning o'zida soliq va pul islohotlari o'tkazildi va natijada ijtimoiy-iqtisodiy tushkunlik vaqtinchalik bartaraf etildi. III asr oxiri IV asr boshlarida o'tkazilgan ma'muriy-harbiy va iqtisodiy islohotlar ulkan Rim davlatining umrini yuz yildan ko'proq vaqtga uzaytirdi.

3. Rim imperiyasining ikkiga bo'linishi. Diokletian va Maksimian 305-yil 1-mayda hokimiyatdan voz kechdilar. Taxtdan voz kechgan Diokletian Adriatika dengizi bo'yidagi Salnikaga ko'chib borib, u yerda gul va sabzavot yetishtirish bilan shug'ullandi. U 313-yil 68 yoshida vafot etdi. Konstansiy I Xlor va Galeriy imperator deb e'lon qilindi. Vorislarda o'rtasida taxt uchun kurash boshlanib, bu kurashda Diokletianning yordamchilaridan birining o'g'li Konstantin (306–337-yillar) g'olib chiqdi. U raqiblari bilan bir necha yil kurash olib borib, Rim imperiyasining yagona hukmdoriga aylandi. Konstantin imperiyaning to'rtga bo'linishini saqlab qoldi, lekin boshqaruvni birov bilan baham ko'rish tizimini yo'q qildi. Endilikda imperiya qismlarini unga bo'ysunadigan prefektlar boshqardi.

Konstantin uzoqni ko'ra oladigan aqlli siyosatchi edi. U 200 yildan beri ta'qib etilayotgan nasroniy dinining kuch-qudratini davlat hokimiyatini mustahkamlashdagi muhim o'rnini anglab yetdi. Shu sababli, u 313-yil o'zining Milan edikti (qonuni) bilan nasroniylik dinini boshqa dinlarga tenglashtirdi. Shu lahzadan boshlab nasroniy cherkovi imperator hokimiyatining ittifoqchisi va himoyachisiga aylandi.

Eski yunon koloniyasi bo'lgan Vizantiy shahri qayta qurilib kengaytirildi. Imperator Konstantin 330-yil 11-may kuni poytaxtni Bosfor qirg'og'ining sharqiy qismiga tantanali ko'chirdi. Yangi poytaxtning qurilishi va bezatilishi uchun katta miqdorda mablag' sarflandi. Saroylar, stadion, ippodrom (ot poygalari o'tkaziladigan joy), termalar va kutubxonalar qurildi. Rimdan ulkan miqdorda haykallar olib kelindi. Shahar imperator sharafiga yangi nom Konstantinopol deb ataldi. Poytaxtning sharqqa ko'chirilishi tasodif emas edi. Sharqiy provinsiyalar g'arbdagilarga qarganda, madaniy va boyroq edi.

Imperator Konstantinning o'limidan so'ng taxt uchun yana kurash boshlandi. Nihoyat davlatning turli qismlarida bir necha imperatorlar bir vaqtning o'zida hokimiyatga da'vo qildilar. Hokimiyatni Konstantinning o'g'li Konstansiy egalladi (337–361-yillar). Imperator Flaviy Klavdiy Yulian (361–363-yillar) eski Rim dinini qayta tiklashga urinib, 313-yilda Mediolan edikti bergan xristian cherkovining imtiyozlarini bekor qildi. Shu sababli xristian dini peshvolari Yulianni apostata (dindan qaytgan) deb e'lon qildi. Yulian 363-yilda forslar bilan jangda halok bo'ldi. Uning vorisi Yulian (363–364) xristian e'tiqodini imperiyada hukmron dingga aylantirdi. Imperatorlar Valentinian I (364–375) va Valent (364–378) bir vaqtning o'zida imperiyaning g'arbiy va sharqiy qismlarini boshqardilar. Ularning davrida germanlarning hujumi kuchaydi. 378-yil Frakiyadagi Adrianopol shahri yonida vesgotlar Rim qo'shinlariga kuchli zarba berdi. Shundan so'ng Rim imperiyasi hech qachon qayta tiklana olmadi. Imperator Valent jang maydonida halok bo'ldi. Eng yaxshi zobitlar qurbon bo'ldi. Endilikda Rim imperiyasi chegaralarini himoya qilish uchun yetarlicha qo'shin to'plash imkonoyatidan mahrum bo'ldi. Endi chegaralarni qo'riqlash germanlardan olinadigan ishonchsiz qismlarga topshirila boshlandi. Germanlar ko'plab miqdorda Rim qo'shiniga olina boshlandi. Ular oliy harbiy mansablarni egallay boshladilar.

Imperator Feodosiy I (379–395) vestgotlarga Illiriya viloyatini bo'shatib berib, shu bilan Konstantinopolni bosib olinishidan saqlab qoldi. Feodosiy 394-yil tarixda so'nggi marta imperiyaning har ikkala qismini ham bir qo'lga to'pladi. U o'limi oldidan imperiyani g'arbiy va sharqiy qismga bo'ldi, lekin u samoda quyosh yagona bo'lganidek, yerda ham bitta imperator bo'lishi kerak deb uqtirdi. O'zi qadimgi Rimda mavjud bo'lgan «reks» unvonini qabul qildi va imperiyaning boshqa hududlariga da'vo qilishdan voz kechib, Italiyani boshqara boshladi. Imperiyaning g'arbiy qismini uning 11 yoshli o'g'li Gonoriy (395–423), sharqiy qismini 28 yoshli ukasi Arkadiy boshqara boshladi. Gonoriy davri imperiyaning g'arbiy qismini to'la yemirilish davri bo'ldi. Imperator saroyidagi fitnalar, rim qo'shinida xizmat qilayotgan german qabilalaridan chiqqan harbiylarning xoinligi, qul va kolonlarning norozilik harakatlari davlatning parokandaligini yanada chuqurlashtirdi. Diokletian va Konstantinning islohotlari

imperiyaning yemirilishi jarayonini sekinlashtirdi, lekin uni to'xtata olmadi. IV asrda jonlangan ichki savdo to'xtadi. Ko'p shaharlar xonavayron bo'la boshladi. Butun imperiya bo'ylab natural xo'jalikka qaytish boshlandi. Sharqiy Rim imperiyasining hukmdorlari germanlarning hujumlarini bartaraf qilib, o'zboshimcha qo'mondonlarni yo'q qildilar. Sharqiy Rim imperiyasi 453-yilgacha yashab, tarixga Vizantiya imperiyasi nomi bilan kirdi.

G'arbda pul tizimi ishdan chiqdi. Soliqlarni to'lash qiyinlashdi. Shaharlardan aholi ko'chib keta boshladi. Konstantin shahar aholisining ko'chishi va kolonlarning o'z yerlarini tashlab ketishlarini rasman taqiqladi. Imperator yirik yer egalari – latifundistlarga barcha soliqlarni natural tarzda to'lash majburiyatini qo'ydi. Katta yer egalarining hokimiyati kuchaydi. Shaxsiy erkin kolonlarning ahvoli qullarning ahvolidan kam farq qildi. So'nggi imperiya davrida yirik yer egalari o'zlariga qaram bo'lgan mahalliy aholi ustidan o'z amaliy hokimiyatlarini amalga oshirdilar. Ular o'z qo'shin va qamoqxonalarini tashkil qildilar. Ijtimoiy aloqalarning bunday yangi ko'rinishining shakllanishi so'nggi Rim jamiyatining asta-sekin feodallasuvini bildirar edi.

4. G'arbiy Rim imperiyasining qulashi. Rim imperiyasining to'la ikkiga bo'linishi asosida O'rtayer dengizining ikki hududini romanlashgan G'arb va sharqning tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanar edi. G'arbiy provinsiyalarda shaharlar, tovar ishlab chiqarish, savdo-hunarmandchilik tushkunlikga yuz tutdi. Aholining xonavayron bo'lishi, umumiy iqtisodiy turg'unlik kuzatildi. Markaziy hokimiyat zaiflashib, magnatlar kuchaydi. Aholining varvarlashuvi, harbiy qo'shinlar tarqab ketishi yuz berdi. Aksincha, sharqda kuchli imperator hokimiyati mavjud bo'lib, provinsiyalar kamroq talandi. Shaharlar, savdo-hunarmandchilik rivojlandi.

Qo'zg'olon ko'targan vestgot federatlari Alarix boshchiligidagi 395–396-yillar Makedoniya va Yunonistonni taladi. Kelib chiqishi varvar bo'lgan rimlik sarkarda Flaviy Stilixon (360–408-yillar) Yunonistonning janubida Alarix qo'shinlarini tor-mor qildi. Sharqiy imperiya Alarix bilan shartnoma tuzdi. Alarix 401-yilda Italiyaga yurish qildi. Stilixon vestgotlarni 2 marta tor-mor qildi va Italiyadan haydab chiqardi. Rimda vestgotlar ustidan g'alaba sharafiga so'nggi marta triumf

o'tkazildi. Rimliklar baribir vestgotlarni Illiriyada yashashlariga ruxsat berishga majbur bo'ldilar. Italiya 405-yil konung Radagays boshchiligidagi germanlar bosqiniga uchradi. Florensiya yaqinida Stilixon Radagays hujumini qaytardi. Shu bilan birga, himoyasiz qolgan g'arbiy provinsiyalar german qabilalari tomonidan bosib olindi. Stilixon kuchli sarkarda va diplomat edi. U imperiyani himoya qilishga urindi. Lekin bu maqsadni german qabilalarini harbiy xizmatga tortish va ularning yo'l boshchilari bilan shartnomalar asosida amalga oshirishga harakat qildi.

Stilixon Alarix bilan tinchlik bitimi tuzdi. Alarix bitimga ko'ra, Konstantinopol bilan urushda Rimga yordam berish majburiyatini oldi. 406-yil varvar qabilalari Reyndan o'tib Galliyani taladilar. Alarix 408-yil Pannoniya (Vengriya) va Norikani egalladi va keyin Italiyaga qo'shin tortdi. Stilixonning o'z qo'shini uchun pul mablag'ini talab qilshi qondirildi. Stilixon Vizantiyaga qarshi urushda ittifoqchi sifatida foydalanish uchun Alarix bilan kelishmoqchi edi. Stilixon imperiyani mustahkamlashga urindi, 395-yil oxirida imperiyaning sharqiy va g'arbiy qismlarini birlashtirib, boshqaruvni o'z qo'lida to'pladi. Shu maqsadda german qabilalarini imperiya xizmatiga oldi. Stilixonning bu siyosatiga qarshi bo'lgan senatorlar guruhi qarshi turdi. Ammo imperator Gonoriy saroyida Stilixonga qarshi guruh g'olib chiqib, Stilixon hokimiyatdan mahrum qilindi va o'ldirildi. Stilixon o'limini eshitgan Alarix Rimga yurish qilib, uni qamal qildi. Alarix 5 ming funt oltin, 30 ming funt kumush miqdorida tovon olib qaytib ketdi. Shundan so'ng Alarix Rimni yana bir necha bor qamal qildi. 410-yil avgust oyida qullar shahar darvozasini Alarixga ochib berdilar va varvarlar shaharni 3 kun talon-taroj qildi. So'ng Alarix boshchiligidagi qo'shin janubga yurish qildi. Yo'lda kasallangan Alarix 40 yoshida vafot etdi. Vestgotlar bir necha yildan keyin (419-yil) Akvitaniyada o'z qirolliklarini o'rnatdilar.

Stilixonning o'limidan so'ng Rimni himoya qiladigan birorta sarkarda qolmadi. 407-yil rimliklar Britaniyadan chiqib ketishga majbur bo'ldilar. Vandal, svev va alanlar 409-yil Ispaniyaga hujum qilib, uning alohida viloyatlarini egallab oldilar. 420-yil vandal va alanlar Pireney yarim orolining janubida o'rnashib, 429-yil Afrikaga o'tib, Numidiya va unga qo'shni hududlarning katta qismini egalladilar hamda o'z davlatlarini tuzdilar. Vandal qiroli Geyzerix 445-yil Italiyaga bostirib kirib, Rim shahri-

ni talon-taroj qildi. 449-yil Britaniyada ango-sakslar bosqini boshlandi.

Xunnlarning Yevropa tomon siljishi tasodifiy emas edi. Xitoyda Xan sulolasi (mil.avv. 206-yil – mil.avv. 221-yillar) xunlar davlatiga keskin zarba berdilar va xunnlarning Xitoyga hujumiga chek qo'ydilar. Xunnlarning bir guruhi O'rta Osiyo va shimoliy Hindiston tomon siljidilar. Ikkinchi guruhi esa janubiy Sibir, Ural orqali sharqiy Yevropaga yopirildi. Volganing quyi oqimida yashagan sarmatlarning bir qismi bo'lgan alanlar tor-mor qilindi. Ularning bir qismi xunnlarga qo'shildi, qolganlari Kavkazda boshpana topdi (ularning qoldiqlari hozirgi osetinlar), xunlar Don daryosini kechib o'tib, Karpat va Quyi Dunaygacha bo'lgan hududlarni egallagan, sharqiy german qabilasi – gotlarni bo'ysundirdi. Gotlardan bir qismi ostgotlar (sharqiy) xunnlarga ergashdi, vizigotlar (g'arbiy) yana g'arbga tomon chekindilar. Gotlarning keksa yo'l boshchisi Ermanarix o'zini o'ldirdi.

Xunlar Qora dengiz cho'llaridan g'arbga yurib, Dunay bo'ylariga chiqdilar. Ular hozirgi Ruminiya, Moldaviya, Vengriya va Avstriya hududlarini birlashtirib, davlat barpo qildilar (Hozirgi Vengriya-Avstriya hududida). Bu davlat taxtiga 440-yilda g'ayratli yo'l boshchi Atilla o'tirdi. U sharqiy Rim imperiyasi yerlariga bostirib kirdi. Imperator xunnlarga 6000 ming funt tilla o'lpon to'lab, har yili to'lov majburiyatini oldi. Atilla ostgotlar bilan Dunay bo'ylab g'arbga yurib, Reyn daryosini kechib o'tdi. Ioanning vafotidan so'ng yangi imperiya Valentinian III (425–455-yillar) uni talablarini bajarmaganlikda ayblab, Atilla Galliyaga bostirib kirdi. G'arbiy Rim imperiyasi lashkar boshchisi Aesiy jadal suratda vizigot va franklar bilan ittifoq bo'lib, xunnlarga qarshi hal qiluvchi jangga tayyorlandi. Xunnlarga qarshi rimlik sarkarda Flaviy Aetsiy frank. alan, burgund, vestgot va boshqa qabilalar ittifoqini tuzdi. Hal qiluvchi jang Ispaniya va Fransiya chegarasidagi Katalun dalasida 451-yil iyunida bo'lib o'tdi.

Har ikki tomon o'rtasidagi qonli jangda juda katta qurbonlik berildi. Vizigotlar sardori Teodorix halok bo'ldi (Got tarixchisi Iordanning ma'lumotiga ko'ra, bu jangda har ikkala tomondan 300 ming kishi halok bo'lgan). Vizigotlar jangni to'xtatdilar. Atilla Dunay bo'ylariga qaytdi. Atilla 453-yil yana Rimga yurish boshladi. Zaiflashgan Ga'rbiy imperiya Atillaga katta sovg'a-salom to'lab, Rimni talonchilikdan saqlab qoldi. Papa Lev I xun-

lar oldiga elchilar boshlig'i bo'lib keldi. Katta sovg'a-salomlar bilan Atilla Dunay bo'yidagi poytaxtiga qaytdi.

Atilla qarorgohida o'zi bo'ysundirgan qaram xalqlardan birini yo'l boshchisining qiziga uylanib, katta to'y marosimini o'tkazdi. Nikoh to'yi kechasi kelin Atillaning zaharlab o'ldirdi. Ular Dunay daryosini ulkan to'g'on bilan to'sib qo'ydilar. Atillaning jasadini tilla tobutga, tilla tobutni kumush tobut ichiga, uni yana temir tobut ichiga joylashtirdilar. Xunnlari Atillani katta izzat-ikrom bilan dafn qildilar. Dunayning ochilib qolgan o'zanini qazib, tobutni uning qa'riga qo'yib, daryo to'g'onini buzib tashladilar. Daryo yana eski o'zanidan oqa boshladi.

Atillaning o'limidan so'ng buyuk xunnlari davlatini birlashtirib tura olishga loyiq yo'l boshchi topilmadi. Xunnlari davlati parchalanib ketdi. Bu Rim imperiyasini qutqarib qolmadi. Keksayib qolgan imperiya o'lim talvasasida edi. Qudratli Feodosiy sulolasining so'nggi vakili zaif imperator Valentinian obro'-e'tiborli Aesiyni ko'ra olmay o'z qo'li bilan uni o'ldirdi. Valentinianing o'zi ham Aesiyning harbiy yaqinlari tomonidan o'ldirildi. Endilikda Rim himoyasini uyushtiradigan biror-bir kuchli sarkarda qolmadi.

Vandallar 455-yil Geyzerix boshchiligida Rimni talon-taroj qildilar. Imperator xazinasi, saroy-ibodatxonalaridagi barcha qimmatbaho buyumlar olib ketildi. Rim yong'in ichida qoldi. Shundan so'ng 20 yil ichida bir necha imperatorlar almashdi. Ular german qabilalarining sarkardalari qo'lida o'yinchoq bo'lib qoldilar. Provincesiyalar bilan aloqalar uzildi, maoshsiz qolgan rim garnizonlari tarqalib ketdi; ilgari xavfsiz bo'lgan rim yo'llari mahsulot tashish va yurish uchun o'ta xavfli bo'lib qoldi; yo'llarda german qabilalari va boshqa qaroqchilar izg'ib yurar edilar.

Varvar qabilalari va qirolliklari imperiya bilan hisoblashmay qo'ydilar. Biror-bir imperator davlatning yemirilishini to'xtata olmadi. Imperatorlar Ravenna shahrini doimiy qarorgohga aylantirdilar. Rim xristian cherkovi boshlig'i papa qarorgohi bo'lib qoldi. Afrikada o'rnashib qolgan vandallar Ravenna imperatorlarining zaifligidan foydalanib, Sitsiliya, Sardiniya va Korsikaga yurish qildilar. Ular 455-yil Italiyaga yurish qilib, Rim shahrini 14 kun davomida talon-taroj qildilar. Olib keta olmagan buyumlarni vandallar yo'q qildilar. Nodir san'at asarlari, haykallar, saroylar o't ichida

qolib, Galliya va Ispaniyaning mahalliy zodagonlari uzoqdagi Ravenna imperatorlari bilan aloqa qilgandan ko'ra, bosib olingan viloyatlarning amaldagi hokimlari varvar qirollari bilan hamkorlik qilishni afzal deb hisobladilar.

475-yilda Atillaning sobiq kotibi, patriitsiy ayolga uylangan Orest o'zining 14 yoshli o'g'li Romul Avgustulni imperator taxtiga o'tkazib, o'zi hokimiyatni boshqardi. So'nggi imperator – Rim shahri va imperiyasini barpo qilgan Romul afsonaviy Avgustul ismlarini olib, balog'atga yetmagani uchun Avgust emas, Avgustul deb ataldi. O'smir imperatorni rimliklar mazax qilib, Avgustcha deyishar edi. Amalda G'arbiy Rim imperiyasi tugadi. German qabilalari yo'l boshchilari Italiyada to'la hukmronlikni qo'lga oldilar.

476-yil germanlarning skir qabilasidan bo'lgan imperator gvardiyasi qo'mondoni Odoakr Rimda hokimiyatni bosib oldi. Orest o'ldirildi. Romul Avgustul 476-yil 23-avgustda taxtdan tushirilib, Neapol yaqinidagi Lukull villasiga surgun qilindi va shu yili vafot etdi. Odoakr G'arbiy Rim imperiyasi imperatori unvoni tugatilgani to'g'risida senatning rasmiy qarorini olishga erishdi. Imperatorlik ramzlari Konstantinopolga yuborildi. Bu rasman Sharqdagi imperator hokimiyati ostida Rim imperiyasining yaxlitligi tiklanganligini bildirar edi. Odoakr o'zini Italiyaning hokimi deb e'lon qildi. Odoakr davlatini 493-yilda ostgotlar bosib oldilar, uning o'zi o'ldirildi.

Antik dunyo tarixining oxirgi sahifalari Sharqiy Rim imperatori Yustinian (527–565-yillar) nomi bilan bog'liq. U VI asr o'rtalarida Rim huquqini kodifikatsiya qildi. Yustinian kodeksi qadimgi Rimda huquqning uzoq yillardagi taraqqiyotini tugallangan holda o'zida aks ettirdi. Shu bilan bir vaqtda Yustinian tomonidan antik tafakkur markazi bo'lgan Afinadagi Platon akademiyasining tantanali yopilishi yangi davrning antik davr bilan ramziy xayrlashuvi bo'ldi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Дилигенский Г. Г. Северная Африка в IV–V вв. – М.: 1961.
2. Грант М. Римские императоры. Биографический справочник правителей Римской империи. 31 г. До н.э. – 476 г. н.э. – М.: 1998.
3. Грант М. Цивилизация древнего Рима. – М.: 2003.
4. Казаков М.М. Христианизация Римской империи в IV в. – Смоленск: 2002.
5. Корсунский А. Р., Гюнтер Р. Упадок и гибель Западной Римской империи и возникновение германских королевств (до середины IV в.). – М.: 1984.

Asosiy sanalar

| | |
|------------------------|---|
| 199-yil | Imperatorlik taxti uchun fuqarolar urushi bo'lib o'tdi. |
| 193–235-yillar | Severlar sulolasining asoschisi Septimiy Sever hukmronligi. |
| 235-yil | Imperator Aleksandr Severning vafoti. |
| III asrning 60-yillari | Galliyada dehqonlar qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. |
| III asrning 70-yillari | Imperator Avrelian Rimga bo'ysunishdan bosh tortgan Galliya va Misrda Rim hokimiyatini qayta tikladi. |
| 337-yil | Imperator Konstantin vafoti. |
| 476-yil | G'arbiy Rim imperiyasining qulashi. |

QADIMGI RIM MADANIYATI

1. Din. 2. Huquq. 3. Adabiyot. 4. Me'morchilik va haykaltaroshlik. 5. Ta'lim va fan. 6. Tarix.

Qadimgi Rim madaniyati o'z taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. Rim Italiya, Yunoniston va Sharq mamlakatlarining nisbatan yuqori rivojlangan madaniy yutuqlarini o'zlashtirib oldi. Rim madaniyati asra-sekin shakllandi va nihoyasida yuqori darajada rivojlangan madaniy-ma'naviy yutuqlarni o'zida aks ettirdi. Respublika davridagi Rim madaniyati imperiya davri Rimi madaniyatining asosi bo'ldi.

1. Din. Rimliklarning an'anaviy e'tiqodida totemizm, fetishizm va animizmning qoldiqlari mavjud edi. Rim dinida urug' va oila e'tiqodlari muhim o'rin tutar edi. Har bir uyda oila e'tiqodining markazi o'choq, bosh oilaning otasi kohin edi. Har bir kishida o'zining ruhiy homiysi bo'lib, u erkaklarda geniy, ayollarda yunona edi. Rimliklarning e'tiqodiga ko'ra, vafot etgan ajdodlar xudo-homiylarga aylanan edilar.

Rimliklarda har biri qandaydir bir aniq funksiyani bajaradigan kichik xudolar juda ko'p edi. Misol uchun, xudo Forkul uy eshigi qo'riqchisi, Liment ostona, Kardiya eshik zulfinlarining qo'riqchisi edi. Lekin asosiy e'tiqod qilinadigan qudratli xudolar alohida o'rin tutar edi. Ularning orasida eng birinchisi chaqmoq xudosi Yupiter bo'lib, uning ibodatxonasi Kapitoliyda Tarkviniy Mag'rur davrida qurilgan edi. Uning xotini Yunona nikoh va onalik hamda ayollar homiysi edi. Ularning qizi Minerva – hunar, san'at va urushlar ma'budasi; Vesta – fuqarolik jamoasi homiysi va uy o'chog'i ma'budasi; Mars – urush xudosi; Yanus – o'tmish va kelajak, kirish va chiqish, boshlanish va tugallanish, ikkiyuzlamachilik xudosi; Venera – sevgi va hosildorlik ma'budasi; Serera – ekinlar va hosil ma'budasi; Neptun – dengiz xudosi; Merkuriy – savdo va o'g'rilar homiysi; Vulkan – temirchilar xudosi; Pluton – narigi dunyo zulmat xudosi; Baxus – vinochilik xudosi; Diana – oy va ovchilik xudosi; Silvana – o'rmon xudosi va boshqalar. Rimliklar biror-bir muhim ishni boshlashdan oldin bu ish to'g'risida xudolar irodasini bilmasdan boshlamaganlar. Shu sababli avgurlar (kohinlar) qushlarning uchishi va o'zini

tutishi, qurbonlikka keltirilgan hayvonlarning ichki organlari (ayniqsa, jigari)ga, yashin chaqnashiga qarab, xudolarining irodasini o'qiganlar. Har bir toifa ma'lum bir ma'budga e'tiqod qilgan (suvoriylar – otliq Neptun va Diosnuraga, plebeylar Sestsera, liber, liberaga), alohida kasblar (savdogarlar – Merkuriyga, hunarmandlar, yozuvchilar, o'qituvchilar – Minervaga) sig'inganlar. Har bir familiya – oila o'z homiy xudosiga ega bo'lgan. Fuqaro diniy marosimlarda ishtirok etishga majbur edi.

Rim e'tiqodiga etrusk va yunon e'tiqodi qarashlari ham o'z ta'sirini o'tkazdi (Yunona, Minerva, Vulkan). Etrusklardan hayvonlarning ichki a'zolariga qarab fol ochish o'zlashtirib olingan edi. Mil.avv. III asrdan rimliklar o'z xudolarini yunon xudolari bilan tenglashtirgan edilar: Yupiter – Zevs, Yunona – Gera, Minerva – Afina, Mars – Ares, Venera – Afrodit, Serera – Demetra, Merkuriy – Germes, Baxus – Dionis. Rim e'tiqodi diniy qonun-qoidalariga rasman rioya qilish bilan cheklangan bo'lib, chuqur diniy his-tuyg'udan mutlaq mahrum edi. Kohinlar odamlar va xudolar o'rtasidagi vositachi rolni o'ynar edilar.

Mil.avv. III–I asrlarda Italiyaga sharqdan Serapis, Isida, Mitra va boshqa diniy e'tiqodlar kirib keldi. Rim imperiyasiga turli Sharq e'tiqodlari – Misrdan Isida, O'rta Sharqdan zardushtiylik ilohi Mitra va boshqa ilohlar kirib keldi. Pompeyning sharq yurishlari bilan Mitraga sig'inish Rim shahri, Britaniya va Dunay bo'ylarida tarqaldi. Mitraga sig'inuvchilar kohinlar boshchiligida jamoalar tuzdilar. G'orlar va yer osti galereyalarida Mitraga sajda qilib, uning marosimlari o'tkazildi. Mitraga qurbonlik qilinadigan bunday inshootlar Mitreum deb atalib, ular butun imperiya bo'yicha tarqalgan. Mitraga sig'inish III asrning II yarmida imperatorlar Diokletian va Maksimian davrida keng tarqaldi. Imperator Maksimian harbiy yurishlari vaqtida Mitraga davlat homiysi deb hurmat bajo keltirdi.

Rim jamiyatining mafkuraviy tushkunligi ifodasi sifatida nasroniylik e'tiqodi milodiy I asrda Rimning Yahudiya provinsiyasida paydo bo'ldi va II asrdan tez tarqala boshladi. Eski diniy e'tiqodlar, ma'bud va ma'budalar, ularning marosimlari jamiyatning ma'naviy ehtiyojini qondirmadi. Nasroniylik ham shu tarzda kirib keldi. Yangi e'tiqod dastlab kambag'allar va qullar orasida tarqaldi. Uning rasm-rusumlari sodda, tenglik

va u dunyoga ishonch bilan odamlarni o'ziga jalb qilar edi. Rasmiy hokimiyat nasroniylarga shubha bilan qarab, ularni ta'qib qildi. II asrdan nasroniylik aholining turli qatlamlari orasida jadal tarqaldi. Bu e'tiqodning kuchli tashkiloti shakllandi. Hukmron tabaqa asta-sekin yangi e'tiqodning davlat hokimiyatiga foydasini tushunib yetdi va uni rasmiy din sifatida e'tirof etdi. Imperator Konstantin 313-yilda o'zining Milan edikti (qonuni) bilan nasroniylik diniga e'tiqod qilishga ruxsat berdi. Kostantin 330-yilda nasroniylikni qabul qildi. Imperator Feodosiy 381-yilda nasroniylikni davlat dini deb e'lon qildi.

Davlat hokimiyati diniy e'tiqodga katta e'tibor berar edi. Kohinlar davlat xizmatchilari hisoblansa-da, lekin hech qachon qadimgi Sharqdagidek alohida toifaga birlashmagan edilar. Rimda bir qancha kohinlik kollegiyalari mavjud edi. Kohinlar elitasi oliy pontifik (barcha ilohiy va insoniy ishlar sudyasi), pontifiklar kollegiyasining bevosita rahbari va uch bosh flamin (ular Yupiter, Mars va Kvelin e'tiqodlarini boshqarar edilar)dan iborat edi. Pontifiklar dastlab 6 ta bo'lib, Sezar davrida 16 taga yetdi. Ular diniy marosimlarning qat'iy bajarilishini nazorat qilar edilar. Oliy pontifik taqvim tuzib, diniy bayramlar o'tkazilishiga mas'ul edi. Unga 15 flamin bo'ysunib, flaminlar alohida xudolarga qurbonlik keltirar edilar. Avgurlar fol ochish bilan shug'ullanar edilar. Rim diniy kalendarida 70 ga yaqin diniy bayramlar mavjud edi. Bu bayramlar mo'l-ko'l qurbonlik keltirish, marosimlar va quvnoq tomosha – bazmlar bilan tantanali o'tkazilar edi. Respublikaning oxirida bayramlar bir yilda 115 kunni tashkil qilgan.

2. Huquq. Rim huquqi antik sivilizatsiyaning eng katta yutuqlaridan bo'lib, asrdan-asrga yuridik tafakkurning klassik namunasi bo'ldi. Rim huquqining manbalarini odatdagi huquq, senat qabul qiladigan qonunlar, magistratlarning ediktleri va yuristlarning faoliyati tashkil qilar edi. Rim tarixida huquqiy normalarni kodifikatsiya qilish natijasida XII qonunlar jadvali yaratildi. Mil.avv. 366-yilda xususiy kishilar o'rtasidagi huquqiy qarama-qarshiliklarni tartibga solish uchun Rimda shahar pretori lavozimi joriy etildi. Pretorlarning yuridik amaliyotidan fuqarolik prosessual huquqi paydo bo'ldi. Kvent Musey Stsevola (mil.avv. 159–83-yillar) o'zining

«Sivil huquqi» asarida O'n ikki jadval qonunlarini sharhlash bilan birga vasiyatlardan boshlanib, jarayon bilan tugaydigan rim huquqining to'la tizimini yaratdi. Mashhur huquqshunos Kvent Servidey Stsevola mil. II asr oxiri – III asr boshlarida 40 ta kitobdan iborat «Digest», 6 kitobdan iborat «Javoblar», 20 kitobdan tashkil topgan «Savollar» tuzdi.

I–III asrlar Rim huquqi tarixi davrida klassik davr hisoblanadi. Rim imperiyasida 212-yilgacha huquq va sud amaliyotining ikki shakli: kvirit (Rim) huquqi va xalqlar huquqi mavjud edi. Bundan tashqari, ba'zi provinsiyalarda mahalliy huquqiy tizimlar va Rim noiblarining ediktleri amal qilar edi. Imperator Adrianning abadiy ediktini e'lon qilinishi imperiya hududida yagona huquqiy kenglikni yaratish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. II asrning ikkinchi yarmida Gay 4 jilddan iborat huquq darsligi (institutsiyalar) to'plamini tayyorladi. II asr oxiri III asrning boshlarida mashhur huquqshunoslar Emiliy Papiyan, Domisiy Ulpian va Yuliy Pavel faoliyat ko'rsatdilar. 429–438-yillar imperator Feodosiy II buyrug'i bilan «Feodosiy kodeksi» nomi bilan imperator qonunlari to'plami tayyorlandi. 529-yilda «Yustinian kodeksi», 533-yilda «Digetslar» – Rim huquqshunoslarining asarlaridan olingan ma'lumotlar to'plami 50 jildda e'lon qilindi.

3. Adabiyot. Rim adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida xalq og'zaki ijodi va yunon adabiy an'analari muhim o'rin tutadi. Rim adabiyoti tarixi mil.avv. III asr o'rtalarida yunon janrlariga taqlid qilish bilan boshlandi. Tarentlik ozod qo'yilgan qul, yunon Liviy Andronik (mil.avv. 280–204-yillar) birinchi lotin muallifi edi. U Gomerning «Odyssey»sini lotin tiliga tarjima qildi. Shuningdek, u yunon dramalarini erkin tarjima qilish va badiiy qayta ishlash bilan shug'ullandi. Liviy Andronikdan Rim badiiy adabiyoti boshlanadi. U rim patrisiyalarining bolalari uchun maktab ochib, yunon tili va adabiyotini o'qitishni boshladi.

Uning zamondoshlari shoirlar Neviy va Enniy edi. Giney Neviy (mil.avv. 201-yilda vafot qilgan) Rim syujetlariga asoslangan birinchi tragediyalarni yaratdi. Yunon mualliflari syujetlaridan o'zlashtirib, dramalar yozdi. Neviy I Puni urushi to'g'risida 7 jildda epik poema yaratdi. Kvint Enniy (mil.avv. 239–169-yillar) Rim tarixiga bag'ishlangan «An'analar» epik poemasini 18 jildda yozdi. Bu shoirdan 1100dan ortiq she'rlar meros qoldi. Tit

Maksesi Plavt (mil.avv. 250–184-yillar) birinchi Rim komediografi bo'lib, uning 130 komediyasidan 21 tasi saqlanib qolgan. Ikkinchi buyuk Rim komediografi afrikalik Publiy Terensiy (mil. avv. 185–159-yillar) bo'lib, uning pyesalaridan 6 tasi bizgacha yetib kelgan.

Rimda tragediya keng tarqalmadi. Rim tragiklari Mark Pakui (mil.avv. 220–130-yillar) va Lusiy Aksiy (mil.avv. 170–90-yillar) o'z tragediyalarini yaratish uchun buyuk yunon dramaturglarining asarlaridan foydalandilar. Rimda keng tarqalgan adabiy janr satira (she'r, masal, latifa va dialoglar aralashmasi) edi. Vaqt o'tishi bilan u bizga yaxshi tanish bo'lgan satiraga aylandi. Birinchi Rim satirigi Gay Lusiliy (mil.avv. 180–102-yillar) 30 kitobdan iborat satiralar to'plamini yaratdi. Lotin prozasining ilk namunalaridan biri Mark Porsiy Katon Kattaning (mil. avv. 234–249-yillar) «Dehqonchilik to'g'risida» nomli asari edi. Uning 7 jildli Rimning qadimgi davrlaridan II Puni urushigacha bo'lgan tarixi yoritilgan kitobi, tibbiyot bo'yicha traktatlari, notiqlik san'atiga bag'ishlangan asarlari, 150 ta nutqlari bizgacha yetib kelmagan. So'nggi respublika davrining lotin poeziyasi Tit Lukretsiy Kar (mil.avv. 95–51-yillar) va Gay Valeriy Katull (mil. avv. 87–54-yillar) kabi taniqli vakillari bilan mashhur. «Narsalarining tabiati to'g'risida» nomli 6 jildli falsafiy poema Lukretsiyga tegishli. Katull mashhur Rim lirik shoiri bo'lib, u 116 she'rdan iborat to'plam qoldirgan.

Lotin madaniyatining mashhur vakillari Mark Terensiy Varron (mil.avv. 116–27-yillar) va Mark Tulliy Sitseron (mil.avv. 106–43-yillar) adabiyot sohasida muhim iz qoldirdilar. Varron 620 jildda 74 asar muallifi bo'lgan ensiklopedist yozuvchi edi. Uning asosiy asarlari «Qadimiyatlar» (41 jild) va «Lotin tili to'g'risida» (25 jild) kitob edi. Sitseron qadimda notiqlik san'atining nazariyotchisi va amaliyotchisi, davlat arbobi, huquqshunos va advokat, faylasuf va filolog-tarjimon, adabiy tanqidchi va san'atshunos edi. Uning 58 siyosiy va sud sohasidagi nutqlari, 12 ta falsafiy to'plami, notiqlik san'ati bo'yicha 7 traktati, 800 xatlari, ko'pgina nutqlari va poetik asarlari mavjud bo'lgan.

Avgust davri lotin poeziyasining oltin asri hisoblanadi. Bu davrda buyuk shoirlar Publiy Vergiliy Maron (mil.avv. 79–19-yillar), Kvint Goratsiy Flakk (mil.avv. 65–8-yillar), Publiy Ovidiy Nazon (mil.avv. 49-yil – milodiy 18-yillar) yashab ijod qildilar.

Vergiliy dehqonlar mehnatiga bagʻishlab 14 jildli didaktik poema, 12 jildli «Eneida» poemasi va «Bukolika» sheʼriy toʻplamini yaratdi.

Goratsiy imperator kotibi lavozimini rad etdi. U shoir sifatida erkinlik va mustaqillikni afzal koʻrdi. Harbiy tribun unvoniga sazovor boʻldi. Kvestor kotibi lavozimida ishlab tirikchilik qildi. Goratsiy oʻz ijodini satira va munozara janrida boshladi (Epodlar, 2 jildda satiralar). Keyin esa 4 jildli «Odalar», «Maktublar» kitobini, 5 jildli elegiyalar, parodiya-didaktik janrda «Sevgi fani», «Sevgi daʼvosi» asarlari, 15 jildli «Gʻamgin elegiyalar», 4 jildli «Pontdan maktublar» asarlarini yozdi. Publiy Ovidiy Nazon (mil.avv. 43-yil – milodiy 17-yil) mifologik syujetlarga murojaat qildi. Uning asosiy asarlari «Fastlar», «Metamorfozalar», «Pontdan maktublar». Qobiliyatli lirik shoirlar Albiy Tibull (mil.avv. 50-yil – milodiy 19-yil) va Sekst Propersiy (mil.avv. 49–15-yillar) elegiyalar yozdilar. Tibul Rim suvoriysining oʻgʻli edi. Tibull oʻzidan elegiyalarning ikki toʻplamini, Propersiy bir toʻplamini qoldirdi. Oktavian Avgustning oʻzi proza va sheʼriyatda koʻp asarlar yozdi.

Satirik janrda Kichik Seneka (mil.avv. 4-yil – milodiy 65-yillari) va Petroniy Arbitr mashhur edilar. Petroniyning mashhur romani «Satirikon» boʻlib, uning 20 bobidan 3 bobi bizgacha yetib kelgan. Persiy Flakk (34–62-yillar), Mark Valeriy Marsial (40–102-yillar), Detsiy Yuney Yuvenal (60–127-yillar) hamda Lukian (120–190-yillar) satira janrida ajoyib asarlar yaratdilar. Bizgacha bu davrning qimmatli yodgorliklari mashhur notiqlar Dion Xrizotomning 78 nutqi, Eliy Aristidning 55 nutqi yetib kelgan. IV asr ritorika – notiqlikning yangidan gullab-yashnagan davri boʻldi. Antik Oʻrtayer dengizining notiqlik maktablarida boʻlgʻusi oliy amaldorlar va xristian targʻibotchilari tarbiyalandi. Bu davrda Afinada Gimeriy, Konstantinopolda Femistiy kabi mashhur ritorlar dars berdilar.

Eng kuchli notiq va notiqlik sanʼati oʻqituvchisi Libaniy (314–391-yillar) edi. U Antioxiyada imperatorlar, lashkarboshilar va oliy amaldorlarga qarata ijtimoiy dolzarb muammolar yuzasidan erkin nutqlar bilan murojaat qilgan. Libaniy «Kichik Demosfen» taxallusini oldi. Libaniy maʼjusiylar dinga eʼtiqod qildi. U imperator Yulianning ashaddiy muxlisi boʻlib, Yulian ham unga homiylik qiladi. Koʻpgina taniqli xristian targʻibotchilari, jumladan, nazianlik Grigoriy va Ioann Zlatous uning makta-

bidan chiqqan edi. O'sha davrdagi Rim notiqalaridan IV asr oxirlarida oliy davlat mansablarini egallagan Kvint Avremiy Simmaxni aytish mumkin.

Sarguzasht roman janriga Apuliyning «Oltin eshak», «Afnis va Xloya»; Geliodorning «Efiopika» asarlari mansubdir. Bu davrda dramatik janr deyarli rivojlanmadi. Undan faqat pantomima, atellan va mim shakllari qoldi. Bizgacha yunon klassik obrazlariga taqlid qilib yozilgan Senekaning 10 tragediyasi yetib kelgan.

IV–V asrlarda poeziyada klassik namunada asarlar yaratish an'anaga aylandi. Bu davrning eng mashhur mifologik eposi misrlik Nonning «Dionis to'g'risida»gi dostoni deb e'tirof etish mumkin. Bu asar boy fantaziya, ifodali obrazlarga ega bo'lib, epik tarzda yozilgan.

IV–V asrlarda lotin shoirlari mifologiyadan tashqari, tabiatni tasvirlashga jiddiy e'tibor berdilar. Ana shunday lotin shoirlaridan biri Detsim Magin Avzoniy edi. U tajribali ritor, yunon, lotin tillari va adabiyotining bilag'oni, salohiyatli shoir edi. So'ng ikki mashhur Rim shoirlari: Aleksandriyalik Klavdiy Klavdian, kelib chiqishi Galliyadan bo'lgan Klavdiy Rutimiy Namasian o'z she'rlarida Rimga murojaat qilib, uning buyuk o'tmishi va g'alabalarini kuyladilar. Klavdian imperator Gonoriy saroyida yashab, hukmdorning yaqinlaridan biri Stilixonga bag'ishlab «Stilixonga maqtov» va «Gotlar bilan urush to'g'risida» poemasida Rimning buyuk kelajagini bashorat qildi.

4. Me'morchilik va haykaltaroshlik. Rim me'morchiligi va haykaltaroshligi yunon va etrusklarning kuchli ta'siri ostida rivojlandi. Rimliklar etrusklardan qurilish texnikasining ba'zi usullarini o'zlashtirib oldilar. Mil.avv. 312-yilda sensor Appiy Klavdiy Seka davrida, rimliklar ilk bor tosh to'shalgan Appiy yo'lini qurdilar. Odatda, rimliklar yo'llarni 5 qatlamli tuzilma bilan qurar edilar. O'sha 312-yilda rimlik muhandislar Rimning suv ta'minotini yaxshilash uchun arkli suv quvurlari – akveduklarni qura boshladilar.

Mil.avv. II asrda beton kashf qilindi. Binolar qurilishida g'isht, tuf, travertin va marmar ishlatila boshlandi. Rim qurilish san'atining ko'p asrlik tajribasi Mark Vitruviy Pollianning 10 jildlik «Arxitektura to'g'risida» (mil.avv. I asrda) asarida umumlashtirildi. Bu vaqtda Rimda ko'p qavatli uylar, ko'priklar, ter-

malar, zafar arklari qurildi. Mil.avv. 55-yilda Mars maydonida toshdan qurilgan birinchi amfiteatr – «Pompeya» qurildi.

Respublika davrida Rimning jamoatchilik markazi forum bo'ldi. Bu yerda davlat xazinasini va arxivi (Tabulyariy), notiqalar minbari (Rostra), senat majlislari o'rnini (Kuriya), davlat qamoqxonasini (Tullianium) binolari qurilgan edi. Ellin davrida Rim yunon haykallari va boshqa san'at asarlari bilan bezatila boshlandi. Imperiya davrida forum, ibodatxona, bazilika, portik, zafar arklari, me'morial kolonnalar va otliqlar haykallari bilan bezatildi. Ularning ichida hashamatli Trayan kolonnasi va forumi ajralib turadi. Imperator Adrian barcha xudolar ibodatxonasi Panteonni bunyod qildi. Ulkan gumbaz diametri 9 metr bo'lgan aylana teshigi bilan tugaydi. Bu teshik orqali quyosh nurlari pastga g'aram bo'lib tushib, marmar polda sinib, atrofga mayin va bir tekis yorug'likda taraladi.

Rim hammomlari (Terma) Rim davlatining ilk davrida gigiyenik maqsadlarda qurilgan, keyinchalik katta hajmdagi ajoyib inshootlarga aylangan. Inshoot sovuq, iliq va qaynoq, bug' hammomlari, gimnastika zali, gimnasion, kutubxona, sayr uchun xiyobonlar va hatto rasm galereyasidan iborat bo'lgan. Imperator Karakalla hammomi (terma)da bir vaqtning o'zida 2500 kishi yuvinishi mumkin bo'lgan. Konstantin davrida bunday hammomlar Rim shahrida 10 ta bo'lgan, kirish uchun oz haq to'langan.

Rimliklar jamoa binolarini qurishdan oldin, ulkan tosh akveduk – vodoprovodlarni qurdilar. Mil.avv. IV asr oxirida Appey Klavdiy o'sha vaqtda mashhur bo'lgan vodoprovodni o'tkazib, birinchi sun'iy yo'lni bunyod qildi. Imperiyada 372 yo'l bo'lgan, yo'lning kengligi 8 metr bo'lib, tosh parapet har bir chaqirimda ustunlar qo'yilgan. Rimda 9 ta tosh ko'prik qurilgan. Ispaniyada imperator Trayan qurgan uzunligi 180 metr bo'lgan ko'prik hozirgacha saqlanib qolgan.

Imperator Vespasian Rim shahrida milodiy 70-yilda sun'iy ko'l o'rnida ulkan amfiteatrni (keyinchalik u Kolizey deb ataldi) qurishni boshladi. Qurilishda Rim aholisining 25 % ishtirok etdi. 690-yilda qo'zg'olon ko'targan Yahudiya qo'zg'oloni bostirilib, Ierusalimning xazinasini Rimga olib kelingi. Asir olingan 30 ming yahudiy qullikka sotildi. Imperator hunarmandlar uyushmasini ko'magida yuqori malakali hunarmandlarni qurilishga jalb qildi. Xomashyo sifatida tosh, tuf ishlatildi. Qurilishning beshinchi yilida vulqon qumi va

ohak qo‘shib, sement hosil qilindi, u toshdan yengil bo‘lib, Kolizeyning arklari ham juda yengil qurildi. Arkklarning birinchi qavatli toshdan bo‘lib, keyingi qavatlar ohaktosh va sementdan k‘otarildi. Qizil rangli g‘isht kashf qilindi. 200 ming tonna ohak tashib kelindi, 1 mln dona g‘isht ishlatildi. G‘isht zavodlari qurilib, ular tinimsiz konveyer usulida ishlatildi. Qurilishning o‘ninchi yili imperator Vespasian vafot etdi. Uning vorisi imperator Tit qurilishni ikki yil muddatda tugatdi. Ulug‘vor inshootning balandligi 50 metr bo‘lib, 80 minggacha tomoshabin kirishi mumkin edi. Amfiteatrda tomoshabin senatorlar, suvoriylar o‘tiradigan lojalar, keyin oddiy fuqaro uchun oxirgi yog‘och o‘rinlarda eng kambag‘allar o‘tirar edi. Amfiteatrda beshta kirish yo‘li bo‘lib, har bir kirish ma‘lum bir ijtimoiy qatlamga mo‘ljallangan. Kirib joylashuv yarim soat vaqtga mo‘ljallangan bo‘lib, kirish uchun bir necha yo‘laklar qilingan edi.

Rimliklar mohir kemasozlar bo‘lganlar. Karfagenning dengizdagi cheksiz hukmronligi, etrusklarning dengiz raqobatida yengilishi rimda kemasozlikning jadal rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Rim shahrining o‘zida ko‘p qirrali Ostiya dengiz porti qurildi. Ostiya porti verflar (kema quriladigan, ta‘mirlanadigan), doklar (port xo‘jaligi), omborlarga ega edi. Imperiya davrida dengiz bo‘yidagi har bir shaharning o‘z flotiliyasi bor edi. Dengiz portlari, gavanlar yaxshi jihozlangan edi. Fortifikatsiya inshootlari ham mustahkam bunyod qilinib, muntazam ta‘mirlab turilgan.

Boy rimliklarning hashamatli saroylari marmar kolonnalar, san‘at asarlari, mozaika, haykallar bilan bezatilgan va isitgichlarga ega edi. Kambag‘al fuqarolar esa ko‘p qavatli, hech qanday qulayliklarga ega bo‘lmagan, rejasiz qurilgan uylarda yashar edilar.

Rim san‘atining eng katta yutuqlaridan biri haykal-portretlar edi. Yunon haykallari barkamol fuqaro obrazini yaratgan bo‘lsa, Rim haykalida odamning o‘zi aynan ko‘rinishida bunyod qilingan edi.

Qadimgi odatga ko‘ra, rimliklar uylarida ajdodlarining mumniqoblarini saqlar edilar. Ilk davrda etrusklar jez haykallarni yaratdilar. Mil.avv. I asrdan jezning o‘rniga marmar ishlatila boshlandi. Rim haykaltaroshligining so‘nggi respublika asarlaridan «Orator», «Togatus», «Brut» haykallari, Mariy, Pompey, Sitseron, Kichik Katon va Sezarning byustlarini ko‘rsatish

mumkin. Bundan tashqari, ko'pgina imperator va malikalar, amaldor, sarkarda, shoir va faylasuflarning marmar byustlari saqlanib qolgan.

5. Ta'lim va fan. Rimda ta'limning birinchi bosqichi maktab edi. Maktablar xususiy bo'lib, davlat ta'lim jarayoniga aralashmas edi. Maktabda ishi yurishmagan, kelib chiqishi noma'lum bo'lgan kimsalar ham dars bergan. Boshlang'ich maktabda 7-12 yoshli bolalar o'qish-yozish, og'zaki sanashga o'rgatilar, o'qish faqat bir semestrni tashkil etgan. Keyingi o'qish pullik edi. O'rta maktabda olimlar, yozuvchi va adabiy tanqidchilar (ko'pincha ozod bo'lgan qul – yunonlar) grammatikani o'qitar edilar. Boy oilalarda bolaga 7 yoshidan yollangan qul-pedagog dars bergan. O'smirlar 12-16 yoshda grammatika va adabiyotni o'qitadigan maktabga borganlar. Bundan tashqari logika, arifmetika, geometriya, astronomiya fanlari va musiqaning ayrim unsurlarini o'rganganlar. 16 yoshdan o'smirlar notiqlik san'ati bo'yicha notiq o'qituvchilardan saboq olganlar. Notiqlik san'ati taniqli huquqshunosning rim huquqidan mashg'ulotlari bilan to'ldirilgan. Imperiya davrida o'qituvchilar, ayniqsa, notiq-ritorlar professor deb aytilgan. Rimlik notiqlik o'qituvchisi Kvintilian (milodiy I asr) birinchi professor bo'lgan va 68-yildan davlat ish haqi to'lagan. O'rta asrlarda professor unvoni universitet o'qituvchilari – doktor, magistrarga oliy malaka unvoni sifatida berilgan.

Antik davrda notiqlik maktablari mashhur bo'lib, 15-16 yoshli qobiliyatli o'quvchilar notiqlik san'atini o'zlashtirganlar. Imperiya davrida siyosiy notiq'larga o'rin qolmagani uchun notiqlik maktablari faxrli va daromadli kasb bo'lgan advokatlarni tayyorladi. Rim imperiyasining madaniy markazlari Rim, Aleksandriya, Pergam, Rodos, Afina va Massiliya shaharlari edi. Bu shaharlarda kutubxonalar, teatrlar va maktablar mavjud edi. Har bir shaharning o'z madaniy muhiti bo'lib, Rim shahri madaniyati inshootlariga taqlid qilinib, hashamli jamoa inshootlari barpo qilingan.

Tabiiy fanlar rivojlanib, qator ilmiy asarlar yozildi. Texnik bilimlarning nazariy asoslari yaratildi. Vitruviyning 10 jildli «Arxitektura to'g'risida», Sekst Yuliy Frontinning «Akveduklar to'g'risida», Aleksandryalik Geronning «Mexanika» asarlarida texnika sohasining nazariy asoslari tavsiflandi. Tiniq shisha kashf etilib, shishasozlik sohasi rivojlandi. Binolarni isitish tizimi yaratildi. Qurilishda sement kashf qilinib, qishloq

xo'jaligida suv tegirmonlari, vintli press va hosilni o'radigan mexanizm ixtiro qilindi. Strabonning 17 jildli «Geografiya»si, Pomponiy Melaning «Yer tuzilishi to'g'risida» nomli 3 jildli kitobi, Klavdiy Ptolemeyning «Geografiya bo'yicha yo'riqnoma» nomli 8 jildli asari, Kvintilinning «Notiqni o'qitish» 12 jildli notiqlik nazariyasi to'plami, Kolumellaning astronomiya bo'yicha «Qishloq xo'jaligi to'g'risida» nomli 12 jildli asarlari fan taraqqiyotining katta yutuqlari edi. I asr o'rtalarida Katta Pliniy (24–79-yillar) o'zining 37 jildli «Tabiatshunoslik» asarini yozdi. Bu asar ensiklopedik mazmunda bo'lib, fizika, geografiya, botanika, zoologiya, mineralogiya va boshqa fanlar bo'yicha ma'lumotlar beradi. Fiziolog Klavdiy Galen (129–199-yillar) va akusher hamda pediatr Soran shuhrat qozondilar. Avl Korneliy Sels «Fanlar» asarida dehqonchilik, ritorika, harbiy ish va tibbiyot to'g'risida turli ma'lumotlarni jamladi.

6. Tarix. Ilk imperiya davrida tarixiy asarlar va tarjimayi hol-lar yozish janri keng rivojlandi. Mil.avv. 59-yil – milodiy 17-yillarda Paviya shahrida yashagan notiq Tit Liviy lotin tilida «Shaharga asos solinganidan keyingi Rim tarixi» nomli 142 jildli tarix asarini yozdi. Tit Liviy voqealar bayonini mil.avv. 9-yilgacha olib bordi. Yangi era boshlarida Pompey Trog «Jahon tarixi»ni 44 jildda lotin tilida yozdi. Yana bir «Jahon tarixi» yunon tilida Yahudiya podshosi Irod I ning maslahatchisi damashqlik Nikolay tomonidan 144 jildda yozildi. Asarda voqealar mil.avv. IV asrgacha yoritilgan.

Mil.avv. I asrda Korneliy Nepot «Mashhur kishilar to'g'risida» biografik asarini yozdi. Mil.avv. I asr oxirida galikarnaslik Dionisiy «Rim qadriyatlari» nomli tarixiy asarini yozdi. Bizgacha bu asardan faqat 9 tasi yetib kelgan. Italiya va uning provinsiyalari tarixi va geografiyasi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar Strabonning «Geografiya» asarida (17 kitob) beriladi. Strabonning yana bir asari «Tarixiy yozishmalar» bizgacha yetib kelmagan.

Milodiy I asrda Velley Paterkulning «Jahon tarixi» nomli 2 jildli kitobi, notiq Valeriy Maksimning «Mashhur ishlar va so'zlar» nomli 9 kitobda tarixiy latifalar keltiriladi. Kvint Kursiy Ruf «Makedoniyalik Aleksandr tarixi» nomli 10 jildli kitob yozdi. Imperatorlar Vespasian va Titning klienti yahudiy Iosif Flaviyning 7 jildli «Yahudiya urushi tarixi», 20 jildli «Yahudiya qadimiyatlari» asarlari sharqiy provinsiyalar to'g'risida boy ma'lumotlar beradi. Davlat arbobi, tarixchi, yozuvchi Gay

Pliniy Sekund (24–79-yillar) san'at, madaniyat va fan soha- larida noyob ma'lumotlar to'plami – «Tabiiy tarix» nomli 37 jildli ensiklopedik asar yozdi. Bu ulkan asarda 500 muallif, 2 ming kitobdan olingan ma'lumotlar umumlashtirilgan. Tarixchi Publiy Tatsit (mil.avv. 58-120 yillar) prokurator oila- sida tug'ilgan, pretor (88 yil), konsul (97 yil), Osiyo provinsi- yasi prokonsuli (112/113-yillar). Tatsit 16 jildli «An'analar», 14 jildli «Tarix» asarlarini yozdi. Bu asarlar Yuliy Klavdiy va Flaviylar sulolalarining 14–96-yillardagi tarixini qamragan davrni aks ettiradi. Tatsitning «Germaniya» asari german qa- bilalarining ijtimoiy tuzumi, dini va turmushi to'g'risidagi ta- rixiy-geografik ocherk hisoblanadi.

Imperator Adrianning kotibi Gay Svetoniy Trankvill (70–140-yillar) «O'n ikki Sezar hayoti tasviri» asarida Sezardan Domitsiangacha bo'lgan Rim imperatorlarining biografiyasi to'plamini yaratdi. Tatsitning zamondoshi, 46–126-yillarda yashagan yunon yozuvchisi Plutarx 210 ta turli xil asarlar yozgan. Bizgacha ulardan 150 tasi yetib kelgan. Plutarx mash- hur yunon-rim arboblarning 50 biografiyasi, bitta makedon – Aleksandrning va bir fors – Artakresks I ning biografiyasini yozadi.

Makedoniyalik Appian 160–165-yillarda 24 jildli «Rim ta- rixi» asarini, Rim senatori Dion Kassiy Koksian (155–235-yillar) yunon tilida 80 jildli «Rim tarixi»ni yozdi. Dion Kassiyning bu kitobidan 25 jildi va ko'p sonli parchalar bizgacha yetib kelgan. Dion Kassiyning kichik zamondoshi Gerodian «Markdan keyin imperator hokimiyati» (Mark Avreliyning o'limidan so'ng Gor- dian III hukmronligigacha, 180–238-yillar) 8 jildli tarix kitobini yunon tilida yozdi.

Mashhur davlat arbobi Gay Yuliy Sezar (mil.avv. 100–44-yil- lar) Rim tarixiga oid bir necha asarlar yozdi. Bizgacha uning faqat «Galliya urushlari to'g'risidagi yozuvlar» (7 kitob) va «Fuqarolik urushi to'g'risidagi yozuvlar» (3 kitob) asarlari ye- tib kelgan. Tarixiy monografiya janrining asoschisi Gay Sal- lyustiy Krisp (mil.avv. 86–35-yillar) keksalik paytida «Katili- na fitnasi to'g'risida», «Yugurta urushi to'g'risida» hamda mil. avv. 78–67-yillar voqealarini qamrab olgan «Tarix» asarini yozgan.

III–IV asrlarning ikkinchi yarmida Rim tarixshunosligi tush- kunlikka yuz tutdi. IV asrda «Imperatorlar tarixi yozuvchilari»

nomi bilan II–III asrlar imperatorlari biografiyalari to‘plami paydo bo‘ldi. Bu to‘plam materiallarida Antoniyalar boshqaruv davridan imperiyaning yemirilish davriga o‘tishi yaqqol ko‘rsatiladi. So‘nggi mashhur Rim tarixchisi Ammian Martsellin (330–400-yillar) edi. Uning kelib chiqishi yunon bo‘lib, lotin tilida «Faoliyat» nomli 31 jildli tarixiy asarini yozdi. Bu asar Tatsit «Tarix»ini davom ettirib, 96–378-yillardagi voqealarni o‘z ichiga oladi. IV asrda so‘nggi imperiya davrining siyosati va mafkurasi tarixi bo‘yicha imperatorlarga maqtovlar, notiq Libaniyning nutq va xatlari paydo bo‘ldi. IV asrda xristian tarixshunosligining shakllanishi boshlandi. Xristian cherkovi tarixi bo‘yicha «Cherkov tarixlari» lotin va yunon tilida paydo bo‘ldi. Ularning orasida kesariyalik taniqli tarixchi va ilohiyotshunos Yevseyviyning «Buyuk Konstantin tarjimai holi» va «Cherkov tarixi» asarlari alohida o‘rin tutadi. Rimning parokandalik davri sabablarini xristian tarixchilari ham o‘z nuqtayi nazarlari bo‘yicha yoritdilar.

Rimliklarning turmush tarzi. Boy rimliklar hashamatli uylarda yashaganlar. Bu uylarning pollariga mozaika qoplanib, devorlariga tasvirlar tushirilgan. Faqat boylargina o‘z xususiy uylariga ega bo‘lganlar. Qolgan rimliklar ko‘p qavatli uylarda ijarada yashaganlar.

Har bir rim shahrida hammomlar (terma), jamoat hojatxonalari bo‘lgan. Hammom nafaqat cho‘milish joyi, balki uchrashuvlar, bitimlar tuziladigan, sport bilan shug‘ullanadigan joy ham bo‘lgan. Teatrlarga borish rimliklarning sevimli ishi bo‘lgan. Rimliklar hayotida oila muhim o‘rin tutgan. Oilaning boshlig‘i – pater (ota) katta hokimiyatga ega bo‘lgan. Qizlar 13 yoshda, o‘g‘il bolalar 14 yoshda unashtirilgan, o‘rtacha umr ko‘rish – 50 yoshga bormagan.

Rim shifokorlari fanni yaxshi bilmaganlar. Kasallar shifokorning kundalik tajribasi, xudoga ishonish va sehr-afsun bilan davolangan. Ko‘pchilik tabiiy vosita va dorilar o‘rniga qadimgi sharqdan kirib kelgan davolash ma’budi Eskulabga sig‘ingan. Jarrohlar, doylar, stomatologlar, ko‘z kasalligi bo‘yicha vrachlar bo‘lgan. Jarrohlar yaralarni, singan suyaklarni, hatto bosh miya qopqog‘ini ochib jarrohlik amaliyoti o‘tkazganlar. Jarrohlik amaliyoti vaqtida og‘riqni qoldirish uchun ko‘knoring suti ishlatilgan.

Rimliklar azart o‘yinlarini yaxshi ko‘rganlar. Ular ot poygalari, xo‘roz urushtirishlar va kubik tashlashga pul tikkanlar.

Lekin azart o‘yinlar bayramlardan tashqari paytda qonun bilan taqiqlangan.

Rimlik boy ayollar uchun yuz oqartirish rasm bo‘lgan. Shu sababli yuzni oqartirish uchun unga bo‘r yoki hatto zaharli oq qum ishqalangan. Ayollar sochlarini turmaklaganlar, erkaklar sochlarini kalta qirqib, yuzlarini silliq qilib qirib yurganlar.

Rimliklarning ko‘p kiyimlari jundan qilingan. Hind ip matolari, xitoy ipagi juda siyrak va nodir hisoblangan. Odatda, ko‘pchilik ko‘ylak – tunika kiygan. Obro‘li fuqarolar 6 metrli matodan toga kiyganlar. Qizlar turmushga chiqquncha oq rangda kiyinganlar, keyin esa yorqin bo‘yalgan kiyim kiyganlar. Senatorlar qizil yo‘l o‘tgan toga kiyganlar. Diktator ham shunday kiyim kiygan. Hokimiyatning boshqa vakillari: pretor, sudya, kvestor-xazinachilar, senzorlar ham oq toga kiyganlar.

Rimda kun 12 soatdan tashkil topgan. Boylar so‘rida yonboshlab ovqatlanganlar. Rimliklar ovqatni qo‘l bilan yeganlar. Sanchqi keyinroq 1400-yillarda paydo bo‘lgan. Angliyada XVII asrda ham sanchqi bo‘lmagan. Qoshiq kamdan-kam ishlatilgan. Nonning qattiq joyi qoshiq bilan bosilgan. Boy rimlik uchun nonushta non hamda suv aralashtirilgan vino, ba‘zida asal, pishloq va mevalardan iborat bo‘lgan. Kambag‘alning nonushtasi bo‘tqa yoki bir parcha non va nordon vinodan iborat bo‘lgan. Tushlik issiq yoki yaxna taomlar, baliq, meva, non va vinodan tashkil topgan. Asosiy ovqat kechki ovqat bo‘lgan. Taom salat yoki chig‘anoqlardan boshlanib, cho‘chqa, buzoq, tovuq yoki g‘ozning qovurilgan go‘shiti hamda dissertga mevali yoki asalli pecheniy yeyilgan. Mehmonlar ziyofatdan qolgan har qanday yog‘li bo‘laklarni uyga olib ketishlari mumkin bo‘lgan.

Dafn. Rimda mayitlar gulxanda yoqilgan. Rimliklar mayitlar tiriklarning ishlariga ta‘sir qiladilar, o‘zlari uchun belgilangan udumlarga tirik qarindoshlar mensimay qarasa o‘ch oladilar, deb hisoblaganlar. Vafot etgan ota o‘g‘illari uchun xudoga aylangan. O‘g‘il dafn gulxanidan otasining suyagini ko‘tarib, o‘lgan otasi xudoga aylanganini e‘lon qilgan. Erkaklar togasini kiyimagan o‘smirlar hech qanday marosimsiz tuproqqa dafn qilingan. Rim qonuniga ko‘ra, dafn marosimi va krematsiya shahar devoridan tashqarida o‘tkazilgan. Rim-

liklar qabrlar ustida ajoyib yozuvlar bilan sag'ana va mavzoleylar barpo qilganlar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Искусство Этрурии и Древнего Рима (Памятники мирового искусства). – М.: 1982.
2. Античная литература. Рим. Хрестоматия. – М.: 1981.
3. Общественно-политические и философские учения Древней Греции и Рима. Практикум для студентов-заочников исторических факультетов пединститутов. – М.: 1976, тема 2.
5. История Римской литературы/Под ред. Н. Ф. Дератани. – М.: 1954.
6. Кнабе Г. С. Корнелий Тацит. – М.: 1981.
7. Культура Древнего Рима. Под ред. Е. С. Голубцовой. – М.: 1985. Т. I-II.
8. Немировский А. И. Идеология и культура раннего Рима. – Воронеж: 1964.
9. Соколов Г. И. Искусство Древнего Рима. – М.: 1971.
10. Утченко С. Л. Политические учения Древнего Рима. III-I вв. до н. э. – М.: 1977.

Asosiy sanalar

| | |
|------------------|--|
| Mil.avv. 240-yil | Rim adabiyotining vujudga kelishi. |
| Mil.avv. III asr | Tit Liviy Andronik Gomerning «Odissey» poemasini lotin tiliga tarjima qildi. |
| Mil.avv. 304-yil | Ilk Rim adabiy asari hisoblangan Rim kalendari tuzildi. |
| Mil.avv. III asr | Kvint Enniy «An'analar» asarini yozdi. |
| Mil.avv. 55-yil | Mars maydonida toshdan birinchi amfi-teatr – «Pompeya» qurildi. |
| Milodiy II asr | Provinsiyalarda hunarmandchilik rivojlandi. |
| Milodiy II asr | Rimda ulkan Trayan bozori qurildi. |
| Milodiy II asr | Ptolemey Klavdiy yashagan davr. |

IZOHLI MA'LUMOTLAR

RIM SHAXSIY ISMLARI

1. Aulus (Avl)
2. Appius (Appiy)
3. Gaius (Gay)
4. Gnaes (Gney)
5. Decimus (Desim)
6. Kaeso (Kezon)
7. Lucius (Lusiy)
8. Marcus (Mark)
9. Manius (Maniy)
10. Mamercus (Mamerk)
11. Numerius (Numeriy)
12. Publius (Publiy)
13. Quintus (Kvint)
14. Sextus (Sekst)
15. Servius (Serviy)
16. Spurius (Spuriy)
17. Titus (Tit)
18. Tiberius (Tiberiy)

RIM O'LVCHOV BIRLIKLARI

Uzunlik o'lchovlari

Digitus = $\frac{1}{16}$ pes = 0,0185 m

Palmus = $\frac{1}{4}$ = 0,0740 m

Pes = 0,2963 m

Palmipes = 1 pes + 1 palmus = 0,3703 m

Cubitus = 1 pes + 2 palmus = 0,4443 m

Cradus = $2 \frac{1}{2}$ pes = 0,7407 m

Passus = 5 pes = 1,4815 m

Pertica = 10 pes = 2,9630 m

Mille = 1000 passu = 1481,5 m

Maydon hajmi

Pes quadratus = 0,088 m²

Actus quadratus = 12,591 a

Iugerum = 25,182 a

Centuria = 50,364 ga

Sochiluvchi mahsulot o'lchovlari

Modius = 8,754 l

Se (mi) modius = $\frac{1}{2}$ modius = 4,377 l

Sextarius = $\frac{1}{16}$ modius = 0,547 l

Hemina = $\frac{1}{32}$ modius = 0,2736 l

Suyuqlik o'lchovlari

Cyathus = 0,0456 l

Acetabulum = 1 $\frac{1}{2}$ siata = 0,0684 l

Quartarius = 3 siata = 0,1368 l

Hemina cotyla = 6 siata = 0,2736 l

Sextarius = 12 siata = 0,5472 l

Congius = 6 sextarius = 72 siata = 3,2832 l

Urna = 4 kongiy = 288 siata = 13,1328 l

Amphora cadus = 8 kongiy = 576 siata = 26,2656 l

Culleus = 20 amfor = 525,27 l

Og'irlik o'lchovlari

Libra = 12 unsiy = 327,45 g

Deunx = 11 unsiy = 300,16 g

Dextans = 10 unsiy = 272,88 g

Dodrans = 9 unsiy = 245,59 g

Bes = 8 unsiy = 218,30 g

Septunx = 7 unsiy = 191,02 g

Semis = 6 unsiy = 163,73 g

Quincunx = 5 unsiy = 136,44 g

Triens = 4 unsiy = 109,15 g

Quadrans = 3 unsiy = 81,86 g

Sextans = 2 unsiy = 54,58 g

Sescuncia = 1 $\frac{1}{2}$ unsiy = 40,93 g

Uncia unsiy = 27,288 g

Semuncia = $\frac{1}{2}$ unsi = 13,644 g

Sicilicus = $\frac{1}{4}$ unsi = 6,822 g

Sextula = $\frac{1}{6}$ unsi = 4,548 g

Seripulum = $\frac{1}{24}$ unsi = 1,137 g

Siliqua = $\frac{1}{144}$ unsi = 0,189 g

Rim tangasi 268-yilgacha

As libralis = 12 unsiy = 327,45 g

Semis = $\frac{1}{2}$ ass = 163,73 g

Triens = $\frac{1}{3}$ ass = 109,15 g

Quadrans = $\frac{1}{4}$ ass = 81,86 g

Sextans = $\frac{1}{6}$ ass = 54,58 g

Uncia = $\frac{1}{12}$ ass = 27,288 g

268-yildan mil.avv. 217-yilgacha

As trientalis = 4 unsiy = 109,15 g

Sestertius = $2 \frac{1}{2}$ assa = 1,09 g

Quinarius = 5 asslar = 2,18 g

Denarius = 10 asslar = 4,37 g

Mil.avv. 217-yildan

As uncialis = 1 unsi = 27,288 g

Sestertius = 4 ass = 1,00 g

Denarius = 16 asslar = 4,00 g

Imperiyaning oltin tangasi

Nummus aureus = 100 sestertsiy

Aureus Avgust = 7,96 g

Aureus Mark Avreliyniki = 7,28 g

Aureus Karakallaniki = 6,55 g

So'nggi imperiya tangalari

Follis = 72 oltin solit = 1 libra = 327,45 g

Follis = 125 kumush miliarens = 1,74 libra = 586,75 g

Rim xudolari

1. Yupiter – osmon, chaqmoq va yashin xudosi, Rim bosh xudosi.
2. Yunona – Yupiterning rafiqasi, nikoh va hosildorlik maʼbudasi.
3. Yanus – uyga kirish va chiqish, har qanday ishning boshlanish xudosi, ikki yuzli qilib tasvirlangan.
4. Saturn – odamlarni denqonchilikka, uzumchilikka oʻrgatgan, moʻl-koʻlchilikni beradigan ekinlar xudosi.
5. Mars – urush xudosi, fuqaro jamoasi himoyachisi.
6. Neptun – namlik, dengizlar xudosi, yilqichilik homiysi.
7. Nenerva – donolik maʼbudasi, hunarlar va sanʼatlar homiysi.
8. Venera – sevgi va goʻzallik, hosildorlik maʼbudasi.
9. Diana – ov va ovchilik maʼbudasi, yovvoyi hayvonlar homiysi.
10. Merkuriy – savdo, foyda, chorvachilik xudosi, choʻponlar, savdogarlar, sayyohlar homiysi.
11. Serera – hosildorlik va dehqonchilik maʼbudasi.
12. Pluton – yer osti dunyosi va oʻliklar xudosi.
13. Prozerpina – Plutonning rafiqasi, doʻzax, oʻsimliklar oʻsi-shi va yer hosildorligi maʼbudasi.
14. Vesta – uy oʻchogʻi va olov xudosi.
15. Vakx – oʻsimlik, uzumchilik, vinochilik xudosi.
16. Flora – oʻsimlik, gullar va oʻsmirlik maʼbudasi.
17. Fortuna – taqdir, tasodif, baxt va omad maʼbudasi.
18. Kons – yetilgan non va oʻrim, dono qarorlar xudosi.
19. Ops – Konsning rafiqasi, ekinlar va moʻl-koʻlchilik maʼbudasi.
20. Silvan yoki Favn – oʻrmonlar va dalalar xudosi, podalar va choʻponlar homiysi.
21. Tellura – yer va hosildorlik maʼbudasi.
22. Vulkan – olov va temirchilik kasbi xudosi.
23. Termin – chegara, oraliq belgilari xudosi.
24. Bellona – urush maʼbudasi.
25. Reya Silviya – Rimning afsonaviy asoschilari Romul va Rimning onasi.
26. Bona Dea – ezgu taqdir, hosildorlik ayol maʼbudasi, ayollarning homiysi.
27. Sivillalar – afsonaviy bashoratchi ayollar.
28. Penatlar – uy ombori va u yerda saqlanadigan oziq-ovqatlar xudosi.
29. Lara – oila va xoʻjalik xudosi.

30. Manalar – oʻlgan ajdodlarning ilohiylashtirilgan ruhlari, hayot boʻlgan avlodlar homiysi.
31. Geniy – ezgu ruh, alohida kishining saqlovchisi.
32. Lemurlar (larvalar) – ajina, hayot boʻlgan avlodlarni taʼqib qiladigan oʻlgan ajdodlarning yovuz ruhlari.
33. Eskulap – davolash xudosi.

Rim imperatorlari roʻyxati

Oktavian – mil.avv. 27-yil – milodiy 14-yil

Avgust – mil.avv. 27-yil – milodiy 14-yil

Tiberiy – mil. 14–37-yillar

Kaligula – mil. 37–41-yillar

Klavdiy (I) – mil. 41–54-yillar

Neron – mil. 54–68-yillar

Galba – mil. 68–69-yillar

Oton – mil. 69-yil

Vitelliy – mil. 69-yillar

Vespasian – 69–79-yillar

Tit – 79–81-yillar

Domisian – 81–96-yillar

Nerva – 96–98-yillar

Trayan – 98–117-yillar

Adrian – 117–138-yillar

Antonin Piy – 138–161-yillar

Mark Avreliy – 161–180-yillar

Lusiy Ver – 161–169-yillar

Kommod – 180–192-yillar

Pertinaks – 193-yil

Didiy Yulian – 193-yil

Septimiy Sever – 193–211-yillar

Klodiy Albin – 193–197-yillar

Pesenniy – 193–194-yillar

Karakalla – 211–217-yillar

Geta – 211–212-yillar

Makrin – 217–218-yillar

Elagabal – 218–222-yillar

Aleksandr Sever – 222–235-yillar

Maksimian – 235–238-yillar

Gordian (I) – 238-yil

Gordian (II) – 238-yil

Pupien – 238-yil

Balbin – 238-yil
Gordian (III) – 238–244-yillar
Filipp Arab – 244–249-yillar
Filipp kichik – 247–249-yillar
Detsiy – 249–251-yillar
Detsiy – 251-yil
Gostilian – 251-yil
Trebonian Gall – 251–253-yillar
Voluzian – 251–253-yillar
Emilian – 253-yil
Valerian – 253–268-yillar
Gallien – 253–268-yillar
Postum – 258–268-yillar
Viktorin – 268–270-yillar
Gotlik Klavdiy (II) – 268–270-yillar
Tetrik – 270–273-yillar
Kvintill – 270-yil
Avrelian – 270–275-yillar
Tatsit – 275–276-yillar
Florian – 276-yil
Prob – 276–282-yillar
Kar – 282–283-yillar
Karin – 283–285-yillar
Numerian – 283–284-yillar
Diokletian – 284–305-yillar
Maksimian – 286–305-yillar, 307–310-yillar
Galeriy – 293–311-yillar
Konstantsiy (I) – 293–306-yillar
Karausiy – 286–293-yillar
Allekt – 293–296-yillar
Flaviy Sever – 305–307-yillar
Maksim Dayanov – 305–313-yillar
Maksensiy – 307–312-yillar
Aleksandr – 308–311-yillar
Litsiniy – 308–324-yillar
Konstantin (I) – 306–337-yillar
Konstantin (II) – 337–340-yillar
Konstantin – 337–350-yillar
Konstantsiy (II) – 337–361-yillar
Magnensiy – 350–353-yillar
Yulian – 361–363-yillar

Iovian – 363–364-yillar
Valentinian (I) – 364–375-yillar
Valent – 364–378-yillar
Gratsian – 367–383-yillar
Valentinian (II) – 375–392-yillar
Magn Maksim 383–388-yillar
Flaviy Viktor – 384–388-yillar
Yevgeniy – 392–394-yillar
Feodosiy (I) – 379–395-yillar

Rim provinsiyalari ro'yxati

1. Sitsiliya (mil.avv. 227-yil)
2. Sardiniya va Korsika (mil.avv. 227-yil)
3. Uzoq Ispaniya – Betika (mil.avv. 197-yil)
4. Yaqin Ispaniya – Tarrakon Ispaniyasi (mil.avv. 197-yil)
5. Makedoniya (mil.avv. 148-yil)
6. Afrika (mil.avv. 146-yil)
7. Osiyo (mil.avv. 130-yil)
8. Narbon Galliyasi (mil.avv. 120-yil)
9. Kilikiya (mil.avv. 92-yil)
10. Krit va Kirenaika (mil.avv. 75-yil)
11. Pont va Vifiniya (mil.avv. 74–66-yillar)
12. Suriya va Falastin (mil.avv. 63-yil)
13. Lugudun Galliyasi (mil.avv. 52-yil)
14. Belgika (mil.avv. 52-yil)
15. Akvitanিয়া (mil.avv. 52-yil)
16. Yangi Afrika – Numidiya (mil.avv. 46-yil)
17. Misr (mil.avv. 30-yil)
18. Illiriya (mil.avv. 27-yil)
19. Axaya (mil.avv. 27 yil)
20. Galatiya (mil.avv. 25-yil)
21. Luzitaniya (mil.avv. 19-yil)
22. Retsiya (mil.avv. 15-yil)
23. Norika (mil.avv. 15-yil)
24. Meziya (mil.avv. 25-yil)
25. Pannomiya (mil.avv. 10-yil)
26. Dalmatsiya (mil.avv. 6-yil)
27. Yuqori Germaniya (mil.16-yil)
28. Quyi Germaniya (mil. 16-yil)
29. Kappadokiya (mil.17-yil)
30. Kungitan Mavritaniyasi (mil.40–41-yillar)
31. Sezar Mavritaniyasi (mil. 40–41-yillar)
32. Likiya va Pamfiliya (mil. 43-yil)
33. Britaniya (mil. 44-yil)
34. Frakiya (mil. 44-yil)
35. Arabiston (mil.105-yil)
36. Dakiya (mil. 107-yil)

QADIMGI RIM TARIXI BO‘YICHA TAVSIYA ETILADIGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Немировский А.И., Ильинская Л.С., Уколова В.И. История Древнего мира. Греция и Рим. 2 т. – М.: Дрофа, 1996.
2. Пастернак А.В. История древней Греции и древнего Рима. Учебное пособие. – М.: 1999.
3. Ковалев С.И. История Рима. – Л.: 1948, 1986.
4. Машкин Н.А. История древнего Рима. – М.: «Высшая школа» 2006.
5. Моммзен Т. История Рима – М.: 1999.
6. Грант М. Цивилизация древнего Рима. – М.: 2003.
7. Куманецкий К. История культуры древней Греции и Рима. – М.: 1990.
8. Ю. В. Яковец. История цивилизаций. – М.: ВЛАДОС. 1997.
9. История древнего мира: Восток, Греция, Рим./И. А. Ладьянин и др. – М.: 2004.
10. Искусство Этрурии и Древнего Рима. (Памятники мирового искусства.) – М.: 1982.
11. Соколов Г.И. Искусство этрусков. – М.: 2002
12. Седаков С.Ю. Римское право. – М.: 2001.
13. Горьков С.Ю. Рим и Карфаген. Великая морская война. – М.: 2003
14. Дельбрюк Г. История военного искусства в рамках политической истории . I–II. – М., – Л.: 1936–1937.
15. Конноли П. Греция и Рим: энциклопедия военной истории. – М.: 2000.
16. Махлаюк А.В. Армия Римской империи. Нижний Новгород. 2000
17. Дементьева В.В. Римская магистратура военных трибунов с консульской властью. Ярославль. 2000.
18. Утченко С. А. Кризис и падение Римской республики. – М.: 1965.
19. Грант М. Римские императоры. Биографический справочник правителей Римской империи. 31 г. До н.э. – 476 г. Н.э. – М.: 1998.
20. Источники Витрувий Поллион, Марк. Десять книг об архитектуре/ Пер. Ф.А.Петровского. – М.: 2003.
21. Колосовская Ю.К. Рим и мир племен на Дунае. – М.: 2000.
22. Буркхардт Я. Век Константина Великого. – М.: 2003.

23. Казаков М.М. Христианизация Римской империи в IV в. – Смоленск: 2002.
24. Историки античности. I – II том. – М.: 1991.
25. Аппиан. Гражданские войны. – Л.: 1935.
26. Веллей Патеркул. Римская история. Вестник древней истории, 1983, №1, 2.
27. Луций Анней Флор. Эпитомы, с. 115-123.
28. Плутарх. Сравнительные жизнеописания, т. 3. Биографии Тиберия и Гая Гракхов. – М.: 1986.
29. Кнабе Г. С. Корнелий Тацит. – М.: 1981.
30. Утченко С. Л. Политические учения древнего Рима. – М.: 1977.
31. Античная литература. Рим. Хрестоматия. – М.: 1981.
32. Античная литература/Под ред. А. А. Тахо-Годи. – М.: 1980.
33. Голубцова Е. С. Идеология и культура сельского населения Малой Азии в I-III вв. – М.: 1977.
34. История Римской литературы/Под ред. Н. Ф. Дератани. – М.: 1954.
35. Культура Древнего Рима.(Под ред. Е. С. Голубцовой. – М.: 1985. Т. I-II.
36. Соколов Г. И. Искусство Древнего Рима. – М.: 1971.
37. Лосев А. Ф. Эллинистически-римская эстетика I-II вв. н. э. – М.: 1979.
38. Сергеенко Н. Е. Жизнь Древнего Рима. Очерки быта. – М., – Л.: 1964.

Kurs ishlari mavzulari

1. Krit davlati va jamiyati.
2. Krit madaniyati.
3. Gomerning «Iliada» va «Odissey» dostonlarida yunon jamiyati.
4. Afinada Solon islohotlari.
5. Perikl davrida Afina demokratiyasi.
6. Yunon shahar-davlatlarining shakllanishi.
7. Qadimgi Yunonistonda tiraniya.
8. Qadimgi yunon mifologiyasi
9. Qadimgi yunon teatri.
10. Makedoniyalik Aleksandrning Sharq yurishlari.
11. Ellin madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
12. Qadimgi Rim tarixi yozma manbalari.
13. Etrusk madaniyati va diniy e'tiqodi.
14. Tit Liviyning «Shaharga asos solinishidan Rim tarixi» – tarixiy manba sifatida.
 15. Rim podshohlik davrida: Serviy Tulliy islohotlari.
 16. Rim respublikasi magistraturasi.
 17. Rim respublikasida agrar masala (Gay Grakx, Tiberiy Grakxlar qonunlari).
 18. Rimda fuqarolik urushlari (mil.avv. 80–40-yillar).
 19. Rim respublikasining qulashi sabablari.
 20. Avgust prinsipati va uning mohiyati.
 21. Rim imperiyasining oltin davri.
 22. Tatsit tarixida Rim siyosiy hayoti.
 23. Rim tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.
 24. Rim va german qabilalari.
 25. Qadimgi Rim madaniyati taraqqiyotining asosiy bosqichlari.
 26. Klassik qulchilik.
 27. Rim shahar hayoti.
 28. Qadimgi Rim teatri.
 29. Rim mifologiyasi.
 30. Rim respublikasi davrida ijtimoiy tabaqalar.
 31. Rim poeziyasi.

Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi bo'yicha ushbu kurs ishlari ro'yxati bilan talabalar tanlovi cheklanmaydi. Talabalar kurs ishini mustaqil ravishda shakllantirib, ilmiy rahbarga mavzuni taklif qilish huquqiga egalar. Eng muhimi, tanlanadigan ma'lum mavzu bo'yicha manba va adabiyotlar miqdori yetarli bo'lishi lozim.

IZOHLAR

A

Annallar (lot.) – solnoma, yilnoma, voqealar yilma-yil yozib borilgan tarixnoma.

Antik (lot.) – qadimgi Yunoniston va Rim tarixi, madaniyati va san'atiga oid; antik san'at.

Areopag (yun.) – qadimgi Afinada oliy sud va nazorat organi. Majlislar o'tkaziladigan joy «Ares tepaligi» nomiga ko'ra shunday atalgan.

B

Braxman (hind.) – bramin, braxman-ma'juslar kohini. Hindistonda oliy kohinlar kasrasi.

Bule (yun.) – qadimgi yunon quldorlik shahar-davlatlarida ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi bo'lib, u davlat nazorati va moliyani boshqarish, savdoni nazorat qilish va tartibga solish, mansabdorlar faoliyatini kuzatish kabi turli ma'muriy vazifalarni bajargan. U boy va zodagon urug'lardan tashkil topgan. Afinada Bule 500 a'zodan tuzilgan (Besh yuzlar kengashi).

D

Dem (yun.) – Qadimgi Attikada o'z-o'zini idora qiluvchi jamoa okruglari.

Diktator (lot.) – Qadimgi Rimda urush yoki qo'zg'olonni bostirish kabi favqulodda voqea ro'y berganda Senatning qarori bilan konsul tomonidan tayinlanadigan to'la huquqli hukmdor. Uning vakolati 6 oydan oshmas edi.

G

Gerusiya (yun.) – bir qancha qadimgi yunon davlatlarida oqsoqollar kengashi bo'lib, davlat hayotida asosiy masalalarni hal qilgan. Spartada gerusiya – oliy siyosiy organ.

I

Ilotlar (yun.) – qadimgi Spartaning doriylar tomonidan bo'ysundirilgan dehqonlar aholisi. Ilotlar davlat mulki hisoblanib, spartaliklar egallagan yerga birlashtirilib qo'yilgan.

K

Kasta (lot. – portugal.) – toza, benuqson, boshqa toifa bilan aralashmagan toifa, tabaqa. Hindiston va Sharqdagi boshqa ba'zi mamlakatlarda nasab va imtiyozli huquqlari, urf-odatlar va kasb-hunarlariga qarab alohida tabaqaga ajralgan ijtimoiy guruh.

Kvestor (lot.) – qadimgi Rimda davlat xazinasini boshqargan mansabdor shaxs.

Kliyentlar (lot.) – qadimgi Rimda gallar va baʼzi qabilalarda ijtimoiy tabaqa boʻlib, mil.avv. VII asrda vujudga kelgan. Toʻla huquqli boʻlmagan kliyentlar patriitsiyalarga qaram boʻlib, ularning homiyligidan foydalanganlar.

L

Lotin Ittifoqi – mil.avv. VII asrda anʼanaga koʻra, tashkil topgan qadimgi Italiya 30 shahar (Latium) federatsiyasi. Mil. avv. VI asrda Lotin ittifoqida Rim shahri ustunlikka ega boʻlgan.

Lektorlar (lot.) – qadimgi Rim respublikasida oliy mansabdor shaxslarni kuzatib yuruvchi faxriy soqchilar.

O

Olimpiya oʻyinlari (yun.) – mil.avv. 776-yildan anʼanaga koʻra har 4 yilda bir marta Olimpiya shahrida xudo Zevs sharafiga oʻtkaziladigan bayram. Olimpiya oʻyinlari yugurish, disk uloqtirish, sakrash, poyga, kurash musobaqalaridan iborat boʻlgan.

Ostrakizm (yun.) – badargʻa, surgun, qadimgi Afinadagi xalq yigʻinlarida ovoz berishning maxsus shakli. Davlat uchun xavfli deb hisoblangan fuqarolarni yashirin ovoz berish yoʻli bilan badargʻa qilish. Bunda surgun qilinadigan kishilarning nomlari yozilgan sopol parchalari (ostrakonlar)ni tarqatish orqali ovoz toʻplagan. Kimning nomiga 6 ming va undan ortiq sopol parchasi toʻgʻri kelsa, u 10 muddat bilan Afinadan badargʻa qilingan. Ostrakizm mil.avv. 509–417-yillarda qoʻllanilgan.

P

Patriitsiy (lot.) – qadimgi Rimda zodagon, aslzoda, oqsuyak. Qadimgi Rimda butun hokimiyatga ega boʻlgan yerli boy va zodagonlar urugʻining aʼzosi.

S

Satrap (yun. – qad. fors.) – qadimgi fors podsholigida cheklanmagan hokimiyatdan foydalanuvchi viloyat noibi.

Senat (lot.) – qadimgi Rimda respublika davrigacha urugʻ oqsoqollarining yigʻini. Respublika davrida Senat oliy hokimiyatning davlat organi, hukmron-quldor aslzodalar quroli.

Sfinks (yun.) – qadimgi Misrda odam boshli, sher tanali ulkan tosh haykal. U firʼavn qudratini gavdalantirgan.

MUNDARIJA

BIRINCHI QISM

I BOB. QADIMGI SHARQ

| | |
|--|----|
| Kirish | 3 |
| Qadimgi Misr tarixini o'rganish. Qadimgi Misrda davlat va jamiyatning paydo bo'lishi | 15 |
| Qadimgi podsholik (mil.avv. XXVIII asrning oxiri – XXIII asrlar). O'rta podsholik (mil.avv. 2020 YIL – XVIII asr boshlari) | 29 |
| Yangi podsholik davrida buyuk Misr davlati (mil.avv. XVI–XI asrlar) | 39 |
| Misr chet elliklar hukmronligi davrida. So'nggi podsholik davrida Misr | 54 |
| Qadimgi Misr madaniyati | 68 |

II BOB. QADIMGI MESOPOTAMIYA

| | |
|---|-----|
| Mesopotamiyada davlat va jamiyatning paydo bo'lishi. Shumer shahar-davlatlari. Shumer-Akkad davlati | 91 |
| Bobil miloddan avvalgi II – I ming yilliklarda | 102 |
| Shumer-Bobil madaniyati | 114 |

III BOB. QADIMGI DAVRDA KICHIK OSIYO

| | |
|--|-----|
| 1. Iqlim va aholi. 2. Ibtidoiy jamoa davri. 3. Frigiya. 4. Lidiya. 5. Urartu. | 125 |
| Xett davlati va jamiyati. Mitanni | 132 |
| Qadimgi Osuriya | 143 |
| Qadimgi Sharqiy O'rtayer dengizi davlatlari | 158 |
| Arabiston yarim orolining qadimgi davlatlari | 171 |
| Karfagen mil.avv. IX–III asrlarda | 179 |

IV BOB. SAK-SKIF SIVILIZATSIYASI

| | |
|--|-----|
| Qadimgi Afg'oniston | 200 |
| Qadimgi Eron | 212 |
| Qadimgi Janubiy Osiyo | 243 |
| Umumhind davlatining vujudga kelishi. «Klassik davr» (mil.avv. II asr – milodiy V asr) | 255 |
| Qadimgi Hindiston madaniyati | 265 |

V BOB. QADIMGI XITOIY

| | |
|---|-----|
| Qadimgi Xitoy madaniyati | 294 |
| Uzoq Sharq va janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari | 301 |
| Qadimgi Sharq tarixi bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar | 314 |
| Kurs ishlari mavzulari | 320 |

IKKINCHI QISM

I BOB. QADIMGI YUNONISTON.

| | |
|--|-----|
| QADIMGI YUNONISTON TARIXI | 321 |
| Egey madaniyati | 330 |
| Gomer davri Yunonistoni. | |
| Yunon shahar-davlatlarining shakllanishi..... | 343 |
| Sparta | 357 |
| Mil.avv. VII – VI asrlarda Attikada demokratiyaning shakllanishi | 367 |
| Mil.avv. V asrda Yunoniston | 376 |
| Mil.avv. V asr soʻnggi choragi – IV asrda Yunoniston. | |
| Polis tizimining tushkunligi..... | 388 |
| Qadimgi Yunon madaniyati..... | 395 |

II BOB. MAKEDONIYANING YUKSALISHI.

| | |
|--|-----|
| ALEKSANDR ISTILOLARI VA UNING OQIBATLARI | 412 |
| Ellin davlatlari | 424 |
| Ellin madaniyati | 441 |
| Qadimgi Yunon metrologiyasi Yunon uzunlik oʻlchovlari | 450 |
| Yunon pul birliklari | 450 |
| Qadimgi Yunoniston tarixi boʻyicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar | 451 |

UCHINCHI QISM

| | |
|--|-----|
| I BOB. QADIMGI RIM | 454 |
| Etrusklar. Rim podsholik davrida | 463 |
| Rim ilk respublika davrida..... | 476 |
| Rim Oʻrtayer dengizi davlati (mil.avv. III–I asrlar)..... | 495 |
| Rim Respublikasida ijtimoiy-siyosiy kurash | 511 |
| Rim Respublikasining ijtimoiy-siyosiy parokanda boʻlishi va respublikaning qulashi | 522 |
| Rim jamiyati va davlati ilk imperiya davrida | 538 |
| Rim imperiyasining oltin davri (milodiy II asr) | 548 |
| Soʻnggi imperiya davri (III–V asrlar)..... | 559 |
| Qadimgi Rim madaniyati..... | 572 |
| Izohli maʼlumotlar | 587 |
| Rim xudolari..... | 591 |
| Rim imperatorlari roʻyxati | 592 |
| Rim provinsiyalari roʻyxati | 595 |
| Qadimgi Rim tarixi boʻyicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar | 596 |
| Kurs ishlari mavzulari | 598 |

O'quv-uslubiy nashr

RAVSHAN RAJABOV

JAHON TARIXI

I qism

Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim

Muharrir

Gavhar MIRZAYEVA

Badiiy muharrir

Uyg'un SOLIHOV

Musahhih

Madina MAHMUDOVA

Texnik muharrir

Surayyo AHMEDOVA

Kompyuterda sahifalovchi

Dildora JO'RABEKOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.
Bosishga 2015-yil 9-sentabrda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1\16.
Bosma tobog'i 37,75. Shartli bosma tobog'i 48,93.
Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'ozi.
Adadi 200 nusxa. Buyurtma № 221.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278–30–52;
Marketing bo'limi – 128–78–43. faks – 273–00–14;
e-mail: yangiasravlodi@mail.ru